2-rasmda haroratning kvantlovchi magnit maydoni ta'sir etganda GaAs/AlGaAs (d=14 nm) kvant o'rali, to'g'ri sohali geterostrukturalarda ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligining fotonning yutuvchi energiyasiga bog'liqligiga ta'siri ko'rsatilgan. Bu yerda kvantlovchi magnit maydoni induksiya soni 9Tl ga teng va $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,T,d,N_L^{cv},n_Z))$ grafiklar 4 K, 20 K, 40 K, 60K, 77 K haroratlar uchun qurilgan. 2-rasmda ko'rinib turibdiki, harorat ortishi bilan Landau satxlarining keskin cho'qqilari silliqlana boradi va yetarlicha yuqori xaroratlarda diskret energetik holatlar zichliklari yaxlit energetik spektrlarga aylanadi. Ushbu natijalar kvant o'rasi qalinligi va magnit maydonlar o'zgarmas bo'lgan holat uchun olingan. Harorat ortishi bilan zaryad tashuvchilar Landau satxlarining keskin cho'qqilari silliqlana boradi (2-rasm) va $kT \approx \hbar\omega_c^{cv}$bo'lganda asta sekin yo'qolib ketadi. Shuningdek, yetarlicha yuqori $kT > \hbar\omega_c^{cv}$ $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu,\ E_{cv}^{2d}(B,T,d,N_L^{cv},n_Z))$ haroratlarda ular kvant yamasining yaxlit kombinatsiyalangan holatlar zichligiga aylanadi va kvantlovchi magnit maydonining ta'sirini sezmay qoladi [6-8].



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2-rasm. *B=9 Tl kvantlovchi magnit maydon ta'sirida, haroratning GaAs/AlGaAs (d=14 nm) kvant o'rali, to'g'ri sohali geterostrukturalarda ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligining fotonning yutuvchi energiyasiga bog'liqligiga ta'siri.*

Bundan tashqari, harorat ortishi bilan ruxsat etilgan kvant o'rasida elektronlar va teshiklar energiya sathlari kvantlanishi bilan bog'liq zaryad tashuvchilar Landau satxlarining keskin cho'qqilari ham asta sekin silliqlanadi. Bu T=40K, kT=3,5·10^{-3} eV, $kT \approx \hbar\omega_c^{cv}$ bo'lganda kvant o'rasining zaryad tashuvchilar diskret Landau satxlarining sezilmay qolishiga olib keladi. 77K haroratda, GaAs/AlGaAs kvant o'rasining ruxsat etilgan sohasida diskret Landau sathlari deyarli sezilmaydi va magnit maydoni bo'lmagan holdagi ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligi bilan bir xil bo'ladi [9-10].

Bundan kelib chiqadiki, kvant o'rasining o'tkazuvchan va valent sohalarida ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligi $kT < \hbar\omega_c^{cv}$ bo'lganda kuzatiladi. Haroratning $0.5kT \sim \hbar\omega_c^{cv}$ darajasidan boshlab kvant o'rasining ruxsat etilgan sohasi Landau sathlari kvantlanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligi kuzatilmaydi.

Xulosa

Bu holatda, o'lchashlar ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligining yaxlit spektrini beradi. ω_c^{cv} magnit maydonining siklotron chastotasi o'zgarishi kvant o'rasida zaryad tashuvchilarning diskret Landau sathlari orasidagi energetik masofani o'zgartiradi. Magnit maydon ta'sirida GaAs/AlGaAs (d=14 nm) kvant o'rali to'g'risohali geterostrukturalarda ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligining grafiklari keltirilgan. Ushbu rasmlardan ko'rinib turibdiki, kvantlovchi magnit maydoni induksiyasi ortishi bilan, zaryad tashuvchilarning diskret Landau sathlari cho'qqilarining o'zgarishiga ega bo'lamiz. Kvantlovchi magnit maydonining ikki o'lchovli elektron tizimlarga ta'siri kvant o'ralarda zaryad tashuvchilarni kvant ushlab turish natijasida paydo bo'luvchi juda qiziq fizik xususiyatlarni namoyish qiladi.

Ushbu kvant cheklash natijasida kvant o'rasidagi zaryad tashuvchilarning ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligi Van Xova singulyarligini namoyish qiladi. U yerda, ideal cheksiz nol o'lchamli panjara (kvant nuqta) bo'lgan holda, kombinatsiyalangan holatlar zichliklari energiyaning aniq qiymatlari uchun cheksizlikka intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stilbans L.S. Physics of semiconductors. Moscow, "Soviet Radio". 1967. pp. 416-421.
2. A.V.Mikhailov, A.V.Trifonov, O.S.Sultanov, I.Yu.Yugova, I.V.Ignatiev. Quantum beats of light and heavy-hole excitons in reflection spectra of GaAs/AlGaAs quantum well. Semiconductors. 2022, Vol.56, No.7, pp. 672-676.
3. U.I.Erkaboev, R.G.Rakhimov, N.A.Sayidov, J.I.Mirzaev. Modeling the temperature dependence of the density oscillation of energy states in two-dimensional electronic gases under the impact

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

of a longitudinal and transversal quantum magnetic field. Indian Journal of Physics. 2022. https://doi.org/10.1007/s12648-022-02435-8

4. Yu-Shou Wang, Nai-Chuan Chen, Chun-Yi Lu, Jenn-Fang Chen. Optical joint density of states in InGaN/GaN-based multiple-quantum-well light-emitting diodes. Physica B. 2011. Vol.406. pp. 4300–4303.

5. Ulugbek Erkaboev, Rustamjon Rakhimov, Jasurbek Mirzaev, Nozimjon Sayidov, Ulugbek Negmatov, Abdulla Mashrapov. Determination of the band gap of heterostructural materials with quantum wells at strong magnetic field and high temperature // Problems in the textile and light industry in the context of integration of science and industry and ways to solve them: (PTLICISIWS-2022) 5–6 May, 2022, Namangan, Uzbekistan, Volume 2789, Issue 1, JUNE 23 2023, https://doi.org/10.1063/5.0145556

6. Abdulazizov, B. T. (2022). Cyclotron mass of an electron in strong magnetic fields in a wide InAs quantum well. Eurasian Journal of Physics and Functional Materials, 6(1), 32-37.

7. B.T. Abdulazizov/Cyclotron mass of an electron in strong magnetic fields in a wide InAs quantum well/ Eurasian Journal of Physics and Functional Materials 2022, 6(1), 32-37, DOI: 10.32523/ejpfm.2022060103

8. Erkaboev, U.I., Gulyamov, G., Mirzaev, J.I., Rakhimov, R.G., Sayidov N.A. Calculation of the Fermi-dirac function distribution in two-dimensional semiconductor materials at high temperatures and weak magnetic fields // Nano, 2021, 16(9), 2150102, https://www.scopus.com/sourceid/11300153732

9. Erkaboev, U.I., Sayidov N.A., Negmatov, U.M., Rakhimov, R.G., Mirzaev, J.I. Influence of a quantizing magnetic field on the Fermi energy oscillations in two-dimensional semiconductors // International Journal of Applied Science and Engineering, 2022, 19(2), 2021123, https://www.scopus.com/sourceid/21100822732

10. Bozorov, K. N., Mamatkarimov, O. O., & Abdulazizov, B. T. (2022). Electric and ionic conductivity of potassium antimony tungstate with addition of alkali metals. «Узбекский физический журнал», 24(2), 129-132.

ISSN: 2181-0427

PVLIGHTHOUSE DA TURLI TEKSTURALARNING KREMNIY AOSSLI QUYOSH ELEMENTINING OPTIK XUSUSIYATLARIG TA'SIRINI MODELLASHTIRISH

A.A.Mirzaalimov, N.A.Mirzaalimov
Andijon davlat universiteti, Andijon 170100, O'zbekiston
E-mail: mirzaalimov90@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kremniy asosli quyosh elementining optik xususiyatlarini ularning yuzasida hosil qilingan to'g'ri va to'nkarilgan piramidal teksturalarning asosidagi burchagiga bog'liqligini PVLIGHTHOUSE onlayn platformasida modellashtirish orqali olingan natijlar tahlili keltirilgan. Olinagn natijalargha ko'ra to'g'ri piramidal teksturaning asosidagi burchagi 73.12^0 bo'lganda kremniy asoli quyosh elementi maksimal yutulish koeffitsientiga erishishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *tekstura, quyosh elementi, kremniy, piramida, yutulish koeffitsienti.*

МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ РАЗЛИЧНЫХ ТЕКСТУР НА ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СОЛНЕЧНОГО ЭЛЕМЕНТА НА ОСНОВЕ КРЕМНИЯ В *PVLIGHT HOUSE*

Мирзаалимов А.А., Мирзаалимов Н.А.
Андижанский государственный университет, Андижан 170100, Узбекистан
E-mail: mirzaalimov90@mail.ru

Абстракт. *В данной статье представлен анализ результатов, полученных при моделировании оптических свойств солнечных элементов на основе кремния на основе угла прямых и перевернутых пирамидальных текстур, сформированных на их поверхности на онлайн-платформе PVLIGHTHOUSE. По полученным результатам определено, что солнечный элемент на основе кремния достигает максимального коэффициента поглощения, когда угол основания правой пирамидальной текстуры составляет 73,12^0.*

Ключевые слова: *текстура, солнечный элемент, кремний, пирамида, коэффициент поглощения.*

MODELING THE EFFECT OF DIFFERENT TEXTURES ON THE OPTICAL PROPERTIES OF A SILICON-BASED SOLAR CELL IN *PVLIGHT HOUSE*

A.A. Mirzaalimov, N.A. Mirzaalimov
Andijan State University, Andijan 170100, Uzbekistan
E-mail: mirzaalimov90@mail.ru

Abstract. *This article presents the analysis of the results obtained by modeling the optical properties of silicon-based solar cells on the basis angle of the straight and inverted pyramidal textures formed on their surface on the PV LIGHT HOUSE online platform. According to the obtained results, it was determined that the silicon-based solar cell reaches the maximum absorption coefficient when the base angle of the right pyramidal texture is 73.12^0.*

Key words: *texture, solar cell, silicon, pyramid, absorption coefficient.*

Bugungi kunda yuqori foydali ish koeffitsientiga ega va tannarxi arzon quyosh elementlarini ishlab chiqarish uchun kremniy asosli quyosh elementlarini samaradorligini oshirishga bundan tashqari hozirgi kunda mavjud ushbu soxada ilmiy izlanishlar olib borayotgan quyosh elementlarini modellashtirish uchun mo'ljallangan dasturlar va platformalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan aniq maqsadli, turli ilmiy tadqiqotlarni, xususan quydagi ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim vazifalardan hisobalanadi: turli mono-, poli- va multikristall kremniyning xususiyatalrini va ularga temperatura kirishma konsentratsiyasini ta'sirni tadqiq qilish, quyosh elementlarini tadqiq qilishda keng foydalaniladigan dastur va platformalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, modellashtirish uslublaridan foydalanib yuqori foydali ish koeffitsientiga ega va stabil kremniy asosli quyosh elementlarini ishlab chiqish va ilmiy izlanishlarda foydalanish uchun tadbiq qilish.

O'zbekistonda "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari"dan elektr energiyasini ishlab chiqarishda keng foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari har bir sohada kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va ilmiy izlanishlarda IT salmog'ini oshirish muhim vazifaga aylandi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi PQ-3012 sonli "2017 — 2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" qaroriga va 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851 sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga ko'ra hamda mazkur faoliyatga tegishli meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Shunday qilib, kremniy va kremniy asosli quyosh elementlarining xususiyatlarini modellashtirish orqali o'rganish va yangi turdagi yuqori samarador kremniy asosli quyosh elementlarini loyihalash dolzarb va istiqbollidir.


Quyosh elementlarini yuzasiga tushayotgan yorug'lik nurini qaytib ketishini kamaytrish uchun uning yuzasida turli teksturalar ham hosil qilinadi [1] [2]. Bundan ikki xil maqsab bor. Birinchisi, yorug'lik tushayotgan yuzani orttirish ikkinchisi ikki tekstura orasida ko'proq sinishlarni yuzaga keltirib yutulishni oshirish [3] va qaytish koeffitsientini [4] kamaytirishdir. Quyosh elementlarini ishlab chiqarishda asosan orientatsiyasi (111) bo'lgan kremniydan foydalaniladi [5]. Ushbu kremniyni yuzasini ishqorlar bilan kimyoviy ishlov berilsa, yuzada asosidagi burchagi 54.7^0 bo'lgan to'g'ri piramidal teksturalar hosil bo'ladi [6]–[8]. Ushbu bobda, "*Wafer Ray Tracer*" yordamida asosidagi burchagi turlicha bo'lgan to'g'ri piramidal teksturalar bilan qoplangan kremniy asosli quyosh elementining optik xususiyatlari o'rganildi. Sof optika nazariyasiga tayangan holda hisoblanganda kremniy asosli quyosh elementining yuzasi asosidagi burchagi 73.12^0 bo'lgan to'g'ri piramidal teksturalar bilan qoplanganda uning yutulish koeffitsienti maksimal bo'lishi aniqlangan [9]. Lekin, *TCAD* dasturlaridan foydalanim teksturalangan kremniy asosli quyosh elementi kompleks o'rganilganda asosidagi burchagi 72.04^0 bo'lgan teksturalar bilan qoplanganda yutulish koeffitsienti maksimal qiymatga erishishi aniqlangan [10]. 1-rasmda asosidagi burchagi 54.7^0 (a) va 73.12^0 *(b)* bo'lgan to'g'ri piramidalar bilan qoplangan kremniy asosli quyosh elementining optic xususiyatlarini yorug'lik to'lqin uzunligiga bog'liqligi tasvirlangan. Piramidal teksturaning asosidagi burchagi ortganda quyosh elementining yutulish koeffitsienti ortib, qaytish koeffitsienti kamayadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Piramidaning asosidagi burchagi 73.12^0 bo'lganda to'lqin uzunligning 500-1000 nm oralig'ida yutulish koeffitsienti 100% ga yaqinlashgan.



(a)



(b)


Rasm 1. Asosidagi burchagi 54.7^0 *(a)* va 73.12^0 *(b)* bo'lgan to'g'ri piramidalar bilan qoplangan kremniy asosli quyosh elementining optik xususiyatlarini yorug'lik to'lqin uzunligiga bog'liqligi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Yuqorida optika qonunlariga va *TCAD* modellashtirishdan foydalanib quyosh elementining effektivligini quyosh elementini yuzasida hosil qilinayotgan to'g'ri piramidal teksturalarning asosidagi burchagiga bog'liqligi tadqiq qilinganda burchakning optimal qiymati turlicha bo'ldi. Bunga sabab, optika qonunlariga tayanib effektivlik hisoblanganda yuza rekombinatsiyasi hisobga olinmaydi. *TCAD* da modellashtirilganda esa optik parametrlarga qo'shimcha ravishda yuza rekombinatsiyasi ham hisobga olinadi. Piramidal teksturaning asosidagi burchagio ortganda yorug'lik tushadigan aktiv yuza ham ortadi. Demak, aktiv yuzaning ortishi yuza rekombinatsiyasini ortishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun, optika qonunlariga tayanib hisoblangan qiymatdan *TCAD* da hisoblangan burchakning qiymati 1.08^0 ga kam bo'lgan.


Quyosh elementining yuzasida hosil qilinayotgan teksturalar asosan ikki turga to'g'ri piramidal va to'nkarilgan piramidal teksturalarga bo'linadi. 2-rasmda monokristall kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini yuzasida hosil qilingan to'g'ri piramidal teksturaninig asosidagi burchagiga bog'liqligi tasvirlangan. To'g'ri piramida asosidagi burchak 0^0 dan 30^0 gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti juda oz 4% ga ortgan. Bunga sababikki piramida orasiga tushayotgan nur huddi planar yuzaga tushayotgani kabi bir marotaba sinib qaytib ketadi. Bu yerda fotogeneratsiy koeffitsientini ortishiga faqat aktiv yoritiladigan yuzani ortgani sabab bo'lmoqda. Piramida asosidagi burchagi 30^0 dan 45^0 gacha ortganda nur endi bir marta emas ikki marta sina boshlaydi. Shuning uchun fotogeneratsiya koeffitsienti keskin 20% ga ortgan. 45^0 dan 54^0 oralig'ida nur ikki piramida orasida ikki marta, 55^0 dan 63^0 gacha oralig'da 3 marta va 70^0 dan yuqori burchaklarda 4 marta sinadi. Yorug'lik asosidagi burchagi 70^0 dan 80^0 gacha bo'lgan piramidalar orasiga tushganda 4 marta sinadi. Tasavvur qilaylik, fotogeneratsiya koeffitsienti piramida asosidagi burchagining funksiyasi bo'lsin. Demak ushbu funksiya egri chiziqlarda iborat. Shuning uchun uning ekstremum nuqtalari mavjud bo'lishi shart. Ushbu g'oyaga tayangan holda nazariy tadqiqot olib borilganda kremniy asosli quyosh elementining yuzasida hosil qilinayotgan to'g'ri piramidal teksturaning asosidagi burchagi 73.12^0 bo'lganda maksimal yutulish koeffitsientiga erishishi aniqlangan. Shuningdek, «*PVLIGHTHOUSE*» ning "*Wafer Ray Tracer*" modulidan foydalanib asosidagi burchagi turlicha bo'lgan to'g'ri piramidal teksturalangan kremniy asosli quyosh elementi modellashtirilganda ham piramida asosidagi burchagi 73.12^0 bo'lganda maksimal fotogeneratsiya koeffitsientiga erishishi aniqlandi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



Rasm 2. Monokristall kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini yuzasida hosil qilingan **to'g'ri** piramidal teksturaninig asosidagi burchagiga bog'liqligi

To'g'ri piramidadan farqli ravishda to'nkarilgan piramidalarni hosil qilsih ham ommalashib bormoqda. To'nkarilgan priamidalar H_2O_2, NH_4HF_2 va polivinilpirollidon yordamida hosil qilinadi. To'nkarilgan piramidalar yupqa qatlamli kremniy asosli quyosh elementlari uchun yaxshi nur qaytarishga qarshi vosita hisoblanadi. Rasm 3 da monokristall kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini yuzasida hosil qilingan **to'nkarilgan** piramidal teksturaninig asosidagi burchagiga bog'liqligi tasvirlangan. To'nkarilgan piramida asosidagi burchagi 0^0 dan 45^0 gacah o'zgarganda fotogeneratsiya koeffitsientini o'zagarishi deyarli to'g'ri piramidal tekstura bilan qoplangan quyosh elementiniki kabi, faqat $45^0 – 80^0$ oralig'da farqlar mavjud.



Rasm 3. Monokristall kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini yuzasida hosil qilingan **to'nkarilgan** piramidal teksturaninig asosidagi burchagiga bog'liqligi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Yuqorida to'g'ri va to'nkarilgan piramidal tekstura bilan qoplangan kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini piramida asosidagi burchakka bog'liqligi tahlil qilindi. 1-jadvalda esa yuzasida asosidagi burchagi turlicha bo'lgan to'g'ri va to'nkarilgan piramidal teksturalar hosil qilingan kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientlari keltirilgan.

1-jadval

Kremniy asosli quyosh elementini yutulish koeffitsientini yuzasida hosil qilinayotgan piramidal teksturalarning asosidagi burchakka bog'liqligi

Nomi	0	15	30	45	54	60	70	80
To'g'ri piramida	55.39	56.25	59.95	80.39	82.19	87.15	89.68	92.3
To'nkarilgan piramida	55.39	56.60	59.63	79.81	82.99	87.06	90.07	91.99

Piramidalar asosidagi burchagi 54^0 va 70^0 dan tashqari barcha burchaklarda to'g'ri piramidal teksturalangan quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsienti yuqori bo'lgan. Yuqorida aytilganidk, asosan tajribada kremniy asosli quyosh elementining yuzasida kimyoviy yedirish orqali asosidagi burchagi 54.7^0 bo'lgan piramidalar hosil qilish mumkin. Shuning uchun tajribada asosan to'nkarilgan piramidal teksturalangan kremniy asosli quyosh elementining foydali ish koeffitsienti yuqori bo'ladi.

Xulosa. Quyosh elementlarini optik xususiyatlarini aniqlash uchun *PVLIGHTHOUSE* ning *Wafer Ray Tracer* moduli o'zlashtirildi va kremniy asosli quyosh elementining qalinligi ortganda yaqin infraqizil sohadagi nurlarni yutish koeffitsienti ham ortishi va yupqa kremniy asosli quyosh elementlarida asosan qisqa to'lqin uzunlikdagi yorug'lik nuri yutulishi aniqlandi. Kremniy asosli quyosh elementlari maksimal yorug'likni yutish uchun ularning yuzasiga nur qaytaruvchi qatlam sifatida qoplanadigan SiO_2, SiN_x, TiO_2 va Al_2O_3 materiallarning optimal qalinliklari 100 nm, 75 nm, 70 nm va 110 nm ekanligi hamda kremniy asosli quyosh elementi uchun eng effektiv nur qaytarishga qarshi qatlama TiO_2 ekanligi aniqlandi. Nazariy tahlillarga ko'ra nur qaytarishga qarshi qatlamning optimal qalinligi uning nur sindirish ko'rsatkichiga teskari proportsionalligi aniqlandi. Kremniy asosli quyosh elementining yuzasida hosil qilinayotgan to'g'ri piramidal teksturaning asosidagi 73.12^0 ga teng bo'lganda quyosh elementi maksimal yorug'lik yutish koeffitsientiga erishishi aniqlandi. Kremniy asosli quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsienti to'g'ri va to'nkarilgan piramidal teksturaning asosidagi burchaklar bog'liqligi deyarli bir xil ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] V. v. Iyengar, B. K. Nayak, and M. C. Gupta, "Optical properties of silicon light trapping structures for photovoltaics," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 94, no. 12, pp. 2251–2257, Dec. 2010.

[2] C. Haase and H. Stiebig, "Thin-film silicon solar cells with efficient periodic light trapping texture," *Applied Physics Letters*, vol. 91, no. 6, p. 061116, Aug. 2007.

ISSN: 2181-0427

[3] R. Saive, "Light trapping in thin silicon solar cells: A review on fundamentals and technologies," *Progress in Photovoltaics: Research and Applications*, vol. 29, no. 10, pp. 1125–1137, Oct. 2021.

[4] J. Gulomov and R. Aliev, "Influence of the Angle of Incident Light on the Performance of Textured Silicon Solar Cells," *Journal of Nano- and Electronic Physics*, vol. 13, no. 6, pp. 06036-1-06036–5, 2021.

[5] R. E. Oosterbroek *et al.*, "Etching methodologies in 〈111〉 -oriented silicon wafers," *Journal of Microelectromechanical Systems*, vol. 9, no. 3, pp. 390–398, Sep. 2000.

[6] M. Abbott and J. Cotter, "Optical and electrical properties of laser texturing for high-efficiency solar cells," *Progress in Photovoltaics: Research and Applications*, vol. 14, no. 3, pp. 225–235, 2006.

[7] Y. T. Cheng *et al.*, "Efficiency improved by acid texturization for multi-crystalline silicon solar cells," *Solar Energy*, vol. 85, no. 1, pp. 87–94, Jan. 2011.

[8] K. Kim, S. K. Dhungel, S. Jung, D. Mangalaraj, and J. Yi, "Texturing of large area multi-crystalline silicon wafers through different chemical approaches for solar cell fabrication," *Solar Energy Materials and Solar Cells*, vol. 92, no. 8, pp. 960–968, Aug. 2008.

[9] J. Gulomov and R. Aliev, "Analyzing periodical textured silicon solar cells by the TCAD modeling," *Scientific and Technical Journal of Information Technologies, Mechanics and Optics*, vol. 21, no. 5, pp. 626–632, Sep. 2021.

[10] Z. Fang, Z. Xu, D. Wang, S. Huang, and H. Li, "The influence of the pyramidal texture uniformity and process optimization on monocrystalline silicon solar cells," *Journal of Materials Science: Materials in Electronics 2020 31:8*, vol. 31, no. 8, pp. 6295–6303, Mar. 2020.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

SKALYAR TENZOR GRAVITATSIYA NAZARIYASI YECHIMLARINI STATIK SFERIK-SIMMETRIK REISSNER-NORDSTRÖM METRIKASIDA QO'LLASH

K.A.Bronnikov [1], Q.A.Badalov[2,3] , R.M.Ibadov[2], I.E.Nishonov [2], B.M. Rahmatov [2], U.J.Saydullayev[2]
[1]Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti Gravitatsiya va kosmologiya instituti, Moskva 117198, Rossiya, kb20@yandex.ru
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti, Samarqand 140104, O'zbekiston, ibrustam@mail.ru
[3]O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand 140107, O'zbekiston, kr.badalov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada i*xtiyoriy statik sferik-simmetrik metrikani ma'lum minimal bo'lmagan bog'lanish funksiyasi $f(\phi)$ va potensial $U(\phi)$ bilan gravitatsiyaning skalyar-tenzor nazariyasining (STN) aniq yechimi sifatida taqdim etish mumkinligi ko'rsatilgan. STNda skalyar maydon o'z holatini ma'lum koordinatalarida kanonik ko'rinishdan fantomga o'zgartirishi mumkinligi ko'rasatiladi. Biroq, STN ko'rinishi radial koordinataning to'liq sohasida emas, balki chegaralangan sohasida bo'lib, umumiy holda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. STN da Reissner-Nordström metrikasi misol sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *skalyar-tenzor nazariya, bog'lanish funksiyasi, statik sferik-simmetrik metrika, potensial, Reissner-Nordström metrikasi.*

APPLICATION OF SOLUTIONS OF SCALAR TENSOR THEORY OF GRAVITY IN STATIC SPHERICALLY SYMMETRICAL REISSNER-NORDSTRÖM METRICS

Abstract. *The article shows that an arbitrary static spherically symmetric metric can be represented as an exact solution of the scalar-tensor theory of gravity (STT) with a known non-minimal coupling function $f(\phi)$ and potential $U(\phi)$. The STT shows that a scalar field can change its state from canonical to phantom at certain coordinates. However, the STT view is not in the entire radial coordinate region, but in a limited region, which is generally important. From the point of view of STT, the Reissner-Nordström metric is considered.*

Key words: *scalar-tensor theory, coupling function, static spherically symmetric metric, potential, Reissner-Nordström metric.*

ПРИМЕНЕНИЕ РЕШЕНИЙ СКАЛЯРНОЙ ТЕНЗОРНОЙ ТЕОРИИ ГРАВИТАЦИИ В СТАТИЧЕСКИХ СФЕРИЧЕСКИ-СИММЕТРИЧНЫХ МЕТРИКАХ РЕЙССНЕРА-НОРДСТРЁМА

Аннотация. *В статье показано, что произвольная статическая сферически-симметричная метрика может быть представлена как точное решение скалярно-тензорной теории гравитации (СТТ) с известной неминимальной функцией связи $f(\phi)$ и потенциалом $U(\phi)$. В СТТ показано, что скалярное поле может менять свое состояние с канонического на фантомное в определенных координатах. Однако вид СТТ находится не во всей области радиальной координаты, а в ограниченной области, что в целом важно. С точки зрения СТТ рассматривается метрика Райсснера-Нордстрема.*

Ключевые слова: *скалярно-тензорная теория, функция связи, статическая сферически-симметричная метрика, потенциал, метрика Рейсснера-Нордстрема.*

Kirish

Gravitatsiya nazariyasining ba'zi so'nggi tadqiqotlariga ko'ra qiziqarli xususiyatlarga ega bo'lgan fazo-vaqt metrikasi shuni ko'rsatadiki, umumiy nisbiylik nazariyasi (UNN) yoki uning boshqa ko'rinishlarida maydon tenglamalari yechimi sifatida shu paytgacha olinmagan yechimlar ko'rib chiqilgan.

Ularning aksariyati nosingulyardir va kvant hodisalari tufayli tartibga solish natijasida kutilayotgan fazo-vaqtlarning mumkin bo'lgan fenomenologik tavsiflari sifatida yarim klassik gravitatsiya doirasida ham, kvant gravitatsiya kuchiga turli yondashuvlarda ham qo'llaniladi.

Simpson va Visser (SV) [1] Shvartsshild metrikasidagi $r = 0$ singulyarlikni yo'qotish uchun sferik radius r ni $r(x) = \sqrt{x^2 + b^2}$ ifodasi bilan almashtirishni taklif qildi, bu yerda $x \in R$ yangi radial koordinata. Bu almashtirishda $r(x)$ radius nol qiymatiga teng bo'lmaydi, ya'ni singulyarlik yo'q . Ushbu mulohazalardan nosingulyar metrika quyidagiga teng bo'ladi:

$$ds^2 = \left(1 + \frac{2m}{\sqrt{x^2+b^2}}\right) dt^2 + \left(1 + \frac{2m}{\sqrt{x^2+b^2}}\right)^{-1} dx^2 + (x^2 + b^2) d\Omega^2, \quad (1)$$
$$d\Omega^2 = d\theta^2 + \sin^2\theta d\phi^2.$$

Bunda m - massa va $|x|$ ning katta qiymatlarida Shvartsshildning asimtotik yechimiga kelinadi. ($r = 0$) singulyarlik o'rnida $x = 0$ da $r = b > 0$ radius regulyar minimumga ega bo'ladi.

Yuqoridagi (1) tenglamagi qavs ichidagi ifodani nolga tenglashtirib x ni topamiz. Ko'rishimiz mumkinki, agar $b > 2m$ bo'lsa $x = 0$ nuqtada bir bo'g'izli o'tkazuvchi yumronqoziq iniga, $b < 2m$ bo'lsa $x = \pm\sqrt{4m^2 - b^2}$ nuqtada oddiy ikki qutbli regulyar qora tuynukga, $b = 2m$ bo'lsa $x = 0$ nuqtada bitta ekstremal qutbga ega regulyar tuynukga keladi.

Shunga o'xshash regulyarizatsiyalar Reissner-Nordström [2] va boshqa singulyar metrikalar [3] uchun olingan. SV almashtirishi metrikaning ma'lum bir parametrini almashtirishtirish orqali singulyarlikdan (qaralayotgan metrikada nol qiymatda singulyarlikka mos keladi) qutilishga keladi. Nol qiymatga ega bo'lmagan $\sqrt{u^2 + b^2}$ ifodada $b > 0$ regulyarizatsiya parametri bo'ladi.

Xususan, bu kvant gravitatsiya kuchining mumkin bo'lgan ta'sirini klassik doirada tasvirlashning oddiy usuli sifatida ko'rinadi va har qanday noma'lum kvantlash tafsilotlarini e'tiborga olmaydi. Shuning uchun shu tarzda paydo bo'ladigan yangi geometriyalar doimo ahamiyatga ega bo'ladi va katta qiziqish uyg'otadi. Bunday geometriyalarning statsionar aylanadigan holi [4-6] mualliflar tomonidan o'rganilgan.

Ushbu maqolada umumiy mulohaza yuritishimiz uchun turli xil statik va sferik-simmetrik fazo-vaqtlarda quyidagi metrika qaraladi:

$$ds^2 = A(x)dt^2 - \frac{dx^2}{A(x)} + r^2(x)d\Omega^2, \quad (2)$$

bu yerda metrika kvaziglobal radial koordinata x deb ataladigan shartlarda yozilgan [4]. (2) tenglama qora tuynuk va yumronqoziq inlarida fazo-vaqtlarni tavsiflashga mos keladi. Agarda $r(x)$ finit bo'lsa, gorizontal qora tuynuk $A(x)$ ning regulyar nollariga mos keladi. $A(x) > 0$ da $r(x)$ regulyar minimumida esa bo'g'izga ega bo'lgan yumronqoziq inlariga to'g'ri keladi. Agar $A(x) < 0$ sohada $r(x)$ minimal qiymatga ega bo'lsa "qora sakrash" (a black bounce) deb ataladi [1]. Gorizont ($A(x) = 0$) ga to'g'ri keladigan $r(x)$ ning minimal qiymati esa "qora bo'g'iz" deb atalgan [5].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Eynshteyn tenglamasiga (2) metrikani qo‘ysak anizotrop suyuqlikning energiya-implus tenzoriga $T_{\mu}^{\nu} = \mathrm{diag}(\rho, -p_r, -p_{\perp}, -p_{\perp})$ keladi, bu yerda ρ zichlik, p_r radial bosim va $p_{\perp}$ tangensial bosim. Biroq, regulyar fazo-vaqtlarda SVning metrikasidan foydalanish muhimroq. Bunda Lagranj formalizmi orqali ularning barqarorlik xossalarini o‘z ichiga olgan dinamikasini o‘rganish imkonini beradi. [5-6] dan ikkita xususiyat: birinchisi gravitasiya bilan minimal bog‘langan o‘z-o‘zidan ta’sir qiluvchi skalyar maydon, ikkinchisi esa Lagranj funksiyasi $L_e = L_e(F)$ (bu yerda $F = F_{\mu\nu}F^{\mu\nu}$, $F^{\mu\nu}$ - elektromagnit maydon tenzori) bo‘lgan chiziqli bo‘lmagan elektromagnit maydonni o‘z ichiga olgan energiya-implus tenzori bilan Eynshteyn tenglamalarining aniq yechim uchun erkin statik, sferik simmetriyaga ega metrikani olish mumkin. Ma'lum bo‘lishicha, skalyar maydon yoki elektromagnit maydonning o‘zi ixtiyoriy metrikani, shu jumladan uning SV ga o‘xshash misollarini ham hisobga olmaydi, chunki ularning energiya-implus tenzorlari simmetriya xususiyatlariga ega: elektromagnit maydonlar uchun $T_t^t = T_{\theta}^{\theta}$ va skalyar maydonlar uchun $T_t^t = T_x^x$. Shu bilan birga, ularning kombinatsiyasi har qanday statik, sferik-simmetrik metrikaning manbasini olish imkonini beradi [7-9].

Yumronqoziq inlari yoki qora sakrashlarni (yoki ikkalasini ham) o‘z ichiga olgan metrikada fantom maydonining mavjudligi zarur bo‘ladi, chunki mos keladigan enegiya-impuls tenzorining nol energiya holatini buzishi kerak. Bu Shvartsshild va Reissner-Nordström metrikasining SV regulyarizatsiya uchun olingan maydon manbalarining aniq shakllarini ko‘rsatadi [5]. Biroq, umumiy holatda, skalyar maydon faqat kanonik (ya’ni musbat kinetik energiya bilan) yoki faqat fantom (manfiy kinetik energiya bilan) bo‘lishi mumkin emas, balki bir sohadan ikkinchisiga o‘tganda o‘z tabiatini o‘zgartirishi kerak [10]. Bunday skalyar kuchli maydonda fantom va boshqa joylarda kanonik bo‘lib qoladi. Bunday skalyar "trapped ghost" deb nomlanadi va yumnonqoziq inlari va oddiy qora tuynuklarni o‘z ichiga olgan bir qator global regulyar fazo-vaqtlarini olish uchun ishlatiladi [11]. Xususan, umumlashtiruvchilar ("qora koinot") sof fantom skalyar orqali oddiy regulyar yumronqoziq inlari va qora tuynuk yechimlari olingan [12]. Bundan tashqari, skalyar maydon o‘z tabiatini o‘zgartiradigan o‘tish sirtlari qora tuynuk va yumronqoziq inlari modellarida barqarorlashtiruvchi ekanligi ko‘rsatildi [13]. UNN dagi kanonik massasiz skalyar maydon uchun Fisher yechimining SV ga o‘xshash regulyarizatsiyasi [14] hamda o‘zaro ta’sir qiluvchi massasiz elektromagnit va skalyar va [15] maydonlarga ega bo‘lgan dilatonik qora tuynuk yechimlarining kichik to‘plami misol sifatida qarash mumkin. Ikkala holatda ham mos manbalarda chiziqli bo‘lmagan elektromagnit maydon va "trapped ghost" skalyar maydoniga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada shu ikkita maydon kombinatsiyasidan iborat bitta maydonga ega bo‘lgan ixtiyoriy statik sferik-simmetrik fazo-vaqtning maydon tavsifini olishga harakat qilingan. Bunda skalyar maydon va fazo-vaqt egriligi o‘rtasidagi minimal bo‘lmagan bog‘lanishni yangi erkin bosqich sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Boshqacha qilib aytganda, gravitatsiyaning skalyar-tenzor nazariyalaridan foydalanish ko‘rsatiladi. Bunday ko‘rinish haqiqatan ham mumkinligi va STN xarakteristikalarini olish algoritmi ko‘rsatiladi. (2) metrikada $A(x)$ va $r(x)$ ixtiyoriy bo‘lganda $f(\phi)$ - minimal bo‘lmagan bog‘lanish funksiyasi, $U(\phi)$ - potensial va $h(\phi)$ - kinetik bog‘lanish funksiyasidir. Ushbu algoritmning muhim xususiyati shundaki, $f = 0$ yoki $f = \infty$ bo‘lgan sirtlar bilan ajratilib turli

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sohalari bilan ishlanadi. Metrik signatura $(+\ -\ -\ -)$, $8\pi G = c = 1$ deb qabul qilgan hamda $G_\mu^\nu = R_\mu^\nu - \frac{1}{2}\delta_\mu^\nu R = -T_\mu^\nu$ Eynshteyn tenglamalaridan foydalanilgan.

Sferik-simmetrik fazo-vaqtlarning skalyar-tenzor nazariyasdagi ko‘rinishi

Umumiy Bergmann-Vagner-Nordvedt skalyar-tenzor gravitatsiya nazariyasi quyidagi ta’sir bilan tavsiflanadi [16-18]

$$S_{STN} = \frac{1}{16\pi}\int \sqrt{-g}d^4x\left[f(\phi)R + 2h(\phi)\phi^{,\alpha}\phi_{,\alpha} - 2U(\phi) + L_m\right] \quad (3)$$

bu yerda R - fazo-vaqtning skalyar egriligi, f, h va U skalyar maydon ϕ ning ixtiyoriy funksiyalari $f(\phi) > 0$ finitli (chunki effektiv gravitatsiya maydoni doimiysi $1/f$ ga proporsional), va L_m - gravitatsiyaga ega bo‘lmagan materiyaning Lagranj funksiyasi. $L_m = 0$ deb faraz qilsak va (3) ta’sir integralini variatsiyalasak maydon tenglamasi quyidagi ko‘rinishga keladi

$$\left(G_\mu^\nu + \nabla_\mu\nabla^\nu - \delta_\mu^\nu\Pi\right)f + h\left(2\phi_\mu\phi^{,\nu} - \delta_\mu^\nu\phi^{,\alpha}\phi_{,\alpha}\right) + \delta_\mu^\nu U = 0, \quad (4)$$

$$4h\Pi\phi + 2h_\phi\phi^{,\alpha}\phi_{,\alpha} - f_\phi R + 2U_\phi = 0, \quad (5)$$

bu yerda G_μ^ν Eynshteyn tenzori, $\Pi = \nabla^\mu\nabla_\mu$ Dalamber operatori, indeksdagi ϕ belgilash $d/d\phi$ hosilani ifodalaydi. Bianki ayniyati $\nabla_\nu G_\mu^\nu = 0$ dan foydalanilib (4) dan (5) tenglik olinadi. Bunda (5) tenglamlar (4) ning natijasi bo‘lganidan faqat (4) tenglamalarni ko‘rib chiqamiz.

(2) metrikadan Eynshteyn tenzorining nolga teng bo‘lmagan komponentlari quyidagiga teng:

$$G_t^t = \frac{1}{r^2}\left[-1 + 2\left(2rr' + r'^2\right) + A'rr'\right], \quad (6)$$

$$G_x^x = \frac{1}{r^2}\left[-1 + A'rr' + Ar'^2\right], \quad (7)$$

$$G_\theta^\theta = G_\varphi^\varphi = \frac{1}{r}\left[Ar'' + \frac{1}{2}A''r + A'r'\right] \quad (8)$$

Natijada (4) tenglamalar quyidagi uchta tenglamalarga keladi

$$fG_t^t + Af'' + f'\left(\frac{2Ar'}{r} + \frac{A'}{2}\right) + Ah\phi'^2 + U = 0, \quad (9)$$

$$fG_x^x + f'\left(\frac{2Ar'}{r} + \frac{A'}{2}\right) - Ah\phi'^2 + U = 0, \quad (10)$$

$$fG_\theta^\theta + Af'' + f'\left(\frac{Ar'}{r} + A'\right) - Ah\phi'^2 + U = 0, \quad (11)$$

bu yerda $\phi = \phi(x)$ faraz qilngan. Ushbu tenglamalarning uchta kombinatsiyasini quyidagicha tuzamiz:

$$f\left(G_t^t - G_\theta^\theta\right) = f'\left(\frac{A'}{2} - \frac{Ar'}{r}\right) \quad (12)$$

$$f(G_t^t + G_x^x) + Af'' + f'\left(\frac{4Ar'}{r} + A'\right) = -2U \quad (13)$$

$$f(G_t^t - G_x^x) + Af'' = -2Ah\phi'^2 \quad (14)$$

Agar $A(x)$ va $r(x)$ lar ma’lum silliq funksiyalar bo‘lsa va $r \neq 0$, G_μ^ν ning barcha komponentalari ham ma’lum va silliq bo‘ladi va (12) ni integrallab x koordinataga ega f ni topamiz. $f(x)$ ning ma’lum bo‘lganidan (13) dan foydalanib U ni va (14) dan $h\phi'^2$ ni aniqlash mumkin.

Oxirgi tenglikdan o‘zgaruvchining ixtiyoriyligidan $\phi(x)$ funksiyasini monoton funksiya sifatida ixtiyoriy tanlab olish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Natijada $f(x)$ va $U(x)$ larni ϕ ning funksiyasi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko‘rinishiga olib kelish mumkin. Bunday yondashuv umumiylikni buzmaydi, faqat skalyar maydon parametrlarini tuzatishiga olib keladi.

Keyin $h(x)$ va $h(\phi)$ osongina aniqlanadi va taklif etilayotgan metrika skalyar-tenzor nazariyasining vakuum yechimi sifatida taqdim etiladi. Agar $F(x)=\frac{A'}{2}-\frac{Ar'}{r}=0$ bo‘lsa $x=x_0$ nuqtada noaniqlikga ega bo‘ladi. Umuman olganda, bunday nuqtalarda $\left(G_t^t-G_\theta^\theta\right)\big|_{x_0}=G_0\neq 0$. Regulyar nol nuqtalarida $F(x)$ funksiya $k(x-x_0)^n$ kabi bo‘ladi, bu yerda $n\in N, k\in R$ va $k\neq 0$. Shuning uchun, x_0 nuqta atrofida $\ln f\approx\frac{G_0}{k}\int x^{-n}dx$ bo‘ladi. $x\to x_0$ da esa $\frac{G_0}{k}$ munosabatning ishorasiga qarab $f(\phi)$ nolga yoki cheksizlikka intiladi. Bundan skalyar-tenzor nazariya $x=x_0$ nuqtalarda ma’noga ega emas va faqat $F(x)=0$ bo‘lgan x oraliqda ma’noga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin. $G_t^t-G_\theta^\theta$ ning mumkin bo‘lgan nol nuqtalari hech qanday muammo keltirmaydi. Trivial holat $G_t^t-G_\theta^\theta=0$ ga $f=0$ mos keladi, ya’ni ixtiyoriy o‘z-o‘zidan ta’sir qiladigan $U(\phi)$ potensialga ega ϕ funksiya skalyar maydonda umumiy nisbiylik nazariyasining ixtiyoriy yechimlari bo‘ladi. Bundan tashqari, $f=const$ bo‘lsa, ϕ maydonining kanonik $(h>0)$ yoki fantom $(h<0)$ xususiyatini aniqlaydigan $h(\phi)$ funksiyaning qiymati o‘zgarmasligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday holat “trapped ghost” [10-11] deb nomlanadi. Bu yerda $h(\phi)$ fazo-vaqt singulyarligiga olib kelmasdan, qandaydir o‘tish yuzasida o‘z qiymatini o‘zgartiradi. Skalyar-tenzor nazariyasidagi $h(\phi)$ funksiyaning qiymati aniqlanmagan, biroq ϕ ning mumkin bo‘lgan fantom xususiyati bilan bog‘lanishi chiziqli emas va Eynshteyn konformal sistemasiga o‘tish bilan bog‘langan [17]. Xususan, skalyar-tenzor nazariyasidagi skalyar maydon fantom maydoni bo‘ladi, agarda

$$D(\phi)=2f(\phi)h(\phi)+\frac{3}{2}\left(\frac{df}{d\phi}\right)^2<0 \qquad (15)$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lsa. Masalan, Brans-Dik skalyar-tenzor nazariyasida $f=\phi, 2h=\frac{\omega}{\phi}$, va $D(\phi)=\omega+\frac{3}{2}$, bu yerda ω - Brans-Dikning bog‘lanish doimiysi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, $sign\, D(\phi)$ funksiya ϕ parametrizatsiyasi bo‘yicha bog‘liq emas: haqiqatan ham, $\phi(\psi)$ monotonik funksiyaga ega bo‘lgan boshqa ψ maydoniga o‘tishda $D(\psi)=D(\varphi)\left(\frac{d\phi}{d\psi}\right)^2$ olamiz.

Tahlil va natijalar

Vakuumdagi UNNning yechimini yoki minimal bog‘langan ϕ skalyar maydon yechimlarini hisobga olgan holdagi misollarni ko‘rib chiqish ahamiyatsiz, chunki u bunday STN ning eng oddiy misolidir. Masalan, $f=\text{const}, \phi=\text{const}$ va $U=\Lambda$ kosmologik doimiysi bo‘lganda Shvartsshild-(anti-) de Sitter metrikasini muhokama qilish ma’noga ega bo‘lmaydi. Brans-Dik nazariyasi yoki konformal bog‘langan skalyar maydonga ega UNN kabi ma’lum skalyar-tenzor nazariyasining har qanday yechimi haqida ham xuddi shunday deyish mumkin (masalan, $U=0$ bo‘lgandagi umumiy yechimlar uchun [19] ni qarang). Shu sababli quyidagi Reissner-Nordström metrikasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

Reissner-Nordström metrikasi (2) dan quyidagi ko‘rinishga ega

$$r(x)\equiv x, \qquad A(x)=A(r)=1-\frac{2m}{r}+\frac{q^2}{r^2}, \qquad (16)$$

bu yerda m Shvartsshild massasi, q - elektr yoki magnit zaryadi bo‘lishi mumkin. Bu (16) quyidagi energiya-implus tenzoriga ega sferik-simmetrik Maksvell elektromagnit maydonidagi Eynshteyn tenglamalarining yechimidir

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$T_\mu^\nu = \frac{q^2}{r^4} diag(+1,+1,-1,-1) \tag{17}$$

Bu ifodadagi Eynshteyn tenglamalarida $G_\mu^\nu = -T_\mu^\nu$ almashtirish natijasida (12)-(14) tenglamalar (16) ni e'tiborga olsak

$$\frac{2q^2}{r^4} f = \frac{r^2 - 3mr + 2q^2}{r^3} f' \tag{18}$$

$$\frac{2q^2}{r^4} f - \frac{r^2 - 3mr + 2q^2}{r^2} f'' - \frac{4r^2 - 6mr + 2q^2}{r^3} f' = 2U \tag{19}$$

$$f'' = -2h\phi'^2 \tag{20}$$

bu yerda shtrix belgisi $\frac{d}{dr}$ ni bildiradi.

(18)-(20) larda $9m^2 > 8q^2$ shart o'rinli deb qabul qilsak, $r^2 - 3mr + 2q^2$ had ikkita haqiqiy ildizlar $(a,b) = \frac{1}{2}\left(3m \pm \sqrt{9m^2 - 8q^2}\right)$ ga ega bo'ladi. Aks holda $f(\phi)$ va boshqa kattaliklar uchun natijalar murakkabroq bo'ladi. Shunday qilib, $a + b = 3m$ va $ab = 2q^2$.


Endi (18) ni integrallab quyidagiga kelamiz:

$$f(r) = f_0 r|r-a|^{\frac{b}{a-b}} \cdot |r-b|^{-a(a-b)} \tag{21}$$


bu yerda $f_0 > 0$ – integrallash doimiysi. $U(r)$ potensial ifodasini esa (19) dan foydalanib topamiz:

$$U(r) = \frac{f(r)}{2} \frac{ab(2a^2 - 5ab + 2b^2)}{6r^2(r-a)^2(r-b)^2}, \tag{22}$$


endi $W(r,a,b) = {U(r)}/{f(r)}$ deb belgilab (22) quydagi grafiklarni hosil qilamiz:




1-rasm. Integrallash doimiysi musbat ya'ni $f_0 > 0$ bo'lgan hol uchun $f = f(r)$ funksiyaning ko'rinishi.



2-rasm. $U(r)$ potensial energiya va $f(r)$ funksiyalar nisbatini W deb belgilab olingan holdagi $W = W(r)$ funksiyaning ko'rinishi.





www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3-rasm. $h\phi'^2$ kinetik koeffisiyent va $U(r)$ potensial energiyalarning $f(r)$ va r larga bog‘liqligining uch o‘lchamli ko‘rinishdagi grafiklari. Bu yerda a va b lar $a+b=3m$ va $ab=2q^2$ ga teng.

(20) dan kinetik had ifodasini ham topishimiz mumkin:

$$h\phi'^2 = f(r)\frac{ab(3r-2a-2b)}{r(r-a)^2(r-b)^2} \qquad (23)$$

Umumiylikni yo‘qotmasdan, ϕ maydonining parametrlanishini tanlashimiz mumkin

$$\phi = \frac{1}{m}\arctan\frac{r}{m} \Rightarrow \phi' = \frac{1}{r^2+m^2} \qquad (24)$$

U holda $r = m\tan(m\phi)$ ekanligidan r funksiya sifatida hisoblangan $f(\varphi)$, $h(\phi)$ va $U(\phi)$ kattaliklar osonlik bilan ϕ o‘zgaruvchisiga aylantiriladi. $\phi'^2 > 0$ bo‘lgani uchun $h(\phi)$ ning qiymatini (23) dan foydalanib h, r lar orqali aniqlash mumkin. Bunda $3r-2a-2b = 3(r-2m)$ munosabatdan $r > 2m$ bo‘lganida $h > 0$ va $r < 2m$ bo‘lganida $h < 0$ bo‘ladi. (15) ifodadan $signD = sign(2r^2-4mr+q^2)$ ekanligini olamiz, shuning uchun $m-\sqrt{m^2-\frac{q^2}{2}} < r < m+\sqrt{m^2-\frac{q^2}{2}}$ da "fantom domen" paydo bo‘ladi. (21) dan skalyar-tenzor nazariyada Reissner-Nordström metrikasi $r \in (0,b)$, $r \in (b,a)$ va $r > a$ oraliqlarda har xil ekanligi kelib chiqadi.

Xususiy holatda $q = m$ (ekstremal Reissner-Nordström qora tuynugi) da $a = 2m, b = m$ va $U = 0$ bo‘ladi. Bu metrika $f(\phi) = 1-\frac{\phi^2}{6}$ va $h(\phi) = \frac{1}{2}$, $U = 0$ ga mos keladigan massasiz konformal bog‘langan skalyar maydonning umumiy nisbiylikni ifodalovchi skalyar-tenzor nazariyasining maxsus holatidagi yechim ekanligi bundan oldingi ishlardan ma’lum [19-20]. Haqiqatan ham

$$\phi = \frac{\sqrt{6}m}{r-m}, \quad f = \frac{r(r-2m)}{(r-m)^2} \qquad (25)$$

Bundan tashqari, (25) dan ekstremal Reissner-Nordström metrikasining skalyar-tenzor nazariyasida $r > 2m$, $r \in (m, 2m)$, $r < m$ oraliqlar alohida o‘rganiladi. Masalan, Eynshteyn sistemasiga o‘tish (yoki aksincha, Eynshteyn sistemasida skalyar-tenzor nazariyasi yechimini olish osonroq bo‘lgani uchun) $r > 2m$ oraliqda $f(\phi)$ faktor bilan konformal tahrirlash orqali amalga oshirilishi mumkin va bundan keyin to‘liq skalyar-tenzor nazariyasi yechimi $r \leq 2m$ ga qo‘shimcha kengaytma orqali olinadi.

Xulosa. Turli xil statik sferik-simmetrik metrikani Jordan sistemasida skalyar-tenzor nazariyasi tenglamalarining vakuumli yechimi (3) ga tadbiq etish mumkinligini ko‘rsatdik. $A = const \cdot r^2$ bo‘lganda $F(\phi) = A'/2 - Ar'/2 = 0$ tenglikdan $f(\phi)$ ni aniqlab bo‘lmaydi. $F = 0$ ning radial koordinatasi x ning umumiy qiymatlari mavjud bo‘ladi va bunday qiymatlar skalyar-tenzor nazariyasi tasavvurini turli sohalarga ajratib turadi. Bundan tashqari, f nol yoki cheksiz bo‘lgan umumiy singulyarlikka ega $f(\phi)$ konformal faktor bilan ko‘rib chiqilayotgan asosiy metrika parametrlari Eynshteyn sistemasiga mos keladi. Bu degani Eynshteyn sistemasi fazo-vaqtning faqat Jordan sistemasining bir sohasida ekanligini ko‘rsatadi. Yana bir umumiy fenomenon - $h(\phi)$ kinetik koeffitsiyenti manfiy bo‘lgan alohida sohalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu sohalar “trapped ghost” deb nomlanadi [11-13]. Qizig‘i shundaki, $D < 0$ bo‘lganda Reissner-Nordström fazo-vaqtidagi radiuslarning ba’zi sohalarida hech qanday ekzotik manbasi yo‘qligiga qaramasdan "ghost indicator" kuzatiladi. Boshqa tomondan, (1) metrikada fantom manba aniq bo‘lsa, kuchli maydon

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sohasidan tashqarida skalyar maydonning kanonik harakatini olamiz. Taklif qilinayotgan skalyar-tenzor nazariyasi tasvirining kamchiligi shundaki, $F = 0$ bo‘lgan x ning ajratuvchi qiymatlari umuman o‘rganilayotgan fazo-vaqtning fizik jihatdan ajralib turadigan sirtlari bilan aniq bog‘liq emas. Shunga qaramay, ushbu skalyar-tenzor nazariya tasvirining xususiyatlari muhim va potensial foydali bo‘ladi.

Minnatdorchilik

Mualliflar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga FZ-20200929385 raqamli “Eynshteyn tenglamalarining Qora tuynuklar (Black holes) va Yumronqoziq inlari (Wormholes) uchun yangi yechimlari” nomli ilmiy loyihani qo‘llab-quvvatlaganligi uchun chuqur minnatdorchilik bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Simpson and M. Visser, Black bounce to traversable wormhole, JCAP 02, 042 (2019).
2. E. Franzin, S. Liberati, J. Mazza, A. Simpson and M. Visser, Charged black-bounce spacetimes, JCAP 07, 036 (2021).
3. K. A. Bronnikov, Kodir Badalov, and Rustam Ibadov, Arbitrary Static, Spherically Symmetric Space-Times as Solutions of Scalar-Tensor Gravity, Gravitation and Cosmology, 2023, Vol. 29, No. 1, pp. 43–49.
4. K. A. Bronnikov and S. G. Rubin. Black Holes, Cosmology, and Extra Dimensions (2nd edition, World Scienti_c, 2021).
5. K. A. Bronnikov and R. K. Walia, Field sources for Simpson-Visser space-times, Phys. Rev. D 105, 044039 (2022); arXiv: 2112.13198.
6. K. A. Bronnikov, On black bounces, wormholes and partly phantom scalar fields, Phys. Rev. D 106, 064029 (2022); arXiv: 2206.09227.
7. Rustam Ibadov, Burkhard Kleihaus, Jutta Kunz and Sardor Murodov, Wormholes in Einstein-scalar-Gauss-Bonnet theories with a scalar self-interaction potential, Physical Review D 102, 064010 (2020).
8. Rustam Ibadov, Burkhard Kleihaus, Jutta Kunz and Sardor Murodov, Scalarized Nutty Wormholes, Symmetry 2021, 13, 89.
9. Ibadov, R., Kleihaus, B., Kunz, J., Murodov, S.Wormhole solutions with NUT charge in higher curvature theories (2022) Arabian Journal of Mathematics, 11 (1), pp. 31-41.
10. K. A. Bronnikov and S. V. Sushkov, Trapped ghosts: a new class of wormholes, Class. Quantum Grav. 27, 095022 (2010).
11. K. A. Bronnikov and J. C. Fabris, Regulyar phantom black holes, Phys. Rev. Lett. 96, 251101 (2006).
12. K. A. Bronnikov. Trapped ghosts as sources for wormholes and regular black holes. The stability problem. In: Wormholes, Warp Drives and Energy Conditions, ed. F.S.N. Lobo, Springer, 2017, p. 137-160.
13. I. Z. Fisher, Scalar mesostatic _eld with regard for gravitational effects, J. Eksp. Teor. Fiz. 18, 636 (1948); gr-qc/9911008 (translation into English).
14. K. A. Bronnikov and G. N. Shikin, On interacting fields in general relativity, Russ. Phys. J. 20, 1138-1143 (1977).
15. P. G. Bergmann, Comments on the scalar-tenzor theory, Int. J. Theor. Phys. 1, 25 (1968).

16. R. Wagoner, Scalar-tenzor theory and gravitational waves, Phys. Rev. D 1, 3209 (1970).
17. K. Nordtvedt, Post-Newtonian metric for a general class of scalar-tenzor gravitational theories and observational consequences, Astroph. J. 161, 1059 (1970).
18. K. A. Bronnikov, Scalar-tenzor theory and scalar charge, Acta Phys. Pol. B 4, 251 (1973).
19. J. D. Bekenstein, Exact solutions of Einstein - conformal scalar equations, Ann. Phys. (N.Y.) 82, 535 (1974).

INSON TANA HARORATI SENSORLARIDAN OLINGAN SIGNALLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH NATIJALARINI VIZUALLASHTIRISH

[1]Turakulov Azambek Abdullayevich
f.-m.f.n., Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Informatsion texnologiyalar” kafedrasi dotsenti.
E-mail: aturakulov1@mail.ru Tel:945044536
[2]Mullajonova Fotima Tuychiboyevna
texnika fanlari bo’yicha PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Informatsion texnologiyalari” kafedrasi dotsenti.
E-mail: fmullajonova@mail.ruTel:912952171

Аннотация: *Тадқиқот ишида инсон танасининг турли қисмларидаги ҳароратни бир вақтда ўлчаш натижаларини сигнал сифатида микроконтроллерга узатиш, уларни турли шовқинлардан тозалаш ва информатив параметрларини ажратиб олиш мақсадида рақамли ишлов бериш, параметрларни таҳлил қилиш натижаларини визуаллаштириш мақсадида SCADA тизимида фойдананувчи интерфейсини яратиш жараёнлари мухокама қилинган*

Калит сўзлар: *ҳарорат сигнали, сигналга рақамли ишлов бериш, фойдаланувчи интерфейси, SCADA SimpLight тизими, мониторинг, тана ҳарорати мониторинги қурилмаси.*

[1]Туракулов Аъзамбек Абдуллаевич
К.ф.-м.н., доцент кафедры “Информационные технологии” Наманганского инженерно-технологического института. E-mail: aturakulov1@mail.ru Tel:945044536
[2]Муллажонова Фотима Туйчибоевна
PhD по техническим наукам, доцент кафедры “Информационные технологии” Наманганского инженерно-технологического института.
E-mail: fmullajonova@mail.ru Tel: 912952171

Аннотация. *В исследовательской работе рассмотрены и обсуждены процессы измерения температур тела человека одновременно на нескольких точках, передача результатов измерения в микроконтроллер в качестве сигналов, цифровая обработка сигналов с целью очистки от различных шумов и выделения информативных параметров, создание пользовательского интерфейса с помощью SCADA системы для мониторинга результатов анализа параметров.*

Ключевые слова: *температурные сигналы, цифровая обработка сигналов, пользовательский интерфейс, система SCADA SimpLight, устройство мониторинга температуры тела человека.*

[1]Azambek A. Turakulov
PhD on Physics and Mathematics sciences, associate professor of the Information Technology Department of the Namangan Institute of Engineering and Technology.
E-mail: aturakulov1@mail.ru Tel:945044536

[2]Fotima T. Mullajonova
PhD on Technics sciences, associate professor of the Information Technology Department of the Namangan Institute of Engineering and Technology.
E-mail: fmullajonova@mail.ruTel: 912952171

Annotation. *The research paper considers and discusses the processes of measuring human body temperatures simultaneously at several points, transmitting measurement results to a microcontroller as signals, digital signal processing to clear from various noises and to sepatare informative parameters, creating a user interface using the SCADA system to monitor the results of parameter analysis.*

Keywords: *temperature signals, digital signal processing, user interface, SCADA SimpLight system, human body temperature monitoring device.*

Jahonda ilm-fan taraqqiyoti jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda tibbiyot sohasida ham zamonaviy diagnostika usullari axborot texnologiyalariga asoslanadi. Inson tanasidan chiqadigan biosignallarga raqamli ishlov berish usullari, algoritmlari hamda dasturiy majmuallarini ishlab chiqishda kompyuter texnologiyalarini joriy etish zamonaviy tibbiyotning asosiy masalalaridan biridir. Shu sababli, inson tanasining bir nechta nuqtasidan haroratni noinvaziv usulda qayd qilish, signallarga raqamli ishlov berish, dastlabki tibbiy tashxis qo‘yish algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Respublikamizda mazkur yo‘nalishda signallarga raqamli ishlov berish, jumladan, biomeditsina signallarini olish, tahlil qilish, tiklash hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1-4].

Hozirgi kunda kompyuter interfeysini yaratishda avtomatlashtirilgan tizimlarda keng qo‘llanilayotgan SCADA SimpLight tizimi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

SCADA (Supervisory Control And Data Acquisition)–ma’lumotlarni to‘plash va dispetcherlik nazorati. Bu tizim interfeyslar yaratish va obyekt bilan ma’lumot almashish tizimini yaratish uchun kuchli dasturiy vosita hisoblanib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qurish, ma’lumotlarni yig‘ish va texnologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish uchun oddiy va arzon yechim uchun mo‘ljallangan dasturiy mahsulotdir .

SCADA SimpLight tizimi monitoring va boshqaruv interfeysini yaratish uchun bir qator imkoniyatlarga ega.

Jumladan:

- aloqa kanallarini sozlash;
- mnemosxemalardan foydalanib, grafik monitoring va boshqaruv obyektlarini yaratish va tahrirlash;
- olingan ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda uzluksiz tasvirlab borish;
- signallarni raqamli ishlash uchun parametrlarni o‘zgartirish va xokazo.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427


SCADAni keng ma'noda hisobga olgan holda, butun tizimni nazorat qilish va boshqarish uchun markazlashtirilgan tizimlar, yoki inson ishtirokida amalga oshiriladigan tizimlar majmuasi. Zamonaviy SCADA tizimi uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi. (1-rasm)

Ushbu rasmda SCADA tizimining asosiy tarkibiy qismlari shartli ravishda quyidagilarga bo'lingan: pastki daraja, yuqori daraja va aloqa kanali.

Remote Terminal Unit (RTU)-uzoq terminal, real vaqtda vazifani (boshqaruvni) va qayta ishlashni amalga oshiradi;

Master Terminal Unit (MTU)–asosiy terminal bo'lib, u:

- dispetcherlik nazorat boshqaruvchi hisoblanadi;
- ma'lumotlarni raqamli ishlash va yuqori darajali boshqaruvni amalga oshiradi;
- inson operatori va tizim o'rtasidagi interfeysni ta'minlaydi.




1-rasm. *SCADA tizimining asosiy tarkibiy qismi*

Bunday tizim inson-mashina interfeysi (HMI) deyilad.

Communication System (CS)–aloqa tizimi (aloqa kanallari), ma'lumotlarni uzatish uchun uzoq nuqtalar (obyektlar, terminallar) operator–dispetcher va signal uzatishning markaziy interfeysi RTU boshqaruvlari orqali amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi interfeysi quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilinadi (2-rasm).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427




2-rasm. SCADA interfeysining tashkiliy sxemasi

Rasmda obyekt deb belgilangan inson tanasidan olingan signallar aloqa shinasi orqali mikrokontrollerga uzatiladi. U yerda signallarga raqamli ishlov beriladi va maxsus algoritmlat yordamida tahlil qilinib, tibbiy xulosalar chiqariladi. Natijalar boshqa aloqa shinasi (Modbus) orqali bufer-konteynerga yuboriladi. SCADA ushbu konteyner bilan ma'lumot almashish uchun har bir o'zgaruvchiga 1 ta alohida fizik kanal o'rnatadi.

Rasmda belgilangan "Fizik kanal4" orqali dastlabki tibbiy diagnozning kodlangan ma'lumoti olinadi. Ushbu ma'lumotni deshifrovka qilish uchun SCADA interfeysida ichki "Virtual kanal1" ochiladi. Ushbu kanalda skript-dastur yordamida kodlangan diagnozni qayta tiklash imkoniyati mavjud. Matnga esa boshqa "Virtual kanal2" orqali foydalanuvchi oynasiga yuboriladi.


SCADA tizimi juda keng ko'lamli bo'lib, uning soddalashtirilgan versiyalaridan biri bo'lgan SimpLight 4 ta tarkibiy dasturlardan iborat. Ularning birinchisi Project Manager bo'lib, uning interfeysi 3-rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm. Project manager interfeysi tasviri

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ushbu dastur yordamida mashina-inson interfeysini yaratish uchun yangi loyiha yaratib olinadi va boshqariladi. Rasmda yangi loyiha “SCADA_Mullajonova” deb yaratilgan.
Endi 2-rasmda tasvirlangan fizik va virtual kanallarni yaratish va ularni sozlash kerak. Buning uchun SCADA SimpLight tizimining “Channel Editor” dasturidan foydalaniladi (4-rasm).




***4-rasm**. SCADA interfeys bilan ma’lumot almashish kanallarini yaratish va sozlash oynasi*

Bu yerda 2-rasmda tasvirlangan fizik kanallarga quyidagi ma’lumotlar biriktirilgan:

- Fizik kanal1 ga “Tana harorati qurilmasi.Qo‘l osti harorati”;
- Fizik kanal2 ga “Tana harorati qurilmasi.Qo‘l barmog‘i harorati”;
- Fizik kanal3 ga “Tana harorati qurilmasi.Oyoq barmog‘i harorati”;
- Fizik kanal4 ga “Tana harorati qurilmasi.Diagnoz kodi”;
- Fizik kanal5 ga “Tana harorati qurilmasi.Ishni yakunlash signali”.

Barcha kanallar yaratilib, sozlanib bo‘lgandan keyin interfeysning qurilma bilan aloqasini tekshirib ko‘ramiz. Buning uchun “Kanallarni testlash” dasturini ishga tushiriladi (5-rasm).


www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



***5-rasm**. "Kanallarni testlash" dasturi oynasi*

Qurilmaning joriy holatidagi real ma'lumotlar kanallarda ko'rinadi. Rasmda ko'rinib turgan holda tananing qo'l osti harorati 36 ^{0}C, qo'l barmoqlari harorati 34 ^{0}C, oyoq barmoqlari harorati 32 ^{0}C ni tashkil qilmoqda, 1-kodli tibbiy diagnoz qo'yildi, yakunlash kodi – 0, ya'ni qurilma ishni davom ettirishi lozimligini ko'rsatmoqda.


"Virtual kanal 1" ga kodalangan diagnoz ma'lumotini olish 4-fizik kanaldan olish va uni dasturiy qayta ishlash uchun C++ tilida dastur yaratilgan bo'lib, uning fragmenti 4.17-rasmda keltirilgan.



6-rasm. SCADA interfeysida dastlabki tibbiy diagnozni aniqlash skripti oynasi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Endi SCADA SimpLight tizimining “Monitor” dasturini ishga tushirib, real vaqt rejimidagi foydalanuvchi interfeysini ko‘rishimiz mumkin (7-rasm).




***7-rasm**. SCADAda foydalanuvchi interfeysi*

Ushbu interfeysda tananing qo‘l osti harorati 36 ^{0}C, qo‘l barmoqlari harorati 34 ^{0}C, oyoq barmoqlari harorati 32 ^{0}C ekanligi, jadval ko‘rinishda aloqa kanallaridan kelayotgan ma’lumotlar, dastlabki qo‘yilgan diagnoz aks etgan. Joriy holatda monitoring tizimi uzluksiz ishlab turibdi, inson tanasidagi harorat o‘zgarishlari dinamikasi ko‘rsatib boriladi. Monitoring tizimi ishini yakunlash uchun “Tizim ishini yakunlash” tugmachasi bosiladi.

Grafik interfeys ekranida SCADA tizimining imkoniyatlaridan foydalanib, aloqa kanallaridan kelayotgan signallar oqimlari dinamik grafik ko‘rinishda tasvirlab borililadi (8-rasm).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



***8-rasm**. Harorat signallarini SCADA SimpLight dasturida grafik ko‘rinishi tasvirlash interfeysi*

Shuningdek, ushbu ma’lumotlar sana va vaqt bilan birgalikda ma’lumotlar omborida avtomatik ravishda saqlanib boradi.

SCADA SimpLight tizimida inson tanasi haroratini monitoring qilish uchun interfeys yaratish yetarli imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rachel N. What is a normal temperature range. https://www.medicalnewstoday.com/articles/323819
2. https://www.betterhealth.vic.gov.au/health/conditionsandtreatments/fever
3. Turakulov A., Mullajonova F. An automated system for body temperature monitoring of children, people with disabilities and bedridden people using a continuous analysis //Diagnostyka. – 2020. – T. 21. – №. 3. – C. 31-40.
4. А.А.Туракулов, Ф.Т.Муллажанова. Устройство и программное обеспечение автоматизированной обработки тепловых сигналов человеческого тела. НамМТИ илмий техника журнали. Том 4-№2, 2019, 152-163 б.
5. Turakulov A. A., Mullajonova F. T. Using Modern Microcontrollers In Automated Data Processing Of Sphygmic Cardiosignals //JournalNX. – C. 659-662.
6. Zaynidinov X. N., Turakulov A. A., Mullajonova F. T. Sensors And Devices For Receiving Human Biosignals //JournalNX. – C. 316-320.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ТЕМПЕРАТУРНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ ОСЦИЛЛЯЦИИ ПОПЕРЕЧНОГО МАГНИТОСОПРОТИВЛЕНИЯ В ОБЪЕМНЫХ УЗКОЗОННЫХ ПОЛУПРОВОДНИКАХ

Рустамжон Гуломжанович Рахимов,
Наманганский инженерно-технологический институт, rgrakhimov@gmail.com,

Аннотация: *В этой статье применена температурная зависимость колебаний поперечного магнитосопротивления узкозонных полупроводников. Новый метод расчета осцилляции поперечного магнитосопротивления* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *в объемных полупроводниках зависит от ширины зоны* $E_g^{3d}(T)$ *объемного узкозонного полупроводника. С помощью метода Варшни объяснен существенный вертикальный сдвиг осцилляций температурно-зависимых* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *объемных узкозонных полупроводников.*

Ключевые слова: *полупроводник, магнитное поле, магнитосопротивление, осцилляция, квантовая яма.*

HAJMIY TOR SOHALI YARIMO'TKAZGICHLARDA KO'NDALANG MAGNITOQARSHILIK OSSILLYATSIYALARINING HARORATGA BOG'LIQLIGI

Rustamjon G'ulomjanovich Raximov,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, rgrakhimov@gmail.com,

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichlarning ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligi tadbiq etilgan. Hajmiy yarimo'tkazgichlarda ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *ni hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichning ta`qiqlangan soha kengligi* $E_g^{3d}(T)$ *ga bog'liqligini hisoblashning yangi usuli taklif etilgan. Hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichlarning* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *ni haroratga bog'liqligida ossillyatsiyalarning vertikal bo'ylab jiddiy siljishi Varshni metodi yordamida tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: *yarimo'tkazgich, magnit maydon, magnitoqarshilik, ossillyatsiya, kvant o'ra.*

TEMPERATURE DEPENDENCE OF TRANSVERSE MAGNETORESISTANCE OSCILLATION IN BULK NARROW-BAND SEMICONDUCTORS

Rustamjon Rakhimov,
Namangan Institute of Engineering and Technology, rgrakhimov@gmail.com,

Abstract: *In this article, the temperature dependence of transverse magnetoresistance oscillations of narrow-band semiconductors is applied. A new method for calculating transverse magnetoresistance oscillations* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *in volume semiconductors depends on the gap width* $E_g^{3d}(T)$ *of a volume narrow-band semiconductor. A significant vertical shift of oscillations in temperature-dependent* $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ *of volume narrow band semiconductors is explained using Varshni's method.*

Keywords: *semiconductor, magnetic field, magnetoresistance, oscillation, quantum well.*

Kvantlovchi magnit maydon ta`siridagi kvant magnit effektlari yordamida asosiy fizik kattaliklar: ko'ndalang magnitoqarshilik, magnit singdiruvchanlik, termoelektr EYUK va boshqa kinetik hodisalarni aniqlashga imkon beradi. Jumladan, ko'ndalang magnitoqarshilik va magnit singdiruvchanlik ossillyatsiyalari hajmiy yarim o'tkazgichli tuzilmalardagi erkin zaryad tashuvchilarning energiya spektrlari haqida qimmatli ma`lumotlarni beradi. Kvantlovchi magnit maydonda ko'ndalang magnitoqarshilik quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi[1]:

$$\rho_{zz}^{3d}(E,B)=\frac{1}{\sigma_{zz}^{3d}(E,B)}=\left[-\frac{(2m)^{\frac{1}{2}}e^2}{\pi^2\hbar^3}\hbar\omega_c\int_{\hbar\omega_c/2}^{\infty}\sum_{N_L}\left[E-\left(N_L^{3d}+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c\right]^{1/2}\tau_{N_L}^{3d}(E)\frac{\partial f_0^{3d}(E)}{\partial E}dE\right]^{-1} \quad (1)$$

Bu yerda, N_L^{3d} – ruxsat etilgan sohadagi diskret Landau sathlari soni, ω_c -magnit maydonining siklotron chastotasi, $\tau_{N_L}^{3d}(E)$ - hajmiy yarimo'tkazgichlarda erkin elektronlarning impuls bo'yicha relaksasiya vaqti. E – kvantlovchi magnit maydondagi erkin elektron energiyasi. $\frac{\partial f_0^{3d}(E)}{\partial E}$ hajmiy yarimo'tkazgichlar uchun Fermi-Dirak taqsimot funksiyasining energiya bo'yicha olingan hosilasi. Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, effektiv massa energiya bo'yicha o'zgarmaydi, ya`ni bu ifoda faqat kvadratik dispersiya qonuni uchun amal qiladi. Lekin, shunday yarimo'tkazgichlar mavjudki, o'tkazuvchanlik sohasining tubi va valent sohasining shiftida joylashgan erkin zaryad tashuvchilarning effektiv massasi energiya bo'yicha kuchli o'zgaradi($m^*(E_n^{3d})$ va $m^*(E_p^{3d})$).

Bu holat ko'proq ta`qiqlangan sohasi kichikroq bo'lgan, ya`ni tor sohali yarimo'tkazgichlarda kuzatiladi[1-8].

Agar dispersiya qonuni kvadratik bo'lmasa, unda zaryad tashuvchilarning effektiv massasi energiyaga kuchli bog'liq bo'ladi($m^*(E)$). [2-4].

So'nggi 10-15 yillarda hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichli tuzilmalarda ko'ndalang magnitoqarshilik va magnit singdiruvchanlik ossillyatsiyalarini ($\rho_{zz}^{3d}(E,B)$ va $\chi_{zz}^{3d}(E,B)$) aniqlash bo'yicha bir qator tajriba natijalari olingan[9-12]. Bunda $\rho_{zz}^{3d}(E,B)$ va $\chi_{zz}^{3d}(E,B)$ o'zgarmas past haroratlarda kuzatilgan, lekin haroratning ortish dinamikasi bo'yicha, $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ni nazariyasi ko'rilmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlardan ma`lumki, kuchli magnit maydondagi erkin elektronlarning energiyasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi [1]:

$$E_{N\pm}^{3d}=-\frac{E_g^{3d}}{2}+\frac{1}{2}\sqrt{(E_g^{3d})^2+4E_g^{3d}\left[\left(N+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c+\frac{\hbar^2k_z^2}{2m_n}\right]} \quad (2)$$

Bu ifoda hajmiy yarimo'tkazgichlar uchun o'rinli bo'lib, $\pm\frac{1}{2}g_0\mu B$ spinning hadi hisobga olinmagan. E_N^{3d} - nokvadratik dispersiya qonuni uchun hajmiy yarimo'tkazgichlarning o'tkazuvchanlik sohasidagi erkin elektron energiyasi. E_g^{3d} - uch o'lchovli tor sohali yarimo'tkazgichning ta`qiqlangan soha kengligi.

Bu yerda E_N - parabolik bo'lmagan dispersiya qonuniga ega kvantlovchi magnit maydondagi o'tkazuvchanlik zonasining elektron energiyalari. E_g - tor zonali yarim o'tkazgichlarning ta`qiqlangan zona kengligi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(2) ifodadan k_z^{3d} ni aniqlab, uni differensiallaymiz:

$$dk_z^{3d} = \frac{\sqrt{2m}}{\hbar} \frac{\frac{2E_N}{E_g}+1}{2\sqrt{\frac{E_N^2}{E_g}+E_N-\left(N+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c}} \quad (3)$$

U holda, (3) ifodadan foydalanib, hajmiy yarimo'tkazgichlarda ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\rho_{zz}^{3d} = \left[-\frac{(2m)^{\frac{1}{2}}e^2}{\pi^2\hbar^3}\hbar\omega_c \int_{\hbar\omega_c/2}^{\infty} \sum_N \left(\frac{2E_N^{3d}}{E_g^{3d}}+1\right)\left[\frac{E_N^2}{E_g^{3d}}+E_N^{3d}-\left(N_L^{3d}+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c\right]^{1/2} \tau_N^{3d}(E)\frac{\partial f_0^{3d}(E)}{\partial E}dE \right]^{-1} \quad (4)$$

Ushbu formuladan ma`lum bo'ldiki, $E_g^{3d} \to \infty$, ya`ni, material hajmiy keng sohali yarimo'tkazgichga aylansa, $\frac{2E_N}{E_g} \to 0$ va $\frac{E_N^2}{E_g} \to 0$ bo'ladi, bunda (4) ifoda (1) ga aylanadi. Bu esa oldingi qonuniyat bajarilayotganidan dalolat beradi.

Ma`lumki, erkin elektronlarning sochilish mexanizmida relaksasiya vaqtini aniqlashning bir qator turlari mavjud(optik, akustik va boshqalar). Biroq, ularning umumiy formulasi $\tau^{3d} = \tau_0^{3d}E^r$ - relaksasiya vaqtini aniqlash ifodasidan topiladi. Bunda, darajaning qiymati *r* ga qarab tarqalish mexanizmi o'zgaradi: $r = -\frac{1}{2}$ - akustik tebranish, $r = \frac{3}{2}$ - ionli tebranish [13].

(4) formuladan foydalanib, nokvadratik dispersiya qonuni uchun tor sohali hajmiy yarimo'tkazgichlarda $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ni turli haroratlarda tahlil qilaylik. Ushbu formula tahlilida amaliy matematik dasturlar (Maple) orqali grafik usuldan foydalanamiz. 1-rasmda hajmiy tor sohali *InSb* yarimo'tkazgich uchun $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ni kvantlovchi magnit maydon induksiyasi *B* ga bog'liqligi grafigi keltirilgan. Bunda kvant ossillyatsiya jarayoni 0.5 Tl dan boshlangan va harorat T = 4 K da nazariy hisoblangan. *InSb* uchun ta`qiqlangan soha kengligi T = 0 K da $E_n^{3d} = 0.234eV$ [14] deb olingan. Magnit maydon induksiyasi qiymati B = 0.5÷3.5 Tl oraliqda diskret Landau sathlari soni $N_L^{3d} = 9$ ga teng bo'lishi aniqlangan. 1-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, kvantlovchi magnit maydon induksiyasi ortishi bilan ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining amplitudalari balandligi ko'tarilishi kuzatilmoqda. Bu esa, albatta olingan (4) formulani kvant ossillyatsiya qonuniyatlari bajarilayotganligidan dalolat bermoqda.

Hajmiy yarimo'tkazgichlarda $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ni $E_g^{3d}(T)$ ga bog'liqligini hisoblash


Hajmiy yarimo'tkazgichli materiallar uchun olingan (4) ifodadan ko'rinib turibdiki, $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ossillyatsiyalari nafaqat haroratga, balki yarimo'tkazgichning ta`qiqlangan soha kengligiga ham bog'liq bo'lmoqda. Buni tahlil qilish uchun ikki xil tor sohali hajmiy yarimo'tkazgichlarda $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ni hisoblaylik. 2-rasmda hajmiy yarimo'tkazgichlardagi ta'qiqlangan soha kengligini $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ga bog'liqligi grafiklari ko'rsatilgan. 2-rasmda T = 4 K haroratda *InSb* (E_g = 0.234 eV [14]) va *InAs* (E_g=0.414

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

eV [14]) hajmiy yarimo'tkazgichlar uchun $\rho_{zz}^{3d}(E_g, B, T)$ ossillyatsiyalari keltirilgan. Bu ruxsat etilgan sohadagi ossillyatsiyalari soni 12 ga teng bo'lib, bu diskret Landau sathlari sonini anglatadi. Ushbu grafiklar (4) formula bo'yicha hisoblangan. Rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, hajmiy yarimo'tkazgichlarni ta'qiqlangan soha kengligini ortishi bilan $\rho_{zz}^{3d}(E_g, B, T)$ ossillyatsiyalari OY o'qiga nisbatan yuqoriga qarab siljishini kuzatish mumkin.


Xususan, sonli hisoblarga qarasak, *InSb* uchun B = 0.5 Tl, T = 4 K da $\rho_{zz}^{3d} \approx 3.76\times10^{-3}\, Om\cdot sm$ ga teng bo'lsa, *InAs* hajmiy yarimo'tkazgich uchun xuddi shu magnit maydon induksiyasi va haroratda ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyasi qiymati $\rho_{zz}^{3d} \approx 4.06\times10^{-3}\, Om\cdot sm$ ga teng bo'ladi. Ushbu sonli usullar yordamida keltirilgan hisoblashlarni boshqa magnit maydon induksiyalarini qiymatlarida ham bajarish mumkin. Bunda $E_{g1}^{3d} > E_{g2}^{3d}$ bo'lsa, $\rho_{zz}^{3d}(E_{g1}, B, T) > \rho_{zz}^{3d}(E_{g2}, B, T)$ kelib chiqadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan soha kengligi yordamida ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini boshqarishga imkon bermoqda. Bu esa, [15] ishda keltirilgan tajriba natijalarini, ya'ni harorat va ta'qiqlangan soha kengligini ortishi bilan $\rho_{zz}^{3d}(E_g, B, T)$ ni yuqoriga qarab harakatlanishi sababini tushuntira oladi. Biroq, mavjud adabiyotlarda keltirilgan (1) ifodadan ko'rinib turibdiki, kvadratik dispersiya qonuniga muvofiq, $\rho_{zz}^{3d}(B, T)$ ta'qiqlangan soha kengligiga bog'liq emas.

Endi hajmiy yarimo'tkazgichlarda ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari $\rho_{zz}^{3d}(E, B)$ ni haroratga bog'liqligini ko'rib chiqaylik. Yuqorida keltirilgan 1 va 2-rasmlarda o'zgarmas past harorat T = 4 K da $\rho_{zz}^{3d}(E_g, B)$ hisoblangan. Bunda $kT \approx 0.345$ meV, bu esa albatta $\hbar\omega_c$ ga nisbatan juda kichik, ya'ni $\hbar\omega_c >> kT$.



1-rasm. *InSb* da T = 4 K da $\rho_{zz}^{3d}(E, B, T)$ ossillyatsiyalari.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-rasm. Hajmiy yarimo'tkazgichlardagi ta'qiqlangan soha kengligini $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ga bog'liqligi. Bunda T = 4 K. 1 – *InAs*, 2 –*InSb*.

Kvantlovchi magnit maydon qonuniga ko'ra, ushbu shart bajarilganda o'tkazuvchanlik sohasini diskret Landau sathlari keskin paydo bo'ladi. Har bir sathlarning cho'qqilari eng yuqori qiymatga ega bo'ladi. Bunda termik yuvilish juda zaif hisoblanadi. [16-21] ishlarda termik kengayish(yuvilish) qonuniyatini o'rganish maqsadida statistik funksiyalar – delta funksiyalardan (Lorens, Gauss, $\frac{\partial f_0}{\partial E}$, *GN* taqsimot funksiyalari) foydalanilgan.

$$\int_{-\infty}^{\infty} \delta(x,\gamma)dx = 1 \tag{5}$$

(5) shartni qanoatlantiruvchi, γ -parametrga bog'liq bo'lgan va "qo'ng'iroq" shaklidagi $\delta(x,\gamma)$ funksiya, $\lim_{\gamma\to 0}\delta(x,\gamma)\to\delta(x)$ ga aylanadi:

$$\delta(x) = \begin{cases} 0, & x \neq 0 \\ \infty, & x = 0 \end{cases} \tag{2.6}$$

Bunda,

$$\int_{-\infty}^{\infty} \delta(x)dx = 1 \tag{2.7}$$

Masalan, $\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}\to\infty$.

Yuqoridagi (5), (6) va (7) shartlarni qanoatlantiruvchi statistik funksiyalardan biri Fermi-Dirak taqsimot funksiyasidan energiya bo'yicha olingan hosila:

$$\lim_{T\to 0}\frac{\partial f_0}{dE}\to\delta(E,\mu) \tag{8}$$

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bundan, [22-26] ishlardan, (5) ÷ (8) shartlardan hamda hajmiy tor sohali yarimo'tkazgichlar uchun $\rho_{zz}^{3d}(E_g,B)$ ossillyatsiyalarini hisoblashda olingan (4) formulalardan ko'rinib turibdiki, $\rho_{zz}^{3d}(E_g,B)$ ni haroratga bog'liqligini, ya'ni $\rho_{zz}^{3d}(E_g,B,T)$ ni $\frac{\partial f_0(E,\mu,T)}{\partial E}$ orqali hisoblash mumkin.

Kvantlovchi magnit maydondagi diskret sathlarni termik yuvilishi hisobiga ushbu energetik sathlar silliqlanishiga olib keladi. Haroratning ko'tarilishi bilan $\rho_{zz}^{3d}(E_g,B,T)$ ossillyatsiya amplitudalari sekin pasaya boshlaydi. $kT \approx \hbar\omega_c$ shart bajarilganda, $\rho_{zz}^{3d}(E_g,B,T)$ ossillyatsiyalari yo'qoladi. $kT >> \hbar\omega_c$ da esa ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari yo'qolib, uzluksiz energetik spektrga aylanadi.

[6, 27-33] ishlarda hajmiy yarimo'tkazgichlarning ta'qiqlangan soha kengligini haroratga bog'liqligi mukammal o'rganilgan. Jumladan, [27-28] ishlarda $GN(E,T)$ taqsimot funksiyasini ruxsat etilgan sohalarga qo'llash natijasida $E_g^{3d}(T)$ ni kelib chiqishini nazariy tahlili keltirilgan. Bunda, $GN(E,T)$ funksiyani qatorga yoyish orqali harorat ortishi bilan holatlar zichligining dumi ta'qiqlangan soha kengligiga kirib borishi kuzatilgan. Bundan tashqari [13-14, 34] ishlarda $E_g^{3d}(T)$ ni Varshnining empirik formulasi yoki Feynni analitik ifodasi va boshqa $E_g^{3d}(T)$ munosabatlar orqali nazariy va tajribaviy jihatdan muhokama qilingan. Masalan, Varshnining empirik formulasi quyidagi ko'rinishga ega [14, 34]:

$$E_g^{3d}(T) = E_g^{3d}(0) - \frac{\alpha_1 T^2}{\alpha_2 + T} \tag{9}$$

Bunda, α_1 va α_2 - hajmiy yarimo'tkazgichlarni termik – empirik parametrlari.

U holda, (5) ÷ (8) shartlar va (9) ifodalardan foydalanib, ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari $\rho_g^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ni quyidagicha aniqlanadi:


$$\rho_{zz}^{3d}(E_g(T),B,T) = \left(-\frac{(2m)^{\frac{1}{2}}e^2}{\pi^2\hbar^3}\right)\cdot\hbar\omega_c\cdot$$
$$\left[\int_{\hbar\omega_c/2}^{\infty}\sum_{N_L}\tau_0 E^r\left(\frac{2E_N}{E_g^{3d}(0)-\frac{\alpha_1 T^2}{\alpha_2+T}}+1\right)\left[\frac{E_N^2}{E_g^{3d}(0)-\frac{\alpha_1 T^2}{\alpha_2+T}}+E_N-\left(N_L+\frac{1}{2}\right)\hbar\omega_c\right]^{1/2}\frac{\partial f_0(E,\mu,T)}{\partial E}dE\right]^{-1} \tag{10}$$

Yangi keltirib chiqarilgan (10) analitik ifoda $\rho_g^{3d}(E,B,T)$ ni $E_g^{3d}(T)$ orqali aniqlash formulasi, ya'ni $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ - hajmiy tor sohali ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari deyiladi. Endi, ushbu taklif qilinayotgan (10) analitik ifoda orqali turli haroratlarda $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ossillyatsiyalarini grafik tahlil qilaylik.

3-rasmda n-$Bi_2Te_{2.85}Se_{0.15}$ tor sohali hajmiy yarimo'tkazgich uchun uch o'lchamli $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalari kiritilgan. Bunda, n-$Bi_2Te_{2.85}Se_{0.15}$ uchun $E_g^{3d}(0) = 0.18eV$ [35] ga teng bo'lib, magnit maydon induksiyasi qiymati 0.5 Tl dan 6 Tl gacha,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

harorat esa 5 K dan 105 K gacha o'zgarmoqda. Ushbu 3D grafikdan ko'rinib turibdiki, harorat T = 5 K da $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ossillyatsiya amplitudalari keskin ko'rinmoqda. Hatto, kichik magnit maydonlarda (B = 1 Tl) ham ossillyatsiya cho'qqilari yaqqol kuzatilmoqda. Harorat sekin ko'tarilgan sari (T = 10 K, 15 K, 25 K) $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ossillyatsiya cho'qqilari pasaya boshlamoqda, magnit maydon induksiyasi qiymat B = 0.5 Tl ÷ 1.5 Tl oraliqda bu cho'qqilar yo'qolmoqda. Harorat 105 K da esa $\frac{\partial f_0(E,\mu,T)}{\partial E}$ delta funksiyani termik yuvilish hisobiga B = 0.5 Tl ÷ 4 Tl oraliqda $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ossillyatsiyalari uzluksiz energetik spektrga aylanmoqda, ya'ni bunda magnit maydon ta'siri ko'rinmayapti. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, keng sohali hajmiy yarimo'tkazgichlarda $\rho_{zz}^{3d}(E,B,T)$ ossillyatsiyalarini hisoblash uchun (1) formula bo'yicha, tor sohali hajmiy yarimo'tkazgichlarda esa, biz taklif qilayotgan (10) analitik ifodalardan foydalanish tavsiya etiladi.



3-rasm. *n-Bi₂Te₂.₈₅Se₀.₁₅* tor sohali hajmiy yarimo'tkazgich uchun $\rho_{zz}^{3d}(E_g^{3d}(T),B,T)$ ossillyatsiyalarining uch o'lchamli ko'rinishi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anselm A.I. Introduction to the theory of semiconductors // Physics-Uspekhi. 1965. Vol.85, Iss.1, pp.183–184. https://doi.org/10.3367/UFNr.0085.196501f.0183

2. Abdulazizov B.T. Cyclotron mass of an electron in strong magnetic fields in a wide InAs quantum well // Eurasian Journal of Physics and Functional Materials. 2022. Vol.6, Iss.1, pp.32-37. https://doi.org/10.32523/ejpfm.2022060103

3. Gulyamov, G., Erkaboev, U.I., Sayidov, N.A., Rakhimov, R.G. The influence of temperature on magnetic quantum effects in semiconductor structures // Journal of Applied Science and Engineering. 2020. Vol.23, Iss.3, pp. 453-460. https://doi.org/10.6180/jase.202009_23(3).0009

ISSN: 2181-0427

4. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Sayidov N.A. Determination of the dependence of the two-dimensional combined density of states on external factors in quantum-dimensional heterostructures // Modern Physics Letters B. 2023. Vol.37, Iss.10, Article ID 2350015. https://doi.org/10.1142/S021798492350015X
5. Abdulazizov B.T., Gulyamov G., Baymatov P.J., Inoyatov Sh.T., Tokhirjonov M.S., Juraev Kh.N., Peculiarities of the Temperature Dependence of the Chemical Potential of a Two-dimensional Electron Gas in Magnetic Field // SPIN. 2022. Vol.12, Iss.1, Article ID 2250002, https://doi.org/10.1142/S2010324722500023
6. Erkaboev, U., Rakhimov, R., Mirzaev, J., Negmatov, U., Sayidov, N. Influence of the two-dimensional density of states on the temperature dependence of the electrical conductivity oscillations in heterostructures with quantum wells // International Journal of Modern Physics B. 2023. Article ID 2450185. https://doi.org/10.1142/S0217979224501856
7. Larkin I.A., Ujevic S., Wiedmann S., Mamani N., Gusev G.M., Bakarov A.K., Portal J.C. Shubnikov-de Haas effect in tilted magnetic fields in wide quantum well // Journal of Physics: Conference Series. 2013. Vol.456, Article ID 012025, https://doi.org/10.1088/1742-6596/456/1/012025
8. Erkaboev, U.I., Sayidov, N.A., Negmatov, U.M., Mirzaev, J.I., Rakhimov, R.G. Influence temperature and strong magnetic field on oscillations of density of energy states in heterostructures with quantum wells HgCdTe/CdHgTe // E3S Web of Conferences. 2023. Vol.401, Article ID 01090. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340101090
9. Erkaboev, U.I., Sayidov, N.A., Negmatov, U.M., Rakhimov, R.G., Mirzaev, J.I. Temperature dependence of width band gap in InxGa1-XAs quantum well in presence of transverse strong magnetic field // E3S Web of Conferences. 2023. Vol.401, Article ID 04042. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340104042
10. Pässler R. Parameter sets due to fittings of the temperature dependencies of fundamental band gaps in semiconductors // Physica Status Solidi B. 1999. Vol.216. pp.975-1007. https://doi.org/10.1002/(SICI)1521-3951(199912)216:2<975::AID-PSSB975>3.0.CO;2-N
11. Baymatov P.J., Gulyamov A.G., Abdulazizov B.T., Mavlyanov, Kh.Yu., Tokhirjonov M.S. Features of the chemical potential of a quasi-two-dimensional electron gas at low-temperatures // International Journal of Modern Physics B. 2021. Vol.35, Iss.5, Article ID 2150070. https://doi.org/10.1142/S0217979221500703
12. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I. On temperature dependence of longitudinal electrical conductivity oscillations in narrow-gap electronic semiconductors // Journal of Nano- and Electronic Physic. 2020. Vol.12, Iss.3, Article ID 03012. https://doi.org/10.1142/S0217979220500526
13. Erkaboev U.I., Gulyamov G., Mirzaev J.I., Rakhimov R.G. Modeling on the temperature dependence of the magnetic susceptibility and electrical conductivity oscillations in narrow-gap semiconductors // International Journal of Modern Physics B. 2020. Vol.34, Iss.7, Article ID 2050052. https://doi.org/10.1142/S0217979220500526
14. Gulyamov G., Abdulazizov B.T., Baymatov P.J. Three-Band Simulation of the g -Factor of an Electron in an InAs Quantum Well in Strong Magnetic Fields // Journal of Nanomaterials. 2021. Vol.2021. Article 5542559. https://doi.org/10.1155/2021/5542559

15. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Sayidov N.A., Rakhimov R.G. The influence of temperature on magnetic quantum effects in semiconductor structures // Journal of Applied Science and Engineering. 2020. Vol.23, Iss.3, pp. 453–460. https://doi.org/10.6180/jase.202009_23(3).0009

16. Erkaboev, U.I., Rakhimov, R.G., Negmatov, U.M., Sayidov, N.A., Mirzaev, J.I. Influence of a strong magnetic field on the temperature dependence of the two-dimensional combined density of states in InGaN/GaN quantum well heterostructures // Romanian Journal of Physics. 2023. Vol.68, Iss.5, Article ID 614. https://rjp.nipne.ro/2023_68_5-6/RomJPhys.68.614.pdf

17. Erkaboev U.I., Gulyamov G., Mirzaev J.I., Rakhimov R.G., Sayidov N.A. Calculation of the Fermi-Dirac Function Distribution in Two-Dimensional Semiconductor Materials at High Temperatures and Weak Magnetic Fields // Nano. 2021. Vol.16, Iss.9, Article ID 2150102. https://doi.org/10.1142/S1793292021501022

18. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Sayidov N.A. Mathematical modeling determination coefficient of magneto-optical absorption in semiconductors in presence of external pressure and temperature // Modern Physics Letters B.2021. Vol.35, Iss.17, Article ID 2150293. https://doi.org/10.1142/S0217984921502936

19. Baymatov P.J., Gulyamov A.G., Abdulazizov B.T. On the Heat Capacity of a Quasi-Two-Dimensional Electron Gas // Advances in Condensed Matter Physics. 2019. Vol.2019, Article ID 8317278. https://doi.org/10.1155/2019/8317278

20. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Sayidov N.A., Mirzaev J.I. Modeling the temperature dependence of the density oscillation of energy states in two-dimensional electronic gases under the impact of a longitudinal and transversal quantum magnetic fields // Indian Journal of Physics. 2023. Vol.97, Iss.4, pp.1601-1070. https://doi.org/10.1007/s12648-022-02435-8

21. Erkaboev U.I., Negmatov U.M., Rakhimov R.G., Mirzaev J.I., Sayidov N.A. Influence of a quantizing magnetic field on the Fermi energy oscillations in two-dimensional semiconductors // International Journal of Applied Science and Engineering. 2022. Vol.19, Iss.2, Article ID 2021123. https://doi.org/10.6703/IJASE.202206_19(2).004

22. Erkaboev U.I., Gulyamov G., Rakhimov R.G. A new method for determining the bandgap in semiconductors in presence of external action taking into account lattice vibrations // Indian Journal of Physics. 2022. Vol.96, Iss.8, pp. 2359-2368. https://doi.org/10.1007/s12648-021-02180-4

23. Вайнштейн И.А., Зацепин А.Ф., Кортов В.С. О применимости эмпирического соотношения Варшни для температурной зависимости ширины запрещенной зоны // ФТТ. 1999. Т. 41, вып.6. С.994-998

24. Erkaboev, U.I., Rakhimov, R.G. Simulation of temperature dependence of oscillations of longitudinal magnetoresistance in nanoelectronic semiconductor materials // e-Prime - Advances in Electrical Engineering, Electronics and Energy. 2023. Vol.5, Article ID 100236. https://doi.org/10.1016/j.prime.2023.100236

25. Shchepetilnikov A.V., Nefyodov Y.A., Dremin A.A., Kukushkin I.V. Renormalization of the Effective Electron Mass Governing the Period of Microwave-Induced Resistance Oscillations in ZnO/MgZnO Heterojunctions. // JETP Letters. 2018. Vol.107, pp.770–773. https://doi.org/10.1134/S0021364018120135

ISSN: 2181-0427

26. Erkaboev, U.I., Rakhimov, R.G. Determination of the dependence of the oscillation of transverse electrical conductivity and magnetoresistance on temperature in heterostructures based on quantum wells // East European Journal of Physics. 2023 Vol.3, pp. 133-145. https://doi.org/10.26565/2312-4334-2023-3-10
27. Baymatov P.J., Abdulazizov B.T. Concentration dependences of the electron effective mass, Fermi energy, and filling of subbands in doped InAs/AlSb quantum wells // Ukrainian Journal of Physics. 2017. Vol.62, Iss.1, pp.46-50. https://doi.org/10.15407/ujpe62.01.0046
28. Erkaboev, U.I., Rakhimov, R.G., Mirzaev, J.I., Negmatov, U.M., Sayidov, N.A. Influence of a magnetic field and temperature on the oscillations of the combined density of states in two-dimensional semiconductor materials // Indian Journal of Physics. 2023. https://doi.org/10.1007/s12648-023-02803-y
29. Erkaboev, U., Rakhimov, R., Mirzaev, J., Sayidov N., Negmatov, U., Abduxalimov, M. Calculation of oscillations in the density of energy states in heterostructural materials with quantum wells // AIP Conference Proceedings. 2023. Vol.2789, Article ID 040055. https://doi.org/10.1063/5.0145554
30. Erkaboev, U., Rakhimov, R., Mirzaev, J.,Sayidov N., Negmatov, U., Mashrapov, A. Determination of the band gap of heterostructural materials with quantum wells at strong magnetic field and high temperature // AIP Conference Proceedings. 2023. Vol.2789, Article ID 040056. https://doi.org/10.1063/5.0145556

$por-Si/c-Si$ GETEROSTRUKTURA ASOSIDAGI QUYOSH ELEMENTLARIDAGI REKOMBINATSION TOKKA GETEROO'TISH CHEGARASIDAGI ELEKTROFIZIK PARAMETRLAR TA'SIRI

[1]Babaxodjayev Umarxon Samsakxodjayevich
[2]Usmanov Muhammadjon Abduxalil o'g'li
[2]Voxobjonov Ismoil Shuhrat o'g'li
[1]Namangan davlat universiteti dotsenti
[2]Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: m_usmanov1995@yahoo.com tel: +998932771119

Annotatsiya. *Bu ishda sirt rekombinatsiyasining hissasini, geterostrukturalardagi potentsial to'siqning balandligini va $p-por-Si$ dagi teshiklarning ishlash muddatini hisobga olgan holda $por-Si/c-Si$ asosidagi geterostrukturalarning fototokiga sirt rekombinatsiyasining ta'siri o'rganilgan. Bundan tashqari, $por-Si$ dagi teshiklar uchun potentsial to'siqning balandligini aniqlash uchun ifoda olingan.*

Kalit so'zlar. *HIT - texnologiya, $por-Si$, geteroo'tish, sirtiy rekombinatsiya, potensial to'siq, diffuzion tok, Fermi-Dirak taqsimot, diffuziya koeffitsiyenti, sirtiy holatlar zichligi.*

ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПРЕДЕЛА ГЕТЕРОПЕРЕХОДА НА РЕКОМБИНАЦИОННЫЙ ТОК В СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТАХ НА ОСНОВЕ ГЕТЕРОСТРУКТУРЫ $por-Si/c-Si$

[1]Бабаходжаев Умархон Самсакходжаевич
[2]Усманов Мухаммаджон Абдухалил угли

[2]Вохобжонов Исмоил Шухрат угли
[1]Наманганский государственный университет доцент
[2]Наманганский государственный университет базовый докторант

Аннотация. *В данной работе исследовано влияние поверхностной рекомбинации на фототок гетероструктур на основе* $por-Si/c-Si$ *и получены аналитические зависимости для фототока гетероструктур p-* $por-Si/p-c-Si/n-c-Si$ *учитывающий вклад поверхностной рекомбинации, высота потенциального барьера на гетерограния и время жизни дырок в* $p-por-Si$*. Кроме этого получено выражение для определения высоты потенциального барьера для дырок в* $por-Si$*.*

Ключевые слова. *HIT - технология,* $por-Si$*, гетеропереход, поверхностная рекомбинация, потенциальный барьер, диффузионный ток, распределение Ферми-Дирака, коэффициент диффузии, плотность поверхностных состояний.*

THE INFLUENCE OF ELECTROPHYSICAL PARAMETERS ON THE LIMITATION OF HETEROCONVERSION ON RECOMBINATION CURRENT IN SOLAR ELEMENTS BASED ON $por-Si/c-Si$ HETEROSTRUCTURE

[1]Babahodjayev Umarhon Samsakhodjaevich
[2]Usmanov Muhammadjon Abduhalil ugli
[2]Vokhobjonov Ismoil Shuhrat ugli
[1]Associate Professor of Namangan State University
[2]Namangan State University doctoral student

Annotation. *In this work, the influence of surface recombination on the photocurrent of heterostructures based on* $por-Si/c-Si$ *is investigated and analytical dependences are obtained for the photocurrent of heterostructures* $p-por-Si/p-c-Si/n-c-Si$*, taking into account the contribution of surface recombination, the height of the potential barrier on heterostructures and lifetime of holes in* $p-por-Si$*. In addition, an expression was obtained to determine the height of the potential barrier for holes in* $por-Si$*.*

Key words. *HIT - technology,* $por-Si$*, heterojunction, surface recombination, potential barrier, diffusion current, Fermi-Dirac distribution, diffusion coefficient, density of surface states.*

Kirish

Energiyaga bo'lgan talabni yil sayin ortib borishi an'anaviy energiya manbalari bilan bir qatorda muqobil, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samaradorligini yanada orttirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini asosiy qismi kremniy asosidagi yarim o'tkazgichli quyosh elementlari bo'lib barcha quyosh elementlari ishlab chiqaradigan energiyani 90% ini ishlab chiqarmoqda [1]. Ilmiy tadqiqotlarni ko'rsatishicha mono yoki polikristall Si asosida sanoat miqyosida tayyorlangan $p-n$ strukturali quyosh elementlarining samaradorligi o'zining deyarli maksimum qiymatiga erishdi [2]. Hozirgi paytda kremniy asosidagi quyosh elementlarini FIK ini yanada orttirish uchun turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borib, texnologiyalar takomillashtirilmoqda [3,4]. Shunday istiqbolli texnologiyalardan biri sifatida HIT -texnologiya (Heterojunction with Intrinsic Thin layer)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tadqiqotchilarni o'ziga jalb etmoqda. Ushbu texnologiya kristall kremniy $(c-Si)$ ustiga yupqa amorf kremniyni o'stirish orqali geterostruktura xosil qilishga asoslangan va bunday texnologiya asosida yaratilgan quyosh elementlarini samaradorligini 5-6% ko'paytirishga erishilmoqda [5]. HIT – texnologiya bo'yicha olingan kremniy asosidagi quyosh elementlarini FIK ini orttirishda strukturani yuza sirtida xosil qilingan geterochegaradagi qo'shimcha potensial to'siq sirtiy rekombinatsiyani kamaytirishi asosiy sabab xisoblanadi [1].

Ammo $a-Si:H$ asosidagi getero o'lchamli quyosh elementlarini katta kamchiligi $a-Si:H$ qatlamini fotoelektrik parametrlari degradatsiyaga tez uchrashidir [6]. Shuning uchun quyosh elementining frontal sirtida izotip geteroo'tish xosil qilishda $c-Si$ sirtini ishqor yordamida elektrokimyoviy yuvish orqali ham yupqa, ham yuzasi o'ta notekis $por-Si$ (g'ovakli kremniy) qatlami o'stirishdan foydalanilmoqda [7]. Frontal sirtga o'stirilgan $por-Si$ qatlam geteroo'tish xosil qilishi bilan birgalikda sirtini notekisligi xisobiga solishtirma yuzasi ortib ko'proq yorug'lik yutilishiga olib keladi. Bu esa quyosh elementining FIK ini kichik miqdorda bo'lsa ham o'zgarishiga olib keladi.

Mazkur ishni maqsadi $por-Si$ ning fotoelektrik parametrlarini $por-Si/c-Si$ strukturali quyosh elementining samaradorligiga ta'sirini nazariy tadqiq etish.

$por-Si$ NING BA'ZI FIZIK PARAMETRLARINI KRISTALLITLAR O'LCHAMIGA BOG'LIQLIGI.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Yuqorida ta'kidlanganidek quyosh elementlarining sirtiy qatlamida yupqa qatlam yordamida geteroo'tish xosil qilishdan maqsad sirtiy rekombinatsiyani kamaytirishdan iborat. Ma'lumki sirtiy rekombinatsiya sirtga yaqin sohalarda generatsiyalangan asosiy bo'lmagan tok tashuvchilarni sirt tomon diffuziyalanishi bilan bog'liq. Agar ikki soha o'rtasida potensial to'siq bo'lsa diffuziyalanuvchi tok tashuvchilarni bir tomonga harakatiga cheklov qo'yadi, bu yerda $por-Si/c-Si$ struktura chegarasida xosil bo'lgan potensial to'siq parametrlari, quyosh elementlarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Geteroo'tishdagi potensial to'siq parametrlari, asosiy bo'lmagan tok tashuvchilarning kinetikasi asosan $por-Si$ xossasiga bog'liq. Shuni xisobga olgan xolda avval potensial to'siq parametrlari $por-Si$ ning qanday parametrlariga bog'liq ekanini tadqiq etamiz.

$c-Si$ sirtini ishqor yordamida elektrokimyoviy yuvilganda ko'ndalang kesim o'lchamlari taxminan ~ 100Å×100Å atrofidagi balandligi ham 10^{-6} – 10^{-7} m o'lchamida bo'lgan ustunchalar xosil bo'ladi va kristall panjaralarda yuzaga kelgan mexanik kuchlanish natijasida $Si=Si$ bog'larni uzilishi xisobiga mikrokristallitlar xosil bo'ladi. Bog'larning uzilishi natijasida mikrokristallit sirtida zaryadli holatlar yuzaga keladi. Agar $c-Si$ p – tipli bo'lsa akseptorlarni sirtiy zaryadli holatlar ya'ni uzilgan bog'lardagi elektronlar bilan ta'sirlashuvi natijasida mikrokristallit hajmidagi akseptorlar konsentratsiyasi kamayadi va bu jarayon Fermi sathini E_F taqiq sohasi markazi tomon siljishiga olib keladi. Bundan tashqari akseptorlarni sirtiy zaryadli xolatlar bilan razryadlashuvi xisobiga mikrokristallit hajmi bo'ylab akseptorlarni notekis taqsimoti yuzaga keladi va natijada mikrokristallit ichidan tashqariga yo'nalgan elektr maydon yuzaga kelishi o'z navbatida kovaklar uchun potensial to'siqni xosil qiladi.

Ushbu maydon kattaligini va shu bilan birgalikda yuzaga kelgan qo'shimcha potensial to'siqni kattaligi uchun analitik ifoda olishda Puasson tenglamasidan foydalanamiz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$\frac{d\mathcal{E}}{dx} = \frac{eN_p(x)}{\varepsilon_0 \varepsilon} \qquad (0 < x < L) \qquad (1)$$

bu yerda e – elektron zaryadi, $N_p(x)$ – sirtga yaqin sohadagi akseptor konsentratsiyasi, ε – dielektrik singdiruvchanlik, L – kovaklar kambag'allashgan qatlam qalinligi bo'lib, mikrokristallit o'lchami kichikligi xisobiga taxminan kristall panjara o'lchamiga teng olish mumkin, ya'ni $L \approx \left(\sqrt[3]{N_0}\right)^{-1}$, N_0 – kremniy atomlari konsentratsiyasi. Bundan tashqari kristallit o'lchami $\sim 10^{-8} - 10^{-7}$ atrofida bo'lgani uchun kristallit hajmidagi akseptorlar uzilgan bog'lardagi elektronlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi xisobiga sirtiy qatlam musbat zaryadlanadi. Shuning uchun (1) tenglamani integrallashda $N_p(x) \approx const$ va $N_p(x) \cdot L = n_s$ munosabatdan foydalanamiz. U xolda Puasson tenglamasini yechimi

$$\Delta\varphi = \frac{e}{2\varepsilon_0 \varepsilon} N_d L^2 \qquad (2)$$

ko'rinishda bo'ldi. $N_d \cdot L \approx n_{s0}$ (n_{s0} – sirtiy zaryadlar zichligi) munosabatdan quyidagiga ega bo'lamiz

$$\Delta\varphi = \frac{e}{2\varepsilon_0 \varepsilon} \cdot \frac{n_{s0}}{\sqrt[3]{N_0}} \qquad (3)$$

bu yerda n_{s0} – uchun quyidagi munosabat o'rinli

$$n_{s0} = \int_{\mathcal{E}_0}^{\mathcal{E}_s} N(\mathcal{E}) f(E - E_p) dE$$

$N(\mathcal{E})$ – sirtiy holatlar zichligi, $f(E - E_p)$ – Fermi-Dirak taqsimot funksiyasi.

$por - Si$ mikrokristallitini taqiq sohasi kengayishi bilan bir vaqtda hajmiy sohadagi akseptorlarni konsentratsiyasi kamayishi xisobiga Fermi sathi taqiq soha markazi tomon siljiydi va natijada o'tkazuvchanlik sohasidagi potensial to'siqqa nisbatan valent sohadagi kovaklar uchun potensial to'siq balandligi kattaroq bo'ladi [7].

Tok tashuvchilar uchun qo'shimcha potensial to'siqni xosil bo'lishi va mikrokristallit o'lchamini diffuziya uzunligidan kichik bo'lishi tok tashuvchilarni yashash vaqtiga ta'sir ko'rsatadi. U xolda quyidagi ifodadan foydalanishimiz mumkin [8]

$$\tau_p = \frac{L_p^2}{\nu_p S_p (N_s - n_s)} \cdot \left[\frac{\exp\left(\frac{d}{L_p}\right) + 1}{exp\left(\frac{d}{L_p}\right) - 1} + \frac{D_p}{\nu_p S_p n_s} exp\left(-\frac{\Delta\varphi}{kT}\right)^{-1} \right] \qquad (4)$$

bu yerda ν_p – kovaklarning o'rtacha issiqlik tezligi, S_p – sirtiy holatlarda kovaklar tutilishini ko'ndalang kesimi, N_s – sirtiy holatlarning to'la zichligi, d – mikrokristallit o'lchami, D_p – kovaklarning diffuziya koeffitsiyenti, n_{sp} – sirtiy holatlarda tutilgan kovaklar konsentratsiyasi.

Kirish qismida ta'kidlaganimizdek quyosh elementlarini frontal sirtida geterostruktura hosil qilishdan asosiy maqsad sirtiy rekombintsiyani kamaytirishdan iborat edi. Sirtiy rekombinatsiya asosan $c - Si$ bilan $por - Si$ ning chegara qatlamida sodir bo'lgani uchun xosil bo'ladigan rekombinatsion tokda $por - Si$ ning fotoelektrik parametrlari asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun $por - Si$ ning fotoelektrik parametrlari va geterochegarada xosil bo'lgan potensial to'siq uchun olingan (3) va (4) ifodalardan foydalanib $p - por - Si/p - c - Si/n - c - Si$ strukturali quyosh elementlari uchun fototok ifodasini keltirib chiqaramiz.

$por - Si/c - Si$ GETEROSTRUKTURANING QATLAMLARARO SIRTDAGI SIRTIY REKOMBINATSIYANI FOTOTOKKA TA'SIRINI NAZARIY TAVSIFI

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Natijalar va olingan natijalarni muhokamasi. $p-por-Si/p-c-Si$ geterostrukturali quyosh elementini fototokini analitik ifodasini olish uchun quyidagi ikki shart bajariladi deb xisoblaymiz, ya'ni $por-Si$ va $c-Si$ qatlamlarda hajmiy monomolekulyar rekombinatsiyani asosiy va taqiq soha o'rtasidagi lokallashgan zaryadli holatlarni doimiy (N_0) deb xisoblaymiz. Bunday soddalashtirish tufayli quyidagi kattaliklardan foydalanish imkoniga ega bo'lamiz; ekranlashtirishni Debay uzunligi

$$L_D = \left(\frac{\varepsilon\varepsilon_0}{eN_0}\right)^{1/2}$$

rekombinatsiyalashuvchi effektni vaqti τ_p; tok tashuvchilarning diffuziya uzunligi

$$L_{dif} = \left[\left(\frac{kT}{e}\right)\mu\tau\right]^{\frac{1}{2}}$$

Frontal qatlam sifatida yupqa $p-por-Si$ xizmat qiladi. Agarda frontal sirtga qisqa to'lqinli yorug'lik tushirilsa fotonlar asosan $p-por-Si$ qatlamda va $p-c-Si$ qatlamni yuzaga yaqin qatlamlarida yutiladi:

Har ikki qatlam taqiq sohalari o'rtasida $E_{g1} > E_{g2}$ (E_{g1} va E_{g2}- mos ravishda $p-por-Si$ va $p-c-Si$ qatlamlarning taqiq soha kengliklari) munosabat o'rinli bo'lgani uchun kovaklarning generatsiya koeffitsiyentlari o'rtasida ham $G_{p1} > G_{p2}$ munosabat o'rinli bo'ladi. Bundan tashqari (4) ifodaga ko'ra $\tau_{p1} < \tau_{p2}$ munosabat bajariladi. Yuqoridagi munosabatlarni xisobga olsak $p-por-Si$ qatlamdagi erkin kovaklar konsentratsiyasi bilan Δp_1 $p-c-Si$ qatlamdagi erkin kovaklar konsentratsiya o'rtasida $\Delta p_1 \ll \Delta p_2$ munosabat o'rinli bo'ladi. Ushbu munosabatdan kelib chiqib va kovaklar notekis taqsimoti sababli $p-c-Si$ qatlamdan $p-por-Si$ qatlam tomon yo'nalgan ichki elektr maydon yuzaga keladi va shu yo'nalishda kovaklarni diffuziyasi ro'y beradi. Yuqorida keltirilganlarga asoslanib rekombinatsion tok uchun ifodani va uzluksizlik tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozamiz

$$j_R(0) = |e|S_{p1}\Delta p_2(0) \quad (1)$$

$$\frac{1}{e}divj_p = G_p(x) - \frac{\Delta p_2(x)}{\tau_1} \quad (2)$$

$$j_p = e\Delta p_2\mu_{p_2}E(x) - eD_{p_2}\nabla p_2 \quad (3)$$

bu yerda e – elektron zaryadi, j_R - $p-por-Si$ va $p-c-Si$ qatlamlar chegarasida kovaklar xosil qilgan tok, $\Delta p_2(0)$ - $p-c-Si$ qatlam sirtidagi kovaklar konsentratsiyasi, S_{p1} - $p-por-Si$ qatlam sirtidagi sirtiy rekombinatsiya tezligi, μ_{p_2} - $p-c-Si$ qatlamdagi kovaklar harakatchanligi, $E(x)$ – elektr maydon kuchlanganligi, D_{p_2} – $p-c-Si$ qatlamdagi kovaklar diffuziya koeffitsiyenti ($D_{p_2} = \mu_{p_2}\frac{kT}{e}$), D_{p_2} – hajmiy generatsiya tezligi.

(1) ifodadan rekombinatsion tokni topish uchun (2) va (3) tenglamalarni birgalikda ishlab $\Delta p(x)$ ni aniqlaymiz.

Ma'lumki differensial tenglamalarni ishlashda chegaraviy shartlardan foydalaniladi. Chegaraviy shartlarni yuqori chastotali yorug'lik nuri yutilishi xossasidan va $p-por-Si$ qatlam sirtidagi sirtiy holatlar zichligi kattaligini hisobga olib quyidagicha qabul qilamiz

$$p|_{x=0} = 0 \qquad p|_{x=d} = 0 \quad (4)$$

bu yerda $x = 0$ nuqta $p-por-Si$ qatlam sirtiga qarashli, d - $p-c-Si$ qatlamni yorug'lik yorug'lik yutilgan sohasini qalinligi.

(2) va (3) tenglamalardan quyidagi differensial tenglamaga ega bo'lamiz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$\mu_p \frac{d}{dx}[p_2(x)E(x)] + \frac{kT}{e}\mu_p \frac{d^2p_2}{dx^2} = D_{p_2} - \frac{\Delta p_2}{\tau_{p_1}} \quad (5)$$

Yuqori chastotali yorug'likni moddalarda yutilish xossasidan, ya'ni yutilish koeffitsiyentini yutilish chuqurligiga bog'liqligidan $\frac{d^2p}{dx^2} \approx 0$ munosabat bajarilishini ko'ramiz, u xolda (5) ni quyidagi ko'rinishda yoza olamiz.

$$\mu_p p_2(x)\frac{dE(x)}{dx} + \mu_p E(x)\frac{dp_2(x)}{dx} = G_{p_2} - \frac{\Delta p_2}{\tau_{p_1}} \quad (6)$$

Ushbu tenglamada maydon taqsimoti, ya'ni $E(x)$ ma'lum deb olamiz, aks xolda differensial tenglamada ikkita no'malum qatnashadi. Bunday tenglamani yechimini topish murakkab bo'lib, shuning uchun $por - Si$ va $c - Si$ geterostruktura chegarasidagi potensial taqsimoti ma'lum deb olamiz, ya'ni

$\varphi = \varphi_s \exp\left(-\frac{x}{L_0}\right)$, bundan tashqari $G_{p_2} = \frac{\alpha\eta I_0}{\hbar\omega}\exp(-\alpha x)$ ekanini xisobga olsak (6) tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$\mu_p p_2(x)\cdot\frac{\varphi_s}{L_0^2}\exp\left(-\frac{x}{L_0}\right) - \mu_p\frac{\varphi_s}{L_0}\frac{dp_2(x)}{dx}\exp\left(-\frac{x}{L_0}\right) = \frac{\alpha\eta I_0}{\hbar\omega}\exp(-\alpha x) - \frac{p_2(x)}{\tau_p} \quad (7)$$

Ushbu tenglamani tuzishda

$$E = -\frac{d\varphi}{dx};\quad \frac{dE}{dx} = -\frac{d^2\varphi}{dx};\quad \text{va}\quad \Delta p(x) = p_2(x) - p_0(L);\quad p_2(L) = 0$$

munosabatlardan foydalandik. (7) tenglamani yechishda (4) chegaraviy shartlardan foydalanib quyidagi yechimga ega bo'lamiz

$$p(0) = \frac{\alpha\eta I_0 L_0}{\hbar\omega(\alpha\mu_p\varphi_s\tau_p - L_0)} \quad (8)$$

(1) va (8) ifodalardan foydalanib rekombinatsion tok uchun analitik ifoda keltirib chiqaramiz

$$j_p(0) = \frac{e\alpha\eta I_0 L_0 S_p}{\hbar\omega(\alpha\mu_p\varphi_s\tau_{p_1} - L_0)} \quad (9)$$

Xulosa. Olingan ifodani taxlil qiladigan bo'lsak haqiqatan ham sirtiy rekombinatsiya koeffitsienti S_p ortgan sari rekombinatsion tok ortib quyosh elementlarini samaradorligini kamaytiradi, shuningdek potensial to'siq φ_s (3) ifodaga ko'ra va tok tashuvchilarni o'rtacha yashash vaqti τ_{p_1} (4) ifodaga ko'ra mikrokristallit o'lchamiga bog'liq edi, ya'ni mikrokristallit o'lchami kichraygan sari τ_{p_1} qiymati kamayadi, bu esa yana rekombinatsion tokni ortishiga olib keladi. Yuqoridagi mulohazalarga ko'ra S_p va τ_p ni shunday qiymatlarini topish kerakki natijada $j_R(0)$ ni qiymati minimalga ega bo'ladi, bu esa yangi tadqiqotlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. В.П.Афанасев, А.С.Гудовских / солнечные элементы на основе гетероструктуры аморфный / монокристаллический кремний / известия СПБГЕТУ ЛЭТИ №4. 2017 с.5-14
2. КПД солнечных батарей / https//reenergo.ru
3. T.Savada, N.Terada and all / High efficiency $a - Si{:}H/c - Si$ heterojunction solar cell. / Proc. of the 1st WDEC, Hawai. Dec.2003. P.1219-1226
4. Futscher M.H.m Ehrler B. / Efficiency limit of perovskite / Si tandem solar cells / ACS energy Letters 2016 – Vol.1. №4 P.863-868
5. T.Mishim, M.Taguchi, H.Sakora, E.Maruyama / Development status of high-efficiency HIT solar cells / Solar Energy Materials and Solar cells. 2011 Vol.95 P.18-21

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. А.С.Гудовских, А.С.Абрамов и другие. Исследование свойств солнечных элементов на основе $a-Si:H$ $p-i-n$ структур с помощью спектроскопии полной проводимости / ФТП.2013 в.8 с.1084-1090
7. Н.Н.Мельник, В.В.Трегулов, В.Г.Литвинов, А.В.Ермачихин, Е.П.Трусов, Г.Н.Скопцова, А.И. Иванов. Механизмы токопереноса в полупроводниковой структуре с пленкой пористого кремния, сформированной металл-стимулированным травлением. ФТП, 2022, том 56, вып. 4. С.420-425.
8. К.М. Дощанов. Температурная зависимость электрических свойств поликристаллического кремния в темноте и при воздействии солнечного излучения. Физика и техника полупроводников, 1997, том 31, № 8.

FAZO JUFTLIGINI TAU LEPTONLI SISTEMALARDA SAQLANMASLIK EFFEKTLARI

Melibaev Muxtardjan
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, f.m.f.n.
E-mail: m.meliboyev 1950@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada fazo juftliginin neytral toklar ta’siri ostida τ-lepton sistemalarda saqlanmaslik effektlari o‘rganilgan. Foton nurlanish asimmetriya darajasi P~ 10^{-4} tartibda aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *fazo juftligi, τ - -lepton , asimmetriya darajasi, kuchsiz neytral toklar, ta’sir konstantalari, kuchlar interferensiyasi, antilepton, zaryad juftligi, Fazo juftligining saqlanmaslik darajasi.*

ЭФФЕКТЫ НЕСОХРАНЕНИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОЙ ЧЕТНОСТИ В ТАУ ЛЕПТОН СОДЕРЖАШИХ СИСТЕМах

Мелибаев Мухтарджан
Доцент Кокандского государственного педагогического института, к.ф.м.н.
E-mail: m.meliboyev 1950@mail.ru

Аннотация: *Рассмотрена эффекты несохранения чётности в распадах τ -лептоннах системах за счёт нейтральных слабых токов. Степень асимметрии излучения P имеют порядок 10^{-4}.*

Ключевые слова: *пространственная четность, τ -лептон, степен асимметрии, слабые нейтральные токи, константы взаимодействия, силовая интерференция, антилептон, зарядовая четность, степен несохранения пространственной четности.*

PARITY VIOLATION EFFECTS IN THE TAU LEPTON CONSISTANT SYSTEMS

Melibaev Muxtardjan
Uzbekistan, Associate Professor of the Kokand State Pedagogical Institute
E-mail: m.meliboyev 1950@mail.ru

Annotation: *In the article, the non-conservation effects of the space parity in τ-lepton systems under the influence of neutral currents are studied. The asymmetry of photon radiation is defined as P~ 10^{-4}.*

Key words: *space parity, τ -lepton, asymmetric degree, weak neutral currents, influence constants, force interference, antilepton, charge parity, non-conservation space parity.*

Kirish

Atom va yadro sistemalarida fazo juftligining neytral toklar ta'siri ostida bo'ladigan jarayonlar ko'p adabiyotlarda o'rganilgan . Neytral toklarda Fermi kuchi ta'sirida fazo juftligining saqlanmaslik masalasi eksperimental ravishda tasdiqlangan.

Ushbu maqolada bu tadqiqot ishlarini τ- -lepton sektoriga kengaytirish ilmiy metodologiya jixatidan asoslangan va qiziqarli soha hisoblanadi. Shu bugungacha τ - lepton sektorida neytral toklar konstantalari va uning fazo - vaqt simmetriya masalasi ochiqligicha qolmoqda.

Bajarilayotgan ish shu yunalish buyicha qilinayotgan xarakat desa bo'ladi. An'anaviy ravishda fermi ta'sir tokini vektor va aksial toklardan tashkil e'tuvchidan iborat deb shu yo'nalishda xarakat qilsa bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Fazo juftligini neytral kuchsiz toklarda saqlanmaslik masalasi ilk bor Y.B. Zeldovich tomonidan ko'rilgan. Bu isda vodorod atomida neytral kuchsiz toklar ta'sirida nurlanish spektrida fazo juftligini saqlanmaslik goyasi ilgari surilib uning natijasida asimmetrik nurlanish bo'lishi goyasi aytilgan. U paytlarda neytral kuchsiz toklar eksperimentlari kuzatilmagan paytlar bo'lgan. Hozirgi zamonda yuqori energiyali adron va lepton tezlatgichlari qurilib bu yunaliishdagi ishlarga qiziqish ortib bormoqda. Enriko Fermi tomonidan kvant elektrodinamika ta'siriga o'xshash beta parchalanish nazariyasi adron va lepton zaryadli toklar ta'sir sifatida ko'rilib chiqilgan. Hozirgi zamon umumiy elektrokuchsiz ta'sir fazo juftligini saqlanmasligini e'tiborga olgan holda vector va aksial toklar tasiri sifatida o'rganiladi. I. Shwingar, S.Wainberg, A.Salam, Sh.Gleshou tarafidan elektrokuchsiz ta'sir nazariyasi yagona konstanta bilan xarakterlanuvchi foton va ikki zaryadli o'rta bozon hamda bir neytral o'rta bozon orqali ta'sirli nazariya yaratilib va u eksperimental tasdiqlanib Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. Shu nazariya orqali hozirda barcha elektrokuchsiz jarayonlar extimolligi va natijalarni hisoblab toppish mumkin. Fazo juftligini atom va sochilish jarayonlarida I.B.Xriplovich. L.N, Labzovsky, V.G.Gorshkov, A.N.Moskalyov va M.A.Bushyat, tarafidan o'rganilgan. M.Melibaev tomonidan fazo juftligini saqlanmaslik rentgen nurlanish jarayonlarida kashf etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada bu tadqiqot ishlarini adron-lepton sektoriga kengaytirish ilmiy metodologiya jixatidan asoslangan va qiziqarli soxa hisoblanadi. Hozirda τ - lepton sektorida neytral toklar konstantalari va uning fazo - vaqt simmetriya masalasi ochiq qolmoqda.

Bajarilayotgan ish shu yunalish bo'yicha qilinayotgan xarakat desa bo'ladi. An'anaviy ravishda fermi ta'sir tokini vektor va aksial tashkil etuvchidan iborat deb shu yunalishda xarakat qilsa bo'ladi. Atom sohasida uygotilgan atom nurlanishida taqiqlangan o'tishni tanlash maqsadga muvofiq holat bo'ladi. Bu metod bilan assimmetriya koefisientini aralash o'tishlar va energetic maxraj hisibiga kattalashtirsa bo'ladi. Shu metod bilan asimmetrik interferension effektlar ancha kuchayadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlillar va natijalar

Oxirgi vaqtda umumlashtirilgan elektromagnit va kuchsiz ta'sir hamda kuchli ta'sirni yagona ta'sir asosida qarovchi Waynberg - Salam - Gleshow modeliga asoslangan. Neytral toklarga asoslangan τ lepton- adron ta'sir Feynman diagrammasini quyidagicha ifodalasa bo'ladi.


Yadroni spinsiz deb o'ylab fazo juftligini saqlamaydigan τ -lepton va nuklon orasidagi potensiallarni quyidagicha yozish mumkin [3,5] ***(h=c=1 birlikda).***


$$V^{\tau n} = \frac{G}{\sqrt{2}}\left(g^{\tau n}\cdot\gamma_5^{(e)} + g_2^{\tau n}\alpha^{\to(\tau)}\sigma^{(n)}\right)\delta(r) \qquad \textbf{(1)}$$

$$V^{\tau\tau} = \frac{G}{\sqrt{2}}\left(\gamma_5^{(i\tau)}\cdot\right.$$

$$\gamma_5^{(2e)} +$$

$$\alpha^{\to(1\tau)}\sum_2^{\to(2\tau)}\cdot +$$





$$\left.\alpha^{\to(2\tau)}\sum_1^{\to(1\tau)}\cdot\right)\delta(\vec{r}_{12}) \qquad \textbf{(2)}$$

$\gamma_5, \vec{\alpha}, \overrightarrow{\Sigma -}$ ***Dirak matritsalari*** α ***–Pauli matritsasi, G-Fermi kuchsiz konstantasi.*** g_1, g_2 - ta'sir parametrlari.

Bu potensiallar qisqa ta'sir doirasiga ega va juftlikni saqlamaydi. Ko'pgina ishlarda mezoatomlarda fazo juftligning saqlanmaslik g'oyalari qurilgan.

Bu ishda τ-lepton va antilepton bog'langan sistemada fazo juftliginining saqlanmaslik protsesslarini ko'ramiz.

Fermi konstantasi o'lchov birligi $G = 10^{-5}(m_\tau/m_e)^2$ bulgani uchun τ -lepton **sistemasida fazo juftligi effekti** $(m_\tau/m_e)^2 = (\frac{1,78}{0,51}\cdot 10^3)^2 = 10^7$ **marta katta bo'ladi.**

Lekin bu eksperimentlarda bunday sistemalarni ko'p xosil qilish muammosi bor. bo'ladi. Atomlar oddiy o'tishlaridan farqli o'laroq bu yerda interferension xad yo'q

(kuchsiz ta'sir ostida o'tuvchi amplitudaga interfernsiya qiluvchi o'tish yo'q, chunki ta'qiq qat'iy) va effekt kvadratik bo'ladi.

$$W_{MI} = \left(\frac{\langle V\rangle}{\Delta E}\right)^2 W_{EI} \qquad (3)$$

Shuning uchun τ-lepton massasi katta bo'lgani tufayli $m_\tau = 1{,}782\ GeV$ $(\tau^+\tau^-)$ sistema satxlari 2^3S_1, l^3S_1, l^3P_1 xolatlardan iborat.

$\Delta E = (2^3S_1) - E(1^3S_1)$. Bu sistemalar uchun effekt kichik ta'qiqlangan o'tish darajasi 10^{-8} ni tashkil etadi.

Tau lepton va nuklon bog'langan sistema bo'lganda - τ lepton atomi xaqida fikr yuritish mumkin [2].

Fazo juftligining saqlanmaslik darajasi τ--lepton massasi ortishi bilan ortadi. Demak, elektron va myuonga nisbatan effekt katta bo'ladi. Bor orbitasi radiusi $a_\tau = h/(\alpha m_\tau c) = 1{,}7\cdot 10^{-12}$ ga τ -lepton

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

uchun teng bo‘ladi va to‘lqin funksiyasi amplitudasi yadroda katta bo‘ladi. Yadro zaryadini o‘zgartirish bilan xosil bo‘luvchi eksperimental konkurent protsesslarni pasaytirish imkoniyati bor. τ -lepton atomlar energiya satxlari katta qiymatga ega bo‘lgani sababli tasodifiy tashqi maydonlarga beriluvchanlik kam bo‘ladi.

τ -leptonlardagi eksperiment afzalliklari $\mu - e$ Fermi neytral toklar universalligini τ -lepton sektorida tekshirish imkoniyatining yangi usulidir. Bu tadqiqotning eng qiyin tarafi katta miqdorda τ -leptonlarni va atomlarni tayyorlash va kerakli statistik natijalarni olish hisoblanadi.

Atom o‘ta nozik ta’sirini e’tiborga olmagan xolda τ -leptonni yadro bilan ta’sirini ko‘rib o‘tamiz.

Bu xolatda τ -lepton va yadro orasidagi potensialda τ- lepton spiniga $\vec{S} = \vec{a}/2$ proporsional xadni qoldirib.

$$V = \frac{Gh^3}{2\sqrt{2m_\tau c^2}} Z \cdot q_\tau \vec{\alpha}[\vec{p}\delta(\vec{r})\vec{p}] \qquad (4)$$

$$q_\tau = g_{1p} + \frac{N}{Z} g_{1n}$$

Bu yerda $m_\tau - \tau$ lepton atomidagi keltirilgan massa, Z-protonlar soni, N-yadrodagi neytronlar soni. Fazo juftligi saqlanmaslik va elektromagnit o‘tish formulalari vodorod atomiga o‘xshash bo‘ladi.

Fazo juftligining saqlanmaslik darajasi $P = -2Fr$

$$F = \frac{G\sqrt{3}}{32\sqrt{2}} Z q_\tau \frac{m_\tau^2 c^2 (Z\alpha)^4}{E(2S) - E(2P)} \qquad (5)$$

$$r = \sqrt{\frac{W_p}{W_s}} = \frac{2^s}{3\sqrt{3}} (Z\alpha)^{-3} = 1{,}6 \cdot 10^7 \cdot Z^{-3} \qquad \textbf{(6)}$$

$2S \to 1S + \gamma M1$ **o‘tish va aralash** $2P \to 1S + \gamma E1$ **o‘tish extimolliklari mos ravishda**

$$W_s = \frac{1}{2^2 3^5} \cdot \alpha (Z\alpha)^{10} \cdot \frac{m_2 c^2}{h} \qquad \textbf{(7)}$$

$$W_p = \left(\frac{2}{3}\right)^g \cdot \alpha (Z\alpha)^4 \cdot \frac{m_\tau c^2}{h} \qquad \textbf{(8)}$$

Vodorod atomida energiya farqiga bog‘langan elektron xususiy energiyasiga radiatsion tuzatma xissa qo‘shadi. Tau lepton atomi xolatida 2S va 2P farqiga vakuum qutublanish (ya’ni elektron va pozitron virtual par hosil bo’lishi) radiatsion tuzatmasi asosiy hissa qo’shadi. Bu hodisa yadroga $r = (h/m_\tau c\, \alpha Z)$ masofada bo‘lib τ –lepton orbitasi tartibida bo‘ladi. Vakuum qutublanishi kichik masofalarda yadro effektiv zaryadining ortishiga sabab bo‘ladi. Bu $\boldsymbol{\tau}$ -lepton yadro zaryadidan kattaroq zaryadni xis qiladi degani va S sath pastga siljiydi, chunki S holat amplitudasi relyativistik sohada juda katta. P xolat relyativistik amplitudasi yadroda relyativistik tuzatma natijasida gradiyent hisobiga ortadi lekin S xolatchilik emas.

Yadro zaryadi $Z>4$ bo‘lganida yadro o‘lchami teskari effekt beradi. Energiyani yadro o‘lchami bilan bog‘lik siljishi quyidagicha

$$\delta E_S = \frac{1}{12h^2} (Z\alpha)^4 m_\tau C^4 < r^2 > \qquad (9)$$

$$\delta E_p = 0$$

bu yerda $< r^2 >$ yadro yadro taqsimoti o‘rtacha kvadratik radiusi. Yuqoridagi formulalardan foydalanib vodorodsimon τ lepton atomi uchun $2S \to 1S$ o‘tishdagi juftlikning saqlanmasligini xisoblash mumkin.Vodorodsimon $(p + \tau^-)$ sistemada interferension protsesslar birinchi tartibda kechadi. Shunisi qiziqki bu ikkita sistema juda xam massa va zaryadi bir-biriga yaqin bo‘lgani bilan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

protsesslar g‘alayonlar nazariyasini birinchi va ikkinchi tartibi asosida ro‘y beradi. Bu ikki bir-biridan uzoq bo‘lgan natija fizik moxiyati muallifga noma’lumligicha qolmoqda.

Yadro radiusini hisobga olib sathlar $(2p_{1/2}, 2s_{1/2})$ Lemb siljishini hisoblab, Vodorod, Kislorod, Volfram, Vismut, Uran izotoplari uchun hisoblangan magnit dipol, elektik dipol o‘tishlari ehtimolligi, nurlanish assimetriya koeffitsiyentlarining hisobi quyidagi.

$$P = +2Fr = 2 \cdot F\sqrt{\frac{W_1}{W_0}}: \qquad (10)$$

$P_N = 0{,}9$, $P(^{16}0_8) = 1{,}02 \cdot 10^{-2,}$ $P(^{182}W_{74}) = 1{,}6 \cdot 10^{-4}$; $P(^{182}W_{74}) = 1{,}6 \cdot 10^{-4}$; $P(^{238}U_{92}) = 1{,}06 \cdot 10^{-4}$; $\mathrm{P}(^{244}Pu_{94}) = 1{,}7 \cdot 10^{-4}$;) ga teng bo’ldi.

Xulosalar

Elemtar zarralar ta’sirini o’rganishda ularning fazo-vaqt tizimini tadqiqot ishlari adron-lepton sektoriga kengaytirish ilmiy metodologiya jixatidan asoslangan va qiziqarli soha hisoblanadi. Hozirda τ - lepton sektorida neytral toklar konstantalari va uning fazo - vaqt simmetriya masalasi ochiq qolmoqda va bu tadqiqot imkoniyatlardan biri hasoblanadi. Fikrimizcha tadqiqotlarni katta energiya sohasiga kengaytirilishi katta imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Tau lepton yashash davrini hisobga olib olingan natijalarni eksperiment imkoniyatlarini o’rganish Tau lepton tabiatini ochish yo’lida o‘z samarasini beradi . Bu jarayonlarni kuzatganda katta statistik ma’lumot to’plash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1.Salam A.. Nobel Symposium №8. Stockliolm, 1968.

2.Meliboyev M.. Ibragimova R. O spektrax -leptoniya i τ -leptonnых atomov. Tez.dokl.resp.konf.molodix uchyonых-fizikov VUZov 8-10 dekabrya. 1988 g. -Toshkent. 1988.

3. Moskalev A N. Rindin R.M.. Xriplovich I.B. UFN. T.118, vip. 3.1976.c.408. . 4.Labzovskiy L.N.. Melibayev M.. Parity violation effects in decays of autoionisable states of two-electron atoms and and ions. -Journal of Physics B. England. London. №12. 1979. pg. 2115. [5,2491].

5. L.N.Labyuvskiy. Effektы nesoxraneniya chetnosti v fizike atomov. Izvestiya akademiya nauk . Seriya fiz. T. 41. №12. 1977.S.2491.

6. M.Melibaev, Z. Azizova Wolfram atom rentgen nurlanish spektrlarida fazo juftligini saqlanmaslik jarayonini kuzatish imkoniyatlari. Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2022 yil 12 aprel. Toshkent.

ISSN: 2181-0427

KONDENSIRLANGAN MUHITLARDA YORUG'LIKNI SUYUQLIKLARDA SOCHILISH INTENSIVLIGINI ANIQLASH

Axmedov Erkin Raxmonovich p.f.b.f.d., (PhD).,
Norqulov Saydulla Karimovich
Jizzax politexnika instituti"Elektr texnologiyasi" kafedrasi mudiri,
Jizzax politexnika instituti"Fizika" kafedrasi assistenti, erkinaxmedov8555@gmail.com,
noqulovsaydullakarimovich@gmail.com

Annotatsiya: *Maqlada kondensirlangan muhitlardagi suyuqlikda qutblangan yorug'lik tushayotgan to'lqinlar bo'lsa, har bir molekulada dipol momenti paydo bo'lib, u elektromagnit to'lqinlar tarqata boshlaydi. Sochilish intensivligini topishda faqat zichlik va temperatura fluktuatsiyalari hisobga olingan.*

Kalit so'zlar: *Kondensirlangan muhit, suyuqlik, yorug'lik, intensivligini, fluktuatsiyasi, molekulalar, zichlik, fenomenologik, issiqlik harakat, temperatura, elektromagnit to'lqin va anizotropik.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИНТЕНСИВНОСТИ РАССЕЯНИЯ СВЕТА В ЖИДКОСТЯХ В КОНДЕНСИРОВАННЫХ СРЕДАХ

Ахмедов Эркин Рахмонович кандидат педагогических наук, (PhD).
Сайдулла Каримович Норкулов
заведующий кафедрой «Электротехнологии»
Джизакского политехнического института,
Ассистент кафедры «Физика» Джизакского политехнического института
erkinaxmedov8555@gmail.com,
noqulovsaydullakarimovich@gmail.com

DETERMINATION OF THE INTENSITY OF LIGHT SCATTERING IN LIQUIDS IN CONDENSED MATTER

Akhmedov Erkin Rakhmonovich Candidate of Pedagogical Sciences, (PhD).
Saidulla Karimovich Norkulov
Head of the Department of Electrical Technologies
Jizzakh Polytechnic Institute,
Assistant at the Department of Physics, Jizzakh Polytechnic Institute,
erkinaxmedov8555@gmail.com,
noqulovsaydullakarimovich@gmail.com

Kirish

Suyuqliklarda turli zarrachalardan sochilgan yorug'lik interferensiyasi juda kuchli. Shuning uchun suyuqliklarda sochilgan yorug'lik intensivligini har bir zarradan tarqalayotgan ikkilamchi to'lqin summasi deyish qiyin. Suyuqliklarda yorug'lik sochilishning fenomenologik nazariyasini Smoluxovskiyning yorug'lik moddalarda zichlik va orientatsiya fluktuatsiyasi tufayli sochiladi degan xulosasiga asoslanib A.Eynshteyn yaratadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili

Yorug‘likning suyuqliklarda sochilishining termodinamika qonunlariga asoslangan fenomenologik nazariyasi A.Eynshteyn yaratdi. Bu nazariyada suyuqlik uzluksiz muhit deb faraz qilinadi va suyuqlik tuzulishining biror modeliga asoslanmaydi. Shu sababli bu nazariya fenomenologik nazariya deyiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Kondensirlangan muhitlardagi suyuqlikda qutblangan yorug‘lik tushayotgan to‘lqinlar bo‘lsa, har bir molekulada dipol momenti paydo bo‘lib, u elektromagnit to‘lqinlar tarqata boshlaydi. Sochilish intensivligini topishda faqat zichlik va temperatura fluktuatsiyalari hisobga olinadi. Chunki orientatsiya fluktuatsiyasini termodinamika qonunlari asosida hisoblab bo‘lmaydi. Molekulalarning issiqlik harakati zichlik fluktuatsiyasiga olib keladi, bu esa dielektrik singdiruvchanlik fluktuatsiyasiga sabab bo‘ladi. Bu bog‘lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta\varepsilon = \frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\Delta\rho \qquad (1)$$

bu yerda Δε-dielektrik singdiruvchanlikning fluktuatsiyasi.

⊚⊚⊚ - ning temperatura fluktuatsiyasiga bog‘liq bo‘lgan qismi.

$$\Delta\varepsilon = \frac{\partial\varepsilon}{\partial T}\Delta T \qquad (2)$$

juda kichik bo‘lganidan temperatura fluktuatsiyasi tufayli sochilgan yorug‘lik intensivligi umumiy intensivlikning 0,1 - 1 % ni tashkil etadi.

$$E^{S1} = E^S + \Delta E^S = \frac{\omega^2}{c^2 r}\frac{\varepsilon-1}{4\pi}\mathrm{v}E\sin\theta + \frac{\omega^2}{c^2 r}\frac{\Delta\varepsilon}{4\pi}\mathrm{v}E\sin\theta \qquad (3)$$

$$\Delta E^S = \frac{\omega^2}{c^2 r}\frac{\varepsilon-1}{4\pi}\mathrm{v}E\sin\theta \qquad (4)$$

Bunga (1) ni qo‘ysak:

$$\Delta E^S = \frac{\omega^2}{c^2 r}\cdot\frac{\mathrm{E}}{4\pi}\left(\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\Delta\rho\right)vE\sin\theta \qquad (5)$$

Tahlillar va natijalar

Sochilgan yorug‘lik intensivligini topish uchun kuzatilayotgan nuqtaga hamma elementlar hajmlardan kelayotgan elektromagnit to‘lqinlar maydon kuchlanganliklari fluktuatsiyalarining summasini olib, uni kvadratga ko‘taramiz:

$$(\sum\Delta E_i)^2 = \frac{\omega^2}{c^4 r^2}\cdot\frac{\mathrm{E}^2}{16\pi^2}\left(\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 \sin^2\theta(\sum\mathrm{v}_i\Delta\rho_i)^2 \qquad (6)$$

bu formuladagi $(\sum\mathrm{v}_i\Delta\rho_i)^2$ ni topamiz:

$$(\sum\mathrm{v}_i\Delta\rho_i)^2 = v^2\sum\Delta\rho_i^2 + \mathrm{v}^2\sum\Delta\rho_i\,\Delta\rho_k \qquad (7)$$

$\Delta\rho_i$ *va* $\Delta\rho_k$ lar bir-biriga bog‘liq bo‘lmagani uchun $\Delta\rho_i\,\Delta\rho_k = 0$ u vaqtda

$$(\sum\mathrm{v}_i\Delta\rho_i)^2 = \mathrm{v}^2\Delta\rho^2 N = \mathrm{v}\Delta\rho\mathrm{v} \qquad (8)$$

bunda V – umumiy hajm, N – elementlar hajmlar soni. (8) ni (9) ga qo‘ysak va $\omega = 2\pi v = 2\pi\frac{c}{\gamma}$ ni hisobga olsak,

$$I = I_0\frac{\pi^2}{\gamma^4 r^2}\left(\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 \sin^2\theta\mathrm{v}\Delta\rho^2\,\mathrm{v} \qquad (9)$$

bu yerda Δp^2 ni hisoblasak, quidagini hosil qilamiz:

$$\Delta\rho^2 = \frac{\rho^2}{V}\acute{e}Tx \qquad (10)$$

(9) ni (10) ga qo‘ysak:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$I = I_0 \frac{\pi^2}{2\gamma^4 r^2}\left(\rho\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 éTx \text{ v } sin^2\theta \qquad (11)$$

Bu qutblangan yorug‘lik suyuqlikka tushganda sochilgan yorug‘likning intensivligi.

Agar tabiiy nur tushatotgan bo‘lsa, uni bir - biriga perpendikulyar qutblangan ikki nur deb olib, ularning har biridan sochilgan yorug‘liklarning intensivliklarini qo‘ysak, Eynshteyn-Smoluxovskiy formulasi kelib chiqadi.

$$I = I_0 \frac{\pi^2}{2\gamma^4 r^2}\left(\rho\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 kTx\text{v}(1 + cos^2\gamma \qquad (12)$$

Bu yerda γ-sochilish burchagi.

$$R = \frac{\pi^2}{2\gamma^4} éTx\left(\rho\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 \qquad (13)$$

$$h = \frac{16\pi^3}{6\gamma^4} éTx\left(\rho\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 \qquad (14)$$

Eynshteyn-Smoluxovskiy formulasini izotrop gazlar uchun chiqarilgan formulaga kelishtirish mumkin. Ma’lumki,

$$R_\gamma T = P\text{v} \qquad (15)$$

Buni N_A ga bo‘lamiz:

$$\frac{R_r T}{N_A} = \frac{P\text{v}}{N_A} \qquad (16)$$

bundan izotermik siquluvchanlik $X = \frac{1}{\text{v}}\left(\frac{\partial\text{v}}{\partial\rho}\right)_T = \frac{1}{P}$ bu tenglikni hamda

$\rho = \frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho} = P\frac{\partial\text{n}^2}{\partial\rho} = 2(n-1)$ va $n - 1 = 2\pi N_1\alpha$ ni hisobga olsak,

$$I = I_0 \frac{\pi_2}{2\gamma^4 r^2}\cdot\frac{\rho}{N_1} 4(n-1)^2\text{v}(1 + cos^2) \qquad (17)$$

bundan

$$I = I_0 \frac{2\pi_2}{\gamma^4 r^2}\frac{(n-1)^2}{N_1}\text{v}(1 + cos^2) \qquad (18)$$

Shu formulani chiqarish kerak.

Xulosalar

Shunday qilib, suyuqliklarda zichlik fluktuatsiyasi tufayli sochilgan yorug‘lik intensivligi Eynshteyn-Smoluxovskiy formulasi bilan ifodalanadi:

$$R_{zich} = \frac{\pi^2}{2\gamma^4} kTx_T\left(\rho\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)^2 \qquad (19)$$

Bu yerda xT- izotermik siqiluvchanlik, p - zichlik, - $\left(\frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho}\right)_T$ dielektrik singdiruvchanlikdan temperatura o‘zgarmaganda zichlik bo’yicha olingan hosila. Sochilgan yorug‘likning to‘liq intensivligini olish uchun (19) ga yana anizotropiya fluktuatsiyasi tufayli sochilgan yorug’lik intensivligini qo‘shib olish kerak. Ma’lumki, anizotropik sochilish nazariyasi yaratilmagan, shuning uchun suyuqliklarda anizotrop sochilishning intensivlikdagi hissasi quyidagi Kaban faktori bilan hisobga olinadi:

$$f = \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \qquad (20)$$

(20) ni (19) ga ko‘paytirsak to‘liq sochilish doimiysi formulasini hosil qilamiz:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$R_{óė} = \frac{\pi^2}{2\gamma^4} éTx_T \left(\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho}\right)^2_{ò} = \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \qquad (21)$$

Sochilgan yorug'lik spektrining E.F.Gross tomonidan ochilgan nozik strukturasi suyuqliklarda zichlikning ikki xil fluktuatsiyasini hisobga olish kerakligini ko'rsatdi. Zichlik fluktuatsiyasi bosim doimiy bo'lgandagi va entropiya doimiy bo'lgandagi fluktuatsiyaga, ya'ni izobarik va adiabitik fluktuatsiyaga bo'linar ekan. Shuning uchun to'liq intensivlikni ikki haddan iborat deb qarash mumkin, ya'ni

$$R_{to'liq} = \frac{\pi^2}{2\gamma^4} kT \left(\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho}\right)^2_T \left(x_S \frac{\delta^2 T}{\rho c_\rho}\right) \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \qquad 22)$$

Bu yerda X_s- adiabatik siqiluvchanlik, δ- issiqlikdan kengayish koeffisienti. C_p- bosim doimiy bo'lgandagi solishtirma issiqlik sig'imi hisoblaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Huppert D., Douglass D. D., Rentzepis P. Rotational diffusion of aromatic dianions. – J. Chem. Phys., 1980, v. 72, N 4, p. 2841 – 2848.*
2. *Hu C. M., Zwanzig R. Rotational friction coefficients for spheroids with the slipping boundary condition. – J. Chem. Phys., 1984, v. 60, N 11, p. – 4357.*
3. *Дебай П. Полярные молекулы. – М. – Л., 1931. – 247 с.*
4. *Бобрович В. П., и др. Особенности поляризованной флуоресценциистильбена. -Журн. прикл. Спектроскопии, 1980 т. 32, вып. 3, с. 464-467.*
5. *Bauer R., Szczurek T. Depolarization of fluorescence of dye solutions by thermal motion of molecules. – Acta Phys. Polon, 1962, v. 22, N 1, p. 29-36.*
6. *Perrin F. Movement Brownian d'un ellipsoide II. Rotation libre et depolarization des fluorescences. Translation et diffusion de molecular ellepsoidales. – J. Phys. Radium, 1936, v. 7 (ser. VIII), N 1, p. 1-4.*
7. *Блохин А. П., Толкачев В. А. Поляризация флуоресценции свободныхмногоатомных молекул. – Оптика и спектроскопия, 1981, т. 51, вып. 2, с. 278-284.*
8. *Chuang T. J., Eisenthal K. B. Theory of fluorescence depolarization by anisotropic rotational diffusion. – J. Chem. Phys., 1972, v. 57, N 12, p. 5094-5097.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

02.00.00 KIMYO FANLARI ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ CHEMICAL SCIENCES

O-FENILENDIAMINNING NAFTALIN 1,5-DISULFOKISLOTASI BILAN HOSIL QILGAN MOLEKULYAR KOMPLEKSI SINTEZI VA TADQIQOTI

[1]Ahatov Alisher Ashur o'g'li, [2]To'rayev Xayit Xudaynazarovich, [3]Ashurov Jamshid Mengnorovich, [4]Tillayev Xolmamat Raxmanovich,
[5]Jalilov Abdulaxat Turapovich
[1]Termiz davlat universiteti doktoranti
[2]Termiz davlat universiteti k.f.d., prof.
[3]O'zRFA O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti, k.f.d., prof. [4]Termiz davlat universiteti k.f.f.d., dots.
[5]O'zRFA akademigi, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti k.f.d., prof.
E-mail: aaahatov@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishimizdan asosiy maqsad o-fenilendiaminning kompleks xossalarini va hosil qilingan komplekslarning amaliyotga tadbiqini o'rganishdan iborat. Ilk bor o-fenilendiaminning naftalin 1,5-disulfokislotasi bilan $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,$2(C_6H_9N_2)^+$ tarkibli aralash ligandli kompleks birikmasi sintez qilindi. Sintez qilingan kompleks birikmaning fizik-kimyoviy tadqiqot usullariga asoslanib tarkibi, kimyoviy formulasi va reaksiya tenglamalari taklif qilindi. Rentgen tuzilish tahlili (RTT) va DFT hisoblashlari yordamida molekulaning molekulyar massasi, fazoviy shakli, bog'lar orasidagi masofa va bog' burchaklari o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *o-fenilendiamin, naftalin 1,5-disulfokislota, sokristall, IQ-spektr, vodorod bog'lar geometriyasi.*

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ МОЛЕКУЛЯРНОГО КОМПЛЕКСА О-ФЕНИЛЕНДИАМИНА С НАФТАЛИН-1,5-ДИСУЛЬФОКИЛОТОЙ

[1]Ахатов Алишер Ашур ўғли, [2]Тураев Хайит Худайназарович, [3]Ашуров Жамшид Менгнорович, [4]Тиллаев Халмамат Рахманович, [5]Джалилов Абдулахат Турапович
[1] Термезский государственный университет докторант
[2]Термезский государственный университет д.х.н., проф.
[3]УзРФА Институт биоорганической химии имени О.С.Содиков д.х.н., проф.
[4]Термезский государственный университет к.х.н., доц.
[5]Академик АН РУз., директор Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии д.х.н., проф.
E-mail: aaahatov@mail.ru

Аннотация: *Основная цель данной исследовательской работы – изучение комплексных свойств о-фенилендиамина и изучение практического применения образующихся комплексов. Впервые синтезировано сложное сочетание о-фенилендиамина с нафталин-1,5-дисульфокислотой $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,$2(C_6H_9N_2)^+$. На основе физико-химических методов исследования предложены состав, химическая*

ISSN: 2181-0427

формула и уравнения реакций синтезированного комплексного соединения. Рентгеноструктурный анализ (RTT) и расчеты DFT были использованы для изучения молекулярной массы, пространственной формы, расстояния между связями и валентных углов молекулы.

Ключевые слова: *о-фенилендиамин, нафталин-1,5-дисульфокислота, сокристалл, ИК-спектр, геометрия водородных связей.*

SYNTHESIS AND STUDY OF THE MOLECULAR COMPLEX OF O-PHENYLENEDIAMINE WITH NAPHTHALEN-1,5-DISULPHOCYLOTE

[1]Alisher Ahatov [2]Hayit Turaev [3]Jamshid Ashurov [4]Xolmamat Tillayev [5]Abdulahat Jalilov
[1]Termez State University doctoral student
[2]Termez State University Doctor of Chemical Sciences, professor
[3]Institute of Bioorganic Chemistry, Academy of Sciences of Uzbekistan Doctor of Chemical Sciences, professor
[4]Termez State University, Doctor of Philosophy in Chemistry, Associate Professor.
[5]Tashkent Chemical Technology Research Institute, Doctor of chemical sciences, prof., academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
E-mail: aaahatov@mail.ru


Abstract: *The main goal of this research work is to study the complex properties of o-phenylenediamine and to study the practical application of the formed complexes. For the first time, a complex combination of o-phenylenediamine with naphthalene 1,5-disulfoacid (C10H6S2)2-,2(C6H9N2)+ was synthesized. Based on the physico-chemical research methods, the composition, chemical formula and reaction equations of the synthesized complex compound were proposed. X-ray structure analysis (RTT) and DFT calculations were used to study the molecular mass, spatial shape, distance between bonds and bond angles of the molecule.*

Key words: *o-phenylenediamine, naphthalene 1,5-disulfoacid, cocrystal, IR spectrum, geometry of hydrogen bonds.*

Kirish

O-fenilendiaminning boshqa faol ligandlar bilan molekulyar komplekslar va 3d-metall atomlari bilan faol metallokomplekslar hosil qilishi adabiyotlarda keltirilgan[1]. O-fenilendiaminga nisbatan uning sokristallari va xelatlangan komplekslari biologik jihatdan faol ekanligi tajribalarda isbotlangan[2]. O-fenilendiamin asosan tibbiyotda farmatsevtik preparatlar tayyorlashda, qishloq xo'jaligida gerbitsit va fungitsitlar olishda oraliq modda sifatida ishlatiladi. O-fenilendiamin va uning metallokomplekslari bakteriya shtamplariga qarshi antibakterial faolligi yuqori ekanligi isbotlangan[3]. O-fenilendiamin molekulasida -NH_2 guruhlari yonma-yon joylashganligi tufayli, elektron zichlik ortadi. Shu sababli uning boshqa izomerlariga nisbatan kompleks hosil qilish qobilyati yuqori hisoblanadi. Azot atomi bunda –sp^3 gibridlangan holatda bo'ladi va –NH_2 guruhidagi bitta N-H bog'i benzol halqasi bilan bir xil tekislikda yotadi[4-5]. Shuning uchun azot va vodorod atomlarining gomolitik uzilish imkoniyati yuqori bo'ladi va bu fotokimyoviy 3d o'tish jarayonlarida asosiy vodorod manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda redoks potensiallarining yuqori ritmik ravishda o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Shu sababli o-fenilendiaminning sokristallar hosil qilishi va 3d metallari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi[6-7].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. O-fenilendiamin molekulasining tuzilish formulasi.

Fenil halqali birikmalarda asosan polimorfizm hodisasi juda kam uchraydi. Ammo fenil halqali amino birikmalarga aminokislotalarning birikishi natijasida allen tipidagi polimorfizm hodisasining uchrashi o-fenilendiamin hosilalarida ko'p kuzatilgan[8]. O-fenilendiaminning o'zaro sokristallari singoniyasi monoklinik fazoviy shakli C-2 ekanligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan[9].

Tadqiqot metadologiyasi

Ushbu tadqiqot ishi xorijiy va mahalliy olimlarning shu sohada olib borgan ilmiy ishlari asosida olib borildi. Hosil qilingan yangi $(C_{10}H_6S_2)^{2-},2(C_6H_9N_2)^+$ tarkibli molekulyar kompleksining tarkibi, tuzilishi va kristall parametrlari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganildi va xossalari tadqiq qilindi.


Natijalar va tahlillar


Ushbu tadqiqot ishini bajarishda ishlatiladigan moddalar va reagentlar tijorat manbalaridan (Ilk-Farma) olingan. Olingan ligandlarning tozalik darajasi 99% ni tahkil etadi. Shuningdek reaksiyaga bog'lovchi modda sifatida "muz sirka kislota" ishlatilgan.

$(C_{10}H_6S_2)^{2-},2(C_6H_9N_2)^+$ molekulyar kompleksi sintezi. Dastlab analitik tarozida o-fenilendiamindan 0.005 mol (0,54 g) va naftalin-1,5-di-sulfokislotaning dinatriyli tuzidan 0,0025 mol (0,83 g) tortib oldik. O-fenilendiaminning spirtli eritmasi va naftalin-1,5-disulfokislotaning dinatriyli tuzining suvli eritmasidan teng hajmda tayyorlandi. Birinchi va ikkinchi eritmalarni aralashtirib teng hajmda 5 ta flakonga bo'lib soldik va bog'lovchi modda sifatida sirka kislota eritmasidan foydalandik. Flakonlar 12 kun o'zgarmas 25-28ºC haroratli termostatda qoldirildi. Jarayon oxirida flakonlar tagida qoramtir sariq rangli bis(2-aminoanilin) naftalin-1,5-disulfonat ($(C_{10}H_6S_2)^{2-},2(C_6H_9N_2)^+$) kristallar hosil bo'lganligini kuzatdik. Olib borilgan fizik-kimyoviy tadqiqotlar va RTT usuli yordamida sintez qilingan bis(2-aminoanilin) naftalin-1,5-disulfonat ($(C_{10}H_6S_2)^{2-},2(C_6H_9N_2)^+$) sokristalining tuzilishi, hosil bo'lish reaksiya tenglamasi va boshqa kristall parametrlari o'rganildi.

Ushbu tadqiqot ishini bajarishda O'zRFA O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti kompleks birikmalar laboratoriyasida mavjud bo'lgan Xcalibur R Oxford Diffraction difraktometri asbobi yordamida RTT usuli orqali molekulaning kristall parametrlari olindi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427






2-rasm. Fenilendiaminning IQ-spektri


2-rasmda 3385,07 sm^{-1} past intensiv sohada ν(Ar)=C-H bog‘ining, 3189.62 sm^{-1} sohada esa aromatik halqadagi C-H bog’ining valent tebranishini va aromatik halqadagi halqa tekisligida bo’layotgan deformatsion tebranishlar natijasida 1631,78 sm^{-1}, 1591.27 sm^{-1} ko’rinadigan yutilish polasalarida NH2 guruhlarining mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Spektrdagi 1273.02 sm^{-1} yutilish polasasida C-N guruhining valent tebranishi va 1776.44 sm^{-1} sohada -C=C- bog‘ining valent tebranishlari yuzaga keladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



3-rasm. Sintez qilingan bis(2-aminoanilin) naftalin-1,5-disulfonat $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,2$(C_6H_9N_2)^+$ tarkibli kompleksning IQ-spektri

3-rasmda tasvirlangan spektrning 3392.79 sm^{-1} yutilish sohasida ν(Ar)=C-H bog‘ining valent tebranishi, 1683.86 sm^{-1} va 1653.00 sm^{-1} yutilish sohalarida esa NH_2 guruhlarining deformatsion tebranishi va 1558.48 sm^{-1} yutilish sohasida esa -C=C- bog‘ining valent tebranishlarini kuzatdik. Aromatik halqa sonining ortishi bilan IQ-spektrning quyi chastotali qismida yutilish polosalari soni ko’payadi. 786.96 sm^{-1} intensiv sohada naftalin halqasining halqa tekisligida deformatsion tebranishi, (Ar(C_6H_6) ning halqa tebranishi 1539,20 sm^{-1} o‘rtacha intensiv soha oralig‘ida va SO_2 bog‘ining assimmetrik valent tebranishi esa 1234,44 sm^{-1} sohalarda kuzatildi.



4-rasm. Sintez qilingan bis(2-aminoanilin) naftalin-1,5-disulfonat $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,2$(C_6H_9N_2)^+$ molekulyar kompleksining tuzilishi.


Sintez qilingan kompleks birikmada quyi spin-elektron holati yuqori spin-elektron holatiga qaraganda yuqori energetik holatda bo’ladi. SO_3 va NH_2 funksional guruhlari vodorod bog’lar orqali bog’langan. Naftalin 1,5-disulfonat halqasida mezomer effekt kuzatilganligi sababli bog’lanish faqat SO_3 guruhi orqali amalga oshadi.

$(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,2$(C_6H_9N_2)^+$ tarkibli kompleks birikmaning kristall tizimidagi vodorod bog‘lar geometriyasi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval

D-H···A	*D-H,Å*	*H···A,Å*	*D···A,Å*	*DHA, burchak*	*Simmetriya kodlari*
N1 -- H1A -- O3	0.87(3)	2.54(3)	3.240(2)	138(2)	-x,1-y,1-z
N2 -- H2A -- O2	0.89(2)	1.97(2)	2.8578(19)	176(2)	1+x,y,z
N2 -- H2B -- O1	0.90(2)	1.91(2)	2.8100(18)	171.4(16)	-1/2-x,-1/2+y,z
N2 -- H2C -- O2	0.94(2)	1.97(2)	2.8996(19)	171(2)	-1/2-x,-1/2+y,z
C9 -- H9 -- O3	0.9300	2.4300	2.849(2)	107.00	-1/2-x,1/2+y,z
C11 -- H11 -- O1	0.9300	2.5700	3.128(2)	119.00	1/2+x,3/2-y,1-z



5-rasm. Sintez qilingan $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,2$(C_6H_9N_2)^+$ tarkibli kompleks birikmaning Raman-spektri.

5-rasmda sintez qilingan bis(2-aminoanilin) naftalin-1,5-disulfonat raman-spektrining 596,57- 748,28-1596,65 va 2955,7 sm^{-1} sohalaridagi piklar naftalin disulfokislotaning raman-spektrida tebrangan chiziqlarga yaqin sohalarda mavjud holatda tebrandi. O-fenilendiamin spirtda yaxshi eriganligi sababli, chiziqlar intensivligi juda yuqori bo‘lgan holatda spektri olindi. Molekulyar kompleksda bog‘lar dipol momenti (qutblanishi) ortishi bilan raman-spektrda faol bo‘lmagan holatga o‘tgan. Eritmadagi kompleksning raman-spektri amorf holatdagi raman-spektri bilan qariyb bir xil ekanligi aniqlandi. Bu esa eritmada kompleksning barqaror ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ilk bor o-fenilendiaminning naftalin 1,5-disulfokislota bilan yangi molekulyar kompleksi hosil qilindi va sintez sharoitlari o’rganildi. Hosil qilingan $(C_{10}H_6S_2)^{2-}$,2$(C_6H_9N_2)^+$ molekulyar kompleksning IQ-spektri, Raman-spektri va RTT tahlili yordamida kompleks tuzilish formulalari, reaksiya tenglamalari va boshqa kristall parametrlari o’rganildi.

Foydadanilgan adabiyotlar

1. Nakada A. et al. Excited-state hydrogen detachment from a tris-(o-phenylenediamine) iron (ii) complex in THF at room temperature //Chemical Communications.–2020.–T.56.15417.https://doi.org/10.1039/D0CC06219G

2. Putaya, H. A., Ndahi, N. P., Bello, H. S., Mala, G., Osunlaja, A. A., & Garba, H. (2020). Synthesis, characterization and antimicrobial analysis of Schiff bases of o-phenylenediamine and 2-aminopyridine-3-carboxylic acid with ofloxacin and their metal (II) complexes. *International Journal of Biological and Chemical Sciences*, *14*(1), 263-278. https://dx.doi.org/10.4314/ijbcs.v14i1.22

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. Smiley, R. A. (2000). Phenylene-and toluenediamines. *Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry*, 25-360. https://doi.org/10.1002/14356007.a19_405

4. Czapik, A., & Gdaniec, M. (2010). A new polymorph of benzene-1, 2-diamine: isomorphism with 2-aminophenol and two-dimensional isostructurality of polymorphs. *Acta Crystallographica Section C: Crystal Structure Communications*, *66*(4), o198-o201. doi: 10.1107/S0108270110008474

5. Yoshida, M., Okano, Y., Usui, A., Kobayashi, A., & Kato, M. (2015). Photochemical hydrogen production from 3d transition-metal complexes bearing o-phenylenediamine ligands. *Journal of Photochemistry and Photobiology A: Chemistry*, *313*, 99-106. https://doi.org/10.1016/j.jphotochem.2015.05.028

6. Seewald O. et al. Di-μ-bromo-bis {bromo [N-(8-quinolyl)-o-phenylenediamine-κ3N, N′, N″] manganese (II)} //Acta Crystallographica Section E: Structure Reports Online. – 2005. – T. 61. doi:10.1107/S1600536805027716

7. Koroteev P. S. et al. Charge transfer complexes of lanthanide 3, 5-dinitrobenzoates and 1, 2-phenylenediamine //Journal of Molecular Structure. – 2020. – T. 1207. – C. 127800. https://doi.org/10.1016/j.molstruc.2020.127800

8. Matsumoto T. et al. Structural and spectroscopic studies on the interactions of ortho-phenylenediamine and Li+, Na+, Mg2+, or Ca2+ ions //Chemistry Letters. – 2017. – T. 46. – №. 2. – C. 232-235 http://dx.doi.org/10.1246/cl.160997.

9. Khan I. M., Ahmad A. Synthesis, spectroscopic characterization and structural studies of a new proton transfer (H-bonded) complex of o-phenylenediamine with L-tartaric acid //Journal of Molecular structure. – 2013. – T. 1050. – C. 122-127.

ISSN: 2181-0427

UDK.667.287.5

POLIMER UCHUN STABILIZATOR NATRIY FTALOSIANIN PIGMENTINING SINTEZI VA FIZIK KIMYOVIY TAHLILI.

Mirzayeva F.Dj., To'rayev X.X., Umbarov I.A., Djalilov A. T.,
Fayziev J. B.
Termiz davlat universiteti
Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti
J-mail: feruza.mirzayeva.80@gmail.ru

Annotasiya.. *Ushbu tadqiqotning maqsadi, polimer mahsulotlar uchun stabilizator sifatida ishlatiladigan metall kompleksli ftalosianin pigmentlar sintez qilish va fizik kimyoviy tahlillar orqali ularning tarkibini, tuzilishini va termik barqarorligini o'rganish hisoblanadi.Maqsadga erishish uchun natriy karbonat, ftal angidrid, karbamid va katalizatordan foydalanildi.*

Kalit so'zlar. *Metall ftalosianin, stabilizator, IQ spektroskopiya,skanerlovchi elektron mikroskop, differensial termogravimetriya,pigmentning fotodinamik xosasi, intensivlik.*

СИНТЕЗ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАТРИЙ ФТАЛОЦИАНИНОВОГО ПИГМЕНТА, ДЛЯ СТАБИЛИЗАТОРА ПОЛИМЕРОВ

Мирзаева Ф Дж., Тўраев Х. Х., Умбаров И. А., Джалилов А. Т.,
Файзиев Ж. Б.
Термезский государственный университет
Ташкентский научно-исследовательский химико-технологический институт
E-mail: feruza.mirzayeva.80@gmail.ru

Аннотация: *Цель работы – синтез металлокомплексных фтало циа ниновых пигментов, используемых в качестве стабилизаторов полимерных изделий, и изучение их структуры и термической стабильности методами физико-химического анализа. Для достижения цели были использованы карбонат натрия, фталевый ангидрид, мочевина и катализаторы.*

Ключевые слова: *Металлический фталоцианин, стабилизатор, ИК-спектроскопия, сканирующий электронный микроскоп, дифференциальная термогравиметрия, фотодинамические свойства пигмента, интенсивность.*

SYNTHESIS AND PHYSICAL-CHEMICAL ANALYSIS OF SODIUM PHTHALOCYANINE PIGMENT FOR POLYMER STABILIZER

Mirzaeva Feruza, Turaev Khayit, Umbarov Ibragim, Jalilov Abdulakhat Fayziev Jahongir
Termez State University
Tashkent Scientific Research Institute of Chemical Technology
E-mail: feruza.mirzayeva.80@gmail.ru

Abstract: *This paper has studied the synthesis of metal complex phthalocyanine pigments used as stabilizers for polymer products, and the study of their structure and thermal stability by methods of*

physicochemical analysis. To achieve this goal, sodium carbonate, phthalic anhydride, urea, and catalysts were used.

Keywords: *Metal phthalocyanine, stabilizer, IR spectroscopy, scanning electron microscope, differential thermogravimetry, photodynamic properties of pigment, intensity..*


Kirish

Tarkibida metall saqlagan ftalosianinlar ko‘p yillardan beri sanoat miqiyosida an’anaviy ravihda ishlatilmoqda. Ular azaldan bo‘q va pigment sifatida foydalanilgan, xususan rangli bosma siyohlar, lok boyoq, platmassa, metal konstrukturalar va sintetik tolalarni bo’yash uchun asosiy materiallardan biridir. Ftalosianinlarni sintez qilish uchun, boshlang’ich birikmalar aromatik orto-dikarbosiklik kislotalarning hosilalari, angidridlar, imidlar, diamidlar,orto-sianibenzamidlar, dinitrillar, diiminoizoindolinlar va boshqalar hisoblanadi.[1]. Bundan tashqari ftalosianin pigmentlar polimer mahsulotlar uchun stabilizator, turli xil kimyoviy reaksiyalar uchun katalizator sifatida ishlatiladi [2] .Chiziqli bo’lmagan optika uchun materiallar, quyosh batareyasi komponentlari, suyuq kristall displeylar uchun bo‘yoqlar, onkologik va boshqa fotodinamik terapiya uchun fotosensibilizatorlar va boshqalar sifatida qo’llaniladi.[3]. Ftalosianinlarga bo‘lgan talab, bir tomondan, ularni tayyorlashning nisbatan qulayligi bilan, ikkinchi tomondan, fizik-kimyoviy xususiyatlarining noyobligi bilan izohlanadi. Ftalosianin pigmentlar termik barqaror va intensivligi yuqori moddalardir. [4, 5].

Tajribaviy qism

Maxsus idishga ftal angidrid, karbamid, natriy karbonat va katalizator solib aralashtiriladi.Hosil bo’lgan aralashmani СНОЛ -3,5 3,5 3,5-И 3 pechida 200^0Cda bir soat davomida ushlab turildi. Reaksiya natijasida gazlar va ftalimid ajrala boshlaydi. Bular keraksiz moddalar bo‘lib,sof mahsulot olishga ta’ir qiladi. Shuning uchun pechning tepa qismiga gaz chiquvchi nayni o’rnatamiz va nayga ulangan shlankasini suvli idishga botirib quyamiz, shunda chiqayotgan gaz reaksiyaga ta’sir qilmaydi va xavfsiz bo’ladi.Natijada idishda sariq g‘ovaksimon qattiq bo’lmagan modda hosil bo’ladi. Olingan moddani 100^0S gacha sovitib, 20 ml konsentrlangan (90%)li sulfat kislota quyib aralihtirildi,natijada quyuq sariq rangli eritma hosil bo’ldi. Hosil bo’lgan eritmani 50 ^{0}Cgacha sovitib ,unga qaynoq suv qo’shib aralahtiriladi. Eritma erib sariq rangli cho’kma hosil bo’ldi.Ajralib qolgan sarg’ish jigarrang suyuqlik ehtiyotkorlik bilan boshqa idishga quyiladi va utilizasiya qilinadi.Cho‘kmaga distillangan suv qo’shib, Byuxner voronkasida vakuum nasosdan foydalanib filtrlab olinadi Filtrlab olingan sariq modda natriy ftalosianin bo’lib, uni 105^0C da qurutish skafida ikki soat davomida qurutiladi. Qurigan natriy ftalosianinin xovonchada maydalab elakdan o‘tkazildi.Tadqiqot ishimizda sintez qilingan yangi tarkibli natriy saqlovchi ftalosianin pigmentini IQ-spektrini “IR Tracer-100” (SHIMADZU CORP., Yaponiya, 2017) Spektrometrda qayd etildi.. Spektrometrning yuqori sezuvchanligi (shovqin nisbati 60,000:1) spektrdagi diapozonlarining past intenivligiga qaramay, turli xil namunalardagi to‘lqin miqdorini tahlil qilishga imkon beradi, to‘lqin raqamlari shkalasi - 4000 ÷ 450 sm^{-1}.Interferometrning ishlashini optimallashtirish tizimi ichki o‘zini tashxislash va o’rnatilgan avtomatik quritish moslamasi bilan birgalikda foydalanish qulayligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek qurilgan qurilmaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Natriy ftalosianin pigmentini IQ-spektri

1- jadval

Natriy ftalosianinning IQ-spektrining tahlil


№	CuPc funksional guruhlari	NaPc ютилиш сохалари
1	C-H	3061,03sm^{-1}
2	C=C	1288,45sm^{-1}
3	-N=	1375,25sm^{-1}
4	Izoindol	1215-1184,29sm^{-1}
5	Pirrol	1089,78sm^{-1}
6	C-H teikislikda	1146,88sm^{-1}
7	C-H+ izoindol tekilikda	1070,94 sm^{-1}
8	Benzol halqalari	846,75sm^{-1}
9	Izoindol +N atomlari	817,82sm^{-1}
10	Ftalosianin halqalari	713,66sm^{-1}

Olingan natriy saqlovchi ftalosianin (Na Pc) pigmentining, ftalosianin halqalari hosil bo‘lishi 713,66 sm^{-1} yutilish sohasida ko’rinadi, C-H + izoindol tekislikda hosil bo‘lishi 1070,94 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, pirrol halqalari 1089,78 sm^{-1} yutilish sohasida ko’rinadi, pirrol azot atomlari 1078 sm^{-1} yutilish sohasida ko‘rinadi, izoindol 1216 sm^{-1} yutilish sohasida ko’rinadi, -N= 816 sm^{-1} yutilish sohasida ko’rinadi.

Natriy saqlovchi ftalosianin (Na Pc) pigment namunasining dervitogrammasi keltirilgan bo‘lib, u 2 egri chiziqdan iborat . Termogravimetrik analiz egri chizig‘i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko‘rsatadiki, TGA egri chizig‘i natriy saqlovchi ftalosianin (NaPc) pigmentning asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig’ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 36,28-243,99 ^{o}C

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

temperaturaga , 2-parchalanadigan oraliq 243,99-396,34 °C temperaturaga, 3-parchalanadigan oraliq esa 396,34-801,64 °C temperaturaga mos keladi. (2-rasm).




2-rasm.Natriy saqlovchi ftalosianin pigmentining termogravimetrik (TGA) va differnsial termik tahlili (DTA)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy massa yo‘qolishi 1-parchalanishda 36,28-243,99 °C oralig’ida kechadi unda asosiy massaning 20,771 % yo‘qoladi. 2-parchalanish 243,99-396,34 °C da amalga oshadi, bunda massaning 15,235 % yo‘qoladi. 3- parchalanish 396,34-801,64 °C da da amalga oshadi, bunda massaning 40,53 % yo‘qoladi. Ushbu natriy saqlovchi ftalosianin pigmenti vaqt davomida harorat ta’sir etishi natijasida, massa yo‘qotish turli jarayonlar bilan bog‘liq birlamchi oksidlanish oqibatida massa ortishi kuzatilishi bilan modda tarkibida parchalanish boshlanadi ,ikkinchidan natriy saqlovchi ftalosianin pigmenti tarkibidagi uchuvchi moddalar chiqishi bilan parchalanish yuzaga keladi va boshqa modadlar haroratini oshib borishi natijasida parchalanishi tezlashib boradi.


Olingan natriy saqlovchi ftalosianin komplekslarini INCA Energy 350 energodispersion mikroanaliz sistemasi bilan ta’minlangan, MIRA 2 LMU skanerlovchi elektron mikroskopi bilan o’rganildi. Mikroskopning analiz imkoniyatli 1 nm ga , INCA Energiya detektorining sezgirligi 133 eB/10mm^2 ga teng bo’lib, berilliydan plutoniygacha bo’lgan elementlarni analiz qilish imkonini beradi. Skanerlovchi elektron mikroskop tahlillari yuqori vakuum ostida olib borildi. Shu qurilmaning o’zida pigment tarkibidagi kimyoviy elementlarning mikroanalizi o’tkazilib, tezlanuvchi kuchlanishda 20 keB, tok tarami 1 nA bo’lgan sohalarda o’rganildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427




3-rasm. Natriy saqlovchi ftalosianin pigment (NaPc) yuzasining elektron mkroskopda a) **200 va** b) **250 marta kattalashtirilgan holati**

3-rasmda (NaPc) natriy ftalosianin pigmentining skanerlovchi elektron mikroskopda ko‘rinishi, dastlabki moddalar bir-biri bilan to‘liq dispers holatda , tasvirda a)-200 va b)-250 marta kattalashtirilgan ko‘‘rinishidan, moddalarning reaksiyaga kirishganlik darajasini sirtga yaqin qatlamalarning tarkibi va tuzilishi haqidagi ma’lumotlarni shu bilan birga, tasvirdan shunu ko’rish mumkinki, pigment kristalllarnng g‘ovakligi va yuqori ekanligi hamda qo‘shimcha moddalarning yo‘qligi pigmentning intensivligini oshiradi Shuningdek pigmentning fotodinamik xossasini hisobga olgan holda, uni yaxshi rang yutavchanligini bo‘yoq pigment sifatida ishlatish mumkin.



4-rasm.Natriy saqlovchi ftalosianin pigmentining (Na Pc) SEM dagi ko’rinishi.



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5- rasm.Natriy saqlovchi ftalosianin pigmentining (NaPc) SEMdagi element analiz tahlili.

Biz olgan natriy saqlovchi ftalosianin(NaPc pigmentining SEMdagi element analiz tahlili o'rganilganda C -67,60 %, O – 3,.72 %, Na – 0,07% S – 0,61%, miqdoridagi elementlar borligi aniqlandi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, yangi stabilizator metallokompleks ftalosianin pigmenti sintez qilindi. Sintez qilingan metallokompleksning tarkibi, tuzilishi IQ- spektroskopyasi tahlillari, termik barqarorligi, dervatograf, pigment tarkibidagi molekulaning tarqalishi va element tahlili tegishli skanerlovchi elektron mikroskop yordamida aniqlanib,polimer mahsulotlarning termooksidlanish va fotooksidlanish jarayonlarini oldini olish uchun stabilizator sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Pavithra K. G. et al. Removal of colorants from wastewater: A review on sources and treatment strategies //Journal of Industrial and Engineering Chemistry. – 2019. – T. 75. – C. 1-19

2. Yang S. et al. Recent advances in electrocatalysis with phthalocyanines //Chemical Society Reviews. – 2021. – T. 50. – №. 23. – C. 12985-13011.

1. Rahman, A., Huang, H., Ding, H., Xin, C., Lu, Y., T.: Fatigue performance of interface bonding between asphalt pavement layers using four-point shear test set-up. International Journal of Fatigue, vol. 121, pp. 181-190 (2019).

2. Jaczewski, M., Judycki, J., Jaskula, P., T: Asphalt concrete subjected to long-time loading at low temperatures - Deviations from the time-temperature superposition principle. Construction and Building Materials, vol. 202, pp. 426- 439 (2019).

3. Ameri, M., Mansourkhaki, A., Daryaee, D., T.: Evaluation of fatigue behavior of asphalt binders containing reclaimed asphalt binder using simplified viscoelastic continuum damage approach. Construction and Building Materials, vol. 202, pp. 374-386 (2019).

4. Абдуназаров А. , Ш.Б. Хамидов, .А.Ф. Хужакулов: Методы очистки отработанного турбинного масла тп-22с от нежелательных компонентов. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник. НамГУ 2020 год, 72-74 ст.

5. **Khuzhakulov, A. F, Abdunazarov A.A.:** Современный подход к продлению срока эксплуатации импортных турбинных масел. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020, Issue:12, Volume: 92, **Pages:** 216-220

6. **Sobirzhonov R. R. Khamidov, B. N, Abdunazarov A.A.:** Изготовление оптимального варианта опытной партии. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085.

ALKILIMIDAZOLIN ASOSLI SINERGETIK SAMARALI KORROZIYA INGIBITORLARI SINTEZI VA XOSSALARI

[1]Usmanova Yulduz Sheralievna, [2]Ro'ziev Shoxrux Farxodovich,
[3]Turaev Tolib Bozorovich, [4]Kadirov Xasan Irgashevich*
[1]*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, tayanch doktorant*
[2]*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, tayanch doktorant*
[3]*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, kafedra dotsent*
[4]*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, kafedra professori*
*E-mail: tkti.kodirov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada «etilendiaminga karbon kislota» tizimida xom ashyo uzatish ketma-ketligini amalga oshirish orqali yuqori unum bilan alkilimidazolinlar sintez qilish usuli tavsiya etilgan, olingan imidazolin hosilalari faol asos sifatida foydalanib, monoetanolamin kub qoldig'i va metanol qo'shilib sinergetik samarali korroziya ingibitori kompozitsiyasi tayyorlangan. Ingibitor kontsentratsiyasi 10 g/l bo'lganda mos ravishda 99.6 % ni tashkil etadi.*

Kalit so'zlar*: alkilimidazolinlar, yog' kislotalari, etilendiamin, faol asos, ingibitor kompozitsiyasi, himoyalash darajasi*

СИНТЕЗ И СВОЙСТВА СИНЕРГЕТИЧЕСКИ ЭФФЕКТИВНЫХ ИНГИБИТОРОВ КОРРОЗИИ С АЛКИЛИМИДОЗОЛИНОВО АКТИВНОЙ ОСНОВОЙ

[1]Усманова Юлдуз Шералиевна, [2]Рўзиев Шохрух Фархадович,
[3]Тураев Толиб Базарович, [4]Кадиров Хасан Иргашевич*
[1]*докторант, Ташкентский химико-технологияеский институт*
[2]*докторант, Ташкентский химико-технологияеский институт*
[3]*доцент кафедры, Ташкентский химико-технологияеский институт*
[4]*профессор кафедры, Ташкентский химико-технологияеский институт*
*E-mail: tkti.kodirov@mail.ru

Аннотация. *В данной статье предложен способ синтеза алкилимидазолинов с высоким выходом путем проведения последовательности подачи сырья в реактор « карбоновая кислота в этилендиамин». Испульзуя полученный алкилимидозолин в качестве активной основы, с добавлением метанола и кубового остатка вакуумной перегонки моноэтаноламина, приготовлена ингибирующая коррозию композиция. Установлено, что при концентрации композиционного ингибитора коррозии 10 г/л степень защиты достигает 99,6 %.*

Ключевые слова*: алкилимидазолины, жирные кислоты, этилендиамин, активные основы, композиционный ингибитор, степеь защиты*

SYNTHESIS AND PROPERTIES OF SYNERGETICALLY EFFECTIVE CORROSION INHIBITORS WITH ALKYLIMIDOZOLINE ACTIVE BASIS

[1]Usmanova Yulduz Sheralievna, 2Ruziev Shokhrukh Farkhadovich,
3Turaev Tolib Bazarovich, 4Kadirov Hasan Irgashevich*
[1]doctoral student, Tashkent Institute of Chemical Technology

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

[2]doctoral student, Tashkent Institute of Chemical Technology
[3]associate professor of the department, Tashkent Institute of Chemical Technology
[4]professor of the Department, Tashkent Institute of Chemical Technology
*E-mail: tkti.kodirov@mail.ru

Abstract. *This article proposes a method for the synthesis of alkylimidazolines with high yield by carrying out the sequence of feeding raw materials into the reactor "carboxylic acid into ethylenediamine". Using the obtained alkylimidozoline as the active base, with the addition of methanol and the bottoms of vacuum distillation of monoethanolamine, a corrosion-inhibiting composition was prepared. It has been established that at a concentration of the composite corrosion inhibitor of 10 g/l, the degree of protection reaches 99.6%.*

Key words: *alkylimidazolines, fatty acids, ethylenediamine, active bases, composition inhibitor, degree of protection*

Kirish

Respublikamizda so'nggi 10 yilda kimyo sohasi va kimyoviy ishlab chiqarish tarmoqlari zamon talablariga mos ravishda tubdan isloh qilinib, mahsulot turlari va kimyo korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi bir necha barobar ortdi. Bu esa, o'z navbatida mahalliy, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan istiqbolli mahsulotlar assortimentining ortishiga va ularning sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarilishiga imkon berdi [1 - 3].

Alkilimidozolinlar sintez qilishning muhim usullari etilendiamin yoki polietilenpoliaminlarni yog' kislotalari yoki ularning murakkab efirlari bilan ta'sirlashuvchiga asoslanib, reaktsiya ikki bosqichda yog' kislotasining etilendiamin bilan kislota amidoaminlari hosil qilishi hamda kislota amidoaminining alkilimidozolin hosilalari hosil qilib getrohalqalanishi orqali boradi [3 - 7].

Karbon kislota diamidlari suv va organik erituvchilarda yomon eriydi [8 - 10], reaktsiya sharoitida monoamidlarga qayta parchalanadi, past sirt faollikka ega bo'lib, tayyor mahsulot tarkibida bo'lishi bilan uning sifatiga aks ta'sir etadi. Tayyor mahsulot tarkibidan diamidni ajratish rektifikatsiya usuli bilan amalga oshirilib, qo'shimcha sarf xarajatlarni talab etadi. Sanoatda iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun toza yog' kislotalari emas, balki yog' kislotalari aralashmasidan foydalaniladi. Shu bilan birga, yog' kislotalari aralashmasidan foydalanish reaktsiyaning maqbul sharoitlarini aniqlashda texnologik muammolar kelib chiqishi va imidozolin unumini kamayishi, qo'shimcha mahsulotlarning ortishiga sabab bo'ladi.

Materiallar va uslublar


Geterohalqalanish reaktsiyasining maqbul sharoitlarini aniqlash uchun uch xil reaktsiya amalga oshirildi. Tajriba ketma-ketligi: uch bo'yinli kolba termometr, Libix sovutkichli Vyurts nasadkasi va mexanik aralashtirgich bilan jihozlandi, reaktsion massaga termik ishlov berish elektrisitgich yordamida olib borildi. Reaktsiya «etilendiaminga → karbon kislota» tizimida amalga oshirilib, termik qayta ishlashning birinchi bosqichida reaktorda dastlab etilendiamin solinib, so'ngra karbon kislotaning uzatilishi bilan reaktsiyani dastlab ammoniyli tuzlar hosil bo'lishi bosqichisiz bimolekulyar atsillash orqali amalga oshirildi, buning uchun reaktorga 100 g etilendiamin solib 130 °Sgacha qizdiriladi va so'ngra 100 g uch kislota aralashmasi (C_{16} – palmitin, $C_{18.0}$ – olein va $C_{18.1}$ – linol kislotalar) UKA yuboriladi. Intensiv aralashtirish davom etirilib, sovutkichda suv bug'i kondensatlanishi kuzatilib, kondensat yig'gichda yig'ib borildi. Harorat 200 °S dan oshishi bilan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ortiqcha miqdor etilendiamin ham haydalib, 250 °Sdan yuqori haroratda geterohalqalanish reaktsion suvi haydaldi. Termik ishlov berish 270 °Sda 1 soat davomida olib borildi. So'ngra jarayon vakuumda o'tkazilib, 180 mm.sim.ust. 1 soat davomida geterohalqalanish to'liq amalga oshirilib, qolgan suv ajratildi.


Natijalar va muhokama

Sintez qilingan mahsulotlarning tuzilish va tarkibi IQ-spektr va gaz-suyuq xromatografik tahlil usullari bilan aniqlandi.



1-rasm. Etilendiamin va UKA reaktsiyasi mahsulotining IQ-spektri

Tajriba mahsulotining IQ-spektrida 1608 sm^{-1} da imidozolin geterohalqasiga xos C=N valent tebranishi chiziqlaridan tashqari, 1668 sm^{-1} intensiv chiziqlarida S=O amid guruhi va 1556 sm^{-1} deformatsion tebranishlar N–H xos yutilishlar aniqlandi. Bu tebranishlarning mavjudligi tajriba mahsuloti tarkibida diamidlar saqlanishini ko'rsatdi. Tayyor mahsulot tarkibida diamidlar ko'p miqdorlarda saqlanishini getrohalqaga nisbatan miqdori diamiddan 2 marta ko'proq bo'lgan alifatik zanjirdagi C–H bog'ga xos 721 sm^{-1} dagi intensiv deformatsion tebranishlar ham isbotlaydi.



2-rasm. Etilendiamin va UKA reaktsiyasi mahsuloti xromatogrammasi: 1- geksadetsilimidozolin; 2 - oktadetsilimidozolin; 3- oktadetsenilimidozolin; 4- geksadetsil kislota etilendiamidi; 5- oktadetsil kislota etilendiamidi; 6- oktadetsenil kislota etilendiamidi

2-rasm tajriba xromatogrammasidagi 1-, 2- va 3-cho'qqilar mos ravishda 2-geksadetsil-2-imidozolin, 2-oktadetsil-2-imidozolin va 2-oktadetsenil-2-imidozolinlarga tegishli ekanligini ko'rsatib, shuningdek 4-, 5-, va 6-cho'qqilarda UKA diamidlar mosligini ko'rsatadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Etilendiamin va UKAdan olingan alkilimidazolin asosida sinergetik samarali himoyalash ingibitorlari tayyorlandi: faol asos - 15,0 – 20,0; metanol - 5,0 – 15,0; MEAKQ - 5,0 – 10,0; qolgani suv.

Olingan ingibitorlarning muhim hususiyatlaridan imidozolin hosilalarini erkin holatida ajratib olinmay, aralashmada organik asos sifatida foydalanilishi bilan bog'liq. Bu bilan mahsulot yuqori unumiga ham erishiladi va korroziyadan himoyalash darajasi ham yuqori bo'ladi.

Sinergetik samarali tarkiblar ingibitorlarining korroziyadan himoyalash darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari 1- va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Sinergetik samarali tarkiblarning korroziyadan himoyalash darajasi, agressiv muhit 15 %-li H_2S, harorat 24 °S

№	Ingibitor tarkibi (g)	Ingibitor dozasi (g/l)	Korroziya tezligi, (g/m^2)	Himoyalash darajasi, %
1	Faol asos - 15,0 Metanol - 15,0 MEAKQ - 10,0 Suv – qolgani	4	0.47	96.8
		6	0.38	97.4
		8	0.34	97.7
		10	0.27	98.2
2	Faol asos - 15,0 Metanol - 5,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.44	97.01
		6	0.40	97.03
		8	0.36	97.6
		10	0.35	97.62
3	Faol asos – 17,0 Metanol – 15,0 MEAKQ - 10,0 Suv – qolgani	4	0.44	97.01
		6	0.37	97.5
		8	0.34	97.7
		10	0.21	98.6
4	Faol asos – 17,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.30	97.96
		6	0.28	98.1
		8	0.24	98.4
		10	0.20	98.6
5	Faol asos – 18,0 Metanol – 5,0 MEAKQ – 5,0 Suv – qolgani	4	0.27	98.2
		6	0.19	98.7
		8	0.14	99.0
		10	0.10	99.3
6	Faol asos – 18,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 5,0 Suv – qolgani	4	0.24	98.4
		6	0.17	98.84
		8	0.13	99.1
		10	0.06	99.5
7	Faol asos – 20,0 Metanol – 15,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.24	98.4
		6	0.20	98.6
		8	0.19	98.7
		10	0.15	98.9
8	Faol asos – 20,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.25	98.3
		6	0.23	98.4
		8	0.21	98.6
		10	0.18	98.8

2-jadval

Sinergetik samarali tarkiblarning korroziyadan himoyalash darajasi, agressiv muhit 23 %-li H_2S, harorat 24 °S

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

№	Ingibitor tarkibi (g)	Ingibitor dozasi (g/l)	Korroziya tezligi, (g/m^2)	Himoyalash darajasi, %
1	Faol asos - 15,0 Metanol - 15,0 MEAKQ - 10,0 Suv – qolgani	4	0.50	96.6
		6	0.48	96.7
		8	0.44	97.01
		10	0.40	97.03
2	Faol asos - 15,0 Metanol - 5,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.50	96.60
		6	0.47	96.80
		8	0.43	97.08
		10	0.39	97.36
3	Faol asos – 17,0 Metanol – 15,0 MEAKQ - 10,0 Suv – qolgani	4	0.40	97.30
		6	0.38	97.40
		8	0.34	97.70
		10	0.27	98.20
4	Faol asos – 17,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.38	97.4
		6	0.35	97.62
		8	0.27	98.2
		10	0.22	98.5
5	Faol asos – 18,0 Metanol – 5,0 MEAKQ – 5,0 Suv – qolgani	4	0.29	98.0
		6	0.18	98.8
		8	0.14	99.0
		10	0.10	99.3
6	Faol asos – 18,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 5,0 Suv – qolgani	4	0.28	98.1
		6	0.15	98.9
		8	0.13	99.1
		10	0.07	99.5
7	Faol asos – 20,0 Metanol – 15,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.28	98.1
		6	0.22	98.5
		8	0.20	98.6
		10	0.14	99.0
8	Faol asos – 20,0 Metanol – 10,0 MEAKQ – 10,0 Suv – qolgani	4	0.24	98.4
		6	0.18	98.8
		8	0.14	99.0
		10	0.11	99.2

1- va 2-jadvallar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, faol asos miqdori oshish borishi bilan korroziyadan himoyalash darajasi ham ortib boradi, sinergetik samarali qo'shimchalardan metanol miqdori 10 g gacha bo'lganda, MEAKQ ning miqdori esa 5 g bo'lganda korroziyadan himoyalash darajasi yuqori bo'lib, namunalarni H_2S dozasi 15 va 23 %

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo'lgan sharoitlarda saqlashdan, ingibitor kontsentratsiyasi 10 g/l bo'lganda mos ravishda 99.6 va 99.01 % ni tashkil etadi.

Xulosa

Reagentlarni etilendiamin va yog' kislotasi ketma-ketligida reaktorga uzatish orqali imidozolin hosilalari sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlanib, haroratning ta'siri 130 - 250 °S, reaktsiyaning davomiyligida 3 soat qilib belgilandi. Olingan mahsulotlarninng tarkibi va tuzilishi IQ-spetkroskopiya va ^{1}N YaMR-spektroskopiya usullari yordamida tasdiqlandi. Olingan imidozolin hosilalari asosida sinergetik samarali himoyalash ingibitorlari tarkibi yaratildi. Faol asos alkilimidazolinga metanol va monoetanolaminni vakuumda haydash kub qoldig'i (MEAKQ) qo'shib sinregetik samarali kompozitsiyalar tayyorlanib, korroziya ingibitori sifatida sinovdan o'tkazildi. Aniqlandiki, faol asos miqdori oshib borishi bilan korroziyadan himoyalash darajasi ham ortib boradi, sinergetik samarali qo'shimchalardan metanol 10 g, MEAKQ ning miqdori esa 5 g bo'lganda korroziyadan himoyalash darajasi yuqori bo'lib, ingibitor kontsentratsiyasi 10 g/l bo'lganda mos ravishda 99.6 va 99.01 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belen'kii L.I., Evdokimenkova Y.B. The literature of heterocyclic chemistry, part XIV, 2014 Advances in Heterocyclic Chemistry. 2017. T. 122. p. 245-301
2. Anpilogova G.R., Bondareva S.O., Khisamutdinov R.A., Murinov Y.I. Fatty imidazolines: a novel extractant for the recovery of palladium(II) from hydrochloric acid solutions //Solvent Extraction and Ion Exchange. 2014. T. 32. № 2. p. 206-220
3. Peregudova A.S., Kruzhilin A.A., Perelygina I.E., Falaleev A.V., Stolpovskaya N.V. Process control synthesis of imidazolines of saturated fatty acids by tlc and gc / ms methods. //Sorption and Chromatography Processes. 2015. T. 15. № 3. p. 464-472.
4. Бабаева В. Г. Имидазолиновые комплексы в качестве биоцидной добавки к смазочно-охлаждающим жидкостям. Вестник КНИИ РАН. Серия «Естественные и технические науки» № 3(11), 2022. DOI:10.34824/VKNIIRAN.2022.11.3.014 С. 109-115.
5. Хайдарова Г.Р. Ингибиторы коррозии для защиты нефтепромыслового оборудования // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6. https://science-education.ru/ru/article/view?id=16733 с. 286
6. Mehedi Sh., Tepe J. J. Recent advances in the synthesis of imidazolines (2009–2020) // Advanced Synthesis & Catalysis. 2020. Vol. 362, issue 20. P. 4189–4225. DOI: 10.1002/adsc.202000709.
7. А.В. Абутков, И.Ф. Садретдинов, А.С. Алябьев, А.К. Арсланов. Синтез производных 1,2-имидазолина - активной основы ингибиторов коррозии. Комплексный подход к анализу имидазолинов на примере полученных соединений. //Нефтгазовое дело Том 10 (2012). №1, 180-184с. http://ngdelo.ru/issue/view/120.
8. Малков Ю.К., Варнавская О.А., Лебедев Н.А., Хлебников В.Н., Хватова Л.К., Брадельщикова Т.А., Смоленцева С.И. Ингибитор коррозии для сероводородсодержащих

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

нефтепромысловых сред. [Corrosion inhibitor for hydrogen sulfide-containing oil-field media] Patent RU, no. 2168561 C1, 10.06.2001.

9. Кулиев А.А., Мурсалов Н.И., Джабраилзаде Ш.З., Бадалова Г.Н. Исследование производных имидазолинов в качестве ингибиторов сероводородной коррозии. // Химические науки pp.215-217.

10. Мурсалов Н.И., Аббасов В.М., Джабраилзаде Ш.З., Алиева Л.И., Гулиев А.А., Дюздабан Х.Р., Бадалова Г.Н. Исследование производных имидазолинов в качестве ингибиторов коррозии стали. //Практика противокоррозионной защиты. 2015. № 2 (76). С. 38-43.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

03.00.00 BIOLOGIYA FANLARI БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ BIOLOGICAL SCIENCES

UDK: 57.9.632./36.37.4.01.08

YUMSHOQ BUG'DOYNI ZARARLOVCHI *FUSARIUM GRAMINEARUM* SCHWABE ZAMONAVIY TAKSONOMIYADAGI O'RNI

Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich- b.f.d.
O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti
E-mail:sheranvar@mail.ru

Respublikamizning turli iqlim mintaqalari bug'doy dalalarda fuzarioz ildiz chirishi, ildiz bo'g'izi chirishi va boshoq fuzariozi kasalliklarni qo'zg'atuvchisi F. graminearum turlar kompleksi morfologik va molecular genetika olib borilgan tadqiqotlar natijasida, ushbu kasalliklarning qo'zg'atuvchisi F. graminearum ekanligi aniqlandi. Fusarium turkumidagi holatni yaxshilash uchun turlarni aniqlashning ushbu 3 ta konsepsiyasini birga, jinsiy bosqichlari mavjud bo'lmagan turlar uchun ulardan 2 tasini (morfologik + filogenetik) birga, uyg'unlashgan holda, ya'ni polifazik yondashuv asosida qo'llash turlarning ko'p fazali tavsiflarini tayyorlashga va ularni identifikatsiya qilishni yo'lga qo'yishga imkon yaratdi.

Kalit so'zlar: *Fusarium, turkum, morfologiya, ildiz chirishi, ildiz bo'g'zi chirishi, identifikatsiya, taksonomiya, zambug', F. graminearum.*

РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ ТАКСОНОМИИ ГРИБОВ ВИДА *FUSARIUM GRAMINEARUM* SCHWABE ПОРАЖАЮЩИХ МЯГКУЮ ПШЕНИЦУ

В результате проведенных комплессных исследований грибов вида F. graminearum которые являются возбудителями фузариозной гнили корней, гнили корневой шейки и других фузариозных заболеваний у мягких сортов пшеницы выращиваемых в различных климатических условиях республики, определено что по морфологическим признакам и по молекулярно-генетическим маркерам все штаммы относятся к виду Fusarium. graminearum. В целях прояснения таксономического статуса и уточнения видовой принадлежности грибов рода Fusarium совместное применение данных 3 концепций вида, а для видов у которых отсутствует половая стадия, применение комбинации 2 концепций (морфологическая + филогенетическая), способствует гармонизации таксономических взаимоотношений, в том числе на основе полифазного подхода, а также даёт возможность проводить полифазную таксономическую классификацию грибов рода Fusarium и наладить точную идентификацию их видов.

Ключевые слова: *Fusarium, род, морфология, корневой гнили, гнили корневой шейки, идентификация, таксономия, гриб, F. graminearum.*

MODERN TAXONOMIC STATUS OF THE *FUSARIUM GRAMINEARUM* SCHWABE FUNGI SPECIES AFFECTING COMMON WHEAT (*TRITICUM AESTIVUM*)

As a result of comprehensive studies of fungi of the species F. graminearum, which are causative agents of fusarium root rot, root collar rot and other fusarium diseases in common wheat varieties cultivated in various climatic conditions of the republic, it was determined that according to morphological characteristics and molecular genetic markers, all strains belong to Fusarium graminearum. In order to clarify the taxonomic status and clarify the species identity of fungi of the genus Fusarium, the joint application of these 3 species concepts, and for species that do not have a sexual stage, the use of a combination of 2 concepts (morphological + phylogenetic), contributes to the harmonization of taxonomic relationships, including based on the polyphasic approach , and also makes it possible to carry out a polyphase taxonomic classification of fungi of the genus Fusarium and establish an accurate identification of their species.

Key words: *Fusarium, genes, morphology, root rot, root collar rot, identification, taxonomy, fungi, F. graminearum,*

Kirish

Bug‘doy o‘simliklarini *Fusarium* turkumining 15+ ta turlar kompleksiga kiruvchi vakillari zararlashi xabar qilingan bo‘lsa ham, bu ekinda mavjud bo‘lgan barcha fuzarioz kasalliklarining deyarli 50% ni *Fusarium sambucinum* kompleksining turlari qo‘zg‘atadi. Ulardan yuqorida 1-guruhga kiritilgan bug‘doyning eng agressiv patogenlarining aksariyati ushbu turlar kompleksining Graminearum kladiga mansub, ammo ushbu TK ning yangi, nom berilmagan kladi tarkibida ham kuchli patogenlar (*Fusarium* sp. 15, *Fusarium* sp. 16) mavjudligi boshoqlarni sun’iy zararlash tajribalarida aniqlangan.

Adabiyotlar tahlili

Ko‘p hollarda bug‘doy, suli va arpaning boshoqlarida kalmaraz va makkajo‘xorijo‘xori so‘talarida chirish qo‘zg‘atadigan, monospora kulturalarida peritetsiylar muntazam hosil bo‘ladigan populyatsiyani *F. graminearum* 2-guruhi deb atashgan [1]. Ushbu populyatsiyalarning geografik areallari ham farqli – *F. g.* 1-guruhining shtammlari tuproq patogenlari bo‘lib, ular Avstraliya va AQSh ning TOQ mintaqasida, *F. g.* 2-guruhining shtammlari esa zararlangan donda saqlanadi va Shimoliy yarim sharning barcha shimoliy mintaqalarida tarqalgan.

F. graminearum bug‘doy (va boshqa g‘alla ekinlari) ning ashaddiy dushmani bo‘lib, g‘alla hosiliga katta zarar yetkazadi. Bu zamburug‘ni dunyoda eng zararli 10 ta fitopatogen zamburug‘ turlarining ro‘yxatida 4-nchi o‘ringa bekorga qo‘yilmagan [2]. Masalan, AQSh da bu patogen qo‘zg‘atadigan BFK (va ICh) tufayli bug‘doy doni hosilining 30% yoki undan ham ko‘prog‘i yo‘qotiladi [3].

F. graminearum turini ham bug‘doyda maysa chirishi va FICh ning agressiv qo‘zg‘atuvchisi, deb hisoblashadi [4]. Xitoyda Shimoliy tekisliklarda bu tur ildiz chirish bilan zararlangan bug‘doy o‘simliklarining ozgina qismidan ajratilgan, *F. pseudograminearum* esa bug‘doy ildizlari patogenlari orasida *B. sorokiniana* dan keyingi 2-o‘rinni olgan [5]. *F. pseudograminearum* Sharqiy Xitoyda ham bug‘doyda FICh / IBCh qo‘zg‘atuvchi turlar orasida dominant bo‘lib, namunalarning 60,3% dan ajratilgan, qolgan namunalardan *F. graminearum* va *F. asiaticum* turlari o‘sib chiqqan [6,7]. *F. graminearum* ko‘pincha bug‘doyning boshoqlarini, *F. culmorum* va *F. pseudograminearum* esa odatda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ildizlari va ildiz bo‘g‘zini zararlaydi. Undan tashqari, bu uchta tur bug‘doy maysalarini zararlashi va chiritishi mumkin; maysa chirishi ko‘pincha urug‘lik uchun zararlangan don ishlatilganida kuzatiladi.

BFK kasalligining qo‘zg‘atuvchisi sifatida *F. graminearum* Yevropa, Rossiya, Eron, AQSh, Kanada, Urugvay, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Efiopiya, JAR va ayrim boshqa mamlakatlarda eng ko‘p uchraydigan (dominant) tur hisoblanadi [7].

Bug‘doy va boshqa g‘alla ekinlaridan tashqari, *F. graminearum* ning asosiy alternativ xo‘jayin ekini makkajo‘xori bo‘lib, uning kasallikka moyil va chidamli navlari mavjud. Chidamsiz navlarda patogen ularning poyalari va so‘talarini kuchli zararlovchi, agressiv patogendir [129;p-318-330]. Makkajo‘xori patogeni sifatida bu tur Braziliyada *F. meridionale* dan keyingi 2-nchi o‘rinni egallagan [8].

F. graminearum, *F. culmorum* va ayrim boshqa *Fusarium* turlarining alternativ xo‘jayinlari qatoriga yaqinlarda dukkakli ekinlar ham qo‘shildi; AQSh Montana shtatida sun’iy zararlash tajribalarida *F. graminearum* va *F. culmorum* ning FICh bilan zararlangan no‘xat va yasmiqdan olingan izolyatlari ham bu ekinlarni, ham bug‘doy va arpani zararlagan [8]. Shu sababdan almashlab ekish sxemalarida bug‘doyni g‘alla ekinlari (suli istisno), makkajo‘xori va dukkakli ekinlardan keyin ekish tavsiya qilinmaydi, chunki bu ekinlardan keyin tuproqda ushbu patogenlar propagulalarining soni kamaymaydi. Boshqa o‘simliklardan *F. graminearum* boshoqli yem-xashak o‘tlarini, jumladan ko‘pgulli raygrasni ham zararlaydi [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mikologik tadqiqotlar uchun olingan o‘simliklarda kasallik simptomlari vizual aniqlanib, ayrim namunalarda tashqi belgilari aniq, ba’zilarida qisman va yashirin bo‘lib, ulardan tayyorlangan gerbariylarga yig‘ilgan vaqti va joyi, tuproq namunalarida esa joyi belgilab qo‘yildi.

Fuzarioz kasalligi bilan zararlangan o‘simliklarni aniqlash va respublika bo‘ylab tarqalishini o‘rganish uchun ekin dalalari fitosanitar nazoratdan o‘tkazishda quyidagi uslublardan foydalanildi [10, 11].

Zararlangan barg namunalarini olishda kasallik belgilari har xil darajada namoyon bo‘lgan (kichik dog‘lar, katta nekrozlar) barglar tanlab olindi. Barglar ehtiyotkorlik bilan to‘g‘rilanib, filtr qog‘ozidan qilingan papkalar (~48 x 31 sm) ichiga qo‘yiladi. Namunalar iloji boricha to‘planganidan keyin darhol tahlil qilinadi, bu ishni tezda o‘tkazish mumkin bo‘lmaganida esa, barglar gerbariy qilinadi.

Barglarni gerbariy qilish uchun ular setkadan chiqarib 2-3 soat davomida soya, shamol yaxshi yuradigan joyda quritiladi, keyin qog‘oz papka press ostiga qo‘yiladi yoki gerbariy setkasida siqib boylab, 1-2 soatga qoldiriladi, bu quritish va presslash ishlari 3-4 marta takrorlanadi. Maysalari, ildizi va poyasi zararlangan bug‘doy o‘simliklari namunalarini olishda ham shu usul qo‘llaniladi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘larning hayotchanligini saqlash, namuna mog‘orlashiga yo‘l qo‘ymaslik va barcha ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun gerbariylar bilan ishlash qoidalariga puxta rioya qilish talab etiladi.

Mikologik tahlillar uchun zamburug‘lar sof kulturalarini ajratib olish maqsadida olingan namunalar dastlab maxsus qopchalarga joylanib, 2 soat davomida oqib turgan vodoprovod suvi bilan yuvildi. So‘ngra, namunalar 0,0001% tvin 80 eritmasida 30 soniya, 0,5% natriy gipoxlorit (NaOCl)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

eritmasida 30 soniya, 96% etil spirtining 30%-li suvli eritmasida 30 soniya, steril distillangan suvda 2 marta 1 daqiqadan ushlab turildi.

Donli o‘simliklarning urug‘larini sterillash uslubi: bug‘doy urug‘ining ustidagi har xil infeksiyalarni yo‘qotish uchun oqib turgan vodoprovod suvi ostida 2 soat ushlab turildi. Bu bilan donlar tuproq qoldiqlari va har xil zararchalardan tozalandi. Undan keyin donlar 70% etil spirtida 2-3 daqiqa, nitrat kumushning 0,1% eritmasida 1 daqiqa, 5% natriy gipoxlorit eritmasida 1 daqiqa inkubatsiya qilindi. Keyin ular 3 marta steril distillangan suvda yuvib tashlandi [12]

Tahlil uchun ustida yirik (o‘lchami 3-5 mm yoki kattaroq) nekrozlar bo‘lgan o‘simliklarning pastki yarus barglari tekshiriladi. Bunda barglarning nekrozli qismlari kesib olinadi va buyum shishasi ustida mikroskopning 80-120X kattaligida tekshiriladi. Patogen zamburug‘larning sporalash a’zolari topilgan hollarda barglarning ustida konidioforalari va konidiyalari bo‘lgan kichik qismi kesib olinadi va buyum shishasida mikroskopiya uchun tavsiya qilingan suyuqlikda preparat ninalari yordamida maydalanadi va qoplag‘ich shisha bilan bekitiladi. Bir necha daqiqadan so‘ng quruq sporalar turgor olganidan keyin preparat mikroskop ostida, oldin kichik (8X yoki 10X), keyin katta (40X) ob’ektiv ostida tekshiriladi. Okulyar-mikrometr yordamida konidiofora va konidiyalarning uzunligi va eni o‘lchanadi, tashqi ko‘rinishi, tusi, septalarining soni qayd qilinadi.

Makrokonidiya va mikrokonidiyalarning o‘lchamlarini o‘lchashda mikroskopga o‘rnatilgan mikrometrdan foydalanildi. Mikrometr yordamida har bir izolyatning kamida 20 ta makrokonidiyasi va 20 ta mikrokonidiyasining uzunligi va eni o‘lchab olindi. Bu ish to‘rt marta takrorlandi. Keyin makro- va mikrokonidiyalar uzunligi va enining o‘rtacha o‘lchamlari hisoblab topildi va statistik metod asosida matematik tahlil qilindi [13]; matematik ishlov berishda Microsoft dasturining Exsel paketidan foydalanildi.

Mikologik tahlillarda davomida *Fusarium* turkumi shtammlarining makrokonidiyalari va mikrokonidiyalarining tuzilishini o‘rganishda binokulyar mikroskopdan foydalanildi.

Vaqtinchalik preparatlarni tayyorlashda spirt, glitserin va suv (1:1:1) aralashmasidan foydalanildi [10].

Mikologik tadqiqotlarda zamburug‘larning organlarini mikroskopda o‘rganish uchun mitseliy, konidiyalari, hujayralari, septalari, xlamidosporalarini ko‘rishda va rasmga olish tasvirlarni yaxshilash maqsadida turli bo‘yoqlardan: metil ko‘k, metil binafsha va lyugol eritmalaridan foydalanildi [10].

Tahlillar va natijalar

Bundan tashqari respublikamizning bir qancha viloyatlarining yumshoq bug‘doy ekilgan dalalariga har xil mavsumda fitosanitar nazorat qilindi. *Fusarium* turkumiga mansub turlari bilan zararlangan bug‘doylarda ildiz, ildiz bo‘g‘zi, poyaning pastki qismi chirishi, barglar dog‘lanishi va boshqa kasalliklari bilan kasallangan o‘simliklarning namunalari yig‘ildi. Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan mikrobiologik tahlillar natijasida olib borildi. Laboratoriyada mikologik tahlillar uchun ildiz, poya, barg va boshoq namunalar maxsus usullar yordamida zamburug‘lari kulturalari ajratib olindi (1-rasmga qarang).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Kasallangan bug‘doy o‘simligining dastlabki mikologik tahlillari

Kasallangan o‘simliklarning namunalari laboratoriya sharoitida mikologik tahlildan o‘tkazildi. Tadqiqotlar natijasida *Fusarium* turkumiga mansub zamburug‘larning quyidagi turlari ajratib olindi: *Fusarium culmorum, F. graminearum, F. poae, F. oxysporum, F. globosum, F. proliferatum, F. solani, F. avenaceum, F. sambucinum, F. sporotrichioides, F. tricinctum, F. heterosporum, F. equiseti, F. fujikuroi, F. verticillioides, F. lateritium* va *F. incarnatum*. Ajratilgan zamburug‘lar MSI holatiga keltirildi. Zamburug‘larning morfologiyasi va sistematikasini o‘rganish maqsadida ular har xil ozuqa muhitlariga ekildi.

Fusarium turlarining identifikatsiyasi jarayonida 1) o‘simlik kasalligi, uning belgilari, qanday ob-havo sharoitida uchrashi haqida ma’lumotlarni to‘plash; 2) patogenni sof kulturaga ajratish ajratish va uni tozalash (ya’ni, monospora kulturasini ajratish), izolyatning original xo‘jayin o‘simlikka va potensial xo‘jayin o‘simlik turlariga patogenligini (sun’iy zararlash orqali) aniqlash; 3) tadqiqotchini qiziqtirgan shtammlarni tozalash (monospora kulturalarini olish), ularning morfologik, molekulyar belgilari va chaparasta fertilligini aniqlash katta ahamiyatga ega.

***Fusarium graminearum* Schwabe** – kosmopolit barcha joylarda tarqalgan tur. Asosan makkajo‘xorijo‘xori, bug‘doy va arpada uchraydi, biroq boshqa bir qator bir va ko‘p yillik o‘simliklarda ham tarqalgan. Sporodoxiylari odatda siyrak, mavjud bo‘lganida och-sariq rangli va mitseliy ostida yashiringan bo‘ladi. Makrokonidiyalari nisbatan nozik, o‘roqsimon yoki deyarli to‘g‘ri, yupqa devorchali, 5–6 gacha septali, o‘lchami 40-60x 5-6 mkm, konussimon apikal hujayrali, bazal hujayralari yaqqol ko‘rinuvchi oyoqchalarga ega. Xlamidosporalarining shakllanishi xilma-xil, ko‘pincha makrokonidiyalarda hosil bo‘ladi. Mikrokonidiyalari mavjud emas (jadval).

jadval


Yumshoq bug‘doyni zararlovchi *Fusarium* turkumi turlarining makro va mikro morfologiyasi

Zamburug‘ turlari	Makrokonidiyalari		Mikrokonidiyalari		Sporodoxiy-larining rangi
	o‘lchami (mkm)	shakli	o‘lchami (mkm)	shakli	
F. graminearum	40-60x5-6	konussimon	-	-	qizg‘ish-pushti

Fusarium graminearum sensu lato tarkibida ikkita populyatsiya mavjud bo‘lib, ular morfologiyasi bo‘yicha bir-biridan deyarli farq qilmacligi aniqlangan. Ulardan ko‘pincha bug‘doy va arpada FICh

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qo‘zg‘atadigan, monospora kulturalarida peritetsiylari hech qachon hosil bo‘lmaydigan populyatsiyaga *F. graminearum* 1-guruhi nomi berilgan (2-rasmga qarang)



2-rasm. a) *F. graminearum* zamburug‘i bilan kasallangan bug‘doy (Kasnadar-99 navi) namunasi. b) *F. graminearum* zamburug‘ining morfologo- kultural belgilari (KDA ozuqa muhitida). s) *F. graminearum* zamburug‘ining gabitus sporalari 400 marta kattalashgan (KDA ozuqa muhitida). d) *F. graminearum* zamburug‘ining peritetsiy 400 marta kattalashgan (bug‘doy bargida). ye) *F. graminearum* zamburug‘ining makrokonidiyasi 400 marta kattalashgan (ChBA ozuqa muhitida)

Xulosa

Respublikamizning turli iqlim mintaqalari bug‘doy dalalarda fuzarioz ildiz chirishi, ildiz bo‘g‘izi chirishi va boshoq fuzariozi kasalliklarni qo‘zg‘atuvchisi *F. graminearum* turlar kompleksi morfologik va molecular genetic olib borilgan tadqiqotlar natijasida, ushbu kasalliklarning qo‘zg‘atuvchisi *F. graminearum* ekanligi aniqlandi. *Fusarium* turkumidagi holatni yaxshilash uchun turlarni aniqlashning ushbu 3 ta konsepsiyasini birga, jinsiy bosqichlari mavjud bo‘lmagan turlar uchun ulardan 2 tasini (morfologik + filogenetik) birga, uyg‘unlashgan holda, ya’ni polifazik yondashuv asosida qo‘llash turlarning ko‘p fazali tavsiflarini tayyorlashga va ularni identifikatsiya qilishni yo‘lga qo‘yishga imkon yaratdi.

Bundan tashqari Zararlangan bug‘doy va tuproq namunalaridan *Fusarium* turkumiga mansub *F. graminearum* turi ajratib olindi va ularning morfologiyasi hamda sistematik o‘rinlari aniqlandi. Ushbu turlarning sof kulturalari O’zR FA GO’EBI ning «Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar» noyob ob’ekti kolleksiyasi boyitildi.

Adabiyotlar

1. Fisher N.L., Burgess L.W., Toussoun T.A., Nelson, P.E. Carnation leaves as a substrate and for preserving cultures of *Fusarium* species // Phytopathology, 1982, vol. 72, No. 1, pp. 151-153.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Dean R., Van Kan J.A.L., Pretorius Z.A., Hammond-Kosack K.E., Di Pietro A., Spanu P.D., Rudd J.J., Dickman M., Kahmann R., Ellis J., Foster G.D. The Top 10 fungal pathogens in molecular plant pathology // Molecular Plant Pathology, 2012, vol. 13, No. 4, pp. 414-430.
3. Dill-Macky R. 2010. *Fusarium* head blight (scab) // Pages 34-36 in: Bockus W.W., Bowden R.L., Hunger R.M., Morrill W.L., Murray T.D., Smiley R.W. (eds.). Compendium of wheat diseases and pests. Third edition. USA, APS, Minn., 2010, viii + 171 pp.
4. Aoki T., O'Donnell K. 1999-a. Morphological and molecular characterization of *Fusarium pseudograminearum* sp. nov., formerly recognized as the Group 1 population of *F. graminearum* // Mycologia, 1999, vol. 91, No. 4, pp. 597-609.
5. Aoki T., O'Donnell K. 1999-b. Morphological characterization of *Gibberella coronicola* sp. nov., obtained through mating experiments of *F. pseudograminearum* // Mycoscience, 1999, vol. 40, No. 6, pp. 443-453.
6. Deng Y.Y., Li W., Zhang P., Sun H.Y., Zhang X.X., Zhang A.X., Chen H.G. 2020. *Fusarium pseudograminearum* as an emerging pathogen of crown rot of wheat in eastern China // Plant Pathology, 2020, vol. 69, No. 2, pp. 240-248.
7. Leslie J.F., Summerell B.A. The *Fusarium* Laboratory Manual // Ames, Iowa, USA, Blackwell Publishing, 2006. 388 pp.
8. Kuhnem P.R., Ward T.J., Silva C.N., Spolti P., Ciliato M.L., Tessmann D.J., Del Ponte E.M. Composition and toxigenic potential of the *Fusarium graminearum* species complex from maize ears, stalks and stubble in Brazil // Plant Pathol. 2016, vol. 65, No. 7, pp. 1185-1191
9. Bissonnette K., Wharton P., Chen J., Marshall J.M. Survey of *Fusarium* species associated with Fusarium head blight of spring wheat (*Triticum aestivum*) in Southern Idaho // Plant Health Progress, 2018, vol. 19, No. 2, pp. 125-127.
10. Шеримбетов А.Г. *Fusarium* туркуми замбуруғларининг биоморфологияси ва патогенлик хусусиятлари // Докторлик (PhD) диссертацияси, 2019, 117 б.
11. Ганнибал Ф.Б., Гасич Е.Л., Орина А.С. Оценка устойчивости селекционного материала крестоцветных и паслёновых культур к альтернариозам // Методическое пособие. Под ред. М.М.Левитина. СПб. ГНУ ВИЗР Россельхозакадемии. 2011. 50 с
12. Елинова Н.П. Заикина Н.А. Соколова И.П. Руководство занятиям по микробиологии // - М. «Медицина» . 1988. - С. 23
13. Домрачева Л.И., Фокина А.И., Скугорева С.Г., Ашихмина Т.Я. 2021. Почвенные грибы рода *Fusarium* и их метаболиты: опасность для биоты, возможность использования в биотехнологии (обзор) // Теоретическая и прикладная экология, 2021, № 1, с. 6-15. doi: 10.25750/1995-4301-2021-1-006-015. Accessed 30.06.2022.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UO‘K 578.42: 578.74: 578.85: 578.865

POMIDORNING TURLI NAVLARINI TOMAT MOZAIKASI VIRUSIGA CHIDAMLILIGINI IKKIYOQLAMA IMMUNODIFFUZIYA USULIDA ANIQLASH

B.J.Axmadaliyev, kichik ilmiy xodim, O‘zR FA Genetika va O‘simliklar Eksperimental Biologiyasi Instituti,
B.A.Abduvaliyev, kichik ilmiy xodim, O‘zR FA Genetika va O‘EBI
K.I.Nugmanova, stajyor tadqiqotchi, O‘zR FA Genetika va O‘EBI
Z.N.Qodirova, katta ilmiy xodim O‘zR FA Genetika va O‘EBI
E-mail: *ahmadaliyev_bobur@mail.ru*

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqotda ishida ToMV bilan sun’iy kasallantirilgan pomidor navlarining ToMV infeksiyasiga chidamliligi ikkiyoqlama immunodiffuziya usulida aniqlangan. Ikkiyoqlama immunodiffuziya usuli natijalariga ko‘ra, pomidor navlarining tomat mozaikasi virusiga chidamliligi baholangan. Tadqiqot davomida olingan natijalar virus va unga olingan AZ bilan hosil qilgan pretsipitatsiya chiziqlariga qarab tekshirilgan pomidorning 25 xil navlaridan Darxon, Revansh, Blogodatniy, Perst, Sulton F_1 navlari virusga immun ekanligi, TMK–22, Sevara, Agro, Tvenid, Finish, Tanimi, Lojayin F_1, N-2274, Chelnok, Dolgonosik navlari ToMV ga chidamli va Zakovat, Faxriy, Magnat, L-200, Ofarin, Yoqut, Baqlajan, Surxon 142, Charodey, Ofarin-2 navlari esa ToMV ga chidamsiz ekanligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Tomat mozaikasi virusi, ToMV, antizardob, ikkiyoqlama immunodiffuziya, antigen, fosfat buferi, tobamovirus, Solanum lycopersicum L.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ СОРТОВ ТОМАТА К ВИРУСУ МОЗАИКИ ТОМАТА МЕТОДОМ ДВОЙНОЙ ИММУНОДИФФУЗИИ

Аннотация. *В данном исследовании устойчивость сортов томата, искусственно зараженных ВToM, к инфекции ВToM определяли методом двойной иммунодиффузии. По результатам двойной иммунодиффузии оценивали устойчивость сортов томата к вирусу томатной мозаики. Полученные в ходе исследования результаты показали, что среди 25 исследованных сортов томатов иммунитет к вирусу имеют сорта Дархан, Реванш, Блогодатный, Перст, Султан F1, в то время как сорта ТМК-22, Севара, Агро, Твенид, Финиш, Таними, Лоджаин F1, Н-2274, Челнок, Долгоносик являются устойчивыми, а сорта Заковат, Фахрий, Магнат, Л-200, Офарин, Ёкут, Баклажан, Сурхан 142, Чародей, Офарин-2 являются неустойчивыми.*

Ключевые слова: *ВToM, антисыворотка, двойной иммунодиффузии, антиген, фосфатный буфер, tobamovirus, Solanum lycopersicum L.*

DETERMINATION OF RESISTANCE OF TOMATO VARIETIES TO TOMATO MOSAIC VIRUS BY THE METHOD OF DOUBLE IMMUNODIFFUSION

Abstract. *In this study, the resistance of tomato varieties, artificially infected with ToMV, to ToMV infection was determined by the method of double immunodiffusion. The resistance of tomato varieties to the tomato mosaic virus was evaluated according to the results of double immunodiffusion. The results obtained during the study showed that among the 25 investigated tomato varieties, the varieties Darkhan, Revansh,*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Blagodatny, Perst, Sultan F1 have immunity to the virus, while the varieties TMK-22, Sevara, Agro, Tvenid, Finish, Tanimi, Lodzhain F1, N-2274, Chelnok, Weevil are resistant, and varieties Zakovat, Fakhriy, Magnat, L-200, Ofarin, Yokut, Eggplant, Surkhan 142, Charodey, Ofarin-2 are susceptible to ToMV.

Keywords: *ToMV, antiserum, double immunodiffusion, antigen, Phosphate-buffered saline (PBS) , tobamovirus, Solanum lycopersicum L.*

Kirish

Dunyodagi keng tarqalgan va inson iste'mol qiladigan ko'plab vitaminlar, minerallarga boy bo'lgan, ochiq maydon hamda issiqxonalarda yetishtiriladigan sabzavot ekinlaridan biri pomidor (*Solanum lycopersicum* L.) hisoblanadi. FAO (2020) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yiliga 177 million tonna pomidor yetishtiriladi. Dunyoda yetishtiriladigan pomidor hosilining katta qismi Xitoy (56 million tonna/yil), Hindiston (18 million tonna/yil), Turkiya (12,6 million tonna/yil), Rossiya Federatsiyasiga (3 million tonna/yil) to'g'ri keladi. O'zbekistonda 50 ming gektar maydonda pomidor yetishtiriladi, ishlab chiqarish hajmi yiliga 2,6 million tonnani tashkil etadi [1].

So'nggi o'n yil ichida o'simliklarda aniqlangan yangi kasalliklarining deyarli yarmi fitopatogen viruslar tomonidan keltirib chiqarishi aniqlangan. Pomidor o'simligining hosil sifati va miqdorini kamaytiruvchi, pomidorni kasallantirib, uning vegetasiyasini erta yakunlashiga sabab bo'luvchi, dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan fitopatogen viruslardan biri tobamoviruslar avlodiga mansub Tomat mozaikasi virusi hisoblanadi [2].

ToMV birinchi bo'lib 1909-yilda AQSH da Klinton tomonidan *Solanum lycopersicum* L. o'simligidan ajratib olingan. ToMV ning virioni tayoqcha shaklida, 300x18 nm kattalikka ega [3]. Aksial kanalning diametri 4 nm. ToMV turli xil virus tashuvchi vektorlar (o'simlik shira bitlari, yaproq qurti, oq pashshalar) kontakt, gul changi va urug'lar orqali tarqaladi [4].

ToMV ning ba'zi shtammi ayrim xossalari bilan TMV ga o'xshasada, lekin ular xo'jayin va indikator o'simliklari, serologik xossalari va virusning oqsil aminokislotalari tarkibiga oid reaksiyalarda farqlanadi [5, 6]. TMV va ToMV *tobamovirus* avlodiga mansub ikkita yaqin tur bo'lib, ular turli o'lchamdagi nekrotik zararlanishga olib keladi va o'simlikning fermentativ faoliyatni turli darajada o'zgartiradi [7, 8, 9]. Axatov (2010) ma'lumotlariga ko'ra, Gollandiya va Daniyada pomidorning immun duragaylarida TMV ga hosil bo'lgan immunitetini ToMV tomonidan "yengib o'tish" hollari kuzatilmoqda [10]. Pomidorni kasallantiruvchi 136 ta virus turlari orasida Tomat mozaika virusi (ToMV) o'ta barqaror, yuqumli, kosmopolit tobamoviruslardan biri bo'lib, ochiq maydon va issiqxonada pomidor yetishtirishdagi asosiy cheklovchi omil hisoblanadi. Savzavotchilikda ToMV muammosini bartaraf etish uchun chidamli navlarni tanlash eng maqbul va amaliy yondashuv hisoblanadi [11].

Pomidorning turli navlarini fitopatogen viruslarga chidamliligini aniqlashning bir qator usullari mavjud bo'lib, shunday usullaridan biri ikkiyoqlama immunodiffuzion (IID) usul hisoblanadi. Ikkiyoqlama immunodiffuziya usuli - bu antigen va uning o'ziga xos antitanalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida virusni aniqlash uchun ishlatiladigan immunologik usul sanaladi. Bu usul antitana-antigen (virus) kompleksi bog`langan gelda pretsipitat chiziqlarini hosil qilish tamoyiliga asoslanadi [12, 13]. Antitana-antigen o'zaro ta'siri va pretsipitat chizig'ining paydo bo`lishi uchun gel 25-30 °C haroratda 12 dan 48 soatgacha inkubatsiya qilinadi. Gelda antitana-antigen bog`langan qismida pretsipitat chiziqlarining yo'qligi o`simlikning virusga qarshiligini, chiziqlar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mavjudligi esa o`simlikning mazkur virusga sezgirligini ko'rsatadi. Qishloq xo‘jaligida pomidor o‘simligini fitopatogen viruslardan himoyalash va ularga qarshi kurashda turli xil pomidor navlarining viruslarga chidamlilik darajasini aniqlash amaliy seleksiya uchun ham juda muhim hisoblanib, bu o‘simlikning potentsial hosildorligi va iqtisodiy ahamiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi virusli kasallikka chidamliligi yoki virusga sezgirligi haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi [12, 13, 14].

Tadqiqot materillari va ish uslublari

Pomidorning ToMV infeksiyasiga chidamli navlarini tanlash maqsadida o‘rganilayotgan pomidor nav va namunalarining urug‘lari maxsus lezimetrlarga ekildi. O‘rganilayotgan pomidor nav va duragaylarining urug‘lari ToMV ning qisman tozalangan preparati bilan sun’iy zararlantirildi. Buning uchun Petri likopchasi ichiga filtr qog‘ozi qo‘yildi va pomidor urug‘lari solib ToMV ning qisman tozalangan preparatida 1-rasmda keltirilganidek 6-8 soat ivitilib (1-rasm), so‘ng ekildi maxsus lezimetrga ekildi.



1-rasm. Chapda suv bilan va o‘ngda virusli shirada ivitilgan pomidor urug‘lari

Izoh: olingan 25 xil pomidor navlarining urug‘lari shu tartibda ToMV preparatida ivitildi.

Nihollar gullash fazasining boshlanishida mexanik usulda ikkinchi marta ToMV ning qisman tozalangan preparati bilan kasallantirildi [12]. Namunalar kasallik alomatlari mavjud o‘simliklarning uchki, o‘rta va quyi qismi barglaridan 4 tadan olinib, namlik yutmaydigan paketlarga solib yig‘ildi. Namuna to‘g‘risidagi ma’lumotlar (navi, kasallik belgilari, yig‘ilgan sanasi) paketga yozib termos muzlatgichda laboratoriyaga olib kelindi. Laboratoriya sharoitida har bir namuna alohida chinni havonchaga solindi va 1:1 nisbatda 0,1 M fosfat buferi (pH 7,2) qo‘shib gomogenizatsiya qilindi. Hosil bo‘lgan gomogenat maydalanmagan o‘simlik qoldiqlaridan ajratib olish uchun 7000 ayl.tez/daq. 20 daqiqa davomida sentrifuga qilinib, cho‘kma usti suyuqligi (ChUS) eppendorf probirkalarga 1 ml dan quyib olindi [12, 16].

Yig‘ilgan namunalarni ToMV bilan kasallanishini aniqlashda ikkiyoqlama immunodiffuziya usulidan foydalanildi. IID usulida pomidorni ToMV bilan kasallanishini aniqlash uchun 1% agaroza

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

geli tayyorlab olindi. Buning uchun 1 g agaroza tortib olindi va 99 ml 0,1 M fosfat buferi (pH=7,2) qo‘shib, mikroto‘lqinli pechda gel to‘liq erigungacha qizdirildi. 25 ml gel alohida idishga quyib olindi va harorati 50-55°C gacha sovutilgan suyuq agarda bakteriyalar o‘sib ketmasligi uchun 1ml antibiotik (streptomitsin) qo‘shib yaxshilab aralashtirildi. So‘ngra «shayton» (suv tarozi) bilan gorizontal joylashtirilgan, o‘lchami 9×12 sm bo‘lgan shisha plastinka ustiga quyildi. Agaroza geli qotgandan so‘ng, teshikchalar orasi 5 mm bo‘lgan maxsus shtamplar yordamida qator qilib chuqurchalar tayyorlandi. ToMV ga olingan qon zardobidan 20 mkl olindi va xuddi shuncha miqdordagi 0.85 % NaCl eritmasi bilan aralashtirildi va chuqurchalarning birinchi qatoriga 20 mkl suyultirilgan antizardob (AZ) va uning qarshisiga esa shuncha miqdorda virusli shira (ChUS), ya’ni antigen (AG) solinib, plastinkalar tagiga 500 ml suv va 100 mkl xloroform solingan eksikatorda 48 soat davomida saqlandi [12, 16].


Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Serologik usullar o‘simlik virusini erta diagnostika qilish va tavsiflashda hamda fitopatogen viruslarning o‘zaro yaqinlik darajasini aniqlashda katta ahamiyatga ega. O‘simliklar virusini identifikatsiyalash uchun serologik usullardan foydalanishni cheklovchi asosiy omil - bu hayvon tanasida antizardob ishlab chiqarish uchun immunizatsiya qilishda foydalaniladigan tozalangan virus preparatini olish hisoblanadi [17]. Viruslar turli o‘simlik hujayrasida har xil miqdorda to‘planadi. Bu to‘planish miqdori virus biologiyasiga ya’ni uning tashqi ta’sirlarga chidamliligiga bevosita bog‘liq sanaladi. Masalan, bir kg virusli *D. stramonium* L. o‘simligidan 135,5 mg kartoshkaning X virusining toza preparati ajratilgan bo‘lsa [16], Tomat mozaikasi virusi bilan kasallangan pomidor o‘simligining 1 kg virusli namunasidan 1-3 g toza virus praparati ajratib olingan [15]. Bundan ma’lum bo‘ladiki Tomat mozaikasi virusi o‘simlik hujayralarida ko‘p miqdorda to‘planib, o‘simlikning hayotiy jarayonlarini buzilishiga sabab bo‘ladi.

ToMV pomidor o‘simligida sarg‘ish-yashil mozaika, barglarning burishishi, barglarning kichrayishi va agrotexnik vositalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida kelib chiqadigan turli xil alomatlar bilan aralashib ketadigan barglarning boshqa deformatsiyalari va ranggining o‘zgarishlari kabi alomatlarni keltirib chiqaradi [18].

Tadqiqotlar mobaynida kasallik belgilarining paydo bo‘lishi ba’zi navlarda (Zakovat, Faxriy, Magnat, L-200, Ofarin, Yoqut, Baqlajan, Surxon 142, Charodey, Ofarin-2) dastlab gullash fazasigacha bo‘lgan davrida kuzatildi. Bunda dastlab o‘simliklarning uchki barglarida mozaika alomatlari paydo bo‘lganligi, so‘ngra mevalarning pishish fazasigacha bo‘lgan davrda kasallik belgilari butun o‘simlikka tarqalishi, barglarning maydalashuvi, barglarning chetki qismidan qurishi, o‘simlikning o‘sish konusi virus bilan zararlanishi natijasida pakanalik kabi virusli kasallikka xos alomatlar kuzatildi. Ikkinchi marta ToMV preparati mexanik usulda inokulatsiya qilinganidan 10 kun o‘tib namunalar yig‘ib olindi (2-rasm).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-rasm. Ikkinchi marta virus yuqtirilgan pomidor namunalari
Izoh: navlar va duragaylar nomi 1-jadvalda keltirilgan


1-jadval

Tadqiqotlar davomida foydalanilgan pomidor navlari

№	Navlar va duragaylar nomi	№	Navlar va duragaylar nomi
1	TMK-22	14	Agro
2	Zakovat	15	Charodey
3	Darxon	16	Magnat
4	Faxriy	17	Orafin-2
5	L-200	18	Dolgnosik
6	Ofarin	19	Tvenid
7	Yoqut	20	Blogodatniy
8	N-2274	21	Perst
9	Baqlajon	22	Finish
10	Sevara	23	Tanimi
11	Surxon-142	24	Lojayin F_1
12	Chelnok	25	Sulton F_1
13	Revansh		

ToMV bilan sun’iy kasallantirilgan pomidor nav va duragaylarining virusga chidamliligini hamda virus konsentratsiyasini aniqlashda IID usulidan foydalanildi [17]. Buning uchun ToMV yuqtirilgan pomidorning nav va duragaylarining barglaridan o‘simlik shirasi ajratib olindi hamda tadqiqotning ish uslublari qismida keltirilganidek IID usulida tajribalar o‘tkazildi. 24 soatdan so‘ng agaroza gelida AZ va AG o‘zaro bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan pretsipitatsiya chiziqlar paydo bo‘lganligi kuzatildi (3-rasm).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



3-rasm. Pomidor o‘simligining nav va duragaylarini ToMV bilan kasallanish darajasi IID tahlili

Tadqiqot davomida olingan natijalar virus va unga olingan AZ bilan hosil qilgan pretsipitatsiya chiziqlariga qarab tekshirilgan 25 namunadan Darxon, Revansh, Blogodatniy, Perst, Sulton F_1 navlarining virusga immune ekanligi, TMK–22, Sevara, Agro, Tvenid, Finish, Tanimi, Lojayin F_1, N-2274, Chelnok, Dolgnosik navlari ToMV ga chidamli va Zakovat, Faxriy, Magnat, L-200, Ofarin, Yoqut, Baqlajan, Surxon 142, Charodey, Ofarin-2 navlari esa ToMV ga chidamsiz ekanligi aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqotlar davomida olingan natijalar turli xil pomidor navlarining Tomat mozaikasi virusiga chidamliligini aniqlashda, virusli kasalliklarga chidamli pomidor navlarni yaratishda amaliy seleksiyada va pomidor yetishtirishda o‘simliklarni himoya qilish strategiyasini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi. Pomidor navlarining ToMV ga chidamliligini ikki tomonlama immunodiffuziya yo‘li bilan aniqlash pomidor seleksiyasi sohasida navlarning ushbu virusga qarshi qanchalik samarali kurasha olishini aniqlashga yordam beradi.

Olingan natijalar asosida Darxon, Revansh, Blogodatniy, Perst, Sulton F_1 virusga chidamli navlar sifatida ToMV ga chidamli tomat navlarini yaratish uchun amaliy seleksiyaga tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ergashev Nurali Azamovich[1], Komilov Esokhon Juraevich[1], Yoldoshev Bobur G'ofur o'g'li[1], Kuchkarova Lubov Solijanovna[2], Kamilov Khaidar Pazilovich[3], Matchanov Alimjon Davletbaevich[4], Asrarov Muzaffar Islamovich[1]

[1)] Institute of Biophysics and Biochemistry at NUUz, Tashkent;

[2)] National University of Uzbekistan, Tashkent;

[3)] Tashkent State Dental Institute, Tashkent;

[4)] Institute of Bioorganic Chemistry AS RUz, Tashkent.

esohon83@mail.ru

The article shows the effect of glycyrrhizic acid, the main compound of licorice root, which is considered effective in aphthous stomatitis, on the functional parameters of liver mitochondria, where glycyrrhizic acid had a weak effect on the lipid peroxidation process, but it inhibits the megapore, and activates the ATP-dependent K-channel in mitochondria.

Key words: *glycyrrhizic acid, mitochondria, LPO, megapore, mitoK$_{ATP}$-channel.*

Kirish

Surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatit og'iz bo'shlig'ining yarali yallig'lanish kasalligi bo'lib, oshqozon-ichak yo'li patologiyalari natijasida yo'g'on ichakda kandidozni rivojlanishi hisobiga kelib chiquvchi kasallik hisoblanadi. Aftoz stomatit ham iqtisodiy, ham ijtimoiy noqo'laylik tug'diruvchi kasallik bo'lib, og'riq, so'lak ajralishini kuchayishi va mahaliy haroratni ko'tarilishi bilan kechadi. Kasallik qaytalangan vaqtda bemor ovqatlana olmay qoladi. Kasallik yengil, o'rta og'ir va og'ir holatda kechishi mumkin. Kasallikni davolash juda murakkab hisoblanadi. Dori vositalarini kasallikning keyingi qaytalanishlarida qo'llanilganda, ularning samarasi kamayishi yoki butunlay

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yo‘qolishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda aftoz stomatitda qizilmiya ildizi damlamasini ovqatlanishdan 20-30 daqiqa oldin qabul qilish kasallikni kompleks davolashda samarali natija berishi ko‘rsatilgan [22]. Haqiqatdan ham, xalq tabobatida keng qo‘llaniluvchi qizilmiya ildizidan tayyorlangan malhamlar turli bakterial [14], virusli [21] va zamburug‘li [9] yallig‘lanish kasalliklarini davolashda foydalanishi ko‘rsatilgan. Ma’lumki, har qanday patofiziologik jarayonlarning rivojlanishi erkin radikallar hosil bo‘lishi va lipidlarning perekisli oksidlanishi (LPO) bilan birga kechadi. Bu esa mitoxondriyalar nafas zanjirida elektronlarni tashilishi, ion-transport almashinuv jarayonlari, hujayralarda metabolik jarayonlarning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langandir [15]. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda qizilmiya ildizining asosiy ta’sir etuvchi birikmasi hisoblangan glitsirrizin kislotasidir. Shuning uchun subhujayraviy jarayonlarda glitsirrizin kislota (GlK) ta’siri o‘rganildi.


Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotlar tana vazni 180-200 g bo‘lgan zotsiz, oq kalamushlarda olib borildi. Kalamush jigari mitoxondriyalari Shnayder usuli bo‘yicha [17] differentsial tsentrifugalash usuli yordamida ajratildi. Ajratish muhiti tarkibi: 250 mM saxaroza, 10 mM tris-HCl, 1 mM EDTA, pH-7,4. Mitoxondriyalar oqsili biuret usulida aniqlandi [20]. Mitoxondriyalarda LPO jarayoni va uning peroksidativ bo‘kishini fotometrik usulda *in vitro* sharoitda Fe^{2+}/askorbat tizimi yordamida aniqlandi. Bunda inkubatsiya muhiti tarkibi – 125 mM KCl, 10 mM tris-HCl dan (pH-7,4) iborat bo‘lib, mitoxondriyalarda lipid perekislarini hosil bo‘lishi va uning bo‘kishini chaqirish uchun 20 mkM $FeSO_4$ va 400 mkM askorbatdan foydalanildi, muhitda mitoxondriya oqsili 0,5 mg/ml ni tashkil etdi [2]. Mitoxondriyalarning bo‘kish kinetikasi (mitoxondriya oqsili 0,3-0,4 mg/ml ni tashkil qildi) 3 ml kyuvetalarda 540 nm to‘lqin uzunligida optik zichlikning o‘zgarishi bo‘yicha aniqlandi. Mitoxondriyalar megaporasini o‘rganish uchun inkubatsion muhit tarkibi: KCl - 125 mM, KH_2PO_4 - 1 mM, suksinat - 5 mM, Ca^{2+}-EGTA-bufer 20 - mkM, Hepes - 20 mM, tris-HCl - 20 mM, rotenon - 2 mkM, oligomitsin - 1 mkg/ml, pH-7,2 [13]. MitoK_{ATF}-kanalning faolligini o‘rganish uchun inkubatsion muhit tarkibi: KCl - 125 mM, Hepes - 10 mM, suksinat - 5 mM, $MgCl_2$ - 1 mM, K_2HPO_4 - 2,5 mM, KH_2PO_4 - 2,5 mM, rotenon - 5 mkM, oligomitsin - 1 mkg/ml, pH-7,4 [3]. Olingan natijalar Origin 6.1 kompyuter dasturida statistik tahlil qilindi. $P<0,05$ ko‘rsatkich holatida olingan natijalar ishonarli deb baholandi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, *in vitro* tajribalarda GlK ning turli kontsentratsiyalari ta’sirida Fe^{2+}/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalar bo‘kishiga ta’siri o‘rganildi (1-rasm, A). Inkubatsiya muhitiga Fe^{2+}/askorbat qo‘shish mitoxondriyalarda LPO jarayonini keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Ma’lumki, Fe^{2+}/askorbat tizimi ta’sirida mitoxondriyalar bo‘kadi va ularning hajmi ortadi. Ushbu holatda mitoxondriyalar membranasining labilligi ortib, mitoxondriyalar membrana potentsiali pasayadi [7]. Fe^{2+}/askorbat tizimi chaqirgan LPO jarayoniga GlK ning turli kontsentratsiyalarini ta’sir ettirish orqali uning membranafaol xossaga ega ekanligi aniqlandi. GlK 20 mkM kontsentratsiyada Fe^{2+}/askorbat yordamida chaqirilgan LPO jarayonini nazoratga nisbatan 11,8% ga, 60 mkM kontsentratsiyada esa 5,7% ga oshirib, GlK prooksidant ta’sirni namoyon qildi. Triterpen glikozidning 100 mkM kontsentratsiyasi ta’sirida esa nazoratga nisbatan 27,5% ga ingibirlashi aniqlandi va bu kontsentratsiyada GlK antioksidant ta’sirini namoyon qildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Fe^{2+}/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi LPO jarayoniga GlK va GlK:Kv-2:1 ning ta'siri. Izoh: Ordinata o'qida - Fe^{2+}/askorbat ta'sirida mitoxondriyalar bo'kishi ko'rsatilgan. Inkubatsiya muhiti - 125 mM KCl, 10 mM tris-HCl, pH 7,4. (** - P<0,01; n=4-5).

Demak, GlK LPO jarayoniga ikki xil holatda ta'sir ko'rsatishi aniqlandi va nisbatan kichikroq (20 va 60 mkM) kontsentratsiyalarda LPO jarayonini faollashtirgan bo'lsa, nisbatan kattaroq (100 mkM) kontsentratsiyalarda esa antioksidant ta'sir ko'rsatdi. Lekin bizga ma'lumki, qizilmiya ildizidan olingan dori vositalari juda ko'pchilik yallig'lanish kasalliklarida, jigar kasalliklarini davolashda samarali vositalardan hisoblanadi. Bunda qizilmiya ildizi tarkibidagi – GlK, glabridin va izolikviritigeninlar yallig'lanishga qarshi samarali vositalardan bo'lib, ular bu holatda prostoglandin Ye2, siklooksigenaza (SOG) va lipoksigenaza (LOG) larning faolligini ingibirlashi ko'rsatilgan [11]. Shuning bilan birga lipopolisaxaridlar bilan chaqirilgan yallig'lanishda GlK alfa-saraton nekroz omilini, interleykin-1betani va azot oksid miqdorini kamaytirishi ko'rsatilgan [17]. Shuning bilan birga qizilmiya ildizidan olingan dori vositalar yallig'lanish, saraton, allergik va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan [10]. Ko'rinib turibdiki, GlK yallig'lanishni oldini olishda turli mexanizmlar orqali ta'sirini namoyon qilishi mumkin.

Qizilmiya ildizi tarkibida GlK bilan birga flavonoidlar ham uchrashini hisobga olgan holda GlK ni kvertsetin (Kv) bilan 2:1 (GlK:Kv-2:1) kompleks birikmasini tajribalarda Fe^{2+}/askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi LPO jarayoniga ta'siri o'rganildi (1-rasm, B). Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, GlK:Kv-2:1 kompleksi 5 mkg/ml da Fe^{2+}/askorbat orqali chaqirilgan LPO jarayonini nazoratga nisbatan 11,6% ga ingibirlagan bo'lsa, kompleks birikmaning 10 mkg/ml miqdori esa Fe^{2+}/askorbat orqali chaqirilgan LPO jarayonini nazoratga nisbatan 30,3% ga ingibirlashi aniqlandi. GlK:Kv-2:1 kompleks birikmaning 20 va 30 mkg/ml miqdori ta'sirida Fe^{2+}/askorbat bilan chaqirilgan LPO jarayoni mos ravishda nazoratga nisbatan 64,5% va 87,6% ga ingibirlanishi ko'rsatildi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, GlK:Kv-2:1 kompleksi GlK ning antioksidantlik faolligini ortishiga sabab bo'lar ekan. Adabiyot ma'lumotlarida keltirilishicha, o'tkir jigar yetishmovchiligida jigar to'qimalarida va L02 hujayralarda yuqori harakatchan oqsil V1 guruhining ko'tarilganligi aniqlangan. Shuning bilan birga laktatdegidrogenaza, Fe^{2+} ionlari, malondialdegid

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427


(MDA) miqdori va KFSh lari ortganligi hamda glutation miqdori kamayganligi aniqlangan va bunday o‘zgarishlarni GlK bilan ishlov berish oldini olishi ko‘rsatilgan [19].

Adabiyotlardan ma’lumki, hujayradagi ko‘plab fiziologik jarayonlarning me’yoriy kechishi Ca^{2+}, K^{+}, Na^{+}, Mg^{2+} ionlari gomeostazi bilan uzviy bog‘langan. Hujayralardagi ionlar gomeostazini ta’minlanishida bevosita mitoxondriyalar ham ishtirok etadi. Mitoxondriyalardagi ion transport tizimlari turli nuqtai-nazardan chuqur o‘rganib kelinmoqda. Hozirgi zamon tasavvurlariga ko‘ra, bu tizimlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, hujayra ichida metabolik jarayonlarni va ionlar gomeostazini boshqarilishini ta’minlaydi. Organizmdagi turli patologik holatlarda mitoxondriyalarning Ca^{2+}-bog‘liq SsA-sezgir megaporasi yuqori o‘tkazuvchan ochiq holatga o‘tadi. Shuningdek, mitoK$_{ATF}$-kanal funktsiyasi o‘zgaradi. Ayrim tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, mitoK$_{ATF}$-kanal nafaqat mitoxondriyalar matriksi hajmini boshqarishda, balki hujayralardagi oksidlanish va ATF sintezi jarayonlarida, hamda turli patogenez oqibatlarini bartaraf etishda ham ishtirok etishi keltirilgan [1; 6]. Mitoxondriyalardagi ion-transport tizimlarini boshqarish mexanizmlarini tadqiq qilish fiziologik va farmakologik nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, GlK ni *in vitro* sharoitda kalamush jigari mitoxondriyalari megaporasiga va mitoK$_{ATF}$-kanal faolligiga ta’siri o‘rganildi.

Shunga ko‘ra, GlK ni SsA-sezgir megapora holatiga ta’siri ko‘rilganda quyidagi natijalar olindi. Bunda GlK ning 50 mkM kontsentratsiyasi ta’sirida mitoxondriyalar megaporasi holati Ca^{2+} ionlari chaqirgan mitoxondriyalarning bo‘kishini nazoratga nisbatan 10,5% ga ingibirlashi aniqlandi (2-rasm). GlK ning 100 mkM kontsentratsiyasi ta’sirida jigar mitoxondriyalarining bo‘kishini nazoratga nisbatan 23,6% ga ingibirlanishi ko‘rsatildi. GlK sining 150 va 200 mkM kontsentratsiyalari ta’sirida mitoxondriyalar megaporasi holatini nazoratga nisbatan mos ravishda 32,6% va 58,8% ga ingibirlashi aniqlandi.

Shu bilan birga, mitoxondriyalar membranasining o‘zgarishi va buning natijasida nafas olish va oksidlanishli fosforlanish jarayonini LPO jarayoni ta’sirida bo‘linishi Ca^{2+} bog‘liq SsA-sezgir megaporaning ochilishi va endogen mitoxondrial fosfolipaza A_2 ning faollashuvi natijasida sodir bo‘lishi ko‘rsatilgan. [4; 5]. Shuni ta’kidlash lozimki, Ca^{2+} bog‘liq SsA-sezgir megapora prooksidantlarning zararlovchi ta’siriga juda sezgir bo‘lishi ta’kidlangan. Ultrabinafsha nur ta’sirida terida kelib chiqqan stress holatni GlK oldini olib, KFSh larining ortishini, hujayraichi Ca^{2+} ionlari disbalansini va MMP ning yo‘qotilishini bartaraf etishi ko‘rsatilgan [12]. Shu sababli GlK ni kosmitologiyada qo‘llashga tavsiya berilgan. Adabiyot ma’lumotlari asosida qaraydigan bo‘lsak, GlK va uning monoammoniyli tuzi turli kasalliklarni davolashda muvaffaqiyatli va samarali qo‘llanib kelayotganligidan darak berib turibdi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-rasm. GlK ning jigar mitoxondriyalari megaporasiga (A) va mitoK$_{ATF}$-kanal faolligiga (B) ta'siri (* - P<0,05, ** - P<0,01, *** - P<0,001; n=5).

Keyingi tadqiqotlarda GlK ning mitoxondriyalardagi mitoK$_{ATF}$-kanal faolligiga ta'sirini o'rganildi (2-rasm, B). MitoK$_{ATF}$-kanal faolligi ATF ishtirok etmagan holatda jigar mitoxondriyalarining bo'kish natijasi 100% deb olindi. Shundan so'ng 200 mkM ATF qo'shilgan holatda mitoxondriyalarning bo'kishi 56,5% ga ingibirlanishi aniqlandi. Tajribalarni davom ettirgan holda inkubatsion muhitda 200 mkM ATF bor sharoitda 50 mkM GlK qo'shilganda mitoK$_{ATF}$-kanal faolligi deyarli o'zgarmadi. Shundan so'ng inkubatsion muhitda 200 mkM ATF qo'shilgan holatda 100 mkM GlK ta'sirida mitoK$_{ATF}$-kanal faolligi 25,7% ga faollashishi aniqlandi. Keyingi tajribalarda inkubatsion muhitda 200 mkM ATF ishtirok etgan holatda 150 va 200 mkM kontsentratsiyada GlK ta'siri o'rganilganda, mitoK$_{ATF}$-kanal faolligi mos ravishda 38,2% va 52,2% ga faollashishi aniqlandi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, GlK kalamush jigar mitoxondriyalari mitoK$_{ATF}$-kanal faolligiga o'ziga xos ta'sir etib, o'rganilgan kontsentratsiyalarda ma'lum miqdorda ushbu kanalni faollashtirishi aniqlandi.

Olingan natijalarni muhokama qiladigan bo'lsak, *in vitro* tajribalarda GlK mitoxondriyalardagi LPO jarayoniga juda ham sust antioksidant ta'sir ko'rsatsada, uning shifobaxshlik xususiyati yuqori ekanligini qayd etmasdan ilojimiz yo'q. Chunki qizilmiya ildizi preparatlari ko'pchilik kasalliklarni davolashda samarali preparatlardan hisoblanadi. GlK ni samaradorligini kvertsetin yanada oshirishi mumkin. Aniqlanishicha, surunkali gepatit C kasalligini GlK bilan davolashda 12 hafta davomida haftasiga 3 marta inek'tsiya qilinganda bemorlarda jigardagi nekroz va fibroz kamayganligi, alaninaminotransferaza fermenti faolligi past holatda saqlanganligi ko'rsatilgan [16]. GlK va uning hosilalari gepatit, gripp va SARS-CoV-2 viruslariga qarshi samarali ta'sir etishi keltirilgan bo'lib, bunda bu preparatlar ikkilamchi signal yo'llariga, to'qima va autoimmun himoya tizimlariga ta'sir qilishi mumkinligi qayd etilgan [21].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

qilib aytishimiz mumkinki, qizilmiya ildizining asosiy ta'sir etuvchi birikmasi GlK samarador farmakologik dori vositasi ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Aftoz stomatit kasalligiga keladigan bo'lsak, qizilmiya ildizi damlamasi bilan olgan natijalarni hisobga olgan holda GlK ni surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatitni davolashda tavsiya etishimiz mumkin deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акопова О.В., Колчинская Л.И., Носарь В.И., Смирнов А.Н., Малышева М.К., Маньковская И.Н., Сагач В.Ф. Влияние открытия митохондриальной поры на продукцию активных форм кислорода в митохондриях мозга крыс // Укр. биохим. журн. – 2011. – Т. 83(6). – С. 46-55.
2. Асраров М.И., Комилов Э.Дж., Эргашев Н.А. и др. Механизм действия флавона лютеолина на функции митохондрий печени крыс // Вопр. биол. мед. и фарм. химии. – 2015. - №12. – С. 38-43.
3. Вадзюк О.Б., Костерин С.А. Индуцированное диазоксидом набухание митохондрий миометрия крыс как свидетельство активации АТФ-чувствительного К+-канала // Укр. біохім. журн. – 2008. – Т. 80. - № 5. – С. 45-51.
4. Камбурова В.С., Асраров М.И. Влияние глицирризиновой кислоты и ее агликона на проницаемость мембран митохондрий печени крыс // Хим.прир.соед. – 2002. - Спец.выпуск. – С.103-104.
5. Камбурова В.С., Асраров М.И., Ким Н.П. Влияние глицирризиновой и глицирретовой кислот на дыхание и транспорт Ca^{2+} в митохондриях // Хим.прир.соед. – 2002. - Спец.выпуск. – С. 102-103.
6. Миронова Г.Д., Шигаева М.И., Белослудцева Н.В. и др. Влияние некоторых флавоноидсодержащих препаратов растительного происхождения на активность митохондриалного АТФ-зависимого калиевого канала // БЭБМ. – 2008. – Т. 146(8). – С. 195-199.
7. Шилов А.М., Мельник М.В., Чубаров М.В. Комплексные антиоксиданты в профилактике и лечении заболеваний сердечно-сосудистой системы // Росс. мед. вести – 2004. - № 4. – С. 45-49.
8. Эргашев Н.А., Комилов Э.Ж., Йўлдошев Б.Ғ., Кучкарова Л.С., Кадирбаева А.А., Тахирова К.А., Камилов Х.П. Афтоз стоматитни даволашда ўсимлик биологик фаол моддаларининг қўлланилиши / "Биофизика ва биокимё муаммолари-2023" илмий конф. материаллари. 19 май 2023 й. Тошкент, 2023. – 201-202 Б.
9. Authier H., Bardot V., Berthomier L., Bertrand B., Blondeau C., Holowacz S., Coste A. Synergistic effects of licorice root and walnut leaf extracts on gastrointestinal candidiasis, inflammation and gut microbiota composition in mice // Microbiol Spectr. – 2022. – V. 10(2). – ID. e0235521. doi: 10.1128/spectrum.02355-21.
10. Bordbar N., Karimi M.H., Amirghofran Z. The effect of glycyrrhizin on maturation and T cell stimulating activity of dendritic cells // Cell Immunol. – 2012. – V. 280(1). – P. 44-49.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

11. Chandrasekaran C.V., Deepak H.B., Thiyagarajan P., Kathiresan S., Sangli G.K., Deepak M., Agarwal A. Dual inhibitory effect of Glycyrrhiza glabra (GutGard™) on COX and LOX products // Phytomedicine. – 2011. – V. 18(4). – P. 278-284.
12. Farrukh M.R., Nissar U.A., Kaiser P.J., Afnan Q., Sharma P.R., Bhushan S., Tasduq S.A. Glycyrrhizic acid inhibits reactive oxygen species mediated photodamage by blocking ER stress and MAPK pathway in UV-B irradiated human skin fibroblasts // J Photochem Photobiol B. – 2015. – V. 148. – P. 351-357.
13. He L., Lemasters J.J. Regulated and unregulated mitochondrial permeability transition pores: a new paradigm of pore structure and function? // FEBS Lett. – 2002. – V. 512(1-3). – P. 1-7.
14. Ito I., Loucas B.D., Suzuki S., Kobayashi M., Suzuki F. Glycyrrhizin protects γ-irradiated mice from gut bacteria-associated infectious complications by improving miR-222-associated Gas5 RNA reduction in macrophages of the bacterial translocation site // J Immunol. – 2020. – V. 204(5). – P. 1255-1262.
15. Liang L.P., Jarrett S.G., Patel M. Chelation of mitochondrial iron prevents seizure-induced mitochondrial dysfunction and neuronal injury // J Neurosci. – 2008. – V. 28(45). – P. 11550-11556.
16. Manns M.P., Wedemeyer H., Singer A., Khomutjanskaja N., Dienes H.P., Roskams T., Goldin R., Hehnke U., Inoue H.; European SNMC Study Group. Glycyrrhizin in patients who failed previous interferon alpha-based therapies: biochemical and histological effects after 52 weeks // J Viral Hepat. – 2012. – V. 19(8). – P. 537-546.
17. Schneider W.C., Hogeboom G.H. Cytochemical studies of mammalion tissues: the isolation of cell components by differential centrifugation // Cancer. Res. – 1951. – Vol. 11(1). – P. 1-22.
18. Wang X.R., Hao H.G., Chu L. Glycyrrhizin inhibits LPS-induced inflammatory mediator production in endometrial epithelial cells // Microb Pathog. – 2017. – V. 109. – P. 110-113.
19. Wang Y., Chen Q., Shi C., Jiao F., Gong Z. Mechanism of glycyrrhizin on ferroptosis during acute liver failure by inhibiting oxidative stress // Mol Med Rep. – 2019. – V. 20(5). – P. 4081-4090.
20. Watters C. A one-step biuret assay for protein in the presence of detergent // Anal Biochem. – 1978. – V. 88(2). – P. 695-698.
21. Zuo J., Meng T., Wang Y., Tang W. A review of the antiviral activities of glycyrrhizic acid, glycyrrhetinic acid and glycyrrhetinic acid monoglucuronide // Pharmaceuticals (Basel). – 2023. – V. 16(5). – ID. 641. doi: 10.3390/ph16050641.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UO'K 582(736).9

CHESNEYA TRIBULOIDES NEVSKINING KO'HITANG BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONIDA TARQALISHI VA MUHOFAZASI HAQIDA

[1]Tajetdinova Dilarom Mnajatdinovna, [2] Ibragimov Akrom Javliyeich,
[3]Karimov Baxtiyor Qurbon o'g'li
[1]O'zR FA Botanika instituti katta ilmiy xodimi
[2]Termiz davlat universiteti dotsenti
[3] O'zR FA Botanika instituti kichik ilmiy xodimi
[1]E-mail: t-dilyia@mail.ru
[2]E-mail: akram_i@bk.ru
[3]E-mail: baxtiyor.karimov.1994@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Janubi-G'arbiy Pomir-Oloyning kamyob endemik o'simligi Chesneya tribuloidesnin 2022-23 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan va TASH gerbariy fondi ma'lumotlari asosida tahlil natijalari berildi. KBGRdagi Q194, L193 va K189 indekslarda Chesneya tribuloide populyatsiyalarini mavjudligi aniqlandi. Geofazoviy tahlilida 21 ta joyda tarqalishi bilan EOO 1,028.165 km² (EN) va AOO 80.000 (EN) yuqolib borayotgan tur sifatida tasniflandi.*

Kalit so'zlar: *Chesneya tribuloides, endem, GeoCAT, KBGR, populyatsiya.*

О РАСПРОСТРАНЕНИИ И СОХРАНЕНИИ *CHESNEYA TRIBULOIDES* NEVSKI В КУГИТАНГСКОГО БОТАНИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО РАЙОНА

Аннотация: *В статье представлены результаты анализа редкого эндемичного растения Юго-Западного Памиро-Алая Chesneya tribuloides в ходе полевых исследований, проведенных в 2022-2023 гг. и на основе данных гербарного фонда TASH. Наличие популяций Chesneya tribuloide обнаружено в индексах Q194, L193 и K189 в КБГР. В результате геопространственного анализа EOO 1 028 165 км2 (EN) и AOO 80 000 (EN) с распространенностью в 21 местах, были классифицированы как виды, находящиеся под угрозой исчезновения*

Ключевые слова: *популяция, эндем, GeoCAT, Chesneya tribuloides, KBGR.*

ABOUT THE DISTRIBUTION AND PRESERVATION OF *CHESNEYA TRIBULOIDES* NEVSKI IN THE OF KUGITANG BOTANICA-GEOGRAPHICAL REGION

Annotation: *The article presents the results of an analysis of a rare endemic plant of the Southwestern Pamir-Alai, Chesneya tribuloides, during field research conducted in 2022-2023 and based on data from the TASH herbarium collection. The presence of Chesneya tribuloide populations was detected in the indexes Q194, L193 and K189 in the KBGR. As a result of a geospatial analysis, EOO 1,028,165 km2 (EN) and AOO 80,000 (EN) were classified as endangered species being spread in 21 locations*

Key words: *endem, GeoCAT, Chesneya tribuloides, KBGR, population.*

Kirish

Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiatni muhofaza qilish cheklangan biologik resurslar va ularning yo‘q bo‘lib ketish xavfi bilan bog‘liq vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu esa mahalliy floralardagi turlar tarkibini ro‘yxatga olish hamda zamonaviy metodlarda tahlil qilish orqali monitoring ishlarini olib borish va saqlab qolish zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirda mahalliy floradagi o‘simliklar bioxilma-xilligini tizimli tahlil qilish sohasida G‘arbiy Yevropa darajasidagi boshlangan Tog‘lio‘rtaosiyo provintsiyasining Janubi-G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz hamda Panjoldi okruglarini to‘r tizimli xaritalash boyicha davlat dasturi doirasida Ko‘hitang botanik-geografik rayonini to‘r tizimli xaritalash orqali o‘ziga xos endem va relikt turlarning boy tarkibiga ega mintaqalarining taksonomik xilma-xilligini va endemizm fraktsiyalarining shakllanish markazlarini o‘rganish, ularning fazoviy tuzilishini tahlil qilishni ishlari olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Ko‘hitang tizmasining g‘arbiy yonbag‘rida (Turkmaniston hududida) ilk bora yirik botanik olim S.A. Nevskiy [4] tomonidan izlanishlar olib borilib, tarkibida *Chesneya tribuloides* mavjud flora ruyxati tuzilgan. Keyinchalik nashr qilingan O‘zbekiston florasi [1] va O‘rta Osiyo o‘simliklarining aniqlagichi [2]da mazkur turning Ko‘hitangda tarqalganligi korsatib o‘tilgan. Shuningdek, Ko‘hitang botanik-geografik rayonida F.O. Xasanov [7] tomonidan daraxt-butali kserofil o‘simlik qoplamini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borilgan. 2009 yilga kelib A.J. Ibragimov [3] tomonidan Surxon davlat qo‘riqxonasining florasi o‘rganilib, *Chesneya tribuloides*ning mazkur hududda tarqalganligi ruyxatda korsatilgan. Mazkur turning kamyoblik darajasi O‘zbekiston Qizil kitobi [6]da 3- maqomda berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Chesneya tribuloides sistematikasi va tarqalishiga oid mavjud adabiy ma’lumotlar [1, 2] ko‘rib chiqildi. Turning qabul qilingan nomi va mualliflari Plants of the World Online [12] va IPNI [13] platformalari asosida keltirildi.

Chesneya tribuloides senopopulyatsiyaning ontogenetik strukturasi transekt tashlash (10x1) metodi yordamida aniqlandi [8]. O‘simliklar jamoasini yozishda umumiy qabul qilingan Polevaya geobotanika [5] metodlaridan foydalanildi.

2022-23 yillardagi dala tadqiqotlari davomida turning KBGR hududidan ma’lum bo‘lgan o‘sish nuqtalari va TASH gerbariy fondi ma’lumotlari Google Earth Pro 7.1 va ArcGIS version 10.6.1 dasturlari yordamida georeferenslandi.

Turning tarqalish darajasi (EOO, Extent of Occurrence) va yashash maydoni (AOO, Area of occupancy) GeoCAT dasturi yordamida aniqlandi [9, 14]. Turlarning kamyoblik darajalarini aniqlashda Xalqaro Tabiatni Muhofaza qilish Ittifoqi (IUCN) Qizil ro‘yxat mezonlaridan foydalanilgan [10, 11].

Tahlillar va natijalar

Taksonomik tavsifi.

Chesneya tribuloides Nevski in Trudy Bot. Inst. Akad. Nauk S.S.S.R., Ser. 1, Fl. Sist. Vyssh. Rast. 4: 251 (1937) – Чезнея якорцевидная, Langarsimon chesniya (1-rasm).

IPNI ID номер: https://www.ipni.org/n/486160-1

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. *Chesneya tribuloides* Nevski.

Syntype: [Turkmenistan]. Montius Kuhitang prope trajectum Ak-Davan. 12 VIII 1931, Nevski, 724 (K).

Fenologiyasi. V – VIII oylarda gullab, VI – IX oylarda mevalaydi.

Ekologiyasi. Shag‘alli yon bag‘irlar, qizil to‘proqli past tog‘larda.

Tarqalishi. Ko‘hitang va Kelif-Sherobod tizmalarida uchraydi. Turkmanistonda ham tarqalgan.


TASH gerbariy namunalari. I-6 Janubi-G‘arbiy Hisor okrugi. Ko‘hitang botanik-geografik rayoni. Ущелье *Ляйлакан*, 21 VI 1927, *Попов, Введенский 347*; на склоне г. Шеребада, 22 VI 1927, *Введенский 376*; к С от г. Шерабад, 25 IV 1930, *Лепешкин*; Чилянзар, 29 V 1930, *Лепешкин*; Кугитанг, 29 VI 1941, *Гомолицкий*; окр. Зарабаг, *Лайлисай*, 22 V 1972, *Набиев, Шерматов, Казакбаев 218*; в 7 км на Ю от киш. Акташ, 24 V 1972, *Набиев, Шерматов, Казакбаев 282*; горы близ киш. Акташ, 24 V 1972, *Алланазарова, Бутков 222*; Кугитанг, h=400, 17 VI 1987, *Мальцев*; Bo‘zrabot qishlog‘ini g‘arbidagi qumlik qizil tuproqli adirliklar, 18 III 2022, *Ibragimov, Karimov KBGR-22-1219, KBGR-22-1219*; Bo‘zrabot qishlog‘i, Bo‘zrabot tog‘idan 5 km shimolda, Kelif-Sherobod tog‘lari, 04 III 2023, *Ibragimov, Karimov*; Muzrabot tumani, Bo‘zrabot qishlog‘i, Erjahongir ota qabristoni, 13 III 2023, *Ibragimov, Karimov*; Sherobod tumani Uchtom qishlog‘i g‘arbi, tekislik maydon, 15 III 2023, *Ibragimov, Karimov*; Poshxurt va G‘oz qishloqlari orasi, qizil tuproqli yuza, 01 IV 2023, *Ibragimov, Karimov*; Laylagan qishlog‘i adirliklar, 12 IV 2023, *Ibragimov, Karimov*; Guliston qishlog‘i, qabristoni, adirlik, 30 IV 2023, *Ibragimov, Karimov*; Sherobod shahar tashqarisi Xodjgi qabristoni, 06 V 2023, *Ibragimov, Karimov*; G‘oz qishlog‘i, Kelif-Sherobod tog‘lari, 16 VI 2023, *Ibragimov, Karimov, Turdiboyev*.

Geofazoviy tahlili.

Janubi-G‘arbiy Pomir-Oloyning kamyob endemik o‘simligi *Chesneya tribuloides*ning 2022 yil Ko‘hitang botanik-geografik rayonidagi dala tadqiqotlari natijasida G189 (Bo‘zrobod qishlog‘ining g‘arbidagi qizil to‘proqli adirliklar) hamda 2013 yil I190 (Uchtom qishlog‘i), I191 (Navbohor qishlog‘i), K189 (Pashqurt-G‘oz qishloqlari oralig‘i), J188 (G‘oz qishlog‘i) va Q194 (Guliston qishog‘i) indekslaridan yangi tarqalish joylari aniqlandi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3-maqomda kamyoblik darajasiga ega *Chesneya tribuloides* International Union for Conservation of Nature (IUCN) tamoyillari asosida baholanmagan. Ilk marotaba, TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari va dala tadqiqotlari natijalarida turning aniqlangan tarqalish nuqtalariga asoslangan holda GeoCat tahlili amalga oshirildi. Olingan natijalarga ko‘ra, tarqalish darajasi (EOO) bo‘yicha 1.028.165 km^2 va Endangered (Xavf ostida) kategoriyasiga, tarqalish maydoni (AOO) bo‘yicha 32 km^2 va Endangered (Xavf ostida) kategoriyasida yoqalib borayotgan tur sifatida tasniflandi (2-rasm).



2-rasm. *Chesneya tribuloides*ning geofazoviy xaritasi.

Populyatsiyalar holati

2022-2023 yillarda Ko‘hitang botanik-geografik rayonida mazkur turning Q194 (Chilonzor qabristoni, 709 m, N37.928599, E67.044039), L193 (Sherobod shahar tashqarisi, 527 m, N37.695718, E66.988777) va K189 (Poshxurt qishlog‘i cheti 768 m, N37.678088, E66.748499) indekslarda populyatsiyalarini mavjudligi aniqlangan. Populyatsiyalarning floristik tarkibi 34-41 turni tashkil etadi. Umumiy o‘simlik qoplami taxminan 5-70% ni, shundan *Chesneya tribuloides* esa taxminan 5-30% ni tashkil qiladi.

Mavjud populyatsiyalarning birontasida ham indvidlar soni 50 tadan ortmaydi. Populyatsiyaning kichikligi va uning parchalanishi, individlar sonining yildan yilga kamayishi hamda antropogen ta’sirlarni inobatga olgan holda, ushbu turni C mezoni bilan xavf ostida deb baholash mumkin. *Chesneya tribuloides* eng maksimal sonda 400-1000 m balandlikda *Astragalus kahirus* DC. ustunlik qiluvchi jamoalarda uchraydi (1-jadval).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval

Chesneya tribuloides ishtirokidagi senopopulyatsiyani o‘simlik turlarining tarkibi.

№	O‘simlik turlari	O‘simlik bo‘yi sm	Zichligi	Qoplanish darajasi	Holati	Feno-faza
1	*Allium griffithianum*	20	Un	+	qoniq	gul
2	*Alyssum desertorum*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
3	*Asperugo procumbens*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul, meva
4	*Astragalus kahiricus*	50-60	cop$_2$	4	qoniq	gul
5	*Acanthophyllum pungens*	10-20	Un	+	qoniq	quruq
6	*Boisera squarrosa*	10-15	sp	2	qoniq	quruq
7	*Capparis spinosa*	20-30	cop$_3$	3	qoniq	gul
8	*Capsella bursa-pastoris*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul, meva
9	*Carex pachystyslis*	5-10	sp	2	qoniq	meva
10	*Chesneya tribuoides*	5-15	sp	2	qoniq	gul
11	*Crytospora omissa*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul
12	*Clypeola jontjhlaspi*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
13	*Descurainia sophia*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
14	*Erodium cicutarium*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul
15	*Euphorbia sp*	10-25	Un	+	qoniq	veget
16	*Fumaria vaillantii*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
17	*Gagea ova*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
18	*Gallium sp*	10-20	sp	2	qoniq	veget
19	*Glaucium elegans*	10-20	sp	2	qoniq	gul
20	*Hordeum leporium*	10-30	cop$_3$	3	qoniq	gul, meva
21	*Holosteum glutinosum*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul
22	*Ixiolirion tataricum*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul
23	*Koelpinia liniaris*	15-25	sp	2	qoniq	veget
24	*Lamium amplexicaule*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul
25	*Lepidium draba*	20-30	cop$_3$	3	qoniq	gul
26	*Microcephala lamellata*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul
27	*Myosotis refracta*	10-20	cop$_3$	3	qoniq	gul, meva
28	*Nepeta olgae*	10-20	Un	+	qoniq	veget
29	*Papaver pavoninum*	5-10	cop$_3$	3	qoniq	gul

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

30	*Peganum harmala*	5-10	cop_3	3	qoniq	gul
31	*Plantago lanceolata*	5-10	cop_3	3	qoniq	gul, meva
32	*Phlomoides sogdiana*	10-20	sp	2	qoniq	veget
33	*Poa bulbosa*	10-20	cop_3	3	qoniq	meva
34	*Scabiosa oliveri*	10-20	sp	2	qoniq	gul
35	*Sinapis arvensis*	15-25	cop_3	3	qoniq	gul
36	*Stellaria sp*	10-15	sp	2	qoniq	gul
37	*Strigosella africana*	10-30	cop_3	3	qoniq	gul
38	*Taraxacum officinale*	10-30	sp	2	qoniq	gul
39	*Trichodesma incanum*	10-30	sp	2	qoniq	gul
40	*Valerianella sp*	5-10	Un	+	qoniq	gul
41	*Ziziphora tenuior*	5-10	sp	2	qoniq	gul

Populyatsiya 0,5 ga maydonni egallaydi. 10x1 m o‘lchamdagi 5 ta transektada turning 41 ta individlari hisoblandi. Ularning 28 tasi (77,5%) generativ, 5 tasi (12,5%) pregenerativ yosh o‘simliklar va 4 tasi (10,1%) keksa o‘simliklardir. Zichligi 3 ind./m^2 dan iborat. Tur tarkibini 24 ta bir yillik, 16 ta ko‘p yillik va 1 ta bir va ikki yillik o‘simliklar tashkil qiladi.

Turlarning yashash muhiti antropogen ta’sirlarning o‘rtacha darajasiga ega ekanligi aniqlandi. Aasosiy salbiy omillar – chorva mollarining boqilishi va cement (mayda tosh-shag‘al) zavodlari foliyati hisoblanadi (3-rasm). Jadvaldagi senopopulyatsiya yosh fraktsiyaning past ulushi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, yosh yetilmagan o‘simliklar kuchli yomg‘ir va qor qoplamining erishi natijasida yuzaga keluvchi suv eroziyasi ta’sirida ham ko‘plab nobut bo‘ladi.



3-rasm. Sherobod cement zavodi joylashgan hudud.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosalar

Tadqiqotlar natijasi *Chesneya tribuloides*ning tarqalish areali juda tor, populyatsiyalari kam va populyatsiyalarida yosh o‘simliklarning ulushi juda pas ekanligini ko‘rsatdi.

KBGRda *Chesneya tribuloides* tarqalgan hududlarga inson omili ta’siri, ya’ni cement (mayda tosh shag‘al) zavodlari foliyati katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mazkur turning mevasini pishib yetilishiga yetmasdan chorva mollarini hududlarda ko‘plab boqilishi natijasida tur populyatsidagi individlar sonini va arealini qisqarib ketishiga olib kelmoqda.

Mazkur turning muhofazasi uchun avvalo, muhofaza qilinmaydigan Kelif-Sherobod tog‘lariga oid H189, I190, K194, L194, N194, O194 indekslaridagi hududlarda ekologik tekshiruv o‘tkazilib, alohida muhofaza hududi sifatida tashkil etilishi zarur. Shuningdek, Kelif-Sherobod tog‘larini janubiy qismi qo‘riqxonani bir qismi sifatida tashkil etilsa hamda atrofidagi cement zavodlari va chorva mollarini boqilishi keskin nazoratga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa tor tarqalish arealiga ega, o‘ziga xos abiotik muhitda o‘suvchi *Chesneya tribuloides* turiga uqshash o‘simliklarni populyatsiyalarini muhofazasini taminlaydi.

Adabiyotlar

1. Благовещенская Н.С. и др., Род: *Chesneya* Lindl. / Флора Узбекистана / под ред. Е.П. Коровин и А.И. Введенского. –Ташкент: Изд. АНРУз, 1955. –Т. 3. –С. 470-473.
2. Виноградова Р.М., Камелин Р.В. Род *Chesneya* Lindl. / Определитель растений Средней Азии. –Ташкент: Фан, 1981. –Т. 6. –С. 64-70.
3. Ибрагимов И.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (система Кугитанг): Автореф. дисс... канд. биол. наук. –Ташкент, 2009. –20 с.
4. Невский С.А. Материалы к флоре Кугитанга и его предгорий // Труды БИН АН СССР. – 1937. Вып. 4. – С. 199-346.
5. Полевая геоботаника / Под общей редакцией Е.М. Лавренко и А.А. Корчагина. –М.: Наука, 1964. –Т.3. –230 с.
6. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби / Ҳасанов Ф.Ў умумий таҳрири остида. –Тошкент: Tasvir, 2019. – С. 68.
7. Хасанов Ф.О. Ксерофильная древесно-кустарниковая раститель-ность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. –Ташкент, 1987.– 20 с.
8. Ценопопуляции растений (очерки популяционной биологии). –М., 1988. –183 с.
9. Bachman, S., Moat, J., Hill, A. W., De La Torre, J., & Scott, B. (2011). Supporting Red List threat assessments with GeoCAT: geospatial conservation assessment tool. ZooKeys, (150), 117.
10. Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria. Ver. 14. – IUCN Standards and Petitions Committee, 2019. [Электронный ресурс]. – URL: http://www.iucnredlist.org/documents/RedListGuidelines.pdf.
11. IUCN Red List Categories and Criteria. Version 3.1 Second edition. – IUCN, Gland, Switzerland and Cambridge, U.K., 2012. – 32 p
12. https://powo.science.kew.org
13. https://www.ipni.org/
14. http://geocat.kew.org

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ADRENALINNING IN VITRO SHAROITIDA AUTOOKSIDLANISH METODI BILAN PREPARATLARNING ANTIOKSIDANTLIK FAOLLIGINI ANIQLASH ANTIOKSIDANTLAR VA ULARNING ORGANIZMGA TA'SIRI

[1]Ikromov Sirojiddin Abdulvoxid o'g'li, [2]Mustafakulov Muhammadjon Abduvalievich, [3]Saatov Ta'lat Saatovich, [4]Raximov Raxmatilla Nurillaevich

[1]O'zbekiston Milliy Universiteti, Biofizika va biokimyo instituti tayanch doktoranti

[2]O'zbekiston Milliy Universiteti, Biofizika va biokimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD

[3]O'zbekiston Milliy Universiteti, Biofizika va biokimyo instituti laboratoriya mudiri, akademik

[4]Akademik A.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, PhD

[1]E-mail: sirojidin.2020.ikromov@mail.ru

Annotatsiya. *Antioksidantlar organizmni erkin radikallardan va kislorodni faol shakllaridan ximoya qiladigan moddalardir. Erkin radikallar organik molekulalarni kislorod bilan chala oksidlanishida, ya'ni perekisli oksidlanishida hosil bo'ladi.*

Kalit so'zlar : *NADH, 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG), Rutan, Providin, Bexi, Antioksidan*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ АНТИОКСИДАНТНОЙ АКТИВНОСТИ ЛЕКАРСТВ МЕТОДОМ АВТООКИСЛЕНИЯ АДРЕНАЛИНА В УСЛОВИЯХ IN VITRO АНТИОКСИДАНТЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОРГАНИЗМ

[1]Икромов Сирожиддин Абдулвохид угли, [2]Мустафакулов Мухаммаджон Абдувалиевич, [3]Саатов Таълат Саатович, [4]Рахимов Рахматилла Нуриллаевич

[1]Базовый докторант института Биофизики и биохимии, Национальный университет Узбекистана

[2]Старший научный сотрудник PhD института Биофизики и биохимии, Национальный университет Узбекистана.

[3]Академик, заведующий лаборатории института Биофизики и биохимии, Национальный университет Узбекистана

[4]Старший научный сотрудник PhD института Биоорганической химии имени академика А. С. Содикова1

E-mail: sirojidin.2020.ikromov@mail.ru

Аннотация. *Антиоксиданты – это вещества, которые защищают организм от свободных радикалов и активных форм кислорода. Свободные радикалы образуются при частичном окислении органических молекул кислородом, т. е. перекисном окислении.*

Ключевые слова: *НАДН, 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДФПГ), рутан, провидин, антиоксидант.*

ISSN: 2181-0427

DETERMINATION OF THE ANTIOXIDANT ACTIVITY OF DRUGS BY THE METHOD OF ADRENALINE AUTO-OXIDATION IN VITRO ANTIOXIDANTS AND THEIR EFFECT ON THE ORGANISM

[1]Ikromov Sirojiddin Abdulvokhid ugli, [2]Mustafakulov Muhammadjon Abduvalievich,
[3]Saatov Talat Saatovich, [4]Rakhimov Rakhmatilla Nurillaevich
[1]Uzbekistan National University, The PhD student of Biophysics and Biochemistry Institute.
[2]Uzbekistan National University,Biophysics and Biochemistry Institute, senior researcher, PhD.
[3]Uzbekistan National University, Biophysics and Biochemistry Institute, head of the laboratory, academic.
[4]Senior researcher, PhD in Bioorganic chemistry institute named after A.S. Sodikov
E-mail: sirojidin.2020.ikromov@mail.ru

Abstract. *Antioxidants are substances that protect the body from free radicals and active forms of oxygen. Free radicals are formed during partial oxidation of organic molecules with oxygen, i.e. peroxidation.*
Key words: *NADH, 2,2-diphenyl-1-picrylhydrazyl (DPPG), Rutan, Providin, Antioxidant.*

Kirish

Ma'lumki, jigar mitoxondriyasi ikki oksidlanish tizimiga ega NAD orqali oksidlanuvchi substratlar va suktsinat oksidlanishining ichki fosforlanuvchi yo'li va qo'shilgan NADH erkin oksidlanishini tashqi yo'li; ushbu yo'lning nafas olish zanjirining boshlang'ich qismi B5-reduktazaning NADH2-sitoxromi hisoblanadi. Umumiy NADH – oksidaza faolligidan PS NADNH oksidaza faoligini hisoblab chiqarildi. Enzimli antioksidant tizimi superoksiddismutaza, katalaza, peroksidazalardan tashkil topgan. Bu tizim NADH fondi manbasi bo'lib xizmat qiladigan erkin radikal proton oqimlari tizimini o'chiradi [1,2]. Antioksidantlar erkin radikalli oksidlanish reaktsiyasiga to'sqinlik qiladi va buzilgan birikmalarni qayta tiklaydi. Uni o'zini ishga yaraydigan holatga o'tishi uchun uni yana qayta tiklashi kerak bo'ladi. Shu sababdan antioksidantlar tezlik bilan ikki yoki guruh bo'lib ishlaydi, ya'ni oksidlangan sherigini himoya qiladi va tezda uni qayta tiklaydi. Ana shunday antioksidantlardan biri ionol (2,6-ditretbutil-4-metilfenol) hisoblanadi [3]. Antioksidantlarni organizmga ta'sirini ko'radigan bo'lsak, ko'plab adabiyot ma'lumotlariga ko'ra flavonoid moddalar tabiiy antioksidantlar hisoblanadi. Antioksidantlar mitoxondriya membranasidagi lipidlarni perekisli oksidlanishida ingibirlovchi ta'sir etishi va superoksiddismutaza, katalaza fermentlarining faolliklari bilan izohlanadi. Bunday flavonoidlarga rutin, pulikarin, kvertsetin, apigenin va shu kabi ko'plab moddalar tajribalarda antioksidant xossalarini namoyon qiladi. Antioksidantlar mitoxondriyalar disfunktsiyasida nafas zanjirlarida erkin radikallarni hosil bo'lishini kamaytirish, ya'ni antiradikal mexanizmi ishtirokida ta'sir etadi. Bundan tashqari prooksidant moddalar ham bor. Bunday moddalar mitoxondriyalarda erkin radikallarni ortishiga olib keladi, natijada membrana lipidlarida perekisli oksidlanish jarayoni boshlanib ketishiga sababchi bo'ladi. Bizning organizmimiz uchun kislorod miqdorining me'yoriy darajadan ortib ketishi ham yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Bu ko'rinishdagi holat yuz berganda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

erkin radikallarning hosil bo'lishi natijasida hujayra strukturalari yemirila boshlaydi. Organizmda erkin radikallarning hosil bo'lishi va lipidlarning perekisli oksidlanish jarayoni kuchayishi (ba'zan bu jarayon oksidativ stress deb ataladi) nafaqat kislorod miqdori ortib ketgan holatlarda, balki bir qator boshqa sabablar asosida ham yuzaga kelishi mumkinligi ta'kidlangan. Shunday qilib, oksidativ stress ta'sirida biologik membranalar xususiyatlari va hujayra funktsiyasida buzilishi yuz beradi. Lipidlarning perekisli oksidlanishi nisbatan uchta bevosita ta'sir natijasida yuz berish holatlaridagi natijalari bo'yicha ko'proq o'rganilgan [4,5].

Ishning maqsadi

O'simliklardan ajratib olingan ayrim preparatlarning antioksidantlik va antiradikallik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar. a) DFPG (radikal)ning erkin radikalining optik zichligi o'zgarishini qayd etish orqali kvertsetin va digidrokvertsetinning antiradikal faolligi aniqlandi; b). Ruch uslubiga asoslangan usul bo'yicha vodorod peroksidga nisbatan birikmalar (kvertsetin va digidrokvertsetin)ning antiradikal va antioksidant faolligi aniqlandi; DFPG usuli: Kvertsetin va digidrokvertsetin flavonoidlarining antioksidant va antiradikal xususiyatlarini DFPG (radikal) erkin radikalining optik zichligi o'zgarishini qayd etish orqali amalga oshirildi. Ushbu ishda kislorodning faol shakli (KFSH) ni aniqlash uchun biz barqaror radikal 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) molekulalarining antioksidantlar bilan qaytarilish kinetikasini spektrofotometrik o'lchov texnikasidan foydalandik. Sinov aralashmalari suvda 1 mg/ml kontsentratsiyasida eritildi. Ushbu ishda KFShni baholash uchun biz antioksidantlar tomonidan barqaror radikal 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) molekulalarini kamaytirish kinetikasini spektrofotometrik o'lchash usulidan foydalandik [6]. Usul antioksidantlarning barqaror xromogenradikali 2,2-difenil-1-pikrilhidrazil (DFPG) bilan o'zaro ta'siriga asoslangan. Sirka kislotasi bilan kislotalangan etanoldagi DFPG

(5x10-4M) standart eritmasi ish eritmasini olish uchun 1:10 nisbatda etanol bilan

suyultirildi. Olingan eritma 517 nmda 0,9 dan yuqori bo'lmagan optik zichlikka ega bo'lishi kerak. 5 ml DFPG ishchi eritmasiga 50 mkl o'rganilayotgan o'simliklardan olingan ekstraktlar qo'shildi, aralashtirildi va eritmaning optik zichligi pasayish kinetikasi 30 daqiqa davomida 517 nm to'lqin uzunligida qayd etildi. Nazorat namunasi sifatida DFPG ishchi eritmasi ishlatilgan.Antiradikal faollik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\%ingibirlash=\frac{Аконтр-Ах\ Аконтр}{Аконтр}x100\%$$

Bu erda A x – sinov eritmasining optik zichligi, hisoblagich – sinov namunasining optik zichligi. H_2O_2 usuli: Vodorod peroksidga nisbatan birikmalarning antiradikallik faolligini aniqlash uchun Ruch uslubiga asoslangan usul ishlatilgan. 2 ml 20 M fosfat tamponi, 1 ml 43 M vodorod peroksid eritmasi va 1 ml distillangan suvni o'z ichiga olgan har bir naychaga namunalar alohida qo'shildi. Nazorat sifatida fosfat tamponi eritmasi va fosfat tamponsiz vodorod peroksid eritmasini qabul qilish ishlatilgan. Xona haroratida 10 daqiqa inkubatsiyadan so'ng, namunalarning optik zichligi fosfat tamponining nazorat eritmasiga nisbatan 230 nm da o'lchandi. Vodorod peroksidni qabul qilish foizi quyidagi formuladan foydalanib hisoblab chiqilgan:


$$H_2O_2\% = [(Ac-Ae) / Ac \times 100]$$


www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bu yerda Ac- vodorod peroksid eritmasining fosfat tamponisiz optik zichligi va Ae - namunalarning optik zichligi. Metod adrenalinning autoksidlanish reaktsiyasining ingibirlanishiga asoslangan, preparatlarningin vitro sharoitida adrenalinni vaqt davomida KFShni hosil bo'lishi va autooksidlanishi hisobiga (%) foizlarda ifodalanadi. Buning uchun 0,2 M natriy-karbonat (Na2CO3-NaHCO3) rN=10,65li buferidan 2,0 ml, adrenalin (epinefrin) gidroxloridning 0,18% eritmasidan 56 mkl olinadi, 30 mkl antioksidant preparat solinadi hamda tez aralashtirib 30 soniyadan 10 daqiqa mobaynida 347 nm to'lqin uzunligida 10 mm kyuvetada Cary 60 UV-Vis Agilet Technologies spektrofotometrida tekshirildi. Tadqiq qilinayotgan (ekstraktning 1 ml dagi kontsentratsiyasi 1 mg) miqdori standart sifatida ishlatiladi. Nazorat namuna sifatida 0,2 M 2,0 ml bufer, 0,18% 56 mkl (5,46mM) adrenalin ishlatiladi [7].


Olingan natijalarni taxlil qilish

Antioksidantlar turli xil ta'sir mexanizmlariga ega bo'lishi mumkin, ularning faolligini turli usullar yordamida o'rganish tavsiya etiladi. Ushbu ishda KFSH ekstraktlari erkin radikal DFPG bilan bog'liq holda baholandi. Tekshiriluvchi o'simliklardan orlingan birikmalar DFPG ning suvli eritmasiga qo'shilganda, erkin radikal molekulalar radikal bo'lmagan shaklga aylanadi, DFPG ning intensiv binafsha rangli eritmasi esa rangsizlanadi. Sinov namunalarining KFSH ni solishtirish uchun taqdim etilgan eritmadan 50 mkl har bir ekstrakt uchun konsentratsiyatanlangan. 1, 2 va 5-raqamli namunalar juda yuqori KFSH ko'rsatganligi sababli, biz tegishli erituvchi (suv) bilan 1: 100 nisbatda suyultirdik.






www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



I-rasm. Ayrim ajratib olingan moddalarning antioksidantlik xususiyati

Olingan natijalarni tahlil qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tekshirilgan 1,4 va 5-sonli o'simliklardan olingan ekstraktlar suvlili DFPG eritmasiga qo'shilganda, DFPG eritmasining optik zichligining keskin pasayishi kuzatiladi, bu ularning yuqori KFSH dan dalolat beradi (1-rasm). 1, 4 va 5 namunalar uchun KFSH 100 marta suyultirilgandan so'ng baholandi, bu o'simliklardan olingan ekstraktlarning aniq antiradikal qobiliyatini ko'rsatadi.



II rasm. Tanlab olingan preparatlarning antiradikallik ko'rsatgichlari

Egri chiziqli bo'lmagan regressiyaga asoslangan. DFPGning konsentratsiyasi 0,1 mM ni tashkil qiladi. O'lchovlar tekshirilgan ekstraktlar qo'shilgandan so'ng darhol 20 °C da amalga oshirildi. O'rganilayotgan ekstraktlarning konsentratsiyasi oldindan berilgan eritmadan 50 mkl ni tashkil qiladi. 1, 2 va 5 namunalar tegishli erituvchilar (suv) bilan 100 marta suyultirildi. 1-rasm. Vaqtga qarab tekshirilayotgan o'simlik ekstraktlarni qo'shganda DFPG ning suvlili eritmasining optik zichligining nazoratga nisbatan o'zgarishi. Eksperimental ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, 1, 2 va 5-sonli ekstraktlar erkin radikallarni organizmdan chiqarib tashlash uchun eng yuqori qobiliyatga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ega. Antiradikal faollikni miqdoriy baholash uchun biz barqaror radikal 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG), shuningdek, t50 ko'rsatgichlaridan foydalandik, o'rganilayotgan preparatlar uchun radikalning dastlabki konttsentratsiyasini kamaytirish uchun zarur bo'lgan vaqt 50% ingibrlanish faolligiga

ega. DFPG ning 20 °C da ekstraktlar bilan reaktsiyasida t 50 №1 namuna uchun - 64 ± 4,2 s, №2 namuna uchun - 41 ± 6,7 s (100 marta suyultiriladi), № 3 namunauchun - 69 ± 4,8 s (100 marta suyultiriladi), 5-sonli namuna uchun - 254 ± 5,9 s (1-jadval). 50% (IC50) ingibirlash qiluvchi konsentratsiya qiymatlari va tekshirilgan ekstraktlar bilan reaktsiyaga kirishganda DFPG konttsentratsiyasini 50% (t50) ga kamaytirish uchun zarur bo'lgan vaqt.

I-jadval.

O'simliklardan olingan ekstraktlar	IC_{50}, мкл	t_{50}, сек 50 мкл модда
Rutan	64 ± 4.2	34±3.7
Providin	41 ± 6.7	28±4.9
1,2,6-три-О-галлоил-β-D- glyukoza	78 ± 7.8	51.1±4.2
1-О-галлоил-4,6- geksagidroksidifenoil -β-Д- glyukoza	49.8±3.7	37.2±2.4
Bexi	85.5±4.1	62±3.2
Rutan (suyultirilgan)	89 ± 4.8	108.5±7.8
Providin (suyultirilgan)	102±4.8	130.7±9.1
1,2,6-три-О-галлоил-β-D- glyukoza (suyultirilgan)	124±6.7	142.1±8.4
1-О-галлоил-4,6- geksagidroksidifenoil -β-Д- glyukoza (suyultirilgan)	78.2±3.8	102.8±2.1
Bexi (suyultirilgan)	115.7±3.9	138.5±4.9

Ekstraktlarni o'rganishda olingan eksperimental natijalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, Rutan, providin va bexi namuna boshqa namunalar bilan solishtirganda erkin radikal DFPGga nisbatan eng yuqori ARFga ega.

Xulosa. Shunday qilib, o'simliklardan olingan ekstraktlarining antioksidantlik va antiradikal faolligi o'rganildi. Eng yuqori antiradikal faollik (Bexi) o'simligining suvdagi ekstrakti va (Summax) o'simligining suvdagi ekstraktilari tanlab olingan. KFSH mexanizmini o'rganish tarkibiy qismlarning (polifenollar, flavonoidlar, taninlar, alkaloidlar va boshqalar) tarkibi uchun ekstraktlarning sifat va miqdoriy tarkibini batafsil o'rganishni talab qiladi. Preparatlarning antioksidantlik faolligi adrenalinning in vitro sharoitida autooksidlanish reaktsiyasining ingibitirlanishi bilan aniqlandi hamda kislorodning erkin shaklini hosil bo'lishiga to'sqinlik qildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar.

1.Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.
2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
3. Борисова Г.Г., Ермошин А.А., Малева М.Г., Чукина Н.В.; Основы биохимии вторичного обмена растений: [учеб – метод. пособие, под общ. ред. Г.Г Борисовой]; М-во образования и науки Рос. Федератции, Урал. федер. Ун-т – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та – 2014. – 128 с.
6. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – Т. 73.
7. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
8. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – С. 82-86.
9. Тринеева О.В. Методы определения антиоксидантной активности объектов растительного и синтетического происхождения в фармации (обзор). Разработка и регистрация лекарственных средств. -2017; (4). Стр. 180-197.
10. Е.И. Рябинина, Е.Е. Зотова, Е.Н. Ветрова, Н.И. Пономарева, Т.Н. Илюшина./ Новый подход в оценке антиоксидантной активности растительного сырья при исследовании процесса аутоокисления адреналина. Химия растительного сырья. 2011. №3. С. 117–121.
11. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – С. 82-86.
12. Seyoum A. Asres K., El-Fiky F.K. Structure-radical scavenging activity relationships of flavonoids // Phytochemistry. – 2006. – V. 67. – P. 2058-2070.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK 581.141+633.8+635.711

QARSHI VOHASI SHAROITIDA *THYMUS VULGARIS* L. (LAMIACEAE) NING URUG‘ MAHSULDORLIGI

Mexriniso Raxmatullayevna Nasriddinova
Qarshi davlat universiteti, b.f.f.d. (PhD)
E-mail: m.nasriddinova@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Qarshi vohasi sharoitida Thymus vulgaris L. turining urug‘ mahsuldorligini o‘rganish natijalari keltirildi. Th. vulgaris turining urug‘ mahsuldorligini o‘rganish uchun generativ fazadagi o‘simliklar tanlandi va bir o‘simlikdagi to‘pgullar soni, bir to‘pguldagi gullar soni, tugunchadagi urug‘kurtak soni aniqlandi va urug‘ mahsuldorligi ko‘rsatkichlari: potensial urug‘ mahsuldorligi (PUM), haqiqiy urug‘ mahsuldorligi (HUM), urug‘ mahsuldorligi koeffitsiyenti (UMK) hisoblab chiqildi. Natijalarga ko‘ra uchinchi va to‘rtinchi vegetatsiya yilida mahsuldorlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, urug‘ mahsuldorligi koeffitsiyenti 48,5-50 % ni tashkil etdi.*

Kalit so‘zlar: *Thymus vulgaris L., gul, urug‘, urug‘kurtak, to‘pgul, urug‘ mahsuldorligi.*

СЕМЕННОЙ ПРОДУКТИВНОСТИ *THYMUS VULGARIS* L. (LAMIACEAE) В УСЛОВИЯХ КАРШИНСКОГО ОАЗИСА

Мехринисо Рахматуллаевна Насриддинова
Каршинский государственный университет, д.ф.б.н. (PhD)
E-mail: m.nasriddinova@mail.ru

Аннотация: *В статье представлены результаты изучения семенной продуктивности Thymus vulgaris L. в условиях Каршинского оазиса. Для изучения продуктивности семян Th. vulgaris были отобраны растения в генеративной фазе и было определено количество соцветий на растение, количество цветков на соцветие и количество семенных почек на завязь и рассчитаны показатели продуктивности семян: потенциальную семенную продуктивность (ПСП), реальную семенную продуктивность (РСП) и процент полноценных семян (ПС). По результатам на третьем и четвертом году вегетации продуктивность была высокой, коэффициент продуктивности семян составил 48,5-50 %.*

Ключевые слова: *Thymus vulgaris L., цветок, семя, семяпочка, соцветие, семенная продуктивность.*

OF THE SEED PRODUCTIVITY OF *THYMUS VULGARIS* L. (LAMIACEAE) IN THE CONDITIONS OF THE KARSHI OASIS

Nasriddinova Mekhriniso Rakhmatullayevna
Karshi State University, PhD in Biological Sciences
E-mail: m.nasriddinova@mail.ru

Abstract: *The article presents the results of studying the seed productivity of Thymus vulgaris L. in the conditions of Karshi oasis. To study the yield of Th. vulgaris seeds, plants in the generative phase were selected and the number of inflorescences per plant, the number of flowers per inflorescence and the number of seed buds per ovary were determined. Based on these data, the indicators of seed productivity were calculated: potential seed productivity (PSP), real seed productivity (RSP) and the percentage of full-*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

value seeds (PS). According to the results in the third and fourth years of the growing season, productivity was high, the seed productivity ratio was 48,5-50 %.

Keywords: *Thymus vulgaris L., flower, seed, ovule, inflorescence, seed productivity.*

Kirish

Thymus vulgaris L. – tog‘ jambili Lamiaceae Lindl. oilasiga kiruvchi, doim yashil chala buta. Tabiiy holda O‘rtayer dengizi atroflarida, Portugaliyadan Gretsiyagacha bo‘lgan hududda keng tarqalgan. Moldaviya va Ukraina janubida, Angliya, Vengriya, Bolgariya, Yugoslaviya, Fransiya, Shimoliy Amerika va Shimoliy Afrikada madaniylashtirilgan [1].

Yer ustki yashil qismi, barglari va gulli yosh novdalarida ko‘p miqdorda efir moylari to‘plashi bilan qimmatbaho dorivor o‘simlik hisoblanadi. Yevropa Farmatsevtika sanoatida 100 g xom-ashyosidan 1,2 ml gacha efir moyi olinadi. Efir moylari tarkibini timol (42 % gacha), karvakrol, simol, pinen, borneol, kariofillen, linalool kabilar tashkil etadi [2, 3, 4, 5]. Tibbiyotda antiseptik va dizenfiksiyalovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. O‘simlikdan ajratib olingan suyuq ekstrakti ko‘kyo‘tal va bronxitda balg‘am ko‘chiruvchi dori sifatida ishlatiladigan “Pertussin” tarkibiga, efir moyi tish kasalliklarida ishlatiladigan og‘riq qoldiruvchi Gartman suyuqligi tarkibiga kiradi. O‘simlik barglari va gulli yosh novdachalari yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishi va gijja tushirishga qarshi ishlatiladigan yig‘ma-choylar tarkibida mavjud. Bundan tashqari efir moylari parfyumeriya sanoatida, quritilgan va yangi barglari ziravor sifatida oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladi [2, 3, 6, 7, 8].

Adabiyotlar tahlili

Y.Y. Gogina (1990) tadqiqotlarida Moskva sharoitida *Thymus* L. turkumi turlarining tarqalish areali, hayotiy shakllari, novdalarining shakllanishi va shoxlanishi o‘rganilgan. Y.B. Kolegova (2010) tomonidan Xakasiya sharoitida *Thymus* L. turkumi vakillarining ontogenezi, morfogenezi va senopopulyatsiyasi tuzilishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ishani Chakrabartty va boshqalar (2022) Hindistonda olib borilgan tadqiqotlarda Lamiaceae oilasi vakillari (*Th. vulgaris, H. officinalis, R. officinalis)* ning tibbiyot uchun ahamiyati va yurak-qon tomir kasalliklarini davolashdagi profilaktik ta’siri, trombolitik faolligi aniqlangan [9, 10, 11].

Tadqiqot uchun tanlangan tur – *Th. vulgaris* O‘zbekiston florasida tabiiy holda uchramaydi. O‘zbekiston sharoitiga dastlab Toshkent Botanika bog‘ida iqlimlashtirilgan, biroq uning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Qarshi vohasi sharoitiga Timiryazev nomidagi Moskva qishloq xo‘jalik akademiyasidagi tabiiy floradan terilgan urug‘lar saqlanadigan urug‘lar laboratoriyasidan keltirilgan urug‘lardan ekildi. Ushbu sharoitda generativ davrini to‘liq o‘tagan *Th. vulgaris* (rasm) turining urug‘ mahsuldorligini o‘rganish uchun tajribalar olib borildi.

Bir tup o‘simlikda hosil bo‘lgan jami urug‘lar miqdori urug‘ mahsuldorligini tashkil etadi [12]. Urug‘ mahsuldorligi – turning yashash sharoitiga to‘liq moslashganligini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, bu ko‘rsatkichning bir qator tashqi muhit omillariga bog‘liqligi adabiyotlarda ko‘p marta qayd etilgan [13].

Tadqiqot metodologiyasi


Qarshi vohasi sharoitida *Th. vulgaris* turining urug‘ mahsuldorligini o‘rganish uchun generativ davrdagi o‘simliklar tahlil qilindi (2018-2020 yy.) va quyidagilar aniqlandi: bir o‘simlikdagi to‘pgullar soni, bir to‘pguldagi gullar soni, tugunchadagi urug‘kurtak soni. Ushbu

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ma'lumotlar asosida urug' mahsuldorligining quyidagi ko'rsatkichlari: meva hosil bo'lishi, potensial urug' mahsuldorligi (PUM), haqiqiy urug' mahsuldorligi (HUM), urug' mahsuldorlik koeffitsiyenti (UMK) hisoblab chiqildi. Urug' mahsuldorligi koeffitsiyenti HUM ko'rsatkichlari (urug'lar soni) ning PUM ko'rsatkichlari (urug'kurtak soni (gullar soni 4 ga ko'paytirildi)) ga nisbatini topish orqali hisoblandi [12, 13]. Urug'larning morfologik xususiyatlari umumiy qabul qilingan mezonlardan foydalangan holda berildi [14, 15]. Olingan natijalar statistik tahlil qilindi [16].

Tahlillar va natijalar

Th. vulgaris turining mevasi senobiy bo'lib, bitta senobiyda 4 ta erem (urug') shakllanadi [14, 15]. Biz uni 4 ta mevabargni birikib o'sishidan hosil bo'lgan yong'oqcha deb ta'rifladik [6, 17]. Senobiy yashil rangda bo'lib, unda 4 ta urug'kurtak joylashadi. Yashash sharoitiga qarab bu urug'kurtaklardan bittadan to'rttagacha urug' rivojlanishi mumkin. Urug'i juda mayda, yumaloq, kurrasimon, och yoki to'q jigarrang tusdagi yong'oqcha. Tadqiqot yillarida urug'lar hajmining sezilarli ravishda o'zgarganligi kuzatilmadi. Ularning uzunligi 0,88-0,92; eni 0,69-0,72; 1000 dona urug'ning og'irligi 0,24-0,27 g ni tashkil qildi (1 – jadval; rasm).



A **B**

Rasm. Generativ davridagi *Th. vulgaris* ning umumiy ko'rinishi **(A)** va urug'larining o'lchamlari **(B)**

Bu tur urug'lari qisqa tinim davriga ega bo'lib, unuvchanligini 4-5 yilgacha saqlaydi. 1-3 yillik urug'larning unuvchanligi yuqori (68 % gacha), 3 yildan keyin unuvchanligi pasayib boradi va 5-6 yildan keyin keskin pasayadi (27 %).

Th. vulgaris turida PUM ni aniqlashda bitta gulning tugunchasida 4 ta urug'kurtak mavjudligi e'tiborga olindi.

2018-2020 yillar mobaynida *Th. vulgaris* ning bitta tupida hosil bo'lgan urug'larning potensial va haqiqiy urug' mahsuldorligi aniqlanib borildi. O'simlikning yoshiga qarab bir tupida va bitta

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

to‘pgulda pishib yetilgan urug‘lar miqdori hisoblandi.

Urug‘idan ko‘paytirilgan *Th. vulgaris* vegetatsiyasining birinchi yilida generativ faza o‘tgan bo‘lsada, hosil bo‘lgan gullar soni juda kamligi sababli uning urug‘ mahsuldorligi ikkinchi vegetatsiya yilida o‘rganildi.

Th. vulgaris gullari och pushti rangda, ikki labli bo‘lib, halqasimon to‘pgulchalarga, bular esa o‘z navbatida boshchasimon to‘pgulga yig‘ilgan. To‘pgul o‘qida gullar 8-10 tagacha halqa hosil qilib joylashgan, bitta halqada 13-16 tagacha gul ochiladi.

2018 yil vegetatsiyasining ikkinchi yilida bir tup *Th. vulgaris* (n=10) 90-140 tagacha to‘pgul, har bir to‘pgul 100 tadan 135 tagacha gul hosil qildi, har bir tupda 23520,4 tagacha urug‘ pishib yetildi. 1000 dona urug‘ og‘irligi 0,17±0,015 grammni, potensial urug‘ mahsuldorligi 58801,0±1611,0 ni, haqiqiy urug‘ mahsuldorligi 23520,4±539,1 ni, urug‘ mahsuldorligi koeffitsiyenti 40,0 % ni tashkil qildi. 2019 yil o‘simlik vegetatsiyasining uchinchi yilida (n=10) bir tupida 100-120 tagacha to‘pgul, har bir to‘pgul 105 tadan 150 tagacha gul hosil qildi. Har bir tupda 29179,9 tagacha urug‘ pishib yetilganligi, 1000 dona urug‘ og‘irligi 0,26±0,015 grammni tashkil etganligi aniqlandi. Bu paytda potensial urug‘ mahsuldorligi 60117,1±2143,1 ni, haqiqiy urug‘ mahsuldorligi 29179,9±683,4 ni, urug‘ mahsuldorligi koeffitsiyenti 48,5 % ni ko‘rsatdi. 2020 yil vegetatsiyasining to‘rtinchi yilida (n=10) bir tup o‘simlikda 100-140 tagacha to‘pgul, har bir to‘pgul 120 tadan 140 tagacha gul hosil qilib, har bir tupda 31099,3 tagacha urug‘ pishib yetildi, 1000 dona urug‘ og‘irligi 0,27±0,017 grammni, potensial urug‘ mahsuldorligi 62198,6±1760,0 ni, haqiqiy urug‘ mahsuldorligi 31099,3±880,0 ni tashkil etib, urug‘ mahsuldorligi koeffitsiyenti 50,0 % bo‘lganligi aniqlandi (1, 2 – jadvallar).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, *Th. vulgaris* turining potensial va haqiqiy urug‘ mahsuldorligi orasida farq mavjudligi aniqlandi. Haqiqiy urug‘ mahsuldorligining doimo potensial urug‘ mahsuldorligidan ancha past bo‘lishi qonuniyati [12, 13] bizning tajribalarimizda ham tasdiqlandi. Urug‘lar sonining kamayib ketishiga bir qancha ichki va tashqi omillar ta’sir etib, shu jumladan ba’zi g‘unchalarning shakllanib, meva hosil qilishgacha ulgurmasligi, changlatuvchilar soni yetarli emasligi sababli ba’zi gullarning changlanmay qolishi, ayrimlarining esa noqulay muhitda to‘kilib ketishi va hasharotlar tomonidan urug‘larga zarar yetkazilishi sabab bo‘ladi.

1 – jadval

***Th. vulgaris* turining bitta to‘pgulidagi urug‘ mahsuldorligi,**
(2018-2020 yy.)

O‘simlik yoshi	To‘pgulda-gi gullar soni, dona	Mevada yetilgan urug‘lar soni, dona	PUM	HUM	1000 dona urug‘ og‘irligi, g
2 yosh	122,4±3,4	1,6±0,26	489,6±13,4	195,8±5,4	0,24±0,013
3 yosh	127,8±4,6	2,1±0,27	511,2±18,2	248,5±3,6	0,26±0,015
4 yosh	129,1±4,4	2,0±0,39	516,6±17,5	258,3±8,7	0,27±0,017

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2 – jadval

***Th. vulgaris* turining bitta tupidagi urug‘ mahsuldorligi,**
(2018-2020 yy.)

O‘simlik yoshi	Tupdagi to‘pgullar soni, dona	PUM	HUM	UMK, %
2 yosh	120,1±6,7	58801,0±1611,0	23520,4±539,1	40,0
3 yosh	117,6±4,5	60117,1±1793,0	29179,9±683,4	48,5
4 yosh	120,4±5,2	62198,6±1760,0	31099,3±880,0	50,0

Th. vulgaris turida urug‘ mahsuldorlik ko‘rsatkichi yildan yilga oshib, o‘simlikning yangi sharoitga to‘liq moslashib borganligini ko‘rsatdi. O‘simlikning yoshi ortgan sari gullar soni ham, urug‘ mahsuldorlik ko‘rsatkichi ham oshib borganligi aniqlandi. Vegetatsiyasining ikkinchi yilidan ko‘p g‘uncha hosil qilib, ko‘p urug‘ berishi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich 2018 yilda 40,0 %, 2019 yilda 48,5 %, 2020 yilda 50,0 % ekanligi qayd qilindi.
Keyingi yillari, ya’ni vegetatsiyasining beshinchi-oltinchi yillarida *Th. vulgaris* gullari sonining va urug‘ miqdorining kamayib borishi kuzatildi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, *Th. vulgaris* turining Qarshi vohasi introduksiya sharoitida yaxshi o‘sib, rivojlanishi va mo‘l urug‘ hosil qilishining yuqori ko‘rsatkichlari uning shu sharoitga moslasha olganligini ko‘rsatdi. Qarshi vohasi sharoitining qulay iqlimi hamda mavsumiy ta’sirlar turlarni yaxshi o‘sib rivojlanishi va urug‘ining pishib yetilishiga sababchi bo‘ladi. Introduksiya sharoitda *Th. vulgaris* turining urug‘ mahsuldorligini o‘rganish uni urug‘idan ko‘paytirish va yetishtirish maydonlarini yaratish, hamda ulardan samarali foydalanish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Насриддинова М.Р. Перспективы культивирования некоторых видов рода *Thymus* L. в условиях город Карши // Высшая школа. Научно-практический журнал. – Россия, Уфа. – 2017. – №14. – С. 13-14.
2. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Ташкент, 1990. – С. 521-522.
3. Яковлев, Г.П. Лекарственное растительное сырье. Фармакогнозия. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2004. – 765 с.
4. Корсакова С.П., Работягов В.Д., Федорчук М.И., Федорчук В.Г. Интродукция и селекция видов рода *Thymus* L. (биология, экология, биохи-мия): Монография. – Херсон: Айлант, 2012. – 244 с.
5. Shyamapada Mandal, Manisha Deb Mandal. Thyme (*Thymus vulgaris* L.) Oils. Essential Oils in Food Preservation, Flavor and Safety. – 2016. – P. 825-834.
6. Nasriddinova M.R., Yaziev L.Kh., Baysunov B.Kh. Biology of growth and development of *Thymus vulgaris* L. in the conditions of Karshi // Bulletin of KarSU. – Karshi. – 2019. – №. 3. – P. 43-47.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Cancarevic A., Bugarski B., Savikin K. Biological activity and ethnomedicinal use of *Thymus vulgaris* and *Thymus serpyllum* // Lekovite sirovine. – 2013. Vol. 33. – P. 3-17.
8. Vallverdu-Queralt A.A., Regueiro J., Martinez-Huelamo M. / Comprehensive study on the phenolic profile of widely used culinary herbs and spices: Rosemary, thyme, oregano, cinnamon, cumin and bay // Food Chemistry. – 2014. Vol. 154. – P. 299-307.
9. Гогина Е.Е. Изменчивость и формаобразование а роде Тимьян. – М.: Наука, 1990. – С. 60-73.
10. Колегова Е.Б. Морфогенез видов рода *Thymus* L. и структура их ценопопуляции в Хакасии. Автореф. дис. … канд. биол. наук. – Новосибирск, 2010. – 19 с.
11. Ishani Chakrabartty et al. Exploration of Lamiaceae in Cardio Vascular Diseases and Functional Foods: Medicine as Food and Food as Medicine // Frontiers in Pharmacology. – 2022. Vol. 13. – P. 1-18. DOI: 10.3389/fphar.2022.894814
12. Қаршибоев Ҳ.Қ., Ашурметов О.А. Ўсимликлар кўпайиш биологияси. Гулистон, 2003. – 82-83 б.
13. Вайнагий И.В. О методике изучения семенной продуктивности растений // Ботанический журнал. –1974. –Т. 59. – № 6. – С. 826-831.
14. Артюшенко З.Т. Атлас по описательной морфологии высших растений: Семя. –Л.: Наука, 1990. – 204 с.
15. Артюшенко З.Т., Федоров Ал.Т. Атлас по описательной морфологии высших растений. Плод. – Л.: Наука, 1986. – 392 с.
16. Зайцев Г.Н. Математическая статистика в экспериментальной ботанике. – М.: Наука, 1984. – 424 с.
17. Nasriddinova M.R., Yaziev L.Kh. Biology flowering *Thymus vulgaris* L. in the conditions oasis of Karshi // Annals of the Romanian society for Cell Biology. – 2021. – Vol. 25. – Issue 4. – P. 7596-7602.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

УДК:631.414

ИЗМЕНЕНИЯ КЛАРКОВ КОНЦЕНТРАЦИИ Fe, Al, Si В ТРУДНОМЕЛИОРИРУЕМИХ ЛУГОВЫХ САЗОВЫХ ПОЧВАХ

Юлдашев Гулом
Ферганский государственный университет
Доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Мамажонов Иномжон
Ферганский государственный университет
Докторант
Рахимов Аброр Анваржонович
Наманганский государственный университет
Доктор философии по биологическим наукам (PhD)

Аннотация. *В статье дана оценка современного содержания валового железа, алюминия, кремния в почвах с арзык-шоховыми горизонтами озерно-аллювиальных равнин Центральной Ферганы. В результате исследований установлено, что Кларк концентрация Fe, Al, Si и их соотношения меняются в зависимости от степени разрушенности цементированного арзык-шохового горизонта в изученных почвах.*

Ключевые слова: *Железа, алюминий, кремний, арзык-шоховый, озерно-аллювиальная, цементированность, механическое разрушение*

MELIORATSIYASI MUSHKUL BO‘LGAN O‘TLOQLI TUPROQLARDA Fe, Al, Si NING KONSENTRATSIYA KLARKINING O‘ZGARISHI.

Yuldashev G‘ulom
Farg‘ona davlat universiteti
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Mamajonov Inomjon
Farg‘ona davlat universiteti
Doktorant
Rahimov Abror Anvarjonovich
Namangan davlat universiteti
Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada Markaziy Farg‘onaning ko‘l-allyuvial tekisliklarining arzik-shoxli tuproqlaridagi yalpi temir, alyuminiy, kremniyning hozirgi holatiga baho berilgan. Tadqiqotlar natijasida Fe, Al, Si ning Klark konsentratsiyasi va ularning nisbatlari o‘rganilayotgan tuproqlarda sementlashgan arzik-shox gorizontining buzilish darajasiga qarab o‘zgarishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Temir, alyuminiy, kremniy, arzir-shox, ko’l-allyuvial, sementlashgan, mexanik buzilgan.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

CHANGES IN THE CONCENTRATION CLARKS OF FE, AL, SI IN DIFFICULTLY AMELIORATED MEADOW SOILS

Yuldashev Gulom
Fergana State University
Doctor of Agricultural Sciences, Professor
Mamajonov Inomjon
Fergana State University
Doctoral student
Rakhimov Abror Anvarjonovich
Namangan State University
Doctor of Philosophy in Biological Sciences (PhD)

Annotation. *The article provides an assessment of the current content of gross iron, aluminum, silicon in the arzyk-shokho soils of the lacustrine-alluvial plains of Central Fergana, as a result of the research, it was established that Clarke concentrations of Fe, Al, Si and their ratios vary depending on the degree of destruction of the cemented arzyk-shokho horizon in the studied soils.*

Key words: *Iron, aluminum, silicon, arzyk-shokho, lacustrine-alluvial, cementation, mechanical destruction*

Ведение

Оксиды железа, алюминия, кремния являются важнейщими компонентами почти всех почв Узбекистана и других аридных, частчно гумидных регионов. Минеральные и органические соединиения железа, алюминия, кремния играют существенную роль в почвообразовательном процессе аридной зоны. Известно способность железа и алюминия в адсорбции фосфат ионов и некоторых других. Информация о распределении атомов, оксидов и гидроксидов Fe, Al, Si по профилю почв, необходимо для диагностики и класификации, развитии педогеохимических процессов.

Полидисперсность, гетерогенность, многокомпонентность почв затрудняет изучение и анализ железа, алюминия, кремния в почвах в процессе почвообразовании, кроме того трудно оценить степень участие материнских пород в радиальной их миграции. Надо учесть, что почвенно-геохимический состав наследуется от материнских почвообразующих пород. Также известно, что высокое содержания кремнезема, окислов и других минералов Fe, Al в материнских породах определяют высокое содержания их в почвенных генетических горизонтах.

Химическая и биогеохимическая судьба Fe, Al, Si в элементарных блоках геохимического ландшафта существенно зависит от внутренних внешних и почвенных, а также и антропогенных факторов.

В гидроморфных почвах и в поливных землях окислительно-восстановительный потенциал, электрокинетический потенциал во влажном состояний почв существенно падает, а в этих условиях, то есть во влажном состоянии почти всегда в почвах постоянно представлены Fe_2O_3, FeO при этом теоретический преобладают FeO, то есть двухвалентное железо.

В таких условиях по данным Б.Б. Полынова [1] выветривание и почвообразование сопровождаются разрушением алюмосиликатов, а также десиликацией пород их

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

дебазацией, выносом солей, щелочной реакцией, окислением соединения железо и других, а также и выпадением их большей части в осадок в форме окислов и гидроокислов, относительным обогащением элювия полуторными окислами и каолинитом [1]

Fe, Al, Si являются каркасными элементами почв и ближайшими резервами, которые быстро и в первой очереди вовлекаются в почвообразовательные процессы. [2]

Трансформация, миграция этих элементов и их соединений существенно влияют на формирования почвенного профиля, через которого активно влияют на физические, химические и биогеохимические свойства почв и почвообразующих пород. Несмотря на это аналогичные сведения к орошаемым трудно мелиорируемым почвам ограничены и неоднозначны.

По классификации В.М. Гольдшмидт [3] химические элементы разделяются на четыре группы: литофильные элементы, которые в биосферных условиях образуют оксидов, гидроксидов, солей кислородных кислот. К их числу относятся Si, Ti, S, Na, K, Ca, Mg и др., то есть циклические элементы. Халькофили, которые образуют соединения с серой к ним относятся Fe, Cu, Zn, Cd, Pb, Mn и др. Элементы земной атмосферы (H, N, C, O, Ne, Ar и др.). Изученные нами элементы входят в литофильную Si, Al, халькофильную и сидерофильную (Fe) группу.

А.И. Перельман в своих классификациях водных мигрантов разделяет на несколько групп, согласно которой кремний относится к слабо подвижным анионом, железо к подвижным в глеевой обстановке, алюминий к группе малоподвижной, которые помогает в общей форме прогнозировать и объяснить поведение этих элементов в почвах в целом в биосфере, в геохимических ландшафтах [4]

Благодаря своим химическим и геохимическим особенностям железо, алюминий, кремний меняют (кроме Si), валентность образовывают многочисленные минералы и горных пород, различной растворимостью, следовательно подвижностью, которые играют весьма важную роль в почвенных процессах и в формирование почвенного профиля, в о железнение горизонтов, образование конкреции при участии других соединения, таких как $CaSO_4$* $2H_2O$, $CaCO_3$, $MgCO_3$, $FeCO_3$, SiO_2, Al_2O_3 и др.

Основным цементирующим веществом служат: глина, кремнезем, соединения железа и алюминия, известь, гипс, и другие вещество в основном неорганического и частично органического генезиса. Известно, что цементирующие вещества характерны для песчаников морского и озерного генезиса, глауконитовый для мелководного морского, гипсовый-озерного, лагунного происхождения. Железистые цементы характерны для континентального режима озерных вод и озерно-аллювиальных равнин.

Материалы и методы

В целях изучения исследования поведения химических элементов, в частности, миграции и аккумуляции кремния, алюминия, железа и других элементов с 1919 по 1923 гг. били проведены полевые производственные опыты на территории фермерского хозяйства «Мукаррамхон» Язяванского района Ферганской области Узбекистана. Общая площадь опытного участка составляет 10,2 гектара, где последние годы высеваются пшеница сорта «Половчанка». Опыт расположен в одном ярусе, с вариантами: I-вариант, контроль (не нарушен арзык-шоховый горизонт мощностью 26 см), разрез-1

II-вариант, рыхление арзык-шохового горизонта специальным рыхлителем, разрез-2

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

III-вариант, арзык-шоховый горизонт 25-30 см разрушен рыхлителем и плиты, которые образуется в результате рыхления размером от 10 до 20-50 см^2 мощностью 5-10 см., вынесены за пределы опытного участка, разрез-3.

Каждый вариант составляют 0,5-0,7 гектара, повторение 3 кратное. Элементный анализ в пробах почвы проведен с использованием оптического эмиссионного спектрометра с индуктивно-связанной плазмой Perkin Elmer Avio ™ 200.

Обсуждение результатов

Fe, Al, Si на ряду с карбонатами принимают участия в образование цементированного арзык-шохового горизонта в условиях почв с сазовыми режимами, где преобладают минерализованные напорные грунтовые воды и испарительная педогеохимическая обстановка в условиях пустынь, таких как Центральная Фергана. В таких условиях чаще происходит выпадение в осадок в форме окислов и гидроксидов в результате которого происходит относительное обогащение тех или иных горизонтов почв и почвообразующих пород. Распределение химических элементов таких как Si, Al, Fe в почвах подчиняются порядком педогеохимической миграции. Также ареал аккумуляций соединений Fe, Al, Si широк, почвенные растворы взаимодействуют и могут образовать вторичные аккумуляции в педогеохимических барьерах, особенно в зоне капиллярной кайме гидроморфных почв. Этот процесс в свою очередь включает гидрогенное образование и аккумуляции ряда других химических элементов, легкорастворимых солей. Испарение грунтовых вод с относительно высокими содержаниями Fe, Al, Si сопровождается гидрогенными образованиями конкреции, прослоев, отдельных плит, а с участием гипса и карбонатов арзык-шоховые горизонты в почвах пустынь. В этих условиях Центральной Ферганы в цементированных арзык-шоховых горизонтов поверхностного (20-45 см.,33-59 см) или глубокого положения количество цементированных веществ в них колеблется от единиц до десятки и более процентов. Основным цементирующим веществом служат: глина, кремнезем, соединения железа и алюминия, известь, гипс, и другие вещества в основном неорганического и частично органического генезиса. Известно, что цементирующие вещества характерны для песчаников морского и озерного генезиса, глауконитовый для мелководного морского, гипсовый-озерного, лагунного происхождения. Железистые цементы характерны для континентального режима озерных вод и озерно-аллювиальных равнин.

Состав цементированных веществ и элементов определяет ряд физико-механические и химические биогеохимические свойства цементированного горизонта. Кремнеземный, то есть халцедоновый или опаловые цементы определяют высокую твердость и прочность, низкую податливость ко всем типам выветриванию. Гипсовый, карбонатный и мергелистый цемент создают среднюю твердость. Но надо учесть, что мергелистый и другие виды карбонатного цемента относительно быстрее подвергаются выветриванию.

Освоение и орошение луговых сазовых почв, как все другие почвы пустынь в первый период приводит к сокращению содержание гумуса, а в последующие значение стабилизируется. При длительном воздействии орошаемого земледелия несколько повышается.

Надо отметить, что под влиянием коренной мелиорации на варианте с выносом арзык-шохового материала за пределы опытного участка за 3 года наблюдения повышается

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

содержания гумуса и азота, фосфора, калия по сравнению с 2 вариантом, где один раз в три года проведено рыхление указанного горизонта.

Так содержание гумуса после 3 годичного наблюдения достигло в верхнем 0-33 см горизонте 1,10 %, а во втором варианте 0,88 %. Изменения Кларков концентрации Fe, Al, Si в зависимости от степени разрушенности арзык-шохового горизонта приведены на рисунках 1,2,3. Максимальные их концентрации и Кларк концентрации соответствуют верхним и нижним границам арзик-шохового горизонта всех разрезов. Но при этом как содержание, так и КК Fe, Al, Si отличаются между вариантами. Так на контрольном (разрез-1) варианте на глубине 20-47 см, 47-71 см КК железа составляет 0,85-0,73, а на варианте, где арзык-шоховые горизонты разрушены и вынесены за пределом опытного участка (разрез-3) на глубине 33-59 см ККFe составляет 0,63. Во втором варианте, где арзык-шоховые горизонте




Рис. 1 Геохимические спектры распределения Fe, Al, Si (раз. 3)




Рис. 2 Геохимические спектры распределения Fe, Al Si (раз. 2)




Рис. 3 Геохимические спектры распределения Fe, Al Si (раз. 1)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

только разрушены этот показатель составляет 0,74, то есть занимает промежуточное положение. В целом по опыту на всех глубинах как ожидалось наибольшее КК соответствуют Si. Интересно выглядеть соотношения Fe: Si на всех разрезах, где наблюдается снижение соотношение с поверхности почв до глубины грунтовых вод, что связано с ростом кремния, облегчением механического состава.

В целом в орошаемых луговых сазовых почвах с цементированными арзык-шоховыми горизонтами в общем преобладают те же элементы, что и в литосфере. Это положение еще раз доказывает унаследованность Fe, Al, Si от материнских пород, которые образуется в результате выветривания.

Кремний, алюминий, железа в изученных почвах на ряду кальцием, натрием и другими щелочными и щелочноземельными элементами являются типоморфными. Чем больше концентрация химического элемента в почвах, тем выше его содержания в почвенных растворах, а следовательно, больше вероятность осаждения и аккумуляция.

Миграция Fe, Al, Si приводит к значительному перераспределению этих элементов в почвенном профиле (рис.1,2,3). Качество и количество такого отличия передается Кларком концентрации (КК). С учетом максимальное значение КК можно представит пределе этого элемента в почвах. Способность к аккумуляции и распределении изученных элементов в отдельных горизонтах почв зависит от химических свойств кремния, алюминия, железа и от Кларка элемента в почвенной среде, а также геохимических барьерах типа арзык-шохового горизонта. Железо-алюмо-силикатно-гипсированные горизонты в основном цементированы кремнеземом, содержание которого в наших опытах колеблется в интервале 27,7-38,1 %. Причем наибольшее его содержание, также Fe и Al совпадают с арзык-шоховыми горизонтами (разрез-1). При разрушении этого горизонта и выносе разрушенного материала за пределы участков наблюдается четкое уменьшения, как Si так и Fe, Al, на варианте, где механически разрушен арзык-шоховый горизонт содержание Fe, Al, Si занимают промежуточные положения между 3 и 1 вариантами.

В грунтовых водах пустынной зоне и почвенных растворах почти всегда присутствуют подвижные соединения железо, кремния и алюминия в итоги происходит интенсивное накопление в процессе почвообразования, особенно зоне капиллярной кайме. При этом под влиянием соединений алюминия, железо, кремния происходит хемогенное образование в отдельных горизонтах почв. Аккумуляция этих элементов и их соединение происходит на фоне сульфатного типа засоления, цвет которых обусловлен сульфатами железа и запахом сероводорода.

Выводы

Таким образом Fe, Al, Si накапливаются в почвенных особенно в арзык-шоховых горизонтах. В целом педогеохимия Fe и Al, а частично кремния близки между собой, но и имеются отличительные черты. Содержания алюминия в грунтовых водах изученных вариантов достигает 0,5-0,6 мг/л. Исследования показывают главным фактором относительной миграции алюминия в водах являются низкая концентрация фосфат ионов и кремнезема. Кремнием в свою очередь гидроокислы и окислы Fe, Al достаточно легко захватывая образует алюмосиликатные, ферро силикатные и алюмо-ферро- силикатные минералы. Такой эффект часто наблюдается в зоне капиллярной кайме или в арзык-шоховых горизонтах аридных почв лугово-сазового режима.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Список литературных источников

1.Полынов Б.Б. Учение о ландшафтах., Ленинград., 1985. Т.XIII. 493-511с.
2.Орлов Д.С., Садовникова Л.К., Суханова Н.И. Химия почв М., 2005. 558 с.
3. Гольдшмидт В.М. Работы по геохимии и кристаллохимии 1911-1930 г. Под ред. Ферсмана А.Е. Л. Госхимиздат 1933. 277 с.
4. Перельман А.И. Геохимия М., 1989. 528 с.

SEMIZO‘T KONSERVASINI STERILIZATSIYA TARTIBI VA SHARTLI STERILIZATSIYA KO‘RSATKICHLARI

Mo‘minov Ulug‘bek Odiljonovich
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
Ataxanov Shuxrat Nuriddinovich
Namangan davlat universiteti texnika fanlari doktori (DSc), v.v.b prof.
Akramboyev Rasuljon Adashovich
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi PhD
Raximova Gulbaxor Lutfullajon qizi
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada noan’anaviy xom ashyolardan konservalarni sterelizasiya qilish, ularni haroratga bog‘liqligi o‘rganilgan. Ma’lumki sterelizasiya jarayoni mikroorganizmlar va ularning sporalarini yo‘q qilish uchun konservalarni avtoklavlarda yuqori haroratda mahsulot turiga qarab ma‘lum daqiqa davomida qizdirish hisoblanadi. Sterilizatsiya jarayonida konservalarning organoleptik xususiyatlari va tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi. Shularni hisobga olib biz tomonimizdan noan’anaviy xom ashyolardan tayyorlangan konservani sterillash vaqti nazariy hisoblab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *semiz o‘t, ko‘k yong‘oq, tarra, sterelizasiya, noan’anaviy xom ashyo.*

Аннотация: *В данной статье изучена стерилизация консервов из нетрадиционного сырья и их зависимость от температуры. Сущность процесса стерилизации заключается в нагревании консервов в автоклавах при всокой температуре в течение определенного времени в зависимости от вида продукта с целью уничтожения микроорганизмов и их спор. В процессе стерилизации изменяются органолептические свойства и внешний вид консервов. Учитывая это, мы рассчитали сроки стерилизации консервов, изготовленных из нетрадиционного сырья.*

Ключевые слова: *портулак, зеленый орех, армянский огурех, стерилизация, нетрадиционное сырье.*

Annotation: *This article examines the use of non-traditional raw materials for sterilization and their dependence on temperature. A well-known sterilization process involves heating canned food in autoclaves at a temperature of 113-120°C for 75-130 minutes, depending on the type of product, in order to destroy microorganisms and their spores. During the sterilization process, the organoleptic properties and appearance of canned food change. Taking this into account, we calculated the sterilization time for canned food made from non-traditional raw materials.*

Key words: *fatty grass, blue nut, tar, sterilization, non-traditional raw materials.*

Dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi va oziq ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni yuqoriligi, inson salomatligi, xavfsiz tabiiy mahsulotlarga talabni ortishi olimlar oldida noan’anaviy xom ashyolardan foydalanish kabi dolzarb vazifani qo‘ydi. Bu borada oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va inson rasionining umumiy muvozanati salomatlik holati va hayot sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yer yuzi aholisi ortib borayotgan hozirgi davrda aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu kabi muammolarni yechishda yangi turdagi xavfsiz mahsulotlar tayyorlash, noan’anaviy mahsulotlar turlarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi rivojlangan davlatlarni tajribasi yuqori o‘rinda turadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida rivojlangan davlatlarni oziq ovqat sanoatida yangi turdagi konserva mahsulotlariga talab yuqoriligi, bu mahsulotlarni xavfsizlik ko‘rsatkichlarini aniqlagan holda aholi iste’moliga joriy etish mumkin. Bu turdagi mahsulotlar o‘zining tarkibi jihatidan yuqori va o‘zining sifatini texnologik jarayonlarda yo‘qotmasligi bilan boshqa mahsulot turlaridan ajralib turadi. Shularni hisobga olib biz tomonimizdan taklif etilayotgan noan’anaviy turdagi xom ashyo sifatida ishlatilayotgan semiz o‘t, ko‘k yong‘oq, tarra ishlatilishi ularni texnologik jarayonlarda organoleptik ko‘rsatkichlari o‘zgarmasligi muhim hisoblanadi. Konserva mahsulotlarini saqlash muddatini uzaytirish uchun asosiy texnologik jarayonlardan biri sterilizasiya jarayoni hisoblanadi.

Yangi yaratilgan mahsulotlar noan’anaviy xom ashyolardan bo‘lganligi uchun ularni sterilizasiya tartibi nazariy asosda hisob kitob qilinib, tajribalar asosida aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida noan’anaviy xom ashyolardan tayyorlangan konservalarni sterilizasiya tartiblari nazariy va amaliy hisoblab topilgan.

Ma’lumki konservalangan mahsulotlar sterilligini ta’minlashda eng asosiy talablardan biri mahsulot qadoqlangan idishni markazida haroratni uni devorlari bilan bir xilda bo‘lishi va mikroorganizm va bakteriyalarni to‘xtatish hamda ko‘paymasligini ta’minlash. Demak biz konserva mahsulotlarini stabilligini ta’minlashda mikroorganizm va bakteriyalar letalligini ta’minlash uchun harakatni belgilangan vaqt oralig‘ida ushlab turishimiz kerak.

Konserva makhsulotlarini sterilizasiyalash uchun qo‘llanadigan formula qo‘yidagicha:

$$A\text{-}V\text{-}S/S*R \quad (1)$$


Misol uchun “Konservalangan bodring” mahsuloti uchun

$$10\text{-}15\text{-}10/100*2 \quad (2)$$

Kattaliklar qayerdan olingan va shu sterilizasiya tartibi mikroorganizmlar nobud bo‘lishini ta’minlaydimi yoki temperatura, vaqt intervali yetarlimi, ko‘pmi, kammi degan haqli savol tug‘iladi. Demak mikroorganizmlar faktik nobud bo‘lishini aniqlash zarur.

Biz biror bir mahsulotni sterilizasiya tartibini ko‘z oldimizga keltiramiz. Buni grafik shaklda tasavvur qilamiz (rasm 1).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Sterilizasiya davrida mahsulot nazariy o‘sish egri chizig‘i

Sterillash sharoitlarini aniqlashtirishga harakat qilinib, issiqlik ishlovi vaqtini 5 minutlik bo‘laklarga ajratamiz va temperaturani har bir bo‘lak uchun alohida yozamiz. Biz bunda har bir vaqt intervali uchun jadval ko‘rinishida ma’lumotga ega bo‘lamiz (1-jadval).

1-jadval

Ishlov davomiyligi, min	Temperatura ºC	Ishlov davomiyligi, min	Temperatura ºC
1	**2**	**3**	**4**
10	90	10	107
10	95	10	111
10	102	10	115

Demak, biz yuqoridagi jadval asosida banka markazida bo‘lgan aniq temperaturani va qancha vaqt ta’sir etganini bilishimiz mumkin. Biz yuqoridagi jadval asosida issiqlik ishlovi samaradorligini baholash usulini tuzamiz: har bir temperaturada va vaqt birligida mikroorganizmlarni nobud bo‘lishini hisoblaymiz.

Bu prinsip asosida berilgan tartib asosida o‘ldirilgan mikroorganizmlarni qiymatini qo‘shish va sterilizasiya effektini hisoblaymiz.

Sterilizasiya effektini baholashda 100% samarador-100% past bo‘lsa yetarli emas, 100% ko‘p bo‘lsa zahira mavjud deb qabul qilamiz.

Biz temperatura va vaqtni mikroorganizmga ta’sirini qayta hisoblab chiqishimiz mumkin va bunda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$\lg\left(\frac{y}{r}\right) = \frac{(T_э - T_D)}{Z} \quad (3)$$

Bu yerda u-berilgan temperaturada T, D-mikroorganizmlarga ta’sir vaqti, r-mikroorganizmlarga ta’sir qilish vaqti mos haroratda ta’sir qilish vaqtiga ekvivalent bo‘lib, u bilan boshqa barcha haroratlarning ta’sirini solishtirish uchun o‘lchov sifatida olinadi. Z-termochidamlilik koeffisenti, ^{0}C.

Ma’lumki, butun dunyo termomikrobiologlari etalon temperatura qilib -121.1 ºC ni qabul qilishgan. Bu birlikni Amerikalik olim Ch.Bolt taklif etgan va u konservalarni sterillashni eng yuqori temperaturasi -250^0 F farengeytda olgan.

$$C = \left(\frac{(F-32)*5}{9} = 250 - 32\right) * \frac{5}{9} = 121.2^O C \quad (4)$$

Demak, etalon temperatura -121.1^{0}C bo‘lsa biz(4) formulani boshqacharoq yozishimiz mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$\lg\left(\frac{U}{F}\right) = \frac{121.1-T}{Z} \quad (5)$$

Yuqoridagi mulohazalardan bu formuladan F=-121.1^{0}C vaqti mikroorganizmlarga ta'siri har qanday ma'lum bir haroratda vaqt uzunligiga teng .

$$\frac{U}{F} = 10(121.1-T)/z \quad (6)$$

$$F = \frac{U10^{\left(\frac{121.1}{T}\right)}}{Z} \quad (7)$$

yoki bu ifodani qo'yidagicha yozish mumkin

$$F = \frac{U\cdot 1}{\frac{10(121.1-T)}{z}} \quad (8)$$

F soni sterilizatsiya effekti, yoki vaqt uzunligiga ta'siri yoki halokatliligi.


Shunday qilib F-121.1^{o}C olish uchun kerak bo'lgan vaqtni

$\frac{\frac{1}{10^{121.1-T}}}{Z}$ ga ko'paytirish kerak. Shunday qilib


$$KF = \frac{\frac{1}{10^{121.1-T}}}{Z} \quad (9)$$

Oddiy ifoda (9) har qanday sterilizasiya harorati uchun o'tkazish koeffisentini aniqlash imkonini beradi. Bu formulada T kattalikdan boshqalari o'zgarmasdir. Shuning uchun kerakli temperaturani qo'yib konservalangan semizo't konservasini sterilizatsiya tartibini hisoblab chiqamiz.

Endi yuqoridagilarni grafik shaklida tasavvur qilib ko'ramiz. 2-rasm



2-rasm. O'tkazish koeffisentini nazariy egri chizig'i



3-rasm. Sterilizatsiyaning haqiqiy rejimi va uning shartli ekvivalenti

Yuqoridagi grafiklardan banka markazida haroratni ko'tarilishini ko'rsatib, koordinata sterilizasiya vaqti bo'lib, vaqt o'tishi bilan ko'tarilib maksimal nuqtaga yetgach pasayadi. Har

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bir temperatura nuqtasiga K ni aniq qiymati to‘g‘ri qilib koordinatadagi vaqt o‘tkazish koeffisenti o‘zgarishini ko‘rsatadi. Demak, rasmdagi o‘tkazish koeffisenti egri chiziqlari bilan o‘ralgan maydon integral ko‘rsatkich bilan aniqlanadi.

$$\int_a^b K_F * d_\tau \quad (10)$$

Bu a nuqtadan в nuqtagacha sterilizasiya effektini ko‘rsatadi. Bu shtrixlarda yuzani hisoblashda bir oz xatolikni hisobga olmagan holda, uni to‘rtburchaklar deb tasavvur qilamiz. Bu turtburchaklarni balandligi o‘tkazish koeffisenti bo‘lib, ularni

$$t_1 = r_p * K_{F1}$$
$$t_2 = r_p * K_{F2} \quad (11)$$
$$t_n = r_p * K_{Fn}$$

$t_1, t_2, \dots t_n$ qo‘shib umumiy maydonni topamiz

$$F = r_p * K_{F1} + r_p * K_{F2} \dots + r_p K_{Fn} \quad (12)$$

yoki

$$F = T_p * K_{F1} + \tau_p * K_{F2} \dots + \tau_p K_{Fn} \quad (13)$$

O‘tkazish koeffisentini hisoblashda haroratni qabul qilishda boshlanish va oxirgi haroratni 950 ^{0}C dan past olmaslik kerak bo‘lib, chunki past haroratda samara juda past bo‘lib, ular mikroorganizmlarni nobud qilish juda oz. Demak, sterilizasiya tartiblarini, sterilizasiya effektini quyidagicha hisoblash mumkin.

$$F = \int_a^b K_F d\tau = \tau_p(K_{F_{95}} + K_{F_2} + K_{F_3} + \dots + K_{F_{95}}) \quad (14)$$

yoki

$$F = \int_a^b K_F d\tau = \tau_p \left(\frac{1}{10^{\frac{121.1-95}{z}}} + \frac{1}{10^{\frac{121.1-T_2}{z}}} + \dots + \frac{1}{10^{\frac{121.1-95}{Z}}} \right) \quad (15)$$

Shunday qilib sterilizasiya tartibini sterillik effektini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$F = \int_a^b K_F d\tau = \tau_p \left(K_{F_{95}} + K_{F_2} + K_{F_3} + \dots + K_{F_{95}}\right) \quad (16)$$

yoki

$$F = \int_a^b K_F d\tau = \tau_p \left(\frac{1}{10^{\frac{121.1-95}{Z}}} + \frac{1}{10^{\frac{121.1-T_2}{Z}}} + \dots + \frac{1}{10^{\frac{121.1-95}{Z}}} \right) \quad (17)$$

Demak, *F*-effekt, ya’ni sterilizasiya rejimini nobud bo‘lishi, issiqlik bilan ishlov berishning ba’zi xayoliy stasionar rejimining davomiyligi, mikroorganizmlarga ta’siri o‘zgaruvchan haroratli maydonda amalga oshiriladigan ushbu haqiqiy stasionar bo‘lmagan sterilizasiya rejimiga teng.


2-jadval

Konservalangan semizo‘t konkonservasi sterilizatsiya tartibi

Qizdirish boshlani-shidan boshlab, vaqt, min	**Avtok-lav haro-rati ^{0}C**	**Mahsu-lot haro-rati ^{0}C**	**O‘tkizish koyeffi-syenti K_F**	**Qizdirish boshlani-shidan boshlab, vaqt, min**	**Avto-klav haro-rati ^{0}C**	**Mahs u-lot harora ti ^{0}C**	**O‘tkizish koyeffisent i K_F**
0	80	75		55	75	78	

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5	84	85		60	70	75	
10	95	90	0.0008				
15	100	95	0.0025				
20	110	100	0.0049				
25	120	100	0.0049				
30	95	98	0.0062				
35	90	95	0.0025				
40	85	89	0.0008				
45	90	80					



4-rasm. Konservalangan semizo‘t konservasini sterilizasiya rejimi: banka 1-83-1000 A..200 m 1-avtoklav, 2- mahsulot, 3-letallik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Перспективы использования нетрадиционного сырья в производстве цукатов //Universium: технические науки: электрон научн. журн. Тошпулатов Б.С. и.др. 2021.9 (90)
2. Использование нетрадиционного сырья в производстве мучных кондитерских изделий.// Техника и технология продуктов питания: Наука. Образование . Достижения. Инновации. 2017. № 2. С-258-261.
3. Перспективы использования нетрадиционного сырья в производстве булочных изделий повышенной пищевой и биологической ценности. Кулькова Ю.С, Горькина П.К.// Инновационная техника и технология. 2017-№3. С 31-34.
4. Технология консервирования армянского огурца// Universium. Технические науки. Электрон. Научн. Журнал. Муминов У.О. и др. 2021 6 (87).
5. Технология консервирования портулака огородного // Universium. Технические науки. Электрон. Научн. Журнал. Муминов У.О. и др. 2021 9 (70).
6. СанПин 0366-19 Гигиенические нормативы безопасности пищевой продукции.
7. ГОСТ 30519-97, Продукты пищевые. Метод выявления бактерий рода Salmonella.
8. ГОСТ 30518-97, Методы выявления и определения количества бактерий группы кишечных палочек (колиформных бактерий).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

9. ГОСТ 10444.12-88 Микробиология пищевих продуктов и кормов для животных.
10. V.T. Емсев, V.K. Шильникова. Микробиология – М.; Агропромиздат, 1990.-191с.

UO‘K 631.482

SUG‘ORISH TA’SIRIDA SUR TUSLI QO‘NG‘IR TUPROQLAR MORFOLOGIK VA AGROKIMYOVIY XUSUSIYATLARINING O‘ZGARISHI

Isag‘aliyev Murodjon To‘ychiboyevich
B.f.d., professor, Farg‘ona davlat universiteti
Isomiddinov Zokirjon Jaloldinovich
B.f.f.d. (PhD), Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Djurayeva Dilrabo Eminjonovna
Tayanch doktorant

Annotasiya. *Maqolada So‘x daryosi sug‘orish suvi qalqindisi ta’sirida yangidan va eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarining morfogenetik belgilari va agrokimyoviy xossalarining o‘zgarishi keltirilgan. Gumusli qatlam qalinligi, gumus va oziqa elementlar miqdori, tuproq granulometrik tarkibining og‘irlashishi sug‘orish suvi qalqindisi tarkibidagi fizik va agrokimyoviy ko‘rsatkichlar ta’sirida ekanligi isbotlangan. Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarning o‘zlashtirilganlik davri nisbatan qisqa bo‘lishiga qaramay haydov osti qatlami shakllangan hamda tuproq unumdorligini ortishi suvning loyqaligi va oqizindi tarkibi bilan bog‘liq holda ijobiy o‘zgarishga yuz tutganligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *morfogenetik belgi, agrokimyoviy xossa, qalqindi, gumus, yalpi va harakatchan oziqa elementlar, sug‘orish suvi sifati.*

ИЗМЕНЕНИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ И АГРОХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ СЕРО-БУРЫХ ПОЧВ ПОД ВЛИЯНИЕМ ОРОШЕНИЯ

Исагалиев Муроджон Туйчибоевич
Д.б.н., профессор, Ферганский государственный университет
Исомиддинов Зокиржон Жалолдинович
Д.ф.б.н. (PhD), Коканский государственный педагогический институт
Джураева Дилрабо Эминжоновна
Базовый докторант

Аннотация: *В статье приведено, что под влиянием наносов поливных, орошаемых вод реки Сох изменяется морфогенетические и агрохимические свойства ново- и староорошаемых серо-бурых почв. Доказано, что мощность гумусового горизонта, содержания гумуса и питательных элементов, утяжелениям гранулометрического состава почв находится под влияние физических и агрохимических свойств наносов поливных вод. Несмотря на то, что относительно за короткий срок освоения серо-бурых почв сформировался подпахотный горизонт, а также наблюдается повышение их плодородия и находится в прямой связи с мутностью воды и составом взвешенных наносов реки Сох.*

Ключевые слова: *морфогенетические показатели, агрохимические свойства, наносы, гумус, валовые и подвижные питательные элементы, качество поливной воды.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

CHANGES IN MORPHOLOGICAL AND AGROCHEMICAL PROPERTIES OF GRAY-BROWN SOILS UNDER THE INFLUENCE OF IRRIGATION

Isagaliev Murojon Tuychiboevich
Doctor of Biological Sciences, Professor, Fergana State University
Isomiddinov Zokirjon Jaloldinovich
PhD, Kokand State Pedagogical Institute
Djurayeva Dilrabo Eminjonovna
Basic doctoral

Annotation: *The article shows that morphogenetic and agrochemical properties of newly- and old-irrigated gray-brown soils are changed under the influence of sediment load of irrigated and irrigated waters of the Sokh River. It is proved that the thickness of humus horizon, the content of humus and nutrient elements, the weighting of granulometric composition of soils is under the influence of physical and agrochemical properties of irrigation water load. In spite of the fact that for relatively short period of development of gray-brown soils the subsoil horizon was formed, as well as the increase of their fertility is observed and is in direct connection with the turbidity of water and composition of suspended sediments of the Sokh River.*

Key words: *morphogenetic indicators, agrochemical properties, sediments, humus, gross and mobile nutrients, irrigation water quality.*

Kirish

O‘zbekistonning yarim cho‘l va cho‘l mintaqasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining yuqori va doimiy hosilini olish uchun vegetatsiya davrida ob-havo sharoiti, jumladan, havo haroratining issiqligi va oz miqdorda yog‘ingarchilik kuzatilishi tufayli muntazam sug‘orish talab etiladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining miqdori va sifatini hal qiluvchi asosiy omillardan biri sug‘orish suvining sifati (loyqaligi) hisoblanadi [1, 50-55 s.].

Dunyoda dehqonchilik ta’sirida tuproqlarning morfoligik belgilari, agrokimyoviy xossalarini tadqiq etish, sug‘orish suvlari qalqindilari kimyoviy elementlar balansi muammolarini atrof-muhit xavfsizligi nuqtai nazaridan o‘zgarishini aniqlash, salbiy oqibatlarini bartaraf etish, sug‘orish suvi kimyoviy tarkibi, sifati hamda galogeokimyosi bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda [2. 352 b.; 3. 352 b.].

Bugungi kunda tuproqlarning antropogen omil ta’sirida ekologik-meliorativ holatini, xususan, sug‘orish suvlari qalqindilari ta’sirida morfologik belgilari va agrokimyoviy xossalari o‘zgarishini aniqlash, sug‘orish suvlari loyqa qalqindilarini tuproq unumdorligidagi ahamiyatini baholash bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sug‘oriladigan, o‘zlashtirilganlik darajasi turlicha bo‘lgan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar unumdorligini aniqlash, oshirish va ekologik toza sifatli tovar holida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mavjud yer zaxiralarini agrokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [4. 142-152 s.].

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona vodiysi janubida shakllangan eskidan sug‘oriladigan, yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlari va So‘x daryosi suvi qalqindisi tanlandi. Tadqiqotning asosiy usuli tariqasida V.V.Dokuchayevning morfogenetik, kesma usullaridan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

foydalanildi, olingan tuproq va sug‘orish suvi namunalarining kimyoviy tahlili “Руководство по химическому анализу почв” qo‘llanmasidan foydalanib o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari

Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar uchlamchi davr yotqiziqlarining ellyuviysi bilan qoplangan qoldiq platolar va qadimgi prolyuvial yotqiziqlar [5. 208 b.; 6. 364 b.], shuningdek, tosh-shag‘alli tog‘ jinslari ustida shakllangan bo‘lib, kuchsiz gipslashgan, karbonatli, temirli birikmalarga boy tuproqlar sug‘orishga yaqin yillarda tortilgan unumdorligi past [7. 29-30 b.; 8. 55-57 s.] deb baholangan. Eskidan sug‘oriladigan guruhlarida haydov va haydov osti qatlami to‘liq shakllangan, yangidan sug‘oriladigan ayirmasida haydalgan qatlam 20-26 sm ni tashkil qilib, haydov osti qatlami kuchsiz shakllangan. Eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda tuproqli qatlam (A+B=M) qalinligi 41-70 sm oralig‘ida o‘zgarib turadi. Yangidan sug‘oriladigan tuproqlarda bu ko‘rsatkich 31-34 sm dan oshmasligi aniqlandi. Ushbu tuproqlarning haydalma qatlami turli hajmdagi mayda tosh-shag‘allar uchrashi bilan xarakterlanadi va o‘zlashtirilganlik davriga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi, ya’ni eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda tosh-shag‘allik yuzadan ko‘rinmaydi, yangidan sug‘orladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda yuqoridagi ta’kidlanganidek, yuzadan turli hajmdagi toshlar va mayda tosh-shag‘allar uchraydi.

Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarning unumdorligi qishloq xo‘jaligi ekinlarining butun vegetatsiya davri davomida oziqa moddalar, qulay fizik-kimyoviy sharoit bilan ta’minlay olish qobiliyatini aniqlash orqali ifodalanadi.

Tuproq unumdorlik darajasi uning morfologik belgilari asosida baholashga ham asoslangan bo‘lib, tuproqning ranglanishi yoki rangi, tuproqni tasniflash va tashxislashda eng muhim morfologik xususiyatlaridan biridir. Barcha dala tadqiqotlari rangni tuproq, tuproq qatlamlari va uni kesma bo‘ylab kombinasiyalanishini asoslashga qaratilgan [9. 434 b.].

Yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproq, 2/bag‘-kesma.

A_h 0-21 sm. Och bo‘z rang, malla tovlanadi, kuchsiz nam, o‘rta qumoq mexanik tarkibli, zichlashmagan, ya’ni kultivatsiya qilingan. Mayda kesakcha strukturali, o‘simlik ildizlari va chuvalchang uchraydi, turli o‘lchamdagi tosh-shag‘allar mavjud. Kesmaning keyingi qatlamga o‘tish sekinlik bilan mexanik tarkib va zichligiga, keskin rangiga ko‘ra.

A_{h-o} 21-31 sm. Asosan malla, sur tusli, kuchsiz nam, yengil qumoq, mayda kesaksimon strukturali, o‘rtacha zichlashgan, o‘simlikning ildizlari va hashoratlar izlari mavjud. Mayda va yirik toshchalar, karbonat dog‘lari ko‘payib boradi. Keyingi qatlamga o‘tishi rangiga va skeletligiga ko‘ra asta sekinlik bilan.

BC 31-48 sm. Sur tusli qo‘ng‘ir rangli, zichlashgan, zang dog‘li, qumloq. Yuqorigi qatlamga qaraganda namroq, mayda changsimon strukturali, qum aralashgan, tosh-shag‘alligi quyi tomon ortib boradi. Gips va karbonatlar ko‘zcha va dog‘ shaklida ko‘rinadi, keyingi qatlam tosh-shag‘alli.

Eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproq, 3/o‘z-kesma.

A_h 0-26 sm. Och bo‘z rangli, yuza quruq, maydalash qiyin kesakli, kuchsiz zichlangan, o‘rta qumoq mexanik tarkibli, onda-sonda toshlar uchraydi, o‘tgan yillardan qolgan chirib ulgurmagan mevali bog‘ poyasi qoldig‘i yaqqol ko‘rinadi, sarg‘ish-jigarrang dog‘lar qatlam quyida ko‘rinadi, keyingi qatlamga o‘tish xususiyati rangiga ko‘ra.

A_{h-o} 26-42 sm. Och pishiq g‘isht rangda, malla tovlanadi, o‘rta qumoq mexanik tarkibli, qatlamning o‘rta qismida toshlar mavjud, oqish dog‘lar uchraydi, tuzlar va karbonatlarni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

to‘planishi kuzatiladi, o‘simlik ildizlari mavjud, keyingi qatlamga o‘tish rangiga va mexanik tarkibiga ko‘ra asta-sekin.

B 42-56 sm. Asosiy morfologik belgilari yuqorigi qatlamga o‘xshash, tosh-shag‘alni ko‘pligi, zichlashganligi, ildizni kamligi bilan farqlanadi, qo‘ng‘ir rang yaxshiroq nomoyon bo‘ladi, yengil qumoq mexanik tarkibli, keyingi qatlamga o‘tish rangiga ko‘ra.

C 56-70 sm. Och qo‘ng‘ir sur tusli (g‘isht) rangda, sernam, yengil qumoq mexanik tarkibli, qum va shag‘allar ham aralashgan, tosh-shag‘allar yuqoriga nisbatan ko‘proq, kesmani kavlash tosh-shag‘allardan iborat bo‘lganligi tufayli qiyin bo‘ldi. Tosh-shag‘alli prolyuvial jinslardan iborat ona jinsi. Toshlar ostida soqolsimon ko‘rinishda gipsli va karbonatlar, suvda eruvchi tuzlar akkumulyatsiyalangan.

Bu tuproqlar qo‘riq holatida sur tusli qo‘ng‘ir rangda (pishitilgan g‘ishtni eslatadi) bo‘lib, och tusli bo‘z tuproqlari bilan yuqoridan chegaradosh. Tabiiy o‘simliklar bilan qoplanish darajasi past, asosan bir yillik, qurg‘oqchilikka chidamli efemyer va efemyeroid o‘simliklar hissasiga to‘g‘ri keladi va bahor faslining oxirigacha o‘sib, rivojlanadi.

Sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar mayda kesaksimon strukturaga ega bo‘lib, ostki qatlam tomon zichlashish va skeletlashish holati kuzatildi. Ustki qatlamdan qaynaydi, ya’ni karbonat dog‘lar yuzadan seziladi. Quyi qatlamlarda gips donachalari mayda konkretsiya ko‘rinishida ortib boradi.

Eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarning haydov qatlamlarida skeletlilik 2,61-3,31% oralig‘ida tebranadi, yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda bu ko‘rsatkich 11,5-12,7% ni, ya’ni eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarga nisbatan haydov qatlam 3,4-4,8 barobarga skeletligi yuqori. Bu jihatdan yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar skeletli hisoblanib, tasnifga ko‘ra kuchsiz va o‘rtacha toshlashgan. Skelet miqdori ustki qatlamdan quyi tomon keskin oshib boradi. Ona jinslarida maksimalga borib, 46,2-71,4 % ga yetib boradi. Bu holat ularning prolyuviallardan iboratligidan dalolat beradi.

Skeletlilik darajasini ortib borishi bilan bu tuproqlarda fizik qum miqdori ham ortib boradi. Tuproqlarning ustki qatlamini oziqa elementlar bilan boyitish va qalinligini ortib borishi albatta antropogen omillar, ya’ni sug‘orish, organik o‘g‘itlash va dalada yirik o‘lchamli toshlarni olib chiqib tashlanishi jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq. Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar sharoitida sug‘orish eng maqbul tadbir hisoblanadi.

Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar o‘zlashtirilishi, ya’ni sug‘orilishi natijasida sur tusli qo‘ng‘ir rangli morfologik belgisi va granulometrik tarkibini o‘zgartirib boradi. Bunda yagona suv manbai bo‘lgan So‘x radyosi sug‘orish suvlari qalqindilari ta’sirida kechadi.

Hududning sug‘orish manbai So‘x daryo suvlari loyqalilik darajasi mavsumiy o‘zgarib turadi. Ayniqsa, suv sarfi maksimum bo‘lgan iyun, iyul va avgust oylarida suvning loyqalik darajasi 3-4 g/l ga yetadi. So‘x daryosi suvlarida erigan tuzlar va loyqa oqizindilarning yig‘indi miqdori 1204 mg/l ga teng bo‘lib, kalmotajlash qobiliyati yuqori [10. 160 b.] deb baholangan.

Tahlil ma’lumotlariga ko‘ra daryoning maksimal suv sarfi holatida erigan tuzlar va loyqa oqizindilari miqdori o‘rtacha 2,21 g/l teng bo‘ldi.

So‘x daryosi qalqindilarining mexanik tarkibiga ko‘ra og‘ir qumoq, fizik loy 52,4% ni tashkil etadi. 0,05-0,01 mm li yirik chang fraksiya 32,9% ga teng bo‘lib, boshqa zarrachalardan ustunlik qiladi. Bu tuproq granulometrik tarkibi genezisini isbotlaydi, ya’ni So‘x daryosi suvlari bilan sug‘orish natijasida sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar mexanik tarkibi og‘irlashib boradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Sug‘orish suvi qalqindisi tarkibida miqdoriga ko‘ra keyingi o‘rinda mayda chang (0,005-0,001 mm) zarrachalari ustunlik qilib, o‘rtacha 24% ni tashkil qiladi, keyingi o‘rinni o‘rta chang (0,01-0,005 mm) egallaydi. Qalqindi tarkibida il (>0,001) zarrachalari ham fizik qum tarkibini hosil qiluvchi yirik changdan tashqari boshqa zarrachalardan ustunlik qilib, 15% ni tashkil qiladi.

Oqizindi loyqa qalqindi tarkibida gumus miqdori o‘rtacha (n=7) 1,544%, P_2O_5 24,0 mg/kg, K_2O 194 mg/kg ni tashkil qildi (jadval). Demak, yerlarning o‘zlashtirilganlik davri nisbatan qisqa bo‘lishiga qaramay haydov qatlamining shakllanishi hamda tuproq unumdorligini ortishi So‘x daryosi suvlarining loyqaligi va oqizindi tarkibi bilan bog‘liq holda ijobiy o‘zgarishga yuz tutgan, deb baholash mumkin.

Tuproqda organik moddalar miqdori, jumladan, spesifik gumus moddasi tuproqning hosil bo‘lish jarayoni va evolyutsiya holatini aks ettirib, tuproqning asosiy taksonomik tasnifi, bonitet bahosi, sifati va sog‘lomligini ko‘rsatuvchi parametrlaridan biri hisoblanadi [10. 160 b.; 11. 218 b.].

Tuproq unumdorligi uning tarkibidagi gumus, o‘simlik o‘zlashtirishi uchun qulay bo‘lgan oziqa moddalar yalpi va harakatchan miqdori, qulay fizik, fizik-kimyoviy sharoit bilan bog‘liq bo‘lib, sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarning unumdorligi, ya’ni agrokimyoviy ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirildi.

Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarining agrokimyoviy xossalari (n=7)

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Gumus, %	Yalpi, %			C:N	Harakatchan, mg/kg	
			N	P	K		P_2O_5	K_2O
Eskidan sug‘oriladigan								
3/o‘z	0-26	1,016	0,078	0,206	1,570	8,78	19,04	198
	26-42	0,732	0,073	0,142	1,164	6,76	10,02	196
	42-56	0,320	0,027	0,102	1,060	7,99	4,75	117
	56-70	0,219	0,023	0,098	0,840	6,45	4,01	188
4/o‘z	0-26	0,791	0,079	0,163	1,780	6,75	14,47	169
	26-41	0,631	0,062	0,117	1,930	6,91	10,25	154
	41-56	0,254	0,030	0,076	1,690	5,75	6,21	109
	56-78	0,190	0,017	0,063	0,940	7,53	-	-
Yangidan sug‘oriladigan								
1/bag‘	0-22	0,599	0,057	0,120	1,210	7,08	17,35	145
	22-34	0,386	0,031	0,101	1,098	8,39	8,09	207
	34-55	0,159	0,013	0,086	0,870	8,24	-	132
2/bag‘	0-21	0,617	0,060	0,108	1,159	6,93	16,05	142
	21-31	0,375	0,028	0,079	1,015	9,03	4,68	176
	31-48	0,138	0,010	0,052	0,707	9,30	-	129
Daryo loyqasi	Qalqindi	1,544	0,120	0,056	1,540	8,67	24,0	194

Bu borada cho‘l mintaqasining sug‘oriladigan avtomorf sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlari unumdorligini baholashda gumus qatlami qalinligi, oziqa elementlar miqdori va sifati hamda tosh-shag‘alli qatlamning yotish chuqurligi va skeletlilik darajasi muhim ko‘rsatkichlardan sanaladi.

Shu nuqtai nazardan tuproqlar unumdorligini tahlil qiladigan bo‘lsak, yalpi miqdoriga ko‘ra sug‘orish davri ortib borishi bilan gumusli qatlam qalinligi va gumus miqdori daryo suvi qalqindisi tarkibi va dehqonchilik madaniyatiga bog‘liq ravishda ortib borishi kuzatiladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Sug‘oriladigan mintaqalarda tosh-shag‘alli tuproqlar asosan prolyuvial tekisliklar va allyuvial vodiylarda keng tarqalgan bo‘lib [12. 220 b.], janubiy Farg‘ona tog‘ oldi adirliklari va tekisliklari turli darajada tosh-shag‘alli, sug‘orish davriga mos ravishda o‘zgarishi kuzatildi.

Sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar gumus bilan past ta’minlangan guruhga kiradi, gumusni azotga to‘yinganlik darajasi eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda yuqori bo‘lib, bu qonuniyat butun kesma bo‘ylab o‘zgarishsiz qoldi. Lekin O‘zbekiston tumanidagi 3/o‘z-kesma haydov qatlamida qonuniyat buzildi va o‘rtachani tashkil qildi. Yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda C:N ga ko‘ra haydov qatlam yuqori, ostki qatlamlarda esa o‘rtacha to‘yingan guruhga kirishi kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, sug‘orish davri ortishi bilan gumusni azotga to‘yinganlik darajasi ham ortib boradi. Bu holatni sug‘orish natijasidagi qalqindilarning to‘yinish darajasiga bog‘liq deb xulosa qilish mumkin.

Yalpi azot miqdori sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar haydov qatlamida 0,057-0,079% oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi. Yalpi fosfor va kaliy miqdori ham yuqoridagi sug‘orish davriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi e’tirof etish mumkin, lekin qonuniyatni o‘zgarishi kichik raqamlarni (fosfor 0,163-0,206% dan 0,108-0,120% gacha; kaliy 1,570-1,780% dan 1,159-1,210% gacha) tashkil etadi.

Harakatchan oziqa elementlar miqdoriga ko‘ra fosfor bilan eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar juda past va past ta’minlangan huruhga kirib, yangidan sug‘oriladigan tuproqlar past ta’minlangan guruhdan joy oladi. Almashinuvchi kaliy miqdoriga ko‘ra o‘rganilgan tuproqlar past ta’minlangan guruhga kiradi, lekin bu qonuniyat yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar (1/bag‘-kesma) haydov osti qatlamida buzilishi, ya’ni o‘rtacha ta’minlangan darajaga o‘tganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda sug‘orish jarayonida yangidan sug‘oriladigan tuproqlarda harakatchan kaliyni haydov ostki qatlamda ortishi o‘z isbotini topdi. Bu qalqindi tarkibidagi kaliyni quyi haydov osti tomon yuvilishi bilan bog‘liq.

Xulosa

O‘rganilgan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar gumus bilan past ta’minlangan guruhga kiradi, gumusni azotga to‘yinganlik darajasi eskidan sug‘oriladigan tuproqlarda yuqori bo‘lib, bu qonuniyat butun kesma bo‘ylab o‘zgarishsiz qoldi.

Yangidan o‘zlashtirilgan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarda C:N ga ko‘ra haydov qatlam yuqori, ostki qatlamlarda esa o‘rtacha to‘yingan guruhga kirishi kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, sug‘orish davri ortishi bilan gumusni azotga to‘yinganlik darajasi ortib boradi.

Harakatchan oziqa elementlar miqdoriga ko‘ra fosfor bilan eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar juda past va past ta’minlangan bo‘lib, yangidan sug‘oriladigan tuproqlar tupchasida past ta’minlangan guruhga kiradi. Almashinuvchi kaliy miqdoriga ko‘ra o‘rganilgan tuproqlar past ta’minlangan guruhga joylashadi, lekin bu qonuniyat yangidan sug‘oriladigan (1/bag‘-kesma) haydov osti qatlamida buzilishi va o‘rtacha ta’minlangan guruhga kirishi solingan kaliyli mineral o‘g‘itlar bilan bog‘liq. Umuman olganda sug‘orish jarayonida yangidan sug‘oriladigan tuproqlarda harakatchan kaliyni ostki qatlamda ortishi o‘z isbotini topdi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tuproq gumusi miqdoriga qalqindi tarkibidagi gumus (1,544%) o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu bois eskidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarining haydov va haydov osti qatlamlarida gumus miqdori yangidan sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlarga nisbatan yuqori. Shunga yaqin holatlarni yalpi va harakatchan kaliy va fosforlarga ham aytish mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ермакова К.С., Давыдов А.С., Горносталь Р.Г. Влияние оросительных вод на мелиоративное состояние земель на Алейской оросительной системе. //Вестник Алтайского государственного аграрного университета № 5 (175), 2019. С. 50-55.
2. Кузиев Р.К., Сектименка В.Е. Почвы Узбекистана. -Т., 2009. -352 с.
3. Yuldashev G‘., Isag‘aliyev M.T. Tuproq biogeokimyosi. -T., 2014. -352 b.
4. Ковда И.В., Лебедева М.П., Чижикова Н.П., Цжан Г.Л., Гон З.Т., Ли Д.Ц., Васенев В.И. Вторичное окарбоначивание рисовых почв южного Китая: морфологическая и вещественная характеристка //Почвоведение. 2011. №2. С. 142-152.
5. Qo‘ziyev R.Q., Abduraxmonov N.Y. Sug‘oriladigan tuproqlar evolyutsiyasi va unumdorligi. – T.:“Navroz”, 2015. - 208 b.
6. Лобова Е.В. Почвы пустынной зоны СССР. Изд-во Ан СССР. – М.: 1960.- 364 с.
7. Исманов А.Ж., Каландаров Н.Н. Агрохимическое состояние некоторых орошаемых почв Центральной Ферганы. //Тезисы докладов международной конференции «Совершенствование агрохимической службы с целью устойчивого развития сельского хозяйства в Таджикистане». -Тадж.: Душанбе. 2018. – С. 29-30.
8. Ismanov A.J., Abduraxmonov N.Y., Qalandarov N.N, Mamajonova O‘.X. Farg‘ona viloyati sug‘oriladigan tuproqlari unumdorligi. //O‘zMU xabarlari. -T.: 2013. №4. 55-57 s.
9. Розанов Б.Г. Морфология почв. – М.: 2004. -434. с.
10. Юлдашев Г., Исагалиев М.Т. Геохимия почв конусов выноса. – Т.: 2002. -160 с.
11. Qo‘ziyev R.Q., Yuldashev G‘., Akramov I. Tuproq bontirovkasi. – T.: 2004.- 218 b.
12. Yuldashev G‘, Sotiboldiyeva G., Isag‘aliyev M. Kolmatajlashgan tuproqlar geokimyosi. – F.: 2020. -220 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

09.00.00 FALSAFA FANLARI ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ PHILOSOPHICAL SCIENCES

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION FORSAYTNING O'RNI

Sunnatov Nurali Bekmurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetii
e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion forsaytning o'rni atroflicha tahlil etilgan. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion forsaytning o'rni shaxsning eng muhim jihatlari yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Forsayt, Tadbirkorlik, kredit, startap,tashabbus, Biznes. davlat dasturi. Innovatsion ta'lim, innovatsiya, ijod, faoliyat, ta'lim.*

РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО ФОРСАЙТА В РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Суннатов Нурали Бекмуродович
доктор философии по философским наукам (PhD),
Навоийский государственный горный и технологический университет
e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Аннотатсия: *В данной статье подробно анализируется роль инновационного форсайта в развитии молодежного предпринимательства. Выделена роль инновационного форсайта в развитии молодежного предпринимательства и важнейшие аспекты личности.*

Ключевые слова: *Форсайт, предпринимательство, кредит, стартап, инициатива, бизнес, государственная программа, инновационное образование, инновации, творчество, активность, образование.*

THE ROLE OF INNOVATION FORESIGHT IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP

Sunnatov Nurali Bekmurodovich
Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD),
Navoi State Mining and Technological University
e-mail:Sunnatov_1979@mail.ru

Rezume: *This article analyzes in detail the role of innovation foresight in the development of youth entrepreneurship. The role of innovation foresight in the development of youth entrepreneurship and the most important aspects of personality are highlighted.*

Keywords: *Foresight, entrepreneurship, credit, startup, initiative, business, government program, innovative education, innovation, creativity, activity, education.*

Kirish

Ta’lim ehtiyojlarini innovatsiyalar qay darajada to‘la qondirsa, jamiyat hayoti boshqa sohalarining rivojlanishiga uning ta’siri shu darajada kuchli ta’sir etadi. Ayni shu sababli fan va ta’lim tizimi o‘rtasida vujudga kelgan tafovutni bartaraf etish oliy ta’lim tizimining kun tartibida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu oliy ta’lim tafakkurni ijodiy rivojlantirishni nazarda tutishini anglatadi, zero bugungi kunda hayot tinimsiz ilgari suruvchi noan’anaviy vazifalarni echish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bilimni muttasil yangilash va undan foydalanishni tarbiyalash ta’lim innovatsiyalarining muhim xossasi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, global dunyoqarashni shakllantirishni nazarda tutadi.

Forsayt bu — inglizchadan tarjima qilinganda kelajakka nazar, degan ma’noni anglatib, biror bir voqea, jarayon, hodisani bir necha yil oldinga nazar tashlagan holda kelajakdagi holatini ko‘zdan kechirishni nazarda tutadi.Forsayt orqali turli sohalardagi hozirgi holat, muammolarni aniqlagan holda, uning yaqin va uzoq istiqboliga nazar solib, soha rivojiga hissa qo‘shadigan echimlar, yo‘nalishlar aniqlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati navqiron avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intilish va tashabbuslarini qo‘llabquvvatlash, iste’dod va salohiyatini keng namoyon etishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir. So‘nggi yillarda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Birgina 2016-yil 14-sentyabr “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi yoshlarga katta e`tibor berilayotganing dalilidir. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 4.5-bandi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib, undan quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilanib olindi:

-jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fkrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

-o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

-yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llabquvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

-yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

-yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish[1].

Bundan tashqari “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi qabul qilindi va u yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash, band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta`kidlab o‘tkanlaridek, 2018- yilda bir qator tizimli ishlar olib borildi va “Har bir oila-tadbirkor”, “Yoshlar-kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi doirasida “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi tuzildi va jamg‘arma faoliyati asosan yoshlar tadbirkorligini qo‘llash, yoshlar bandligini ta`milashgaqaratildi va jamg‘armaning quyidagi asosiy vazifalari belgilandi:

a)Tadbirkorlik sub’yektlarining loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan (bunda, bank marjasi 2 foizni tashkil etadi) imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;

b)Tadbirkorlik sub’yektlariga Davlat dasturi doirasida beriladigan tijorat banklari kredit miqdorining 50 foizigacha, ammo 1 mlrd.so‘mdan oshmaydigan miqdorda jamg‘arma kaflligini berish; Bunda, jamg‘arma tomonidan taqdim etiladigan kaflliklarning umumiy miqdori jamg‘arma mablag‘larining 25 foizidan oshmasligi kerak.

v)Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik sub’yektlari loyihalarida ular qiymatining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ishtirok etish, keyinchalik, jamg‘arma ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish;

g)Tegishli ko‘nikmalarga ega, band bo‘lmagan yoshlar yashaydigan uy xo‘jaliklari uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish, ularning qiymatini kelishilgan muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko‘maklashish[2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda yoshlar tadbirkorligiga va yoshlarni bandligini ta`minlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada juda katta ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga, shuningdek, shu asosda yoshlar bandligini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan, yoshlar tadbirkorligini kompleks rivojlantirish va yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga faol jalb qilish bo‘yicha joylarda maqsadli dasturlar amalga oshirilmayapti hamda zarur infratuzilma yaratilmagan, bu esa, yangi ish o‘rinlari yaratishning eng muhim sharti hisoblanadi. Joylarda davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari yoshlarning tadbirkorlik savodxonligini oshirishga, ularga biznes tashkil etish va yuritish ko‘nikmalarini singdirishga hali ham befarq va beparvo munosabatda bo‘lmoqda Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining taxminan 60% ni yoshlar tashkil qilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, hozirda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va yoshlar bandligini ta`minlash mamlakatimiz oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar innovatsion g‘oyalariga va biznes rejalariga investitsiyalar jalb etish bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bundan tashqari yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun erkinliklar va sharoitlar yaratib berish tizimini takomillashtirish va turli imtiyozlar berish orqali ularda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga bo‘lgan tashabbuslarini yanada oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy o‘sishini ta`minlashga erisha olamiz. Kelajakda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularga ichki va tashqi investitsiyalar jalb qilish va yoshlar bandligini ta`minlashga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erisha olamiz:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

-yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

-band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish;

-chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;

-davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shartlarida “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlarini, shuningdek savdo-maishiy va kichik ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish uchun mehnat kuchi haddan ziyod bo‘lgan tumanlarda “Yoshlar mehnat guzari” komplekslarini qurish;

-davlat dasturi tadbirlarini moliyalashtirish uchun O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar - kelajagimiz” jamg‘armasini va uning tuman va shahar fliallarini tashkil etish[3].

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligiga investitsiyalar kiritish va shu orqali yoshlar innovatsion g‘oyalarini, startaplarini va biznes loyihalarini moliyalashtirish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, yoshlar bandligini ta`minlash tizimini takomillashtirish, yoshlar orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizimini takomillashtirish, yoshlarni ish bilan ta`minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik roli va ahamiyatini oshirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va yoshlarning innovatsion g‘oyalariga va startaplariga investitsiyalar jalb etish va shu orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishiga erishishni ta`minlashning eng muhim omillari bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa

Dunyoda ta’lim mamlakatning iqtisodiy barqarorligi omili, insonning ma’naviy kamoloti, shaxslararo munosabatlarda tenglik, bilim va e’tiqod uyg‘unligini ta’minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yagona ta’lim makonini yaratish, dunyoda tinchlikni qaror toptirish omili ekanligi ayon bo‘lmoqda. Innovatsiyaga tizim sifatida yondashish muammoning yana bir qismini dolzarblashtiradi: bugungi kunda nazariy tadqiqotlarda ham, pedagogik voqelikda ham ko‘p ishlatilayotgan «ta’limga oid innovatsiya», «pedagogik innovatsiya» tushunchalari yashash huquqiga egami?, bizning fikrimizcha, bu erda muammo ta’limga oid innovatsiyaning fenomenologik mustaqillik huquqi inkor etilishida namoyon bo‘ladi[4]. Biroq, asosiy muammo bunda emas. Ta’limga oid yoki pedagogik innovatsiyaning predmeti nima? Mazkur ijtimoiy-madaniy fenomenning madaniy chegarasi qanday? Uning asoslari nimada? Boshqacha aytganda, bu erda gap innovatsiyalar tipologiyasi, ularning o‘ziga xos xususiyati haqida boradi va bu muammoni echish kishilarning mavjud mehnat taqsimoti asosida shakllangan kasbiy faoliyatining u yoki bu sohasida innovatsion jarayonlarni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun juda muhimdir[5].

Adabiyotlar

1.Sh. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, PF-4947

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

3.“Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 27.06.2018.yil

ISSN: 2181-0427

4.Суннатов, Н. Б. (2021). ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОГО РАЗВИТИЯ. Аль-Фараби, 74(2).
5.Суннатов, Н. Б. (2021). ПОНЯТИЕ «ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ» В ИННОВАЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ. apni. ru Редакционная коллегия, 27.
6. Sunnatov, N. B. The Unity of Theory and Practice In the Innovative Transformation of the Educational Space.
7. Sunnatov, N. B. (2020). FEATURES OF THE INNOVATIVE TYPE OF PERSONALITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(8), 182-185.
8.Суннатов, Н. (2020). Инновацион фаолият-таълимнинг ривожланиш усули сифатида. Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития, 1(1), 85-87.

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Мадаминов Абдувахабжар Ахмаджанович
Старший преподаватель Международного института пищевых технологий и инженерии
abduvakhobm@mail.ru

Аннотация: *В статье описываются методы, приемы и процедуры политических технологий, используемые субъектами в политической деятельности, которые являются важнейшими компонентами общественной жизни, а также влияние их на социально-экономическое развитие общества.*

Ключевые слова: *Политические технологии, информационные технологии, информационный век, политические и технологические средства, функциональное влияние, государства, процессы глобализации.*

SOME PROBLEMS OF THE FUNCTIONAL IMPACT OF POLITICAL TECHNOLOGIES ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Madaminov Abduvaxabjav Axmadjanovich
Senior Lecturer at the International Institute of Food Technology and Engineering
abduvakhobm@mail.ru

Abstract: *The article describes the methods, techniques and procedures of political technologies used by subjects in political activity, which are the most important components of public life, as well as their impact on the socio-economic development of society.*

Keywords: *Political technologies, information technologies, information age, political and technological means, functional influence, states, globalization processes.*

Введение

В настоящее время Конституция Республики Узбекистан является основным документом, способным гарантировать интересы нашего народа, полностью отвечающим общепринятым демократическим ценностям, направленным на утверждение справедливости в жизни обществе[1]. Именно поэтому Мирзиёев Ш.М. подчеркивает, что

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Конституция Республики является основой нашей свободной и благополучной жизни, дальнейшего развития и процветания страны[2].

Узбекистан находится на этапе развития политического диалога, и потому необходимо анализировать политические средства как важнейший элемент в процессе формирования общественного мнения.

Современное узбекское общество характеризуется растущим влиянием политических технологий, основанных на системе коммуникаций.

Политические технологии, основанные на коммуникации, в частности, средства массовой информации, особенно электронные, развитие сети глобальных информационных систем играют не только технологическое и познавательное значение в политических процессах, но и в то же время, используемые политические технологии в политической коммуникации, становятся определяющим фактором развития политических институтов современного узбекского общества.

Несмотря на многовекторность исследований политических технологий, их роль и влияние на общество отдельных политико-технологических средств формирования общественного мнения, до сих пор практически не исследована. А также, недостаточно изучена обратная связь как результат деятельности отдельных политических технологий, направленных на распространение политически значимой информации с целью стабилизации или изменения направления общественного мнения и действий различных социальных субъектов.

Вот почему именно в настоящий момент крайне необходимо определить возможность использования инновационных политических технологий как средства политической социализации узбекского общества и формирования общественного мнения в современном Узбекистане.

Литературный анализ и методология

Разработки теоретических концепций изучения политических технологий ведутся многими школами и направлениями современной политологии.

Исследования политтехнологий в современном обществе проводили Ж. Бодрийяр, Э.Э. Ноэль-Нойман, П.Шампань, Л.Харрис, Т. Риссе-Каппен Д.Е.Шульц, С.И. Танненбаум, Р.Ф. Лаутеборн[3]. М.Фуко[4] и др., изучали вопросы исследование взаимовлияния средств коммуникации и власти.

Отдельное внимание обращено в современных разработках ученых Узбекистана на теорию «информационного общества», опирающейся на теорию глобализации и в рамках которой исследуется роль массовой коммуникации как политико-технологическиео средства. В этом аспекте следует отметить работы О.А.Юлдашева[5] А.Р. Юнусова[6], Д.О Юсупалиева[7] и др. Деятельность СМИ в качестве политико-технологических средств рассматривается в исследованиях таких узбекских авторов как С.Хидиров[8], А. Худайбердиева[9], Т.Ходжиев[10] и др. в работах которых приводятся фактические параметры применения политтехнологий в Республике Узбекистан, анализирует её роль политической социализации в узбекском обществе.

Данные научные исследования создают пространство для поиска новых решений в отрасли изучения политтехнологий и их влияния на политическую деятельность. Но необходимо отметить, что в современной политологии недостаточное внимание уделяется роли инновационных политтехнологий, месту Интернета-коммуникаций, роли

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

общественных организаций в процессе политической социализации общества, тогда как постоянное развитие политтехнологий в Узбекистане нуждается в большем внимании к политической роли этого явления.

Обсуждение

Анализ изучения применения политических технологий в Узбекистане дает возможность сделать такие выводы. Во-первых, в последние годы избирательный процесс приобретает более демократический характер, поскольку в нём не фиксируются случаи грубого и массового нарушений избирательного законодательства. Во-вторых, характерными для Узбекистана стали так называемые технологии «социологических рейтингов».

Технология «отложенное/отмененное решение», которая служит локальным политическим целям отдельных групп, была присуща сфере государственного управления на наивысшем уровне может затормозить демократическое развитие государства. Поэтому на первый план выходит идея не только правовой, но и общественной регуляции сферы политических технологий как наиболее эффективного инструмента государственного контроля.

Использование политических технологий субъектами политического процесса современного Узбекистана еще не является безусловной гарантией достижения ими ожидаемого политического результата. Их эффективность зависит от учета многих факторов, которые предопределяют процессы восприятия политтехнологических влияний, особенности индивидуального, группового, массового реагирования на них и последующего политического поведения. На политический выбор и политическое поведение влияют также ценности, традиции, приоритеты народа и его сообществ; способность электорального поля воспринимать политтехнологические действия, преисполненные определенного содержания и направленные на достижение определенной цели; особенности политической культуры народа, а также политической и избирательной системы страны; объем полномочий (политический статус) политического института, к которому баллотируется политик или от имени которого он действует.

В политической жизни Узбекистана используются разнообразные политические технологии. Чтобы избирать самую оптимальную из них, необходимо диагностировать политическую ситуацию, позаботиться о создании индивидуальной стратегии для конкретного политического актера, а также о систематическом получении информации в процессе реализации этой технологии.

Правовую основу применения современных политтехнологий составляет Конституция Республики Узбекистан, Избирательный кодекс Республики Узбекистан.

Сегодня приняты и реализуются нормативно-правовые документы, регулирующие процедуры применения политтехнологий - в частности, Закона Республики Узбекистан «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления», Закон «Об информатизации», постановления Президента страны от 21 марта 2012 г. «О мерах по дальнейшему внедрению и развитию современных информационно-коммуникационных технологий» и Кабинета Министров Республики Узбекистан от 30 декабря 2012 г. - «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности правительственного портала Республики Узбекистан в сети Интернет с учетом предоставления государственных услуг»,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Комплексная программа развития Национальной информационно-коммуникационной системы Республики Узбекистан на 2013-2020 гг. и другие.

Актуальным вопросом для всех органов власти сегодня является использование политтехнологии, ориентированных на налаживание понимания с общественностью путем разработки и внедрения эффективного механизма информирования о своей деятельности – от связей через средства массовой информации к изучению и реализации обращений граждан. Но не менее важной моделью общения с общественностью является обратная связь, то есть изучение мысли о действиях власти, которой с нашей точки зрения не обращается достаточное внимание в управлении государством. Эта модель общения должна реализовываться органами органов государственной власти с помощью опросов, анкетирования, общественных слушаний, встреч, рассмотрения обращений, что позволяет изучить критические замечания, предложения, реализовать их.

Например, в январе 2017 г. Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций проводило онлайн-опрос среди представителей бизнеса и предпринимателей, работающих в сфере ИКТ. Целью опроса было выявление проблем и бюрократических преград в ведении бизнеса, а также получение предложений по устранению проблем и рекомендаций по развитию бизнеса в сфере ИКТ. Опросник был разделен на разделы «Телекоммуникации (сети связи, мобильная связь, цифровое телевидение)», «Почтовая связь», «Информационно-коммуникационные технологии (электронное правительство, программное обеспечение)», «Информационная безопасность», «Подготовка кадров в сфере ИКТ» и «Другое».

С созданием Национального правового интернет-портала Республики Узбекистан, включающего в себя Национальную базу данных законодательства Республики Узбекистан и систему доступа к дополнительной правовой информации (юридический словарь, электронная платформа юридической литературы и т.п.), будут проводиться онлайн-форумы по обсуждению проектов актов законодательства и другие, на сайтах органов власти организуются онлайн-приемные и интернет-форумы.

Инновационные политтехнологии предполагают широко применять современные виды онлайн-исследований, в частности, онлайн-опросы, а также программное обеспечение, позволяющее сделать процедуру опроса интерактивной, например, при помощи самозагружающихся опросников.

На основе анализа выборов в Парламент Узбекистана в 2019-2020 гг. был сделан вывод о том, что из 18,8 млн. граждан, которые имели право на голос, в выборах участвовало 13,3 млн. человек, или 71,1% избирателей. С учетом того, что 29,9% избирателей не принимали участия в выборах перспективные инновационные политические технологии в Узбекистане в значительной степени должны быть обусловлены возрастанием политической социализации в обществе.

Для разработки перспективных инновационных политтехнологий в Узбекистане особое значение имеет Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 гг. предусматривает совершенствование системы общественного управления по таким направлениям, как: внедрение эффективных механизмов диалога с народом; развитие современных форм осуществления общественного контроля, повышение эффективности социального партнерства; развитие

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

институтов гражданского общества, повышение их общественной и политической активности

Наряду с традиционными СМИ в Узбекистане могут быть использованы другие инновационные политтехнологии, к которым относится, в частности, волонтерское движение, широко используемое в современности в международной практике.

Определение путей эффективного привлечения социальных ресурсов гражданского общества, в том числе волонтерских организаций, нуждается в разработке соответствующей стратегии привлечения этих ресурсов для решения актуальных общественных проблем, реализация которой содействовала бы развитию гражданского общества и становлению демократии в Узбекистане.

Особое внимание в Узбекистане следует обратить на коммуникативные процессы в политике. Ведь здесь необходимым является наличие постоянной связи между структурами власти, политическими партиями, общественными организациями, объединениями, лоббистскими группировками, средствами массовой информации и гражданами по поводу актуальных проблем общественно-политической и социально экономической жизни, который обеспечивается политической коммуникацией.

Политические теледебаты – сложное коммуникативное творение, которое, кроме политического дискурса, интегрирует в себе элементы медиадискурса, а также рекламного, театрального и спортивного дискурса и способствует формированию социального и политического партнерства.

Полученные результаты

Общетеоретические аспекты роли политических технологий в социально-экономическом развитии Республики Узбекистан. Аналитический материал, который содержится в исследовании, обобщении, выводы и рекомендации могут быть использованы на законодательном уровне при разработке законов, которые регулируют отношения в информационной сфере, а также применены партийными и общественными организациями, руководителями СМИ и журналистами для совершенствования механизмов функционирования средств массовой информации как фактора политического развития.

Заключение

В работе был проведено ***комплексное исследование*** проблем изучения функционирования политических технологий в социально-экономическом развитии Республики Узбекистан.

Литература

1. Конституция Республики Узбекистан. Принята 8 декабря 1992 года на одиннадцатой сессии Верховного совета Республики Узбекистан двенадцатого созыва. [Электронный ресурс] Режим доступа: http://constitution.uz/ru (Дата обращения 20.02.2020).
2. Мирзиёев Ш.М. Конституция - основа нашей свободной и благополучной жизни, дальнейшего развития и процветания страны. 7 декабря 2017 г. // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан - www.president.uz/
3. См.: Бодрийяр Ж. Символический обмен и смерть. М.: Добрсовет, 2000. - 387 с.;

4. См.:Фуко, М. Правительственность (идея государственного интереса и её генезис) / Пер. И. Окуневой // Логос. - 2003. - № 4/5. - С. 4-22.
5. Юлдашев О.А. Политические партии в условиях развития гражданского общества в Узбекистане // Актуальные научные исследования в современном мире. -– 2017. – №5-8(25). – С.132-137
6. Юнусов А.Р., Абдуллаев Х.М., Хамидов К. Глобал инқироз даврида Ўзбекистон иқтисодиёти рақобат афзалликларини ривожлантирилиши ва инвестиция жалб қилиш имкониятлари // В сборнике: Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари. 2020. с. 171-177.
7. Юсупалиева Д. О правовых основах деятельности средств массовой информации в период активного демократического обновления и модернизации страны // Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество. Civil society. – 2014. – Volume 11. – Issue 2(38) – С.72
8. См.: Хидиров С. Онлайн-опросы: потенциал, специфика, перспективы // Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество. Civil society. – 2019. – Volume 16. – Issue 1(57) –P. 78
9. См.: Худайбердиев А.К. Узбекистан: проблемы защиты молодежи от вредной информации в условиях глобализации (социально-философский анализ) //Россия и мусульманский мир. 2019. № 3 (313). С. 36-41.
10. См.: Ходжиев Т. Закономерный этап модернизации страны, реформирования и демократизации общества //// Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество. – 2017. – Volume 14. – Issue 2(50) –P. 77-80.
11. А.А.Мадаминов. Влияние СМИ на политическую культуру молодёжи. Вопросы науки и образования. 2018. 7 (19).
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_3waDc4AAAAJ&citation_for_view=_3waDc4AAAAJ:HoB7MX3m0LUC

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

IBN MISKAVYH VA BERUNIY FALSAFIY QARASHLARIDA EVOLYUTSION G‘OYALAR

Sulaymonova Shahnoza Nodirovna, TDShU doktoranti
*Gmail:*shahnozanodirovna@gmail.com *(91)164-02-86*

Annotatsiya: *Maqola Ibn Miskavayh va Abu Rayhon Beruniyning tadrijiy rivojlanish to’g’risidagi qarashlari muhokamasiga bag’ishlandi. Maqolada aks etgan masala bo’yicha faylasuflar fikrlari qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *“Tahzibul axloq”, “Al-fayzul asg’ar”, Beruniyning “Hindiston” asari, Ch.Darvin, tadrijiy rivojlanish nazariyasi, inson evolyutsiyasi, tabiiy tanlanish, turlar, minerallar, o’simliklar, hayvonlar, insonlar.*

EVOLUTIONARY IDEAS IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF IBN MISKAWYH AND BERUNI

Sulaymonova Shakhnoza Nodirovna, doctoral student of TSUOS
*Gmail:*shahnozanodirovna@gmail.com

Abstract: *The article was devoted to the discussion of the views of Ibn Miskawayh and Abu Rayhan Beruni on gradual development. Philosophers’ opinions on the issue reflected in the article are comparatively analyzed.*

Key words: *"Tahzibul Akhlaq", "Al-Fayzul Asghar", Beruni’s work "India", Ch. Darwin, theory of gradual development, human evolution, natural selection, species, minerals, plants, animals, people.*

ЭВОЛЮЦИОННЫЕ ИДЕИ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ИБН МИСКОВЫХ И БЕРУНИ

Сулайманова Шахноза Нодировна, докторант ТДГУ
*Gmail:*shahnozanodirovna@gmail.com

Аннотация: *Статья была посвящена обсуждению взглядов Ибн Мискавайха и Абу Райхана Беруни на постепенное развитие. Сравнительно анализируются мнения философов по отраженному в статье вопросу.*

Ключевые слова: *«Тахзибул Ахлак», «Аль-Файзул Асгар», работа Беруни «Индия», Ч. Дарвин, теория постепенного развития, эволюция человека, естественный отбор, виды, минералы, растения, животные, люди.*

Kirish

Evolyutsiya nazariyasi ikkita asosiy g'oyani o'z ichiga oladi: umumiy nasl va tabiiy tanlanish. Bu nazariya XIX asr o'rtalariga va Darvinga borib taqaladi. Zamonaviy fan ko'pincha evolyutsiyon nazariyalar Ch.Darvingacha bo'lgan davrda mavjud bo'lmagan deb taxmin qiladi. Aslida evolyutsiya islom ta'limotlari bilan ziddiyatli deb hisoblanganligi sababli munozarali mavzudir. Ammo evolyutsion g'oyalarni “Ixvon as-safo” falsafiy maktabi va Ibn Miskavayh, Beruniy, Ibn Tufayl va Ibn Xaldunning falsafiy qarashlarida ham uchratishimiz mumkin. Faylasuflarning bunday qarashlari va taxminlarini tabiatshunoaslik, tarix, elshunoslikka hamda, inson anatomiyasi va evolyutsion biologiyaga qo'shgan hissasi deyish mumkin. Bu g'oyalarning ba'zilari Ch.Darvin nazariyasi bilan o'xshashliklarga ega. Misol tariqasida kuchlilarning omon

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qolishi va tabiatga moslashishi, odamlarning maymunlardan o'ziga xos kelib chiqishi tushunchasi, evolyutsion cheklovlar, hamda irsiy o'zgaruvchanlik to'g'risidagi fikrlarni keltirish mumkin. Usbu faylasuflarning evolyutsion qarashlarini ko'rib chiqish, o'rganish, ommaga taqdim etish ilmiy tarixni, dunyoning xilma-xil sivilizatsiyalarini va ularning falsafalarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi deb o'ylaymiz. Shu sababli bu maqolada Ibn Miskavayhning va Beruniy falsafiy qarashlaridagi evolyutsion g'oyalari xususida to'xtalishni joiz deb topdik.

Adabiyotlar tahlili

Miskavayhning evolyutsoin qarashlarini uning "Tahzibul axloq" va "Al-fayzul asg'ar" asarlarida ko'rishimiz mumkin. Olimning "Al-fayzul asg'ar" asari arabcha qo'lyozmalari XIX asrdan Evropa Universitetlarida o'qitila boshladi.

Beruniyning tadrijiy rivojlanish to'g'risidagi qarashlari asosan "Hindiston" asarida keltirilgan. Olimning sanskrit tilini puxta o'zlashtirganligi, hind madaniyati, adabiyotiga qiziqqanligi, va o'rganganligi sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, hind madaniyati va diniy-falsafiy qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblangan ijtimoiy tabaqalanish, uning kelib chiqishi haqidagi diniy tasavvurlar ham faylasufning evolyutsion qarashlariga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Miskavayh o'zining yirik asarlaridan biri bo'lgan "Al-fuzul asg'ar" kitobida yangi aflotuncha hikmat namunalarini beradiki, vaqt jihatidan Ibn Sinoning "Najot" asaridan oldin yozilgan. [1]

Miskavayh aqliy ilmlarni quyidagi tartibda eslatadi: riyoziyot, mantiq, tibbiyot, moba'dul tabia (metafizika). Islomiy yangi aflotunchilik an'anasiga ko'ra, jumladan, Forobiy va Ibn Sino asarlarida odatda mantiq boshqa aqliy ilmlarni o'rganish muqaddimasida kelar edi.

Miskavayh fikricha, barcha qadimgi zamon hakimlari xudoning mavjudligi va uning yagonaligiga ishonib, bu masalada payg'ambarlar ta'limoti bilan muvofiq edilar.

Miskavayh aqidasicha, ashyolar manbai xudovand bo'lib, ular sodir etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu birinchi ibtido va borliq manbasidan sodir etilgan narsa birinchi aql bo'lib, uni aqli faol (faol aql) deb ataydilar. Islomiy yangi aflotunchilar bunday nomni o'ninchi aqlga beradilar. Ikkinchi sodir etilgan narsa – ruh, uchinchisi – falakdir. Uning fikricha, xudovand hamma narsani yashiringan yo'qlikdan yaratgan.

Borliq muammosi va unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o'rinni tashkil qiladi. Bu bejiz emas, albatta chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi. Darhaqiqat, turli dunyoqarashlar o'rtasidagi bahslar borliq muammosi atrofida yuzaga kelayotgan tortishuvlarga, ya'ni borliq azaldan mavjudmi yoki u mutloq ruh tomonidan yaratilganmi, degan masalaga borib taqaladi.

Ma'lumki, qadim-qadim zamonlardan beri faylasuflar o'zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyatda, o'z hayotlarida sodir bo'lgan turli-tuman o'zgarishlarni kuzatganlar, bu narsalar ular ko'z o'ngida ob'ektiv reallik sifatida gavdalangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Miskavayh ham borliq va ruh to'g'risida o'z qarashlariga ega. Uning borliq va ruh to'g'risidagi qarashlarida yunon faylasufining ruhi va moddiyuncha tamoyil sezilib turadi. Lekin bu Miskavayh islom dini va uning aqidalaridan uzoqlashgan degani emas. Albatta u musulmon edi va bu haqida gap bo'lishi mumkin emas. Faylasuf yunon falsafasini qadrlagan, o'zini esa shu falsafaning davomchilaridan deb bilgan.

Quyida uning borliq va ruh masalalariga doir qarashlarini keltiramiz. Ibn Miskavayh evolyutsiyani aniq tasvirlab bergan olimlardan biri ekanligi diqqatga sazovordir. U tadrijiy g'oyalarni quyidagicha tasvirlaydi:

"Olloh, avval materiyani yaratdi. Uni rivojlantirish uchun energiya bilan boyitdi. Shuning uchun materiya suvning ma'lum vaqt davomida bug'ga aylangan shaklidan olingan degan nazariyani olg'a suradi. Rivojlanishning keyingi bosqichi moddiy hayot deb ataladi. Toshlarning xar hil shakllari esa vaqt o'tishi bilan o'zgara boshlagan. Ularning eng ko'p o'zgargan shakli esa marjondir. Bu shunday toshki, uning daraxtga o'xshagan shoxlari bordir. O'simlik dunyosining evolyutsiyasi esa rivojlangan hayvonni tugadigan (yetishtiradigan) daraxt darajasiga yetgandagina tugallanadi. Bu esa finikiya palmasidir. Uning erkak va ayol jinslari mavjud. Uning hamma barglari chopib tashlanganda ham qurimaydi, qachonki, uning boshi kesib tashlangandagina zavol topadi. Shuning uchun bu daraxt ichida eng ulkani va hayvonlar ichida eng kam rivojlangani hisoblangan. Bu rivojlanish esa maymunga kelib taqaladi.[2] Lekin bu Darvin ta'limoti emas. Bu aynan Miskavayhning talqinida yozilganligi uchun ham diqqatga sazovordir.

Ba'zi islom faylasuflarining ta'lim berishicha maymun keyinchalik pastroq toifadagi varvarlar to'dasining kelib chiqishiga olib kelgan. U esa o'z navbatida to'dadan odamlarga aylangan va u aql hamda ongga ega.Odamlar avliyo yoki payg'ambar bo'la olishi mumkin.U keyinroq yanada yuqori pog'onada ko'tariladi va farishtaga aylanadi. Ulardan keyin Ollohdan boshqa hech kim ustun bo'la olmaydi. Hamma narsa undan tugaydi.[3] Bundan tashqari, har bir musulmon olimi evolyutsiya va barcha o'zgarishlarda e'tiqodini ustun qo'yadi.

Miskavayhga zamondosh bo'lgan Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" to'liq nomi "Tahqiq molil – hind min ma'qula maqbula fil-aql" ("Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi") asarida insonning tadrijiy rivojlanishi (biologik evolyutsiya) to'g'risidagi qarashlarini bayon qiladi. Bu asar 1030 yilda, Beruniy G'aznada yashagan davrida yozilgan. Asaring yozilishi tarixiga ko'ra, Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida Beruniyning sultonga hamroh bo'lganligi, u yerda sanskrit tilini puxta o'rganganini, hind madaniyati, adabiyotiga juda qiziqqanligi aytiladi. Faylasufning o'sha davr mashhur hind olimlari bilan yaqindan tanishishi, mamlakat va uning xalqi haqida o'lmas asar yaratishiga imkon bergan.

Beruniy evolyutsion nazariyalarini quyidagicha izohlagan: "Tabiat tabiiy tanlanishni amalga oshiradi, boshqalarni yo'q qilish orqali eng kuchli, yaxshi moslashgan mavjudotlarni saqlab qoladi (dehqonlar va bog'bonlar…)". [4] Ko'rinib turibdiki, Beruniy ingliz olimi Charlz Darvindan 800 yil avval tabiiy tanlanish qonuniyatini kashf etgan.

Beruniy hindlarning mavjudotlarga bag'ishlangan kitoblarini o'rganadi va oqibatda u asarlardan durusti bo'lmish Barohamihiraning "Jotika" degan kitobini sanskrit tilidan arabchaga tarjima qilganini yozadi.

Shunisi e'tiborga molikki, Beruniy "Hindiston" asarida "Vasudeva to'g'risida va Bxarata urushlari" deb nomlangan 47-bobida xalq poetik ijodi mahsullari bo'lgan doston, eposlarida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tasvirlangan voqealar va shaxslarni ham tarixiy jihatdan holis-ilmiy metodologiya asosida tekshiradi va tahlil qiladi. Beruniy fikricha, agar er yuzini bir xil mevasiz daraxt yoki bir xil erkak yoki urg'ochi hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin joy qolmaydi. Shu sababli dehqonlar ekinlarini o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydi. Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay, kuvadagi asalni bekorga yeb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi. Beruniy fikricha, dehqon yoki bog'bon kabi, tabiatning o'zi ham xuddi mana shunday ish qiladi. Beruniy o'z fikrini bunday rivojlantiradi: "Lekin tabiat yaxshini yomondan ayirmasdan, hammasiga bir xilda ta'sir qilishi orqasida daraxtning barglarini to'kib, meva qilishdan qoldirib, quritadi. Dunyo ham shunga o'xshashdir. Qachon xalqlarning ko'payishi bilan va axloqiy, ma'naviy tanazzul, inqiroz sababli dunyo buzilsa, yoki buzilishga yaqin yetsa, dunyo va undagi bor narsalarni saqlaguvchi, uning har bo'lagiga marhamati umumiy teng bo'lgan, tadbirkor Xudo ko'pchilikni kamaytiradigan, va hamma yomonlik ildizini tagidan qirqadigan bir zotni yuboradi". [5]

Beruniyning fikricha, avval minerallar, o'simliklar, hayvonlar va odamlar tadrijiy rivojlanib, mukammallikka erishadi. Shu sababli ular o'zida tabiatni aks ettiradi. Bu rivojlanishning eng yuqori cho'qqisida inson turadi. Dunyo hayoti ekin ekish va nasl qoldirishdan iborat. Shu sababli ikkala jarayon vaqt o'tishi bilan rivojlanadi, kuchayadi va bu o'sish cheksizdir, ammo dunyo cheklangan, deb hisoblaydi. Beruniyning tadrijiy rivojlanish haqidagi qarashlari uning diniy-falsafiy qarashlari bilan uyg'unlashib boradi.

Beruniy "Hindiston" asarining "Qutb va unga oid xabarlar" deb atalgan 22-bobida bunday hind afsonasini keltiradi: Barohim odamlarni vujudga keltirishni istaganida, o'zini, ikkiga bo'lgan. O'ng tomonining ismi Viroj va so'l tomonining ismi Manu bo'lgan. E'tibor bersangiz, qadimgi hindlar birinchi inson – odam ato o'rniga ikkita odamning ismini aytadilar. Nima uchundir, hind mifalogiyasida Viroj qolib ketib, yerdagi barcha odamlarning bobokaloni Manu deb hisoblanadi. Manunining ikki o'g'li bo'lib, biri Priyor-bota, ikkinchisi-cho'loq podshoh Uttonapoda ekan. Shu podshohning Dhruba ismli o'g'li bo'lgan. Dhruba-o'gay onasi tomonidan xo'rlangani evaziga "mukofot" tarzida Oliy Tangri unga osmondagi barcha yoritgichlarni aylantirish qudratini bergan."Qadimgi hindlarda mangu yashagan ming yillik manvantara deb ataladi. Keyingi uzoq davrlar ham ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi manvantaralar deb yuritiladi. Hindalar Manuning ikkinchi o'g'li shoh Uttonapodaning o'g'li Dhrubani (ya'ni Manuning nabirasini) qadimgi hindlar Qutb yulduzi deb ataydilar, u o'z atrofidagi barcha yulduzlarni aylantiradi, deb tasavvur qilganlar. Yerdan qaraganda osmondagi barcha yulduzlarni va yulduz burjlarini bir o'q atrofida aylantiruvchi Qutb yulduzining etti o'rtog'i bo'lib, Yetti qaroqchi yulduzlar to'plamidir. Qutb yulduzini turli xalqlar turlicha ataydilar (Katta ayiq va kichik ayiq. Qutb yulduzi mana shu Kichik ayiq to'plamida. Bu to'plamni Cho'mich yulduzlari deb ham ataydilar". [6]

Qadimgi hindlar miflari, asotirlarida bu halqning yuksak rivojlangan poetik ijodi, badiy-estetik tafakkuri maxsullaridan biri bo'lgan quyidagi afsonada olamning tuzulishi haqidagi kosmogonik tasavvur bilan birga ilmi hikmat sohiblari-avliyo, zohidlarning martabasi, izzat – hurmati benihoya yuksak bo'lganini anglash mumkin. «Hindlarning Sumadattha nomli podshohi bo'lib (Bu ismga o'xshash jug'rofiy manzil-Sumanatha nomli poytaxt-shahar va uning asosiy sajdagohi, buti-sanami haqida Beruniy boshqa bir o'rinda fikr bildiradi), u yaxshi amallari sababli jannatga kirishga haqli bo'lgan, lekin bu dunyodan ko'chganida badanining ruhidan ajralib qolishiga ko'ngli rozi bo'lmagan.Shunda u Vasshitha ismli rishi-zohidning oldiga borib, o'z badanini sevishini va undan ajrashni istamasligini bildirgan». Ya'ni, bu podshoh narigi dunyoga badani

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bilan birga ketmoqchi bo'lgan Zohid Vasishtha unga tuproqdan bo'lgan badanini jannatga olib borishi yaxshi emasligini tushuntirgan. Podshoh Sunadattha zohid Vasishthaning avlodlari, shogirdlariga shu iltimos bilan murojaat qilgan. Bular podshohni masxara qilib, yuziga tuflashgan. Uni jazolab, ikki qulog'iga zirak taqilgan chandalaga (buzoqqa) aylantirib qo'yganlar. Podshoh shu holatda Vishvo-mitra degan juda kuchli zohidga uchragan. Zohid o'sha podshoh ning bu holatiga achinib, sababini so'raganida, u boshidan kechirganini, orzu, tilagini aytib bergan. Shunda zohid zohid Vasishthaning va uning avlodlari bo'lgan zohidlarini, brahmanlarni o'z huzuriga chaqirgan. Zohid Vishvomitra brahmanlarga qarab: «Men shu yaxshi podshoh istagiga etishi uchun boshqa olam va boshqa jannat yasamoqchiman» deb, osmondagi janubiy qutbni vajanubdagi yetti qaroqchi yulduzlar burjini yasay boshlagan. Farishtalar va ularning boshlig'i Indra bundan qo'rqishib Vishvo-mitraning oldiga kelib, bu ishni to'xtatishini so'raganlar va podshoh Sumadattani badani bilan jannatga olib boramiz deb va'da berganlar. Shunda haligi zohid ikkinchi olam yasashni to'xtatgan. Lekin o'sha vaqtgacha ishlangani qolavergan.

Muallif tomonidan "Sabablarining sababi" – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo'yilishi diqqatga sazovardir. Uningcha, "Qadimgi tarixlarining eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir" . Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining vujudga kelishi haqida aqliy dalillariga tayanganlini ko'ramiz. Beruniy insonlar o'rtasidagi tafovut haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to'g'risida fikr yuritgan. Lekin, kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumuiydir. U inson va maymun o'rtasida o'xshashlik borligini qayd etadi.

Beruniy "Hindiston" asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o'rtasidagi farqlarini tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog'liq degan fikrni ilgari suradi, geografik omilning rolini tahlil ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog'liq deb qaraydi. Uningcha, «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab – odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishidir. Asar muallifi ijtimoiy hayot o'ziga xos "Shartnoma" asosida tuzilganligini e'tirof etadi. Inson o'z ehtiyojlarini tushunib o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shu o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi ,,shartnoma" tuzishga kirishadi.

"Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir". [7] Beruniy fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash inson hayoti va ijtimoiy holatini belgilaydi. Beruniy inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim o'ylashi kerak deydi, va shunday yozadi : "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir". [8] Bu fikrni davom ettirib, insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi. Binobarin, U insonning maqsad va vazifalari har xil bo'lgach, san'at va hunar ham turlicha bo'la boshlaydi deb hisoblaydi. Bu esa mehnatning taqsimlanishiga olib keladi degan fikrni olg'a suradi.

Xulosalar

Musulmon olamida evolyutsion qarashlarga ega islom faylasuflarining aksariyati maymun keyinchalik pastroq toifadagi varvarlar to'dasining kelib chiqishiga olib kelgan deb

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tushuntirishgan. Bundan tashqari, har bir musulmon olimi evolyutsiya va barcha o'zgarishlarda e'tiqodini ustun qo'yadi.

Miskavayh va Beruniyning bu boradagi qarashlari ham shu qarashlarga juda yaqin.

Miskavayhning evolyutsoin qarashlarini uning "Tahzibul axloq" va "Al-fayzul asg'ar" asarlarida ko'rishimiz mumkin. Olimning "Al-fayzul asg'ar" asari arabcha qo'lyozmalari XIX asrdan Evropa Universitetlarida o'qitila boshladi.

X-XI (hij. IV-V) asrdagi ko'pgina zamondoshlari kabi Ibn Miskavayh falsafasi ekletik xarakterda bo'lib, uning fikrlari ham arab tiliga yunonchadan tarjima qilingan turli xillikka asoslanadi. Aslida u e'tiborini aynan islom dunyosidagi muammolarga qaratsada, falsafani isloh qilishda dindan uncha foydalanmaydi. Uning qarashlarida moddiyunchilik ustunlik qiladi.Shu tufayli u faqat musulmon o'lkalarida emas, Evropada ham mashhur bo'lgan.

Shuni inobatga olish kerakki, Beruniyning tadrijiy rivojlanish to'g'risidagi qarashlari asosan "Hindiston" asarida keltirilgan. Bunga yuqorida aytib o'tganimizdek, olimning sanskrit tilini puxta o'zlashtirganligi, hind madaniyati, adabiyotiga qiziqqanligi, va o'rganganligi sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, hind madaniyati va diniy-falsafiy qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblangan ijtimoiy tabaqalanish, uning kelib chiqishi haqidagi diniy tasavvurlar ham faylasufning evolyutsion qarashlariga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Yurtimizda Abu Rayhon Beruniy ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining bir guruh olimlari tomonidan "Abu Rayhon Beruniy kitoblari" ning yangi nashri keng ommaga taqdim qilindi. Bu esa buyuk mutafakkir va qomusiy olim tavalludining 1050-yillik yubileyiga shubhasiz munosib sovg'a bo'ldi deyish mumkin.

References.

1. مسكويه ابو على. الفوز الاصغار. –بيروت، هـ. ١٣١٩.// Miskavayh, Abu Ali. Al-fuzul al-asg'ar. –Bayrut. 1319 hijriy yil. (arab tilida)
2. Abdul Aziz Izzat. Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari. Qohira, 1946 y.- S.385
3. Abdul Aziz Izzat. Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari. Qohira, 1946 y.- S.387
4. Rainow 1943, cited by Wilczynski 1959, p. 459.
5. Irisov.A. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari. Beruniy .Tanlangan asarlar. II tom. T. "Fan", 1965. 301-bet.
6. Irisov.A. Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asari. Beruniy .Tanlangan asarlar. II tom. T. "Fan", 1965. 253-bet.
7. Abdullaev.I. Beruniy va uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari. Beruniy .Tanlangan asarlar, I tom. T. "Fan", 1968.
8. Abu Rayhon Beruniy Geodeziya. T , ,, Fan" ,1966, 83-b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

УДК: 1(09)

К ВОПРОСУ О ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ПОКОЛЕНИЙ В ФИЛОСОФИИ АЛИШЕРА НАВОИ

Меликова Мартаба Нумоновна
Самаркандский государственный институт иностранных языков,
доктор философских наук (DSc), доцент, заведующая кафедрой Гуманитарных наук и информационных технологий
E-mail: martabamelikova@gmail.com

Аннотация: *в данной статье рассматриваются проблемы преемственности поколений в философских взглядах Алишера Навои, которые нашли свое отражение в трудах великого поэта и мыслителя. В статье анализируются взгляды поэта на самопознание, цель жизни, его концепция самосознания личности, стремление к совершенству.*

Ключевые слова: *преемственность поколений, поиски истины, бог, истина, познание, самопознание, самосовершенствование.*

ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA AVLODLAR DAVOMIYLIGI MASALASIGA

Melikova Martaba Numonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent, Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri
E-mail: martabamelikova@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir ijodida o‘z ifodasini topgan Alisher Navoiy falsafiy qarashlaridagi avlodlar davomiyligi muammolari ko‘rib chiqiladi. Maqolada shoirning o‘z-o‘zini bilish haqidagi qarashlari, hayotdan maqsad-muddaosi, shaxsiy o‘zlikni anglash tushunchasi, kamolotga intilishi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *avlodlar davomiyligi, haqiqatni izlash, Xudo, haqiqat, bilim, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini takomillashtirish.*

TO THE QUESTION OF THE CONTINUITY OF GENERATIONS IN THE PHILOSOPHY OF ALISHER NAVOI

Melikova Martaba Numonovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor, Head of the Department of Humanities and Information Technology
E-mail: martabamelikova@gmail.com

Abstract: *this article examines the problems of continuity of generations in the philosophical views of Alisher Navoi, which are reflected in the works of the great poet and thinker. The article analyzes the poet's views on self-knowledge, the purpose of life, his concept of personal self-awareness, and the desire for perfection.*

Key words: *continuity of generations, search for truth, God, truth, knowledge, self-knowledge, self-improvement.*

Введение

Проблема преемственности поколений лежит в основе развития мира. Нельзя не в коей мере быть уверенным в том, что человек совершил что-то новое не имея базы данных, почерпанных из знаний предыдущих поколений. Проблема преемственности в средневековой философии взаимосвязана с понятиями традиции и новизны, креативности в мышлении.

Когда дело доходит до исследования средневековой философии, которая стала основанием для формирования философских идей Алишера Навои, то нельзя не отметить, что его взгляды впитали в себя те великие идеи, которые пропагандировались в трудах Газзали, Аттара, Накшбанди, Джами и многих других мыслителей того периода.

Обзор литературы

В автобиографических сведениях, которые приводит Алишер Навои в своих работах, можно заметить каково было воздействие на ум еще совсем юного мыслителя труда Фараддидина Аттара “Мантик ут тайр”, который настолько потряс ум молодого человека, что он чуть не решился отречься от всего мирского, и не случайно одним из его псевдонимов позже становится “Фано”, то есть отречение [4].

Что касается взглядов Фараддина Аттара, то его творческая деятельность датируется XII веком, хотя абсолютно точных сведений о его жизни в исследованиях нет. Одним из первых трудов Аттара является “Поминания святых”, а самым популярным трактат “Мантик ут тайр”. Родом Аттар был из города Нишапура, который во времена мыслителя был одним из центральных очагов тасаввуфа. Аттар был сведущ в медицине и фармацевтике, имел знания в области литературы, религии и философии.

Методология исследования

В данном исследовании были использованы такие методы и средства научного познания, как анализ и синтез, комплексный и системный анализ, герменевтический подход и экзистенциональный метод познания, сравнение концептуальных теорий.

Анализ и результаты исследования

Аттар вступил на путь суфийского познания, но нет точных сведений относительно того, к какой суфийской общине он принадлежал. Есть данные, согласно которым он лично был знаком с наставником ордена Кубравия Маджаддином Багдади [1]. Некоторые же исследователи, ссылаясь на Г.Риттера, утверждают, что он совсем и не был суфием, так как в своем труде “Поминания святых” утверждает, что он и близко не может стоят рядом с великими суфиями того времени. И все же мы согласны с доводами других исследователей, склонных относить Аттара к великим суфиям, написавшим не менее великие труды.

По разным сведениям им написано немало трудов, количество которых разнится от 30 до 114 [13, 25]. Для нас наиболее важными являются поэмы философско-этического характера “Книга тайн”, “Язык птиц”, “Книга о божественном” и “Книга о печали”.

Наиболее ярко философские и гносеологические взгляды Аттара проявились в его поэме “Язык птиц”, которая по сведениям самого автора была написана около 1178 года [13, 25]. Его поэма была навеяна похожими трудами Газзали и Ибн Сины.

Поэма “Язык птиц” преследовала собой цель разрешению философской проблемы о единстве бытия в тасаввуфе - вахдат ал-вужуд. Аттаром была поставлена задача, которая детально разрешается на протяжении всей поэмы [7, 75]. Основная идея поэмы заключается в аллегорическом описании странствии птиц к Абсолюту, детальном

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

исследовании экзистенциалов человеческой души на протяжении всего пути познания. Эта поэма носит вполне понятный философский смысл, где ключевым вопросом является проблема истины, а суть поэмы заключена в развитии концепции тасаввуфа о пути к истине [7, 75].

Главным исходным моментом трактата Аттара является поиск истины. И данная проблема выбрана не сучайно. Истоки проблемы истины заложены в философии ислама. Истина является фундаментальным понятием, охватывая все уровни философских знаний [8; 10].

В философии тасаввуфа проблема познания и истины формируется по мере эволюции данного течения. Исследователь И.Р.Насыров определяет два этапа в развитии тасаввуфа [11,11], к раннему периоду которого относятся идеи Бистами и Халладжа и поздний период, который связан с развитием концепции растворения в Боге - фана, то есть растворение человеческой сущности с Абсолютом. Второй этап характеризуется зрелыми философскими идеями [9, 123-127; 127-160], представленными учением единства бытия - вахдат ал-вужуд, которое оформилось в идеях Ибн Аль Араби [12].

Конечно же Аттару были близки идеи Бистами, Халладжа и Газали, возможно он имел влияние на становление мировоззрения Ибн Араби [2, 4]. Онтология мироздания как системы Мир - Бог была выражена Аттаром посредством поэтического языка, а позднее ее как целостную философскую систему сумел выразить Ибн Араби.

В поэме “Мантик ут-тайр” Аттар использует двухсмысловые уровни фраз, содержащие явный и скрытый смысл, зеркально отражающие друг друга в зависимости, от того, какой смысл вкладывается в них. Отправной точкой повествования Аттара является суета, стремление к славе, власти, которые мешают самосозерцанию, самоанализу личности. И когда душа-птица осознает это состояние, она стремится в путь, чтобы пройти духовное странствие, за семь долин, пройдя которые душа обретет покой и соединится со своим владыкой - Богом. Обрести это счастье познания можно преодолев гору Каф, выражающей предел мира, где находится Симург, то еть Бог, который находится за пределами мира [6, 154-268; 280-338]. Исходя из этого Аттар утверждает, что Бог трансцедентен миру.

Бог Аттара и близок, и далек от всех, что означает, что он рядом с нами, но познать его не всегда в силах человека. Бога Аттар ставит на вершину горы, тем самым полагая, что Бог - абсолютный источник всего в мире, несоизмеримый с миром. Бог в образе Симурга обладает такими качествами, как вечность, всемогущество, красота и совершенство [5].

Посредством образ Симурга как царя птиц, Аттар выражает суфийскую концепцию пути к познанию-Богу, в основе которого лежит представление, что на пути к познанию Бога необходимо пройти череду стоянок, которая укрепляет веру и дух путника-суфия, то есть тарикат. Суфийский путь познания Бога Аттар подразделяет на семь ступеней-макамов, которые выражены посредством семи долин, которые необходимо преодолеть путнику.

Название первой долины - талаб у Аттара возникает вследствие такого душевного состояния, когда человек пытается встать на путь поиска истины, которая отличается от первой ступени суфийского познания - тавба, что означает покаяние, решение человека избавиться от состояния принебрежения Богом, всецело встав на путь Бога [11, 263].

Состояние искания подразумевает долгий процесс борьбы со своим естеством, причем это внутренние трансформации должны быть обусловлены внешними физическими. Они в свою очередь требуют от суфия избавления от всего того, что может сдерживать их порыв, то есть имущества, привязанностей. После избавления от всего мирского у суфия наступит

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

внутреннее очищение, когда душа избавится от внешних воздействий и состояний тревоги и сможет с готовностью воспринять и отразить свет божественной истины. Искание бога ведет за собой возникновение состояния страстного томления по Господу, которое выражается у Аттара понятиями мотылек и огонь, очень развитое в суфийской литературе. Это состояние души человека, когда она стремится раствориться (самоуничтожиться) в Боге, то есть фана.

Следующая долина, которую необходимо преодолеть на пути к истине, является долина любви, в которой человек всецело сгорает, которая помогает суфию абстрагироваться от всего мира, что помогает ему дойти до сути акциденций вера-неверие, сомнение-уверенность, добро-зло.

Для того, чтобы соединиться с Богом, познать истину Аттар ставит условие, которое предполагает наличие у человека чистого сердца (души), способного для постижения истин бытия уничтожить свою самостность, и лишь тогда в сердце-зеркале он сможеть увидеть Бога.

Особое место в познании принадлежит чувству любви, страсти, которое у Аттара является особым состоянием души [13, 63]. Чтобы познать истину, человеку необходимо ощутить это состояние, пройти путь через эту долину, чтобы заставить сердце гореть ярким пламенем. Если сердце не познает любви, не будет охвачено пламенем любви, то тогда он не сможет радости высшей божественной любви. Экзистенциал любви по Аттару позволяет видеть мир по другому, во всем его единстве и многообразии.

Долина познания - маърифат позволяет путнику обрести знания, познать природу знания, в котором нет никаких границ, где каждый выбирает свой путь, не схожий с другими. Познание истинное по своей природе позволяет погрузиться вглубь себя, познать совершенную душу, ориентируясь на внутренне состояние. Аттар не ставит в оппозицию душу и тело человека. Слабый путник у Аттара представлен пауком, а более сильный в образе слона. По мнению Аттара путник должен странствовать до тех пор, пока не достигнет совершенства его душа, то есть самопознания. Индикатором истинности знаний, обретенных человеком является способность увидеть соотношение мира и бога как явное и скрытое. Знания по Аттару подобно солнцу, которое освещает дорогу познающему, выводя его из тьмы заблуждений. Благодаря этому познающий становится зрячим, достигая высокой степени совершенства, ступая по пути, соотвествующему его уровню познавательных способностей.

Аттар показывает отношение Бога и мира как источник познания, используя такие философские категории, как форма и содержание, общее и единичное. Он в качестве соотнесение Бога и мира сравнивает их со скорлупой и ядром, соотносящиеся как явное и скрытое знание. Благодаря тем знаниям, которые обретает человек, он может воспринимать бога как скрытое для мира. Все что есть вокруг, это лишь скорлупа, а ядром всего является Абсолют. Знание по мнению Аттара могут обрести многие, но лишь единицы смогут дойти до такого состояния познания, когда с лика мира спадает занавесь, за которой скрываются его тайны.

Путь к истине может одолеть лишь человек, имеющий качества совершенной личности - камил. Совершенному человеку предстоит нырнуть в пучины знаний, которые взаимосвязаны с непосредственным познанием, таким какое оно есть в действительности. И это состояние именуется созерцанием, вкушением или раскрытием [5, 277].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Анализ познания, постижения истины у Аттара позволяет прийти к выводу о том, что в процессе познания человек должен пройти все стадии постижения истины, которые способствуют трансформации состояния души человека. Долины в трудах Аттара свидетельствуют о состояниях души, которые необходимы для понимания соотношения Бог и мир, то есть такова онтологическая сущность бытия. Хотя Аттар в своем трактате о путешествиях по долинам в поисках истины подробно описывает все долины, нигде он не упоминает, что в мире все иерархично.

Выводы

Анализируя пути познания Аттара, необходимо указать, что мыслитель пытается разрешить главный вопрос средневековой мусульманской философии - транцедентного и одновременно имманентного отношения Бога к миру.

Бог по Аттару является зеркальным по отношению познающего. Бог олицетворяется у Аттара через Симурга как божественную реальность, которая символизирует истинную суть человека. Посредством образа зеркала у Аттара решается одновременно проблема трансцедентальности и имманентности Бога по отношению к миру как утверждение процессуального состояния Бог-мир. Познание птицами Симурга как в зеркале самого себя и Симурга вне самих себя является процессом непрерывного познания, носящего гносеологический характер (знание как познание), а также с другой стороны отражая принцип онтологии мироздания. Миропорядок, представленный посредством Симурга и птиц, выстраиваются горизонтальным образом, не иерахически, служа одновременно основанием для существования друг друга. Соотношение тридцати птиц и Симурга, которое в визуальном отношении является идентичным отражает сущность концепции единства бытия - вахдат ал-вужуд, которой придерживался Аттар.

Литература

1. Attar and the Persian Sufi Tradition the art of spiritual flight/edited by Leonard Lewisohn and Christopher Shackle. London, New York I B Tauns, London in association with the institute of Ismaili Studies, 2006, p XIX
2. Mack B. Ibn Arabi's Universal Tree and the Four Birds. African and African American Studies Faculty. "Tree of Life" Colloquium, Spring 2008, p. 4.
3. Persian Literature: A Bio-bibliographical Survey: Volume V, Poetry of the Pre-Mongol Period by Francois de Blois, Second, Revised edition, Routledge, 2004, p. 240.
4. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т VIII. Т. 1968. 344 с.
5. Аттар Фарид ад-Дин Мухаммад. Логика птиц. Пер. с персидского. М. Номос. 2009. 210 с.
6. Бертельс А.Е. Художественный образ в искусстве Ирана IX-XV вв. (Слово, изображение). М. Вост. Лит-ра РАН.1997. с. 154-268; 280-338.
7. Бертельс Е.Э. Основные линии развития суфийской дидактической поэмы в Иране // Суфизм и суфийская литература. Избранные труды. М., 1965, с. 75.
8. Исаева З.Р. Тасаввуф таълимотида валийлик тушунчасининг диний-фалсафий талқини (Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат” асари асосида). Фалс. Фанлари номзоди. Дисс.ДЖҚА. - Тошкент, 2007. - 244 б.;
9. Маматов М.А. Сущность суфизма. Уфа. Изд-во БГПУ. 2011. с.123-127; 127-160.
10. Мухаммедходжаев А. Гносеология суфизма. Душанбе. Дониш. 1990. 116 с.; Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Вахдат ул-вужуд проблемаси бўйича). Фил. фанлари докт. диссерт. - Тошкент, - 295 б.;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

11. Насыров И.Р. Основания исламского мистицизма: генезис и эволюция / И. Р. Насыров. Российская акад. наук, Ин-т философии. - 2-е изд. - М. Языки славянских культур, 2012. 552 с. с.11.
12. Холмўминов Ж.М. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг Нақшбандия таълимотига таъсири (Ибн ал-Арабий, Муҳаммад Порсо ва Абдураҳмон Жомий қарашлари асосида). Фалсафа доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент -2020 64 б.
13. Федорова Ю.Е. Проблема истины в философской поэме Фарададина Аттара «Язык птиц». Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. М. 2012. 140 с. С.63.

YOSHLARNING IJTIMOIY TARMOQLARGA TOBELIGINI OLDINI OLISHDA AXLOQIY MA'RIFATNING O'RNI

Abduxolikova Nasiba Alijonovna
Namangan davlat chet tillar instituti
v/b dotsenti falsafa
fanlari doktori PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida axloqiy ma'rifatning moxiyat va mazmuni muammolari yoritb berilgan, maqola yoshlarning axborotga bo'lgan extiyojining dinamik o'sishidan, internet tobeligidan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni falsafiy tahliliga bag'ishlangan.*

Kalit so'lar: *Ma'naviyat va ma'rifat, Axloqiy ma'rifat Pedagogikasi, yoshlar ma'rifiy tarbiyasi, internet –komunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlarga tobelik.*

Аннотация: *Это статыя посвящена проблемам сущности и содержании нравственного просвешения молодежи в системе высщего образования. . В этой связи в статья посвящена философского анализа динамичного роста в потребности к информации молодежи, что переходит от Интернет зависимости к зависимости социальным сетьям.*

Ключевые слова: *духовность и просвещение, педагогика нравственного просвещения, воспитания, молодежи Интернет-коммуникация, зависимость от социальных сетей,*

Annotation: *This article is devoted to the problems of the essence and content of moral edukation of young peoplein higher education. In this regard, the article is devoted to the philosophical analysis of the dynamic growth in the need for information of young people, which is moving from Internet addiction to addiction to social networks*

Key words: *spirituality and enlightenment pedagogy of moral education, education of enlightenment of youth. Internet communication, addiction to social networks*

Kirish

Inson hayotining har bir bosqichi muhimdir. Mazkur muhim bosqichlar ichida umrining yoshlik bosqichi alohida ahamyatga egadir. Yoshlik inson umrining eng nozik davri hisoblanadi. Shu bilan birga yoshlik davri insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar o'sha chorrahada inson yaxshi yo'lga kirib qolsa, o'zi, oilasi, qarindoshlari, xalqi,vatani sari juda katta yuz burgan bo'ladi. [1.b. 253] Bundan kelib chiqib biz pedagoglar zimmasida ulkan ma'sulyatli vazifa turganligini his etmog'imiz kerak. Bu ma'sulyatli vazifa shundan iboratki,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yurtimiz kelajagi uchun har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab bermog'imiz va bugungi globallashuv sharoitida ularning axloqiy ma'rifatini o'stirishga bor kuch g'ayratimizni sarf etmog'imiz kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Yoshlar axloqiy ma'rifati haqida so'z borar ekan, avvalo axloq so'zining ma'no mazmuniga etibor beradigan bo'lsak,ahloq, jamiyat,zamon,insoniyat tarixi uchun namuna bo'ladigan harakatlar yig'indisidir. Zero yoshlarning axloqi va axloqiy ma'rifati masalasi o'zbek xalqining ulug' muttafakiri ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiyni ijodini ham chetlab o'tmadi. U yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida etibor berdi va shu bilan birga ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aqil, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir deb hisobladi. Navoiy ,ilm fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astiydil o'qish – o'rganish kerak deya takidlaydi. Alisher Navoiyning axloqiy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm ma'rifat , axloq - odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy falsafiy va didaktik asrlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm fanning fazilati juda katta deb hisoblaydi.Uning "Hayrat ul - abror"asarini bir necha boblari axloq-odob va ta'lim tarbiya masalasiga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma'rifat tushunchasiga to'xtalib o'tar ekanmiz bu so'zning lug'aviy ma'nosi bilish, bilim, ma'lumot , tanish, tanishish ma'nolarini bildiradi. Umuman uning lug'aviy ma'nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli tuman bilimlar ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Marifatli degani bilimli, muayan soxada bilimi bor degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zimmasidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimi, madaniyati oshishiga qaratilgan ta'lim tarbiyaga ham ma'rifat deb qaraladi. Bu so'z ilm-u-urfon ma'nolarida ishlatiladi. Marifat xaqida so'z borar ekan u kishilarning ong bilimini va axloqini oshirishga qaratilgan talim tarbiya morifihamdir.

Muorif – umumiy - o'rta, O'rta maxsus va oily o'quv yurtlarini qamrab oladi Marifat tushunchasi kengroq bo'lib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma sohalarini o'zida uyushtiradi. Marifat haqida nemis faylasufi Imonuel Kant shunay deydi: "Marifat bu insonning o'zi sababchi bo'lgan qaramlik xolatidan chiqishidir. Qaramlik holati bu boshqasining yordamisiz o'z ongidan foydalana olmaslikdir. Qaramlik holatining sababchisi o'zimiz bo'lamiz. CHunki bu holat ongimizning yetishmasligidan emas balki bu ongimizdan boshqasisining yordamisiz foydalanishga qarorliligimiz jur'atimiz yetishmasligidan kelib chiqadi.'' Demak marifat shunday qudratli kuchki u insonlarga jur'at qati'at va har qanday xolatda ham mustaqil qaror qabul qilish kuchini beradi. Ma'rifat va axloq tushunchalari o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, bu bog'liqlik shundaki bu ikki tushunchaga ijtimoiy hodisa sifatida qarasak doimo bir birini taqazo qilib keluvchi hodisalardir, axloqiy me'yorlarsiz marifatga erishib bo'lmaganidek ma'rifatsiz axloqiy meyorlarga erishib bo'lmaydi . Chunki inson ilim marifatni egallash yo'lida axloqiy sifatlarga ega bo'lmas ekan o'zi egallagan bilimi bilan jamiyat rivoji uchun foyda o'rniga zarar keltirishi mumkin.

Axloqiy ma'rifat hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan ijtimoiy hodisadir. Faqat zulum va zo'ravonlikka adolatsizlik va huquqsizlikka asoslangan totalitar tuzumlardagina yolg'onga bo'ysindirilgan, sohtalashtirilgan hamda shu yo'l bilan uning axamyati pasaytirildi. Bunga misol qilib sobiq SHo'ro davrida xalqimiz ma'naviyatiga shu

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

jumladan axloqiy ma'rifatiga qilingan turli tahdidlar uning axloqiy ma'rifatining birmuncha pasayganligini kuzatishimiz mumkin. Lekin shunday murakkab sharoitda xalqimiz ichidan yetishib chiqqan marifatparvarlarimiz shu jumladan: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdurauf Fitratlar "Huriyat", "Musuvat", "Adolat" kabi g'oyalari asosida xalqimiz ma'rifatini oshirishga o'z hissalarini qo'shdi.

Natijalar bo'limi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi sharofati bilan yana axloqiy marifat yangi jamiyatda tobora o'z yuksak mavqeini egallab bormoqda. Shu o'rinda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning quydagi qimmatli fikrini keltirishimiz joiz Aslini olganda, "axloq – ma'naviyatning o'zagi" "Inson axloqi shunchaki salomatlik , xushmomilalikdangina iborat emas. Axloq – bu , avvalo , insof va adolat tuyg'usi, iymon halolik degani" [2,b.127]. Bu fikrlar bir tomondan eski tuzumdan qolgan axloqsizlik ko'rinishlariga loqayd qarovchilariga va axloqni yengil yelpi ikkinchi darajali masala sifatida tushunuvchilariga adolatli zarba bo'lsa , ikkinchi tomondan axloq va axloqiy ma'rifatni yangi jamiyatimizdagi ulkan mavqeyini hamda ularning jiddiy ijtimoiy hodisa sifatida talqin etishni taqozo etadi.Ana shunday yangilanish jarayonida axloqiy tarbiyani o'z o'rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqorolarining, ayniqsa ,yoshlarning axloqiy darajasiga ma'sullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyash zarurati ulkan vazifa bo'lib turibdi. Shunday ulkan vazifani amalga oshirish borasida yurtimizda mustaqillik davridan to bugungi kungacha ta'lim soxasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan mustaqilligimizning dastlabki yillarida qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayorlash milliy dasturi kabi qonunlarning qabul qilinishining tub zamirida xam yoshlarimizni ta'lim tarbiyaga yo'naltirish va barkamol shaxs qilib tarbiyalash zaruriyati yotadi. Qolaversa O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati o'z mohiyatiga ko'ra davlatning marifatparvarlik faoliyatini nazarda tutgan xolda kadrlar tayorlash milliy dasturi va "ta'lim to'g'risida"gi qonunni amalga oshirishning eng samarali yo'llarini izlab topishdir. Ta'limni barcha bo'g'inlarida yoshlarning fe'l atvori, ayniqsa odobi, ya'ni salom alik qilishi va xushmuomilasi zamonaviy tarbiyaviy jarayonda xal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Mazkur muammoning kundan kunga murkkablashib borishini O'zbekiston respublikasi "Oila" markazi ma'lumotlarida kuzatish mumkin. Markaz 2017-yilda 20 mingdan ortiq jinoyat voyaga yetmagan yoshlar, jumladan 310 nafari maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilganini alohida takidlab o'tgan. Mutahasislar fikricha, 769 holatda maktab o'quvchilrining xuquqbuzarlik va bezoriligining oldini olish bilan bog'liq talablar bajarilmagan.[4,b5]

Munozara bo'limi

Yoshlarimiz orasida yuzaga kelayotgan bunday ayanchli holatning yana bir sababi bu yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligidir. Chunki ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa o'smir yoshlarga ma'naviy va psixalagik jihatdan kuchli ta'sir etadi. O'smirlarda ijtimoiy taroqlarga mukkasidan ketish va virtual olamga moyilligi oqibatida odamovilik jizzakilik va asabiylik vujudga keladi. Demak bundan ko'rimnib turibdiki yoshlarimizning xuquqbuzarlik va jinoyat ko'chalariga kirib qolishiga sabab inson ongi va qalbi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazayotgan ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalgan axborot xurujlari sanaladi. Bugungi kunda yoshlarimizning 60-70% ijtimoiy tarmoqlrnig asiriga aylanib qolganligi haqida statistik ma'lumotlar berib o'tilgan bo'lib, ijtimoiy tarmoqning o'zi nima degan savol tug'uladi albatta. Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi 1971-yil birinchi elektron pochta xabarlari yuborilishi bilan bg'liqdir. Ijtimoiy tarmoq

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

masofadan internet orqali odamlar orasidagi online tanishuv hamda muloqotni ta'minlovchi a'zolarning turli hil shaxsiy ma'lumotlarini o'zini aks ettiruvchi internet tarmoqlariga (saytlariga) ijtimoiy tarmoqlar deyiladi. Misol uchun hozir dunyyoda keng tarqalgan "Facebook", "Odnoklassniki.ru", "Telegram", "Tik- Tok" Ijtimoiy tarmoqlar shular jumlasidandir. Olimlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar sizning hayotingizda qanday o'rin tutadi ? mavzusida 130 dan ortiq yoshlarimiz bilan so'rovnoma o'tkazilganda ulardan 32 foizi ushbu tarmoqlar do'stlar orttirish, maanfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni maqullagan bo'lsa, yana qolgan shuncha qismi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va ularning odob axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan.

Xulosa

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki bizning bosh maqsadimiz kelajagimiz bo'lmish yoshlarimizga sifatli ta'lim berish bilan birgalikda vatanparvarlik , insoniylik va xaqiqatparvarlik g'oyalarini singdirishdan iboratdir. Zero bu g'oyalar axloqiy marifatni negizini tashkil etadi. Shunday ekan ta'lim maskanlarining xar bir bosqichida yoshlarimizni axloqiy bilimlarini shakllantirishimiz va uni yanada kengaytirishimiz har qachongidanda dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda. Qolavwrsa yoshlarimizda mediamadaniyatni shaklntirish orqali ularni ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishlari uchun ularni axloqiy ma'rifatini boyitmog'imiz kerak. Zero ma'naviy barkamol intelektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O'zbekistonda balki butun jaxonda eng muhim vazifalardan biri sifatida nomoyon bo'lmoqda. Aynan ma'naviy barkamol avlod mamlakat kelajagini belgilab beradi. Ma'naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad yusuf " Ijtimoiy odoblar" Hilol nashir T: 2012 253-b
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch''.Manaviyat nashri T; 2008 127-bet
3. O'zbekiston Milliy entsiklopedyasi –T: O'zbekiston Milliy entsiklopedyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2003-540b
4. Oila davrasida. -№ 21 -2018 24 mart
5. Mamiroov S Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik// https://adolatgzt.uz/society/.5817 (Murojat muddati 18.05.2021)
6. Murodov Sh. O Проблемы обеспечения информационной безопасности Республики Узбекистан в условиях глобализации. –T Sharq, 2008-b.162
7. Nishanova G Audiovizul AOV yoshlar dunyoqaarashi va ma'naviyatiga ta'siri //O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining amalga oshirilishining dolzarb masalalari. Konf. mat-lari – T.: Ma'naviyat, 2013. –B. 296-298
8. Orzack M. Computer Addiction Services. 1996-2003// http://www.computer addiction.com (Мурожаат муддати 12.03.2021)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK: 517.958+1:316(575.1)

INSONDA KOMILLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING O‘RNI

Azimov Ulug’bek
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali dotsenti v.b. p.f.b.f.d.,(PhD)
azimovulugbek413@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida yoshlarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirib kelinayotganligi, qadriyatlar tizimining komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining asarlarida qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrlari, qadriyatlar tizimi asosida insonlarning tarbiya mezonlarini va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar:*Qadriyat, milliy qadriyatlar, aksiologik ong, qadriyatlar tizimi, umumbashariy qadriyatlar, aksiologik munosabat, milliy-ma’naviy meros, odob-axloq.*

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОВЕРШЕНСТВА ХАРАКТЕРА ЧЕЛОВЕКА

Доцент Ферганского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физическому воспитанию и спорту. (PhD)
azimovulugbek413@gmail.com

Аннотация: *В данной статье в нашей стране реализуются важные реформы в сфере развития духовно-нравственных качеств молодежи на основе богатого интеллектуального наследия народа и общечеловеческих ценностей, роль системы ценностей в воспитании совершенной личности. , о ценностях в трудах восточных и западных мыслителей.Дана информация об уточнении критериев и показателей образованности людей, исходя из их мышления и системы ценностей.*

Ключевые слова: *Ценность, национальные ценности, ценностное сознание, система ценностей, общечеловеческие ценности, ценностная установка, национально-духовное наследие, нравы.*

THE ROLE OF VALUES IN THE FORMATION OF PERFECT CHARACTERS IN A MAN

Associate Professor of the Fergana Branch of the Institute of Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists (PhD)
azimovulugbek413@gmail.com

Abstract: *In this article, important reforms are being implemented in our country in terms of developing the spiritual and moral qualities of young people based on the rich intellectual heritage of the people and universal values, the role of the value system in educating a perfect person, about values in the works of Eastern and Western thinkers. Information is given about clarifying the criteria and indicators of people’s education based on their thoughts and value system.*

Key words: *Value, national values, axiological consciousness, value system, universal values, axiological attitude, national-spiritual heritage, manners.*

Kirish

Jahon ijtimoiy hayotida yuz berayotgan global o‘zgarishlar yoshlar ongida borliqni asrab-avaylash, moddiy va ma’naviy ne’matlarni qadrlash tuyg‘usini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yoshlarda jamiyat hayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar, demokratik islohotlarga nisbatan aksiologik munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, nigilistik dunyoqarashni yo‘qotishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Umumiy aksiologik sistemada yoshlar dunyoqarashi bilan ijtimoiy sub’ektlarning voqelikka munosabatini qadrlash tuyg‘usi, qadriyatli munosabat va aksiologik baho belgilari yuzaga chiqmoqda. Aksiologik prinsiplar yoshlarning voqelikka munosabatlarini, bir-birlariga nisbatan o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi ma’naviy mezonlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyoda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilmoqda. Aksiologik ongning axloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy, kommunikativ asoslari, yoshlarda qadriyat tizimini rivojlantirishning axloqiy tarkibini takomillashtirish mezonlari o‘rganilmoqda. Yoshlarda shaxsiy va kasbiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning didaktik texnologiyalari (Parij-IX-Dofin universitetida) o‘rganilayotgan bo‘lsa, yosh kadrlarni tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar va an’analarga aksiologik munosabatni tarkib toptirishga doir maxsus kurs dasturlari (Toyo universitetida) ishlab chiqilmoqda.[1]

Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida yoshlarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy voqelikka aksiologik munosabatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-falsafiy yondashuvlapning keskin ravishda kuchayishiga olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e’tibor berishimiz zarur”[2]. Bu yoshlarda fuqarolik jamiyati sharoitida demokratik qadriyatlar tizimi asosida ularning tarbiya mezonlarini va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, demokratik islohotlarga aksiologik munosabatlarini rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Insonlarda aksiologik munosabatni yanada rivojlantirishni yuksaltirishdagi ahamiyatiga oid kontseptual g‘oyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev[3] ta’biri bilan aytganda, “hozirgi zamonda intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda yangi O‘zbekiston yoshlari – mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo‘lib maydonga chiqmoqda” [6] shu nuqtai nazardan demokratik islohotlarda ularning o‘zaro munosabatlari ijobiy tarafga o‘zgarayotganligida namoyon bo‘lmoqda.

G‘arb falsafasida qadriyatlar tizimi va voqelikka aksiologik munosabatga doir ilmiy-nazariy yondashuv va konseptsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, nigilistik yondashuv tarafdorlari F.Bekon, P.Dekart, L.Feyerbax, G.Leybnitslar, bir tomondan, oliy qadriyatlarning qadrsizlanganini e’tirof etsa, ikkinchi tomondan, “yangi qadriyatlar o‘rnatuvchi kuchlar” paydo bo‘lishini bashorat qilgan. F.Nitsshe “Hokimiyatga iroda. Barcha qadriyatlarni qayta baholash

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tajribasi" asarida G'arbiy Yevropa falsafasida, tafakkurida XIX asr oxirida yuzaga kelgan tushkunlik va ma'naviy tanglikni ifoda etadi. Uning ta'kidiga ko'ra, nigilizm bizning buyuk qadriyatlar va ideallarning oxirigacha o'ylangan mantig'idir. Shuning uchun G'arbiy Yevropa yaratgan qadriyatlarni nigilistik qayta ko'rib chiqish va "yangi qadriyatlar topish zarur bo'ladi"[4] M.Sheler "emotsional anglash", ya'ni his-tuyg'ular orqali bilishni alohida fenomen, qadriyat darajasida talqin etgan, mehr-muhabbatga yuksak qadriyat yaratuvchi fenomen sifatida qaragan.

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan buyuk mutafakkir alloma Forobiy ham qadriyatlar masalasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Uning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlari "Madina al-Fozila" risolasida o'z aksini topgan. Qadriyatlar masalasiga Beruniy asarlarida ham katta e'tibor qaratilgan. Uning fikricha, ma'naviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlapi, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi. O'rta asrlarda siyosiy qadriyatlarning rivojlanishida sohibqiron Amir Temurning xizmatlari alohida o'rin egallaydi. Buyuk mutafakkir Nizomiddin mir Alisher Navoiy ham o'z asarlarida qadriyatlar masalasiga inson manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan.

Xorijiy ijtimoiy fanlarda M. Kissel, E.Gartman, P.Lapi, F.Lottse, M.Rokich, R.Perri, MDH olimlaridan M.A Makarevich, M.S.Kagan, P.S Gurevichlar aksiologik ong va voqelikka qadriyatli munosabat yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Aksiologik munosabatni rivojlantirish ilmiy muammo sifatida mamlakatimizda Q.N.Nazarov, T.U.Abdullayev, N.Artikov, D.A.Gulyamova, P.Sh.Isaqova, M.A.Karimova, A.J.Muratbayeva, O.M.Muhammadiyeva, M.A.Nurmatova, A.Nurov, N.E.Temirova, T.T.To'ychiyeva, O.T.Sharipova, F.X.Yuldasheva, A.A.Qambarov kabi tadqiqotchi faylasuf olimlar tomonidan o'rganilgan Ular qadriyatlarga pozitiv voqelik sifatida qarash va ulardan milliy-ma'naviy merosni qayta tiklash, barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalasi, ya'ni O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasini mustahkamlash omili sifatida qarash g'oyasini ilgari surganlar.

Yoshlarda aksiologik munosabatni rivojlantirishning falsafiy asoslari A.Begmatov, M.Bekmuradov, V.Kanke, J.Kim, M.Kaxxarova, Q.Nazarov, N.Rozov, I.Surina, J.Tulenov, E.Yusupovlar tomonidan tadqiq etilgan

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu jamiyat oldida turgan muammolarni hal etishga oqilona yondashishning oliy ko'rinishidir. Shu jihatdan globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tibor talab qilayotgani haqidagi fikri nafaqat BMT, balki dunyoning barcha mamlakatlari uchun tegishli va ahamiyatli bo'ldi.

Aslida insonni kamolotga yetkazish tabiatning vazifasi emas, u antropologik muammo bo'lib, shaxs va sotsium o'rtasidagi munosabatlar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bunday kamolotni, avvalo, shaxsning o'zi istashi, o'zi-o'ziga ma'qul keladigan ma'naviy, axloqiy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tartiblarni, psixofiziologik normalarni o‘zi yaratishi zarur. Bu o‘rinda insonparvar va xalqparvar, adolat printsiplarini amaliyot usuli qilib olgan davlat sotsium vakili yoki takomil buyurtmachisi sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Tahlil va natijalar

Taraqqiyotning yangi bosqichida xalqimiz o‘z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatining chinakam sohibiga aylanmoqda. Bugun har bir millatda o‘z-o‘zini anglashga intilish kuchaydi. Yuptimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayonlari jamiyat muhiti, eng avvalo, yoshlarda islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirish muammosining ilmiy asoslari tadqiq etilgan.

Milliy qadriyatlar O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda axloqiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari bu milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, vatanparvarlikni tarbiyalash, milliy-qadriyatlar, an’ana va intellektual merosga hurmatni shakllantirishdir. Milliy qadriyatlar bu tarixiy, madaniy, dunyoviy, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va demografik belgilarga ega bo‘lgan mamlakatning moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuasi bo‘lib, ma’lum bir millat va etnosga qarashli ijtimoiy hamda inson xulqi asosini tashkil etadi.

Xulosa

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida insonlarda komil inson fazilatlarini shakllantirishda diniy va ilmiy qadriyatlarni o‘rni haqidagi ushbu maqolada quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Inson mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lgan aksiologik ong ijtimoiy islohotlarning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo‘lib, olam, voqelik va hayotni qadrlash tuyg‘usi asosida o‘ziga xos tarzda aks ettiradi.

2. O‘zbekistonda insonlarda komil inson fazilatlarini shakllantirish jarayonida aksiologik ierarxiya (aksiologik ong – qadriyat – faoliyat birligi) va aksiologik spektrida (o‘tmish – bugungi kun – kelajak) fundamental omil bo‘lishi aniqlangan.

3. O‘zbekistonda shakllangan sharqona qadriyatlarda individuallikdan jamoaviy manfaatlarning ustunligi va ota-onaga hurmat, kattalarga otalarcha g‘amxo‘rlik (paternalizm) ustunlik qiladi. Ilmiy izlanishlarimiz asosida yurtimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni rivojlantirishda jamoaviylik va paternalizm determinant omillardan biri ekanligi aniqlangan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreeva G.A. Modernizatsiya sistemы vыsshego pedagogicheskogo obrazovaniya v Anglii: Monografiya. – Moskva: ITOP RAO, 2002. – S.227
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston. 2021. – B 257.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017
4. Nitsshe F. Volya k vlasti. Opыt pereotsenki vsex tsennostey (1884-1888). –Moskva: TOO «Transport», 1995. – S. 30.
5. Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari): Fals.fan.d-ri...diss. – Toshkent. 1996. – B.311

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Yoshlar 2020: Global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari» mavzusidagi inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga tabrigi. http://xs.uz/uz/site/newspaper.

FUTBOLNING JAMIYATDAGI FENOMENOLOGIK XUSUSIYATLARI

Akmaljon Turaqulov
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti
Email: akmalturakulov1982@gmail.com

Annatatsiya: *Mazkur maqola jamiyatda futbolning o’rni va fenomenologik xususiyatlari, jahonning aksariyat mamlakatlarida eng ommalashgan sport turi ekanligi, uning XXI asrga kelib futbolning sport qolipidan chiqib ketishi sabablari va jamiyatning deyarli barcha jabhalarida iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va ilm-fanda o’zini namoyon qilishdagi jihatlari va uning mazkur aspektlardagi progressiv xususiyatiga to’xtalib o’tilgan. Futbolda turli xalqlar va elatlar o’zlarining etnik xususiyatlarini aks etishini boshqa sport turlarida uchramasligi misollar orqali ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Jamiyat, futbol, Kambodja, Dinamo-Tbilisi, Jon Boynton Pristli, sport jurnalistikasi, Ahbor Imomxo’jayev, David Koulmann, BBC-Sport, Paxtakor, Samba, Danse, FIFA, Krishtianu Ronaldu, Lionel Messi, Zlatan Ibragimovich, Muhammad Saloh, Neymar, Kilian Mbappe.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о роли и феноменологических характеристиках футбола в обществе, о том, что это самый популярный вид спорта в большинстве стран мира, о причинах, по которым футбол стал видом спорта к 21 веку, и его аспектах в экономике, политике. , культуры и науки практически во всех аспектах жизни общества, а также ее прогрессивный характер в этих аспектах. На примерах выявляется, что разные нации и народы отражают в футболе свои этнические особенности, чего нет в других видах спорта.*

Ключевые слова: *Общество, футбол, Камбоджа, Динамо-Тбилиси, Джон Бойнтон Пристли, спортивная журналистика, Дэвид Коулман, BBC-Sport, Пахтакор, Самба, Данс, ФИФА, Криштиану Роналду, Лионель Месси, Златан Ибрагимович, Мохамед Салах, Неймар, Килиан Мбаппе*

Annotation: *This article is about the place and phenomenological characteristics of football in society, the fact that it is the most popular sport in most countries of the world, the reasons why football has become a sport by the 21st century, and its aspects in economy, politics, culture and science in almost all aspects of society. and its progressive nature in these aspects has been touched upon. It is revealed through examples that different nations and peoples reflect their ethnic characteristics in football, which is not found in other sports.*

Keywords: *Society, football, Cambodia, Dynamo-Tbilisi, John Boynton Priestley, sports journalism, David Coleman, BBC-Sport, Pakhtakor, Samba, Danse, FIFA, Cristiano Ronaldo, Lionel Messi, Zlatan Ibrahimovic, Mohamed Salah, Neymar , Kylian Mbappe*

Kirish

Jamiyatda futbolning fenomenologik roli haqida fikr yuritganda, uning eng ommabop sport turi sifatida milliy g‘urur, vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish, aholining bo‘sh vaqtini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mazmunli tashkil etish va turli zararli g‘oyalarga qarshi kurashuvchi vosita o’rnida ko‘rsatish mumkin. «Kambodja hukumati aholining aksariyat qismi turli qimor o‘yinlari bilan bandligi va uning ortidan turli jinoyatlar, o‘z joniga qasd qilishlar ko‘paygan bir paytda, aholini e’tiborini foydali jihatlarga qaratish uchun mamlakat hududida futbolga e’tiborni kuchaytirish va bu orqali aholi salomatligi, jinoyatlarni oldini olish yo‘lini tutdi».[1]

Futbol har qanday sharoitda uni o‘ynash imkoni bo‘lgan, qoidalari aholining turli qatlamlari uchun ham tushunish eng qulay bo‘lgan sport turi sifatida shaxsning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. U sport turlarini eng katta vazifalaridan biri bo‘lgan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdan tashqari jamiyatda aholining kayfiyatini belgilab beradi. «Stadionga to‘plangan minglab muxlislar 90 daqiqa mobaynida yashil maydonga singib ketadilar. Bu vaqt mobaynida turmush tashvishlarini unutib, futbol bilan yashaydilar»[2]. Bunday vaziyatlarda muxlis va futbolchi o‘rtasidagi emotsiyalarga to‘la aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.

Futbolning jamiyatda millatlararo totuvlikni ta’minlovchi vosita sifatidagi vazifalari o‘yin jarayonining har lahzasida namoyon bo‘ladi. Millatlararo totuvlik ma’lum bir hudud yoki davlatda turli millat vakillarining bahamjihat hayot kechirishi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

1964 yilda sobiq SSSR chempionatining final uchrashuvi Toshkent shahrida o‘tkazilgan edi. Stadionga kelgan 60 mingga yaqin muxlislar gruziyalik futbolchilarni qo‘llab-quvvatlab, Dinamo-Tbilisini g‘alabaga undagan edi. Aynan mazkur voqelik tufayli O‘zbekiston va gruziyalik futbol muxlislari o‘rtasida do‘stlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Gruziya matbuotida Toshkent «omadli shahar» ekanligi e’tirof etilib, o‘zbekistonliklarga minnatdorchilik ruhidagi maqolalar chop etiladi.

«XX asr davomida futbol dunyo yuzini ko‘rish barobarida rekord darajada o‘sishga va dunyodagi eng katta auditoriyani to‘plashni uddalagan sport turi sifatida jamiyatda qad rostladi»[3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Futbol do‘stlik munosabatlari bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar targ‘ibotchisi sifatida ham mustahkam o‘rin egalladi. O‘yin yakunida natija qanday bo‘lishidan qat’i nazar, raqiblarning qo‘l berib, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari tom ma’noda, futbol eng avvalo, inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va totuvlikka asoslangan sport turi ekanligini isbotlamoqda. «Globallashuv jarayonida iqtisodiy va texnologik taraqqiyot ko‘plab an’anaviy institutlar, shu jumladan, sportga ham zarar etkazadi. Futboldagi global transfer bozori, faol professional jarayon futbolchilar va murabbiylarning harakatchanligi xalqaro xarakterga ega. Futbol klublari madaniyatlararo jamoalarga aylanib bormoqda»[4]. Ingliz dramaturgi va rejissyori Jon Boynton Pristlining fikricha, 22 futbolchining maydonda to‘p tepishini tomosha qilish uchun pul sarf qilishadi deyish, go‘yoki skripka daraxt shoxi yoki «Gamlet» oddiy qog‘oz va siyohdan iborat narsa deyishga tengdir. Shuningdek, futbol shaxs kamolotini belgilovchi intellekt, aql, hissiyot, tezkor qaror qabul qilish, ta’limiy kompetentlik kabi tushunchalarni o‘zida mujassam etadi va futbolchidan shuni talab qiladi. Bugungi kunda futbol dunyoga tanilishning eng asosiy vositasi bo‘lish bilan birga u orqali har qanday yo‘lni targ‘ib etish ham mumkin.

Futbolning targ‘iboti va aholining informatsion tashnaligini qondirishda asosiy axborot yetkazuvchisi hamda muhokama maydoni sifatida gazeta, jurnal, televidenie va radio asosiy rolni bajardi. Taniqli olim I. Garining e’tirof etishicha: «Futbol nashrining navbatdagi soni sotuvga chiqadigan kun biz uchun biroz hayajonli va zavqli kunga aylanardi»[5]. Sport

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

jurnalistikasi fonida futbol jurnalistikasi futbolning jozibasi oshib borishi, muxlislarda mutolaa madaniyatining oshishiga xizmat qildi. Faqat futbolni yoritib boruvchi nashrlar, futbolga ixtisoslashgan televidenie va radio eshittirishlar jamiyatda futbol muxlisligi madaniyati va uning rivojlanishida asosiy vosita vazifasini ham bajardi.

«Televizion futbol sharhlovchilari bizning ko‘z va quloqlarimizdir. Ularning o‘yindagi reaksiyalari hamda so‘zlari vaziyatni esdan qolarli bo‘lishida xizmat qiladi. Sharhlovchilar bizning futbol xotiralarimizni ovozlashtiradilar. Devid Koulmanning «BBCSport»ning dunyo brendiga aylanishida o‘yin paytidagi mulohazakorligi va yoqimli ishtiyoqi katta rolni o‘ynadi»[6].

Shu bilan birga, o‘zbek futbol sharhlovchiligi maktabi asoschisi Axbor Imomxo‘jaev o‘zining ilk sharhlarini 1960 yildan boshlagan edi. «Diqqat qiling, «Paxtakor» stadionidan gapiramiz» degan jumlalar o‘zbek muxlislari uchun futbolning bir qismiga aylanib ketgan edi. Paxtakorning 1960 yil 20 aprelda Ittifoq oliy ligasida SSKA klubi bilan bo‘lib o‘tgan o‘yin ilk marta televidenie orqali namoyish etilgan edi. Bugungi kunda futbolning jozibasini muxlislarga yetkazish va uning keng omma orasida sevimliligini oshishida futbol jurnalistlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida, har bir sharhlovchining futbolga yondashuvi o‘ziga xos bo‘lib, unda albatta, millatning etnik xususiyatlari ham aks etadi. Jumladan, Mirzahakim To‘xtamirzayevning sharhlarida muxlislar xalqona, milliyligimiz aks etishini e’tirof etadilar. Sharh davomida va o‘yin mohiyatini ochib berishda «Qadrli futbol ixlosmandlari!», «Otangga balli!», «Ana xolos», «Omad siz va bizni aslo tark etmasin» kabi iboralari bilan bir qatorda o‘zbek milliy maqollaridan ham unumli foydalanishlari muxlislar uchun kundalik ishlatiladigan iboralarga aylanib ulgurgan.

Milliy o‘ziga xosliklardan yana biri, muhim uchrashuvlar avvalida o‘yinga mos bo‘lgan she’r bilan boshlash uslubi hisoblanadi. FIFAning ilk bosh kotibi Rober Geren ham jurnalist sifatida faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda milliy futbol tizimimizda ham qator jurnalistika sohasi vakillarining faoliyatlarini kuzatish mumkin.

Futbol bir qarashda dunyoning barcha hududlarida bir xil o‘ynaladigandek ko‘rinsada, aslida o‘yin paytida maydonda har bir millat yoki davlatlarning o‘ziga xos etnik xususiyatlari hamda milliy mentalitetning tarkibiy elementlari doimo aks etib turadi. Odatda, «milliy mentalitet – milliy ong va milliy xarakterni ifodalovchi tushuncha. Milliy mentalitet millatning an’analari, madaniyati, ijtimoiy strukturasi va turmush tarzi asosida shakllanadi»[7]. Milliy o‘ziga xoslik millatning har qanday holatida sezilib uni futbol rivojlangan davlatlarning futbol uslublaridan tezda tushunib olish mumkin. Bunga misol sifatida Angliya futbolida inglizlarga xos bo‘lgan sovuqqonlik, fransuzlarda tashqi ko‘rinishga alohida e’tibor berish, to‘p bilan harakatlanishda ham boshqalarda kamdan-kam uchraydigan nozik va chiroyli harakatlarni kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda dunyo futboli muxlislari uchun fransuzlarning maydonda o‘ziga xos did bilan o‘ynashlari, milliy futbol falsafasini yaratish, mamlakat terma jamoasi a’zolari tarkibida turli millat va din vakillarini kuzatish mumkin. Ispaniyada Lotin Amerikasi futboli ta’sirini g‘alabani milliy raqslar bilan nishonlash, nemislarda esa aniqlik va kuchli tartib-intizomni ko‘rish mumkin.

Germaniyaning ichki chempionati ham boshqalardan farqli ravishda kuchli murabbiylarning ijodi hisobiga rivojlanadi va raqobat ortib bormoqda. Ularda har bir murabbiy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

futbolga o‘zining g‘oyalari bilan kirib keladi. Germaniya futboli nafaqat futbolchilari, qolaversa, murabbiylar etkazib beruvchi maktabi bilan ham alohida o‘rniga ega. Shuning uchun ham nemis futboli haqida afsonaviy ingliz futbolchisi Gari Linekerning mashhur iborasini eslash kifoya qiladi: «Futbol 22 kishi tomonidan 90 daqiqa o‘ynaladigan va yakunda nemislar g‘alaba qozonadigan sport turi»[8].

Futbolning jamiyatdagi o‘rni va undagi o‘ziga xoslik haqida fikr bildirganda, albatta, Braziliya futbolini muhokama qilishga majburmiz. Braziliya futbolchilari maydonda o‘zlarining elastik harakatlari va to‘p bilan muomala qilishlari orqali ushbu sport turini san’at darajasiga ko‘tarilishiga eng katta hissa qo‘shdilar. Ularning to‘p bilan harakatlarida Braziliya xalqining milliy raqslari – «Samba» va «Dance»dagi elementlarni ko‘rish mumkin. Ular golli vaziyatlarda yashil maydonda o‘zlarining raqslarini butun dunyoga namoyish etadilar. Braziliyaliklarning maydondagi harakatlari ularni futbolchi deb ta’riflashdan ko‘ra, raqqos deb atash munosibroq ko‘rinadi. Mutaxassislar braziliyaliklar tomonidan ijro etilgan harakatlar «Estetik futbol» deb ta’riflanadi. «Mehnat estetikasi – insonning ijtimoiy va individual ishlab chiqarish jarayonida go‘zallikka nisbatan munosabatlarini ifodalaydi»[9].

Bugungi zamonaviy futbolning jamiyatda keng o‘rin egallash jarayonida dunyoning turli mamlakatlari o‘zlarining urf-odat va an’analarini mazkur sport turiga singdirib bordilar. Inglizlar va nemislar futbolda tartib-intizom (hakamning roli) aniqlik hamda qoidalarga so‘zsiz bo‘ysunishni targ‘ib etgan bo‘lsalar, ispanlar, fransuzlar va braziliyaliklar futbolni did bilan o‘ynash, o‘yin jozibadorligini oshirish, maydondagi natijada tomoshabinlarning o‘rni yuqoriligi va ularning estetik zavqini yanada ko‘tarishni targ‘ib etadilar.

Yana bir qiziq holat shundaki, hindlarning futbolni oyoq kiyimsiz o‘ynashi ortidan togoliklarning milliy kiyimlariga moslangan, yengsiz sport kiyimlarida to‘p tepish talabi Xalqaro futbol tashkiloti – FIFA tomonidan rad etildi. Taniqli mutaxassis S. Bainvelning fikricha: «FIFA milliy an’analar va qadriyatlarni futbolga singishi masalasida aniq bir to‘xtamga kelishi joiz. Hindiston va Togo terma jamoalarining qo‘ygan talabi e’tiborga olinmaganligi tashkilotning boshqa mamlakatlarga shunday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Men futbolning sofligini saqlash uchun ham FIFAning tutgan yo‘lini qo‘llab-quvvatlayman»[10].

Fikrimizcha, FIFAning Hindiston va Togo terma jamoalariga nisbatan rad javobi futbol istiqboli uchun foydali bo‘lgan. Mazkur qaror milliy an’analar va qadriyatlarning futbolga integratsiyalashuvini cheklaydi, degan fikr biroz noto‘g‘ri bo‘lardi. FIFAning so‘nggi 20 yilda olib borgan siyosati xalqlarning e’tiqodi va urf-odatlariga taqiqlardan ko‘ra, ijobiy munosabatlarini ko‘rsatmoqda. Misol tariqasida 2010 yilda Janubiy Afrika Respublikasida o‘tkazilgan jahon chempionatida milliy cholg‘ularga ruxsat berilishi, 2022 yilda Qatarda bo‘lib o‘tgan jahon chempionatida stadionlarga spirtli ichimliklar olib kirmaslikni qo‘llab-quvvatlanishi, islom diniga e’tiqod qiluvchi mamlakatlar talabi bilan ayollar futbolida sportchilarning ro‘molda o‘ynashlariga ruxsat berildi.

Futbolning boy an’analari aslida turli millatlarning ushbu sport turiga qo‘shgan hissasi sifatida baholanadi. «Sport har doim dunyo xalqlariga tegishli bo‘lgan eng yaxshi an’analarni o‘zlashtirib olishga muhtoj. Futbol esa eng yaxshi an’analarni o‘zlashtirishda tengsiz sport turi hisoblanadi»[11].

Shu o‘rinda, dunyo futboli an’analari va qadriyatlarini boyitishda o‘zbeklarning ham o‘z o‘rniga ega ekanligini yoddan chiqarmaslik darkor. Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK)da faoliyat yuritayotgan Avaz Berdiqulov ayollar futbolida jarohat olganlarni maydondan olib

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

chiqib ketishda erkaklar emas, ushbu jins vakillari ishtirokini ta'minlash, jarohat olgan ayol sportchilarga noqulayligining oldini olishni ta'minlash birinchi bo'lib Vetnamda bo'lib o'tgan 2010 yilgi Osiyo chempionatida joriy etgan. Bugungi kunda mazkur qoida FIFA tomonidan e'tirof etilib, musobqalar reglamentidan o'rin egallagan. Ko'plab sport jurnalistlari ushbu qoidani «O'zbekona yondashuv (Uzbek approach)» deb ta'riflaydilar. «Donishmandlik – ayolga bo'lgan hurmat va muhabbatdan boshlanishini tan olmaguncha falsafa o'tkinchi talablar, qotib qolgan qoidalar hamda siyqa ta'riflar qurboni bo'lib qolaveradi»[12]. Bu esa jamiyatda gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faolligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Futbol yer yuzida o'zining eng katta auditoriyasini shakllantirish jarayonida zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarida ham asosiy figura darajasiga yetdi. Dunyoning nufuzli kompaniyalari uchun futbol marketingga aylanib, sport turi sifatida o'yin vazifasini bajarishdan chetlashib, biznes ob'ektiga ham aylanib ulgurdi. Bugungi kunga kelib zamonaviy futbol deganda, eng avvalo, har tomonlama rivojlangan Yevropa futbolini ko'z oldimizda keltiramiz. Futbol marketingi xususida fikr bildirganda, milliy futbolimizdagi aynan ushbu jihatlar bilan maqtana olmasligimiz, jamoalarimizning marketing siyosati eng zaif nuqta ekanligini alohida ta'kidlash kerak.

XX asrning boshlaridan to 90-yillargacha bo'lgan davrda futbol jamoalarida asosan, ushbu sport turi sohasida ish yuritadigan xodimlar faoliyatlari kuzatilgan. XX asrning 90-yillari oxirlariga kelib, futbolga aloqador bo'lmasa-da, ko'zga ko'ringan yetakchi jamoalarda faoliyat olib boradigan shaxslar paydo bo'ldi. Natijada, marketing va menejment, PR (ommaviy aloqalar) xodimlari kabi yangi faoliyat turlari shakllandi. Mazkur yangi sohalar orasida marketing tizimi muhim ahamiyatga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Futbol jamoalarining homiylarga bo'lgan ehtiyoji va ularning e'tiborini o'ziga jalb etishi aynan marketing bo'limining qanday faoliyat olib borilishi bilan bog'liq.

Marketingning ustuvor vazifalari, investorlar uchun imkoniyat yaratish, muxlislar oqiminini stadionga yo'naltirish, homiylar va ommaviy axborot vositalari bilan ishlashdan iborat bo'ladi. Daromad olish mumkin bo'lgan aspektlarni aniqlab, ular asosida faoliyat yuritish zamonaviy klublarda to'g'ri yo'lga qo'yilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, brendga aylangan jamoalar har yili dunyo bo'ylab turnelar uyushtirib, turli qit'alarga tashrif buyurib, turfa sharoitda yashovchi (ekologik muammolari mavjud, siyosiy notinch, turli kasalliklarga chalingan) aholi bilan uchrashib, tadbirlarda ishtirok etadilar, oziq-ovqat, dori-darmon mahsulotlari va jamoalarning logotipi tushirilgan liboslarni tarqatish orqali, birinchi navbatda, o'zlarining insoniylik jihatlarini ham namoyish etadilar, bu orqali muxlislar auditoriyasining kengayishiga ma'lum ma'noda erishadilar.

Zamonaviy futbolda klublarga daromad keltiruvchi eng asosiy omillardan yana biri jamoalar o'zlariga tegishli bo'lgan sport kiyimlari sotuvi hisoblanadi. Mazkur uslubdan marketing sohasi eng sust rivojlangan jamoalar ham yaxshigina daromad topadilar. O'z o'rnida bugungi kunda milliy futbolimiz jamoalari o'zlarining logotiplari tushirilgan sport liboslari sotuvini deyarli yo'lga qo'ymaganliklari va stadionlarda tomoshabinlar asosan, Yevropa jamoalari liboslarida o'yin tomosha qilayotganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Taklif o'rnida milliy terma jamoalarimiz va klublarimiz o'z liboslarini keng ko'lamda ishlab chiqarib, sotuvini yo'lga qo'yishi futbol muxlislari uchun milliy g'urur hamda iftixor bo'lib xizmat qiladi. Muxlislar o'z suyuklilari ishtirokidagi uchrashuvlarni bevosita stadion yoki televidenie orqali tomosha

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qilish jarayonida jamoalari tarkibidagi yulduz futbolchilarining liboslarini kiyib, ishqibozlik qiladilar.

Xulosa

Hozirda Yevropa mamlakatlarida Krishtianu Ronaldu, Lionel Messi, Zlatan Ibragimovich, Muhammad Saloh, Neymar, Kilian Mbappe kabi futbolchilarning kiyimlari eng xaridorgir hisoblanib, ular o‘z klublarining daromad manbaiga aylangan. Milliy futbol bozorimizda eng talab yuqori bo‘lgan futbolchilar – Eldor Shomurodov va Jaloliddin Masharipov hisoblanadi. Ammo, mazkur futbolchilarning ismi va familiyasi aks etgan sport liboslarini ichki bozorimizda kam uchratamiz. Marketingning yana bir tarmog‘i mavjudki, mazkur soha asosan, Yevropa mamlakatlari va Osiyoning futboli etakchi bo‘lgan mintaqalarida ommalashgan. Jamoalar o‘zlarining uy uchrashuvlarini o‘tkazuvchi stadionlariga muxlislar uchun sayohat uyushtirishlari orqali ham klubga daromad keltiradilar.

Futbolchilarning o‘zlari ham individual reklama roliklarida ishtirok etishi ularning shaxsiy daromadlari o‘sishiga ham xizmat qilib kelmoqda. Mazkur sohaning etakchilari sifatida Krishtianu Ronalduning soqol olish uskunalari, Lionel Messi «Pepsi». va turli oziq-ovqat maxsulotlari reklamalari, televideniе hamda internet orqali chiqishlari ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruchi kompaniyalar uchun reklamaning eng maqbul va qulay varianti sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. David Gross W. Stephen Spense J. The road to sublimation Success: Harnessing the Power of Sublimation for Outstanding Profits. – London: Kindle Edition, 2020. – P. 85.
2. Franklin F. How Soccer Explain the World. – New York: Harper. 2004. – P. 207
3. Гиффорд К. Футбол: Самая полная энциклопедия. – Калининград: Кладзъ, 2006. – С. 107.
4. Митрофанов М. *Л.* Управление профессиональными футболными клубами. *Диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук.* – Санкт-Петербург. 2011. – С. 130.
5. Gari I. My father and other Working Class Football Heroes. – Madhapur: Yellow jersi Press, 2006 – P. 88.
6. https://punditfeed.com/lists/greatest-british-football-commentators.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY KO‘RINISHLARNI BARTARAF ETISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TAMOYILLARI ASOSIDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI

Sattorov Fozil Faxritdinovich, mustaqil tadqiqotchi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

Annotatsiya: *O‘smirlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod jamiyatda mavjud bo‘lib kelgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy tamoyillarini bilishi va uni o‘zining hayotiy faoliyatida amal qilishi maqsadga muvofiqdir.*

Ushbu maqolada o‘smir xulq-atvoridagi salbiy ko‘rinishlarni bartaraf etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari asosidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘smir, xulq-atvor, ma’naviy – axloqiy tarbiya, jamiyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy manfaatlar, ma’naviy meros.*

THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION ON THE BASIS OF THE PRINCIPLES OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN THE ELIMINATION OF NEGATIVE MANIFESTATIONS IN ADOLESCENT BEHAVIOR

Sattorov Fozil Fakhritdinovich, independent researcher
Samarkand state University named after Sharof Rashidov

Annotation: *In the spiritual and moral education of adolescents, the primacy of national and universal values is important. It is desirable that each young generation knows the basic principles of national and universal values that have existed in society and applies it in its vital activity.*

This article highlights the role of spiritual and moral education on the basis of the principles of national and universal values in the elimination of negative manifestations in adolescent behavior.

Keywords: *adolescent, behavior, spiritual-moral education, society, national and universal values, national interests, spiritual heritage.*

РОЛ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ НАТСИОНАЛНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ СЕННОСТЕЙ В УСТРАНЕНИИ НЕГАТИВНЫХ ПРОЯВЛЕНИЙ В ПОВЕДЕНИИ ПОДРОСТКОВ

Sattorov Fozil Faxritdinovich, nezavisimыy issledovatel
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Аннотатсия: *в духовно-нравственном воспитании подростков важен примат натсионалных и общечеловеческих сенностей. Желательно, чтобы каждое молодое поколение знало основные принципы натсионалных и общечеловеческих сенностей, которые существовали в обществе, и применяло их в своей жизнедеятелности.*

В данной стате освещается рол духовно-нравственного воспитания на основе принципов натсионалных и общечеловеческих сенностей в устранении негативных проявлений в поведении подростков.

Ключевые слова: *подросток, поведение, духовно–нравственное воспитание, общество, натсионалные и общечеловеческие сенности, натсионалные интересы, духовное наследие.*

Kirish

Bugun dunyo o‘zining misli ko‘rilmagan qirralarini namoyish qilmoqda. Xususan, global o‘zgarishlar sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi har qachongi davrdan ham dolzarb ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Barchamizga ma’lumki, yurtimizda asosan yoshlar qatlami ko‘pchilikni tashkil etadi. Yoshlar esa, ruhiy-ma’naviy jihatdan turli ta’sirlarga beriluvchandir.

O‘smirlar ongiga milliy va umuminsoniy tamoyillarga hurmat ruhini uzluksiz ravishda singdirib borish ularning ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy madaniyatini, jamiyat va xalq ishida faol ishtirok etish, har qanday tashqi salbiy ta’sirlardan mustahkam mafkuraviy immunitetini shakllanishiga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston va uning bag‘rikeng xalqi tinchlikparvar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib qolmoqda. Lekin zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz”[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘smirlarning ijtimoiy-ma’naviy hayotda faol bo‘lishi ularning shaxslararo ijobiy munosabatlarga tezroq kirishishishi va ijtimoiy hayotga adaptatsiyani tezlashuvi va pirovardida jamiyatga naf keltirishlarini o‘ziga xos tarzda tushunishlariga olib keladi. Buning evaziga o‘smir xulq-atvorida xudbin tuyg‘ulari yo‘qolib, u o‘z hatti-harakatlarini jamoa manfaatlariga qarata bajarish jarayonlari kuzatiladi. N.Shodievning ta’kidlashicha, “Fuqaroviy faollik insonlarning jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini chuqur anglashga va boshqalar manfaati uchun qayg‘urishga, jamoat ishlarida faollik ko‘rsatishga, ko‘pchilik manfaati uchun kurashishga, ko‘ngilli faoliyat olib borishga undaydi. Fuqaroviy faollik o‘z qiziqish va imkoniyatlarini ifodalashga, shu asosda jamiyatga naf keltirishga rag‘bat beradi”[2].

O‘smirlarning ijtimoiy hayotga chuqurroq ijtimoiylashuvini shakllantirishda ma’naviy va mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati juda yuqoridir. G‘oyaviy tarbiya ta’lim-tarbiya muassasalari, oila, mahalla, ijtimoiy-siyosiy institutlar, mehnat jamoalarida olib boriladi. Izohli lug‘atda “Mafkuraviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayon”[3], sifatida qayd etiladi. G‘oyaviy tarbiya yoshlar ongida tizimli ma’naviy dunyoqarashni, ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, psixologik, badiiy, ijodiy, kasbiy, ekologik va boshqa tamoyillarni muayyan ilmiy nazariyalarga tayangan holda maqsadli shakllantirish jarayonidir.

G‘oyaviy tarbiya yoshlar ongida tizimli ravishdagi ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy dunyoqarashni shakllantirish orqali zohir bo‘ladi. Ma’lumki, “dunyoqarash – kishilarning olam, uning kelib chiqishi, tuzilishi, o‘zgarishi, rivojlanishi, unda insonning o‘rni haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlari va tasavvurlari majmuidan iborat. Uning nisbatan umumlashgan tarifiga ko‘ra, dunyoqarash – insoniyatni o‘tmish merosi, hozirgi hayot va bunda sharoitlar,tizimlarning anglab olingan qadriyatdir. Dunyoqarash - kishilarning turmush tarzi, hayoti, ahloq-odobi, madaniyatini o‘zida mujassamlantirgan tasavvur va bilimlar yig‘indisidir”[4].

O‘smirlarni ma’naviy tarbiyasida milliy o‘zlikni anglash ham deviant xulq-atvor tarzini oldini olish va sog‘lomlashtiishda muhim ahamiyatga egadir. Bu esa, o‘smirning nafaqat jamiyat ma’naviy jarayonlarini tushunishi, balki uning asosiy tamoyillariga amal qilish qobiliyatlarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ham o‘stiradi. Milliy qadriyatlarni anglash, ularga o‘z hayotiy tutumlarida rioya etish, ularni ijtimoiy hayotda ro‘yobga chiqarishga moyillik o‘smirlarga milliy-ma’naviy o‘zligini anglash imkonini beradi. Demak, o‘smirlar faoliyatining ijtimoiy-ma’naviy asoslarda yo‘naltirilganligini ularning milliy o‘zligini anglashning asosiy xususiyatlaridan biridir. O‘zlikni anglash ijtimoiy-ma’naviy muvozanatini ta’minlash, tarixiy-madaniy tajribalarga tayangan holda o‘zining ma’naviy tafakkuri, ijtimoiy ongini namoyon qilishga qaratilgan faoliyatidir. Olimlarning ta’kidlashicha, “O‘z haq-huquqini tanigan odam o‘z kuchiga ishonib imkoniyatlarini ishga sola oladi, o‘zi ham foyda ko‘radi, jamiyatga va davlatga ham foyda etkazadi. Aynan haq-huquqini tanigan odam o‘z yurtida bo‘layotgan va uning atrofida kechayotgan voqealarni tahlil qilishni o‘rganadi, oq-qorani ajratib, yaxshi nima, yomon nima – farqiga boradi. Eng muhimi mamlakat va millat manfaatini himoya qila oladi”[5].

O‘zlikni anglash yoshlarning ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy faolligini ta’minlaydi, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydi hamda o‘zlarining kelgusida amalga oshiradigan istiqbol rejalarini tuzib olishdagi asosiy maqsadlar, orzu-istaklar va mo‘ljallarga asosi bo‘ladi. O‘smirlarning millat, xalqning kelajagi, taqdiri va istiqboli uchun mas’ul ekanligi ularning jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta’minlashda to‘laqonli sub’ekt sifatida ishtirok etishida, milliy o‘zligini to‘la anglash va unga amal qilishda namoyon etadi.

Siyosatshunos V.Qo‘chqorovning fikricha, “O‘zlikni anglashda shaxs o‘zining xususiy manfaatini umumiy, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishi, zaruriy holatlarda jamiyat manfaatlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Ushbu fidoyiliksiz ijtimiy-siyosiy faoliyat ijtimoiy xarakter kasb etmaydi, ijtimoiy-siyosiy voqelikka ko‘tarila olmay egoizm va xudbinlik pog‘onasida qolib ketadi. Demokratik jarayonlarda jamiyatda ijtimoiy keskinliklar, nobarqaror vaziyatlar ham uchrab turadi. Buning uchun esa, shaxslardan ichki ziddiyatlarni murosasiz qarashlarga aylantirmasdan, barqaror demokratik qadriyatlarni qaror toptirish yo‘llarini izlashni talab etadi. Umuman olganda, siyosiy o‘zlikni anglash mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning barqaror rivojiga xizmat qiladi”[6].

Tahlil va natijalar

Yoshlar o‘rtasida olib boriladigan milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy tafakkur tarzini o‘stirish borasida olib boriladigan targ‘ibot va tashviqot mukammal tarzda tashkil etilishi ularni ongiga turli buzg‘unchi g‘oyalarning kirib qolishidan asraydi. Ma’naviy targ‘ibot tadbirlari o‘smirlarning maqsad-muddaolari, intilishlarini ifodalashi, ularni milliy manfaatlar yo‘lida jipslashtira olishi, tarbiyaviy maqsadlarni to‘laqonli ifoda eta olishi lozim. Ayniqsa, deviant xulq-atvorli o‘smirlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni ko‘plab o‘tkazish ularning ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, jamiyat va xalq ishiga doimiy kamarbasta bo‘lish va tayyor turish kabi ijtimoiy psixologiyasini shakllantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish dolzarb masalalardandir. Olimlarning ta’kidlashicha, “Ayni kunlarda ham O‘zbekiston xalqining ma’naviyatini yuksaltirish masalalari dolzarb va nozik masala hisoblanadi. Shuningdek, bu masala juda tez amalga oshadigan yoki faqat sanoqli kishilarning urinishlari bilan amalga oshadigan ish emas. Buni avvalo har bir insonning o‘zi, o‘zi va jamiyat uchun nima to‘g‘riyu, nima noto‘g‘riligini anglab olishi kerak”[7].

Milliy qadriyatlarimizning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- vatanparvarlik;
- bag‘rikenglik;
- mehmondo‘stlik;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- andisha, hayo va ibo;
- kattarlarga hurmat, kichiklarga izzat;
- ota-onani e'zozlash;
- oila va nikohni muqaddas bilish;
- jamoa ruhining ustivorligi.

Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- do'stlik, qardoshlik va birodarlik;
- o'zaro hamkorlik va hamjihatlik;
- milliy va diniy bag'rikenglik;
- tinch-totuv yashash, tinchlik va barqarorlik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- inson huquqlari va manfaatlarini e'tirof etish;
- umumbashariy muammolarni birgalikda hal etish.

O'smirlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va yuksaltirishda vatanparvarlik ruhini kamol toptirish muhim vazifa hisoblanadi. Ularning vatan va millat ishshi uchun domiy tayyorligi, ijtimoiy tashabbuskorligi, ma'naviy madaniyati va ma'rifiy faolligini shakllantirish muhim ahamiyati katta. O'smirlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini kamol toptirish kelajakda milliy manfaatlarni to'la ta'minlashga qodir etuk kadrlarni tayyorlash vazifasining bajarilishiga zamin yaratadi. Hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha jarayonlarini shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir davrda yoshlarni davlat va jamiyat ishi uchun fidokorlikka tayyorlamasdan Vatan ravnaqini ta'minlash amri mahol bo'lib qolmoqda.

O'smirlarning deviant xulq-atvorini bartaraf etish va bu borada ma'naviy targ'ibot tadbirlarni tashkil etishda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida chora-tadbirlar olib borish muhim omillardan hisoblanadi. Huquqiy madaniyat o'smirlarning ijtimoiy etukligi va ma'naviy dunyoqarashining yuqoriligini ko'rsatuvchi me'yordir. Huquqiy bilimlarga to'liq ega bo'lgan va ularni amaliyotda samarali tatbiq eta oladigan o'smirgina jamiyatda o'zining axloqiy jihatdan o'rnini namoyon qila oladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning ta'kidlashicha, "Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi...Shu bois birinchi navbatda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishim lozim"[8].

O'smirlarda huquqiy madaniyatning yuksalishi ularga berilayotgan huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonlariga bevosita bog'liq hisoblanadi. Ya'ni huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish oiladan, bog'cha yoshidan, boshlang'ich ta'limdan boshlab amalga oshiriladigan jarayondir. Yaponiya va Malayziya kabi mamlakatlarda huquqiy madaniyat o'quvchilarga ilk maktab davridanoq singdirib boriladi. Mamlakatning har bir yoshlari uchun parlament binosi oldiga kelib hurmat bajo aylash, ya'ni ta'zim qilish odatiy holga aylangan. Ushbu an'ana nafaqat parlament va qonunlarga hurmat, balki mamlakatda qonun chiqaruvchi organlar, huquqiy muassasalarga bo'lgan ishonch va ehtirom, ijtimoiy munosabatlarga mas'uliyat hissidan ham dalolat beradi.

O'smirlarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy xulq-atvorini shakllanishida Konstitutsiyamizda belgilab berilgan burch va mas'uliyatlar muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiyaning XI bobida fuqarolarning burchlari belgilab berilgan. Unda fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishlari kerakligi qayd etiladi. Xuddi shuningdek, fuqarolar "Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga" (48-modda), "O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga" (49-modda), "atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga" (50-modda), "qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga" (51-modda), "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish"ga (52-modda) majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda"[9], deb qayd etilgan.

Jamiyatimizda bugungi kunda xalqaro va davlatlararo hamkorlik kengayib borayotgan bir davrda voyaga etmagan yoshlarni ham xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy hayoti va siyosatidagi tajribalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatli masala hisoblanadi. O'smir yoshlarni maktab davridanoq xorijiy mamlakatlar o'quv muassasalarida tahsil olish va o'quv-tajriba almashishga jalb etish, bilim olishlarida xalqaro ta'limdagi texnologik jarayonlar, ilm-fan va innovatsiyalar bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonlar o'smir yoshlarning maktab davridanoq turli xil innovatsiyalar orqali kashfiyotlar yaratish imkoniyatini oshiradi, yuksak texnologiyalar mohiyatini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o'smir xulq-atvoridagi salbiy ko'rinishlarni bartaraf etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari asosidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rnini yuksaltirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Yoshlar ijtimoiy hayotini yuksalishi uchun imkoniyatlarni ochib berilishi, ularning huquqlari va ehtiyojlarini doimiy ta'minlab borilishi Vatan ravnaqi va xalq farovonligi, mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qilish salohiyatini shakllantiradi.

O'smirlarning milliy manfaatlarni to'g'ri anglashida uning asosiy tamoyillariga nisbatan qarama-qarshi xarakatlar qilmasligi, yangilikka intilishi, keng qamrovli bunyodkorlik ishlarini bajarish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smir yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim vazifa bo'lib, u jamiyatda o'smirlarning mavjud huquqiy tamoyillarni o'zlashtirishi va unga og'ishmay amal qilishlari jarayoni asosida ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib boradi.

O'smirlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda ularning turli vayronkor g'oyalarga berilib ketmasliklari, jamiyat milliy manfaatlari, yurt tinchligi va mamlakat barqarorligini doimiy ta'minlab borishdagi faolliklarini tarbiyalab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent, O'zbekiston, 2016. –B. 9.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Shodiev N. Fuqarolik jamiyatida fuqaroviy faollik: tarixiy va ilmiy xususiyatlari. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №4, 2016 y. –B. 43.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 297-bet.
4. Falsafa qomusiy lug'at.Toshkent.: Sharq, 2004. 115-b
5. Komilov N., Ravshanov F. va boshq. Mustaqillik tafakkuri, demokratik dunyoqarash va milliy mentalitet. Toshkent, Ma'naviyat, 2001. –B. 25.
6. Qo'chqorov V. Siyosiy o'zlikni anglashning ayrim jihatlari.// Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. -№1. –B. 62.
7. Ramatov J. Salimov B. Rajabov H. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarolrlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashning ma'navi-ma'rifiy usullari va vositalari. –Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2020. –B. 49.
8. Mirziyoev Sh.M. Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-J.T, O'zbekiston,2018.-B.82.
9. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'rsida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019 yil 9 yanvar. PF-5618-son. www.lex.uz.

JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOIY MUHITGA TA'SIRI VA UNING FALSAFIY-TARIXIY TAHLILI

Abdivohidov Sunatillo Abdinabiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali falsafa doktori (PhD), dotsenti
E-mail: abdivohidov80@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada jadidichilik harakati namoyondalari tomonidan milliy o'zlikni anglash, mudroq xalqni uyg'otish, milliy taraqqiyot, til, millat va din munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarga erishish, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish kabi masalalar falsafiy-tarixiy jihatdan tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *millat, mustaqillik, siyosiy ong, mafkura, ilm, millat sha'ni, oila, ta'lim, iqtisod, madaniyat.*

ВЛИЯНИЕ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ НА СОЦИАЛЬНУЮ СРЕДУ И ЕГО ФИЛОСОФСКО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Абдивохидов Сунатилло Абдинабиевич
Доктор философии (PhD), доцент Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета
Электронная почта: abdivohidov80@mail.ru

Аннотация: В статье исследуются философско-исторические вопросы, такие как осознание национальной идентичности представителями движения джадидизма, пробуждение дремлющего народа, национальное развитие, язык, отношения нации и религии, достижение социально-экономических и политических прав, воспитание молодежи с широким мировоззрением и мышлением, и реформирование всех сфер жизни общества в целом.

Ключевые слова: национальность, независимость, политическое сознание, идеология, наука, честь национальности, семья, образование, экономика, культура.

THE INFLUENCE OF THE JADIDI MOVEMENT ON THE SOCIAL ENVIRONMENT AND ITS PHILOSOPHICAL AND HISTORICAL ANALYSIS

Abdivokhidov Sunatillo Abdinabievich
Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor of the Samarkand branch of the Tashkent State University of Economics
Email: abdivohidov80@mail.ru

Abstract: *The article examines philosophical and historical issues, such as the awareness of national identity by representatives of the Jadidism movement, the awakening of a dormant people, national development, language, relations between nation and religion, the achievement of socio-economic and political rights, the education of young people with a broad worldview and thinking, and reforming all spheres of society as a whole.*

Key words: *nationality, independence, political consciousness, ideology, science, honor of nationality, family, education, economics, culture.*

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi shart-sharoitlar jadidlarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini belgilagan edi. Bu tarixiy ahamiyatga molik g'oyalar milliy burjuaziya, ruhoniy va umuman, mahalliy yuqori tabaqaning ilg'or vakillarini ham qamrab oldi. Chunki Rossiya hukmronligi o'lkani xom ashyo manbasi va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirdi, mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosatini avjiga mindirdi. Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg'ulari ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar sharoit taqozosiga ko'ra, birinchi navbatda, xalqning savodini chiqarish, bilimini oshirish, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun qurashdilar. Vatanparvar jadidlarning asosiy maqsadlaridan birinchisi milliy istiqlol bo'lsa, ikkinchisi, milliy taraqqiyot bo'lgan. Shuning uchun jadidlar, avvalambor, o'z oldilariga mudroq xalqni uyg'otish, ular qalbiga istiqlol orzusini payvandlash vazifasini qo'ydilar.

Jadidchilikning barcha faoliyat qirralari ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilgan. Bu esa ularning milliy taraqqiyotni va uning omillarini qanday tushunganligini bilib olishimizga yo'llanma beradi. Barcha jadidchilar, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy milliy taraqqiyotning asosiy omillari sifatida millat mentalitetini, uning tili, milliy uyg'onish va o'zlikni anglash, millat va din munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarga erishish masalalari ekanligini yaxshi tushunganlar. Behbudiy nazarida milliy taraqqiyotning asosini millat ruhi va uning tetikligi tashkil qiladi. Turkiston xalqlarining dilidagi bunday ruhiy tushkunlikning sababi XVI-XIX asrlar davomidagi milliy boshboshdoqlik va 1865-1917 yillardagi chorizmning mustamlakachilik siyosati edi. Xalqimiz ruhiyatini yaralab, qalbi va o'yiga qo'rquv va hadik joylagan edi. Xalqimizning turmush tarzi "kun ko'rish" degan tushuncha bilan almashgan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Hamma davr va zamonda ham bunday tushkin holatdan xalqni olib chiqib ketish uchun albatta yurtni sevadigan insonparvar, o'qimishli yetuk olimlarga ehtiyoj sezilgan. Chunki jadidlar orasida ham ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy jihatdan yetuk madaniyat arboblari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yetishib chiqib, yurtni obod Vatanni mustaqil ko‘rish orzusida fidoyilarcha kurashdilar. Shuning uchun birinchi o‘rinda keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash vositasi bo‘lgan yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, chuqur ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, buning uchun ularni mablag‘ bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan jamg‘armalar va ma’rifat o‘choqlari orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligini nazarda tutadi. Bu ishlarni amalga oshirishda jadid ziyoliylarining kuchli siyosiy partiyalarini tashkil qilish, partiyalar orqali targ‘ibot va tashviqotni kuchaytirish natijasida amalga oshirish mumkin edi. Jadidlar Turkistonni dastlab avtonom, keyin esa mustaqil davlat bo‘lishi uchun chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib jonbozlik ko‘rsatdilar.

Bu esa o‘z navbatida jadidlarni ilg‘or va yetakchi kuch sifatida ijtimoiy muhitga faol ta’sir qiluvchi eng ilg‘or mafkura sifatida o‘zini namoyon qilishga sabab bo‘ldi.

D.Alimovaning yozishicha jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishiga solayotgan-dinning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rnini to‘g‘ri tushunish, bozorni shakllantirish jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o‘lkada o‘ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun muhim shartlar bo‘lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi. Jadidlar islomning taraqqiyparvar rolini tushuntirish bilan ta’lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruriyatini tushuntirishga intilganlar. Qur’on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalaridan birida Qur’on oyatlari va payg‘ambarimiz hadislaridan namunalar keltirish bilan islom ta’lim, maorif va barcha fanlarga, shu jumladan, tarix faniga qay darajada katta ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligi oqibatida aksariyat hollarda o‘ng‘aysiz vaziyatga tushib qoladigan din peshvolarini tanqid qiladi [1].

Jadidchilik harakatini yoqtirmagan bolsheviklar uni faqat ma’rifiy harakat deb baholagan va jadidlarni siyosiy kaltabinlikda ayblab kelgan. Jadidchilik harakatining ulkan arboblari va tashkilotchilaridan biri Munavvarqori Abdurarashidxonov 1927 yil 7 iyunda “Chor hukumatini yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishi yashirin emas. Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqacha ta’bir bilan aytganda, do‘konda o‘ltirib nasiya yozadurg‘on xodimlar yetkazsak. Bu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq, bu yoqni mulohaza qilsun” [2], deb o‘z qarashlarini keng jamoatchilikka ilmiy asoslab berdi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning jadid maktabini tuzishdan maqsad, bolsheviklar aytganidek, savdo xodimlarinigina tayyorlash emas, balki xalqning umumiy saviyasini ko‘tarish, zamonaviy fanlarni egallagan injener, vrach, jurnalist, yuristdan tortib, davlat arbobigacha bo‘lgan kishilarni tarbiyalash va ular yordamida davlat idoralarini mahalliylashtirish, shu tarzda mustamlakachilarni Turkiston tasarrufidan siqib chiqarish edi. Jadidchilik harakatining bu jabhalari orqali Turkiston xalqlari hayotini tubdan o‘zgartirib, mustaqil o‘zbek davlatini qurmoqchi bo‘ldilar.

Jadidlar ijtimoiy-siyosiy qarashlari tizimida asosiy o‘rinni mustamlakachilarning shovinistik siyosatiga qarshi kurashlarida namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, chor hukumati rus bo‘lmagan boshqa millatlarni millat hisoblamasdi. Buni biz N.I.Ilminskiy singari amaldorlarning turkiy xalqlar va ularning “Tarjumon” gazetalariga bo‘lgan munosabtidan ham bilib olsak bo‘ladi. Uning Oberprokuror K.P.Pobedonossevga yozgan shikoyatlarida go‘yo Rusiyada hech

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qanday turk-tartar xalqi yo‘q, balki unda- bunda to‘p-to‘p bo‘lib yashaydigan qabilalar uchrab qoladi, deb ayuhannos soladi. “Tarjumon ” gazetasini esa, musulmon g‘oyalarini YEvropa maorifi bilan bezamoqchi, Rossiyada bir xil tilli turli qabilalarni bir millatga birlashtirmoqchi, barcha musulmonlar uchun turkiy til asosida yagona til yasamoqchi, deb shikoyat qiladi.

Jadidlar rus shovinistlarining bunday tuhmatlariga befarq qarab turgan emas va ularga qarshi kurashdilar. Shu o‘rinda jadidlar rus shovinistlariga qarshi turib millatchilik va millatparvarlik o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib beradilar. “Millatchilikni boshqa “chilik”lardan farqlamoq kerak, deb yozadi Ismoil Gasprali–Mayli millatchilikni kosmopolitlar va boshqalar eskilik qoldig‘i desinlar. Bu ularning ishi, lekin biz boshqacha tushunamiz. Har bir kishining o‘z yo‘nalishi, o‘z inrkeishof yo‘li bo‘lmog‘i kerak. Rusiya hududida yashovchi ko‘p millionli turk qavmi o‘z shaxsiy, milliy, madaniy qiyofasiga ega bo‘lishga haqlidir. Bizim turkiy xalqimiz chetdagilar bilan birgalikda ellik millionli tarixiy va etnografik birlikni tashkil etmoqda yetar endi birovlarning sarqitlari bilan kifoyalanmoq, yetar endi birovlarning fikr intilishlari bilan qanoatlanmoq, o‘zimizniki bo‘lmog‘i kerakdir”.

Bunday fikr va harakatlar turkiy xalqlarning o‘zini anglashga bo‘lgan da’vatlarning boshlanishi edi. Chunki bunday harakat uchun shart-sharoit yetilgan edi. Zero o‘zlikni anglash jadidlar nazarida, o‘zining amaliy ko‘rinishlarini ijtimoiy-iqtisodiy, diniy his-tuyg‘ulari va ma’naviy-ma’rifiy manfaatlariga zid ikkinchi bir tomondan zo‘ravonlik harakatlari sodir bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Ana shunday vaziyatda “millat vakillari, qaysi lavozimda xizmat qilishi, boy yoki kambg‘al bo‘lishidan qat’i nazar, yagona umummilliy kuch bo‘lib birlashadilar va o‘zlarini himoya qiladilar” [3].

Natijalar

Agar milliy o‘zlikni anglash tamoyiliga chuqur falsafiy mushohada nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, milliy o‘zlikni anglash har bir shaxsning ma’lum bir davlatga daxldor ekanligini his qilishi, moddiy va ma’naviy boyliklarga egalik qilish bilan birga shaxsiy javobgarligini oshirish, ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish va umumiy manfaatlar tengligini anglashdir.

Jadidlarning milliy o‘zlikni anglash borasidagi xizmatlari shundan iborat ediki, ular bir tomondan rus shovinistlarining qarashlariga zarba bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘z millatdoshlarini va umuman Turkiston xalqini hushyorlikka chorlaydi.

Behbudiyning millat sha’ni uchun kurashganligini va unga nisbatan jiddiy ilmiy asosda yondoshganligini mustamlakachilar tomonidan mahalliy turkiy xalqlarga qo‘llagan “sart” so‘zining noo‘rin ishlatilganligini asoslab berganligidan ham bilib olsak bo‘ladi. Behbudiy “Oyna” jurnalida 1914 yil 22, 23, 24- sonlarida bosilgan “Sart” so‘zi majhuldir” va shu jurnalning 1914 yil, 39-sonida e’lon qilingan “Sart” so‘zi ma’lum bo‘lmadi” maqolalari orqali bilib olishimiz mumkin. Behbudiy qolipga to‘g‘ri kelmaydigan o‘lkamiz xalqlari uchun haqorat hisoblangan “sart” so‘zi o‘rniga “Turkiston tojiklari”, “Turkiston o‘zbeklari”, “Turkiston arablari”, “Turkiston yahudiylari, “Turkiston turkmanlari” kabi tushunchalarni qo‘llagan. Bundan tashqari Turkistonda yashayotgan xalqlarning hammasining ildizi bir ekanligini va ular shuning uchun ham ahil yashashlari kerakligini uqtiradi. Behbudiyning “Qozoq qarindoshlarimga ochiq xat” maqolasi: “Hammangizga ma’lumdirki, Turkiston demak-turkiy el bo‘lib, mundagi xalqning qozog‘i, qirg‘izi, o‘zbegi, turkmani, tatari, hammasi aslan... jahongir Temurning avlodi yoki og‘a-inisidurlar” – degan fikrlari bor.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Behbudiy millatlar va xalqlar tarixini va etnonimi chuqur biluvchi etnograf sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda Behbudiy boshqa bir siyosiy masalani nazarda tutadi, ya’ni kelib chiqishi bir bo‘lgan o‘lka xalqlari mustaqillik va erk uchun kurashda hamjihat bo‘lib harakat qilishlariga da’vatdir. Qolaversa, har bir xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi ham umumturkiston xalqlarining birgalikdagi harakati natijasida amalga oshadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy yoshlarga murojaat qilib, millatning taraqqiyoti uchun kurashishga chaqiradi va ularni millat taraqqiyotining poydevorlari, deb tushunadi. U shu masalada yoshlarga murojaat qilar ekan “... bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot g‘ayratlu yoshlarning harakotit maorifparvaronalari soyasida vujudga keladi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo‘lgan mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarimizni marja’ va umidgoh tutib, alardan yordam so‘raymiz (mollari va so‘zlari ila millat foydasig‘a yordamlari tekgan ba’zi ulamou ag‘niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar.)”, deb yozadi [4].

Fitrat ham o‘zining “Munozara” asarida farangi bilan bo‘lgan suhbatida so‘zlarni davom ettirar ekan, yana bunday tarix faktlarini yuzaga chiqarar: “Farangi:... Janobi mudariss! Buxoro ilgarilari tugal mustaqil va ikki milyo‘n nufuzi bo‘lgan bir davlat edi. Muzaffarning mag‘lubiyatidan keyin xonlik tantanasi amirlikka, istiqlol dabdabasi vassallikka o‘zgardi, raiyat nufuzi uch barovar, yer maydoni esa o‘n barvar tushib ketdi. Agar yana bir oz muddat eski g‘aflatingizni davom ettirsangiz, din va millatingizning g‘amini yemasangiz, sharaf va nomusingizning muhofazasini o‘ylamasangiz, mehribon ona-Vataningizning huquqini unutsangiz, jahongir Temur bobongizning sha’ni va izzatiga xiyonat qilsangiz, bu mujassamani vahimalar doirasidan ham chiqarib tashlab, nom nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz, rohat uyida azal abad uxlayajaksiz”.

Aslini olganda “Munozara” asarini Fitrat yuragida saqlab kelgan va doimo jo‘shib turgan ana shu bashoratli so‘zlarni aytish uchun yozilgan bo‘lsa ajab emas.

“Farangi:...Ilm, mulk-mamlakat obodligining sababchisidir. Ilm millat taraqqiysining boisidir. Ilmdirki, Amriqo vahshiylarining qaynashini ushbu darajadagi takomil va buyuklik martabasiga yetkazgan. Ilmdirki, Eron zaminida ziyolilarni yo‘q qilmoqchi bo‘lgan ikki otni tanazzul va zillat chohiga qulatgan. Ilmdirki, bir siqim ingliz oroli egalarini Hind, Misr, Belujiston va Arabistonning bir qismiga farmon ravo qilgan, o‘rusning ziyoli bo‘lmagan ahlini Tatar, Qirg‘iz, Turkiston, Qafqaz musulmonlarig‘a molik qilib qo‘ygan...”.

Jadid maktabi, Fitrat nazdida, ilmning beshigidir. Bu beshikdan keyin albatta, maxsus o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining bo‘lishi va yoshlar tahsilni shu tarzda, zanjirsimon davom ettirishlari zarur.

Fitrat talqinidagi usuli jadida maktabining eski maktabdan farqi shundaki, “bolani olti yoshligidan maktabga yuboradilar, u o‘n to‘qqiz yoshida olim, mutaddayin, vatanparvar, dindo‘st, millatparast, siddiq, odil, tamom islomiy amrlarga mute, butun insoniy shartlarga mushtamal bir shaxs bo‘ladi. Demak, maktabi qadim va madrasalarga usuli qadim bilan birga o‘ttiz yil, tahsili jadida muddati esa o‘n uch yildir ”.

Tahsilning jadidlar ishlab chiqgan bu usuli xotin-qizlarning ham to‘laqonli ilm olishlariga imkon tug‘diradi; Binobarin, “Usuli jadidga ko‘ra, osonlik bilan ayollar ham erkaklar olim bo‘ladilar”. “Tahsili jadida,-deydi Fitrat o‘z qahramoni tilidan,-qizni olti yoshligida maktabga beradilar, agar xohlasalar, o‘n sakkiz, aksariyat o‘n to‘rt yil o‘qitib, tafsirxon va hadisxon olima qilib kuyovga beradilar”.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Jadidlarning ijtimoiy qarashlarida oila va oila munosabatlari masalalari keng o‘rin oldi. Bu mavzu ham jadidlar faoliyatining bir qismi sifatida maxsus fundamental o‘rganishni talab etadi. Jadid davriy matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning “Oyna” jurnalida oila masalalari hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Fitratning 1914 yili yozilib, 1915 yili nashr etilgan oila masalasida ma’naviy-falsafiy masalalari bayon qilingan “Oila” kitobi jadid ma’rifatparvarlarining e’lon qilingan asarlarining mantiqiy yakuni va ko‘rinishlaridan biridir. Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminida Qur’onda shu masala bo‘yicha olg‘a surilgan fikr va g‘oyalar yotadi. Fitratning oila va oila munosabatlari haqidagi fikrlarini o‘rganish orqali uning dunyodagi demografik vaziyat, oilaning falsafiy, huquqiy va shar’iy asoslarini shu qadar puxta egallaganligini guvohi bo‘lamiz.

Xulosalar

Jadidlarning fikricha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq. Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” degan fikrlar bor.

O‘z davrining zukko taraqqiyparvarlari bo‘lgan jadidlar davlat va jamiyat boshqaruvidagi turg‘unlik, qoloqlik, mutaassiblikni o‘z vaqtida anglay olganlari holda dunyoda bulayotgan keskin o‘zgarishlar, rivojlanish va taraqqiyot jarayonlarini xalqga yetkazish uchun albatta ularda yetarili bilim, hayotiy tajriba, shu bilan birga Markaziy Osiyo va YEvropa falsafasini ijtimoiy hayotga joriy etish ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtira olgan edilar. Ular rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning qanday qilib yuksalib borayotganliklarini o‘zlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali keng xalq ommasiga gazeta, jurnal va kitoblar orqali muntazam yetkazib borganlar. Mustaqillik va taraqqiyotga erishish uchun xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish jadidlarning muhim vazifalardan biri edi. Buning birdan-bir chorasi sifatida zamonga talabiga javob beradigan ilm-fan yutuqlarini milliy qadriyatlarga mos holda olib borish, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadiriyatlarni tiklash, mustaqillik, ozodlik, milliy g‘urur kabi tamoyillarni yoshlarning ongi va qalbiga singdirishni muhim vazifa deb bildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimova D.A. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri// Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent: Universitet, 1999.-B.37.
2. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. Tahrir hay’ati: O.Sharafiddinov, N.Aminov, N.Karimov, B.Qosimov, D.Alimova, S.Ahmedov, Sh.Rizayev.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.-B.123.
3. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: “Ma’naviyat”. 2004.-B.226.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar // To‘plovchi, so‘z boshi va izohlar: B.Qosimov. – 2-nashri, tuzatilgan va to‘ldirilgan. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – 280 b. – (Istiqlol qahramonlari). Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. B.175.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar // So‘z boshi va izohlar muallifi: H.Boltaboyev; Tahrir hay’ati: O.Sharafiddinov va boshq.; Mas’ul muharrir: N.Karimov /. – T.: “Ma’naviyat”, 2000. – Jild I Shye’rlar, nasriy asarlar, dramalar. – 256 b. B.68.

XOJAMNAZAR HUVAYDO BADIIYATIDAGI TASAVVUFIY FIKRLAR TARANNUMI

Ankabaeva Mohira Muradovna
Erkin tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoir va adib Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari, shuningdek, so‘fiy shoir merosidagi she’riy badiiyati tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar *: Qur’on, obraz, hadis, savob, majoz, arab, fors, toat, ibodat, komillik, valiy, osiy, radif, g‘azal, ilohiyot, pir, ishq, murshid, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Boborahim Mashrab.*

МИСТИЧЕСКИЕ МЫСЛИ В ЛИТЕРАТУРЕ ХОДЖАМНАЗАРА ХУВАЙДО

Анкабаева Махира Мурадовна
Внештатный исследователь

Аннотация: *В данной статье анализируются мистические взгляды поэта и писателя Ходжамназара Хувайдо, а также его поэтическое искусство в наследии суфийского поэта.*

Ключевые слова: *Коран, образ, хадис, заслуга, метафора, арабский, персидский, послушание, молитва, совершенство, вали, грешник, радиф, газель, теология, учитель, любовь, Абдулхалик Гиждувани, Бахауддин Накшбанд, Боборахим Машраб.*

MYSTICAL THOUGHTS IN THE LITERATURE OF KHOJAMNAZAR HUVAYDO

Ankabaeva Mahira Muradovna
Freelance researcher

Annotation: *This article analyzes the mystical views and poetic art of the poet and writer Khojamnazar Huvaido in the heritage of the Sufi poet.*

Keywords: *Qur’an, image, hadith, reward, metaphor, Arabic, Persian, obedience, prayer, perfection, valy, sin, radif, ghazal, theology, teacher, love, student, educator, Abdulkhaliq Gijduvani, Bahauddin Naqshband, Boborahim Mashrab*.

Kirish

Huvaydo she’riyatidagi tasavvufiy g‘oyalar xalqchilligi va betakrorligi bilan qimmatlidir. Xojamnazar Huvaydoning Markaziy Osiyo tasavvufi tarixidagi buyuk xizmati, ishonch bilan aytish mumkinki, farzandni maktabga berish va ilmli qilish musulmon ota – onalarining burchi, farzandi oldidagi qarzi ekanligi masalasini rasululloh hadisini dalil sifatida keltirib, kun tartibiga qo‘yganligidadir.

Huvaydo g‘azallari badiiy jihatdan g‘oyat pishiq-puxta bo‘lib, ularda turli-tuman badiiy san’atlardan mohirona foydalanish, til bezaklari, so‘z o‘yinlari, Qur’on va hadislardan o‘rinli foydalanish, arab harflari yordamida turli majoziy obrazlar yaratish ko‘zga yaqqol tashlanib

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

turadi. Shoirning arab, fors va o‘zbek adabiy tilini qanchalar yaxshi va puxta bilganligi uning badiiy mahoratida aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Huvaydo So‘fi shoir, hayotini halol mehnati bilan, toat-ibodat bilan o‘tkazgan valiy, gunohlardan tamom xoli, komil, parhezkor inson. Lekin shoir o‘zini tamom gunohkor, hammadan past, umrida savob ish qilmagan, toat-ibodatsiz o‘tgan osiy banda deb hisoblaydi:

Xayf umrim foniy dunyoda deb ado qildim g‘alat,
Bilmadim gavharni qadrin, kam baho qildim g‘alat...
Xayru ehson toat aylab, Haq rizosin topmadim,
Hosil aylab maqsadim, nafsim rizo qildim g‘alat.

Huvaydo o‘z she’rlarini mumtoz o‘zbek tilida yozgan. Uning tasavvufiy iboralari, she’riy uslubi ko‘proq Ahmad Yassaviy va Mashrab yo‘lini tutganligidan darak beradi. Shoir «mano» radifli g‘azalini Ahmad Yassaviyga nazira qilib yozgan bo‘lsa, bir qancha g‘azallarini Mashrabga nazira qilib yozgan: «kuyar», «kuygay» radifli g‘azallari (Mashrabda “o‘rtar” radifida yozilgan), «O‘zim» radifli she’ri (Mashrabda «o‘zim» radifli ikki g‘azal va muxammas mavjud), «uchrabman» radifli g‘azali kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Mutafakkirning yuqori darajadagi olamni anglash – aqliy konsepsiyasi xos ahlining ma’naviy inqirozini bartaraf etish uchun avvalo, ularning dunyoqarashi, bilim va saviyasini yuksaltirishga, so‘fiy hayotining ma’nosi haqida mulohaza yuritishga harakat qildi. Shuningdek, so‘fiylar e’tiborini Xudoning yo‘liga kirish, Ilohiy haqiqatga yetishish mashaqqatlari, molu – dunyo, farzand va xotinning Ilohiy ishq yo‘lida dushman ekanligi, qalbni dunyo havaslari va muhabbatidan tozalash, vujud sahrosini bosib o‘tish, o‘ziga munosib pir topish, ilmi qolsiz ilmi holga erishib bo‘lmasligi singari masalalarga jalb etdi.

“Naqshbandiya izdoshlari uchun XVII asr oxiri – XVIII asrlarda ko‘p tariqatlarga voris bo‘lish xos ekanligini “ e’tiborga olsak, Xojamnazar Huvaydo nafaqat naqshbandiya, qalandariya, xilvatiya, malomatiya tariqatlarining, balki zayniya tariqatining ilg‘or tasavvufiy g‘oyalarini ham izchil davom ettirdi.

Xojamnazar Huvaydo hayot va o‘lim haqida mushohada yuritar ekan, umrni qadrlash, uni zoe o‘tkazmaslikni, o‘zidan keyin yilqida mingta ot qoldirishdan ko‘ra, o‘chmas nom qoldirish afzal ekani, Xudoni sevish barcha g‘am – g‘ussalardan ozod bo‘lishning shifosi ekaniligini alohida ta’kidladi: “Saqlagil bir yaxshi ot, o‘zingga hargiz o‘lmasun, Ey Huvaydo saqlaguncha yilqida ming yaxshi ot”.

Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy g‘oyalari XIX – XX asrlarda uning iste’dodli avlodlari va izdoshlari tomonidan davom ettirildi va targ‘ib qilindi. Uning o‘shlik chevaralari Samar Bonu, Salohiddin Soqib, chimyonlik chevarasi Faxriddin eshon Xoqiy tasavvufiy she’rlarida buyuk bobolari g‘oyalarini izchil targ‘ib qildilar.

Nemis olimi Huvaydo asarlaridagi Sharq she’riyatiga xos umumiy jihatlarini idrok etdi. Fors adabiyotida sevimli motivlardan bo‘lgan dashti Karbalo, imom Hasan va imom Husayn, Yazid shahidlari kabi majoziy ma’no anglatuvchi tushunchalarni Xartmann birinchi bo‘lib, Huvaydo g‘azallarida uchratdi. Yevropa islomshunoslari tomonidan targ‘ib qilingan “Islom dinidagi sunniylar va shialar o‘rtasida azaliy muxoliflik qonuniyatlari” haqidagi nazariyasi Huvaydo g‘azallaridagi umuminsoniy mushtaraklikni anglatuvchi g‘oyalar bilan qat’iy rad etildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Huvaydo she’riyatiga murojaat Xartmann uchun Navoiy va Mashrab g‘azallari tarjimasiga kirishishdan avvalgi tajriba maktabi bo‘ldi. Huvaydo g‘azallarida in’ikos topgan ko‘plab badiiy va falsafiy obrazlarning “Devoni Mashrab”da ham uchrashi Xartmannga Huvaydoning Navoiy va Mashrab izdoshlaridan bo‘lganini anglatdi.

Olim Huvaydoning xorijda, jumladan, Istanbulda chop qilingan devonini to‘liq tasnif etib, nashriyot tomonidan yo‘l qo‘yilgan ko‘plab xatolarni tuzatdi. Bu esa klassiklarimizning xorijda chop qilingan devonlarini qayta – qayta tahrirdan o‘tkazishimiz va ularga matnshunoslik nuqtai – nazardan baho berishimiz lozimligini anglatadi.

Xartmann Huvaydo devonidagi munojotda, devondagi boshqa ko‘plab g‘azallarda Qur’ondan olingan suralarga ishora yoki oyatlarning to‘liq keltirilgani, shuningdek, hadislarning, hikmatlarning ma’nosini baytlar zamiriga singdirilganini to‘g‘ri idrok etib, g‘azal mohiyatini aynan qayta yarata oldi. Matn osti izohlarida esa u yoki bu baytdagi iqtibos san’atini keltirib chiqargan oyatlarning Qur’ondagi raqamini qayd etgan va mazmunni izohlagan. Izohlarda Qur’on va Hadis kabi muqaddas kitoblarning yevropalik tarjimonlari ham ko‘rsatilagan. Shuningdek, izohlar Xartmann Qur’onning mohir tarjimoni ekanini ham ko‘rsatdi.

Huvaydo tasavvufda yangi tariqat yaratmadi, balki naqshbandiya tariqati atrofida tasavvufning ilgaridan shakllangan ilg‘or g‘oyalarini uyg‘unlashtirishga, jamiyatni inqiroz va parokandalikdan qutqarish, iymon – e’tiqodli komil inson shaxsini shakllantirishning yangi qirralarini izlab topishga harakat qildi. Uning ijodida Imom G‘azzoliy, Abdulholiq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, So‘fi Olloyor singari mashhur mutasavviflarning g‘oyalari alohida o‘rin egalladi. Ularning asarlariga xos majoziylik va badiiylik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va adolatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashdi va yangicha ahamiyat kasb etdi.

Huvaydo jamiyatning ma’naviy hayoti va taqdiri uchun mas’ul bo‘lgan ahli xoslar (din, ilm – ma’rifat ahli, hukmdorlar)ni hidoyat va Haq yo‘ldan adashmaslikka da’vat etdi. Bu dunyoning bevafo va o‘tkinchi ekanligini, ma’naviy ganj hech qachon o‘lmasligini, chinakam insoniy baxt qalbni poklash, Allohni sevish, xalqqa sidqidildan xizmat qilish, o‘zingdan yaxshi nom qoldirishda deb bildi.

Huvaydo tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib etishda malomatiya tariqati g‘oyalaridan o‘rinli foydalandi va bu bilan o‘z salaflaridan ancha ilgarilab ketdi: zamondoshlarining kamchilik va nuqsonlarini, ayb va gunohlarini o‘zining shaxsiy kamchiliklari sifatida fosh etdi. Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) o‘rtasida islom dini ta’limotini, hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targ‘ib qilishga, ularning diniy bilim va saviyasini ko‘tarishga, shariat ahkomlarini sodda va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi.

Huvaydo tasavvufning insonparvarlik, bag‘rikenglik, ma’rifatparvarlik, jo‘mardlik g‘oyalarini targ‘ib etishda so‘z san’atining an’anaviy majoz, ramz va boshqa badiiy vosita hamda imkoniyatlaridan mohirona foydalandi. Shogirdi Noseh Chimyoniy ta’kidlaganidek, she’riyat Huvaydo uchun asosiy maqsad emas, balki tasavvufiy g‘oyalarini yoyish, inson qalbini ma’rifat ziyosi bilan charog‘on etish, odamlarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, “oqillarga ishora, g‘ofillarga tanbih” vositasi edi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Huvaydoning devoniga kiritilgan turli shakldagi she'rlari asosan jamiyatning o'qimishli, ma'rifatli qatlami uchun, "Rohati dil" dostoni va "Ibrohim Adham" qissasi esa ilmdan yiroq oddiy avom uchun mo'ljallangan edi.

Shoir "Rohati dil" dostonining "Sababi nazmi kitob" bobida tojik tiliga behunarroq bo'lgan Chimyon ahli uchun nasriy hikoya va rivoyatlarni turkiy tilda bayon qilish, zamondoshlarini islom ma'rifatidan bahramand etishni, o'zidan bir yodgorlik qoldirishni maqsad qilib qo'yganini aytadi:

Ko'ngilni shahri sori azm qildim,
Kitobim nasr erdi, nazm qildim.
Bu Chimyon shahrini piru juvoni
Tamomiysi erurlar turkiyxoni.
Alar tojik so'ziga behunarroq
Dedim bo'lsa kitobim turkiy behroq.
... Chu mandin qolsa dedim yodgori,
Kitobim ketsa har shahru diyori.
O'qib shoyad yoronlar yod qilg'oy,
Duoda ruhi pokim shod qilg'oy.

Natijalar

Dunyoqarashi, tafakkur tarzi, badiiy uslubi jihatlaridan Xojamnazar Huvaydo islomning umuminsoniy g'oyalarini kuylashdagi hamohanglik hamda tasavvuf maslagiga e'tiqod yaqinlashtirgan. Huvaydo dunyoqarashida, ayniqsa, Yassaviy va Mashrabga izdoshlik yaqqol seziladi. Ilohiy ishqning bu uch otashin oshig'i Allohga muhabbat bog'lash borasida birlashadilar. Yassaviy hikmatlarida "Dunyo uchun g'am yema, haqdin o'zgani dema" tarzida nido cheksa, Mashrab "Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo", deya bong uradi. Huvaydo esa, ularga quyidagicha yakdillik izhor etadi:

Dunyoda hoyu havas qilmoq abas,
Bir Xudodin o'zgani suymoq abas.

Allohnigina suyish, Allohdan o'zgaga mehr qo'ymaslik, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, komil mo'minlikning garovlaridandir. So'fiylar ba'zilarining Allohga imon va toat bilan birga dunyo ne'matlariga, orzu – havaslariga, mansab – martabasiga, shon – shuhratiga ham mehr bog'lashini qabul qilisha olmaydi. Ularning nazarida, bundaylar dunyo yutuqlariga erishgan sari hoy – havaslari ham kuchayib ketadi, dunyo g'amini unutishishadi, dunyoga muhabbatlari rag'batlanib, Allohga muhabbatlari susayadi. Xullas, bora – bora dunyoning naqd manfaatlariga fido bo'lib, Xudoga baxshidalikni nasiyaga qoldirishadi. Va oxir – oqibatda nopok, tama'gir, riyokor kimsaga aylanib baroyotganliklarini sezmay ham qolishadi.

Yassaviy, Mashrab, Huvaydolar dunyoqarashiga ko'ra, bunday kimsalarning iymonida manfaatparastlik, tama' bordek. Go'yoki ular jannatga tamagirlik, jannatiy huzur – halovat manfaati bilangina Tangriga ibodat qiladilar. Holbuki, Huvaydo maslagidagi So'filarni na jannat va undagi huru huzur – halovatlar, na hafzi kavsar, na boshqa manfaatlar qiziqtirgan. Ular faqat va faqat Alloh muhabbati, visoli orzui bilan yashaganlar:

Hur ila jannating netay, anda yuzingni ko'rmasam,
Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar.

Riyosiz ham tama'siz ham taqvoga intilish, Alloh muhabbatini dilga naqshlab, sidqidildan ibodat qilish Huvaydo dunyoqarashining asosiy mezonlaridan edi. Ma'lumki, riyokor va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tama'gir taqvodorlarni Alisher Navoiy riyo dengizida tama' kemasiga tushib olib suzayotgan shayx timsoli vositasida tanqid qilgan edi. Boborahim Mashrab esa, soxta taqvodor suvratini bunday chizadi:

Namozu taqvosin zohid qilur olam aro mashhur,
O'gurub subhasin tinmay, ishi doim riyo ermish.

Demak, namozxonlik, tinmay tasbeh o'girish hali imonning yuzaki ko'rinishi bo'lib, shu bilangina cheklanilsa, riyo bo'lib qolar ekan. Huvaydo ustozlari fikrini rivojlantirib, aytadi:

Yorni istar ersang, maxfiy ibodat qilako'r,
Xudnamoliq bila bu qilg'on ibodat ne bo'lur?

Huvaydo o'z dunyoqarashini takomillashtirish maqsadida tasavvufning eng yetakchi tariqatlari – yassaviya hamda naqshbandiya ilg'or insonparvar xususiyatlarini uyg'un ravishda mujassamlashtirishga harakat qilgan. G'ariblarning dillarini og'ritmaslik yassaviyada asosiy g'oyalardan bo'lsa, ko'ngil zikri, ko'ngil ziyorati naqshbandiyaning mohiyatini belgilovchi xususiyatlardandir. Bu maslakdagilar e'tiqodicha, inson ko'ngli Allohga muhabbatning muqaddas oshyonidir. Shuning uchun ko'ngilga munosabat – Ka'baga munosabatday baholanadi. Alisher Navoiy Allohning muhabbati barhayot ko'ngilni shod etish savobini bunday ulug'laydi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Alisher Navoiy e'tiqodicha, g'amgin bir inson ko'nglini shodlikka to'ldirish savobi shu qadar ulug'ki, uning savobi muqaddas ziyoratgoh Ka'ba buzilib qolsa, o'shani qaytadan barpo etish bilan barobardir.

Mashrab dunyoqarashicha, jahonda ko'nglida Alloh yodi bilan yashaydigan har inson dilini tavof etib yurish kerak:

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar Ka'ba buzilmasmu?

Bir mo'min dilini buzish yuzlab ka'balarni vayron etishdek gunohi azimdir. Zotan, bir inson dili jarohatlanishidan yuzlab yuraklar larzaga keladi.

Huvaydo ham ulug' savobli ibodat – Ka'ba ziyorati, haj safarining yaqin va o'ng'ay yo'lini ko'rsatadi:

Bir g'aribning ko'nglini shod aylasang,
Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq abas.

Xojamnazar Huvaydodan uch yuz yil ilgari yashab o'tgan va naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahouddin Naqshband ta'limotining tub falsafiy mohiyati va bu ta'limotning Xojamnazar Huvaydo ijodi va faoliyatiga ta'sirini o'rganishga harakat qilgan.

Xulosa

Muallifning ta'kidlashicha, naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyoning tarixiy, madaniy va siyosiy markazlaridan biri bo'lgan Buxoro shahrida XIV asrning ikkinchi yarmida xojagon tariqatining vorisi sifatida dunyoga keldi. Shuhratparastlikni inson va shaxs kamoloti yo'lidagi ofat deb bilgan xojagon – naqshbandiya pirlari ilmni Allohning omonat ehsoni, buyuk marhamati sifatida keyingi avlodlarga berishni, ilm ziyosi bilan zulmatni yoritish, jaholat, nodonlik va qashshoqlikni bartaraf etishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yganlar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xojamnazar Huvaydo. Qodirqul Ro‘zmatzoda. So‘zboshi. Devon. –T.: Yangi asr avlodi, 2017
2. Xojamnazar Huvaydo. Devon. –T.: Yangi asr avlodi, 2005
3. Ro‘zmatzoda Qodirqul Ro‘zmat o‘g‘li. Xojamnazar Huvaydo diniy – mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidagi o‘rni. Falsafa fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati , T., 2020
4. Todjixodjaev M. O‘zbek adabiyoti namunalari Martin Xartmann tarjimasi va talqinida. T.:”BAYOZ” 2016
5. Xojamnazar Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. Tabdil qiluvchi, nashrga tayyorlovchi Ro‘zmatzoda Qodirqul. “Navro‘z” nashriyoti, T.: 2011
6. Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Huvaydo tasavvufiy she’rlarida falsafiy – badiiy talqin. Sharq yulduzi jurnali. 1998-4- son

IJTIMOIY DAVLATNING JAMIYAT MUHITIDAGI FALSAFIY-AXLOQIY OMILLARI.

Qahhorova Matlyuba Monofovna
O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar”
kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada ijtimoiy davlat asoslarining falsafiy, axloqiy-ma’naviy omillari sifatida xulq-odob, ibo, hayo, insof, iffat, adolat va vijdon kabi axloqiylik tushunchalarga oid g‘oyalarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Insoniyat tafakkuri tarixidagi azaliy muammolar mutafakkirlar qarashlarida ifodalanishini o‘rganish, inson ruhiyati, axloqi va madaniyatidagi jihatlar manbai asosida asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Yaratilgan tarixiy meros ijtimoiy davlat asoslarini haqiqat, fan, usul, metodologik bilish va nihoyat u ma’rifat, axloq, etika qadriyatlar ekanligi ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar**. Ijtimoiy davlat, insonparvar davlat, inson qadri, muhit, axloq, bag‘rikenglik, sahovat, ijtimoiy himoya, adolat, ijtimoiy adolat.*

ФИЛОСОФСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ В СРЕДЕ ОБЩЕСТВА.

Кахорова Матлюба Монофовна
Международная исламская академия Узбекистана
«Международные отношения и социальные науки»
профессор кафедры, доктор философских наук.

***Аннотация**: В данной статье проводится социально-философский анализ представлений, связанных с такими понятиями этики, как манеры, идиоматика, скромность, честность, целомудрие, справедливость и совесть как философские, моральные и духовные факторы основ социального государства. Важно изучить выражение древних проблем истории человеческого мышления во взглядах мыслителей и обосновать их, исходя из исходных аспектов человеческой психики, морали и культуры. Выявлено, что созданное историческое наследие является основой социального государства: истина, наука, метод, методологическое знание и, наконец, просвещение, мораль и этика.*

Ключевые слова. *Социальное государство, гуманное государство, человеческое достоинство, окружающая среда, мораль, толерантность, щедрость, социальная защита, справедливость, социальная справедливость.*

PHILOSOPHICAL AND ETHICAL FACTORS OF THE SOCIAL STATE IN THE SOCIETY ENVIRONMENT.

Qahhorova Matlyuba Monofovna
International Islamic Academy of Uzbekistan
"International relations and social sciences"
professor of the department, doctor of philosophy

Annotation: *In this article, a socio-philosophical analysis of ideas related to the concepts of morality, such as behavior, idiom, modesty, honesty, chastity, justice and conscience as philosophical, moral and spiritual factors of the foundations of the social state. It is important to study the expression of ancient problems in the history of human thinking in the views of thinkers, and to justify them based on the source of aspects in the human psyche, morals and culture. It was revealed that the created historical heritage is the foundation of the social state: truth, science, method, methodological knowledge, and finally enlightenment, morals, and ethics.*

Keywords. *Social state, humane state, human dignity, environment, morality, tolerance, generosity, social protection, justice, social justice.*

Kirish

Jamiyat muhitida ma'naviy - axloqiy ehtiyoj sifatida "ijtimoiy himoya" tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi ham uzoq tarixga ega bo'lib, azaldan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga ajratilgan, tadbiq etilgan maqsadli "sarmoya"lar, uning yuqori darajada o'sishiga olib kelgan. "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini amalga oshirish esa, xalqning farovon turmush darajasini ta'minlashga xizmat qiladigan insonparvarlikka asoslangan tom ma'nodagi axloqiy faoliyatdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi turmush darajasini oshirish, bandlik muammosini oqilona yechimini topish, sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, adolatli teng imkoniyatlar yaratish, aholining ehtiyojmand qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bosh qomusida har kim hech qanday kamsitilishlarsiz qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi belgilangan. Chunki ijtimoiy davlat modelida inson qadrini ulug'lash, aholiga xizmat qilish, har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib berish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib borish kabi insonparvarlik tamoyillari mujassamlashgan. Eng oliy qadriyat inson ekan, uning baxt-saodatiga xizmat qilish, jamiyat muhitida har bir insonni ayniqsa, ehtiyojmand qatlamni himoya qilish uning qadr-qimmati, erkinligi, baxt-saodati, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilish kabi masalalar avvalo axloqiylikka, odamiylikka taalluqli masala hisoblanadi. Demak, ijtimoiy davlat ehtiyojmand qatlamning yashash uchun zarur bo'lgan birlamchi talablarni qondirishi hamda munosib hayot (turmush tarzi) kechirishi uchun yetadigan moddiy ta'minot va xavfsiz yashash va mehnat qilish sharoitini yaratish kabilarni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ushbu tushunchani izohlar ekan, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”, deya ta'rif bergan. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham mazkur masalaga alohida to‘xtalib: “Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgarilab bormoqda”[1.] – deb ta'kidlaganliklari ham bugungi kunda yurtimizda ijtimoiy davlat mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi olib borilayotgan keng islohatlarni anglatib turibdi.

Bugungi globallashuv jarayonida ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish insoniyatning tarixiy tajribasi tomonidan ishlab chiqilgan dunyoviy qadriyatlar va maqsadlarni targ‘ib qilish, bag‘rikenglik, birodarlik, sabr, qanoat, shukronalik, murosayu madora kabi axloqiy tamoyillarni shakllantirish, turkiy olam ma'naviy-axloqiy merosiga oid g‘oyalardan samarali foydalanish o‘ziga xos uslubiy, nazariy, g‘oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim omildir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jahon tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, turkiy zabon xalqlarining falsafiy merosi dunyo xalqlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Darxaqiqat, turkiy dunyo jahonga buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va yozuvchilarni in'om etgan. Ana shunday iste'dod sohiblaridan mutafakkir va faylasuf Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Lutfiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va yana yuzlab daholarni misol qilib keltirish mumkin. Ulardagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar umuminsoniy madaniyatning, milliy-ma'naviy merosning eng porloq namunasi bo‘lib, umumbashariy ahamiyatga egadir. Jumladan, xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylangan “Xamsa” asarida turkiy tafakkur, turkiy ruh aks etgan mohiyat va g‘oyalar bugungi kunda ham insoniyatning betakror madaniy qadriyatlari xazinasida o‘ziga xos munosib o‘rin egallab turibdi. Ayniqsa, ularning ma'naviy-axloqiy merosi bugungi madaniy jarayonlarni uyg‘unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni asrab qolish uchun tinchliksevarlik, gumanistik ahamiyatga ega bo‘lib, barcha xalqlarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan xalqchil va insonparvar siyosatning asosida ham buyuk ma’naviy merosda o‘z ifodasini topgan ma'naviy-axloqiy fazilat amaliyoti mujassamlanib, inson qadrini ulug‘lash, uning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma’rifiy manfaatlarini ta'minlash o‘z ifodasini topgan. Ma’naviy meros falsafiy tahliliga e'tibor qilinsa, “inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug‘ ajdodlarimizning qayg‘usi bo‘lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayru sharr (ezgulik va yovuzlik) chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, ular rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar”[2.150.] . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovichning “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim”[3.37.] ,- deb qayd etishlarida ham mazkur ishlarning zarurati va masalaga oid ilmiy tadqiqotlarning nechog‘lik dolzarb ekanligini anglaymiz.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xalqimiz ma'naviy olami, tarixiy merosini buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning yuksak insoniy tuyg‘ular ulug‘langan asarlari, axloq odob ustuvorligiga asoslangan qarashlarisiz tasavvur etish qiyin. Xususan, buyuk donishmand faylasuf, vatanparvar va insonparvar shaxs, hazrat Alisher Navoiy turk xalqlari falsafiy axloqiy merosiga beqiyos hissa qo‘shgan, uning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy, axloqiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi.

Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayrat ul - abror” bo‘lib, dostonning bosh g‘oyasi komillik masalasiga qaratilgan. Dostondan o‘rin olgan maqolat va hikoyatlarning har birida muayyan bir ijtimoiy-falsafiy masala yoritilgan bo‘lib, inson ma'naviy kamolotida axloq va axloqiylikning o‘rni ochib berilgan. Xususan, maqolatlarning boshlanish qismida iymon masalasiga munosabat bildirilib, Kimki jahon ahlida inson erur,

Bilki nishoni anga iymon erur [4.100.] deb qayd etilgan. Hazrat Navoiy sabr, shukr va hayo kabi axloqiy fazilatlarni iymon tushunchasini to‘ldiruvchi komponentlar sifatida taqdim etar ekan, “Kimdaki iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deb qayd etadi. Shuningdek, mazkur uch belgining sifatlarini inson axloqiy kamolotiga ikkiyoqlama ta'sirini ochib beradi. “Hayrat ul - abror” dostonining to‘rtinchi maqolatida o‘z davri voqeligidan kelib chiqib jamiyat hayotida uchrab turgan riyokorlik illati ko‘rinishlaridan birini ochib berar ekan, mazkur illat oqibatida jamiyat muhitida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni, ularning sabab oqibatlarini, shakl mazmunini ko‘rsatib beradi. To‘rtinchi maqolat “Riyoyi xirqapo‘shlar sulukidakim...” deb nomlanadi. Navoiy “riyo'i xirqa po‘shlar” timsolini yaratar ekan, uchta asosiy jihatga e'tibor qaratadi: birinchidan, diyonatsiz “dindor”lar ommani aldaydigan darajada tashqi suratlarini so‘fiylarga moslashtirganlar: xirqalari darveshlarnikiday quroq parchalardan tikilgan, qo‘llarida hamisha tasbih, eski sallani chirmab, doimo zikr tushish orqali odamlarning e'tiborini o‘zlariga jalb etadilar deb ko‘rsatadi. Ayni paytda o‘z davrida jamiyat muhitini beqarorlashtirishga sabab bo‘lgan illatlarning mazkur ko‘rinishlarini, muayayn holatlarda bugungi kun voqeligida ham uchrab qolayotganligi kuzatilmoqda. Ba’zi sohta tariqatchilar tomonidan tasavvufning mazmunini buzib, uning ta'limoti, shariat ahkomlari va ijtimoiy hayotdan uzoqlashgan holda talqin etilmokda. Aholi o‘rtasida muayyan shaxslarning sunniylikdagi Naqshbandiya va boshqa shu kabi tariqatlarni aholi orasida soxta shayxlar, eshonlar tomonidan buzib, targ‘ib qilinayotgani kuzatilayotganligi o‘ta achinarli holat bo‘lib, bu “ommaviy madaniyat” tahdidining yaqqol ko‘rinishidir. Ularni yoshlar auditoriyasiga keng kirib borgan ijtimoiy tarmoqlarda urchib borayotganligi esa hammamizni ogohlikka chaqiradi. Jamiyat muhitida kam bo‘lsada, ba'zi bir kimsalar tariqatga kirdim deb, kiyim-boshlarini, yurish-turishlarini o‘zgartirmoqda, mahalla-ko‘ydan ajralib, qaramog‘idagi oila-a'zolarini qarovsiz qoldirish xolatlari kuzatilmokda. Kiyinish borasidagi ko‘r ko‘rona taqlid, fuqarolarga nisbatan kibrli munosabat, puxta diniy va dunyoviy ilm olishga intilmaslik va boshqalar islomda riyokorlik hisoblanadi. Binobarin, janob Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Alloh, taolo sizlarning tashqi ko‘rinishlaring va mol-mulklaringga emas, balki amallaringizga qaraydi” [5.336.] , deb aytganlar. (Imom Muslim rivoyati).

Ikkinchidan, bu toifaning muridlari ham shayxlariga o‘xshab, yolg‘on, hiyla va riyoni san'at darajasida o‘zlashtirganlar. Ular nasha tarqatadigan bangi shayxlarini Xizr deb ataydilar, safsatalarini karomat sifatida talqin qilib, ovoza qiladilar. Birov agar zarracha shubha yo e'tiroz bildirsa, unga qarshi jamiyki tuhmat va bo‘htonlarni ishga soladilar. Bu toifa shaxslar o‘zlarini eng aziz va muhtaram kishilar qatorida ko‘rsatish va bemaza qiliqlarini manzur, ma'qul fazilat

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

deb jar solishni kanda qilmaydilar, boshqalarni ham shunga ko‘ndirmoqchi bo‘ladilar. Mazkur toifa kishilar jamiyat uchun eng xavfli hisoblanib, ulardan har qanday yomonliklarni kutish mumkin.

Uchinchi jihat shuki, bu nayranglar va soxta mashhurlikdan asosiy maqsad - boylar nazariga tushish, ko‘proq nazr-niyoz to‘plashdir. Navoiy xulosasi bo‘yicha, din va diyonat niqobi ostida riyokorlik qiladigan, odamlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradigan bu toifa eng yomon kimsalardir:

Bu el erur barcha yomondin yomon,

Kimki yo‘q ondin yomon - ondin yomon[4.137.]. Vaholanki, haqiqiy so‘fiylar: bu dunyoning yaxshi - yomoni bilan ishlari yo‘q, yolg‘on, shuhratparastlik va riyodan uzoq, ko‘ngli muhabbat va ma'rifat nuri bilan munavvar, Haq yo‘lida sobitqadam, payg‘ambar sunnatidan bir qadam ham chekinmasdan ruhiy xotirjamlikni kasb qilgan zotlar bo‘lishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

So‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqdagi ba'zi diversion “kuchlar” tomonidan musulmon ummatini orasiga ixtilof soladigan, bahs va munozaralarga sabab bo‘ladigan, odamlar o‘rtasida fitna chiqishiga sabab bo‘ladigan mavzulardagi chiqishlar “ma'ruzalar” urchib bormoqda. Internet va raqamli axborot vositalari orqali adashgan toifalar din niqobi ostida ekstremizm, mazhabsizlik, takfir va mutaassib qarashlar tarqatayotgani xavotirli holat bo‘lib, bu kabi qo‘shtirnoq ichidagi “dindor- da'vatchilar” o‘zlarining soxta qarashlari bilan muayyan dunyoqarashi tor, mustaqil fikrga, yetarli bilim va ilmga ega bo‘lmagan yoshlarni mazhabsizlik girdobiga tortishga harakat qilmoqdalar. Bu yovuz kuchlar orasida kuchli “og‘diruvchi” neyrolingvistik targ‘ibot texnologiyalari bilan qurollangan amaliyotchi psixologlar bo‘lib, ular xalqning muayyan qatlamini miyasini zaharlashda shunday makkorlik bilan ish qilmoqdalarki, “Sen mazhabga ergashasanmi, yoki sahih hadisgami?”, deya faqih ulamolar bilan muhaddis ulamolarni bir biriga qarshi qo‘ymoqdalar. Tarixda ilm cho‘qqisini zabt etgan yurtimiz ulamolari qaysidir amalni qilmagan bo‘lsalar, yoki qaysidir hadisni zikr qilmagan bo‘lsalar, bu faqatgina farosat va ilm sababli, musulmonlarning birdamligiga hizmat qilgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda yuzaga kelayotgan muammolar yetarli ilm va malakaga ega bo‘lmagan shaxslarning “fatvo”lari oqibatida kelib chiqayotganligi ham ayni haqiqatdir. Agar ma'naviy meros manbalari va hozirgi kun ilmiy voqeligi qiyosiy taxlil qilinsa, Internet yulduzi bo‘lib turgan “shayx”larning soxta, jimjimador “da'vat”lariga aldanib qolmasdan avvalo ilm o‘qing [6.] deya aholini ogohlikka, ma’rifatga chaqirish ham hazrat Navoiyning “Hayrat ul - abror” dostonida ko‘tarilgan jamiyat muhitini beqarorlashtiruvchi illatlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan axloqiy saboqlar ham muhim da'vatlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi albatta. Mutaxassislar tomonidan bu kabi ilmsizlik, ko‘r-ko‘rona taqlid jamiyat muhiti uchun xavf tug‘dirishi ilmiy asoslanib, ularga qarshi kurashni hozirda olib borilayotgan ma'rifiy islohotlar, xususan, “Jaholatga qarshi ma’rifat” chora tadbirlari bilan profilaktika qilinmoqda. Chunki, bugun insoniyatni tashvishga solayotgan terrorizm va ekstremizm kabi balo-qazolarni bartaraf etishda faqat ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklanmasdan, birinchi navbatda bu tahdidlarni keltirib chiqarayotgan sabablarga qarshi kurashish, yoshlarni ezgu insoniy ideallar ruhida kamol toptirish eng asosiy vazifaga aylanmoqda”[7.348.] . Demak, globallashuv davrida, turli xil mafkuraviy tahdidlar qurshovida yashar ekanmiz, bunday murakkab va taxlikali sharoitda jamiyat muhitida namoyon bo‘layotgan o‘zgarishlar dinamikasining rivojlanish darajasi va uning xalqimiz milliy-axloqiy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

xususiyatlariga ikkiyoqlama (endogen va ekzogen) ta’siri masalasiga jiddiy e'tibor berishimiz kerak bo‘ladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar jumladan, jaholatga qarshi kurash ishlarini mutazam ravishda jadallashtirish, bugungi axborot zamonidagi, turli ixtilof, g‘oyaviy xuruj va tahdidlarning oldini olish uchun tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, ilm-ma'rifatga asoslangan ma'rifiy islom ta'limotini keng targ‘ib qilish, bag‘rikenglik va o‘zarohamkorlik muhitini qaror toptirishni taqozo etmoqda.

Agar beshinchi maqolatga e'tibor qaratsak O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining birinchi moddasida belgilab qo‘yilgan ijtimoiy davlat[8.4.] tushunchasini tushunish imkoniyati yanada kengayadi. Beshinchi maqolat karam va sahovat haqida bo‘lib, unda berilishicha, Xudo kimga mol-davlat bergan bo‘lsa, saxovat va qo‘li ochiqlik uning qismatiga aylanishi kerak. Eng yomon sifatlardan biri baxillik bo‘lsa, eng yaxshi xislatlardan biri saxovat hisoblanadi. Navoiy ushbu maqolatda sahovatning quyidagi shartlarini keltiradi:

1) sahovatda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik;

2) shuhratparastlik yuzasidan xayr-saxovat qilmaslik;

3) faqat muhtoj kishigagina xayr qilish;

4) befoyda ehson oshlari va xayriya tadbirlarni o‘tkazish uchun xalq molini talon-toroj qilmaslik;

5) xayr-u ehson qilishda sababchini Xudo, o‘zini bor- yo‘g‘i bir vosita deb bilish, sahovatni Alloh yo‘lida qilish deb belgilaydi.

Xulosa va takliflar

Ijtimoiy himoya tizimi bu xalqimiz asrlar bo‘yi ardoqlab kelgan ezgu amal, milliy qadriyat. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, milliy davlatchiligimizda “ijtimoiy davlat” tushunchasi IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. “Ijtimoiy davlat” mohiyatiga oid o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin. Unda axloqiy jihatdan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashdek ctrategik maqcadga erishishda ajdodlarimizning axloq-odob macalalariga doir nodir acarlarini tadqiq etish, ularda ifodalangan inconparvar g‘oyalarni ijtimoiy hayotga tatbiq etish bugungi kunda alohida ahamiyat kacb etadi. Alisher Navoiy xulq - odob masalasiga, kishining axloqiy sifatlariga katta e'tibor bergan va dostonning oltinchi maqolatida odob, hayo, xokisorlik, hushtavozelik xaqidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. Axloq-odob odamiylik sifatlari ulug‘lanib, yaxshi odob, yaxshi xulq - saodat kaliti, deb ta’riflagan. Xushtavoze'lik uyatsiz, hayosiz mutakabbirlarni ham insofga keltirib, yaxshi yo‘lga qaytarishi mumkinligi, umuman xushtavoze’likka asoslangan xulq egasining shirin tili dilga quvvat, nozik harakati ruhga madad ekanligi, shuningdek, xokisorlik sifati va uni egallash uchun ichki insoniy g‘urur, o‘z qadriga va o‘zgalar qadriga yetish, ko‘p o‘qish, ko‘p bilish va hikmat-donishga ehtiromni kuchaytirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/6677.

ISSN: 2181-0427

2. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at. 1999.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
4. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” MAT. T.7. – T.: 1991.
5. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. Ikkinchi nashr / Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. -T.: “Sharq”, 2013.
6. Islomov Yo. Har bir ilmni rivoyat qilish mumkinmi/O‘MIning Toshkent viloyati vakilligi xodimi. http://old.muslim.uz/index.php/ar/tarraiqiyot-kushandalari/item/31051
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston. NMIU. 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi. T.: Yuridik adabiyotlar, 2023.
9. Qahharova Matlyuba Manofovna. (2021).The role of moral education in the problem of personality activity. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 340-344.
10. Qaxxarova, M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. *Oriental Journal of Social Sciences*, 30-36.
11.Qaxxarova, M., & Tuychieva, H. (2019). Spiritual-moral environment and its basic indicators. *The Light of Islam*, *2019*(4), 24.
12.Qaxxarova, M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. *Oriental Journal of Social Sciences*, 30-36.
13. Urmonalievich, Y. S. (2023). Views on Socio-Cultural Technologies in the Transformation of Society. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, *18*, 15-19.

OILADA YOSHLAR MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY IMPERATIVLARNING O’RNI

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi katta o’qituqchisi f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muomala madaniyati psixologik asoslari mavzusi bayon etilgan va muloqotning shaxs hayotidagi roli, vazifasi, oilada farzand tarbiyasi, oilaviy muhitda shaxsning muloqotga bo’lgan ehtiyoji kabi masalalar yoritilgan.*

Tayanch so’zlar: *Muomala madaniyati, muloqat, oila, ilaviy munosabatlar, tarbiyaviy muhit, umuminsoniy qadriyatlar, Oilaviy munosabatlar*.

РОЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ИМПЕРАТИВОВ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МОЛОДЕЖИ В СЕМЬЕ

Эгамбердиева Нафиса Мустафаевна
Навоийский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры «Национальная идея, основы духовности и правового воспитания» (PhD)

Аннотация: *В данной статье раскрывается тема психологических основ культуры общения и такие вопросы, как роль и функция общения в жизни человека, воспитании детей в семье, необходимость общения в семейной среде.*

Ключевые слова: *Культура взаимодействия, общение, семья, социальные отношения, образовательная среда, общечеловеческие ценности, Семейные отношения.*

THE ROLE OF SPIRITUAL-MORAL IMPERATIVES IN THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF YOUTH INTERACTION IN THE FAMILY

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
Navoi State Pedagogical Institute
Senior lecturer of the "National idea, foundations of spirituality and legal education"department (PhD)

Abstract: *This article describes the topic of the psychological foundations of the culture of communication and highlights the role and function of communication in a person's life, raising children in the family, and the need for communication in the family environment.*

Key words: *Culture of interaction, communication, family, social relations, educational environment, universal values, Family relations.*

Kirish

Bugungi kunga kelib 0`zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari yaratildi. Bu negizlar - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik singari tamoyillar asosida rivojlantirildi.

Aytish lozimki, ma'naviyat, avvalo, tildan boshlanadi. Til madaniyat bilan bevosita bog'langan, til madaniyatini esa muomala madaniyatidan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Shu bois insonlararo muomala madaniyatini ma'naviy jarayonga daxldor hodisa desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qaysi inson muayyan kuch va qudratga ega bo'ladi. Muomala ham ma'naviy kuch va ma'naviy qudrat mahsuli. Bundan anglanadiki, insonning tabiatida muomala qilishga moyillik azaldan mavjud bo'lib, buni ro'yobga chiqarish insonning o'ziga bog'liq bo'lgan. Biroq ayrim hollarda inson nazarida juda kichik va elemintar bo'lib ko'ringan — shirinso'zlik, xushmuomalalik, oliyjanoblik kabi fazilatlar kishilarning ma'naviy dunyosiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatishini his qilmaymiz. Ayni paytda, mahmadonalik, qo'rslik, chaqimchilik. to'poslik, yolg'onchilik kabi illatlar inson borlig'ini xunuklashtiruvchi qusurlar ekanligini chuqur anglamaymiz. Zero, insondan ma'naviyat chekinganda — tubanlashadi, tafakkurini mog'or bosganda — yovuzlashadi, shaxsiy manfaatparastligi g'olib kelganda - xoinlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Bugungi kunda madaniyat nazariyasi va tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarda eng avvalo madaniyatining predmeti, obektining, maqsad va vazifalariga mantiqiylik va tarixiylik asosida yangicha munosabat bilan yondoshilmoqda. Xususan, «Falsafa fani madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etar ekan, o'z mushohada me'yorida madaniyatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog'liq holda rivojlana borishi hamda ayni ana shu taraqqiyot jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyatiga xos o'zaro aloqadorlik mavjudligining dialektik qonunlarini tahlil etadi»[1.9.].

Muomala jarayonini ilmiy tushunishga doir masalalar ko'proq madaniyat tarixiga doir manbalarda o'z aksini topgan. Ma'lumki, shaxslararo muomala o'z-o'zicha yuzaga kelmagan,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

insonlar hali mustaqil shaxs sifatida bir-birlaridan farqlanmas edi. Qadimgi davrda inson e'tibori tabiatga qaratilgan bo'lib. ibtidoiy san'atning bosh qahramoni inson emas, balki hayvonlar hisoblangan.

«Muomala» tushunchasini shakllanish tarixi qadimgi Misr, qadimgi Hindiston va asosan antik davrlarga borib taqaladi. Antik davrlarda shaxslararo aloqalar um umfalsafiy tizim sifatida mutafakkirlaming qarashlari bilan qo'shilib ketgan edi.

Shaxsning holati va xususiyati shaxslararo munosabatlar jarayonidagi «Men-Sen», «Men-Biz», «Biz-Ular» formulasi asosida yuzaga keladi [2.12.].

Muhokama va natijalar

Shaxs — ijtimoiy munosabatlar maxsuli deyilishining eng asosiy sababi — uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

SHaxs ijtimoyillashuvi muammosini tahlil etish shuni ko'rsatadiki bu jarayonning asosiy omillaridan biri muloqotdir. Muloqot asosida shaxs eng muhim ehtiyojlarini amalga oshiribgia qolmay balki, tajriba va ma'lumotlarga ham ega bo'ladi. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. SHuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;

b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;

v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;

g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;

d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;

e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan jarayon insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolishdan iborat. SHu bilan bir qatorda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifat va madaniyat sari yetaklash ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu masalalarning yechimini, eng avvalo, jamiyatning muqaddas makoni hisoblangan – oiladan izlash kerak.

Aynan, oila instituti - axloqiy imperativlarning saqlanib qolishini ta'minlashi lozim.

Imperativ (lot. imperativus — buyu-ruvchi) — talab, buyruq, qonun. Nemis faylasufi Kant «Amaliy aqlni tanqid» (1788) asarida Imperativni etika tushunchasiga kiritgan. Unga ko'ra, shaxsiy prinsipga qaramaqarshi o'laroq, Imperativ hammaga majburiy bo'lgan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

rasmiy axloq-odob talabidir. Imperativ shartli va qat'iy imperativga bo'linadi. Shartli (taxminiy) imperativ ma'lum shart - sharoitlardagina amal qiladi, qat'iy imperativ — muqarrarlik (bo'lishi keraklik)ni ifoda etadi. U yurish - turishda rioya etilishi kerak bo'lgan shakl va qoidani belgilab beradi.

Shuning uchun ham tarixga nazar solsak, komil inson tarbiyasi avvalambor oilada boshlanganini ko'rshimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, dalil va isbotni talab qilmaydigan haqiqatdir. Oila haqida gap ketar ekan, bu muqaddas makonni yaratuvchi ota-ona haqida gapirib o'tmaslikning iloji yo'q.

Oila har inson uchun muqaddas maskan sanaladi. Uning muqaddasligi bu maskanda shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan omil va sharoitlarning mavjudligi, shuningdek, oilaga xos bo'lgan psixologik iqlimni boshqa biror bir ijtimoiy muhitda topib bo'lmasligi bilan belgilanadi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Zero, "oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi [3.196.].

Chunki oilada ota-ona farzand uchun ham murabbiy, ham komil inson tarbiyachisidir. Jamiyatdagi har bir inson uchun insoniylik fazilatlari (halollik, poklik, imon-e'tiqod, olijanoblik va hokazolar) avallo oilada mujassamlashadi. SHu bois oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy, axloqiy ahamiyati va qadr-qimmatini anglamasdan turib, komil inson tarbiyasi haqida gapirish o'rinsizdir. Sababi, oilada farzand tarbiyasida ota-bobolarimizning milliy an'ana va urf-odatlari nuqtai nazaridan yondashmasak, biz oldimizga qo'ygan maqsadga erishishimiz mushkul kechadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta'kidlanganidek: «Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. CHunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi»[4.53.].

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar sanaladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi. Oiladagi tarbiyaviy munosabatlar kelgusida o'rnatiladigan munosabatlarga mustahkam zamin yaratadi. "Oilada yuz beradigan turli holatlar orqali bola o'zida boshqalarga ishonish, do'st orttirish va hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bunday birinchi saboqlar bolaning kelgusida munosabatlar o'rnatishiga poydevor yaratadi [5].

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Oila – ijtimoiy birlashma sifatida muayyan vazifalarni hal qiladi. Bugungi kunda yosh avlodni kamol toptirish yo'lida zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan vazifalarquyidagilardan iboratdir [6.42.].

Asosiy funksiyalari:

- Iqtisodiy
- Tarbiyaviy
- Reproduktiv (farzandlarni dunyoga keltirish)
- Regulyativ (boshqarish)
- Rekreativ (oila a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanishini ta'minlash
- Kommunikativ (oila a'zolarining o'zaro muloqot va munosabatlari)
- Relaksatsiya (jismoniy va ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish)
- Feliotsitologik (shaxsiy baxtga erishish uchun intilish)

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati murakkab tuzilmaga, tuzilmaning o'zi esa muhim tarkibiy qismlarga egaligida aks etadi. Mavjud qismlar oilaning pedagogik, ijtimoiy-psixologik, madaniy va qadriyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gigiyenik hamda demografik xarakterga ega imkoniyatini yoritadi. Ularning barchasi oilada farzandni har tomonlama sog'lom qilib voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlar sanaladi. Farzandlar tarbiyasida muvaffaqiyata erisha olish uchun oila ma'lum tarbiya mexanizmlariga ega bo'lishi zarur.

Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan boskichlarda kuyidagilarning sodir bulishi kuzatiladi:

— tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi. ularning o'rni, ahamiyati va o'zaro munosabati o'zgarmay qoladi:

— tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga karab yunaladi va borgan sari ko'prok, yosh guruhlarini qamrab oladi;

— ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy kismlari ajraladi: ta'lim olish, keyinchalik esa ma'lumotli bo'lish;

— korreksion tarbiya paydo bo'ladi;

— totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g'ayri- ijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi;

— tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari uzgaradi;

— tarbiyaning axamiyati ortib, u jamiyat va davlatning alohida funksiyasi bulib qaraladi hamda ijtimoiy institutga aylanadi [7.100.].

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega bo'lib, uning eng umumiy vazifalari kuyidagilardir:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

— jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyokarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bulgan bir kator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish;

— jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

— ijtimoiy hayot barqarorligini madaniyatni avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash;

— o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash;

— jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uygunlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yunalishlarga bog'lik asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

Xulosa va takliflar

Tarbiya tamoyillari tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chikiladi va tarbiyaning shakl metod va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili. Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlarida o'z ifodasini topgan bulib. XVIII asrdan boshlab u turli davlat pedagoglarining tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu g'oya XVIII asrda fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi L.Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida ham o'z aksini topgan [7.101.].

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlarini shakllanishiga, g'urur hissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlar tashuvchisi insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yanada kengrok ma'noda, insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi aloqalarning yaxshilanishiga hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda insonlarning birlashishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Bozorov S. Madaniyat tushunchasini shakllantirishning dolzarb maalalari. Qarshi. «Nasaf» nasliriyoti. 2003.
2. B. Husanov, V. G'ulomov. Muomala madaniyati. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik//0'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 0'zbekiston Milliy universiteti. 2009.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi//Darslik. M.X.Toxtaxodjayeva va b. prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahr.ostida. – T.: "Moliya-iqtisod", 2007.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
5. The Family's Role in a Child's Development // http://mom.me/kids/5258-familys-role-childs-development.
6. Oila psixologiyasi / Prof. G'.B.SHoumarov tahriri ostida. G'.B.SHoumarov va b. – T.: "Sharq", 2008. – 47-62-b.
7. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2009
8. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent — 2009.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

YOSHLARDA ALTRUIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedrasi katta o’qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hayotiy qadriyatlar, hayotiy voqealar, munosabatlar, insonlarning bir-birlari bilan do’stlashishlari, umuminsoniy axloqiy madaniyat jamiyatdagi o’rni, axloqiy fazilatlarga ega bo’lishi aytib o’tilgan. Yoshlarda altruizm tushunchasini mohiyatini anglash kabi jihatlari o’z aksini topgan.*

Kalit so’zlar: *Kitobxonlik, ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, jo‘mardlik, g‘amxo‘rlik, rahmdillik, vatanparvarlik, qadriyat, e’tiqod, jamiyat,oila.*

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ АЛЬТРУИЗМА У МОЛОДЕЖИ

Эгамбердиева Азиза Мустафаевна
Навоийский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры «История», (PhD)

Аннотация: *В данной статье говорится о жизненных ценностях, жизненных событиях, отношениях, дружбе людей друг с другом, роли всеобщей нравственной культуры в обществе, наличии моральных качеств. У молодежи нашли отражение такие аспекты, как понимание сути понятия альтруизм.*

Ключевые слова: *Грамотность, просвещение, гуманизм, щедрость, забота, сострадание, патриотизм, ценности, вера, общество, семья.*

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF ALTRUISM IN YOUTH

Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna
Navoi State Pedagogical Institute
Senior teacher of the “History” department, (PhD)

Abstract: *In this article, it is mentioned about life values, life events, relationships, people’s friendship with each other, the role of universal moral culture in society, and having moral qualities. In young people, aspects such as understanding the essence of the concept of altruism have been reflected.*

Key words: *Literacy, enlightenment, humanitarianism, generosity, care, compassion, patriotism, value, faith, society, family.*

Kirish

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma’nan yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsata oladigan ko‘ngilli, milliy g‘urur xissi ustun bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Inson o'zining kelajagiga befarq qaraydigan odamni yuq. Odatda inson kelajak haqidagi tasavvurlardan uning hayotiy dunyosining holati va istiqboldagi rivoji bevosita yoki bilvosita bog'liq ekanini tushunib etadi. Bu jarayon umuminsoniy tamoyillar bilan bevosita bog'liq. Ayni shu ma'noda, umuminsoniy axloqiy madaniyat ham har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy axloqiy madaniyat – bu insonning millati, irqi, diniy e'tiqodi, qaysi hunar egasi ekanligi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni, er yuzining qaysi xududida yashashidan qat'iy nazar, axloqiy qoida, me'yorlarga rioya etish, axloqiy fazilatlarga ega bo'lish darajasidir. Umuminsoniy axloqiy madaniyat tamoyillari quyidagilar: insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, mehnatsevarlik, jamoatchilik, erkparvarlik, tenglik, hushyorlik, saxovatlilik, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, qonun ustuvorligi, inson haq-huquqlari, turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash, bag'rikenglik(tolerantlik), ma'rifatparvarlik, o'zga xalqlarning ilg'or tajriba va madaniyatini o'rganishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Insonparvarlik – insonning boshqalarga hurmat, g'amxo'rlik, yordam, mehrmuruvvat ko'rsatishidir. Etika lug'atida[1.], gumanizm (insonparvarlik) g'oyalarini birinchi bor Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari ilgari surganlar, deb yozilgan. Bizning fikrimizcha, insonparvarlik g'oyalari bu davrdan ancha ilgari Sharqda paydo bo'lgan. «Aslida insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3-4 ming yillaravvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi».

Insonparvarlikning ilk ko'rinishi bu «axloqning oltin qoidasi»dir, ya'ni «o'zingga nimani ravo ko'rsang, boshqalarga ham uni ravo ko'r, o'zingga nimani ravo ko'rmasang boshqalarga ham uni ravo ko'rma» degan axloqiy qoidadir.

Xususan, o'zbek adabiy tilining asoschisi, Temuriylar davri ilm-fan homiysi, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy ijodida mehr va muruvvat, xayr-u ehson, xayr-u saxovat, saxiylik g'oyalarini o'ziga singdirgan axloqiy tarbiya masalalari katta o'rin tutadi. "Hayrat ul-abror" asarining beshinchi maqolatida Navoiy xayr-u ehson (karam) masalasiga to'xtaladi. Bu bobda ham shoir o'z fikrlarini chiroyli, silliq bayon etishga harakat qiladi. Uning mulohazalariga ko'ra, xayr-saxovat shunday ulug' narsaki, uni davlatmand odamning boshidagi toj (afsar)ga o'xshatish mumkin. Shu tojga qadalgan qimmatbaho gavharni esa karam deb tasavvur etsa arziydi. Navoiy fikricha, xayr-u saxovat ko'rsatishga qodir odam hech mahal baxillik (buxl) yo'lini tutmasligi, boylik darajasiga erishganidan xursand bo'lib, Olloh taologa shukrlar qilib yashashi zarur. Alisher Navoiy butun umri davomida xalqparvarlik va vatanparvarlik g'oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan umrboqiy asarlarida ifodalash bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyatida millat va davlat ravnaqi yo'lida tinimsiz faoliyat olib borgan. Alisher Navoiy xayriya va homiylikka oid fikrlarni bildirish bilan birga, uni amalga oshirishga ham harakat qilgan. U butun umrini, butun kuchini, butun mablag'ini mamlakatni obod qilish, ilm va ma'rifatni rivojlantirish yo'lida sarflagan. Navoiy xalq foydasi uchun ulkan va mahobatli madrasalar, kutubxonalar, kasalxonalar, hammomlar, rabotlar, hovuz, ko'prik va boshqa binolar qurdirgan. Tarixchi Xondamir Alisher Navoiy qurdirgan imoratlar orasida 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 8 ta hammom, ko'plab masjid, 12 ta madrasa, 5 ta maqbara, kutubxona, shifoxona va boshqa binolar borligini birma-bir ko'rsatib o'tadi[2.14.].

Aynan Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyating eng yuksak cho'qqisi jo'mardlik (**altruizm**)dir. Evropada bu atamani birinchi bor pozitiv sotsiologiya asoschisi, fransuz Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. Jo'mardlik – insonga g'amxo'rlik, rahmdillik, o'zini xavf-xatarga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qo‘yib bo‘lsa ham boshqalarga yordam ko‘rsatish. «Jo‘mardlik mohiyatan «oddiy odamlik qobig‘idan chiqa bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo‘lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi»[3.160.].

Muhokama va natijalar

Yoshlarda altruizm yani fidoyilik tuyg‘usini rivojlantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining o’rni beqiyos. Bunda xalqimizning o’chmas qadryatlari, boy ma’naviy meroslari hamda buyuk ajdodlarimizning tarixda qoldirgan nodir sifatlarini namuna sifatida o’rganib borish ijobiy samara beradi.Jumladan, xalq farovonligi uchun jonni fido qilgan Shiroq afsonasi, ma’rifat yo’lida qurbon bo’lgan Fitrat, Cho’lpon kabi buyuk mutafakkirlarimizning bugungi kun yoshlari uchun haqiqiy altruizm sifati nomoyondalari bo’lib turgani, o’smir yoshlar xulq-atvorida axloqiy mezonlar shakllanishida asos bo’ladi.

Altruizm turlari: Altruizm ta'rifiga asoslanib, uning asosiy turlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Altruizm turlari turli xil hayotiy sharoitlarda fidokorona xizmatning tarkibiy qismlarini aniqlashga qaratilgandan iborat har bir ota-onaning o'z farzandiga g'amxo’rlik qilish uchun ongsiz ehtiyoji. Ota va ona chaqaloqning kelajakdagi baxti va farovonligi uchun ko'pincha o'zlarini qurbon qilishga majbur bo'lishadi. Agar ularning sevgisi fidokorona bo'lmasa, u altruizm haqida bo'lishi mumkin emas edi. Ota-ona sevgisi hech narsa bilan chegaralanmaydi: u hukm qilmaydi, o'z manfaatini ko'zlamaydi, odamni “qarzdor” bo’lishga majburlamaydi. Bunday altruizm ko'pchilik tomonidan qabul qilinadi va shuning uchun umuman g'ayrioddiy yoki g'ayrioddiy narsa deb hisoblanmaydi.

Axloqiy altruizm - bu erda biz insonning ongini o'zgartiradigan shunday yuksak axloqiy harakatlar haqida gapiramiz: ular unda uyg'onadi. minnatdorchilik, ochiqlik, foydali bo'lish istagi, o'z kayfiyatiga bog'liq emas. Axloqiy ideallar ijtimoiy munosabatlar va odamlarga xizmat qilish bilan mustahkam bog'langan. Bunday fidokorona yordam ijtimoiy e'tiqodga asoslanadi. Aynan ijtimoiy institut ba'zan shaxsga qanday yashashi kerakligini, uning shaxsiy sa’y-harakatlarini qayerga yo'naltirishni buyuradi.

Empatik altruism - Inson xarakteridagi eng yaxshi fazilatlarning ana shunday olijanob namoyon bo’lishining asosini anglash va eshitishga bo’lgan ruhiy ehtiyoj yotadi. Faqat qila oladigan kishi qiyin paytlarda tinglang va qo'llab-quvvatlang, eng yaxshi do'st va olijanob o'rtoq deb atalishi mumkin. O’zini boshqa odamga yaxlit bag'ishlash ruhni chinakamiga ochishga, yaqin va aziz odamlar bilan to'liq o'zaro tushunishga erishishga imkon beradi.

Zarurat va davr talabi bu axloqiy tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rolini o’rganish, tahlil qilish va yosh avlodni tarbiyalash muximligidir. Umuminsoniy axloqiy madaniyatning barcha tamoyillari insonparvarlikning muayyan ko‘rinishlaridir. Bizning fikrimizcha, oila tarbiyasida insonparvarlikni shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish kerak: oilada barcha uy yumushlarini birgalikda bajarish, o‘zaro bir-biriga yordam, katta avlodning yosh avlodga o‘z bilim, tajribasini o‘rgatishi, o‘zaro moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, qariyalarga mehrmuruvvat bilan g‘amxo‘rlik qilish, oila a’zolarini himoya qilish, qo‘ni-qo‘shni, mahalladoshlar bilan iliq muomalada bo‘lish, saxiy bo‘lish, bemorlar, muhtojlar holidan xabar olish, ularga moddiy, ma’naviy yordam ko‘rsatish.

“Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi”[4.15.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Oilaning quyidagi turlari mavjud: 1. Katta patriarxal oila, bunda ota-onalar, bolalar, nevaralar bir oilada yashaydilar; 2. Ikki avloddan – ota-ona va bolalardan iborat oila; 3. Noto'liq, ya'ni oilada biror sababga ko'ra ota yoki ona yo'qligi; 4. Faqat er va xotindan tashkil topgan oila; 5. Aralash, yaqin yoki uzoq qarindoshlar bir xonadonda istiqomat qiladigan oila; 6. Baynalmilal, turli millat vakillari tuzgan oila. 7. Qayta qurilgan oila [5.37.].

Oilaning tarkibi turli xil bo'lishiga qaramasdan, oila bajarishi zarur bo'lgan umumiy vazifalar mavjud. Oilaning vazifalari: iqtisodiy-xo'jalik, reproduktiv (naslning davom ettirilishi), tarbiyaviy (mehnat, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, jismoniy, aqliy, ruhiy, jinsiy, axloqiy, estetik, diniy), nazorat etish, oila a'zolarining mavqeini, hurmatini, or-nomusini, sha'nini himoya etish, dam olishni, bo'sh vaqtni unumli tashkil etish, yosh avlodni oila qurishga tayyorlash, yordam berish, ruhiy-emotsional, muloqot (kommunikativ), qari bobolar-momolar, ota-onalar haqida g'amxo'rlik.

Bizning fikrimizcha, ayrim tadqiqotlarda oilaning funksiyalarini klassifikatsiya etishda uning muhim bo'lgan talaygina funksiyalariga: nazorat etish, oila a'zolarining mavqeini, hurmatini, or-nomusini, sha'nini himoya etish hamda qariyalar haqida g'amxo'rlik qilish, ularni avaylab-asrash, parvarish etishga ahamiyat berilmagan. Masalan, B. Shoumarov va Sh. Shoumarovlarning «Muhabbat va oila»[6.47.], asarlarida oilaning quyidagi funksiyalari: reproduktiv iqtisodiy – xo'jalik, tarbiya, kommunikativ, dam olishni to'g'ri tashkil etish ko'rsatilgan, xolos.

N. Saydaliyevaning tadqiqotida oilaning an'anaviy funksiyalari: reproduktiv, tarbiyaviy, xo'jalik yuritish, iqtisodiy, nazorat qilish, o'z mavqeiga ega bo'lish, dam olishni to'g'ri tashkil etish, emotsional, yoshlarni jinsiy hayotga tayyorlashlarga bo'lingan[7.13.].

Hozirgi davrda oila o'zining muhim funksiyasi, qariyalar haqida g'amxo'rlik qilish, ularni avaylab- asrash, parvarish etishni unutib qo'ymoqda yoki yetarli darajada e'tibor bermayapti. Bu esa umuminsoniy axloqiy madaniyatning va yoshlarda altruizm yani fidoyilik tuyg'usini zaiflashib borishini ko'rsatmoqda. Yuqorida aytganimdek, oilaning bu vazifasini bajarishi oila tarbiyasini yuksaltirishga yordam beradi.

"Biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" va o'sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda. Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa albatta, maktab ta'limining o'rni beqiyosdir. Ma'naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo''jizaga ta'rif berib "…yetti mo''jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir mo''jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo''jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo''jiza – kitob.

Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Kitoblarda yashirin ezgulik motivlaridan biri altruizmdir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Altruizm motivlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar barcha fan sohalari doirasida uch yo‘nalishda olib borilgan. Bular: a) Dj.Rayt qarashlariga asoslangan axloqiy xulq mezoni sifatida o‘rganuvchi yo‘nalish; b) L.Kolberg va T.Laykon tadqiqotlariga asoslangan shaxs taraqqiyotining eng oliy namunasi sifatida tadqiq etuvchi yo‘nalish; v) Sharq allomalari, faylasuflarning g‘oyalariga asoslangan komil inson xususiyatlari yo‘nalishidagi tadqiqotlar. Zero, mazkur yo‘nalishlarning barchasida altruizm shaxs akmeologik rivojlanishining yuqori cho‘qqisi sifatida ko‘rib chiqilgan.

Mazkur akmeologik rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga kitobxonlik madaniyati orqali ham erishish mumkin. Masalan, xalqimizning milliyligi ufurib turgan J.Rumiyning “Oqibat tuproq bo‘lurmiz: “Masnaviyi ma’naviy” hikmatlaridan”, A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, T.Malikning “Odamiylik mulki”, Oybekning “Navoiy” asarlarini, “To‘maris”, “Shiroq” afsonalini oladigan bo‘lsak, ularning barchasida altruizm g‘oyalarini targ‘ib qilingan obrazlarni uchratishimiz mumkin.

Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o’rni qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go’zallikka muhabbat uyg’otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg’usini rivojlantiradi. Kitob o’quvchida dunyoni anglab olishda ko’mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo’llarini o’rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir o’quvchi yuksak ma’naviyatli shaxs bo’lib kamolga yetadi. Zero, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma’naviy merosdir. U inson ruhiga ta’sir etib, ularni ma’naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, hissiyotiga ta’sir etadi va bilim berish bilan birga o’quvchiga zavq bag’ishlaydi hamda aqlni charxlab, uni tarbiyalaydi. Adabiyotshunos Safo Matjonov ta’kidlaganidek, «Ilmiy asarlar g’aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag’allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma’rifatli, baxt-saodatli bo’ li shi uchun bab-baravar foydali va zarurdir»[8.37.].

Xulosa va takliflar

Kitob orqali yoshlarimizda quydagi fazilatlarga ega shaxsni tarbiyalashda avvalo o’quv tarbiya jarayonidagi zaruriy jihatlar:

- yoshlar ongiga sharm-u hayo, odob-andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzatehtirom, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlarni shakllantirish;
- shaxsning rivojlanishida o’zaro munosabatlar hamkorligi, buyuk ajdodlarimiz merosiga ulkan g’urur tuyg’ularini singdirish, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlar va urf-odatlarga beqiyos hurmat ko’nikmalarini shakllantirish;
- o’z dini va o’zga dinlarga nisbatan bag’rikenglik tamoyillarini singdirish;
- shaxs kamoloti va ma’naviyati ijtimoiy jamiyatdagi muhim omillardan ekanligini anglatish;
- insoniy fazilatlar va g’ayriinsoniy qarashlarning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatish;
- insonlarga xos samimiylik, vatanparvarlik, mehr oqibat, imon-e’tiqod, fidoyilik kabi fazilatlarning jamiyat taraqqiyotidagi eng asosiy omillardan biri ekanligini anglatish;
- yoshlarda mustaqil, ijodiy fikrlash, axborotlarni saralash, tahlil etish malakasini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

Yoshlarda altruizm yani fidoyilik tuyg’usini rivojlantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining o’rni beqiyos. Bunda xalqimizning o’chmas qadryatlari, boy ma’naviy meroslari hamda buyuk

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ajdodlarimizning tarixda qoldirgan nodir sifatlarini namuna sifatida o'rganib borish ijobiy samara beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T. -2021.
2. Aliqulov X. va boshqalar. Homiylik va saxovat – eng oliy qadriyat. T. 2006.
3. Raxmonova G. Sh. Axloq–shaxs taraqqiyotining yuqori ma'naviy poydevori //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
4. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq 1998.
5. Najmidinova K. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Monografiya– T.: «Adolat», 2016.
6. Shoumarov B.B., Shoumarov Sh.B. «Muhabbat va oila». – T. Ibn Sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1994.
7. Saydalimeva N. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fan nom.dis. avtoref. – T. O'zMU, 2005.
8. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar (o'qitituvchi uchun metodik qo'llanma.). – T.: «O'qituvchi», 1996.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI

Teshaboev Muhiddin Marifovich, Falsafa fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD), TATU FF dotsenti.

Annotatsiya: *Maqolada ijtimoiy adolatni taminlashda fuqarolik institutlarning asosiy maqsadi, jamiyatning munosabatlarini tizimli qilish va adolatlik muammolarni hal etishdir. Unda qonunlar, munosabatlar va muammolarni hal etishda adolat tizimining munosabatlariga juda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiy adolatning funksiyalari o'rtacha jamiyatning munosabatlarini tizimli qilish, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va huquqiy shartlariga yordam berish, adolat sistemasining rivojlantirilishi uchun ilmiy fikrlar va tajribalar ko'paytirish, muammolarni hal etishda ko'rsatiladigan munosabatlariga juda katta e'tibor berish va jamiyatning munosabatlarini regulyatsiya qilishdan iboratliligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar*: NNT, demokratiya, konstitusiya, fuqarolik, hokimiyat, Siyosat, ijtimoiy institut, subyekt.*

РОЛЬ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тешабоев Мухиддин Маърифович, Доктор философии по философии (PhD), доцент ФФ ТУИТ

Аннотация: *В статье основной целью гражданских институтов в обеспечении социальной справедливости является систематизация отношений общества и решение проблем справедливости. В ней большое внимание уделяется законам, взаимоотношениям и взаимодействию судебной системы при решении проблем. Функции социальной справедливости заключаются в том, чтобы систематизировать отношения среднего общества, улучшить*

ISSN: 2181-0427

экономические, политические, исторические и правовые условия общества, увеличить научные мнения и опыт для развития системы правосудия, уделить большое внимание отношения, проявляющиеся в решении проблем, а также в улучшении отношений в обществе.Поясняется, что оно состоит из регулирования отношений.

***Ключевые слова**: НПО, демократия, конституция, гражданство, власть, Политика, социальный институт, субъект.*

THE ROLE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN ENSURING SOCIAL JUSTICE IN UZBEKISTAN

Teshaboev Mukhiddin Marifovich, PhD in philosophy, associate professor FF TUIT,
muhiddinsifat82@gmail.com

***Abstract:** In the article, the main goal of civil institutions in ensuring social justice is to systematize society's relations and solve justice problems. In it, great attention is paid to laws, relationships and the relationship of the justice system in solving problems. The functions of social justice are to systematize the relations of the average society, to help the economic, political, historical and legal conditions of the society, to increase scientific opinions and experiences for the development of the justice system, to pay great attention to the relations shown in solving problems and to improve the society's relations. It is explained that it consists of regulating relations.*

***Key words**: NGO, democracy, constitution, citizenship, power, Politics, social institution, subject.*

Kirish

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, fuqarolik jamiyati bilan parallel huquqiy davlatni shakllantirish jarayoni jadallashdi. O‘sha davrdan boshlab davlat mustaqilligi, demokratiyani rivojlantirish, siyosiy plyuralizm, siyosat va iqtisodiyotda erkinlik, inson erkinligini himoya qilishga alohida ahamiyat berildi. O‘zbekistonda huquqiy davlatning asosiy fundamental tamoyillari belgilanib, uning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy asoslari amalga oshirildi. Qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining realligi, davlat va shaxsning o‘zaro javobgarligi, qonunlar ijrosi ustidan samarali nazorat mavjudligi tamoyillari hayotga tatbiq etildi. Shu ma’noda O‘zbekistonda huquqiy davlat qurilishini taxminan uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi davr davlat mustaqillikka erishgandan so‘ng yangi Konstitusiya qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda davlat-huquq tizimiga qator yangi siyosiy-huquqiy qadriyatlar, tamoyillar, institutlar va mexanizmlar kirib keldi. Siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, erkin matbuotning huquqiy asoslari yaratildi va faoliyat yurita boshladi. Ikkinchi bosqich – yangi Konstitusiya qabul qilingan bo‘lgan davr. Bu davrda konstitusiyaviy nazorat organi va erkin matbuotning qonunchilik bazasi shakllandi. O‘zbekiston inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo‘shildi. Milliy qonunchilik takomillashtirildi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning huquqiy asoslari yaratildi va birinchi munitsipal saylovlar o‘tkazildi. Bugun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosat markazida bevosita inson omili turibdi. Amalga oshirilayotgan davlat siyosati fuqarolarning ijtimoiy farovonligi va xavfsiz yashashini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy dasturlarni tayyorlash va amalga oshirishda yaqindan ishtirok etmoqda. Bu mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishidan dalolat beruvchi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shuni tan olish kerakki, so‘nggi paytlarda NNTlar fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda ko‘proq yordam berishga harakat qilmoqda. Buning samarasi o‘laroq, ko‘plab nodavlat notijorat tashkilotlari qonun ustuvorligi ustidan jamoatchilik nazorati va shaffoflikni ta’minlash sohasida allaqachon yuqori darajada ixtisoslashgan. Shu munosabat bilan jamiyatni demokratlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini inkor etish va e’tiborsiz qoldirish fuqarolik jamiyatlari faoliyatiga nisbatan adolatsiz yondashuv bo‘ladi. Ayrim xorijiy doiralar tomonidan moliyalashtirilgan va yo‘naltirilgan bir-ikkita tarafkash “fuqarolik jamiyatlari”ni hisobga olmaganda aytish mumkinki, ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi.

Mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etish uchun, eng avvalo, zarur bo‘lgan huquqiy davlat qurish jarayoni insonlar ongida paydo bo‘ldi. Lekin konstitusiyaviy tuzum, mukammal huquqiy tizim, samarali sud tizimi, hokimiyatlar bo‘linishi kabi tamoyillar yaratilishi kerak edi. Shu bois demokratik huquqiy davlat qurish jarayoni to‘liq ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o‘rnatilgandan so‘ng amalga oshirildi. 1992 yil dekabr oyida umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan Konstitusiyamiz jahonda kamdan-kam uchraydigan qonunlar majmuasidan biridir. Demokratik huquqiy davlatning barcha tamoyillari – huquqiy davlat, inson huquqlarini himoya qilish, hokimiyatlar bo‘linishi, konstitusiyaviy nazorat tamoyillari o‘rnatilib, inson huquqlarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi deb e’lon qilindi. Konstitusiyamizning uchdan bir qismi shu masalaga bag‘ishlangan. Konstitusiya demokratik qadriyatlar ustunligini tan olgan, erkinlik, adolat qaror topgan davlat qurishni istagan har bir hukumat va xalq uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizim tubdan o‘zgarib, jamiyatda o‘tish davri boshlangan bir davrda Asosiy Qonunning roli tobora ortib bormoqda.

Mustaqil davlatimizning birinchi Konstitusiyasi qabul qilinishi bilan O‘zbekiston tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichi boshlangani haqiqatdir. Muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan mazkur hujjat mamlakatimizda inson va fuqarolar erkinliklarining zarur kafolatlarini yaratish orqali huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Buni ishonch bilan aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘nalishida O‘zbekiston modeli shakllangan. O‘zbekiston haqiqatlarini jahon hamjamiyatiga yetkazish yo‘llarini izlashda ushbu modelning afzalliklaridan foydalanishimiz kerak. Huquqiy davlat barpo etish inson huquq va erkinliklarini maksimal darajada ta’minlash, huquq va erkinliklarini ta’minlash mas’uliyati bilan bog‘liq. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bu boradagi qadamlar, erishilgan muvaffaqiyatlar davlatning ushbu sohaga nisbatan sezgir munosabati ko‘rsatkichidir. Hech kimga sir emaski, mustaqillik yillarida mamlakatimizning huquqiy tizimi demokratik tamoyillar asosida butunlay qayta qurildi. O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitusiyasining qabul qilinishi bilan ilg‘or huquqiy islohotlarning poydevori qo‘yildi. Ketma-ket amalga oshirilayotgan islohotlar, asosan, bitta maqsadga – inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovni ta’minlash va takomillashtirishga qaratilgan edi. Bularning barchasi juda muvaffaqiyatli natijalardir.

Fuqarolik jamiyati huquqiy nuqtai nazardan davlatning bevosita aralashuviga ega bo‘lmagan, lekin fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi erkin shaxslar birlashmasiga asoslanadi. Demokratiyani siyosiy tizim shakllantiradi. Uning barqarorligi uchun fuqarolarning pozitsiyasi, fuqarolik jamiyati, shuningdek, huquqiy davlat mavjudligi zarur. Fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlaridan bexabar fuqarolardan tashkil etib bo‘lmaydi, chunki ular o‘z fikrini ifoda etishdan qo‘rqadi va o‘z maqsadiga erishish uchun salbiy yo‘llarga murojaat

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qilishdan qo‘rqmaydi, agar u taslim bo‘lsa, na demokratiya, na fuqarolik jamiyati haqida gapirishga arzimaydi. Guruhlar va birlashmalar o‘rtasidagi davlat tomonidan shartlanmagan, o‘ziga xos rivojlanish va yetuklik darajasiga ega bo‘lgan iqtisodiy, madaniy, huquqiy va siyosiy munosabatlardir. Fuqarolik jamiyati siyosiy emas, balki ijtimoiy jamiyatdir. Guruhlar va birlashmalar o‘rtasidagi davlat tomonidan shartlanmagan, o‘ziga xos rivojlanish va takomillashgan iqtisodiy, madaniy, huquqiy va siyosiy munosabatlardir. Fuqarolik jamiyati siyosiy emas, balki ijtimoiy jamiyatdir. Shuning uchun ham S.F.Abdusattorova to‘g‘ri aytganidek, “Fuqarolik jamiyatida innovatsion faoliyatning asosiy subyekti nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hisoblanadi. Aynan ular jamiyat rivojlanishining sur’atini belgilaydi, ijtimoiy o‘zgarishlarni, jamiyat hayotiga yangi ish usullarini joriy qilishda harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi”[1].

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining alohida ahamiyati bor. O‘zbekistonda rivojlangan fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati ko‘plab sohalardagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining yo‘nalishlari, jamoatchilik nazoratini tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli ortib bormoqda. Shu boisdan ham “Bugungi kunda davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashda NNTlarning hamkorligi to‘g‘risidagi qarashlar va qoidalarning ayrimlarini inkor etish, ayrimlarini qayta qarab chiqish, ayrimlarini esa yangi konsepsiyalar doirasida har bir tadqiqotchidan ilmiylik va obyektivlik tamoyillariga asoslanib ish yuritishni talab etadi. Hozirda davlat va NNTlar hamkorligi masalasiga munosabat tubdan o‘zgarib, u turli paradigmalar asosida obyektiv, xolisona tahlil etilmoqda”[2].

Fuqarolik jamiyati bu – davlat yoki xususiy sektorga tegishli bo‘lmagan va umumiy qadriyatlar yoki manfaatlar yo‘lida birgalikda harakat qiladigan mustaqil guruhlar yoki tashkilotlar to‘plami. Bu sektor ixtiyoriy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va turli qadriyatlar uchun ishlaydigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyati tashkilotlarining faoliyati ijtimoiy xizmat, jamoat faoliyati, diniy, ilmiy, ijodiy va boshqalarni qamrab oladi. Fuqarolik jamiyati uchinchi sektor deb ataladi, chunki u davlat va xususiy sektordan tashqarida.

Davlat sektori jamiyatga davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun mas’ul bo‘lgan sektordir. Turli mamlakatlarda hukumatlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar biroz farq qilsa-da, aksariyat hollarda bu xizmatlarga harbiylar, politsiya, umumiy foydalanishdagi yo‘llar, ko‘priklar, suv ta’minoti, elektr energiyasi, telekommunikatsiyalar, jamoat transporti, ta’lim va sog‘liqni saqlash kiradi. Hukumat fuqarolardan olinadigan soliqlar evaziga ushbu mahsulot va xizmatlarni taklif qila oladi.

Xususiy sektor ham mahsulot va xizmatlarni taklif etadi. Lekin ular buni foyda uchun qilishadi. Bu sektor xususiy shaxslar yoki guruhlar tomonidan boshqariladi va hukumat nazorati ostida emas.

Ijtimoiy tizim kontekstidan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlat va xususiy sektor fuqarolarga zarur bo‘lgan xizmatlarning katta qismini taqdim eta oladi. Lekin ular qancha xizmatlar ko‘rsatmasin, davlat va xususiy sektor e’tiboridan chetda qoladigan bo‘shliqlar bo‘ladi. Buning sababi juda oddiy. Hukumatning cheklangan byudjeti barcha sohalarni qamrab olishga imkon bermaydi. Xususiy sektor daromad keltira olmaydigan hududda faoliyat yuritishi mumkin emas. Fuqarolik jamiyati ushbu ikki sektor qamrab ololmaydigan sohalarda faoliyat yuritadi. Masalan, uysizlar uchun boshpana, bepul oziq-ovqat, yordam guruhlari, ta’lim tashabbuslari va boshqalar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Fuqarolik jamiyati juda har xil turdagi guruhlardan iborat. Fuqarolik jamiyatiga mansub guruhlar juda ko‘p. Nodavlat tashkilotlar, xayriya tashkilotlari, ijtimoiy korxonalar, tarmoqlar, klublar, qisqasi, hukumat va bozor toifalariga kirmaydigan aksariyat guruhlar.

Fuqarolik jamiyati guruhlari va tashkilotlariga kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, diniy tashkilotlar va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari misol bo‘la oladi. Bu tashkilotlar evaziga hech narsa olmasdan yoki juda oz miqdorda jamiyatga foyda keltiradigan tashkilotlardir. Shuning uchun ham “Hukumat darajasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun har bir vazirlik va davlat qo‘mitalari tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ishlash bo‘yicha alohida bo‘limlarni tashkil etish zarur. Ularning funksional vazifalarini belgilash va huquqiy asoslarini yaratish muhim ahamiyatga ega”[6].

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari asosan mahalliy xususiyatga ega bo‘lsa-da, jahon miqyosida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari yirik inqirozlarni yengib o‘tishda beqiyos ishlarni amalga oshirmoqda.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari umumlashtiruvchi xususiyatlarga ega. Avvalo, ular tizimli tuzilmalarga ega. Bu barqarorlik va chidamlilikni ta’minlaydi. Ular hukumatdan butunlay mustaqil. Daromad olish maqsadlari yo‘q. A’zolik ixtiyoriydir. Eng muhimi, fuqarolik jamiyati tashkilotlari jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Ba’zi fuqarolik jamiyati tashkilotlari o‘z faoliyatini to‘lov evaziga mahsulot va xizmatlarni taklif qilish orqali moliyalashtiradi. Biroq, bu to‘lovlar faqat tashkilot faoliyati uchun olinishi mumkin va hech qanday holatda ular daromad maqsadiga ega bo‘lmasligi kerak. Yana bir keng tarqalgan moliya turi bu – davlat grantlari. Muhimi, davlat pul bersa ham ishga aralashmasligi kerak. Ushbu tashkilotlarni moliyalashtirishda xalqaro fondlar va xususiy korporatsiyalar ham ishtirok etadi. Ular o‘z yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga moliyaviy yordam taklif qilishadi. Moliyalashtirishning eng keng tarqalgan turi xususiy xayriyadir. Bunga a’zolar yoki dindorlardan yig‘ilgan kichik xayriyalar kiradi.

Xulosa

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasi ko‘plab mamlakatlarda mutlaqo yangi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, demokratik tizimlarda fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Garchi bu guruhlar asosan e’tiborga olinmasa ham, ularning mavjudligi jamiyat uchun juda muhimdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun bir necha muhim qadamlar ko‘rsatilgan. Birinchi qadam – qonunchilik tizimini yanada tezlashtirish va boshqaruv organlarini ishonchli va transparent qiluvchi harakatlarni amalga oshirish. Bu yerda, hamma fuqarolarning huquqlariga tizimli yordam ko‘rsatish va muammolarni yechishga yoki mahkamalarda hal etishga imkon berish kerak. Ikkinchi qadam – ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun, o‘zbek xalqi yoshlari, muhojirlar va boshqa kam tashqariga chiqqan guruhlarga ko‘mak ko‘rsatish kerak. Shuningdek, huquq-tartibot tizimini takomillashtirish, turistlar va boshqa millatlararo guruhlarga ham ko‘mak ko‘rsatish kerak. Uchinchi qadam – ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun, shaxsiy moliyaviy huquqlarni muhofaza qilish kerak. Bu qadamlar amalga oshirilganda, O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlashda yangi maydonlar ochiladi. To‘rtinchi qadam – ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun, mahalliy jamiyatlar va fuqarolarning uy-joylarida tashkil etiladigan mahalliy sudlarni kuchaytirish kerak. Shuningdek, ularga hamma fuqarolarning muammolarini hal etish uchun imkon berish kerak. Beshinchi qadam – ijtimoiy adolatni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ta’minlash uchun, qonunchilik tizimidagi kamchiliklarni bartaraf qilish lozim. Shoxu gadoga barobar qonun ishlashi darkor.

Ijtimoiy adolatni mustahkamlash bilan uyg‘un bo‘lgan fuqarolarning hayot sifati va mehnat qobiliyatini oshirish nafaqat iqtisodiy taraqqiyot samarasi, balki ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan qator islohotlar dasturining amalga oshirilishi samarasidir. Darhaqiqat, jamiyatning quyi tuzilmasi va davlatning strategik maqsadi sifatida mamlakatimizning hozirgi iqtisodiyoti samaradorligini ijtimoiy soha va ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini, ayniqsa, qishloq joylarda mutanosib rivojlantirmasdan turib, samarali amalga oshirish mumkin emas.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдусаттарова С.Ф. Фуқаролик жамияти ривожланишида ижтимоий жараёнларни моделлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.43.
2. Расулов Б.Б. Ўзбекистонда давлат бошқаруви органлари фаолияти очиқлигини таъминлашда нодавлат нотижорат ташкилотлари иштирокини ривожлантириш механизмлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.12.
3. Абдусаттарова С.Ф. Фуқаролик жамияти ривожланишида ижтимоий жараёнларни моделлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.35.
4. Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. –Б.14.
5. Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. –Б.20.
6. Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2018. –Б.25.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

JADIDCHILIK G‘OYALARINING DAVR MAFKURASIGA IJTIMOIY-FALSAFIY TA’SIRI.

Patiyev Xoldor Ikromovich-Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik g‘oyalarining davr mafkurasiga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Jadidchilik g‘oyalari mutaassiblikka, mustamlaka tuzumiga va keyinchalik sovet mafkurasiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, ular bilan raqobatga kirishgan sohalari o‘rganib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, mafkura, g‘oya, ozodlik, vatanparvarlik, toqatlilik, sabr-bardosh, erkinlik, birodarlik.*

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL INFLUENCE OF JADIDISM IDEAS ON THE IDEOLOGY OF THE TIME

Patiyev Khaldor Ikromovich-Termiz State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Philosophy and Spirituality

Abstract: *This article analyzes the impact of Jadidism ideas on the ideology of the period from a socio-philosophical point of view. The areas where Jadidism ideas had a significant impact on bigotry, the colonial system, and later Soviet ideology and entered into competition with them were studied.*

Key words: *Jadidism, ideology, idea, freedom, patriotism, tolerance, patience, freedom, brotherhood.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА НА ИДЕОЛОГИЮ ТОГО ВРЕМЕНИ

Патиев Халдор Икромович-Термизский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры философии и духовности

Annotatsiya: *В данной статье анализируется влияние идей джадидизма на идеологию того периода с социально-философской точки зрения.*

Изучены области, где идеи джадидизма оказали существенное влияние на фанатизм, колониальную систему, а позднее и советскую идеологию и вступили с ними в конкуренцию.

Ключевые слова: *джадидизм, идеология, идея, свобода, патриотизм, толерантност, терпение, свобода, братство.*

Kirish

Insonlar hayot tarziga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi har qanday g‘oya va qarashlarni insonning o‘zi yaratadi. Kelajakni yaxshi va yomon tomonga o‘zgartirish,avvalo,insonning qarashlariga bog‘liqdir. Bashariyat tarixini g‘oyalar tarixi tashkil etadi. G‘oyalar qachonki insoniyat hayotiga ijobiy o‘zgarishlar olib kelsa, jamiyat a’zolari manfaatlarini qisman bo‘lsa ham o‘zida ifoda etsa, bunday g‘oyalar qudratli kuchga aylanadi. Buyuk yunon faylasufi Aflotun insoniyat hayotining oliy ko‘rinishi sifatida “G‘oyalar dunyosi” iborasini bejiz ishlatmagan. Inson hayot yo‘li ma’lum bir fikrlar, qarashlar va g‘oyalarga asoslanadi. Shunday ekan insonlarning ma’lum bir guruhi tomonidan ilgari surilib, jamiyat va xalq turmushini farovonlashtirishga, ijobiy tomonga o‘zgartirishga xizmat qiladigan g‘oyalarga hamma zamonlarda ham ehtiyoj sezilib turadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

G‘oyalar yetarli zalvorga ega bo‘lsa, o‘z davridagi mafkuraning asosiga aylanishi va davr mafkurasini o‘z manfaatlariga xizmat qildirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. G‘oya o‘ziga yaqin bo‘lgan g‘oyalar bilan birlashib, jamiyat mafkurasiga aylanishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Jadidchilik g‘oyalarini jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish horijiy tadqiqotchilar A.Holid, A.Benningson, H.Komasu,S. M. Vityaev[9] va mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilardan R.Sharipov[2], H. Ziyoyev[3], M. Sobirov[9], B.Qosimov [4] va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, Prezident farmon va qarorlarida ham muammoning ustuvor jihatlari belgilab berilgan. O‘zbekison Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asar va ma’ruzalarida jadidchilar faoliyati va hayotini yoritish, ularning ilmiy merosini qayta tiklash, qarashlari va g‘oyalarini hayotga tadbiq etish bo‘yicha topshiriqlar berilib, ularning nomlarini tiklash bo‘yicha grantlar e’lon qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada o‘rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning ijtimoiy va qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga e’tibor qaratildi.

Tahlillar va natijalar

Chor Rossiyasini O‘rta Osiyoga bosqinidan keyingi davrni mafkuraviy dunyosini tahlil qilar ekanmiz, jadidchilik g‘oyalari davr mafkurasiga qisqa vaqt ichida o‘zgarishlar olib kirdi. Jadidchilik faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tsak, usbu harakat - XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmida Rossiya imperiyasi musulmonlari, asosan turkiy xalqlar o‘rtasidagi islohotchilik ishlarini amalga oshirishga harakat qilgan.

Bu harakatning asosiy mafkurachilari:Shigabutdin Marjoniy, Abu-Nasr Kursavi, Musa Bigeev, Galimjon Barudiy, Rizaetdin Faxretdinov, Ismoil Gasprinskiy, Akmulla, Muxametsalim Umetboyev, Ziyaettin Kamoli, Husayn Fayzxonov, Zaynulla Rasulev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy[9; 242-b.]. Aholining keng qatlamini o‘zlariga xayrixoh bo‘lishga yoki ziddiyatli tarafda qolishga majbur etgani ham uning ahamiyatini namoyon etmoqda. Jadidchilik g‘oyalari – jamiyatning ilg‘or va faol qismini tashkil qiluvchi insonlar tomonidan yaratilib, oddiy xalq manfaatlarini o‘zida mujassam etgan g‘oya va qarashlardan iborat edi. Jamiyat taraqqiyotini, vatan va xalq ozodligini, insonlar dunyoqarashini va farovonligini yaxshilashga qaratilgan g‘oyalar majmuasidan iborat edi.

Bu borada jamiyatning eng ilg‘or vakillari — jadidlarning vatanparvarlik faoliyati muhim o‘rin egalladi. Tadqiqotchi H.Ziyoyev jadidchilik g‘oyasi haqida shunday fikr bildirib o‘tadi: “Jadidchilik harakati o‘zida mazlum xalqning ozodlik g‘oyalarini aks ettirdi. Uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tasodifiy va favquloddagi voqea bo‘lmay siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminiga ega edi”[3;297-b.].

Biz tadqiqot olib borayotgan ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ijtimoiy-falsafiy ildizlariga xalqimizning asrlar davomida shakllangan va ba’zida ta’qibga uchragan dinning inson manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari asos bo‘lib xizmat qilayotgan edi.

Jadidchilik g‘oyalari jamiyatni islohotlar yordami bilan bir bosqichdan ikkinchi bosqichga olib chiqishga harakat qilayotgan ilg‘or va sof fikrli insonlarning dunyoqarashlari hamda amaliy ishlari natijasi o‘laroq taraqqiy etdi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida: “Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi”

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

[1]- degan fikr bildirgan. Bu g‘oyalar o‘sha davr hududiy ahamiyatiga ko‘ra, dastlab chor hukumati, so‘ngra sovet davlati ta’sirida bo‘lgan Turkiston, hamda yuqoridagi mustamlakachi davlatga yarim qaram holatda bo‘lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida alohida ahamiyat kasb etdi. Lekin bu hududlardagi jadidchilar ma’naviy-ma’rifiy sohadagi qarashlari yagona maqsad asosida amalga oshirilayotgan edi. Dastlabki bosqichda xalqni ong-u shuurini o‘stirishga, ularning dunyoqarashini ilmi-urfon bilan boyitib, sayqal berishga xizmat qildi. Bu yo‘lda o‘zlarining ham ilmiy-falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlkarini sarflashga harakat qilishmoqda edi. Yangi usul maktablari, xayriya jamiyatlari, kutubxonalar, teatr kabi yangi muassasalar aynan shu maqsadga xizmat qilishga qaratilgan edi.

XX asrning 10-yillaridan boshlab shakllangan yangi ilg‘or fikrli insonlar tomonidan ijtimoiy-siyosiy qarashlar olg‘a surilib boshlandi. Buxoro va Xiva kabi davlatlarda yosh islohotchilar paydo bo‘ldi. Ular hokimiyat tizimida mutloq hukmronlikni isloh qilib, davlat boshqaruvida ilm-fan va diniy qoidalardan samarali foydalanishni maqsad qildilar. Jadidchilar yangiliklarni aholi orasida ko‘proq yoyish va targ‘ib qilish vositasi sifatida ta’lim tizimini isloh qilish, hamda shu soha vositasida xalqning tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishga harakat qildilar. Bu jarayonda kuch-g‘ayratlarini ijtimoiy-siyosiy qarashlar bosqichiga o‘tguncha bo‘lgan davrda ayamadilar. Bu haqida yuqoridagi tadqiqotchi shunday fikr bildirib o‘tadi: “Jadidlar bu vaqtgacha birinchi galda xalqni savodini chiqarish, milliy his-tuyg‘u va ongini oshirish bilan bevosita shug‘ullandilar”[3;301-b.]. Ma’rifatparvarlar Turkistonda milliy muxtoriyat, Xiva va Buxoroda cheklangan monarxiya uchun kurash boshlagan davrgacha bo‘lgan vaqtda xalqning ilm-ma’rifati, milliy ong-u shuurini o‘stirishga harakat qilganlar.

Turkiston diyorida asrlar davomida ko‘plab ilm va din vakillari bo‘lib, ular xalq va millat dardi bilan yashaganligi, aqliy tafakkurini ezgu maqsadlar yo‘lida safarbar etganligi jamiyat tarixida namoyon bo‘lgan. Lekin kuchli mustamlakachi davlat va mutaassib hokimiyat oldida ba’zan sukut saqlashga majbur etildi. Bu haqida so‘nggi jadidchi sifatida e’tirof etiladigan Begali Qosimov shunday dalil keltiradi: “Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemurildi, nomusimiz g‘asb qilindi, insonligimiz ayoqlar ostiga olindi. Tuzumli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga buyinsindik. Butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik”[4;173-b.]. Ana shunday davrlarda milliy ziyolilar qulay vaziyat kelishini va bu holatdan samarali foydalanish uchun islom diniga va xalqimiz qadriyatlariga xos bo‘lgan toqatlilik, sabrlilik tamoyillari bilan ish tutganlar.

Jadidchilik g‘oyalari dastlab chor mustamlaka mafkurasiga, keyinchalik sovet mafkurasiga qarshi tura oladigan ezgu qarashlarni o‘zida jamlagan edi. Mustamlakachilar iloji boricha jadidchilik g‘oyalarini bo‘g‘ib qo‘yishga, uning olib borayotgan faoliyat sohalariga zarba berishga harakat qildi. Rus mustamlakasidagi yangilik tarafdori bo‘lgan ma’rifatparvarlarga muxolifatchi bo‘lgan Nikolay Ivanivich Ilminiskiy[5; 369-b.] rus hukumatining jadid maktablariga ruxsat berishini - o‘zlari o‘tirgan daraxt shoxini kesish bilan teng deb baholaydi. Shu o‘rinda filologiya fanlar doktori R.Sharipov shunday fikr bildiradi: “Ismoil Gasparali va uning hayotbaxsh g‘oyalari mustamlaka mafkurasi yo‘lidagi g‘ov edi” [2;48-b.]. Tadqiqodchi bu yerda jadidchilik g‘oyalarini mustaqillik va ozodlikni, tenglik va erkinlikni targ‘ib qiluvchi ta’limot sifatida qarab, mustamlakachi davlatning rejalariga mos kelmasligiga ishora qilmoqda. Jadidlar xalqni ilm-ma’rifatli qilish, taraqqiy etgan davlatlar tajribalardan foydalanish, jahondagi o‘zgarishlardan boxabar bo‘lish, yangi texnika va texnologiya yutuqlari bilan tanishtirishni maqsad qilgan edi. Bu kabi hodisalardan xabardor bo‘lgan millat hech qachon mustamlaka

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo‘lishga rozi bo‘lmas edi. Shu tufayli ham mustamlakachi ma’muriyat jadidchilarni zimdan taqib ostiga olishni maqsad qilgan edi.

Ma’rifatparvarlik harakati og‘ir va qiyin sharoitda vujudga keldi. Ular o‘z faoliyatlarini olib borish uchun mahalliy hukumdorlardan va mustamlakachi ma’muriyat vakillaridan ro‘xsat olishlari shart edi. Lekin hamma vaqt ham ijobiy javob olishlariga imkon yo‘q edi. Chunki muxolifatchi mahalliy ullamochilar va mustamlakachilardan bo‘lgan ziyolilar qarshilik ko‘rsatar edi. Tarixchi H. Ziyoyev fikricha: “….jadidlarning faoliyati chor hukumatining nazorati va ta’qibi uchiga chiqib ozodlik g‘oyasi va kurashlari bug‘ib tashlangan sharoitda kechdi. Shunga qaramay, ular o‘zining vatani ozodligi uchun mardonavor kurashdi”[3;304-b]. Vatan ozodligi - bu mustamlaka va erksizlik azobini totgan har bir millat uchun eng qadri tushuncha hisoblanadi. Uning lazzatini his etgan xalq hech qachon ozodlik uchun kurashdan chekinmaydi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari ba’zan davr voqealiklaridan kelib chiqib, o‘zgarib turgan bo‘lsa ham quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, shariatni isloh qilish, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali farovon va adolatli jamiyat qurish, barqaror milliy pul birligini joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish kabilar edi. Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon kabi shaharlarda hur fikrli va taraqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidchilik - insonparvarlikka asoslangan oqim bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim ehtiyojlari va mahalliy aholi manfaatlariga javob beradigan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida jamlagan qarashlar tizimidir. Jadidchilik musulmon ziyolilari harakatining timsoli bo‘lib, o‘sha davrdagi O‘rta Osiyo jamiyatining yorqin mahsuli edi. Milliy taraqqiyparvarlar harakati istiqlol mafkurasiga asos soldi, jamiyatni ozodlik, milliy g‘urur, boy madaniyatni tiklashga undadi. Bu harakatning mafkurasi ana shu tarixiy bosqich voqeliklariga to‘g‘ri keldi va shuning uchun turkiy musulmonlarning ilg‘or yoshlarining asosiy qismi uning atrofida birlashdi. Jadidchilar o‘z g‘oyalari atrofida yoshlarni birlashtirishni eng asosiy masala sifatida qaraganar. Ularni birlashtirish uchun ta’limni taraqqiy ettirish va o‘zlarining ta’limini olgan yoshlarni davlat va jamoat ishlarining boshqaruviga jalb qilishga harakat qildilar. Bu haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy “A’molimiz yoyinki murodimiz” nomli maqolasida shunday fkr bildiradi: “har shahardan har sana o‘n-yigirmalab hukumat maktablarinda bola berilsa, o‘n besh sana so‘ngra har shaharda to‘rt-besh zamona odami tayyor bo‘lur va hukumat mansablarig‘a, zamona doiralarig‘a, tijorat va sanoatxonalarinda kirib, bizlarg‘a manfaat yetkurar”[6; 160-b.]. Bu esa ilm-ma’rifat orqaligina adolatli jamiyat qurish mumkinligiga ishora edi. Har qanday taraqqiy etgan mamlakatda ham rivojlanishga qadam ta’lim va tarbiyadan boshlanadi. Islohotchilar ham aynan shu maqsadni amalga oshirish yo‘lidan bordilar.

Mustaqillik va ozodlikni tiklashga qaratilgan siyosiy kurashni amalga oshirish uchun mazlum xalqning savodini chiqarish, milliy his-tuyg‘ulari va siyosiy ongini oshirish lozim edi[3;303-b.]. Ma’rifatparvarlik harakati butun Russiya musulmonlarini qamrab olgan bo‘lsada, Turkiston hududi harakatning yaqqol ko‘zga tashlangan joylaridan biri edi. Ta’limni isloh qilish bo‘yicha shakllangan bu g‘oyalar, bir muncha vaqt o‘tib, milliy ongning shakllanishiga olib keldi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Milliy ong — siyosiy ongning yuqori darajasi va shakli hisoblanadi. Bu darajada mamlakat, millat manfaatlari chuqur anglanadi, rasmiy siyosat ishlab chiqiladi, asoslanadi, amalga oshiriladi va ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.

Faylasuf Munavvar Sobirov jadidchilik g‘oyasining ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: “Ma’rifatparvarlar ijodida hozirgi erkin hayotimizga hamohang bo‘lgan umumbashariy g‘oyalar – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalq va millatlararo do‘stlik, mamlakat va jahon barqarorligi kabi ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar mavjud edi”[8;65-b.]. Ma’rifatparvarlar ilgari surgan g‘oyalar nafaqat o‘z davri uchun balki bugungi kun mafkurasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’rifatparvarlik harakati o‘zining keng qamrovli g‘oyaviy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan dastlab milliy biqiqlik, diniy mutaassiblik, mustamlaka mafkurasi, sovet mafkurasiga qarshi kurash olib bordi.

Milliy biqiqlik[7; 384-b], milliy mahdudlik – o‘z millatini o‘zga millatlardan uzoqlashtirish, uning o‘ziga xosligini himoya etishni tor tushunib, milliy xudbinlikni joriy qilish, o‘z millatining o‘zga millatlar bilan erkin aloqada bo‘lishiga putur yetkazish kabi illatlarni o‘zida namayon etadi. Milliy biqiqlik o‘sha davrda jamiyat rivojini bir me’yorda saqlanishiga sababchi bo‘lib turgan edi. Jadidchilar Yevropa va musulmon davlatlaridagi ilg‘or g‘oyalarni, yangi texnologiyalarni O‘rta Osiyoda joriy etish uchun milliy mahdudlikni asosiy g‘ov deb bildilar.

Xulosa va tafsiyalar. Jadidchilik g‘oyalari ezguligi, xalqparvarligi va insoniyligi bilan katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Jumladan: birinchidan, ma’rifatparvarlar ilgari surgan qarashlaning ko‘pchiligi jamiyatdagi ko‘pgina tamoyillarni o‘zgartirishga qaratilgan edi. Mutaassiblikka asoslangan ta’lim tizimi, qonuniylik sust bo‘lgan boshqaruv tizimi, adolatsizlikka tayangan shariat tizimi kabi sohalarni isloh qilish harakati asosiy masala edi. Ikkinchidan, Podsho Rossiyasi ma’murlarining xalimiz farzandlarini jilovlashiga, ularni tashqi muhitdan, rus va yevropa madaniyatidan, ilm-fanidan xususan fan-texnika yutuqlaridan uzoqda saqlashga qaratilgan harakatiga qarshi chiqdilar. Uchunchidan, Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan boshlab kurashning g‘oyaviy yo‘lini kuchaytirdi. Mahalliy yoshlardan iborat kadrlarni davlat ishlariga jalb etish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik g‘oyalari ham o‘z davri, ham bugungi davr mafkurasi uchun ijobiy ta’sir ko‘rstuvchi ahamiyatga ega. Jadidchilar tomonidan ilgari surilgan ma’rifiy qarashlar bugungi globallashuv davrida jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev “Jadidlar merosini o‘rganishga-bag‘ishlangan xalqaro konferensiya” ishtirokchilariga tabrigi 2023/03/06
2. R.Sharipov, F.Muhiddinova “o‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixi” T.: TDYU 2014. 48-бет
3. Зиёев, Ҳамид. Узбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Милодцан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача. — Т.: «Шарқ», 2001. — 297 б.
4. Қосимов Б. Фитрат (чизимар).«Шарқ юддузи», 1992, 10-сон, 173-бет.
5. *Липаков Е. В., Кравецкий А. Г.* Ильминский Николай Иванович // Православная энциклопедия. — М., 2009. Т. XXII : «Икона — Иннокентий». — С. 369—374. — 752 с.
6. М.Беҳбудий “Танланган асарлар” Т.: “Маънавият” 1999. — 160.
7. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати.Т.: “Ғафур Ғулом” 2010 —384 б
8. Мунаввар Собиров. XИX аср охири XX аср бошларида ўзбек маърифатпарварларининг ижтимоий-фалсафий, сиёсий қарашларида ҳурфикирлилик

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

қарашлари. Фалсафа фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсияси. 1997 — 65 б
9. С. М. Витяев .Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 16 (811) / 2018 242-б.

BUYUK MUTAFAKKIRLAR F. NISSHE VA RUMIYNING RUHIY BORLIQ XAQIDAGI QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Kabulniyazova G. T.-O‘zbeksiton Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti falsafa va mantiq kafedrasi prof. v.b. f.f.d.

Annotatsiya: *Maqolada nemis falsafasining buyuk vakillaridan biri bo‘lgan Fridrix Nisshening borliq masalasidagi qarashlari sharq falsafasining mashhur vakili J. Rumi tassavurlari bilan qiyosiy solishtirilgan. Bir qator o‘xshashliklar, jumladan, ruhiy borliq, ruhiy muxabbat, komil inson, ruhiy rivojlanish darajalari, ichki va tashqi bilimlar kabi tushunchalar aniqlangan va taxlil qilingan. Ulardagi mushtarak fikrlar irratsional tabiatga ekanligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar; *Ruhiy borliq, iroda, ruhiy muxabbat, nurlanish, jon, jon darajalari, saxrodagi tuya, she’r, go‘dak, ichki va tashqi bilimlar, aqli juz, aqli qul.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE GREAT THINKERS F. NICE AND RUMI'S VIEWS ON SPIRITUAL EXISTENCE

Kabulniyazova G.T.-Uzbeksiton National University, Department of Philosophy and Logic, Faculty of Social Sciences, Prof. etc. f.f.d.

Abstract: *The article compares the views of Friedrich Nietzsche, one of the great representatives of German philosophy, on the issue of existence with the ideas of J. Rumi, a famous representative of Eastern philosophy. A number of similarities have been identified and analyzed, including concepts such as spiritual being, spiritual love, the perfect person, levels of spiritual development, inner and outer knowledge. It is explained that the common thoughts in them are of an irrational nature.*

Keywords; *Spiritual being, will, spiritual love, radiation, soul, levels of soul, camel in the desert, poetry, baby, internal and external knowledge, mind is a slave, mind is a slave.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ Ф. НИЦЫ И ВОЗЗРЕНИЙ РУМИ НА ДУХОВНОЕ СУЩЕСТВОВАНИЕ

Кабулниязова Г.Т.-Узбекитонский национальный университет, кафедра философии и логики, факультет социальных наук, проф. и т. д. ф.ф.д.

Абстракт: *В статье сравниваются взгляды Фридриха Ницше, одного из крупнейших представителей немецкой философии, по вопросу существования с идеями И. Руми, известного представителя восточной философии. Выявлен и проанализирован ряд сходств, включая такие понятия, как духовное существо, духовная любовь, совершенный человек, уровни духовного развития, внутреннее и внешнее знание. Объясняется, что общие мысли у них носят иррациональный характер.*

Ключевые слова; *Духовное существо, воля, духовная любовь, излучение, душа, уровни души, верблюд в пустыне, поэзия, дитя, внутреннее и внешнее знание, разум – раб, разум – раб.*

Mashhur nemis faylasufi F. Nisshening borliq haqidagi panteistik ta'limoti ayrim Sharq mutafakkirlarining borliq haqidagi ta'limoti bilan o'xshashdir. Maqolada ushbu o'xshash tomonlar yoritiladi. Masalan, Nisshe iroda – ruhiy quvvatini borliqning asosi deb hisoblaydi. Uning uchun borliq ruhiy tusga egadir. Sharq mutafakkirlaridan J.Rumiyning borliqni ruhiy deb hisoblab, «olam hayol bilan qoimdir», – degan fikri bunga o'xshashdir. Jumladan, F. Nisshe insonning ruhiy kamolotini uch bosqichga bo'ladi. Bular: tuya(sabr-toqat), sahrodagi sher (ruh erkinligi), bola (komillikka erishish)[1].

Hukmronlikka intilish irodasi keng ma'noda ruhiy ijodiy quvvat sifatida tushunilib, ko'pgina tasavvuf ustozlarining diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Zotan, F.Nisshe «hukmronlikka intilish irodasi» ta'limotini nasroniylik dini va axloqiga qarshi qo'ygan bo'lsa, tasavvuf ustozlari din va axloqqa qarshi oppozitsiyada turmaganlar, aksincha, diniy va axloqiy ta'limotni eng yuksak axloqiy qadriyat sifatida qayta ishlab chiqdilar. Ular nufuzli shaxslarga Qur'oni karimni o'zgarmas, aqida sifatidagi talqiniga ko'r – ko'rona ishonchni inkor etdilar. Tasavvufda ko'r – ko'rona e'tiqod o'rniga ruhiy muhabbatni, birinchi navbatda xudoga nisbatan bo'lgan shiddatli muhabbatni ilgari suradilar. Bu muhabbatga tasavvufning to'rtinchi darajasida erishiladi. Hukmronlikka intilish irodasi ruhiy muhabbatning darajalaridan biri hisoblanadi, bu o'z ehtiroslari, emotsiyalari va fikrlari ustidan hukmron bo'lish darajasidir.

Har bir insonga ulug' bir ne'mat berilgan. Bu ne'mat undagi ijodkorlik ruhiy kuchdir. Bu kuchni yuzaga chiqarish insonning eng asosiy vazifasidir. Bu yo'lda unga ko'p narsalar to'siq bo'ladi. Shulardan eng asosiysi moddiy olam ne'matlariga bog'lanib qolishdir. Nafs va hirs insonni ruhiy ozuqadan mahrum qiladi va uni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. Inson o'z hayotini arzimagan mayda – chuyda ishlarga bag'ishlaydi va uning qalbida qandaydir azoblanish, iztirob chekish hissiyoti paydo bo'ladi. Bu hissiyotni yengish uchun, Rumiyning fikricha, inson o'z jonini ham, molini ham Alloh yo'liga bag'ishlashi lozim. Buni qanday tushunmoq kerak?

Shunday qilib, J.Rumiyning fikricha, ilohiy – ruhiy muhabbat orqali haqiqiy inson borlig'ining mazmuni ochiladi. Bu durdona fikrlar Mavlono Rumiyning «Ma'naviy masnaviy»», «Ichindagi ichingdadir» kabi asarlarida o'zining to'la ifodasini topgan.

Tasavvufda ruhiy borliq qanday tushuniladi? Quyida tasavvufning ustozlaridan biri bo'lgan Jaloliddin Rumiy ruhiy borliqni qanday talqin etganligini ko'rib chiqamiz.

Ruhiy borliq, iroda, ruhiy muxabbat, nurlanish, jon, jon darajalari, saxrodagi tuya, she'r, go'dak, ichki va tashqi bilimlar, aqli juz, aqli qul.

Rumiy ijodida borliq masalasi Sharq falsafasiga xos bo'lgan uslubda tahlil qilinadi. Sharqda borliq ko'proq ruhiy tomondan tushunilgan va insonning ichki olami bilan bog'langan. Oddiy kundalik dunyoqarashni oladigan bo'lsak, biz borliq deganda inson atrofini o'rab turgan barcha mavjud narsalarni tushunamiz. Bu asosan moddiy narsalar bo'lib, yo tabiatdagi narsalar yoki inson faoliyati natijasida yaratilgan narsalardir. Bundan tashqari, oddiy ong darajasida inson tafakkuri tomonidan yaratilgan g'oyalar, fikrlar, tushunchalar ham ruhiy borliq deb hisoblanadi. Rumiy ijodida borliq o'zgacha tushuniladi. Oddiy ong darajasidan uning farqi nihoyatda kattadir. Borliq Rumiy uchun eng birinchi navbatda ruhiy xususiyatga ega va insonning ichki olami bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, inson tasavvuridagi xayollar va ruhiy holatlar ham borliq deb tushuntiriladi. Masalan, Rumiyning aytishicha, «Olam xayol bilan qoimdir va ko'ringani, his etilgani uchun uni haqiqat, deya o'ylaysan. Holbuki, olam sen xayol

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

degan ma'nolarning bir nuridir, xolos. Xayol bo'lgan narsaga aksincha qaralsa, u olamning aynan o'zidir»[3].

Olimlarning bilimini Rumiy chegaralangan deb hisoblaydi. Ular narsalarning faqat ayrim tomonlarini, xususiyatlarini bilishadi. Ular qimmatbaho uzukning ayrim belgilarini to'g'ri aytishsa ham, uning asl qiyofasini topisha olmaydi va qo'lga sig'maydigan g'alvirga o'xshatishadi. Narsalarning mohiyati esa ularning zoti bilan tengdir[1]. Inson qalbigina narsalarning mohiyatidan xabardordir. Lekin buning uchun inson qalbi pok va ravshan bo'lmog'i kerak. Dard va sitam qalbni poklaydigan eng buyuk ruhiy kuchlardir. Dard darddan farq qiladi. Agar inson o'z «men»ligini yo'qotmasdan dard cheksa, bu dard uni poklikka olib kelmaydi. Lekin inson «men»ligini yo'qotib butun borlig'ini, vujudini boshqa vujudga birlashtirsa, natijada bunday dard va sitam, ya'ni o'z «men»ligidan voz kechish dardi ruhiy poklikka olib keladi[3]. Demak, J.Rumiyning fikricha, haqiqat inson tafakkurida emas, balki inson qalbidagi ilohiy nurdadir. Bu nur esa, insonning fikrlari, so'zlari orqali emas, uning ruhiy quvvati asosida qilinayotgan hatti – harakatlarida bilinadi.

Olimlar ayrim narsalarning tashqi ko'rinishini tinimsiz o'rganishadi va butun diqqatini moddiylikka qaratishadi. Natijada esa, ularning o'zligini tashkil etgan ichki ruhiy hayoti e'tibordan chetda qolib ketadi. Aynan bu esa, olamning javohiridir. Inson o'z tanasini oziqlantiradi, uni ovqat va kiyim bilan ta'minlaydi. Tana bu otdir, inson esa, bu otning ustidagi chavandoz. Otning yem – xashagi insonga to'g'ri kelmaydi[1]. Insonning ruhiy borlig'i o'ziga ruhiy ozuqa talab etadi. Bu ozuqa shakli namozda mavjud, lekin uning mohiyati namoz bilan belgilanmaydi. Inson qalbidagi Allohga bo'lgan benihoyat kuchli mehr inson vujudini istig'roh holatiga keltiradi. Bu holatda esa inson namozsiz ham Tangrining nuri bilan birlashadi. Bu ilohiy nur bilan birlashishi inson vujudi uchun asosiy ruhiy ozuqadir.

Ming afsuslar bo'lsinkim, qanchalik noyob iste'dodga ega bo'lsa ham F.Nisshe to'la ichki xotirjamlikka va fikr sokinligiga erisha olmadi. Bu muvozanatli holat, ko'pincha oddiy ongda befarqlik, beparvolik sifatida tushuniladi. Aslida esa, fikr sokinligi, inson xotirjamligi, mutanosiblik holati ichki ruhiy kuchni yuqori darajada jamlanishiga, hissiyot va emotsiyalarni inkor etmasdan, balki ruhiy energiya yig'indisining kuchayishiga olib keladi. Avvalgi falsafiy nazariyalar va ta'limotlar tomonidan ilgari surilgan ong imkoniyatlarini chegaralagandan ko'ra, aksincha, intuitiv ijodiy jarayonga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerakdir. Bunda inson fikri bo'laklarga bo'lib tashlanmaydi, aksincha, hissiy – emotsional holatda inson ruhiyatini uyg'unlashtiradi.

Mashhur nemis faylasufi F. Nisshening borliq haqidagi panteistik ta'limoti ayrim Sharq mutafakkirlarining borliq haqidagi ta'limoti bilan o'xshashdir. Maqolada ushbu o'xshash tomonlar yoritiladi. Masalan, Nisshe iroda – ruhiy quvvatini borliqning asosi deb hisoblaydi. Uning uchun borliq ruhiy tusga egadir. Sharq mutafakkirlaridan J.Rumiyning borliqni ruhiy deb hisoblab, «olam hayol bilan qoimdir», – degan fikri bunga o'xshashdir. Jumladan, F. Nisshe insonning ruhiy kamolotini uch bosqichga bo'ladi. Bular: tuya(sabr-toqat), sahrodagi sher (ruh erkinligi), bola (komillikka erishish)[2].

Lekin istig'roh holatiga barcha insonlarning yetishishi mushkuldir. Ular ruhiy rivojlanish jarayonining har xil bosqichlarida turganligi uchun ruhiy jihatdan bir – biridan farq qilishadi. Bu farq valiylar va nabiylar, zohidlar va oriflar tushunchalarida aks ettirilgan. Valiylardagi ruhiy

[1] Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 110.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qudrat, Rumiy fikricha, oddiy odamlarnikidan 150 – 160 barobar kuchliroqdir. Aynan ana shu ruhiy kuch inson hayotining mohiyati bo‘lgan ijodkorlik qobiliyatini belgilaydi. Ijodkorlik qobiliyatining o‘zi ham buyuk ruhiy qudratdir. Bu qobiliyatni Alloh na yeru ko‘kka, na hayvonlaru o‘simliklarga berdi. Unga faqat insongina loyiq deb bildi. Demak, insondagi ruhiy qudrat uni yaratuvchi, ijodkorga aylantiradi.

Lekin inson o‘z ichida yashiringan ijodkorlik kuchini doimo yuzaga chiqara olmaydi. Ana shunda u xuddi qimmatbaho pichoqni qovoqni yorish uchun ishlatgan kimsaga o‘xshab qoladi. «Chunki insonni boshqa ishlar uchun yaratmadi. Bu shunga o‘xshaydi. Sen shohlar xazinalarida qimmatbaho po‘latdan tayyorlangan hind qilichini, «Men bu qilichni bekor yotmasligi uchun turli ishlarda ishlataman» deya keltirib, osh pichog‘i o‘rnida go‘sht to‘g‘rasang yoxud oltin idishda sholg‘om pishirsang yo javhar bilan bezatilgan pichoqni mix o‘rnida qoqib, unga oshqovoq ossang uvol bo‘lmasmi, odamlar kulmasmi?» Holbuki, qovoqning ishi bir pullik taxta yoki temir bir mix bilan ham bitadi. Shunga yuz dinorlik pichoqni ishlatish aql ishi emas – ku![3]

Lekin bu ijodkorlik chegaralangan bo‘ladi. Haqiqiy yaratuvchilik kuchi esa cheksiz va chegarasizdir. U insonga katta hayotiy kuch berib, hayotning o‘zi bilan qo‘shilib ketadi va hayotning zaminida yotgan jo‘shqinlik kuchiga aylanadi. Aslini olganda, hayotning o‘zi ham yaratish, ijod qilishdir. Shuning uchun J.Rumiy aqliy ijodkorlikni ruhiy ijodkorlik kuchidan ajratadi. Aqldagi ijodkorlik bu narsalarning in’ikosini topish va yangi – yangi narsalarni yaratishdir. Lekin bu ijodkorlik aql doirasi bilan chegaralanib qoladi. Ruhiy ijodkorlik esa, bu barcha narsalarning zaminida yotgan ruhiy kuchni o‘z ichki olamida kashf etish va shu ruhiy kuch orqali butun borliq bilan qo‘shilib ketish, komillikka erishishdir.

Irodaning keyingi rivoji inson ruhiy energiyasini koinot energiyasi bilan qo‘shilishiga olib keladi. Inson joni olamiy jon bilan qo‘shiladi. Inson ruhiy kamolotining oxirgi bosqichini tasavvufvakillari ahaqiqat deb ataydi. Ular haqiqatni oddiy ratsional ongga qaraganda, butunlay o‘zga ma’noda tushunadilar. Ratsionalizmda haqiqat inson bilimining ob’ektiv xususiyatidir. Tasavvufda esa haqiqat inson ruhiy energiyasining butun borliq ruhiy energiyasi bilan qo‘shilishidir.

Insondan tashqaridagi olam uning ichki olamida aks ettiriladi va bu ikkala olam yagona bir narsadir. Bu ikki olamni birlashtiruvchi inson esa o‘zining ruhiy qudrati orqali olamga nur taratib turadi va olam mohiyati inson ruhiy hayotining mohiyati orqali ochiladi. Rumiyning fikricha, inson Tangrining usturlobidir va bu usturlobda butun olam ko‘rinadi. Inson olamdagi barcha mavjudotlarning birligini o‘zining ruhiy borlig‘ida aks ettiradi. Insonning ruhiy borlig‘i undagi ilohiy kuchdir va bu kuch olamdagi barcha narsalarni birlashtiradi. Lekin bu kuchdan hamma insonlarning foydalanishi nihoyatda mushkul. «Inson Tangrining usturlobidir (teleskopidir). Faqat bu usturlobni biladigan munajjim lozim. Dehqon yoki baqqolning usturlobi bo‘lgani bilan uni ishlata olmaganidan keyin nima foydasi bor?»[2]. Inson olamning moddiy ne’matlariga qattiq bog‘lanib qoladi, molu davlatga ko‘ngil qo‘yadi. Bularning barchasi esa o‘tkinchi va uning ruhiy kuchining zaiflanishiga olib keladi. Natijada inson o‘zining ruhiy borlig‘idan ajralib qoladi, nafs va hirs dengizida g‘arq bo‘ladi. Rumiy olamni ko‘pikka o‘xshatadi.

[2] Ўша манба. – Б. 108.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bu ko‘pikning o‘zgarishi olamning o‘tkinchiligini eslatadi[3]. Hayot ummonining tubida ajoyib bir dur yashiringan. Bu dur o‘zi nima? Rumiyga ko‘ra, bu insonning pok qalbidir.

Inson o‘z hayoti davomida yiqqan molu davlatga hirs qo‘ymasligi kerak. Aks xolda undagi ijodkorlik faoliyati so‘nadi va inson ichidagi eng katta mulk – qalbidagi mehr – muhabbatdan ajralib qoladi. Rumiy uchun Alloh yo‘lidan yurish bu qalbda ilohiy muhabbatni his etish, uni avj oldirishdir. Aynan shu muhabbat nuri insonga asosiy ruhiy ozuqa beradi va inson atrofidagi barcha narsalarning yashiringan go‘zal siymosini ko‘rishga imkoniyat beradi. Bu go‘zallik esa, butun olamning naqshi bo‘lib, unda Allohning jamoli yashiringan. Lekin bu go‘zallik niqob ostida yashiringan. Faqat inson qalbidagi muhabbat hissiyoti bu niqoblarni ochib tashlashi mumkin. Demak, Rumiyning fikricha, Alloh yo‘lidan yurish, inson qalbidagi Allohga bo‘lgan muhabbat orqali sodir bo‘ladi. Shundagina insondagi ijodkorlik qobiliyati ochiladi. Inson o‘z hayoti davomida shug‘ullangan har xil ishlarga mehr qo‘yishi mumkin va bu uning ijodining ochilishiga olib keladi.

Demak, yuqorida qilingan tahlildan,biz bir qator xulosalarga kelamiz, F.Nisshe ijodidagi hukmronlikka intilish irodasi g‘oyasi, uni irratsional tushunishning g‘arbiy – yevropacha talqinidir, farqi esa ruhiy amaliyot tajribasiga ega emasligidadir. Lekin amaliyot esa kishilarning hissiyotlarini va fikrlarini nazorat qilish va boshqarishga chorlaydi.

Biz bu yerda Rumiy istig‘roq deb tilga olgan holni ekstaz deb atasak bo‘ladi. Ekstaz holatida inson vujudidan nihoyatda kuchli ruhiy quvvat o‘tadi va inson barcha narsalarni unutadi. Eng avvalo, o‘zligini unutadi va ilohiy nur bilan birlashib ketadi. Aynan shu Holni Rumiy Mansur Hallojdan so‘ng «Anal Haq!» deb atagan. Insonning borlig‘i, ichki olami butun olam bilan birlashib ketadi va nurga aylanadi. Bu hol so‘fiylarda samoviy zikr vaqtida kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ницше Ф. Так говорил Заратустра: Кн. для всех и не для кого. – М.: СП. Интербук, 1990.
2. Ницше Ф. Воля к власти. – Минск: 1999. – С. 354.
3. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 107.
4. Румий Ж. Маънавий маснавий. – Тошкент, 1998. – Б. 56.
5. Абу Али ибн Сина. Избр. произв. Т.1. – Душанбе: Ирфон, 1980. – С. 330 – 331.
6. Абу Али ибн Сино. Фалсафий қиссалар. – Тошкент: 1963. – Б. 34

[3] Ўша манба. – Б. 109.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHNING MA’NAVIY – MA’RIFIY AHAMIYATI

Abdilxamedov Abbos Abilatibovich
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning ma’naviy –ma’rifiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada demokratik huquqiy davlatni barpo etish jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash, fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, huquqbuzarlik, demokratiya, ma’naviyat, ma’rifat, globallashuv, innovatsion, mexanizm*

ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Абдилхамедов Аббос Абилатибович
Независимый исследователь Института социальных и духовных исследований Республиканского центра духовности и просветительства

Аннотация. *В данной статье научно анализируется духовно-воспитательное значение профилактики преступлений среди молодежи. Также в статье освещены вопросы становления демократического правового государства, воспитания молодого поколения, взрослеющего в обществе как всесторонне развитой личности, повышения политической и правовой культуры граждан.*

Ключевые слова. *Молодежь, преступность, демократия, духовность, просвещение, глобализация, инновационный, механизм*

SPIRITUAL AND PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF CRIME PREVENTION AMONG YOUTH

Abdilkhamedov Abbas Abilatibovich
Independent researcher of the Institute of Social and Spiritual Research under the Republican Spirituality and Enlightenment Center

Annotation. *This article scientifically analyzes the spiritual and educational significance of crime prevention among young people. The article also covers the issues of establishing a democratic rule of law state, educating the younger generation growing up in society as a comprehensively developed individual, and improving the political and legal culture of citizens.*

Keywords. *Youth, crime, democracy, spirituality, education, globalization, innovative, mechanism*

Kirish

Jahonda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlarining tobora avj olishi vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat yoshlarni turli buzg‘unchi oqimlar ta’siriga tushib qolishga sabab bo‘lmoqda. Bu esa yoshlar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda ta’sirchan ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani tizimli amalga oshirishni xayotiy zaruratga aylantirmoqda. Zero,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat yoshlar tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligini anglash qiyin emas. Ayniqsa, bugungi kungi globallashuv shiddati dunyo miqyosida yoshlar siyosati bilan bog'liq vujudga kelayotgan bu muammolarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, yoshlar masalasi har doim pozitiv kelajakni ilmiy bashorat qilgan davlat va jamiyatning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan hisoblangan. Yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar berish, har tomonlama o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratib berish bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilayotganligini ta'kidlash zarur. Bu xaqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Chunki butun xalqimiz qatori yoshlar ham – Yangi O'zbekiston bunyodkorlaridir!"[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O'rganishlarga ko'ra, dunyo aholisining 20 foizini yoshlar tashkil etishi va ular o'rtasida 2022 yil natijalari bo'yicha 15–24 yosh oralig'idagi yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 176 mamlakatlar o'rtasida o'rtacha 16,72 foizni tashkil etgan [2]. Zero, dunyo olimlari tomonidan qayd etilishcha ishsizlik, huquqbuzarlik yuzaga kelishi uchun eng katta omil sifatida baholanib kelinadi[3]. Shu o'rinda, demokratik huquqiy davlatni barpo etish jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash, fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarning ma'naviy – ma'rifiy tarbiyasini yo'lga qo'yish bilan birga olib borilishini taqoza etadi. Chunki, mamlakatda jamiyat va shaxs, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy va huquqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish orqali huquqiy davlat yaratishga zamin yaratadi. Bu borada, yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi globallashuv jarayonlarini tobora avj olishi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'naviy – ma'rifiy omillarga e'tibor qaratish, u bilan bog'liq kompleks tadbirlarni ishlab chiqish, yoshlarni o'ziga jalb qilib oladigan yangicha yo'nalishdagi zamonaviy ahamiyatga ega, innovatsion mexanizmlarni qo'llash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ma'naviy – ma'rifiy jihatdan tarbiyalash jarayonida kuzatilayotgan muammo va yuzaga kelayotgan kamchiliklarning ilmiy asoslangan yechimlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlarning ma'naviy tarbiyalash va huquqbuzarlik sodir etishlarini oldini olish, bu boradagi ishlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini o'zi yoshlarga qaratilgan e'tiborning naqadar muhim ahamyat kasb etishdan dalolat beradi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan nafaqat ichki ishlar organlari, balki jamiyatdagi barcha davlat va nodavlat organlari, shu bilan birga jamiyatimizning ilg'or ziyoli qatlam vakillari faylasuflar, huquqshunoslar, pedagoglar, ma'naviyat sohasi vakillarning shug'ullanishi o'zining ijobiy natijasini beradi. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasining ma'naviy – ma'rifiy omillari bilan bog'liq jihatlari, ya'ni yoshlarning axloqi, odobi, tarbiyasi, unga mas'ul bo'lgan "oila-maktab-mahalla" rolini bu boradagi ta'sirini kuchaytirish, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish, jamiyat hayotiga tatbiq etish dolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Jaxon tajribasidan ma'lumki, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

e’tirof etib kelingan. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muxim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”[4].

Ma’lumki, mamlakatimizda yosh avlod ta’lim tarbiyasi, ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq izchil islohotlarning konseptual asoslari va huquqiy zaminlari bugungi kunda davlatimiz rahbari Yurtimizda hozirgi kunda har tomonlama bilimli va vatanparvar bo‘lgan, shuningdek, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash mamlakatimizda yoshlar manfaatlarini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur masalalar yuzasidan O‘zbekiston yoshlari forumi hamda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh avlod manfaatlariga qaratilgan muhim g‘oya va tashabbuslarni ilgari surar ekan, bu yoshlar bilan ishlash bo‘yicha yangi tizimni joriy etish borasida dolzarb vazifalar belgilab olinganligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “...Yoshlar bo‘yicha mutasaddilar, hokimlarning yoshlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, ichki ishlar bo‘limi rahbari o‘rinbosarlari bor. Pastda tizim yaratilgan. Lekin ming afsus, biz kutgan natija bo‘lmagani uchun mana shunday tizim qilyapmiz”[5] – deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir.

7. Указать на потенциальные направления для дальнейших исследований, включая более глубокий философский анализ концепций и идей, а также оценку эффективности рекомендованных стратегий.

Заключение статьи должно быть лаконичным, но информативным, и подчеркивать ценность и значимость проведенного исследования в контексте борьбы с правовым нигилизмом среди молодежи в Узбекистане.

Список использованной литературы

1. Ильин, И.А. О сущности правосознания/ И.А. Ильин. - М: 1993. - 23-24 с.
2. Корельский, В.М. Теория государства и права. Учебник для вузов/ В.М. Корельский, В.Д. Перевалов. - М.:Издательство НОРМА,2003.-616 с.
3. Иеринг Р. Борьба за право /Р. Иеринг.- М., 1991.- 37с.
4. Ильин, И.А. О сущности правосознания/ И.А. Ильин. - М: 1993.- 31 с.
5. Любушкин В. А. Институты государственной власти современной России и развитие правосознания и правовой культуры граждан / В.А. Любушкин // Вестник Саратовской государственной академии права. 2007. №3(55). С. 21–24.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ПРАВОВОЙ АКТИВНОСТИ

Уринбоев Дилмурод Тураевич
научный сотрудник Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация: *В данной статье исследуется взаимосвязь между правовой культурой и правовой активностью, при этом делается утверждение о ключевой значимости правовой активности в процессе формирования и укрепления правовой культуры общества.*

Ключевые слова: *правовая система, правовая культура молодежи, правовая деятельность, виды правовой деятельности.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN LEGAL CULTURE AND LEGAL ACTIVISM

Urinboev Dilmurod Turaevich
Researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: *This article explores the relationship between legal culture and legal activity, while making a statement about the key importance of legal activity in the process of formation and strengthening of legal culture of society.*

Keywords: *legal system, legal culture of youth, legal activity, types of legal activity.*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY FAOLIYATNING O‘ZARO MUNOSABATI

Urinboyev Dilmurod Tura o‘g‘li
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola huquqiy madaniyat va huquqiy faoliyat o’rtasidagi munosabatlarni o’rganadi, jamiyatning huquqiy madaniyatini shakllantirish va mustahkamlash jarayonida huquqiy faoliyatning muhim ahamiyati haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari huquqiy faollik va huquqiy madaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati tahlil qilishdan boshlanadi.*

Kalit so'zlar: *huquqiy tizim, yoshlar huquqiy madaniyati, huquqiy faoliyat, huquqiy faoliyat turlari*

Введение.

В современном обществе вопросы развития правовой активности и правовой культуры молодежи становятся все более актуальными и важными. Молодое поколение играет важную роль в формировании будущего общества, его отношение к правопорядку, соблюдение законов напрямую влияет на стабильность и развитие страны. Данная статья привлекла внимание как общественных деятелей, так и исследователей благодаря своей связи с проблемами и возможностями, с которыми сталкивается молодежь в современном мире.

Во вступительной части статьи мы исследуем значение активности и развития правовой культуры, а также оценим их влияние на современное общество и перспективы на будущее. Мы рассмотрим основные аспекты данного вопроса, в том числе факторы, влияющие на формирование правовых ценностей у молодежи, роль образования и информационных технологий, а также мероприятия и инициативы, направленные на повышение правового сознания среди молодежи.

В нашей статье, чтобы лучше понять динамику и проблемы, с которыми сталкивается молодежь в контексте верховенства права и правовой культуры, мы глубоко проанализируем исследования, данные и практики, связанные с этой темой. Также, основываясь на правовых ценностях и принципах, мы представляем практические рекомендации и меры, которые служат воспитанию активных и право-сознательных молодых людей, способных активно участвовать в жизни общества, способных формировать свое будущее и стать взрослыми.

Следовательно, данная статья является важным вкладом в понимание и развитие темы правового активности и правовой культуры среди молодежи, обогащает дискуссии по этой теме и может служить основой для дальнейших исследований и действий в этом направлении.

И.Ф. Покровский понимает правовой активность как деятельность человека по реализации правовых требований по самостоятельным, внутренним причинам [1].

Правовая активность – это поведение и участие граждан в сфере правоохранительной деятельности, соблюдения законов и участия в юридических процессах, направленные на защиту прав и интересов как личности, так и всего общества.

«Правовая активность – это целенаправленная деятельность, направленная на полную реализацию правового статуса субъектов общественной жизни, укрепление правовых основ всей социальной системы, их совершенствование, развитие в соответствии с целями гражданского общества и государства», по мнению А.В. Петров и Ю.В. Кокорева [4].

Сущность юридической деятельности включает в себя следующие основные аспекты:

Соблюдение законов: Основой правового активность является добросовестное соблюдение законов и правил, регулирующих поведение граждан в обществе. Это включает в себя знание действующего законодательства и активное соблюдение его положений.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Участие в судопроизводстве: Правовой активность включает в себя участие граждан в судебных процессах, таких как участие в судах, подача жалоб и исков, участие в общественных обсуждениях проектов законов и других важных правовых вопросах.

Гражданская образованность: Юридически активные граждане обычно обладают высокой гражданской образованностью, которая включает в себя знание своих прав и обязанностей, а также понимание юридических процедур.

Участие сообщества: Юридическая активность также включает участие сообщества, включая участие в некоммерческих организациях, пропаганду и гражданскую активность.

Защита прав и интересов: Одним из основных аспектов правового активность является защита прав и интересов граждан. Это может включать помощь другим гражданам в решении правовых проблем и участие в общественных движениях, направленных на защиту прав.

Следует отметить, что юридическая деятельность не ограничивается действиями в области судебного права; включает образовательные и информационные инициативы, направленные на повышение правовой грамотности и осведомленности граждан. Этот аспект юридической деятельности важен в повышении правовой культуры общества.

По мнению С.Н. Кожевникова, правовая активность - это «сознательная, активная реализация предоставленных им прав и возложенных на них юридических обязанностей гражданами и организациями в соответствии с целями правового регулирования» [2].

В поддержку подходов к понятию правовой деятельности, сформированных в приведенных определениях, подчеркнем, что юридическую деятельность правильно рассматривать в более широком контексте как основной элемент формирования правовой культуры общества, поскольку она проявляется как следует. не только в части, связанной с реализацией закона, но и в целом в правовой реальности.

Правовая реальность является результатом особой деятельности общества, направленной на создание и поддержание порядка, необходимого для нормального функционирования и развития особо важных для общества общественных отношений. В качестве необходимых компонентов она включает процессы формирования правовых норм, реализации правовых норм в поведении субъектов и процессы достижения законности и правопорядка, а также процессы обеспечения правопорядка посредством специальных правовых мер.

Подходы к классификации юридической деятельности разнообразны, поскольку она представляет собой сложное социальное явление. Для этого могут использоваться различные критерии, включая категории субъектов, сферы общественной жизни и уровни юридической деятельности. Например, можно классифицировать население по профессиональным, половым и возрастным группам, а также по областям общественной жизни, таким как политика, экономика и социальная сфера. Правовая активность можно рассматривать с точки зрения национальных и международных аспектов юридической деятельности.

Правовая культура – это система ценностей, норм, идеалов и практик, относящихся к правовой сфере общества. Оно выражает уровень осведомленности, понимания и уважения прав и обязанностей граждан, а также способность общества действовать на основе правовых принципов и норм.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Объясняя взаимодействие правовой культуры с гражданской культурой, их сходство и гражданскую культуру вообще, он мыслит так: «В результате развития гражданской культуры экономически независимый и политически активный человек с гарантиями частной собственности и гражданского самоуправления выражение создает состояние родственных личностей. Гражданская культура требует, чтобы исполнительная власть играла посредническую роль в политическом диалоге» [3].

Сущность правовой культуры включает в себя следующие основные элементы:

Знание и понимание законов: Юридическая грамотность начинается со знания применимых законов и правил. Граждане должны понимать свои права и обязанности перед законом.

Уважение прав других: Ценность правовой культуры заключается в уважении прав и интересов других граждан. Это предполагает соблюдение правил и положений, которые обеспечивают справедливость и равенство в обществе.

Соблюдение законов. Одним из важных аспектов правовой культуры является соблюдение законов и постановлений, даже когда никто не наблюдает. Это отражается на честности и порядочности в поведении каждого гражданина.

Участие в судебных процессах: Граждане с высокой правовой культурой активно участвуют в юридических процедурах, таких как голосование, судебные заседания, публичное обсуждение законопроектов и других правовых инициативах.

Справедливость и равенство. Правовая культура выражается в стремлении к справедливости и равенству перед законом. Это подразумевает неприятие коррупции, дискриминации и нарушения гражданских прав.

Образование и осведомленность: Продвижение правовой культуры включает в себя образовательные и информационные инициативы, направленные на повышение правовой грамотности и осведомленности граждан.

Правовая культура играет важную роль в укреплении правового порядка и стабильности общества. Она служит соблюдению законов, уважению прав и свобод каждого гражданина, развитию гражданского общества и демократии. Эффективное развитие правовой культуры в обществе служит улучшению правопорядка, уменьшению конфликтов и обеспечению справедливости.

Взаимосвязь правовой культуры и правовой активности молодежи является важным направлением исследований, изучающим, как осведомленность и понимание закона влияет на гражданскую активность молодежи и наоборот. Можно выделить некоторые аспекты этих отношений:

Понимание важности прав и обязанностей: высокий уровень правовой культуры молодежи способствует правильному пониманию своих прав и обязанностей перед обществом и государством. Это, в свою очередь, может побудить молодых людей более активно участвовать в судебных процессах и защищать свои права.

Поддержка правовых инициатив: Молодые люди с высокой правовой культурой поддерживают больше правовых инициатив и участвуют в них с публичными акциями, петициями и обращениями в государственные органы, что обслуживает их законную деятельность.

Образование и осведомленность: Высокий уровень юридической грамотности часто связан с тем, что молодые люди образованы и осведомлены о текущих правовых проблемах

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

и событиях. Образовательные программы и информационные ресурсы могут способствовать формированию правовой культуры и, следовательно, стимулировать юридическую активность.

Соблюдение законов: Более строгое соблюдение законов и правил молодыми людьми с сильной правовой культурой снижает риск совершения преступлений и повышает уровень законности и порядка в обществе.

Участие в гражданских инициативах: молодые люди с высокой юридической активностью могут активно участвовать в гражданских инициативах, направленных на совершенствование законодательства и правопорядка. В свою очередь, такое участие может послужить улучшению и укреплению их правовой культуры.

Самосознание и ответственность. Правовая культура помогает молодым людям развивать самосознание и ответственность за свои действия. Это может побудить их занять активную позицию в правоохранительной деятельности и защите прав.

Поэтому высокая правовая культура молодежи и ее активное участие в юридических процессах тесно связаны между собой. Правовая культура повышает активность, а правовая активность укрепляет правовую культуру, создавая взаимоподдерживающий цикл, который ведет к формированию сознательной и ответственной гражданственности среди молодежи и общества в целом.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ.

Исследование включает в себя анализ данных, собранных в ходе опроса и анкетирования среди молодых людей в возрасте от 18 до 30 лет в разных регионах Узбекистана. В выборочную группу вошли представители различных социокультурных и экономических групп, молодежь, обучающаяся в высших учебных заведениях и не обучающаяся, безработные и безработные.

1. Инструменты сбора данных

Для сбора данных использовались следующие инструменты:

Вопрос-ответ: разработаны систематические анкеты, содержащие вопросы о знании законов, уровне участия в жизни общества и правовой жизни, мнениях и убеждениях молодежи по правовым вопросам.

Интервью: Проведены глубинные интервью с экспертами в области правовой культуры и молодежной активности, представителями образовательных учреждений, представителями молодежных организаций.

3. Методология

Для анализа данных использовали квалификационный и количественный методы. Количественный анализ проводили с использованием статистического программного обеспечения. Качественный анализ проводился на основе интерпретации результатов интервью и анализа открытых ответов в анкетах.

4. Этапы исследования

Исследование разделено на следующие этапы:

Подготовка и дизайн анкет и вопросов для интервью.

Проведение опросов и анкет.

Сбор, систематизация и анализ данных.

Формирование выводов и рекомендаций по результатам исследования.

5. Этические соображения

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Все участники исследования дали информированное согласие на участие в исследовании, при этом была обеспечена анонимность данных. Исследование проводилось с соблюдением всех этических норм и принципов.

Этот раздел «Материалы и методы» помогает читателям понять, как проводилось исследование, какие методы и инструменты использовались и какие ограничения учитывались при анализе данных.

Обсуждение и результат

В этой части статьи мы представляем дискуссию и результаты исследования, направленного на анализ развития правового активизма и правовой культуры среди молодежи. На основе собранных данных и анализа мы выделяем основные выводы и обсуждаем их значение для разработки политики развития общества и правового активизма и молодежной культуры.

Результаты исследования:

Уровень знания законов: Исследование показало, что большинство молодых людей имеют базовые знания законов и правовых норм. Однако отсутствует понимание сложных правовых вопросов.

Участие в судебных процессах: Результаты показывают, что лишь небольшое количество молодых людей активно участвуют в юридических процессах, например, участвуя в публичных дебатах по законопроектам или в судебных слушаниях.

Правовой активизм. Молодые люди с высокой юридической грамотностью с большей вероятностью будут демонстрировать юридический активизм, включая участие в общественных инициативах, общественных организациях и правоохранительных органах.

Образование и осведомленность: Исследования подтверждают важность образования и осведомленности в формировании правовой культуры и активизма. Правовая культура молодежи, имеющей высшее образование и доступ к информационным ресурсам, более развита.

Самосознание и ответственность: Высокий уровень правовой культуры связан с самосознанием молодежи, повышающим ее ответственность перед законом и обществом.

Результаты данного исследования подчеркнули важность повышения правовой культуры среди молодежи. Высокий уровень правовой культуры служит соблюдению законов, уважению прав и обязанностей граждан, повышению юридической активности. В свою очередь, юридическая деятельность способствует развитию правовой культуры, создает взаимоподкрепляющий цикл.

В целях развития правовой активности и культуры молодежи необходимо организовывать образовательные программы, информационные ресурсы и массовые мероприятия, способствующие повышению правовой грамотности. Также важно создать возможности для молодых людей участвовать в юридических процессах и дискуссиях, чтобы они чувствовали, что играют свою роль в формировании законов и политики.

Для разработки эффективных стратегий развития правового активизма и культуры среди молодежи необходимо учитывать различия в образовании, информации и социокультурных факторах. Такие усилия служат укреплению правопорядка, снижению уровня преступности и созданию справедливого и ответственного общества.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Заключение

Изучение развития правовой активности и правовой культуры молодежи является важным шагом в понимании динамики современного общества и его будущего. Анализ данных и обсуждение результатов позволяют сделать несколько основных выводов:

Важность правовой культуры: правовая культура является ключевым аспектом гражданской активности и участия молодежи в жизни общества. Высокий уровень правовой культуры способствует повышению соблюдения законов, уважения прав и обязанностей, а также гражданской ответственности.

Связь с правовой деятельностью: Правовая деятельность молодежи тесно связана с уровнем правовой культуры. Молодые люди с развитой правовой культурой более склонны участвовать в юридических процессах и общественных инициативах. Образование и просвещение: Образование и получение информации играют важную роль в формировании правовой культуры молодежи. Эффективные образовательные программы и доступ к правовым ресурсам помогают развивать юридическую грамотность.

Роль молодежи в обществе: Молодые люди с высокой правовой культурой и активизмом являются двигателем перемен и перемен в обществе. Оно может влиять на политику, законодательство и социальные нормы. Необходимо разработать стратегии: Для развития правового активизма и культуры молодежи необходимо разработать стратегии, учитывающие различия в образовании, информации и социокультурных факторах. Эффективные образовательные программы, медиаграмотность и участие молодежи в социальных процессах служат формированию активных и ответственных граждан.

Завершая наше исследование, мы подчеркиваем важность продвижения правового активизма и правовой культуры среди молодежи как стратегической цели укрепления верховенства закона, справедливости и обеспечения долгосрочной стабильности общества. Молодые люди являются движущей силой перемен, и инвестиции в их юридические знания и активную деятельность могут окупиться в будущем.

Библиография

1. Покровский И.Ф. О правовой активности личности и формировании ее правосознания // Вестник ЛГУ. 1971. № 17, вып 3.

2. Кожевников С.Н. Правовая активность: понятие и сущность // Правоведение. 1979. № 4. С. 33–39

3. Tursunov L.E. Yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish xususiyatlari // Falsafa va huquq №1. 2023. 104-107 betlar.

4. А.В.Петров, Ю.В.Кокорева, Правовая активность как необходимый фактор развития гражданского общества. Вестник Нижегородского Университета им. Н.И. Лобачевского, 2010, №4 (1). с. 247-252.

ISSN: 2181-0427

YANGI O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY-MA’RIFIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Meliboyev Azizjon Nizomiddinovich
Muqimiy nomli Qo‘qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotasiya: *Maqolada Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikni oldini olishning ijtimoiy-ma’rifiy va tashkiliy-huquqiy asoslariga oid choralar belgilangan vazifalar aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya, kambag‘allikka barham berish, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy kontrakt tizimi, ishsiz fuqarolar.*

Научный сотрудник: Коканского государственного педагогического института им. Мукими

СОЦИАЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ БЕДНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В статье отражены задачи социально-воспитательных и организационно-правовых основ профилактики бедности в Новом Узбекистане.*

Ключевые слова: *социальная защита, искоренение бедности, малообеспеченные семьи, система социального заказа, безработные граждане.*

RESEARCHER OF KOKAN STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE NAMED AFTER MUKIMI

SOCIAL-EDUCATIONAL AND ORGANIZATIONAL-LEGAL FOUNDATIONS OF POVERTY PREVENTION IN NEW UZBEKISTAN

Annotation: *The article reflects the tasks of social-educational and organizational-legal foundations of poverty prevention in New Uzbekistan.*

Key words: *social protection, eradication of poverty, low-income families, social contract system, unemployed citizens.*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda, butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o‘rtasida kambag‘allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, uni bartaraf etish yo‘llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko‘rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog‘liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Biz jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish darajasini pasaytirish, mamlakatimizda o‘ta boylar ham, o‘ta kambag‘allar ham bo‘lmasligi bo‘yicha Islom Abdug‘aniyevich tomonidan belgilab berilgan siyosatni qat’iy davom ettiramiz”[1], deya ta’kidlagan edilar.

Kambag‘allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Jahon amaliyotida kambag‘allikni aniqlashda besh xil yondashuv mavjud. Ya’ni, tirikchilik vositalaridan mahrumlik ko‘rinishidagi kambag‘allik, tengsizlik ko‘rinishidagi kambag‘allik, madaniy kambag‘allik, ekspluatasiya ko‘rinishidagi kambag‘allik hamda tarkibiy kambag‘alliklardan iborat[2].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirish yo‘llari quyidagilardan iborat:

— barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
— ishlab chiqarnsh hajmishshg ortishi va ish hakining o‘sishn;
— yangi ish joylarini ochish va bandlikning o‘sishi;
— aholi daromadlari taqsimlanishi notekisligining pasayishi;
— ta’lim va sog‘liqni saqpash tizimlarining rivojlanishi;
— inflyasiyaning barqarorlashuvi.

Shunga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishlari har bir mamlakatdagi ichki holat va xukumatlarning olib borayotgan iqtisodiy siyosatlariga bog‘liq.[3]

Ularni bartaraf etish dunyodagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatini talab etadi. Ushbu vaziyatlar sababli 2000 yilda BMTning “Ming yillik Deklarasiyasi” qabul qilindi. “Ming yillik Deklarasiyasi”da ilgari surilgan vazifalar orasida kambag‘allik muammosi alohida o‘rin tutadi [4].

Noqonuniy migrasiya, odam savdosi, giyohvandlik kabi illatlarning ildizi ham bugun aynan qashshoqlik va kambag‘allikka borib taqalyapti. Bunda masofa, qit’alar, okeanlar unchalik katta ahamiyat kasb etmayapti. Globallashuv jarayonlari hayotimizda ham shiddatkor o‘zgarishlarni namoyon etdi.

Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida qashshoqlikni tugatish va kambag‘allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag‘ishlangan global sammitni o‘tkazishni taklif etishi bejiz emas. Shuning uchun ham bu tashabbusni sessiya qatnashchilari, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar qo‘llab-quvvatlamoqda.[5]

Turli mamalakatlarda kambag‘allikka qarshi kurash tajribasining tahlili ushbu toifa bo‘yicha ikkita turli tushunchani ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

“Kambag‘allarga yordam” – shu lahzada hayotiy vositalarga muhtoj bo‘lganlarni kundalik qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, sof taqsimot muammosini o‘z ichiga oladi: muhtojlarga yordamning samaraliroq dasturlarini ishlab chiqish bilan milliy daromadning bir qismini tegishli maqsadlarga ajratish. Bunda bosh vazifa – barcha imkoni bor manbalar (davlat, nodavlat, halqaro) bo‘yicha zarur mablag‘ni topish va yordam ko‘rsatishning eng arzon maqsadli yo‘llarini tashkil etish. Bunda ochlar va nochorlar sonini mi-nimal darajada kamaytirishga erishish mumkin. Biroq bu yerda jiddiy muammo mavjud: resurslarning cheklanganligidir.

“Kambag‘allikka qarshi kurashish” degan ikkinchi tushuncha – bu kambag‘al aholi sonini kamaytirish va uning ko‘payishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishidir. Bu tadbirlar iqtisodiy siyosatning sosial asosini tashkil etib – ular aholi asosiy qismining daromadini oshirishga, milliy ishlab chiqarishning jonlanishi asosida kam ta’minlanganlar foydasiga, ular kambag‘allar safini yanada to‘ldirmasliklari uchun qayta taqsimlash mexanizmini yaratishga yo‘naltirilgandir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Faoliyatning bunday strategiyasini tanlashda hukumat YAIM da real ish haqining ulushini ko‘paytirishga mo‘ljallangan dasturlar qabul qilishi (bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 50-60 % ni tashkil etadi); mehnat qilish uchun zaruriy strategik makon yaratishi (yollanma, tadbirkorlik, kooperativ, fermer, hunarmandchilik, oilaviy va barcha boshqa shakllarda ham); har bir kishiga o‘zi uchun hamda davlat va jamiyatni ta’minlash uchun ishlab topish imkoniyatini yaratishi lozim. Aynan mehnat o‘zini o‘zi himoyalashning eng yaxshi usulidir. Faqatgina mehnatni adolatli baholashni, tegishli rag‘batlantirishni, o‘rtacha soliqlar va maqbul iste’mol narxlarni shakllantirish zarur.

Hukumatning sotsial siyosati taqsimlash va qayta taqsimlashning shunday mexanizmlarini o‘z ichiga olishi kerakki, ular mehnatning muvaffaqiyatli natijalarini o‘rtacha ta’minlangan va kam ta’minlangan aholi foydasiga yo‘naltira olsin, chunki boylar o‘zi haqida o‘zlari qayg‘ura oladi. Bu sohadagi asosiy masala, keng ko‘lamdagi: issiqlik, non, dori-darmondan tortib, ta’lim tibbiy xizmat, uy-joy va aloqa vositalarigacha iste’molning minimal sosial andozalariga bo‘lgan inson huquqlarini tiklash hisoblanadi.

Bunday andozalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- eng kam ish haqi va mehnat nafaqasining yashash minumumi darajasiga mos kelishi;
- ish haqini bolalarni ta’minlash xarajatlarini hisobga olgan holda belgilash;
- malakali mehnatga haq to‘lashdagi adolatsizlikni tugatish uchun byudjet sohasi xodimlarining ish haqini qayta ko‘rib chiqish;
- xodimning yashash minumi darajasida bo‘lgan soliq chegirmalarini o‘rnatish;
- aholi uchun keng iste’mol tovarlari va sosial ahamiyatli xizmatlarga ega bo‘lishni ta’minlash.[6]

Yangi O‘zbekiston XXI asrning ijtimoiy illatlaridan biri – kambag‘allikka barham berish, shu maqsadda yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholini iqtisodiy tashabbuskorligini kuchaytirish uchun tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘li e’lon qilindi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga xos yangi boshqaruv usullarini joriy etish maqsadida tumanlardagi mahalliy boshqaruv organlari tizimini nomarkazlashtirishning yangi shakllari hayotga joriy etila boshlandi [7].

Aholining kam ta’minlangan qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash masalalari uzoq vaqtdan beri dolzarbligicha qolmoqda. Shu o‘rinda mustaqillik yillari joriy qilingan ijtimoiy himoyaga muhtoj yurtdoshlarimizga yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlashning ko‘p qirrali tashkiliy-huquqiy mexanizmlari samarasi yuqori bo‘lmaganini tan olish kerak. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda kambag‘allik mavjudligini e’tirof etgani holda uni kamaytirishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida birinchi marta 2020 yili 24 yanvarda parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasida belgilab qo‘ydi [8].

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha asosiy yo‘nalish va ustuvor vazifalarni ko‘rsatar ekan, aholini kasb-hunarga o‘rgatish va moliyaviy savodxonligini oshirish, fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash, ta’lim va tibbiy xizmat sifatini oshirish, nafaqalarni aniq yo‘naltirgan holda maqsadli taqsimlash zarurligini ta’kidlagan.

Ijtimoiy zaif va kam ta’minlangan oilalarni samarali qo‘llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.[9] Ushbu sohada vertikal tizim o‘rnatildi hamda mahalla, tuman (shahar), viloyat va mamlakat darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirish uchun mas’ul lavozimlar joriy etildi. Hukumat tarkibiga moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni kamaytirish masalalari bo‘yicha Bosh vazir o‘rinbosari lavozimi kiritildi.

2020 yili 8 oktyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda ularning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratildi. Birinchi marotaba ijtimoiy shartnoma mexanizmidan keng foydalanishning vazifalari va yo‘nalishlari aniq belgilab berildi. Aynan moliyaviy qiyinchiliklar odamlarning ta’lim olishi va kasb-hunar egallashi yo‘lida asosiy to‘siq ekanini hisobga olgan holda, dastlab davlat tomonidan yoshlar va ayollarni moddiy qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi. Ajratilgan mablag‘lar mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, mazkur faoliyat bilan shug‘ullanadigan minglab nodavlat kasb-hunar ta’lim markazlari faoliyatini izchil yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun moliyalashtiruvchi manbalar aniq belgilangan. Jumladan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 100 million dollar ajratilgan bo‘lib, undan 10 million dollari yoshlar va ayollarni kasb-hunarga o‘qitish, 90 million dollari malaka oshirish kurslarini tamomlab sertifikatga ega bo‘lganlar uchun imtiyozli kreditlar ajratishga mo‘ljallangan. Ijtimoiy shartnoma doirasida nodavlat kasb-hunar ta’limi markazlarida, shuningdek, malaka oshirish kurslarida o‘qish istagini bildirgan yoshlar va ayollarning o‘qish xarajatini qoplash uchun bir million so‘mgacha subsidiyalar olishlari mumkin.

Ijtimoiy shartnomalar tizimini joriy etish vazifasi besh yilga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining so‘nggi — “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturida o‘z ifodasini topgan [10]. Unda ijtimoiy kontrakt tizimi doirasida davlat mablag‘lari hisobidan ishsiz fuqarolar, kambag‘al oilalar a’zolarining nafaqat bandligini ta’minlash, balki ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun ham beriladigan moddiy yordam va subsidiyalar nazarda tutilgan. Boshqacha aytganda, ijtimoiy kontrakt doirasida uning ishtirokchilari, ya’ni kam ta’minlangan oila yoki fuqaro o‘zining qiyin hayotiy sharoitini (moddiy ahvolini) o‘zgartirish uchun qanday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi, moliyaviy holatini yaxshilash va o‘zini o‘zi ish bilan band qilishga bosqichma-bosqich o‘tish tartibi belgilanadi.

Ijtimoiy kontrakt tizimi joriy etilishi Prezidentimiz yaqinda imzolagan “2021–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishida ham alohida qayd etilgan [11].

Mamlakatda davlatning kambag‘allikka barham berish va uni kamaytirishga doir chora-tadbirlari keyingi ikki yil ichida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan avj oldi. 2018 yil 7 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorda mamlakatimizning har bir tuman va shaxrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi amalga oshirish maqsadi qo‘yildi.

Shuningdek, mazkur dastur ijrosini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martda “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun joriy yilda tijorat banklari orkali 6,2 trillion so‘m ajratildi. Mazkur mablag‘larni o‘zlashtirish qoniqarsiz tashkil etilgani uchun 2019 yil 2 mayda Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligida “Har bir oila – tadbirkor dasturi ijrosini sifatli tashkil etish, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlar tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yigilishi o‘tkazildi [12].

Mamlakatda ana shu tariqa amalga oshirilayotgan kambag‘allikka qarshi kurashdagi tub burilish Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qo‘yidagicha ifodalandi: “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ruyobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir” [13].

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak: kambag‘allikni qisqartirish uchun birinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish kerak. Avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg‘otish zarur[14]. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida 100 maqsadni amalga oshirish ko‘zda tutilgan [15].

2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 85-maqsadida**:**

Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish.

Kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish.

Ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda mahalliy darajada («mahallabay» tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo‘lga qo‘yish.

Hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishi jarayonni shaffofliligi, natijadorligi va manzilliligini ta’minlash maqsadida davlat ijtimoiy xizmat va yordamlarini avtomatlashtirilgan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali taqdim etish amaliyotga joriy etildi. Uning funksional imkoniyatlari kengaytirilishi natijasida ko‘rsatiladigan davlat ijtimoiy xizmatlari soni 30 taga yetkazilishi belgilangan[16].

Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati – bu davlatning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashishi emas, balki inson haq-huquqlarini, jumladan, inson huquqlari umumiy deklarasiyasi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda yozib qo‘yilgan, har bir kishining turmush darajasi yetarli darajada yuqori bo‘lishini, oziq-ovqat, uy-joy, ish bilan ta’minlashni yaxshilashga, salomatligini tiklashga, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va pensiya ta’minotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – B. 14.
2.https://nl-nl.facebook.com/xdp.uz/posts/3203721449901320/
3.Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2011. – B. 164. (-708 b.)
4.Mamadiyev B. BMT mingyillik maqsadlari: muvaffaqiyat va muammolar. 06.02.2009. https://ziyouz.uz/
5.Yo‘ldoshev Sh. Kambag‘allik bir kishi yoki bir davlatning muammosi emas. https://zarnews.uz/post/. 24.09.2020.
6.http://geum.ru/next/art-346523.leaf-11.php
7.Qirg‘izboyev M. Kambag‘allik – XXI asr muammosi. “Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali. 2021 yil №1-son. – B. 6-14.
8.Ijtimoiy shartnoma kambag‘allikni kamaytirishning yangi mexanizmi. https://yuz.uz/news/ 9 mart 2021.
9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.02.2020 yildagi PF-5938-son. https://lex.uz/docs/4740345
10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.02.2021 yildagi PF-6155-son. https://lex.uz/pdfs/5260791
11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.07.2022 yildagi PF-175-son. https://lex.uz/uz/docs/6130265
12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Har bir oila – tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida” gi qarori. 7 iyun 2018 y.//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018.
13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar). https://nrm.uz/contentf?doc
14.Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020. – B. 416.
15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. https://lex.uz/docs/5841063

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

UO"K-820:831

GERBERT UELSNING UTOPIK ASARLARIDA INSON KONSEPSIYASI.

Atamurodova Feruza Tashmurotovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM,
feruza.atamurodova77@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada 20 asrning taniqli yozuvchisi Gerbert Welsning ijodida utopik asarlari haqida va ushbu asarlarda inson konsepsiyasining talqini haqida so'z boradi. Shuningdek ingliz adabiyotida utopiya janrining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi xususida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar*: utopiya, konsepsiya, janrlar genezisi, utopik model, jamiyat, kurash.*

КОНЦЕПЦИЯ ЧЕЛОВЕКА В УТОПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГЕРБЕРТА УЭЛЛСА.

Атамуродова Феруза Ташмуротовна
Университет экономики и педагогики
feruza.atamurodova77@gmail.com

Аннотация: *В статье говорится об утопических произведениях известного писателя XX века Герберта Уэллса и интерпретации человеческой концепции в этих произведениях. Также появление жанра утопии в английской литературе и дана информация об истории развития.*

Ключевые слова*: утопия, концепция, генезис жанров, утопическая модель, общество, борьба.*

THE CONCEPT OF HUMAN IN UTOPIAN WORKS BY GERBERT WELLS.

Annotation: *The article talks about the utopian works of the famous writer of the 20th century, Herbert Wells, and the interpretation of the human concept in these works. Also, the emergence of the utopia genre in English literature and*
information about the history of development is given.

Key words: *utopia, concept, genesis of genres, utopian model, society, struggle*

Kirish

20-asr ingliz utopik tafakkurining jadal rivojlanishi bilan ajralib turdi. Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi va ilm-fan yutuqlarining aholi turmush sifatiga kuchli ta'siri omma orasida fanning mumkin bo'lgan yutuqlari asosida odamlarning moddiy hayotini cheksiz yaxshilash imkoniyati haqidagi illyuziyani keltirib chiqardi. "Ilmiy eyforiya" jamoatchilik ongini egalladi, chunki odamlar tabiatni va ijtimoiy tuzilmani mukammal mashinaning yagona modeliga ko'ra ilmiy jihatdan o'zgartirish mumkin deb hisoblashgan. Klassik utopiya 20-asrning birinchi o'n yilligigacha mo'l-ko'l va gullab-yashnagan orollar, shaharlar va mamlakatlar tasvirlangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili:

Gerbert Uells 20 asr utopik adabiyotining timsoliga aylanadi. "Xudo kabi insonlar" (‘‘Men Like Gods”) romanida u ilmiy jihatdan isbotlangan maqsadga muvofiq "ideal jamiyat" ning utopik modelini yaratadi. Sarlavhani tanlash Uellsning Tomas Mordan kelib chiqqan an'anaga tayanganligini ko'rsatadi. Biroq, Uells tomonidan modellashtirilgan utopiya tarixi inson taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq bo'lib, u yerda oxir-oqibatda fan va texnologiyaning rivojlanishi sifatning keskin o'sishiga olib keldi.

Uellsning inson haqida qarashlariga xos xususiyatlar haqida Y.Kagarlitskiy shunday aniq fikrlarni yozadi: “Inson, uning kundalik turmushidan kelib chiqilsa, hali-hanuz “nyuton” olamida yashamoqda. Biroq zamonaviy bilim vakili sifatida u endi “eynshteyn” olamini o‘zlashtirmoqda. Har qaysi individumda “mavhum” odamdan bir parcha mujassam. Biroq shu bilan birga u ijtimoiy kurash jabhasida o‘z o‘rni bilan, o‘zining adolat haqidagi qarashi, o‘zining vijdoni va o‘zining tashvishlari bilan konkret insoniy shaxs hisoblanadi. Uells dunyo va inson haqidagi ushbu murakkab tasavvurlarni bera oladigan san’atga intildi. Shu boisdan ham bu ish g‘oyatda qiyin bo‘ldi, u o‘zini chetdan bu chetga urdi, harakat qildi, tajribalarga qo‘l urdi, yaratilgan narsalarni buzib tashladi”.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada XX asr ingliz adabiyotida utopiya janrining xususiyatlari va ushbu janrda ijod qilgan ingliz yozuvchisi Gerbert Uelsning "Xudo kabi insonlar" (‘‘Men Like Gods’) romanida inson konsepsiyasi muhokama qilinadi. Undagi utopik jamiyat modeli va inson shaxsi borasidagi qarashlari tavsiflanadi.

tahlillar va natijalar

"Xudo kabi odamlar" - muallif tomonidan "ilmiy fantaziya" deb atalgan roman ammo unda parallel koinotda joylashgan utopiya mavjud.

"Xudolar kabi insonlar" romanida voqealar 1921 yilning yozida bo'lib o'tadi. Uning bosh qahramoni janob Barnstapl oilasini tark etib, tasodifan yo'lovchilari bilan Yerliklar Utopiya deb ataydigan "boshqa dunyo"ga olib ketiladi.

O'ziga xos rivojlangan Utopiya o'z rivojlanishida insoniyatdan uch ming yil oldinda. Bu dunyoda yashovchi 200 000 000 utopiklar uchun "Charashuv kunlari" tarix kitoblarida o'rganilgan uzoq davrdir, ammo ularning o'tmishi o'zining asosiy jihatlari bilan insoniyatnikiga o'xshaydi, faqat tasodifiy tafsilotlar bilan farqlanadi: ularning Masihi, masalan, g'ildirakda o'lgan, xochda emas. Utopiyada hech qanday dunyo hukumati yo'q va muvaffaqiyatli amalga oshirilgan anarxiya sifatida ishlaydi.

" Xudolar kabi insonlar " kitobi uchta kitobga bo'lingan. Utopiyadagi hayot tafsilotlari I va III kitoblarda keltirilgan. Ikkinchi kitobda yerliklar, ular olib kelgan infektsiyalar Utopiyada qisqa muddatli epidemiyaga sabab bo'lganidan so'ng, toshloq qoyalarda karantin qilinadi. U hamkasblari ikki utopikni garovga olishga harakat qilganda ularga xiyonat qiladi va janob Barnstaplni vatanga xiyonat qilgani uchun qatl qilishdan qochib qutulishga majbur qiladi.

20-asr ingliz adabiyotida utopiya va distopiya janrlarining genezisi ushbu jamiyat uchun xavfli bir qator jarayonlarni keltirib chiqardi: resurslarning tugashi, tug'ilishning nazoratsiz o'sishi, qolgan resurslar uchun qurolli kurash. Buning natijasida jamiyat shu qadar tanazzulga yuz tutdiki, u "kashfiyotlar asridan oldingi davrlarga o'xshash yangi zulmat davri boshlanishidan oldin" [1] paydo bo'ldi. Ushbu jamiyatning ziyolilari birlashdilar va bir muncha vaqt o'tgach, Utopiya ilmiy jamiyatga aylandi, u erda "har bir aniq holatda qarorlar bu masalada eng yaxshi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ma'lumotga ega bo'lganlar tomonidan qabul qilinadi"[2].Uells dunyosida na siyosat, na shaxsiy boylik, na politsiya yo'q, chunki uning dunyosi o'zining gullagan davrida namoyon bo'ladi va ijtimoiy totuvlik uchun shaxs erkinligi bilan to'lash shart emas.

20-asrning utopik modeli "evolyutsiya" g'oyasiga asoslanadi, uning elementlari X.Uellsning "Xudolar kabi insonlar" utopik romanida paydo bo'lgan: "...fan irsiyatni boshqarishni o'rgandi va deyarli har bir tirik utopik yaqin o'tmishda faol va ijodiy deb atalgan turga tegishli. Utopiyada zaif fikrli odamlar yo'q va umuman zaif odamlar yo'q ... yovuz va hasadgo'y belgilar allaqachon deyarli yo'q bo'lib ketgan[3]. Biroq, bu o'zgarishlar ijtimoiy va ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlardan keyin ikkinchi darajali. Asosiysi, insonning ma'naviy rivojlanishi. 20-asrdagi utopik modelning "evolyutsiyasi" insonning ichki dunyosi evolyutsiyasiga, o'z tabiatini o'zgartirishga qaratilgan, chunki bu davr utopiyasi ma'lum, berilgan yo'nalishda o'zgargan odamni shubha ostiga qo'ydi.

U yoki bu turkum romanlarida Uells zamon muammolariga murojaat qiladi va kelajak tarixini koʻradi. Ilmiy-fantastik romanlarida ham, maishiy mavzudagilarida ham yozuvchining bugungi kundagi va kelajakdagi inson shaxsi borasidagi tasavvuri va insonning uni qurshagan olam bilan aloqasi mazmunini qanday tushunishi aks etgan. Biroq agar oʻzining fantastik asarlarida Uells noma'lum sohalarga murojaat etgan, ilm-fan sir-sinoatiga dadil kirib borgan va yangi kashfiyotlarga intilgan odamlar obrazini yaratgan boʻlsa, ijtimoiy-maishiy mazmundagi romanlarida kundalik voqealar va oddiy odamlar haqida yozgan. Yozuvchi ijodidagi ushbu ikki yoʻnalishni qiyoslagandagina, yanada aniqrogʻi, ularni yalitlikda olib tahlil qilgandagina Uells xarakter masalasiga yechim topish uchun qanday yoʻllardan borganini, oʻz qahramonlarida umumga va alohida shaxsga, universial va aniq narsa-hodisalarga xos xususiyatlarni qay tarzda biriktirganini tushunish mumkin.

Bir paytlar Ralf Foks Uellsning tarjimai holi bayonida yozgan bir muhim gapiga e'tibor qaratarkan: "...xarakterni har taraflama oʻrganish, — deb yozadi Uells, — yetuk aql shugʻullanadigan mashgʻulot, falsafiy mashgʻulot. Oʻsib-ulgʻayish, olam bilan umumiy tarzda tanishish davri menda shu qadar choʻzilib, kengayib ketdiki, insoniylikka boʻlgan qiziqish boshqa barcha narsalardan faqat keyingi yillarda ustun kela boshladi. Dastlab men, inson hayoti kechadigan doirani yaratib olishim zarur edi va faqat shundan keyin alohida shaxs oldida koʻndalang turgan muammolarga murojaat eta olardim".

1908 va 1934 yillardagi "Soʻzboshi"larda Uells oʻzining ilmiy fantastikaga murojaat etgani sabablarini tushuntiradi. Ilmiy-fantastik romanlar va sotsiologik etyudlar yaratishga u hozirgi zamon odami haqida romanlar yaratish yoʻlidagi zarur bosqich sifatida qaraydi. "U yoki bu shaxslar hayotini bayon etishdan oldin menga oʻzim uchun, deylik, oʻzimning shaxsiy ibratim uchun, biz xuddi suvdagi baliqday, oʻzimiz suzib yurgan ijtimoiy hayot sharoitini oʻrganishimga toʻgʻri keladi". "Bashorat" (1901) va "Zamonaviy utopiya" (1905) shu tariqa yuzaga keldi. Ularda Uells olamni "qandaydir rivojlanayotgan tizim" sifatida koʻrishga intildi; uning kelajagini bilishni va unda insonning oʻrnini belgilashni istadi. U oʻzining ilmiy-fantastik romanlarida inson aql-idrokining cheksiz imkoniyatlari haqida yozdi. Uni ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarning oqibatiga doir muammolar qiziqtirdi. Biroq oʻzining bu tarzdagi faoliyatiga Uells faqat hozirgi zamon hayoti haqida realistik roman yaratishning bir bosqichi sifatida qaradi. "Umid qilamanki, — deb yozdi u 1908 yilda, — barcha tayyorgarliklardan soʻng nihoyat maishiy mavzuda romanlar yozish uchun qadalib oʻtirsam va bu ishga koʻp yillar berilsam". "Menga real hayot tobora fantastik va yorqin tuyulmoqda", deydi Uells. Yillar oʻtishi bilan uni alohida shaxslarning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“individual kechinmalari” ko‘proq qiziqtiradi. Fantastik unsurlar uning romanlarida tobora kam o‘rin egallaydi, uning hikoya qilish tarzi ham o‘zgaradi.

Uells romanlarida inson har doim katta olam bilan bog‘langan. Ijodiy faoliyatning turli bosqichlarida yozuvchi bu olamning turli jihatlariga urg‘u beradi. Turli yillarda yozgan ilmiy fantastik asarlarida g‘ayrioddiylik unsurlari kuchli namoyon bo‘lgan. Uells badiiy illyuziya sirlarini egallagan. U kitobxon diqqatini xayoliy talqinlarga tortadi va uni xayolotga majbur etadi. O‘zining ijodiy izlanishlarini fan asos solgan yo‘lda olib borgani uchun ham bunga erishadi. Biroq “Vaqt mashinasi”da ham, “Olamlar urushi” va “Ko‘rinmas odam”da ham Uells o‘zining hikoya uslubini “real va insoniy” qilishga intiladi. “Bu turdagi barcha voqealarga qiziqtirish to‘qimaning o‘zi bilangina ta’minlanmaydi, balki fantastik bo‘lmagan unsurlar orqali amalga oshiriladi. Bu voqealar xuddi “hamdardlik hissini uyg‘otuvchi” romanlar singari kitobxon his-tuyg‘ulariga qaratilgan. Fantastik unsur — gap g‘aroyib shaxslar yoki g‘ayrioddiy olam haqidami — baribir faqat bizning odatdagi ajablanish, qo‘rquv va sarosimaga tushgandagi his-hayajonlarimizni yaqqol ifodalash va kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Zamonaviy jamiyat tadqiqiga Uells inson va uning kelajagini o‘ylab qo‘l uradi. Aniq bir alohida inson taqdiri uni dunyo va insoniyat taqdiridan ko‘ra kam qiziqtirmagan va o‘ylantirmagan. U insoniyatning izchil va barqaror yuksalib borishini “alohida inson shaxsining to‘la-to‘kis va erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratish” orqali erishish mumkin, deb hisoblardi.

Uells inson va hayotni ideallashtirmaydi, biroq ularning takomillashuviga ishonadi, ularni harakatda va o‘zgarishda kuzatadi. Odam uyg‘onadi va kelajak sari o‘z yo‘lini tayin etadi. Hali uning oldida millionlab tarqoq individlarni bir yaxlit insoniy jamoaga birlashtirishdek ulkan ishni amalga oshirish vazifasi turibdi. Bizning sayyoramiz zabt etilishini Uells bu atigi “insoniyat mavjudligining tong pallasi”, deb ataydi. U ishonadiki, vaqti kelib inson “boshqa sayyoralarga ham yetib boradi va issiqlik hamda yorug‘likning buyuk manbai — quyoshni o‘ziga xizmat qilishga majbur etadi. U o‘zining aql-idrokiga o‘z botinidagi shaxsiy qarama-qarshiliklar jumbog‘ini yechishga, rashkni va boshqa halokatli ehtiroslarni jilovlashga amr etadi”. Uells insonni “kosmik makonning yulduzli sukunatida behisob taqdirlarni eltayotgan o‘z sayyorasining xo‘jayini” sifatida tavsif etadi. Uellsning roman vazifasiga va urushgacha bo‘lgan ijodiga xos inson konsepsiyaga oid qarashlar shunday edi.

Uells XX asrning o‘ziga xosligi, zamonaviy hayotning tezkor va keskinligi yozuvchidan ularni tasvirlashda yangicha yondashuvni talab qiladi, deb hisoblaydi. Bu davrda romannavisning birlamchi vazifasini Uells jahonda sodir bo‘layotgan voqealar ta’siri ostida inson ongida yuz berayotgan o‘zgarishlar tasvirida ko‘radi. U davrning ijtimoiy-siyosiy muammolariga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi, o‘zining qahramonlari va o‘quvchilarini ushbu muammolarni idroklash va baholashga qo‘shishga urinadi. U zamondoshlarini romanlaridagi gap-so‘zlar va bahs-munozaralar ishtirokchisiga aylantirishni, umum tomonidan ma’qul ko‘rilgan, yurilaverib siyqasi chiqqan yo‘ldan voz kechishlariga ko‘mak berishni istaydi. Bu esa, romanning alohida bir shaklini yuzaga keltiradiki, uni roman-munozara, roman-tortishuv, deb atash mumkin bo‘lar. Muallifning o‘zi asarida ro‘y berayotgan g‘oyalar va fikrlar kurashigda qo‘shilib ketadi. Ayni paytda Uells o‘zining keng ko‘lamli dialog va monologlarga haddan tashqari ruju qo‘yishini biladi, biroq ular unga zarur va shu jihatdan o‘zini oqlaydi. Uells romanlarining muhim xususiyatlarini publitsistik unsur tashkil etadi. U o‘zini jurnalist deb ataydi va o‘z faoliyatining ma’nisini kundalik hayot o‘rtaga qo‘yayotgan savollarga javob

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

topishda ko‘radi. Bular barchasi uning asarlarida qahramon psixologiyasiga va uning xarakterini o‘rganishga qiziqish yo‘q, degan ma’noni anglatmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki , Gerbert Uellsning badiiy tizimi davrning muhim muammolariga bag‘ishlangan, tuzilishiga ko‘ra turlicha asarlarni qamrab oladi. Tuzilish shaklining boyligi yozuvchining g‘oyaviy-badiiy izlanishlari dinamikasini aks ettiradi. Uells qahramonlari tili orqali o‘zining hayotga, jamiyatning kelajagiga, dunyoni qayta qurishga oid qarashlarini bayon qiladi. Yozuvchining utopik asarlarida inson konsepsiyasi va shaxs qadriyatlari asosiy o’rinda beriladi.

Adabiyotlar:

1. Ivasheva V. Angliyskaya literatura XX v.- M., Prosvesheniye,1967. – 476 s.
2. Jantiyeva D. G. Angliyskiy roman XX veka. 1918-1939. - M., 1965.– 201 s.
3. Kagarlitskiy Y. Gerbert Uells. - M., 1963. – 275 s.
4. Mead M. 1966: Toward More Vivid Utopias. New York.
5. Mixalskaya N.P., Anikin G.V. Angliyskiy roman XX veka. - M., Vissh. shkola, 1982. – 242 s.Morton A.L. 1956: Angliyskaya Utopiya. M
6. Morson G. 1981: The Boundaries of Genre. Dostoevsky’s Diary of a Writer and the traditions of Literary Utopia.
7. Uells G. 1964: Lyudi kak bogi. Sobr. soch.: v 15 t. T.5. M.

ИСТОРИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Кенжабоев Шокир Абдулхалимович
доцент кафедры «Узбекского, русского
и иностранных языков Ташкентского филиала Самаркандского государственного
университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий
e-mail: shokir kenjabayev@mail.ru

Аннотация. *Данная статья посвящена условиям и средствам анализу сущности и содержания, созданные для сельскохозяйственного и ветеринарного профиля при изучении истории преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана. Автор анализирует методику преподавания иностранных общеобразовательных школах для привлечения интереса учащихся к ветеринарным профессиям.*

Ключевые слова: *Преподавания, иностранный язык, дисциплина, школьная образования, ветеринария, межличностная компетенция, методика, методы, развития, этапы.*

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDAGI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA CHET TILLARINI O‘QITISH TARIXI

Kenjaboev Shokir Abdulhalimovich
Samarqand davlat veterinariya *meditsinasi*, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti *Toshkent fili*ali “O‘zbek, rus va chet tillari” kafedrasi dotsenti
e-mail: shokir kenjabayev@mail.ru

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi umumta’lim maktablarida chet tillari tarixini o‘rganish orqali qishloq xo‘jaligi va veterinariya sohalariga bo’lgan qiziqishni oshirish vositalarining tahliliga bag’ishlangan. Muallif o‘quvchilarning veterinariya kasbiga qiziqishini oshirish maqsadida xorijiy umumta’lim maktablarida o‘qitish metodikasini tahlil qiladi.*

Kalit so’zlar: *O’qitish, chet tili, fan, maktab ta’limi, veterinariya, shaxslararo kompetentsiya, metodologiya, uslublar, rivojlanish, bosqichlar*.

HISTORY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

Kenjaboev Shokir Abdulhalimovich
Associate Professor of the Department of Uzbek, Russian
and Foreign Languages of the Tashkent Branch of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology
e-mail: shokir kenjabayev@mail.ru

Annotation: *This article is devoted to the conditions and means of analyzing the essence and content created for the agricultural and veterinary profile in the study of the history of teaching foreign languages in secondary schools in the southern regions of Uzbekistan. The author analyzes the methodology of teaching foreign general education schools to attract students’ interest in veterinary professions.*

Keywords: *Teaching, foreign language, discipline, school education, veterinary medicine, interpersonal competence, methodology, methods, development, stages*.

Введение.

История преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана по результатам наблюдений и бесед

и при его совершенствовании содержание уроков дидактического содержания, используемых в процессе уроков по английскому языку, в основном состояло из:

История преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана и его совершенствование-нетрадиционные уроки, вытекающие из поставленной перед современным образованием цели. Новые состязательные занятия, определяющие степень овладения знаниями, занятия с элементами сюжетно-ролевых игр, занятия на основе передовых педагогических технологий, развивающих мышление, эффективность которых нашла свое подтверждение в экспериментальной работе.

На переработанных уроках английского языка по предметам дисциплины «прикладной английский язык» на основе использования интерактивных методов обучения в межгрупповом творческом описании при изучении сложных теоретических и практических знаний определена роль понятия сельскохозяйственный и ветеринарный термин, организация эффективных методов понимания терминов, новейших инновационных методов и технологий обучения.

Анализ литературы и методы.

Влияние педагогической оценки на качество образования - очень актуальная проблема на сегодняшний день. Эта проблема рассматривается и изучается многими учеными: В.И.Байденко, Г.Ф.Ткачев, В.С.Сенашенко, Б.А. Жигалев и др. Эта проблема актуальна тем, что в условиях демократизации образовательного процесса современному

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

учителю необходимо знакомство с педагогическими технологиями и, главное, правильно осуществлять педагогическое общение. [2]

Чтобы повысить качество образования в нашей стране, учитель должен в первую очередь стараться создавать и поддерживать благоприятную атмосферу в классе. Такие правила, как создание комфортной обстановки, учет психологических особенностей каждого ребенка в классе, а также яркая демонстрация учебных целей, являются основополагающими для образовательного процесса. Такие аспекты, как "повышение качества образования", тесно связаны со стилями педагогического общения.

В педагогике выделяют следующие методы педагогического общения: авторитарный, либеральный и демократический. Педагогическая деятельность педагога характеризуется определенным методом деятельности (общение, управление, оценка). Е.А.По Климову, индивидуальный стиль деятельности - это «система устойчивых методов, которые в силу типологических особенностей формируются у человека, стремящегося к лучшему осуществлению этой деятельности». [3]

В *статье использованы* такие *методы*, как семантический, контекстный, дискурсивный и корпусный *анализ*.

Результаты и обсуждения

Безусловно, в условиях демократизации образовательного процесса наиболее удобным и эффективным будет демократический стиль.

В советское время преобладающим стилем педагогики был авторитарный. Этот стиль помогает достичь высот в обучении и обучении, но при этом постоянно поддерживать дисциплину.

Педагогическое требование очень часто выражается в угрозе, через неприятный тон. Здесь дисциплине уделяется гораздо больше внимания, чем усвоению знаний учащимися. [5]

Кроме того, этот стиль также требует от преподавателя определенного профессионализма. Недостатком авторитарного метода является то, что его чрезмерное использование может особенно навредить младшему школьнику, так как дети приобретают безнадежность, недоверие к взрослым, а также полное равнодушие к сверстникам, зачастую и вовсе.

Очевидно, что в условиях современного мира будет крайне неудобно применять этот метод для улучшения качества образования. Полной противоположностью авторитарному методу будет либеральный метод.

При реализации этой методики используются наиболее доверительные отношения между учителем и учеником. Основная цель-создание благоприятного психологического климата на занятиях, активно используется индивидуальный подход к учащимся. В этом подходе методы воздействия на учащихся-это обвинение в действиях, подсказки в форме совета, запроса, предложения, похвалы и Совета. [6]

При таком способе деятельности школьники испытывают состояние спокойного удовлетворения, а также имеют заслуженную самооценку. Однако этот стиль требует исключительного мастерства учителя, иначе дисциплина на уроке может серьезно пострадать. Наиболее эффективным методом обучения является демократический стиль. [1]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Надо сказать, что, школа известна среди местных жителей своим углубленным изучением английского языка. Опрос проводился в классе 5а. Студенты вызвались принять участие в этой исследовательской работе. Результаты показали, что в основном учащиеся больше заинтересованы в получении хороших оценок, чем в получении знаний.

Причем даже в современных условиях Учителя время от времени используют авторитарный подход. Учителя объясняют выставленную оценку особым нетерпением, которое не дает ученику мотивации к дальнейшей работе. Большинство читателей, опять же, сказали, что они предпочитают читать без" знаков", что" оценка "выше, чем» знак". Кроме того, почти все учащиеся, участвовавшие в опросе, требовали похвалы и обратной связи от учителя. Лучший учитель для опрошенных детей-это тот, кто способен поддерживать комфортную обстановку в классе, практиковать обратную связь с учениками и создавать в коллективе атмосферу взаимопонимания, хорошо объясняет материал. [4]

Доказана практическая эффективность методических работ, рекомендаций и идей, выдвинутых в руководстве, направленных на формирование у учащихся культуры свободного мышления и повышение эффективности учебно-воспитательной работы в процессе обучения на основе истории преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана и использования соответствующих тем общеобразовательных дисциплин в их совершенствовании.

Заключение

В том числе итогом письменных анкетных вопросов и ответов, проведенных в процессе детерминирующего научно-экспериментального исследования с целью выявления отношения учителей к вопросу использования различных дидактических средств, методов и игр в процессе уроков общеобразовательных предметов, стало следующее:

Таким образом, на основе изучения истории преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана, сравнения, анализа, синтеза, оценки и практического применения концепций и принципов, выбора видов занятий по темам определено количество межгрупповых соревновательных игр.

Учащимся экспериментальной группы рекомендовано для использования на пробных занятиях:

изложение методов обучения на уроках и методических разработок для использования в организации урока;

специальные анкеты для сбора отзывов учащихся о проведенном уроке;

специально подготовленные тексты для учета результатов занятий с использованием методических комплексов.

Список использованной литературы

1. Цетлин В. С. Ўрта мактабда чет тили ўқитиш курси. Тошкент, 1978.
2. Ҳакимов И. Ўрта мактабда немис тили фамматикасини ўргатиш методикаси. Тошкент, 1978.
3. Карпов Г. В. Ўқитишнинг техникавий воситалари. Тошкент, 1974.
4. Ўрта мактабда чет тиллар ўқитишнинг умумий методикаси. Тошкент, 1974. Миролюбов А. А., Рахманов И. В. Таҳрири остида.
5. Уайзер Г. М., Климентенко А. Д. Инглиз тилида оғзаки нутқни ўстириш. Тошкент, 1977.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. Токарева Л. Н. Инглизтилидан факультатив машғулотларучун хрестоматия. Тошкент, 1976.
7. Ҳошимов У. Ёқубов И. Ўрта мактабда инглиз тили ўқитиш методикаси. Т., 1993.
8. Бахтиерова, М. Б. Изучение иностранного языка: проблемы и перспективы / М. Б. Бахтиерова, Х. Р. Холикова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 15 (95). — С. 690-692.

UDK 8. 1751.

TELEVIDENIENING JANR VA TIL XUSUSIYATLARI

Abdulhay Sobirov,
Andijon davlat universiteti professori
Ibrohimjon Zufarov,
"O‘ZBEKISTON" teleradiokanali Andijon viloyati bo‘yicha uz muxbiri
zufarov23@mail.ru

Anotatsiya: *Ushbu maqolada telvideniya zamonamizning eng samarali axborot uzatish vosita sifatida talqin etilib, unda zamonaviy televideniye nutqining tematik, tarkibiy, kompozitsion va stilistik jihatlarga etibor qaratilish zaruriyati yoritiladi. Shuningdek, televideniyega ham elektron muloqot tizimining kirib kelishi va kontakt aloqali, ya’ni tomoshabinlarning bilvosita va bevosita ishtirokidagi ko‘rsatuvlar ko‘payib borgani sari so‘zlashuv uslubi ta’siri ustunlik qilayotgani misollar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *televideniya, boshlovchi, suhandon, muloqot vositasi*

ЖАНРОВЫЕ И ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЛЕВИДЕНИЯ

Абдулхай Собиров,
Профессор Андижанского государственного университета
Ибрагимджон Зуфаров,
Узбекский корреспондент по Андижанской области телерадиоканала "УЗБЕКИСТАН"
zufarov23@mail.ru

Аннотация: *В данной статье Телевидение трактуется как наиболее эффективное средство передачи информации современности, в ней освещается необходимость ориентации на тематические, структурные, композиционные и стилистические аспекты современной телевизионной речи. На примерах также был проанализирован тот факт, что влияние разговорного стиля преобладает по мере того, как на телевидение внедряются системы электронного общения и все больше и больше передач с контактной связью, то есть с косвенным и прямым участием аудитории.*

Ключевые слова: *телевидение, ведущий, сухандон, средство коммуникации*

GENRE AND LANGUAGE FEATURES OF TELEVISION

Abdulhay Sobirov,
Professor of Andijan State University
Ibrahimjon Zufarov,
Uzbek correspondent for Andijan region of "UZBEKISTAN" television and radio channel
zufarov23@mail.ru

Abstract: *This article is interpreted television as the most effective means of information transmission of our time, highlighting the need to focus on the thematic, structural, compositional and stylistic aspects of modern television speech. It has also been analyzed on the basis of examples of the penetration of the electronic communication system into television and the dominance of contact communication, that is, the influence of colloquial style, as shows with indirect and direct participation of viewers increase.*

Keywords: *television, presenter, reporter, communication tool*

Kirish

Televideniyening eng samarali axborot uzatish va muloqot vositasi, zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy-kommunikativ vositalaridan biri ekanligi oddiy haqiqatdir.Shuning uchun ham, milliy ijtimoiy ongning to‘g‘ri shakllanishi va rivojlanishida, aynan, televideniye faoliyatiga yuklanadiki, uning nufuzi, avvalambor, keng xalq ommasiga qaratilganligi bilan izohlanadi. Axborot uzatishning tezkor va qulay imkoniyatlari ning tur va shakllari ko‘paygani sari raqobatbardoshlik muhiti teleijodkorlardan har qachongidan ko‘ra katta mas'uliyat yuklamoqda. Shuni e'tiborga olish zarurki, har qanday axborot til vositasi orqali o‘z ifodasini topadi. Shunday ekan, televideniye tilining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, adabiy normalarning amal qilishiga xos ba’zi jihatlarni aniqlashga ham yordam beradi.

N.Mahmudov tilning millat va inson hayotidagi roliga yuqori baho beradi: “... til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. ... millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir...Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi [1; 3-bet].

Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, jahon axborot hamjamiyatining integratsiyalashuvi, yangicha madaniy munosabatlarning shakllanishi qadriyatlar va milliy madaniyatni saqlashning eng muhim vositasi bo‘lgan ona tiliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu hol ikki tomonlama dinamik harakatda bo‘lib, bir tomondan, o‘zbek adabiy tilida kechayotgan jarayonlar ommaviy axborot vositalari matnlarida ham o‘z aksini topsa, ikkinchi tomondan, xalq jonli tilidagi, xususan, leksikasidagi yangiliklar jurnalist va boshlovchilar nutqida ham aks etib boradi. Teleko‘rsatuvlar vositasida ommaga ta’sir o‘tkazayotgan nutq sifati darajasi umumiy lingvoekologik muammoning ajralmas qismidir. Suxandon va boshlovchilarning nutq madaniyati nafaqat samarali muloqotning muhim sharti, balki ularning kasbiy yaroqlilik darajasi ko‘rsatkichi hamdir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili

Televideniyega ham elektron muloqot tizimining kirib kelishi va kontakt aloqali, ya'ni tomoshabinlarning bilvosita va bevosita ishtirokidagi ko'rsatuvlar ko'payib borgani sari so'zlashuv uslubi ta'siri ustunlik qilayotgani kuzatilmoqda.

Televideniye jamoatchilik ongiga ta'sir qilish nuqtai nazaridan eng samarali ommaviy axborot vositalaridan biri sifatida jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy jarayonlarni belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshqa ommaviy axborot vositalari orasida televideniyening ona tilida so'zlashuvchilarga ta'siri bo'yicha yetakchi o'rinda turishi aniq bo'lsa-da, negadir televizion nutq hali ham kam o'rganilgan soha bo'lib qolmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, asosan, jurnalistik aspektda bo'lib, televizion janrlarning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan.

Teleboshlovchi va tomoshabinlar auditoriyasi o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir sharoitida televizion nutq turli xil ijtimoiy, yosh, kasbiy, hududiy va madaniy xususiyatlarga ega bo'lgan juda keng doiradagi odamlarning muloqotini o'zida mujassam etgan makrotizimni tashkil eta boshladi.

Ye.G.Larina telediskurs janrlarini murakkab va rang-barang nutqiy hodisalar sifatida tematik jihatdan quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

televizion yangiliklar, teleko'rsatuvlar, televideniдagi film (badiiy film, hujjatli film, drama, melodrama, askiya, komediya, sarguzasht, triller, dahshat, detektiv, erotika), teleserial, televizion spektakl, animatsion film (bolalar yoki kattalar uchun multfilm),

televizion intervyu (portret intervyu, tematik intervyu, intervyuning aralash turi [portret + tematik]),

televizion tergov,

televizion reklama (ijtimoiy-siyosiy, tijoriy, e'lon),

teledebat, teleshou (tok-shou, realiti-shou, o'yin-shou, komediya-shou),

teleo'yin, televiktorina, teleekstremal,

telesayohat, teleklub, teleko'rsatma, telegoroskop,

teleshop, telelotereya, telemaktab,

telemusiqa (musiqiy kontsert, musiqiy dastur, musiqa tanlovi va hokazo),

telesport (Olimpiada o'yinlari, chempionat, kubok va boshqalar),

teledasturlar (vatanparvarlik dasturi, sog'liqni saqlash dasturi, parodiya-hajviy dastur, pazandachilik dasturi va hokazo)[2].

Ta'kidlash joizki, teleko'rsatuv janrlarining ko'pchiligi keyingi yillarda paydo bo'lgan yoki ilgari mavjud bo'lganlari ham teleboshlovchilar va tomoshabinlar o'rtasidagi sub'ekt-sub'ekt o'zaro ta'siriga o'tish munosabati bilan o'zgartirilgan. Bugungi kunda teletomoshabinning munosabati u yoki bu filmni ko'rsatish, sevimli qo'shiqni musiqiy dasturda ijro etish, qarindosh yoki do'st topish va hokazolarni so'rab murojaat qilgan oddiygina xati bilan chegaralanmaydi, balki ularning bilvosita yoki bevosita eng faol ishtirokidir. An'anaviy "bir tomonlama" monolog turidan monolog janrlari bilan strukturaviy va kompozitsion asosda qarama-qarshi qo'yilgan interaktiv - "ikki tomonlama" dialogik yoki polilogik turga tomon kengayib bormoqda. Bu ikki tur o'z navbatida televizion nutqning ikki xil variantini taqozo etadi:

1) oldindan tayyorlangan, muayyan adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan nutq;
2) qisman rejalashtirilgan, lekin oldindan tayyorlanmagan spontan (tasodifiy) nutq.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bu xususiyatlar televizion janrlar o‘rtasidagi asosiy tarkibiy farqlarni belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, O.A.Lapteva televizion diskurs tarkibini stilistik jihatdan publitsistik va so‘zlashuv uslubiga xos janrlarga ajratadi[3; 2-11 betlar].

M.Mahametov, F.Fayziyeva, V.Ablyaevalarning “Televideniye asoslari” darsligida ko‘rsatuvlar tarkibi 3 guruhga ajratilgan:

1. Axborot janrlari.

Voqeani qisqa va lo‘nda tomoshabinga yetkazish. “Axborot”, “Yangiliklar”, “Davr”, “Zamon” va h.k.

2. Publitsistik janrlar.

Bu turkum ko‘rsatuvlar dramaturgiya qonunlariga bo‘ysungan, tayyorlanish jarayonida rejissyor tomonidan mavzu bir maqsadga yo‘naltirilgan, reja asosida amalga oshirilgan bo‘ladi. “Tahlilnoma”, “Yuzma-yuz”, “Inson va qonun” va h.k.

3. Badiiy janrlar.

Muallif tasavvurida o‘ylab topilgan, rejissyor tomonidan sahnalashtirilgan mavzular, loyihalar. “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”, teleseriallar va h.k.

O.A.Lapteva televizion janrlarning rivojlanish tendentsiyalari asosida televizion nutqni o‘rganish va uning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish "erkin" janrlarning ko‘payishi va kengayishi, shunga mos ravishda televizion dasturlarning "tartiblangan" qismining qisqarishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu tendentsiya, muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, televizion nutq ta’siri samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq va "ayniqsa teledasturlar uslubini jadal qayta qurishda, “so‘zlashuv” uslubidagi yangi-yangi ko‘rsatuvlarning jadal o‘sishi va paydo bo‘lishida namoyon bo‘lmoqda. Ularning ko‘pchiligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladi, ya’ni til jihatidan hech bir tahrir qilinmaydi [3].

Televizion nutqning "so‘zlashuv" janrlarini belgilashda faqat nisbiylik asosida yondashish mumkin, chunki televideniye nutqida so‘zlashuv nutqi elementlari kuzatiladi, va umuman, og‘zaki adabiy nutqning ommaviy turini ifodalaydi. V.G.Kostomarovning ta’kidlashicha, “Ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye keskin tanqidlarga sabab bo‘lmoqda. Bu yerda gap nafaqat adabiy va til me'yorlarini buzishda, balki, aynan, so‘zga hurmatsizlikda, “til belgisi”ni va u orqali milliy an'anaviy mentalitetni o‘zgartirishga urinishdadir” [4].

Tahlillar va natijalar

Darhaqiqat, televizion nutqning erkinlashuvi natijasida o‘zbek telekanallarida ham adabiy til me'yorlarini inkor etuvchi anchagina salbiy oqibatlar kuzatilmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan jurnalistik nutq madaniyati darajasining pasayishi jamiyatda xavotir uyg‘otmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining tijoratlashuvi ham nutq madaniyati darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jurnalistik mahorat mezonlarining pasayishiga va xodimlar o‘rtasida noprofessionallikning keng tarqalishiga olib keldi.

B: Lekin mana Feruzaxonni hozir ko‘rgan muxlisla, bizani pavilьyon ancha o‘zgardi, juda chiroyli chirog‘lar, uni ustiga Feruzaxonni ustide libosiga juda mos. Bitta bo‘b o‘tiribsiz, ko‘z tegmasin qareng. Rasa chiroyli yarashibdi, qareng nima disiz?! Gapirila dekoratsiyala haqida nima disla?

B: Dekoratsiyalar judayam chiroyli. Baraka topishsin.

B: Zo‘r TVni rahbariyatiga rahmat dimiz. Kundan-kun o‘zgarishla, kundan-kun yurtdoshlarimizga yangiliklarimiz juda ko‘p. Feruza siz ham o‘zgartirmisizmi mobodo taxallusizi?

B: Yo‘, man hich o‘ylab ko‘rmaganman. Manga o‘zimi ismim yoqadi, o‘zimi familiyam yoqadi. Taxallus haqida hech o‘ylab ko‘rmaganman.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

B: Man topdim.
B: Familiyez nima?
B: Mustafayeva, jarangli.
B: Man topdim sizga.
X: Maniyam familiyam chiroyli, ismimam chiroyli mejduprochim.
B: Yo‘ yo‘ man familiyezi xunu demoqchimasman.
B: Feruzaga topdim. Baland. Feruza baland.
B: Yo‘ Feruza turnachi.
B: Turnamas chiroyli oqqushmi, lebedmi bir shunga o‘xshash qo‘ying.
B: Yo‘ yo‘ baland, Feruza balande e bola qara Feruza baland, baland.
B: Baland yoqdi.
B: Bo‘ldi bugundan manga taxallus qo‘yildi. Feruza baland.
B: Xop man tanka qo‘ysammikin-a, o‘ylayappan-da. Kechasi bilan o‘ylab chiqaman endi.
B: Botir aka keyingi mehmonimiz kemaslaridan ungayam bitta taxallus topbering. Shunaqa taxallusla e’lon qisek-chi.
B: Hozircha u mehmonni chaqiramiz. Endi bugun dasturimizda kim mehmon bo‘b kesa bitta-bitta taxallus bilan ketadi. Navbatdagi mehmonimizani e’lon qilamiz, azizlar. Bu ijodkor ham Xorazmdan. Xorazmmi eng go‘zal, latofatli qo‘shiqchilaridan Dilafruzxon Hayitmetova bugun mehmonimiz. Marhamat.
B: Brravo, Dilafruzxon xush kelibsiz, keling.

(“Uxlamaysizmi?” ko‘rsatuvi, 360-soni, 2023 y.)

Bunday maqsadsiz va mazmunsiz, qadrsiz, grammatik va leksik me’yorlarga amal qilinmagan quruq gaplar bilan uch soat efirni band qilib o‘tirish, noprofessional boshlovchilarning almoyi-aljoyi gaplari tomoshabinning umumsaviyasini tushirmaydimi? So‘zning, qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelmaydimi?

Mohir teleboshlovchi va ijodkor Muslim Yo‘ldoshev “Bugungi kun boshlovchisi qanday bo‘lishi kerak?” nomli maqolasidai boshlovchi va suxandonlarning kasbiy mahoratini oshiruvchi eng muhim omillardan biri, bu – ko‘p kitob o‘qish ekanligi haqida kuyinib yozadi:

“Kitob o‘qilganda ma’lumot olish va qahramonlar taqdiriga sherik, hamdard bo‘lish bilan birga ko‘zlarimiz so‘zlarning imlosiga, tuzilishiga ham o‘rganadi. Ko‘z xotiramiz ham ishlay boshlaydi. Va ba’zi bir chalasavodlar talaffuz qilganiday emas, yozuvchi yozganiday to‘g‘ri o‘qiy boshlaymiz. Kitoblarda kamdan-kam hollarda so‘zlar noto‘g‘ri yoziladi. O‘qiyvergandan so‘ng ko‘zning o‘zi o‘rganib, miyaga signal borib, tilga to‘g‘ri talaffuz qilishga buyruq beradi. O‘shanda “talat” emas, tal'at, “suvrat” emas surat, “surat” emas sur'at ekanini ajrata boshlaymiz. “Dalli” bilan “dali”ning, “arg‘uvon” bilan “armug‘on”ning boshqa-boshqa narsa ekanini anglaymiz. Agar mana shu ikki so‘zni ajratib, anglab olsak, “arg‘umoq” degan uchinchi so‘z ham bor ekanini tushunib yetamiz” [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy televideniye nutqining tematik, tarkibiy, kompozitsion va stilistik jihatdan xilma-xil lingvistik xususiyatlarini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. –Б.3.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2.Ларина Е.Г. Телевизионный дискурс и его жанровое разнообразие // https://cyberleninka.ru
3.Лаптева О.А. Живая русская речь с телеэкрана. Разговорный пласт телевизионной речи в нормативном аспекте. 5-е изд. М., 2003. – Б. 2, 11
4.https://litresp.ru/chitat/ru/K/kostomarov-vitalij-grigorjevich/yazikovoj-vkus-epohi
5.http://muzaffar.uz/saboqlar/4174-bugungi-kun-boshlovchisi-qanday-bolishi-kerak.html
6. **zenodo.org**›record/7809493/files/Ishanjanova …
7 **zienjournals.com**›index.php/jpip/article/download/…

SEHRLI ERTAKLARDA *OLTIN* SIFATLANISHINING MO''JIZAVIYLIKNI IFODALASHDAGI O'RNI

Xurshida Abdullaeva Ne'matjonovna
Andijon davlat Universtiteti
Birinchi bosqich doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz ertaklarida oltin va tilla so'zining turli predmedlar orqali ifodalanib, sirlilik, mo''jizaviylik xususiyatini tasvirlanishi ertaklar syujetlari misolida taxlil qilingan. Ushbu oltin bilan ifodalanish usuli ertaklardagi obraz va syujetlar sehr-joduga, g'aroyiblikka ega ekanligini keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *epitet, fantastik, badiiy-estetik, oltin tamakidon, Midas, oltin sandiqqa, tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdasta.*

THE ROLE OF THE ADJECTIVAL OF *GOLD* IN THE EXPRESSION OF MIRACULOUSNESS IN MAGIC TALES

Abdullaeva Khurshida Nematjonovna
Andijan State University
First year doctoral student

Annotation: *In this article, the expression of the word "gold" in Uzbek and English fairy tales through different objects, and the description of the mysteriousness and miraculousness, is analyzed on the example of fairy tales' plots. This method of expression with gold has widely explained that characters and plots in fairy tales have magic and strangeness.*

Key words: *epithet, fantastic, artistic-aesthetic, golden snuffbox, Midas, golden chest, golden cauldron, golden spatula, golden kettle.*

РОЛЬ КАЧЕСТВА *ЗОЛОТА* В ВОЛШЕБНЫХ СКАЗКАХ В ВЫРАЖЕНИИ УДИВЛЕНИЯ

Хуршида Абдуллаева Нематжоновна
Андижанский государственный университет
Докторант первого курса

Аннотация*: В данной статье на примере сказочных сюжетов анализируется выражение слова «золото» в узбекских и английских сказках через разные предмети, описание загадочности и чудности. Этот метод выражения с помощью золота широко объяснил, что персонажи и сюжеты в сказках обладают волшебством и странностью.*

***Ключевые слова**: эпитет, фантастический, художественно-эстетический, золотая табакерка, Мидас, золотой сундук, золотой казан, золотой капкир, золотой чайник.*

Kirish

Ertaklarda ko'pincha oltin so'zini qo'llash orqali shaxs yoki predmetning sirlilik, mo''jizaviylik xususiyati tasvirlanadi. Shuni inobatga olib, folьklorshunoslar O.Safarov va D.O'raeva: "Oltin va tilla so'zlari ko'magida hosil qilingan bu sifatlashli birikmalar, odatda, ertaklar syujetiga xos g'ayrioddiylik, xayoliy uydirma, voqelikni fantastik tarzda bo'rttirish xususiyatini o'zida ifoda etadi". – deb yozadilar. [4]

Darhaqiqat, oltin so'zi ertaklarda inson biror-bir predmet uchun epitet sifatida keng qo'llanib keladi va o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarib keladi. Ular orqali sirli qahramon yoki g'aroyib, tilsim predmet obrazi yaratiladi.

Ertaklarda uchraydigan tilla kokil bola, oltin g'oz, oltin tuxum, oltin pat, gavhar tuxum kabilarga ishonish va tasavvur qilish qiyin, chunki ular real hayotda uchramaydi. Ular xalqning xayoliy uydirmasi mahsuli bo'lib, mavhum obrazlar hisoblanadi. Ammo oltin beshik, oltin kamar, oltin tumor, oltin tamakidon singarilarga esa ishonish va tasavvur qilish mumkin.

Metodlar

Ushbu maqolaning eng ko'zga ko'ringan umumiy haritasi uning oltin to'g'risadagi motivlarni jaxon epic asrlari orqali , jumladan Aarne Tomson Uther katologidan, СУС to'plamlardan sehrli ertaklar tizimidan foydalangan holda qiyoslash maqsadga muvofiq deb topilgan. Chunki qiyoslashning eng samarali usuli bu jaxon epic asar motivlari orasida bo'lsa uning samarasi va ijodiy hamda ijobiy tomonlari beqiyos shakllanishi mumkin.Masalan oltin motivining rus ertakshunoslarida keltirilgan tipologik ko'rinishi butunlay turfa hillikni anglatadi.

Rus ertakshunoslarining fikricha, "oltin" epiteti quyosh rangi ma'nosini o'zida ifoda etadi.

Ingliz ertagi "Oltin qo'l" ("The Golden Arm"da ham oltin so'zidan sirlilik hosil qilishda foydalanilgani kuzatiladi. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonda butun yer yuzini o'ziga rafiqa izlab sayohat qilgan odam bo'lgan ekan. U yoshni ham, qarini ham, boyni ham, kambag'alni ham, chiroyli-yu xunukni ham uchratibdi-yu, o'z orzusidagi ayolni sira uchrata olmabdi. Va nihoyat u yosh, vijdonli va boy bir ayolni topibdi. Bu ayolning o'ng qo'li sof oltindan ekan. Darhol unga uylanibdi va o'zini dunyodagi eng omadli odam deb hisoblay boshlabdi. To'g'risi, u xotinini boshqa xislatlaridan ko'ra oltin qo'lli ekani uchun ko'proq sevarkan.

Kun kelib uning xotini vafot etibdi. Er tim qora kiyinibdi va dafn marosimida yuzida chuqur qayg'u bilan ishtirok etibdi. Ammo bularning bari soxta ekan. U tun yarmida o'rnidan turib, jasadni kavlab, uning oltin qo'lini kesib olibdi.

Keyingi tunda erkak oltin qo'lni yostig'i ostiga yashirgancha uxlab yotarkan, marhuma xotinining arvohi xonaga sassiz kirib kelibdi. Arvoh karovot yoniga o'tib, pardani suribdi-da, eriga gina bilan qarabdi. Er o'zini qo'rqmaganday tutib, arvohdan: "Sening qizil yuzlaringga, atirgulday lablaringga, tilla sochlaringga nima qildi?" deb so'rabdi. Arvoh esa: "Hammasi qurib

[4] Safarov O., O'raeva D. O'zbek xalq qo'shiqlaridagi oltin va kumush sifatlashlarining ijtimoiy-estetik vazifalari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2009. – № 1. – B. 42-46. Yana: Folьklor – bebaho xazina. – Toshkent: Muharrir, 2010. – B.120.

ISSN: 2181-0427

yo'qolib ketdi", – deb javob beribdi. Er "Oltin qo'lingga nima bo'ldi?" deganida, arvoh "ularni sen olding" debdi.

Inglizlarning Jek nomi bilan bog'liq bir turkum ertaklari borki, ularda oltindan sehrli narsalarning xususiyatini bo'rttirishda alohida foydalanilgan. Bunga "Jek va uning oltin tamaki qutisi" ("Jack and his Golden Snuff-box"), "Jek va loviyapoyasi ("Jack and beanstalk") ertaklari misol bo'la olda. Ko'rinadiki, ularning ayrimlarida oltin so'zi sarlavhadayoq aks etgan bo'lsa, ba'zisida ertak ichida keltirilgan. Masalan, "Jek va uning oltin tamaki qutisi" (Jack and his Golden Snuff-box) ertagida Jek qishloqda yashovchi keksa chol va kampirning yakkayu yagona o'g'li. U hech qachon odamlarni ko'rmagan, ammo u juda ko'p kitoblarni o'qigani uchun dunyoda go'zal malikalar borligini bilardi va ularni ko'rishni xohlardi. Shu maqsadda Jek safarga otlanadi. Unga keksa onasi katta non beradi va o'g'li toqqa chiqib ketib uni ko'rolmagach, orqasidan la'natlaydi.

U yo'lda ketayotib otasini uchratib qoladi. Otasi unga oltin tamaki quttisini beradi va uni faqat o'lim xavfi tug'ilganidagina cho'ntagidan chiqarib ochishini tayinlaydi.

Jekning yo'lida uchragan kishi undan ajoyib bir ko'l barpo etishini va unda bir kancha harbiy xizmatkorlar bilan kemalar bo'lishini talab qiladi. Buning uchun Jek otasi bergan oltin tamakidondan foyldalanadi. U qutti og'zini ochishi zahoti uning ichidan uchta kichkinagina qizil odamchalar chiqib, aytilganlarni darhol ado qilibdi.

Jek keyingi ikkita topshiriq: katta qasr qurishni hamda qasrda o'n ikkita askarlar oltin xaykali ustun bo'lib turishini shu tarzda ado qilibdi.

Jekni ovga chiqib ketganida otboqar uning kiyimlarini yig'ishtirib taxlayotgan otboqar uning cho'ntagidan oltin tamaki quttisini topib oladi. Otboqar quttichani ochadi, shu zahoti quttidan uchta odamcha sakrab chiqadi va "Tila tilagingni" deydi. Otboqar Jek paydo qilgan barcha narsalarni yo'q qiladi.

Jekka sichqonlar qiroli va uning akalari qurbaqalar hamda qushlar qiroli oltin tamaki quttini topishga yordam beradilar. Uning yordamida Jek rafiqasi va yoqimtoy o'g'li bilan yana qayta topishibdi.

"Jek va loviyapoyasi ("Jack and beanstalk") ertagida Jek devning oltin xamyonini olib qochadi. Keyin esa devning oltin tuxum tug'adigan g'ozini va oltin arfasini ham olib qo'yadi. Sehrli oltin arfaning sadolaridan maftun bo'lgan sirli oltin g'oz oltin tuxumlar tug'adi.

Oltin arfa chalgan chiroyli kuylar evaziga odamlar ona-bolaga pul to'lashar ekan. Shunday qilib, Jek bilan uning onasi boyib ketibdilar va farovon hayot kechiribdilar.

"Rustamzod va Sherzod" nomli o'zbek xalq ertagida ham gavhar tuxum obrazi uchraydi. Ertakda o'g'rilar ovlab kelgan qush cholning uyida yetti yil turib, yettita gavhar tuxum tug'adi. Bu gavhar tuxumning bittasi qiymati butun podshohlikning boyligidan ham ko'p edi. Chol tuxumning bittasini podshoh saroyiga olib borganida, uning qiymatini yaxshi bilgan podsho bir tuya javohir yuklab beradi. Gavhar tuxumlar tufayli kambag'al chol boyib, katta savdogar bo'lib ketadi.

"Oltin tutqich" ertagida evrilish motivi orqali narsalarning ko'z ochib yumguncha oltinga evrilishi tasvirlangan. Bu ertakda Qirol Midas kunlarini oltinlarini sanash bilan o'tkazarkan va tunlari katta boyliklarni orzu qilarkan. Qanchalik ko'p oltin to'plasa ham, bu uning uchun yetarli tuyulmas ekan. Bir kuni qirol Midas o'zining chiroyli gul bog'idan chiqib, yarim echki, yarim odam qiyofasidagi kishini – satirni ko'rib qoladi. Satir yo'lidan adashib qolgan edi, buni ko'rgan qirol Midas unga biroz yeguliklar beradi va to'g'ri yo'lga kuzatib qo'yadi. Satir uning bu iltifotidan juda mamnun bo'lib, Midasni yordami uchun mokofatlamoqchi bo'ladi va undan bir

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tilak so'rashini aytadi. Qirol Midas uzoq va chuqur o'ylaydi. Nima so'rasa uning barcha xohishlari ro'yobga chiqishi mumkin? Midas o'zini biroz aldangandek his qiladi, chunki aslida uchta tilak mukofot bo'lishini bilardi. U endigina satirga shu haqida aytishga og'iz juftlab turganida xayoliga bir ajoyib fikr kelib qoladi. U pul, boylik va xazina haqida tasavvur qiladi.

"Oltin", deb qichqiradi qirol. "Mening qo'lim tekkan barcha narsalar oltinga aylanishini xohlayman". "Oh, menimcha, bu yaxshi fikr emas", dedi satir. "Sen talabingni yana bir o'ylab ko'r". Lekin Midas fikridan qaytmadi va satir uning mukofotini bajarishini talab qildi. Midas bu mukofotini darhol sinab ko'rishni xohladi. U bir qoya yaqiniga borib uni ushladi, shu payt ko'zlari hayratdan qotib qoldi, chunki qoya oltinga aylanib qolgandi. Qirol hayratlanib atrofidagi barcha narsalarni – maysalar, barglar, boshoqlar, gullar va daraxt novdalarini tegina boshladi. Men oltinli ushlagichman, deb o'yladi u. Qirol o'rmon bo'ylab yugurardi. U nihoyatda baxtli edi. Qirol dunyodagi eng boy odam bo'lishi mumkin edi. Qasriga qaytib qirol katta ziyofat bo'lishini e'lon qildi. U ko'plab go'shtlar, mevalar, pishloqlar va nonlar yeyishni xohlardi. U dunyodagi eng boy qirol bo'layotganidan ko'ziga boshqa hech narsa ko'rinmas, o'zini juda baxtiyor his qilardi.

U ovqatlanishga o'tirishi bilanoq, stulga teginganidan stul oltinga aylanib qoldi. U ichimlik ichmoqchi bo'ldi, ammo qadahni ushlashi bilan u ham qirolning qo'lida oltinga aylanib qoldi. Midas suvdan bir qultum ichmoqchi bo'ldi, ammo shu zahoti tomog'iga bir bo'lak oltin tiqilib qoldi. U bir bo'lak nonni ushladi, u ham darhol oltinga aylanib qoldi.

"Oh, yo'q", qichqirdi qirol. "Men ochlikdan o'lib qolaman-ku". Midas tizzalarini quchoqlab o'tirib oldi va yig'lab xudodan o'zining bu ahmoqona fikridan xalos etishni yolvorib so'radi. Yig'laganida uning ko'z yoshlari ham mayda oltin marmarlardek yarqirardi.

Xudoning qirolga rahmi kelibdi va uni Paktolus daryosiga borib tanasini suvga botirib turishiga, sovg'a evaziga so'ragan la'natlangan holatidan qutulishiga ishora bo'libdi.

Qirol Midas daryo tomonga yugurib boribdi va suvga kirib tanasini yuva boshlabdi. Shu payt uning tanasidan suvga oltin dog'lari yuvilib tushardi. Qirol suvdan chiqib o'zining avvalgi holatiga qaytganini his qilibdi va qizining oldiga yugurib ketibdi.

Qirol endi haqiqatda baxtliligini tushundi. Garchi xudo qirol Midasga axmoqona tushunchasini anglatadigan estalik qoldirgandi. Uning boshidan ikkita eshaksifat quloqlari chiqib turardi va Midas bu saboqni hech qachon unutmabdi.

O'zbek xalqining "Ayiqpolvon" ertagida yigit sayohat qilib yurib, bir bino ichida go'zallar go'zali bo'lgan bir qiz oltin sandiqqa suyangan holda yig'lab o'tirganini ko'radi. Yigit uni ko'rib, oshiq bo'lib qoladi. Qizdan bu mamlakatning otini va nima uchun bu yerlarda yolg'iz o'tirganini so'raganda, u o'zining bir podshoh qizi bo'lganini, bu yerga sehr bilan bir dev olib qochib kelganini, bu mamlakat esa, devlar makoni ekanini so'zlab beradi.

Yigit qizni oltin sandiqqa solibdi, g'or og'ziga kelib sandiqni arqonga bog'lab, sheriklariga ishora qilibdi. Sheriklari sandiqni chohdan tortib olibdilaru, uning ketidan chiqayotgan Ayiqpolvon osilgan arqonni uzib yuboribdilar. Bu bilan ayrim insonlarning oltinga (boylikka) hirsi tasvirlangan.

O'zbek ertaklari orasida "Oltin baliq", "Oltin kiyik", "Oltin tarvuz", "Oltin beshik" kabilar ham bor.

Inglizlarning "Jack the grant killer" ertagida oltin karnay (golden trumpet) obrazi uchraydi. Uning vositasida qahramon yovuz devni yengadi. Jodulangan saroydagi lord va xonimlar qush va hayvon ko'rinishidan yana qayta inson ko'rinishiga qaytadilar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

"Princess of Colchester" ("Kolchester malikasi") va "Three heads of the well" (Quduqning uchta boshi) ertagida sehrli quduq ichidan uchta oltin bosh chiqib, har bir bosh qizdan sochini yuvib, tarab berishini iltimos qiladi. Qiz bunga rozi bo'ladi va har bir bosh unga qilgan yaxshiligi uchun biror xususiyat ato qiladi. Birinchi bosh uning go'zalligini oshiradi, ikkinchisi uning butun tanasiga xushbo'ylik ato etadi, uchinchisi esa uning eng buyuk shaxzodaga malika bo'lishini aytadi.

Endryu Lengning "Alladin va ajoyib chiroq" ertagida sehrli bog'dan keltirilgan sehrli oltin mevalar obrazi keltirilgan. O'zbek xalqining "Oltin olma" ertagida oltin olmalar farzand timsolini ifoda etgan. [5]

"The King Of England`s three Sons" ("Angliya qirolining uch o'g'li") ertagida oltin olma kasalni tuzatishga vosita bo'ladi: "There was nothing at all could make him well but some golden apples from a far country. So the three brothers went on horseback to look for some of these apples". Unda hikoya qilinishicha, qattiq kasalga chalingan Angliya qirolining kenja o'g'li sirli bog'dan sehrli oltin olmalarni olib kelishga muyassar bo'ladi va otasi ular yordamida sog'ayadi.

"Qirq kuyov" nomli o'zbek xalq ertagida podshohning qizi qo'lidagi gavhar uzukni yigitga berib: "Ey yigit, mana shu uzukni darvoza yonidagi ko'zaning oldidan o'tayotganingizda uning ichiga tashlang, lekin orqaga qaramay, ketavering. Siz qaytib kelguningizcha tilla qaynab chiqaveradi, – debdi. Yigit uzukni olib ketibdi. Ko'za yoniga borib uzukni tashlab, qiz aytgancha orqasiga qayrilib qaramasdan darvozadan chiqib ketibdi. Podshohning xizmatchilari ko'zadan oltin qaynab chiqqanini ko'rib, yigitning orqasidan borib, uni bardor-bardor qilib ko'tarib, podshoh oldiga olib kelishibdi.

"Kulsa gul, yig'lasa dur" ertagida daryodagi oltin baliq ichida joylashgan sehrli buloqida qizning joni saqlanashi aytiladi.

Tahlil va taklifalar

Tahlillarning asosiy maqsadi oltin motivining ikki xalq ertakshunosligida o'zini tutgan o'rni, badiiy bo'yoqdorlik tamoyillari, semantik ma'no jihatlari , sehr kuchini namoyon qilish estetik ko'rinnshlri kabi uslublarini hisobga olish muhim omillardan biridir.

"Oltin tarvuz" ertagida sehrli tarvuz obrazi uchraydi. Uning urug'ini oyog'i singan laylak bir kambag'al bir dehqon g'amxo'rlik ko'rsatgani evaziga tortiq qiladi. Ulardan ichi oltinga to'la sehrli tarvuzlar unib chiqib, dehqon boyib ketadi.

"Guluyalar bilan Qalandarbek" ertagida oltin qasr va undagi tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdastalar haqida fikr yuritilganini kuzatish mumkin: "Oltin qasrning ichidagi hamma narsa oltindan emish. Gulzorlarda ochilib turgan gullar ham, daraxtlardagi mevalar ham oltindan emish... Tilla qozonlarda ovqatlar pishib yotgan emish...Tilla obdastalarda suvlar to'ldirilgan emish. Bu yerdagi gullardan tortib, idish-tovoqlargacha tilla emish-da! Oltin daraxtdagi oltin olmalar... Oltin qozon chetidagi tilla kapkir..[6].

Bunda tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdasta garchi sehrli deb ta'kidlanmayotgan esa-da, tilladan ekanligini aytish bilan, ularning sirli, g'aroyib ekani bo'rttirilmoqda[7].

[5] Samo tulpori. O'zbek xalq fantastikasi. V-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. –B.122.
[6] Ilon pari. O'zbek xalq fantastikasi. Sehrli ertaklar. 3-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – B.60-61.
[7] Jumaeva N. Ingliz va o'zbek ertaklarida sehrli predmetlar obrazlantirilishiga xos spetsifik xususiyatlar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 55 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“The wicked witch” (“Yovuz jodugar”) ertagida sehrli mo’ridan o’z-o’zidan oltinlar tusha boshlashi tasvirlangan: “... and looked up the chimney. When she did this a great bag of money fell down in her lap. This happened again and again”. Qiz bu oltinlarni olib, qochib qoladi. Bunda mo’rining o’z-o’zidan oltinlar yog’dirishi uning g’aroyibligini anglatadi.

“The Golden Ball” (Tilla koptok) ertagida sehrli oltin koptok obrazidan foydalanilgan.

Iglizlarning “Cindermaid”, o’zbeklarning “Oltin kovush” va “Podachining qizi” ertaklarida faqat o’z egasiga loyiq keladigan sehrli oltin kovush obrazi keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, maqolaning maqsadi asosan oltin motivining ikki xalq sehrli ertaklarida tipologik ko’rinishlari hamda uning, badiiy estetik qo’llanish usullarini farqlashdan iboratdir. Maqola tahlili natijasida oltindan iborat narsalar ertaklarda sehr-joduga, g’aroyiblikka ega ekani ma’lum bo’ladi. Ular orqali predmetlarga g’aroyib sifat yuklatiladi. Ular vositasida mehnatkash xalqning to’kin va farovon, boy turmush haqidagi orzu-istaklari aks ettiriladi.

Adabiyotlar

1. Safarov O., O’raeva D. O’zbek xalq qo’shiqlaridagi oltin va kumush sifatlashlarining ijtimoiy-estetik vazifalari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2009. – № 1.

2 Ilon pari. O’zbek xalq fantastikasi. Sehrli ertaklar. 3-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – B.60-61.

3. Jumaeva N. Ingliz va o’zbek ertaklarida sehrli predmetlar obrazlantirilishiga xos spetsifik xususiyatlar: Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 55 b.

4. Samo tulpori. O’zbek xalq fantastikasi. V-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. –B.122.

5. http://www.mftd.org/index.php?action=atu.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TERMININI TADQIQ ETISH MASALALARI

Maxmudjonova Xilolaxon Avazbek qizi
Teacher of the Department of English Language and Literature.
Kokand State Pedagogical Institute, Faculty of Foreign Languages.
hilolamahmudjonova6@gmail.com

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda ilmiy konseptlarni ifodalashning kognitiv-diskursiv sohasi keng tarqaldi. Unga ko'ra nutqning pedagogik, diniy, siyosiy, tibbiy va boshqa sohalariga oid bo'lgan konseptlar guruhlanadi. Bizni ishimizda ko'rib chiqilyotgan 'tarbiya' konsepti esa yuqorida sanab o'tilgan nutq turlarining barchasiga oid va bu doiralarda keng qo'llaniladi

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, tushuncha, madaniy ong, kognitiv tilshunoslik

ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КОНЦЕПТА-ТЕРМИНА В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Махмуджонова Хилола – девушка Авазбека.
Преподаватель кафедры английского языка и литературы.
Кокандский государственный педагогический институт, факультет иностранных языков.
hilolamahmudjonova6@gmail.com

В настоящее время в лингвистике широко распространилась когнитивно-дискурсивная область выражения научных понятий. Согласно ему группируются понятия, относящиеся к педагогической, религиозной, политической, медицинской и другим сферам речи. Понятие «воспитание», которое мы рассматриваем в нашей работе, относится ко всем вышеперечисленным видам речи и широко используется в этих кругах.

Ключевые слова: *концепт, концептосфера, понимание, культурное сознание, когнитивная лингвистика.*

ISSUES OF CONCEPT TERM RESEARCH IN MODERN LINGUISTICS

Makhmudjonova Khilolakhan Avazbek qizi
Teacher of the Department of English Language and Literature.
Kokand State Pedagogical Institute, Faculty of Foreign Languages.
hilolamahmudjonova6@gmail.com

Currently, the cognitive-discursive field of expressing scientific concepts has spread widely in linguistics. According to it, concepts related to pedagogical, religious, political, medical and other spheres of speech are grouped. The concept of "education" that we are considering in our work refers to all the above-mentioned types of speech and is widely used in these circles.

Key words: *concept, conceptosphere, understanding, cultural consciousness, cognitive linguistics*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kirish

Tilshunoslik, madaiyatshunoslik va falsafaning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beruvchi tushunchalardan biri bu 'konsept' va 'konseptosfera'terminidir. Shuninngdek, ushbu terminlar madaniyat va ongning o'zaro bir biri bilan bog'lanishida muhim bog'lovchi sifatida ishtirok etadi. Konseptga ta'rif berishda tilshunoslar turli xil yondashishgan, xususan, R.M.Frumkina[8] ta'kidlashicha tilshunoslikga "kontseptsiya" atamasi ingliz adabiyotidan kirib kelgan. R.M.Frumkinaning fikriga ko'ra, bunga asosiy sabab Schenck, Chafe, Russell, Carnap, Putnam asarlarida ushbu terminning yagona ta'rifiini ochib berish muammosi paydo bo'lgan. Shundan so'ng "konsept" terminini tushuncha deb tariflash qilish taklif qilindi. Shu sababli dastlab "konsept" va "tushuncha" atamalari bir xil ma'no anglatuvchi so'zlar sifatida ko'plab tilshunoslar tomonidan talqin qilingan. Ammo, Yu.S.Stefanov [9] bu ikki atamani ya'ni "tushuncha"ni mantiq va falsafaga," konsept" ni madaniyatshunoslik va mantiqning bir tarmog'iga(matematik mantiqga) tegishli atama sifatida farqlashni taklif etdi.

Kognitiv terminlarning izohli lug'atida "konsept" ga quyidagicha ta'rif berilgan. Konsept bu- shaxs bilimi va tajribasiga tasir qiluvchi aqliy birliklarning ongda gavdalanishini, xotiraning operativ mazmun birligi, aqliy leksika, miyaning kontseptual tizimi va tili (lingua mentalis), inson psixikasida aks etgan dunyoning butun manzarasini tushuntirishga hizmat qiluvchi termindir.

Olimlarning fikriga ko'ra konsept turli xil madaniyatda turli xil talqin qilinadi. Dunyoning turli xil burchaklarida ko'pgina narsalar va vaziyatlar bir xil konsept ostida birlashgan, ammo ba'zilari bir biriga to'g'ri kelmaydi. Bunday holatlarda terminni ifoda qiluvchi so'zni ekvivalenti olinadi yoki o'sha tildagi so'z ona tiliga shundayligicha o'zlashtirib olinadi.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqadigan bo'lsak, kontsept kognitiv birlik sifatida kognitiv linguistikada o'rganiladi. Xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda aniq belgilangan, tartibga solingan ta'rif mavjud emas.

Ta'kidlash joizki, barcha tadqiqotchilar kontseptni faqat kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganmaydilar. Yu.S. Stepanovning o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan quyidagi mulohazalarni bayon etadi: "Konsept, go'yo inson ongidagi ruhiy olamiga kiruvchi madaniyat bo'lagidir; Boshqa tomondan olib qaralganda, kontsept - bu "madaniy qadriyatlar yaratuvchisi" emas, balki oddiy insonlar tomonidan madaniyatga olib kiriluvchi va ba'zan unga ta'sir etuvchi til birlikdir. Kontsept insonning ruhiy dunyosidagi madaniyatning asosiy birligidir. Yu.S. Stepanovning mulohazasidan kelib chiqqan holda konsept, birinchidan, tafakkur birlik sifatida tan olinadi, ikkinchidan, u doimo madaniyat bilan uzviy bog'liqdir.

Yu.S. Stepanov, Rus madaniyati tushunchalari lug'ati" ning "So'zboshi" qismida konseptlarni madaniyatning barqaror tushunchalari ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra hamma har qanday lissoniy birlik konsept bo'la olnaydi. Yu.S. Stepanov misol sifatida U "Abadiyat", "Qonun", "Qonunsizlik", "Qo'rquv", "So'z", "Sevgi", "Imon" kabi konseptlarni keltirib o'tgan. VA. Karasik, umuman olganda, Yu.S.Stepapov tomonidan berilgan kontseptning ta'rifi bilan o'rtoqlashar ekan, uni biroz kengaytiradi va aniqroq ta'rif beradi. " Konseptlar - bu inson hayotining turli sohalarida uchraydigan, umumiy lisoniy tushuncha beruvchi til birligidir".

[8] Фрумкина, Р.М. Психолингвистика: учеб, для студ. высш. уч. за- вед. / Р.М. Фрумкина. - М.: Академия, 2001. - 320 с.

[9] Степанов, Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С. Степанов. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. -824 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

D.S. Lixachev[10]ning fikricha, konseptlarni inson ongida she'riy, prozaik, ilmiy, ijtimoiy, tarixiy til tajribalariga asoslangan fikrlar majmui sifatida talqin qiladi.. Rus lingvistik kontseptualizmining kelib chiqishida asosiy o'rinlarda turgan S.A. Askoldov[11] ta'kidlashicha: "Umumiy tushunchalar yoki konseptlarning tabiati haqidagi savol uzoq vaqtdan ber o'rta asr universal terminologiyasida eski savol bo'lib kelmoqda va bundan tashqari u asosiy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda".

V.A Karasik[12] konseptni milliy xususiyatga ega deya ta'riflaydi va kontsept "xalqning tili va fikrlash tarzi, dunyoqarash turi ... bilan belgilanadigan madaniy shakllanishdir" deya mulohaza qiladi. Bizning fikrimizcha, konsept turli xalqlar tilida o'ziga xos ham mantiqiy ham llisonniy belgi sifatida oziga xos xususiyatga ega va bu xususiyatlar etnografik, madaniy va tarixiy sabablarga ko'ra ajratiladi. S.G. Vorkachev[13] fikriga ko'ra "konsept bu lingvistik ta'rifga ega bo'lgan va etnik-madaniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan bilim va ko'nikmalar birligidir. Bu ta'rifdan kelib chiqgan holda konspetning doimo eng yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligini xulosa qilishimiz mumkin. Shuningdek, kognitiv va kulturologik tilshunoslik muammolari bilan shug'ullanuvchi ko'plab tadqiqotchilar kontseptni tuzilishini aniqlashning qiyinligini ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, kontsept konseptual, majoziy va qiymat qatlamlaridan iborat. Konseptning ko'p komponentli va qatlamli tuzilishini ifodalashda tilni chuqur tarzda tahlil qilish muhim ro'l o'ynaydi.

Konsept kim tomonidan ishlatilishiga qarab individual, mikroguruh, makroguruh, milliy, sivilizatsiya, umuminsoniy konspet sohalariga bo'linadi. Biz ko'rib chiqayotgan "Tarbiya" konsepti esa bu guruhlarning barchasiga tegishli bo'lishi mumkin. Agarda insonlar orasida "tarbiya" konseptini ishlatish paytida ular orasidagi psixolingvistik bi sodir bo'lsa unday holda u mikroguruh sohasiga aloqador hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda ilmiy konseptlarni ifodalashning kognitiv-diskursiv sohasi keng tarqaldi. Unga ko'ra nutqning pedagogik, diniy, siyosiy, tibbiy va boshqa sohalariga oid bo'lgan konseptlar guruhlanadi. Bizni ishimizda ko'rib chiqilyotgan 'tarbiya' konsepti esa yuqorida sanab o'tilgan nutq turlarining barchasiga oid va bu doiralarda keng qo'llaniladi. D.S. Lixachev kontsept mazmunini so'zlovchilarning milliy-madaniy tajribasi bilan bog'laydi: "Konsept-so'z ma'nosining shaxsning shaxsiy va umumxalq tajribasi bilan o'zaro aloqadorligi natijasi".

«Konseptosfera» atamasini rus faniga akademik D.S. Lixachev tanishtirgan. Uning fikriga ko'ra, konseptosfera bu bir millatga oid bo'lgan konseptlar to'plamidir. Shuningdek, xalq madaniyati, uning sa'nati, adabiyoti, ilm-fan, tasviriy san'ati, tarixiy tajribasi, dini qanchalik boy bo'lsa, xalqning konsept doirasi ham shunchalik boy bo'ladi. Shuni unutmasligimiz kerakki, konseptosfera sohasini (aqliy tuzilmani) tahlil qilish inson faoliyati natijalarini aks ettiruvchi, qayta ishlovchi va kvalifikatsiya qiluvchi til tahlili orqali klassifikatsiya qilinadi.

[10] Лихачев, Д.С. Концептосфера русского языка / Д.С. Лихачев // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. - М.: Academia, 1997.-С. 280-287.

[11] Аскольдов, С.А. Концепт и слово / С.А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. - М.: Academia, 1997.-С. 267-279.

[12] Карасик, В.И. Культурные доминанты в языке / В.И. Карасик // Языковая личность: культурные концепты. Сб. науч. тр. - Волгоград: Перемена, 1996. - С. 3-16.

[13] Воркачев, С.Г. Концепт «оскорбление» и его семантическая память/ С.Г. Воркачев, Г.В. Кусов И Теоретическая и прикладная лингвистика. Межвуз. сб. науч. тр. Вып. 2. - Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000. - С. 90-102.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Z.D. Popova va I.A. Sternin[14] kontseptning turli ta'riflarini tahlil qilib, u inson ongida dunyoni hislar orqali idrok etish, ob'ektiv inson faoliyati, ongda allaqachon mavjud bo'lgan boshqa tushunchalar bilan aqliy operatsiyalar natijasida shakllanadigan termin degan xulosaga keldi. Va bu olimlar barcha konseptlarni uchta sinfga - bir darajali, ko'p darajali va segmentga ajratib chiqadilar. Birinchi guruhga sezgi organlar orqali anglanadigan konseptlarni o'z ichiga oladi (chashka, yashil), ikkinchi guruh esa bir necha kognitiv qatlamlarni o'z ichiga oladi, ular ko'proq mavhum bo'ladi (masalan, savodli) uchinchisi esa abstraksiya darajasi bo'yicha teng bo'lgan bir nechta segmentlar bilan o'ralgan asosiy hissiy qatlamni ifodalaydi.

Konsept murakkab aqliy kompleks bo'lib asosiy semantik tarkibga qo'shimcha ravishda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1) universal (universal), tushunchaning asosiy assotsiativ qatorini umumlashtiruvchi;

2) shaxsning muayyan madaniy muhitdagi hayoti bilan belgilanadigan milliy-madaniy;

3) shaxsning ijtimoiy mavqei bilan belgilanadigan ijtimoiy;

4) ona tilida so'zlashuvchining ma'lum bir jins va yosh guruhiga mansubligi bilan belgilanadigan guruh;

5) shaxsiy xususiyatlar ta'sirida shakllangan individual-shaxsiy: psixofiziologiya, tarbiya, ta'lim, hayotiy tajriba.

Konseptlarni tasniflash masalasi ham qiyin hisoblanadi. Konseptlar leksik, frazeologik, sintaktik turlarga bo'linadi. A.P. Babushkinniing fikriga ko'ra, konsept lingvistik ifodalanish usuliga qarab guruhlanadi: tushuncha leksema bilan izohlansa, u holda leksik turga kiradi; tushuncha frazeologik birlik bilan ifodalansa, uni frazeologik deb hisoblash kerak; tushuncha sintaktik vositalar yordamida so'zlashtirilgan bo'lsa, u sintaktikdir.

S.A. Askoldov kognitiv va badiiy konseptlarni ajratib ko'rsatadi. Ammo bu tasnif o'ziga xos kamchligga ega. Har bir konsept dunyoni bilishning vositasi va usuli bo'lib xizmat qiladi. Bu borada badiiy konseptlar ham bundan mustasno emas. Ularning yordami bilan inson haqiqatni ham tan oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, konseptlarning turli tasniflari mavjud. Ularni shartli ravishda ikkita asosiy toifaga bo'lish mumkin - kognitiv va lingvokulturologik. Kognitiv yondashuvda bilimning shaxs tomonidan aqliy ifodalanishi birinchi o'rinda turadi. Lingvokulturologik yondashuv bilan konseptning turli til jamoalarida, turli lingvomadaniyatlarda ifodalanishining og'zaki tomoniga e'tibor qaratish zarur, deb hisoblanadi. Konseptlar har qanday mamlakat madaniyatining ajralmas elementi bo'lib, uning til madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Xulosa

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, konsept linguokulturologiyada juda keng qo'lllaniladigan termindir. Rus tilshunosligiga konsept tushunchasi xx asrning birinchi choragida S. Askoldov tomonidan olib kirilgan. Uning fikriga ko'ra, konsept turli millat vakillari muloqotida asosiy vosita hisoblanadi. Xx-asrning 80- yillariga kelib konsept terminini mohiyatini ochishga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Yu. S.Stepanov konseptni ikki tomonli xususiyatga ega bo'lgan birlik deya e'tirof etadi. Shuningdek, u konseptni madaniyat bilan chambarchasligini nazarda tutgan holda "Bir tomondan madaniyat konsept ko'rinishida inson ongida gavdalansa, boshqa tomondan inson konsept yordamida madaniyatni anglashga erishadi" deya ta'kidlaydi. Bundan

[14] Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике / З.Д. Попова, И.А. Стернин. - Воронеж: Истоки, 2001. - 191 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

anglashiladiki, inson konsept orqali o'z madaniyatini saqlagan holda boshqa xalqlarning madaniyati va aqliy dunyosini anglashga kirishadi.

Konsept termini o'tgan asrning 80-yillariga qadar "tushuncha" termini bilan sinonim tarzda ishlatilgan bo'lsa hozirda u tushunchaga nisbatan kengroq ma'noni berishi mumkinligi etirof etiladi. (Sh. Usmonova)

Konsept linguokulturologiyada eng faol qo'llaniluvchi termin hisoblanadi. Bu haqida professor N. Mahmudov shunday yoozadi: "Konsept termini linguakulturologik tadqiqotlarda juda keng qo'llanilmoqda. Buning yaqqol aksi sifatida rus tilshunoslarining juda katta qismi u yoki bu tilda konseptning lingukulturologik tadqiqiga bag'ishlagan ishlar yozganligidan ko'rish mumkin."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Аскольдов, С.А. Концепт и слово / С.А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. - М.: Academia, 1997.-С. 267-279.
2. Бабаева, Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков) : Дис. ... капд. филол. наук / Бабаева Елена Викторовна ; Волгоград, 1997. - 210 с.
3. Бабаева, Е.В. Нормы и их отражение в языке / Е.В. Бабаева // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности. Сб. науч. тр. - Волгоград: Перемена, 2001. - С. 17-24.
4. Фрумкина, Р.М. Психолингвистика: учеб, для студ. высш. уч. за- вед. / Р.М. Фрумкина. - М.: Академия, 2001. - 320 с.
5. Степанов, Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С. Степанов. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. -824 с.
6. Карасик, В.И. Культурные доминанты в языке / В.И. Карасик // Языковая личность: культурные концепты. Сб. науч. тр. - Волгоград: Перемена, 1996. - С. 3-16.
7. Воркачев, С.Г. Концепт «оскорбление» и его семантическая память/ С.Г. Воркачев, Г.В. Кусов И Теоретическая и прикладная лингвистика. Межвуз. сб. науч. тр. Вып. 2. - Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000. - С. 90-102.
8. VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF PRAISE IN ENGLISH. https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/3484
9. Rahimovna, N. R. (2023). DIFFERENT STYLISTIC DEVICES USED IN RIDDLES IN UZBEK AND ENGLISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(04), 32-36.
10. Mahmudjonova, H. (2022). Realization the concept of "education" in modern linguistics. Scienceweb academic papers collection.
11. Mahmudjonova, H. (2022). GREAT UZBEK WRITER ABDULLA AVLONIY'S VIEWPOINTS ON EDUCATION AND UPBRINGING. Scienceweb academic papers collection.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

TIL MILLAT MA'NAVIYATINI VA MADANIYATINING TOSHOYNASI

Qurbonova Feruza Ilhomovna-"Tiqxmmi" milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute

Annotatsiya : *Ushbu maqolada davlat tili ya'ni o'zbek tilini anglash , uni qadr qimmatini oshirish va terminologiya masalarini ilgarisurish kabi g'oyalar haqida so'z yuritilgan. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida qonunchilik hujjatlari va olimlarning adabiyotlaridan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *til, millat imlo qoidasi, krill alefbosi, lotin alifbosi, tshkilotlar, olimlar, nashiryotlar*

LANGUAGE IS THE KEY OF NATIONAL SPIRITUALITY AND CULTURE

Kurbanova Feruza Ilhomovna-Karshi institute of irrigation and agrotechnologies against the national research university "TIIAME"

Abstract: *This article discusses such ideas as understanding the state language, ie Uzbek, increasing its value and advancing the issues of terminology. In order to reveal the content of the article, legal documents and literature of scientists were used.*

Keywords: *language, spelling rules of the nation, Cyrillic alphabet, Latin alphabet, organizations, scientists, publishers*

ЯЗЫК – ЗАЛОГ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ И КУЛЬТУРЫ

Курбанова Феруза Ильхомовна-институт ирригации и агротехнологий Карши при национальном научно-исследовательском университете «ТИИИМСЭ»

Аннотация: *В статье рассматриваются такие идеи, как понимание государственного языка, то есть узбекского, повышение его значения и продвижение вопросов терминологии. Для раскрытия содержания статьи использованы юридические документы и литература ученых.*

Ключевые слова: *язык, орфографические правила нации, кириллица, латинский алфавит, организации, ученые, издатели.*

Ma'lumki, o'zlikni anglash,milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy va ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Til millat ma'naviyatini va madaniyatining toshoynasi hisoblanadi. Modomiki, millatning o'z tili bor ekan, demak, uning dunyoga aytar so'zi ham bordir. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur deydilar mashoixlarimiz.

Davlat tili bu — muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan.Davlatlarning koʻpchiligida rasmiy til bilan davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til maqomi davlat tili maqomidan farqlanadi. Tarixdan bizga ayonki bizning o'zbek tilimiz ham shoʻrolar hukmronligi paytida yerga urilgan edi, chunki biz qattiq zug'um ostida qolgandik. Davlat tili haqida umuman gapirish ham mumkin boʻlmagan, aksincha oʻzbek tilining ijtimoiy hayotda qoʻllanilishi tobora cheklanib qolgandi.Oʻzbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi oʻqitish, oʻrganish ,tamoyillarini, usullarini tubdan oʻzgartirishni taqozo qilmoqda. Shu oʻrinda insoniyatning oʻtmishdagi maʼnaviy-maʼrifiy va ilmiy boyliklarini, jamiyatdagi ilgʻor gʻoyalarni avlodlarga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yetkazib berishda muhim qurol yozuv ekanligini ta'kidlash joiz. Yozuv ijtimoiy taraqqiyot sur'atini tezlashtirishga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun taniqli tilshunos olim L.R. Zinder yozuvni "Inson tafakkurining buyuk kashfiyoti,,-deb baholaydi. Bunday kashfiyotning strukturaviy-funksional jihatlarini maxsus o'rganish, uning tuzilishi, imlo qoidalaridan xabardor bo'lish kasb mahoratni ko'tarishda, bilimlarni yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalqining tili, yozuv madaniyati tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Tilningrivojlanishi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi. Yozuv biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlarini ifodalovchi belgilargina emas, balki eng qadimgi piktografik va ideografik shakllarni ham o'z ichiga oladi.Istiqlol yillara yozuv borasida bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va bir tutuq belgisidan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba'zi harflar jahon aloqa aralashuv tizimiga kirishimizda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligi hisobga olinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish tog'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qilindi. Qarorga binoan, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilandi. Yangi alifbo asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlanib, unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari o'z ifodasini topgan.

Oradan yillar o'tib lotin yozuviga o'tish muddatlari bir-necha bor uzaytirildi. Bugun barchamizga ayonki, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish masalasi haligacha yechimini topgani yo'q. Hozir bizda ikkiyozuvlilik, ya'ni ikki grafik tizimdan foydalanish kuzatilmoqda,bu esa imlo muammosi, ya'ni krill yozuvi lotin yozuviga o'z o'rnini bo'shatib bergisi yo'q. Chunki o'z tilimizga ega bo'lgunga qadar xalqimiz krill yozuvi asosida foydalanishgan. Keyinchalik esa o'z tilimizga erishib bo'lganimizdan so'ng lotin alefbosiga o'tish qiyinchilik tug'dirdi. Sababi insonlar allaqachon krill yozuviga o'rganib bo'lishgan edi.

Hozirgi paytda imlo muommosining asosiysi deb harflardagi noqulayliklar e'tirof qilinib kelinmoqda. Hozir biz ushbu harflardagi noqulayliklarga alohida to'xtalib o'tirmoqchi emasmiz. Chunki bu masala yuzasidan Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida maxsus kengash tuzilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini kompyuter klaviaturasiga maxsus joylashtirish masalasiga ko'proq e'tibor qaratib, amalda foydalanish uchun joriy etilsa, mavjud noqulayliklar bartaraf bo'lishiga shubha qolmaydi.

Xususan, 1999-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 140-qarori, Bosh vazir tomonidan 2009-yil 30-avgustda tasdiqlangan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish hamda ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish tartibi", Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-dekabrdagi 488-"Litsenziyalar blankalarini tayyorlash tartibi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reestrini shakllantirish va yuritish tartibi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi, 2000-yil 25-iyuldagi 283-“Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish .Ya'ni xulosa qilib aytganda barcha davlat tashkilotlari davlat tili asosida ish yuritilsin deyildi.Ammo respublikamizda bugungi kunda ham davlat tilida ish yuritish jarayonlariga to‘liq amal qilinmoqda, deb bo‘lmaydi. Bunday holatlarni yaxshilash maqsadida 2020-yil 25-aprelda Adliya vazirligi davlat tilida ish yuritishni ta’minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi .Unda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq, O‘zbekistonda davlat tili o‘zbek tili ekanligi, «Davlat tili haqida»gi qonunning 9-moddasiga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi kabi moddalarga asoslanib MJtKning 42-moddasiga: «Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi» degan maslahat kiritilgandi. Albatta, Adliya vazirligi tomonidan berilgan bu taklif muammoning hal qilinishiga ma’lum darajada imkon tug‘diradi.

Dastlavval davlat va nodavlat tashkilot, korxona, muassasalarda davlat tilida ish yuritish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruvni me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlash, asosiy faoliyat va shaxsiy tarkibga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartib-qoidalari to‘g‘risida malakaviy o‘qitish kurslarini tashkil etish lozim. Ularda sohaga oid mavjud huquqiy-me’yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va davlat tilida ish yuritish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar, mutaxassislarning fikr, talab va takliflari kabi mavzular yoritiladi.

Bunday malakaviy kurslarning asl maqsadi — foydalanuvchilarda davlat tilida ish yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish. Har bir xodim qaysi lavozimni egallashidan qat’i nazar, davlat tilida ish olib borishi va tartibga solish bilan yaqindan tanish bo‘lishi hamda kompyuter imkoniyatlaridan shaxsan o‘zi foydalanishni bilishi shart. Shuningdek korxonalarda o‘tkaziladigan yig‘ilishlar faqat va faqatgina davlat tilida olib borishligi va foydalanadigan hujjatlarning davlat tilida olib borilishi shart.

Bularga misol sifatida, uzoq maqsadlar vazifasidan kelib chiqqan holda, davlat tili quyidagi eng ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladii:davlatimizda ijtimoiy shuningdek ,siyosiy hayotimizning hamma sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan aniq ravishda , amal qilishga erishishiah, har xil ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘rgatish sohasini yanada ko'proq rivojlntirish sohaning ilm-fan tili sifatidagi obro'sini yanada oshirish,davlatimizda yashaydigan barcha millatlarlarning va elatlarning o'z tillarini rivojlantirish maqsadida to'liq va keng ko'lamli imkoniyatlar shuningdek, ularga yashayotgan davlat tilini o'rganish va o'qitish uchun qulay imkoniyatlar istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng qulayliklar ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay sharoitlar yaratilishiga imkoniyat yaratilib berildi.

O'zbek tili qadimiy va boy tillardan hisoblanadi. Bu tilning ildizlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. Davlat tilimizda olamga mashhur ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan.Bugun o‘zbek tili mustaqil O'zbekistonning davlat tili sifatida davlatimiz ramzlari qatorida e’zoz va ehtiromga sazovordir. Davlat tilining taraqqiyoti yurt istiqloli tufayli benihoya

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

jadallashdi. Tildagi o ‘sish-o‘zgarishlarning xolis va birlamchi ko‘zgusi uning lug‘at boyligidir, jamiyatdagi har qanday o‘zgarishlar, eng avvalo, aynan xuddi shu boylikda o‘z aksini topadi. Yurtimiz hayotida yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy yangilanishlar tilimizning lug‘at boyligida namoyon bo‘lmoqda, bunday o‘zgarishlar tilimizni yangi tushuncha va tasavvurlar bilan, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi yangi so‘zlar bilan boyitib bormoqda. Ana shu tarzda mustaqiilik davrida tilimizning lug‘at boyligi tarkibida jiddiy taraqqiyot yuz bermoqda. Tilimizdagi mavjud nutqiy uslublar me'yorlarining barqarorlashganligi ham o‘zbek tili taraqqiyotining yuksakligidan dalolat beradi.

Yurtimizda “Elektron raqamli imzo”, “Elektron hujjat aylanishi”, “Axborotlashtirish” to‘g‘risida qonun hujjatlari qabul qilingan, lekin ular asosida davlat tilida ish yuritish jarayonlari talab darajasida emas. Tashkilotda va tashkilotlararo elektron shaklda ish yuritish jarayonlarini elektron raqamli imzodan to‘liq foydalangan holda yo‘lga qo‘yish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Fikrimizcha, davlat tilining jahon miqyosida mavqeyini ko‘tarish payti keldi. Aksariyat doktorantlarimiz, olimlarimiz o‘z ilmiy ishlari natijalarini nufuzli xorij jurnallarida chop ettirishga intiladilar. Buning uchun ular maqolalarini boshqa tilga, ya’ni ingliz, rus, xitoy, koreys va boshqa tillarga tarjima qilib, keyin chop etishga topshiradilar. Shu bilan birga, tanlagan soha yo‘nalishida kerakli ilmiy materiallarni izlaganda ularni muallif chop etgan tillarda izlab topadilar, so‘ng davlat tiliga o‘girib maqola mazmuni bilan yaqindan tanishadilar.Hozirgi kunda respublika olimlarining izlanishlarida olingan ilmiy natijalar, xorij olimlarini tobora qiziqtirib borayotgani bizga sir emas. Shu sababli, respublika olimlari tomonidan ilmiy maqola va risolalarni nufuzli, tanilgan xorij nashriyotlarida ularning tilida emas, balki lotin alifbosidagi o‘zbek tilida chop ettirilishini yo‘lga qo‘yish payti keldi, degan fikrni olg‘a surmoqchiman. Bu borada hurmatli olimlarimizga murojaat qilib, o‘z ilmiy natijalarini xorij jurnallarida ingliz yoki boshqa tilda emas, balki o‘zbek tilida chop ettirishlarini iltimos qilaman. Bizda olingan natijalar bilan tanishish uchun o‘zbek tili lotin alifbosidagi ilmiy maqolani o‘z tillariga o‘girib yoki o‘zbek tilini o‘rganib keyin tanishishlari mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda maqolalarni boshqa davlatlarning tilida chop etadigan nashriyotlar soni tobora ko‘payib bormoqda.Bu barchamizga ayon holatlardan biridir. Insonlarning bu harakati tufayli o'z tilimizga bo'lgan e'tiborsizlik tobora kuchayib bormoqda. Bu holatlarni albatta chorasini ko'rish lozim.

O'zbek tili bilan qancha faxrlansak shuncha arziydi, ammo jamiyatdagi shunday manqurt insonlar borki o'z tilini unutib o'zga tillarni ona tilimiz bilan qo'shib gapiradi bunday insonlarni o'zligini unutgan deb atashimiz mumkin.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarorlari mavjud.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin.Chunki bu kabi hissiyotli ohangni eshitgan har qanday odamning hissiyoti jo'shib ketadi va bu ohanglarni tinglagan insonning qayta-qayta tinglagisi keladi. Aslida buning sababi kuchli istiroblar ostida aytilgan ohangdir.

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir.Bobokalonlarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar, o'lmas asarlar yaratganlar.O‘tmishda o‘lkamizni bosib olgan turli yovuz kimsalar bizni avvalo o‘z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, din-u diyonatimizdan judo qilishga qayta-qayta urindilar. Ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma’lum.Ammo jasur, yengilmas va matonatli xalqimiz har qanday og‘ir kulfatlarni ham o‘z ozodligi va istiqloli uchun mardonavor kurashdi. Bu yo‘lda qanchadan qancha qurbonlar berdi. Har qanday zulm va zo‘ravonliklarga qaramasdan, o‘z ona tilini — milliy g‘ururini saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi, balki uni har tomonlama yuksaltirdi bugungi avlodlarga bezavol yetkazib berdi.Bu borada ma’naviy jasorat va fidoyilik ko‘rsatgan buyuk arboblarimiz, adib va olimlarimiz, ulamolarimiz, ulug‘ san’atkorlarimizning xotirasini bugun hurmat va ehtirom bilan yod etamiz va ularga tashakkurlar bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida /O‘RQHT 20-son(728).2016-yil 23-may.

2.AkobirovS.F. Til va terminologiya.–T.,1968.

3.MadvaliyevA.Termin–terminologik lug‘at–izohli lug‘at//O‘zbek tili va adabiyoti.–T.,2008.

4.Mengliyev B . ,SayfullayevaR. Va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida//“Ma’rifat”gazetasi,2007-yil 21may; Safarov SH. Pragmalingvistika.–T.:Fan,2008;

5..G‘ulomovaG. Yo. O‘zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti:Filologiya fani nomidan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

INGLIZ TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘RGANILISHI

Ataboyeva Nilufarxon No’monjon qizi-Andijon davlat pedagogika instituti
o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ilmiy maqolada qo‘shma gap tarkibidagi sodda gap va uyushgan bo‘laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalangan. O‘zbek va ingliz tillarida bog‘lovchi grammatik jihatdan o‘zgarmastligi, mustaqil leksik ma’noga ega emasligi ikki tilda ham bo‘laklari hamda gaplarning tuzilishiga ko‘ra turli munosabatni ko‘rsatish uchun qo‘llanilishi yoritilgan. Bog‘lovchi ko‘makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, undan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni hosil qilishi bilan ajralib turishi ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Bog’lovchi, qo’shma gap, soda gap, uyushiq bo’laklar, who (whom), what, that, weather, if, whose, which, when, where, how, why.*

ИЗУЧЕНИЕ СОЮЗОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Атабоева Нилуфархон Номонжановна- учитель
Андижанского государственного педагогического института

Аннотация: *В научной статье выражаются различные связи между простыми предложениями и организованными предложениями в сложном предложении. Поясняется, что союз в узбекском и английском языках грамматически неизменен и не имеет самостоятельного лексического значения. Рассмотрено такое средство синтаксической связи, как вспомогательный союз, и выявлено, что он, помимо выражения подчинительного отношения, отличается тем, что образует равноправное отношение.*

Ключевые слова: *Союз, сложное предложение, простое предложение, союзные предложения, кто (кого), что, что, если, если, чей, который, когда, где, как, почему.*

STUDY OF CONJUNCTIONS IN ENGLISH

Ataboyeva Nilufarkhan No'monjan kizi- teacher of Andijan State Pedagogical Institute

Abstract: *The scientific article expresses various relationships between simple sentences and organized clauses in a compound sentence. It is explained that the conjunction in Uzbek and English is grammatically invariable and does not have an independent lexical meaning. A means of syntactic communication such as a conjunctive auxiliary is considered, and it is revealed that, in addition to expressing a subordinate relationship, it is distinguished by the fact that it forms an equal relationship.*

Key words: *Conjunction, compound sentence, simple sentence, combined clauses, who (whom), what, that, weather, if, whose, which, when, where, how, why.*

Ma’lumki, tilning asosiy ijtimoiy vazifasi – aloqa qilish, xabar berish va ta’sir etish. Bu vazifalar esa lisoniy, nolisoniy vositalar hamda ularning o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Tilning og‘zaki/yozma shaklida voqelanadigan lisoniy birlik ana shu vazifalarning amalga oshishiga xizmat qiladi. Dunyodagi har bir til, qaysi til oilasiga mansubligidan qat’i nazar, o‘zaro o‘xshash va farqli xususiyatga ega. Bu jihat lisoniy sathning barcha vositalariga birday taalluqli.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Jahon tilshunosligida yordamchi so‘zlar, xususan, bog‘lovchilar A.A.Shaxmatov, L.S.Barxudarov, D.A.Shteling, L.V.Щерba, A.I.Smirnitskiy, I.P.Ivanova, V.V.Burlakova, G.G.Pochepsov, F.M.Berezin, B.N.Golovin tomonidan atroflicha tavsiflanga[1-318].

Ingliz tili yordamchi so‘zlar turkumi qator tadqiqotlar predmeti bo‘lgan. Ingliz tilida predloglarini o‘rganish masalasi o‘tgan asrning 60-70 yillaridan buyon tilshunoslar diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Unga oid fikrlarni xorijlik tilshunos olimlar B.N.Aksenenko, L.S.Barxudarov, G.N.Voronsova, B.A.Ilish, I.K.Irteneva, T.M.Novitskaya, N.D.Kunin, P.Roberts, A.Herskovits va boshqalar tadqiqotlarida ko‘ramiz.

Ingliz tilida bog‘lovchi, uning o‘ziga xos xususiyati, qo‘llanishi, turlari, vazifadoshlari monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalarda atroflicha tavsiflangan.

Ingliz tilida bog‘lovchining vazifasiga ko‘ra turlari. O‘zbek-ingliz tilida bog‘lovchining funksiyasi, semantik tipologiyasi tadqiq etilayotgan tillarda so‘zning turkumga mansubligini o‘rganishdan boshlanadi. Ingliz tilida, o‘zbek tilida bo‘lganidek, mustaqil so‘zlar turkumi ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’ldan tashkil topadi. Predlog va bog‘lovchi yordamchi so‘zlar sifatida alohida guruhlanadi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi ko‘makchi va yuklamaning vazifasini ingliz tilidagi predlog bajaradi.

Ingliz tilida gapni mantiqan to‘g‘ri tuzish, fikrni aniq ifodalash uchun bog‘lovchining turini bilish, uni o‘rinli qo‘llay olish muhim. Hozirgi zamon ingliz tilida teng bog‘lovchi (coordinating conjunction), juft bog‘lovchi (correlative conjunction), ergashtiruvchi bog‘lovchi (subbordinating conjunctions) farqlanadi[2:-111]. M.G‘apporov esa bog‘lovchining ikki turi: teng va ergashtiruvchi bog‘lovchini ajratadi. N.A.Мылseva, T.M.Jimalenko ham “Universal reference grammar” kitobida bog‘lovchilarni ikki: teng va ergashtiruvchi turiga ajratishadi.

Teng bog‘lovchi. M.A.Rustamov, M.I.Asriyans teng bog‘lovchilar sirasiga *and, but, or, nor, for, so, yet, and/or* kabi so‘zlarni kiritishadi; ularning bir xil grammatik kategoriyadagi ikki va undan ortiq so‘z, ibora yoki gaplarni bog‘lashini ta’kidlashadi. Shuningdek, ushbu manbada *for, so, yet* bog‘lovchilari boshqa vazifada kelishi mumkinligi ham ta’kidlanadi[1:-247].

And qo‘shish/qo‘shimcha qilishni ifodalaydi: qo‘shishni ifodalaganda o‘zbek tiliga *-ga* qo‘shimchasi bilan, boshqa holatda *va, bilan, hamda* so‘zlari vositasida tarjima qilinadi: *Two and four make six. Rise and potatoes are common foods.*

But zidlikni bildiradi: o‘zbek tiliga *ammo, lekin, biroq* so‘zlari bilan tarjima qilinadi: *Two and four make six, but two and three make five. Many trees lose their leaves in winter, but evergreen trees do not.*

Quyida ingliz tilidagi teng bog‘lovchilar, o‘zbek tilida ularni ifodalovchi birliklar, bog‘lovchining vazifasi va misollarni jadval shaklida keltiramiz.

№	Ingliz tilidagi teng bog‘lovchi	O‘zbek tilida uni ifodalov-chi birlik	Bog‘lovchi ifodalaydi-gan mano	Misol
1	*And*	*va, bilan, hamda*	qo‘shish, qo‘shimcha qilish	*Two and four make six. Rise and potatoes are common foods.*
2	*But*	*ammo, lekin, biroq*	Zidlash	*Many trees lose their leaves in winter, but evergreen trees do not.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3	*Or*	*Yo, yoki, yoxud*	tanlash yoki ajratish	*Two and four or five and one make six. Today travellers go by plane or by bus. They had enough money for eggs or bread, but not enough for both.*
4	*Neither (not)... nor*	*na...na*	bog‘layotgan hodisani inkor etish	*They did not buy eggs, nor did they buy bread.*
5	*yet*	*lekin*	Zidlash	*They bought eggs and bread, yet they forgot to buy milk.*

N.A.Мыlseva, T.M.Jimalenkolar teng bog‘lovchilar sirasiga *and, but, or, nor, for, either...or, neither...nor kabi* yordamchilarni kiritishadi. Ko‘rinyaptiki, bu tasnifda jadvaldagi *yet* teng bog‘lovchilar qatoriga kiritilmagan. M.A.Rustamov, M.I.Asriyans teng bog‘lovchilar sirasiga *so, for* kabi so‘zlarni ham kiritishadi, ammo o‘zbek tilida tarjimada ular tobe gaplarni bog‘layotganini ko‘rish mumkin. Kuzatishlarimizni quyidagi jadvalda ifodalaymiz.

№	Ingliz tilidagi teng bog‘lovchi	O‘zbek tilida uni ifodalovchi birlik	Bog‘lovchi ifodalaydi-gan mano	Misol
1	*So*	*natijada, shunday qilib, shunday ekan*	natijani bildiradi	*They did not have enough money to buy milk, so they bought only eggs and bread.*
2	*for*	*chunki, uchun, sababli, boisdan, -dan qo‘shimchasi*	sabab mazmunini ifodalaydi	*They bought only eggs and bread, for they did not have enough money to buy milk.*

M.G‘apporov teng bog‘lovchilar sirasiga *and, as well as, both…and, not only… but also, but, or, either …or* so‘zlarini kiritadi. Ko‘rinyaptiki, ikki manbagi tasnif bir-biridan farq qiladi.

Boshqa manbada ingliz tilidagi teng bog‘lovchilar biriktiruv (cumulative/copulative); zidlov (adversative); ayiruv (alternative/disjunctive); natija (illative/regulative) ifodalovchi guruhga ajratiladi. Ushbu manbada keltirilgan tasnifni oldingi tasniflar bilan qiyoslash uchun tadqiq predmetimizni jadval ko‘rinishida kuzatamiz:

№	Biriktiruv (Cumulative Conjunctions)	Zidlov (adversative)	Ayiruv (Alternative / Disjunctive Conjunctions)	Natija (Illative / Regulative Conjunctions)
1	*And*	*But, yet*	*Or, neither (not)... nor, either... or,*	*So, for*
2	*and, both…and, as well as, not only…but also*	*but, still, yet, whereas, while, nevertheless*	*or, either…or, neither…nor, otherwise, else*	*For (rus: tak kak), so (rus)*

Manbalardagi tasnif va ularning tarkibiga kiruvchi vositalarni tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga keldik: [4:-213]

birinchidan, ingliz tilida teng bog‘lovchining biriktiruv (cumulative/copulative); zidlov (adversative); ayiruv (alternative/disjunctive); natija (illative/regulative) kabi guruhlari ajratiladi;

ikkinchidan, o‘zbek tilida yozilgan grammatikalarda teng bog‘lovchilar umumiy guruh ostida beriladi, ichki guruhlarga bo‘linmaydi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

uchinchidan, ingliz tilidagi teng bog‘lovchilar guruhi rus va ingliz tilidagi manbalarda ma’noviy munosabat ifodalashi asosida tasniflanadi hamda bunday birliklar sirasi batafsil izohlanadi: teng bog‘lovchilar sirasiga 17 ta yordamchi so‘z kiritiladi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchi. Ingliz tilida ergashtiruvchi bog‘lovchi tobe gapdan oldin keladi. Tobe gap bosh gapdagi fikrni izohlaydi. Bog‘lovchining tobe gap tarkibida uchrashida ayrim istisno holatlar ham uchrab turadi. Masalan, ***not so...as*** bog‘lovchisining birinchi qismi bosh gap tarkibiga, ikkinchi qi*smi* ***(as)*** tobe qism tarkibiga kiradi: *The text was* ***not so*** *difficult* ***as*** *I expected.*

Ingliz tilida ergashtiruvchi bog‘lovchi teng bog‘lovchiga nisbatan ko‘proq miqdorni tashkil qiladi. N.A.Мылseva, T.M.Jimalenko ergashtiruvchi bog‘lovchilar sirasiga *after, because, before, since, while, when, if, that, so as, than, till, untill, as, as…as, not so…as* kabilarni kiritishadi. M.G‘apporov ergashtiruvchi bog‘lovchilarni sanab o‘tar ekan, nisbatan ko‘proq yordamchi so‘zlarni bu guruhga kiritadi hamda ularni qo‘shma gaplarni bog‘lashiga ko‘ra tasniflaydi.

1. Aniqlov bog‘lovchisi (objective, subjective, predicative): *that, if.*
2. Payt mazmunini ifodalovchi bog‘lovchi: *as soon as, as long as, as, till, until, before, after, when, since, while*. Ushbu bog‘lovchilar bosh gapdan anglashilgan paytni ifodalab keladi: *The train set in motion* ***as soon as*** *the clock struck nine. I have not seen George* ***since*** *we returned from Iceland.*
3. Sabab bog‘lovchisi **(of reason/cause)**: *as, because, because of, since, seeing, so … that, lest, considering.* Bunday bog‘lovchilar bosh gapdagi ish harakatning yuzaga chiqish sababini ifodalaydi: ***Seeing*** *it was you who has invented the new engine, I am sure you deserve a higher salary. I will not invite Eric to our party* ***since*** *he is so rude.*
4. Maqsad bog‘lovchisi (purpose): *that, in order to, so that, lest.* Bunday bog‘lovchilar bosh gapdagi ish harakatdan ko‘zlangan maqsadni ifodalaydi: *You must work harder* ***in order to*** *get a promotion. I planted two pine trees in the garden* ***so that*** *we had some shade in summer. I will go with him* ***lest*** *he gets lost.*
5. Shart bog‘lovchisi: *if, unless, provided (that), providing (that), supposing (that), once.* Bunday bog‘lovchilar bosh gapdagi ish harakatning yuzaga chiqish shartini ifodalaydi: *We will be in time for train* ***unless*** *there is a traffic jam on our way.*
6. To‘siqsizlik bog‘lovchisiga (concessive) *although (...sa ham), though (...ga qaramasdan)* kiradi. Ushbu bog‘lovchilar bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning yuzaga chiqishida to‘siqsizlik ma’nosini yuzaga chiqaradi: *The British team has won the championship* ***though*** *its first match was very unsuccessful.*
7. Tarz va qiyoslash bog‘lovchisi (manner and comparison)[15]: *as, as if , as though, the way, than, as … as, not so … as, so... as.* Harakat tarzi va qiyoslash bog‘lovchisi ish-harakatning qay holatda yuzaga chiqqani ifodalaydi yoki uni boshqa bir harakat bilan qiyoslaydi: *He behaves* ***as though*** *he is the boss here. I swim well, but* ***not so*** *fast* ***as*** *my father does.* ***The*** *more he reads,* ***the*** *less he understands.* [5:-111]

Natijani mazmunini ifodalovchi (resultative) *that, so that* bosh harakatdan ifodalangan mazmunning natijasini bildiradi: *The new text is so difficult* ***that*** *I do not understand a word.*

Ingliz tilida bog‘lovchining tuzilishi(shakli)ga ko‘ra turi. M.G‘apporov shakliga ko‘ra bog‘lovchining sodda va qo‘shma turini farqlab, ularni quyidagicha guruhlaydi:

1. Sodda bog‘lovchilar: *and, but, or, nor, for;*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Qo‘shma bog‘lovchilar: *both...and, either...or, not only...but also, neither...nor.*

Mutaxassislar ergashtiruvchi bog‘lovchiga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni farqlashadi:

1. Ergashtiruvchi bog‘lovchi bilan boshlanadigan tobe gap alohida gap sifatida ajratilmaydi. Agar alohida gap sifatida tinish belgisi bilan ajratilsa, xato hisoblanadi. (Bu fikrga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki kuzatilgan misollarda ergash gapning ajratib yozilgan hollari ko‘p kuzatildi. Ular bosh gapga tobeligini saqlagan. Demak, istisno holatlar mavjud yoki shunday qo‘llanish ham qabul qilingan).

2. Ba’zi predloglar ergashtiruvchi bog‘lovchi vazifasida qo‘llanishi mumkin. Bunday holda gapning qurilishiga e’tibor berish lozim. Fe’lning qaysi shakli va qanday tinish belgi qo‘yish gapning shaklidan kelib chiqib aniqlanadi. Bu kabi holatni predlogli birikma va tobe gapni qiyoslash orqali kuzatamiz: *Since my arrival here, I have made many friends // Since I arrived here, I have made many friendi*.

M.A.Rustamov, M.I.Asriyanslar ba’zi bog‘lovchilarning uslubga xoslanishini quyidagicha izohlashadi: “*For* va *yet* bog‘lovchilari og‘zaki nutqda juda kam ishlatilsa, rasmiy yozma nutqda keng foydalaniladi. *And/or* bog‘lovchilari o‘zidan keyingi so‘zning avvalgi fikrga qo‘shimcha yoki ilova qilinganligini bildiradi. Bu bog‘lovchilar og‘zaki adabiy tilda ishlatilmasa-da, ilmiy uslubda tez-tez uchrab turadi: *Her letters are poorly typed. She needs a new typewriter and/or a new secretary. The glassware is not clean. He needs a new dishwasher and/or better procedures*”.

M.G‘apporov, R.Qosimovalarning ta’kidlashicha, ergash gapni bosh gap bilan bog‘lash uchun bog‘lovchidan tashqari quyidagi bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar ham ishlatiladi: *who, whose, what, which, that* olmoshlari va *when, where, how, why* ravishlari. Ular bog‘lovchidan farqli ravishda gapning biror bo‘lagi bo‘lib keladi. Solishtiring:

1. *I don’t know when he will return (sodda gap) // At present, when someone with a life insurance policy dies it can take months or any payment to be made to their due to a lengthy legal process.*

2. *I know the man who wrote this article (sodda gap) // But prove yourselves doers of the word, and not merely hearers who delude themsels.*

3. *Tom told me what he had seen there (sodda gap) // Have you ever asked the question “What is the purpose of my life*

N.A.Мылseva, T.M.Jimalenko ham ayrim bog‘lovchi, predlog va ravishlarning omonimik munosabatda bo‘lishni ta’kidlaydi hamda ularni faqat kontekstda farqlash mumkinligi haqida xulosa qilishadi. Solishtiramiz: [4:-216]

1. He always comes before I do (bog‘lovchi).
2. I shall go there before dinner (predlog).
3. I have seen this before (ravish). Ingliz tilida bog‘langan qo‘shma gap tarkibiga kiruvchi sodda gaplar bog‘lovchi yordamida bog‘lanadi, odatda, vergul bilan ajratiladi: *The signal was given, and the steamer moved slowly from the dock // Signal berildi va poroxod dokdan sekin jo‘nadi. I came home early, but he remained to the end of the concert // Men uyga erta qaytdim, ammo u konsertning oxirigacha qoldi.* Shuningdek, qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz ham bog‘lanadi, unda bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: *The signal was given; the steamer moved slowly from the dock // Signal berildi, poroxod dokdan sekin jo‘nadi. Will return from London in May; his sister will stay there another month // U Londondan may oyida qaytib keladi; uning singlisi u yerda yana bir oy qoladi.*

Ergashgan gap bosh gap bilan bog‘lovchi va bog‘lovchi so‘z yordamida bog‘lanadi: *He tought* (bosh gap) *that the train arrived at 6.15* (ergash gap). *He will get the letter tomorrow* (bosh gap)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

if you send it off now (ergash gap). *After the agreement had been signed* (ergash gap), *the deleation left London* (bosh gap).

Ega ergash gaplar bosh gapga *who (whom), what, that, wether, if, whose, which, when, where, how, why* kabi bog‘lovchi vositagi olmoshlar bilan bog‘lanadi.

Ayrim darsliklarda o’zbek tilidagi qo‘shma gap bog‘lovchi vositasiga ko‘ra:

1.Bog‘lovchilar: a) teng bog‘lovchilar (va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo... yo, dam..., dam...); b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

2. Bog‘lovchi vazifasidagi vositalar: a) bo‘lsa, esa, deb; b) -u, (-yu),- da, -ki yuklamalari; d) nisbiy so‘zlar; ye) shuning uchun, shu tufayli, shu sababli singari ko‘makchili qurilmalar; f) shart mayli qo‘shimchasi (-sa)

3. Ohang kabi turlarga ajratiladi.

Ergash gaplarni bog‘lovchi vositalar sifatida quyidagilar sanab o‘tiladi:

1) ergashtiruvchi bog‘lovchilar;

2) ko‘makchi qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar);

3) yuklamalar (-ki);

4) nisbiy so‘zlar (kim - o‘sha, nima - shu, qaer - shu yer va boshqalar);

5) deb so‘zi va boshqalar.

Bog‘lovchi – qo‘shma gap tarkibidagi sodda gap va uyushgan bo‘laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘z. O‘zbek va ingliz tillarida bog‘lovchi grammatik jihatdan o‘zgarmaydi, mustaqil leksik ma’noga ega emas; ikki tilda ham bo‘laklari hamda gaplarning tuzilishiga ko‘ra turli munosabatni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Bog‘lovchi ko‘makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, undan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni hosil qilishi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida bog‘lovchi o‘zi bog‘layotgan so‘z/gaplarning biror bir grammatik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lmasligi bilan ajralib turadi; ular o‘zgarmas so‘zdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғаппоров М., Қосимова Р. Инглиз тили грамматикаси. Академик лицей ва касб-ҳунар коллажлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2010. – 336 б. – Б. 295-296.
2. Mengliyev B., Xoliyorov O`., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal[1] http://aranea.juls.savba.sk/guest/ Araneum Anglicum II Minus (Global English, 17.06) 120 M
3. http://aranea.juls.savba.sk/guest/ Araneum Anglicum II Minus (Global English, 17.06) 120 M
4. Мыльцева Н.А., Жималенко Т.М. Universal reference grammar. Универсальный справочник по грамматике английского языка. – Москва: ГЛОССА, 2005. – 280 с. – С. 213.
5. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanma.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 111 b. – P. 107.
6. https://www.native-english.ru/grammar/subordinating-conjunctions
7. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanma.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 111 b. – Б. 107.
8. http://www.correctenglish.ru/theory/grammar/coordinating-conjunctions/
9. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanma.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 111 b. – P. 104.
10. http://www.correctenglish.ru/theory/grammar/coordinating-conjunctions/

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA LISONIY GRADASIYANING FONOLOGIK SATHDA ISHLATILISHI

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna
Andijon davlat chet tillari instituti dosent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Lisoniy gradasiya asosan fonologik sathda fonetik - fonologik sath alliterasiya orqali ifodalanganligini kuzatdik. Dastavval alliterasiya atamasiga ham izoh berib ketsak: undosh tovushlarning takrori hisoblanadi. She'riyatda alliterasiya shiddatkor, tezkor ruhiy holatni ifodalash uchun qo'llanishi mumkin. Ba'zida tarjimonlar alliterasiya usuli qo'llangan she'rni tarjimada boshqa she'riy usulda o'girib, she'r ruhiyatini buzib yuborishlari mumkin. Assonans esa unli tovushlarning takrorlanishi ham gradasiyani fonologik sathda aynan bir hil yoki ohangdosh unli tovushlarning muayn misra, band, she'r davomida tez-tez takrorlanishi "assonans" deyiladi.*

Kalit so`zlar: *alliterasiya, shiddatkor, anaphoralar, tezkor ruhiy holat, Assonans*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ГРАДАЦИИ НА ФОНОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Махмудова Нилуфархан Равшановна-Андижанский государственный институт иностранных языков доцент, доктор филологических наук (PHD)

Аннотация: *Мы заметили, что языковая градация в основном выражается на фонологическом уровне посредством аллитерации фонетико - фонологического уровня. Во-первых, давайте также объясним термин аллитерация: это повторение согласных звуков. В поэзии аллитерация может использоваться для выражения интенсивного, стремительного состояния ума. Иногда переводчики могут исказить психику стихотворения, перевернув стихотворение, в котором используется метод аллитерации, другим поэтическим способом в переводе. Ассонанс, в то время как повторение гласных звуков также градация на фонологическом уровне частое повторение точно однородных или созвучных гласных звуков на протяжении определенного стиха, предложения, стихотворения называется "ассонансом".*

Ключевые слова: *аллитерация, интенсивный, анафоры, быстрое настроение, ассонанс*

PHONOLOGICAL LEVEL USE OF LINGUISTIC GRADATION IN ENGLISH AND UZBEK

Mahmudova Nilufarkhan Ravshanovna
associate professor of andijan state institute of foreign languages, doctor of philosophy in philological sciences (phd)

Annatation: *We have observed that linguistic gradation is expressed primarily through phonetic - phonological surface alliteration at the phonological level. First of all, let's also comment on the term alliteration: consonant is a repetition of sounds. In poetry, alliteration can be applied to express an intense, rapid state of mind. Sometimes translators can distort the spirit of poetry by turning a poem using the alliteration method into another poetic method in translation. Assonance, on the other hand, the repetition of vowel sounds is also called "assonance", which is exactly the same at the phonological level of gradation, or the frequent repetition of consonant sounds in the course of a Muin misra, band, poem.*

Keywords: *alliteration, violent, anaphora, rapid mental state, assonance*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kirish

Lisoniy gradasiyani fonetik - fonologik sathda alliterasiya orqali ifodalanganligini kuzatdik. Dastavval **alliterasiya**[5.104] atamasiga ham izoh berib ketsak: undosh tovushlarning takrori. She'riyatda alliterasiya **shiddatkor, tezkor ruhiy holat**ni ifodalash uchun qo'llanishi mumkin. Olima D.Sultonova[5.105] Braunning "The Pied Piper of Hamelin" poemasidan parchasida alliterasiyaning berilishini quyidagicha tahlil qiladi: Bu parchada kalamushlarning shaharni shoshib-pishib tark etishlari tasvirlangan.

And the muttering grew to a grumbling
And the grubling grew to a mighty rumbling,
And out of the house the rats came tumbling,
Great rats, small rats, lean rats, browng rats,
Brown rats, black rats, gray rats, tawny rats …
(Browning)

Oldingi[5.103] uch misrada **[gr], [br]** va titrovchi tovush, sonor tovush **[r]** ning takrorlanib kelishi shovqin – suronni ifoda etishda hizmat qilgan. To'rtinchi va beshinchi misralarda '**rats"** so'zining 9 marta takrorlanishi, kalamushlarning sarosimada qolishgalarini ifodalaydi.

Taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub quyidagi misrlarini ham keltirib o'tsak:

Qaro qoshing, kalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing qiz
Qilur qatlimga qasd qayrab
Qilich qotil qaroshing qiz.

Natijalar

Shoir yaratgan ritm **[q]** tovushining takrori asosida yaratilgan bo'lib, lirik qahramonning kechinmasi, ya'ni qizga nisbatan ginasi ushbu parchada chiroylik ifodalab berilgan. Alliterasiya qo'llangan she'riy parchalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida bu usul alliterasiyani tarjimada berilishi biroz murakkab jarayon. Chunki asliyatdagi tanlangan ma'lum jarangli undoshlar tarjimada jarangsiz unloshlarga aylanib qolishi mumkin. Ba'zida tarjimonlar alliterasiya usuli qo'llangan she'rni tarjimada boshqa she'riy usulda o'girib, she'r ruhiyatini buzib yuborishlari mumkin. Masalan, rus tarjimoni va shoirasi R.Qazaqova[3.25] tomonidan o'zbek shoiri Shukullo qalamiga mansub she'rlar tarjimasida shunday holatni kuzatish mumkin. Shukrulloning[3.25] quyiadagi to'rtligiga nazar tashlasak:

Sen qilganni har kim qilar, kibrlanib netasan!
Halq maqtasa hizmatingni, murodingga yetasan.
O'z-o'zingga yetmoq bo'lib ko'kka qancha sakrasang,
Faqatgina yerni o'yib, shuncha tuban ketasan.

R. Qazakova esa buni quydagicha tarjima qiladi:

Похвала, похвала, похвала…

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Закружила, как лист, - ветер осени.
Позвала, за собой повела,
Поводила лишь за нос и бросила!

Ochiq[5.106] ko'rinib turibdiki, tarjima she'rdagi ruhiyat va g'oya Shukrullonikidan ancha uzoq. To'rtlikda kamtarinlikka da'vat, beminnat hizmat ulug'lanmoqda. Tarjimada esa hush ohangda ta'rif berilmoqda. O'zbek shoiri to'rtinichini olgan. She'r muallifi alliterasiyadan foyidalangan bo'lsa, tarjimon asliyatda uchramaydigan anaphoralar bir satr boshidagi so'zlarning takrorlanishi) usulidan foydalanib, asliyat ritmi va ruhiyatini buzib yuborgan. Natijada esa kognitiv dissonans yuzaga kelgan. Onda-sonda uchraydigan fikr yuritishga undaydi. Tarjimon asliyat g'oyasi va mazmunini teran tahlil qilib, asar ruhiyatini tarjimada berish yo'llarini izlashi lozim. Shoir ovozi hamda uslubini saqlash, uni yuzaga chiqaruvchi asosiy omildir. Ba'zida esa tarjimonlar ATdagi shiddatkor ruhiyatni tarjimada aks ettirish uchun asliyat matnida uchramaydigan alliterasiyadan foydalanadilar.

Muhokama

Assonans[5.107] – unli tovushlarning takrorlanishi ham gradasiyani fonologik sathda ishlatilishiga e'tiborni qaratamiz: Aynan bir hil yoki ohangdosh unli tovushlarning muayn misra, band, she'r davomida tez-tez taqrorlanishi "assonans" deyiladi:

O'n sakkiz ming olam oshig'i agar boshindadur
Ne ajabkim sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur,
Desa bo'lgaykim yana o'n sakkiz yil husni bor
O'n sakkiz yoshinda shuncha fitnakim boshindadur.

Bu g'azlda **o', i, o,** unli tovushlari ketma-ket takrorlanib kelib g'azalning jarangdorligi va takrorlanmas ohangini yanada kuchaytirgan.
Assonansda faqat bir unlinking tarqoqi ham kuzatilishi mumkin:

Olti oyga olma otar Oybodom
Oybotarda yig'lab yotar Oybodom
Oyqizlarning oyparisi Oybodom… (E.Shukur)[1.39]

Ingliz she'riyatida ba'zida alliterasiya va assonans birgalikda qo'llanishi mumkin. Masalan quyidagi tez aytishda [**r**] undosh, [**i**] va [**e**] tovushlari takrori kuzatiladi:

Peter Piper pickled a peak of pickled pepper
A peak of pixel pepper Peter Piper picked.
If Peter Piper pickled peak of pickled pepper
Where is a peck of pickled pepper.

Bu tez aytishda [**r**] tovushi 35 marta, [**i**] 29 marta, [**e**] 14 marta takrorlangan. Mazkur tovushlarning takrorlanishini tez aytishda quvnoq hushohanglik kayfiyatini uyg'otadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Fonologik sathda gradatsiya ovozni **ko'tarish va pasaytirish**, so'zdagi tovushlarni cho'zish, urg'u va h.k. larda namoyon bo'lib, yozma matnlar graduallikni ifodalashning fonetik vositalari grafik jihatdan quyidagicha aks etishi aniqlandi. Ular birdan ortiq harflarning yozilishi orqali so'zdagi tovushlar cho'zilishini nazarda tutadi: ***kichkiiina, kaaaatta.***

Fonetik tadqiqotlarda gradasiya hodisasi unli va undoshlarning belgilarida qayd etilgan bo'lib, bu holat unli va undoshlarni bir-biriga mutlaq zid qo'yib bo'lmaslik haqidagi fikrlar aks etgan.

So'nggi paytlarda ham tilshunoslar fonemalarni guruhlash masalasiga to'xtalib, an'anaviy binar oppozitsiyalardan darajali tasnifga o'tish davri kelganligiga (unli – undosh emas, balki unli – undosh – shovqinli kabi) ishora qilmoqdalar.[2.16]

Unlilarning undoshlardan farqlaydigan va darajalanmaydiganday ko'rinadigan "***to'siq bor***" – "***to'siq yo'q***" belgilari ham sharhga muhtojdir. Tilshunoslarimiz unlilar hech qanday **to'siqsiz hosil** bo'ladi deb qat'iy fikr yuritganlarida faqat ko'ndalang to'siqnigina nazarda tutishadi. Holbuki, ko'ndalang to'siqlardan tashqari yon to'siqlar (lablarning oldinga tadrijiy cho'zilishi va yonoqlarning ichkariga tortilish darajalari), shuningdek, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi yo'lida taranglashgan holda turuvchi un paychalari kabi to'siqlar ham mavjuddir. Demak, ovoz paydo bo'lishining o'ziyoq to'siqlilik mahsulidir. Xullas, unlilar faqat ovoz paychalarining taranglashishidagi darajalar bilangina bog'liq bo'lib qolmay, og'iz bo'shlig'i va lablarning darajali yon (yonlikdan qiyalik orqali ko'ndalanglikka intiluvchi) to'siqlarga ham egadirlarki, bularning faoliyatlari (belgilari) natijasida ***tor, o'rta tor, o'ta tor*** kabi unlilar hosil bo'ladi. Demak, empirik binar fonologik tasnif fonemalar tizimini (butunligini) unli – undosh, sonor – shovqinli, jarangli – jarangsiz, jarangli – sonor, jarangsiz - sonor, unli – sonor kabi notadrijiy oppozitsiyalarda o'rgangan bo'lsa, dialektik darajali tasnif fonologik tizimni aynanlik (o'xshashlik) belgilarining tadrijiy bog'lanishiga ko'ra tahlil etadi va shu asosda har bir fonema turining fonologik sistemada tutgan zaruriy o'rni va mavqeini belgilab beradi. Natijada har bir fonema va fonologik sistemaning mohiyati yanada chuqurroq ochiladi. Unlilarga xos bo'lgan darajalanishlar haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, tilning tik harakati (og'izning ochilishi) belgisidagi darajalanishni isbot qilishning hojati yo'q. Bu belgiga ko'ra unlilarning **keng – o'rta tor - o'ta tor** yoki **quyi – o'rta - yuqori** kabi an'anaviy tasnifida kenglik belgisining kamayib yoki torlikning yo'qolib borishi hisobiga olingan: I **– E – A**. Shuningdek, **U – O' – O** yo'nalish ham huddi shu asosda qurilgan bo'lib, birinchi o'rinda tor, lablangan. **U** turgan bo'lsa, keng va lablangan **O** ushbu tizimning ohiridan joy olgan. Bu darajalanish ziddiyatlarida oraliq o'rinni O' fonemasi egallaydi: Qayerda ov qilmoqchisan? – Qirg'oqdan uzoqroq joyda. Shamol o'zgarganda qaytaman. Tong otmasdan chiqaman.

– Sherigimni ham uzoqroqda ov qilishga ko'ndirish kerak bo'ladi. Agar qarmog'ingga juda kaaaatta baliq ilinib qolsa, biz yordamlashib yuboramiz. – Uning qirg'oqdan ko'proq uzoqlashishga tobi-pobi yoq[2.36];
A Biiig Bad Wolf blows down the first two pigs' houses, made of straw and sticks respectively, but is unable to destroy the third pig's house, made of bricks[2.56].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Bozorovga ko'ra, darajalanish hodisasi substansiyasi moddiyroq (yaqqolroq) bo'lgan fonetika/fonologiyada, shuningdek, real borliq darajalanishlarini bevosita aks ettiruvchi lug'aviy tizimda yorqinroq, tilning boshqa sathlarida mavhumroq yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Fonologik sathning sistem-struktur qurilishida fonemalarning bo'g'iz – chuqur til orqa – sayoz til orqa – til o'rta – til oldi, til oldi/tanglay – til oldi/milk – til oldi/tish, lab/burun – til oldi/ burun – til orqa/burun, old qator – indifferent- orqa qator, unli – sonor – undosh, sonor – jarangli – jarangsiz, sirg'aluvchi – sirg'aluvchi/portlovchi – portlovchi, tor – o'rta keng – keng, lablanmagan – noto'liq lablangan – lablangan kabi darajali qatorlari muhim konstiutiv ahamiyatga ega[2.43].

Fonetik darajada gradatsiyaning stilistik texnikasining namoyon bo'lishi mumkin, chunki nutqni talaffuz qilishda ovoz balandligi oshishi mumkin va yozma ravishda tinish vositasi - undov belgisi yordamida ovoz balandligi ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, T.G. Xazagerov va L.S. Shirina ta'kidlaganidek, gradatsiya "tonning ko'tarilish yoki pasayish xususiyatiga ega bo'lgan bir nechta intonatsiya markazlariga ega"[4.25]. Shu munosabat bilan biz fonetik (intonatsiya) gradatsiya haqida gapirishimiz mumkin: *— Bu judolik vaqtlarida boshingdan o'tgan voqealarni eshitishga juda qiziqaman. Ularning ba'zisini boshqalardan eshitgan bo'lsam ham, o'z og'zingdan eshitishim uchun boshqa gap edi,— dedi. — Sen ham mening boshimdan nimalar kechganidan xabardor bo'lishni istasang kerak, albatta. Gaplarimiz ko'p, bafurja gaplasharmiz. Umrim bo'yi senga tikilib o'tirsam ham, tikilishdan to'ymayman, ey guluzorim! Ey obi hayotim! Muhabbat lazzati shu muhabbat yo'lida chekiladigan azob-uqubatga qarab ziyoda bo'ladi, deganing to'g'ri. Ammo sen bilan mening muhabbatimiz ziyodalikni qabul qilmasa kerak, lekin mashaqqat, azob-uqubat bilan yana ham musaffo bo'ladi, desang, bu fikringga qo'shilaman[9.98];*

It was so immediately clear that this was the only thing to do. I would not have accepted any other answer. I would not have trusted a great booming voice that said either: You Must Divorce Your Husband! or You Must Not Divorce Your Husband! Because that's not true wisdom. True wisdom gives the only possible answer at any given moment, and that night, going back to bed was the only possible answer[8.26].

Ushbu misolda bir-birining ortidan ergashgan bir xil iboralarni balandlik darajasi har xil bo'lishi kerak, bu bir, ikki va uchta undov belgilari bilan ifodalanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Kuronov D., Mamajonov Z., Sheralieva A. Adabiyotshunoslik termindari lug'ati. T.Fan, 2010. B. 39.
2. O. Bozorov. O'zbek tilida darajalanish. fil. f. dok. diss. avtoref. Toshkent 1997. B. 16.
3. Sultonov D. She'r va tarjima. Samarkand, 2009. B.25
Hudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.; O'qituvchi, 1995. B.180.
4. T.G. Xazagerov, L.S. Shirina. Obыщaya ritorika: Kurs lektsiy i Slovarь ritoricheskix priemov. Rostov n/D, 1999. S. 137.
5. Shuhrat Sirojiddinov, Gulnoza Odilova. Badiiy tarjima asoslari. 2011
6. Theodore Dreiser. An American Tragedy. Crowell, 1974
7. http://library.navoiy-uni.uz.
8. https://www.elizabethgilbert.com.
9. Jo'rjiy Zaydon. Farg'ona kelini (roman) https://forum.ziyouz.com

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘ZBEK TILIDAGI XITOYCHA O‘ZLASHMALARNING MA’NO GURUHLARI XUSUSIDA

Mohitabon Komilova-Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Abstrakt: *Mazkur maqolada o‘zbek tiliga xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlarning semantik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Ushbu so‘zlarning ma’no guruhlariga bo‘linishi masalasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘zlashmalar tilimizga kirib kelishi natijasida turli so‘z birikmalari, ibora va so‘z qo‘shilmalarini hosil qilishi yoritilgan. Qizig‘i shundaki, tilimizga xitoychadan o‘zlashgan ba’zi taom nomlari fonetik xususiyatlarini qisman o‘zgartiribgina qolmay, balki o‘ziga xos semantik o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ba’zi xitoycha o‘zlashmalar esa adabiy tilda unutilib, faqat shevalarda saqlanib qolgani ma’lum bo‘ldi. Ayrim xitoy o‘zlashmalar esa o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar bilan birikib yangi ma’noni anglatuvchi qo‘shma so‘zlar hosil bo‘lish jarayonlari kuzatildi. Muhimi shundaki xitoy tilidan so‘z o‘zlashuvi hodisalarining aksariyati qadimgi turkiy til davriga borib taqaladi va ularning ma’lum qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida unutilgan.*

Kalit so‘zlar: *xitoycha o‘zlashma so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar semantikasi, choy, manti, oltin, shoti, jenshen*

ON THE MEANING GROUPS OF CHINESE ADJECTIVES IN THE UZBEK LANGUAGE

Mohitabon Komilova - PhD student of Fergana State University

Abstract*: This article discusses the semantic features of the words adopted from the Chinese language into the Uzbek language. The issue of dividing these words into meaning groups is considered. It is also explained that as a result of borrowings entering our language, various word combinations, phrases and word combinations are formed. It is interesting that some food names that have been adopted into our language from Chinese have not only partially changed their phonetic properties, but also caused specific semantic changes. It turned out that some Chinese loanwords were forgotten in the literary language and survived only in dialects. Some Chinese assimilations were combined with words from other languages into the Uzbek language to form compound words with a new meaning. The important thing is that most of the phenomena of word acquisition from the Chinese language go back to the period of the ancient Turkic language, and a certain part of them has been forgotten in the modern Uzbek literary language.*

Key words*: Chinese borrowings, semantics of borrowings, tea, manti, gold, shoti, ginseng*

О ЗНАЧИТЕЛЬНЫХ ГРУПП КИТАЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Мохитабон Комилова – аспирант Ферганского государственного университета

Абстракт*: В данной статье рассматриваются семантические особенности слов, заимствованных из китайского языка в узбекский язык. Рассмотрен вопрос разделения этих слов на смысловые группы. Также поясняется, что в результате заимствований, поступающих в наш язык, образуются различные словосочетания, словосочетания и словосочетания. Интересно, что некоторые названия продуктов питания, заимствованные в наш язык из китайского, не только частично изменили свои фонетические свойства, но и вызвали специфические семантические изменения. Оказалось, что некоторые китайские заимствованные слова были забыты в литературном языке и сохранились только в диалектах. Некоторые китайские ассимиляции были объединены со словами из других языков в узбекский язык, образовав сложные слова с новым значением. Важно то, что большинство явлений словообразования из китайского языка восходят*

ISSN: 2181-0427

к периоду древнетюркского языка, а определенная часть из них забыта в современном узбекском литературном языке.

Ключевые слова: *китайские заимствования, семантика заимствований, чай, манты, золото, шоти, женьшень.*

Kirish

So‘zlarning tildan-tilga o‘tishi jamiyatning ma’lum bir ijtimoiy ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. O‘zlashma so‘zlar ushbu ehtiyojni qondiruvchi lisoniy imkoniyat sifatida amalga oshadi. Chetdan so‘z olish jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida har xil shakl va har xil xarakterga ega bo‘ladi. Tildagi so‘zlar ichki va tashqi omil asosida ko‘payadi va bu ko‘payish, ma’lum ma’noda til taraqqiyotining rivojini belgilaydi. Chetdan so‘z olish millatning, xalqning chet so‘z mansub bo‘lgan til jamoasi bilan iqtisodiy, madaniy, ma’naviy aloqasiga, ular bilan do‘stona munosabatiga real ishoradir [Berdialiyev, 2019: 57]. Uzoq o‘tmishga nazar tashlansa, chet so‘zlar asosan o‘zga tillarga og‘zaki muomala yo‘li bilan (chunki yozuv bo‘lmagan) o‘tganligini ko‘ramiz. Og‘zaki muomala esa yaqin qo‘shnichilikda, xalqlarning bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chib o‘tishida (migratsiya), savdo va oldi sotdi ishlarida yoki juda bo‘lmasa bir-birlari bilan urushlar olib borganlarida yuz bergan. Bular so‘z o‘zlashuvining sabablari xususiyatining bir tomonini xarakterlasa, ular, ikkinchi tomondan , xalqlar ruxiga ham bog‘liq bo‘lgan [Jumaniyozov, 1987:15].

Ma’lumki, Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi madaniy aloqalar qadim davrlarga borib taqaladi. Buyuk Ipak yo‘lining vujudga kelishi esa nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy rivojlanishning ham yangi bosqichini boshlab bergan. Bu esa o‘z navbatida til tarixida ham o‘z aksini topgan. Ya’ni tillararo so‘z almashinuvini yuzaga keltirgan. O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarning grammatik xususiyatlari turli aspektlarda o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar tilimizga sharq va g‘arb tillaridan kirib o‘rnashgan so‘zlar xususidadir. Ular orasida o‘zbek tiliga xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlarning lingvistik jarayonlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar juda ozdir [Bu haqda batafsil qarang: Komilova, 2022: 372-376].

O‘zbek tiliga xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlarni ma’no guruhlariga ajratib o‘rganish maqsadsa muvofiqdir. Ta’kidlash lozimki, ushbu so‘zlarning barchasi ot so‘z turkumiga mansub. Mazkur o‘zlashmalar otning quyidagi turlariga bo‘lish mumkin:

№	Oziq-ovqat nomlari	Narsa-buyum nomlari	O‘simlik nomlari	Hodisa nomi:	Hayvon nomi
1.	lag‘mon	jujuncha	jenshen	tayfun	arslon
2.	manti	lanka	choy		jilan (yilan)
3.	choy	choydon	basay		
4.	shirchoy	choyjo‘sh	say		
5.	basay	choykar	jusay		
6.	say	shiypon			
7.	jusay	shoti			
8.	laza	oltin			
9.	shiman	javon			
10.	manpar	shon			
11.	xoshan	jodi			
12.	yuto	jimbil			
13.		yuan			

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bulardan jenshen, choy, basay, say, jusay o‘zlashmalari yuqoridagi semantik guruhlardan o‘simlik nomlariga, ham oziq-ovqat nomlariga mansubdir.

A.Xodjayev va boshqa olimlarning “O‘zbekiston – Xitoy munosabatlari tarixidan” asarida Buyuk Ipak yo‘li orqali Turkistondan Xitoyga olib ketilgan o‘simlik va taomlarning bir qanchasi sanab o‘tilgan. “Masalan, mosh (绿豆 xudou), sedana (芝麻 xumo), sholg‘om (萝卜 xuluobu), oshqovoq (南瓜 xuguo), kashnich (卡什尼奇 xusuy), bodom (杏仁 xutou) kabi o‘simliklar shular jumlasidandir. Odatda Turkiston xalqini xitoylar “xu” deb umumlashtirib ataganligi tufayli ular ushbu mintaqadan olib kelingan o‘simliklar nomi oldiga ana shu so‘zni qo‘shganlar. [Xodjayev, Karimova va boshq., 2022: 26]

A.Madvaliyev tahriri ostidagi izohli lug‘atda 17 ta so‘z xitoy tiliga mansub deb berilgan. Shulardan 5 tasi oziq-ovqat nomlaridir [O‘zbek tilining izohli lug‘ati II, IV tomlar, 2008: 80, 493, 503, 539, 581].

1. Jenshen (xit. “odam-ildiz”) – Uzoq Sharq va Xitoyda o‘sadigan dorivor o‘simlik. *Jenshen daraxt ildiziga o‘xshagan o‘simlik bo‘lib, Uzoq Sharqning o‘rmonzor zonalarida yovvoyi holda o‘sadi*. Mazkur o‘zlashma so‘zlarni semantik guruhlarga ajratishda ham o‘simlik nomlariga, ham oziq-ovqat nomlariga kiritildi.

2. Lag‘mon (xit. 拉面 lamian “cho‘ziq xamir”). Xamirni cho‘zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat. Kumush opam ham shu yerda edilar. *Lag‘monni uncha xushlamas ekanlar, shekilli, yaxshi yemadilar*. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar.

3.Manti (xit. 馒头 mantou Myan-xamir+ti-go‘sht) go‘sht va piyoz qiymasini xamirga tugib qasqonda pishiriladigan ovqat. *Chuchvara nima ekan, Sidiqjon aka, yog‘li manti qilib beraman. Xamiri yupqaroq bo‘lsinmi, qalinroq?* A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Manti so‘zi xitoy tilidan kirib kelgan bo‘lsada, Xitoyda go‘sht va piyoz qiymasini xamirga tugib, qasqonda pishiriladigan ovqat aslida 包子 baozi, parda pishirilgan ichi bo‘sh nonlar - mantou deb nomlanadi. Mantining kelib chiqishi Xitoydagi Uch qirollik davriga borib taqaladi. Afsonalarga ko‘ra qirol Zhuge Liang bug‘da pishirilgan nonlar askarlar uchun to‘yimli emasligini bilgan va shuning u non ichiga mol yoki cho‘chqa go‘shti qiymasini aralashtirib taom tayyorlashni buyurgan. Bu taom esa xityliklar orasida 包子 baozi nomini olgan.

L.S.Levitskaya muxarrirligi ostida chop etilgan 7 tomlik “Этимологический словарь тюркских языков” kitobida manti so‘zi xitoy tilidan kelib chiqqan va avvalo uyhur dialektlariga o‘zlashgan deb e’tirof etiladi. Bu so‘zning tarqalish maydoni tor ya’ni Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, va Kichik Osiyo xududidagi tillarda uchraydi xolos.

4. Choy (t.f. < xit. cha) 1. Bargi damlab ichiladigan, janubiy o‘lkalarda o‘suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta. *Choy plantatsiyalari*. 2. Shu o‘simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari. *Ko‘k choy. Hind choyi. Seylon choyi. Gruzin choyi. Bir damlam choy. Choy quti.* 3. Shu o‘simlikning maxsus ishlangan, maydalalngan barglaridan damlangan xushbo‘y ichimlik. *Hindining ichgani asl choy bo‘lar*. “Gulnorpari” 4. Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish. *Choy mahalida goh kulib, goh yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari tog‘risida gapirdi.* A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari [Choy so‘zi haqida batafsil qarang: Komilova, 2023: 249-253].

Choy tarixi jamiyat madaniy va ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar tarixi bilan bog‘liq ravishda yuz bergan. Eramizdan avvalgi bir minginchi yilning boshlarida choy faqat janubiy xitoyliklargagina ma’lum bo‘lgan. VIII-X asrlarda buddizmda muqaddas ichimlik maqomini olgandan so‘nggina choy butun Xitoy, Tibet va Yaponiyaga tarqaldi va eksport mahsulotiga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

aylandi. VIII asrda buddaviylik dini rohibi orqali Yaponiyaga kirib kelgan choy, XII asrga kelib yapon madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Bugun yapon choy madaniyatining uch maktabi borligi ma'lum. Bular – Urasenke, Omotesenke, Musyakodzisenke deb nomlanadi [2: 14].

Choyni Yevropaga 1517-yilda Xitoydan portugallar olib kelishdi va 100 yil davomida faqat portugal zodagonlari iste'mol qilishdi. 1610-yilda choy Gollandiyada paydo bo'ldi. Shundan so'ng bu ichimlik juda ommalashdi va foyda keltiruvchi savdo turiga aylandi. Rossiyaga choyni birinchi marta 1638-yilda elchi Vasiliy Starkov harbiy mo'g'ul hukmdorlaridan birining sovg'asi sifatida olib kelgan. 1670-yillarga kelib ichimlik Rossiyaga keltiriladigan asosiy mahsulotlardan biriga aylandi. XIX-XX asrlarga kelib esa bu ichimlik butun ommaga tanish kundalik mahsulotga aylandi.

Bu ichimlikning tarqalishi esa o'z navbatida choy so'zining lug'at boyligiga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Dunyoning turli tillarida choyni ifodalovchi so'zlarning asosan ikki xil talaffuzi mavjud, mos ravishda choy (cha- 茶) va tea (特).

XVI asr mustamlakachilik tarixining boshida birinchi bo'lib choy va choy ichish odatini Yevropaga olib kelgan portugallar o'sha paytda Chjungvan viloyati va Guandun provinsiyasi bilan savdo qilishgan. Va bu viloyatlar shevasida choy – cha deb talaffuz qilingan. Shuning uchun, cha talaffuzi portugallar tomonidan qabul qilingan.

Choy boshqa koloniyalarga, shu jumladan, Janubiy Amerikaning ko'plab mamlakatlariga, keyinchalik quruqlikdagi savdoning rivojlanishi natijasida Rossiya va arab mamlakatlariga ham kirib bordi. XVI asr oxirida Qing sulolasi davrida Xitoy (va Yaponiya) dengiz embargosi siyosati natijasida Fujian provinsiyasi aholisining choy kontrabandasi bilan shug'ullanishi amoy lahjasidagi "te" – choy so'zininng golland va ispan mustamlakachilari tomonidan bu talaffuzni qabul qilishlariga olib kelgan.

Xitoy milliy ensiklopediyasida choyga qo'yidagicha ta'rif berilgan:

茶起源于传说时代的神农氏时期，中国是茶的故乡，也是茶文化的发源地。中国茶的发现和利用已有四千七百多年的历史，且长盛不衰，传遍全球。茶是中华民族的举国之饮，发于神农，闻于鲁周公，兴于唐朝，盛于宋代，普及于明清之时。中国茶文化糅合佛、儒、道诸派思想，独成一体，是中国文化中的一朵奇葩。

Tarjimasi: Choy afsonaviy Shennong davrida paydo bo'lgan. Xitoy choyning va choy madaniyatining vatani hisoblanadi. Xitoy choyining topilishi va ishlatilishi 4700 yildan ortiq tarixga ega. Choy Xitoy xalqining milliy ichimligidir.U Shennongda paydo bo'lgan, Tang va Song sulolasida gullab-yashnagan, Ming va Ching sulolalari davrida ommalashgan. Xitoy choy madaniyati buddizm, konfutsiylik va daosizmni birlashtirib bir butunlikni tashkil qiladi.

Shuningdek, xitoy tilida *choy* va *tetiklik* so'zlari uchun bir xil iyeroglif qo'llanadi [2: 15].

Musulmon manbalarida choy so'zi haqida ilk bor savdogar Sulaymonning 851-yilda tuzilgan hikoyatlarida keladi [2: 19]. Abu Rayhon Beruniyning (973–1048) "Kitob as-Saydani fi-t-tibb" asarida ham choy va uning xususiyatlari to'g'risida uchratamiz [1: 336-337]. Olim "Choyning vatani Xitoy ekani, choy o'simligi kesilib, to'rtburchak holida quritilishi, idishlarda saqlanib, kerak bo'lganida undan issiq ichimlik tayyorlanib ichilishi, choyda boshqa o'simliklar kabi zararli xususiyatlar yo'qligi, aksincha uning foydali ekani" haqida yozadi [1: 336-337]. Beruniy choyning ta'rifini keltirar ekan, uni ko'rgani yoki ichganini qayd etmaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Shuningdek, Abu Ali ibn Sino (980–1037) ham choyning shifobaxsh xususiyatlarini: “Choy tanani tetiklashtiradi, ruhni mustahkamlaydi, yurakni yumshatadi, fikrni uyg‘otib, dangasalikni ketkazadi” mazmunida ta’riflaydi [2: 20].

Turli xalqlar folklorida choy bilan bog‘liq bir qancha afsona va rivoyatlar keng tarqalgan. Choy haqidagi birinchi risola muallifi Lu Yuyni “Choyning otasi” deyishadi [2: 14]. U impertor Shen Nunga choyning shifobaxsh xususiyatlarini vasf etgan. Shuningdek, u tajriba orqali choy o‘tining, uning butasining qanday xususiyatlarga ega ekanini ochib berdi. Bu haqda xabar beruvchi afsonaga ilohiylik maqomi va Shen Nun tomonidan Lu Yuyga “Choyning otasi” laqabi berildi [2: 14].

O‘zbekistonda choy ichish qachondan boshlab urf bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. U o‘zbek milliy madaniyatining bir qismiga aylanib ulgurgan. Ayrim manbalarga ko‘ra Turkiston shaharlarida hind savdogarlari choy savdosi bilan shug‘ullanganlar. Demak, uning hozirgi O‘zbekiston hududidagi tarixini hech ikkilanmay ming yillarga bog‘lash mumkin.

Mutaxassis olimlarning ta’kidlashicha, VII–IX asrlarda Xitoy bilan bo‘lgan savdoda choy asosiy o‘rinda turgan. Choy bahosida har bir otning bahosi 56 kg oliy navli choyga teng bo‘lgan. Bir necha “jin” (600 gramm) choyga bir bosh qo‘y almashtirilgan.

O‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘atida choy so‘zi bilan yasalgan bir qancha so‘zlar berilgan. Bu so‘zlarning aksariyati xitoycha+forscha formulasi asosida vujudga kelgan:

Choygum – choydish;

Choydish – suv, choy qaynatiladigan metall idish, qumg‘on;

Choydon – choy idish, choy quti;

Choyjo‘sh – choydish, chovgun;

Choykor – choy yetishtiruvchi dehqon yoki xo‘jalik;

Choyfurush – choy savdosi bilan shug‘ullanuvchi tijoratchi;

Choyfurushlik – choy savdosi bilan shug‘ullanish;

Choyxo‘r – choyni yaxshi ko‘radigan, ko‘p ichadigan [3: 503-505].

“O‘zbek tilining fors-tojikcha o‘zlashmalar lug‘ati”da esa choy so‘zini forscha va yuqorida keltirilgan so‘zlarni fors+fors shaklida yasalgan deb ko‘rsatilgan va choy o‘zagi asosida yasalgan *choylashmoq, choypoya, choyfurushlik, choyxona, choyxonachi, choyxo‘rlik, choychaqa, choycho‘b* so‘zlari ham berib o‘tilgan [4: 355]. Choy so‘zi madaniyatimizga chuqur singib ketganidan uning asli qaysi tildan o‘zlashgani mutaxassislarni ham chalg‘itgan ko‘rinadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida tilimizda choy so‘zi bilan bog‘liq quyidagi so‘zlarning borligi haqida ham ma’lumotlar keladi:

Choylashmoq – birga choyxo‘rlik qilmoq, choy ichishib o‘tirib suhbatlashmoq;

Choynak [ruscha chaynik – choy idish] – choy damlab ichiladigan, jo‘mrakli va dastali idish, uy-ro‘zg‘or asbobi;

Choypoya [choy+poya] – dala-dashtda suv, choy qaynatish uchun yasalgan qurilma, uchoyoq;

Choyxona – choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqariladigan jamoat joyi; samovar, samovarxona;

Choyxonachi – choyxonada xizmat qiluvchi, choyxonada choy sotuvchi yoki choy tashib beruvchi kishi;

Choyxo‘rlik – choy ichib, suhbatlashib o‘tirish;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Choychaqa – 1)ko‘cha-ko‘ydagi mayda xarajatlar uchun mo‘ljallangan oz miqdordagi pul, choy puli; 2) uncha-muncha xizmat uchun beriladigan haq, xizmat haqi; 3) taqchil molni topib bergani uchun do‘konchiga beriladigan ustama haq, pul;

Choycho‘p – cho‘l-qumda o‘sadigan, xushbo‘y, och binafsharang gulli ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik [3: 503-505].

Qizig‘i, lug‘atda choypoya va choyxona so‘zlariga xitoycha+forscha ma’nosini bildiruvchi shartli qisqartmalar qo‘yilmagan. Vaholanki, poya va xona so‘zlari ham tilimizga forschadan o‘zlashgan.

Sharq xalqlarining o‘ziga xos an’analaridan biri choyxo‘rlik bo‘lib, ayrim iboralarning shakllanishi choy ichish marosimi bilan bog‘lanadi. Binobarin, yapon lingvomadaniyatidagi “hayotda bir marta bo‘ladi” ma’nosida qo‘llaniladigan ichigoichie XVI asrda yaponlarning choy ichish marosimidan kelib chiqqan. Uning zamirida inson hayotidagi har bir marosim bir marta bo‘ladi va u takrorlanmaydi, aniqrog‘i, choylashish bahona, diydor g‘animat, degan hikmat yotadi. Ibora odamlarga yangi tanishlar bilan uchrashish, narsalar va hayotning qadriga yetishni o‘rgatadi.

Ingliz tilidagi *tea and sympathy* (choy va hayrihohlik) qilish ma’nosini ifodalab, choyning ingliz madaniyatidagi alohida o‘rnini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida ham choy bilan bog‘liq iboralar mavjud: bir piyola choy ustida(dildan) suhbatlashmoq, kelinning qo‘lidan choy ichmoq (mehmon bo‘lmoq). Frazeologizmlarda choy so‘zi asosan mehmondorchilikka taklif qilish ma’nosida keladi.

O‘zbek xalqida choyxo‘rlik bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar ham talaygina. Masalan, choyni quyishdan avval uch marta qaytarish (bu choy ta’mining yaxshiroq chiqishi uchun); mehmonlarga piyolani to‘ldirib choy quymaslik (mehmon qanchalik obro‘li bo‘lsa piyolaga shuncha kam choy quyiladi, bu mehmonga xizmat qilish mezbon uchun malol kelmasligi ifodasi); o‘zbeklar xayotining ajralmas bo‘lagiga ajralgan joy – choyxona. Bu yer turli yig‘inlar, ovqatlanish uchun joy.

Xitoyliklarda ham choy bilan bog‘liq bir qator an’analar mavjud. Birgalikda choy ichish bu oila yoki jamoaning o‘ziga hos “jamlanma harakati”, bir piyola choyga taklif qilish esa turli vaziyatlarda xurmat, kechirim so‘rash, yarashishni iltimos qilish, namoyish, minnatdorchiliksifatida talqin qilinishi mumkin. An’anaga ko‘ra, bu paytda choyni yoshi yoki lavozimi kichik odamlar quyib berishlari kerak bo‘ladi.

Shuningdek, choy ichish uchun mo‘ljallangan idishlar ham turli xalqlarning o‘ziga xos madaniyatini o‘zida namoyon etadi. Bu idishlarda xalqlarning milliyligi aks etib turadi. O‘zbek xalqi azaldan choyni piyolada ichishni afzal biladi

Tilimizda xitoy tilidan o‘zlashgan, ammo ushbu lug‘atda keltirilmagan ba’zi so‘zlar ham mavjud. Quyida ularning ayrimlarini sanab o‘tamiz.

Say – turpdan 菜 (cai) tayyorlangan salat. Uyg‘ur tilida: 1) karam va qisman go‘sht aralashtirib tayyorlangan salat; 2) umuman ko‘katlardan tayyorlangan gazak. Yana qiyoslang, uyg‘ur tilida: sey samsa-ko‘k somsa; seyxana – sabzavot saqlanadigan ombor (xit. tsay-toj.xona).

Jusay – 韭菜 (jusai) xushbo`y, ovqatga soladigan va garnir tarzida iste’mol qilinadigan ko‘kat. Uyg‘ur tilida jusey – xushbo‘y piyoz.

Shiman – xamiri yupqa kesilgan lag‘mon. Uyg‘ur tilida shimen. Xitoycha Simyan (si-yupqa, myan-kesilgan xamir, ugra); manti – xamir orasiga g‘osht yoki qovoq solib tugib parda pishirilgan ovqat [Aliyev, Sodiqov, 1994: 31].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Manpar – 面片 (mianpian) xamirni tasmaga oʻxshatib kesilib, soʻng uzib shoʻrvasiga solib tayorlanadigan xamir ovqat turi [Aliyev, Sodiqov, 1994: 31].

Xoshan – xamir orasiga qiyma, qovoq, kartoshka solib, oʻrab yogʻda va baʼzan parda pishiriladigan ovqat turi [Aliyev, Sodiqov, 1994: 31-32].

Yuto – 油塔子 (yóu tǎzi(yu) yutoza xamirni yoyib, yogʻ surtib voronka shakliga keltirib, parda pishiriladigan ovqat. Uygʻur tilida jutoza, xitoycha yutaszi (yu – yogʻ, ta-baland, minora) [Aliyev, Sodiqov, 1994: 32].

Laza – 辣子 (làzǐ) yanchilgan garmdorini yogʻda qovurib tayyorlangan pasta. Uygʻur tilida laza – qizil garmdori. Xitoy tilida laszi [Aliyev, Sodiqov, 1994: 32].

Yuqoridagi soʻzlarning xitoy tilidagi asli bilan solishtirilganda ularda ham tovush, ham maʼno oʻzgarishlari boʻlganini kuzatish mumkin.

Qizigʻi shundaki, bu soʻzlarning baʼzilari tobora “oʻzbekchalashgan”. Ayniqsa, taom nomlarini anglatuvchi soʻzlar. Jumladan, bugun “Milliy taomlar” brendi ostida faoliyat yuritayotgan yemakxonalarda manti, lagʻmon, manpar kabilar oʻzbek milliy taomlari roʻyxatida turadi. Xonadonlarimizda ham mazkur ovqatlardan biri tayyorlansa, hech birimiz oʻzimizni xitoycha taom tanavvul qilayotgandek his etmaymiz. Albatta, bu hodisa nomi keltirilgan ovqatlarning tayyorlanish texnologiyasi ham oʻzgarib ketgani bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Ammo masalaning biz uchun muhim tomoni bugungi kunda ushbu taom nomlarining asli xitoychadan oʻzlashganini xayolimizga ham keltirmasligimizdadir. Shuningdek, ushbu soʻzlar asli turkiy soʻzlar kabi ularga shakl yasovchi (baʼzan soʻz yasovchi, masalan, mantichi, mantipaz kabi) qoʻshimchalarning muammosiz qoʻshilishi bilan bogʻliq jarayonlar ham kishi diqqatini tortadi.

Etimologik lugʻatlarda xitoy tilidan yigirmaga yaqin soʻzning oʻzbek tiliga oʻzlashganini koʻrish mumkin. Ahamiyatlisi, soʻz oʻzlashtirish jarayoni qadimgi turkiy til davridan to bugungi kungacha boʻlgan muddatni qamrab oladi. Xitoy tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlarning ayrimlari ancha qadim zamonlarga borib taqaladi. Xususan *altun* soʻzi (bu soʻz turkiycha *al* – qizil, xitoycha *tun* – mis soʻzlaridan yasalgan) qadimgi turkiy bitiglarda koʻp uchraydi. “Devoni lugʻati-t-turk”da xalq ogʻzaki ijodiga mansub maqollardan biri shunday: *Bar – baqïr, yoq – altun* (Maʼnosi: Bor – mis (qadrsiz), yoʻq – oltin (qadrli) [Devoni lugʻati-t-turk, 2017: 145]. Hozirgi xorazm shevasida *tuncha/tungcha* soʻzlari ishlatilib, misdan yasalgan choy qaynatiladigan kichikroq idish maʼnosini bildiradi [Aliyev, Sodiqov, 1994: 19]. Demak, mazkur soʻz faqat qoʻshma soʻz tarkibida emas, alohida holda ham turkiy tillarga begona emas. Eng qizigʻi, *tuncha/tungcha* soʻzining etimologiyasi aniqlashmaguncha kishi uni hozirda faqat shevaga xos sof oʻzbekcha leksik birlik sifatida biladi. Tilimizga xitoychadan oʻzlashgan bunday soʻzlar qatoriga *shoti* soʻzini ham kiritish mumkin. Narvon maʼnosini anglatuvchi ushbu soʻz ham faqat Fargʻona vodiysi shevalarida qoʻllanadi.

Shuningdek, tilimizda *oltin* soʻz bilan bogʻliq baʼzi chalkashliklar ham mavjud. Masalan, Oltin Oʻrda tarkibidagi oltin soʻzi metall nomi bilan aloqador boʻlmay, balki *oldingi, pastki, quyidagi, quyi* maʼnolarini anglatuvchi – sof turkiy *altin* soʻzidir. Ammo Oltin Oʻrda goʻyo *tilla* Oʻrda maʼnosini anglatgandek tuyuladi [Aliyev, Sodiqov, 1994: 19]. Ushbu soʻzning rustiliga qilingan tarjimasi (zolotaya orda) fikrimizni tasdiqlaydi. Aslida esa bu yerda *quyi Oʻrda* maʼnosi mavjud boʻlib, bunday nomlanish ushbu hududning tarixiy chegarasi Volga daryosi quyi qismida joylashgani bilan bogʻlanadi. Bu hodisa turkcha+xitoycha altun/oltin soʻzining sof

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

turkcha altin so‘zi bilan tilda yozilishi va talaffuzi birxilligi natijasida lisoniy tafakkurda yanglishish jarayonini yuzaga keltirganini anglatadi.

Umuman olganda, xitoy tili ijtimoiy-siyosiy, madaniy munosabatlar etkisida qadimgi turk va uyg‘ur xoqonliklari davrida turk o‘qimishli kishilari, zodagonlar orasida e’tiborli bir tilga aylangan edi [Sodiqov, 2020: 136]. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, turkiy tilga xitoy tilidan juda ko‘p so‘zlar o‘zlashtirilgan, ayrim hollarda diniy adabiyotlarning (budda muhitida yaratilgan) tarjimasi buni taqazo qilgan. Bugungi kunga kelib, ularning ancha qismi iste’moldan chiqqan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, choy qaynoq holda ichiladigan ichimlik turi bo‘libgina qolmay, balki universal ichimlikdir. Choy dunyo xalqlari hayotining muhim bir bo‘lagiga aylangan. Har bir xalqning o‘ziga xos choy ichish tarzi, madaniyati mavjud. Choy ichish rohatlanish yoki shifo istash jarayonidan san’at darajasiga ko‘tarilgan. Choy damlanadigan choynak va quyib ichishga mo‘ljallangan turli idishlar ham ularni ishlab chiqargan har bir xalqning milliyligini namoyish etib, tobora takomillashib bormoqda va bu jarayon ham san’at darajasida yuksalmoqda. Shu bois, asrlar davomida marosimlarida choy ichishning o‘zigina emas, uni qanday tartibda, qanday idishda ichish orqali ham xalqlarning madaniyati farqlanadi. Umuman olganda, choy milliylikdan umumbashariylikni aks ettiruvchi qadriyatga aylangan. Choy bilan bog‘liq marosimlar tilshunoslikda lingvomadaniy jarayonlarni o‘rganishdagi muhim hodisalar hisoblanadi.

Choy leksemasi tilimizda boshqa so‘zlar bilan qo‘shilib yoki affiksatsiya usuli bilan yangidan-yangi so‘zlar hosil qilgan. Ba’zi so‘zlar bilan qo‘shilib, turg‘un birikma holiga kelgan. Tabiiyki, bu jarayonlarning barchasi o‘zbek tili lug‘at boyligini ortishiga xizmat qiladi.

Har qanday tilga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ma’lum bir vaqt o‘tishi natijasida o‘z qatlam so‘zlaridek “ko‘rina boshlaydi”. Bizningcha, tildagi mazkur jarayonda o‘sha so‘zning shakl va ma’no jihati asl holida saqlanib qolishi yoki o‘zgarib ketishi muhimdir. Shuning uchun, ularning etimologiyasi haqida so‘z yuritganda nihoyatda ehtiyotkorlik lozim.

Tilimizga xitoy tilidan o‘zlashgan oziq-ovqat nomlari lingvomadaniy jarayon mahsuli sifatida ham ahamiyatlidir. Ular o‘zbek va xitoy xalqlari madaniy aloqalarining uzoq o‘tmishga borib taqalishidan darak beradi,

Foydalanilgan adabiyot

Komilova M. Choy so‘zining tarixi xususida // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. NamDU, 2023. – B. 249-253.

Komilova M. O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi // FarDU. Ilmiy xabarlar, 2022 №6 – B. 372-376.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II, IV tomlar. A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 493-b.

Xodjayev A., Karimova N. va boshq. O‘zbekiston – Xitoy munosabatlari tarixidan. – Toshkent: “Fan ziyosi”, 2022. – 216 b.

Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

Беруни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том IV. Фармакогнозия в медицине (Китаб ас-сайдана фи-т-тиб). – Ташкент: «Фан», 1973.

ISSN: 2181-0427

Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. –Тошкент: “Фан”, 1987. – Б.15.
Кошғарий Маҳмуд. Девони луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи: Қ. Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 145.
Маматова М. Чай и чайный путь в истори народов Узбекистана (I до н.э. – XXI в.). Диссертация доктора философии (PhD) по историческим наукам. – Карши, 2021.
Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент: Академнашр, 2020.
Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
Ўзбек тилининг форс-тожикча ўзлашмалар луғати. Нашрга тайёрловчилар: Исомиддинов Ф., Дусматов Х., Жамол Ж. – Фарғона, 2022.
Ҳожиев А., Муҳаммаджонова Г., Бегматов Э., Ғойибов С., Муллаев Т. ва Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси. Масъул муҳаррирлар: ф.ф.д., проф. А.Ҳожиев, ф.ф.н. А.Аҳмедов. – Тошкент: Фан, 1981.

AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY OCHERKNING MUSHTARAKLIGI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Iroda Nasimova, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada an’anaviy va zamonaviy ocherkning bir-biridan farqli va musharak jihatlari SWOT tahlili asosida ochib berilgan. Onlayn media materiallarda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan texnologik-ekspressiv vositalarning turlari e’lon qilingan materiallar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *an’anaviy ocherk, konvergent ocherk, gipermatnlilik, interaktivlik, sintetiklik.*

СООБЩНОСТЬ И УНИКАЛЬНОСТЬ ТРАДИЦИОННОГО И СОВРЕМЕННОГО ОЧЕРКА

Ирода Насимова, аспирант Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация: *В данной статье на основе SWOT-анализа раскрываются различия между традиционными и современными очерке. На основе опубликованных материалов проанализированы виды технико-выразительных средств, которые должны присутствовать в материалах интернет-СМИ.*

Ключевые слова: *традиционный эссе, конвергентный эссе, гипертекстуальность, интерактивность, синтез.*

COMMUNITY AND UNIQUENESS OF TRADITIONAL AND MODERN FEATURE ARTICLE

Iroda Nasimova, PhD student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Abstract: *In this article, the differences between traditional and modern feature article are revealed based on SWOT analysis. The types of technological-expressive tools that should be present in online media materials were analyzed based on published materials.*

Key words: *traditional feature article, convergent feature article, hypertextuality, interactivity, synthesis.*

Kirish va gipoteza

An'anaviy janrlarning internetdagi transformatsiyasi, internetning multimediaviy xususiyati haqida izlanish olib borgan rus olimlari A.A.Kalmыkov, L.A.Koxanovalarning fikricha, "an'anaviy ommaviy axborot vositalari internetni raqobatchi sifatida emas, balki o'sish imkoniyati sifatida ko'radi". [Kalmыkov A. A 2005].

Darhaqiqat, internet va kompyuter texnologiyalarning rivoji ommaviy axborot vositalarining ta'sir doirasini, istiqbolini yanada kengaytirdi. Onlayn jurnalistika an'anaviy jurnalistikaning barcha xususiyatlariga amal qilishni davom ettirgan holda, qo'shimcha: qisqalik, dolzarblik, ixchamlik va samaradorlik kabi yangi funksiyalar hisobiga boyidi. Shu bilan birga texnologik-ekspressiv vositalar orqali o'z imkoniyatlarini quyidagi darajada oshirdi:

gipermatnlilik – bu atama onlayn jurnalistika paydo bo'libdiki, mavjud. U veb muhitda matn ichida havolalar orqali izoh ko'shimcha ma'lumot, tushuntirish beradigan shakl bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish kontentni sifatli xabardorlikni ta'minlashga yordam beradi. O'quvchiga sodir bo'layotgan voqealarni yaxshiroq tushunishga undaydi. Gipermatn havolasi matn maydonini cheksiz ravishda kengaytirish mumkin. Gipermatnli havolalardan foydalanish "prooflinking" – ya'ni taqdim etilgan faktlarning haqiqiyligini isbotlash uchun ishonchli manbaga asos bo'lib xizmat qiladi.

multimediaviylik - vizual (matn, grafikalar) va dinamik ma'lumotlarni (nutq, musiqa, videokliplar, animatsiya va boshqalar) birlashtirgan kompyuter texnologiyasining maxsus turi bo'lib, bitta interfeys yoki boshqaruv yordamida taqdim etilishi mumkin bo'lgan komponentlardir [Chempen N. 2006].

Texnik vositalar orqali axborot uzatishga yordam beradigan, onlayn media kontekstida ma'lum bir resurslar orqali tashqi va ichki havolalardan iborat, auditoriyaga axborotni ekspressiv ta'sirini oshirib berishga xizmat qiladigan usul sanaladi.

interaktivlik – bu auditoriyaga axborotni individual va ko'ngilochar uslubda shakllantirishga yordam beradigan unsur bo'lib, har bir material muallifi multmedia mahsulotlari orqali yoki ma'lum bir tanlov chegaralari orqali interaktivlikdan foydalanadi. Interaktivlik ko'proq axborotni uzatish bilan bog'liq jarayon bo'lib, o'quvchilarning ma'lumotni tushunarli va qiziqarli shaklda qabul qilishga yordam beradi. Video, audioda alohida, infografikada alohida kombinatsiyaga kirishishi mumkin.

sintetiklik – bu xususiyat ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llaniladi [Antonova V. I.]. Boisi, veb materiallar tarkibi bir nechta janrlarning birlashuvi natijasida yanada yangi va murakkab janrlar palitrasi shakllanishiga yordam beradi. Ikkinchi tarafdan esa matn, ovoz, audio, video, statik suratlarni bir joyga birlashishi materialni salmog'ini yanada oshirishi mumkin.

Yuqoridagi xususiyatlar texnologiyalarning takomillashuvi bilan bog'liq jarayon bo'lib, hajmli, rang-barang, mazmunli materiallar uchun yaratish imkoniyatlarni oshiradi. Ammo bu degani an'anaviy janrlar yo'qolib ketadi degani emas, aksincha uni shakllantiruvchi vositalarning ko'payishi, tizimlashishiga yordam beradi.

ISSN: 2181-0427

Usullar va manbalar

Tadqiqotimizning ushbu eksperimental faslida an’anaviy publitsistik janrlardan ocherkni va ocherk xususiyatlarini o‘zida jamlagan zamonaviy onlayn formatidagi ocherklarni qiyosiy tahlilga tortamiz. Buning uchun avvalo ularni yozish va taqdim qilishda farqlarni SWOT tahlildan o‘tkazib olsak.

An’anaviy va konvergent ocherkning SWOT tahlili

Janr turi	S–kuchli tomonlari	W-kamchiliklari	O-imkoniyatlari	T – xavf-xatar
An’anaviy ocherk	badiiy-tasvir vositalaridan, so‘zni ifodalashda ekspressiv usullardan foydalanilishi; ocherkni yozib, uni taqdim qilish faqat muallifning o‘ziga bog‘ligi;	Ocherkka bo‘lgan auditoriyaning munosabatini bilmaslik; Uning to gazetaning keyingi sonigacha yoki ko‘rsatuvning kelasi sonigacha dolzarb bo‘lishi; Qahramonni ochib berish uchun multimediaviy komponentlardan kam foydalanilishi; Interaktiv uzatish imkoniyati yo‘qligi;	Gazetada e’lon qiligan ocherkdan internetdagi maxsus platformalardan foydalanib, yangi formatdagi material tayyorlash; Televidenie uchun tayrlangan ocherklardan keyinchalik arxiv materiali sifatida foydalanish; Bosma nashrda e’lon qilingan materialni o‘qiyotgan o‘quvchi o‘z taassurotlarini ishga solib o‘qishi va xotirasida uzoq muddat muhrlanishi;	Bosma OAVda e’lon qilqingan ocherklarning yana qayta o‘qish imkoniyatining pastligi; Gazeta va jurnallarni o‘qiydigan auditoriyaning kamligi;
OAV turi	S–kuchli tomonlari	W-kamchiliklari	O-imkoniyatlari	T–xavf-xatar
Zamonaviy konvergent ocherk	Ocherkni bir kishi emas, bir guruh muttaxassislar tomonidan tayyorlanishi; Xarakterni, ob’ektni yoki muammoni chuqur ochib berish uchun multimediaviy vositalardan foydalanilishi; Har safar internetdan	Internet tezligi past bo‘lgan hududda materialni barcha komponentlari bilan o‘qish murakkabligi; Bitta longridni tayyorlash uchun uzoq muddat tayyorgarlik ko‘rilishi; Muallifning universal	Auditoriyani materialning oxirgi qismigacha ushlab turish, e’tiborini tortish imkoniyatining mavjudligi; Materialda qandaydir xato bo‘lsa, uni tezda bartaraf etish mumkin; Material uzoq davriylikka ega	Arxivning o‘chib ketish ehtimoli bor; Internetning ham bir kun kelib butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi ham yo‘q emas.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

	foydalaniladigan platformalarning oxirgi versiyalarini ishlatish.	qobiliyatlarga ega bo‘lishi (tashkil qilish, ma’lumotlarni vizuallashtirish, montaj, kezi kelganda operatorlik qilishi) bu vazifalarni hamma birdek uddalay olmaydi.	bo‘lishi (katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlangani uchun auditoriya axborotga to‘yinadi);	

Zamonaviy konvergant ocherkni onlayn jurnalistikaning yangi janri deb ataydigan olimlar, multimedia komponentlarini uning asosiy xususiyati sifatida qabul qilmaydi. Ular hech qanday suratsiz, multimediaviy vositasiz uzatilganda ham agar izchillik batafsillik bo‘lsa, unda bu longriddir [Kotaeva A. R 2016]. Uning fikricha mavzuning tizimli ravishda o‘rganilganligi, uzoq muddat mobaynida ma’lumotlar manbalaridan foydalanganligi va mantiqqan bir yo‘nalishda integrallashishi ocherkka xos xususiyatdir.

Zamonaviy ocherk matnning tuzilishi multimedia platformalari orqali joylashtirilsa va mavzuni ochib berish uchun onlayn medianing interaktiv imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanilsa, shu janrning o‘zini universal jurnalistikaning yangi formati sifatida qabul qilish imkonini beradi.

Ma’lumki, an’anaviy publitsistikada har qanday ocherk asosiy uchta: ta’limiy, tarbiyaviy va kognitiv vazifani bajaradi. Ammo har bir publitsistik materialning vazifasi ocherkni qaysi turga mansub ekanligi bilan bevosita bog‘liq[Parxamenko I, 2016]. Ya’ni portret ocherkida hayotda mavjud bo‘lgan tipik obrazni ochib berish orqali qahramon auditoriyaga o‘rnak bo‘ladi va bevosita tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Yo‘l ocherki, safarnomalardagi fakt va dalillar, taassurotlar o‘quvchiga yangi ma’lumot beradi. Bu uning ma’rifiy xususiyatini namoyon etadi. Kognitiv vazifani jamiyatdagi illatlarni jonli misollar orqali ochib bergan, optimal yechimni taqdim etgan muammoli ocherklar bajaradi. Shunga qaramay ocherk turlariga nisbatan qarashlar har xil. Masalan, ayrim ocherknavislar ma’rifiy maqsadni ustuvor deb biladi. Ayrimlar esa, inson va jamiyat munosabatlarini sotsiolog, publitsist sifatida tadqiq qiladi. Jamiyatdagi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy munosabatlar shu jamiyat a’zolarining tiynatiga, xulq-atvoriga, ma’naviy-axloqiy olamiga, xatti-harakatlariga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini o‘rganib, bu borada kamchilik yoki xatolari bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘l izlashga ko‘maklashadi. Bunda publitsist insonning ma’naviy yuksalib borishini, uning o‘zi yashayotgan jamiyatga qarashini, munosabatini, ruhiy holat manzaralarini, bir jamiyatda yonma-yon yashayotgan insonlarning o‘zaro muloqot-munosabatlarini u yoki bu jihatdan tadqiq etishga intiladi [N. To‘shpo‘latova, 2019.]. Zamonaviy ocherklarda esa har bir materialda uchala vazifani ham bajarishga harakat qiladi.

Natijalar

An’anaviy va zamonaviy ocherkning bir-biridan farqini ajratish va mushtarakligini aniqlash uchun o‘zbek va jahon onlayn media maydonidagi bir qator materiallarni tahlil qildik. Ularda har bir material qaysi tashkiliy unsurlardan foydalanilganligi, materialni taqdim etish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

usullari, bezaklar (dizayn), og‘zaki va media elementlarning kombinatsiyasi va boshqa xususiyatlar o‘rganildi. Shulardan namuna sifatida ikki turdagi OAVdan portret ocherklarni quyidagi reja:

- OAV haqida qisqacha ma’lumot;
- material mavzusi va qisqacha mazmuni;
- tarkibi nimalardan iborat ekani;
- multimedia elementlarining turi;
- bezak (dizayn)xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilamiz.

Dastlab “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan “Tuyg‘ulardan hofizga aylangan ko‘ngil” sarlavhali portret ocherkini ko‘rib chiqdik.

OAV haqida qisqacha ma’lumot. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” ijtimoiy-adabiy gazetasi – 1956 yilning 4-yanvarida tashkil etilgan bo‘lib, asosan mamlakatda sodir bo‘lgan adabiyot, san’at, madaniyat sohasidagi mavzularni yoritishga ixtisoslashgan. Shuningdek, unda xanuzgacha badiiy publitsistikaning eng kamyob janrlari e’lon qilinadi.

Material mavzusi va mazmuni: Portret ocherkda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Oybekning turmush o‘rtog‘i Zarifa Saidnosirova ijodi sinchiklab o‘rganilgan va adibaning tiynati, o‘y-kechinmalari, ijodiy portreti tasvirlangan. Adibaning ijodini ochib berish uchun uning yon daftaridagi 1917 yildan 1980 yilgacha yozgan qoralamalaridan tortib, nashr etilgan kitoblarigacha tadqiq etilgan. Muallif Iqbol Qo‘shshaeva qahramon ijodini, hayot yo‘lini tiniq tasvirlaydi.

Portret ocherk tarkibi: Ocherk 2400 so‘zdan iborat bo‘lib, mavzuni chuqur ochib berish uchun Oybek va Zarifaning she’rlaridan, asarlaridan 14 ga yaqin iqtiboslar keltirilgan.

Multimedia elementlarining turi: Maqola matbuot orqali e’lon qilingan va unda 2 ta tarixiy-hujjatli suratdan foydalanilgan.

Zamonaviy ocherkka misol qilib “pikchfort.com” internet nashrida 2021 yilda e’lon qilingan – “Zulmat ichida porlash” – (“The Glitter in the dark”) [16] materialini tahlil qildik.

OAV haqida qisqacha ma’lumot. “pikchfort.com” – avvalgi nomi “pitchfort media”, 1995 yilda yozuvchi Rayan Shrayber tomonidan mustaqil musiqiy blog sifatida ochilgan Amerika onlayn musiqa nashri. Sayt yangi musiqalarga sharhlar berishdan tashqari klassik janrdagi musiqa asarlariga ham retrospektiv sharhlar berib boradi. Musiqachilar hayoti va ijodiga oid juda ko‘p zamonaviy portret cherklarni e’lon qilib boradi.

Material mavzusi va mazmuni: Natasha Xan ismli xonanda va musiqachining zulmatdagi hayoti muallif va qahramon tilidan yoritiladi. Mazmunga mos shakl ocherk qahramoni Natasha Xanning animatsion usulda terilgan suratlari orqali o‘zgarib boradi. Portret ocherkiga xos bo‘lgan badiiy tasvir usullari kirishdan boshlagan. Qahramonning bolalik yillari o‘tgan va voyaga yetgan manzillarga alohida urg‘u beriladi. Ilk muvaffaqiyat olib kelgan qo‘shiqlardan tortib, ijodiy depressiyaga tushgan davrlar, sara musiqalarning dunyoga kelish tarixi izchil ochib beriladi. Qahramon fikrlarini iqtibos shaklida keltiriladi.

Portret ocherk tarkibi: Material 3100 dan ortiq so‘zdan iborat bo‘lib, bu katta hajmni tashkil etadi. Ammo bu matnlarni to‘g‘ri joylashuvi, suratlarning o‘zgarishi uchun sichqonchaning bitta buralishi yetarli bo‘lishi auditoriyani zeriktirmaydi.

Multimedia elementlarining turi: Mazkur portret ocherkda voqealar ketma-ketligi, qahramonning ruhiy holati, kayfiyati, uning suratlari, kiyimlari orqali ko‘rsatib berilgan. Portret

[16] Cover Story: Bat for Lashes | Features | Pitchfork

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ocherk to‘rt qismga bo‘lingan. Har bir qism veb sahifada alohida iqtibos orqali ajratilgan. Animatsiya yasash uchun 74 ta rasmdan foydalanilgan. Alohida veb-sahifada joylashgan. Qahramonning ruhiy holati suratlarda, qiyinchiliklari oq-qora ranglarda oddiy va tushunarli berilgan. Matn shrifti mayda bo‘lishiga qaramasdan o‘quvchini charchatmaydi.

Xulosa

Tahlillar jarayonida an’anaviy va zamonaviy portret ocherkning shakl va mazmuni, ifoda usullari bir-biriga to‘la mos kelishiga guvoh bo‘ldik. Faqat ocherkning o‘quvchi e’tiboriga havola qilishda, farqlar mavjud. Ya’ni, an’anaviy portret ocherki asosan, so‘z, matn orqali uzatilsa, zamonaviy portret ocherkida ta’sir va tasvir funksiyasini so‘z bilan birga onlayn mediada auditoriya e’tiborini tortadigan komponentlar (tasvir, ovoz, animatsion usullar) bilan to‘ldiriladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har qanday matnga foto yoki video aralashtirilsa multimediaviy publitsistik asar bo‘lavermaydi. Avvalo publitsistik asarda mavzusi to‘g‘ri tanlanganligi, kompozitsiyaning puxta ishlab chiqilganligi, unda qo‘llaniladigan fakt va dalillar, hujjatlarning mantiqiy bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchini sezirlarli ravishda ta’sirlantirish, uzun materialni o‘qishga undash uchun ocherkda ishlatilgan har bir komponent bir chiziqda birlashishi maqsadga muvofiqdir. Fotoga mos video, videoga fon, fonga mos musiqa – hammasi bir-biri bilan zanjir bo‘lib bog‘langandagina uni onlayn auditoriya talabiga mos deyish mumkin. Xulosa sifatida aytish mumkinki, onlayn medianing mulmediaviy loyihalariga qidiruv bersangiz, tayyorlanganiga bir necha yil bo‘lganiga qaramay, o‘z dolzarbligini, individual uslubini yo‘qotmagan publitsistik asarlarni ko‘p uchratish mumkin. Ularning nafaqat mavzusi, balki foydalanilgan dizayn uslubi, interaktivligi ham eskirmagan.

Foydalanildan adabiyotlar ro‘yxati

1. Калмыков А. А., Коханова Л. А. Интернет-журналистика. М.: Юнити-дана, 2005. С. 112.
2. Чемпен Н., Чепмен Д. Цифровые технологии мультимедиа. 2-е изд.: пер. с анг. М., 2006. С. 26.
3. Антонова В. И. Трансформация типологической и жанровой систем в современной журналистике: по материалам печатных изданий Поволжского региона: автореф. дис. Казань: Казан. гос. ун-т. 2006. С. 177.
4. Пархаменко И.В. Очерк в жанровой системе печатных и электронных средств массовой информации. Диссер.канд. филол.наук. – С.:2016. – С.70.
5. Тошпўлатова Н. Шарҳ ва маҳорат. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари, В жилд. “Ўзбекистон”. – Т.: 2019.
6. Иванова Людмила Викторовна. “Жанры и форматы мультимедийной журналистики как учебная дисциплина и методическая проблема” Челябинский гуманитарий, no. 4 (53), 2020, pp. 97-104.
7. Мельник Г.С. Процесс жанрообразования в журналистике и литературе: аналогии и различия//Жанры в журналистском творчестве: мат. науч.-практ. сем. «Современная периодическая печать в контексте коммуникативных процессов» (19 марта 2013) / отв. ред. Б. Я. Мисонжников. СПб.: СПбГУ, 2004. С. 31.
8. Николаева А.Н. “Речевые жанры как новый формат текстовой журналистики”. Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика, no. 6, 2010, pp. 30-35.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

9. Николаева А.Н. “Речевые жанры как новый формат текстовой журналистики”. Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика, no. 6, 2010, pp. 30-35.
10. Toshpo‘latova N. Sharh va mahorat. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari, V jild. “O‘zbekiston”. – T.: 2019.
11. Rossiter M. Narrative and Stories in Adult Teaching and Learning // ERIC Digest, 2002. P. 38.

DUNYONI KONSEPTUALLASHTIRISHNING LINGVISTIK FORMATI

Karimova Zulfiya Odiljonovna-Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Dunyoning lingvistik tasviri nazariyasi – zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning eng ko‘p o‘rganilayotgan muammolaridan biridir. Bu sohada hal etilmagan muammolar va bir-biriga zid qarashlar ko‘p. Nazariyaning millat dunyosining lingvistik tasvirini o‘rganishga bag‘ishlangan qismi eng ziddiyatli, chunki uni o‘rganish mavzusi dunyoning individual lingvistik tasvirini, masalan, yozuvchini o‘rganishga qaraganda ancha nisbiy va noaniqdir.*

Kalit so‘zlar: *konsept, dunyoning konseptualizatsiyasi, toifalash, timsollashtirish, tafakkur va til, dunyoning lingvistik tasviri.*

ЯЗЫКОВОЙ ФОРМАТ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ МИРА

Каримова Зулфия Одилжановна- Преподаватель Джизакского Государсвенного Педагогического Университета

Аннотация: *Теория языковой картины мира – одна из самых изучаемых проблем современной лингвокультурологии. В этой области много нерешённых вопросов и противоречащих друг другу точек зрения. Та часть теории, которая посвящена изучению языковой картины мира нации, наиболее противоречива, поскольку предмет её изучения более относителен и неоднозначен, чем в случае с изучением индивидуальной языковой картины мира, например, писателя.*

Ключевые слова: *концепт, концептуализация мира, категоризация, символизация, мышление и язык, языковая картина мира.*

LANGUAGE FORMAT FOR CONCEPTUALIZING THE WORLD

Karimova Zulfiya Odiljanovna-Teacher Jizzakh state Pedagogical University

Abstract: *The theory of the linguistic picture of the world is one of the most studied problems of modern linguoculturology. There are many unresolved issues and conflicting points of view in this area. The part of the theory that is devoted to the study of the linguistic picture of the world of the nation is the most controversial, since the subject of its study is more relative and ambiguous than in the case of studying an individual linguistic picture of the world, for example, a writer.*

Keywords: *concept, conceptualization of the world, categorization, symbolization, thinking and language, linguistic picture of the world.*

Olamning konseptuallashuvi va toifalanishi gumanitar bilimlarning zamonaviy lingvokognitiv paradigmasining asosiy tushunchalari sifatida namoyon buladi [Demyankov

1994; Bulыgina, Shmelev 1997; Boldыrev 2004 i dr.]. Bu ikki kognitiv, mental jarayonlar o‘z bilan umumiy bilish jarayonining ketma-ket bosqichlari – insonning atrofdagi dunyoni tushunishini namoyon etadi [Raxilina 1998; Kubryakova 2004; Rudakova 2004; Radbil 2016 i dr.]. Konseptuallashtirish jarayonida insonning atrof-muhitni idrok etishining diskret tajribasini mavhumlashtiradigan va umumlashtiruvchi dunyo haqidagi alohida “bilim kvantlari” shakllanadi [Tokarev 2003: 17]. So‘ngra toifalashtirish bosqichida olingan konseptlar ularda mavjud umumiy va farqlovchi alomatlar asosida sinflar va toifalarga taqsimlanadi.

Tashqi dunyodan keladigan ma’lumotlar oqimini tushunish sifatida konseptuallashtirish faqat **timsollashtirish** mexanizmining ta’siri, ya’ni belgilarni qo‘llash orqali mumkin, ular inson aqliy faoliyat jarayonlarini ob’ektivlashtiradi va unga axborot almashinuvi, ya’ni aloqa jarayonida ularni boshqa odamlarga taqdim etish imkonini beradi. Shuning uchun konseptlashtirish semiozning har qanday sohasida, ya’ni belgilar va timsollar paydo bo‘ladigan har qanday sohada bo‘lishi mumkin [Losev 1982; Mechkovskaya 2004], ya’ni u har qanday ikkilamchi belgilar tizimi muhitida amalga oshirilishi mumkin va shunga ko‘ra, u badiiy, ilmiy, diniy, mifologik, kundalik va boshqalar bo‘lishi mumkin [Rol chelovecheskogo faktora v yazыke 1988; KSKT 1996].

Biroq bazaviy, birlamchi belgili tizim bo‘lib asl til hisoblanadi. Boshqa tizimlardan farqli o‘laroq, universallikka ega bo‘lib va istisnosiz barcha turdagi faoliyatga munosabat bilan til tizimi dunyoda inson tomonidan aniqlangan elementlar to‘plamini va ularning aloqalarini eng to‘liq o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun konseptuallashtirishning asosiy turi dunyoning lingvistik konseptuallashtirishi deb hisoblanishi kerak.

Shu tariqa, har qanday belgi tizimi, shu jumladan til ham, mohiyatan dunyoni bo‘lish, konseptuallashtirish, toifalashtirish natijasi hisoblanadi. Shuning uchun ham dunyoni bilish va tushunish orqali uning konseptuallashitirishini tushunish lozim. Inson uchun bilimning yagona shakli – voqelikni “javon”ga “taxlash” hisoblanadi. Birlamchi tajribani bilimga aylantirish uchun odam uni soddalashtiradi, tizimlashtiradi, ziddiyatlarni yagona sxemaga “moslashtirishga” harakat qilib, ularni yo‘q qiladi. Biz ko‘pincha dunyo haqidagi individual bilimlarni qarama-qarshiliklar qatoriga joylashtiramiz, ya’ni biz uni sxemaga tuzamiz. Biz haqiqatni yozishni osonlashtirish uchun qog‘oz varag‘ini chizganimizdek, unda harakat qilishni qulayroq qilish uchun ajratamiz. Haqiqatni konseptual bo‘linish orqali bilish natijasida, biz dunyoni dialektikadan mahrum qilamiz, lekin uni tushunarli qilamiz. Bundan tashqari, bu bilimning barcha darajalarida sodir bo‘ladi - kundalik g‘oyalar yoki ilmiy bilimlar (aftidan, bilim qanchalik ko‘p ilmiylikka da’vo qilsa, unda cheklangan deb hisoblash mumkin bo‘lgan sxematizm ko‘proq uchraydi).

Dunyoni konseptuallashtirishning lingvistik formatining o‘ziga xosligi shundaki, u inson tomonidan to‘liq anglab yetilmaydi, qo‘shimcha mantiqiy darajada, asosan to‘la anglab yetmagan ravishda amalga oshiriladi. K.G.Yung bunday hodisaga “jamoaviy to‘liq anglab yetmaslik” ta’rif beradi; K.Levi-Stross ma’lum bir yagona “ong tarmog‘i” mavjudligi haqida gapiradi, u munosabatlar darajasida korrelyatsiya qiluvchi inson faoliyatining barcha turlarini birlashtiradi – [FES 1983; FES 2003; KSFT 2006] bo‘yicha keltiriladi. Bu davrning ko‘pgina ta’limotlari ongning o‘ziga kirib borishga, fikrning yakuniy asoslarini yorib o‘tishga, ongni yengish yoki shunchaki uning mexanizmini (fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm, psixoanaliz, strukturalizm va san’atdagi modernizmning barcha yo‘nalishlari) tushunishga urinish bilan bog‘liq. Ammo bu inson ongida (yoki undan tashqarida) konkret ongning o‘zidan mustaqil ravishda shakllangan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va dunyo haqidagi o‘z (nisbatan aytganda - o‘ziniki) hukmlarimizni oldindan belgilab beradigan ma’lum bir qatlam mavjudligiga yakuniy ishonchdan boshqa narsaga olib kelmaydi. Bu qatlam inson tomonidan anglanmaydi va uni boshqarish mumkin emas. Uning o‘zi ma’lum bir jamiyatda tarixan shakllangan dunyo qiyofasining merosini ifodalaydi. Haqiqatning har qanday alohida anglanishi o‘zgarmas umumiy paradigmaning proeksiyasidir. Inson o‘ziga meros qolgan til, madaniyat va barcha narsalar loyihasi doirasida o‘zini topadi.

Dunyoni lingvistik konseptuallashtirish konsepsiyasi faqat bizning davrimizda mustaqil o‘rganish predmetiga aylanganiga qaramasdan, voqelik va uni idrok etish o‘rtasidagi nomuvofiqlik g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan. Dunyoning til orqali vositachilik muammosi qadimgi mutafakkirlar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan. Tildagi odamga ongning bevosita in’omi har doim bizni, agar tilning ongga ta’siri haqida bo‘lmasa, hech bo‘lmaganda dunyoning tilda aks etish tabiati haqida o‘ylashga majbur qilgan: “ko‘pincha ishlatiladigan “haqiqat” tushunchasi endi ontologik voqelik emas, balki aslida inson faqat til orqali ifodalashi mumkin bo‘lgan narsadir: inson til yordamida tabiatdan ajratib olgan yoki ijodkorlik bilan yaratgan va ularga nom bergan mavjud va mavjud bo‘lmagan, soxta va xayoliy narsalar, tushunchalar, g‘oyalar sinflari...” [Inson omilining roli 1988: 114].

Aristotel ham o‘z davrida tilga kirish orqali umumiylikni bilish masalasini qo‘ygan: abstraksiya qobiliyati – insonning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u til orqali amalga oshiriladi. Biroq, agar til birinchi navbatda aniq ob’ektlarni nomlasa, mavhumlik qobiliyati qaerdan boshlanishini tushunish mumkin emas. Aristotel umumbashariy bilimlarni egallash jarayonini yugurayotgan qo‘shinni to‘xtatish bilan taqqoslaydi: to‘xtash qaysi daqiqada sodir bo‘lishini aniqlash mumkin emas. Shuningdek, qaysi vaqtda mavhumlik paydo bo‘ladi va dunyo haqidagi ob’ektiv bilimlar umumlashtirilishini tushunish mumkin emas. Ammo bu har qanday holatda ham til tomonidan amalga oshiriladigan jarayon (bunda til va tafakkur antik faylasuflar tomonidan ajratilmagan). Idrok etish – bu narsalarni umumlashtirish, muayyan toifalarni aniqlash, ular bo‘yicha ob’ektiv dunyo ob’ektlari taqsimlanadi [FES 2003].

O‘rta asrlarda dunyoni til orqali vositachilik qilish muammosi nominalistlar va realistlar o‘rtasidagi tushunchaning real dunyo bilan aloqasi haqidagi bahsida ko‘tariladi. Bu bahsning predmeti dunyoning tilda aks etishi emas, balki dunyoning o‘zining mohiyati hisoblanadi: u dastlab moddiy yoki idealdir. Va bu masalaning yechimiga muvofiq, so‘zlar mustaqil narsalarning tasodifiy nomlari yoki mustaqil ravishda mavjud tushunchalarni aks ettiradi. Har holda, til narsalarning tabiatini (tasodifiy yoki tasodifiy bo‘lmagan nomlar bilan) aks ettiradi - ularni inson tomonidan idrok etilishidan qat’i nazar: talabdan kelib chiqib, til dunyo bilan bir xil. Konseptualizmda muammo yangicha hal qilinadi. P.Abelyar *konsept* tushunchasidan narsaning inson ongida g‘oya yoki tasvirini ifodalash uchun foydalanadi. Bu dunyoni tilda aks ettirish mexanizmining umuman boshqacha tasavvuri. Konsept voqelikka bevosita aloqador emas: u ongda shakllangan va mavjud bo‘lgan obrazdir. Konseptni tavsiflab, Abelyar nutqqa nisbatan uning ikkilamchi tabiati haqidagi fikrga keladi. Konsept tilning boshqa tomonida turadi, unda yaratiladi [Abelyar 1992].

Tilga dunyoni ongda yaratish akti va izchil tafakkurga nisbatan birlamchi mohiyat sifatida yondashish birinchi marta XIX-asrda V. fon Gumboldt tomonidan taklif qilingan. XX-XXI-asrlar tilshunosligi, shu davrning barcha fan va falsafiy tafakkuri kabi dunyoga antropologik yondashuv bilan tavsiflanadi. Bu yondashuv inson ongi nafaqat dunyoni bilish vositasi, balki bu bilish uchun o‘ziga xos shablon ekanligini aniqlagan ko‘plab kashfiyotlar bilan shartlangan. V.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

fon Gumboldtning til falsafasi, boshqa kashfiyotlar qatorida, inson ongi erkinligi yo‘qligini yaqqol ko‘rsatdi. Nemis tilshunosi nafaqat til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik muammosiga to‘xtalibgina qolmay (qadimgi faylasuflar ham bu haqda yozgan), balki uni til fanining markaziga qo‘ygan. Shu nuqtai nazardan u tilni rivojlantirish muammosini ham (bunda til so‘zlovchilarida ijodiy ruh mavjud ekan, til mavjud deb hisoblagan I.Gerder undan oldin bo‘lgan), til va nutq o‘rtasidagi farq muammosini ham, til shakli va uning materiali masalasini ham ko‘rib chiqdi.

Uning ta’limotining asosiy g‘oyasi, *birinchidan*, fikrlash va til o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomonlama emas: til ongga ta’sir qiladi, uni dunyoni o‘ziga xos tushunchalarda ko‘rishga majbur qiladi. V.fon Gumboldt tilni inson ongida hukmronlik qiluvchi, o‘z diktatini o‘rnatuvchi hodisa deb hisoblagan. Til dunyoni unda mavjud bo‘lgan toifalar bo‘yicha ko‘rishga majbur qiladi, inson atrofidagi “davra” ni belgilaydi, uni esa faqatgina boshqa til “doirasi”da bo‘lgandagina tark etish mumkin. *Ikkinchidan*, til nafaqat insonning dunyoga qarashini, balki ma’lum bir xalqning “ruhi” tomonidan ta’kidlangan nuqtai nazarni o‘zida mujassam etadi. Tillar nafaqat tizimli xususiyatlari va o‘ziga xos birliklari bilan tubdan farq qiladi, balki ularning har biri ma’lum bir xalqning ruhiga mos keladigan dunyoning o‘ziga xos qiyofasini beradi [Gumboldt 1984].

XX asrda falsafiy va lingvistik neo-gumboldtchilik doirasida evropalik olimlar ushbu g‘oyalarni ishlab chiqdilar, ular, masalan, faylasuf G.G.Gadamerning ta’limotida o‘z aksini topdi: “Til haqidagi har bir mulohaza qayta-qayta til bilan qamrab olinadi. Biz faqat tilda fikr yurita olamiz va aynan bu tildagi tafakkurimizning mavjudligi til tafakkurga qo‘yadigan chuqur jumboqdir” [Gadamer 1997: 135–136]. Faylasufning fikricha, odam hech qachon “tilsiz holatda” bo‘lmaydi: Ko‘proq, dunyo va o‘zimizni bilishimizda biz doimo til bilan qoplanganmiz, u o‘zimizniki hisoblanadi” [o‘sha yerda, 136]. Neo-gumboldtchilikka ham moyil bo‘lgan nemis olimi V. fon Vartburgning fikricha, “ular faqat tilni o‘zlashtirish haqida gapirishadi; aslida til insonning egasidir” – iqtibos [SLTA 2000: 53].

Inson ongidagi voqelikni tizimlashtirish haqidagi tasavvuri XX-asrning 20-yillarida yangi ilmiy yo‘nalish – semiotikada mujassamlashadi. U aqliy dunyoning har qanday sohasi inson uchun belgilar tizimi sifatida mavjud degan fikrga asoslanadi, uning yordamida odam o‘zini unga yo‘naltiradi. Inson ongida faqat dunyoning tasviri, dunyo modeli mavjud bo‘lishi mumkin. Belgilarga oid mohiyat barcha madaniy hodisalarni, shu jumladan tilni ham qamrab oladi. Belgililik dunyoni muhim qismlarga bo‘lishdan iborat, nisbatan aytganda – inson ongida ma’lum bir aks ettirishga ega bo‘lgan birliklar. Ongdagi tasvirning timsol bilan birligi haqiqatda belgidir [Losev 1982; Lotman 1994; Uspenskiy 1996; Mechkovskaya 2004].

Dunyoni lingvistik konseptuallashtirish muammosi ko‘plab ilmiy yo‘nalishlarni keltirib chiqaruvchi zamonaviy tilshunoslik uchun juda muhim bo‘lib, ular inson faoliyatining til bilan shartlanishiga turli tomonlardan yondashadi. Bu bilish jarayonlarida lingvistik shartlanishni topadigan kognitiv tilshunoslik; shuningdek, milliy o‘zlikni til bilan bog‘lovchi lingvokulturologiya va etnolingvistika. Bu yo‘nalishlarning barchasi inson ongining tilda bevosita aks etish pozitsiyasiga tayanadi va V. fon Gumboldt chaqirganidek, tildagi madaniy jihatdan aniqlangan ma’lumotlarni o‘rganishga qaratilgan: “Tilni muloqot vositasi sifatida emas, balki o‘z-o‘zidan maqsad, odamlarning fikr va his-tuyg‘ularining quroli sifatida ko‘rib chiqish haqiqiy lingvistik tadqiqotlarning asosidir, undan tilni boshqa har qanday o‘rganish, u qanchalik puxta bo‘lmasin, mohiyatiga ko‘ra faqat uzoqlashtiradi” [Gumboldt 1984: 197].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Milliy tilning birligi odamlar o‘rtasidagi tushunishni ta’minlamaydi, biroq, tushunishning eng muhim muammolari turli milliy tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasida yuzaga keladi. Bunda chet tilini bilish faqat bir qarashda bu qarama-qarshilikni hal qiladi, lekin turli xil ona tillariga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi tushunish muammosini hal qilmaydi. Turli dialektlardagi ma’ruzachilar yoki jargonda gapiradigan va gapirmaydigan suhbatdoshlar o‘rtasidagi tushunishga erishish osonroq. Gap shundaki, ularning tillari o‘rtasidagi tafovutlar, odatda, hatto til grammatikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmasdan, ba’zi bir o‘ziga xos leksik shakllanishlarga (dialektizmlar, jargon va boshqa lug‘atlar adabiy me’yordan tashqari) kelib chiqadi. Barcha farqlar, Gumboldt terminologiyasini ishlatadigan bo‘lsak, ichki shaklga ta’sir qilmasdan, tilning tashqi shaklida to‘xtaydi. (Shaxs tili nafaqat mafkuraviy, balki umuman mafkuraviy tajribaning natijasi bo‘lgan yanada murakkab xususiyatlarga ega.)

Milliy tillar o‘rtasidagi farq, avvalam bor, ichki shaklda yashiringan [Gumboldt 1984], ya’ni tilda so‘zlashuvchilar uchun ongsiz bo‘lgan dunyoni milliy aniqlangan lingvistik konseptuallashtirish tamoyillarida, tilning tashqi shakli bilan bir xil tarzda tarjima qilib bo‘lmaydi. Shu tarıya, dunyoni konseptuallashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalam bor, milliy til materialiga asoslanib ko‘rib chiqilishi kerak: har bir asl til dunyoni idrok etishning ma’lum bir usulini aks ettiradi, bu barcha tilda so‘zlashuvchilar uchun majburiydir. Dunyoni etnik guruh tilida tushunish tizimli va yaxlit xarakterga ega, u etnik guruhning o‘ziga xos “sodda” falsafasini ifodalaydi, har bir til o‘ziga xos xususiyatga ega [Apresyan, 1986: 5-33].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Роль человеческого фактора в языке 1988 — Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира: Кол. мон. [Текст] / Отв.ред. Б.А. Серебренников. – М.: Наука, 1988. — 216 с.
2. Человеческий фактор 1992 – Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис: Кол. мон. [Текст] - М.: Наука, 1992. — 281 с.
3. Апресян 1995а – Апресян, Ю.Д. Избранные труды. – Т.1. Лексическая семантика [Текст] / Ю.Д. Апресян. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 472с.
4. Апресян 1995б – Апресян, Ю.Д. Избранные труды. – Т.2. Интегральное описание языка [Текст] / Ю.Д. Апресян. – М.: Языки русской культуры, 1995. — 766с.
5. Болдырев 1998 – Болдырев, Н.Н. Категоризация событий и специфика национального сознания [Текст] / Н.Н. Болдырев // Язык и национальное сознание: Сб. статей. – Вып. 1. – Воронеж: Истоки, 1998. – С. 29-30.
6. Болдырев 2001 – Болдырев, Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии: Учебное пособие [Текст] / Н.Н. Болдырев. – Тамбов: ТГУ, 2001. – 124с.
7. Болдырев 2004 – Болдырев, Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики [Текст] / Н.Н. Болдырев // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2004. – №1. – С. 18-39.
8. Горшкова, Ручина 2011 – Горшкова, Т.М., Ручина, Л.И. Словарь комбинированного типа как способ лексикографического описания концептосферы русской народной сказки [Текст] / Т.М. Горшкова, Л.И. Ручина// Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. – 2011. – № 6-2. – С. 130-135.
9. Гумбольдт 1984 – Гумбольдт, В. фон. Избранные труды по языкознанию [Текст] / В. фон Гумбольдт; Пер. с нем. под ред. и с пред. Г.В. Рамишвили. – М: Наука, 1984. – 398 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

10. Демьянков 1994 – Демьянков, В.З. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода [Текст] / В.З. Демьянков // Вопросы языкознания. – 1994. – № 4. – С. 17-33.
11. Радбиль 2016 – Радбиль, Т.Б. Основы изучения языкового менталитета: учеб. пособие. – изд. 4-е, стереотипн. [Текст] / Т.Б. Радбиль. – М.: Флинта: Наука, 2016. – 328 с.
12. Рахилина 1989 – Рахилина, Е.В. О концептуальном анализе в лексикографии А. Вежбицкой [Текст] / Е.В. Рахилина // Язык и когнитивная деятельность / Отв. ред. Фрумкина Р.М. — М.: Наука, 1989. – С. 46 – 51.
13. Рудакова 2004 – Рудакова, А.В. Когнитология и когнитивная лингвистика [Текст] / А.В. Рудакова; Под. ред. И.А. Стернина. – Изд. 2-е, испр. / А.В. Рудакова. – Воронеж: Истоки, 2004.– 80 с.
14. Токарев 2003 – Токарев, Г.В. Концепт как объект лингвокультурологии (на материале репрезентаций концепта «труд» в русском языке) [Текст] / Г.В. Токарев. – Волгоград: «Перемена», 2003.– 314 с.
15. Лосев 1982 – Лосев, А.Ф. Знак. Символ. Миф: Труды по языкознанию [Текст] / А.Ф. Лосев. – М.: Изд-во МГУ, 1982. – 480 с.
16. Мечковская 2004 – Мечковская, Н.Б. Семиотика: Язык. Природа. Культура: Курс лекций [Текст] / Н.Б. Мечковская. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 432 с.
17. Лотман 1994 – Лотман, Ю.М. Беседы о русской культуре. Быт и традиции русского дворянства (ХВИИИ – начало ХИХ века) [Текст] / Ю.М. Лотман. – СПб.: Искусство, 1994. – 413 с.
18. Успенский 1996 – Успенский, Б.А. Избранные труды, том И. Семиотика истории. Семиотика культуры. – 2-е изд., испр. и доп. [Текст] / Б.А. Успенский. — М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 608 с.
19. Успенский 2007 – Успенский, Б.А. Эго Локуенс: Язык и коммуникационное пространство [Текст] / Б.А. Успенский. – М.: РГГУ, 2007. – 320 с.
20. СЛТА 2010 — Ахманова, О.С. Словарь лингвистических терминов [Текст] / О.С. Ахманова. – Изд. 5-е. – М.: Изд-во Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2010. – 576 с.
21. ФЭС 2003 — Философский энциклопедический словарь [Текст] / Ред.-сост. Е.Ф. Губский, Г.В. Кораблева, В.А. Лутченко. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 576 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

GAPNING MAZMUNIY TUZILISHI VA TRANSFORMATSIYA

Feruza Uralovna Jumayeva-Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)

Annotsiya. *Ushbu maqolada so'zning ma'no tarkibi, uning gap qurilishida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Gap bo'laklarining darajalanishiga asos bo'luvchi ema, sema, semema, ma'no, mazmunning tarkibi o'rganilgan. Gap bo'laklari tahliliga geshtalt asosida yondashilgan. Gapning mazmuniy tuzilishi va transformatsiyani o'rganishda til, tafakkur, tasavvur bog'liqligiga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlari: *Ema, sema, semema, ma'no, mazmun, gap bo'laklari, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, gap, yadro gap, transformatsiyani, til, tafakkur, tasavvur.*

СТРУКТУРА СОДЕРЖАНИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Феруза Ураловна Джумаева-Джизакский государственный педагогический университет, доцент, (PhD)

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение слова и его роль в построении предложения. Изучены эма, сема, семема, значение, содержание, являющиеся основой классификации частей предложения. К анализу речевых фрагментов подходили на основе гештальта. При изучении смысловой структуры и трансформации предложения обращают внимание на связь языка, мышления и воображения.*

Ключевые слова: *Эма, сема, семема, значение, содержание, части речи, име, причастие, наполнитель, определитель, падеж, предложение, ядро предложения, трансформация, язык, мышление, воображение.*

CONTENT STRUCTURE AND TRANSFORMATION OF THE SENTENCE

Feruza Uralovna Jumayeva-Jizzakh State Pedagogical University Associate Professor, (PhD)

Abstract. *This article discusses the meaning of the word and its role in the construction of the sentence. Ema, sema, semema, meaning, content, which are the basis for the classification of the parts of the sentence, have been studied. The analysis of speech fragments was approached on the basis of Gestalt. In studying the meaningful structure and transformation of the sentence, attention is paid to the connection between language, thinking, and imagination.*

Keywords: *Ema, sema, semema, meaning, content, parts of speech, have, participle, filler, determiner, case, sentence, core sentence, transformation, language, thinking, imagination.*

So'zlar inson ongida shakl (harf, tovush) va ma'no (tushuncha) birligi sifatida mavjud bo'lishi bilan birga tasavvur, tasvirlarni aks ettiradi. Fe'l turkumidagi so'zlarning ma'no tarkibi tasvirga boy bo'ladi. Tasavvurda shaxs bildiruvchi so'zlar shaxs obrazini, narsa bildiruvchi so'zlar narsa obrazini gavdalantirsa, harakat bildiruvchi so'zlar harakat bilan birga shaxs va narsa obrazini gavdalantiradi. M., *rassom* inson obrazini, *rasm* narsa obrazini gavdalantirsa, *chizmoq* so'zi tasavvur qilinganda chizish harakatini amalga oshirayotgan shaxs va u chizayotgan narsaning umumiy tasviri jonlanadi, ammo bu tasvir aniq chizgilarda, obrazlarda tasavvur qilinmaydi, uni aniq ifodalash maqsadi bilan *Rassom rasm chizdi* gapi tuziladi. Gapdagi *rassom* va *rasm* so'zlari *chizdi* fe'lining ma'no tarkibidan o'rin olgan umumlashma tushuncha: shaxs va narsa semasini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Ammo bunday gaplar ham tasavvurda umumlashma,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

noaniq tasvirni hosil qiladi. M., *rasm* haqida gap ketganda umumiy tushuncha va tasavvur hosil bo‘ladi, ammo nimaning rasmi, qanday rangda ekanligi anglashilmaydi. *Rassom baliq rasmini chizdi* gapi tuzilganda esa tasavvurda baliq chizilgan rasm tasviri paydo bo‘ladi. *Rassom olma rasmini chizdi* deyilganda baliq o‘rnida olma tasavvur etiladi. Tilshunoslikda *Rassom rasm chizdi* gap qolipining gap bo‘laklari bilan kengayib *Rassom baliq rasmini chizdi* tarzida o‘zgarishi so‘zlovchining gap tuzish, tinglovchining uni tushunish qobiliyati tadqiqiga ko‘ra transfarmatsion analizda o‘rganiladi. “Transformatsion analizning asosiy maqsadi tilda mavjud bo‘lgan son-sanoqsiz gaplarning ma’lum sondagi sintaktik modellar – yadro gaplardan tuzilganligini o‘rganishdir[1]. Transformatsion metodga ko‘ra *Rassom rasm chizdi. Rasmni rassom chizdi. Rassom chiroyli rasm chizdi* gaplaridan *Rassom rasm chizdi* gapi yadro gap hisoblanadi. “Yadro gaplardan turli shakliy o‘zgarishlar asosida asosiy ma’noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi transformatsiya deyiladi”[7]. Shunga ko‘ra *Rasmni rassom chizdi. Rassom chiroyli rasm chizdi* gaplari transformatsiyaga misol bo‘ladi.

So‘z orqali tushuncha, gap orqali fikr anglashiladi. Tushuncha belgilar asosida, fikr tushunchalar asosida shakllanadi. Tushunchadan ma’no, fikrdan mazmun hosil bo‘ladi. Ma’lumki, kesim gapning mazmuniy markazi hisoblanadi. Kesim mazmunni ifodalaydi, kesimni izohlovchi gap bo‘laklari esa shu mazmun tarkibida uchraydigan ma’nolarni voqelantiradi. M., “[daraxt] leksemasining sememasini olsak, bu semema taxminan quyidagi ma’no bo‘laklaridan, tarkibiy qismlardan – semalardan iboratdir: 1 “predmet”, 2 “o‘simlik”, 3 “yerda o‘suvchi”, 4. “tanali”, 5 “ildizli”, 6 “shoxli”, 7 “bargli”[4]. “Bu semalar birlashib, daraxt leksemasining leksik ma’nosini shakllantiradi. Leksik ma’noning semasiologiyada semema deyilishi ham shundan”[3]. Bu semalarning har biri tasavvurda muayyan tasvirlarni, obrazlarni hosil qiladi. Ammo *daraxt* leksemasi tasavvur qilinganda bu semalar alohida-alohida emas yaxlit bir obraz tarkibida bir butun holda tasavvur qilinadi. *Ekmoq* leksemasi “o‘simlik”, “daraxt”, “chigit”, “o‘tqazmoq”, “sepmoq” kabi son-sanoqsiz ma’nolarga ega. Ammo bu ma’nolar tasavvurda *ekmoq* leksemasining yaxlit bir obrazini hosil qilmaydi. Ot turkumidagi so‘zlarning ma’nosi semalardan, kesim vazifasida qo‘llanuvchi fe’llarning ifoda tomoni sememalardan iborat bo‘ladi. Bir leksema doirasida semalar birikib ma’noni shakllantirsa, sememalar birikib mazmunni shakllantiradi. Gapning kesimidan mazmun anglashiladi va bu mazmun tarkibini tashkil etuvchi semema (ma’nolar)dan birini yoki bir nechtasini nutqda ma’lum qilish ehtiyoji bilan ikkinchi darajali bo‘laklar yuzaga chiqadi. Gap bo‘laklarining mazmun va ma’noga ko‘ra darajalanishi quyidagicha ifodalanadi:

1. Birinchi darajali bo‘lak (kesim) – fikr mahsuli bo‘lgan mazmunni ifodalaydi. Ushbu mazmun tarkibi tushuncha mahsuli bo‘lgan ma’no (semema)lardan iborat bo‘lib, bu ma’nolar gapda ikkinchi darajali bo‘laklar orqali voqelanadi.

2. Ikkinchi darajali bo‘laklar (ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) – kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita bo‘g‘lanuvchi bo‘laklar bo‘lib, tushuncha mahsuli bo‘lgan ma’noni ifodalaydi. Bu ma’no tasavvurda yaxlit obrazni gavdalantiradi. Bu obrazning tarkibiy qismlarini, belgilarini aniqlashtirish maqsadi bilan ma’noni bo‘lak (sema)larga ajratish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Ma’no bo‘laklarini anglatuvchi belgi (sema)lar gapda uchinchi darajali bo‘laklar orqali ifodalanadi.

3. Uchinchi darajali bo‘laklar (nomustaqil gap bo‘laklari bo‘lib, ikkinchi darajali gap bo‘laklarini izohlaydi) – ma’no (semema)ning tarkibiy qismi bo‘lgan semalarni ifodalaydi, “semaning tarkibiy qismi ema yoki subsema deb yuritiladi”[2]. Emalar sema ifodalagan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

obrazning qismlari, belgilarini anglatadi. Emalar gapda to‘rtinchi darajali gap bo‘laklari orqali ifodalanadi .

4. To‘rtinchi darajali bo‘laklar (uchinchi darajali bo‘laklarni izohlaydigan nomustaqil gap bo‘laklari) – semaning tarkibiy qismi bo‘lgan emalarni anglatadi. Emalar orqali tasavvur qilinadigan obrazlar ham tarkiban qism va belgilardan tashkil topgan bo‘lib, emalarning tarkibini tashkil etuvchi belgilarni bildiruvchi bo‘laklar beshinchi darajali gap bo‘laklarini hosil qiladi. Gapning mazmuniy qurilishi murakkab bo‘lib, semantik tahlillarga ko‘ra gap bo‘laklarining yana bir nechta darajalarini keltirish imkoni bor.

Kesim vazifasidagi so‘zlar mazmun ifodalaydi. Kesimni izohlaydigan bo‘laklar esa ma’no ifodalaydi. Kesimning yolg‘iz o‘zi ham gap hosil qiladi. Uning mazmuni orqali turli tushuncha (ma’no)lar anglashilib turadi. Uni voqelantirish, yuzaga chiqarish ehtiyoji bilan (Nima ekildi? Daraxt ekildi) ikkinchi darajali bo‘laklar paydo bo‘ladi. Ikkinchi darajali bo‘laklarning ma’nosini izohlash ehtiyoji bilan uchinchi darajali bo‘laklar paydo bo‘ladi va shu asosda yoyiq gaplar hosil bo‘ladi. Fe’llar mazmun bildirish xususiyatiga ega bo‘lgani bois turli so‘zlar bilan semantik valentlik hosil qiladi. Daraxt ekdi gapida daraxt so‘zi ma’no bildiradi, ekmoq so‘zi daraxt ma’nosi bilan birga boshqa ma’no(semama)larni ham mazmun doirasiga qamrab oladi. Ayrim so‘zlar bir o‘rinda ma’no, bir o‘rinda mazmun bildiradi. M., daraxt so‘zining ma’no tarkibini semalar tashkil etadi. Daraxt so‘zi gapda kesim vazifasini bajarganda mazmun bildiradi va uning tarkibi bir qancha semema(ma’no)lardan iborat bo‘ladi. Gapning ifoda maqsadi kesim orqali anglashiladi. Shu jihatdan kesim gapda asosiy vazifani bajaradi. Faqat kesimdan iborat gaplar yig‘iq gaplar deb o‘rganiladi. Yig‘iq gaplarning sintaktik tuzilishi kesim (K)dan iborat bo‘ladi. Qaysi so‘z turkumiga mansub bo‘lishidan **qati nazar** mazmun bildirish imkoniyatiga ega bo‘lgan har qanday so‘z kesim vazifasini bajaradi. Yig‘iq gaplar (K) tuzilishida, uning kengaygan shakli (E+K), (E+T+K) kabi tuzilishda bo‘ladi.

Insonlarda ruhiyat, tafakkur, sezgi faoliyati muayyan xususiyatlarga ko‘ra farqli bo‘ladi. Shu jihatdan olamni idrok etish va tasavvur hosil qilish har bir insonda o‘ziga xos tarzda kechadi. Kesim mazmunidan bir qancha geshtaltlar anglashiladi. M., *ekdi* kesim vazifasida bo‘lib, uning mazmuni “daraxt”, “gul”, “chigit” tushunchalaridan iborat va bular tasavvurda yaxlit obrazlarda gavdalanadi. “…geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi”[6]. Shunga ko‘ra kesim vasifasida kelgan so‘zlar murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo‘ladi. M., *Ekdi* gapining mazmuniy tuzilishi leksik ma’no va unga mantiqan yaqin bo‘lgan tushuncha (geshtalt)lardan iborat bo‘ladi. Ekmoq so‘zining leksik ma’nosi “o‘simlik urug‘ini, urug‘likni yerga tashlamoq, sepmoq, tiqmoq; o‘simlik tupini ko‘chatini o‘tqazmoq” bo‘lsa shu ma’noga mantiqan bog‘lanib turuvchi chigit, daraxt, ko‘chat kabi so‘zlar (tasavvurda obrazlar, geshtaltlar) uning mazmunini shakllantiruvchi tushunchalardir. Ayni shu tushunchalarni nutqiy ehtiyojga ko‘ra alohida ifodalash bilan ikkinchi darajali bo‘laklar yuzaga chiqadi. Geshtalt(yaxlit obraz)larning belgilari, qismlarini ajratish ehtiyoji bilan uchinchi darajali bo‘laklar paydo bo‘ladi. Buning sintaktik tuzilishini quyidagicha ifodalaymiz:

Yig‘iq gap
Chizdi. (K1)

Yoyiq gaplar:

1. *Rasm chizdi.* (T2+K1)
2. *Rassom rasm chizdi.* (E2+T2+K1)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. *Iste'dodli rassom rasm chizdi*. (A3+E2+T2+K1)

4. *Iste'dodli rassom baliq rasmini chizdi*. (A3+E2+A3+T2+K1)

5. *Iste'dodli rassom baliq rasmini mahorat bilan chizdi*. (A3+E2+A3+T2+H2+K1)

Gap bo'laklari qisqartmasi yonida kelgan raqamlar gap bo'laklarining nechanchi darajali ekanligini bildiradi. Yuqorida keltirilgan gaplarning kesimi aniq nisbat, xabar maylida. Sodda gap sintaktik tuzilishining asosi (K) modelida berilgan bo'lsa, murakkab mazmunli gaplarning tuzilish asosi (T2+K1), (E2+T2+K1) kabi modellarda berilagan. Gap tuzishda kesim (K) birlamchi asos, poydevor bo'ladi. Kesim mazmunida mavjud bo'lgan va ajralib chiqqan tushunchalar ikkinchi darajali gap bo'laklarini shakllantiradi, shunga ko'ra hosil bo'lgan (T2+K1), (E2+T2+K1) strukturalari ikkilamcha asos bo'lib, bu asos gapning yadro qolipini tashkil etadi va transformatsiya uchun tayanch bo'ladi. "Yadro gaplardan turli shakliy o'zgarishlar asosida asosiy ma'noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi transformatsiya deyiladi".[7] M., *O'quvchi kitob o'qidi* gapi yadro gap, *Kitobni o'quvchi o'qidi* gapi transformatsiya.Yadro gaplarning Ot+Fe'l yoki N1 N2 V kabi modellari mavjudligi ma'lum. Bunday modeldagi yadro gaplar tadqiqiga tafakkur va tasavvur faoliyati hamda semantik tahlillar asosida yondashilsa, ilmiy xulosalar, natijalar doirasi kengayadi. So'zning semantik qurilishi uning idrok etilishini o'rganish asosida gapning mazmuniy qurilishini o'rganishga yo'l ochiladi. Gapning mazmuniy qurilishini o'rganishda butundan qismni ajratib tahlil qilish va bunda geshtaltni e'tiborga olish insonning so'zlash va tushunish qobiliyati zamirida yotgan sintaktik struktura va jarayonlarni til, tafakkur va tasavvur bog'liqligida tadqiq etishga yo'l ochadi. Buning natijasida yadro gaplar va transformatsiyaning semantik tahlillarga asoslangan bir qancha modellarini o'rganish imkoni kengayadi.

Ayrim darsliklarda ikkinchi darajali bo'laklar, xususan, to'ldiruvchi va hol mustaqil va nomustaqil turlarga ajratib o'rganiladi. "To'g'ridan-to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi. Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hol hisoblanadi"[5]. Yuqorida biz nomustaqil gap bo'laklarini uchinchi darajali bo'laklar deb tahlil etdik. Ammo uchinchi darajali bo'larlarga tobelanadigan to'rtinchi darajali bo'laklar ham mavjud bo'lib, u butun (geshtalt)ning bo'lagining bo'lagini (yoki belgisini) anglatadi. M., *yashil bargli daraxt* birikmasida daraxtning qismi – barg, bargning qismi (belgisi) yashil. *Daraxt* so'zining sememasi semalarga ajraladi. *Barg* uning bir semasi, semaning tarkibi emalardan iborat bo'ladi, *yashil* emasi barg semasining tarkibiy qismidir. Demak, *yashil bargli daraxt* birikmasida ema semani, sema sememani izohlaganini tahlil qilimiz. Bu birikma gapning mazmuniy qurilishiga ko'ra semema-sema-ema (daraxt-barg-yashil) holida shakllangan, gapning shakliy ifodasiga ko'ra ema+sema+semema (yashil bargli daraxt) qolipida shakllangan. Ema va sememadan iborat bog'lanishda (ema+semema) geshtaltning lisonda yorqin aks etishini kuzatish mumkin bo'ladi. M., *yashil daraxt* birikmasida *barg* va *daraxt* yaxlit obrazda, *yam-yashil o'rmon* birikmasida *barg*, *daraxtlar* va *o'rmon* yaxlit bir obrazda tasavvur qilinadi. Shular asosida ayrim gaplarning mazmuniy va shakliy tuzilishini quyidagicha tahlil qilamiz:

Yig'iq gap – *Chizdi*. Sintaktik strukturasi- (K)

Yoyiq gap - *Iste'dodli rassom baliq rasmini chizdi.* (A3+E2+A3+T2+K1)

Yadro gap – *Rassom rasm chizdi* (Ot1+Ot2+F) (E2+T2+K1)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Iste'dodli	*rassom*	*baliq*	*rasmini*	*chizdi*
Sema	Semema	Sema	Semema	Sememalardan iborat
Ma'no bo'lagi	Ma'no	Ma'no bo'lagi	Ma'no	Mazmun
Belgi	Tushuncha	Belgi	Tushuncha	Fikr
Umumiy tushuncha (yaxlit obraz)		Umumiy tushuncha (yaxlit obraz)		Tushunchalardan iborat butunlik (fikr)
Uchinchi darajali bo'lak	Ikkinchi darajali bo'lak	Uchinchi darajali bo'lak	Ikkinchi darajali bo'lak	Birinchi (bosh) darajali bo'lak
Ot 1		Ot 2		F

To'rtinchi darajali bo'lak ishtirok etgan gapning tuzilishiga misol:

Baland	*bo'yli*	*yigit*	*gapirdi*
Ema	Sema	Semema	Sememalardan iborat
To'rtinchi darajali bo'lak	Uchinchi darajali bo'lak	Ikkinchi darajali bo'lak	Birinchi (bosh) darajali bo'lak
Ma'no bo'lagi	Ma'no bo'lagi	Ma'no	Mazmun
Ot (yaxlit obraz)			F

Kesim mazmunini tarkib toptiruvchi ma'no (semem)lar o'zaro kuchli assotsiativ bog'langan bo'ladi. Inson ongida so'zlarning assotsiativ uyalarga birikuvi tasavvur va tafakkurning shakllanishi, boyitilishiga asos bo'ladi, bu esa aniqlik, mantiqiylikka olib boradi. M., *olma* so'zi *ichmoq* so'zi bilan bir assotsiativ maydonga mansub emas, demak *olmani ichdi* degan gap tasavvur uyg'otmaydi. Kesim mazmuni tarkibida "olma" ma'nosi yo'q deb xulosalash mumkin. Shu bois ularning bog'lanishida mantiqsizlik bo'ladi. Ammo *olma* so'zi *sharbat* so'zi bilan bir assotsiativ uyaga birlashgani bois nutqda *olmani ichdi* bog'lanishini "sharbat" ma'nosida qo'llash mumkin bo'ladi. Demak, ayrim so'zlarning ma'nosini ochishda, obrazini yoritishda ko'chma ma'noli birliklar yordamga keladi. Ayniqsa belgi bildiruvchi so'zlarda buni ko'p uchratamiz. M., o'n to'rt kunlik oyday go'zal (go'zallikning darajasini tasavvur qilishga ko'maklashadi), olmaday qizil (qizillik darajasini anglash va yoqimli tasavvurni uyg'otish), qorday oppoq (oqlik darajasini tasavvur qilish), haykalday qotmoq va.h.z. So'zning ma'no tarkibi pragmatik, assotsiativ, madaniy semalar bilan ham kengayib boraveradi. Nutq jarayonida ifodalangan bu semalarni ilg'ash asosida kishilarning lisoniy xotirasida so'zlarning ma'no tarkibi kengayadi. Ya'ni bu semalar muayyan sememalarning tarkibiga qo'nib, semantik doirani kengaytiradi. So'zlovchi va tinglovchining badiiy topilma, okkazional ma'nolarning nozik qirralarini ifodalash, ilg'ash qobiliyatiga ko'ra nutqiy muloqotning murakkablashuvi yoki soddalashishiga erishiladi. Murakkablashuv tafakkurni kengaytirish, fikrlashga undash, nutqni go'zallashtirish va obrazli ifodalash, tejamkorlik, samarali muloqot tarzini yaratish kabilarga xizmat qilsa, soddalashish nutqiy muloqotning oson kechishiga, tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баскаков Н.А. Содиқов А. С. Абдуазизов А. А. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – 200 b.
2. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – 102 b.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-kitob. – Toshkent, 2008. – 128 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 127 b.
5. Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: 2014. – 592 b.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –T.: Universitet, 2014. – 100 b.
7. Usmanova Sh. “Psixolingvistika” fanidan ma’ruza kurslari. –Toshkent: Universitet, 2014. – 97 b.

TILSHUNOSLIKDA AKSIOLOGIK BAHONING TADQIQ ETILISHI

Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti (PhD), dots.v.b.

Annotatsiya. *Insoniyat paydo bo‘libdiki, har bir faoliyat va jarayonga o‘zining shaxsiy (xususiy) munosabatini til orqali bayon etadi. Til har bir xalqning ifodalovchisi sifatida qadriyatlar tizimini, jamiyatda mavjud bo‘lgan baholarni, har bir millat uchun doimiy va ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlarni aks ettiradi. Qadriyat tushunchasi inson va u haqidagi mazmun-mohiyatni belgilovchilardan biri hisoblanadi va uning faoliyatini yo‘naltirib, belgilab turadi. Mazkur maqolada qadr-qiymatga asoslangan aksiologik bahoning tilshunoslik sohasidagi tadqiqi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*; tilshunoslik, qadriyat, aksiologiya, gnoseologiya, mantiq, axloq, estetika, etika*

ИЗУЧЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Бойматова Дилноза Бахтиёровна.
(PhD), доцент Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация. *Получается, что человечество через язык выражает свое личное (частное) отношение к каждой деятельности и процессу. Язык как представитель каждого народа отражает систему ценностей, ценностей, существующих в обществе, ценностей, которые являются постоянными и значимыми для каждого народа. Понятие ценности является одним из определяющих в содержании человека и о нем и направляет и определяет его деятельность. В данной статье рассматривается исследование аксиологической оценки, основанной на достоинстве, в области лингвистики.*

Ключевые слова*; лингвистика, ценность, аксиология, гносеология, логика, этика, эстетика, этика*

STUDY OF AXIOLOGICAL ASSESSMENT IN LINGUISTICS

Boymatova Dilnoza Bakhtiyorovna
(PhD), Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. *It turns out that humanity expresses its personal (private) attitude to each activity and process through language. The language as a representative of each nation reflects the system of values, values existing in society, values that are permanent and significant for each nation. The concept of value is one of the determinants in the content of a person and about him and directs and determines his activities. This article examines the study of axiological assessment based on dignity in the field of linguistics*

Keywords*; linguistics, value, axiology, epistemology, logic, ethics, aesthetics, ethics*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Insonning tashqi dunyo bilan murakkab munosabatlarini o‘rganish tarixi qiymat va bahoni shaxs ongining eng muhim darajalaridan biri deb hisoblaydi. Shu sababli ijtimoiy fanlarning turli soha mutaxassislari “qadriyat” tushunchasini o‘z yondashuvlari bo‘yicha talqin qilganlar. Qiymat va baholash muammosi falsafiy fanlarda (aksiologiya, gnoseologiya, mantiq, axloq, estetika, etika) atroflicha muhokama qilindi, ularning ba’zilarida qiymat va baholash “aks ettirish” va “anglash”ga asoslangan ilmiy kategoriyalar vazifasini bajaradi. Falsafiy termin sifatida qo‘llanilayotgan “aksiologiya”da qadriyatlar haqida bahs yuritiladi. Shu o‘rinda quyidagini ta’kidlash o‘rinliki,”... inson tabiatning eng oliy mo‘jizasi, tarixiy taraqqiyotning ijtimoiy mahsuli sifatida jamiyatdagi asosiy qadriyatdir. Har qanday jamiyatning ijtimoiy odilligi unda umuminsoniylik mezonlariga amal qilinishi, pirovard natijada inson qadrining qay darajada ekanligi, shaxsning individual qadriyatlarni namoyon qilishi uchun imkoniyatlar yaratilganligi bilan bog‘liq. Insonning o‘zi ijtimoiy tizim bo‘lgani kabi, uning shaxsiy–individual qadriyatlari ham yakka aksiologik tizimdir [14: 157] Demak, dastavval aksiologik munosabat (modallik) insonga nisbatan berilayotgan baho munosabatida o‘z aksini topib, “qiymat” tushunchasi bilan yaxlitlikda namoyon bo‘ladi.

“Qiymat” tushunchasi XIX asrning 60-yillarida falsafiy leksema sifatida nemis faylasufi, vrach va tabiatshunosi German Lotse tomonidan ilmiy muomalaga olib kirildi. XX asrning birinchi o‘n yilliklarida qadr-qiymat haqidagi bilimdan mustaqil soha – “aksiologiya” ajralib chiqadi. Bu terminning mualliflari fransuz faylasufi Paul Lapi (1902 y.) va nemis faylasufi Eduard fon Xartmenn hisoblanadi (1908 y.) [4:27]. “Aksiologiya” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, **axia**-qadr, qiymat, **logos-**ta’limot, degan ma’nolarni bildiradi, ya’ni “qadr-qiymat, qadriyat haqidagi ta’limot”dir. Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamoqdalar. Ma’lum fan sohasiga oid atamalarning ma’no va mazmunidan chekinmagan holda boshqa sohada qo‘llanishi ana shu integratsiyaning bir ko‘rinishidir. Falsafa va mantiq ilmida qo‘llanuvchi “aksiologiya” termini tilshunoslikka kirib keldi va aksiologik tilshunoslik (lingvoaksiologiya) sohasi o‘zining predmeti, maqsadi va vazifasiga ega bo‘ldi. Shu o‘rinda mantiqda qo‘llanilib kelinayotgan modallik (munosabat) va baho kategoriyasi ham aksiologiya bilan uyg‘unlashib, “aksiologik modallik” va “aksiologik baho” lingvistik terminlari paydo bo‘ldi.

Shu o‘rinda aksiologik modallik va aksiologik baho falsafiy terminlarining o‘xshash va farqli jihatlariga bir oz to‘xtalsak. “Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat va hamda ularni qadrlash tuyg‘usi asosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi... aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning sub’ekt ma’naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi” [15:24]. Aksiologik modallik esa qadriyat semasiga ega tushuncha va leksemalarga nisbatan sub’ektning shaxsiy munosabati sifatida matnda aks etadi. Demak, aksiologik baho negizini aksiologik modallik tashkil etar ekan.

Shu o‘rinda modallik haqidagi fikrlarni umumlashtirib modallikka ishchi ta’rif berishni lozim topdik: modallik nutqiy akt mazmunining so‘zlovchi ongida aks etishi va uning so‘zlovchi tomonidan turli semantik kategoriyalar orqali munosabat “ko‘rinishida” yuzaga chiqishidir. Baholash faoliyatida ham aks etadigan ushbu munosabatda modallik kategoriyasi ham aks etib, funksional-semantik vazifasi jihatidan mutanosiblikka ega.

Ilmiy tadqiqotlarida qadriyat va baho, ularning semantik vazifalarini tadqiq etgan Ye.M.Volf aksiologik modallikka oid jihatlarni ham yoritib o‘tadi va bu jarayonni funksional-

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

semantik tomondan tekshiradi. Modallik va uning turlari o‘rtasidagi aloqani misollar yordamida tushuntirgan rus tilshunosi Ye.M.Volf aksiologik modallikning o‘ziga xos formulasini yaratadi va uni quyidagicha tahlil etadi: *A g V*. Bu formulada *A* - baholash sub’ekti, *B -uning* ob’ekti, *g* esa *yaxshi* yoki *yomon* ma’nosiga ega baholash munosabati [7: 25]. Formula orqali olim faqat ob’ektning ijobiy va salbiy xislatiga munosabat bildirib, neytral baholashni muhim deb bilmagan. Bizningcha, modallikning bu turi “yaxshi”, “yomon”, “befarq”, “yaxshiroq”, “yomonroq”, “teng” singari semantik modullarda ifodalanadi.

N.D.Arutyunova esa baho tushunchasining lingvistik tabiati va xislati haqida izlanish olib borib, baho mexanizmini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilgan: gapning grammatik xarakteristkasi, sifat so‘z turkumining o‘rni va vazifasi, “yaxshi” va “yomon” tushunchalari va x.k. bajaradi [2: 73]. Tilshunos olimaning ta’kidicha, baho tushunchasi... hayotiy mexanizmda bog‘liqlik (inson va ob’ekt o‘rtasida), rag‘batlantiruvchi (yo‘naltiruvchi faoliyat), ta’limiy va boshqaruvchi (ko‘rsatma) vazifalarni bajaradi [2: 73]. N.D.Arutyunova ta’kidlab o‘tgan baho kategoriyasining to‘rt xislati o‘zaro birlashtirilsa, bahoning aksiologik qiymati namoyon bo‘ladi.

Rus mantiqshunosi A.A.Ivin birinchilardan bo‘lib mantiqiy bahoning aksiologik baho bilan bog‘liqligini, “har qanday baholash ma’lum sub’ektga tegishli” ekanini ta’kidlagan holda sub’ektiv bahoning ahamiyatli tomonini yoritib beradi [9: 54]. Aksiologik bahoning sub’ektiv baho tarkibiga kirishini nazarda tutsak, olim uchun sub’ektivizm asosiy masalalardan biri ekanligi anglashiladi.

V.P.Frolov va V.N.Fominlar aksiologik modallik nuqtai nazaridan shaxsiy munosabat, qadriyat va uning yo‘nalishlarining zamonaviy axborot jamiyatidagi roli va ahamiyatini yoritib beradi. Mualliflar qadriyatni “jamiyat hayotining normal ishlashi uchun tartibga soluvchi” [17: 205-208] mexanizm sifatida ta’riflashadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, har qanday matn muallifi (yozuvchi, ijodkor, so‘zlovchi) dastavval inson va u bilan bog‘liq qadriyatlarga asosiy e’tiborni qaratadi. Aksiologik bahoga ega bo‘lgan qadriyat-tushunchalar matnning hamma turlarida uchraydi va o‘zining ob’ektga ta’sir o‘tkazish vazifasini bajaradi. Bu jarayonni alohida ijodkor asarlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Matnda qadr-qiymat semasiga ega leksemalarning ahamiyatli tomonlarini yoritish alohida muallif asarlari misolida ham o‘rganilgan. Bu jarayon esa qadriyat-tushunchalarning inson ma’naviyati va madaniyatini aks ettirish darajasi yuksak ekanligidan dalolat beradi. R.Alimpieva va S.Babulevichlar buyuk rus shoiri S.Yeseninning she’riy asarlaridagi aksiologik ma’noga ega satrlarni ilmiy tahlil etib, shoir ijodini tavsiflovchi qadriyatlar tizimini milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligini yoritib beradi [1:171-178]. Ya.V.Kiseleva esa Antuan De Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” falsafiy asarida aksiologik modallikka oid jihatlarini Qirol obrazi orqali talqin etadi. Fransuz yozuvchisining falsafiy asarida modallikning lisoniy uch ko‘rinishi – oddiylik, sub’ektivlik va ixchamlikni muallifning Qirolga va uning nutqi orqali ifodalangan aksiologik baho birliklarida uchratishimiz mumkin [11:131-133]ligini ta’kidlaydi.

O.M.Afanaseva aksiologik modallikni publitsistik matnlar misolida yoritishni maqsad qiladi va bu maqsadiga erishadi ham. Tadqiqotchi I.A.Ilinning “Bizning vazifalarimiz” asari misolida aksiologik modallikka oid ilmiy qarashlarini bayon etadi va uning fikricha, aksiologik modallik (baho) “ob’ektning o‘ziga xos qadriyatlar tizimining tasnifidir” [3:125].

Semantik kategoriya sifatida tadqiq qilingan va qilinayotgan modallikning ikki turi – ob’ektiv va sub’ektiv modallik mazmunan bir xil bo‘lsa ham, munosabat anglatishi nuqtai nazaridan turli darajani aks ettiradi. Ob’ektiv modallik aytilgan fikrning borliqqa va tevarak-

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

atrofga munosabatini ifodalasa, sub'ektiv modallik esa so'zlovchining aytilgan fikriga xususiy munosabatni aks ettiradi. Modallikning ushbu turlaridan qaysi biri birlamchi va asosiy ekanligi haqida aniq to'xtamga kelinmagan. Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, nutqiy faoliyatda ob'ektiv modallik sub'ektiv modallikka aylanishi yoki uning vazifasini bajarishi mumkin.

Sub'ektiv modallik va uning turlari yagona tizim asosida o'zaro birlashadi va bu birlashish paradigma deyiladi. Sub'ektiv modallikning bir paradigma doirasida o'rganishga asoslangan tadqiqot ishlari bu soha uchun yangilik sifatida yuzaga keldi. Xususan, R.V.Sattarova modallikning 7 ta turini alohida tavsif qilgan holda ta'rif berib, misollar asosida tushuntirib berishga harakat qiladi. Aksiologik modallikni axloqiy va salbiy kabi turlarga bo'lishni taklif etgan olimaning fikricha, agar nutqning illokutiv kuchi vaziyatga mos baholovchi hukmni chiqarsa, aksiologik modallikni ifoda etuvchi so'zlarni ob'ektlar va harakatlar nomini ko'rsatuvchi to'g'ridan-to'g'ri yopiq vosita sifatida kiritish mumkin [16:25].

Ukrain tilshunosi K.B.Mixaylovich aksiologik modallikni matn kategoriyasi va matn modalligi sifatida talqin etib, matn modalligi muallifning mavjud narsaga munosabatini ifodalash, uning konsepsiyasi, nuqtai nazari, o'rni va qadriyat yo'nalishlari haqida xabar beradigan hamda o'quvchini xabardor qiladigan tuzilma ekanligini bayon etadi [13:78].

O'zbek tilshunosligida ham modallik, sub'ektiv modallik va uning turlari, aksiologik baho va aksiologik modallik masalalari ma'lum darajada tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda matn va uning ko'rinishlari, nutq hamda uning turlaridagi modallik hodisasining funksional, kognitiv, semantik, pragmatik xususiyatlari yoritilgan.

Til doimo tafakkur va uning shakllari bilan uzviy munosabatda bo'lgan. Ushbu munosabat mantiqiy va semantik kategoriyalarning hosil bo'lishiga, ma'lum sohaga oid tadqiq ob'ekti ikkinchi sohada ham ob'ekt sifatida o'rganilishiga zamin yaratadi. Mantiq ilmida qo'llanilayotgan modallik kategoriyasining tilshunoslikda ham ifodalanishi mana shu munosabatning bir ko'rinishidir. J.Yakubov mantiq va tilda modallik kategoriyalarining umumiy va xususiy jihatlari yoritilgan ilk tadqiqot ishi bilan tilshunoslikda dastlabki qadamni qo'ydi. J.Yakubovning alohida xizmatlari shundan iboratki, modallikning ikki turi – ob'ektiv va sub'ektiv modallikning roman-german, o'zbek va turkiy tillarda o'rganilishini tadqiq etdi, unda modallik kategoriyasining mantiq va tilshunoslikda qo'llanishini ilmiy tahlil qilish bilan birga, sodda va qo'shma gaplarda *"reallik"*, *"istak"*, *"mumkinlik"*, *"zaruriyat"* semantik kategoriyalari fransuz va o'zbek tillarida qanday lisoniy birliklar bilan qo'llanishini tekshirdi. Tilshunoslikda "ma'nodan shaklga" tamoyiliga asosan modallik ma'nosini ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik birliklarga nisbatan birinchi bor "modallema" atamasini ilmiy muomalaga olib kirgan olim unga quyidagicha izoh beradi: "Biz birinchi marta modallema atamasini ilmiy muomalaga kirityapmiz. Modallema – bu modallik kategoriyasining morfologik, leksik va sintaktik ifodalanishidagi turli lisoniy birliklarning aniq bir tizimga solingan shakli". [19:13]

Tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi doirasida olib borilgan va borilayotgan ilmiy izlanishlar modallik kategoriyasini ham chetlab o'tmadi. Matn modalligida kommunikativ-pragmatik mazmunning shakllanishi haqidagi ilmiy izlanishlarning yuzaga kelishida S.Boymirzaevaning xizmatini alohida ta'kidlash zarur. Matn modalligi maydonida aksiologik baho va aksiologik faoliyatning namoyon bo'lishini badiiy, ilmiy, publitsistik uslublarga oid misollar yordamida tushuntirib bergan olima "ushbu turdagi modallikning asosiy mundarijasi voqelikni tavsiflash va uni baholash yo'li bilan kommunikativ maqsadga erishish ko'zlangan muallif intensiyasidir" [5: 194], – degan fikri orqali aksiologik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

modallikning matn mazmunida voqelanish imkoniyatlarining kengligi va mazmunan xilma-xilligini yoritib bergan.

Modallik kategoriyasining turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan bog‘liqligini inobatga olsak, qadr-qiymat semasiga ega ifodalilik har bir millatning xalq og‘zaki ijodida ham voqelangan. Fransuz va o‘zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasini maxsus tadqiq etgan M.Jo‘raeva ikki millat ertaklaridagi o‘xshashlik va differensial belgilar, modallik kategoriyasining o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlarini yoritishga harakat qilgan. “Fransuz va o‘zbek ertaklaridagi gap mazmunini baholashda, sub’ektiv modallik xususiyatlarini ochib berishda aksiologik modallik keng semantik maydonni egallashi” [8: 26] haqidagi fikri bu kategoriyaning lingvokognitiv xususiyatga egaligidan dalolat beradi.

Xalq og‘zaki ijodining yana bir namunasi – o‘zbek maqollarining aksiologik mazmun ifodalovchi vosita ekanligini tadqiq etgan G.Komilova ularning “milliy, ijtimoiy, madaniy xarakterda bo‘lishi, til egalari lisoniy ongini aks ettirishi, konnotatsiyaga asoslanishi, mazkur konnotatsiya boshqa millat vakillariga tushunarli bo‘lmasligi” [12:8]ni aksiologik shkalalar yordamida tahlil etadi.

Ma’lumki, aksiologik baho dastavval falsafa fanida ob’ekt sifatida o‘rganilgan. Keyinchalik bu jarayon tilshunoslik (lingvistika)ning tadqiq ob’ektlari sirasiga kiritildi. E.Ibragimova “O‘zbek tili lingvistikasining aksiologik tadqiqi” asarida aksiologik bahoning ham falsafiy, ham lingvistik kategoriya sifatida namoyon bo‘lishi, bahoning estetik funksiyasi haqida o‘z fikrlarini bayon etgan. Olimaning fikricha, “baho ma’nosi ob’ekt va sub’ekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, ya’ni so‘zlovchi (sub’ekt) ob’ektdan ta’sirlansa yoki unga o‘z munosabatini bildirish istagi tug‘ilsa, o‘z fikrini bayon qiladi. Natijada baho munosabati yuzaga chiqadi” [10: 8]. Yuqoridagi o‘ziga xos ilmiy qarashda baholash jarayoni to‘lig‘icha sub’ektga bog‘liq ekanligi ta’kidlanmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, tadqiqotchi baholash deganda, faqat tashqi nutqiy xatti-harakat orqali amalga oshiriladigan faoliyatni nazarda tutmoqda. Bizningcha, ob’ektning harakatiga baho berishda ichki nutq ham ishtirok etadi va bu aksariyat hollarda yozma shaklda yuzaga chiqadi.

Keyingi yillarda lingvistik tadqiqotlarda yetakchi masala sifatida tadqiq etilayotgan baholash (aksiologik) kategoriyasi ijobiy va salbiy semaga ega konseptlarda ham o‘z ifodasini topadi. Baholash falsafiy, ijtimoiy, madaniy omillar va til strukturalari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadigan jarayondir. Bu jarayon, ayniqsa, turli tizimdagi tillar o‘zaro qiyoslanganda yaqqol namoyon bo‘ladi. A.Xalillaev o‘z ilmiy izlanishini aynan shu masalaga qaratgan holda ispan va o‘zbek tillarida “hombría /mardlik” konsepti qo‘llanishining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aksiologik jihatdan ham ifodalab beradi: “... mardlik” konsepti bevosita “baholash” kategoriyasi bilan uzviy bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi va biz ushbu kategoriyaga murojaat qildik. Misollar tahlili va kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ispan va o‘zbek tillarida “hombría/mardlik” konseptini tahlil qilish jarayonida ikki tilda ham insonni baholash holatini katta 3 ta semantik sinonimik guruhga ajratish lozimligi kuzatildi: 1) mardlik, 2) jasurlik, 3) botirlik” [18: 41-47]. Olim “hombría/mardlik” konseptini tahlil qilishda ispan va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarga murojaat qilib, baholash kategoriyasini to‘rtta semantik guruhga ajratib tahlil qiladi:

1) baholashni mantiqiy (lingvofalsafiy) aspektda o‘rganish;
2) baholash ma’nolarining pragmatik aspekti;
3) baholashning funksional-semantik aspekti;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4) baholashning milliy-madaniy aspekti.

Alohida shaxslarning kommunikativ munosabatlari asosida yuzaga keladigan matnda insonlar bajaradigan faoliyat natijasi orqali bilim, malaka, tajriba, qadriyat kabilarning almashinuvi ta'minlanadi. Aynan mana shu almashinuv natijasida shaxsning olamga munosabati namoyon bo'ladi hamda matnda lisoniy birliklar vositasida ifodalanadigan g'oyada o'z aksini ko'rsatadi. Bu g'oya qadriyatli munosabatlar va qadriyat semasiga ega leksik, semantik, sintaktik birliklar umumlashmasidan hosil bo'ladi.

Adabiyotlar:

1.Alimpijeva R., Babulewicz S. Аксиологическая значимость авторской модальности в поэтических текстах Сергея Есенина // Acta Polono-Ruthenica XIX, 2014. – С.171-178.

2.Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка.Событие. Факт. – Москва: Наука, 1988. – 92 с.

3.Афанасьева О.М. Аксиологическая модальность публицистического текста на материале бюллетеней И.А.Ильина "Наши задачи" // Язык СМИ, 2016. – С.125.

4.Багаутдинова Г. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты. Автореф. дис. … д-ра. филол.наук. –Уфа, 2007. – С.27.

5.Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив–прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 2011. – 320 б.

6.Бычкова С. Е. Фундамент языковой аксиологии: оценка, ценност, норма, аномалия // Гуманитарные науки № 6, 2019. – С.100-102.

7.Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – Изд.2-е,доп. – Москва, 2002. – С.25.

8.Жўраева М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фанлари д-ри...дис.автореф. – Тошкент, 2017. – Б.26.

9.Ивин А. Основания логики оценок. – Москва: Изд-во Московского университета, 1970. – С.54.

10. Ibragimova E. O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi. – Farg'ona, 2018. – 86 b.

11.Киселева Я.В. Аксиологическая модальность в философском романе Антуана Де Сент-Экзюпери "Маленький принц" // Филологические науки. – №1 (67) , Ч.2, 2017 – С. 131-133.

12.Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол.фанлари фалсафа д-ри (PhD)... дис.автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.

13.Mykhailovych.K. B. Axiological modality as a text category // Impatto dell'innovazione sulla scienza: aspetti fondamentali e applicati. – Verona, 26 giugno, 2020. – P.77-79.

14.Назаров Қ. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари). Фалсафа фанлари докт-ри дис. – Тошкент, 1996. – 311 б.

15.Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. –85 б.

16.Саттарова Р.В. Средства моделирования властных отношений в политическом дискурсе (на материале дискурса Д.Кэмерона). Дис. .... канд. филол. наук.– Уфа, 2019. – 274 с.

17.Фролов В.П., Фомин В.Н. Аксиологические модальности в современном информационном обществе // История и обществознание, 2019. – С.205-208.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

18.Халиллаев А. Испан ва ўзбек тилларида “hombría /мардлик” концепти қўлланишининг лингвокогнитив ва лингвомаданий хусусиятлари. Филол. фанлари бўйича фалсафа докт-ри (PhD)... дис. – Тошкент, 2021. – 49 б.

ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ ОПОРНЫХ СХЕМ И ТАБЛИЦ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В УЗБЕКИСТАНЕ

Джалалова Сайёра Мирхайдаровна
старший преподаватель Международной исламской
академии Узбекистана.

Аннотация *Статья посвящается изучению опыта по применению опорных схем и конспектов при обучении русскому языку в преподавании русского языка в неязыковых вузах, а также аспектам использования опорной технологии при обучении русскому языку как иностранному.*

Ключевые слова: *опорные схемы, оптимизация обучения, традиционные методики обучения РКИ, инновационные методики обучения РКИ, самообразование студентов.*

O‘ZBEKISTONDA RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA SXEMA VA JADVA LLARNI QO‘LLANISH TAJRIBASI

Jalolova Sayyora Mirxaydarovna-O‘zbekiston Xalqaro islom Akademiyasi.
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya *Maqola nolingvistik universitetlarda rus tilini o’qitishda sxema, diagrammalari va jadvallardan foydalanish tajribasini o’rganishga, shuningdek rus tilini chet tili sifatida o’qitishda tayanch texnologiyasidan foydalanish aspektlariga bag’ishlangan.*

Kalit so’zlar: *tayanch sxemalari, o’qitishni optimallashtirish, rus tilini rus tilini rus tilini o’qitishning an’anaviy usullari rus tilini o’qitishning innovatsion usullari, talabalarning mustaqil ta’limi.*

EXPERIENCE OF APPLYING REFERENCE CHARTS AND TABLES IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN UZBEKISTAN

Jalalova Sayyora Mirkhaydarovna-senior lecturer at the International Islamic
Academy of Uzbekistan.

Abstract *The article is devoted to the study of experience in the use of reference diagrams and notes when teaching the Russian language in teaching the Russian language in non-linguistic universities, as well as aspects of the use of reference technology in teaching Russian as a foreign language.*

Key words: *support schemes, optimization of training, traditional methods of teaching RFL, innovative methods of teaching RFL, self-education of students.*

Введение

К настоящему времени накоплен достаточно большой опыт преподавания русского языка в неязыковых вузах. Курсы русского языка в разных традициях и программах могут называться по-разному: «Русский язык», «Практический курс русского языка», «Русский язык как иностранный», «Корректировочный курс русского языка» и т.п. Тем не менее,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

независимо от варьирования названия эти курсы неизменно имеют в своем предмете современный русский литературный язык как высшую форму развития русского национального языка. Вследствие этого, они до определенной степени соотносительны с курсами русского языка как родного: в любом случае перед преподавателем ставится цель привить знания норм литературного русского языка.

Исследование и методология

В Узбекистане имеется некоторый опыт применения опорных схем и конспектов при обучении русскому языку. Прежде всего, здесь следует отметить труды, отечественного ученого В.И. Андрияновой, доктора педагогических наук, профессора, международного эксперта по качеству образования (TASIS), академика Международной академии наук педагогического образования, всю свою жизнь и деятельность посвятившего решению проблем методики преподавания русского языка в школах Узбекистана. Профессор В.И. Андриянова придает большое значение схемным и знаковым компонентам дидактических материалов по русскому языку в целом ряде работ – [Андриянова, 1995], [Андриянова, 1996], [Андриянова, 1997]. Так, рассуждая о структуре учебника профессор В.И. Андриянова пишет: «Структуру учебника создают тексты и внетекстовые компоненты. Тексты учебника делятся на основные, дополнительные (обращения, документально-хрестоматийные материалы и др.) и пояснительные (примечания, разъяснения, словари и др.). Внетекстовые компоненты – это аппарат организации усвоения: иллюстрированный материал (иллюстрации, рисунки, схемы, диаграммы и др.) и аппарат ориентирования (введение, предисловие, рубрикация, выделение, сигналы-символы, указатели и др.)» [Андриянова, 2007, с. 11]. Как видим, автор не использует термин «опорные сигналы», но по факту предполагает их активное применение.

Литературный обзор

Другим видным отечественным методистом, активно использующим опорные схемы в своих разработках, является М.Х. Тохтаходжаева, автор учебников по русскому языку как родному в школах Узбекистана. Так, в учебниках по русскому языку как родному для 1-4 классов, вышедших в свет в последние годы, М.Х. Тохтаходжаева широко применяет зрительные опоры (иконические знаки), таблицы и схемы, призванные упростить запоминание учебного материала – см. [Тохтаходжаева, 2017], [Тохтаходжаева, 2018], [Тохтаходжаева, 2019 а], [Тохтаходжаева, 2019 б].

В монографии З.С. Бабаевой и Ш.И. Назаровой при определении основ методики обучения чтению как виду речевой деятельности на уроках русского языка в школах с узбекским языком обучения рекомендуется составление учащимися опорных конспектов: «На уровне обобщения сходных свойств частных приёмов в системе отчётливо выделяются четыре основных способа осмысления текста: постановка вопросов (о незнаемом) к тексту; построение смысловых опор (планов, таблиц, схем, опорных конспектов и т.д.); создание вторичных текстов (например, в результате конспектирования, пересказа и других видов сжатия); конструирование собственных высказываний о прочитанном» [Бабаева, 2021, с. 60]. Как видим, в данном случае опорные конспекты рассматриваются не как дидактический материал, а как результат письменной работы учащихся. Тем не менее, сама идея составления смысловой опоры в предлагаемой авторами методике содержится, что позволяет говорить о ее частичной обращенности к опорной технологии.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Важность развития опорной технологии к обучению русскому языку, на наш взгляд, обусловлена следующим. Литературная форма национального русского языка имеет ключевую особенность, принципиально отличающую ее от иных его форм, (территориальных диалектов, жаргонов, городского просторечия и др.), а именно подчиненность нормам. Все нормы русского литературного языка кодифицированы, т.е. зафиксированы и официально утверждены в различных словарях (толковых, грамматических, орфографических, орфоэпических и иных), а также в академических грамматиках русского литературного языка.

Для нашего исследования важно, что в учебной литературе по русскому языку (как родного, и иностранного) активно используются таблицы, схемы, рисунки и условные сокращения.

В частности, большое значение имеют те принципы, которым подчинены формулировки большинства правил. Правила русской орфографии, пунктуации, орфоэпии, грамматики в силу своего стремления к краткости и императивности часто строятся как максимы – ср., например: «*ЖИ и ШИ пиши через И!*». Этот принцип – принцип лаконичности – по большей части соблюдается практически в большинстве учебников и учебных пособий по русскому языку.

С точки зрения некоторых исследователей вопроса, словесные формулировки правил могут не только сопровождаться мнемотехническими средствами, но и практически полностью замещаться ими. Так, в работах Е.Г. Шатовой в качестве элементов, замещающих собой правила, предложены так называемые *морфологические формулы* и *сжатые наброски к правилу* [Шатова, 1990, с. 71; Шатова, 2008, с. 32]. В качестве примера такой морфологической формулы приведем следующее: «Например, обобщенное правило правописания падежных окончаний *–е* и *–и* у существительных I, II и III склонения, в котором особую трудность представляют три падежа – Р, Д и П, – можно зафиксировать наглядно в такой сокращенной формуле:

I, Д, П → *е*,

II, П → *е*,

III, Р, Д, П → *и*». [Шатова, 2008, с. 32].

Подчеркнем, что по замыслу автора подобные формулы не даются учителем в готовом виде, а создаются прямо во время учебного занятия при активном участии учеников. Ясно, что такой подход требует выработки соответствующих устойчивых навыков у обучаемых, что возможно только при условии постоянного использования этих приемов. С учетом же дефицита учебного времени, успешность применения такого подхода на практике вызывает у нас сомнения.

Тем самым подтверждается мнение А.Н. Бренчугиной-Романовой, исследующей приемы мнемотехники на уроках русского языка в иноязычных классах: «Рисунок <…> стимулирует употребление различных языковых единиц, обогащающих словарь учащихся и служащих для построения словосочетаний и предложений, а также для составления связных текстов (сюжетные рисунки)» [Бренчугина-Романова, 2016, с. 126]. Автор приводит примеры таких «сюжетных» рисунков, выполненных цветными карандашами в тетради. С их помощью орфографический облик слова запоминается при участии ассоциации, обеспеченной условной пиктограммой, типа «Р+ изображение осы» = «Р+ОСА», «моло + изображение

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

молотка на месте Т + ок». В других случаях рисунок представляет собой изображения понятия, названного изучаемым словом.

Ф.Г. Самигулина об этом пишет: «Если в процессе концептуализации происходит выделение информации, ее осмысление и последующая трансформация в знание, то во время категоризации ранее выделенная и осмысленная информация о чем-либо подвергается дальнейшему обобщению» [Самигулина, URL]. В процессе восприятия опорных сигналов, которые фактически представляют собой невербальную либо частично вербальную информацию, с параллельным восприятием текстовой (собственно вербальной) информации, очевидно, происходят оба указанных процесса: категоризация и концептуализация. Не менее важным здесь является принцип распределения осваиваемого знания по крупным блокам, которые, тем не менее, должны состоять из достаточно компактных по объему компонентов. Именно это свойство делает опорную технологию частным случаем педагогической мнемоники: «Типичные приемы педагогической мнемотехники — разбивка запоминаемого материала на очень маленькие части, интенсивное повторение этих частей, составление фраз по буквам, полученным из запоминаемых числовых сведений; поиск закономерностей в запоминаемой информации, ее классификация и систематизация, составление структурных схем» [Аль-Кайси, 2018, с. 565-567]. Из этого можно сделать вывод, что опорные сигналы (конспекты) в части используемых в них условных обозначений должны строиться как можно более единообразно. Этим может быть обеспечена их повторяемость и, как следствие, узнаваемость. В конечном же итоге они начинают работать как инструмент, назначение которого заключается в интенсификации процессов запоминания и воспоминания.

Особого внимания заслуживает теория и практика использования в процессе обучения русскому языку такой формы, как таблица.

В самом широком смысле слова *таблицей* называется графическая организация структурированных данных, состоящая из вертикальных граф (столбцов) и горизонтальных строк. Пересечение столбцов и строк таблицы образует ячейку, которая вмещают в себя данные. Однако важнее всего в такой организации информации то, что она дает возможность наглядно отобразить характер соотношения данных между собой, позволяет при необходимости их сопоставить либо расположить в строгой последовательности, основанной на том или ином принципе (например, в алфавитном порядке, в порядке убывания или возрастания количественных показателей и т.п.).

Как указывает А.Л. Архангельская в своем чрезвычайно интересном историческом обзоре учебных таблиц по русскому языку, традиции их составления были заложены еще в первой половине XIX века, и с тех пор не прерывались [Архангельская, 2007, с. 120]. Автор разделяет учебные таблицы по русскому языку по способу включения в учебный процесс на четыре категории. А именно: «1) таблицы, являющиеся неотъемлемой частью учебного пособия и расположенные непосредственно в нем; 2) таблицы, изданные как дополнение к учебному пособию; 3) комплекс таблиц, составляющих в совокупности полноценное учебное пособие по определённому разделу языка; 4) авторские автономные таблицы, представляющие собой отдельное издание и позволяющие усвоить, повторить конкретный языковой или речевой материал» [Архангельская, 2007, с. 121].

В других случаях можно наблюдать таблицы по русскому языку, создаваемые с использованием вики-технологий, с помощью которых в их обсуждении и пополнении

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

может поучаствовать практически любой заинтересованный пользователь Интернета. Таковы, например, таблицы с различными лингвистическими данными о словах, включаемые в «Русский Викисловарь» [«Русский Викисловарь» https://ru.wiktionary.org].

Безусловно, с точки зрения общей лексикографии, все подобные разработки не могут считаться полноценными нормативными справочниками или учебными пособиями, поскольку в таковом качестве они не утверждены и официально не допущены уполномоченными государственными органами. На наш взгляд, обращение к источникам такого рода оправдано только в личных целях и недопустимо в целях дидактических. Как видим, в формальном отношении таблицы по русскому языку также демонстрируют большое многообразие.

Таблицы по русскому языку могут различаться по своему назначению (таблицы сравнительные, справочные и т.п.), а также по форме (таблицы статичные и подвижные). Как бы там ни было, в опорный конспект по мере необходимости могут включаться таблицы любого типа.

В соответствии со своей широкой применимостью, таблицы по русскому языку демонстрируют не менее широкое многообразие по характеру содержания (Таблица 1.1)

Таблица 1.1

Виды таблиц по русскому языку по характеру содержания

№	Вид таблицы	Функция таблицы
1	**Лексические таблицы**	служат для усвоения значений слов и обогащения словарного запаса учащихся, для проведения упражнений по активизации изученной лексики
2	**Орфоэпические таблицы**	служат для совершенствования навыков произношения русских слов
3	**Морфологические таблицы**	служат для ознакомления с правилами формообразования русских слов
4	**Орфографические таблицы**	служат для совершенствования навыков правописания русских слов
5	**Синтаксические таблицы**	служат для ознакомления с правилами русского синтаксиса
6	**Пунктуационные таблицы**	служат для совершенствования навыков постановки знаков препинания в русском предложении

Наряду с таблицами широкое применение в процессе обучения РКИ находят схемы. Э.Г. Азимов отмечает: «В преподавании языка схема часто в упрощенном и обобщенном виде представляет факты языка или правила» [Азимов, 2009, с. 300]. Важнейшей характеристикой схемы является то, что она реализует чувственную (наглядную абстракцию).

По своей форме схемы, используемые для презентации лингвистической информации по РКИ, могут быть весьма разнообразны. Нередко схема представляет собой в той или иной мере реалистичный рисунок, с включенными в него вербализованными элементами. Примером такой схемы может послужить схема-дерево «Способы образования слов в русском языке», приведенная в статье К.А. Бастаевой [Бастаева, 2019, с. 107]. В других

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

случаях схема строится как условно-графическая модель, описывающая некоторую систему или подсистему в языке (парадигматика), либо некоторый процесс, происходящий в речи (синтагматика).

В связи с этим схемами в русистике нередко называют формулы, состоящие из условных идеограмм, в качестве каковых могут использоваться буквы различных алфавитов (чаще всего латинского, реже, греческого или русского), графические символы и др. Таковы, например, структурные схемы простых предложений, представленные в «Русской грамматике» (АГ-1980): «Для обозначения компонентов схемы вводятся следующие элементарные буквенные символы, соответствующие латинским названиям частей речи и названиям некоторых форм: **Vf** - спрягаемая форма глагола (лат. verbum finitum); **Vf_{3s}** - спрягаемый глагол в форме 3 л. ед. ч. (лат. singularis); **Vf_{3pl}** - спрягаемый глагол в форме 3 л. мн. ч. (лат. pluralis); **Inf** - инфинитив; **N** - существительное (лат. nomen - имя, название); **adj** - прилагательное (лат. adjectivum); **Pron** - местоимение (лат. pronomen); **Adv** - наречие (лат. adverbium); **Adv-*o*** - предикативное наречие на *-о*; **Praed** - предикатив (лат. praedicatum); **Part** - причастие (лат. participium); **$Praed_{part}$** - причастный предикатив; **interj** - междометие (лат. interjectio); **neg** - отрицание (негация, лат. negatio); **cop** - связка (лат. copula); **quant** - квантификативное (количественное) значение (лат. quantitas ‹количество›, ‹величина›). При символе **N** цифры от 1 до 6 обозначают соответственно падежи: 1 - им. п., 2 - род. п., 3 - дат. п., 4 - вин. п., 5 - тв. п., 6 - предл. п.; при символе **N** цифра 2 со следующим дальше многоточием (**N_2**...) обозначает: "существительное в форме одного из косвенных падежей"» [Русская грамматика, URL]. Необходимо учитывать то обстоятельство, что данный фундаментальный труд, помимо всего прочего, является на сегодняшний день основным документом, в котором кодифицированы нормы фонетики, словообразования, морфологии и синтаксиса современного русского литературного языка. Соответственно, принципы построения структурных схем также воспринимаются как эталонные. Такой способ формализации широко применяется в учебно-методической литературе по русскому языку, предназначенной для студентов-филологов. Тем не менее для нужд средней общеобразовательной школы и, тем более при обучении русскому языку как иностранному студентов нефилологических направлений, такие схемы сложны и неэффективны.

Далее, необходимо указать, что «схемами» часто называют также формализованные приемы анализа речевых единиц (например, схема морфемного анализа слова, схема синтаксического разбора предложения и др.).

Ср.:



Или:

На чужой сторонушке рад своей воронушке

Вполне очевидно, что рисунки, таблицы и схемы, подобные рассмотренным выше, активно используются в теории и практике совершенствования лингвистической компетенции по русскому языку у студентов неязыковых вузов. Однако во всех случаях эти средства носят вспомогательный характер

В качестве примера здесь можно привести учебное пособие М.Ю. Криницкой “Практический курс русского языка” [Криницкая, 2017], предназначенное для

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

иностранных студентов-бакалавров второго сертификационного уровня обучения. В книге находят свое широкое применение пиктограммы типа - “теоретическая информация, предназначенная для чтения, перевода и осмысления”; - “задания, цель которых – выполнить тест” и под. Чрезвычайно широко применяются таблицы, в содержание которых включено задание, например, на стр. 9 [Криницкая, 2017, с. 9] (таблица 1.2.):

Таблица 1.2.

Пример таблицы, включающих в себя задание

Задание 2. Выполните тест.

1.	На совещании... директор банка Анна Сахневич поставит вопрос о снижении процентных ставок по кредитам.	**(А)** **(Б)**	исполнительный исполнительная
2.	... мастер спорта Любовь Егорова — чемпионка мира и Олимпийских игр по лыжным гонкам.	**(А)** **(Б)**	Заслуженный Заслуженная

В большом количестве представлены задания, предполагающие собой вписывание студентом от руки необходимых речевых элементов, что сближает данное пособие с рабочей тетрадью.

В учебном пособии, предназначенном для студентов-иностранцев, изучающих РКИ на элементарном уровне, составленном группой авторов из Томского политехнического института [Михалева, 2011, с. 68; 149], в изобилии представлены рисунки, а также таблицы и схемы с рисунками, ставящие своей целью обеспечить быстрое запоминание учебного материала. В известной мере реализованный в данном пособии подход сближается с опорной технологией, однако только в той мере, в какой он опирается на зрительные образы. Как таковые опорные конспекты в работе отсутствуют.

В значительно большей степени приближаются к опорным технологиям методические разработки, представленные в рабочей тетради «Живем и учимся в России», предназначенной для студентов-иностранцев [Капитонова, 2016]. В данной работе широко представлены случаи сочетания опорной схемы и опорного конспекта, предполагающие собой запоминание грамматического правила с последующим закреплением на практике. Тем не менее, невозможно утверждать, что вся концепция данного учебного пособия построена на опорной технологии. Ее использование в работе носит фрагментарный и довольно бессистемный характер.

Таким образом, многие из существующих на сегодняшний день учебных пособий по РКИ используют отдельные опорных технологий. Однако при этом влияние опорной технологии на них отнюдь не абсолютно.

Заключение Опорная технология – это применение конспектов, иллюстративных картинок, предметов, схем, таблиц в качестве опор на уроках для объяснения и закрепления нового материала, для систематизации и обобщения знаний, организации общения на изучаемом языке, повышения мотивации обучения, организации самостоятельной работы учащихся. В ходе реализации опорной технологии находит свое

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

применение по преимуществу информационно-перцептивный (объяснительно-иллюстративный) метод.

Опорная технология может рассматриваться как объективно перспективная система совершенствования преподавания русского языка. Для нее свойственны такие характеристики, как, концептуальность, системный методологический подход, стандартизированное содержание обучения, применение строгих алгоритмов деятельности преподавателя и студентов, высокая степень управляемости процесса обучения, высокая степень воспроизводимости процесса обучения, динамичность.

Список использованной литературы

1. Национальная учебная программа непрерывного образования Республики Узбекистан по русскому языку (как иностранному). – Т., 2021. – 192.

2. Андриянова В.И. Обучение русскому языку в школах Узбекистана на современном этапе. – Т.: Укитувчи, 1997.

3. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.

4. Безрукова В.С. Основы духовной культуры (энциклопедический словарь педагога). – Екатеринбург, 2000. – 937 с.

5. Djalalova, S. M. (2023). The problem of intensification of teaching Russian as a foreign language in the modern linguodidactic paradigm. International Journal of Pedagogics, 3(03), 11-20.

6. Джалалова Сайёра. (2022). Проблема интенсификации обучения русскому языку как иностранному в современной лингводидактической парадигме. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 301–310. Retrieved from http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/274

7. Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Ташкент, 1991. – 240 с.

8. Джусупов М. Образовательные статусы русского языка в современном мире // Русский язык за рубежом. – 2012. – № 6. – С. 15-21.

9. Поливанов Е.Д. Опыт частной методики преподавания русского языка узбекам. – Т.,1968.

10. Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – М.: Книга по требованию, 2018. – 182 с.

11. Тохтаходжаева М.Х. и др. Русский язык: Учебник для 4 класса шк. общ. сред. образов. с рус. яз. обучения / М.Х Тохтаходжаева, В.А. Белова, С.В. Плешакова. - Ташкент: 2017 – 192 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘ZBEK TILIDA DERIVATSION MORFEMALAR ZIDDIYATINING MO‘TADILLASHUVI

Dilfuza Abduhamidovna Nurmanova,
Andijon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
nurmanova73@icloud.com

Annotatsiya. *Maqolada lisoniy ziddiyatlarning ma’lum nutqiy sharoitda zidlanish belgilarining yo‘qolishi natijasida yuzaga keluvchi hodisa – mo‘tadillashuv va uning o‘zbek tilining morfemik sathida amal qilishi xususida so‘z yuritiladi. mo‘tadillashuv hodisasini belgilash, uning sabablarini aniqlash sistem tilshunoslikda variantlarni invariantlarga to‘g‘ri birlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun har bir milliy til kesimida lisoniy birliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar va ularning mo‘tadillashuvi masalasini yoritish dolzarb hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *ziddiyat, mo‘tadillashuv, so‘z yasovchi morfema, derivatsion morfemalar ziddiyatining mo‘tadillashuvi.*

НЕЙТРАЛИЗАЦИЯ ОППОЗИЦИЙ ДЕРИВАЦИОННЫХ МОРФЕМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Дилфуза Абдухамидовна Нурманова,
доцент Андижанский государственный университет, доктор филологических наук
nurmanova73@icloud.com

Аннотация. *В статье пойдет речь о нейтрализации – явлении, возникающем в следствии исчезновения признаков оппозиций в определенных речевых условиях, и ее влиянии на морфемный уровень узбекского языка. Определение явления нейтрализации и его причин помогает правильно объединять варианты в инварианты в системном языкознании. Поэтому важно внести ясность в вопрос об оппозициях между единицами и их нейтрализации в каждом национальном языковом сегменте.*

Ключевые слова: *оппозиция, нейтрализация, словообразовательная морфема, нейтрализация оппозиций деривационных морфем.*

NEUTRALIZATION OF OPPOSITIONS OF DERIVATIONAL MORPHEMES IN THE UZBEK LANGUAGE

Dilfuza Abdukhamidovna Nurmanova,
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor Andijan State University
nurmanova73@icloud.com

Abstract. *The article talks about neutralization, a phenomenon that arises as a result of the disappearance of signs of oppositions in certain speech conditions, and its impact on the morphemically level of the Uzbek language. Determining the phenomenon of neutralization and its causes helps to correctly combine options into invariants in systemic linguistics. Therefore, it is important to clarify the issue of oppositions between units and their neutralization in each national linguistic segment.*

Key words: *opposition, neutralization, derivational morpheme, neutralization of oppositions of derivational morphemes.*

Kirish

Paradigma a'zolari o'rtasidagi ziddiyatning mo'tadillashuvi ma'lum umumiyliklarning konkret nutqiy jarayonda reallashuvi – xususiyliklar bilan uzviy bog'liq. O'zbek tilshunosligida bu muammo bir qator tadqiqotlarda bayon qilingan [12, 26].

Til sistemasida amal qiluvchi izomorfizm qonuniyati asosida mo'tadillashuv hodisasiga yondashadigan bo'lsak, bu hodisa tilning faqat fonologik sathidagina amal qiluvchi tor hodisa emasligiga amin bo'lamiz. Til sistemasida muayyan ziddiyatda bo'lgan ikki lisoniy birlik nutq jarayonida ma'lum sharoitda zidlanishga asos bo'lgan belgilarini yo'qotib, bir xil bo'lib qolishi mumkin. Ma'lum nutqiy sharoitda ikki lisoniy birlik o'rtasidagi ziddiyat belgilarining yo'qolishi mo'tadillashuv sanaladi. Mo'tadillashuv hodisasi til sathidagi birlikning imkoniyati bilan uzviy bog'lanadi. Bunday imkoniyat ma'lum bir nutqiy sharoitda makon va zamon orqali voqe bo'ladi. Mo'tadillashuv hodisasi tilning barcha sathlarida uchragani kabi so'z yasalishi sathiga ham aloqadordir. Bir paradigmaga mansub bo'lgan o'zaro zidlanuvchi so'z yasovchi morfemalarning sintagmatikada ziddiyat belgilarini yo'qotib bir xil bo'lib qolishi derivatsion morfemalar mo'tadillashuvi deyiladi. O'zbek tilshunosligida derivatsion morfemalar o'rtasidagi ziddiyatlarning mo'tadillashuvi masalasi shu kunga qadar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Bu esa mazkur o'rganilayotgan mavzuning bugungi o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikda bir sathga mansub bo'lgan birliklar umumiy belgilariga ko'ra ma'lum paradigmaga birlashsa, xususiy, ya'ni farqlovchi belgilari asosida ana shu paradigma tirkibida o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lishi masalasi va ma'lum sharoitda ziddiyat a'zolari o'rtasidagi farqlovchi belgilarning o'xshash bo'lib qolishi natijasida ularning mo'tadillashuvi masalasi til-nutq dixotomiyasi asosida tadqiq etilgan. Bu muammolar yuzasidan F.De Sossyur [21], L.I.bogoraz-buxman tomonidan rus tilida undoshlar mo'tadillashuvi va arxifonema masalasi [3], Sherba L.V. tomonidan rus tilida unlilar mo'tadillashuvi [28], L.Elmslev[5] va A.Martinelar tomonidan mo'tadillashuv va sinkretizm munosabatlari [10], R.P.Afanaseva[1], E.M.Popova[18]lar tomonidan rus tilidagi fe'llarda mo'tadillashuv masalasi, T.V.Bulgina tomonidan semantik ziddiyatlar mo'tadillashuvi[4], V.K.Juravlev [6], V.M.Beldiyan [2], N.S.Trubetskoy [23], A.A.Reformatskiylar tomonidan fonologik ziddiyatlar mo'tadillashuvi masalasi [19], E.Krjishkova [7], A.M.Muxin [11], Yu.V.Filimonova [24;25], E.V.Krilova [8], V.G.Rudelevlar tomonidan mo'tadillashuv nazariyasi, grammatik sath birliklari o'rtasidagi ziddiyatlar mo''tadillashuvi, ziddiyatlar tasnifi kabi masalalar [20], E.A.Shipilova tomonidan sintaktik sathdagi mo'tadillashuv [27], I.K.Nosova tomonidan adektiv sinflar o'rtasidagi ziddiyatlarning mo'tadillashuvi [13], V.I.Petryankina tomonidan intonatsion birliklar va mo'tadillashuv [17] masalalari yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borildi.

O'zbek tilshunosligida ham lisoniy ziddiyat va mo'tadillashuv masalasiga aloqador bir qator tadqiqotlar maydonga keldi. Jumladan, o'zbek tili fonetikasi va fonologiyasiga oid A.Nurmonov (Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 45б.), A.Abduazizov (Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 188 б.), D.Nabiyevalarning (Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. –Тошкент: Шарқ, 2005. –166 б.); O'zbek tilining morfemik sathiga oid Yo.Tojiev (Ўзбек тилида аффиксал синонимия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1992. – 48 б.), T.Mirzaqulovlarning (Ўзбек тили морфем

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 42 б.); Tilning leksik sistemasiga doir H.Ne'matov, R.Rasulov (Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –128 б.), A.Sobirov (Ўзбек тили лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 50 б); Morfologiyaga oid A.Hojiyev (Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 256 б.), J.Eltazarov (Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 42 б.), Z.Qodirovlarning (Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. 1-қисм.– Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 102 б.); Sintaktik sathga oid N.Mahmudov (Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 147 б.), A.Nurmonov (Сигнификативная оппозиция синтаксических конструкций по признаку «утвердительность-отрицательность» (на материале узбекского языка): Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 42 с.), R.Sayfullaeva (Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанциал (зотий) талқини. – Тошкент: Фан, 2007. – 255 б.), A.Berdialiyev (Ўзбек тилида омоним моделли эргаш гапли қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1993. – 111 б.), M.Mamatov (Вторичный предикат в структуре простого предложения узбекского языка: Автореф. дисс. …докт. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 41 с.), S.Mahmatqulov (Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияланиши: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 50 б.), D.Lutfullayeva (Гапнинг семантик-синтактик қурилиш қолипи ва пропозитив структураси ўртасидаги муносабат (ўзбек тилидаги йўқлик-мавжудлик белгилари асосида зидланувчи гаплар мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 47 б.), H.Usmonova (Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позицион структураси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 34 б.)larning ishlari ana shunday izlanishlardan bo‘lib, ular o‘zbek tilida mo‘tadillashuv hodisasi va unga olib keluvchi holatlarni tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. bulardan tashqari, A.Nurmonov tomonidan o‘zbek tilining sintaktik konstruksiyalarida tasdiq-inkor zidlanishlarining mo‘tadillashuvi masalasi [16], O.Eshonqulov [9] tomonidan o‘zbek tilining morfologik sathida olmoshlar ziddiyatining mo‘'tadillashuvi masalasi o‘rganilgan. Shunga qaramay, o‘zbek tilshunosligida bir paradigmaga oid birliklarning o‘zaro ziddiyati va ma'lum sharoitda ana shu ziddiyat belgilarining yo‘qolib, mo‘tadillashuvi holatlari morfemik va morfologik sath doirasida monografik planda o‘rganilmagan. bu esa mo‘tadillashuv hodisasini barcha so‘z turkumlari doirasida mukammal o‘rganilishini talab etadi.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi

O‘zbek tilida morfemik birliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar va ularning mo‘tadillashuvini yoritishda zidlash, transformatsiya, distributsiya, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, sistem, komponent tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mo‘tadillashuv tilning quyi sathidan yuqori sathiga qadar birdek amal qiluvchi universal hodisa sanaladi. jumladan, mazkur hodisa o‘zbek tilining so‘z yasalishi sathida ham kuzatiladi.

G.N. Gumovskaya emphasizes the universality of the propositional structure as an element of all mental processes. The sentence also appears under the names "mental content", "gestalt", "meaning" [2].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

An utterance is also defined as the result of the interaction of its semantic (i.e. propositional) content with a pragmatic attitude, which makes it possible to generalize everything that is usually understood by a speech situation aimed at communication.

The nominative case is a formal feature of a nominative sentence, but it is not a decisive factor for the formation of a nominative sentence, since not every name is able to form a nominative sentence. For example, nouns such as student, minority, deviation, type, interval, etc., cannot acquire the function of a sentence. Nominative sentences are lexically limited to words capable of conveying the meaning of being. Therefore, the semantic nature of the name plays a major role in the formation of nominative sentences:

– these are words that name phenomena and objects amenable to visual and sensory perception: the names of phenomena, actions and states conceivable in time: rain, cold, snow, heat, silence, pursuit (cf.: There was rain; There will be cold, etc.), among such names are words that directly indicate time: summer, winter, morning, night; and in those cases when these names are called time is vague (for example: month, year), when making a nominative offer, they are specified: Twentieth year; New Year; month of March.

– names of objects placed in space or directly enclosing spatial meaning: a table, books, a mill; a square, a train station, a circus, a club, etc. We lived there alone. Three cows, two horses, inventory. Threshing machine, seeder. Two sheds, a small pond. Garden, vegetable garden, as it should be. Large cellar. Apiary - twenty beehives.

Some linguists consider the main member of the nominative sentence predicate (A.A. Potebnya, F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovsky), others – subject (D.N. Ovsyaniko-Kulikovsky, V.A. Bogoroditsky), others distinguish between subject and predicate nominative sentences (A.A. Shakhmatov, E.M. Galkina-Fedoruk); and others.

Until now, there is no consensus among linguists about which nominative constructions are considered sentences and which are not, how to distinguish nominative sentences from similar–shaped constructions, whether to consider the names themselves as nominative sentences (inscriptions on signs, headings, etc.); nominative representations: Joy... How can you fit it in your chest; nominative, summarizing the preceding statement, giving it an assessment or justification, etc. (for example: There was not enough time at all. Rehearsals, tours); names of persons at the presentation (The guest held out his hand: – Ivanov)?

The communicative function of speech is closely related to the pragmatic one. Units of varying degrees of stability specialize in the implementation of the pragmatic function in a broad sense, which detect the speaker's positions, his communicative intentions and means of speech interpretation of information that is transmitted to the addressee, characterize the speaker's attitude to the communication participants, organize the semantic structure of the utterance, thereby ensuring the flexibility of language as a communication tool. Nominative sentences can be attributed to such units, since the speaker's choice of a particular type of sentence is always associated with the communicative intention of the pragmatic orientation of the utterance.

Conclusions

Thus, in the actual material of the study, nominative sentences perform specific communicative functions, which manifest themselves in the implementation of an emotional - mental, evaluative impact on the addressee in order to assure him of the presence of some object, providing this object with characteristic features, forcing him to agree with the assessment of the reference situation given by the addressee.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

At the same time, indirect ways of implementing the evaluation information contained in their semantics act as an effective means of effectively achieving the programmed pragmatic effect.

Lliterature

1. Belyaeva M.V. "Neutral" and "colloquial" in oral discourse: strong and weak syntactic positions (based on the material of the German language) // Izvestia of higher educational institutions. Volga region. Humanities. 2011. No. 1. pp. 123-130.
2. Gumovskaya G.N. Semantic structure and compatibility of some adjectives of the English language denoting a large size of spatial extent (huge, spacious, capacious, commodious, roomy, wide, broad) // Dissertation for the degree of candidate. - Moscow, 1984. – 188 p.
3. Kotovskaya M.A. The use of authentic newspaper texts in the process of teaching English to students of managerial specialties // Materials of Afanasiev readings. 2017. No. 1 (18). pp. 91-94
4. Med N.G. National-cultural specificity of evaluative phraseological units (based on the material of Spanish colloquial speech) // Izvestiya of the A.I. Herzen Russian State Pedagogical University. 2008. No. 66. pp. 68-74.
5. Petrivnaya E.K., Belaya S.D. The phenomenon of ambivalence of love ecstasy in world literature // In the collection: Aesthetic and artistic space of world literature Materials of the international scientific and practical conference "Slavic culture: origins, traditions, interaction. XVI Cyril and Methodius readings". 2015. pp. 146-149.
6. Sverdlova N.A. Methodological features of the linguistic concept of Otto Espersen // Abstract of the dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences. - Chelyabinsk, 2004. – 22 p.
7. Vashcheva I.Y. The phenomenon of "church stories" in the era of late antiquity // Abstract of the dis. ... Doctor of Historical Sciences: 07.00.03 / Belgorod State National Research University. Belgorod, 2013. – 46 p.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

RETARDATSIYA BADIIY XRONOTOPNING IFODA USULLARIDAN BIRI SIFATIDA

To‘rayeva Bahor Bahriddinovna
Dotsent, filologiya fanlari doktori
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. *Maqolada epik asarlarga xos kompozision usul – retardatsiyadan foydalanishda adiblar uslubidagi individuallik va universallik aniqlanib, lirik chekinish, kiritma voqealar, rivoyat, epigraf, mufassal portret, personaj xarakteristikasini berishda ijodkorlar uslubiga xos mushtaraklik – personajning o‘tmishi haqida hikoya qilish, peyzajning parallel va kontrast tasviri kabi kompozision vositalarning birlamchi xarakterga ega ekanligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *retardatsiya, roman, xronotop, muallif uslubi, peyzaj, portret.*

РЕТАРДАЦИЯ – ОДИН ИЗ МЕТОД ВЫРАЖЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ХРОНОТОПА

Тураева Бахор Бахриддиновна
Доцент, доктор филологических наук
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация. *В статьи выявлена индивидуальность и универсальность стиля писателей в использовании композиционного метода – ретардации, характерного для эпических произведений, и обосновано, что первичный характер имеют такие композиционные средства, как лирическое отступление, вводные события, повествование, эпиграф, развернутый портрет, общие для стиля авторов в характеристике образа – повествование о прошлом персонажа, параллельное и контрастное изображение пейзажа.*

Ключевые слова: *ретардация, роман, хронотоп, авторский стиль, пейзаж, портрет.*

RETARDATION IS ONE OF THE METHOD OF EXPRESSING AN ARTISTIC CHRONOTOPE

Turaeva Bahor Bahriddinovna
Doctor of Sciences in Philology, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
bahorturaeva@gmail.com

Abstract. *The article reveals the individuality and universality of the writers’ style in the use of the compositional method – retardation, characteristic of epic works, and it is substantiated that the primary nature of such compositional means as lyrical digression, introductory events, narration, epigraph, detailed portrait, common to the style of authors in characterization of the image - a narration about the character’s past, a parallel and contrasting image of the landscape.*

Key words: *retardation, novel, chronotope, author’s style, landscape, portrait.*

Kirish

Retrospeksiya va prospeksiya singari retardatsiya xronotopning ifoda usullaridan biri hisoblanadi. Retardatsiya (lot. retardatio – sekinlashuv) – kulminatsiyaga qarama-qarshi adabiy usul bo‘lib, matnga syujetdan tashqari elementlar: tabiat va interyer tasvirlari, lirik chekinishlar,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

falsafiy mulohazalar, monologlar, tush tasviri, bir xil epizodlarni kiritish orqali syujet harakatining rivojlanishi sekinlashtiriladi (9; 314). Adabiyotshunoslikda antiklimax (yun. ἀντί – «qarama-qarshi» va klīmāl – «zinapoya») termini bilan sinonim ravishda qo‘llaniladi. Retardatsiya odatda ikkinchi darajali personajlar, qistirma epizodning kiritilishi orqali ham yuzaga keladi, syujet voqealarining maromini to‘xtatib qo‘yadi (5).

Adabiyotlar tahlili

«Asrni qaritgan kun» romanida «Nayman ona», «Chingizxonning oq buluti», «Raymali og‘a va Begimoy» rivoyatlarining qistirma epizod shaklida kiritilishi, Sovet – Amerika «Demiurg» konvensiyasi asosida koinotga 1-2 va 2-1 paritet fazogirlarining uchirilishi, «hajm jihatidan Yerga teng keladigan geobiologik joyni egallab turgan To‘qayto‘sh sayyorasida aqlli mavjudotlar»(1; 131-b.) yashashi haqidagi yondosh syujet chizig‘i, yozuvchining lirik chekinishi va falsafiy mushohadalari, Ukkubola, Edigey, Abutolibning tushi asar voqealarining maromini sekinlashtirgan, parallel syujet chizig‘i harakatlanganda, birinchi syujet voqealari tasviri yozuvchining ijodiy niyatiga ko‘ra butkul to‘xtatilgan. «Qiyomat» romanida Avdiy Kallistratovning Xudo, hayot, insoniylik to‘g‘risidagi mulohazalari, uning o‘tmishi haqidagi retrospektiv xotiralari, «Oltovlon va yettinchi» gruzin balladasining kiritma epizod shaklida ifodalanishi, Pushkin muzeyida Sofiya mug‘anniylarining «Kecha qurboni», «Sabiylarni tahqirlash», «Maloiklar nolasi» kabi Injil ehtiroslari din-iymon yo‘lida aziyat va riyozat chekkanlarning og‘ir alangali qo‘shiqlarini kuylash epizodi, Iso Masih va Pontiy Pilat mubohasasi, Bo‘ston O‘rkunchiyev va Akbaraning tushi, portret va peyzaj tasvirlari asosiy syujet voqealarini sekinlashtirgan. «Qulayotgan tog‘lar» romanida Mangu qayliq afsonasi voqealar oqimini sekinlashtirish barobarida yechimga qadar asosiy voqealarga singib ketgan. «Kassandra tamg‘asi» romanida qahramonning falsafiy mushohadalari, portret, peyzaj tasviri, Filofey va Entoni Yungerning maktublari, Borkning tushi syujet voqealarining sekinlashuviga sabab bo‘lgan. Samoviy rohib Filofeyning Rim papasiga yo‘llagan maktubi ikkinchi bobni to‘liq, olti o‘rinda «Xudo haqqi, faksni o‘chira ko‘rmanglar» kirish gapi bilan boshlanuvchi Entoni Yungerning Robert Borkka faks orqali yuborgan jo‘natmalari sakkizinchi bobni qisman tashkil qiladi, epilog esa Filofeyning vido maktubi, «Sen bilan va sendan keyin ko‘rgan-kechirganlarim» sarlavhali tavba-tazarrusi ifodalangan xatlardan iborat. Asarda maktublar syujetning muhim tarkibiy qismlarini, qahramonlarning xarakter-xususiyatini ochib berish vazifasini bajargan. Maktublar qahramonlarni tavsiflashning asosiy vositalaridan biri sifatida Filofeyning insoniyat kelajagi borasidagi tashvishlari, inson genofondi bo‘yicha kosmosdagi kashfiyotlaridan tortib, eksperimental biologiyadagi ixtirolarigacha, hammasining ayanchli oqibatlaridan vijdonining azoblanishi; prezidentlikka nomzodini qo‘ygan Oliver Ordok vaziyatni o‘z tomoniga og‘dirish uchun, uning ta’biri bilan aytganda, «Yerda turib yelkasini Filofeyga tutadigan, vaziyatni buzadigan, ...suvni loyqalatadigan kishi» (3; 156-b.) Robert Borkni darg‘azab olomon girdobiga tashlashi bilan bog‘liq voqealarni ifodalaydi. Maktub xarakterning o‘zligini namoyon qilishning badiiy shakli bo‘lib, unda uning individualligi, o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi.

«Dashtu dalalarda» romanida Eshqul polvonning o‘tmishida ro‘y bergan voqealar – qaynotasi O‘sarqul battol va Farmonov bilan bog‘liq xotiralari, ajdaho haqidagi turli afsonalari, Eshqul polvonning inson va jondorlar haqidagi o‘y-mulohazalari, Bo‘zbo‘ri ba’zan inson, ba’zan jondor shaklida tushiga kirishi; Sa’dulla, rassom, O‘sarqul battolning ayoliga oshiq bo‘lgan yigit va To‘lanboyning ayoli Oygulga oshiq bo‘lgan yigit kabi ikkinchi darajali personajlarning asarga kiritilishi, portret va peyzaj tasviri syujet voqealari maromini susaytiradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

«Qoraquyun» romanida Donishota rivoyati, Oqbo‘ta va Bardam chol ikkinchi darajali personajlari, Toshpolvon va Bibisora qistirma epizodi, Qoraquyunning ajdodi Olarit qistirma epizodi, insonlarning tabiatga berayotgan sitamu ozorlari, olam va odam munosabatlari haqida Donishota hamda Qalaybekning mushohadalari, qahramonlar portreti, peyzaj tasvirlari asosiy syujet voqealarining sekinlashuviga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Romanlarda syujet dinamikasining sekinlashuviga sabab bo‘lgan badiiy omillar voqealar maromini boshqarish barobarida dramatizm, chuqur lirizm va romantik buyoqdorlikni yuzaga keltirgan. Romanlarda zamon va makon ko‘lamining kengayishiga, xarakter qirralarini yorqinroq ochishga, yozuvchining shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahoratini ifodalashga, asarning badiiy-estetik ta’sirining kuchli bo‘lishiga xizmat qilgan.

Tahlillar va natijalar

Ikkala adib romanlarida ham rivoyat va afsonalar qo‘llanilgan, ammo foydalanish uslubida jiddiy farq mavjud. Asosiy syujet voqealariga parallel holda rivoyat va afsonani keltirish Ch.Aytmatovga, o‘tmish va hozirni tutashtirish esa N.Norqobilov uslubiga xos. Chingiz Aytmatov romanlarida tarixiy, diniy rivoyatlarni keltirganda, o‘z badiiy zamonida erkin harakatlanolmaydi, boisi tarixiy haqiqatni badiiyatga ko‘chirishda haqiqatga sodiqlik qonuniyatiga bo‘ysunadi. Normurod Norqobilov esa rivoyat va afsonalarning syujetini, motiv va obrazlarini bugungi kun voqealariga singdiradi, ya’ni stilizatsiyalaydi.

Chingiz Aytmatov uslubiga xos jihat shundaki, ba’zan portret va peyzaj tasviri, personaj xarakteristikasini muayyan qahramon tilidan beradi, bu holat asar polifoniyasini ta’minlaydi. N.Norqobilov lirik chekinish, portret, peyzaj tasvirini asosan muallif nutqi orqali ifodalaydi, ammo Ch.Aytmatov uslubi bilan mushtarak jihati shundaki, qahramonlarning ichki va tashqi portretini yaratishda personajlarning ta’rif-tavsiflariga tayanadi. Portretning bir o‘rinda to‘liq yoki turli o‘rinlarda sochma holda ifodalashga ko‘ra adiblar uslubida farqlilik kuzatiladi. N.Norqobilov romanlarida portret tasvirini hech qachon bir o‘rinda batafsil bermaydi, asarning turli o‘rinlarida sochib tashlaydi. Ch.Aytmatov romanlarida esa har ikki jihat namoyon.

K.B. Kubdasheva portretning ikki turini izohlaydi: «Statik portret ob’yektiv, nisbatan barqaror va o‘zgarmas ko‘rinish belgilarini: balandlik, gavda tuzilishi, terining rangi, ko‘zlar va sochlarni aks ettiradi. Dinamik portret yuz ifodalari va imo-ishoralar, yurish xususiyatlari va tana harakatlari, nutq uslubi (ovoz, intonatsiya, talaffuz) kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi» (7; 38). Har ikki adib romanlarida statik va dinamik portret xususiyatlari uyg‘unlashadi. Dinamik portret psixologik portret kabi qahramonning ichki dunyosi va hissiy holatini ochib berish usuli bo‘lib xizmat qiladi. Adiblar qahramonlar dinamik portretini yaratishda tashqi ko‘rinishning batafsil tavsifini bir o‘rinda umuman bermaydi, balki belgilarini butun matn bo‘ylab sochib yuborishadi. Tafsilotlar voqealar rivojiga monand o‘zgarib turadi, qahramonlarning yangi qirralari, ularning ichki dunyosi, ruhiyati manzaralari ochib beriladi, odatda qahramon bilan birinchi uchrashuvda uning statik portretini yaratib, unda qahramonning tashqi ko‘rinishini batafsil tasvirlashadi. N.Norqobilov romanlarida «kelbatidan ot hurkadigan»(7; 71-b.) Eshqul polvon, «yuzi va bo‘yni shamolu quyoshdan qoraygan, badani esa oppoq»(7; 58-b.) To‘lanboy, «pachaq-puchoq jo‘ralari»(7; 58-b.) – Zunun va Ro‘ziqul, «parivash qorako‘z nigor emas, qo‘yko‘zli oddiygina qiz, yuzi ham sutga chayilganday oppoq emas, rangpargina»(7; 153-b.) Oygul tasviri statik portretga yorqin misol bo‘ladi. «Xuddi qafasga tushgan bo‘riday, choh bo‘ylab izg‘ish-u, dam-badam boshini ko‘tarib, yuqoridagi tuynukka alam-la boqib qo‘yishdan boshqasini bilmagan»(8; 58-b.)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Erman, «o‘ktam nigohida hamdardlikdan tashqari, qahrga o‘xshash nimadir doimo olovlanib turgan» Oybekach, «yuzida o‘sha istehzoli nim tabassum, ko‘z ilg‘amas imo-ishoralar bilan mazkur xavfli jarayonni zimdan boshqararkan, har safar marosim so‘nggida gohida indamay turib ketadigan»(8; 115-b.) Itolmas tasviri asosida dinamik portretni yaratadi.

Portret yaratishda N.Norqobilovning qahramonga nisbatan subyektiv munosabati seziladi. Personajlarning nomiga qo‘shilgan sifatlovchilarni (Eshqul polvon, Nosir polvon, Oybarchin, Oybekach, Oygul, Donishota, Qalaybek, Sulaymon chavandoz (ijobiy), To‘lanboy, Erman, Boyg‘ozi kal, Zokir qora, O‘ljaboyev, Ulash qora, Ro‘ziqul (neytral); O‘sarqul battol, Asil cho‘tir, Shavkat qirriq, Itolmas, Qoraqul, Zafar pismiq (salbiy) ularning individual belgilarini ko‘rsatuvchi badiiy vosita shaklida qo‘llagan.

Yozuvchi portretni boshqa personajlar tasavvuri, mulohazalari, idrokiga tayanib ham yaratadi. Eshqul polvon Sa’dullaga g‘ayriixtiyoriy ravishda boqarkan, bundan hayratlanadi: «Uning oppoq, semiz barmoqlari va tizzalari ustiga tushib turgan qorniga ko‘z tashlarkan, uni oppoq eshakqurtga o‘xshatadi(7; 101-b.). Eshqul polvonning o‘xshatishi orqali uning Sa’dullaga antipatiyasini yaqqol sezish mumkin. Yoki Eshqul polvonni bir umr dashtda podachilik qilishiga sabab bo‘lgan kimsa – Boyg‘ozi kalni ta’riflaganda, unga nisbatan ijobiy munosabati bo‘y ko‘rsatadi: «Tili achchiq bo‘lgani bilan yuragi toza edi. Odam bolasining mudrashiga yo‘l qo‘ymasdi, o‘likka o‘xshab so‘ljaymay, tetik yur, deb doim hammani tergab, turtkilab yurardi. Elga kayvoni bo‘ladigan odam edi. Uning ruhini ardoqlab, opkeb bergan o‘tovini uzoq yil tutdim, kigizlari chirib, cho‘plari ado bo‘lguncha tutdim. Keyin tashlab yuborishga ko‘zim qiymay, barini Qizilqoyaning poyiga oborib ko‘mdim. Rahmatli qoyaday viqorli edi. Bunaqa odamlar hamisha kam bo‘lgan!»(7; 156-b.). Asarda bir qancha personajlarning ichki va tashqi portretiga xos chizgilarga Eshqul polvon nigohi orqali razm solinsa, bir necha personajlarning Eshqul polvonga nisbatan tavsiflari ham keltiriladi. «1-jadvalga qarang».

1-jadval

Eshqul polvonning ichki va tashqi portretiga berilgan tavsiflar

Haydar	Pochchaning jasadiyam bunikidan kam emas-da! ...Quturgan paytida, eng yaxshisi, hadaha oyoqni qo‘lga olgan ma’qul, emasam, yerga namatday cho‘zib tashlaydi!(7; 19-b.)
Sa’dulla	Omisizda, otam, omisiz, madaniyat nimaligini tushunmaysiz(7; 65-b.). Iyagingizdagi soqolni demasa, lekin siz hech ham qariga o‘xshamaysiz. Qomatdan xudo bergan ekan, ikki betingiz qip-qizil...(7; 66-b.).
Oysuluv	Otangni bo‘lishi shu, bolam. Sening tug‘ilishingni biz o‘n yildan oshiq kutganmiz, hech bo‘yimda bo‘lavermasa-da, otang menga bir og‘iz achchiq so‘z aytmagan. Sen tug‘ilganingdan keyin ham boshqa erkaklarga o‘xshab do‘ppisini osmonga otmagan. Dashtni boshiga ko‘tarib baqirmagan(7; 95-b.).
Ulash qoraning mehmoni (ismi keltirilmagan)	bu odam hamma qatori mutelarcha qo‘l qovushtirib o‘tirmagan, davrga nisbatan o‘ziga xos tarzda isyon ko‘targan. Sizga-bizga o‘xshab xatti-harakatining oqibatini emas, ko‘proq elning manfaatini o‘ylagan(7; 158-b.).

Bir qancha personajlarning tavsifi orqali Eshqul polvon va Sobitjon obrazlarini yaratish mahoratida adiblar uslubida mushtaraklik kuzatiladi. Qahramonlarning individual

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

xususiyatlarini ochishda jamiyatdagi turli qatlam vakillarining tavsiflari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bundan qahramon mikroxronotopining turli rakursdagi namoyoni yuzaga keladi.

Oqbo‘ta zakiy nigohi orqali Xonto‘ra va uning o‘g‘li Qalaybekning ichki portretiga nazar soladi: Qalaybekdek oqil, serandisha, lutfi totli yigit shu so‘xtasi sovuq bandaning zurriyodi ekaniga ishongisi kelib-kelmay, Xonto‘raning tund aftiga bir muddat tikilib qoladi. ...Xonto‘raning obro‘yi yuksak emas, o‘rtadan past darajada. Badgir va maydagapligi bois hamisha kishilardan dakki yeb yuradi. Hozir ham noqis fe’li tufayli kimdandir dashnom eshitgan shekilli, rangi chiqmay turibdi(7; 27-b.). Xonto‘raning ichki portretiga xos belgilar Qalaybekning hovlisiga, Ermanni ko‘rish uchun Tuyako‘z vodiysiga borganda yanada teranlashadi. Qalaybekning ma’naviy-ruhiy olamiga xos qirralar asarning turli o‘rinlarida – Oqbo‘ta, Donishota, Erman, Bibisoralar bilan munosabatlarida ayonlashadi.

Personajning o‘ziga tavsif berishi bandilikdan qutulish amru maholligini anglagan Erman monolog-mulohazasida namoyon bo‘ladi: «Axir u qul emas, Ko‘kalabosh qavmining erkin, o‘ziga ishongan yigitlaridan biri edi-ku! Nechun yaramas Qoraqul unga qul kabi muomala qilmoqda?(8; 55-b.) yoki Oybekach o‘zini «Xudo urgan bir sarkashman-da», deb o‘ylasa, boshqalar ham «O‘r, juda o‘r!»(8; 153-b.) ta’rifini berishadi. Oybekach mikroxronotopini ichki portret orqali ochishda xalq doston va rivoyatlaridagi To‘maris, Xolbeka obraziga xos xususiyatlarni stilizatsiyalaydi: «o‘tgan ulug‘ momolarning zukkoligi va yovqurligi Oybekachga meros sifatida o‘tgan emasmi, buning bari juvon vujudi va shuurida aks etib, oqibatda, uning idrok etgani shu bo‘ldi – bu yorug‘ olamga kelish baxtiga muyassar bo‘lgan har bir tirik jonning zimmasida ertangi hayot ibtidosi mavjud, ya’ni tiriklikning kelgusi tebranishi bugungi avlodning guvranishiga bog‘liq»(8; 100-b.). N.Norqobilov romanlarida folklor obrazlarini stilizatsiyalash natijasida qahramonlarning milliy-ma’naviy qiyofasini yaratish barobarida ularning mikroxronotopini teranlashtiradi.

Ch.Aytmatov romanlaridagi statik portret namunalari quyidagilar: Qoranorning «ko‘zlari biram chiroyli, namchil tortgan bu yirik, tiniq ko‘zlar bolalarniki singari yoqimli va umidvor»(1; 102-b.), Ukkubola (ilgari qanaqa edi – qoramag‘iz yuzlari bug‘doy rangida tovlanar, qop-qora ko‘zlari chaqnab turar edi), yana buning ustiga, guruchday tishlari tushib ketibdi (1; 17-b.), Kazangapning haqiqiy dasht odami ekanini jazirama issiq va doimiy shamoldan qorayib, qotib ketgan yuzlariyu sertomir, chandir qo‘llaridan sezib olish mumkin. Og‘ir mehnatdan barvaqtroq bukchayib qolgan yelkalari mahobatli osilib turadi, shuning uchun ham bo‘lsa kerak, o‘zi o‘rta bo‘yli bo‘lsa-da, bo‘yni g‘ozning bo‘yni singari cho‘zilib ketganday tuyuladi. Hammasidan ham ko‘zlari o‘zgacha: kulimsirab turuvchi bu qop-qora ko‘zlar, odamning dilidagini sezib turganday e’tibor bilan boqadi. Kazangap o‘sha kezlari qirq yoshlar atrofiga borib qolgan edi. Tozalab qaychilangan kora murti, burul tortib qolgan cho‘qqi soqoli bu odamning yoshini ancha ulug‘ qilib ko‘rsatardi (1; 89-b.), Bork «birdan boshiga shlyapasini kiydi-yu, o‘z qiyofasiga kirdi. Olomon oldida yirik suyaklari turtib chiqqan, yuzi keng, ko‘zlarining atroflarini ajin bosgan, lekin bo‘yni hali baquvvat, tishlari butun, oq sochli chol turar edi. U Frankfurt jurnalistlari tili bilan aytganda, «Keksa qoya» edi(3; 239-b.). Adib statik portret orqali inson va jonzot tashqi ko‘rinishining ob’yektiv, nisbatan barqaror va o‘zgarmas belgilarini ifodalaydi. Personajning jamiyatdagi o‘rni, qaysi qatlamga mansubligini ko‘rsatadigan belgilar Kazangap, Bork va Ukkubola portretlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Muallif dinamik portret orqali qahramonlar qalbidagi ruhiy talotumlarni tasvirlagan: Arsen Samanchin «Yevraziya» restoranidan haydalishning iztirobli lahzalarida «uning boshi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

aylanar, yuragi ko‘ksida gursillab urar, bugunga mo‘ljallagan ishlari endi bitmasligini o‘ylab siqilardi»(4; 27-b.).

Dinamik portret orqali Ertosh Kurchalning ummoniga g‘arq Oydananing «yo men yulduz uzangisida pop-shou-biznesning keng yo maydonlariga ot qo‘yaman, yo romantizmning yig‘i-sig‘isini qilib, kunim tilanchilikka qoladi!»(4; 131-b.) qabilidagi a’moli ayonlashadi: «Qo‘shiqchi qiz kuy kuylab, odamlarning zavqu shavqlarini benihoya junbushga keltirib chirmovuqday buralar, badanidagi barcha a’zolarini jo‘sh urdirib o‘ynatar, izdihom esa boshdan-oyoq vajdu jazavaga tushib, qo‘shiqchi qizni sira qo‘yib yubormas, ko‘zlari bilan uni naq yeb qo‘yguday, qars urar, qiyqirar, Arsen esa sahna yonida turib, qiz ovoz taratib, arzon, yengil musiqa maqomlariga jonini ayamay yo‘rg‘alayotganidan, shu musiqaning bandi-asirasiga aylanayotganidan nigohini uzmasdi»(4; 28-b.).

Asosiy syujet voqealariga parallel tarzda keltirilgan jaabars hikoyatida jonzotning dinamik portreti yaratilgan: «u o‘ljasini quturib quvib borayotganday nafasi og‘ziga tiqilar, yuragining gursillab urishidan quloqlari chippa bitar va eng qo‘rqinchlisi – nafas yetmay og‘ir bo‘g‘ilar, oyoqlarida majol qolmay tappa yiqilar, orqasiga sirg‘alib qular, ko‘zi jimirlab nazarida dunyo ostin-ustin bo‘lardi. Uyog‘iga yana yuqori ko‘tarilishga kuchi yetmasdi – tomog‘i xir-xir qilar, bo‘g‘ilib irillar, biroq bir odim ham oldinga bosolmasdi...»(4; 35-b.). Achchiq qismatidan Uzangilash dovoniga qochib ketishni benihoya istagan Jaabarsga Arsen singari tole kulib boqmaydi.

Ch.Aytmatov portretni qahramonning o‘zi yoki bir hamda bir necha qahramon tasavvuri orqali yaratadi, bu usul qahramonning xarakter-xususiyatini, boshqa personajlarning unga nisbatan subyektiv munosabatlarini ham bildirishga xizmat qiladi: «Qulayotgan tog‘lar» asari qahramoni Oydana Samarova tasvirida Arsen Samanchinning «ortiqcha kamtarlikka hojat bormi» izohi orqali uning naqadar go‘zalligiga ishora qilinadi: «Oyaga, ha haqiqatan tabiat go‘zal husnu malohat ato etgan, bo‘y-basti, qaddi-qomati, gulday chehrasi, qop-qora kipriklararo chaqnab turuvchi tarxi chiroyli ko‘zlari, kalta kestirilgan, yelkasiga to‘kilib turadigan, dam orqaga taralgan, dam tarovatli ikki betini yoyday o‘ragan sochlari! Ovozi-chi! Unga shunday tiniq, o‘tkir, go‘zal ovozni ato etmish Ollohga cheksiz hamdu sanolar bo‘lsin!» (4; 128-b.). «Qiyomat» romanida Avdiy Pushkin muzeyidagi konsertda Sofiya mug‘anniylari orasidagi qora sochli bolgarlar ichida birdan-bir malla qo‘shiqchi juda ham o‘ziga o‘xshab ketishini sezib qoladi: «O‘zingga baayni o‘xshaydigan odamni uchratsang, g‘alati bo‘lib ketarkansan kishi. Uning ko‘zlari ko‘kimtir och, yelkalari tor, – ehtimol, uni ham bolaligida oriq deb chaqirishgandir, uzun sochlari och sarg‘ish, qo‘llari serpay va ingichka, u ham tortinchoqligini qo‘shiq aytib yengsa ajabmas, bunday holat menda ham ko‘p bo‘ladi, o‘ng‘aysizligimni yashirish uchun ko‘pincha gapni diniy mavzularga burib yuboraman»(2; 82-b.).

Edigey Bo‘ron nigohi orqali Ukkubola, Sobitjon, Zarifa, Qoranor kabi personajlarning ichki va tashqi portretiga xos ayrim chizgilar tasvirlanadi. Birgina Sobitjon portretiga turli personajlar razm solishgan va bu adibga Sobitjonning psixologik portretini, ya’ni nafaqat qahramon tashqi qiyofasini, balki uning xarakteriga xos tadrijiy dinamikani ko‘rsatish imkonini bergan. «2-jadvalga qarang».

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2-jadval

Sobitjonning ichki va tashqi portretiga berilgan tavsiflar

Edigey Bo‘ron	Bir qarashda kiroyi yigit. Hamma baloni biladi, hamma narsani eshitgan, lekin bulardan naf yo‘q (1; 29-b.). ...qiyofasidan yoshlik davri arang seziladigan ukki ko‘zli, doim kulib turuvchi kattagina kishi turibdi. Endi u ko‘zoynak taqib olgan, boshida tepasi bukib qo‘yilgan shlyapa, bo‘ynida urinib qolgan bo‘yinbog‘ – zo‘rg‘a tanib olasan(1; 38-b.).
Edilboy Daroz	...uzzukun telefon oldida o‘tirar, boshliqning kabineti bilan qabulxona o‘rtasida bo‘zchining mokisiday yelib-yugurar, «Eshitaman, Aljapar Qahramonovich! Xo‘p bo‘ladi, Aljapar Qahramonovich! Hozir, Aljapar Qahramonovich!» deyishdan boshqa narsaga ulgurmas ekan. «Bo‘ronlidan chiqqan hamsoyamiz shunaqaykan, bilmay yurgan ekanmiz». Bo‘lgan-turgani shu bo‘lsa, nimayam qilardi...(1; 33-b.).
Oyzoda	Sendaqa oqilu donoga ko‘zimiz uchib turgani yo‘q! ...sen ham firibgarsan, xotiningga poy-patak bo‘b yurgan pastkashsan, ikkoving otamni sog‘in sigirday sog‘ib ichdinglar (1; 48-b.).
Oyzodaning eri	Agar oramizda it bo‘ladigan bo‘lsa – o‘sha sening o‘zingsan, ablah! Anavi it nimayu, sen nima? Yana maqtanganiga o‘laymi, men davlatning odami, davlatning odami deb! Sen umuman odam emassan!(1; 501-b.)

Bir necha personajlarning Sobitjonning ichki va tashqi portretiga oid tavsiflari qahramon xarakterining turli qirralarini ochishga xizmat qilgan. Tashqi ko‘rinish tafsilotlari ichki portret belgilari bilan uyg‘unlik kasb etgan. Romandagi biror qahramon portretiga Sobitjonniki singari turli personajlar nigohi orqali nazar solinmagan. Turli nuqtai nazar asosida yaratilgan portret nafaqat muallifning, balki personajlarning o‘zaro munosabatini, simpatiya yoki antipatiyani, shuningdek, qahramonlarning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi.

Xulosa

Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida tasvirlanayotgan voqealar, muammolar, personajlar haqidagi fikr-mulohazalari va kechinmalari lirik kirish, chekinish, xotimada bayon etilgan. Har ikkala adibning olam va odam sinoatlari, ijtimoiy voqelik, ma’rifiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy muammolar, tabiat va tiynat masalalari, adolat, ezgulik, haqiqat singari umumbashariy qadriyatlar borasidagi falsafiy mushohadalari romanlarning badiiy qimmatini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, bu badiiy unsurlar zamonaviy romanlar syujetining asosiy voqealariga xalal berish bilan birga muallifga syujet chiziqlarini bir-biriga bog‘lash va asar badiiy zamonini boshqarish imkonini beradi. Retardatsiya usulidan foydalanishda Ch.Aytmatov va N.Norqobilov uslubiga oid o‘ziga xosliklarni istagancha keltirish mumkin, bular o‘z original uslubiga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Айтматов Ч. (2019) Асрни қаритган кун: (Чингизхоннинг оқ булути, Тангрига тавалло): роман. /Рус тилидан Асил Рашидов ва Иброҳим Ғафуров таржимаси. Тошкент: Sharq, 560 б.
2. Айтматов Ч. (2015) Қиёмат: роман. /Рус тилидан Иброҳим Ғафуров таржимаси. Тошкент: «Янги аср авлоди», 432 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. Айтматов Ч. (2016) Кассандра тамғаси: Фалсафий роман. /Русчадан Суюн Қораев таржимаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 352 б.
4. Айтматов Ч. (2016) Қулаётган тоғлар: роман. /Рус тилидан Иброҳим Ғафуров таржимаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 432 б.
5. Зунделович Я. (1925) Литературная энциклопедия: Словарь литературных терминов: В 2-х т. / Под редакцией Н. Бродского, А. Лаврецкого, Э. Лунина, В. Львова-Рогачевского, М. Розанова, В. Чешихина-Ветринского. Москва; Л.: Изд-во Л. Д. Френкель / https://rus-literature-enc.slovaronline.com/4547
6. Кубдашева К.Б. (2014) Описательный уровень структурно-семантического комплекса// http://www.rusnauka.com/38_NIEK_/Philologia/8_181771.doc.htm/ https://poisk-ru.ru/s12318t3.html
7. Норқобилов Н. (2009) Дашту далаларда: роман. Тошкент: «Ўзбекистон», 224 б.
8. Норқобилов Н. (2016) Қорақуюн: роман. Тошкент: «Ўзбекистон», 222 б.
9. Словарь литературоведческих терминов. С.П. Белокурова(2005)// *https://literary_criticism.academic.ru/314/*

IMPROVEMENT OF TYPES OF SPEECH ACTIVITIES ON THE BASIS OF A COMPETENCY-BASED APPROACH

U.B.Yuldoshova
Tashkent institute of Finance,
Phd, Senior teacher of "Foreign Languages" department

Annotation; *in this article is discussed about paying attention to the effective teaching of speech activities in foreign language teaching. Information about the emergence of the competence-based approach, its importance and role in improving the types of speech activity is given.*

Key words; *student, types of speech activity, competence-based approach*

NUTQ FAOLIYATI TURLARINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya; *Ushbu maqolada horijiy tillarni o'qitishda nutq faoliyati turlarini samarali o'qitishga e'tibor qaratish haqida so'z boradi. Kompetensiyaviy yondashuvning paydo bo'lishi, nutq faoliyati turlarini takomillashtirishda ahamiyati va tutgan ro'li haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar; *talaba, nutq faoliyati turlari, kompetensiyaviy yondashuv*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

Аннотация; *в данной статье обсуждается об уделении внимания эффективному обучению речевой деятельности при обучении иностранному языку. Дана информация о возникновении компетентностного подхода, его значении и роли в совершенствовании видов речевой деятельности.*

Ключевые слова; *студент, виды речевой деятельности, компетентностный подход*

Introduction

According to the analytical opinions of scientists, low communicative competence in learning a foreign language is intercultural disparity hinders the full acquisition of the language. In this regard, the main goal of teaching a foreign language is to form "types of speech activity" in students, that is, knowledge related to everyday, scientific and professional activities. Foreign languages are integrated language skills as oral speech practice (listening and speaking), written speech practice, communicative grammar, communicative lexicon (vocabulary increase), discourse (text) analysis. English is the language of international communication. As independent learning skills, current problems of the field, professional ethics, development of intercultural communication competence, written communication in business, history and directions of the studied specialization, current problems of the field, professional ethics, development of intercultural communicative competence. In business is required to have sufficient knowledge and skills in written communication, the history and directions of the studied specialty.

In order to achieve easier and faster results in this process, we chose to focus on the process of improving the "types of speech activity" based on the competence approach to the students who are studying, in order to better convey the topic during the training.

Literature analysis

Analysis of many literatures and scientific studies shows that the problems of communication organization are of constant interest in the field of teaching foreign languages. The reason for this is explained by different circumstances. The first obstacle that appears above all is the ability of students to learn differently, information is learned at different levels at the same time, and it is shown that students have different character and temperament (physical and psychological state). Researchers emphasize that high potential is necessary for successful teaching results. It is not without benefit to provide the students' communicative abilities, the quality of their speech and the correctness of their speech with clear, impressive, logical, interesting arguments through the possibility of using interactive teaching methods in foreign language acquisition.

Formation of teaching in higher education institutions on the basis of various strategies is important. At the same time, alternative methodological solutions, generally abandoning the old methods of teaching, make it possible to achieve effective results through new innovative methods. The central problem of organizing foreign language education in higher educational institutions is the issue of determining the appropriate educational content. On the one hand, the goal is determined by the objective needs of the majority, represents the social order, on the other hand, it provides the content of education and its organization. Strengthening of communicative aspects in this direction is reflected in changing educational goals and teaching content in philological or non-philological educational institutions. It is not limited to knowledge of the language, but effective use of it in real communication, acquisition of practical language skills and competences and as a result, development of "speaking". It should be noted that, at the same time, the competence based approach is widely applied in the teaching process of all subjects, because it is not enough to give the student knowledge and skills in the subject, but the priority is the need to be able to apply the acquired knowledge in practice. At this point, it is permissible to get acquainted with the existing views and opinions about the communicative approach that we have determined for the research.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

According to the conducted scientific studies, the competence approach in the education system is divided into three stages. In the first stage - (1960-70), education based on the competence approach appeared as an educational direction in the United States of America. Its first idea was taken from the generative grammar of N. Chomsky, who in 1965 expressed the opinion that "there is a fundamental difference between language competence or knowledge and the application or actual use of a language." He researched the issue of the emergence of "communicative competence" during the teaching process. According to the scientist, this process represented communicative activity, the main focus of which is the formation of the student's ability to express information related to everyday life in his speech [2]. In the second stage - (1970-90), social competence and personal competence were created in the process of learning a foreign language, management, communication. In the third stage - by the Council of Europe (1990), strategic, social, sociolinguistic, language and educational-cognitive competencies were developed. Then Russian researchers N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, [3,4,5] put various competencies into practice. Also, in the development of education based on the competence based approach, the UNESCO international organization has determined that several important competencies have their own characteristics.

Research methodology; The issue of learning foreign languages based on the competence approach is one of the main issues awaiting a solution in the West at the beginning of the 20th century, and the issue of competence formation, which is an integral part of the competence approach in the process of language education, has been studied by a number of scientists in their scientific works.

The term "approach" can be used in the literature in both broad and narrow sense. When we talk about the approach in the broadest sense of the word, we mean three components of this concept: Linguistic component - how we choose language tools for learning; Didactic component - what techniques and technologies we use, how we organize the development of educational material; Psycholinguistic foundations of teaching - what is the role of students and teachers, what is their mutual relationship, how are the specific features of students' perception of language material taken into account [6; 3p]. This term was introduced into the field of language teaching methodology by Edward Mason Anthony, a professor at the University of Michigan in the USA. The term is used to express language characteristics and its laws, it is defined as follows: "An approach is a set of concepts related to the characteristics of language teaching and learning. The approach is axiomatic. It represents the content of the subject being taught. [1]. The approach is a stop that is revealed from the theoretical side about the features of language teaching/learning, the possibility of introducing it into the pedagogical process. According to Anthony, "an approach is a set of principles or concepts about language, its learning and teaching, which are adapted to a method or theoretically based on it. That is, through the term approach, the theory of language and language learning, which serves as a source of foreign language teaching practices and principles, is expressed. The approach is a fundamental component at the heart of the language teaching system, embodied as a general methodological basis of teaching, and with the existing perspectives on the educational content, which provides the goal, tasks of the educational subject and the possibility of their implementation in the educational process. characterized" [1].

Analysis and results; Competency based approach is characterized by increasing complexity and dynamics in life situations. This means that people must be able to live and work

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

in a complex dynamic environment. Education teaches people to find ways to help them solve new problems in unfamiliar situations. It is important to educate them about what they will face in the future and how they can apply what they have learned in any situation. Therefore, education aims to enable us to continuously develop various skills. In the competency based approach, importance is attached to the formation and learning of communicative competence of a foreign language, the ability to carry out interpersonal and intercultural communication in a foreign language with native speakers is assumed to be a real practical knowledge of a foreign language.

"Competency based approach" is the accumulation of knowledge, skills and competences that incorporate the components of communicative competence in order to teach independent communication in a foreign language. Till now, "types of speech activity" have been scientifically researched by scientists, and although these topics have been widely discussed among researchers, the foreign language "types of speech activity" of foreign language "types of speech activity" of non-foreign language finance-economics students based on CEFR requirements (At level B2) the topic of improvement is not sufficiently researched. We would like to study and experimentally analyze the ability of a specialist to acquire the ability to communicate and to understand its structure. At the same time, there is an increased need to form a process of mutual communication in foreign language classes, to improve the teaching process, and there is a need to improve the existing teaching methodology; In the process of learning a foreign language, taking into account the need to reveal the essence and content of the concepts of the communication process of students in the direction of "finance and economy"; development of a model of foreign language teaching to students in the direction of "finance-economics" is one of the urgent tasks of this research work.

A competency-based approach allows students to progress based on their ability to acquire a skill or competency at their own pace, regardless of their environment. This approach is adapted to meet different learning abilities and helps students achieve more effective results. Types of speech activity as a means of communication, is not on the basis of theoretical laws, but on practical learning, the use of language in practice. In the process of establishing mutual relations, the expansion of the communication process between the foreign language (English) teacher and students increases the quality of language teaching. Even in the process of improving education based on the requirements of CEFR, the correct use and practical application of personal communication skills is the main criterion of education. In intercultural dialogue, in the process of learning foreign languages in the context, teaching in a comparative way through this language and the culture of one's mother tongue is also not without benefit, in which didactic and methodical conditions should be created. Then, communicative abilities are formed in a whole system.

Conclusion ; Formation of teaching in higher education institutions on the basis of various strategies is important. At the same time, alternative methodological solutions, generally abandoning the old methods of teaching, make it possible to achieve effective results through new innovative methods. The central problem of organizing foreign language education in higher educational institutions is the issue of determining the appropriate educational content. The goal is determined by objective needs, represents the social order, provides the content of education and its organization. Strengthening of communicative aspects in this direction is reflected in

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

changing educational goals and teaching content in philological or non-philological educational institutions.

Used literatures

1. Anthony.E.M. "Approach, Method, and Technique". ELT Journal. 1963, XVII (2): 63–67.doi:10.1093/elt/XVII.2.63.
2. Hymes, D. H. (1971). On communicative competence. In J. Pride and J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Penguin, 1972. (Excerpt from the paper published 1971, Philadelphia, University of Pennsylvania Press.).
3. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. M., 1990.
4. Markova A.K. Psixologicheskiy analiz professionalnoy kompetentnosti uchitelya / /Sovetskaya pedagogika. 1990. №8.
5. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obщenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening – M.: Izd-vo MGU, 1989. – 216 s.
6. Saydalieva N.F. Chet Tillarini O'qitishda Kommunikativ Yondashuv //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 20. – S. 275-281.

HOMONYMS IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEM.

Abdurakhmanova Mukaddas Tursunalievna
Doctoral student (DSc) at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation: *In a narrow sense, translation using artificial intelligence is the process of translating text using a computer (in whole or in part) from one natural language to another without human intervention. In a broad sense, translation in an artificial intelligence system is an area of scientific research at the intersection of linguistics, mathematics, cybernetics, and in a narrow sense, with the goal of creating systems that carry out translation in an artificial intelligence system.*

Keywords: *artificial intelligence system, text translation, homonyms.*

SUN'IY INTELLEKT TIZIMIDAGI OMONIMLAR.

Abdurahmanova Muqaddas Tursunaliyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya: *Tor ma'noda sun'iy intellektdan foydalangan holda tarjima qilish matnni kompyuter yordamida (to'liq yoki qisman) bir tabiiy tildan ikkinchi tabiiy tilga inson aralashuvisiz tarjima qilish jarayonidir. Keng ma'noda sun'iy intellekt tizimidagi tarjima tilshunoslik, matematika, kibernetika sohasida va tor ma'noda sun'iy intellekt tizimida tarjimani amalga oshiradigan tizimlarni yaratish maqsadida olib boriladigan ilmiy tadqiqot sohasidir.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt tizimi, matn tarjimasi, omonimlar.*

ОМОНИМЫ В СИСТЕМЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.

Абдурахманова Мукаддас Турсуналиевна
Докторант (DSc) Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация: *В узком смысле перевод с использованием искусственного интеллекта - это процесс перевода текста с помощью компьютера (полностью или частично) с одного естественного языка на другой без вмешательства человека. В широком смысле перевод в системе искусственного интеллекта - это область научных исследований, находящихся на стыке лингвистики, математики, кибернетики, а в узком смысле - с целью создания систем, осуществляющих перевод в системе искусственного интеллекта.*

Ключевые слова: *система искусственного интеллекта, перевод текста, омонимы.*

Введение

Эффективность автоматизированных систем перевода в системе искусственного интеллекта зависит от того, в какой степени в них учитываются объективные законы функционирования языка и мышления. Выделяются следующие типы автоматизированных систем перевода:

1) П-системы – системы прямого перевода. Данные системы включают лишь этапы морфологического анализа и синтеза, поэтому результат работы таких систем представляет своего рода подстрочный перевод;

2) Т-системы – системы с синтаксическим преобразованием исходного текста;

3) И-системы – системы с семантическим и прагматическим анализом. Данный тип систем считается наиболее сложным, так как включает не только лингвистическую информацию, но и экстралингвистическую информацию, то есть семантику и прагматику предметной области [8].

В последние годы стремительное развитие искусственного интеллекта заставило нас по-новому взглянуть на проблемы обработки естественного языка, особенно на проблему его понимания. Ранее было показано, что искусственный интеллект открывает области, которые традиционно исключали любое машинное вмешательство. Сегодня открытие проблемы понимания кажется ключом к дальнейшему расширению области искусственного интеллекта, а также к различению двух типов искусственного интеллекта: в слабых и сильных смыслах.

Важно понимать, что омонимия усложняет автоматическую обработку текста. Методы устранения омонимии в англоязычных текстах основаны на использовании вероятностной модели, обеспечивающей очень высокую точность. Проблемой для русских текстов является не только частиречевая омонимия, характерная для английских текстов, но также морфологическая и лексическая омонимия.

С момента изобретения компьютера человек пытался заставить компьютеры понимать людей. Разрабатывается все больше новых систем для распознавания текста, речи и жестов. Автоматическая обработка текста — одно из старейших направлений исследований в этой области. Первые работы по автоматической обработке текста относятся к 50-м годам XX века.

Если для большинства распространенных естественных языков сегодня хорошо

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

развиты инструменты анализа грамматики предложений, то проблема снятия омонимии по-прежнему остается одной из наиболее актуальных проблем в анализе текста. Виды омонимии обсуждаются, например, авторами [2]. На этапе морфологического анализа даже простая фраза типа «Иванов держит деньги в банке» дает как минимум два значения, поскольку предложение можно прочитать с существительными «банк» (мужского рода) и «банка» (женского рода). Дополнительная неоднозначность возникает на этапе семантического анализа, ведь «банка» может означать не только ёмкость, но и песчаную отмель, а также мачту лодки. В специальных словарях слово «банка» имеет еще множество значений. В этом случае глагол держать может иметь синоним «хранить», особенно если он входит в состав идиоматического выражения «держать деньги», но вполне можно допустить толкование «Иванов держит деньги в банке, зажатой в руке».

В практических вопросах учитывается статистический вес того или иного варианта [3]. С точки зрения проблемы понимания в искусственном интеллекте такое решение не совсем «честным», поскольку даже в задачах машинного перевода статистика не может обеспечить подбор подходящих эквивалентных синонимов. Более сложные варианты включают использование машинного обучения [4], маркировки или других методов [5,6].

Однако для того, чтобы более или менее адекватного «понимания» естественный язык и работать с множеством смысловых значений, содержащихся в тексте, машина должна иметь очень богатую онтологию, сравнимую не только с человеческими представлениями о мире, но и алгоритм, позволяющий работать с набором реальных опционов. В приведенном примере «Иванов держит деньги в банке» машина должна иметь критерий, согласно которому существительное «банка» в значении ёмкости или песчаной отмели не подходит или наоборот, единственно правильное.

Для разрешения морфологической омонимии в машинном переводе исследователи предлагают использовать такие методы, как 1) метод, основанный на правилах; 2) метод, основанный на статистических данных, 3) метод, основанный на машинном обучении.

Сущность метода, основанного на правилах, состоит в том, что в некоторых ситуациях анализ контекста помогает понять синтаксическую структуру части предложения, а с её помощью - словоформы. Этот метод требует ручного составления правил, для каждого из которых необходимо написать самостоятельный программный модуль. Дополнять систему правил становится сложнее с каждым новым правилом, в связи с чем такие методы не получили широкого распространения.

Современные морфологические процессоры часто используют статистические методы и методы, основанные на машинном обучении, для разрешения омонимии.

Вычисление статистики различных вариантов слов — самый простой способ справиться с морфологической неоднозначностью. Например, метод простого подсчета вероятности позволяет рассчитать вероятность встретить определенную словоформу среди всех вариантов употребления в тексте.

Подсчет статистики различных вариантов слова является простейшим способом снятия морфологической неоднозначности. Например, метод простого подсчета вероятности позволяет рассчитать вероятность встретить определенную словоформу среди всех вариантов употребления в тексте.

Для снятия омонимии при машинном переводе используются также и различные методы классификации. «В качестве параметров классификации могут браться

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

грамматические параметры данного или соседних слов в некотором окне, их леммы, признаки наличия знаков препинания и проч. Выбор метода классификации во многом зависит от вкусов разработчика, для решения которой используются такие методы машинного обучения, как скрытые марковские модели, условные случайные поля, рекуррентные нейронные сети и др.».

Вот несколько примеров омонимов в турецком языке:

1. Banka (finansalkurum) – banka (nehirkenarı); banka - скамья в парке-banka - (сленг) беспорядок - (перевод произведенный человеком).
2. bay (erkek) - мужчина; bay-zengin (богач) - (перевод произведенный человеком). bay (koy) - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
3. beyaz (renk) - цвет; beyaz (мука) - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
4. can (yaşam) - душа; can (kutu - коробка) - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
5. dava (mahkeme olayı) - иск (судебное дело); dava (çanta) чехол (сумка) - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
6. değişim (farklılaşma) – изменение (дифференциация); değişim (para bozdurma) - обмен (обмен денег) - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
7. düş (hayal) – сон (мечта); düş (düşmek) – падать - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
8. el (vücut bölümü) - рука (часть тела); el (ölçü birimi) единица измерения - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
9. ev (konut) – дом (жилой); ev (işareti) – вывеска - (перевод произведенный искусственном интеллектом).
10. Fakir (yoksul) - бедный; fakir (delikli) – с дырками - (перевод произведенный искусственном интеллектом).

Машины запрограммированы на выполнение определенных алгоритмов. Машинные переводчики используют разработанные человеком межъязыковые алгоритмы для перевода набора слов с одного языка на другой, используя словари и грамматические правила. Однако перевод – это не смена слов с одного языка на другой. Это очень сложный процесс. Поэтому не имеет значения, насколько хорош алгоритм: у машин есть один большой недостаток — они не могут понять смысл текста.

Как правило, мы понимаем смысл из контекста или даже интуитивно благодаря лингвистическому чутью. Машинные переводчики могут различать некоторые простые омонимы. Однако вероятность ошибки значительно возрастает из-за межъязыковых омонимов-«ложных друзей переводчика». Этот термин относится к словам, которые звучат одинаково, но имеют разные значения в разных языках. Машинный переводчик может легко испортить перевод, в то время как «одушевленный» переводчик без труда распознаеттакиеспорныемоментыиобеспечиваетточныйперевод.

Заключение

Машины запрограммированы на выполнение определенных алгоритмов. Машинные переводчики придерживаются разработанных людьми межъязыковых алгоритмов для перевода ряда слов с одного языка на другой с использованием словарей и правил грамматики. Однако перевод - это не просто преобразование слов с одного языка

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

на другой. Это куда более сложный процесс. Поэтому неважно, насколько хорош алгоритм: у машин есть один большой недостаток - они не могут понять смысл текста.

Как вы знаете, омонимы - это слова, одинаковые по написанию и звучанию, но разные по смыслу. Вот несколько примеров омонимичных пар: график (план работы) / график (художник), среда (совокупность природных условий) / среда (день недели), кисть (приспособление для нанесения краски) / кисть (часть руки), планировать (постепенно снижаться при полете) / планировать (строить планы).

Как правило, мы понимаем смысл из контекста или даже интуитивно благодаря лингвистическому чутью. Машинные переводчики могут различать некоторые простые омонимы. Однако вероятность ошибки значительно возрастает из-за межъязыковых омонимов - «ложных друзей переводчика». Этот термин относится к словам, которые звучат одинаково, но имеют разные значения в разных языках.

Как видите, машинный переводчик может легко испортить перевод, в то время как «одушевленный» переводчик без труда распознает такие спорные моменты и обеспечивает точный перевод.

Список использованной литературы

1. Щипицина, Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие/Л.Ю.Щипицина.–М.:ФЛИНТА:Наука,2013.–128с.
2. Anjali,MK., Babu, AntoP. 2014. Ambiguities in Natural Language Processing International Journal of Innovative Research in Computer and Communication Engineering (AnISO3297: 2007 Certified Organization) Vol.2, Special Issue 5, Oct. 2014. p.392–394.
3. Peter,F. et al.1991. Word-sense disambiguation using statistical methods. in: 91 Proceedings of the 29th annual meeting on Association for Computational Linguistics, p.264-270.
4. Márquez, L. Machine Learning and Natural Language Processing. Technical Report LSI-00-45-R, Departament de Llenguatgesi Sistemes Informátics, Universitat Politécnica de Catalunya, 2000. URL: http://l2r.cs.uiuc.edu/~danr/Teaching/CS546-11/Papers/marquez-LNLP00.pdf (дата обращения05.02.2016).
5. Evang,K. & Bos, J. 2013 Scope Disambiguation as a Tagging Task. in: Proceedings of the 10th International Conference on Computational Semantics (IWCS 2013) – Short Papers. Erk, K. & Koller, A. (eds.). Potsdam, Germany: Association for Computational Linguistics (ACL), p.314–320.
6. Adwait Ratnaparkhi. 1998. Maximum entropy models for natural language ambiguity resolution. Universityof Pennsylvania Philadelphia, PA, USA.
7. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и анализ данных: учеб. Пособие / Е. И. Большакова [и др.]. – М.: Изд-во НИУВШЭ, 2017. – 269с.
8. Щипицина, Л. Ю. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие / Л. Ю. Щипицина. – М. : ФЛИНТА : Наука, 2013. – 128 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY AVLOD MASALASINING QIYOSIY TAHLILI

Zebo Sabirova Zokirovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
zebonur2017@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy avlod masalasining qiyosiy tahlili haqida qisqacha mulohazalar keltirilgan. Jumladan, ijtimoiy-tarixiy sharoit natijasida adabiy jarayonga kirib kelgan adabiy avlod, bu avlodning o‘ziga xos xususiyatlari va mushtarakligi, ular ijodi orqali paydo bo‘lgan adabiy hodisalarning badiiy asarlarda namoyon bo‘lishi, adabiy-estetik tafakkurdagi evrilishlar, ijodkor tomonidan yaratilgan asarlarda voqea-jarayonlarning ifodalanishi, ijodkor individualligi, adabiy aloqalar va adabiy ta’sirga munosabat bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *adabiy avlod, adabiy jarayon, adabiy ta’sir masalasi, adabiy davr, ijtimoy-tarixiy sharoit, adabiy hodisalar shakllanishi, badiiy-estetik tafakkur tarzi.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРНОГО ПОКОЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Зебо Сабирова Зокировна
Доктор философских наук по филологии (PhD), старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан
zebonur2017@gmail.com

Аннотация: *В данной статье представлены краткие комментарии к сравнительному анализу проблемы литературного поколения в узбекском литературоведении. В частности, литературное поколение, вошедшее в литературный процесс в результате общественно-исторических условий, уникальные творческие особенности и общность этого поколения, проявление литературных явлений, возникших благодаря их творчеству, в художественных произведениях, эволюция литературно-эстетического мышления. В произведениях, созданных творцом, выражаются выражение событий, индивидуальность творца, литературные связи и литературное влияние.*

Ключевые слова: *литературное поколение, литературный процесс, проблема литературного влияния, литературная эпоха, общественно-исторические условия, формирование литературных событий, художественно-эстетический образ мышления.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PROBLEM OF LITERARY GENERATION IN UZBEK LITERATURE

Zebo Sabirova Zokirovna
Doctor of Philosophy in Philology (PhD), senior teacher
Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan, zebonur2017@gmail.com

Abstract*: This article presents brief comments on the comparative analysis of the issue of the literary generation in Uzbek literary studies. In particular, the literary generation that entered the literary*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

process as a result of socio-historical conditions, the unique creative features and commonalities of this generation, the manifestation of literary phenomena that emerged through their creativity in artistic works, evolutions in literary and aesthetic thinking, created by the creator in the works, the expression of events, individuality of the creator, literary relations and literary influence are expressed.

***Key words**: literary generation, literary process, issue of literary influence, literary period, socio-historical conditions, formation of literary phenomena, artistic-aesthetic way of thinking.*

Kirish

Jahonda kechayotgan hodisalarga nisbatan ochiq raqobatni anglatgan globallashuvning ta'sir kuchi san'atga, jumladan, adabiy jarayonga, badiiy adabiyotga ham aloqadordir. Axborot dunyosining globallashuvi va uning milliy ongga ta'siri adabiyotshunos va ijodkorlar zimmasiga sobitlik, Vatanga muhabbat tuyg'usi, o'z yurtining ertangi kuniga ishonch ustuvor bo'lmog'iga erishish, azaliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini e'tirof etish kabi dolzarb vazifalarni yuklaydi. Umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama yondashish kerakligini, ijtimoiy, intellektual lirika orqali tarannum etishni hozirgi adabiy jarayon taqozo etmoqda.

Dunyo tafakkurining keyingi yuz yilligida globallashuv jarayoni ta'sirida badiiy adabiyotni davr talablari darajasida tahlil va talqin qilish, uning maqsad va vazifalarini anglash zarurati vujudga keldi. Globallashuv madaniy, siyosiy, iqtisodiy, adabiy sohalarning bir-biriga dunyo miqyosida ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zaro integratsiyalashuv natijasida o'zbek shoirlari jahon she'riyati yutuqlaridan samarali foydalanib, milliy-madaniy mavzularni umumbashariy tafakkurga yaqinlashtirmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Adabiy jarayonni davrlashtirishda adabiy avlod tushunchasi kichik adabiy birlik sifatida hisoblanishi ma'lum. "Adabiy avlod sanalishi uchun ma'lum guruh ijodkorlarining bir davrda tug'ilgani yoki bir davrda adabiyotga kirib kelgani emas, balki ijodda bir-biriga yaqin tamoyillarga tayangani e'tiborga olinadi" (5; 223). Adabiyotshunoslar tomonidan belgilangan XX asr o'zbek adabiyotida adabiy avlodlarga e'tibor qaratsak:

1) **"jadidchilik ta'sirida adabiyotga kirib kelgan avlod;**
2) **sho'ro adabiyoti avlodi;**
3) **60-yillar adabiy avlodi;**
4) **70-80-yillar adabiy avlodi;**
5) **90-yillar adabiy avlodi (5; 223)".**

Adabiyotshunoslar tomonidan keltirilgan yuqoridagicha tegishli davr adabiy jarayonini shakllantirganini ko'rishimiz mumkin. Bu davrlashtirishga qo'shimcha tarzda XXI asrning birinchi choragini ham hisobga olib, biz **globallashuv davri adabiy avlodini** kiritishni ma'qul ko'ramiz.

Shu o'rinda nima uchun bu davrni globallashuv davri avlodi nomi bilan ataganligimizga izoh kiritamiz. Albatta, bu jarayon o'zbek adabiyotida mavjudmi degan o'rinli savol tug'iladi. Ha, mavjud. Aslida globallashuv hayotning har jabhasida har avlodda mavjud bo'lgan. Jadidchilik harakati natijasida adabiyotga kirib kelgan avlod, sho'ro davri adabiyoti avlodi, 60-yillarda badiiy adabiyotga kirib kelgan adabiy avlod, 70-80-yillar adabiy avlodi hamda 90-yillarda shakllangan adabiy avlodlarning ulkan tajribasi hamda bugungi dunyo adabiy jarayoni bilan har tamonlama yaqinlashuvning qorishiqligidan suv ichgan globallashuv davri avlodi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yangicha qarash, yangicha nafas bilan shakllanib kelayotir.

O‘zbek she’riyatining 60-yillar adabiy avlodiga mansub deb E.Vohidov, A.Oripov,R.Parfi, O.Matjon kabi ijodkorlar yaqingacha o‘zidan keyingi adabiy avlodlar bilan hamqadam edi. Va yoki keyingi davrlarni shakllantirgan shoirlardan Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron; 90-yillardagi istiqlol yetkazgan shoirlar Muhammad Yusuf, Faxriyor, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamova, Nodira Afoqova, Go‘zal Begim kabi shoirlar o‘zlarining individuallligi bilan o‘z so‘zlarini ayta olgan va xalq tan olgan ijodkorlardir. Ularning she’rlarida Vatanga, onaga, muhabbatga, insoniylikning turli munosabatlariga, hayotga bo‘lgan qarashlar ifodasi, uslubi, fikrlarni yetkazib berish usuli, obrazlar tizimining sodda yoki murakkabligi bilan bir-biriga ham yaqin, ham o‘ziga xos edi.

Globallashuv davrida adabiyot rivojlanishiga axborot-kommunikatsiya hamda kompyuter texnologiyalari katta ta’sir ko‘rsatmoqdaki, buning natijasida mobil aloqa, internet yozuvchi-muallif va o‘quvchi, fazo-vaqt masofasini muayyan darajada qisqartirdi. Ayni damda “dunyo fuqarosi” sanalgan bugunning odamiga internet cheksiz miqdordagi ma’lumotlarni olish imkonini berdi. Buning natijasida giperreallik olami shakllandi. Bu esa odamni voqelikdan ajratib qo‘ydiki, natijada virtual olamga cho‘mgan “dunyo fuqarosi” milliy qadriyatlarni o‘ylab topilganlari, soxtalari bilan adashtirib qo‘ydi.

Zamonlarosha urf-odatlar, an’analar bir-biriga mushtaraklashdi, keyin esa bir-biriga singdi. “Hozirgi dunyoning yalpi holat va vaziyatini bir so‘z bilan ifodalash zarur bo‘lsa, shu so‘z aynan globallashuvdir. Insoniyat ongli va ongsiz ravishda ushbu jahoniy jarayonga tortilmoqda, uning shirin va achchiq mevalarini beixtiyor tatib ko‘rmoqda. Globallashuv ta’sirida zamon va makon, butun Yer sayyorasi o‘zgarmoqda, shu bilan birga ongli mavjudot, inson o‘zgarmoqda” (4; 3), deydi S.Meliyev. Delfadagi Appolon ibodatxonasining devoriga o‘yib yozilgan “O‘zligingni angla” xitobini bugungi kun bilan oradagi ikki yarim ming yil ajratib turgan bo‘lsa ham, uning mohiyati o‘z mazmunini yo‘qotgan emas. O‘zlikni anglash milliy o‘zlik uchun yo‘l ochsa, milliy o‘zlik esa bevosita umumbashariy o‘zlikni anglash tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Badiiy adabiyotning bosh mavzusi Inson ekan, eng avvalo, undagi ruhiy, ma’naviy, axloqiy o‘zgarishlarning birinchi kuzatuvchisi adabiyotdir. Zamona qahramonining ko‘nglidan kechayotgan o‘y-xayollar, uni qiynayotgan muammolar qanday ko‘rinishda bo‘lsa ham ijodkor-yozuvchi tomonidan badiiy to‘yintirilib, qayta ishlansa, bu adabiy tafakkur mevasi hamda badiiy adabiyot namunasi bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Globallashuv davri adabiyotiga yuqorida sanalgan muammolar globallik, global badiiy ma’no kasb etishlik masalasi yuklatilsa, milliylik hamda insoniylik darajasini saqlab qolishga undasa, unda bu asar dunyo adabiyoti namunasi darajasiga ko‘tarila oladi.

Tahlillar va natijalar

Adabiyotshunos U.Hamdamov davr adabiyoti haqida gapirar ekan, “globallashuv davridagi adabiyot shu jarayon ta’sirida dunyoga kelgan jahon adabiyotidir. Bunda milliy va jahon adabiyotlarining bir-biriga ta’siri kuchaygan, bir-biridan ilhomlangan, bir-birlarining ko‘zgusida o‘z akslarini ko‘rishi mumkin bo‘lgan adabiyot shakllandi” (2; 75), deydi. Ya’ni bizningcha ham, o‘z qobig‘ida qolib ketgan, tashqi ta’sirlardan u yoki bu sabab bilan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“himoyalangan” adabiyotning tamomila teskarisi bo‘lgan adabiyot globallashuv davri adabiyotiga misol bo‘la oladi.

Globallashuv davrida yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi muqarrar, buning natijasi adabiyotda ko‘pdan ko‘p shakliy o‘zgarishlar paydo bo‘lishini keltirib chiqardi. Masalan: kiberadabiyot, kashfiyotchi giperfiks, webnovella, blognovella, gipernovellalar, shuningdek, hikoya gipermediyasi, wikipoema, wikinovella kabi janriy chegaralarni kengaytirgan yangidan yangi adabiy janrlar; post.com, ziyo.uz, link.literatura sayt adabiyoti shakllanib ulgurdi.

Endigi yaratilayotgan ommaviy adabiyot namunalari saviyaning pasayishiga olib kelayotganini adabiyotshunoslar ko‘p bora ta’kidlaydilar: “Olimlar badiiy asar qimmatini uning qancha ko‘p foyda keltirganligi bilan o‘lchanishini ko‘rsatishadi. Natijada badiiy asarga san’at asari deb emas, balki tovar o‘laroq qaraldi va shunday “ishlab chiqara” boshlandi. Uslublar, janrlar qorishdi, mutatsiyaga uchradi. “Jiddiy adabiyot” va “ko‘cha adabiyoti degan tushunchalar paydo bo‘ldi” (3; 310). Chinakam san’at asari bilan ommaviy asar o‘rtasidagi chegara buzildiki, buning natijasida san’at asari dizaynlashdi. Uning tashqi bezagiga e’tibor ko‘proq ortdi, sotiladigan tovarga aylantirildi. Bularning hammasi bir bo‘lib esa ommaviy didsizlashuvga olib keldi.

Internet adabiyotining ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Adabiyotning qog‘oz shakliga talab kamayib, internet sahifalaridan (telegram, instagram, facebook) joy olayotganiga guvohmiz. Endi kitobxon va she’rxonlarning ham nomi *“obunachi”*larga o‘zgarmoqda. Internetda e’lon qilinayotgan barcha ma’lumotlarni ham adabiyot namunasi, muallifini ham ijodkorlar safiga kiritishga jiddiy yondashmoq kerak. Chunki badiiylikdan bexabar holatda yozilgan har qanday qoralama yuksak adabiyot namunasi sifatida o‘zlarining shaxsiy kanallarida e’lon qilish oson bo‘lib qoldi.

Internet adabiyotning bu shakli hammabop shakllaridan biri haqida tushunilar ekan, ular orasida chinakam badiiy adabiyot namunalari ham yo‘q emas. Ijtimoiy tarmoqlardagi ijodiy kanallar:

Nazm: @Rauf Parfi – Rauf Parfi, @abduvali_qutbiddin – Abduvali Qutbiddin, @Ulug‘bekHamdamijodi – Ulug‘bek Hamdam, @m_kenjabek – Mirzo Kenjabek, @vaqt_manzili – Aziz Said, @Guljamol_Asqarova – Guljamol Asqarova, @Ochiqderazalar – Xosiyat Rustamova, @abbosova_mehrinoz – Mehrinoz Abbosova, @suhrob_ziyo1 – Suhrob Ziyo. **Nasr:** @mittihaqiqatlar – Nodirabegim Ibrohimova, @kitobxonam –Raxshona Ahmedova**,** @ilhomlar – Shahzod Ergashaliyev. **Jurnalistika:** @komiljon_aslonov – Komiljon Aslonov**,** @dil_unvoni – Dilobar Asliddin qizi. **Tarjima:** @Rahmat_Bobojon – Rahmat Bobojon**,** @she’riston –Shohruh Usmonov.

Demak, global dunyodagi adabiyot – tanqidiy fikrlash, madaniy xilma-xilliklararo munosabatlarni tanish; ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-tarixiy, diniy-etnik farqlarni tan olish orqali fuqarolik shakllanishiga yo‘l ochib, boshqa ko‘plab imkoniyatlar qatori axloqiy va intellektual fazilatlarni shakllantirishga imkon beradi. Adabiyot endi dunyo fuqarolariga aylangan o‘quvchining xarakterini shakllantirishning vositasi sanaladi. Gumanizm esa aql-zakovat tarbiyasini tanituvchi, intellektual ta’sirli adabiyot uchun zamin hozirlaydi. “Aleksandr Blok fikricha, insoniyatning maqsadi dunyo ahlini odamiylikka (insoniylikka) o‘rgatmoqdir. Bu juda buyuk va noyob endemik (mahalliy, jaydari, ma’lum bir joyga xos) g‘oya. Jahon madaniyati xazinasida birorta g‘oya yo‘qki, shu darajada ko‘lamdor bo‘lsa. Rossiyada bu metafizik g‘oya bir qator olimlarni qiziqtirgan hodisadir. Pushkin davlatni insoniylashtirishni, Gorkiy insonni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

insoniylashtirishni, Siolkovskiy koinotni, Fedorov marhumlar olamini, Lobachevskiy fazo va makonni insoniylashtirishni, Bernadskiy odamlarning aql-idroki, ruhiyati va ma'naviyati – noosferani (tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati mahsuli), Stanislavskiy sahnani psixologik holatlarga, kechinmalarga to'ldirishni, VXUTEMAS (san'at ilmgohi) ro'zg'or ashyo-buyumlari dizaynini, Dziga Vertov inson nigohi orqali kinoni, Eyzenshteyn kino montajini takomilga yetkazishni, Soljenitsin jamiyatni insoniylashtirishni zarur deb bilganlar. Rus madaniyati olamni odamiylikka chaqirib, metafizik maqsadni ko'zlar edi" (1; 158-164).

Uyg'onish davri ilgari surgan prinsip asosida yunon va Rim madaniyati shakllanishini "humanitas" bilan o'rganishni maqsad qilgan boshqa gumanistlar ham bor. Gumanistik adabiyotga ham so'z, ham fikr sifatida, ayniqsa, mumtoz adabiyot shoirlari, mutafakkirlari ham alohida e'tibor qaratganlar. Ilmiy tadqiqotlar estetik gumanizmni keltirib chiqardiki, u Uyg'onish davri olimlarining iste'dodi va badiiy dahosiga asoslangan edi. Boshqa tomondan, aloqadorlik, bir-biriga bog'liqlik ijtimoiy o'lchov sifatida, adabiy, estetik va axloqiy qarashlar bilan birlashib uyg'unlashib, siyosiy gumanistlarga yo'l ochdi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, XIX asr davomida gumanistik tadqiqotlar gumanitar sohalarni tabiiy fanlardan butunlay ajratib qo'ydi, u faqat gumanizm sifatida madaniyatni, ma'naviyatni, ayniqsa, falsafani, adabiy ijod va tilshunoslikni muhim sanadi va tadqiq etdi, o'rgandi.

Tabiiy fanlarga inson tafakkurining natijasi sifatida qaraladi. Biroq XX va XXI asrlardagi insonparvarlik da'vosi ham borki, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy bilimdonlikdan tashqari, erkinlik, hamjihatlik, insonparvarlik tomon yo'l olish, inson hayotining qadr-qimmati hamda fazilatlari qatorida axloqiy va ziyoli bo'lishni ham taqazo etdi.

Tafakkur tarzining yangi qiyofasi, o'zlikni anglash, milliy faxr tuyg'usining kuchayishi kabi omillar badiiy ijod, jumladan, she'riyatda ham sifat o'zgarishlarini vujudga keltiradi. She'riyat mavzu, janr jihatdan ancha kengayib, boyidi. Fikriy va hissiy teranlik oshib, inson va uning qalb olamini taftish etish, umuman, yangicha badiiy kashf qilish kuchaydi. "Bugungi o'zbek she'riyatining o'ziga xos an'anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi metaforik obrazlar, ramziy ifodalar, kuchli kinoyaga yo'g'rilganlik, eng muhimi, ong osti xotirasining falsafiy ifodalar bilan berilishi kitobxonni o'ylantiradi" (6; 57). Fikrning ixcham, lo'nda shakllarda ifodalanishi, davr ruhiy olamini poetik tadqiq etish va inson qalbidagi kechinmalarni tasvirlash borasida erishgan yutuqlari hozirgi o'zbek she'riyatining yangicha poetik fikrlarni kashf etayotganligidan dalolatdir. Bu namoyishning ilk darakchilari XX asrning 20-yillarida Cho'lpon ijodidan joy olgan edi. Professor O.Sharafiddinov bu haqida: "Mubolag'asiz aytish mumkinki, o'sha davr adabiy hayotida katta adabiy hodisa bo'lgan Cho'lpon ijodi yangi o'zbek she'riyati uchun tom ma'noda poydevor bo'ldi" (7; 173), deb baholagan.

Xulosa

Sobiq sho'rolar davrida adabiyot ma'lum muddat inson o'zligidan yiroqlashibdi, ijtimoiylashdi, deyish mumkin. Chunki davr muhitida mafkuraga bo'ysunish hukmron edi. Ammo 70-yillardan boshlab badiiy tafakkurda yangilanish tug'ildi, ijodkor modernga bag'rini ochdi. Rauf Parfi, Omon Muxtor, Shavkat Rahmon, Murod Muhammad Do'st, Xurshid Do'stmuhammad, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Zebo Mirzo, Go'zal Begim, Farida Afro'z, Xosiyat Rustamova kabi shoir va adiblarning badiiy-estetik qarashlarida noan'anaviy chizgilar paydo bo'ldi. Va ular yaratayotgan ijod namunalarida bugunning aksi, ifodasi bor. Chunki globallashuv ta'sirida jamiyat va inson hayoti, dunyoqarashi va ruhiyatida kechayotgan jarayonlar, turli o'zgarish, yangilanishlarga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

daxldor murakkabliklarni ichki qonuniyatlari, mezonlari asosida yoritadi va butun insoniyatga aloqador bo‘ladi. Mana shu aloqadorlikni badiiylashtirish esa so‘z san’atkorlari zimmasidadir.

Adabiyotlar:

1. Борев Ю. Инсон ҳамда инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси. // Шарқ юлдузи журнали. – Тошкент: 2011 йил, 4 сон. – Б. 158-164.
2. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 75.
3. Истиқлол. Адабиёт. Танқид. Ёзувчи ва адабиётшунос У.Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбатлар. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 310.
4. Мелиев С. Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси: Филол.фан.д- ри ...дисс. – Тошкент: 2019. – Б. 3.
5. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 223.
6. Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида хронотоп поэтикаси. // Филол.фан.фалс.д-ри. дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 57.
7. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Тўплам, 1999. – Б. 173.

УДК: 821.512.133 “19”:008(575.123)

XILVATIY NAMANGONIY ADABIY MANBALARI TADQIQI

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna
Namangan davlat universiteti, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori., PhD.
Ozodaxonb@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada namanganlik shoir Mulla Yo‘ldosh To‘raboy o‘g‘li Xilvatiyning adabiy manbalari haqida ma’lumot berilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mudarris, olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo‘lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ ХИЛВАТИ НАМАНГАНИ

Болтабоева Озодахон Юлдашалиевна,
Наманганский государственный университет,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Ozodaxonb@gmail.com

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о литературных источниках Хилвати, сына наманганского поэта Муллы Йулдоша Турабоя. Подчеркнуты смысл и значение произведений поэта сегодня.*

Ключевые слова: *мударрис, учёный, писатель, поэт, диван, баяз, рукопись, литография, издательский источник, опись, колофон, каллиграф, писец, зуллисонайн.*

A STUDY OF THE LITERARY SOURCES OF KHILVATI NAMANGANI

Boltaboyeva Ozodakxon Yuldashaliyevna,
Namangan State universite,
PhD in filologiy
Ozodaxonb@gmail.com

Annotation: *This article provides information about the literary sources of Khilvati, the son of the Namangan poet Mulla Yoldosh Toraboy. The meaning and importance of the poet's works today are highlighted.*

Key words: *mudarris, scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.*

Kirish

Arab, fors va turkiy tilni mukammal bilgan Xilvatiy o'zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoirdir. Xilvatiy zamondoshlari orasida mudarris, olim, adib, shoir, ma'naviyat va ma'rifat sohibi sifatida yaxshi nom qoldirgan.

Xilvatiy Namangandagi Azizxo'ja eshon madrasasida dastlab, Bahodirxon eshon, u vafot etgach, Mullo Muhammad Zokir Mahdum, hazrat Inoyatxon Langariylar qo'lida ilm o'rganadi. Xilvatiy o'z davrining yetuk shoirlari Muqumiy, Nodim, Ibrat To'raqo'rg'oniy va bir necha olimu fuzalolar bilan Namangandagi "Azizxo'ja eshon" madrasasida bo'lib o'tadigan mushoira kechalarda ishtirok etar hamda ularning uylarida mehmon bo'lib, suhbatlaridan bahramand bo'lar edi. She'r bahsi kechalarida qatnashish Xilvatiy ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik davrida XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari asarlari I.Abdullayev, U.Dolimov, N.Jabborov, H.Bobobekov, B.Bobojonov, A.Xalilbekov, S.Rafiddinov va A.Qurbonov tomonidan qo'lyozma manbalar asosida chop etildi. XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodini o'rganish ishlari, asosan, ularni xalqqa tanishtirish va ijodining ma'lum bir qirrasini yoritishga qaratilgan. Xilvatiyning qo'lyozma holidagi she'riy asarlari joriy imloda nashrga tayyorlandi. Vaqtli matbuot sahifalari va risolalarda ushbu shoir haqida ma'lumot berildi. Ijodkorning diniy-ma'rifiy va axloqiy-ta'limiy qarashlari, lirik merosining mavzu mundarijasi va janr xususiyati ilmiy yechimini kutayotgan muammolardandir.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada namanganlik shoir Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiyning adabiy manbalari haqida ma'lumot berilgan. Shoirning O'zR FA SHIning Hamid Sulaymonov fondida 1870 inventar raqami bilan saqlanayotgan devoni hamda D II deb belgilangan Ikkinchi qo'lyozmasi, ijodiga oid nashriy manbalar qiyosiy-tipologik tadqiq metodi, tarixiy-qiyosiy, tasniflash usullaridan foydalangan holda tahlil etilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Tahlillar va natijalar

Xilvatiy she'riyati, asosan, oshiqona, diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta'limiy, hajviy, marsiya va hasbi hol xarakterida bo'lgan. Xilvatiy ijodining ilmiy biografiyasini yaratish va ayrim

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ma'lumotlarni o'zaro qiyosiy o'rganish maqsadida manbalarni dastlab, ikki guruhga ajratib olish zarurati tug'ildi:

1. Qo'lyozma manbalar. 2. Nashriy manbalar.

Ushbu qo'lyozma va nashriy manbalar mazmun-mundarijasiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Muallif dastxati bilan yozilgan qo'lyozma asarlar.
2. XX asr boshlarida chop etilgan toshbosma manbalar.
3.Zamondosh shoirlar tomonidan tuzilgan bayoz va tazkiralar.
4. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi vaqtli matbuot materiallari.
5. XXI asr boshlarida shoir hayoti va ijodi yoritilgan nashriy manbalar.

Ushbu manbalar o'rganilayotgan shoir tarjimayi holi, ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi, adabiy merosi, umuman, Namangan adabiy harakatchiligi haqida ma'lumot olishda muhim o'rin tutadi.

Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiy she'riyati ikki qo'lyozma manbaga jamlangan:

Birinchi qo'lyozma – Devon I deb nomlangan. Ushbu qo'lyozma O'zR FA SHIning Hamid Sulaymonov fondida 1870 inventar raqam bilan saqlanadi. Hajmi 21x33. 233 varaq (466 sahifa). Nasx, ba'zan nasta'liq xati bilan Xilvatiy tomonidan 1895-1910-yillarda Qo'qon hamda rus qog'ozi, ya'ni daftarga yozilgan. Ushbu manba avtograf nusxa ekani jihatidan alohida qimmatga ega.

She'rlar har bir sahifaga 24-92 qatordan joylashtirilgan. Qo'lyozma 1972-yilda O'zR FA SHI sahhoflari tomonidan oddiy karton qog'ozga muqovalangan. Qo'lyozmada devon tuzish an'anasiga rioya etilmagan, ya'ni she'rlar janrlar bo'yicha, alifbo tartibida joylashtirilmagan bo'lsa-da, Xilvatiy devonini nashrga tayyorlagan I.Abdullayev va A.Yo'ldoshevlar ushbu qo'lyozmani "Devon I" deb nomlashgan. Ularning hisobiga ko'ra, ushbu qo'lyozmaga 6886 bayt (13772 misra) o'zbekcha va 770 bayt (1540 misra) forscha she'rlar kiritilgan [4, 9]. Unda shoirning g'azal, muxammas, qasida va sayohatnoma janridagi she'rlari bilan birga tarix va muvashshahlari ham mavjud. Uning katta qismini shoirning "Chiqib" radifli sarguzasht she'ri va "Sayrul jibol" (Tog' sayri) sayohatnomasi egallagan. Xilvatiyning forscha "Qasidai ilm" asari ham shu qo'lyozmadan joy olgan. Qo'lyozmada Xilvatiydan avval o'tgan va unga zamondosh bir necha shoirlar ijodidan namunalar ham berilgan. Masalan, Nodim g'azali (122^{b}), Nodim muxammasi(180^{b}), Abdujavod Judiy Koshoniy g'azali(136^{b}), Muhyining "o'lsun" radifli g'azali (137^{b}) va Namangan ahliga yozgan "ekan" radifli qasidasi (122^{b}) hamda Mirzo Rahim qo'rboshiga yozgan ikkita qasidasi (157^{b}-158^{b}), shuningdek, Muqimiyning "eshitib" radifli g'azali (154^{b}) mavjud. Qo'lyozmaning 152^{a} hamda 205^{b} varaqlarida ikkita muhr bor. 152^{a} varaqda "Mulla Yo'ldosh Muftiy ibn To'raboy", 205^{b} varaqda esa "Mulla Yo'ldosh Oxund a'lam Xilvatiy ibn To'raboy" deb yozilgan. Muhrlardan ma'lum bo'lishicha, 205^{b} varaqdagi muhr Xilvatiy madrasada o'qib yurgan vaqtda, 152^{a} varaqdagi muhr esa u muftiy (fatvo beruvchi) darajasiga erishganida yasattirilgan.

Qo'lyozmada turli tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar haqida o'zbek va fors tilidagi ma'lumotlar uchraydi. Ushbu qo'lyozmani sinchiklab o'rganish va undagi she'rlarni to'la nashr etish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Chunki Xilvatiy tarjimayi holini, o'sha davr adabiy-tarixiy muhitini o'rganishda bu manbalar muhim ahamiyatga ega. Masalan, Xilvatiyning tug'ilgan sanasini aniqlashda ushbu manbada yozib qoldirilgan quyidagi tarixiy voqea bayoni asos bo'lgan: "... 1328-yil 12-muharram oyi, yakshanba (1910-yil 12-yanvar). Asrdan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

oldin qish fasli chillasining o‘rtasida yo‘qlik ko‘hsoridin shahristonda bir nabira dunyoga keldi. Yangi tug‘ilgan bolaning otasi Mullo Nasriddin mahdum Mullo O‘rinboy Oxundning o‘g‘li. Onasi farzandlarimning birinchisi Sabihaxon 17 yoshda. Bu xudojo‘y bandaning nabirasi uning birinchi farzandi edi. Bu voqea it yili sodir bo‘ldi. Bu qish shunday yaxshilik va xushlik bilan o‘ttiki, uning avvalidan oxirigacha kechayu kunduz mu’tadil havo bo‘ldi. Bahor havosi va bahor shamoli ham undan namuna va nishona bo‘ldi. Buning sababini g‘oliban shunday gumon qilish mumkinki, bundan avval yer yuzida bunday qish kelmagan bo‘lsa kerak va bundan keyin ham kelish-kelmasligi gumondir. Ariqlar labida xuddi yosh yigitlarning yangi chiqqan mo‘ylablari kabi sabzalar go‘zal, dilrabo va jonga huzur beruvchi edi. Tamom ko‘cha va yo‘llar loyu balchiq va xoru g‘ubordan pok ediki, agar necha farsax piyoda yursang, na kafshing loy bo‘lardi va biror joyingga g‘ubor tegardi. Va shu yili bu notavon Xilvatiyning yoshi 52 yoshga qadam qo‘ygan edi”. Ushbu ma’lumot asosida 1910-yilda 52 yoshga qadam qo‘ygan Xilvatiyning 1858-yilda tug‘ilgani I.Abdullayev tomonidan aniqlandi va M.Murodovning og‘zaki ma’lumotlar asosida “Xilvatiy 1838-yilda tug‘ilib, 1916-yilda vafot etgan”, – degan qarashlari noto‘g‘ri ekani isbotlandi [4, 31].

Qo‘lyozmaning ayrim sahifalari yo‘qolgani uchun ba’zi she’rlarning boshlanishi va oxiri yo‘q. Qo‘lyozmaning dastlabki sahifalari yo‘qolgan. Undagi oxirgi ikki misra (muxammas-marsiyadan):

Xazinu notavon jonim sitamparvar bo‘lmishdur,
Ochilmas emdi hargiz g‘unchai ta’bi parishonim.

Ikkinchi qo‘lyozma – D II deb belgilangan. Ayni kezda shoir chevarasi Boltaboyeva Ozodaxonning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Devon 273 varaq (546 sahifa)dan iborat. Qalin qog‘oz muqovada. Hajmi 13x19. Nasx, ba’zan nasta’liq xatlari bilan oddiy Qo‘qon qog‘oziga qora siyohda Xilvatiy tomonidan 1878-1910-yillarda kitobat qilingan. Ba’zi o‘rinlarda qizil siyohda kichik sarlavhalar qo‘yilgan. Undagi she’rlar har sahifaga 6, 8, 10, 20, 30 va ahyon-ahyonda 60 baytdan qilib joylashtirilgan. Faqat uch joyda she’rlar ramkaga olingan (39^b, 40^a, 102^b). Bu qo‘lyozmadagi she’rlar ham devon tuzish an’anasiga rioya etib joylashtirilmagan bo‘lsa-da, I.Abdullayev va A.Yo‘ldoshevlar uni “Devon II” deb nomlashgan. Unga Xilvatiyning 4540 bayt (9080 misra) o‘zbek va fors tilida yozgan she’rlari kiritilgan. Bular g‘azal, muxammas, muvashshah, marsiya, sarguzasht she’rlar, hajv va qit’alardan iborat. Qo‘lyozmada 32 ta fors tilida yozilgan g‘azal, muxammas, muvashshahlar mavjud. Ushbu she’rlar janr bo‘yicha berilmagan bo‘lsa ham, birinchi qo‘lyozmaga nisbatan ancha yaxshi yozilgan. Qo‘lyozma varag‘i oxiriga ba’zi o‘rinlarda poyigir qo‘yilgani uchun bu she’rlarning avvali yoki oxirini aniqlash biroz qulay. Ushbu manbada o‘zbek va fors shoirlarining she’rlari ham uchraydi. Masalan, G‘oziy g‘azali (24^a), Dilresh g‘azali (25^a), Mashrab g‘azali (26^a), Hofiz g‘azali (32^b), Mu’in g‘azali (36^a-36^b, 37^a-37^b, uchta), Munshiy muxammasi (38^b), Loma’iy g‘azali (64^b), noma’lum shoirning uch bayti (243^b), Nodim (246^b-247^a), Majzub (253^a-254^a), Mute’ (264^b), shuningdek, Navoiyning ikki g‘azali (266^b-267^a) ham bor. Unda boshqa shoirlarning she’ri jami 221 baytni tashkil etadi. Agar bularni qo‘lyozmadagi 4540 bayt she’rdan ajratib olsak, Xilvatiy she’rlarining o‘zi 4319 bayt qoladi. Ushbu manbada o‘zbek va fors tilida yozilgan nasriy jumlalar, turli kishilar vafoti yoki biror voqeaga bag‘ishlangan tarixlar mavjud. Qo‘lyozmaning 110^a-varag‘ida Xilvatiy shoir Huvaydoning o‘g‘li Xolmuhammad eshonning nabirasi ekani haqida shunday yozadi:

“Muhri Xolmuhammad eshon ibn Eshon Huvaydo bobom
Hodiyi din Xolmuhammad avra’i sohib adab,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Volidash Xojanazar budu Huvaydoash laqab.

Tarixi vafoti Huvaydo bobom:

Xirad munshiysi tarixi vafoti

Bitibdur: "G'oyib o'ldi qutbi yodi" –1195 (1781)"

Xilvatiyning yuqoridagi baytda keltirilgan "avra'i sohib adab", ya'ni "odob sohibining yuzi" jumlasi shoirning 2001-yilda nashr etilgan kitobida "avroi adab" [4, 31] deb xato yozilgan. Ikkinchi misra esa nashriy matnning 3-sahifasida "Volidim Xoja Nazar, budu Huvaydosi laqab" yoki kyeyingi baytdagi "tarixi vafoti" jumlasi esa nashriy matnning 3-sahifasida "tarixi vafotin", deb xato yozilgan. Ushbu baytning matniy tadqiqidan anglash mumkinki, qo'lyozmadagi ayrim so'zlar chop etish jarayonida noto'g'ri yozilgan, natijada so'z ma'nosiga putur yetkazilgan hamda vazn saktaligi yuzaga kelgan. Adabiyotshunoslikda Huvaydoning tavallud yili ma'lum emas edi. Lekin ushbu marsiya-tarixdagi "G'oyib o'ldi qutbi yodi"dan abjad hisobida 1195-hijriy, 1780-1781-milodiy raqami hosil bo'lib, Huvaydoning vafot etgan sanasi aniqlangan [4, 9]. Demak, Huvaydo 1781-yilda vafot etgan. Bu baytlar Xilvatiyning shoir Huvaydo avlodidan ekanini tasdiqlaydi. Haqiqatan, Xilvatiy ona tomonidan Huvaydoga evara bo'lgan. Mazkur qo'lyozma ham Xilvatiy tarjimayi holi, uning lirik merosi va ba'zi tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarga oydinlik kiritishda muhim ahamiyatga ega. Devonning boshlanishi:

Rozi bo'lib javobim bering padar ilm uchun,
Buxoroga qilurman emdi safar ilm uchun.

Oxiri:

Vujudida qolmas ermish zarra gunoh,
Jonu ko'ngli oyinadek bo'lg'ay safo.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodiy merosiga doir yana bir qancha manbalar bor. Xilvatiy she'riyati muxlislaridan bo'lgan do'sti qozi Muhammad Orifxon Maxdum tuzgan bayoz shular jumlasidandir (Ushbu qo'lyozma manba Xilvatiy nabirasi – Akmalov Ma'rufjonga meros qolgan. Hozirgi paytda bu qo'lyozma bizning xonadonimizda saqlanadi – O.B).

Bayozda qayd etilgan sanalar ushbu qo'lyozmaning 1896-yildan 1935-yilgacha qozi Muhammad Orifxon, Xilvatiyning o'g'li Akmalxon to'ra, Xilvatiy nabiralari Fazliddin va Fayzulloh Nasriddin o'g'illari tomonidan yozilganini ko'rsatadi. Bayoz to'q havorang, to'q pushti, och sariq rus qog'ozlari va daftar varaqlariga yozilgan ushbu bayoz 228 varaq (456 sahifa)dan iborat. Hajmi 12,5x21. Qalin muqova orti charm bilan mahkamlangan. Muqovaning to'rt joyida "Mullo Usmon sahhof ibn Ibrohim" nomi yozilgan.

Shaxsiy kutubxonamizda saqlanuvchi "Bayoz-to'plam"da XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan Namangan va Qo'qon shoirlarining g'azal, muxammas, muvashshah, qasida va ruboiylaridan namunalar, jami 3145 bayt she'r mavjud. Bayozning 137^{b}-146^{a}, 149^{a}-150^{b}, 157^{a}, 159^{a}, 165^{a}-182^{a} sahifalarida Nodimning 36 ta g'azali berilgan. Bayozda Tajalliyning hazrati Miyon Fazl vafotiga ta'rixi (2^{b}-3^{a}), Majruh va Saloh taxallusli shoirlarning (Umarbek Majruh XIX asrning oxirida yashagan o'shlik shoir, Salohiy esa qo'qonlik shoir bo'lib, ular haqida "Tazkiraiy Qayumiy"ning 502-503-sahifalarida qisqacha ma'lumot berilgan – O.B), 10 bayt she'riy aytishuvi (17^{b}-18^{a}), Fuzuliy (13^{b}-14^{a}), Zaliliy (15^{a}-16^{a}-16^{b}) she'rlari ham uchraydi. Ushbu bayozda Partavning qozi Muhammad Orif o'g'li Muhammad Abdulboriy vafotiga bag'ishlab o'zbek tilida yozgan, ammo hozirgacha hech qaysi manbada qayd qilinmagan 68 bandli muxammas-marsiyasi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(21ᵇ-30ᵇ) va har bandi 9 misradan iborat bo‘lgan 13 bandli fors tilida yozilgan marsiyasi (31ᵃ-33ᵃ) uchraydi. Bayozga Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan Mirzo Anvar va Ra’no aytishuvi, ya’ni besh baytli she’r ham kiritilgan (35ᵇ). Qoriy g‘azali (59ᵃ), Furqatning A’zamxonga muvashshahi (84ᵇ-85ᵃ), Haziniyning olti g‘azali (107ᵃ -108ᵇ), Jomiy g‘azali (114ᵃ), Muqimiy muvashshahi (136ᵃ), Judiy Koshoniyning forscha g‘azali (157ᵇ) va ikki ruboiysi (158ᵃ), Ravshaniy g‘azali (194ᵃ) va uning ikki ruboiysi (194ᵇ-201ᵃ), Judoiyning ikki g‘azali (197ᵇ-199ᵃ) va muxammasi (199ᵇ-201ᵃ) joy olgan ushbu bayozda Xilvatiy va boshqa shoirlarning fors tilida yozilgan 10 ta g‘azali, muxammas, marsiya va ruboiylari mavjud. Xilvatiy she’rlari (80ᵇ, 81ᵃ ,131ᵇ-132ᵇ, 136ᵇ, 151ᵃ, 155ᵃ, 184ᵃ, 205ᵇ) sahifalarda berilgan. U she’rlar sarlavhasida “G‘azali Xilvatiy alayhirrahma”, “Eshon Xilvatiy domla”, “Janobi mullo Xilvatiy domla” kabi havolalar bor. Bayoz quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Shud du sad hashri malolu dardu anduhho balo,
Az vafoti soliki quddus guharro dar zamon[2ᵇ-варақ].

Bayoz Xilvatiyning quyidagi bayti bilan yakunlangan:

Ne ajab sham’i jamoli yor birla Xilvatiy,
Ravshan o‘lsa bir kecha bu xonai torim mani [2ᵇ-варақ].

Bu manbalar Xilvatiy tarjimayi holi va XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligini o‘rganish hamda adabiyotshunoslik ilmida nomi birinchi bor tilga olingan shoirlar ijodi bilan tanishishda alohida ahamiyatga ega.

I.Abdullayevning yozishicha: “Xilvatiy ijodining nashriy manbalari hayotlik vaqtida chop etilgan ayrim tazkira va bayozlarda ham mavjud. Masalan, hijriy 1328-yili (milodiy 1910) Toshkentda G‘ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan “Bayozi Haziniy”ning 89-91 sahifalarida Xilvatiyning “Xotun” nomli hajviyasi berilgan. Hijriy 1329- yili (milodiy 1911) Toshkentda G.A.Yakoblev bosmaxonasida bosilgan “Bayozi yangi” to‘plamining 122-124-sahifalarida Xilvatiyning ikki muxammasi chop etilgan. G‘ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan (yili ko‘rsatilmagan – I.A) “Bayozi Muhallo” to‘plamining 135-136-sahifalarida “Qilding” radifli g‘azali bosilgan. Hijriy 1329-yili (milodiy 1911) chop etilgan “Bayozi Murtazo” to‘plamida Xilvatiyning bir g‘azal va muxammasi berilgan” [4, 21-22].

Xilvatiy ijodiga oid nashriy manbalar, xususan, shoirning “Qasidai ilm”, “Charog‘i maktab”, “Sayrul jibol” va “Mavludi sharif” asarlari XX asr boshlarida Toshkentda chop etilgan.

Xilvatiyning 1903-yilda yozgan forscha “Qasidai ilm” asari “Sayrul jibol”ning toshbosma nusxasi bilan birga 1910-yil nashrdan chiqqan. Ilm va olimlik fazilatiga bag‘ishlangan 96 baytli bu qasidaning kirish qismida shoir fors tilida: “In qasida dar bayoni madhi ilm va donish va xasoil va manoqibi ulamo...”, ya’ni “Bu asar ilmu donish madhida va olimlarning xislat va manoqiblari haqida”, – deya ta’kidlaydi [5, 54]. “Qasidai ilm”ning qo‘lyozma nusxasi Xilvatiy devonida ham mavjud [6, 167ᵃ-168ᵇ]. Asarni fors tilidan o‘zbek tiliga Sayfiddin Sayfulloh nasriy usulda tarjima qilgan [5, 65-78]. Bu manba o‘zbek va fors tilida sermahsul ijod qilgan shoir Xilvatiyning zullisonaynlik an’anasi davomchilaridan biri bo‘lganini anglatadi.

Xilvatiyning “Mavludi sharif” asari xalq orasida “Mavludi sharifi turkiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan va ko‘pchilikning talabiga ko‘ra, 1899, 1908, 1911, 1913, 1916-yillarda qayta-qayta chop etilgan. Ushbu asarni nashr etishga talab ko‘pligining bir sababi shuki, xalqimiz mavlud marosimida o‘qiladigan arabcha kitoblar mazmun-mohiyatini tushunishga qiynalgan. Xuddi shu mazmundagi asarlarni faqat arab tilini yaxshi bilgan olimlar, ulamolargina o‘qigan. Xilvatiyning ushbu asari esa turkiy tilda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom mavludlari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

haqida yozilgan birinchi she'riy asar hisoblanadi. Asarning hijriy 1331 (milodiy 1913) yilda xattot Abduqodir Shoshiy tomonidan ko'chirilgan toshbosma nusxasi shaxsiy kutubxonamizda saqlanadi. Mustaqillik sharofati bilan diniy asarlarni nashr etish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari 1991 yil Xayrulla Qosim Elturk, 2000-yilda esa Abdulhamid Qurbonov tomonidan nashr etildi. Xalqimizning diniy e'tiqodi mustahkamlana borayotgan bir sharoitda asarni o'qishga bo'lgan talab kundan kun ortib bordi. "Mavludi sharif"ning yangi nashrlari Xilvatiyning XX asr boshlarida chop ettirgan toshbosma asari nusxalari asosida nashr etilmoqda. Xususan, ushbu asar 2003, 2004, 2013, 2015, 2017-yillarda ham kirill yozuvida nashrdan chiqdi.

Xilvatiyning "Charog'i maktab" asari hijriy 1325- yilda (milodiy 1907) Toshkentdagi O.A.Porsev bosmaxonasida chop etilgan. Kitobning "Charog'i maktab" dyeb yozilgan dastlabki sahifasidagi xalqa ichida: "Bu risola aqoidi manzumadur. Muallimlarg'a lozimdurki, atfollarg'a o'qutub yod oldurg'aylar" degan tavsiya bor. Ushbu risolani xattot Mullo Yusufjon binni Mullo Zokirjon tomonidan ko'chirilgan toshbosma nusxasi shaxsiy kutubxonamizda saqlanadi. "Charog'i maktab" eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga o'girildi va 2014-yilda nashrdan chiqdi.

1910-yilning yoz mavsumida Nodim va uning o'g'li Musallamxon hamda Namanganning taniqli shoirlari Xilvatiy, Fuzayluddin, Abdulmusavvarxon, to'raqo'rg'onlik Sayfuddin Mahdum, Mirzo Olim qorilar "Pochcha ota", ya'ni karomatgo'y Nurulloh mozorini ziyorat qilish maqsadida tog' bag'riga sayohatga chiqishadi. Xilvatiy ana shu sayohat taassurotlarini "Sayrul jibol" (Tog' sayri) asarida bayon etgan. Ushbu sayohatnoma hijriy 1328-yil (milodiy 1910) Toshkentdagi G'ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan. Asarni eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga o'girib, qo'lyozmalarga qiyoslab, chop etish va tahlil qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biri edi. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu asar 2009-yil kirill yozuvida, 2012-yilda esa lotin yozuvida nashr qilindi.

Xulosalar

Demak, Xilvatiy adabiy merosi O'zR FA SHI fondidagi qo'lyozma va toshbosma manbalarda hamda o'z avlodlari qo'lida saqlanadi. Xilvatiy hayoti va ijodi, asosan, mustaqillik yillarida tadqiq etila boshlandi, lirik merosi nashr etildi. Adabiyotshunoslikda Xilvatiy lirik merosi jamlangan qo'lyozma manbalar mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlansa, Qo'qon adabiy muhiti tarkibida rivoj topgan Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalarining rang-barang janrlarga boy ijodi adabiyotimiz tarixidagi mavjud tasavvurlarni yana ham boyitadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an'ana va yangilanish: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 146 b.
2. Boltaboyeva O. Xilvatiy hayoti va faoliyati haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. 2007. B-50-53.
3. Mahmud L. Mullo Yo'ldosh Xilvatiy. – Namangan: Namangan, 2017. – B. 72.
4. Xilvatiy. Devon. – Toshkent: Fan, 2001. – 524 b.
5. Xilvatiy. Sayr-ul jibol. – Toshkent: Fan, 2009. – 88 b.
6. Xilvtiy, Devon I, 167[a]-168[б]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

THE DEPICTION OF PAST VERSUS FUTURE IN THE NOVEL BY J.K.OATES "HAZARDS OF TIME TRAVEL"

M.T.Elmanova , senior teacher
Bukhara State University
elmanova@gmail.com

Annotation. *The purpose of this article is to analyze the main motives, images, features of the author's strategy in relation to artistic time, as well as to trace literary parallels, consider the concept and artistic features of Oates's novel in comparison with the works of American writers (K. Vonnegut, K. Kesey), who developed the genre of the novel - dystopia in the twentieth century.*

Key words*: dystopian novel, poetics, satire, chronotope, individuality.*

J.K.OATESNING "HAZARDS OF TIME TRAVEL" ROMANIDA O'TMISH VA KELAJAK TASVIRI

M.T.Elmanova, katta o'qituvchi
Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. *Ushbu maqolaning maqsadi muallif strategiyasining asosiy motivlari, obrazlari, xususiyatlarini badiiy vaqt bilan bog'liq holda tahlil qilish, shuningdek, adabiy parallelliklarni kuzatish, Oates romanining konsepsiyasi va XX asrda roman janri - distopiyani badiiy xususiyatlarini rivojlantirgan amerikalik yozuvchilar(K. Vonnegut, K. Kesey) ning asarlari bilan taqqoslashdan iborat.*

Kalit so'zlar*: distopik roman, poetika, satira, xronotop, individuallik.*

ПРОТИВОПОСТАВЛЕНИЕ ПРОШЛОГО И БУДУЩЕГО В РОМАНЕ Дж.К.ОУТСА "HAZARDS OF TIME TRAVEL"

М.Т.Элманова, старший преподаватель
Бухарский Государственный университет

Аннотация: *Целью данной статьи является анализ основных мотивов, образов, особенности авторской стратегии в отношении художественного времени, а также проследить литературные параллели, рассмотреть концепцию и художественные особенности романа Оутс в сопоставление произведениями американских писателей (К. Воннегут, К. Кизи), развивавших жанр романа-антиутопии в XX в.*

Ключевые слова: *роман-антиутопия, поэтика, сатира, хронотоп, индивидкальность.*

Introduction

One of Oates's latest novels is Hazards of Time Travel. This is Oates' first dystopian novel and was published in 2018. The book is set in a world in the very near future - 2024, when democracy as we know it will cease to exist and will be replaced by a fictitious democracy functioning as a totalitarian regime. In this world, the United States, Mexico and Canada united to create the North American States (NAS) and a new calendar year was adopted, which finds its starting point on the day of the September 11 attacks. Citizens in NAS live under strict surveillance and control, freedom of speech does not exist and having subversive thoughts is almost as dangerous as expressing them.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

The Hazards of Time Travel is a thought-provoking novel that explores themes of totalitarianism, social control, and individual freedom through the eyes of a teenage girl named Adrian. The novel takes place in a dystopian future, where conformity is valued above all else, and any deviation from the norm is severely punished.

Joyce Carol Oates uses a poetic style to convey the emotional depth and complexity of the characters in The Perils of Time Travel. The narrative is written in the first person, allowing readers to experience Adriana's thoughts and emotions first-hand. Oates also uses vivid imagery and metaphors to create a sense of "foreboding" and "suspense" throughout the novel. The socio-psychological aspects of the dangers of time travel are central to her poetics. The novel explores how social conditioning can influence individual behavior and identity. This raises important questions about power dynamics and how they affect human relationships. Using the example of Adriana, the author shows how difficult it can be to maintain self-esteem when faced with insurmountable pressure from society.

Literature review

The Hazards of Time Travel follows 17-year-old heroine Adrian, who, in her farewell speech, decides to ask twelve questions to which she never learned the answers during her lessons. Since this is seen as a betrayal and questioning of authority, Adriana is arrested. The government decides that she is guilty of high treason and declares Adriana an exile, which in scientific terminology sounds like this: EI - Exiled Individual. This results in her being transported back in time to 1959 to Area 9 in Wisconsin. Here she must go to university under a new name, Mary Ellen Enright, and is left with only a list of rules to follow and a microchip embedded in her brain that manipulates her memory. The last warning she has is that if she decides to rebel again, she will be killed.

The ambitious Adriana is arrested right at the prom, goes through interrogations, during one of which she observes the execution of her peer, and learns that the denunciation incriminating her of "high treason" was written by her brother Roderick. The court's decision is quite loyal: the girl is sentenced not to "disappearance," but to four years of exile." From a reality saturated with cybernetic devices, Adriana finds herself in a period when laptops, mobile phones and copiers had not yet been invented. Typewriters are commonplace here, one of which she learns to use while working part-time at the museum. An exile can study as a first-class students at Wainscotia State University, but is under the watchful eye of the National Security Disciplinary Commission for the Supervision of Exiles (DNSCNI). A chip is installed in the girl's head that prevents memories of the past, causing painful spasms when immersed in the past. She cannot remember the faces of her parents, the names of her friends, although she makes efforts, overcoming the pain, trying to preserve her memory, her past, and with it her own individuality. Much of the narrative is Adriana's internal monologue, told in the first person: "Sometimes on my knees in a posture of prayer I am able to break through the censor barrier".

An exile can study as a first-class students at Wainscotia State University, but is under the watchful eye of the National Security Disciplinary Commission for the Supervision of Exiles (DCNSI). A chip is installed in the girl's head that prevents memories of the past, causing painful spasms when immersed in the past. She cannot remember the faces of her parents, the names of her friends, although she makes efforts, overcoming the pain, trying to preserve her memory, her past, and with it her own individuality. Much of the narrative is Adriana's internal monologue, told in the first person: "Sometimes on my knees in a posture of prayer I am able to break through

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

the ' censor barrier". In a 2020 interview, Oates says that she began working on the novel in 2011, emphasizing the relevance of a personal approach as a sign of healthy society, noticing that it does not observe it in modern American reality

Vonnegut's story "Harrison Bergeron" about a missing teenager is an excellent illustration of what could have happened at Adriana's house in the reality of the 21st century after her expulsion, how might the parents behave, whose faces she tries to remember, about whom she yearns. A tear on the mother's cheek is the only manifestation of sadness for her son. Something probably went wrong; not all memories were erased. According to the instructions Oates presents at the beginning of the novel, the memories of the exile disappear with him: "If you are Deleted, all memories of you are Deleted also") [1,6]. Vonnegut's short story becomes a clear example of this point of instructions from Oates's novel. But, in our opinion, Oates's novel is more focused on the inner world, on the processes destructive to the heroine's consciousness, on the protest against a person's loss of individuality. In addition, the main chronotope within which most of the history of Adriana develops is the past 1959–1960. The chronotope of 2039, almost coinciding in time with the artistic reality of 2038 in Vonnegut's story, is shown fragmentarily in Adriana's story.

The government's response to the Great Terrorism Act demonstrates a totalitarian regime: "It is hard to believe that the regions now known as (Reformed) Mexico and (Reformed) Canada were once independent states independent of the States!" – exclaims Adriana7. Numerous abbreviations are becoming characteristic signs of the America of the future: SInd – exiled individual, EI – exile elite, BOK – Bureau of Educational Control. Codification of social groups by skin color, codification by trustworthiness, constant pressure that adults and children experience are common phenomena in the future from which Adriana was expelled. Students at her school try not to stand out, "to be like everyone else," deliberately showing "average knowledge," adults are forced to live according to the laws of the social group to which they are assigned. Thus, Adriana's father, being a good doctor, was "forever stuck" in the position of S-2, a second-rank orderly, due to his brother's unreliability. However, he decides to protest a certain way: he tells his daughter about Uncle Toby, who "disappeared," keeps his brother's things, and talks with Adriana about free will. The future in Oates's novel, in its mechanicalness and cruelty towards human individuality, resembles the artistic reality of Kesey's novel One Flew over the Cuckoo's Nest, 1962. The order in America in 2039 is similar to that established by the head nurse with her lips stretched out in a "plastic" smile in the mental hospital8. In reality of the 21st century. Kesey's novel is still studied in American schools, appreciating "the roar of protest against the rules by which a society of mediocrity lives, and against those invisible guardians who enforce these rules" [3,9].

Results and analysis

The epigraph to Oates' novel, drawing a parallel between "man and mechanism," is an example of the author's irony, bordering on sarcasm. The epigraph is a quote from the work of the popular psychologist B.F. Skinner, whose works Adriana studies: ""I" is only a tool for displaying a functional unified system of reactions". The original version of the epigraph expresses the concept of personality (self); in the Russian version of the novel, published in 2020, the emphasis on human individuality is somewhat leveled, since the concept of "I" is quite ambiguous and somewhat faceless. The choice of psychology, a science that studies human individuality, is not accidental. Populists and demagogues from science are no less dangerous

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

than demagogues from politics. They are capable of turning science and society into a soap bubble, even if shining with all the colors of the rainbow, but empty.

Naive Adriana, proud of her role as speaker, writes a speech consisting of questions addressed to the school administration. Even before the speech is given, Adriana is taken into custody for calling for treason and undermining the authority of the authorities. The absurdity of the events described is based on the grotesque: there was no conscription, but they were convicted for it. No one read the speech, but an undermining of the authority of the authorities was revealed.

The grotesque as a combination of the real and the unreal in a single image system, combined with irony, are key techniques in the palettes of K. Vonnegut, and K. Kesey. Writers are united by a critical attitude towards the reality depicted. Oates continues and develops this same tradition, creating a novel that warns about the dangers of depersonalization and violence against personal freedom. The famous American critic J. Fisher, in a review of the novel "The Hazards of Time Travel" for The New York Times, emphasized the same feature of the author's conceptual sphere, noting that Joyce Oates "wrote a thriller in which America is depicted under the threat of death." ("has written a thriller in which the murder victim is America.") [2,13]. In the above quote, the term "thriller" defines not the genre, but the dynamics and tension of the narrative development.

Being in exile, the frightened girl constantly thinks that she is being watched, keeps to herself on the student campus, and, according to her friends, looks eccentric. Her consciousness, her personality are crippled, but not by the war. She is studying psychology, having lost her family, her past, even her name. From now on her name is Mary Ellen . The girl calls her past life a "soap bubble"[3,14]. Emptiness and internal breakdown are inherent in both Billy and Adriana. By chance they both turn out to be happy in their personal lives. Billy is married and has a daughter. Adriana, having survived her love for teacher Ira Wolfman, as well as Ira himself, meets sculptor Jamie Stiles and is quite happy on his farm, in a house full of guests. But at the very end, the girl remarks: "The doctors say my injuries will never heal. Neurological disorders cannot be treated."[3,15].

Sincerity, trusting relationships, love and friendship, according to the author's concept, come from the past. Microchips, numerous gadgets, manipulations with consciousness, science and art are relevant for modern America. In order to objectively evaluate and understand the present, sometimes it is simply necessary to compare it with the past. Joyce Carol Oates made a comparison in favor of the past, in which people felt free and relationships between people were more trusting. The contrast of time chronotopes in the literary system of the novel is a narrative strategy – a trigger that ensures the dynamics of action development. In addition, the time chronotope of the present for Adriana corresponds to the future for the reader. Thus, Oates makes a three-dimensional structural formula of the novel, in which the past and present of the heroine, shading each other, change places, allowing the reader to reassess his own past and present, looking into the future in order to separate true values from momentary ones.

Throughout the novel, Adriana questions whether the threat is real and fears that other people will become spies who will betray her. She lives in constant fear until Ira Wolfman convinces her to run away with her. But, again, this momentary feeling of freedom ends in violence through the Inner Drone Strike. Oates describes how, when Ira and Adriana inevitably return to campus, "a small bird, perhaps a bat, circled strangely as if in a frenzy" and swooped

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

down "to rush at the Wolf Man, hit him on the head and entered into him" his head suddenly burst into flames, engulfing him in flames, in a matter of seconds turning a man into vapor just a few feet from me": "In pine branches overhead a small bird, possibly a bat, was circling strangely, as if rabid. Then, as I stared, the thing—black, swift, unerring—swooped down to rush at Wolfman, struck him on the side of the head and entered his head, suddenly aflame, engulfing him in flames, within seconds turning the man to vapor only a few feet from me."[3,56] Adriana is also wounded, but does not evaporate. She ends up in the hospital, loses all her memories and learns from the doctors that her name is Mary Ellen Enright, a role she ends up living in blissful obedience.

Conclusion. To summarize our discussion, we want to show how and in what ways Oates critically reflects on issues of surveillance, manipulation and totalitarian control, taking into account the earthiness of this work. By presenting the reader with a totalitarian regime in a near-future society, Oates speaks to a modern audience living in the era of new power after 9/11, and through Adriana's story shows them the dangers of allowing power to go unchecked. Having allowed Adriana to live in blissful ignorance in 1959, Oates also notes the lack of active political opposition in his contemporary American figures novel The Perils of Time Travel as a warning not to allow the US to slide into a sham democracy reminiscent of the NAS democracy. This view of the novel is supported by the fact that Oates's fiction has always been devoted to a serious study of "American character and American society." For Oates, the NAS society in the novel is an extension of the modern United States, and by reflecting critically on it, she makes visible and warns against certain problematic features of the sociopolitical landscape.The Perils of Time Travel is a powerful social-psychological novel that uses poetic language to explore complex themes related to freedom, conformity, and social control. Oates's masterful writing style creates a spellbinding atmosphere that lingers long after the last page has been turned.

References:

1. *Oates J.C.* Hazards of Time Travel. N.Y.: Harper Colling publishers, 2018.

2. Berkeley News. URL: https://news.berkeley.edu/2020/08/07/berkeley-talks-joyce-carol-oates/

3. J.C.Oates "Hazards of time travel" The Ontario Review, Inc. 2018

4. Toshnazarovna, E. M. (2022). THE CONCEPT OF THE TRAGIC IN THE WRITINGS OF J. CAROL OATES. World Bulletin of Social Sciences, 10, 70-72. https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1009

5. Toshnazarovna, E. M. (2022). Allusions to historical characters and events in the novel Bellefleur by Joyce Carol Oates., 2(1), 274-277. http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861

6. Usmonova, Z. H. (2017). Stiven King fantastikasiga ta'siri. Міжнарод nbuv. gov. ua/cgibin/irbis_nbuv/cgiirbis_64. exe WNLOAD= 1&Image_file_name.

7. Zarina Khabibovna Usmonova. (2023). The Main Peculiarities of Translation Studies: Tranlator's Skill. Conference on Applied and Practical Sciences

8. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2023). Cross-Cultural Variation and Distribution of Politeness Strategies . American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 31–34. Retrieved from http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/864

9. Yuldasheva, F. (2023). POLITENESS RESEARCH IN MODERN LINGUISTICS. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(1), 99. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a100

ISSN: 2181-0427

UO'K: 82-311.2

"XRIZANTEMALAR" ("THE CHRYSANTHEMUMS") HIKOYASI POETIKASI

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna
f.f.f.d. (PhD), dotsent, Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: *XX asr Amerika nasrida J.Steynbek hikoyachiligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mazkur janrda ijodi 1920-1950-yillarni qamrab olib, muallifning kichik nasrda egallagan tajribasi, keyingi ijodiy bosqichlarda yaratilgan qissa hamda romanlarga zamin vazifasini o'tadi. Ayniqsa, "Xrizantemalar" ("The Chrysanthemums") hikoyasi muallif kichik nasriy asarlari orasida betakror syujeti, murakkab ayol obrazi ifodalanishi, ramzlarning mohirona qo'llanilishi, makon tasviridagi teranligi, tabiat yozuvchisi (nature writer) sifatida nabotot olami orqali qahramonlar ruhiy dunyosi tasvirlashi, ijtimoiy munosabatlarning inson taqdiriga ta'siri aks ettirilishi, badiiy psixologizmning bevosita va bilvosita turlaridan o'rinli foydalanishi bilan mustahkam mavqega ega. Mazkur maqolada "Xrizantemalar" ("The Chrysanthemums") hikoyasining poetikasi tahlilga tortilib, muallif mahorati misollar yordamida ochib beriladi.*

Tayanch tushunchalar: *"Xrizantemalar" ("The Chrysanthemums"), J.Steynbek, hikoya, janr, mavzu, ayol, obraz, ramz, badiiy detal, muallif, mahorat, makon, syujet, pafos.*

ПОЭТИКА РАССКАЗА «ХРИЗАНТЕМЫ» («THE CHRYSANTHEMUMS»)

Ганиева Орзигул Хайриддиновна PhD, доцент,
Бухарский Государственный Университет

Аннотация: *В американской прозе XX века оригинальностью отличается повествование Дж. Стейнбека. Его творчество в этом жанре охватывает 1920-1950-е годы, а опыт автора в малой прозе служит основой для повестей и романов, созданных на более поздних творческих этапах. Особенно рассказ «Хризантемы» («The Chrysanthemums») среди небольших прозаических произведений автора отличается неповторимым сюжетом и изображением сложным женским образом. Кроме того, рассказ характеризуется умелым использованием символов, глубиной в изображении пространства, описанием духовного мира героев через мир растений как у писателя-натуралиста и имеет сильные позиции благодаря отражению влияния общественных отношений на судьбу человека, уместному использованию прямых и косвенных видов художественного психологизма. В данной статье анализируется поэтика рассказа «Хризантемы» («The Chrysanthemums») и с помощью примеров раскрывается мастерство автора.*

Ключевые слова: *«Хризантемы» («The Chrysanthemums»), Дж. Стейнбек, сюжет, жанр, тема, женщина, образ, символ, художественная деталь, автор, мастерство, место, сюжет, пафос.*

THE POETICS OF THE STORY "THE CHRYSANTHEMUMS"

Ganieva Orzigul Khayriddinovna
PhD, Associate professor, Bukhara State University

Abstract: *In American prose of the XX century John Steinbeck's short fiction is distinguished by its originality. His works in this genre covers the 1920-1950's, and the author's experience in short prose serves as the basis for short novels and novels created at later creative stages. Especially the story "The*

Chrysanthemums", among the author's short prose works, is distinguished by its unique plot and depiction of a complex female image. In addition, the story is characterized by the skillful use of symbols, depth in the depiction of setting, a description of the spiritual world of the characters through the plants as a nature writer and has a strong position due to the reflection of the influence of social relations on the fate of a person, the appropriate use of direct and indirect types of artistic psychologism. This article analyzes the poetics of the story "The Chrysanthemums" and, with the help of examples, reveals the author's skill as a short story writer.

Key words: *"The Chrysanthemums", John Steinbeck, plot, genre, theme, woman, image, symbol, detail, author, skill, setting, plot, pathos.*

Kirish

J.Steynbek hikoyachiligi XX asr Amerika nasrida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mazkur janrda ijodi 1920-1950-yillarni qamrab olib, muallifning kichik nasrda egallagan tajribasi, keyingi ijodiy bosqichlarda yaratilgan qissa hamda romanlarga zamin vazifasini o'tadi. Diqqatga molik tomoni shundaki, adibning Amerika adabiyotida "qisqa hikoyalar tsikli" janri rivojida ham hissasi beqiyos bo'ldi. *("Short story cycle" yoki "short story sequence" termini muallif tomonidan bir to'plamga jamlangan, garchi har biri yaxlit tugal hikoyalar bo'lsa ham, uzviylikda mutolaa qilinganda, barchasini bog'lab turadigan izchil xarakter va mazmun namoyon qiluvchi janrga nisbatan qo'llaniladi. XX asr Amerika adabiyotida S.O.Jyuettning "The Country of the Pointed Firs", Sh. Andersonning "Winesburg, Ohio", U.Folknerning "The Unvanquished" hamda "Go Down Moses", K.A.Porterning "The Old Order", E. Ueltining "The Golden Apples" singari qisqa hikoyalar tsikllari misol bo'la oladi [12; 387].*)

Tadqiqotchi S.Burked J.Steynbekning hayoti, adibning adabiyotga qo'shgan yuksak hissasi, "Tortilla Flat", "Of Mice and Men", "The Grapes of Wrath", "Cannery Row", "The Pearl" ("Javohir"), "East of Eden" asarlarining poetik xususiyatlarini batafsil yoritish bilan bir qatorda, "The Pastures of Heaven" ("Samoviy kulbalar") qisqa hikoyalar tsiklining tahlilini keltiradi va asarning o'ziga xos kompozitsiyasi J. Steynbekning hikoyanavis sifatida ulkan hissasi ekanini ta'kidlaydi, chunki bu mustaqil va mazmunan tugal hikoyalardan tashkil topgan to'plam bo'lishiga qaramasdan, ular mantiqiy izchillikga ega [1; 25]. Hikoyalarda turli insonlar taqdiriga guvoh bo'lsak ham, ularni yagona element birlashtirib turadi. Bu – Manro oilasi bo'lib, barcha oilalar Manrolarning yomonligi hamda shafqatsizligidan aziyat chekishadi.

Keyinchalik yaratilgan "The Red Pony", "Johny Bear", "The Murder", "The Snake", "The Leader of the People", "The Flight", "Breakfast" kabi o'nlab hikoyalar "The Long Valley" sarlavhasi ostida to'plam shaklida 1938-yilda nashrdan chiqadi hamda unga mustaqil tematik mazmunga ega kichik nasriy janrda yaratilgan asarlar to'planadi. Tahlilga tortilayotgan hikoyalar shu to'plamdan o'rin olgan.

Tadqiqot obyekti va metodlar.

J. Steynbek "The Chrysanthemums" ("Xrizantemalar") hikoyasi ustida 1933-yilning so'nggi oylarida ish boshlab, ancha muddat ter to'kadi. Muallif mazkur ijod namunasiga qanchalik jiddiy kirishganini, aynan shu asar unga ahamiyatli ekanini asl qo'lyozmalarda saqlanib qolgan bir necha boshlamalar namoyon etadi [9; 16]. Nihoyat, hikoya 1934-yil fevral oyida yakunlanib, ilk marta 1937-yil oktabr oyida "Harper's Magazine" jurnalida chop etiladi. Ushbu asar yozuvchi uchun ham ijodiy, ham shaxsiy murakkablik tug'dirgani samarasiz

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427


ketmadi. Hikoya juda ham samimiy va iliq kutib olindiki, ko‘p muddat o‘tmasdan, ayol ichki tug‘yoni, shaxsiyati hamda dardu-hasratini talqin etilgan ijod namunasini yaratdi.

Nasriy asarlar faqat voqea-hodisalarni aks ettiribgina qolmay, *“balki inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilishi bilan ham so‘z san’atining insonshunoslik mohiyatini keng namoyon eta”* oladi [7; 134]. Tahlil qilinayotgan hikoyada ham yadro oila (nuclear family) tasvirlanib, er-xotin munosabatlari, farzandsizlik qiynagan juftlikning ziddiyatlari, murosasiz rishtalari, bosh qahramon Eliza Allen (Elisa Allen)ning hayot sinovlarini mardonavor yengishi, o‘zining olamini go‘zallashtirishga urinishi ifodalanadi. Mazkur ayol qahramon mukammal uy bekasi sifatida gavdalantiriladi, ammo uning onalik roliga o‘rin berilmaydi.

Tahlil va natijalar

Ma’lumki, hikoya janrining asosiy belgilaridan biri – unda aksar hollarda ma’lum bir shaxs hayotidagi bitta voqea-hodisaning ixcham shaklda poetik mukammallik asosida tasvirlanishidir. “The Chrysanthemums”da Eliza Allen ishonch bildirib, taqdim etgan gullarining poymol etilishi, ayol qalbining o‘ksishi, umidsizlik hamda notavonlikdan aziyat chekishi, sezilarli dinamik o‘zgarishlar sodir bo‘lishi qalamga olinadi. Hikoyada ayolning nozik qalb egasi ekani, u faqatgina mehr, e’tibor va hamda ehtiromning shaydosi ekani tasvirlanadi.

Hikoyaning janriy belgilaridan yana biri qahramonlarning son jihatdan cheklangan bo‘lishi, ammo shunda ham rivoyada bir personaj bilan bog‘liq bo‘lishidir.



“The Chrysanthemums” hikoyasida uchta personaj - Eliza, turmush o‘rtog‘i Henri va yo‘lovchi bo‘lib, rivoyada voqealar bosh qahramon Eliza bilan kesishadi. “*Elisa started at the sound of her husband’s voice. He had come near quietly, and he leaned over the wire fence that protected her flower garden from cattle and dogs and chicken*” [9; 27]. Mazkur parchada bosh qahramon Eliza va turmush o‘rtog‘ining asardagi ilk muloqotga kirishi yoritilib, unda Elizaning Henri yaqinlashganida rafiqasining reaktsiyasi, Henrining esa sekin kelib, gaplashish uchun it-mushuk-qoramoldan bog‘chani himoya qilish uchun o‘rnatilgan panjaraga suyanishi aks ettiriladi. Tasvirdagi “silently” – “jimgina” ravishi Henrining o‘zaro munosabatlarida ayoliga ehtiyotkorlik bilan muloqotga kirishishi, o‘rtalaridagi “panjara” detali orqali esa ular orasida yaqinlik iliq emasligi, ularni ajratib turuvchi omillar borligiga ishora qilinadi. “*Her flower garden*” – “uning gulzori” deya talqin etilishi esa Elizaning bir xonadonda yashab, shu makonda unga tegishli joyga hatto turmush o‘rtog‘i ham mansub emasligi ifodalanadi.

Yana bir epizodda Eliza va yo‘lovchi erkakning suhbati keltiriladi. E’tiborimizni shu epizodga qaratsak: *“‘Well,” said Elisa, “I think you’ll save time if you go back to the Salinas road and pick up the highway there.” He drew a big finger down the chicken wire and made it sing. “I ain’t in any hurry, ma’am. I go from Seattle to San Diego and back every year. Takes all my time. About six months each way. I aim to follow nice weather”[9; 28].* Ko‘rinadiki, bosh qahramon hamda hikoyaning uchunchi personaji yo‘lovchi-miskar bilan tanishuvida ham ular orasida ajratib turuvchi panjara

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo‘lib, qahramonlararo ziddiyat rivojlana boradi. Hikoyada sodir bo‘layotgan voqealar Eliza bilan bog‘liq bo‘lib, Henri hamda yo‘lovchi-miskar bosh qahramon qalbida kechayotgan tizginsiz hissiyotlarni ochib berishga yordam beradi.

Oydinlashidiki, hikoyadagi personaj uy bekasi, oilali, ammo u farzandsizligi sababli o‘zi bunyod etgan gulzorga mehr bergan hamda bu manzil-makonni o‘ta ehtiyot qiladi, birga umrguzaronlik qilayotgan hamxonasidan ham himoyalaydi. “The Chrysanthemums” hikoyasida Eliza gulzorini panjara bilan muhofaza qilsa, turmush o‘rtog‘i bilan muloqotda ular orasidagi masofa sifatida ifodalansa, bu uning o‘z tanho olamida yakka ekani, hamma ko‘ngil dardlarini turmush o‘rtog‘iga ham oshkor etolmayotganini namoyon etadi.

J. Steynbek hikoyalariga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri asarning boshlamasi yordamida xarakterning ijtimoiy roli, hayoti hamda ichki olamiga ishoralar berishdir. Zukko kitobxon personajlarning badiiy pozitsiyasi, ularning shart-sharoitga nisbatan munosabatini fahmlay olishi mumkin. “The Chrysanthemums” quyidagi satrlar bilan boshlanadi: “ *The high grey-flannel fog of winter closed off the Salinas Valley from the sky and from all the rest of the world. On every side it sat like a lid on the mountains and made of the great valley a closed pot”[9;26].* D.A.Lous J.Steynbek hikoyalari tadqiqida e’tiborli bir fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, muallif ijodiy faoliyati davomida asarlari uchun makon sifatida asosan tug‘ilib o‘sgan joyi, Salinas daryosi, Salinas Vodiysi, Monterey singari joylarni tanlab, ularning tasviriga keng o‘rin ajratadi. Adabiyotshunos adibning asarlari makoni tahliliga chuqur yondashib, dastavval yozuvchi hayotligida: “*O‘ylaymanki, men shu keng vodiy – yovvoyi tepaliklararo yastanib yotgan dalalar, shaharchalar va rancholar haqida hikoya yozmoqchiman. Men bu joy dunyoning vodiysiga aylanishi uchun ham qanchalik yozishni istayotganimni anglayapman. Ammo bu qachondir kelajakda amalga oshadi. Bu ancha vaqt talab etadi”*, deya ta’kidlaganini epigrafda bayon etadi [3; 27]. Ko‘rinadiki, J.Steynbekning badiiy niyati g‘oyatda keng bo‘lib, ularning ahamiyatlilaridan biri bolaligi, o‘smirlik va unutilmas yillari kechgan Kaliforniya shtatidagi Salinas Vodiysini dunyo kitobxonlariga tanitish bo‘ldi. Bu bilan mazkur vodiyning bepoyonliklarida umrguzaronlik qilgan insonlardagi samimiylik, soddalik hamda bag‘rikenglikni yoritish bo‘lib, nosirning kichik nasri poetikasida diqqatga sazovor xususiyatni ham shu omil tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan parchada Salinas vodiysi ulkan tog‘lararo joylashgan bo‘lib, qishning tund va quyuq tumani bu joyni osmondan ham, butun dunyodan ham xuddi qozonning qopqog‘idek to‘sib olgani kabi tasvir hikoyaning personajlari – Eliza, Henrining ruhiy holati, ularning oilasidagi munosabatlari, o‘zaro muloqotlari, jamiyatdagi ayro kechirayotgan hayotlariga ishora bo‘lib xizmat qiladi.

“Gray”, ya’ni “kulrang” badiiy asarda g‘amginlik, xafalik mazmunida qo‘llanib, keyingi epizodlarda tasvirlanadigan ayanchli voqeani his qilishda yordam beradi. Elizaning hikoyada kuchli ichki zarbga ro‘para kelishini hikoyaning dastlabki satrlaridanoq muallif kitobxonga bayon etadi. Keyingi epizodlarda “*pale, black earth, cold yellow stubble fields*” singari jumlalar *hikoyaning ichki interyerini boyitishga*, kompozitsion mukammallikni ta’minlashga, badiiy pafosi kuchayishiga olib keladi hamda asarning badiiy-g‘oyaviy kontseptsiyasini ochib berishda ko‘maklashadi [11; 29].

“Qozon, qopqoq” singari detallar ham bejiz ishlatilmaydi. Birinchidan, hikoyadagi uchinchi personajning kasbi eski uy anjomlarini – pichoq, qaychilarni o‘tkir qilib berish, qozon va boshqa idishlarni yamashdan iborat ekaniga ishora qilinadi. Hikoyada umumiy kartina chizgilarida hech bir so‘z ortiqcha ishlatilmaydi, aksincha, har bir jumla maqsadli ishlatilgani kitobxonning chalg‘imasligiga, hikoyaning birinchi satridan jalb qilingan diqqati so‘nggi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

daqiqaga qadar birday tutib turilishiga olib keladi. Ikkinchidan, qozonning qopqog‘idek yopilgan olam bosh qahramonning botiniy hamda zohiriy dunyosini ham ifodalaydi. Elizaning yolg‘izlikdan aziyat chekayotgani, umid uchqunlari nur sochmayotgani, hayoti kulrangdan iborat ekani, ya’ni ertasiga ishonchi bo‘lmagani, tashqaridan – uning ahvolidan umuman xabari bo‘lmagan begonaning ma’lum bir oniy lahzada poyonsiz jahonnni unga tanitib, yana shu ilinjdan mahrum qilgani mahorat bilan aks ettiriladi. Muallifning har bir hikoyasida personajlarning o‘ziga xos jihatlarini bayon qilishda batafsil makon tasviri bilan bir qatorda, o‘simlik dunyosi, undagi rango-ranglik va turfalikdan mohirona foydalanadi. “The Chrysanthemums” hikoyasida qahramonlar holati, xarakteri va ahvoli bayonida tund va g‘amgin ottenkalar nisbatan ko‘proq qo‘llanadi.

Muhokama

M.J.Meyer ta’kidlaganidek, J.Steynbek prozasi xuddi ayol qanday muhitda o‘zini baxtli his qilishi mumkin, degan savolga javob izlayotgandek taassurot uyg‘otadi [10; 11] . Hikoyada ayol qahramon taqdiri tahlil qilinib, ayol baxti sodda va samimiylikda, tabiiy muhitda yashab turib o‘zini baxtli his qila olishi mumkinligida, hech qanday hashamat halovat bera olmasligi kabi g‘oya ilgari suriladi. Anglashiladiki, J.Steynbek kichik nasrida ustunlik qilgan tematik yondashuvlardan biri feministik mavzu bo‘lib, muallif tipik Amerika ayoli, uning kundalik hayoti, uning iztiroblari, anduhlari, tashvishlarini boricha tasvirlab, kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan mohiyatni ramziylik, obrazlilikga burkadi.

J.Steynbek “The Chrysanthemums” hikoyasida muallif badiiy voqelikdagi mohiyatni ayol o‘zi uchun teran haqiqatni anglagan, o‘quvchi yoki ilg‘agan yoki nazaridan chetda qoldiradigan lahzasiga jo qiladi: bu daqiqa Eliza yo‘l chetida irg‘itib ketilgan xrizantemtalarni ko‘rganida aks etadi [10; 1]. Ayni shu nuqtada hikoyaning sarlavhasiga diqqat qaratishni lozim topdik. “The Chrysanthemums” hikoyasida Eliza uchun xrizantemalar nimani anglatadi? Nega aynan shu gullar? Modomiki, obrazli fikr kishilarning diqqatini darhol jalb etar ekan [7; 99], J.Steynbek tabiat yozuvchisi (nature writer) sifatida kichik nasriy asarlarida hayvonot hamda nabotot olamiga mansub o‘simlik, parranda va hayvonlarga badiiy vazifa yuklab, ularning asosiga personajlarning ko‘ngil tubidagi tizginsiz hislar, evrilishlarni jo qiladi, ularni o‘z nuqtai-nazari va badiiy-estetik idealiga ko‘ra tasvirlaydi. “The Chrysanthemums” hikoyasida ham bosh qahramonning mehr bilan o‘stirgan gullari kitobxonni befarq qoldirmaydi. *“They roamed about until they came to the chrysanthemum bed where she had been working. "What's them plants, ma'am?" The irritation and resistance melted from Elisa's face. "Oh, those are chrysanthemums, giant whites and yellows. I raise them every year, bigger than anybody around here" [9; 29].* Asarda oq va sariq xrizantema, qizil geran kabi xonaki gullarni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, istiqomat qiladigan hududida eng sara me’yorda o‘stira oladigan Elizaning ichki hamda tashqi dunyosi talqinida yozuvchi aynan shu gullarni tanlaydi. Bu gullar badiiy detal sifatida o‘zining birlamchi va keyingi vazifalarini bajaradi. Avvalo, AQSH madaniyatiga ko‘ra, xrizantemalar xushchaqchaqlik va ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalasa, badiiy asarlarda tasvirlangan sariq xrizantemalar “unutilgan muhabbat” mazmunini ifodalaydi [19]. J.Steynbek “The Chrysanthemums” hikoyasida chinakam e’tibor istagida bo‘lgan ayol obrazini gavdalantirgani bois, syujetga aynan shu badiiy detalni sarlavha sifatida tanlaydi. Avvalo, bosh qahramon ularga farzandiga bergan mehrini berib parvarishlasa, detalning psixologik funktsiyasiga ko‘ra, ayolning uy bekasi sifatida xonadoni ostonasidan uzoqga bormagani, tashqi olamdan uzilgani, hayotni faqat turmush o‘rtog‘i nigohi orqali ko‘rishi, garchi kuchli ayol bo‘lsa ham, unga shijoat

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va dadillik yetishlmasligi teran ochib beriladi. Ta'kidlash o'rinliki, muallif bevosita sarlavhaning o'zi bilanoq kitobxonning diqqatini jalb qiladi, hikoyaning so'nggi satrlariga qadar bu shiddat susaymaydi.

M.L.Mitchell J.Steynbek hikoyalarining ayol qahramonlarini "strong women", ya'ni "kuchli ayollar" deya e'tirof etib, aynan muallifning kichik epik janrda gavdalantirgan feministik shaxsiyat muammosini tadqiq etadi [5; 304]. Uning fikricha, aynan "The Chrysanthemums" asarida adib erkak roli ustun bo'lgan jamiyatda chegaralangan imkoniyatlar ichra o'zligini mohirona ifodalashga uringan kuchli ayol personajning ruhiyatini sinchkovlik bilan tahlil qiladi. Yozuvchining badiiy niyati hikoyaning har bir komponentiga mahorat bilan singdirilganki, buni asarning sarlavhasi, obrazliligi, ramziyligi kabi o'ziga xos jihatlari misolida ko'rish mumkin.

R.M.Baum J.Steinbek hamda S.O.Jyuett hikoyalari muqoyasasida e'tiborli bir fikrni ilgari suradi. Uningcha, hikoyalarda ayollarning cheklangan hayoti aks ettirilib, bu kichik olamning yoritilishida "insayder hamda autsayder orasidagi munosabatlar" tahlili hikoyalarning eng muhim badiiy qirralaridan biri hisoblanadi [4; 37]. Eliza o'zi bunyod qilgan shinam dunyosida voqealar davomida tashqi kuchlar uning ayollik xislatlarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ayol sifatida nozik ko'ngli, dilining qat-qatida berkingan hislari aynan shu munosabatlar faollashuvi jarayonida yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur ayol garchi turmush qurgan bo'lsa ham, o'z dunyosida yolg'iz, tushkun va umidsiz. Muallifning asosan 1930-yillarda yaratilgan hikoyalarida ijtimoiy tizim bilan murosaga kela olmagani sababli yolg'izlangan qahramonlar, davr muammosi sanalgan yolg'izlik, umidsizlik, chegaralangan muloqot, ayolning kamsitilishi tufayli kelib chiqgan tushkunlik sababli o'zini o'sha jamiyatdan ayro sezgan insonlar taqdiri qalamga olinadi. Adib hikoyalarida umidsizlik, yolg'izlik motivlari ustuvorlik kasb etgani oydinlashadi.

Jamiyatda o'rnatilgan me'yorlarga mos kelmaganini his qilishi, ularga qarshi chiqa olmagani, singib ketmagani natijasida adibning ayol qahramonlarida o'zgarish kuzatilib, aksar asarlarida bu o'zida jur'at his qilishi, dinamik siljishga olib keladi. "The Chrysanthemums" hikoyasida Eliza Allenda bu evrilish quyidagi ikki misolda yaqqol ko'rinadi: "*Henry put on his joking tone. "There's fights tonight. How'd you like to go to the fights?" "Oh, no," she said breathlessly. "No, I wouldn't like fights" [9; 27].* Hikoyaning mazkur epizodi tugun qismida joylashib, bosh qahramon hamda unga qarama-qarshi jins vakillari, ya'ni turmush o'rtog'i va yo'lovchi personajlari orasida kechadigan ziddiyatning tasviri boshlab beradi. Aynan shu epizod Henrining rafiqasiga bila turib, g'ashini keltiradigan savol berishi ("joking tone"), Elizaning ayro qiziqishlari borligi ("she said breathlessly")ni ko'rsatib beradi. Mazkur dialog asar personajlari orasida yumshoq bo'lmagan vaziyat mavjudligi, ular orasida tarang munosabat kechayotganini namoyon etadi. Voqealar rivoji davomida konflikt jiddiylashib borishi kuzatilib, xuddi shunday muomala tashqaridan kelgan, yot bir odam tomonidan Elizaga ko'rsatiladi. "*It must be nice," she said.""It must be very nice. I wish women could do such things." "It ain't the right kind of a life for a woman" [9; 31].* Mazkur epizod voqealar rivoji davomida, yo'lovchi personaj hamda Eliza orasida kechib, unda Elizaning erkin hayot, tashqi olamga qiziqishi aks ettiriladi, ammo kundalik hayotida ayol bo'lgani uchun cheklovlarga duch keladigan qahramon tashqaridan kelgan mutlaqo begona bir jamiyat vakili tomonidan ham yana "ayollar uchun to'g'ri emas" degan xitobni eshitadi. Garchi bu Elizaning ko'nglidagi umidsizlikni yanada kuchaytirsa ham, yana hislarini qalbining tubiga ko'mishga majbur qiladi. J.Steynbek jamiyatda atrofidagi kishilarga bee'tibor, faqat o'z manfaatiyu-foydasini o'ylaydigan odamlarni, xudbinlikni qoralab, badiiy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

asarlarda ideallashtiriladigan ezgulik tasviridan ko‘ra, yomonlik va yaxshilik o‘rtasida kechuvchi real ziddiyat talqininiga ko‘proq urg‘u beradi.

J.Steynbek hikoyalaridagi o‘ziga xoslikni qahramonning fe’l-atvori to‘liq ochib berilishida personajlar tilidan dialoglarda, yoki ularning nigohlari orqali tasvirlashlari tashkil etadi. Muallif garchi hikoyada roviy vazifasini bajarsa ham, voqealar hamda qahramonlar rivoyada ustunlik qiladi, personajlar orqali surat hamda siyrat tasviri ketadi. “The Chrysanthemums” hikoyasida har uchala obraz tanishtirilishida yozuvchi ulardan mohirlik bilan foydalanadi. Asosan “*saw, watched, cast another glance, started at the sound of her husband, observed*” kabi fe’llar orqali asar personajlari o‘zaro ularning nigohlari orqali gavdalantiriladi. Hikoyaning so‘ngida, ishonch bildirilgan daqiqada u o‘ziga nisbatan ichki kuch, jur’at his qiladi, u o‘zgarishga urinadi, ammo kulminatsion nuqtada yana ayolligi, qalban zaifa ekani go‘zal xotimada aks ettiriladi. “*Nice? You think I look nice? What do you mean by ‘nice’?” Henry blundered on. “I don’t know. I mean you look different, strong and happy.” She turned up her coat collar so he could not see that she was crying weakly—like an old woman” [9; 33].* Ushbu yakuniy epizodda Henri rafiqasidagi dinamik o‘zgarishni sezadi, undagi qarshilikni shiddat va shijoat deb o‘ylab, Elizani baxtli va kuchli ayol deb o‘ylaydi. Vaholanki, ayol qalbi – ummon singari tubsizlikdan iborat ekanidan kelib chiqib, aytish mumkinki, yonida bir umr birga yashagan inson aslida uning ichki dunyosida kechayotgan tizginsiz junbushni fahmlamaydi. Muallif hikoyasini “xuddi qari ayoldek” degan jumla bilan maqsadli yakunlaydi. Avvalo, Eliza obrazi yoshi kattaligiga, ulg‘aygan yillarni boshidan kechirayotganiga urg‘u berilsa, yana bir tomoni, har qanday ayol sirtidan kuchli ko‘rinsa ham, ko‘nglida nozik qalbi borligi, u har doim muloyim munosabatga muhtojligi, e’tiborsiz bir harakat yoki murojaat uni sindirib qo‘yishi, guldek nafis ekani ko‘rsatib beriladi. Asar sarlavhasi, ilk semiotik markazdan boshlangan go‘zal ifoda hikoyaning yakuniga qadar bir zaylda davom etib, “The Chrysanthemums” hikoyasi tasvir predmetining keng ko’lami, salmoqdorligini yaqqol ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, J.Steynbek hikoyalari janriy jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, kompozitsion tuzilishi, murakkab personajlar galereyasi, badiiy niyatni amalga oshirishda ramzlardan mohirona foydalanish va ramziylik, tasvirda ixchamlik kabi xususiyatlari muallif kichik nasri poetikasida o‘ziga xoslikni ta’minlagan muhim omillar bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Burkhead, Cynthia. Student Companion to John Steinbeck. [Electronic resource]. – L.: Greenwood Press, 2002. – P.200.
2. Hakimov M. Badiiy asarda qahramon, mazmun va shakl, mavzu hamda g’oya. // Til va dabiyot ta’limi. 3-son, 2015. // B.25-26.
3. Laws D.A. The Settings for the Stories: A Tour of John steinbeck’s “The Valley of the World”. // The Steinbeck Review, 2009. Vol.6, No.1. – P.27-43. https://www.jstor.org/stable/41582096
4. John Steinbeck and his contemporaries. – USA: The Scarecrow Press, 2007. – P. 318.
5. Mitchell M.L. Steinbeck’s Storng Women. Feminine Identity in the Short Stories. // Southwest Review, Vol.61, No.3, 1976. – P.304-315. https://www.jstor.org/stable/43468868
6. To’rayeva B. Adabiyot nazariyasi. – T.: Effect-D, 2020. – B.164.
7. Ulug’ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B.308.
8. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – С.345.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

9. Steinbeck J. The Long Valley. With an introduction and notes by John H. Timmerman. – USA: Penguin Books, 1995. – P. 181.
10. Steinbeck's Short Stories in "The Long Valley": Essays in Criticism. Edited by Tetsumaro Hayashi. Steinbeck Monograph Series, No.15. – USA: Ball State University, 1991. – P.116.
11. Timmerman J.H. Organizational and Gendered Imagery in John Steinbeck's "The Chrysanthemums". // The Steinbeck Review, 2012. Vol.9, No1. – P.29-37. https://www.jstor.org/stable/41582920
12. Werlock A.H.P. The Facts on File Companion to the American Short Story. – The USA: Facts on File, 2000. – P.542.
13. Niyazova, M. Kh, and M. Temirova. "Semantic analysis of old english phraseological units." Asian Journal of Multidimensional Research 12.3 (2023): 35-39.
14. Rakhimovna, Radjabova Dildora. "PSYCHOLOGY IN LITERATURE." Open Access Repository 4.03 (2023): 275-278.
15. Sadullayev F. B. INNER CHARACTERIZATION OF THE MAIN CHARACTER IN THE NOVEL "THE WINGS OF THE DOVE" BY HENRY JAMES //Conferencea. – 2022. – С. 132-135.
16. Ganieva O. K. DEPICTION OF RELATIONS BETWEEN A PERSON AND SOCIETY IN AMERICAN REALISTIC LITERATURE //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 8. – С. 215-220.
17. Sadullaev F. B. DIFFERENT CONNOTATIONS OF ADVERBS (IN THE EXAMPLES OF "THE PEARL" AND "THE GRAPES OF WRATH") //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 262-265.
18. https://www.petalrepublic.com/cineraria-flower/
19. https://symbolsage.com/chrysanthemum-flower-meaning/
20. https://www.litencyc.com/php/sworks.php?rec=true&UID=25290
21. https://prezi.com/ddtqushxhogp/the-white-quail/

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK: 811.531

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING VOKATIV FUNKSIYASI

Ashirbayeva D.R.
Koreys filologiyasi kafedrasi dots. v.b., PhD,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. *Vokativ funksiya tillarda turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, biroq ularning hammasini "murojaat (vokativ)" tushunchasi ostida birlashtirish mumkin bo'lib, ular nutq vositalari va nolga teng bo'lgan vositalar yordamida ifodalanishi mumkin. Maqolada murojaat birliklarining e'tiborni qaratish, nutqiy munosabatga kirishish va muloqotni davom ettirish kabi jihatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *murojaat birliklari, funksiya, nominativ, vokativ.*

Аннотация. *Вокативная функция может быть реализована в языках с помощью различных средств, но все они могут быть объединены понятием «обращение (вокатив)», которое может быть выражено средствами речи и средствами, равными нулю. В статье рассматриваются такие аспекты единиц обращений, как обращять внимания, вступление в речь и продолжение общения.*

Ключевые слова: *единицы обращений, функция, номинатив, вокатив.*

Abstract. *The vocative function can be realized in languages using various means, but all of them can be united by the concept of "address (vocative)," which can be expressed by means of speech and means equal to zero. The article examines such aspects of reference units as concentration of attention, initiation of speech and continuation of communication.*

Key words: *form of address, function, nominative, vocative.*

Kirish

Tilning asosiy funksiyasi hamda qator vazifalari ma'lum darajada murojaat bilan bog'lanadi. Tilning barcha vazifalari – kommunikativ, emotiv, volyuntativ, aloqa o'rnatish – sotsiativ funksiyalari kommunikantlar orasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Bir qator tadqiqotchilar murojaat birliklarini nutqda bajaradigan quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishadi:

– nominativ funksiya;

– adresantning adresatga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalovchi xarakteristik (tavsiflovchi) funksiya [Ryazanova 1983];

– axloq odob me'yorlariga amal qiluvchi [Goldin 1987] yoki ijtimoiy-regulyativ funksiya[1].

A. H. Sulaymonov "O'zbek tilida atov gap, undalma va vokativ gaplar" nomli ilmiy ishida undalma haqidagi quyidagi fikrlarni qayd etgan:

1. Undalma so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi, ya'ni so'zlovchi o'zini atab, o'z-o'ziga murojaat qilishi mumkin.

2. Nutq biron shaxsga sirtdan turib ham qaratilishi mumkin.

3. Ba'zan so'zlovchi bir shaxsning o'zini bir necha nom bilan atashi mumkin[2,9].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘zbek tilshunosligida B. O‘rinboyev ilk marotaba undalma termini o‘rnida vokativ terminini qo‘llagan. “O‘zbek tilida vokativ formani ifodalovchi va kishilarning murojaatida qo‘llanuvchi ana shunday so‘zlar ham borki, ularni vokativ so‘zlar deb atasak bo‘ladi. Bu xil vokativ so‘zlar qatoriga *o‘rtoq, janob, taqsir, grajdanin, do‘st, jo‘ra, bonu, jonim* tipidagi so‘zlarni kiritsak bo‘ladi. Bunday so‘zlarda chaqirish, undash, murojaat ottenkasi sezilib turadi”[3,26]. Keltirilgan mazkur fikrdan ko‘rinib turibdiki, B.O‘rinboyev undalma termini o‘rnida «vokativ kategoriya» terminini qo‘llaydi.

Asosiy qism

Murojaat birliklari matnga uning mustaqil komponenti sifatida bevosita kiradi, yoki boshqa intensional funksiyaga ega bo‘lgan ifodalar yordamida bilvosita kiradi. Muloqot jarayonida murojaatning asosiy intensional funksiyasi vokativ funksiya bo‘lib, nutqdagi muloqotchilarning suhbatga kirishish va davom ettirish jarayonidagi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, murojaat diskursning mustaqil komponenti sifatida faqat suhbatning boshlang‘ich jarayonida vokativlik funksiyasini bajaradi, chunki aynan shu jarayonda faqat adresatning diqqatini jalb qilish amalga oshiriladi[4, 202]. Kang Xyon Ja (강현자)ga ko‘ra esa, murojaat birliklarining vokativlik vazifasi nutqning faqatgina boshlang‘ich jarayonida nutqiy aloqa o‘rnatish maqsadida adresatning e’tiborini qaratish bilan cheklanmasdan, balki nutq jarayonini davom ettirish hamda qo‘llab-quvvatlashda ham amalga oshiriladi[5, 201].

Masalan:

1. – 어머니, **안녕하세요?** 저희는 경진의 친구예요 (재미있는 우리 말, 29) [Yeomeoni, annyeonghaseyo? Jeohuineun Gyeongjinui chinguyeyo.]

– ***Assalomu alaykum (kelinoyi)****, biz Kyong Jinning do‘stlarimiz.*

– **안녕** 애들아. [Annyeong aedeul-a.]

– ***Salom*** *bolalar.*

2. – ***Assalomalaykum*** *oyi. – Tilla qo‘lini ko‘ksiga qo‘yganicha Sora kampir yelkasiga qoqsin uchun engashibroq turdi. Sora kampir uning maylini tuyib, yelkasiga qoqib qo‘ydi.*

– ***Esonmisan,*** *Tillavoy? O‘ynab-kulib yuribsanmi, bolam? –deb undan hol ahvol so‘ragan bo‘ldi.* (A. Said. Qariya, 94)

Yuqorida koreys va o‘zbek tillarida berilgan misollarda shuni anglash mumkinki, murojaat birliklarida nutqiy etiketning debochasi bo‘lmish salomlashish aks ettirilgan bo‘lib, unda suhbatni boshlash va davom ettirish kabi holatlar ko‘rsatilgan.

3. – 박 여사님, 더 예뻐지셨네요! [**Park yeosanim**, deo yeppeojisyeossneyo]

– ***Pak xonim****, ochilib ketibsiz!*

– 감사합니다, 강 박사님. (권텍조. 흑광, 157) [Kamsahabnida, **Kang raksanim**.]

– *Rahmat,* ***professor Kang.***

4. – ***Gvardiyachilar,*** *meni navbatsiz qabul qilasizmi, sizlarga hamroh bo‘lay, – deya rota komandirining siyosiy tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sergey Okolovich kelib qoldi.*

– Bosh ustiga ***o‘rtoq kapitan!*** *– starshina Rodionov chest berdi.* (B. Mahmudov. Yostiq ostidagi daftarcha, 20)

Berilgan uchinchi va to‘rtinchi misollarda suhbatdoshlarning o‘zaro *professor, gvardiyachilar, o‘rtoq kapitan* kabi lavozimni ifodalovchi nutq birliklari ham murojaatni aks etganligini ko‘rish mumkin.

Koreys va o‘zbek tillarida murojaat birliklarining vokativ funksiyasi bir xil vazifani amalga oshiradi, ya’ni e’tiborni qaratish, nutqiy munosabatga kirishish va muloqotni davom ettirish.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Nutqdagi munosabat ikki xil ko‘rinishga ega bo‘lib: 1) tanish insonga qaratilgan murojaat birliklari; 2) notanish insonga qaratilgan murojaat birliklari. Shundan kelib chiqib, koreys tilidagi vokativlikda “katta-kichik”, “tanish-notanish”, “qarindosh-begona”, “boshliq-xodim”, “hurmat-hurmatsizlik” kabi ekstralingvistik differensial munosabatlar o‘z aksini topadi.

Shuni ham qayd etish joizki, vokativlikda onomastik birliklar ham muxim o‘rinni egallaydi. Koreys tilida antroponimlar ikki komponentdan: familiya va ismdan iborat bo‘lsa, o‘zbek tilida aksincha, uch komponentdan, ya’ni familiya, ism, sharifdan iboratdir. Koreys tilida vokativlik vazifasida kelayotgan onomastik birliklar kamdan-kam holatlarda bir-biridan alohida qo‘llaniladi. Koreys tilida, asosan, quyidagi ko‘rinishdagi murojaat birliklaridan foydalaniladi:

“Ism+ 씨 hurmatni ifodalovchi qo‘shimcha” :

수미씨 어디에 가요? [**Sumissi** eodie gayo?]

Sumi *qayerga ketyapsiz?*

Koreys tilidagi -씨 hurmatni ifodalovchi qo‘shimchasini o‘zbek tiliga *“-xon/-jon”* deb tarjima qilish mumkin, lekin bu vaziyatda “-xon/-jon” siz tarjima qilinib, suhbatdoshga bo‘lgan hurmat anglashiladi.

“Familiya+ism+ 씨 hurmatni ifodalovchi qo‘shimcha”:

김수미씨 내일의 회의 서류를 다 준비했습니까? [**Kim Sumi ssi** naeirui hoeui seoryureul da junbihaessseubnikka?]

Kim Su Mi *ertangi majlis hujjatlarini tayyorladingizmi?*

Bu ko‘rinishdagi murojaat qoliplaridan ko‘pincha ish joylarida o‘zaro yoshi teng bo‘lgan hamkasblar o‘rtasida foydalaniladi.

“Familiya+kasb/lavozim+님 hurmatni ifodalovchi qo‘shimcha”:

김선생님 다시 한 번 말씀해 주시겠습니까? [**Kim seonsaengnim** dasi han beon malsseumhae jusigessseubnikka?]

Ustoz Kim *yana bir martta takrorlab yuborasizmi?*

Bu murojaat qolipi ham ish joyida qo‘llanilib, yuqoridagi misoldan farqli o‘laroq, suhbatdoshga kasbi yoki lavozimi bilan murojaat etiladi.

Murojaat birliklarining vokativlik belgisi nominativlik bilan uzviy bog‘liqdir. Adresant adresatga qarata ifodalagan onomastik murojaatida ot so‘z turkumining barcha shakllaridan foydalanishi mumkin[6, 22] .

Nutqda u yoki bu funksiyani bajaradigan murojaatlar muayyan kommunikativ vazifalarni bajarishga yordam beradi. Murojaat birliklari adresantga ta’sir qilish va maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Umuman, murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Murojaatlarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; masofa (subordinatsiya), hurmatsizlik, ishonchsizlik va h.k. kommunikativ munosabatlar ham o‘z aksini topadi. Shu bois murojaat birliklari nutqda turli funksiyalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Голикова В.В. Функции обращения в семейном дискурсе. УДК: 801.6. https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/005-05_3cEJos9.pdf
2. Sayfullayev A. R. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undalma. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 9.
3. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya. – Toshkent: Fan , 1972. – B. 26.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Хэй Пань. Вокативная функция речи и её содержание в русском и китайском языках. //Альманах современной науки и образования. Тамбов: Грамота, 2010. № 10 (41). С. 202-204. www.gramota.net/materials/1/2010/10/61.html
5. 강현자. 한국어 호칭의 특성: 사회언어학적 접근. 언어와 문화 1(2). 서울, 2005. 2012. – 230 r.
6. 권택조. 흑광. 행복에너지 도서출판. 2013. -256 p.
7. 재미있는 우리 말. 헹복한에너지. 2012. -328 p.

INGLIZ TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALARNING MAVZUIY GURUHLARGA KO‘RA TASNIFI

Vositov Valijon Abduvaxabovich
filologiya fanlari doktori, dotsent
Andijon davlat chet tillari instituti
E-mail: 4496109@mail.ru Tel: 934496109

***Annotatsiya**: Maqolada ingliz tiliga o’zlashgan turkiy so’zlarning mavzuiy tasnifi, ularning semantik xususiyatlari, lug’atlarda qayd etilishi kabi masalalar tahlil qilinadi.*

***Kalit so’zlar**: mavzuiy guruh, mamuriy, harbiy, diniy, sport, og‘irlik, uzunlik o‘lchovi, pul birliklarini anglatuvchi terminlar.*

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ТЮРСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Воситов Валижон Абдувахабович
доктор филологических наук, доцент
Андижанский государственный институт иностранных языков
E-mail: 4496109@mail.ru Тел: 934496109

***Аннотация**: В статье анализируются такие вопросы, как тематическая классификация тюркских слов, принятых в английский язык, их семантические особенности, запись в словари.*

***Ключевые слова**: тематическая группа, административный, военный, религиозный, спортивный, вес, мера длины, термины, обозначающие денежные единицы.*

THEMATIC CLASSIFICATION OF TURKISH BORROWINGS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Vositov Valijon Abduvahabovich
DSc in Filology, Associate Professor
Andijan State Institute of Foreign Languages
E-mail: 4496109@mail.ru Contact phone: 934496109

***Annotation**: The article analyzes issues such as thematic classification of Turkish words adopted into English, their semantic features, and recording in dictionaries.*

***Key words**: thematic group, administrative, military, religious, sports, Weight, length measure, terms meaning monetary units.*

Kirish

Jahon tilshunosligida turkiy tillar leksik birliklarining o‘zga tillarga o‘zlashishi masalasi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng o‘rganilmoqda. Ularning funksional xarakteristikasi, pragmatik xususiyatlari qator dunyo tillarida, jumladan, ingliz tili doirasida keng muhokama markazida bo‘lmoqda. Shu bois tilning o‘ziga xos hodisasi sifatida turkiy o‘zlashmalarning fonetik, leksik-semantik, struktural-morfologik xususiyatlari ustida jiddiy ish olib borish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tiliga o’zlashgan leksik guruhlar mavzuiy jihatdan ushbu maqolamizda tasnif qilindi.

Adabiyotlarning tahlili

Tilshunoslikda til aloqalari, uning turlari, turkiy leksik birliklarning ingliz tilida paydo bo‘lish sabablari, ichki va tashqi lingvistik omillar, til hodisalarining o‘zlashgan so‘zlarga ta’siri, fonetik, leksik, leksik-semantik va grammatik assimilyatsiyasi va qiyosiy tadqiqi masalalari yuzasidan jahon hamda yurtimiz tilshunoslari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Tadqiqotimiz davomida Yevropa va AQSh tilshunoslaridan W.D.Whitney, O.Jespersen, G.H.McKnight, A.A.Daryush, U.Weinreich, E.Haugen, L.Zawadowski, J.Greenough and G.Kittredge, M.B.Emeneau, rus olimlaridan V.A.Bogoroditskiy, B.V.Gornung, V.I.Abaev, I.A.Boduen de Kurtene, Y.D.Desheriev, Y.A.Jluktenko, A.M.Rot, M.A.Elizareva, K.A.Ilina, L.A.Ulyanitskaya, N.N.Muxina, o‘zbek tilshunoslaridan O‘.Q.Yusupov, A.Nurmonov, M.E.Umarxo‘jayev, G‘.M.Xoshimov, O.Jumaniyozov, A.Tursunov, B.X.Daniyarov, S.E.Normamatov, A.I.Ziyayev, O.T.Xujanova, Z.Sadiqov, N.A.Isakova, A.M.Qo‘ldoshev kabi olimlarning ilmiy asarlaridan samarali foydalandik.

Tahlil va natijalar

Ingliz tiliga o‘zlashgan turkiy terminlar haqida to‘xtalganimizda, shuni aytish mumkinki, ularning qo‘llanilish sohasiga qarab quyidagi katta va kichik guruhlarini ajratish imkonini berdi:

A. Ijtimoiy-siyosiy terminlar:a) ma’muriy, boshqaruv va yuridik terminlar; b) davlat tashkiloti va lavozimlar ierarxiyasi; d) xonlar va xonliklar nomlari;e) harbiy terminlar; f) din bilan bog‘liq terminlar; g) sport sohasiga oid terminlar; h) kasb, hunarni bildiruvchi terminlar**.**

B. O‘rab turgan tabiatning tasviri bilan bog‘liq terminlar: a) o‘simlik va hayvonot olami; b) foydali qazilmalar va tabiat hodisalari.

D. Og‘irlik, uzunlik o‘lchovi, pul birliklarini anglatuvchi terminlar.

E. Predmet nomlari: a) taom va ichimliklar nomi bilan bog‘liq atamalar; b) gazlamalar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, mo‘yna nomlari; d) gilamlar, jihozlar nomlari bilan bog‘liq atamalar; e) harakatlanish vositalari, transport nomini anglatuvchi terminlar; f) arxitektura inshootlari va binolar nomi bilan bog‘liq terminlar; g) cholg‘u-asboblari nomi.

F. Etnonimlar va toponimlar: a) millat, elat va xalq nomini ifodalovchi terminlar;b) joy nomlari terminlari;d) daryo nomlari; e) ko‘l nomlari; f) dengiz nomlari; g) shaxs nomlari.

A. Ijtimoiy-siyosiy terminlar.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarga ijtimoiy va siyosiy institutlarni, ma’muriy bo‘linishlarni, tabaqa va mansabdor shaxslarning nomlarini aks ettiruvchi so‘zlar kiradi. Bu tematik turdagi turkiy o‘zlashmalarning ingliz tiliga o‘zlashtirilishida o‘zining salmog‘i bo‘yicha yetarli o‘rinni egallaydi, chunki mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi rivojlanish va o‘zgarishlar yangi hodisalarni hamda munosabatlarni zudlik bilan namoyish qilishni talab qildi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning aksariyat qismi turkiy tillardan yozma yo‘l bilan o‘zlashtirilgan. Dastlab

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mutaxassislarning tor doirasigagina tushunarli bo‘lgan. Ularning ba’zi birlari keyinchalik keng qo‘llaniladigan hamda matbuotda va publitsistik adabiyotda muntazam qo‘llanilganligi tufayli til sohiblarining hammasiga tushunarli bo‘lib qoldi. Turkiy so‘zlarning bu guruhi quyidagi kichik guruhlarga ajratiladi:

a) ma’muriy, boshqaruv va yuridik terminlar: *firman, kaimakham, vali, vilayet, sanjak, caza, timar, ziamet* va boshqalar.

b) davlat tashkiloti va lavozimlar ierarxiyasi: F.Bernabi o‘zining Xiva, Buxoro kabi shaharlarga qilgan sayohati davomida o‘zbekcha ma’muriy, boshqaruv va yuridik terminlardan tarjimasiz foydalanadi va ularni o‘zining “A Ride to Khiva. Travels and Adventures in Central Asia” asarida ko‘rsatib o‘tgan: *Sultankhan, khanate, ameer, sultan* va b. Asarda *khan* so‘zi 264, *ameer* 53, *sultan* 6 marta qo‘llanilgan. Masalan:

Some correspondence on this subject had ensued between the Ameer and General Kauffmann.

Turkiy o‘zlashmalarning tematik guruhi bilan izlanish olib borgan V.V.Vlasicheva vaqt o‘tishi bilan turkiy xalqlarning hayotidagi tarixiy o‘zgarishlar ilgari o‘zlashtirilgan turkiy so‘zlar ma’nolarining ko‘chishiga sabab bo‘ldi, deb ko‘rsatadi [1, 162]. Misol tariqasida “*beg/bey*” so‘zlarini keltiramiz. XVI asrning oxirida “*beg*” so‘zi “viloyat gubernatori” ma’nosida paydo bo‘lgan. Usmoniylar imperiyasining qulashi mazkur so‘z ma’nosining Turkiyaning o‘zida (*muhim lavozimni bildirish → erkaklarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish)* salbiy ottenkaga o‘tishiga olib keldi va ingliz tiliga ikkinchi marta yangi fonetik “*bey*” shaklida o‘zlashtirildi [3]. Boshqa misol sifatida “*mameluke*” so‘zini olsak, u ikki ma’noga ega, ya’ni 1) “mamelyuk” - o‘rta asrda Misrda turkiy qullar harbiy toifasining vakili sifatida, 2) “mamelyuk” - XIII asrdan boshlab turk sultoni shaxsiy gvardiyasining yaxshi o‘rgatilgan askari [3]. Usmoniylar imperiyasining ijtimoiy tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ikkala ma’no ingliz tilida saqlanib qoldi va tarix bilan bog‘liq muloqotda ishlatiladi.

Lavozimlarni ifodalashda “*ataman*”, “*cossack*”, “*bogatyr*” kabilar ingliz tiliga oson moslashgan va ular insonni, uning jinsini, jamiyatda turgan o‘rnini tavsiflaydi (“ataman” – *erkak, kazak, komandir),* boshqasi esa statusning, ya’ni obro‘lilik darajasini va vakolatlarining chegaralarini tasvirlaydi (“ataman” – *lavozim, boshliq, stansiyadagi harbiy-ma’mur*) [1, 163].

Ilgari unvonlarni bildiruvchi turkiy so‘zlar (“aga”, “efendi”, “bey” va ularning inglizcha muvofiqliklari) keyinchalik erkaklarga mulozamatli murojaat sifatida qo‘llanilgan.

Shaxsning jamiyatdagi statusini belgilaydigan barcha turkiy leksik birliklar baholovchi hisoblanadi, chunki ular kishini ma’lum ierarxik pog‘onaga kiritadi.

d) xonlar va xonliklar nomi: *The Khan of Kokan, Khivan khanate, Hudoyar Khan, Shere Ali Khan, Rahmed Khan, Sekunder Khan* va b.

e) harbiy **terminlar:** *spahi, janissary, yataghan, bashi-bazouk, cadilesker, galionjee* **va boshqalar.**

Ushbu sohadagi turkiy terminlar F.Bernabining asarida qo‘llanilmagan, lekin rus tilidagi *battalion* so‘zi bir marta ishlatilgan.

Harbiy lavozimlarni nomlovchi turkiy leksik birliklarni assotsiativ ko‘chirish yo‘li bilan qo‘shimcha ma’nolarni kengaytirishlari mumkin [1].

“bashi-bazouk”:

1. Yollanma harbiy, qahri qattiq, shafqatsiz, intizomsiz. 2. Shafqatsiz yoki quloqsiz kishi:

(to Henry) Get away from me, you, bashi-bazouk! [SONA]

“Janizary”:

1. Usmoniylar imperiyasida sara armiyalarning piyoda askari.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Soqchi, posbon, ittifoqchi:

Ne was friend and protege of Franklin Roosevelt's Janizary, Tommy Corcoran [*TIME].*

f) din bilan bog'liq terminlar: *Mohammed, Auli-ata, Khuftan, muslim, kari, Ak Mechet, Mecca, ramazan, fetva, khoja, mufti* va h.k.:

… however, it was like Mohammed's seventh heaven after the steppes

(Burnaby F. A. Ride to Khiva. – P. 350)

g) sport sohasiga oid terminlar: *kurash, chala, yonbosh, halol, g'irrom***.**

h) kasb, hunarni bildiruvchi terminlar: *suvchi, usta.*

Turkiy o'zlashmalar ma'nolarining baholash makrokomponenti har xil leksemalarda turli darajada namoyon bo'ladi [1, 178]. Misol uchun, "*balaklava*" turkiy so'zi va uning inglizcha muvofiqligi ifodalangan emotsional va baholash komponentlariga ega emas va aksincha, "*yermolka*" turkiy so'zi ingliz tilida yahudiy dinida Allohga hurmatning ramzi, demak uzual asosda baholovchi va emotsional hisoblanadi.

Tadqiqotimiz davomida ingliz tiliga o'zlashgan diniy turkiy leksik birliklar va ularning ma'nolari qaydi lug'atlardan topildi. Shuni alohida aytish kerakki, biz tahlilga tortgan hayotning har sohasiga tegishli 582 turkiy so'zlarning atigi 12 tasi ot turkumiga tegishli bo'lgan musulmon diniga oid atamalardir. Shu terminlarning ayrimlari birdan ortiq ma'nolarga ham ega bo'lib, ayrim o'rinlarda dindan boshqa soha termini mazmuniga ega bo'lgan. Quyida musulmon diniga oid atamalarning mazmuni, lug'atlarda qayd qilinishini ko'rib chiqamiz:

"*Bairam*" turkiy so'zi diniy marosimlarni nishonlash uchun qo'llaniluvchi so'z sifatida ingliz tiliga o'zlashtirilib, birinchi bor 1599-yilda NED, Web. lug'atlarida qayd qilingan. Lekin ushbu so'z "*bajram*" sifatida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida XI asrda quyidagicha tavsiflanadi: *bajram//mayram* (o'g'uzcha). Men o'ylayman, xalq tilida shod va xursandlik kuni ma'nosidagi bayram so'zi ana shu so'z bilan bog'lanadi, bu o'rinda ma'noda o'zgarish ro'y bergan. Chunki johiliyat davrida bunday bir so'zning kelib chiqishini talab qiladigan bayramning o'zi bo'lmagan. Agar bo'lganda edi, turkiy xalqlar uni bilgan bo'lur edilar. Holbuki, uni bilmaydilar. Faqatَ-ä harfini ى - j aylantirib talaffuz etuvchilargina biladilar [2, 191].

"*Bayram*" so'zi devonning III tomida "*bajram*"sifatida berilgan bo'lsa,I tomning 447-betida "*baẍram*" ko'rinishida berilgan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, *mullah*-mulla (1613-y.), *mufti*-muftiy (1586- y.), *mussulman*-musulmon (XX asr), *salar*-Xitoy Turkistonida yashovchi turkiy tilda so'zlashuvchi musulmonlar (XIX asr), *selamlik* - 1. musulmonlar uyidagi erkaklar; 2. Turk sultonining har juma kuni masjidga rasmiy borishi (1895-y.), *seraglio* - 1. a) qamoqxona (1581-y.), b) musulmonlar uyidagi ayollar (1634-y.), d) haramda yashovchi ayol (1672-y.), 2. a) turk saroyi (1599-y.), b) karvonsaroy (1617-y.), d) omborxona (1617-y.), *softa* - Turkiyada musulmon talabalar maktabining o'quvchisi (1613-y.), *takhtadjy* - 1. Anatoliya yassi tog'ida yashaydigan turkiy tilda so'zlashuvchi musulmon qabila. 2. Shu qabilaning vakili (XX asr), *turbe* - musulmon qabri (XX asr), turban - 1. bosh kiyim, salla (1561-y.), 2. musulmonlik ramzi (1610-y.), 3. turklar qabridagi sallaning tasviri (1687-y.), 4. Sharq mamlakatlarida ayollar bosh kiyimining salla ko'rinishidagi turi (1819-y.), 5. Evropada modaga kirgan bosh kiyim (1776-y.), 6. sallani eslatuvchi ayollarning soch turmagi (1909-y.), *Turkism* - 1. Turkizm (1592-y.), 2. musulmon (1877-y.), *woodoo* - musulmoncha tahorat (1794-y.), *Turkify*-musulmon qilmoq (1662-y.), *Turkize* - 1. musulmon qilmoq (1599-y.), 2. jabr-zulm qilmoq (1599-y.).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ayrim turkiy leksemalar musulmon diniga e'tiqod qilmaganlar uchun ma'lum ma'nodagi so'zlar bo'lgan. Masalan, *haratch* - xaroj, Usmoniy imperiyasida musulmon bo'lmagan aholidan olinaligan soliq (1745-y.), *rayah* - musulmon bo'lmagan fuqarolar (1813-y.).

Semantika nuqtayi nazaridan diniy atamalarning nomlarini o'z ichiga oluvchi tematik kichik guruhni ko'rib chiqishda mazkur tadqiqot doirasida ko'rib chiqilayotgan turkiy o'zlashmalar faqat diniy kontekstda qo'llanilgan hamda ingliz tili sohiblari uchun ekzotizmlar hisoblanadi. O'zlashmalarning so'z qo'llanilishlarini tahlil qilish jarayonida o'rganilayotgan kichik guruhning barcha konstituentlari uchun mutloq emas degan xulosaga keldik. Masalan, "*kismet*" (taqdir) turkiy so'zi ingliz tilida uslublararo qo'llanilish sohasiga kiradi.

"*Kismet*" – ingliz tiliga turk tilidan XIX asrda o'zlashtirilgan so'z bo'lib, unda "*taqdir*" ma'nosidagi k*ismat*, taxminan, arabcha *qismä* (قسمة) [5]– "bo'lmoq, taqsimlamoq" fe'lining o'zagidan hosil qilingan [4, 506]. Turkiy so'zning asosi "taqdir" ma'nosini anglatadi:

Not Turks and Hindoos alone have a tendency to believe in their Kismet. *[SONA].*

B. O'rab turgan tabiatning tasviri bilan bog'liq terminlar.

Turkiy leksik birliklarning ko'pchilik guruhi turkiy xalqlarni o'rab turgan tabiatning o'ziga xosligini aks ettiradi. Bunga hayvonlar, o'simliklar, mevalar, shuningdek, geografik landshaftlarning nomlarini kiritish mumkin. Guruhning ko'p so'zlari tegishli fanlarning terminlariga kirgan. Bunday so'zlarning terminologik xarakteri ularga ingliz tilining leksik tizimidan joy egallashini ta'minladi. Mazkur turkiy o'zlashmalar, ko'pincha, faqat turkiy xalqlar bilangina emas, balki mamlakat yoki geografik hudud bilan ham aloqadordir. Bu guruhning tahlili quyidagi tematik kichik guruhlarni ajratishga imkon beradi:

a) o'simlik va hayvonot olamini aks ettiruvchi turkiy so'zlar: *saksaool,caracal, jackal, isiriq, karakurt, kok-saghyz, krym-saghyz, tarpan, tulip* **va b.:**

… there saksaool, a species of bramble - tree, would have to be traversed on horseback ere Khiva could be reached. (Burnaby F. A. Ride to Khiva. – P. 9)

O'simlik nomini bildiruvchi turkiy so'zlar (turkizmlar-fitonimlar)ning mavzuiy kichik guruhida bir qancha semantik qatorlar ajralib turadi [1, 143]. Ingliz tili tomonidan o'zlashtirilgan o'simlik nomlari turkiy qabilalar yashovchi yoki bir vaqtlar yashagan hududlarda o'sadigan floraning tasviriini namoyon qiladi. Ta'kidlash kerakki, "Yeb bo'lmaydigan o'simliklarning nomlari" qatoridagi ko'pchilik fitonimlar dorivor yoki amaliy maqsadlarda yetishtiriladigan o'simliklarni ("кендырь", "кок-сагыз", "бадан") anglatadi. "Ozuqa bo'ladigan o'simliklarning nomlari" semantik qatoriga ajratilgan turkiy leksik birliklar "oziq-ovqat mahsulotlari" arxisemasi bilan metonimik ko'chirish asosida qo'shimcha ma'nolarni kengaytiradi. Masalan, *бамия* 1) janubiy o'simlik, 2) ushbu o'simlikning ovqatga ishlatiladigan mevalari.

b) foydali qazilmalar va ba'zi bir tabiat hodisalarining ta'rifi bilan bog'liq atamalar**:** *altyn, tilla,bouran, urman, dashkesanite* **va boshqalar.**

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turkiy qazilma nomlar ingliz tiliga bilvosita emas, balki muloqot, savdo-sodiq natijasida o'zlashtirilgan. Masalan, "*dashkesanite*" ("dashkesanit") Ozarbayjondagi Dashkesan shahrining nomidan kelib chiqqan bo'lib, uning o'zlashtirilishi bu shahardagi tog' qazilmalari va inglizlarning qazilmalarni sotib olishi bilan bog'liq [3].

D. Og'irlik, uzunlik o'lchovi, pul birliklarini bildirishga xizmat qiladigan terminlar.

Turkiy metrologik atamalar, shuningdek, boshqa xalqlarning pul birliklari nomlari ingliz tiliga o'zgarishlarsiz qabul qilingan. Masalan, *altyn, tilla, arsheen, medjadie, toman, sultanin, batman* kabi turkiy nomdagi o'lchov birliklari ingliz o'lchovlari bilan o'lchovdosh emasliklari tufayli

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ingliz tilida ekvivalentlarni topish qiyin bo'ldi. So'zlarning bu guruhi ingliz tili leksikasidan alohida o'rin oldi, chunki ularni qabul qiluvchi (retseptor) tilda ekvivalenti mavjud emas edi. Ular o'zining tashqi qiyofasini yo'qotishi bilan o'zining ma'nosini ham yo'qotgan. Shu jihatdan ular fan terminlariga yaqin turadi.

E. Predmet nomlari.

Predmet nomini anglatuvchi turkiy leksik birliklar o'zlashgan so'zlarning ancha katta guruhini tashkil qiladi. So'zlarning bu guruhi turkiy xalqlarning madaniyati, turmushi, urf-odatlari va turmush tarzining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq. Bunga kiyim-kechaklar, taomlar, ichimliklar, musiqa asboblari, raqslarning nomlari kiradi va h.k. Bu guruh so'zlari, ko'pincha mahalliy koloritni yaratish uchun qo'llaniladi.

"Somewhat of this had Hassan deem'd
Bat still so fond, so fair she seem'd,
Too well he trusted to the slave
Whose treachery deserv'd a grave
And on that eve had gone to mosque,
*And thence to feast in his*kiosk."(G.Byron. The Giaour. –P. 50).

Ushbu guruhda quyidagi tematik kichik guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) taomlar va ichimliklar nomlari: *airan, boza, bulgarian milk, caviare, koumiss, qimiz, pilaff, sherbet, yogurt, raki, latakia, suyuqosh* va boshqalar;

b) gazlamalar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, mo'ynalar nomlari: *bekasam,mahsi, adras, dolman, chopan, calpac, yashmak, chagrin, fez* va b.;

d) gilamlar, jihozlar nomlari: divan, *kilim, bergama, bakhu, Kish kilim, turkish carpet*;

e) harakatlanish vositalari, transport nomlari: *araba, caique, caramoussal, chebek, kelek, kibitka, saic, tarantas* va h.k.

f) arxitektura inshootlari va binolar nomlari: *serai, seraglio, kiosk, yourt, konak, oda, khan, palanka, raki-hause, minaret, yala, coffee-house* va boshqalar.

g) cholg'u-asboblari nomlari: *dutar, tambur, rabab, nay*.

F. Toponimik va etnonimik nomlar.

Turkiy xalqlar va qabilalarni bildirish uchun xizmat qiladigan toponimlar va etnonim so'zlar ingliz tili lug'at tarkibining yetarli darajadagi katta guruhini tashkil qiladi:

a) millat, elat va xalq nomlari: *khivans, bokharans, turkomans, tashkentians, bashkirs, kokandians, Cossacks, kirghis, calmucks, turk, Uzbek, Uigur, Tartar* va boshqalar;

b) joy nomlari: Balkh, Kashgar, Bokhara, Khiva, Samarcand, Zerafshan, Urgut, Pishkek, Suzak, Chemkent, Karshi, Shahr i Subz, Chibaz;

d) daryo nomlari: Chrchik, Naryn, Syr darya, Amou darya va h.k.;

e) ko'l nomlari: Issik Kul, Hassan – Kuli va b.;

f) dengiz nomlari: The Sea of Aral, the Caspian Sea;

g) shaxs nomlari: Gulshan, Kumri, Kalonshoh, Anvar, Solikh-Mahdum.

Turkiy leksik birliklarning yana bir mavzuiy kichik guruhi inson aqliy faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni anglatishi bilan bog'liq. Lekin bu leksik-semantik guruhni ifodalovchi so'zlar o'zlashmagan. Birgina "*ypa*"/"*hurrah*" undov so'zi aniqlanganligi haqida ham taxminiy fikrlar mavjud. Ko'pchilik tadqiqotchilar mazkur so'z turkiy so'z emas, balki nemis yoki slavyan tillaridan o'zlashgan, deyishadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Turkiy o‘zlashmalarning qo‘llanilish sohalari bo‘yicha turli katta va kichik mavzuiy guruhlarga ajratildi. Bunga ko‘ra ular ijtimoiy-siyosiy terminlar; o‘rab turgan tabiatning tasviri bilan bog‘liq terminlar; predmet nomi; og‘irlik, uzunlik o‘lchovi, pul birliklarini bildirishga xizmat qiladigan terminlar; etnonimlar va toponimlarga bo‘lindi va har bir guruh o‘z ichiga ma’lum kichik guruhchalarni qamrab oldi. Ijtimoiy-siyosiy terminlar, asosan, yozma, ya’ni xat va badiiy adabiyot orqali o‘zlashdi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Власичева В.В. Особенности семантики и функционирования тюркизмов в русском и английском языках XX-начала XXI веков. Дисс...канд.филол.наук. – Казань: 2012. – С. 162.
2. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). III томлик. III – том. – Т.: ЎзССР фанлар академияси нашриёти, 1963. – Б. 191.
3. Online Etymology Dictionary [Electronic resource] [2001-2012]. URL.: http: //www.etymolnline.com/
4. Oxford Dictionary of Current English. [Text] Ed. C.T. Onions. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – P. 506.
5. *https://ru.wikipedia.org› wiki›*

INGLIZ PYESALARIDA QO’LLANILGAN PARENTEZ BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TURLARI

Ibragimova Gulchehra Madaminjanovna
katta o’qituvchi (PhD)
Andijon davlat chet tillari instituti
e-mail: gulchexraibragimova682@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ingliz tilida parentetik birliklarning pьesalar matnidagi struktural-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *parenteza, kiritmaso’z, kiritma gap, chastota, pyesa, predikativ, emotsional munosabat.*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ТИПЫ ПАРЕНТЕТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПЬЕСАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Ибрагимова Гулчехра Мадаминжановна
старший преподователь (PhD)
Андижанский государственный институт иностранных языков
e-mail: gulchexraibragimova682@gmail.com

Аннотация: *В статье речь идет о структурно-семантических типы парентетических единиц в пьесах английского языка.*

Ключевые слова: *парентеза, вводное слово, парентетическое предложение, частота, пьеса, предикативное, эмоциональное отношение..*

STRUCTURAL-SEMANTIC TYPES OF PARENTHESIS IN ENGLISH PLAYS

Ibragimova Gulchexra Madaminjanovna
senior teacher (PhD)
Andijan State Institute of Foreign Languages
e-mail:gulchexraibragimova682@gmail.com

Annotation: *The article speaks about the structural-semantic types of parenthesis used in English plays.*

Key words*: parenthesis, introductions, introductory word, parenthetic sentence, frequency, play, predicative, emotional attitude.*

Kirish

Ingliz badiiy adabiyotining turli janrlarga oid asarlarida parentez birliklar keng qo‘llaniladi va ularning badiiy adabiyotda qo‘llanilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu esa noravon nutqni ayrim janrlarda o‘rganishni talab qiladi.

Ushbu maqola XX asr ingliz yozuvchilari S.Moemning “The collected plays” pyesasidan olingan materiallar asosida olib boriladi. Tahlil jarayonida yuzaga keladigan masalalar orasida parentetik kiritmalar strukturasi va mazmunining janrga oid xususiyatlarini o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi.

Adabiyotlarning tahlili

Tilshunoslikda parentezaning funksional, sintaktik-stilistik, semantik-struktur jihatlari, ekspressiv vazifasi va qiyosiy tadqiqi masalalari yuzasidan jahon hamda yurtimiz tilshunoslari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Tadqiqotimiz davomida Yevropa va AQSh tilshunoslaridan O.Espersen, Ch.Friz, R.Yakobson, S.Grinbaum, J.Emonds, X.Xuot, S.Korum, rus olimlaridan L.V.Fadeeva, L.L.Baranova, E.N.Kozireva, O.V.Dolgova (O.V.Aleksandrova), o‘zbek tilshunoslaridan A.R.Sayfullaev, I.Toshaliev, G‘.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Mamatov, D.Jamoliddinova kabi olimlarning ilmiy asarlaridan samarali foydalandik.

Tahlil va natijalar

Parentez birliklarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular ingliz dramaturgik asarlarida struktural jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Bir so‘zli parentetik kiritmalar: **again, ah, alas, anyway, besides, certainly, finally, however, generally, indeed, meanwhile, naturally, now, obviously, of course, oh, perhaps, personally, probably, really, somehow, still, suddenly, surely, then,too, well, why, yes, yet**.

Constance. And anyway I can’t help thinking that the sort. (W.S.Maugham, 107)

Bir so‘zli parentetik kiritmalar ingliz pyesalarida juda ko‘p uchraydi. Lekin ular orasida **ah, besides, by the way, of sourse, oh, perhaps, then, too, well** kabilar faol qo‘llaniluvchilar hisoblanadi.

Dorothy: Ah, there we come back to the old trouble. (W.S.Maugham, 271)

2. Bir necha so‘zdan iborat parentetik kiritmalar: **above all, after all, all the same, for example, for instance**.

Bu turdagi kiritmalar ingliz pyesalarida ko‘p uchraydi.

Clay: Above all we must congratulate one another. (W.S.Maugham, 67)

3. Kiritma-gaplar: **as I say, as they say, as you know, believe me, God knows, I assure you, I believe, I daresay, I hope, I've noticed, I lay, I mean, I must say, I say, I see, I suppose, I'm sure, I take it**.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Yuqoridagilarga e'tiborimizni qaratsak, kiritma gap tarkibini, asosan, birinchi shaxs birlikdagi predikativ birikmalar tashkil etadi:

Robert: I see No, a case which was expected to finish yesterday has turned out rather a long one I dare say we shan't come on to-day at all. (142)

4. **However, though** bog'lovchili ergash gaplar qolipidagi kiritmalar:

Duchesse: It's true I've been in love a dozen times, desperately, and when I've got over it and look back, though I remember I was in love, I can't for the life ofme remember my love (W.S.Maugham, 45)

1. Qahramonning harakat-holatini ifodalovchi so'z birikmali va gap ko'rinishidagi parentezalar:

Bessie: [With a faint smile] I think I know who they're from [She begins to arrange the flowers] (W.S.Maugham, 6)

Pearl [Amused]: I am very good. (W.S.Maugham, 29)

2. Ish-harakatni to'xtaganligini ifodalovchi bir so'zli parentezalar:

Bessie: Say I'm not at home Pole Miss Saunders hasn't come in yet I beg pardon, my lord I didn't recognize your lordship's voice [Apause] (7)

3. Qahramonning kimgadir murojaatini ifodalagandan keyingi holatini ko'rsatuvchi bir so'zli parentezalar:

Pole: I was only making it more convincing, miss [Listening]. (7);

S.Moemning "The collected plays" pyesasida qo'llanilgan parentetik kiritmalarni semantik jihatdan quyidagicha turlari mavjud:

1) gap boshlanishi yoki tugashi ma'nolarini ifodalovchi **at first**, **finally**, **at last, in the end** kabi kiritmalar:

Fleming: At first I thought perhaps she'd grow tired of all these balls and parties, and then if I was on the spot I might persuade her to come back to America with me. (W.S.Maugham, 52)

Pearl: And, finally, I've bought you a husband. (W.S.Maugham, 111)

Lekin S.Moemning mazkur pyesasida **firstly, initially** kabi gapni boshlanishi mazmunini ifodalovchi kiritmalar qo'llanmagan.

2) aytilayotgan fikrni baholash: **of course, really, shortly, frankly** va h.k.

Pearl: *Of course I bought him* (W.S.Maugham, 111)

Maude: *Really, Caroline, you are exasperating.* (W.S.Maugham, 160)

3) so'zlovchining sodir bo'layotgan voqea-hodisaga nisbatan emotsional munosabatini bildiruvchi ingliz pyesalarida qo'llaniluvchi parentetik kiritmalar quyidagi semantik guruhlarga bo'linadi:

a) gumon: **perhaps, I think, I suppose** va b.

Maude: *Dear Caroline, I think the time has arrived to be frank* (174)

Pyesalarda voqea-hodisaga nisbatan emotsional munosabatni bildirishda romanlardagi kabi **it seems, may be** kabi parentetik kiritmalari qo'llanmaydi.

b) xursandchilik ma'nosidagi **fortunately, luckily, happily** kabi parentetik kiritmalar:

Victoria: *I've not even powdered my nose. Fortunately I have no personal vanity* (W.S.Maugham, 250).

Teddie [Happily]: Pull the other leg next time, will you? I should hate to have one longer than the other. (W.S.Maugham, 43)

To our luck, by good luck, by good fortune, mercifully, thankfully ko'rinishidagi parentetik kiritmalar biz tahlil qilgan pyesalarda uchramadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

d) **I hope, I dream** kabi orzu-umidni ifodalovchi parentetik kiritmalar:

Elizabeth: *You must leave me to my fate. I hope you'll forget me and all the unhappiness I've caused you*. (W.S.Maugham, 80)

Biroq romanlardan farqli ravishda **hopefully, optimistically, confidently, expectantly** kabi orzu-umidni anglatuvchi parentetik kiritmalar S.Moemning pyesalarida qo'llanilmagan.

e) ishonchni bildiruvchi **undoubtedly, clearly, plainly, obviously** ko'rinishdagi parentetik kiritmalar:

John: *Well, it's a curious way of looking at things, but obviously I have reason to be thankful for it.* (W.S.Maugham, 80)

Biz tahlil qilgan pyesada **no doubt** kiritma vazifasida emas, balki gap egasi sifatida qo'llanilgan, xolos**. Doubtless**, **indubitably**, **without (a) doubt**, **unquestionably**, **undeniably**, **patently** ishonch ma'nosini bildiruvchi parentetik kiritmalarning ingliz pyesalarida qo'llanilishi deyarli kuzatilmaydi.

f) afsuslanish, achinish ma'nosini ifodalovchi kiritmalar: **unfortunately, I wish, but for him**.

Diana: *Unfortunately some of them don't know it*. (W.S.Maugham, 211)

regrettably, sadly, unhappily shaklidagi kiritmalar S.Moemning pyesalarida uchramaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash mumkinki, **lamentably** ushbu pyesada sifatli so'z birikma tarkibida qo'llanilib, lekin u kiritma vazifasini bajarmagan. **To my dismay** kiritmasi esa asar boshlanishida so'z boshi sifatida muallif tomonidan ishlatilgan.

g) hayrat ma'nosidagi kiritmalar: **oh**, **ah, well**.

Bessie: *Ah, but supposing he went right away to shoot big game in Africa*. (W.S.Maugham, 11)

Pearl [Reflectively]: *Ah, I can't help thinking that's what my dressmaker said when she sent me in my bill.* (W.S.Maugham, 20)

Tahlillar davomida **wonderfully, admirably, excellently, remarkably, unusually** ko'rinishidagi hayrat mazmunini anglatuvchi parentetik kiritmalar ingliz pyesalarida deyarli qo'llanilmasligining guvohi bo'ldik.

h) kimnidir bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqea-hodisalarga nisbatan ko'nglini ko'tarish ma'nosidagi kiritmalar: **Ah, well**.

Isabella: Ah, well, whatever you suffered it's all over now. (79)

Ah, well kiritmasining pyesalarda ayrim paytlarda hayrat, ba'zan ko'ngil ko'tarish ma'nolarida ishlatilishini farqlash, albatta, nutq vaziyatiga bog'liqdir.

i) ma'lum bir noqulay vaziyatdan so'ng o'ziga kelish holatini ifodalovchi parentetik kiritmalar: **cheerfulness, sprightly** va h.k.

Robert [With assumed cheerfulness]: *I was almost forgetting the purpose of my visit*. (W.S.Maugham, 151)

j) taxmin ma'nosini bildiruvchi parentetik kiritmalar: **I presume, I suppose** va boshq.

Caroline: *I presume you are talking for your own entertainment;you're certainly not talking for mine*. (W.S.Maugham, 194)

4) fikr manbacini ko'rsatuvchi parentetik kiritmalar: **they say, point of view**, **I dare say** va b.

Victoria: *They say we can only have two fires*. (W.S.Maugham, 232)

Robert: *From your point of view, Caroline, I dare saythere's a great deal to be said in favour of your decision*. (W.S.Maugham, 154)

5) **on the other hand, in short, to cut a long story short, to sum up, to summarize, in summary** kabi fikrni ifodalash usuliga munosabat bildiruvchi parentetik kiritmalar:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Caroline: On the other hand, it may be small-pox. (W.S.Maugham, 159)

Victoria: In short, a pretty woman can lead him by the nose. (292)

S.Moemning pyesalarida **in a word, briefly, to be brief, in a nutshell, to come to the point, not to put too fine a point on it** ko'rinishdagi kiritmalar qo'llanilmagan.

6) odatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni ifodalovchi parentetik kiritmalar: **generally, habitually, in general, mostly** va h.k.

Bessie: and I've been to a ball every night, generally two and sometimes three. (W.S.Maugham, 9)

Luton: But, like the good in general, I am poor (W.S.Maugham, 14)

Tahlil jarayonida **usually, as usual, as a rule, normally, customarily, routinely, typically, ordinarily, commonly, conventionally, traditionally, mainly, nine times out of ten** ko'rinishdagi parentetik kiritmalar S.Moem pyesalarida qo'llanganligi kuzatilmadi.

7) **listen, think, you see, as you think** shakllaridagi tinglovchi diqqatini jalb etish uchun qo'llaniluvchi parentetik kiritmalar:

Constance: Listen. There's John. (W.S.Maugham, 105)

Constance: Think. What a bore it is to have someone in love with you whom you're not in love with. (W.S.Maugham, 153)

8) **I (he, you, we) remember, would, as I could remember** ko'rinishidagi bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni eslashga qaratilgan parentetik kiritmalar:

Pearl: Bananas? Oh, I remember, they were saying that Mrs Hanley used to wash the miners' clothes m California. (W.S.Maugham, 45)

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, roman va pyesalardagi parentezalarni sifat va miqdor jihatdan qo'llanish darajasini solishtirish bir qator farqlarni ko'rsatadi. Masalan, pyesalarda qo'llanuvchi parentezalar doim bir xillik kasb etadi. Pyesalarda kiritma so'z va gaplardan foydalanish unchalik xos emas, lekin romanlarda ular keng ko'lamda qo'llanilishi mumkin. Dramatik asarlarda esa mualliflar kiritmalardan kamroq foydalanishni afzal ko'radilar. Ko'pincha romanlarda yozuvchilar tomonidan bir yoki bir necha gaplarda kiritmalardan ketma-ket foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Ғ. Ажратилган иккинчи даражали бўлаклар. – Т.: ЎзФА, 1995. – Б. 21.
2. Баранова Л.Л. Единство и взаимодействие устной и письменной форм научного изложения (на материале английского языка): Автореф. дисс... канд. филол.наук. – М., 1983. – 18 с.
3. Долгова О.В. (Александрова О.В.) Формы и функции "парентетических внесений" в английской научной прозе: Автореф. дисс....канд. филол.наук. – М., 1976.– 19 с.
4. Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 133 б.
5. Козырева Е.Н. Когнитивные функции парентезы как отражение творческой индивидуальности писателя: Дисс...канд. филол.наук. – Тула, 2003. – 168 с.
6. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кириш бўлак. – Тошкент: Фан, 1972. – 76 б.
7. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – 124 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8. Фадеева Л.В. Парентеза в немецкой устной диалогической речи (на материале мангеймского корпуса): Автореф.дисс...канд. филол.наук. – Астрахань, 2005.– С. 3.
9. Corum C. (1975): A Pragmatic Analysis of Parenthetic Adjuncts. In: Chicago Linguistic Society, 133-141.
10. Emonds J. (1974): Parenthetical Clause. In: Rohrer C. & Ruwet N. (eds.): Actes du Colloque Franco-Allemand de Grammaire Transformationnelle. I. Etudes de Syntaxe. Tubingen: Niemeyer (=Linguistische Arbeiten 13), 192205.

УДК: 811.531

ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА НА КОММУНИКАТИВНОМ УРОВНЕ
(на материале изучения корейского языка в Узбекистане)

Ким Наталья
Доктор филологических наук,
Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. *Предложение является единицей общения и обнаруживает в своей семантике и структуре ряд специфических особенностей, таких как интонация и предикация. Языковая модель предложения, реализующаяся в конкретной речевой ситуации, подвержена различным изменениям, трансформациям и усложнениям. Эти изменения зависят от дополнительной языковой функции предложения.*

Ключевые слова: *предложение, структура предложения, эмоциональная окраска, синтаксис, семантика, сказуемое, подлежащее, второстепенные члены предложения, коммуникативное*

Annotatsiya*. Gap aloqa birligi bo'lib, u o'zining semantikasi va tuzilishida intonatsiya va predikatsiya kabi bir qator o'ziga xos xususiyatlarni topadi. Muayyan nutqiy vaziyatda amalga oshiriladigan gapning til modeli turli o'zgarishlar, o'zgarishlar va murakkabliklarga duchor bo'ladi. Bu o'zgarishlar gapning qo'shimcha til funktsiyasiga bog'liq.*

Kalit so'zlar: *gap, gap tuzilishi, emotsional rang berish, sintaksis, semantika, predikat, mavzu, ikkilamchi a'zolar gap, kommunikativ.*

Abstract. *The sentence is a unit of communication, and it finds in its semantics and structure of a number of specific features, such as intonation and predication. The language model of a sentence, which is realized in a specific speech situation, is subject to various changes, transformations and complications. These changes depend on additional language function of a sentence.*

Key words: *sentence, sentence structure, emotional coloring, syntax, semantics, predicate, subject, secondary members offer, communicative*

1.Введение

В настоящее время изучение современного корейского языка в разных странах, в частности, в Узбекистане приобретает все большее распространение, что требует новых подходов. Растущий интерес связан не только с экономическим развитием и сотрудничеством двух стран, но и компактным проживанием корейской диаспоры в различных регионах Узбекистана. Изучение ведется на разных уровнях: с начальных

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

классов общеобразовательной школы на факультативных занятиях до высших учебных заведений как направление бакалавриата и магистратуры. К примеру, как основная учебная дисциплина, корейский язык преподается в Ташкентском государственном университете востоковедения, Самаркандском государственном институте иностранных языков, Ташкентском государственном педагогическом университете им.Низами, Узбекском государственном университете мировых языков, Университете мировой экономики и дипломатии и др. В республике довольно успешно работают филиалы корейских вузов, учебные центры, где обучают не только корейскому языку, но и знакомят с историей, традициями и обычаями Кореи. Здесь следует отметить важную роль Центра образования Республики Корея в Узбекистане при посольстве Республики Корея в Республике Узбекистан. С 1991 года Центр не только осуществляет преподавание корейского языка, но и проводит курсы народного творчества, курсы повышения квалификации учителей корейского языка, проводятся массовые культурные мероприятия (김장, 어린이날) и др. Ежегодно проводятся кинофестивали, конкурсы корейской популярной музыки и песни (*K-non*), мероприятия к национальным праздникам 설날, 추석, тем самым сохраняя традиции и обычаи в быту корейской диаспоры и более того, приобщая к корейской культуре разные национальности Узбекистана.

2. Языковые особенности диалекта корейской диаспоры (사투리)

Несмотря на активную работу по сохранению культурных ценностей корейцев, в том числе и языка, наблюдается стремительное исчезновение диалекта корейской диаспоры (사투리), которым корейцы пользовались до и после переселения (1937 г.) из дальневосточных регионов России в Узбекистан, Казахстан и в другие страны Центральной Азии. В настоящее время только старшее поколение корейцев (с 1970 года рождения и ранее) владеют этим уникальным диалектом, а молодое поколение, имея возможность изучать нормативный корейский язык, уже не всегда понимает и вовсе не использует диалект на котором говорит старшее поколение [8].

Между нормативным корейским языком и диалектом существует структурное сходство предложений, однако в плане грамматического образования и лексического состава – это во многом разные предложения. Сравним предложения на русском, нормативном корейском языке и в диалекте корейцев, проживающих в фермерском хозяйстве им.А.Яссавий (бывшее название колхоз им.Свердлова) Ташкентской области:

Она идет в магазин. 그녀는 가게로 간다. [얀 마가지느 가우]
Она врач. 그녀는 의사이다. [얀 의사우]
Он заболел. 그는 몸이 안 좋아요. [얀 아파하우]
Наша бабушка спит. 우리 할머니께서 주무신다. [우리 아매 자우]
Сегодня идет дождь. 오늘 비가 온다. [오늘이 비 오우]
Он работает на фирме. 그는 회사에 다닌다. [얀 피르마에서 일하우]
Она живет в Сеуле. 그녀는 서울에서 산다. [얀 세우레서 사우]
Приходите к нам в гости. Мы живем здесь.

Выборка предложений для анализа показывает, что в лексический состав диалекта активно проникают заимствования из русского языка, к примеру, 마가지느 – ‘магазин’, 피르마에서 - ‘на фирме’. Следует особо отметить, что с момента переселения корейцев в

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Узбекистан и до настоящего времени лексика диалекта пополняется заимствованиями не только с русского, но и с узбекского языка, что указывает на его уникальность.

На уровне фонетических особенностей так же отмечается некое сходство с русским произношением, к примеру 세우레서 (в Сеуле). Особо выделяется структура предложения, которая практически схожа со структурой в нормативном корейском языке (주어 – 목적어 - 서술어). Интересен факт, что носители языка, проживающие некоторое время в Узбекистане и изучающие русский язык, начинают быстрее понимать диалект местных корейцев, что приводит к активному общению носителей языка и местного населения.

3. К вопросу предложения как средства коммуникации

Расширение и углубление международных отношений Республики Узбекистан и Республики Корея на современном этапе обусловливает не только рост потребности в высококвалифицированных специалистах в различных отраслях экономики, образования, но и целенаправленность научных исследований в различных областях, в том числе и в кореистике. Научно-теоретическое исследование корейского языка в различных направлениях неизбежно вызывает различные подходы и трактовки, к примеру, при изучении грамматического строя корейского языка. Отдельные проблемы, безусловно, исследованы достаточно глубоко, однако в ряде случаев некоторые вопросы разработаны еще недостаточно; так для агглютинативных языков многие традиционные синтаксические понятия, сформированные на базе флективных языков, требуют определенных переосмыслений и уточнений, и более того, становятся неприменимы.

В современной науке о языке синтаксический аспект в теории речевой коммуникации можно считать наименее ясным, несмотря на широкое распространение изучения корейского языка с практической, коммуникативной стороны. Как известно, коммуникация означает «делаю общим, связываю, общаюсь», поэтому наиболее близким к нему по значению является слово «общение». С этим значением связано и научное определение понятия коммуникации как специфической формы взаимодействия людей в процессе их познавательно-трудовой деятельности. Специфичность взаимодействия людей в процессе их жизнедеятельности состоит в использовании языка, который, являясь важнейшим средством человеческого общения, выступает также как орудие познания, как инструмент мышления. Благодаря этому коммуникация между людьми является важнейшим механизмом участия человека как личности, средством влияния общества на личность.

Как известно, главной целью речевой коммуникации является обмен информацией различного рода, при котором непосредственно участвуют предложения и его компоненты. В современном корейском языке при выявлении особенностей грамматической и функционально-семантической природы главных компонентов предложения особенно важно определение состава синтаксической единицы, обладающей информативной достаточностью. Учитывая это, первоначально следует определить состав предложения с позиций информативно минимальной единицы, при которой происходит взаимодействие компонентов предложения на грамматическом и семантическом уровнях, и выявить синтаксические отношения (связь) внутри этого состава, т.е. связь членов предложения, в частности, подлежащего и сказуемого. Более того, во всех современных синтаксических концепциях предложение понимается как центральный объект синтаксиса и построение предложения является одним из самых

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

важных моментов, так как закономерности построения предложения, учение о предложении положены в основу синтаксиса языка. Это связано с тем, что каждое предложение представляет собой грамматическое выражение внутреннего единства всех его членов, способов их выражения, порядка их расположения, интонации и др. Однако, актуальным является поиск тех критерий грамматического описания предложения в коммуникации и определения элементарного простого предложения (ЭПП), информативной полноты предложения (ИПП), которые могли бы представить полную характеристику предложения в качестве коммуникативно достаточной единицы.

Коммуникативная сторона предложения является важным объектом исследования, так как наша гипотеза строится на предположении, что простое предложение информативно достаточное в корейском языке существенно отличается от предложения в обычном его понимании. Как нам видится, предложение в коммуникации должно рассматриваться, во-первых, с точки зрения коммуникативной «достаточности» и, во-вторых, так называемой «минимальной информативной достаточности». К примеру, в диалоге

남자: 어제 무리해서 그런지 감기 기운도 있고 좀 으슬으슬 춥네.

여자: 이거 좀 마셔 볼래? 말린 귤껍질을 넣고 끓인 건데 몸도 따뜻해지고 혈액 순환에도 도움이 된대.

남자: 고마워. 으슬으슬할 때는 따뜻한 차만큼 좋은 게 없지[9].

Сокращения и отсутствие некоторых компонентов предложения в данном диалоге для неносителей языка не вносят ясности в передаваемой информации. Для ясности и полноты информации следовало бы иметь следующий образец:

남자: 어제 무리해서 그런지 나는 감기 기운도 있고 좀 으슬으슬 춥네.

여자: 너는 이거 (이 것을) 좀 마셔 볼래? 이 것은 말린 귤껍질을 넣고 끓인 건데 우리 몸도 따뜻해지고 혈액 순환에도 도움이 된대.

남자: 고마워. 으슬으슬할 때는 따뜻한 차만큼 좋은 게 없지.

Участие компонентов предложения и аффиксация вносит полноту информации в процессе в коммуникации, достаточную для собеседника. Следовательно нередко минимально информативная единица не означает выпадение или отсутствие каких-либо членов предложения, напротив, «информативность» предложения достигается при помощи необходимых компонентов для неносителя языка, что недопустимо для носителя языка. Здесь следует отметить, что в таких случаях существует и необходимость исследовать предложения по цели высказывания, по содержанию эмоциональности, что создает обоснованную актуальность изучения предложений. Кроме того, изучение предложения в терминах семантических составляющих, введение понятия семантико-синтаксических типов предложения (логико-синтаксических, по Н.Д. Арутюновой) с учетом их грамматических и структурных особенностей, безусловно, занимает важное место в исследовании предложения как коммуникативной единицы [7]. Это позволяет по-новому взглянуть на те конструкции, которые используют одну и ту же форму для выражения различной семантики. Нуждаются также в более четком обосновании термин «смысловое синтаксическое конструирование» (ССК)в корейском языке, сущность предложения, основные его типы в когнитивном аспекте, критерии выделения именных членов предложения, особенности синтаксических структур, которые вызывают неоднозначные выводы.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Заключение

Развитию и укреплению международных связей Узбекистана с мировым сообществом в огромной степени способствует знание иностранных языков. В неменьшей степени это касается и корейского языка, изучение которого имеет фундаментальное значение не только для углубления международных связей, но и развития межкультурных отношений Республики Узбекистан и Республики Корея. Учитывая, что на территории Узбекистана функционируют большое количество корейских фирм и заводов (автомобильный, текстильной промышленности и др.), существует потребность в специалистах широкого профиля, в том числе и в переводчиках. Однако это не единственная причина. Как отмечалось выше, в Узбекистане сравнительно с другими государствами Центральной Азии проживает большое количество представителей корейской диаспоры, для которых возможность изучать корейский (родной) язык стала обыденной реальностью.

В заключении отметим значимость сотрудничества с учебными заведениями с ведущими высшими учебными заведениями. Для организации успешной работы в кореистике необходимо широкое сотрудничество, в частности, с учеными Кореи, СНГ и других стран как ближнего, так и дальнего зарубежья. На сегодняшний день ВУЗы Узбекистана сотрудничают с высшими учебными заведениями Республики Корея, стран СНГ. Сотрудничество охватывает все области корееведения: язык, историю, литературу, философию Кореи и др. Перспективы такого плодотворного сотрудничества станут важным положительным фактором в педагогической, научно-исследовательской деятельности узбекистанских корееведов.

Литература:

1. 서 정 수. 국어 문법. 서울, 한양대학교 출판원, 1996. -1568 с.
2. 정 현채. 앞을 열고픈 젊은이에게. 서울: 한승. 2000. -290 с.
3. 황 순 원. 소나기. 번양사, 서울, 1994. -700 с.
4. 꼰쩌비치 레프 편. 러시아에서의 현대 한국어연구. 서울, 도서출판사람, 2000. -458 с.
5. Баскаков Н.А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. Словосочетание и предложение. –М.: Наука, 1975. – 288 с.
6. Ким Н.Д. Подлежащее и сказуемое в корейском языке. –Ташкент: Библиотека им.Навои, 2015. – 120 с.
7. Князева Н.В. Семантико-синтаксические типы предложений с предикативным ядром N1-N1. Автореф. дисс…на соискание степени канд.фил.н. –Владивосток, 2006.
8. Пак Н.С. Корейский язык в Казахстане: Проблемы и перспективы. –Алматы: КазУМОиМЯ, 2005. – 304 с.
9. 한국어 능력 시험. 고급. 제 33회.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA QILINISH IMKONIYATLARI

Nurullayev Xasan To‘xtayevich
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning tarjima qilinish imkoniyatlari tahlil qilingan, tarjima turlariga ajratilgan, tarjimadagi o‘xshash va farqli jihatlar badiiy asarlardan keltirilgan misollar vositasida dalillangan.*

Kalit so’zlar: *frazeologiya, somatik ibora, o‘ziga xos xususiyatlar, tarjima, adekvat tarjima, analoglar yordamida tarjima, erkin tasviriy ifoda, muqobil.*

TRANSLATION POSSIBILITIES OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Nurullayev Khasan Tukhtayevich
Karshi engineering-economics institute
Teacher of the Department of Foreign languages

Abstract: *In this article, the possibilities of translation of somatic phraseology in German and Uzbek languages are analyzed, divided into types of translation, similar and different aspects of translation are proved by means of examples from works of art.*

Keywords: *phraseology, somatic expression, specific features, translation, adequate translation, translation using analogs, free figurative expression, alternative.*

ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРЕВОДА СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Нуруллаев Хасан Тухтаевич
Каршинский инженерно-экономический институт
Преподаватель кафедры иностранных языков

Аннотация: *В данной статье анализируются возможности перевода соматической фразеологии на немецком и узбекском языках, разделяются на виды перевода, доказываются схожие и разные аспекты перевода на примерах из художественных произведений.*

Ключевые слова: *фразеология, соматическое выражение, специфика, перевод, адекватный перевод, перевод с использованием аналогов, свободное образное выражение, альтернатива.*

Jahon tilshunosligida tarkibida inson tana a’zolari nomi ishtirok etgan frazeologizmlar maxsus o‘rganilmoqda, zero ular inson bilan bevosita bog‘liq va muayyan madaniy belgilarga egadir. Somatik frazeologizmlar, odatda, emotsional va milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni, shuningdek, kishilarning turli harakatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi va o‘zida verbal muloqotning an’anaviy simvolikasi hamda keng tarqalgan milliy urf-odatlar, marosimlarni mujassam etadi. Keltirilgan holatlar tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

belgilaydi, chunki madaniyatlararo muloqotlar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda til birliklari, xususan, frazeologizmlar tarkibidagi madaniy belgilarni aniqlash zarurati yuzaga kelgan.

Frazeologizmlarni tarjima qilish muammosi kam o‘rganilgan sohalar sirasiga kiradi. Bu borada frazeologizmlar tarjimasidagi muammolar doirasini tahlil qilgan G.Kammer [6], M.Heesh [3] hamda V.Koller [8, 9] kabi tilshunoslarning ishlarini e’tirof etish mumkin.

V.Koller ikki til doirasida FBlarning to‘liq muqobil variantlari mavjud bo‘lmaganda yuzaga keladigan tarjima muammolariga to‘xtalib o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, tarjima jarayonida FB bo‘lmagan ifodani ham frazeologizm sifatida tarjima qilish mumkin. Bunday holatlarda tarjimon har ikki matnda ham frazeologizmlar qo‘llanilishini muvozanatlash uchun o‘rnini to‘ldirish (kompensatsiya) usulidan foydalanadi [9; 357-b.].

Biron bir tilda FBlarni tarjima qila olish yoki tarjima qila olmaslik mezonlari frazeologik ifodalarni erkin birikmalardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlar sirasiga kiradi. Bu mezon shundan kelib chiqadiki, FBlarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelamiz, erkin birikmalarni esa bevosita boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Ko‘plab FBlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish imkoni mavjud emas [6; 36-b.].

Shubhasiz, o‘zbek tarjimashunosligi asoschilaridan biri G‘.Salomovdir. Olimning o‘tgan asr 60-yillarida chop etilgan “Til va tarjima” asari tarjimashunoslik fanining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi hamda tarjima nazariyasining lingvistik asoslari aks etgan ilk manba sifatida e’tirof etildi [14].

G‘.Salomov talqiniga ko‘ra, keng ma’noda frazeologizmlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda har qanday hollarda ham ularning obrazli tamsiliy (tayanch) asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilangina o‘girish ma’noning o‘zgarishiga, ma’noviy siljish hodisasi sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bunday birikmalarni muqarrar ravishda asar tarjima qilinayotgan tildagi boshqa uzoq muqobil variantlar bilan almashtirishga ortiqcha ruju qilish ham uslubni siyqalashtirishga, tarjima tilining leksik-frazeologik va obrazli-uslubiy jihatdan kambag‘allashishiga olib keladi. Frazeologik chatishmalar, ya’ni idiomalar, asosan, boshqa tilda mavjud shunday muqobil iboralar bilan tarjima qilinadi. Ayrim hollarda esa, ularni aynan so‘zma-so‘z o‘girish yo‘li bilan ham birikmaning idiomatik ma’no xususiyatini saqlab qolish mumkin [13; 120-b.].

Shuningdek, tarjimaning umumiy nazariy asoslariga bag‘ishlangan asarida A.V.Fyodorov frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi o‘ziga xosliklarni yoritib beradi. Uning fikriga ko‘ra, turli motivlanganlik darajalariga ega ekanligi va milliy o‘ziga xoslikni ifoda etishi sababli FBlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish emas, balki ularning muqobil variantlarini topish lozim. Bunda tarjimaning muvaffaqiyati tarjima qilinayotgan tilda muqobil variantlarning mavjudligi, muayyan tillar doirasida tuzilgan lug‘atlarning frazeologik materiallarga boy bo‘lishi yoki frazeografik manbalarning yaratilganligiga ham bog‘liq [18; 185-b.].

Q.Musayev FBlarni tarjima qilish murakkab va shu bilan birga mas’uliyatli jarayon, deb hisoblaydi. FBlarni tarjima qilishning o‘ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga - ularning leksik, semantik va qurilish jihatidan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlarki, bu hol ham tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi [11; 183-b.].

Yuqorida keltirilgan manbalarda FBlar tarjimasida ko‘plab qiyinchiliklar mavjudligi yetarli darajada talqin qilinganligini guvohi bo‘ldik. Umuman olganda, bu qarashlar to‘g‘ri. Frazeologizmlarni tarjima qilish haqiqatdan ham murakkab jarayon. Biroq buning sababi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

FBlarning, odatda, an'anaviy milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, noyob obrazlarini yoki xalq donishmandligini o'z ichiga olganida emas, balki ko'plab idiomalarning o'ta murakkab mazmun strukturasiga egaligi va natijada ikkinchi tilda uning butunlay bir xil semantik tuzilishga ega muqobil variantini topish imkoni yo'qligidadir.

Frazeologizmlarning tarjima imkoniyatiga e'tibor qaratar ekanmiz, ularning bir tildan boshqa bir tilga asl hamda ko'chma ma'no jihatdan tarjima qilishdagi o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz. Tarjimada quyida ikki muhim omil e'tiborga olinishi lozim: 1) ichki omil. Ichki omillar tildagi idiomalarning tuzilishi bilan bog'liq. Frazeologizmlarga ta'rif berishda idiomalarni konglomerat (xilma-xil so'zlarning tasodifiy yig'indisi) sifatida namoyon qiladigan sintaktik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari asosiy mezon sifatida olinadi. Idiomatizm qayta nomlashning boshlanishi sifatida talqin qilinadi; 2) tashqi omil. Tashqi omil tillararo o'xshashlik yoki farqlarni izlashni o'z ichiga oladi. Darhaqiqat, bunda umumiy yoki turli xil an'analar hamda qadriyatlar, shuningdek, madaniy va iqtisodiy munosabatlarga ega bo'lgan geografik hududlar ham inobatga olinishi lozim [15; 163-b.].

Tahlilga tortilgan materiallarimiz bizga nemis va o'zbek tillaridagi SFlarni tillararo taqqoslashda tarjimaning quyidagi turlariga tasniflab tahlil qilish imkonini berdi.

1) Adekvat tarjima. Adekvat tarjima shundan iboratki, boshqa tillarda ham xuddi shunday FBlar mavjud bo'lishi va bu tarjima qilinayotgan ifodaga to'liq mos kelishi kerak. Masalan: *burnini jiyirmoq - die Nase rümpfen* "biror kishining g'ashi kelmoq, yoqtirmaslik" (Misol: *Es hat aber keinen Sinn, über die Politiker die Nase zu rümpfen, die mit ihren Entscheidungen "ihre" Staaten in eine hoch dilemmatische Situation geführt haben* [16; 526-b.]. – Qarorlari bilan "o'z" davlatlarini o'ta munozarali vaziyatga olib kelgan siyosatchilarga burun jiyirish mantiqsizlikdir (X.N.)); *burni ko'tarildi – die Nase hoch tragen* "mag'rurlanib kekkayib ketmoq" (Misol: *Er hat keinen Grund, die Nase so hoch zu tragen. Geleistet hat nur sein Vater etwas* [16; 527-b.]. – Uning burni ko'tarilishiga hech qanday asos yo'q, otasi-ku, mavaffaqiyatga erishgan (X.N.)); *kimningdir boshini aylantirmoq - jmdm. den Kopf verdrehen* "es-hushini olib qo'ymoq, maftun qilmoq; yo'ldan ozdirmoq, avramoq, aldamoq" (Misol: ... *wenn er bei uns war, tat er nichts als zwischen Weiberröcken herumzuhocken und ... allen Mädchen die Köpfe zu verdrehen [16; 423-b.].* … U biznikida bo'lgan paytda ayollar orasida o'ralashish va … barcha qizlarning boshini aylantirishdan bo'lak hech narsa qilmadi (X.N.)).

Mohir tarjimashunos *mit einem spöttischen Näschen ansehen* SFni quyidagicha tarjima qiladi*: Ich bemühte mich, meine Bewegungen über diese Worte zu verbergen. Das ging freilich nicht weit: denn da ich sie mit solcher Wahrheit im Vorbeigehen vom Landpriester von Wakefield, vom reden hörte, kam ich ganz außer mich, sagte ihr alles, was ich mußte, und bemerkte erst nach einiger Zeit, da Lotte das Gespräch an die anderen wendete, daß diese die Zeit über mit offenen Augen, als säßen sie nicht da, dagesessen hatten. Die Base sah mich mehr als einmal* ***mit einem spöttischen Näschen*** *an, daran mir aber nichts gelegen war* [1; 28-b.]. - Bu so'zlardan keyin o'z qalb tug'yonimni yashirishga intilardim. Bu hol u qadar uzoq cho'zilmadi, chunki Lotta gap orasida «Vekfild ruhoniysi» ... haqida ochiqdan-ochiq gapirganida chidab turolmadim va ko'nglimdan nima kechgan bo'lsa, hammasini to'kib soldim. Lotta boshqalarga so'z qotgandan keyingina, ularning hammasi go'yo bizning so'zlarimizni eshitmagandek parvoyi falak o'tirganlarini sezdim. Hamrohimning jiyani menga bir necha marta masxaraomuz **burnini jiyirib** qaradi, bu men uchun ahamiyatsiz edi [2; 30-b.].

Mazkur guruhga quyidagi iboralarni ham qo'shish mumkin: *o'z ko'zlariga ishonmaslik - seinen [eigenen]Augen nicht trauen* (Misol: *Sie traute ihren Augen nicht, als sie die Tür öffnete und sah, dass ihre alte Freundin da stand [17].* – U eshikni ochib, u yerda eski dugonasini ko'rganda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko‘zlariga ishonmadi (X.N.)), *quloqlariga ishonmaslik - seinen Ohren nicht treuen* (Misol: *Ich starre sie an und traue meinen Ohren nicht* [12; 135-b.] – Men unga diqqat bilan e’tibor qildim va quloqlarimga ishonolmadim (X.N)), *bet(i)ga aytmoq -jmdm. etw. ins Gesicht sagen* (*Du hast nicht das geringste Recht, mir solche Dinge ins Gesicht zu sagen [16; 262-b.].* – Bunday narsalarni yuzimga aytishga zarracha bo‘lsa ham haqqing yo‘q (X.N.)), *boshini tik tutmoq - den Kopf oben behalten* (*Was auch geschieht, behalte den Kopf oben! [16; 423-b.]* - Nimaiki sodir bo‘lmasin, boshingni tik tut! (X.N.)), *boshdan-oyoq* - von Kopf bis Fuß *(…als die Tür... zurückglitt, standen Carl und Elsa wartend da, von Kopf bis Fuß auf Hochglanz poliert [16; 427-b.].* - … eshik … ochilganda, boshdan-oyoq savlat to‘kib Karl va Elza turardi (X.N.)), *kimningdir o‘ng qo‘li bo‘lmoq -jmds. rechte Hand sein* (*Er ist seine rechte Hand und organisiert als Leiter des Ministerbüros von der Hotelunterkunft bis zum Akteneingang das Ministerwohl* [17]. – U uning o‘ng qo‘li hamda vazirlar byurosi rahbari sifatida vazirlarning mehmonxonada yashashidan tortib, hujjatlarini qabul qilishgacha bo‘lgan barcha xohishlarini amalga oshiradi (X.N.)), *og‘izdan og‘izga o‘tmoq - von Mund zu Mund gehen* (*Der Name Ivanhoe ging von Mund zu Mund und erreichte in Windeseile Prinz John [17].* – Ayvengo nomi og‘izdan-og‘izga o‘tdi va yashin tezligida shahzoda Jonning qulog‘iga yetib bordi(X.N.)).

2) Frazeologik analoglar yordamida tarjima qilish. Boshqa bir frazemalar bilan almashtirish orqali tarjima bir xil ma’noga ega bo‘lgan, lekin tarjima qilinayotgan ifodaga to‘la mos kelmaydigan muqobil variantni tanlashdir. Misol qilib oladigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi *ko‘ngli aynimoq* nemis tilidagi tarjima qilinayotgan ushbu *jmdm. dreht sich der Magen um* iborasiga mos kelmaydi. Bu barqaror birikmalardagi leksik farq sifatida shuni ko‘rsatishimiz mumkinki, nemis tilidagi “der Magen” (oshqozon) ot so‘z turkumiga oid so‘z o‘zbek tilidagi “ko‘ngil” so‘zi bilan almashtirilgan. Shunga qaramasdan, har ikki tilda ham frazeologizmning anglatgan ma’nosi bir xil: “organizm qabul qilmagani tufayli behuzur bo‘lmoq; yoqtirmaslik”. Misol keltiramiz: *Mir kehrt sich der Magen um, jeden Tag an diesen Leuten vorbeizugehen [16; 487-b.].* –Har kuni bunday odamlar yonidan o‘tishdan ko‘nglim ayniydi (X.N.).

Quyida keltirilgan FBlar ham shu turga kiradi: *kimningdir oldida tiz cho‘kmoq - vor jmdm. auf den Knien rutschen*, *kimningdir betidan olmoq - jmdm. ins Gesicht springen*, *tishini-tishiga qo‘ymoq - die Zähne zusammenbeißen*, *tosh bag‘ir - ein steinernes Herz haben*, *lochin ko‘z - Augen haben wie ein Luchs*.

Agar leksik iboralar ma’no jihatidan juda yaqin va bir xil mazmun doirasiga tegishli bo‘lsa, unda FBlar qisqartirish yoki to‘ldirish orqali tarjima qilinishi mumkin. Misol tariqasida *boshini tikmoq - Kopf und Kragen riskieren* iborasini tahlil qilaylik. Bu holatda nemis tilida “*Kragen”* so‘zi orttirilgan, biroq har ikkala holatda ham ibora anglatgan konnotativ mazmun bir xil. Quyidagi iboralarni ham ushbu guruhga qo‘shish mumkin: *ko‘z yummoq - die Augen für immer schließen/zumachen*, *kimningdir qalbini zabt etmoq - jmds. Herz im Sturm erobern*, *qo‘li ochiq-eine offene Hand haben*, *kimgadir orqa o‘girmoq - jmdm. die kalte Schulter zeigen*, *kimningdir yuragi tushmoq - jmdm. fällt/rutscht das Herz in die Hose*.

Nemis va o‘zbek tilidagi *(kulaverib) ichagi uzilmoq - da bleibt kein Auge trocken* “s.s.: bu yerda quruq ko‘z qolmadi” SFlarda konnotativ mazmun turli obrazlar vositasida ifodalangan. O‘zbek tilida juda ko‘p kulish ma’nosi “ichak” orqali ifodalangan bo‘lsa, bu nemis tilida “ko‘zlarga yosh kelishi” orqali aks ettirilgan. O‘zbek tilidagi “*olma pish, og‘zimga tush”, deb o‘tirmoq* iborasining aniq tarjimasi imkonsiz. Nemis tilida ushbu iboraning mazmuniga teng FBni erkin tasviriy ifodalarni qo‘llab tarjima qilish mumkin. Quyida keltirilgan nemis tilidagi *warten, daß einem die gebratenen Tauben in den Mund fliegen* (qovurilgan kabutar uchib kelib og‘izga kirishini kutmoq) frazeologik birligi yuqoridagi ibora mazmuniga yaqin bo‘lsa-da, boshqa obrazlar vositasida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ifodalangan. Quyida keltirilgan SFlar ham shu guruhga mansub: *o‘zi to‘ysada, ko‘zi to‘ymas - die Augen sind größer als der Magen* (ko‘zlari oshqozoniga nisbatan katta), *qo‘li tor - die Hand auf die/auf der Tasche halten* (qo‘lini cho‘ntagida tutmoq), *qo‘lidan hech ish kelmaslik - zwei linke Hände haben* (ikkita chap qo‘li bor bo‘lmoq).

Nemis tilidagi *Hals über Kopf* SFi shoshilish ma’nosiga ega. Tarjimon M.Akbarov mazkur frazeologizmni *“oyog‘ini qo‘lga olib”* shaklida tarjima qilgan: *Es war Glück, was ich empfand: die Schönheit und Hingabe Marias, das Genießen, Betasten, Einatmen von hundert feinen holden Sinnlichkeiten, die ich erst so spät, als alternder Mensch, hatte kennenlernen, das Plätschern in einer sanften, wiegenden Welle von Genuß. Und doch war das nur die Schale: innen war alles voll Bedeutung, Spannung, Schicksal, und während ich liebevoll und zärtlich mit den süßen, rührenden Kleinigkeiten der Liebe beschäftigt war, scheinbar in lauter lauem Glücke schwamm, spürte ich im Herzen, wie mein Schicksal* ***Hals über Kopf*** *nach vorwärts strebte, jagend und schlagend wie ein scheues Roß, dem Abgrund entgegen, dem Sturz entgegen, voll Angst, voll Sehnsucht, voll Hingabe an den Tod* [5; 137-b.]. - Men chinakam baxt nimaligini tuygandim: Mariyaning go‘zalligidan, uning menga butun vujudi bilan berilganligidan, yuzlab nafis, go‘zal his-tuyg‘ulardan bahramand bo‘lish mendek keksaya boshlagan odam uchun haqiqiy lazzat, rohat-farog‘atning o‘zginasi edi. Uni yana bir idishga ham qiyoslasa bo‘lardi: unda to‘la mazmun, taqdir mujassam ediki, ishq-muhabbatning lazzatli, ko‘ngilni iydirib yuboradigan ikir-chikirlari bilan mashg‘ul bo‘larkanman, taqdirim oyog‘ini qo‘lga olib, hurkak otdek qo‘rquv, qayg‘u, dard-hasratga to‘lib-toshib, jarlik tomon, o‘lim tomon olg‘a intilayotganini ko‘nglim sezib turardi [4; 185-b.]. Badiiy asardan keltirilgan parchada va uning o‘zbek tilidagi talqinida ko‘rinadiki, idiomatik mazmun nemis va o‘zbek tillarida turlicha obrazlar orqali ifoda etilmoqda.

3) Erkin tasviriy ifoda orqali tarjima qilish. Frazeologizmlarni goho na adekvat va na frazeologik analoglar yordamida tarjima qilish imkoni topiladi. Bunday holatda tarjima erkin tasviriy ifodalar orqali aks ettiriladi. Masalan, nemis tilidagi *sich um den Kaisers Bart streiten* (s.s.: imperatorning soqoli uchun janjallashmoq) somatik frazeologizmini “arzimagan narsaga tortishmoq” ko‘rinishida tarjima qilish mumkin.

Shu o‘rinda *[wie] im Abrahams Schoß* SFni ham misol tariqasida keltirish mumkin. Frazeologizm shakllanishi “Boy odam va Lazar” hikoyasidagi Lazarning Ibrohim payg‘ambarning huzuriga olib borilish voqeasi bilan bog‘liq. Shu bois iborani adekvat tarjima, analoglar yordamida yohud kalkalash usuli bilan tarjima qilish imkonsiz. SFni “ishonchli, bexavotir, xavfsiz joyda” deb tarjima qilishimiz mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, FBlarni tarjima qilish murakkab jarayon bo‘lib, ishning mazkur faslida SFlarni asl va ko‘chma ma’no jihatdan tarjima qilishdagi o‘ziga xosliklar, bu jarayonga ta’sir etuvchi ichki hamda tashqi lisoniy omillar o‘rganildi. Nemis va o‘zbek tillarida to‘liq mos keladigan, boshqa frazemalar bilan almashtirish orqali tarjima qilish mumkin bo‘lgan, tarjima qilinayotgan iboraga to‘la mos kelmaydigan, qisqartirish yoki to‘ldirish orqali tarjima qilinadigan SFlar aniqlandi. Nemis va o‘zbek tillarida konnotativ mazmun turli obrazlar vositasida ifodalangan SFlar erkin tasviriy ifoda orqali tarjima qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Goethe J.W. Die Leiden des jungen Werther. –Braunschweig: Edition Klassik, 2015. –112 S.
2. Gyote Y.V. Muhabbatnoma: romanlar. Nemis tilidan Y. Egamova tarjimasi. –Toshkent: Sharq, 2013. –512 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3. Heesch M. Zur Übersetzung von Phraseologismen, dargestellt am Deutsch-Russischen Sprachenpaar. Diss. – Rostock, 1974. –388 S.
4. Hesse H. Cho'l bo'risi: roman. Olmon tilidan M.Akbarov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 264 b.
5. Hesse H. Der Steppenwolf. –Berlin: S. Fischer, 2008. – 191 S.
6. Kammer G. Probleme bei der Übersetzung phraseologischer Einheiten aus dem Russischen ins Deutsche. –München: Sagner, 1985. –223 S.
7. Kavalkova L. Form und Funktion von modifizierten Phraseologismen in der Anzeigenwerbung. –Wien: Edition Praesens Verlag für Literatur- und Sprachwissenschaft, 2002. –150 S.
8. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft, 7. Auflage. -Wiesbaden: Meyer Verlag, 2004. –343 S.
9. Koller W. Phraseologismen als Übersetzungsproblem. In: Sandig, Barbara (Hrsg.): "Europhras 92. Tendenzen der Phraseologieforschung. Studien zur Phraseologie und Parömiologie" 1. – Bochum: Universitätsverlag Brockmeyer, 1994. –S. 351-374.
10. Koller W. Probleme der Übersetzung von Phraseologismen. In: Burger / Dobrovol'skij / Kühn / Norrick (Hrsg): Phraseologie/Phraseology, 1.Bd. Berlin/ New York: De Gruyter, 2007. –S. 605-613.
11. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: Fan, 2005. –352 b.
12. Remarque E.M. Der schwarze Obelisk. – Köln: Verlag Kiepenheuer, 1989. – 500 S.
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. –187 b.
14. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent: Fan, 1966.– 384 b.
15. Segura G.B. Kontrastive Idiomatik: Deutsch-Spanisch. Eine textuelle Untersuchung von idiomen anhand literarischer Werke und ihrer Übesetzungsprobleme. –Frankfurt am Main/ Berlin/ Bern, New York/ Paris/ Wien: Peter Lang, 1998. –234 S.
16. Wörterbuch der deutschen Idiomatik (Duden in 12 Bänden, Bd. 11). –Berlin: Dudenverlag, 2013. –928 S.
17. Wörterbuch für Redensarten, Redewendungen, idiomatische Ausdrücke, Sprichwörter, Umgangssprache. Elektron resurs: https://www.redensarten–index.de.
18. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Издательский Дом "Филология три", 2002. –348 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ОРИЕНТАЛЬНАЯ ТРАДИЦИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.ВОЛОСА

Охида Юлдашева,
Ўзбекистон Миллий университети
Рус адабиётшунослиги кафедраси докторанти
E-mail: odiljon12@bk.ru
тел: 97 448 81 21

Аннотация: *Ориентальная традиция в историческом контексте, характерная для произведений А.Волоса. В его произведениях подчеркивается ориентальная традиция, преодоление схематизма воспроизведения классического образа Востока. В частности, это выражено в перекличке имен, пространство, времени, композиции.*

Ключевые слова: *исторический контекст, картина мира, ориентальная традиция, пространство, время*

А.ВОЛОС АСАРЛАРИДА ШАРҚОНА (ОРИЕНТАЛ) АНЪАНАЛАР

Аннотация: *Шарқон (ориентал) анъаналари тарихий контекстда А.Волос асарларига хос. Унинг асарлари Шарқнинг классик қиёфасини такрорлаш схематизмини енгиб, шарқона анъаналарни таъкидлайди. Хусусан, бу исмлар, макон, вақт ва композицияни чақиришда ифодаланади.*

Калит сўзлар: *тарихий контекст, дунёқараш, Шарқ анъаналари, макон, вақт*

THE ORIENTAL TRADITION IN THE WORKS OF A.VOLOS

Abstract: *The Oriental tradition in the historical context, characteristic of the works of A.Volos. His works emphasize the Oriental tradition, overcoming the schematism of reproducing the classical image of the East. In particular, this is expressed in the roll call of names, space, time, and composition.*

Keywords: *historical context, worldview, oriental tradition, space, time*

Рецепция образа Востока в русскоязычных произведениях связано с осмыслением пространство и времени. Ключевое значение приобретает традиционные хронотопы, пути, порога, выделанные М.М.Бахтиным его христоматийной работе «Формы времени и хронотопа в романе»: «Хронотоп мы понимаем как формально-содержательную категорию литературы (мы не касаемся здесь хронотопа в других сферах культуры). В литературно-художественном хронотопе имеет место слияние пространственных и временных примет в осмысленном и конкретном целом. Время здесь сгущается, уплотняется, становится художественно-зримым; пространство же интенсифицируется, втягивается в движение времени, сюжета, истории. Приметы времени раскрываются в пространстве, и пространство осмысливается и измеряется временем. Этим пересечением рядов и слиянием примет характеризуется художественный хронотоп.» [1, с.121]. Кроме того, в произведениях Д.Рубины и А.Волоса в образной системе ключевую роль играет дорога, как отражение типичных обстоятельств XX века, в частности в романе А.Волоса «Хуррамабад» на фоне мотивов своего и чужого, выдуманного локуса (Хуррамабад) первый рассказ иллюстрирует центральное место дороги в город, к сакральному месту. «И вдруг

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

страна победившего социализма стала расползаться на разноцветные лоскуты. Армения! Азербайджан! Казахстан! Узбекистан! Киргизия! Таджикистан! И еще! И еще!..

Западный мир пришел в замешательство. Была одна страна – стало много. И в каждой, оказывается, – своя история и культура, свои собственные надежды и претензии, свои разочарования, беды и кровь… Как к ним относиться? Чего от них ждать? Что они несут миру?

Если бы где-нибудь на территории бывшего Советского Союза и впрямь существовал город Хуррамабад, то, несомненно, обозначающий его кружочек можно было бы отыскать на карте Таджикистана…

Бывшая Советская Социалистическая, а ныне просто Республика Таджикистан – одна из самых южных территорий распавшегося СССР, непосредственно граничащая с Афганистаном. Это горная страна, в которой живет около четырех миллионов человек. Большая часть населения – таджики, древний народ арийского происхождения, говорящий на окающем диалекте фарси – персидского языка. До завоевания арабами в VIII веке предки современных таджиков были приверженны зороастризму – огнепоклонничеству, на их территориях развивалось интенсивное орошаемое земледелие, процветали различные искусства и ремесла»[2]. Как известно творчество А.Волоса достаточно широко изучено. В статье «Мотивы «своего» и «чужого» в структуре «Романа-Пунктира» «Хуррамабад» А.Волоса» предлагается соотнести жанр «романа в рассказах» с произведениями других современных писателей и подчеркивается специфика повествовательной структуры произведения: «Само повествование в романе, как и других постколониальных романах, включает в себя использование иного языка, причем в изображение местных реалий природы и быта, особенностей национального этикета. Персонажи романа, как русские, так и, конечно, аборигены, используют в своих репликах «таджикский фарси». Автор выступает в роли переводчика, расшифровывая их в постраничных сносках (в тексте романа 46 таких примечаний языкового характера, названия же реалий и имена прокомментированы в Примечаниях). Рефлексия русских персонажей по поводу таджикского языка, его вкрапления в повествование и диалоги, степень освоения / владения им русскими персонажами становятся лейтмотивами романа. Диалектные черты речи одного из русских персонажей (южный диалект в его кулябском варианте) становятся причиной его убийства, когда его принимают за «чужого своего», за представителя враждебного таджикского клана»[3, с.141].

В частности, в статьях посвященных его роману «Возвращение в Панджруд» подчеркивается ориентальная традиция, преодоление схематизма воспроизведении классического образа Востока. В частности, Н.Е.Лихина ставит творчество А.Волоса в один ряд с А.Платоновым, Л.Леоновым, К.Паустовским, С.Бододиным и отмечает: «тема романа – судьба русских в Средней Азии, которые с конца 20-х годов двигались туда вслед за Советской властью, а в 90-е годы после развала Советского Союза массово откатились назад. Как пишет сам автор, «Хуррамабад» – роман о земле, ставшей родной»[4, с.113], при этом исследователь отмечает, что: «В центре романа – не экзотические картины Востока, с контрастом дикости и культуры, не конфликт цивилизаций или мотив преобразований, который несет другая цивилизация (по принципу: «Запад есть Запад, Восток есть Восток, и с места они не сойдут»). Писатель создает образ Востока, вообще не совпадающий с понятием культура. Образ мира, во многом непривлекательный, свободный от

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

традиционного и часто банализированного представления. Далеки от идеализации картины природы, городов, людей, вообще – как места, так и времени. Писателя интересует не экзотическая красота восточной культуры, не орнаментальная сторона, не декорации, а сам дух Востока, ментальная доминанта иноязычной культуры» [4, с.114] т.е. подчеркивается диалог культур, основанный на ментальных, национальных ценностей, языковой картины мира. Продуктивным представляется утверждение автора, что «Композиционно и концептуально роман строится на системе бинарных оппозиций разных уровней: пространственный, временной, жанровый, сюжетно-композиционный аспекты и т.д. Оппозиции: слепота – прозрение, красота – безобразие, историзм – стилизация, дикость – цивилизация, уход – возвращение, дорога – яма, свое – чужое, плоть – дух и т.д., – позволяют писателю в антиномичной парадигме обнаружить сходство и противоречие»[4, с.117]. Все это находит отражение и в романе А.Волоса «Хуррамабад», который по форме напрямую связан с жанром рассказа. В частности, каждая глава может восприниматься как отдельный рассказ, картина мира воссозданная в целом коррелирует с последним сборником автора «Рассказы из пиалы». В последнем сборнике А.Волоса «Рассказы из пиалы» несмотря на жанровое различие, сохранены основные принципы творчества. В частности, мотивы «своего» и «чужого», игравшие ключевую роль в романе «Хуррамабад» также актуализируются, но в более скрытом, контекстуальном смысле. Ориентальная традиция в историческом контексте, характерная для романа «Возвращение в Панджруд» также нашла отражение в последнем сборнике рассказов А.Волоса. В частности, это выражено в перекличке имен, пространство, времени, композиции.

Литература:

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – С. 121.
2. https://500book.ru/books/proza/sovremennaja-proza/119673-andrei-volos-hurramabad.html
3. Мароши В.В. Мотивы «своего» и «чужого» в структуре «романа-пунктира» «Хуррамабад» А. Волоса/ DOI 10.37386/2305–4077–2021–2–138-151. – С. 141.// https://cyberleninka.ru/article/n/motivy-svoego-i-chuzhogo-v-strukture-romana-punktira-hurramabad-a-volosa
4. Лихина Н.Е. «Возвращение в Панджруд» А. Волоса: ориентальная традиция в историческом контексте / Филологический аспект Методика преподавания языка и литературы, №7 (51) . Июль 2019. – С.113. https://scipress.ru/philology/articles/vozvrashhenie-v-pandzhrud-a-volosa-orientalnaya-traditsiya-v-istoricheskom-kontekste.html

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

13.00.00 PEDAGOGIKA FANLARI ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PEDAGOGICAL SCIENCES

UDK 796/799

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETLARI TALABALARIDA VOLEYBOL VOSITALARI YORDAMIDA KASBIY KO‘NIKMALAR VA SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Umarov Ozod Temirovich
Qarshi davlat universiteti “Jismoniy tarbiya va sport turlari kafedrasi” o‘qituvchisi
e-mail: o.umarov77@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari jismoniy madaniyat fakultetlari talabalarida voleybol vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalarini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama sog‘lom, barkamol shaxs bo‘lib yetishishlarida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yangisha yondashuv asosida ta’lim berish yo‘llari ko‘rsatilagan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, ta’lim, tarbiya, barkamol avlod, ma’naviy-axloqiy tarbiya, voleybol, kasbiy ko‘nikmalar, shaxsiy sifatlar.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ И ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ С ПОМОЩЬЮ ВОЛЕЙБОЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Умаров Озод Темирович
Преподаватель кафедры физического воспитания и спорта Каршинского государственного университета
e-mail: o.umarov77@gmail.com

Аннотация: *В данной статье показаны пути воспитания студентов факультетов физической культуры высших учебных заведений на основе нового подхода к развитию профессиональных навыков и личностных качеств с помощью волейбольных средств, становлению всесторонне здоровой, гармоничной личностью, совершенствованию физической культуры, физического воспитания, оздоровления, физического развития, укрепления здоровья, пропаганды здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *физическая культура, образование, воспитание, гармоничное поколение, духовно-нравственное воспитание, волейбол, профессиональные навыки, личностные качества.*

FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS AND PERSONAL QUALITIES OF THE STUDENTS OF THE FACULTIES OF PHYSICAL CULTURE WITH THE HELP OF VOLLEYBALL TOOLS

Umarov Ozod Temirovich
Teacher of "Department of Physical Education and Sports" of Karshi State University
e-mail: o.umarov77@gmail.com

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Annotation: *This article shows the ways of educating students of physical education departments of higher educational institutions on the basis of a new approach to the development of professional skills and personal qualities with the help of volleyball, becoming a comprehensively healthy, harmonious personality, improving physical culture, physical education, health improvement, physical development, health promotion , promoting a healthy lifestyle.*

Key words: *physical culture, education, upbringing, mature generation, spiritual and moral education, volleyball, professional skills, personal qualities.*

Kirish

Dunyo miqyosida kasbiy-pedagogik faoliyat sifatini oshirish uchun yangi innovatsion ta’lim modellarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Voleybol sport turi rivojlangan davlatlarda musobaqa hamda mashg‘ulot jarayonida vositalarni tabaqalashtirish, funksional zahira imkoniyatlarini boshqarishga qaratilgan organizmni tiklovchi texnologiyalar ishlab chiqish, texnik va taktik imkoniyatlari oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Taniqli olimlarning ta’kidlashicha, “Voleybol” fani materialini o‘qitishga tabaqalashtirilgan yondashuv bo‘yicha pedagogik ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun ushbu sport turi vositalaridan foydalanish istiqbollari bugungi kungacha yetarlicha o‘rganilmagan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassis o‘qituvchiga o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muhim kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning samarali uslubiyatini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili

Voleybol – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va ko‘p qirrali vositasidir. Voleybol bilan shug‘ullanish organizmning ko‘plab muhim tizimlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga ko‘ra voleybol ko‘plab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli o‘ringa ega. Voleybol BO‘SMlar (Bolalar o‘smirlar sport maktabi), umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlarining jismoniy madaniyat fani dasturlariga kiritilgan. Jismoniy madaniyat jamoalari sport seksiyalari va harbiy bo‘linmalarda voleybol bilan shug‘ullanishadi. Voleybol bog‘larda, cho‘milish joylarida, dam olish uylarida, ko‘plab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qo‘llaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bag‘ishlaydi [1; 12-18-b., 2; 4-7-b.].

Voleybol bilan shug‘ullanish organizmning ko‘plab funksiyalariga va o‘yinchilarning shaxsiy sifatlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi, jumladan:

- o‘yin asosidagi muhim jismoniy mashqlar: sakrash, zarba berish, tezlashish, keskin to‘xtash, yiqilish, umbaloq oshish ko‘nikmalari takomillashadi;
- o‘yinchilarning ko‘plab jismoniy sifatlari: sakrash, kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamliligi takomillashadi;
- o‘yinchilarning intellektual qobiliyatlari rivojlanadi, sezgi organlari, aksariyat psixik holatlar takomillashadi. Bu boradagi ijobiy belgilar: mehnatsevarlik, maqsadga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

intiluvchanlik, qat'iylik, g'alabaga ishonch, jamoaviylik hissiyoti kabilarni shakllantirish uchun yaxshigina sinov maydonidir;

- sportning har qanday boshqa turi kabi, voleybol bilan shug'ullanishning to'liq foydaliligi to'g'risida xulosa chiqarish, albatta, birmuncha bo'rttirish bo'ladi. Har qanday tirik organizm faqatgina mashqlar jarayonida takomillashishini e'tiborga olgan holda, ularning miqdori, me'yorini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Qadim zamonlardanoq, tabiblar har qanday narsa (bizning holatda – mashqlar) organizm uchun dori yoki zahar bo'lishi mumkin – hamma ish me'yorga bog'liq bo'ladi, deb ta'kidlashgan. Jumladan, voleybol sport turida ham o'ta zo'riqib mashg'ulot olib borish sportchini kamdan-kam hollardagina sog'lomlashtiradi. Ko'plab jarohatlar, jismoniy va ruhiy zo'riqishlar oxir-oqibatda professional sportchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- boshqa tomondan esa, sport mashg'ulotlariga juda ko'p vaqt ajratilsa (deyarli har kuni ikki-uch martadan mashqlar, yig'inlar, turnirlar), professional o'yinchi organizmi genetik dasturida mavjud o'zga funksiyalarni takomillashtirishning bir qator jihatlarini, inson faoliyatining hayotiy muhim sohalarini ta'minlovchi boshqa yo'nalishlar e'tibordan chetda qoladi. Bu esa shaxsni ma'lum bir chegaragacha cheklashga olib keladi. Sportni kasb sifatida tanlagan inson uchun bu muqarrar qo'shimcha natijadir, barcha kasblar ham inson shaxsiga muayyan ta'sirini o'tkazadi;

- organizmning boshqa a'zolari esa zo'riqadi va toliqadi. Psixologik tartibdagi doimiy zo'riqishlar ham xavfli – ular sportchilarni (birinchi navbatda murabbiylarni) ancha ertaroq hissiy zo'riqishiga, tushkunlik va boshqa kasalliklarga olib kelishi mumkin;

- jismoniy madaniyat tizimida mazkur qiziqarli o'yin – voleybol bilan mashg'ulotlarni shunday tashkil etish zarurki, bu mashqlar o'qishga, kasb egallashga, sog'lom bo'lishga, samarali ishlashga, oilaviy muammolarni chin dildan hal etishga xalal bermay, balki ko'maklashsin. Shundagina voleybol bilan shug'ullanish inson hayotiga huzur bag'ishlaydi. Ushbu qiziqarli va foydali o'yin kuchli hissiy kechinmalarga olib keladi, shuningdek, mashqlar natijasida organizmning funksional tizimlari takomillashganini his etish mumkin va voleybolchi shaxsining ko'plab ijobiy sifatlari shakllanadi [1; 12-18-b.,3; 31-b.,4; 42-45-b.].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda: ularning o'quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to'liq yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Biz o'tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, psixofizalogik usullar, hujjatli materiallar tahlil qilish, savol-javob va so'rovnoma, matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyligi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi empirik ma'lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishlashning umume'tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta'minlangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlil va natijalar

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida sportga nisbatan qiziqish va qadriyatlar, ularning o'zgarishi xususiyati natijalari bayon qilingan, jismoniy tarbiya sohasida oliy ma'lumotiga ega mutaxassislarning kasbiy faoliyati moxiyatini kompleks holda aks ettiruvchi eng muhim sifatlarning batafsil tavsifi berilgan, sport ixtisosligining jismoniy tarbiya pedagogining kasbiy ko'nikmalari shakllanishiga ta'sir etish darajasi aniqlangan, voleybol vositalari orqali samarali shakllantiriladigan shaxsiy sifatlar va qobiliyatlar ro'yxati aniqlangan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy madaniyat fakultet talabalariga "Sport maxoratini oshirish" o'quv fanini o'qitishda vositalar xamda tashkiliy-uslubiy usullar tizimi ishlab chiqilgan hamda taqdim etilgan.

Voleybol vositalari yordamida talabalarning jismoniy sifatlarini variativ tizimi asosida takomillashtirish mexanizmi 5 blokdan iborat. Bloklarda talabalarnining jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, ularning qo'llanilish uslubiyati, vazifalari, ta'sir yo'nalishi hamda nomoyon bo'lish shakillari yoritib berilgan.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha ishlaydigan oliy jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega mutaxassisning faoliyati modeli tuzib chiqildi, u uchta modelni o'z ichiga oladi: mutaxassis tayyorgarlik modeli, u pedagogik amaliyotida o'qigan IV bosqich talabalarining fikr-mulohazalariga asoslangan; amaldagi model, u kamida 5 yil amaliy ish stajiga ega bo'lgan malaka oshirish fakulteti tinglovchilarining fikr-mulohazalariga asoslangan; mukammal model, u pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya kafedralari professor-o'qituvchilar tarkibi fikr-mulohazalariga asoslangan. Har bir tuzilgan model murakkab tuzilgan hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida ishlaydigan mutahassislar kasbiy faoliyati bilimlarining bir-biriga bog'liq tizimi hisoblanadi. Korrelatsiya koeffitsentining salbiy qiymatlari mavjudligi shundan dalolat beradiki, har xil faoliyat turlari amalda muayyan ko'nikma va malakalarni talab qiluvchi mutlaqo mustaqil qarama-qarshi amalga oshirish usullariga ega. Talabalar fikr-mulohazalarini etalon model bilan taqqoslay turib, pedagogika oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat fakultetlari o'quv jarayonlarida qanday kamchiliklar borligini aniqlash mumkin.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrmulohazalarni tahlil qilib, bu kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beruvchi usullarni topish mumkin. Sport ixtisosligining jismoniy tarbiya bo'yicha o'qituvchining kasbiy ko'nikmalarini shakllanishiga ta'sir etish darajasi to'g'risida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar fikr-mulohazalari tahlili shuni aniqlab berdiki, sport o'yinlarida ko'proq shakllanadigan kasbiyko'nikmalar va qobilyatlar sifatida g'alabaga bo'lgan iroda (2,81 b.), qat'iyatlilik (2.76 b.), o'zini nazorat qilish (2,73b.), faollik, stresslarga bardoshlilik, chidamlilik, jur'at, mehnatsevarlik va bir zumda ko'rish reaksiyasi qayd etilgan.

Gimnastika sport turlarida 100% respondetlar birinchi o'ringa ishga bo'lgan ijodiy yondashuv (3.00 b.) qo'yilgan, keyin ma'suliyat (2,93 b.) va mehnatsevarlik (2,83 b) qayd etilgan. Yakkakurash ixtisosligiga ega respondentlar g'alabaga bo'lgan iroda (2,81 b.), burch hissi, muloqatchanlik va faollikni, tezlik-kuch sport turlari vakillariga esa mehnatsevarlik (3,00 b.), g'alabaga bo'lgan iroda (2,82 b.) va bardoshlilik (2,78 b.) ajratib ko'rsatilgan. Aniqlanishicha, boshqa sport turlariga nisbatan (1-jadvalga qarang). sport o'yinlari bilan shug'ullanadigan ko'proq pedagogik ko'nikmalar (2,65 b.), irodaviy (2,81 b.), intellektual (2,55 b.) va psixofiziologik ko'nikmalar (2,83 b.) rivojlanar ekan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval.

Sport ixtisosligining kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlarning shakllanishiga ta’siri darajasi (ball)

№	Kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar	Sport o‘yinlari		Yakkakurash		Tezlik-kuch sport turlari		Gimnastika	
		$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin
1.	Irodaviylik	2,81	2	2,84	1	2,66	3	2,32	4
2.	Psixofiziologik	2,83	1	2,40	2	2,11	4	2,38	3
3.	Ishga bo‘lgan munosabat	2,68	2	2,55	3	2,31	4	3,00	1
4.	Pedagogik	2,65	1	2,14	3	2,13	4	2,51	2
5.	Intellektual	2,55	1	2,35	2	2,25	4	2,30	3
6.	Axloqiy	2,48	2	2,79	1	2,39	4	2,44	3
7.	Jamoada o‘zini tutish	2,42	1	2,32	3	2,24	4	2,36	2
8.	Shaxsiy	2,22	4	2,32	3	2,42	2	2,65	1

Olingan natijalardan kelib chiqib, voleybol vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalar hamda qobilyatlarni hosil qilish va shakllantirish masalalarini o‘rganish uchun quyidagilarni tanlab oldik: pedagogik ko‘nikmalar ular orasida voleybolni o‘qitish davomida o‘z rivojini taqozo etuvchi va har xil shug‘ullanuvchining ushbu sport turida muvoffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga asoslanuvchi qobilyat hisoblanishi oldindan ko‘ra bilish va bashoratlash: intellektual sifatlar, bu yerda asosiy e’tiborni oldindan ko‘ra bilish hamda bashoratlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan intuitsiya va tasavurga qaratamiz; irodaviy sifatlar, ular orasida g‘alabaga bo‘lgan iroda, tirishqoqlik, o‘zini nazorat qilishni ajratamiz, zero ular ko‘proq ball to‘plagan.

2-jadval

Sport ixtisosligining pedagogik ko‘nikmalarning shakllanishiga ta’siri (ball)

№	Kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar	Sport o‘yinlari		Yakkakurash		Tezlik-kuch sport turlari		Gimnastika	
		$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin	$\bar{X}$	o‘rin
1.	Kommunikativ	2,70	1	2,44	3	2,45	2	2,41	4
2.	Gnostik	2,58	1	2,17	4	2,30	3	2,31	2
3.	Harakatli	2,82	1	2,55	2	2,25	4	2,35	3
4.	Konstruktiv	2,71	1	2,40	3	2,35	4	2,41	2
5.	Tashkiliy	2,61	1	2,37	2-3	2,14	4	2,37	2-3

Turli xil sport turlarining pedagogik ko‘nikmalarining shakllanishiga ta’sir e’tish darajasini baholash 2-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan. Sport o‘yinlari mashg‘ulotlarining pedagogik ko‘nikmalar shakllanishiga ta’sir etish darajasini baholash shuni ko‘rsatadiki, ko‘yidagi pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tadqiq qilish istiqbolli ko‘rinadi: sportchilarning jismoniy yuklamalarini boshqarish; sportchilarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish; shahsiy fikrlarni tanqidiy tahlil qilish; mashqni namoyon qilishni to‘g‘ri bajarish.

Shunday qilib, e’tirof etish joizki, har xil sport turlari bilan shug‘ullanishning zarur kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoniga ta’sir qilishda farq borligi to‘g‘risidagi masalaning haqqoniy qo‘yilganligi ko‘p sonli mutaxassislarda shubha tug‘diradi.

Voleybol mashg‘ulotlarining aniq kasbiy ko‘nikmalarini xosil qilish imkoniyatlarini tekshirish voleybolni o‘qitishga bo‘lgan yangi yondashuvlarni qo‘llash zaruratini belgilab beradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘qitish shartlari, birinchidan, umuman talabalar sporti xususiyatlari, ikkichidan, talabalarning bo‘lajak kasbipedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Talabalarni voleybolni boshlashga o‘rgatish biz tomonimizdan tuzib chiqilgan o‘quv rejasi aslida amalga oshirildi. Bunda nazorat va tajriba guruhlarining o‘quv rejalari pedagogik tajriba vazifalariga muvofiq birbiridan farq qiladi. Tajriba guruhi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv rejada oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartlarida bayon qilingan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha talablar inobatga olinadi.

Xulosa

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari jismoniy tarbiya kafedralarining yetakchi o‘qituvchilari orasida o‘tkazilgan anketa so‘rovi oliy jismoniy tarbiya ma’lumotiga ega mutaxassilarning kasbiy faoliyati mohiyatini kompleks holda aks ettiruvchi eng muhim ko‘nikmalarni, shuningdek, sport ixtisosligining jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy ko‘nikmalari shakllanishiga ta’sir etish darajasini aniqlash imkonini berdi. Sport o‘yinlarida ko‘prok shakllanadigan kasbiy ko‘nikma va qobiliyatlar sifatida g‘alabaga bo‘lgan iroda (2,81 b.), qat’iyatlilik (2.76 b.),o‘zini nazorat qilish (2,73 b.), stresslarga bardoshli, chidamklorlik, jur’at, mehnatsevarlik va bir zumda ko‘rish reaksiyasi qayd etildi. Gimnastika sport turlarida 100% respondentlar birinchi o‘ringa ishga bo‘lgan ijodiy yondashuv (3.00 b.) qo‘yilgan, keyin ma’suliyat (2,93 b.) va mehnatsevarlik (2,83 b) qayd etilgan. Yakkakurash ixtisosligiga ega respondentlar g‘alabaga bo‘lgan iroda (2,81b.), burch hissi, muloqotga kirishuvchanlik faollik, tezlik-kuch sport turlari vakillariga ega mehnatsevarlik (3,00 b.), g‘alabaga bo‘lgan ishonch (2,82 b.) va bardoshlilik (2,78 b.) ajratib ko‘rsatilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 208 b.

2. Boltayev Z.B. – “Voleybol nazariyasi va uslubiyati” – Darslik. Samarqand – 2019., 4-7-b.

3. Бержо. Волейбол высщего уровня. // Автор перевода с французского языка Ю.Б.Чесноков. – М.: “Олимпия”, 2007. – 31 с.

4. Пулатов А.А., Умматов А.А. Волейбол мусобақа ўтказиш тартиби ва қоидалари. – Т.: “Илмий техника ахборот-пресс”, 2018. – 42-45 б.

5. Пулатов А.А. Ёш волейболчилар тезкорлик-куч сифатларини шакллантириш услубияти. // Услубий қўлланма. –Т., 2008. – 38 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK: 950 (575.1):371.3

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MUZEY PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TALABALARNI TURISTIK FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH IMKONIYATLARI

Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich,
NamDU, Tarix kafedrasi v. b. dosent, (PhD).
E: mail. boymirzayevhurshidjon@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashdagi muammolar, muzeylarning ta‘lim muassasalari bilan hamkorligi mazmuni, bo‘lajak o‘qituvchilar muzey pedagogikasi doirasida egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar, bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashda amalga oshiriladigan didaktik vazifalar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muzey pedagogikasi, turizm faoliyati, ta‘lim muassasasi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar.*

ВОЗМОЖНОСТИ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Боймирзаев Хуршиджон Каримжанович,
НамГУ, исторический факультет с. б. доцент, (PhD).
Электронная почта. boymirzayevhurshidjon@gmail.com

Аннотация *В данной статье рассматриваются проблемы подготовки будущих педагогов к туристской деятельности средствами музейной педагогики, содержание сотрудничества музеев с образовательными учреждениями, знания, умения, квалификация и компетенции, которые необходимо приобрести будущим педагогам в рамках музейной педагогики. Освещены дидактические задачи, решаемые при подготовке будущих учителей к туристической деятельности средствами музейной педагогики.*

Ключевые слова: *музейная педагогика, туристская деятельность, образовательное учреждение, знания, навыки, квалификация, компетенции.*

OPPORTUNITIES TO DIRECT STUDENTS TO TOURISM ACTIVITIES THROUGH THE DEVELOPMENT OF MUSEUM PEDAGOGICS IN FUTURE TEACHERS

Boymirzaev Xurshidjon Karimjanovich,
NamSU, Department of History associate professor, (PhD).
E: boymirzahurshid@gmail.com

Abstract *This article discusses the problems of preparing future teachers for tourism activities with the help of museum pedagogy, the content of cooperation between museums and educational institutions, the knowledge, skills, qualifications and competencies that future teachers need to acquire within the framework of museum pedagogy, the didactic tasks that are solved when preparing young teachers for tourism activities by means of museum pedagogy are highlighted.*

Keywords: *museum pedagogy, tourism activities, education, knowledge, skills, qualifications, competence.*

Kirish

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o‘tmish merosimizni o‘rganish, saqlash hamda uni keng xalq ommasiga targ‘ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Shu bois turizm sohasini rivojlantirish, uning xalqaro standartlarga moslashtirish bilan birga jamiyatimiz ongida ham turistik faoliyatga qiziqishni rivojlantirish, ta‘lim tizimida uning nazariy va ilmiy asoslarini takomillashtirish bilan birga talaba-yoshlarni turizm faoliyatiga yo‘naltirishning kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi vositalarini topishga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmoni, «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmonida turizmga doir «xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta‘lim tizimini yaratish, turizm sohasi xodimlari uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish» [1,b.4] kabi huquqiy asoslar ham yaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta‘limda bo‘lajak kadrlarni turizm faoliyatiga yo‘naltirishning samarador metodologiyasi sifatida muzey pedagogikasining imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning pedagogik shart- sharoitlarini oshirishga doir vazifalar dolzarblik kab etmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi tahlili o‘qituvchilar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni izlash zarurligini ko‘rsatadi. Chunki kadrlar tayyorlashdagi muammolar va o‘qitish metodikasining eskiligi kuchli mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy to‘siq bo‘lmoqda. Shu bois ta‘lim sifatini oshirish, bu orqali kadrlar tayyorlashda yangi bosqichga chiqish va ularni zaruriy kompetensiyalar bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir [1,b.6].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

bo‘lajak o‘qituvchilarni turistik faoliyatga yo‘naltirish ham ularni o‘zgartirish yo‘lidagi muhim qadamlardan bo‘ladi. Shuningdek, ulardagi ichki iqtidor va qiziqishlarini namoyon qilish, o‘zi istagandek hayot kechirishga yo‘naltirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Chunki turistik faoliyat har bir insonga kuchli ta‘sir qiluvchi vosita, uni uyg‘otuvchi, hayotga boshqacha ko‘z bilan qarashga undovchi, ichki istaklari tomon undovchi motivatsion ta‘sir hisoblanadi. Turistik faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini ochuvchi, oshiruvchi omil hisoblanadi.

Muzey pedagogikasi bilan talabalar amaliyot yoki muzeylarga ekskursiya qilish, bu bilan bog‘liq seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida duch keladilar. Oliy ta‘lim muassasalarida muzey pedagogikasi fani o‘tilmaydi va shu bois talabalarning bu boradagi bilim va ko‘nikmalari ham unchalik yuqori bo‘lmaydi. Biroq muzeylarga tashrif buyuruvchilar yoki bu yerda bilimlarini oshirishga intiluvchi talabalarga muzey pedagogikasi asosida ta‘sir kbo‘rsatishi, ularni turistik faoliyatga ybo‘naltirishi mumkin. Shu bois oliy ta‘lim muassasalarida o‘tilayotgan ayrim fanlarni muzeylarda o‘tish, seminar mashg‘ulotlarini ko‘proq muzey eksponatlari bilan bog‘lab, o‘rganish orqali olib borish yoki amaliyot jarayonlarini muzeylarga biriktirish samarali hisoblanadi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni muzeylarga yo‘naltirish orqali ularning turistik bilimi va ongini oshirish mumkin bo‘ladi. Bilamizki, bir insonning biror joyga borish istagi o‘sha joy haqidagi ma‘lumotlar asosida ortib boradi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga yo‘naltirishning eng samarali yo‘li bo‘lsa, ularning qiziqishlarini oshirish, emotsional

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va yuqori kayfiyatni hosil qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan muzey pedagogikasining talabalarni qiziqtirish imkoniyatlarini oshirish va uning ta‘sirchanlik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Misol uchun, Oliy ta‘limning —Tarix yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan — Tarixiy o`lkashunoslik, —Muzeyshunoslik, —O`rta Osiyoning qadimgi va o`rtasrlar urbanizasiyasi, —Manbashunoslik va tarixshunoslik, —Arxeologiya, —Etnologiya va etnografiya kabi fanlarni muzeylar bilan bog‘lash, ular orqali talabalarning bilim va kbo‘nikmalarini oshirish, amaliy mashg‘ulotlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan birga turli faoliyat turlariga ham qiziqish va iqtidorlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir [2,b.24].

Oliy ta‘lim tizimida —Tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi talabalariga o‘tiladigan —Muzeyshunoslik va arxivshunoslik, —Tarixiy geografiya, —Temur va temuriylar davlat tarixi, —Jahon xalqlari epigrafiyasi, —Tarixiy bo‘lkashunoslik va urbanizasiya jarayonlari kabi fanlarni muzey pedagogikasining yangicha metodologiyasi asosida hamkorlikda olib borish bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixning bir parchasini va saqlangan qismini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va nazariy bilimlarini, tasavvurlarini real voqelikda ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu esa talabalarda tarixni chuqurroq o‘rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshirish bilan birga shu joylarga sayohat qilish istagini, emotsional layoqatni ham oshiradi. Buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga bo‘lgan yondashuv o‘zgaradi.

Muhokama va natijalar

Mamlakatimizda mavjud muzeylar va ularning muzey pedagogikasini tashkil etishdagi muammolar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston muzeylarida muzey pedagoglari faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, ularda faqat eksponatlar bilan tanishtirib boruvchi va ma‘lumot beruvchi xodim faoliyat yuritadi, xolos.
- bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi.
- hozirgi kunga qadar o‘qituvchilarga muzeyning ta‘lim-tarbiyaning samarali vositasi sifatidagi o‘rni noma‘lum bo‘lib qolayotganligi.
- muzey pedagogikasining asosiy vazifasi tashrif buyuruvchilarga ham bilim berish, ham emotsional ta‘sir ko‘rsatish bo‘lib, tomoshabinda eksponatning aslini ko‘rish, yoki uni qadrlash, hurmat qilish va chuqurroq o‘rganish istagini oshirish hisoblanadi.

Shu ma‘noda muzey pedagogikasi bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga yo‘naltirishning aniq metodologiyasini ishlab chiqish kuchli samara beradi. Biroq mamlakatimizda muzey pedagoglarini tayyorlash va ularni faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish asoslari yuqori saviyada ishlab chiqilmagan [7,b.17].

Shuning uchun ta‘limni modernizatsiyalashning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni muzeylar bilan o‘quv faoliyati sohasida bevosita aloqalarga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida tayyorlash lozim. Muzeylarda tashkil etilgan turli o‘quv kurslari, amaliyot va seminarlar bu vazifani faqat qisman bajarishi mumkin [1,b.8].

Muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashga yangicha yondashuvlarni izlab, muzeylar so‘nggi yillarda ta‘lim muassasalari va pedagogika universitetlari bilan yangi, tizimli hamkorlik darajasiga erishish imkonini beradigan ta‘lim xizmatlarini qayta tuza boshlaganida vaziyat o‘zgara boshladi. Muzeylarning ta‘lim muassasalari bilan hamkorligi tajribasi barcha darajadagi san‘at va gumanitar ta‘limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta‘lim muassasalari bilan bo‘zaro aloqalar darajalari va yo‘nalishlarini aniq tashkil etishi kerak bo‘lgan tizimni ishlab

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

chiqishga imkon berdi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, muzey pedagogikasi vositasida turistik faoliyatga ybo‘naltirishning eng samarali modeli muzey-pedagogik dasturlari bo‘lib, muayyan muzeyning o‘ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy pedagogik usullarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan [7,b.19].

Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlanadigan yo‘nalishlarning davlat ta‘lim standartlari taxlil etilganda muzey pedagogikasi, muzeyshunoslik va san‘at tarixi fanlari integratsiyasiga oid muhim mavzular kiritilmaganligi aniqlandi:

- ✧ muzey va ta‘lim muassasasi hamkorligining mohiyati va shakllari;
- ✧ ko‘rgazmali tafakkurning mohiyati va uning shaxs shakllanishi uchun muzey-pedagogik usullari bilan rivojlanishining ahamiyatini fanlararo tushunish;
- ✧ muzey pedagogikasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari;
- ✧ zamonaviy muzeyda Art terapiya (san‘at orqali davolash).

Oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey-pedagogikasi faoliyatiga tayyorlashni bakalavriat o‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida amalga oshirishi va qayta tayyorlash uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuningdek, ularni o‘qitish pedagogika kollejlarida yoki madaniyat va san‘at universitetlarida tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq.

Oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanuvchi bo‘lajak o‘qituvchilar muzey pedagogikasi doirasida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni ega bo‘lishi lozim:

- ➢ muzey va uning ijtimoiy-madaniy muassasalar tizimidagi o‘rni, muzey pedagogikasi tarixi haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish;
- ➢ zamonaviy muzeydagi ta‘lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, muzey pedagogikasi umumiy pedagogik jarayonning bir qismi ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- ➢ muzey va pedagogk faoliyatning zamonaviy muzey biznesi rivojidagi o‘rnini, uning ta‘limni insonparvarlashtirish, shaxs madaniyati va ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirish muammolarini hal etishdagi ahamiyatini tushunish;
- ➢ ta‘lim va madaniy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning umumiy va o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlay olish;
- ➢ muzey-pedagogik jarayoni davomida ushbu o‘zaro aloqalarni tashkil etish bo‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- ➢ muzey pedagogikasining metodlari, shakl va texnologiyalarini ilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish;
- ➢ muzey pedagogikasi nazariyasi va tarixiga oid bilimlar tizimini egallash;
- ➢ muzey o‘qituvchisining barcha muzeylarda va ta‘lim muassasalarida kasbiy faoliyati uchun badiiy qobiliyati va estetik g‘oyalarini rivojlantirish zaruriyatidan xabardor bo‘lish;
- ➢ muzey-pedagogikasiga oid maxsus adabiyotlarning birlamchi manbalarini bilish;
- ➢ muzey qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil eta olish va talabalarning muzeyga bo‘lgan qiziqishlarini muzey kommunikatsiyasiga tizimli kiritish zarurati darajasiga ko‘tara olish;
- ➢ muzey pedagogikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, metodikasi va tajriba ishlariga oid ko‘nikma va malakalarini egallash [3,b.161].

Agar muzey xodimlarining ishlari oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim va amaliyot jarayoni bilan aloqador tarzda hamkorlikda olib borilsa, muzeylarda talabalar ta‘lim jarayonida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

uchratadigan, lekin hech qachon koʻrmagan ekspozitsiyalar bilan tanishadilar. Muzeylar ekspozitsiyalari bilan ishlash jarayonida uning oʻziga xos xususiyatlariga eʻtibor berish muhim. Bunda quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Muzeylardagi mashgʻulotlar maʻlum taʻlimiy va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishi zarur.

2. Tanlangan materiallar talabalarga tushunarli va ularning turistik faoliyatini rivojlantirishga mos kelishi muhim.

3. Mashgʻulot uchun tanlangan ekspozitsiyalar maʻlum fanga doir mavzular bilan bogʻliq boʻlishi maqsadga muvofiq.

4. Muzeylar bilan aloqa muntazam, izchil boʻlishi lozim.

Maʻlumki, har bir fan asosi u yoki bu ijtimoiy davrning muhim voqealari bilan bogʻlab oʻrganilganda, adabiyot, sanʻat, tarixiy voqealar oʻsha davrdagi muhim voqealar, adabiyot va sanʻat namoyondalarining oʻz zamonasida tutgan oʻrni, kiritgan yangiligi uning ijtimoiy hayot bilan bir qatorda rivojlanib, taraqqiy etganligi haqida ham maʻlumotlar beriladi.

Shunga koʻra, boʻlajak oʻqituvchilar va muzey xodimlari faoliyatida oʻzaro aloqadorlikni tashkil etishning oʻziga xos didaktik talablari, yoʻnalishlari, tamoyillari va imkoniyatlari mavjud boʻlib, bular pedagogikadagi anʻanaviy metodikaga qaraganda innovatsion xarakter kasb etadi.

Shu munosabat bilan universitet pedagogik jarayonida taʻlimning mazmuni quyidagi vazifalarga qaratilgan boʻlishi lozim:

1. Erkin shaxsni tarbiyalash: yuqori darajadagi onglilik; fuqarolik, shaxsiy qadr-qimmatini his qilish; oʻz-oʻzini hurmat qilish, oʻz-oʻziga talabchanlik, halollik, rostgoʻylik; hayotning maʻnaviy qadriyatlariga yoʻnaltirish; shaxsiy qarorlar qabul qilishda faollik va mustaqillik, masʻuliyat.

2. Ijodkor shaxsini tarbiyalash: qobiliyat, bilim, koʻnikma, malakalarni rivojlantirish; sensorika, intelektni va intuitsiyani rivojlantirish.

3. Insonparvar shaxsni tarbiyalash: insonga xos sezgirlik, rahm-shafqat va mehr-oqibat, fidoyilik, bagʻrikenglik, kamtarlik, hayot qadriyatlarini tushunish, dunyo, tabiat va boshqalarni anglash qobiliyatini tarbiyalash.

4. Shaxsning maʻnaviy tarbiyasi: dunyoni doimiy ravishda bilish, oʻzini, ruhiy dunyosini bilish, goʻzallik, muloqot, mulohaza yuritish, hayot mazmunini izlashda oʻz-oʻzini bilish ehtiyoji; ichki shaxsiy olamning yaxlitligi va mustaqilligi.

5. Amaliy shaxsni tarbiyalash: iqtisodiyot asoslarini bilish; mehnatsevarlik, tejamkorlik; chet tillarni bilish, xalq hunarmandchiligi, diniy urf-odatlarni bilish; sogʻlom turmush tarzi; jismoniy tarbiya, estetik did, odob-axloq, yaxshi xulq, mehmondoʻstlik, uyni tartibga solish, oila farovonligini taʻminlash istagi.

6. Yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalash: bilimdonlik, kompetentlik; boshqaruvchilik mahorati; kommunikativlik; ijodiy kasbiy fikrlash qobiliyati, turizm tarixi, nazariyasi va amaliyotini bilish; pedagogik mahoratni egallash; stressga chidamlilik, psixologiyani bilish [5,b.124].

Muzey pedagogikasi vositasida turistik faoliyatga yoʻnaltirish orqali boʻlajak oʻqituvchilarda quyidagi umuminsoniy ijtimoiy, shaxsiy va umum madaniy kompetensiyalar shakllanadi:

– Gnostik kompetentlik: umumiy taʻlim, moslashuvchanlik va aqlning tanqidiyligi, zukkolik, ehtiyotkorlik, analitik koʻnikmalar, bilimdonlik, yaxshi oʻrganish qobiliyati,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mantiqiylik, axborotni topish qobiliyati, asosiy narsani ta‘kidlash, oqlash qobiliyati, tanlangan faktlarni taqqoslash, vaziyatni tahlil qilishda izchillikni namoyish etish, mantiqiy fikrlash, keyingi tanqidiy tahlil bilan taqqoslash, vaziyatni tahlil qilish, fikrning aniqligi, ifoda tiniqligi, murakkab o‘quv vazifalarni tahlil qilish va yordam holda ularni amalga uchun o‘z yondashuvlarni topish, o‘z- o‘zini tanqid qilish uchun tayyorligi.

– Axloqiy va irodaviy kompetentlik: axloqiy va huquqiy normalarni foydalanish qobiliyati, fuqarolik, qonunga bo‘ysunish (huquqiy madaniyat), shu jumladan, bag‘rikenglik, ijtimoiy moslashish qobiliyati, madaniyat qadriyatlarini tushunish va ularga rioya qilish, faoliyat, maqsadga muvofiqlik, optimizm, o‘z o‘ziga ishonch, topqirlik, xohish-istaklarini tahlil qilish va ulardan ustuvor bo‘lganlarini tanlash, maqsadni belgilay olish, o‘z imkoniyatlarini real baholash qobiliyatini, o‘z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati, vazifalarni belgilash va bajarish mustaqilligi, qat‘iyatlilik, tashabbuskorlik, qiyin vaziyatda tez harakat qilish va vazifalarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy nuqtai nazar bilan qarash qobiliyati, o‘z nuqtai nazarini ifoda qilish qobiliyati, majburiyatlarni bajarish, maqsadlarga erishishda qat‘iyat, chidamlilik, stress va vaqtni boshqarish, to‘plangan tajribani tanqidiy qayta ko‘rib chiqish qobiliyati.

– Kommunikativ kompetentlik: ijtimoiy munosabatlar madaniyati ko‘nikmalari, ijtimoiy hamkorlik (ijtimoiy interaktivlik), jamoada ishlar, shaxslararo munosabatlar ko‘nikmalari, hamdardlik, odamlarga hurmat, mehribonlik, xushmuomalalik, yaxlitlik, muloqot qilish qobiliyati, moslashuvchanlik, axborot berish qobiliyati, ishontirish qobiliyati, nutqning intonatsion xususiyatlarini bilish bilan bog‘liq muammoni to‘g‘ri va ifodali tarzda taqdim etish qobiliyati, aloqa ko‘nikmalari, boshqa shaxsning his-tuyg‘ulariga kirib borish, unga hamdardlik, o‘z pozitsiyasini egallash, his-tuyg‘ular ifodasini nazorat qilish qobiliyati, vaziyatni anglash, axloqiy qadriyatlarga va ijtimoiy mas‘uliyat prinsiplariga rioya qilish, mustaqil va jamoada ishlash, odamlarga rahbarlik qilish va itoat qilish qobiliyati.

– Tashkiliy kompetentlik: sog‘lom turmush tarzi normalarini bilish va anglash, jumladan, sog‘lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatga bo‘lgan ehtiyojni anglash, qat‘iyatlilik, chidamlilik, uyushqoqlik, mas‘uliyat, muloyimlik, jasorat, majburiyat, intizomlilik, faollik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘ziga ishonch, vaqtni boshqarish qobiliyati, boshqalar faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish qobiliyati [5,b.121].

Shunday qilib, bir qator kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan muzey pedagogikasi va muzey turizmi talabalar bilan ishlashning pedagogik jihatdan ko‘p qirrali shakli sifatida qaralishi lozim. Undan yanada samarali foydalanishning muvaffaqiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy va kasbiy professionalligi bilan bog‘liq [4,b.154].

Muzey ta‘limning nazariy va amaliy komponentlarini birlashtirilib, materialni to‘liq o‘zlashtirish hamda mustahkamlash va takrorlash jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bilim olish jarayoni qiziqarli tarzda qabul qilinadi, bu esa o‘rganish va ilmiy yutuqlarga ijobiy turtki beradi. Muzey pedagogikasi ta‘lim va tarbiya jarayonida ta‘lim muassasalari va muzeylar o‘rtasida vositachi sifatida qo‘llaniladi, bu esa pedagogik usullarning to‘liq tarbiyaviy salohiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Muzey pedagogikasi muzey materiallarini taqdim etish shakli sifatida ochiq muzey muhitida pedagogikaning umumiy tamoyillarini foydalanishni o‘z ichiga oladi. Muzeydagi pedagogik yondashuvga ko‘ra har bir tashrif buyuruvchi muzey ko‘rgazmalarini passiv tafakkur etibgina qolmay, muzey muhitida amalga oshiriladigan aloqa jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Muzey pedagogik faoliyati ma‘lum bir auditoriya uchun muzey tadbirlari tizimi yoki sikliga asoslangan bo‘lib,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

idrok markazi muzey ob‘ekti hisoblanadi. Shu bilan birga muzey pedagogikasi faol ta‘lim texnologiyasi sifatida talabalarni muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalari, ekskursiyalar yaratish jarayoniga faol jalb etishga qaratilgan [2,b.29].

Xulosa

Shunday qilib, quyidagicha xulosaga kelish mumkinki, muzey eksponatlarni saqlaydigan joy bo‘libgina qolmay, balki tashrif buyuruvchining estetik didi va ijodiy tasavvurini rivojlantiruvchi tashkilot sifatida ham qaraladi. Hozirgi bosqichda muzey muayyan ob‘ekt, hodisa yoki jarayon haqidagi ma‘lumotlarni uzatishdan shaxsning ichki dunyosiga murojaat qilishga, uning hissiy sohasiga ta‘sir ko‘rsatishga o‘tdi. Bundan tashqari, muzey ta‘lim jarayonining eng muhim bo‘g‘ini hisoblanib, qo‘shimcha ta‘lim vazifalarini bajaradi, o‘quvchilar va muzey o‘qituvchilar o‘rtasida teng muloqotni amalga oshiradi. Muzey faoliyatida hozirgi bosqichda eng ommalashgan ta‘lim-tarbiyaning interfaol shakllari bo‘lib, ular o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning bilim mustaqilligi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun cheksiz imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi».

2. Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84 с.

3. Насруллаева П.Н. Музейное дело в системе туризма. — Дагестанский государственный педагогический университет Кафедра «Социально-культурный сервис и туризм» г. Махачкала. 120-128 с.

4. Qizi, M. K. I. (2020). A system for training future teachers in tourism through museum pedagogy. Проблемы современной науки и образования, (3 (148)). 154-167.

5. Qizi, M. K. I. (2021). The role of museums in the development of tourism. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 121-124.

6. Уринова, Н. М. (2020). ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТЛАРИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2 № 7).

7. Maraimova K. I. Muzey pedagogikasi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni turistik faoliyatga yo‘naltirishning mazmuni va didaktik imkoniyatlari, Academic Research in Educational Sciences Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-17-26. p. 17-19

UDK 796.332.063

YOSH FUTBOLCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH

Ochilov Rufat Qo‘qonovich
Qarshi davlat universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ochilovrufat77@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada futbolchilarning yoshiga qarab jismoniy rivojlanish darajasi antropometrik o‘lchovlar asosida o‘rganildi va tahlil qilindi. Yosh futbolchilarni mashg‘ulot vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalarini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama sog‘lom, sportchi bo‘lib yetishishlarida futbol sport turining ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *futbol,jismoniy rivojlaning, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, antropometrik o‘lchovlar, tananing partsial va total o‘lchovlari, kasbiy ko‘nikmalar.*

ОЦЕНКА УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Очилов Руфат Қўқонович
Старший преподаватель кафедры «Теория и методика физического кулътуры» Каршинского государственного университета
e-mail: ochilovrufat77@gmail.com

Аннотация: *В данной статье изучен и проанализирован уровень физического развития футболистов в зависимости от возраста на основе антропометрических измерений. Дана информация о значении футбола в оказании помощи юным футболистам в развитии их профессиональных навыков и личностных качеств, становлении здоровыми во всех аспектах спортсменами.*

Ключевые слова: *футбол, физическое развитие, физическая подготовленность, физические качества, антропометрические измерения, частичные и полные измерения тела, профессиональные навыки.*

EVALUATION OF PHYSICAL DEVELOPMENT LEVEL OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Ochilov Rufat Qo‘qonovich
Senior Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Physical Culture, Karshi State University
e-mail: ochilovrufat77@gmail.com

Annotation: *This article studies and analyzes the level of physical development of football players depending on age based on anthropometric measurements. Information is given about the importance of football in helping young football players develop their professional skills and personal qualities, and become healthy athletes in all aspects.*

Key words: *football, physical development, physical fitness, physical qualities, anthropometric measurements, partial and total measurements of the body, professional skills.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kirish

Jahonda futbol bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash va ularni saralab olish tizimini yangi innovatsion yondashuvlar asosida zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xalqaro futbol federatsiyasi tomonidan o‘yin qoidalariga kiritilgan yangiliklar asosida futbolchilarni tayyorgarlik turlari bo‘yicha saralashning yangi talablarini ishlab chiqish, jismoniy va texnik imkoniyatlarini takomillashtirish, oliy sport yutuqlariga erishishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatdan samaradorligini oshirish bilan bog‘liq izlanishlar olib borilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, futbolchilarningning saralab olishda ularning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga qaratilgan muammolar ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi zamonaviy har tomonlama rivojlangan futbol, mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni hajmi va intensivligi oshib borishi va raqobatbardoshlikni kuchayishi bilan tavsiflanadi, bu esa yuqori darajadagi stresslarga olib keladi, natijada, oliy yutuqlarni “qiymati” ko‘pincha salomatlik darajasi meyor holatdan patologik holatga o‘tishi bilan o‘lchanadi. Shuni hisobga olgan holda, sportchining raqobatbardoshlik qobiliyatini yuqori darajada saqlay olishi uchun sportchilarning ruhiy-funksional tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Sportchilarning hozirgi zamon funksional tayyorgarligi nafaqat o‘zining xilma-xilligi, hajmi, intensivligi bilan, balki katta hajmdagi jismoniy yuklamalarni o‘zgaruvchanligi va qo‘llaniladigan uslublari bilan ham farqlanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan funksional tayyorlovida, birinchi navbatda futbolchi va jamoaning individual xususiyatlari, texnik tayyorlovining zaif va yetakchi tomonlari hisobga olinadi [1; 54-b.,4; 7-12-b.].

Asosiy masalalardan biri bu funksional tayyorgarlikning turli tarkibiy qismlarining maqbul darajasi va mos nisbatini aniqlash - uning struktura masalasidir. Bu tayyorgarlik jarayonida barcha tomonlarning rivojlanishini maksimal darajada oshirish uchun harakat qilishning hojati yo‘qligini tushunish bilan belgilanadi. Optimallashtirish o‘yin talablarining o‘ziga xos xususiyatlariga (o‘yinning ixtisosligini albatta hisobga olgan holda) va individual xususiyatlarga, futbolchilarni tayyorgarligining u yoki bu tomonini ishlatishga moyilligiga asoslangan bo‘lishi mumkin [2; 46-52-b., 3; 122-126-b.]. Futbolda oliy-liga jamoalari uchun yosh zahiralarni tayyorlash dolzarb muammo bo‘lib, ilmiy tasdiqlangan tizimga asoslanishi lozim. Malakali futbolchilarni tayyorlashda nafaqat tajriba dasturlarni ishlab chiqarish, balki tayyorgarlikning har tomonlama nazorat etuvchi dasturlarni ishlab chiqarish va aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish - asosiy muammodir [4; 64-b.].

Bir qator mutaxassis olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra sportchining jismoniy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qo‘yidagilardir: tana tuzilishi, bir qator morfologik belgilar, energetik imkoniyatlar, tezkorlik va kuchlilik sifat ko‘rsatkichlari, nasliy belgilar, sport tanlovi va boshqalarni sanab o‘tgan [1; 54-b., 2; 46-52-b., 4; 5-7-b.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, yosh futbolchilarning tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda: ularning o‘quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko‘nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to‘liq yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Biz o‘tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, antropometriya hamda matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyligi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi empirik ma’lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishlashning umume’tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta’minlangan.

Tahlil va natijalar

Futbol sohasida sport tayyorgarligining mukammallashib borishi tufayli yutuqlar darajasining va rivojlanishning jadal ravishda o‘sib borishi sportchilar bilan mashg‘ulot olib borishning yangidan-yangi samarali uslublarini izlash va yaratishni talab qilmoqda. Futbolchilarning rivojlanishida asosiy o‘rinni morfo-funksional ko‘rsatkichlar egallaydi, ular 80% hollarda nasliy jihatdan belgilangan bo‘lib sportda ishchanlikni va qator jismoniy xususiyatlarning ro‘yobga chiqishi chegaralarini belgilaydi. Sportchi tana tuzilishining morfologik xususiyatlari ko‘p yoki kamroq miqdorda jismoniy xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi va sportda eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishish borasida esa g‘alabani ta’minlash uchun hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Shu sababli sport mutaxassislari sportchining individual, ko‘pincha, yoshiga bog‘liq xususiyatlari, va tanlangan sport turiga bog‘liq holda sportchini ratsional (maqsadga muvofiq holda) tayyorlanishiga ahamiyat beradilar. Yuqorida qayd qilinganlar asosida xulosa qilish mumkinki, erta “tanlovni” amalga oshirish yangidan-yangi tadqiqotlar o‘tkazilishini taqozo etadi, yangi tadqiqotlar bolalar va o‘smirlarning tanlagan sport turida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta’minlaydigan kompleks baholash uslublarini yaratib borishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz malakali 15-17 yoshli futbolchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini o‘rganib chiqdik.

Tadqiqot obyekti sifatida 36 nafar malakali futbolchilar tanlab olindi. Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasi ular tanasining total va parsial o‘lchamlarini o‘z ichiga olgan antropometrik uslub asosida baholandi. Tadqiqotlar 2022 yilning oktabr oyida Qarshi «Nasaf» futbol akademiyasida amalga oshirildi.

Quyidagi 1-jadvalda futbolchilarning tana uzunligining va vaznining o‘sish dinamikasi vazn – bo‘yi ideksi (VBI) bilan tasdiqlanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval

15-17 yoshli futbolchilarning antropometrik ko‘rsatkichlariningrivojlanish darajasi

(“Nasaf” futbol akademiyasi (n=36))

№	Antropometrik parametrlar	15 yosh (n=12)	16 yosh (n=12)	O‘sishi % da	17 yosh (n=12)	O‘sishi % da
1.	Vazn/bo‘yi indeksi (sm/kg)	345,74±37, 19	366,39±40,27	5,97	386,49±30, 35	5,48
2.	Ko‘krak qafasining aylanasi sm.	81,9±4,77	84,9±4,15	3,66	87,3±5,7	2,82
3.	Qo‘l uzunligi	75,8±3,83	77,4±4,71	2,11	81,2±2,84	4,94
4.	Oyoq uzunligi	93,0±4,62	94,8±7,63	1,91	98,6±4,48	4,12
5.	Son uzunligi	46,13±2,85	48,4±4,36	4,94	49,43±3,65	2,11
6.	Boldir uzunligi	41,7±2,08	42,0±3,01	0,73	45,1±2,73	7,42
7.	Yelka kengligi	36,2±2,79	37,0±2,39	2,24	37,7±4,67	1,90
8.	Tos kengligi	26,8±1,28	26,9±2,19	0,43	29,2±1,62	8,55
9.	Ko‘krak qafasining ko‘ndalang o‘rtaligi (sm)	27,0±1,86	27,2±1,16	0,72	28,4±1,89	4,43
10.	Yelka aylanasi	26,15±2,45	28,2±2,07	7,81	28,6±3,7	1,41
11.	Yelka oldi aylanasi	23,9±2,12	25,1±1,71	5,34	25,91±2,38	3,27
12.	Son aylanasi	49,8±3,37	52,15±3,5	4,73	52.91±4,32	1,40
13.	Boldir aylanasi	33,7±2,49	35,5±2,03	5,31	36,01±2,39	1,42
14.	Qorindaga yog‘ning o‘rtacha qatlamining qalinligi	5,3±2,24	6,7±2,64	6,43	5,5±2,62	-7,91

Futbolchilarda 15 yoshga kelib VBI 345,74±37,19 ko‘rsatkichga teng bo‘lsa, 16 yoshda 366,39±40,27 ni, 17 yoshda esa 386,49±30,35 ni tashkil qiladi, va jadvalda individual rivojlanish jarayonida ko‘rsatkichlarning o‘sish darajasi keltirilgan. Tananing parsial ko‘rsatkichlari orasida tanlangan sport mutaxassisligа xos ravishda oyoqlar segmentlarining uzunlik o‘lchovlari ahamiyatlidir, chunki futbolda aksentlashgan yuklamalar aynan shu segmentlariga tushadi. 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan davrda oyoqlarning uzunligi 1,91% ga ortsa, 16 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan davrda esa bu o‘sish 4,12% ni tashkil qiladi. Qo‘llarning uzunligi 15 yoshdan va 16 yoshgacha davrda aylana belgilarda yuqori darajali o‘sish kuzatildi. Masalan, yelka aylanasi – 7,81% yelka oldi aylanasi 5,34%, boldir aylanasi 5,31%, yog‘ qatlamni ortishi 6,43% tashkil etdi. Yog‘ni ortishi - salbiy belgi bo‘lib futbolchilarda 15 va 16 yosh orasida ortadi, 16 va 17 yosh oralig‘ida esa aksincha – 7,91% kamayadi. Sonlarning aylanma o‘lchovlari ham shunga o‘xshash: 16 yoshga kelib 4,73% ni, 17 yoshga kelib esa 1,40% ni tashkil qildi. Boldirlarning aylanma o‘lchovilari ko‘rsatkichlarining kattalashishi 16 yoshga kelib 5,31% ni tashkil qilsa, 17 yoshga kelib 1,42% ga kamaygani ko‘rildi. Tos suyagining ko‘ndalang o‘lchamining o‘sishi ayniqsa diqqatga sazovordir: 16 yoshga kelib ko‘rsatkich bori – 0,43% ga ortsa, 17 yoshga kelib uning o‘sishi 8,55% ni tashkil qildi. Ko‘krakning ko‘ndalang o‘lchovining ko‘rsatkichi 16 yoshga kelib atigi 0,72% ga ortgan, 17 yoshga kelib esa ko‘rsatkichning ortishi 4,43% ni tashkil qilgan.

Umuman aytganda 15 yosh bilan 16 yosh orasida Yelkaning aylanma o‘lchovi ko‘rsatkichining ortishi 16 yoshga kelib 7,81% tashkil qilgan bo‘lsa, 17 yoshga chiqqanda esa

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko‘rsatkichning biroz pasayishi aniqlandi. 16 yoshdan 17 yoshga chiqqanda qorindagi yog‘ qatlamining qalinligi - (-7,91%) kamayishi kuzatildi. Bu ijobiy ko‘rsatkich bo‘lib, futbolchilarning jismoniy rivojlanishi yetuk darajaga yetishgani xaqida dalolat beradi. Jismoniy rivojlanish dinamikasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, futbol bilan shug‘ullanuvchi 15-16 yoshli o‘spirin sportchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari ular bilan bir xil sharoitda bo‘lgan va sportchi bo‘lmagan tengdoshlarnikidan sezilarli yuqori ekan. Yosh kattalashgan sari bu farq ham yuqoriroq bo‘lib boradi.

Izlanishlar natijalariga ko‘ra futbolchilarning tana og‘irligi va tana uzunligi kabi antropometrik ko‘rsatkichlari mashg‘ulotlar ta’siri ostida o‘zgaruvchan bo‘lib, har bir sportchining maxsuslashgan xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Maktab bolalarinikidan farqli yosh futbolchilarda antropometrik ko‘rsatkichlarning jadal o‘sish jarayoni ancha oldin boshlanishi tadqiqotda aniqlandi. Yosh futbolchilarda tana massasining eng ko‘p oshishi 16 va 17 yoshlarga to‘g‘ri keladi, bu esa o‘g‘il bolalar vaznining ikkinchi keskin o‘sishiga mos keladi.

Futbolchilarda 15 yoshdan 16 yoshgacha tana uzunligining ortish ko‘rsatkichi yiliga turg‘un holda 3-4 sm ni tashkil qiladi. Agar 15 yoshli maktab o‘quvchilarining tana uzunligi 165 sm ni tashkil qilsa, bu yoshli yosh futbolchilarda bu ko‘rsatkich 169,5±5,74 sm ni, 16 yoshda esa 172,5±9,37 sm ni va 17 yoshda 180,8±8,53 sm ni tashkil qiladi. Pubertat davridagi tana uzunligining keskin o‘sishi tana massasining keskin o‘sishiga hamohang bo‘ladi: bu borada ham keskin o‘sish kuzatiladi - 15 yoshda tana massasi 59,7±7,38 kg ni, 16 yoshda – 63,9+9,92 kg ni tashkil qilsa, 17 yoshda esa 69,7±7,83 kg ga yetadi. Keltirilgan ko‘rsatkichlar o‘sish jarayonining va skeletning morfologik yangilanishi nasliy belgilanganligini ko‘rsatadi, bu holat B.A. Nikityuk, tomonidan 1989 yilda olingan tajribaviy ko‘rsatkichlarga mos keladi. Mualliflarning ilmiy adabiyotlarda keltirilgan dalillariga ko‘ra o‘g‘il bolalarda o‘spirinlik davrida endi jinsiy yetilish davri boshlansa, qiz bolalarda esa bu jarayon oldingi davrda boshlangan bo‘ladi. Bu davrga kelib tana barcha o‘lchovlarining o‘sishi davom etib “pubertat sakrash” tusini oladi. O‘sish tezligi ayniqsa o‘g‘il bolalarda tez ro‘y beradi va o‘spirinlik davrida o‘lchovlar oxirgi davrdagining 90-97% ni tashkil qiladi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishiga ko‘ra antropometrik ko‘rsatkichlardan bo‘lmish tananing vazni va uzunligi ko‘proq mashqlar ta’sirida o‘zgaruvchanlikka ega va har bir sportchining spetsifik xususiyatlarini belgilaydi. Yosh futbolchilarda asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar intensiv o‘sish davriga kirishib, shu bilan maktab o‘quvchilaridan farqlanadilar. Biz o‘tkazgan tadqiqotlarda aniqlanishicha futbolchilar vaznining maksimal ortishi 16 va 17 yoshli davrga to‘g‘ri keladi, bu o‘g‘il bolalarda vaqtiga binoan ikkinchi “sakrab” o‘sish davriga to‘g‘ri keladi, qiz bolalarda esa “sakrab” o‘sish 15 va 16 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Tana vaznining o‘sish davri tana uzunligining usish davriga mos keladi. Maktabda o‘quvchi 15 yoshli bolalarning bo‘yi 165 sm tashkil qilsa, shu yoshdagi futbolchilarning bo‘yi 169,5±5,74sm ga yetadi, 16 yoshli futbolchilarning bo‘yi 172,5±9,37sm ga yetadi. Sportchilarning bo‘yida yuz beradigan pubertat sakrab o‘sish tana vaznida ham bir xil tendensiyani saqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda sportchilarning morfologik ko‘rsatkichlari sportchilar tayyorlash tizimini bashqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, sportchilarning umumiy morfologik belgilarini aniqlashda quyidagi belgilardan foydalanilsa bo‘ladi: tananing vazni va uzunligi, vazn-bo‘yi indeksi - bular birgalikda sportchilarning tana tuzilishini baholashga asos bo‘ladi. 15-17 yoshli sportchilarda muhim morfofunksional tizimlarning shakllanish jarayoni asosan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tugatilishini inobatga olib, shu yoshli sportchilarda antropometrik izlanishlarni to‘liq meyorda o‘tkazdik, ko‘rsatkichlarni tananing total o‘lchamlari bilan bir qatorda parsial belgilar asosida ham tahlil qilib o‘tdik. Bu barcha belgilar nafaqat futbol sport turida balki boshqa sport turlarining mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilganda ham sportchilarning rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Тюленьков С.Ю. Теоретико-методические аспекты управления подготовкой высококвалифицированных футболистов : автореф. дис.д-ра пед. наук. М., 1996. - 54 с.

2. Пшибыльски, В. Требования к физической подготовленности футболистов, определяемые современными тенденциями развития футбола / В. Пшибыльски // Актуальни проблеми фізичної культури и спорту. – 2004. – № 4. - С. 46–52.

3. Сучилин А.А. – Система подготовки футбольного резерва. Волгоград, 1981. - С. 122-126.

4. Ro‘ziqulov B.B. Turli o‘yin ampluasiga qarab yosh futbolchilarni antropogenetik mezonlari va jismoniy tayyorgarligi asosida istiqbolini bashoratlash. Педагогика фанлари бўйича falsafa doktori (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq: “IMPRESS MEDIA” MCHJ bosmaxonasi, 2023. – 64 b.

5. Пулатов А.А. Ёш волейболчилар тезкорлик-куч сифатларини шакллантириш услубияти. // Услубий қўлланма. –Т., 2008. – 38 б.

6. Шамардин А.И. Функциональная подготовка футболистов. М., 2000. - 152 с.

7. Шамардин А.И. Оптимизация функциональной подготовленности футболистов. М., 2000. - 276 с.

8. Сафарова Д.Д Спортивная морфология “Илмий техника ахборот пресс нашриёти” Тошкент 2021. - 248 б.

.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK 37.012

INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXINING RETROSPEKTIV SHARHI

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi
Namangan davlat universiteti
1-bosqich doktoranti
ahmadjonovaodina2020@gmail.com

Annotatsiya*: Bugungi kunda boshqa barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab yangiliklar ,islohotlar amalga oshirilmoqda. Butun dunyo ta'lim siyosatida yangi ta'lim dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Shunday dasturlardan biri STEAM ta'lim texnologiyasidir. Mazkur maqolada STEAM integratsion yondashuvining paydo bo'lishi, turlicha ko'rinishlari haqida ma'lumot beriladi.Ushbu texnologiyaning paydo bo'lgan vaqtidan boshlab bugungi davrgacha bo'lgan ko'rinishlari va tarmoqlari jadval holiga ketirilgan.*

Keywords*:STEM, STEAM, STREAM, 21-asr qobilyatlari, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika.*

A RETROSPECTIVE REVIEW OF THE HISTORY OF THE USE OF STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Akhmadjonova Odina
Namangan State university
1st year PhD student
ahmadjonovaodina2020@gmail.com

Abstract: *In these days, there are a number of innovations and news in the field of education as well as other fields. New approaches are being created and implemented globally and one of these kind of approaches is STEAM educational technology. This article reveals information about development of STEAM and different forms of this educational technology.*

Keywords: *STEM, STEAM, STREAM, 21-century skills, science, technology, engineering, mathematics.*

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ОБЗОР ИСТОРИИ ИСПОЛЗОВАНИЯ ОБРОЗАВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКИМ ЯЗЫКОМ

Ахмаджонова Одина
Наманганский государственный университет
докторант 1 ступени
ahmadjonovaodina2020@gmail.com

Аннотация*: В наши дни появляется ряд нововведений и новостей как в сфере образования, так и в других сферах. Новые подходы создаются и внедряются во всем мире, и одним из таких подходов является образовательная технология STEAM. В этой статье раскрывается информация о развитии STEAM и различных формах этой образовательной технологии.*

Ключевые слова*: STEM, STEAM, STREAM, навыки 21 века, наука, технологии, инженерия, математика.*

Kirish

Bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Butun jahon bo'ylab yangidan yangi ta'lim dasrturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Shunday innovatsion ta'lim dasturlaridan biri STEAM ta'lim texnologiyasidir.Ayni vaqtda jamiyatning ajralmas qismi bo'lmish maktablarda nafaqat o'quvchilarning aqliy qobilyatlarini shakllantirish, balki 21-asr qobilyatlari deya atalgan muloqot qilish, birgalikda ishlash, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik qobilyatlarini shakllantirish ham talab etilyapti. STEAM dasturi yangi asr qobilyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan bir necha dasturlardan biridir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

STEAM ta'lim texnologiyasi yaratilgandan buyon ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari markaziga aylangan .Mazkur integratsion ta'lim yondashuvi bir necha fanlar tarmog'ini o'z ichiga olganligi sababli tadqiqotlar ko'lami ham keng doirani tashkil etadi.Tadqiqotchilardan G.Yakman[11] STEAM ta'lim texnologiyasi nazariyasi asoschisi hisoblanib, u tomonidan olib borilga ishlar ushbu sohadagi barcha ishlarga asos bo'lib xizmat qiladi. M.Sanders[5], S.Harkness, D.Henrikson[8], M.Singh[7]lar STEAM ta'lim texnologiyasining turli yo'nalishlari kesimida tadqiqot ishlarini olib borgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida STEAM integratsion yondashuvi asosida talim berish davlat dasturlarining bosh maqsadi etib belgilangan, dunyoning yetakchi davlatlari AQSH, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Shveytsariya va Yaponiya davlatlari shular jumlasidandir.

Yurtimizda ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida keng ko'lamli islohotlar, yangiliklar olib borilayotganligi , ta'lim subyekti bo'lgan istedodli va iqtidorli yosh avlodni bugungi dunyo iqtisodiy talablariga javob bera oladigan etib tarbiyalash tizimini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-sentabr 2018-yildagi «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–3931-son qarorida umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, shu jumladan STEAM usulini takomillashtirish va bosqichma-bosqich joriy etish haqida so'z borgan[1], shuningdek , 29-aprel 2019 –yildagi 5712-sonli Farmonida "2019-2021 yillar mobaynida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan,texnologiya,muhandislik,san'at va matematika) yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan "Prezident maktablari " ni tashkil etish " to'g'risidagi qaror[2] va farmonlar xalq ta'limi sohasida innovatsion loyihalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ,ta'lim sifatini oshirilayotganligining yaqqol dalilidir.

Asrimiz boshlarida AQSH milliy ilmiy jamg'armasi (NSF)tomonidan mamlakatda texnik mutaxasislar taqchilligini bartaraf etishga mo'ljallangan yangi ta'lim dasturi sifatida STEM ta'lim tizimini yaratildi[3;8].STEM atamasi ilk bor 1990-yilda Dastavval ilm-fan, texnologiya , muhandislik va matematika fanlarini umumlashtirish uchun SMET atamasidan foydalana boshlandi.[4;1] Bu qisqartma ingliz tilida salbiy ma'no beruvchi *smut* so'zi bilan bir xil talaffuz qilinishi sababli , "STEM" atamasiga almashtirildi.[5;22] Shundan so'ng bu ta'lim haqidagi ilk g'oyalar ilmiy nashrlar va ommaviy axborot vositalarida paydo bo'la boshladi. O'shandan beri bu shakldagi ta'limni rivojlantirish AQSh davlat siyosatining muhim strategiyalaridan biriga aylandi. Keyinchalik global texnologik taraqqiyot tufayli butun dunyoga yoyila boshladi. STEM

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

atamasi ilk bor 1990-yilda AQSHda bakteriolog R.Kolvel tomonidan taklifqilingan bo'lsada[6;82], 2001 yillardan boshlab yana bir AQShlik biology olim D.Ramali tomonidan keng qo'llanila boshlangan.

Vaqtlar o'tib, STEM ta'limining bir qancha ko'rinishlari paydo bo'la boshlagan.STEM ta'lim borasida bir qancha taqdiqotlar olib borilishi natijasida, tadqiqotchi G. Yakman boshchiligida 2006 –yilda fanlar qatoriga Art-san'at fanlari qo'shilish natijasida STEAM atamasi paydo bo'ldi [7;2].STEAM bu STEM ning yangicha ko'rinishi edi. STEM ra A- san'atni tadbiq etishdan asosiy maqsad ta'lim jarayonini qiziqarli va badiiy bo'lishini ta'minlash, ijodiy fikrlash hamda ijodiy faoliyat jarayonini tashkil etishdan iborat bo'lgan.Chunki , ayrim tadqiqotchilar STEM fanlarini o'rganish salbiy munosabatlarga sabab bo'luvchi birqancha qiyinchiliklar tug'diradi deb hisoblar edilar. Bu omil esa STEM dastur tashkilotchilariga yangicha yondashuv yaratishga turtki berdi[8;35]. Ushbu yangicha yondashuv talabalarning o'rganish jarayonlarini qiziqarli va quvnoq tarzda bo'lishiga sabab bo'libgina qolmay , ularda ijodkorlik va yaratuvchanlik qobilyatlarini shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, STEM dasturiga "A" ning qo'shilishi tanqidiy fikrlash hamda amaliy san'at sohalarini hamkorligini bildiradi.Bundan maqsad esa, olimlar va san'at kishilari g'oyalarini uyg'unlashtirgan holda haqiqiy innovatsion loyihalarga erishishdir.[9;2]

Tadqiqotchi G.Yakman STEAM –bu yangi ta'lim nazariyasini anglatuvchi fanlar tuzilmasi hamda STEM ta'limga asoslangan yo'nalish deb ta'riflaydi va shunday deydi : "An'anaviy S-T-E-M dasturidagi ilm-fan, texnologiya, muhandislik, matematika fanlari har biri alohida ta'lim hisoblanadi.Ularning har biri o'z tajribalariva mezonlariga asoslanadi va o'zaro ma'lum jihatlari bilangina uyg'unlashadi.STEM fanlarini Art-San'at bilan uyg'unlashtirish, ta'lim oluvchilarga murakkab masalalarni hal etishda ham mantiqiy ,ham ijodiy fikrlash ko'nikmalarni shakllashtirishga xizmat qiladi. Art- atamasi juda keng qamrovli fanlarni o'z ichiga oladi. [10;3]STEAM – yangi ta'lim nazariyasini qo'llab quvvatlovchi fanlar tizimidir va har bir fan tarmog'i quyidagilarni o'z ichiga oladi:

S- Science –tabiiy fanlar-borliqda mavjud bo'lgan , inson omili qatnashmagan nars, voqea-hodisalar ilmi. Fizika, Biologiya, Geografiya, Kimyo, Biokimyo,Koinot ilmi, Biotexnologiya singari fanlarni o'z ichiga oladi;


T-Texnologiya fanlari – inson ehtiyojlari va xohish-istaklarini qondirish maqsadida buyumlar yaratish haqidagi fan, jumladan,Energetika, Transportlashtirish, Sanoat , Ishlab chiqarish va boshqalar;

E- Engeneering-Muhandislik fanlari-tabiiy fanlar, matematikaga asoslanib texnologiyalar yordamida mantiq hamda yaratuvchanlik qobilyatlarida foydalanish.Kosmik Muhandislik, Qishloq Qurilish Muhandisligi,Kon muhandisligi va boshqalar;

M-Matematika fanlari- raqamlar ustida amallar. Algebra, Geometriya, Ma'lumotlar ilmi, Ehtimollik nazariyasi, Sabab & Oqibat singari bo'limlarga bo'linadi;

A-Art- San'at- jamiyatning rivojlanishi, ta'sirlari hamda o'tmish, bugungi kun va kelajakda uning an'analari va jarayonlarining qanday qabul qilinishini o'rganadi. Ta'lim, Siyosat, Falsafa, Til va Adabiyot,Falsafa va Tarix fanlari San'at fanlar tarmog'iga kiradi. STEAM fanlar tarmog'ini , nazariyotchi G.Yakman quyidagi logotip orqali tasvirlab bergan:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Tadqiqotchi G.Yakman tomonidan yaratilgan STEAM ta'lim texnologiyasi logotipi

Tadqiqotchi Yakman STEAM fanlari orasidagi aloqadorlikni quyidagicha talqin etgan : "Bugungi kunda San'at va Matematikani tushunmay turib Muhandislik sohasida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydigan hamda Texnologiyasiz Ilm-fanni anglab bo'lmas bir olamda yashayapmiz"[11;4]. STEM hamda STEAM ta'lim texnologiyalari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobilyati bilan bog'liq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'limiy yondashuvni anglatsa, STEAM esa o'quvchilarda ijodiy fikrlash va san'atni real hayotiy vaziyatlarga bog'lash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi[12;8].

STEM ta'lim texnologiyasi ustida keng doirada tadqiqotlar olib borilishi natijasida STEAM ga aylandi. O'zgarishlar davom etmoqda va kelajakda ham bu ta'limiy yondashuv tarmog'lari kengayib borishi mumkin. Buning yaqqol dalili sifatida, 2019 yili, Malaysiya davlatida o'tkazilgan Bett summitida ,Malayziya ta'lim vaziri Maszle Malik tomonidan Malaysiya STEAM siyosatini STREAM (tabiiy fan,texnologiya, o'qish, san'at va matematika) ga o'zgartirish ehtiyoji tug'ilgani ta'kidlangan[13;2]. Chunki, barcha bilimlarning asosi o'qish orqali o'zlashtiriladi, shu bois, ta'lim oluvchilarga o'qish texnikasini o'rgatish eng muhim masala hisoblanadi. STEM ta'lim dasturi yaratilganidan boshlab , turli davlatlar , tashkilotlar o'zagi tabiiy fan,texnologiya, muhandislik va matematika fanlaridan tarkib topgan , lekin unga turli sohalar qo'shilgan turlarini o'z davlat dasturlariga kiritib kelishyapti. Bunga yaqqol misol Germaniya davlati ta'lim dasturida qabul qilingan MINT yondashuvidir. MINT(matematika, informatika, tabiiy fanlar va texnologiya) yondashuvi integratsin ta'lim beruvchi fanlar tarmog'ini o'qitishga mo'ljallangan.Bu kabi misollar jahon davlatlari ta'lim tizimida ko'plab topilishi mumkin. Tegishli adabiyotlar tahlili natijasida , STEM ning shu paytgacha qo'llanilgan turli ko'rinishlarini umumiylashtirib, jadval ko'rinishiga keltirdik.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

№	Qisqartmalar nomi	Ingliz tilida kengaytirma nomi	O'zbekcha tasnifi
1	STEM	Science, Technology, Engineering, Mathematics	Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikafanlarini birlashtirib o'qishga yo'naltirilgan yondashuv
2	A-STEM	Arts, Science, Technology, Engineering, Mathematics	San'at, Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikafanlarini birlashtirib o'qishga yo'naltirilgan yondashuv[14;5]
3	eSTEM	Environment Science, Technology, Engineering, Mathematics	STEM yondashuvini o'rta va yuqori maktabda joriy etishni atro muhitni muhofaza qilish maqsadida atrof-muhit , fan, texnologiya ,muhandislik hamda matematika sohalarini uyg'unlashtirib o'qitish.
4	GEMS	Girls in Engineering, Maths,and Sciences	Ayol -qizlarni muhandislik, matematika, fan sohalariga ishtirokini oshirishni qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etilgan yondashuv [15 ;8]
5	MINT	Mathematics, Informatics, Natural sciences, Technology	Germaniya ta'lim dasturiga matematika,informatika, tabiiy fanlar va texnologiyani birgalikda o'qitish maqsadida yaratilgan yondashuv.[16;42]
6	STEAM	Science, Technology. Engineering, Arts, Mathematics	Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan fan, texnologiya, muhandislik, san'at fanlarini birlashtirib o'qitish ga mo'ljallangan ta'lim texnologiyasi.
7	STEAM	Science, Technology, Engineering, Applied Mathematics	Fan, texnologiya, muhandislik fanlarini amaliy matematika fani bilan uy'g'inlikda o'rgatishga asoslangan ta'limiy texnologiya.[17;6]
8	STEEM	Science, Technology, Engineering, Economics, Mathematics	Tabiiy fan, texnika fanlai, muhandislik, iqtisod va matematika fanlarini integratsion holda o'rgatish tizimi.[18;7]
9	STEMIE	Science, Technology, Engineering, Mathematics Invention, Entrepreunership	Fan, texnologiya,muhandislik,matematika, kashfiyot va tadbirkorlik sohalarini uy'g'unlashtirib ta'lim jarayoniga tatbiq etish texnologiyasi.[19;5]
10	STEMM	Science, Technology, Engineering, Mathematics,	Ta'lim oluvchilarga fan,texnologiya,muhandislik,matematika va tibbiyot fanlarini mujassamlashtirgan holda o'qitish.[20;5]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

		Medicine	
11	STREAM	Science, Technology, Robotics, Engineering, Arts, Mathematics	Tabiiy fanlar,texnologiya, Robototexnika, muhaandislik,san'at va matematika fanlarini uy'g'unlashtirgan tarzda ta'lim berish.[21;8]
12	STREAM	Science, Technology, Reading+wRiting Engineering, Arts, Mathematics	O'qish va yozish orqali fan , texnologiya,muhandislik,san'at va matematika fanlarini hamkorlikda o'rgatishga asoslangan ta'lim texnologiyasi.

1-jadval. STEM ta'lim texnologiyasining turlicha ko'rinishlari.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, STEAM ta'lim texnologiyasiga so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar tomonidan eng ko'p amaliyotga joriy etilgan ta'limiy yondashuv sifatida qaralmoqda.O'z ta'lim siyosatida ushbu yondashuvga asoslangan davlatlar asosi STEM fanlar ya'ni ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika bo'lgan ,lekin o'z rivojlanish yo'llariga moslashtirilgan (yuqoridagi jadvalda keltirilgan)davlat ta'lim standartlaridan foydalanib kelishmoqda. Ko'rinishi qanday bo'lmasin STEM fanlari barcha sohalar rivojida o'zini oqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-sentabr 2018-yildagi «Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–3931-son qarori-Elektron resurs https://lex.uz/ru/docs/-3893416?ONDATE=06.09.2018
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son farmoni. - Elektron resurs https://lex.uz/docs/4312785
3. Dugger W.E. (2010). Evolution of STEM in the United States. In the Biennial International Conference on Technology Education, 6. Gold Coast, Queensland, Australia.
4. Hallinen, Judith. "STEM". Encyclopedia Britannica, 22 Oct. 2023, https://www.britannica.com/topic/STEM-education. Accessed 1 November 2023.
5. . Sanders M. (2009). Integrative STEM education: primer. The Technology Teacher, 68(4), 20-26. Retrieved from https://www.iteea.org/File.aspx?id=56320
6. Фролов А.В. Роль STEM-образования в «новой экономике» США // Вопросы новой экономики. 2010. № 4 (16). С. 80-90.
7.Singh, M. (2021). Acquisition of 21st Century Skills Through STEAM Education. Academia Letters, Article 712. https://doi.org/10.20935/AL712.
8. Henriksen, D. (2017). We teach who we are: Creativity and trans-disciplinary thinking among exceptional teachers, (Doctoral Dissertation), Michigan State University, Retrieved from: ProQuest Dissertations and Thesis, Retrieval Date: 01.07.2023
9. Singh, M. (2021). Acquisition of 21st Century Skills Through STEAM Education. Academia Letters, Article 712. https://doi.org/10.20935/AL712.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

10. Yakman,G.What is the point of STEAM?- A brief overview.2010
11. G.Yakman. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative educationhttps://www.facebook.com/georgetteyakmanSTEAM
12. STEM-образование в России и мире. С кем быть? Каким быть? // Качество образования. 2014. № 11. С. 52-55
13. Lim, M. (2019, March 27). The move from STEM to STREAM will boost employment. Free Malaysia Today
14. Shenzhen City Longgang District Education Bureau, China (27 August 2018). "The Guidance of A-STEM Curriculum Construction in Longgang District Shenzhen City" (PDF). *g.gov.cn*.
15. "Girls in Engineering, Math and Science (GEMS)". *GRASP lab*. 2015-04-06..
16. Locherer, M.; Hausamann, D.; Schüttler, T. (July 22, 2012). "Practical science education in remote sensing at the DLR_School_Lab Oberpfaffenhofen". *2012 IEEE International Geoscience and Remote Sensing Symposium*. pp. 7389–7392. doi:10.1109/IGARSS.2012.6351922
17. "Virginia Tech and Virginia STEAM Academy form strategic partnership to meet critical education needs". *Virginia Tech News*. 31 July 2012
18. Yordanova Krumova, Milena (September 2021). "STEEM and re-Project-Based Learning Design: A Case Study about Learning Economics by IT Students at School"
19. "Home". *STEMIE Coalition*. Archived from the original on May 13, 2020.
20. "Youth Stemm Award". *ysawards.co.uk*. Retrieved 02 August 2023
21. "How to Connect Science, Technology, Engineering, Robotics, Arts, and Math in the Classroom". *EDWEB.net*. July 19, 2016. Retrieved October 5, 2022

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UO‘K:159.9.072.533

OILA MUSTAXKAMLIGIDA ETNOPSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jo‘rayev Atxam Qoraqulovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Psixologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada oilaviy mustaxkamlikni taminlashda, oilaviy demografik munosabatlar, o‘zbek oilasining hayoti, undagi o‘zaro munosabatlar, uning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlari, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlari hamda oilaviy etnik munosabatlarni mustahkamlashda milliy ta’lim tarbiyaning va etnopsixologik xususiyatlari haqida.*

Kalit so‘zlar: *Oila, oilaviy ta’lim tarbiya, etnik qarashlar, etnopsixologik xususiyatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЕЙНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Джураев Атхам Каракулович
Предподователь психологический наук Термизский экономический и сервисный университет

Аннотация: *В данной статье семейно-демографические отношения, быт узбекской семьи, взаимоотношения, ее обычаи, традиции и ценности, образ жизни, культура, воспитательная среда и условия труда, а также семейно-этническая об этнопсихологических особенностях национального воспитания и воспитание в укреплении отношений.*

Ключевые слова: *Семья, семейное воспитание, этнические взгляды, этнопсихологические характеристики.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ETHNOPSYCHOLOGICAL RELATIONS IN FAMILY STABILITY

Jurayev Atkxam Korakulovich
Teacher of Psychological Sciences Termiz Economic and Service University
E-mail: ***ustozjurayev@gmail.com***

Annotation: *In this article, family and demographic relations, the life of the Uzbek family, relationships, its customs, traditions and values, lifestyle, culture, educational environment and working conditions, as well as family and ethnic about the ethnopsychological features of national education and education in strengthening relations.*

Keywords: *Family, family education, ethnic views, ethnopsychological characteristics.*

Kirish

Bugungi kunda barcha davlatlarning ravnaqi va rivojining asosi, shubhasiz unda istiqomat qilayotgan turli etnomadaniy, milliy guruhlarga tegishli elat va millat vakillarining tinch-totuv va farovon hayoti, barqaror o‘zaro munosabatlari va bag‘rikengligiga borib taqaladi. Mamlakatda mavjud o‘zga millatlar madaniyatiga ijobiy munosabatda bo‘lish, ularning milliy qadriyatlari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash, madaniy meroslarini oyoq osti qilmaslik va ularni kelajak avlod uchun asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jumladan, X. Toshtemirov L.S. Yaxyoyev G.M. Hamidova T.T. To‘ychiyeva M. Xolmatovalar tomonidan oilaviy turmushning falsafiy va etnopsixologik jihatlari, oila-nikoh munosabatlarining takomillashish an’analari, qadriyatlar, madaniy va marifiy urf odatlar, va hozirgi zamon o‘zbek oilasining turmush tarzi o‘rganilgan. Sh.A. Isroilov, F.M. Otaxo‘jayev va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘zbek ayollarining huquqiy masalalari, oila-nikoh munosabatlarining huquqiy jihatlarini o‘rganganlar. M.R.Bo‘riyeva o‘z tadqiqotlarida o‘zbek oilasining demografik [17] jihatlarini tadqiq etgan. Mazkur jarayonning psixologik xususiyatini B.Z. Umarov esa o‘z ishlarida o‘zbek oilasining sotsiologik jihatlarini tadqiq etgan. Ayniqsa, Respublikamiz pedagog olimlarining mazkur sohada amalga oshirgan tadqiqotlari e’tiborga loyiqdir. A.Q. Munavvarov M.I. Sangilov O. Musurmonova H. Uzoqov O. To‘rayeva va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘zbek oilasining o‘ziga xosligi, tarbiyaviy imkoniyatlari va shart-sharoitlari, o‘zaro munosabatlar shakllanishining ma’naviy asoslarini keng o‘rganganlar [2]. Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obektiga aylanib bormoqda.

Bu sohada psixolog olimlardan G‘.B. Shoumarov, E. G‘oziyev, V.M. Karimova, M.G. Davletshin hamda boshqa izlanuvchilar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir [3, 4, 5, 2]. Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G‘.B. Shoumarov o‘z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushishi muhim rol o‘ynaydi deb takidlaydi.

Natijalar va ularning tahlili. Ijtimoiy-tarixiy va ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o‘zbek oilasining hayoti, undagi o‘zaro munosabatlar, uning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlari, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlari jiddiy ilmiy muammolar sifatida. XX asrning 60-70 yillaridan e’tiboran o‘rganila boshlandi. Ana shu yillardagi dastlabki tadqiqotlar ko‘proq falsafiy, tarixiy, etnografik yo‘nalishdagi va oilaning tarbiyaviy va mehnat shart-sharoitlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar o‘z xarakteriga ko‘ra, oilaning madaniy, huquqiy, tibbiy, uning turmush tarzi, undagi tarbiya muhitining ahamiyati, o‘zaro munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotlar sarasiga quyidagilarni keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Bu borasida buyuk bobokalonlarimizning ham milliy etnopsixologik qarashlarini takidlab o‘tishimiz mumkin, sharq mutafakkiri Forobiyning ta`lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalri haqidagi qarashlari ham qimmatlidir [1]. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l ta`lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi.

- Ta`lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi.
- Ta`lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi.

[17] **Demografik** (*hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lishi jarayoni va omillarini o‘rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko‘rsatib berishdan iborat*) jihatlarini tadqiq etgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi. Forobiy ta`limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada qadimiy ma`naviy axloqiy qoidalar, odob me`yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

U o‘zaro munosabatlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo‘linishni e’tirof etadi. Ular quidagilar hisoblanadi:

- Biologik
- Psixologik
- Sotsial

Ba’zi hollarda shaxsning individual xususiyatlari bo‘lmish mijoz turi jihatidan kelin-kuyovlar mos kelmasa-da, lekin ular orasidagi hissiyot kuchi, psixologik pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy va ma’naviy saviya darajasi, o‘zaro munosabat maromlari ularning o‘zaro ijobiy munosabatini, oilaning mustahkamligini ta’minlay oladi deb takidlaydi [3].

Yosh oilalarda milliy madaniyat, etnopsixologik xususiyatlar ya’ni, alturizm[18] (mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik) xudbinlikdan ustun bo‘lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug‘dirmaydi. Shuningdek, psixologik bir biri bilan o‘zaro ijobiy munosabat o‘rnatishda, markaziy o‘rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan fe’l-atvor va xarakter jihatlari egallashi alohida ta’kidlanadi.

Professor E. G‘oziyevning oilaviy hayot muammolari sohasida olib borilayotgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Olimning ta’kidlashicha, oilaviy munosabatlar turli negiz; iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy irodaviy, axloqiy-aqliy, hamda etnopsixologik qarindosh-urug‘chilik, yaqinlik va do‘stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta’minlanadi. Olimning fikricha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoki yangi oilalar qurishda ana shu muhim asoslarga e’tibor berish va ba’zi bir narsalardan ogoh bo‘lish zarur. “Oila but bo‘lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo gender tenglikni qaror toptirish kerak. Ikki yosh, ya’ni bo‘lg‘usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o‘rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko‘z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni yengishga, o‘zgacha shart-sharoitga ko‘nikishga bolalikdan o‘rgatib borish lozim deb takidlaydi. Eng muhimi ular o‘rtasida chin muhabbat bo‘lishi darkor, Oilada mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ayni muddaodir”.

Professor E. G‘oziyev o‘z tadqiqotlarida oilada yuzaga keladigan ziddiyatlar va oila buzilishlari haqida ham alohida to‘xtalib, uning muayyan sabablari: er-xotinning xarakter jihatidan mos tushmaganligi, farzand ko‘rmaslik, kelinning ma’naviy va jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, moddiy ta’minotdagi kamchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an’ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo‘yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo‘qligi, qarindosh-urug‘chilikdagi ko‘ngil buzar ishlar mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, E.G‘oziyevning bu sohadagi ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularda o‘zbek oilasidagi shaxslararo munosabatning o‘ziga xosligi, oila barqarorligining ijtimoiy-psixologik mezonlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar borligini ko‘ramiz [5].

[18] Altuizm (lot. alter-boshqa, boshqalar) – boshqalarning farovonligi uchun beg‘araz g‘amxo‘rlik bilan bog‘lik faoliyatini anglatuvchitushuncha, fidoyilik tushunchasi bilan bog‘liq ya’ni o‘z manfaatini boshqa birovning manfaati uchun qurbon qilish bilan bog‘liq.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

V.M. Karimova o‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o‘zbeklarning oilaviy psixologiyasining o‘ziga xos tomonlari haqida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o‘rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g‘oyalarni ilgari surgan. Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoy tasavvurlar murakkab va ko‘p komponentli etnopsixologik tizimlar bo‘lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o‘zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta’lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a’zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta’minlaydi.

V.M. Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o‘zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya’ni oilaning katta yoki kichikligi, to‘liq yoki noto‘liqligi, undagi rollar, jinsiy o‘zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo‘nalishida aks etishi aniqlangan. Oiladagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo‘lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan [6]. Etnopsixologik milliy qadriyatlarning oila va farzand tarbiyasidagi axamiyati haqida professor M.G. Davletshin tadqiqotlarida o‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari keng qamrovli o‘rganilgan, shuningdek, ta’lim tizimida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni keng qamrovli ijobiy tashkil etishda etnopsixologik omillarni e’tiborga olish masalalari, etnopsixologik xususiyatlarning mohiyati, O‘zbek psixologlari tomonidan fanda o‘rganilganlik darajalari nazariy yo‘nalishda tahlil qilinadi. Olib borilgan o‘z tadqiqot ishlarimizda o‘zbek oilalarida kuzatiladigan ajralishlarning etnopsixologik xususiyatlari, ajralishga olib keluvchi muhim omillar, uning motivlari va sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Hozirgi davrda oila buzilishining umumiy sabablariga to‘xtalar ekanmiz, o‘zbek milliy-madaniy muhitida ana shu sabablarning qaysi birlari kuchliroq ta’sirga ega ekanligini o‘zbek qishloq va shahar oilalari misolida hamda erkak va ayollarda qanday kechish holatini aniqlashga erishgan [7].

Ba’zi bir yoshlar oila qurib ota-onalik funksiyasini yetarli darajada bajara olmasliklari, bu holat esa yosh oilalarda bir qator qiyinchiliklar va muammolarga sabab bo‘layotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga binoan, tadqiqotda yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini kuchaytirish, ularning shu sohaga oid vazifa va burchlarini bajarishi murakkab hamda ko‘p qirrali jarayon ekanligi ta’kidlanib, oila qurgan yoshlar turmush tarzini kuzatib borish asosida undagi ixtiloflarning oldini olish va bartaraf etish uchun psixoproflaktik chora-tadbirlarni keng qo‘llash zarurligi ta’kidlangan. Oila barqarorligini ta’minlaydigan omillarning qarama-qarshisi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo‘lgan omillar ta’sirida kelib chiqadigan o‘zbek xotin-qizlari orasida o‘z joniga qasd qilish kabi hodisalarning oila-nikoh munosabatlariga salbiy ta’sirini ilmiy-psixologik jihatdan o‘rgangan. Oilaviy etnik munosabatlar borasida rahbar ayollar haqida quyidagicha tarif bergan. Olib borirlgan tadqiqotlardan kelib chiqib shuni bildikki rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratigan bo‘lib, unda rahbar ayollarning faoliyati ularning ijtimoiy-psixologik tuzilmasini ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan xulqni muvofiqlashtirish jarayonida tarkib topishi, takomillashishi va rivojlanib borishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, rahbarga xos shakllangan sifat va fazilatlar (ijtimoiy, psixologik va madaniy) oilada shaxslararo munosabatlarning barqarorlashuviga, undagi tarbiyaviy-psixologik, muhitning yanada yaxshilanishiga ijobiy ta’sir etishi ko‘rsatib o‘tilgan. Olib borilgan tadqiqotlarimizda Termiz oilalarining etnopsixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Termiz oilalari milliy madaniyatida etnik xususiyatlarga rioya qilingan holda vorislik saqlanib kelmoqda. Termiz oilalarining etnopsixologik xususiyatlari o‘zbek xalqi istiqomat qilayotgan boshqa hududlardan o‘zining tarixiy kechishi, makoni, madaniyati, ma’naviyati va turmush tarzi bilan muayyan darajada farqlanishga ega. Mazkur xususiyatlar, oilaviy turmush jarayonida o‘zining psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy qirralarini namoyon qiladilar. Ulardagi psixologik muhitning muayyan shaklda saqlanib turishiga ta’sir ko‘rsatadigan kelinlarning o‘rni, nufuzi, hududda bir muncha tafovutga ega. Tadqiqotlar natijalariga tayanib, hozirgi o‘zbek xalqining oilaviy munosabatlarida etnopsixologik xususiyatlarga amal qilinishiga qarab quyidagicha oila toifalarini farqlashni taklif etadi:

- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda qonun darajasida qabul qilingan oilalar.
- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda hayotiy me’yor darajasida qabul qilingan oilalar:
- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda o‘z aksini topmagan oilalar

ilmiy izlanishlarim davomida o‘zbek oilalarda ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Muayyan darajada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida oila-nikoh munosabatlari, uning barqarorligini ta’minlashning ba’zi omillari to‘g‘risidagi ilg‘or qarashlarni va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatidagi tadbirlarni tahlil qilarkan, oila-nikoh munosabatlarining jiddiy jihatlaridan biri sifatida hali ham oilalarning buzilishi - ajralishlar borligini alohida ta’kidlab o‘tadi. O‘z ilmiy tadqiqotimizga ko‘ra, ajralish va uning asoratlari o‘zbek oilalarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ko‘p bolalilik, uning murakkab tuzilmaliligi, qarindosh-urug‘chilik aloqalarining kuchliligi, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko‘proq saqlanib kelganligi, o‘zbek oilasida ajralish boshqa xalqlarnikiga nisbatan qoralanishi, er-xotinlarning turmush darajasi, bilim saviyasi, muloqot madaniyati va shu kabilar bilan asoslanadi [11].

Xulosa qilib aytganda o‘zbek oilalaridagi ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda, shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida muammoli va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, er-xotin va ularning yaqinlari orasida nizolar hamda ziddiyatli holatlarning keskinlashuvi saqlanib qolishi, ajralish tufayli yuzaga kelgan, noto‘liq oilalar bolalari shaxsiga, ularning ruhiyatiga, etno madaniy qadriyatlariga, o‘zaro munosabatlarda, ta’lim-tarbiya jarayonida va millatlararo munosabatlarda jiddiy salbiy ta’siri ilmiy asoslangan. Tadqiqotlarimiz jarayonida shunga amin bo‘ldikki pedagogik va psixologik ta`limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya`ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tavsiya etgan ta`lim – tarbiya

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

usullari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir. Har bir millat o‘ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy tarzining majmuasida, ya’ni milliy ruhiyatida o‘z ifodasini topadi. O‘zbek xalqining o‘z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy tuyg‘usi, temperamenti, xulq – atvori, axloqi, didi, ta’bi alohida ajralib turadi. O‘zbek millatining bilish jarayonlari, qobiliyatining aniq yo‘nalishga qaratilganligi ehtiyoji va qiziqishi, milliy ongi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

O‘zbek xalqining tarixiy an’analari, urf-odatlari, udumi, marosimlari, axloq me’yori, turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabati, muomala maromi va xususiyati boshqa qardosh xalqlarnikidan ma’lum darajada tafovutlanadi. Masalan, o‘zbek xalqi xarakterida andishalilik, xushmuomalalik, shirinsuhanlik, mehmon kutishdagi qo‘li ochiqlik va sahiylik odatlari mavjud. O‘zbek oilasida bola tarbiyasi mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejasi, bolalarga ta’sir o‘tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib har tamonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan xalqimizning milliy ruhiyatidagi bunday urf – odatlar, etnopsixologik an’analar kelajak avlodga meros sifatida qoldirilishi muqaddas burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent 2016. – 320 b.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbyek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. T. 1993. – 304 b.
3. Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. - Toshkent 1994. – 278 b.
4. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya metodologiyasi. - T., 2002. – 307 b.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o‘zaro munosabatlariniig roli. / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammo-lari. Resp. Ilm. amal. anj. ma’ruz. qisqacha bayoni. - Toshkent, 1993. – B. 106-108.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o‘zaro munosabatlariniig roli. / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. Ilm. amal. anj. ma’ruz. qisqacha bayoni. - T., 1993. – B. 102-105.
7. To‘rayeva O‘. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – Toshkent, 1990. – B. 76-93.
8. Davlatshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish yo‘llari. o‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. ilm. amal. anj. ma’ruz. qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993.
9. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007.
10. Turayeva D.R., Sharapova S.D., Mamanova S. Etnopsixologiya. – Guliston, 2022. – B. 201-216.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK: 51(075)

BA'ZI MURAKKAB SONLARNING BO'LINISH BELGILARI VA MAVJUD BO'LINISH BELGILARIGA YANGICHA YONDASHUV

Erdonov Bekmurod Xolboy o'g'li
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: bekmurod.erdonov@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 10 bilan o'zaro tub bo'lmagan ba'zi sonlar uchun bo'linish belgilari yagona qoida asosida keltirilib isbotlangan va misollar qo'llanilishi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *tub son, murakkab son, taqqoslama, sonli ifoda.*

ДЕЛЕНИЯ НЕКОТОРЫХ КОМПЛЕКСНЫХ ЧИСЕЛ И НОВЫЙ ПОДХОД К СУЩЕСТВУЮЩИМ РАЗДЕЛЕНИЯМ

Эрдонов Бекмурод Холбой ўғли
Базовый докторант Термезского государственного университета
E-mail: bekmurod.erdonov@mail.ru

Аннотация: *В данной статье представлены и доказаны на основе единого правила знаки деления некоторых чисел, не простых до 10, а также показаны примеры.*

Ключевые слова: *простое число, сложное число, сравнение, числовое представление.*

DIVISIONS OF SOME COMPLEX NUMBERS AND A NEW APPROACH TO EXISTING DIVISIONS

Erdonov Bekmurod Xolboy o'g'li
Basic doctoral candidate at Termez State University
E-mail: bekmurod.erdonov@mail.ru

Abstract: *In this article, division signs for some numbers that are not prime to 10 are given and proved based on a single rule, and examples are shown.*

Key words: *prime number, difficult number, comparison, numerical expression.*

Kirish

Maktab o'quvchilariga fanlardan chuqur bilim berish bilan birgalikda berilayotgan bilimlarni hayotda qanday qo'llash mumkinligini o'rgatish hozirgi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Matematika fanida ta'rif, teorema va tushunchalarni o'quvchiga hayotiy va sodda qilib tushuntirish mushkul vazifalardan biridir. Surxondaryo viloyati makatablari matematika o'qituvchilaridan olingan so'rovnomalarda berilgan takliflardan biri bu – matematika kursida berilgan bo'linish belgilari mavzusidagi murakkab sonlarga yagona qoida asosida bo'linish belgisi hosil qilish masalasi bo'ldi. Biz ushbu masala yuzasidan ba'zi murakkab sonlarga yagona bo'linish qoidasini yaratishga e'tibor qaratdik.

Adabiyotlar tahlili

Maktab 6-sinf matematika darsliklarida sonni tub sonlar ko'paytmasi shaklida keltirish mavzusi berilgan. Ushbu mavzu bo'yicha kattaroq sonlarni tub sonlar ko'paytmasi shaklida ifodalash masalalalarini hal qilishda sonlarning bo'linish belgilari muhim hisoblanadi. Bizga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ma'lumki darsliklarda 2, 3, 4, 5, 8, 9, 10, 11, 25 sonlariga bo'linish belgilari berilgan. Ba'zi adabiyotlarda 7, 13, 17, 19, 23 sonlariga bo'linish belgilari ham berilgan. [1] maqolada 10 soni bilan o'zaro tub bo'lgan barcha sonlar uchun bo'linish belgilari umumiy holda berilgan.

Odatda murakkab sonlarga bo'linish belgilari uni o'zaro tub ko'paytuvchilarga ajratib, hosil bo'lgan ko'paytuvchilarning bo'linish belgilari orqali hal qilinadi. Bunda ko'paytuvchilarning har biri uchun bo'linish belgilari alohida tekshiriladi. Endi haqli savol tug'iladi, umumiy holda bo'linish belgilari berilmagan murakkab sonlar ya'ni 6, 12, 14, 15, 18, … sonlar uchun yagona bo'linish belgilari mavjudmi? Dusumbetov A., Turgunbayev R. [2] maqolasida 10 bilan o'zaro tub bo'lmagan sonlarga yagona bo'linish qoidasi berilgan, ammo bu qoidani qo'llash bir necha bosqichni va katta sonlar bilan hisoblashlarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Biz ushbu maqolada [1] maqolada berilgan bo'linish belgilarini to'ldirgan va [2] maqolada berilgan hisoblashlardan soddaroq bo'lgan, 10 bilan o'zaro tub bo'lmagan ba'zi sonlar uchun bo'linish belgilariga to'xtalamiz.

Tahlil va natijalar

1-teorema. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 6 ga bo'linishi uchun uning birlar xonasidagi raqami va qolgan raqamlari yig'indisining to'rtlanganining yig'indisi 6 ga bo'lishi yetarli.

Isboti: Sonlar nazariyasidan bizga ma'lumki $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 6 ga bo'linishi uchun

$$\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n} \equiv 0(\mathrm{mod}\,6) \qquad (1)$$

bo'lishi yetarli. (1) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida yozsak quyidagi ko'rinishga keladi [3] (36-38 betlarga qarang)

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(\mathrm{mod}\,6). \qquad (1`)$$

Lemma. $10^n \equiv 4(\mathrm{mod}\,6)$ $(n \in N)$ bajariladi.

Isboti. Matematik induksiya metodiga asosan isbotlaymiz. $n=1$ bajarilishi tushunarli. $n=k$ da o'rinli deb $n=k+1$ da o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. $n=k$ da $10^k \equiv 4(\mathrm{mod}\,6)$ o'rinli deb hisoblaymiz. Oxirgi taqqoslamani ikkila qilsmini 10 ga ko'paytiramiz $10^{k+1} \equiv 40(\mathrm{mod}\,6)$ yoki $10^{k+1} \equiv 4(\mathrm{mod}\,6)$ natijani olamiz. Bu natija lemmani isbotlaydi.

(1`) taqqoslamani $10^n \equiv 4(\mathrm{mod}\,6)$ $(n \in N)$ ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 4 + a_1 \cdot 4 + ... + a_{n-1} \cdot 4 + a_n \equiv 0(\mathrm{mod}\,6)$$

yoki

$$4 \cdot (a_0 + a_1 + ...a_{n-1}) + a_n \equiv 0(\mathrm{mod}\,6)$$

ko'rinishida yozishimiz mumkin. Bu 1-teoremani isbotlaydi.

Misol. *a)* 738 soni 6 ga bo'linishini yuqoridagi 1-teorema yordamida tekshiramiz. $4 \cdot (7+3)+8=48$, 48 soni 6 ga qoldiqsiz bo'linadi, demak 738 soni ham 6 ga qoldiqsiz bo'linadi.

b) 5873 soni 6 ga bo'linmaslini tekshiramiz. $4 \cdot (5+8+7)+3=83$, 83 soni 6 ga bo'linmaydi, demak 5873 soni ham 6 ga bo'linmaydi.

2-teorema. $\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 12 ga bo'linishi uchun, uning oxirgi ikki raqamidan tuzilgan son va qolgan raqamlari yig'indisining to'rtlanganining yig'indisi 12 ga bo'linishi yetarli.

Isboti. $\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 12 ga bo'linishi uchun

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$$\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n} \equiv 0(\text{mod}12) \quad (2)$$

bo‘lishi yetarli[4]. (2) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 100 + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(\text{mod}12)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^n \equiv 4(\text{mod}12)$ $(n \geq 2,\ n \in N)$ (yuqoridagi lemma o‘xshash matematik induksiya metodi asosida isbotlash mumkin) ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 4 + a_1 \cdot 4 + ... + a_{n-2} \cdot 4 + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(\text{mod}12)$$

yoki

$$4 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-2}) + \overline{a_{n-1}a_n} \equiv 0(\text{mod}12)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 2-teoremani isbotlaydi.

Misol. *a)* 5832 soni 12 ga bo‘linishini yuqoridagi 2-teorema yordamida tekshiramiz. $4 \cdot (5+8) + 32 = 84$, 84 soni 12 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 5832 soni ham 12 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

b) 15813 soni 12 ga bo‘linmaslini tekshiramiz. $4 \cdot (1+5+8) + 13 = 69$, 69 soni 12 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi, demak 15813 soni ham 12 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi.

3-teorema. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 15 ga bo‘linishi uchun, uning raqamlari yordamida tuzilgan $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ sonli ifoda 15 ga bo‘linishi yetarli.

Isboti. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 15 ga bo‘linishi uchun

$$\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n} \equiv 0(\text{mod}15) \quad (3)$$

bo‘lishi yetarli. (3) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(\text{mod}15)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^n \equiv 10(\text{mod}15)$ $(n \in N)$ (yuqoridagi lemma o‘xshash matematik induksiya metodi asosida isbotlash mumkin) ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 10 + a_1 \cdot 10 + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(\text{mod}15)$$

yoki

$$10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n \equiv 0(\text{mod}15)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 3-teoremani isbotlaydi.

Izoh: 3-teoremadagi $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ *ifoda o‘rniga* $5 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) - a_n$ *sonli ifodani tekshirish ham mumkin. Ammo* $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ *sonli ifodani hisoblash qulay bo‘lganligi uchun ushbu ifodani oldik.*

Misol. *a)* 51 861 945 soni 15 ga bo‘linishini yuqoridagi 3-teorema yordamida tekshiramiz. $10 \cdot (5+1+8+6+1+9+4) + 5 = 345$, 345 uchun ham yuqoridagi teoremani qo‘llaymiz, $10 \cdot (3+4) + 5 = 75$, 75 soni 15 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 345 soni ham 15 ga qoldiqsiz bo‘linadi. Bu esa 51861945 soni 15 ga qoldiqsiz bo‘linishini ko‘rsatadi. (51 861 945:15=3 457 463)

b) 15815 soni 15 ga bo‘linmaslini tekshiramiz. $10 \cdot (1+5+8) + 5 = 145$, 145 soni 15 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi, demak 15815 soni ham 15 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi.

4-teorema. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 18 ga bo‘linishi uchun, uning raqamlari yordamida tuzilgan $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ sonli ifoda 18 ga bo‘linishi yetarli.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Isboti. 4-teorema isboti 2- va 3-teoremalar isboti kabi bo‘ladi.

Misol. *a)* 103 842 soni 18 ga bo‘linishini yuqoridagi 4-teorema yordamida tekshiramiz. $10\cdot(1+0+3+8+4)+2=162$, 162 uchun ham yuqoridagi teoremani qo‘llaymiz, $10\cdot(1+6)+2=72$, 72 soni 18 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 162 soni ham 18 ga qoldiqsiz bo‘linadi. Bu esa 103 842 soni 18 ga qoldiqsiz bo‘linishini ko‘rsatadi. (103 842:18=5 769)

b) 56 752 soni 18 ga bo‘linmaslini tekshiramiz. $10\cdot(5+6+7+5)+2=232$, 232 uchun ham yuqoridagi teoremani qo‘llaymiz, $10\cdot(2+3)+2=52$, 52 soni 18 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi, demak 232 soni ham 18 ga qoldiqsiz bo‘linmaydi. Bu esa 56752 soni 18 ga qoldiqsiz bo‘linmasligini ko‘rsatadi.

5-teorema. $\overline{a_0...a_{n-4}a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 22 ga bo‘linishi uchun, uning raqamlari yordamida tuzilgan $10\cdot(...-a_{n-4}+a_{n-3}-a_{n-2}+a_{n-1})+a_n$ sonli ifoda 22 ga bo‘linishi yetarli.

Isboti. $\overline{a_0...a_{n-4}a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 22 ga bo‘linishi uchun

$$\overline{a_0...a_{n-4}a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}\equiv 0(\mathrm{mod}\,22) \qquad (4)$$

bo‘lishi zarur va yetarli[4]. (4) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0\cdot 10^n+...+a_{n-4}\cdot 10^4+a_{n-3}\cdot 10^3+a_{n-2}\cdot 10^2+a_{n-1}\cdot 10+a_n\equiv 0(\mathrm{mod}\,22)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^{2n-1}\equiv 10(\mathrm{mod}\,22)$ va $10^{2n}\equiv -10(\mathrm{mod}\,22)$ $(n\in N)$ ekanligidan foydalanib

$$...+a_{n-4}\cdot(-10)+a_{n-3}\cdot 10+a_{n-2}\cdot(-10)+a_{n-1}\cdot 10+a_n\equiv 0(\mathrm{mod}\,22)$$

yoki

$$10\cdot(...-a_{n-4}+a_{n-3}-a_{n-2}+a_{n-1})+a_n\equiv 0(\mathrm{mod}\,22)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 5-teoremani isbotlaydi.

6-teorema. $\overline{a_0...a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 24 ga bo‘linishi uchun, uning raqamlari yordamida tuzilgan $8\cdot(a_0+...+a_{n-3})-\overline{a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ sonli ifoda 24 ga bo‘linishi yetarli.

Isboti. $\overline{a_0...a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 24 ga bo‘linishi uchun

$$\overline{a_0...a_{n-3}a_{n-2}a_{n-1}a_n}\equiv 0(\mathrm{mod}\,24) \qquad (5)$$

bo‘lishi zarur va yetarli[4]. (5) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0\cdot 10^n+...+a_{n-3}\cdot 10^3+a_{n-2}\cdot 10^2+a_{n-1}\cdot 10+a_n\equiv 0(\mathrm{mod}\,24)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^n\equiv -8(\mathrm{mod}\,24)$ $(n\geq 3, n\in N)$ ekanligidan foydalanib

$$a_0(-8)...+a_{n-3}\cdot(-8)+a_{n-2}\cdot 10^2+a_{n-1}\cdot 10+a_n\equiv 0(\mathrm{mod}\,22)$$

yoki

$$-8\cdot(a_0+...+a_{n-3})+\overline{a_{n-2}a_{n-1}a_n}\equiv 0(\mathrm{mod}\,24)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Oxirgi taqqoslamaning ikkila qismini (-1) ga ko‘paytiramiz hosil bo‘lgan ifoda teoremani isbotini yakunlaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

XULOSALAR

Xulosa o‘rnida shu aytishimiz mumkinki, har qanday murakkab son uchun yagona bo‘linish qoidasi keltirish mumkin, ammo bu qoidani qo‘llash orqali o‘quvchi hisoblashlarda qulaylik olmasligi mumkin. Biz ushbu maqolada hisoblashlashga va tekshirish qulay bo‘lgan ba’zi murakkab sonlarga bo‘linish belgilarini keltirdik.

Adabiyotlar:

1. Ibragimov Q.T., Erdonov B.X. “Sonlarning bo‘linish alomatlari va mavjud bo‘linish belgilariga yangicha yondashuv”// Fizika, matematika va informatika jurnali. 2020 №6, 14-18 b.
2. Dusumbetov A., Turgunbayev R. Bo‘linish belgilari // Fizika, matematika va informatika. 2003, №3, 25-33 b.
3. Nazarov R.N., Toshpo‘latov B.T., Do‘sumbetov A.D. “Algebra va sonlar nazariyasi” II qism. Toshkent, “O‘qituvchi” 1995. 272 b.
4. Allakov I. Sonlar nazariyasidan misol va masalalar (yechimlari bilan). Termiz. «Surxon-Nashr» nashriyoti 2020.

TA’LIMDA IT TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASPEKTLARI

[1]Muradova Firuza Rashidovna, [2]Murodova Zarina Rashidovna
[1]Buxoro muhandislik-texnologiya istituti professori
[2]Buxoro muhandislik-texnologiya istituti dotsenti
[1]Gmail: fmuradova275@gmail.com
[2]Email: zarina_muradova_2015@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada ta’limda axborot texnologiyalarinng roli va o‘rni, IT texnologyalarining samaradorligi, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasining afzalliklari haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, axborot texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, metodika.*

АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ IT-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

[1]Мурадова Фируза Рашидовна, [2]Муродова Зарина Рашидовна
[1]Бухарский инженерно-технологический институт, профессор
[2]Бухарский инженерно-технологический институт, доцент
[1]Gmail: fmuradova275@gmail.com
[2]Email: zarina_muradova_2015@mail.ru

Аннотация: *В статье подробно описаны роль и место информационных технологии в образовании, эффективность IT-технологии, преимущества использования цифровых технологии в развитии творческих способностей учащихся.*

Ключевые слова: *образование, информационные технологии, виртуальные лаборатории, методика.*

ASPECTS OF EFFECTIVE USE OF IT TECHNOLOGIES IN EDUCATION

[1]Muradova Firuza Rashidovna, [2]Murodova Zarina Rashidovna
[1]Bukhara engineering and technology institute, Professor

[2]Bukhara engineering and technology institute, Associate Professor
[1]Gmail: fmuradova275@gmail.com
[2]Email: zarina_muradova_2015@mail.ru

Annotation: *The article describes in detail the role and place of information technologies in education, the effectiveness of IT technologies, the advantages of using digital technologies in the development of students' creative abilities.*

Key words*: education, information technologies, virtual laboratories, methodology.*

Kirish

Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ta'lim taraqqiyotidagi pirovard maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali xalqlarning farovonligini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Dunyo umummadaniyatining zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyoti, fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshiriladigan islohotlar, ilmiy texnik axborotning jadal rivojlanishi va yangilanishi, kasbiy faoliyat mazmunini uzviylik tamoyillari asosida muntazam dinamik o'zgarishi bilan ifodalanadi. Zamonaviy ilmiy-amaliy tajribalarni pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada aks ettirish yo'llari bilan belgilanadi, bir qator umummadaniy, umumkasbiy va kompetentliliklarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shunga ko'ra ta'limga oid materiallarni virtual ko'rinishda taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Hamdo'stlik mamlakatlarida ta'lim tizimini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish metodikasini rivojlantirish va takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan S.A. Beshenkov, A.G.Geyn, A.V.Goryacheva, V.A.Kaymin, A.G.Kushnirenko, M.P.Lapchik, A.S.Lesnevskiy, N.V.Makarova, G.K.Selevko, I.G.Semakin, T.A.Boronenko, V.V.Davidov, Ye.S.Kuznetsova, N.D.Ugrinovichlar [1] rivojlangan mamlakatlarda ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti hamda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolariga doir tadqiqot ishlari P.Alfred, K.C.Barker, A.Kameas, J.Leng, T.Monaha, S.Thakral, D.Fällman, A.Šorgo [6] kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Respublikamiz olimlari tomonidan ham oliy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish muammolariga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, zamonaviy o'quv adabiyotlarni (darslik, o'quv qo'llanma, monografiyalar), didaktik vositalarni yaratish va ularni ekspertizadan o'tkazish, pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va ta'limda qo'llash, o'quv jarayonida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolariga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan va bir qator ilmiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, A.A.Abduqodirov, Q.T.Olimov, M.M.Aripov, T.R.Azlarov, B.Begalov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zokirova, R.R.Boqiev, N.I.Tayloqov, S.S.G'ulomov, U.Yu.Yuldashev, A.Sattorov, B.B.Mo'minov, A.Ashirova, I.Isoqov, A.M.Po'lotov, M.A.Fayziev, A.G'.Hayitovlarning [4] ilmiy tadqiqot ishlarida o'z izoxini topgan. Kasb ta'limining shakllanish jarayoni hamda qonuniyatlari, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari, zamonaviy didaktik vositalarni yaratish hamda ta'lim jarayonida qo'llash borasida R.X.Djo'raev, N.A.Muslimov, A.R.Xodjabaev, Q.T.Olimov

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

J.A.Hamidov, X.F.Rashidov, Sh.Sh.Sharipov, U.I.Inoyatov, M.B.O‘rozova, Z.K.Ismoilova, U.N. Nishonaliev, D.O. Ximmataliev [8] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. N.I.Tayloqovning ilmiy tadqiqot ishida uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari ishlab chiqilib, unda elektron darsliklarni yaratish bosqichlari, didaktik tamoyillari, ulardan masofali ta’limda foydalanish asoslari ishlab chiqilgan. B.B.Mo‘minov informatikadan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun pedagogik dasturiy ta’minot yaratish va foydalanish metodikasini, D.M.Esonboyeva “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fanini o‘qitishda noan’anaviy dars shakllari, ularni tashkil etish metodikasini, N.A.Qayumova o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida kasb-hunar kollejlarida “Axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasini, A.I.Ashirova “Axborot tizimlarini loyihalash” fanidan dasturiy qobiq yaratish va ta’limda foydalanish metodikasini, S.I.Qulmatov mustaqil ta’limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasini, M.A.Fayziev talabalarning bilim ko‘nikmalarini kompyuter immitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasini ishlab chiqganlar. A.M.Po‘lotov talabalarning “Informatika va informatsion texnologiya” fanidan o‘zlashtirgan bilimi asosida kelajakda o‘zlashtiriladigan bilimi darajasini prognoz qiluvchi imitatsion model va undan foydalanish metodikasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Xalqaro hamjamiyatda bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayoni interaktiv, multimediadan foydalanib o‘qitishning faol usullarini ta’minlovchi boy ta’lim resurslaridan foydalanishda samaradorligi aniqlandi. Kompyuterli ta’lim muhitida real dunyo ob’yektlarining hatti-harakatlarini simulyatsiya qiladigan va talabalarga kimyo, fizika, matematika, informatika, biologiya kabi ilmiy va tabiiy fanlar bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yordam beradigan texnologiyalardan biri - virtual laboratoriyalardir. Mamlakatimizda yangi ta’lim modellarini qidirish shiddat bilan olib borilmoqda, bunda barcha ta’lim jarayonidagi harakatlanuvchi modernizatsiya kuchi sifatida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni keng va faol foydalanish asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga innovatsion yondashuvlar saviyasi qaraladi. Ta’limning barcha bosqichlarida, ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e’tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda. Har qanday mamlakatning kuch–qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur vazifaning ijrosini amalga oshirish borasida davlat tilidagi kompyuter dasturlarining miqdoriy va mazmuniy sifatlarini oshirish va axborot texnologiyalari sohasida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

raqobatni kuchaytirish orqali milliy dasturlash maktablarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'limni virtuallashtirish, masofaviy ta'limni tashkil etish va o'quv-uslubiy, didaktik, pedagogik, dasturiy ta'minotni yaratish, ochiq onlayn kurslarni yo'lga qo'yish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan virtual laboratoriyalarni yaratish va IT- industriyani rivojlantirish bilan bog'liq izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari jumladan, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), University of Oxford (Angliya), University of Hamburg (Germaniya), The University of Tokyo (Yaponiya), Umea University (Shvetsiya), Polytechnic University of Milan (Italiya), Grenoble Institute of Technology (Frantsiya), Tianjin University of Science Technology (Xitoy), Gwangju Institute of Science and technology (Koreya), Indian Institute of technology Bombey (Hindiston), Chelyabinsk davlat universiteti (Rossiya), Buxoro muhandislik-texnologiya institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda [3].

Tahlillar va natijalar

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun virtual laboratoriyalarni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. Dasturdan ko'zlangan maqsad umumiy biologiya, biokimyo, genetika, gidrologiya, hisoblash texnologiyalari sohalarida o'quv va tadqiqot dasturlarini ishlab chiqishdan iborat (Massachusetts Institute of Technology, AQSh); onlayn interaktiv laboratoriyalarning yagona katalogini yaratilgan (University of Oxford, Angliya); turli xil ob'yektlar, mexanizmlar, mexanik jarayonlar, hamda optik jarayonlarni simmulyatsiya qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan (Umea University, Shvetsiya); fizik jarayonlarni virtuallashtirilib, interaktiv elementlardan iborat bo'lgan ma'ruzalardan tuzilgan loyihalar yaratilgan (The University of Tokyo, Yaponiya); "Erasmus +" universitetlararo almashinuv xalqaro loyihasi doirasida kichik va o'rta biznes dizayn yechimlari uchun mo'ljallangan yangi virtual laboratoriyani ishlab chiqilgan (Polytechnic University of Milan, Italiya); elektron ta'lim resurslarining yangi avlodini yaratish va amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Grenoble Institute of Technology, Frantsiya); M-Learning - mobil ilovalardan foydalanib o'qitishni tashkil etilgan (Tianjin University of Science Technology, Xitoy); masofaviy ta'limni takomillashtirish, robototexnikani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan (Gwangju Institute of Science and technology, Koreya); IT-texnologiyalarni rivojlantirish, dasturiy platformalarni ta'limda joriy etish, dasturchilarni o'qitish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Indian Institute of technology Bombey, Hindiston); ta'limni raqamlashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish loyihalari ishlab chiqilgan (Chelyabinsk davlat universiteti, Rossiya) [5]; virtual axborot - ta'lim platformasi asosida ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutida, O'zbekiston). Bugungi kunda jahonda ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini, virtual laboratoriyalarni yaratish va qo'llash bo'yicha quyidagi tadqiqotlar olib borilmoqda: o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish usul va texnologiyalarini ishlab chiqish; zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; virtual laboratoriyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini aniqlash hamda ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; virtual

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

laboratoriyalar platformasini yaratish; virtual laboratoriyalar asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini shakllantirish.

Mamlakatimizda va xorijda yangi ta’lim modellerini qidirish shiddat bilan olib borilmoqda, bunda barcha ta’lim jarayonidagi harakatlanuvchi modernizatsiya kuchi sifatida informatsion va kommunikatsion texnologiyalarni keng va faol foydalanish asosida o‘qitishni tashkil etishga innovatsion yondashuvlar saviyasi qaraladi.

Xulosalar

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash metodik ishlanmalarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lmoqda, zamonaviy ta’lim masalasini yechish uchun kasbiy faoliyatida ilmiy ta’limiy texnologiya keng va faol foydalanishi kerak. Ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida informatsion kommunikatsion texnologiyalarni xususan virtual laboratoriyalarni qo‘llash o‘qituvchilarning ham, talabalarning ham faoliyatida zaruriy ehtiyoj bo‘lmoqda.

Adabiyotlar

1. Muradova F.R., Murodova Z.R. Use of information technologies in education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, UK. -2020.- P. 3110-3116

2. Muradova F.R., Muradova Z.R., Ataullaev Sh.N., Kadirova Sh.M., Yodgorova M.O. Psychological aspects of computer virtual reality perception. Journal of critical reviews. 2020. Vol 7 Issue 18, p. 840-844.

3. F.R.Muradova Virtual laboratories in teaching and education. ISJ Theoretical & Applied science. Philadelphia, USA. 2020. P. 106-109.

4. Z.R.Murodova The formation and definition of the intellectual potential in education. ISJ Theoretical & Applied science. Philadelphia, USA. 2020. P. 113-116.

5. Muradova F.R. Using the capabilities of virtual laboratories in the educational process. Academicia. Impact Factor 7, India, 2020. Vol.10 Issue 8, p. 347-352.

6. Muradova F.R. The methodology of using virtual laboratories in the educational process. Modern views and research. Materials of the international scientific and practical conference. – England. 2020, p. 24-26.

7. Muradova F.R. Using multimedia and communication technologies as a means to implement active learning methods. XV International scientific and practical conference. European research: Innovation in science, education and technology. - London. United Kingdom. 2020, p. 30-32.

8. Muradova F.R. Types and structures of educational and methodological materials with computer support. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. Khorezm, 2020. №1, p.106-109.

9. Muradova F.R. Virtual laboratories as promising information technologies in the educational process. Electronic journal of modern science, education and training. Khorezm, 2020. №4, 17-22 б.

10. Muradova F.R., Shafiev T. R., To`xtayeva N.R. Digital Technologies Es as a Perspective Information Technology in the Educational Proces // Spanish journal of innovation and integrity. Volume: 05, 2022. P. 271-277.

11. Muradova F.R., Shafiev T.R., Abdiyeva Yu. U. Basics of Distance Education and Digital Technologies // Spanish journal of innovation and integrity. Volume: 05, 2022. P. 251-256.

12. Muradova F.R., Murodova Z.R., Salimov S.S., Hayitov I.N. Use of Digital Technologies

ISSN: 2181-0427

in Education// Spanish journal of innovation and integrity. Volume: 05, 2022. P. 264-270.

13. Muradova F.R., Murodova Z.R., Djamilov S.S. Methods and Algorithms of Automated Construction of Computer Tests of Knowledge Control in Technical Sciences // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Volume 2 | Issue 3 | ISSN: 2795-8612. P. 245-249.

14. Muradova F.R., Murodova Z.R., Narziyev U.Z., Teshayeva G.M. Creating an electronic textbook in a programming environment // European multidisciplinary journal of modern science https://emjms.academicjournal.io/index.php/ Volume: 4 P. 536-544.

BASIC THEORIES IN THE DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE

Nasiba Jakbarova,
English Instructor at
Namangan State Institute of Foreign Languages
jakbarovanastinka@gmail.com

Abstract: *The competence of intercultural communication in teaching a foreign language is formed on the basis of knowledge about the customs and traditions of the country where the language is being studied. Intercultural competence is of great importance in establishing relations between representatives of two cultures. This article discusses the theories and factors that have gained importance in the history of the development of intercultural communication competence, the stages and objects of the implementation of each theory.*

Key words*: Intercultural competence, modeling, theory, factors, ethnocentrism, cultural difference, cultural level*

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY NAZARIYALAR

Nasiba Jakbarova,
Namangan davlat chet tillar instituti ingliz tili o'qituvchisi
jakbarovanastinka@gmail.com

Annotatsiya: *Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tili o'rganilayotgan mamlakatning udumlari, an'analari haqidagi bilimlar asosida shakllanadi. Ikki madaniyat vakillari o'rtasida munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda madaniyatlararo kompetensiyani ahamiyati katta. Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining rivojlanish tarixida muhim ahamiyat kasb etgan nazariyalar va omillar, har bir nazariyani amalga oshish bosqichlari va obyektlari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Madaniyatlararo kompetensiya, modellashtirish, nazariya, omillar, etnosentrizm, madaniy tafovut, madaniy daraja*

ОСНОВНЫЕ ТЕОРИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Насиба Джакбарова,
Преподаватель английского языка в Наманганском государственном институте иностранных языков

jakbarovanastinka@gmail.com

Аннотация: *Компетенция межкультурной коммуникации при обучении иностранному языку формируется на основе знаний об обычаях и традициях страны, где изучается язык. Межкультурная компетентность имеет большое значение в установлении отношений между представителями двух культур. В данной статье рассматриваются теории и факторы, получившие значение в истории развития компетенции межкультурного общения, этапы и объекты реализации каждой теории.*

Ключевые слова. *Межкультурная компетентность, моделирование, теория, факторы, этноцентризм, культурные различия, культурный уровень*

Introduction

Intercultural competence is commonly defined as an individual's skill in effectively communicating with people from diverse cultures and adapting to various cultural settings (Whaley, Davis, 2007). Researchers (Leung et al., 2014) have observed that there are now over 30 different models of intercultural competence and more than 300 related constructs.

The first model that will be discussed is Byram's (1997) model of intercultural communicative competence. This model is discussed for three reasons: 1) it is one of the most widely cited models, and one with the most recognition outside of the academia (see Byram, 2014 for an overview of the influences of his model, for example his work for the 10 Council of Europe); 2) the model was specifically designed with foreign language teaching contexts in mind; 3) although Gerlich et al. (2010) drew on other models as well, Byram's (1997) model served as a basis for their study of ICC in bilingual preschools. The other three models that will be discussed vary with regards their influence and recognition in the field of ICC, and were chosen because each of them approaches intercultural communicative competence from a different perspective, and each has particular strengths that may not be present in other models.

Materials and Methods

Byram's (1997) model consists of four competences: linguistic, sociolinguistic, discourse and intercultural. The definitions of the first three competences are borrowed from van Ek's (1986) model of communicative ability, which was designed to describe the aspects of competence in a foreign language. Byram adapted the definitions to fit his model, in particular the aspects of definitions that reflected a native-speaker model, which he was highly critical of. The amended definitions are shown in Table 2. Byram criticised the assumption that a competent L2 speaker would possess the same kind of communicative competence as a native speaker of the target language, and in his view, a more desirable outcome of language learning would be that of a learner with the ability to see and manage the relationships between themselves and their own cultural beliefs, behaviours and meanings, as expressed in a foreign language, and those of their interlocutors, expressed in the same language – or even a combination of languages – which may be the interlocutors' native language or not. In his model, intercultural competence is only one of the components of intercultural communicative competence. Intercultural communicative competence requires linguistic, sociolinguistic, and discourse competence in a foreign language. Intercultural competence, on the other hand, is concerned with cultural, rather than linguistic, knowledge and skills, and can refer to the ability to interact with people from different cultures in the interlocutor's own language. The inclusion of competence in a foreign 11 language is a

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

major strength of Byram's model, as many other models focus only on intercultural competence. Intercultural competence consists of five components, outlined below:

•Attitude (savoir être2) of openness and curiosity, characterised by willingness to engage with otherness in a relationship of equality. Readiness to suspend disbelief and judgment with respect to others' meanings and behaviours, readiness to suspend belief in one's own meanings and behaviour.

•Knowledge (savoirs) about social groups in one's own country and the interlocutor's country; knowledge of the processes of interaction at individual and societal level. The latter includes declarative knowledge about how social identities are acquired, and how they shape people's worldviews, as well as procedural knowledge of how to act in specific circumstances. Procedural knowledge is therefore linked to the next component, skill of interpreting and relating.

• Skills of interpreting and relating (savoir comprendre) documents or events based on one's knowledge of own and interlocutor's culture. This includes the ability to identify ethnocentric perspectives and areas of misunderstanding, and to explain them in terms of cultural differences. Skill of discovery and interaction (savoir apprendre/faire).

•The skill of discovery is a skill of acquiring knowledge and understanding of cultural elements present in documents or interactions, in case of lack of or incomplete knowledge. The skill of interaction is related to the skill of discovery, as discovery can often take place through interaction. The skill of interaction relies on knowledge, attitude, and skills of interpreting and relating which need to be operated in real time.

•Critical cultural awareness (savoir s'engager) of one's own and interlocutor's practices and products. Critical cultural awareness allows one to identify and evaluate explicit and implicit values in documents and events from different cultures.

In the previously mentioned study with ICC experts, Deardorff (2006) proposed a model of intercultural competence based on the highest rated components of ICC by the experts, as well as a review of the existing literature. Two alternative representations of the model were developed – a pyramid version (Figure 3) and a process version (Figure 4). The pyramid version illustrates how the development of certain aspects of intercultural competence is dependent on other elements being in place. Starting from the bottom of the pyramid, attitude is the foundational component which knowledge and skills build on. Possessing the desired attitudes, knowledge and skills results in particular internal outcomes which in turn allows for the desired external outcome to occur. The process visualization allows for a more complex representation of how intercultural competence is acquired. The cyclical arrangement of the components illustrates how the acquisition of intercultural competence is a continuous process, and how each of the elements can improve, but perfect competence can never be reached. The arrows reaching from attitude, knowledge and skills to the external outcome illustrate how the external outcome is possible with limited competence. However, the appropriateness and effectiveness of the outcome increase when the individual continuously develops all of the subsequent components of intercultural competence.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427




Figure 1. Process visualisation of Deardorff's model of intercultural competence (Deardorff, 2006, p. 256).

There are several advantages to Deardorff's (2006) model. Firstly, it is the only model of ICC that incorporates multiple scholars' perspectives on what constitutes ICC. Another advantage of the model is that it includes the desired outcomes of ICC, both internal and external, rather than just describing the interculturally competent individual's traits. The model also illustrates the relationship between the components, and the different stages of acquiring intercultural competence.

The Intercultural Competence Assessment project (INCA, 2004) was a European Union project aimed at developing a framework of intercultural communicative competence similar to that of the Common European Framework of Reference for Languages (Council of Europe, 2001). The framework was developed with working adults in mind, in order to provide a basis for training and assessment of ICC in professional settings. It was based on the work of Byram (1997), as well as Torsten Kühlmann (1996), Bernd Müller-Jacquier (2000) and Gerhard Budin. While Byram's and Deardorff's models outline the desired attitude, knowledge, and skills, the INCA framework approaches intercultural competence from a slightly different angle. It identifies six characteristics of an interculturally competent person: tolerance for ambiguity, behavioural flexibility, communicative awareness, knowledge discovery, respect for otherness, and empathy. Within each of those characteristics, the desired motivation, skills or knowledge, and behaviour are outlined (Table 3). Based on the desired motivation, skill/knowledge and behaviour an assessment framework with descriptors of three levels of intercultural competence ('basic', 'intermediate', and 'full') was created. Such a framework provides a very precise description of the desired components of ICC at different stages of development, although it does not show the relationships between the different components. Another advantage of this model is that it is based on several scholars' perspectives, rather than just one scholar's perspective.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Based on the analysis of the students' assignments, Holmes and O'Neill identified several phases of the process of acquiring intercultural competence in interaction: - acknowledging reluctance and fear prior to engaging in interaction with the Cultural Other - foregrounding stereotypes in which the Cultural Other is seen as different from the person who holds the stereotypes - moving beyond stereotypes and re-evaluating them based on the experience of interaction with the Cultural Other - monitoring feelings of self and the Cultural Other, in an effort to please the Cultural Other, build trust and friendship - working through confusion with regards to one's own and the Cultural Other's identity; working through frustration with the difficult process of acquiring intercultural competence - moving from complacency to complexity when evaluating one's own intercultural competence - acknowledging limitations to competence, for example conversation topics that might be very difficult to discuss due to cultural differences, such as politics. A crucial characteristic of Holmes and O'Neill's model is that these phases are non-linear and are often interconnected: they do not necessarily occur in the order outlined above, the phases can overlap, and the learner can move back and forth between the different phases. Based on this model, the authors proposed the following definition of intercultural competence: "Critical awareness of Self and Other in an intercultural encounter, with appropriate attention to relationship building, monitoring and managing emotions, empathy, and facework" (p. 716).

Conclusion

Together, the four models show how ICC might be described and represented. Byram's (1997) model describes the attitude, knowledge, and skills of an interculturally competent person, as well as the different competences in a foreign language, and the role of the foreign language classroom in acquiring ICC. Deardorff's (2006) model portrays attitude, knowledge and skills in a hierarchy, with attitude being the most basic component. It also shows the process of acquiring ICC, and its desired internal and external outcomes. The INCA framework (2004) specifies six different components of ICC, each of which consists of the desired motivation, skills/knowledge, and behaviour. The framework also specifies three different levels of development, with indicators of each. Holmes and O'Neill's model (2012) model outlines the developmental phases of acquiring ICC, focusing on how the learner experiences and manages the process. The models also represent different ways in which a model might be created: Holmes and O'Neill's model (2012) was empirically-derived; the INCA framework (2004) and Deardorff's (2006) model was designed based on the insights of multiple ICC scholars; Byram's (1997) model was based on his own previous work, and on various existing studies from different disciplines.

References:

1. Gudykunst, W. B. (1994). Bridging differences: Effective intergroup communication (2nd ed.). London, United Kingdom: Sage.
2. Deardorff, D. K. (2004). The identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization at institutions of higher education in the United States (Unpublished doctoral dissertation). North Carolina State University, Raleigh, NC.
3. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Clevedon, United Kingdom: Multilingual Matters.
4. Bennett, M. J. (1993). Towards ethnorelativism: A developmental model of intercultural sensitivity. In R. M. Paige (Ed.), Education for the intercultural experience (2nd ed., pp. 21–77). Yarmouth, ME: Intercultural Press.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
6. Geertz C. The interpretation of culture. –New York: Basic Books, 1973. -473 p.
7. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
8. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. –P. 668–684.
9. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.
10. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKAT QILISHGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

Xoldarov Azizjon Rasulovich
Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Namangan shahar, Oromgoh ko'chasi, 5
gmail: egamberdiyevazizbek206@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tizimi to‘g‘risida ma’lumot keltirib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *favqulodda vaziyat, fuqaro muhofazasi, tabiiy, texnogen, ekologik, zilzila, suv toshqini, qor ko‘chkisi, kuchli shamol, epidemiya, epizootiya, epifitotiya, pandemiya, karantin, xavfsizlik.*

ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ШКОЛЬНИКОВ К ПРАВИЛЬНОМУ ДЕЙСТВИЮ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Холдаров Азизжон Расулович
Наманганское областное управление по чрезвычайным ситуациям
г. Наманган, ул. Оромгох, 5

Аннотация: *в статье рассматривается некоторые стороны системы подготовки учащихся среднеобразовательных школ Республики Узбекистан к действиям в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера.*

Ключевые слова: *чрезвычайное ситуация, гражданская защита, природная, техногенное, экологическая, землетрясение, наводнение, лавина, сильный ветер, эпидемия, эпизоотия, эпифитотия, пандемия, карантин, безопасность, подготовка, система, наука, учебник, сейсмический.*

SPECIFIC ASPECTS OF PREPARING SCHOOLCHILDREN TO ACT CORRECTLY IN EMERGENCY SITUATIONS

Kholdarov Azizjon Rasulovich
Namangan Regional Emergency Management
Namangan city, Oromgoh Street, 5

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Abstract: *the article examines some aspects of the system of preparing students of secondary schools of the Republic of Uzbekistan for actions in emergency situations of a natural and man-made nature.*

Key words: *emergency situation, civil protection, natural, man-made, ecological, earthquake, flood, avalanche, strong wind, epidemic, epizootic, epiphytotic, pandemic, quarantine, security, preparation, system, science, textbook, seismic.*

Kirish

Sayyoramizning turli joylarida sodir bo‘layotgan tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar insoniyatdan ushbu hodisalarga qarshi turishda zarur choralarni qo‘llashni hamda ularga tayyor bo‘lishini talab etmoqda. E’tirof etish kerakki, mamlakatimizdagi ko‘plab sohalar qatori umumta’lim maktablari o‘quvchilarini ham o‘quv yili davomida, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qish jarayonida darslarda, sport o‘yinlari, musobaqalarida va boshqa joylarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash va o‘qitish ishlari olib borilmoqda. Ma’lumot uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022/2023 o‘quv yili boshiga umumta’lim muassasalari soni 10 522 tani tashkil etgan bo‘lib, ularda 6 mln. 304 ming nafar o‘quvchilar tahsil olishmoqda. Bu esa mamlakatimiz aholisi umumiy sonining *(36 mln. 372 ming kishini)* sal kam 17,4 foizini tashkil etadi [1].

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan boshlang‘ich harbiy ta’lim asoslari, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularda harakat qilish, fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohasidagi qator mavzular bo‘yicha ta’lim muassasalari o‘quvchilariga CHQBT fani rahbarlari va o‘qituvchilari tomonidan o‘qitilib kelinmoqda [2]. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarligi (CHQBT)ga jami 140 o‘quv soati ajratilgan bo‘lib, mashg‘ulotlar har haftada ikki soatdan o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘quvchilarining o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va mahoratlari to‘garaklar, sportning tegishli turlari bo‘yicha seksiyalar va harbiy-sport musobaqalari jumladan, “Yosh qutqaruvchi” musobaqalari davomida mustahkamlanadi [3].

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarining 10- va 11-sinflarida CHQBT fani o‘qitilmoqda



va ushbu fan darsliklarida fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi va tibbiy bilim asoslari to`g`risida ma`lumotlar berilgan. Kitoblarda berilgan mavzularni o`zlashtirish orqali o`quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo`lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko`nikmalarga ega bo`ladilar [4]. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (ChQBT) fanidan darslikning 6- va 7- bo‘limlari Fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohalariga bag‘ishlangan va 14 ta amaliy va nazariy o‘quv mashg‘ulotlari mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, ular ChQBT fani darsligida mavjud barcha mavzular sonining salkam yarmini tashkil etadi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o‘rgatish ishlariga ham e’tibor berilayotganligini belgisidir [5]. Darslikdagi barcha mashg‘ulot mavzularida “O‘quv faoliyati natijalari”, “Bilasizmi?”, “Tayanch so‘zlar:” va “Savol va topshiriqlar” rukunlari mavjud bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan mavzuni yahshi o‘zlashtirishda qulay vosita bo‘lmoqdalar [5]. Darslikning 6-bo‘limidagi “Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Zilzila, ko‘chkilar, suv toshqini, sel, qor ko‘chishi, kuchli shamollar va boshqalar. Yaqinlashib kelayotgan xavf belgilari” deb atalgan 1-mashg‘ulot mavzusida favqulodda vaziyatlar tushunchasi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir bo‘lish ehtimoli mavjud tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar haqida so‘z boradi. Shu jumladan, mashg‘ulot mavzusida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi qabul qilingan 455-son Qarori va unga ko‘ra, favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablari bo‘yicha texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga tasniflanishi hamda zarar ko‘rgan odamlar soni, moddiy zararlar miqdori va ko‘lamiga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegaraviy turlarga bo‘linishi bayon etilgan [6]. ChQBT fanining 10-sinf o‘quv qo‘llanmasidagi oltinchi bo‘lim ikkinchi bobidagi 1-mashg‘ulot mavzusi “Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. Karantin va pandemiya” hamda o‘sha bobdagi 2-mashg‘ulot mavzusi “Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning yuz berish sabablari” deb ataladi. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmaning oltinchi bo‘lim uchinchi bobi ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan aholini himoya qilish ishlariga bag‘ishlangan bo‘lib, 1-mashg‘ulot mavzusi “Yadroviy qurol. Yadroviy zararlanish o‘chog‘i. Termoyadro quroli. Neytron bombasi. Kimyoviy qurol”, 2-mashg‘ulot mavzusi “Bakteriyaviy (biologik) qurol. Karantin va observatsiya. Zamonaviy oddiy qirg‘in vositalari” deb nomlangan. Ushbu kitobning oltinchi bo‘lim to‘rtinchi bobi shaxsiy (individual) himoya vositalari, vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish tartibiga bag‘ishlangan bo‘lib, 1-mashg‘ulot mavzusi “Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Respirator. Changga qarshi matoli niqob, paxta-doka bog‘lagich va ulardan foydalanish” hamda 2-amaliy mashg‘ulot mazusi “Terini himoya qilish vositalari. Maxsus himoya vositalari: umumqo‘shin himoya jamlanmasi, yengil kostyum, himoyalovchi-filtrlovchi kiyim. Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan “yoping‘ich”, “yengil plash”, “kombinezon” ko‘rinishida foydalanish. L-1 yengil kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo‘lbola vositalaridan foydalanish. Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirish” deb ataladi [7]. Shuningdek, oltinchi bo‘limning 5-, 6- va 7-boblari Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari, evakuatsiya tadbirlarida aholining harakat qilish tartibi, sanitariya ishlovi, kiyim-bosh va buyumlarni zararsizlantirish tadbirlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda asosan radiatsiyaga qarshi pana joylar, oddiy pana joylar, odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish, evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish va odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish bilan bog‘lik masalalar yoritilgan 3ta mashg‘ulot mavzularidan iborat. Darslikning oltinchi bo‘limidagi “Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari” nomli 5-bobda 1-mashg‘ulot mavzusi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“Panagohlar. Radiatsiyaga qarshi pana joylar. Oddiy pana joylar. Odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish” haqida bo‘lib, unda quyidagilar bayon qilingan.

Tahlillar va natijalar

Mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va aholini dushmanning ommaviy qirg‘in qurolidan himoya qilish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal qilish usullaridan biri iqtisodiyot obektlari va aholi punktlarida odamlarni yashirish uchun turli xil himoya inshootlarini qurishdan iborat. Himoya inshootlari oldindan tayyorlangan bo‘lishi yoki maxsus ko‘rsatma bo‘yicha qurilishi mumkin.

Panagoh maxsus inshoot bo‘lib, yashiringan odamlarni yadro portlashining barcha shikastlovchi omillaridan, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalardan, shuningdek, yuqori harorat hamda zararli gazlardan himoya qilishga mo‘ljallangan.

Panagoh asosiy va yordamchi xonalardan tashkil topadi. Asosiy xonalarda odamlar joylashadi. Bu xonalarda o‘tirish uchun 2 yoki 3 qavatli so‘rilar va yotish uchun tokchalar qilinadi. Yordamchi xonalarda sanuzel, filtr-ventilyatsiya kamerasi, tibbiyot xonasi, dizel elektrostansiyasi joylashadi [7]. Kitobning yettinchi bo‘limi Tibbiy bilim asoslari sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, u 1 ta bob va 1 ta amaliy va 3 ta nazariy o‘quv-mashg‘ulotlaridan iborat. Jumladan, 1-nazariy mashg‘ulot mavzusi “Jarohat to‘g‘risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Bog‘lam va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish qoidalari”, 2-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Amaliy. Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog‘lamlar qo‘yish”, 3-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Qon ketishining turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qo‘lbola siquvchi bog‘lam va tasma (jgut)dan foydalanish qoidalari” hamda 4-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari” deb nomlangan [8]. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun ChQBT fanidan darslik jami 7ta bo‘limdan iborat bo‘lib, ulardan 1- hamda 7-bo`limlari “Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari. Xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi” hamda “Tibbiy bilim asoslari” yo‘nalishlariga oid 29 ta mavzulardan iborat. Darslikdagi mavzular mazmunini o`quvchilar tomonidan oson o`zlashtirishlari uchun unda fotoma`lumotlar, chizmalardan foydalanilgan. Har bir bob so`ngida mavzuni o`zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida nazorat savollari berilgan. Darslikda yoshlarga harbiy ta`lim berishdan tashqari fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi hamda tibbiy bilim asoslari to`g`risida ham ma`lumotlar berilgan bo`lib, ush bu mavzularni o`zlashtirish orqali o`quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo`lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko`nikmalarga ega bo`ladilar.

Xulosa

Bugungi kunda dunyo aholisi sonining ortib borishi bilan, respublikamiz aholisi soni ham ortib bormoqda. Insoniyatning atrof-muhitga ta’sirini inobatga olsak, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar insonlarning hayoti va sog‘ligiga, atrof-muhitga jiddiy zarar keltirmoqda. Jabrlanuvchilarning orasida maktab o‘quvchilari sonining ko‘pligi achinarli holat. Shu sababli ham maktab o‘quvchilarini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etaman:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan dars mashg'ulotlari olib borish.
- Maktab o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" ko'rik tanlovini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son Qarori

2. Chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlik. 11-sinf uchun darslik/ Sh.Ubaydullayev, B.Gafurov, D.Ubaydullayeva. Toshkent: «ILM ZIYO», 2018. 200 b.

3. https://www.yandex.ru/images/search/ChQBT-10-11-sinf-darslik;

4. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi qabul qilingan 455-son Qarori

6. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.

7. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.

UDK 811.133.1'362

YUMOR VA YUMORLI DIALOGIK NUTQ TUSHUNCHALARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Xamraqulova Farida Mamasolieyevna,
Andijon davlat chet tillari instituti
Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi
xamraqulovafarida@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada "yumor", "muloqot", "dialog", "yumoristik dialogik nutq" tushunchalari muhokama qilinadi. Ushbu atamalarning ta'riflari keltirilgan. Shuningdek, latifaning janri sifatida yumorli nutqning xususiyatlari o'rganilgan. Yumorning strukturaviy va kompozitsion xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar**:** *dialog,nutq, yumorli dialogik nutq, anekdot, hazil, muloqot*

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЙ ЮМОР И ЮМОРИСТИЧЕСКАЯ ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ

Хамракулова Фарида Мамасолиевна,
Преподаватель кафедры теория и практика французского языка,
Андижанский государственный институт иностранных языков
xamraqulovafarida@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматриваются понятия" юмор","диалог ", "юмористическая диалогическая речь". Приведены определения этих терминов. Также исследованы особенности*

юмористической речи как жанра анекдота. Раскрыты структурные и композиционные особенности юмора.

Ключевые слова: *диалог, речь, юмористическая диалогическая речь, анекдот, юмор, диалог*

LINGUISTIC FEATURES OF THE CONCEPTS OF HUMOR AND HUMOROUS DIALOGICAL SPEECH

Xamraqulova Farida Mamasolieyevna
Teacher of the Department of Theory and Practice of the French language,
Andijan State Institute of Foreign Languages
xamraqulovafarida@gmail.com

Abstract: *The article discusses the concepts of "humor", "dialogue", "humorous dialogical speech". Definitions of these terms are given. The features of humorous speech as a genre of anecdote are also investigated. The structural and compositional features of humor are revealed.*

Keywords: *dialogue, speech, humorous dialogic speech, anecdote, humor*

Kirish

Odatda, inson nutqi lingvistik, psixologik va ijtimoiy hodisa bo‘lib tilshunoslar tomonidan kompleks tarzda o‘rganiladi. Nutq grammatika qoidalariga bo‘ysungan holda talqin qilinib izchil bayon qilinishi, ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilar uchun tushunarli bo‘lishi lozim. M.Maxsudovaning “Muloqot psixologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida ***muloqot*** — odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o‘zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi [1; 5-bet]. Keng ma’noda nutq – bu murakkab kommunikativ hodisadir.

Tadqiqot metodologiyasi

Nutqni lingvistik tahlil qilish jarayonida tadqiqotchilarning e’tibori nafaqat matnning o‘ziga, balki o‘rganilayotgan til hodisasini tahlil qilish o‘z chegarasidan chiqib, tilshunoslik, pragmatika, psixologiya, falsafa, ritorika, sotsiologiya va boshqa fanlarning fanlararo bog‘lanishiga qaratiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, nutqni tahlil qilishda unda ishtirok etuvchilar, uni ishlab chiqaruvchilarning strategiyasi va taktikasini hisobga olgan holda izohlanadi. Nutqiy tahlili nutqiy asarlarning turli janrlari - badiiylikka bog‘liq matnlar, filmlar (ssenariylar), siyosatchilarning nutqlari, tok-shoular, muhokamalar va boshqalarni tashkil qiladi. Insonning kimligi uning ikki jihati – xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida ayon bo‘ladi [2; 393-398 betlar]. Mana shu ikki jihat fikrni to‘liq va mukammal ifodalashga yordam beradi. Fikrni go‘zal ifodalash-nutq madaniyatini egallashga bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili

Bizga ma’lumki, nutq tahlilining maqsadi *yashirin ma’nolarni ochishdir*. Dialogik nutqni o‘rganish paytida interdiskursivlikni ham hisobga olishi kerak chunki bu tahlil pragmatik tahlilni ham talab qiladi. So‘nggi 10 yil ichida zamonaviy tilshunoslar bu atamani barcha mumkin bo‘lgan nutq turlari o‘rtasidagi "o‘zaro ta’sirlar" deb atashni maqul ko‘radilar. Tadqiqot maqsadlari va joriy tasnifga asoslanib, nutq chegaralari shaxsning kasbi, bilim miqdori va vaqt davriga qarab belgilangan bo‘lishi mumkin . Shunga ko‘ra, nutqning har xil turlarini sanab o‘tish mumkin: kundalik muloqot nutqi, reklama nutqi, turli siyosiy davrlardagi nutqlar, badiiy adabiyotning turli janrlaridagi nutqlar va boshqalar. Nutq jarayonida insonlar orasida muloqot

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

hodisasi ro‘y beradi va aloqa davomida axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Ushbu maqola turli xil yondashuvlarga qaratilgan hazil-mutoyiba dialogik nutqining ta’rifi va uning kundalik anekdot janri bilan bog‘liq asosiy xususiyatlariga to‘talib o‘tadi.

Biz **yumor**ga dunyo tilshunoslari ko‘plab ta’riflar keltirganlar. Yumor so‘zining etimologiyasi fransuz tilida quyidagicha ta’riflanadi [3]. Le mot humour provient de l’anglais humour, lui-meme emprunté du français «humeur ». L’humeur du latin humor(liquide)désignait initialement les fluides corporels(sang,bile...)pensés comme influençant sur le comportement. Le Robert Clé International fransuz tili lug‘atidan esa **humour** so‘zi ma’nosini ko‘rib chiqamiz [4] humour [ymur] n.m.l’humour - forme d’ésprit qui consiste à présenter, à raconter la réalité de la vie avec drolerie,ironie,que cette réalité soit insolite,absurde ou désagréable.

M.A. Kulinichning ta’kidlashicha, **yumor** - bu voqelikning alohida qismlarini tushunishning o‘ziga xos usuli, yetuklikning o‘ziga xos ko‘rsatkichidir." [5;180-bet]. V.I.Karasik esa **yumor** shaxsning hayotning kulgili tomonlarini idrok etish qobiliyatini ifodalaydi va bu qobiliyatni insonning asosiy xususiyati deb biladi [6;144–153 betlar].

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida yumor quyidagicha ta’riflanadi [7]. Yumor (lotincha) — kulgi bilan xayrixohlikni o‘zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba’zi kamchilik nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob’yektning yo‘qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi. Satirik asarda ijtimoiy hayot hodisalari zaharxanda kulgi orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsonlar hazil-mutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor unsuri bo‘lganidek, yumorda ham satira unsuri bor. Har qanday jiddiy asar (roman, qissa, hikoya, doston va she’r.) da, xalq ijodi namunalarida ham yumor bo‘ladi. Masalan, o‘zbek adabiyotida voqelikka hajviy munosabat tarixi ancha qadimga borib taqaladi: A.Navoiy, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O‘tar og‘li, Xamza, Abdulla Qodiriy, So‘fizoda, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Sa’dulla Siyoyev, Anvar Obidjon, Ne’mat Aminov va boshqalardir. Jumladan Said Ahmadning "Sobiq" hikoyasida yozuvchi jamiyatimizda, halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo‘layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg‘ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yo‘lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o‘z o‘rnida bo‘lib, o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozimligi kabi masalalar hajviy yo‘sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi.

Tahlillar va natijalar

Dialogik yumoristik nutqni tahlil qilish borasida, “dialog” tushunchasiga ta’rif berib o‘tish joiz. Oddiy, kundalik tushunchada, dialog ikki kishi o‘rtasidagi suhbatdir, agar "dia" "ikki" va "log" - gapirish, ya’ni "ikkitasi gapirganda". **Dialog** (yunoncha:dialogos-suhbat)-nutq turi; ikki yoki undan ortiq shaxsning bir -biriga qaratilgan nutqidir. Til materiallari tahlili shuni ko‘rsatdiki, dialog kommunikativ akt sifatida nafaqat komunikantlar orasida ma’lumotni yetkazish vazifasini bajaradi, balki shu bilan bir vaqtda ularning pragmatik xarakteristikasining maqsadi bo‘lib ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, matn mazmuni ichida so‘zlovchining kommunikativ niyati – so‘zlovchi nazarda tutgan xususiy mazmun ham o‘z ifodasini topadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziy Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g‘azal va boshqa janr namunalari uchraydi. O‘zbek nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg‘uziy tomonidan keng qo‘llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g‘oyaviy maqsad yorqin va tasirchan ifodalangan. Tilga e’tibor berish, har bir aytiladigan so‘z mas’uliyatini ta’kidlash, hikoyadagi asosiy g‘oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug‘langan.

V.I.Karasikning so‘zlariga ko‘ra, kulgili nutq "kulgi muloqoti holatiga botgan matndir". Muloqot nuqtai nazaridan kulgi muloqotining holati, V.I.Karasik, ishtirokchilarning jiddiy suhbatdan qochish niyati, muloqotga kulgili ohang berish, ma’lum bir til madaniyatida qabul qilingan kulgi xulq-atvorining o‘rnatilgan modellarining mavjudligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Hikoyalarda xalq og‘zaki ijodining ta’siri ham yorqin seziladi. Xususan, **latifa** janriga xos belgilar hikoyaga ko‘chib o‘tgan. Suhbatning dialog asosida olib borilishi, soddadillik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustivorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo‘ndaligi, og‘zaki ijoddan ta’sirlanish natijasidir. Rabg‘uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an’anasidagi o‘ziga hos bosqich bo‘ldi. **Anekdot(latifa)** - hazil-mutoyiba dialogik nutq turlaridan biridir. Chunki yumor ko‘pincha jonli nutq aloqasi jarayoni, keyin unda standart va umumiy qabul qilingan og‘zaki va yozma nutqdan barcha mumkin bo‘lgan og‘ishlar kuzatiladi. Yumorlar ham monologik bo‘lishi mumkinligiga qaramay, yumorlar korpusining aksariyati quyidagilardan iborat. ya’ni dialogik xarakterdagi yumorlar. Oldingi tadqiqotlarda, uchta til madaniyatining dialogik anekdotlarini tahlil qilishda (fransuz, ingliz va rus) “pozitsiyadan Anekdot matni ikki (ba’zan uchta) asosiy tarkibiy va kompozitsion komponentlarning (tematik seriyalarning) birligidir: kirish, asosiy qism va xulosa (guvoh, pointe). Ushbu tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi muhim matn yaratish funktsiyasini bajaradi - anekdot matnini bir butun sifatida idrok etishni ta’minlaydi. Yumoristik strukturaviy va kompozitsion matnlarda kirish so‘zi bilan birga keladi. Kirish qismida mavzu yangilanadi va muammolar aniqlanadi. Yumoristik matnning kulgili nutqi ochiq tizimni tashkil qilsa, undagi kulgili hikoyaning izchilligi ellips, implikatsiya, presuppozitsiya, ishora kabi yashirin lingvistik vositalar bilan ta’minlanadi. Yumoristik matnning ramkasi bir juft pragmatik va sintagmatik chiziqlardan iborat bo‘lib, ular bo‘ylab hazilning strukturaviy va tematik turlari aks etadi. Tematik qatlamlar tizimi bu latifalar seriyasi va sikllaridan iborat.

Yumoristik nutq mavzusiga doir juda ko‘p tadqiqotlar qilingan. Ushbu tadqiqotlarga asoslanib, hazil-mutoyiba dialogik nutqiga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlar aniqlanadi: stilistik rangdor so‘zlardan foydalanish; jargonlarning va jarangli iboralarning hosil bo‘lishi (hayotning barcha sohalari va turli yosh guruhlarida); kommunikatorlar o‘rtasidagi munosabatlarning do‘stona xarakterining ko‘rsatkichlari: nutqning so‘zlashuv shakllari, norasmiy murojaat holatlari, suhbatdoshlarga suhbatda shaxsiy mavzularga ta’sir imkonini beradigan bo‘ysunish ko‘rsatkichlarining yo‘qligi; kulgili vaziyatni hosil bo‘lishida lingvistik hodisalarni aniqlash bilan birga lingvistik usullardan foydalanish: taqqoslash, so‘z o‘yinlari, metafora, onomatopeya, takrorlash, neologizmlar, jargon va boshqalar; kulgini rag‘batlantiradigan kulgili parcha bilan yakunlangan kutilmagan, paradoks; oddiy, qisqa jumlalar va so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlardan umumiy foydalanishning mavjudligidir.

XULOSA

Yuqoridagilar **anekdotni (latifa)** izchil folklor matni - qisqa hikoyalar janriga mansub nutq (monologik yoki dialogik) kutilmagan hazil va yakuniy qismga ega asar deb xulosa qilishimizga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

imkon beradi. Bu kichik asar qisqalik, yaxlitlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ushbu oson takrorlanuvchanlik va sezuvchanlik hazil yoki kulgili natija(ta'sir)hisoblanadi. Hazilli dialogik nutq turi sifatida hazilning muhim xususiyati uning nisbiy qisqaligidir. Dialogik nutq doirasida juda uzun latifalar bo'lmaydi, binobarin oddiy muloqot dialogik nutqda cho'ziqlikka ega bo'ladi. Anekdotning sanab o'tilgan barcha xususiyatlari izchil muloqot holatiga tushib qolgan ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi dialog bo'lgan matn - dialogik nutq, uni kulgili deb tasniflashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006,— 5 b.

2. Aripova, A., Khodjayeva, K., Yuldasheva, N. methods, aspects and components of teaching the uzbek (russian) language as a foreign language on the experience of foreign students. Journal of Critical Reviews, 7(4), 393-398.

3. Wikipediya (fransuz tilida) ma'lumot

4. Le Robert Clé International. Josette Rey-Debove, 30.05.2006

5. Кулинич М. А. Лингвокультурология юмора: (На материале английского языка). – Самара: Изд-во Самар. гос. пед. ун-та, 1999. – 180 с.

6. Карасик В. И. Анекдот как предмет лингвистического изучения // Жанры речи: Межвуз. сб. науч. тр. – Саратов: Колледж, 1997. – Вып.1. – С. 144–153

7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jildi, 2000-2005 yillar, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi ,sahifalar soni 23469 ta

8.https://www.researchgate.net/publication/358179095_Speech_chain_and_repeated_nomination_in_different_system_languages

O'qitishni Dyui kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang'ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: "Oldindan tuzilgan o'quv kurslari kerak emas", "O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak", "Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilash kerak", "Bajarish yordamida o'qitish – maktabda asosiy metod". Shunday qilib, Dyui maktabda ta'lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta'limni tan olmaydi va o'qishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat deb hisoblaydi. "Maktab va jamiyat"asari[28].

[28] https://www.researchgate.net/publication/368542989_

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Jon Dyuining shogirdi ***Uilyam Xerd Kilpatrik*** 1900 – yillarning boshlarida loyiha modelini ishlab chiqdi. Ilg‘or ta’lim va loyiha usuli tarafdorlari kabi u ham yodlashga, eslab o‘rganishga, qat'iy tashkil etilgan sinf xonalari (talabalar doimo o‘tirishadigan qatorlarda joylashgan partalar;) va baholashning odatiy shakllariga qaratilgan an’anaviy o‘qitishni rad etadi.[29]

Italiyalik shifokor va bolalar rivojlanishi bo‘yicha mutaxassis ***Mariya Montessori*** yosh bolalar uchun eng yaxshi o‘rganish tajriba orqali degan g‘oyaga asoslangan xalqaro harakatga asos soldi.

Shveytsariyalik psixolog ***Jan Piaje (Piaget)***ning “konstruktiv o‘rganish” nuqtai nazari talabalarni yodlash orqali bilim olishga majburlashdan ko‘ra, ularni o‘quv jarayoniga jalb qilishni yoqladi. U konstruktivistik nazariyaning asoschisi hisoblanib, bu odamlar o‘zlarining fikrlari va tajribalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida dunyodagi bilimlarini faol ravishda qurishlarini ko‘rsatadi.

XX asr oxiri 1960 – yillarda Kanadadagi Makmaster universiteti tibbiyot maktablarida standart amaliyot sifatida qabul qilinadigan loyihaga asoslangan ta’lim yondashuvini amalga oshirdi. Muhandislik, iqtisod va huquq kabi boshqa fanlar tez orada o‘z talabalarini real hayotdagi vaziyatlar va muammolarni hal qilishga o‘rgatish uchun ushbu strategiyalardan foydalana boshladilar. Ba’zi K – 12 maktablari 1980 – yillarda loyihaga asoslangan ta’lim amaliyotini qabul qila boshladilar.

XXI asrda loyihaga asoslangan ta’lim K – 12 ta’limi uchun o‘qitish usuli sifatida yanada takomillashtirildi. Loyihaga asoslangan o‘quv muhiti o‘quvchilarni amaliy ta’limga jalb qiladi, o‘quvchilarga nimani o‘rganish bo‘yicha ko‘proq tanlash imkoniyatini beradi va o‘quvchilarga o‘z ta’lim jarayonlari uchun o‘zlarini mas’ul qiladi.

Stenford va Vanderbilt universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, loyihaga asoslangan ta’limdan foydalanadigan maktab o‘quvchilari matematika, muammolarni hal qilish va rejalashtirish bo‘yicha an'anaviy maktab o‘quvchilaridan ustunroq.

Ko‘p yillik adabiyotlar tahlili va ta’lim sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar asosida Bak Ta’lim Instituti (*the Buck Institute for Education – BIE*) PBL–Loyihaga asoslangan ta’limning ettita muhim elementni aniqladi. Birgalikda bu elementlar Loyihaga asoslangan ta’lim “Oltin Standarti”deb ataladi. Ushbu standartlarga ko‘ra, loyihani loyihalashning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- Murakkab muammo yoki savol
- Doimiy tadqiqot
- Haqiqiylik
- Talaba ovozi (nuqtai nazari) va tanlovi
- Reflektsiya
- Tanqid va qayta ko‘rib chiqish
- Jamoat mahsuloti

Ushbu elementlarning barchasi yaxlit holda qo‘llanilsa, ta’lim oluvchilarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalarni shunchaki odatiy yodlash usuli bilan emas, balki tushunib o‘rganishlariga imkon beradi.Loyihaga asoslangan ta’limning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunday turdagi ta’lim o‘quvchi–talabaga

[29]https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Special:CiteThisPage&page=William_Heard_Kilpatrick&id=11733600

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ma'lum bir muddatgacha bajarishi kerak bo'lgan vazifaga nisbatan hamjihatlikda mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi.

Loyihaga asoslangan ta'lim asosida o'quv jarayonini tashkillashtirishning eng muhim jihati shundaki, LAT orqali o'quvchi – talaba mustaqil ishlash jarayonida o'z imkoniyatlarini ko'rsata olishi mumkin. Bu ta'lim oluvchining ma'lumotlarni saralash, tadqiqot qilish kabi kerakli ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek tengdoshlari bilan ishlash, muloqot qilish, fikr bildirish, qaror qabul qilish qobiliyatinitakomillashtiradi, muammoni jamoada va guruhda muhokama qilib, yechimini topish hamda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Lathram, Lenz va Vander Ark o'zlarining "Preparing Students for a Project – Based World" *("Talabalarni loyihaga asoslangan dunyoga tayyorlash")* nomli elektron kitobida, "LAT yondashuvi tanqidiy fikrlash, shuningdek, muammolarni hal qilish, shaxslararo muloqot, axborot va media savodxonligi, hamkorlik, yetakchilik va jamoaviy ish, innovatsiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish orqali XXI asr qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usulidir" degan fikrni bildirgan.

LAT ning rivojlanish tarixi shundan darak beradiki, bugungi kunda oltin standart loyiha asosidagi ta'limda topilgan asosiy komponentlar o'tmishdagi bir qancha faylasuf va o'qituvchilarning fikr va faoliyatida chuqur ildizlarga ega. Haqiqiylik, mulohaza yuritish, barqaror so'rov, vaqt o'tishi bilan kuzatilishi mumkin bo'lgan talaba ovozi (nuqtai nazari) va tanlovi kabi tushunchalar XXI asr ta'lim tizimidagi kuchli vositalardir.

Muhokama va natijalar

Loyihani o'rganish hamkorlik va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradigan muhitni yaratadi. Talabalar jamoa bo'lib ishlaydi, o'z fikrlarini bildirishni, faol tinglashni va turli nuqtai nazarlarni baham ko'rishni o'rganadi. Loyiha asosidagi hamkorlikdagi munozaralar umumiy muloqot tuyg'usini uyg'otadi va o'quvchilarni jamoaviy mehnatni qadrlashga undaydi. Ushbu tajribalar ularni hamkorlik va samarali muloqot juda talab qilinadigan fazilatlar bo'lgan professional dunyoda muhim bo'lgan muhim shaxslararo ko'nikmalar bilan jihozlaydi. Loyihaga asoslangan ta'limning qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Real hayot bilan aloqadorligi. Loyihaga asoslangan ta'lim ko'pchilik talabalarda o'rganish jarayonida yuzaga keladigan savolga bevosita javob beradi: "Bu hayotda qanday foydali bo'ladi?" Abstrakt bilimlar o'rniga talabalar aniq masalalarni yechish tajribasiga ega bo'ladilar.

Kompleks yondashuv. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar tadqiqot o'tkazadilar, turli manbalardan ma'lumot to'playdilar va allaqachon ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarga tayanadilar.

Fikrlashni rivojlantirish. Loyiha rejasini ishlab chiqish orqali talabalar mantiqni, tanqidiy fikrlash va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Talabalarga yo'naltirish. Loyihaga asoslangan ta'limning maqsadi talabani o'qituvchilar tekshirishi uchun qulay bo'lgan muammolarni hal qilishga o'rgatish emas, balki o'rganilayotgan mavzuga qiziqtirish, tanqidiy fikrlashga undash iborat, shunda u o'zi muammo ustiga izlanishni xohlaydi.

Motivatsiya. Loyihaga asoslangan ta'lim talabaning o'zini ifoda etishga bo'lgan tabiiy istagini uyg'otadi. Talabalar biror narsani «haqiqiy» qilish imkoniyatiga ega bo'lganda, ular buni oxirigacha ko'rishga va boshqalarga qaraganda yaxshiroq qilishga qiziqishadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O'z – o'zini ifodalash. Loyiha ishi talabani yechim tanlashdan cheklamaydi, to'g'ri javoblar ham yo'q, asosiysi natija maqsadga mos keladi. Shunday qilib, loyiha ijodkorlik uchun juda ko'p joy qoldiradi. Bu esa albatta, nafaqat yaxshi, balki o'ziga xos, nafis va samarali bajarilgan ish alohida e'tiborga loyiqdir. Bu bolalarni o'z tasavvurlarini ishga solishga va innovatsion yechimlarni topishga undaydi.

Ko'p subyektivlik. Loyiha ustida ishlash turli ilmiy fanlar integratsiyasini o'z ichiga oladi.

Samaradorlik. Loyiha asosida o'qitish talabalarga nafaqat qimmatli ko'nikmalarga ega bo'lish, balki foydali narsalarni yaratish imkoniyatini beradi. Misol uchun, bolalar maktab uchun broshyurani loyihalashlari, OTM veb – sayti uchun dizayn yaratishlari yoki kursilarni yasashlari mumkin, asosiysi, natija aniq va mahsuldor bo'ladi.

Muloqot. Loyiha bo'yicha birgalikda ishlash jamoani birlashtirishga yordam beradi, yoshlarni jamoada ishlashga, mas'uliyatni taqsimlashga, yetakchi va ijrochilar rolini o'ynashga va bir – birini tinglashga o'rgatadi.

Qiziqish. Loyiha asosida o'qitish foydali va qiziqarli bo'lishi kerak, bu esa uning samaradorligi sirlaridan biridir.

Loyihaga asoslangan ta'limga misollar:

- *Jamoat xizmati*: Talabalar suv toshqini yoki atrof – muhitning ifloslanishi kabi jamiyat muammosini aniqlaydilar va uni hal qilish uchun xizmat loyihasini ishlab chiqadilar. Ular oziq – ovqat yetkazib berishni tashkil qilish, mahalliy parkni tozalash yoki ma'lumot berish kompaniyalarini yaratish kabi tadbirlarni rejalashtirishadi va amalga oshiradilar. Ushbu loyiha empatiya, fuqarolik mas'uliyati va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- *Adabiy moslashuv:* Talabalar o'zlari yoqtirgan kitob yoki o'yinni tanlaydilar va qisqa metrajli film, grafik roman kabi ekranizatsiya yaratadilar. Ular mavzularni tahlil qiladi, qahramonlarni rivojlantiradi va hikoyani jonlantiradi. Ushbu loyiha hikoya qilish qobiliyatini, badiiy ifodani va adabiy tahlil ko'nikmalarini oshiradi.
- *Ilmiy tadqiqot:* talabalar ma'lumot to'plash va natijalarni o'rganish uchun tajribalar o'tkazadilar. Keyin ular to'plangan ma'lumotlarni diqqat bilan tahlil qiladilar. Nihoyat, ular xulosalar chiqaradilar va o'z xulosalarini hisobot yoki taqdimotda baham ko'radilar.
- *Madaniy almashinuv loyihasi:* Talabalar turli madaniyatlarni o'rganadilar, tushunish va qadrlashga yordam beradigan loyiha yaratadilar. Ular multimedia taqdimotlarini yaratishlari, madaniy festivallar tashkil etishlari yoki boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar bilan virtual almashishlari mumkin. Ushbu loyiha global xabardorlikni oshirib, hamkorlikni va madaniyatlararo muloqotni o'rnatishga undaydi.

Garchi LAT zamonaviy ta'lim sifat va samaradorligini oshirishdagi kafolatlangan texnologiyalardan biri deb sanalsada tadqiqotchilarning aniqlashicha, ta'lim jarayonida LATni qo'llash ham o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. LATni loyihalash tamoyillari sinfning faol va yetakchi talabalar hisobiga asosiy "ta'lim vositasi" qilib qo'yilganligi , uning boshqa o'qitish usullariga qanchalik mos kelishi, qancha vaqt davom etishi, undagi rollar, talabalar tanlovi va hamkorlikda o'rganishi yoki o'quv jarayoni qanday baholanishi kerakligi haqida mutaxassislar o'rtasida juda qizg'in bahs mavjud. Natijada, LAT texnologiyasining ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganayotgan tadqiqotchilarga loyiha ishtirokchilari "sodiqlik bilan amalga oshirilmoqda" yoki yo'qligini bilishlari qiyin.

Shuningdek, o'quv mashg'ulotini LAT asosida tashkillashtirmoqchi bo'lgan o'qituvchilar o'z rollarini o'rgatuvchi – o'qituvchidan o'rganishga yordam beruvchiga qadar rivojlantirishlari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427


kerak. Ular noaniqlik, shovqin va harakatga ko‘nikishlari va sinfni boshqarishning yangi ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchilar “o‘z talabalari ushbu yondashuv orqali o‘rganishga to‘liq qodir ekanligiga ishonishlari kerak”, deyiladi hisobotda. Ushbu tavsiyalar nafaqat professional rivojlanishni, balki LATni to‘g‘ri tashkil etish va amalda qo‘llash pedagogdan doimiy izlanishni, o‘z ustida muntazam ishlashni talab qiladi.

LAT asosida kasbiy ko‘nikmalarning takomillashuvini ta’lim jarayoni ishtirokchilari ya’ni o‘qituvchi va talaba faoliyati misolida ko‘rishimiz mumkin.

(*1 – Chizmaga qarang*)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-Chizma. LAT asosida kasbiy ko'nikmalar takomillashuvi
(O'qituvchi va talaba faoliyati misolida)



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL – Project – based learning) talabalarni “haqiqiy hayot”ga tayyorlashda yordam beradi, chunki ular bunda tabiiy ravishda nazariy bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rganadilar.

Loyihaviy ta’lim – amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni egallashning eng samarali yo‘llaridan biri sanaladi.

Loyihani amalga oshirish uchun talabalarga quyidagi amallarni bajarishlari kerak bo‘ladi:

- harakatlar rejasini ishlab chiqish;
- guruhdagi rollarni taqsimlash – kim qaysi vazifani bajaradi;
- narsa va hodisaning turli dizaynlarini o‘rganish va to‘g‘ri tanlash;
- nusxa yaratish;
- xom ashyolarni tanlashni aniqlash va ularning miqdorini hisoblash;
- belgilangan vositani tayyorlash, yasash, qurish va hokazo;
- sinovlarni o‘tkazish va kerak bo‘lganda dizaynga tuzatishlar kiritish;
- loyihani jamoatchilikka taqdim etish va uning afzalliklari haqida gapirish.

Har bir bosqichda talabalar muammolarga duch kelishlari kerak, ularni hal qilishda ma’lumot izlaydilar, mantiqiy, tanqidiy va dizayn fikrlashni, tasavvurni qo‘llaydilar, rasm chizadilar, hisoblaydilar, qo‘llar bilan ishlaydilar, sabr – toqat va matonat ko‘rsatadilar, yakuniy bosqichda ham notiqlik fazilatlaridan foydalanadilar.

Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini o‘rganadilar va asta – sekin muammoni hal qilishning noyob usullarini rivojlantiradilarki, keyinchalik ulardan boshqa jabhalarda ham foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Talabalar, o‘qituvchilar va yetakchilarni loyihaga asoslangan dunyoga tayyorlashda, LAT jamiyatdan ajralib qolgan, odamovi o‘quvchilarni ruhlantirishda, faollashtirishda, qo‘llab – quvvatlashda eng maqbul yondashuv sifatida tan olinadi. O‘z navbatida, LAT mazmunli, haqiqiy va ko‘pincha real dunyoda o‘rganishga ishtiyoqli, akademik va kasbiy muvaffaqiyatiga olib boradigan chuqurroq o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi va targ‘ib qiluvchi talabalar (o‘qituvchilar va liderlar) avlodini yaratishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bianka, “Froebel’s Kindergarten: The Origins of Early Childhood Education.” Sprouts. August 1, 2021. https://sproutsschools.com/froebels – kindergarten – the – origins – of – early – childhood – education/
2. Boss, Suzie. Project – Based Learning: A Short History. September 20, 2011. https://www.edutopia.org/project – based – learning – history
3. Buck Institute for Education. (n.d.). Gold standard PBL: Essential project design elements. PBLWorks."Gold Standard PBL: Essential Project Design Elements - PBLWorks." 30 мая. 2023, https://www.pblworks.org/blog/gold-standard-pbl-essential-project-design-elements.
4. Doles, Kyna. “What is Project – Based Learning?” Frontline, July 17, 2012, https://www.pbs.org/wgbh/frontline/article/what – is – project – based – learning/
5. Fassmann, Maya. “Henriette Goldschmidt.” Shalvi/Hyman Encyclopedia of Jewish Women. 31 December 1999. Jewish Women’s Archive. (Viewed on December 6, 2021) https://jwa.org/encyclopedia/article/goldschmidt – henriette

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. Jääskelä, P., Häkkinen, P., & Rasku – Puttonen, H. (2017). Teacher Beliefs Regarding Learning, Pedagogy, and the Use of Technology in Higher Education. Journal of Research on Technology in Education, 49, 198 – 211.
7. Valeriyevna, Izbullayeva. (2023). Pedagogika nazariyasi va tarixi 1 – qism https://www.researchgate.net/publication/368542989_
8. Valeriyevna, Izbullayeva. (2023). MUTAXASSISLIKKA KIRISH 1 – qism.
9. Lex.uz ,08.10.2019; PF – 5847 – son
10. Project – based learning, Wikipedia, the free encyclopedia. "Project-based learning - Wikipedia." https://en.wikipedia.org/wiki/Project-based_learning.

УДК 371.372

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONTSENTRATSIYANI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Isroilova Xusnida Adilovna, erkin tadqiqotchi
E-mail: israilovaxusnida@gmail.com
Andijon davlat universiteti,
Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. *Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishning pedagogik zarurati, maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiyani tadqiq qilishda diqqat va xotiraning roli, shuningdek bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishda jismoniy tarbiya va o'yinning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kontsentratsiya, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, mashq, jismoniy tarbiya, o'yin, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, M.Montessori pedagogikasi.*

ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КОНЦЕНТРАЦИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Исраилова Хуснида Адиловна, базовый доктарант
E-mail: israilovaxusnida@gmail.com
Андижанский государственный университет,
Андижан, Узбекистан

Аннотация. *В данной статье обсуждается педагогическая необходимость развития концентрации внимания у детей, роль внимания и памяти в исследовании концентрации внимания у детей дошкольного возраста, а также роль физического воспитания и игры в развитии концентрации внимания у детей.*

Ключевые слова: *концентрация, внимание, память, воображение, мышление, упражнения, физическое воспитание, игра, педагог, ученик, педагогика М. Монтессори.*

APPROACHES TO DEVELOPING CONCENTRATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Isroilova Xusnida Adilovna, doktarant
E-mail: israilovaxusnida@gmail.com
Andijan State University,
Andijan, Uzbekistan

Annotation. *This article discusses the pedagogical need for the development of concentration in children, the role of attention and memory in the study of concentration in preschool children, as well as the role of physical education and games in the development of concentration in children.*

Key words: *concentration, attention, memory, imagination, thinking, exercises, physical education, game, teacher, learner, pedagogy of M. Montessori.*

Kirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy diqqati ularning iroda kuchi yordamida yuzaga keladi va ko‘p hollarda bolani toliqtiradi. Noixtiyoriy diqqat esa aksincha boladan ortiqcha kuch talab etmaydi, chunki bola band bo‘layotgan faoliyat kattalarning majburlashi sababli emas, aksincha bolaning o‘zini tashabbusi asosida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy diqqatining ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganib chiqish pedagogik zarurat sifatida ko‘riladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabatlar tizimi doirasida maktabgacha yoshdagi bolaning diqqati ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy turlari tahlili bo‘yicha mezonlarni aniqlashtirishda ilmiy tadqiqotlar tahlili qilish lozim ko‘rildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy, noixtiyoriy va ikkilamchi noixtiyoriy diqqatning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, bolalarda diqqatning hamma turi ham o‘z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Pedagogik jihatdan konsentratsiyaning har bir turiga ma’lum bir o‘qitish metodlari mos keladi. Konsentratsiyaning barcha turiga xos afzallik tarbiyachi va bolaning “subyekt-subyekt” sifatida munosabatga kirishuvida bo‘lib, kamchiligi esa ularning “subyekt-obyekt” sifatida o‘zaro munosabatga kirishishidadir. Shu bilan birgalikda ta’kidlab o‘tish kerakki, konsentratsiyaning bu sifati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining pedagogik shart-sharoitlari qay darajada yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Mashhur pedagog olima M.Montessori bolaning diqqat-e’tiborini jamlash uchun quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi:

- bolada mashgulotga qiziqish uygotish;
- bola e’tiborini ma’lumotni qabul qilishga tayyorlash;
- bolaga erkinlik berish (o‘quv jihozlari tanlovi erkinligi, mashg‘lotning davomiyligi erkinligi).

Adabiyotlar tahlili

M.Montessori bu shartlarni bolaning ichki ehtiyojlarini qondiradigan, uning faoil ishtirokini, mashgulot, o‘yin, mashqda faol ishtirokini ta’minlashda, sabrini rivojlantiradigan qo‘shimcha “rag‘batlantiruvchi material” bilan to‘ldirishni taklif etadi. M.Montessori o‘z ilmiy asarlarida bolaning diqqat-e’tiborini jamlashning “asosiy to‘siq”larini ham keltirib o‘tadi. Ular quyidagilar: mashg‘ulotlarning tez almashinuvi; bola biror faoliyat bilan mashg‘ulligi davomidagi tez-tez qilinadigan tanaffuslar. M.Montessori mashg‘ulotning bola xohishiga zid ravishda kutilmaganda tugatilishi undagi konsentratsiyasini yo‘qolishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Buning natijasida bolada mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqish so’nadi, degan xulosa kelgan.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, “…patologik holatlarda diqqat-e’tiborning rivojlanish darajasi aql mezoni va bolaning maktabga tayyorligi ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin”.[30] Shunday qilib, diqqat-e’tibor – “bu ma’lum bir vaqtda subyekt faoliyatining biron bir

[30] Выготский Л.С. История развития высших психологических функций: Собр.соч.: В 6 т. Т.3. – М.: 2010. – 130 с. – 58.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

real yoki ideal obyektga (yani, predmet, voqea, obraz, fikrlar va hokazolarga) diqqat e'tibori jamlanganligidir".[31]

A.V.Petrovskiyning fikriga ko'ra "konsentratsiya – bu aqlning ma'lum bir obyektlarga, yani shaxs uchun barqaror yoki ma'lum bir vaziyatda vaqtinchalik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarga yonaltirilishi, hissiy, intellektual yoki harakat faolligi bilan bog'liq aqliy diqqat e'tibordir".[32]

L.S.Vigotskiyning fikricha: "…5-6 yoshdagi bolada o'z-o'zini boshqarish ta'sirida elementar ihtixoriy konsentratsiya paydo bo'ladi. Diqqat-e'tibor aktiv faoliyatda, o'yinlarda, obyektlar bilan manipulyatsiyalarda, turli harakatlarni bajarishda ko'proq barqaror holda mavjud bo'ladi".[33]

Bolaning diqqat-e'tibori uning atrofidagi narsalar va bu narsalar bilan bajariladigan harakatlarga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. Bolaning diqqat-e'tibori uning qiziqishi so'ngunicha jamlangan bo'ladi. Biror bir yangi narsa paydo bo'lishi bilan bolaning e'tibori o'sha narsaga ko'chadi. Shuning uchun bolalar o'zlarini uzoq vaqt davomida bir xil mashg'ulot bilan band qila olishmaydilar.[34]

Tadqiqot metodologiyasi

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi aniq faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi.[35]

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining murakkablashib borishi va umumiy kognitiv rivojlanishi o'sishining hisobiga bola konsentratsiyasi ko'proq jamlanadi hamda barqarorlikka ega bo'ladi. 5 yoshdan boshlab bolalar diqqatni jamlashni talab qiladigan narsalarga ixtiyoriy ravishda yo'naltirishni o'rganadilar. Masalan, biron bir narsani konturini aniq va tekis qilib chizish talabi, musiqiy mashg'ulotlarda tarbiyachining ishorasi bilan yugurishdan sakrashga, keyin esa sekin qadamlarga o'tish talabi kabi mashg'ulotlar bolaning ixtiyoriy konsentratsiyasini rivojlantiradi. Bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirish ularda nutqni rivojlantirish bilan uzviq bog'liq. Bolaning faoliyati maqsadi faqat so'z bilan ifodalanadi.[36]

A.A.Smirnov va P.I.Zinchenko murakkab ma'lumotlarni eslab qolishning asosiy usullarini ta'kidlab o'tganlar va yodda saqlab qolishning belgilangan vazifaga bog'liqligini aniqladilar. Ma'lum davrgacha xotira psixologiyaning eng ko'p o'rganilgan sohasi deq qarash mumkin edi. Biroq xotira bo'yicha so'nggi tadqiqotlar hozirgi kunda uni psixologiya fanining asosiy muammosiga aylantirdi. Xotira rivojlanishi muammosi oxirigacha ko'rib chiqilmagan ilmiy muammo sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira rivojlanishi ham bundan mustasno emas.

Tahlillar va natijalar

Bugungi kunga kelib xotira mexanizmini o'rganishda juda ko'p yondashuvlar mavjud.

[31] Немов Р.С. Психология: В 3 кн. – Кн.1. – М.: 2009. – 210 с.
[32] Гальперин П.Я. К проблеме внимания: Хрестоматия по психологии. – М.: 2011. – 200 с. – 187.
[33] Немов Р.С. Психология: В 3 кн. – Кн.1. – М.: 2009. – 210 с.
[34] Баскакова И.Л. Внимание дошкольника, методы его изучения и развития. Изучение внимания школьников. – М.: Издательство "Институт практической психологии". – Воронеж: "МОДЭК", 2010. – 64 с.
[35] Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2011. – B. 11 (186).
[36] Пылаева Н.М., Ахутина Т.В. Школа внимания. Методика развития и коррекции внимания у детей 5-7 лет. Методическое пособие. – М.: ИНТОР, 2011. – 97 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ushbu yondashuvlarning tadqiq qilinganlik darajasi turlicha bo‘lib, kognitiv faoliyat tizimini o‘rganuvchi mavjud xotira nazariyalari biologik, kimyoviy, fiziologik va psixologik darajalardadir. Xotira mexanizmlari va shakllarini o‘rganish fanlararo masala hisoblanadi. Xotira inson hayotining har bir bosqichida o‘z aksini topadi. Shunisi e’tiborga loyiqki, xotirani ilmiy o‘rganish nafaqat inson tajribasini saqlash, eslash va qayta chiqarish jarayonlarini, balki DNKni uzatish usullarini ham aks ettiradi.

Ko‘p asrlar davomida xotira qonuniyatlari va mexanizmlari bo‘yicha ko‘plab nazariyalar (psixologik, kimyoviy, fiziologik va boshqalar) yaratildi. Bu nazariyalar psixologiya fanining o‘ziga xos sohalarida paydo bo‘lgan va muammolarni mos uslubiy tamoyillar nuqtai nazaridan hal qilgan.[37]

Taniqli fan arboblarining sanab o‘tilgan barcha asarlari xotira psixologiya fanining eng ko‘p o‘rganilgan masalasi ekanligini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda dunyoda xotira jarayonlari, mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganishga juda ko‘p yondashuvlar va nazariyalar mavjud bo‘lib, ular turli darajalarda, yani: fiziologik, psixologik, neyron va bioximik darajalarda o‘rganilmoqda. Xotira bu murakkab jarayondir va u juda ko‘plab mexanizmlar faoliyatini o‘z ichiga oladi.[38]

O‘yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o‘yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi.[39]

Malumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalar faoliyatini maqsadga yo‘naltirishda, tizimlashtirishda, tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalar harakatlarini muvofiqlashtirish, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuch, tezlik kabi jismoniy xususiyatlarni hamda iroda, tirishqoqlikni rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bolalarda diqqatning sifat ko‘rsatkichlari (barqarorligi, ko‘lami, ko‘chirilishi, taqsimlanishi, to‘planishi (konsentratsiyasi)) rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida bolalarning diqqat-e’tiborini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni shakllantirish pedagogik zarurat hisoblanadi.

Shu o‘rinda diqqatning sifat ko‘rsatkichlarini tavsiflash o‘tish lozim. Diqqatning barqarorligi, ko‘lami, ko‘chirilishi, taqsimlanishi, to‘planishi (konsentratsiyasi) uning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Diqqatning xususiyatlari turli odamlarda turlicha darajada ko‘zga tashlanadi. Diqqatning kuchi va barqarorligi dyeb, odam o‘z diqqatini biron narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Chunki, diqqatni ma’lum muddat davomida biron narsaga muttasil, ya’ni uzluksiz tarzda qarata olmaydigan odam ishlay ham olmaydi, o‘qiy ham olmaydi va hatto o‘ynay ham olmaydi. Diqqatning barqarorligi bu uncha-muncha ta’sirlarga chalg‘imaslikdir. Diqqatning kuchli va barqaror bo‘lishi bir qancha sabablarga bog‘liqdir. Birinchidan, diqqat qaratilgan narsaning xususiyatlari qanchalik ahamiyatga ega ekanligiga,

[37] Ивко И.А. Развитие физических качеств у детей 5-6 лет посредством комплекса упражнений с элементами хатха-йоги / И.А.Ивко, О.М.Чусовитина, Е.И.Швецова // Вестник Кемеровского гос. ун-та. – 2015. – №4. – С. 40-45.

[38] Желнина С.Н. Использование элементов хатха-йоги в физкультурнооздоровительной работе с детьми 5-7 лет / С.Н.Желнина. – Кемерово, 2017. Scientific Cooperation Center “Interactive plus” 7Content is licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 license (CC-BY 4.0)

[39] Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ikkinchidan, diqqat qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatga, uchinchidan, nyerv sistemasining ayrim xususiyatlariga bog‘liqdir. Bularning hammasi obyektiv, ya’ni inson irodasi bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi, albatta subyektiv, ya’ni insonning ayni chog‘dagi holati bilan ham bog‘liq. Masalan, ayni chog‘da byetob bo‘lib turgan odamning yoki boshiga bir og‘ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo‘la olmaydi.

Diqqatning barqarorligi uning harakatchanlik xususiyati bilan ham bog‘liqdir. Diqqatning harakatchanlik xususiyatlaridan biri – uning o‘zgaruvchanligi (fluktuatsiyasi, tebranishi)dir. Diqqat tyebranishi deganda diqqatning jadallik darajasi, vaqti-vaqti bilan qisqa muddatga kuchayib yoki sustlashib ketishi tushuniladi. Agar juda kuchsiz, zo‘rg‘a eshitiladigan ovozga quloq solinsa, masalan, soatning chiqillashiga quloq solinsa, diqqat jamlangan bo‘lishiga qaramay, bu ovoz goh baland, goh past eshitiladi. Bir-biriga yaqin bo‘lgan yorug‘lik farqini ajratishda ham xuddi shunday hodisa yuz byeradi. Diqqatning bunday tyebranish davrlari hisoblab chiqilgan. Ma’lum bo‘lishicha, diqqat tyebranishining davomiyligi 2-3 syekunddan oshmaydi (ko‘pi bilan 12 sekundga teng bo‘ladi).

Agar diqqat qaratilgan narsa qiziqarli va yangi, mazmundor bo‘lsa shu narsaga diqqatni ancha vaqt qaratib turish mumkin bo‘ladi. Bolalarni hayvonot bog‘iga olib borganda yoki juda qiziqarli ertak o‘qib byerayotganda ularning diqqati kuchli va barqaror bo‘ladi. Bundan tashqari, diqqat qaratilgan narsa bilan faol munosabatda bo‘lish ham diqqatni kuchli va barqaror qiladi. Masalan, bolalar o‘yinchoqlarni idrok qilish bilangina chyeklanmay, bu o‘yinchoqlar bilan faol harakatda bo‘lsalar (masalan, kubiklardan biron narsa yasash yoki mashinalarni qo‘l bilan yurgizish kabi) ularning diqqati kuchli va barqaror bo‘ladi.

L.M.Zaxarova va V.S.Zaxarovaning tadqiqotlariga asosan bola kognitiv faoliyatining samaradorligi, ixtiyoriy harakatlarining rivojlanishi va umuman o‘zini tutishi ko‘p hollarda bola diqqat-e’tiborini boshqarishi bilan belgilanadi.[40] Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga jismoniy faoliyatning ta’sirini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar diqqat-e’tiborini rivojlantirishning eng samarador usullaridan biri bu – jismoniy tarbiya amaliyotiga harakatli o‘yinlarni joriy etishdir. Mualliflarning fikriga ko‘ra, aynan harakatli o‘yinlar bolalarning intellektual va kognitiv rivojlanishi dinamikligini ta’minlaydi. Bu yosh davrida o‘yin faoliyati yetakchi hisoblanib, bola o‘yin vositasida motorik faoliyatni bajarishga emotsional jihatdan jalb qilinadi hamda qiziquvchanlikni, diqqat-e’tiborni, barqarorlikni rivojlantiradi. Bu albatta harakatli o‘yinlarning tuzilishi va shartlari bilan uzviy bog‘liq. Bunday o‘yinlarda ko‘p hollarda o‘yin qoidalari va vazifalari bosqichma-bosqich murakkablashib boradi, shu bilan birga bir vaqtning o‘zida o‘yin bolalarni berilgan sharoitlarga muvofiq harakatlarni qanday amalga oshirishni ongli ravishda tanlash zarurligini nazarda tutadi hamda shu vaziyat vujudga keladi. Harakatli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat-e’tiborni rivojlantiradi. Bu esa bola tomonidan harakatli o‘yin qoidalariga amal qilish, harakatlarni ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshirish, maqsadga erishishda qat’iyatni namoyon qilishi tufayli yuzaga keladi.[41]

[40] Захарова Л.М. Влияние физической активности на познавательное развитие детей старшего дошкольного возраста / Л.М. Захарова, В.С. Захарова // Педагогико-психологические проблемы физической культуры. – 2017. – №12. – С. 136-143.

[41] Захарова Л.М. Влияние физической активности на познавательное развитие детей старшего дошкольного возраста / Л.М.Захарова, В.С.Захарова // Педагогико-психологические проблемы физической культуры. – 2017. – №12. – С. 136-143.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O.A.Grigoryevning fikricha, ma'lum tur mashg'ulotlar bolalarda diqqat-e'tiborning ma'lum bir xususiyatlarini rivojlanishiga yordam beradi.[42] To'pni ushlash va uloqtirish mashqlari obyektga ma'lum bir yo'nalish, traektoriya va uloqtirish tezligini belgilash zarurligini anglatadi. Bu turdagi mashg'ulotlar bolaning nafaqat jismoniy ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki bolaning diqqat-e'tiborini jamlashni ham rivojlantiradi.

O.N.Gumenyuk o'zining bolalarda psixofiziologik jarayonlarni rivojlantirishda yoga amaliyoti elementlaridan foydalanishni tavsiya etgan va bu bo'yicha ko'plab tajribalar o'tkazgan. Tajribalarda bolalar chuqur, shuningdek turli xil nafas olish mashqlarini bajarishi ularda diqqatni jamlash va boshqa yuqori aqliy funktsiyalari rivojlanishini ko'rsatadi. Muallif bolalarda diqqat-e'tiborni samarali rivojlantirish metodikasi sifatida "Havo pufagi" nafas olish mashqida qo'llanilgan meditatsiya amaliyotini keltiradi. Bu mashq chuqur diafragmal nafasni to'gri olishga qaratilgan bo'lib, sekin, chuqur va maksimal nafas olish (huddi katta sharni puflamoqchi bo'lgandek) hamda burun orqali sekin nafas chiqarishdan iborat. Bu mashqni bajarishda bolaga har nafas chiqarishda o'z tanasini hotirjam holda tutishni eslatish lozim. Bunday mashqni bajarish bolalarga o'z nafas olish jarayonini ongli ravishda kuzatish hamda tanani ixtiyoriy hotirjam qilish ko'nikmasini rivojlantirishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida bola diqqatini jamlashni, e'tiborining barqarorligi va diqqatni bir faoliyatdan boshqasiga ko'chira olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun O.N.Gumenyuk ushbu mashqning yanada dinamikroq variantini tavsiya etadi va bi "Sher ovozi" deb nomlanadi. Mazkur mashqning bajarish ketma-ketligi quyida keltirilgan: qo'llaringizni yon tomonga va boshingizdan yuqoriga yoyib, qorningiz ichidagi havo pufagini qanday qilib ishirayotganingizni, uni kattalashayotganini tasavvur qiling. Endi men sizning sharingizni yorib yuboraman. "Paq" etib yorilgan shar ovozini eshitganingizda, burningizdan keskin nafas chiqaring va sherdek gilamchaga yiqiling" harakatlarni qo'shishni taklif etadi.[43] Bu mashqni bajarish jarayonida iroda, diqqat-e'tibor rivojlanadi. Bolalar bir vaqtning o'zida harakatlarni bajarishi, tarbiyachi tomonidan aytilgan ma'lumotni tinglashi, shuningdek bir qator ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishi kerak.

O.N.Gumenyuk tomonidan tavsiya etilgan "Sher ovozi" mashqi bolalarda o'zgacha qiziqish uyg'otadi. Bu mashq jarayonida bolalar nafas olish va ovozini birgalikda qo'llab yorilgan sharni ovoziga maksimal darajada o'hshatib ovoz chiqarishi kerak bo'ladi. Bu mashqda bolalarni qichqirishi emas, balki sherdek ovoz chiqarishini (nara qilishi/bo'kirishi) kuzatish lozim bo'ladi. Bu mashqni bajarish orqali bolalarda boshqa faoliyatlar qatorida nafas olish ritmini ongli ravishda boshqarish ko'nikmasi shakllanadi va bu irodani, diqqat-e'tibor hajmi, uning taqsimotini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalar diqqat-e'tiborini rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya mashgulotlarida yoga amaliyotidan olingan, turish (posturalar), nafas olish texnikalari, mashqlari kabi asosiy elementlarga asoslangan mashqlar keng joriy etilmoqda

[42] Григорьев О.А. Физическое воспитание в дошкольных учреждениях / О.А.Григорьев, Н.А.Карлова, Ю.Г.Черных. – Воронеж: Изд-во ВГПУ, 2006. – 91 с.

[43] Гуменюк О.Н. Использование элементов практик йоги в развитии психофизических процессов у детей с ОВЗ / О.Н.Гуменюк. – Ижевск, 2018.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va samaradorligi ta'minlanmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoga amaliyotidan olingan turli mashqlarni bajarishi nafaqat ularning diqqat-e'tiborini ihriyoriyligini rivojlantirishga, balki bolalar e'tiborining asosiy xususiyatlarini (barqarorlik, bir narsadan diqqatni boshqa narsaga ko'chira olishni, davomiylikni, taqsimotni) ham takomillashtiradi.

Yosh va rivojlanish xususiyatlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar uzoq vaqt davomida bir harakatga yoki jismoniy mashqlarga e'tiborni ixtiyoriy ravishda ushlab turolmaydilar. Shuning uchun pedagoglar mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazishda ularning qiziqishi, ehtiyojlarini hisobga olishi, monotonlikdan uzoqlashishi, mashg'ulotlarning turli variantlaridan foydalanishi, bolalarning hissiy-aqliy rivojlanishini hisobga olishi lozim.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish gimnastika mashqlariga ochiq havoda tashkil etiladigan harakatli o'yinlarni ham qo'shish kerak. O'yin faoliyati bolani harakatli mashqlarni bajarishga emotsional jihatdan jalb qilib, qiziqishni rivojlantiradi, konsentratsiyani rivojlanishini, diqqat-e'tiborni barqarorligini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida bolalar kognitiv faoliyatining rivojlanish dinamikasini ta'minlaydi. Ochiq havoda o'ynash qoidalariga rioya qilish va maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik bola shaxsining irodaviy sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Umuman olganda bolalarda kontsentratsiyani tadqiq qilish – ularda anglash, xotira, fikrlash, tasavvur konsentratsiyaning ahamiyati bilan belgilanadi. Diqqat-e'tibor ongni ma'lum bir obyektga, hodisaga yoki faoliyatga yo'naltiruvchi unda konsentratsiyani jamlovchi jarayon sifatida tavsiflanadi. Buni hisobga olgan holda konsentratsiya kognitiv jarayonlarni ishga tushishi va tartibga solinishini "yo'lga qo'yadi". Shuning uchun, bolalarda konsentratsiyani rivojlantirish bilan bo'gliq bo'lgan masalalar pedagogik amaliyotda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баскакова И.Л. Внимание дошкольника, методы его изучения и развития. Изучение внимания школьников. – М.: Издательство "Институт практической психологии". – Воронеж: "МОДЭК", 2010. – 64 с.
2. Выготский Л.С. История развития высших психологических функций: Собр.соч.: В 6 т. Т.3. – М.: 2010. – 130 с. – 58.
3. Гальперин П.Я. К проблеме внимания: Хрестоматия по психологии. – М.: 2011. – 200 с. – 187.
4. Григорьев О.А. Физическое воспитание в дошкольных учреждениях / О.А.Григорьев, Н.А.Карлова, Ю.Г.Черных. – Воронеж: Изд-во ВГПУ, 2006. – 91 с.
5. Гуменюк О.Н. Использование элементов практик йоги в развитии психофизических процессов у детей с ОВЗ / О.Н.Гуменюк. – Ижевск, 2018.
6. Желнина С.Н. Использование элементов хатха-йоги в физкультурнооздоровительной работе с детьми 5-7 лет / С.Н.Желнина. – Кемерово, 2017. Scientific Cooperation Center "Interactive plus" 7Content is licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 license (CC-BY 4.0)
7. Захарова Л.М. Влияние физической активности на познавательное развитие детей старшего дошкольного возраста / Л.М. Захарова, В.С. Захарова // Педагогико-психологические проблемы физической культуры. – 2017. – №12. – С. 136-143.
8. Ивко И.А. Развитие физических качеств у детей 5-6 лет посредством комплекса

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

упражнений с элементами хатха-йоги / И.А.Ивко, О.М.Чусовитина, Е.И.Швецова // Вестник Кемеровского гос. ун-та. – 2015. – №4. – С. 40-45.
9. Немов Р.С. Психология: В 3 кн. – Кн.1. – М.: 2009. – 210 с.
10. Немов Р.С. Психология: В 3 кн. – Кн.1. – М.: 2009. – 210 с.
11. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 11 (186).
12. Пылаева Н.М., Ахутина Т.В. Школа внимания. Методика развития и коррекции внимания у детей 5-7 лет. Методическое пособие. – М.: ИНТОР, 2011. – 97 с.
13. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ilm ziyo” nashriyoti, 2011. – B. 88 (186).

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ

Каримова Наргиза Яхёевна
Андижанский государственный университет
Специализация 13.00.01- Теория педагогики. История педагогических наук
Базовый докторант 2-го курса

Аннотация: *Статья посвящена повышению эффективности формирования идеологического иммунитета у молодежи. Отмечена важность национальных и религиозных ценностей в формировании идеологического иммунитета и идеологической компетентности у молодёжи.*

Ключевые слова*: молодёжь, национальные и религиозные ценности, идеологический иммунитет, идеологическая компетентность, воспитание, развитие, личность, мировоззрение, жизненная позиция.*

YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING O’RNI

Karimova Nargiza Yaxyoyevna
Andijon davlat universiteti
13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqola yoshlar o’rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish samaradorligini oshirishga bag’ishlangan. Yoshlar o’rtasida mafkuraviy immunitet va mafkuraviy kompetentsiyani shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyati qayd yetilgan.*

Kalit so’zlar*: yoshlar, milliy va diniy qadriyatlar, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy kompetentsiya, tarbiya, rivojlanish, shaxs, dunyoqarash, hayotiy pozitsiya.*

THE ROLE OF NATIONAL AND RELIGIOUS VALUES IN THE PROCESS OF FORMING IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUTH

Karimova Nargiza Yahyoyevna
Andijan State University
Specialization 13.00.01- Theory of pedagogy. History of pedagogical Sciences

Basic doctoral student of the 2nd year

Annotation: *The article is devoted to improving the effectiveness of the formation of ideological immunity among young people. The importance of national and religious values in the formation of ideological immunity and ideological competence among young people is noted.*

Keywords*: youth, national and religious values, ideological immunity, ideological competence, upbringing, development, personality, worldview, life position.*

Введение

Средняя Азия на протяжении тысячелетий была центром встречи и сосуществования самых различных религий, культур и укладов. Этническая, религиозная терпимость, открытость стали естественными нормами, необходимыми для развития народностей. Здесь веками кочевые народы уживались с оседлыми, иранские племена с тюркскими, мусульмане с иудеями и христианами. С обретением независимости в Узбекистане происходят коренные изменения во всех сферах жизни общества, включая духовную.

Накопленный за годы независимости опыт государственного и общественного строительства, свой собственный путь развития, признанный мировой общественностью как “узбекская модель”,— все исторические преобразования, осуществляемые с целью создания государства с великим будущим, оказывают огромное влияние на умы и сердца нашей молодёжи.

Достижение наших благородных целей, окончательное освобождение от старых идеологических догм, недопущение идейного вакуума, защита от посягательств чуждых идей, воспитание всесторонне развитых личностей — все это требует формирования новой идеологии, соответствующей интересам нашего общества.

Под влиянием социальных, политических, экономических и иных факторов, наиболее подверженных деструктивному влиянию, в молодежной среде легче формируются радикальные взгляды и убеждения. Молодежная среда в силу своих социальных характеристик и остроты восприятия окружающей обстановки является той частью общества, в которой наиболее быстро происходит накопление и реализация негативного протестного потенциала.

Основная часть. Main part. Ни один народ, четко представляющий свои жизненные цели, заботящийся о своем будущем, никогда не жил и не сможет жить без национальной идеи и идеологии. Без идеи любое государство и общество, не говоря уже о человеке, неизбежно собьются с пути.

Национальные, общечеловеческие и религиозные ценности – это три жизненно значимых и равноценных источника формирования и развития национальной идеи независимости в Узбекистане. Ни одна национальность или нация не может жить и развиваться отдельно, в отрыве от всемирной цивилизации, основываясь только на свою собственную науку, культуре и истории. Его национальная идея не может формироваться и развиваться без использования достижений других наций и национальностей, без творческого и критического их анализа. Поэтому процесс идеологического развития любого народа, любой нации не ограничивается собственными достижениями, а в нём активно используется открытия и достижения других наций и национальностей. Величие

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

народа проявляется не в ограждении от других народов и национальностей, а в отражении в его национальной идеологии общечеловеческих, межнациональных ценностей, в приемлемости творчески усвоенных идейных достижений, передовых прогрессивных мыслей, законов и правил других народов.

Главная цель идеологии национальной независимости — объединять народ во имя великого будущего, побуждать каждого гражданина страны, независимо от его национальности, языковой и религиозной принадлежности, к жизни с чувством постоянной ответственности за судьбу своей Родины; воспитывать гордость за богатейшее наследие предков, накопленные духовные ценности и благородные традиции; формировать высоконравственных и гармонично развитых людей; превращать в смысл жизни самоотверженность ради нашей священной земли.

Еще раз стало очевидным, что существующая идеологическая угроза представляет довольно серьезную опасность для мира и стабильности, нашей свободной жизни, и что все здоровые силы в обществе должны вести серьезную борьбу против нее. В чем, заключается самый главный фактор устранения этих угроз?

Мы не должны забывать, что фундамент нашего будущего создается в областях знаний. Иными словами, от образования и воспитания наших детей сегодня зависит будущее нашей нации. В законе об Образовании дано чёткое определение «воспитание – это системный процесс, направленный на всестороннее развитие молодого поколения на основе конкретного целевого и социально-исторического опыта, формирование сознания, духовно-нравственных ценностей и мировоззрения, а образование — это системный процесс, направленный на предоставление обучающимся глубоких теоретических знаний, умений и практических навыков, а также на формирование общеобразовательных и профессиональных знаний, умений и навыков, развитие способностей»[1]. Следовательно, так как главной целью и задачей сферы образования определили взаимодополняющий процесс воспитания и обучения будущего поколения, необходимо установить приоритеты, чтобы работа по данному действию осуществлялась гармонично.

Для повышения эффективности образования и достижения полного усвоения знаний, наряду с формированием у студентов идеологического иммунитета и для обеспечения того, чтобы личность была в центре внимания образовательного и воспитательного процесса, учебным заведениям нужны преподаватели, которые, помимо прочного приобретения знаний как в своей области, так и в религиоведении, педагогике, владеющие современными педагогическими технологиями и интерактивными методами, а так же могут использовать их в организации учебно-воспитательной деятельности. Для этого необходимо вооружить всех педагогов естественных наук инновационными, педагогическими технологиями и методами, кроме того дать возможность развивать знания об аксиологическом подходе обучения, а так же совершенствовать навыки применения полученных знаний в образовательно-воспитательной деятельности.

Несомненно, некоторые специфические для «Системы образования» процессы, взятые из зарубежных стран являются так же ещё одним актуальным вопросом в воспитании и обучении студентов. Необходимо знать о некоторых системах, не свойственных нашему менталитету, противоречащих аксиологическому подходу, а именно, в какой бы сфере мы ни находились, беспроводная сеть интернет, западные фильмы, различные сериалы и компьютерные игры на сегодняшний день активно вошли

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

в нашу жизнь и занимают большую часть времени. Так же в последние годы возрастает значение религиозно-конфессионального фактора в мировом политическом пространстве. Участились случаи использования религии в злонамеренных целях против принципов демократии. И в сегодняшнюю эпоху акцент в качестве чрезвычайно важной задачей был сделан на повышении духовности подрастающего поколения, усилении у них чувства национальной гордости наряду с формированием нравственного воспитания.

В плане осуществления контрольно-аналитической функции комитет рассмотрел ход исполнения Министерством народного образования Закона Республики Узбекистан "Об образовании", чему, конечно, предшествовало тщательное изучение состояние дел на местах. В рамках Государственной общенациональной программы развития школьного образования производится реконструкция, капитальный и текущий ремонт зданий, школы обеспечиваются современным учебно-лабораторным оборудованием и компьютерной техникой, совершенствуются образовательные стандарты, уделяется внимание материально-техническому укреплению спортивной базы школ и развитию детского спорта. Создано новое поколение учебников по интерактивным методам обучения, внедряются модернизированные учебные программы. Все это служит той же конечной цели - воспитанию учащейся молодежи в духе идеи национальной независимости.

В этой связи в концептуальной основе воспитания молодежи стоит отметить основные направлений воспитательной работы:

1. Воспитание узбекского патриотизма и гражданственности, правовое воспитание.
2. Духовно-нравственное воспитание .
3. Семейное воспитание.
4. Интеллектуальное воспитание, воспитание информационной культуры.
5. Физическое воспитание, здоровый образ жизни

Вместе с тем, наблюдается противоречие между осознанием необходимости национального воспитания и недостаточным уровнем формирования гражданской позиции, чувства патриотизма, национального достоинства у детей и молодёжи.

У отдельной части молодежи исчезает социально-позитивная инициативность, которую все больше заменяет увлечение бесцельным времяпровождением. В воспитательной работе превалируют организация досуговой деятельности молодежи, разовых шоу-мероприятий развлекательного характера.

В воспитательной системе наблюдается ряд проблем, связанных с обострением глобального процесса:

- ориентирование детей и учащейся молодежи на культурные ценности запада, на низкопробные информации СМИ и интернет-сайтов;
- пропаганда жестокости, увлечение детей и подростков курением, употреблением алкоголя и наркотиков;
- понижение семейных ценностей, уничтожение традиций семейного воспитания;
- наблюдается социальное сиротство, детский и подростковый суицид, наркомания, участие в деструктивных культах и т.д.

На сегодняшний день из числа завербованных в деструктивные культы, организации, 83% составляет молодежь.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Одной из причин такого положения является недооценка воспитания как социального явления, и как целенаправленного процесса. Именно воспитание закладывает в молодежи духовно-нравственные ценности и качества, являющиеся основой их становления как личности.

Возрождая традиции и достижения предшествующих поколений, мы создаем условия для поступательного движения в будущее, и в этом велика роль образования, как фактора обеспечения мира и стабильности путем воспитания в духе толерантности и согласия.

В принципе, в мире нет нации, у которой не было бы собственных ценностей. Мы не являемся исключением. У нас также есть ценности, которые неразрывно связаны с нашей историей, образом жизни, духовностью и культурой.

Выводы. Conclusions. В современном мире сохранение и укрепление традиционных духовно-нравственных ценностей играют важную роль в формировании национальной идентичности. Они являются основой для развития культурного наследия и способствуют сохранению уникальности каждой нации.

Однако, в условиях глобализации и сильного влияния западной культуры, традиционные ценности подвергаются опасности. Молодое поколение все больше отдаляется от своих корней и утрачивает связь со своим национальным прошлым.

Для укрепления традиционных духовно-нравственных ценностей необходимы комплексные меры. Важным шагом является просветительская работа, направленная на популяризацию национальной культуры, традиций и обычаев. Это может быть осуществлено через организацию фестивалей, выставок, конкурсов и других мероприятий.

Также необходимо активное использование средств массовой информации для передачи положительных образцов поведения, которые основаны на традиционных ценностях. Важно создать благоприятную атмосферу для обсуждения и понимания этих ценностей в семьях, школах и обществе в целом.

Сегодня необходимо опираясь на тысячелетнюю историю, образ жизни, обычаи и традиции народа, определить наши основные ценности. Существует своего рода диалектическая связь между гармонией национальных, религиозных и общечеловеческих ценностей, которое непосредственно в той или иной стране оказывает определенное воздействие не только на молодёжь, но и на общество в целом, а так же оно может быть как формальной (имеющий правовую основу), так и неформальной (без правовой основы). Гармонизация национальных и религиозных ценностей в образовательном процессе по своей функции является фактором, определяющим содержание воспитания и стиль формирования идеологического иммунитета у подрастающего поколения. Отсюда следует, что воспитание молодежи в духе верности Родине, обеспечение ее занятости, обучение информационным технологиям, иностранным языкам, современным профессиям, привлечение к занятиям спортом, работа с молодежью за рубежом, укрепление национальных и семейных ценностей является важным условием построения Нового Узбекистана.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Список литературы:

1. Закон «Об образовании» Республики Узбекистан от 23.09.2020 г. № ЗРУ-637 г.
2. Кадырова З.Р., Каримов Б.Р., Шарипов А.Д., Алиева В.Р. Проблемы формирования идеологического иммунитета молодёжи в процессе развития у неё современного мировоззрения и национальной идентичности. Т., 2012. 202
3. Қаҳҳорова М. Мафкуравий муҳит ва ахлоқ. – Т.: Фан, 2009. –98 б
4. Қуронов М. Мафкуравий вазиятларни моделлаштириш – ғоявий тарбия воситаси. Т.: 2000. №3. –22-23 б.
5. Қуронбоев Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. дисс. – Т.: 2000. –155 б
6. Кадырова З.Р., Шарипов А.Д. К анализу формирования идеологического иммунитета молодёжи // Файзуллаев О, 2013. 276 с.
7. Дилова Н.Ғ. (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. Замонавий таълим. №3, 63-68 б.

“UMUMIY TOPOLOGIYA” BO‘LIMINI O‘QITISHDAGI INNOVATSIYALAR

Atamuradova Dilshoda Ravshankulovna
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Umumiy matematika kafedrasi o‘qituvchisi
E – mail: dilshodaatamuradova09@gmail.com

Annotatsiya: *Quyidagi maqola geometriya kursining umumiy topologiya bo‘limini o‘qitishga doir bilimlarini o‘zlashtirishda universitet talabalarining innovtsion o‘qitish metodikasi hamda aniq fanlar, globallashuv muhitida oliy ta’lim muasasasi talabalarining innovatsion tayyorgarlik darajasi, mavzuni o‘rganish davrida innovatsion texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalarning turlari, talabalarning innovatsion faoliyati va innovatsion tafakkuri, aqliy va kasbiy rivojlanishi, ko‘nikma va malakasini shakillantirishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, ta’lim, metodika, umumiy topologiya, mustaqil topshiriqlar*

ИННОВАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ОБЩЕЙ ТОПОЛОГИИ»

Атамурадова Дильшода Равшанкуловна
Ташкентский государственный педагогический университет Преподаватель кафедры общей математики
E – mail: dilshodaatamuradova09@gmail.com

Аннотация: *В статье описана инновационная методика обучения студентов вуза в освоении знаний преподавания раздела общей топологии курса геометрии и конкретных наук, уровень инновационной подготовки студентов вуза в условиях глобализации, инновационные технологии. В ходе изучения предмета образование состоит из формирования видов инноваций, инновационной деятельности и инновационного мышления обучающихся, умственного и профессионального развития, навыков и квалификации.*

Ключевые слова: *Инновации, образование, методология, общая топология, самостоятельные задачи*

INNOVATIONS IN TEACHING AT THE DEPARTMENT OF GENERAL TOPOLOGY

Atamuradova Dilshod Ravshankulovna
Tashkent State Pedagogical University Lecturer at the Department of General Mathematics
E – mail: dilshodaatamuradova09@gmail.com

Abstract: *The article describes an innovative teaching method for university students in mastering the knowledge of teaching the general topology section of a course in geometry and specific sciences, the level of innovative training of university students in the context of globalization, and innovative technologies. In the course of studying the subject, education consists of the formation of types of innovation, innovative activity and innovative thinking of students, mental and professional development, skills and qualifications*

Key words: *Innovation, education, methodology, general topology, independent tasks*

Kirish:

Bugungi kunda butun dunyoda o‘qitish jarayonlarini texnologiyalashtirish, mustaqil o‘qitish texnologiyasini rivojlantirish, axborot kommunikatsiya texnololgiyalari vositasi yordamida sifatli ta’lim samaradorligiga erishish, mustaqil ta’lim sifatini boshqarish tizimini joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Etakchi oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlar, xususan matematika fani xalqaro globallashuv muhitidagi o‘rnini nazarga tutgan holda, soha mutaxassislari va pedagoglarini tayyorlashda ta’lim shakli sifatida mustaqil ta’lim tizimiga asoslangan tizimli va bosqichma – bosqich bajarilish xususyatlaridan foydalanishga qaratilgan. Dunyoning barcha ilmiy markazlari tomonidan mustaqil ta’lim texnologiyasi yordamida ta’lim sifatini samarali tashkil etish uchun o‘quv jarayonlarini texnololgiyalashtirish va tashkil etish muommolariga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. Keyingi yillarda oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini takomillashtirish, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy labaratoriyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan ta’minlash, xalqaro ta’lim standartlatiga asoslangan o‘quv-uslubiy materiallar va o‘quv dasturlari, yetakchi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy qilish orqali o‘quv sifatini oshirish masalalariga keng e’tibor qaratilyapdi. Bugungi globallashuv va davlatlararo raqobat tobora kuchayib, internet va innavatsiyon texniligiyalar har sohada chuqur kirib baorayotgan, dunyoda an’anaviy jamiyatdan axborotlashgan jamiyat sari harakatlar kechayotgan davrda mamalakatimizda har bir mutaxassisni mustaqil fikrlaydigan,jamiyatda faollik ko‘rsatadigan, qiyinchiliklarni qo‘rqmasdan engib o‘ta oladigan, raqobatbardosh, o‘z vataniga sodiq shaxs sifatida kamolga etkazish oliy ta’lim sohasining eng asosiy ustuvor vazifasi bo‘lib qolmoqda[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakarlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[2], 2019 yil 17yanvardagi PF-5635-sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni [3], 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘tisida”gi [2], 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tayorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [5] qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining metod va materiallari

Talabalarga mustaqil ta’limni pedagogik texnalogiyalardan foydalanib, nazariy va amaliy bilimlarini mustaqil o‘rganish nazariyasi va asoslari bo‘yicha B.Ziyomuhammedov, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, H.Qarshiboyev, A.Alimov, G.Izatyeva va boshqalarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Oliy ta’lim jarayonida qo‘llanilayaotgan texnologiyalarining asosiy qismi bo‘lgan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tadbiq qilish bo‘yicha A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, F.Zokirova, U.Yuldashev, B.Rajabov lar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bu sohada alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy topologiya va to‘plamlar nazariyasi fani bo‘yicha shug‘illangan Respublikamiz olimlari Sh.A.Ayupov, AArtikbaev, A.Ya.Narmanov, D.Q.Musayev, R.B.Beshimov, A.A.Zaitov,[13] T.F.Jo‘rayev kabi soha muaxasssis olimlarining mehnatlarini alohida e’tirof etish lozim.

Ushu tadqiqot ishini shakllantirishda yuqoridagi manba va adabiyotlardan metodologik asos sifatida foydalanildi.

O‘rganilgan adabiyotlar va ilmiy ishlanmalar natijasi oliy ta’lim muassasalarida talabalarda umumiy topologiya tushunchalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir maxsus tadqiqot amalga oshirilmaganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

quydagilardan iborat:

Talabalarda “Geometriya” fani o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganishning zamonaviy konseptual dasturi (rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, yangi axborot vositalarini qo‘llashga asoslangan) pedagogik jarayonlarda yaxlitlik, amaliyot, mustaqillashuv harakat turlarining erkinlik induvidal ishlash, shaxsga yo`nalganlik darajalariga e’tibor berish asosida ishlab chiqilgan; [11]

Talabalarda mustaqil o‘rganish mashg‘ulotlari “katta”, “o‘rta” va kichik modulli bosqichlari funksional ketma-ketlik harakati mazmunini (maqsad va tushinchalar, matn, mezon, vosita) belgilash asosida aniqlashtirilgan;

O‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish texnologiyasi umumiy va xususiy metadologiyalarni ajratish, o‘quv harakatlari va modullari integratsiyalashuv jarayonlari ko‘rsatgichlarini ochib berish asosida takomillashtirilgan.

Talabalarda “Umumiy topologiya” tushunchalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishda blok-modulli yondoshuvga asoslangan metodik ta’minoti o‘quv adabiyotlari interfaolligi ijodiy qobilyat (tanqidiy baholovchi, kreativlikni aniqlovchi, prognoztik) jamlanmasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari

quydagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarida umumiy topologiya bo‘limining tushunchalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida nazariy va amaliy mashg‘ulot turlarini amaliyotga tadbiq qilish metodikasi talabalar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini faollashtigan, fanni o‘zlashtirish sifat-samaradorligini oshirish imkoniyatini berganhamda talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari modeli ishlab chiqilgan;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Quyidagi tadqiqot ishida ijobiy natijani topishda ilg‘or pedagogik, psixologik tajriba, matematikaning zamonaviy usullari, Respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-metodik anjuman materiallari to`plami, nashr qilingan ilmiy maqolalar, tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodkari vositasida asoslanganligi, oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalar amaliyotga tadbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalar Umumiy topologiya bo‘limini o‘rganish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish usullari, Umumiy topologiyaning mazmuni mustaqil o‘rganishni (zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida) takomillashtirilganligi bilan belgilanadi;[12]

Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati talabalarning ilmiy izlanishida, o‘z ustida muntazzam shug‘illanishida, mustaqil fikrlashida va ong tasavvurlarini kengaytirishda, bilim ko‘nikmalarini shakllantirishida, o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil fikrlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. [15]

Tadqiqot natijalaarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalarida Umumiy topologiya tushunchalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Talabalarda “Umumiy topologiya” bo‘limi o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganishning zamonaviy konsepsiyasi, amaliyot, mustaqillashuv, yaxlitlik, harakat elementlaridan foydalanish, mustaqil o‘rganishda mashg‘ulotlarni “katta”, “o‘rta” va “kichik” modulli texnologiyalarni tuzish bosqichlari, funksional amallar ketma-ketligi harakati doirasiga o‘rganilgan;

Xulosa

Olib borilgan quyidagi tadqiqot ishida talabalargda “umumiy topologaiya” tushinchalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oliy ta’lim muassasalarining “Geometriya” fanini chuqurlashtirib o‘qitiladigan bo‘limlarida “umumiy topologiya” o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish bo‘yicha xorij va respulikamiz adabiyotlari tahlili oliy ta’limda innovasion ta’lim texnologiyalari va tamoillari asosida o‘quv mashg‘ulotlari rejalarini tuzish o‘ta muhim pedagogik muammo sifatida batafsil ko‘rib chiqilishi zarur degan xulosaga kelindi. Oliy ta’lim muassalarida ishlab chiqilgan o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari ta’lim jarayonida rejalashtirish va qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratdi.
2. “Geometriya” fani “Umumiy topologiya” o‘quv mashg‘ulotlarini rajalashtirish, talabalarning mustaqil o‘rganish darajasi ilmiy asoslandi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlari ishlab chiqildi. Talabalarni o‘quv fani doirasida mustaqil o‘rganishlari, o‘z ustida ishlashi, mustaqil ta’lim jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish hamda tashkil etish ta’lim sifatini kafolatlaydi.
3. Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil o‘rganishni samarali tashkil etish tamoillaridan biri sifatida “umumiy topologiya” o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida o‘quv mashg‘ulotlarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mustaqil o‘rganish va amalyotdda tadbiq etish orqali oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishish mumkinligi ilmiy darajada asoslandi.

4. “Umumiy topologiya” o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqildi. O‘quv fanini mustaqil o‘rganishda innovatsion ta’lim texnologiyalarnig joriy etilishda eng avvalo ta’lim oluvchini shaxs sifatida qadrlash, shaxsiy imkoniyatlari va individual xususyatlarini e’tiborga oligan holda mustaqil bilim olishi hamda o‘quv fanini mustaqil asoslash, o‘z fikr va mulohazalarini to‘la bayon eta olishni rivojlantirish asosini belgilash imkonini berdi.

5. Oliy ta’lim muassasalari talabalariga “Umumiy topologiya” o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirilishi amalyotda ko‘rsatib berildi va qisqacha namunasi keltirilib o‘tildi. Ko‘rsatib o‘tilgan namuna barcha oliy ta’lim muassasalari talabalarida fikrlash qobilyatini rivojlanishiga va o‘quv faoliyati samaradorligi yuqori bo‘lishini ta’minlashga xizmar qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayorlash sifatini oshirishda iqtisodiy sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2017 yil, 6-son, 70-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qaror.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrь “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli qarori.

9. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b

10. Qarshiboyev H.Q., Suvonov O., Qarshiboyev J.H. Mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. – Guliston, 2011. – 60 b.

11. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000 - 118

Pedagogik texnologiya / O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi. – T.: TAFAKKUR, 2009. Pedagogik

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

texnologiya: ta'lim jarayoniga tadbig'I (Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida "Matematika o'qitish metodikasi" fanining modeli) I qism / Tojiev M., Alimov A.Ya. – 135 b
12. Юнусова Д.И. "Олий таълимда математика фанларини ўқитиш методикаси" модули бўйича ўқув – услубий мажмуа , Т.: 2016–397 б
13. A.A. Zaitov, D.R.Atamuradova An example of a regular space on which every continuous function is constant ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi science and innovation xalqaro ilmiy jurnali 2022 yil 1-son, ISSN: 2181-3337
14. D.R.Atamuradova Topologik fazo. Ochiq va yopiq to'plamlar" mavzusini mustaqil o'rganish uchun tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2020 yil, 12 – son 271 – bet
15. Д.Р.Атамурадова, M. K. Allamova Сколько пределов имеет последовательность? Fizika, matematika va informatika (ilmiy-uslubiy jurnal) 2021 yil, 6 – son, 19 – bet
16. Atamuradova Dilshoda Ravshanovna, Madreymova Ayzada NurIslamovna, Topologik fazo bazasi Ilm sarchashmalari 9 son, 2021 yil, 22-bet
17. Атамурадова Д.Р Применение темы «Тихоновская топология на произведении» Самарский государственный технический университет Математическое образование в современном мире:теория и практика (Материалы Всероссийской научно-методической конференции) в самостоятельном обучении студентов
18. www.tdpu.uz
19. www.pedagog.uz
20. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
21. http://ziyonet.uz -Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal
22. http://lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILAR INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASPEKTLARI

Ataxanova Dildoraxon Avazbekovna
Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada neyropedagogika -nevrologiya (neyropsixologiya, neyrofiziologiya, neyrobiologiya), pedagogika va psixologiya chorrahasida fanlararo soha sifatida paydo bo'lishi yoritilgan. Neyropedagogikaning nevrologiya (inson miyasining faoliyatini, faoliyatini o'rganuvchi fanlar) sohasidagi yutuqlarni, ta'lim oluvchilarning individual neyropsixologik xususiyatlarini optimal tarzda hisobga olish, hamda fanning o'quv va ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, neyropedagogika, neyropsixologiya, neyrodidaktika, neyrofanlar, intellekt, rivojlanish, tarbiya, temperament, gender*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДОГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Атаханова Дилдорахан Авазбековна
стажер-преподаватель Андижанского
государственного педагогического института

THEORETICAL METHODOLOGICAL ASPECTS OF STUDENT INTELLIGENCE DEVELOPMENT ON THE BASIS OF A NEUROPEDAGOGICAL APPROACH

Atakhanova Dildorakhan Avazbekovna
trainee-teacher at Andijan State Pedagogical Institute

Abstract: *The article describes the emergence of neuropedagogy as an interdisciplinary field at the intersection of neurology (neuropsychology, neurophysiology, neurobiology), pedagogy and psychology. The importance of neuropedagogy in the field of neurology (the study of the activity of the human brain), the optimal consideration of the individual neuropsychological characteristics of students, as well as the importance of science in the development of the educational system.*

Аннотация: *В статье описывается возникновение нейропедагогики как междисциплинарного направления на стыке неврологии (нейропсихологии, нейрофизиологии, нейробиологии), педагогики и психологии. Значение нейропедагогики в области неврологии (изучение деятельности головного мозга человека), оптимальный учет индивидуальных нейропсихологических особенностей учащихся, а также значение науки в развитии системы образования.*

Kirish

Neyropedagogika yangi fan sohasi sifatida XX asrning oxirida vujudga keldi. Ushbu fanning shakllanishiga pedagoglarning shaxsga individual yondashuvi endilikda har qachongidan ham zaruriy ehtiyoj sifatida qaralayotgani sabab bo'ldi, har bir o'quvchiga neyropsixologik, neyropedagogik bilimlar yordamida o'zining yosh davriga xos bo'lgan fiziologik, gigiyenik, individual-tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik ta'sir

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko’rsatish o’quvchilarning o’zlashtirish ko’rsatkichlarini, ta’lim berish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini uzuksizligini ta’minlash, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish, ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlar faoliyatidan andoza olish, sohaga oid yangiliklardan doimiy foydalanib borish zarurligini globallashuv davrining o’zi taqozo etmoqda. Zero, har qaysi soha vakili bo’lmasin, har bir shaxs shakllanishining tub ildizi, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi. Demakki, ta’lim-tarbiya jarayonida yangicha yondashuvlar, yangicha qarashlar, zamonaviy pedagogik- psixologik bilimlarga ega pedagoglarni tayyorlash mamlakatdagi barcha sohalar taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Hukumatimiz tomonidan ta’lim jarayonini tashkil etish, ushbu jarayondagi islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida qator qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6108-son, hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4963-son qarorlari bu boradagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Neyropedagogika - G'arbiy Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlarida rivojlanib kelayotgan, dolzarb, ilmiy va amaliy yo'nalishdir.

Neyropedagogikaning fan sifatida rivojlanishida V.A.Moskvin, N.V.Moskvina, V.D.Yeremeyeva hamda T.P. Xrizman katta xissa qo’shganlar. AQSHda mazkur yo’nalish bo’yicha 1997-yildan boshlab ilmiy izlanishlar Charlz Jeykobs tomonidan olib borilmoqda. Ularning fikriga ko’ra, inson tafakkuri subyektiv bo’lganligi bois, uning hissiyotlari mantiqiy yo’l bilan olish mumkin bo’lgan qarorlardan ko’ra yaxshiroq qarorlarga kelishga yordam berar ekan.

Neyropedagogika quyidagi bo’limlarni o’z ichiga oladi: neyrodidaktika, neyropedagogik diagnostika (tashxis), neyropedagogik tarbiya, neyropedagogik korreksiya va adaptatsiya hamda ta’lim jarayonining neyropedagogik muhitini tashkil qilish. [3]

1988 -yilda Gerxard Preyss nevrologiya, pedagogika va psixologiya kesishmasida mavjud bo'lgan fanlararo sohani bildirish uchun “neyrodidaktika” atamasini kiritdi. Neyrodidaktika doirasida miya va asab tizimi tuzilmalari faoliyatini o'rganish natijalari asosida samarali ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish masalalari o’rganiladi. [4] Neyrodidaktika - o’quvchilarning nerv-fiziologik jihatlarini inobatga olgan holda o’qitishdir. Bilimlarni uzatish jarayonida pedagog o’quvchilarning yosh davriga xos xususiyatlari bilan bog’liq fiziologik, gigiyenik(darslar ketma-ketligini tog’ri muvofiqlashtirish, o’quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatlarining almashinib turishi va bu orqali nerv hujayralari zo’riqishining oldini olish), psixologik (diqqati, xotirasi, tafakkuri), oliy nerv faoliyatidagi individual farqlarga(qo’zg’alish va tormozlanish) ko’ra o’qitishi neyrodidaktikaning asosiy jihatlaridandir.

“ L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya tadqiqotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda bolaga individual kognitiv yondashuv uning aqliy rivojlanishdagi kuchli va zaif holatini hisobga olish masalalari bayon etilgan.” [2].

O’zbekistonda kichik maktab yoshidagi o’quvchilarga ta’lim-tarbiya jarayonida neyropedagogik yondashuv amaliyotda bir qancha to’siqlarga uchrashi mumkin. Masalan, sinflarda o’quvchilar sonining ko’pligi dars jarayonida aqliy rivojlanishdagi zaif tomonlarni bartaraf etishda individual yondashuvga qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bu borada mahoratli

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

pedagoglar dars va darsdan tashqari vaqtlarda o’quvchilarni mustaqil aqliy rivojlanishiga yo’naltirib borishlari kerak. Pedagoglar o’quvchilarning intellektual rivojlanishida oilaviy muhitning ham ta’siri katta ekanligini inobatga olishlari zarur. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari ta’lim-tarbiya jarayonida ota-onalar va psixologlar bilan hamkorlikda ish olib borishlari kerak. O’quvchining intellektual taraqqiyoti ko’rsatkichlarini yaxshilamoqchi bo’lgan pedagog o’quvchining bilimlarni o’zlashtirishida individual-psixologik qobiliyatlariga asosan tabaqalashtirilgan topshiriqlar bilan ishlashi kerak.

T.P. Xrizman fanning asosiy vazifalari sifatida maktabda o'quv jarayonini tashkil etishda miya tuzilmalari yetukligining yosh dinamikasini va bolaning miya faoliyatining individual xususiyatlarini hisobga olish ekanligini ta’kidlagan.[2] Bizning miyamiz ikkita yarim shardan iborat bo'lib, ularning har biriga sezgi organlardan nerv yo'llari mavjud. Shu bilan birga, o'ng yarim shar asosan tananing chap tomoniga "xizmat qiladi": u chap ko'zdan, quloqdan, chap qo'ldan, oyoqdan va hokazolardan ko'p ma'lumotlarni oladi va buyruqlarni mos ravishda chap qo'l, oyoqqa uzatadi va chap yarim shar o'ng tomonga xizmat qiladi. Chap yarim shar analitik, tasniflovchi, abstrakt, algoritmik, ketma-ket va induktiv vazifalarni, ratsional-mantiqiy fikrlash, detallarni tahlil qilishning qat'iy tartibiga rioya qilgan holda ma'lumotlarni qismlarga bo'lib qayta ishlash, hisoblash, farqlash, nutqni boshqarish, vaqtni sezish, o'z-o’zini boshqarish kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi. O'ng yarim shar yaxlit, sintetik, o'ziga xos, evristik, deduktiv kabi xususiyatlarga mos keladi. U hissiy deb ham ataladi. Majoziy, intuitiv fikrlash bilan ajralib turadi, turli qismlardan ma'lumot tuzadi, ohang, shaxmat, geometrik bilimlarga javob beradi, mukammal fazoviy orientatsiya, tana hissi, harakatlarni yuqori muvofiqlashtirish o’ng yarim sharning muhim vazifalaridir. [6].

Tadqiqot metodologiyasi: Moskva davlat universitetining psixologiya fanlari doktori A.V. Svetkov neyropedagogika fani bo’yicha qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. A.V. Svetkovning neyropedagogika faniga bag’ishlangan “ O’qituvchilar uchun neyropedagogika: miyaning ishlash qonuniyatlariga ko’ra o’qitish”, “Tarbiya neyropedagogikasi”, “Giperaktiv bola: o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish” kabi asarlarida neyropedagogik, neyropsixologik bilimlarni qay tariqa amaliyotga tatbiq etish hamda neyropedagogik qonuniyatlar asosida bolaga ta’lim-tarbiya berishning o’ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

A.V. Svetkov “O’qituvchilar uchun neyropedagogika: miyaning ishlash qonuniyatlariga ko’ra o’qitish” asarida neyropedagogikaning 5 ta qonunini keltirib o’tadi:

1) Neyropedagogikaning birinchi qonuni: o’qitish talaba uchun ham, o’qituvchi uchun ham mazmunli bo’lishi kerak;

Pedagog ta’lim berishda ma’lumotlarni bolaning yosh davriga xos tarzda tushuntira olishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, boshlang’ich sinf o’quvchilari hali o’yin faoliyatidan to’la ajralmaganliklari bois, ular bilan mashg’ulotlar olib borishda o’yin texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2) Neyropedagogikaning ikkinchi qonuni: ta’lim senzitiv davrlarni hisobga olgan holda o’z vaqtida bo’lishi kerak;

Ontogenez psixologiyasidan ma’lumki, har bir yosh davrining o’ziga xos yetakchi faoliyat turi mavjud. (D.B.Elkonin bo’yicha) Aynan kichik maktab yoshi hamda o’spirinlik davrlarida ta’lim olish yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shaxsning ma’lum bir yosh davrida biror narsani o’rganishga tayyor bo’lgan vaqti bor.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3) Neyropedagogikaning uchinchi qonuni: har qanday ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir to'g'ri ketma-ketlikda ichki ongga asoslangan bo'lishi kerak;

4) Neyropedagogikaning to'rtinchi qonuni: nimani nazorat qilsang, shuni olasan. (yoki boshqacharoq aytganda: natija nazorat hosilasidir.) Ushbu qonuniyatni tushunish uchun yonuvchi lampochkalari bor sxemani tasavvur qiling, biz bosimni qaysi lampochkaga yo'naltirsak o'sha yonadi. Insonning miya faoliyati ham shu kabidir, qaysi nuqtani nazorat qilsak o'sha yerdan natija olamiz.

5) Neyropedagogikaning beshinchi qonuni: ta'lim olish moslashuvchan bo'lishi kerak. Ko'pchilik o'qituvchilar ta'limning moslashuvchanligini individual yondashuv tushunchasi bilan almashtiradilar. Ta'lim olish moslashuvchanligi deganda – o'quvchilarning qiziqish va motivlaridan qat'iy nazar, ularga biror misol yoki muammo berish orqali o'quvchilarning o'zlari umumlashtirishlari va xulosa chiqarishlariga erishishdir. Neyropedagogika "muammoli vaziyatlar uslubi" tarafdori. Bunda o'quvchiga muammo beriladi va uning yechimini topish uchun istalgan manbadan foydalanish imkoni beriladi. Yig'ilgan ma'lumotlar o'quvchi tomonidan saralanadi. Natijada olingan ma'lumotlarning ta'sir izi xotiradan mustahkamroq joy oladi. An'anaviy ta'limda esa o'qituvchi ma'lum qoida, yoki formulani tushuntiradi, mustahkamlash uchun misollar beradi. Ammo ushbu ma'lumotlarni o'quvchi uzoq vaqt esda saqlab qolmaydi. Ta'lim moslashuvchanligi - o'quvchini majburlamagan holda o'quvchining o'zi yakuniy xulosaga kelishi uchun unga masala analizi algoritmini berish.[5]

Tahlil va natijalar: Neyropedagogik manbalarga ko'ra, o'quvchilarning o'quv jarayonida hisobga olinishi kerak bo'lgan individual-neyropsixologik xususiyatlari, birinchi navbatda, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Individual lateral profil – o'quvchilarning miya yarim sharlarining funksional assimetriyasi - chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida aqliy funksiyalarning taqsimlanishi, tashqi tomondan kelgan ma'lumotlarni idrok etish va qayta ishlashda chap yoki o'ng yarim sharlar funksiyalarining ustunligidir. Miya yarim sharlarining funksional assimetriyasining uch turi: chap yarim shar, o'ng yarim shar va teng yarim sharlar turi farqlanadi [4]. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining tashkil etilish turiga qarab intellektual qobiliyatlari va xulq atvori bilan bir biridan farq qiladilar. Inson bosh miya yarimsharlari faoliyatida sodir bo'ladigan neyrologik o'zgarishlarni ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda hisobga olinishi bolalar bilish faolligini namoyon qilishlari, intellektual to'siqlarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz yengib o'tishlari, ularning tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini o'zaro mutanosib shakllantirilishlarida yordam beradi.

1. Gender farqlari - ta'lim jarayonida rivojlanishning neyropsixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, shuningdek, o'g'il va qizlarning o'zlashtirishdagi tafovutlarini hisobga olish [4]. Bosh miya yarimsharlarining faoliyati ta'lim oluvchilarning jinsiga bog'liq bo'lganligi bois ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagog o'quvchilarning gender xususiyatlarini – qabul qilish, tafakkur va emotsiyalari farqli ekanligini hisobga olishlari, ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularni taqqoslamaslik, ularga topshiriqlar berish va qabul qilishda gender sifatlarga e'tibor berish kerak.

2. Temperament turi - ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning temperamentidagi psixodinamik xususiyatlarini hisobga olish, faollik (harakatchanlik, energiya), reaksiyalarining tezligi, hissiylik, sezgirlik, ta'sirchanlik, impulsivlikni ta'lim jarayonida rivojlantirish va kommunikativ ziddiyatlarning oldini olishda yordam beradi [4]. Temperament turi nerv tizimining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa-da, temperamentga xos bo'lgan xususiyatlar tashqi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ta’sirlar natijasida hamda har kimning o’z irodasi, istagi bilan o’zgarishi mumkinligini hisobga olgan holda pedagoglar o’quvchilarda ijobiy sifatlarni shakllantirishlari darkor.

Xulosa va takliflar: Neyropedagogika amaliyotini ta’lim jarayoniga olib kirish orqali ta’lim tizimi sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqiladi, xususan, pedagoglarning har bir o’quvchiga individual-tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda mutanosib yondashuviga erishiladi va pirovardida o’quvchilarning o’zlashtirish ko’rsatkichlarini yaxshilanib, qobiliyatlari to’g’ri yo’naltiriladi. Ta’lim muassasalarida xulqi og’ishgan o’quvchilar hamda bo’sh o’zlashtiruvchilar sonining ortib borishiga bugun kunda nafaqat oilaviy muhitdagi noto’g’ri tarbiyaviy ta’sirlar, hamda virtual axloqsizlikning ommalashuvi natijasida jamiyat axloqiy normalarining buzilishi, shu bilan bir qatorda pedagogik amaliyotda neyropedagogik bilimlarning sust qo’llanilishi ham sabab bo’lmoqda. Neyropedagogik bilimlar orqali individual yondashuv olib borishda pedagog ta’lim oluvchilarning gender hamda genetik ya’ni ijtimoiy ta’sir natijasida o’zgarishi mushkul hisoblangan xususiyatlariga alohida e’tibor qaratmog’i darkor. Bir xil pedagogik ta’sir orqali bir xil tipdagi shaxslarni shakllantirib bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. www. Lex.uz.
2. Н.В. Чурило “Нейропедагогика как основа эффективного образовательного процесса ” Беларусь, Минск, БГПУ им. М. Танка.
3. J. G’ulomov “Neyropedagogika: rivojlantirish asoslari”; “Pedagogika” jurnali 2015-yil 4-son.
4. Земш М.Б. “Предпосылки конституирования нейропедагогики в России ”; Международный научно- исследовательский журнал; №4 (46) ▪ 2016 Часть 3 ▪ Апрель.
5. А.В. Цветков “Нейропедагогика для учителей: как обучать по законам работы мозга”; “Спорт и культура-2000”, Москва 2017.
6. Эгамбердиева Н. М, Салиева З.Т, Далимова Н. М. Турдиева Н.М, Рўзиева Г. А, Исмоилова Х. Т. “Инновационные подходы к воспитанию и обучению”, Ташкент – 2020. 74-75-86-87-betlar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA ILMIY MATN BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

G‘ulomova Maftunaxon Ravshanbek qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqola ta’lim jarayonida fizika fanining tutgan o‘rnini oshirish va fizika ta’limida ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasining rivojlantirish zaruriyatini ochib berishga qaratilgan. PISA xalqaro tadqiqoti standartlariga xos bo‘lgan savol turiga mos javoblar orqali ilmiy matn bilan ishlashning muhimligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ilmiy dunyoqarash,texnologiya, fizika, PISA, ilmiy matn, kompetensiya, reproduksiya, transformatsiya.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В РАБОТЕ С НАУЧНЫМ ТЕКСТОМ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Гуломова Мафтунахон Равшанбековна
Кокандский государственный педагогический институт
Специальность 13.00.02-теория и методика обучения и воспитания Базовый докторант фазы 1

Аннотация*: Статья направлена на повышение места физики в образовательном процессе и выявление необходимости развития компетенции работы с научным текстом в физическом образовании. Важность работы с научным текстом обосновывается соответствующими ответами на тип вопросов, характерный для международных исследовательских стандартов PISA.*

Ключевые слова: *Научное мировоззрение, технология, физика, PISA, научный текст, компетентность, воспроизводство, трансформация.*

THE CURRENT STATE OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCE IN WORKING WITH SCIENTIFIC TEXT IN THE TEACHING OF PHYSICS

Gulamova Maftunakhan Ravshanbek kizi
Kokand State Pedagogical Institute
13.00.02-specialization in theory and methodology of Education and training Phase 1 base doctoral student.

Annotation: *The article aims to increase the place of physics in the educational process and reveal the need to develop the competence of working with scientific text in physics education. The importance of working with a scientific text is substantiated by appropriate answers to the type of questions specific to the PISA international research standards.*

Key words: *Scientific outlook, technology, physics, PISA, scientific text, competence, reproduction, transformation.*

Kirish: Bugungi texnika va texnologiya asrimizda mustaqil fikrlaydigan, aqliy salohiyati yuqori bo‘lgan va eng asosiysi tanqidiy va mantiqiy fikrlash orqali zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan yoshlarga mamlakatimizda keng imkoniyatlar berilmoqda. Zamonaviy bilimlarni egallashda albatta ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim fan sifatida qaralmoqda. Zero fizikani o‘qitish Olamning tuzilishini o‘rgatish, uning tashkil etuvchilari bilan tanishtirish, tabiatda bo‘layotgan fizik jarayonlarni mohiyatan anglab yetishni tushuntirish demakdir. [2,366-b]

Bugungi kunda yurtimizda fizika ta’limini rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2021-yildagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 5032-sonli qarori asosida fizika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator rejalar tuzildi va amalga oshirilib kelinmoqda. [1]

Fizika fani qadimiy fan, shuningdek doimiy rivojlanib, zamonaviy bilimlar va yutuqlarni o‘zida mujassam etib bormoqda. Masalan, turmushimizdagi eng oddiy jarayonlarni (suv qaynaganda va muzlaganda hajmi ortishi, yomg‘ir yog‘ishi, chaqmoq va h.k) tushunishimizdan boshlab, zamonaviy fan yutuqlarigacha : elektr toki, rentgen apparatlari, radio, teleskoplar, kosmik apparatlar, telefon va aloqalar barchasini fizika tashkil etadi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarni ta’lim tizimiga nazar tashlaydigan bo‘lsak , ularda fizika ta’limiga katta e’tibor qaratiladi va albatta boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi. Shu o‘rinda bir qiziqarli ma’lumot : O‘zining kutilmagan g‘oyalariga ega, ixtirolari bilan insonlar hayotini yengillashtirishga intiluvchi, kosmosni o‘rganishni ashaddiy ixlosmandi va “Texnologiya qiroli” nomi bilan dunyoga mashhur inson Ilon Mask jurnalistning: “Kelajakda universistetda qaysi yo‘nalishda: fizika yoki mashina injineringda o‘qisa yaxshi bo‘ladi, deb o‘ylaysiz” degan savoliga u: “ Ikkalasini o‘qisa yaxshi, qolaversa tarix ham juda muhim. Bitta farzand uchun esa eng muhimi fizika o‘qishi kerak”, deb javob bergan edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Fizika fani ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda o‘quvchilar uchun tayanch fan hisoblanadi va buning uchun eng zarur vosita fizika darslari va ilmiy-nazariy adabiyotlardir. O‘quvchilar olam haqidagi bilimlarni avvalo nazariy bilimlar orqali egallaydilar. Laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, ekskursiyalar orqali esa egallangan bilimlarni tajribada bevosita ko‘rish va mustahkamlash, kerakli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Biz ilmiy bilimlarni mujassamlashtirgan ma’lumotlarni “ilmiy matnlar” deb ataymiz.

Bugungi kunda respublikamiz o‘quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishmoqda. Bir nechta xalqaro darajadagi baholash tadqiqotlarida asosiy masalalar o‘qib tushunish , hayotiy muammoli vaziyatlarga yechim topish, kreativlik, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashga qaratilganligi bois, o‘quvchilarda “ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasi” ni rivojlantirish dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. Ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasi tayanch kompetensiya tarkibida bo‘lib, o‘qish savodxonligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Masalan, PISA tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari qatorida tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi yetakchi hisoblanib, o‘quvchilardan tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya)dan chuqur bilimni va matnni o‘qib tushunish orqali to‘gri javob topa olishlarini talab etmoqda. Bugungi kunda o‘quvchilarni Xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash, ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

borilmoqda. Xususan, PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish masalasi Matkarimov A.Mning ilmiy tadqiqot ishida keng yoritib berilgan.

PISA baholash dasturining o‘tkazilishi, maqsadi va vazifalari Т.Е.Хавенсон, Ю.Д.Керша, Г.С.Ковалева, Э.А.Красновский, Л.П.Краснокутская, К.А.Краснянская kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha yoritib o‘tilgan. Xorijiy olimlardan kompetensiya atamasi yuzasidan N.Norris, G.Weinert, S.Bjornavold, D.S.Rychen, L.H.Salganik, E.Klieme, J.Hartig, J.Erpenbeck & L.Von Rosentiellar ishlarida o‘rganilgan. Ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv tamoyili asosida rivojlantirish bo‘yicha masalalar R.Arnold, W.Einsiedler, E.Klieme, R.Lersch, H.Müller, W.Stürzl, A.Rarrek, E.Werner, A.Schelten, A.Riedl, G.Zimmerlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. [3, 6-b]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Fizika ta’limida Ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish nima uchun kerak ? Ushbu savolga javob berishdan avval Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim va uning asosiy jihatlari haqida fikr yuritamiz.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni o‘zlashtirgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo‘llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. [4,1071-b]

Zamonaviy ta’lim o‘quvchilardan mustaqil izlanishlar asosida ta’lim olish, bosma adabiyotlar, darsliklar, elektron ta’lim resurslaridan ongli ravishda foydalanish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarga erishishni, muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal etishlarini taqozo etmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi,eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. [5]

O‘quvchilarning yuqori bilim samaradorligiga erishishlarida biz ularda tayanch va xususiy kompetensiyalarni izchil ravishda shakllantirib borishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Tayanch kompetensiyalar o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy rivojlanishiga tayyorlovchi kompetensiyalar hisoblanadi, xususiy kompetensiyalar esa faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladi. Ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasi tayanch kompetensiya tarkibida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishi, o‘qib tushunish orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish, hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash, turli xil vaziyatlarga aniq ilmiy dalillarga asoslangan gipotezalarni ilgari surish kabi muhim aqliy faoliyatlarni namoyon etishda muhim hisoblanadi. Misol uchun texnika va kreativlikning asosi hisoblangan fizikani chuqurroq o‘rganish uchun ko‘plab fizik adabiyotlarni o‘rganish lozim. Nazariya va amaliyotning birligi tamoyiliga asosan o‘quvchi egallagan nazariy bilimlari asosida muhim muammolarni hal etadi. O‘quvchilarni PISA xalqaro baholash tadqiqotining barcha yo‘nalishlarida beriladigan sinov savollarini yechishda ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasining ahamiyati beqiyos. Chunki test savollarning turli daraja va turlarida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘quvchilar ilmiy bilimlariga asosan turli hayotiy vaziyatlardagi muammolarga o‘zlarining shaxsiy yechimlarini taklif qilishlari va muqobil javoblarni topishlari talab etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Misol uchun xona havosi isitish batereyasi yordamida qanday va qanaqa isitilishini tushuntish lozim bo‘lsin.

Ushbu savolni javobini bir nechta bosqichda tushuntiriladi.

I bosqich - uning ko‘rinadigan xususiyatlari bilan tanishish

II bosqich - ko‘rgan narsani aytish

III bosqich - o‘zaro ta'sir qiluvchi ob'ektlarni ajratish

Batareya , uning ichidagi suv, xona havosi -ularning har birining holatini tahlil qilish:

- batareya - qattiq, 80-90 ^{0}C gacha qizdirilgan
- suv - issiq suyuqlik
- havo - gaz

Suv va batareyaning harorati bir xil, ammo havo harorati ularnikidan kamroq

IV bosqich - hodisalarning paydo bo‘lish mexanizmini ochib berish:

- isitilgan suv o‘z energiyasini batareyaga o‘tkazadi;
- batareya qiziydi;
- batareya joylashgan xona havosi ham asta-sekin isiydi;
- buning natijasida uning termal kengayishi sodir bo‘ladi;
- Issiq havoga ikkita kuch ta'sir qiladi: vertikal yuqoriga yo‘nalgan Arximed kuchlari va pastga yo‘nalgan tortishish kuchi. Ammo Arximed kuchi tortishish kuchidan kattaroqdir, chunki sovuq havoning zichligi issiq havoning zichligidan kattaroqdir.

V bosqich - tahlil natijalarining qisqacha mazmuni:

Batareyaga yaqin havo qiziydi va natijada kengayadi. Issiq havoga sovuq havo tomonidan uning zichligi katta bo‘lgani uchun Arximed kuchlari ta'sir qiladi. Issiq havo yuqoriga ko‘tariladi, sovuq havo eas uning o‘rnini egallaydi; konveksiya sodir bo‘ladi.

VI bosqich - xulosa:

xonada issiqlik tarqalishi uch sababga ko‘ra yuzaga keladigan konveksiya bilan izohlanadi:

- moddalarning issiqlik o‘tkazishi
- moddalarning termal kengayishi
- Arximed kuchlarining harakati

Ushbu berilgan test topshirig‘idan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi berilgan savolga har tomonlama aniq va izchillik bilan javob berishi va ilmiy tomondan asoslab berishi lozim.

Xulosalar (Conclusion). O‘quvchilar fizika darslarida va turli xil axborot vositalaridagi ilmiy ma’lumotlar vositasida fizik tushuncha, fizik hodisa, fizik kattalik, fizik kattaliklarning birliklarini o‘rganish orqali tabiat va dunyoni ongli ravishda bilib boradilar. Egallangan bilimlarning sifati bilimlar keltiradigan natijalar asosida baholanadi. Sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va o‘lchash uchun turli xil kriteriyalar ishlab chiqilgan. O‘quvchilarning bilish ko‘nikmasining rivojlanishi bilan bog‘liq holda V.P.Bespalko bilim xizmati natijasining to‘rt darajasini aniqlagan va ularning ahamiyatini quyidagicha yoritib bergan:

I daraja – tanishish: o‘quvchilar boshqa shunga o‘xshash obyektlar qatorida ushbu obyektni anglashi, farqlashi, ularni o‘zlashtirish qobiliyatlariga qarab farqlanadi. Tanishish darajasidagi o‘zlashtirish ko‘pincha o‘rganish obyekti haqidagi umumiy qarashlar, fikirlash bo‘lsa, suhbat turidagi javoblar «ha – yo‘q», «yoki» bilan chegaralanadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

II daraja – reproduksiya: bu darajada o‘quvchilar o‘rganish obyekti bilan bog‘liq harakatlarni og‘zaki bayon qilib berish imkoniyati darajasidagi asosiy tushunchalarni o‘zlashtiradi, turli harakatlar va har xil tadbirlarni tahlil qiladi.

III daraja – to‘liq o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar: bunda o‘quvchilarning xizmati ba’zi bir sinf ishlarini yechish uchun o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llanish va obyektiv yangi ma’lumotlarni egallash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

IV daraja – transformatsiya: u o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakasini qo‘llay bilish orqali turlicha qiyinchilikdagi vazifalarni yecha oladigan ma’lumotlarni egallashni ko‘zda tutadi. [6, 296-297-b]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasi o‘quvchida Bespalko aniqlagan bilish darajasining eng yuqori darajalariga mos bo‘lgan keng qamrovli bilim, ko‘nikma va malakalarni zabt etishida muhim kompetensiya hisoblanadi. Zero: “Inson xoh oddiy mexanik, xoh malakali mutaxassis bo‘lsin, uning muvaffaqiyatga erishish siri - muloqot qila olishi, ma’lumotlardan murakkab muammolarni yechishda foydalana olishi, yangidan-yangi talablar va o‘zgaruvchan vaziyatlarga javoban moslasha olishi va ko‘nikishi, inson salohiyati va samaradorligini oshiradigan va yangi bilim va ko‘nikmalar hosil qiladigan texnologiya qudratini boshqara olishi bilan bog‘liq”[7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagiPQ-5032-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-5338558
2. Qulboyev.Z., Olamni o‘rganishda va texnikaning rivojlanishida mehanikaning ahamiyati. Academic research in educational sciences. 2021. 2 (9), 366-369-b
3. Matkarimov A.M., PISA Xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq 2022, 6-7-b.
4. Qorayev S.B., TirkashevN.I., Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy juhatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, ISSUE 1,2022, 1072 p.
5. Qoraev S., (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
6. G‘oibova N.Z., Fizika o‘qitishda samaradorlikka erishish omillari. “SCIENCE AND INNOVATION” Scientific journal. November 2020, Volume 1, ISSUE 8, 296-297-p.
7. Binkley M., et al. (2011), “Defining Twenty-First Century Skills”, in Assesiment and Teaching of 21 st Century Skills, Springer Netherlands, Dordrecht, http://dx.doi.org/10.1007/978-94- 007-2324-5_2.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UMUMTA'LIM MAKTABLARI FIZIKA DARSLARIDA VODOROD ENERGETIKASIGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH

Xaliyarov Jasur Xidirovich-Termiz davlat universiteti Nazariy fizika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada umumta'lim maktablari fizika darslarida zamonaviy energiya turlaridan biri hisoblangan vodorod energetikasi haqidagi boshlang'ich bilimlarni shakllantirishning metodik tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantiruvchi didaktik vositalarni dars jarayoniga qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *vodorod energetikasi, zamonaviy energiya manbalari, elektroliz, tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЗНАНИЙ О ВОДОРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ НА УРОКАХ ФИЗИКИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Термезский государственный университет– преподаватель кафедры теоретической физики Холияров Жасур Хидирович.

Аннотация. *В статье приведены сведения о методических системах формирования базовых знаний на уроках физики общеобразовательных школ по теме водородной энергетики, которая считается одним из современных видов энергетики, а также даны рекомендации.*

Ключевые слова: *водородная энергетика, современные источники энергии, электролиз, базовые компетенции, научные компетенции.*

FORMATION OF KNOWLEDGE ABOUT HYDROGEN ENERGY IN PHYSICS LESSONS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Khaliyarov Jasur Khidirovich - is a teacher at the Department of Theoretical Physics of Termiz State University

Annotation. *The article contains information on the methodical systems of forming basic knowledge about hydrogen energy, which is considered one of the modern types of energy, in physics lessons in secondary schools and recommendations are given on the application of didactic tools that form basic and subject-related competencies to the lesson process.*

Keywords: *hydrogen energy, modern energy sources, electrolysis, basic competencies, scientific competencies.*

Izlanish va tadqiqotlar olib borilayotgan bir sharoitda fan ta'limiga ham turli omillar ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayoni mobaynida tafakkur iqtidori, mulohaza yuritish iqtidori va ifoda etish qobiliyatiga yo'naltirilgan ijobiy faoliyatni yaxshilash kelajak bilimga mos jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu ta'limning maqsadi har bir shaxsning tafakkur, mulohaza yuritish, o'z fikrini ifodalash kabi sifat va iqtidorlarini yanada takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy energiya manbalariga oid tajribalar o'tkazishda hodisalarni batafsil kuzatishdan nazariyalar chiqarishning mohiyatiga asoslanadi. N.G.Bloxinaning fikricha "o'quvchilar tabiat hodisalari bilan bog'liq savollar va masalalar asosida tengdoshlari bilan muhokama qilish, tajribalar orqali bir-birlarining fikrini o'rganish, kuzatishlari asosida xulosalar chiqarish va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Fanda nuqtai nazarlar va fikrlash

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

usullaridan foydalanadigan ko‘p narsalar tabiiy narsa va hodisalarni kuzatish va tajribalar o‘tkazish” kuzatilgan va o‘lchangan miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlardan universal qonunlarni ochishni o‘z ichiga oladi.

Umumta`lim maktablarida zamonaviy energiya manbalari bo’yicha fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarni shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik tavsiya sifatida 8-sinf fizika kursidagi “Elektroliz. Faradeyning birinchi qonuni.” mavzusini o’tish orqali maktab o’quvchilarida vodorod energetikasiga oid tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Mavzu: Elektroliz. Faradeyning birinchi qonuni.

Darsning didaktik maqsadlari

a) Ta’limiy: O’quvchilarga elektroliz hodisasi, Faradeyning 1-qonuni, Vodorod energetikasi, uning rivojlanish istiqbollari haqida ma’lumot berish

b) Tarbiyaviy: O’quvchilarida ekologik madaniyatning muhim qismi sifatida jamiyatda energiyadan samarali tarzda foydalanish madaniyatini shakllantirish.


v) Rivojlantiruvchi: O’quvchilarda elektroliz hodisasi, Vodorod energetikasi, Faradeyning 1-qonuniga oid bilim, malaka va ko’nikma hosil qilish.

Tashkiliy qism.

O’tgan mavzu yuzasidan savol-javob o’tkazish.

Yangi mavzu bayoni

Elektrolitdan elektr toki o’tishi natijasida elektrodlarda modda ajralib chiqish hodisasiga elektroliz deyiladi (1-rasm).



1-rasm. Elektroliz


Faradey tomonidan o’tkazilgan tajriba-sinov ishlari tushuntirilib uning birinchi qonuni ta’riflanadi:

Elektroliz vaqtida elektrodlarda ajralib chiqqan moddaning massasi elektrolitdan o’tgan zaryad miqdoriga to’g’ri proporsional:

$$m = kq$$

O’quvchilarga 7-sinf kimyo kursida o’tilgan vodorod, uning olinishi, fizik va kimyoviy xossalari to’g’risida ma’lumotlar beriladi. Suvni elektroliz qilish usuli bilan vodorod olish 2-rasmda ko’rsatilgan sxema asosida tushuntiriladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-rasm. Suvni elektroliz qilish usuli bilan vodorod olish

Shundan so'ng quyidagi havolalar vositasida vodorod energetikasi, vodorodning olinishiga oid videoroliklar ko'rsatiladi.

https://www.youtube.com/watch?v=K2VnirXqkbE
https://www.youtube.com/watch?v=4Gn9YQ_pWX0
https://www.youtube.com/watch?v=jfu-OjTHcw8

Faradeyning 1-qonunini tavsiflovchi formula hamda vodorodning elektroliz usuli bilan olinishiga oid masalani yechish bilan dars davom ettiriladi.

Masala. Sulfat kislota eritmasidan 0,1 A tok o'tkazilib, 1 g vodorod olish uchun qancha vaqt kerak ? Vodorodning elektrokimyoviy ekvivalenti 0,0104 mg/C.

Berilgan

$I = 0{,}1A$

$m = 1g = 10^{-3}\,kg$

$k = 0{,}0104mg/C = 104 \cdot 10^{-10}\,kg/C$

$t = ?$

Yechilishi. Faradeyning 1-qonunini ifodalovchi $m = kq$ formuladagi q ni tok kuchi $I = \frac{q}{t}$ formulasidan foydalanib $q = It$ formulaga ega bo'lamiz. Endi $m = kIt$ dan t ni topamiz:

$$t = \frac{m}{kI} \qquad [t] = \frac{m}{kI} = \frac{kg}{\frac{kg}{C}A} = \frac{C}{\frac{C}{sekund}} = sekund$$

Hisoblash:


$$t = \frac{m}{kI} = \frac{10^{-3}}{104 \cdot 10^{-10} \cdot 0{,}1}\,soat \approx 2{,}67\,soat$$

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Blits savollari:

1. Elektroliz deb nimaga aytiladi ?
2. Vodorod qaysi usullarda olinadi ?
3. Elektrokimyoviy ekvivalentning o'lchov birligini ayting.
4. Faradeyning birinchi qonunini ta'riflang.
5. Faradeyning birinchi qonunini ifodalovchi formulani yozing.
6. Quyidagi rasmlardan qay biri vodorod energetikasiga oid

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



Uyga vazifa:

1. Masala. Sulfat kislota eritmasidan 1,6 A tok o'tkazib, 2 g vodorod olish uchun qancha vaqt kerak ? Vodorodning elektrokimyoviy ekvivalenti 0,0104 mg/C.

2. Vodorod energetikasiga oid jahonda erishilayotgan yutuqlar va yechimini kutayotgan muammolar haqida ma'lumotlar to'plash.

Dars yakunida o'quvchilarida quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllanadi:

Kommunikativ kompetensiya:

A1

Elektroliz, Faradeyning 1-qonuni, katod, anod, vodorod energetikasi kabi tushuncha, qonun va qoidalarni tizimli bayon qila olish;

Elektrokimyoviy ekvivalent, tok kuchi, elektr zaryadi kabi fizik kattaliklar birliklarining qisqacha yozilishi, mazmunini tushunish.

A1+

Vodorod energetikasiga oid savollarni mantiqan to'g'ri tahlil qilib javob qaytarish

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A1

Elektroliz, Faradeyning 1-qonuni, vodorod energetikasiga oid eng so'ngi ma'lumotlarni axborot manbalaridan izlab topish va ulardan samarali foydalanish, mavjud axborotlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish.

A1+

An'anaviy, elektron va boshqa manbalardan elektroliz, Faradeyning 1-qonuni, vodorod energetikasiga oid ma'lumotlarni izlash va saralab olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

Elektroliz. Faradeyning 1-qonuni mavzusini o'rganish orqali vodorod energetikasiga oid boshlang'ich bilimlarni hosil qilish va yangi bilimlarni egallashga intilish.

A1+

Ilmiy va badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish orqali o'z-o'zini ma'naviy rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

Fizika faniga oid turli tadbirlarda faol ishtirok etish, dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari vaqtlarda ijtimoiy munosabatlarda odob-axloq normalariga amal qilish.

A1+

Jamiyatda yuzaga kelayotgan elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq muammolarni tahlil etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

A1

Tejamkorlikka oid urf-odatlarga qat'iy rioya qilish, fizika fani rivojiga hissa qo'shgan xorijiy va Respublikamiz olimlarning faoliyatini o'rganish.

A1+

Vodorod energetikasi sohasida izlanish olib borayotgan xorijiy va Respublikamiz olimlari faoliyatini o'rganish hamda tahlil qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

Elektroliz yo'li bilan vodorod olishga oid fizik masalalarni tanlay olish va tayanch formulalar asosida yechish.

A1+

Vodorod energetikasining afzalliklari haqidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish.

Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:

A1

Elektroliz hodisasining yuzaga kelishini kuzata oladi, hodisaning mohiyati bo'yicha dastlabki tushunchalarni erkin bayon qila oladi.

A1+

Elektroliz orqali vodorod ajratib olishni ongli ravishda kuzatib, mohiyatini tushuntirib beradi.

Tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi:

A1

Elektr zanjirdagi tok kuchini o'lchash va tokning o'tish vaqtiga qarab elektrolitdan o'tgan zaryad miqdorini hisoblay oladi.

A1+

Elektrodda ajralgan modda massasining zaryad miqdoriga bog'lanishini formula orqali tizimli ifodalay oladi.

Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

A1

Elektrolizga oid tushunchalar, tayanch formulalardan foydalanib masalalarni yecha oladi;

Tok manbai, ampermetr va boshqa jihozlardan samarali foydalanish jarayoni mobaynida texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi;

A1+

Kichik kuchlanishli fizik o'lchov asboblaridan kundalik turmushda foydalana oladi.

Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantiruvchi mashqlar

1-mashq. Quyidagi jadvalning 1-ustunidagi keltirilgan so'zlar asosida tushuncha, ta'rif va qonunlarni 2-ustunda tizimli ifodalang

o'tgan, proporsional, miqdoriga, elektrodlarda, vaqtida, elektroliz, chiqqan, ajralib, moddaning, massasi, elektrolitdan, zaryad, to'g'ri	
kattalikdir, moddaning, elektrokimyoviy ekvivalenti, teng bo'lgan, son jihatdan, modda massasiga, bir kulon,	

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

elektrolitdan, ajralib chiqqan, zaryad, o'tganda	
deb ataladi, modda, elektr toki, elektrolitdan, elektroliz, o'tganda, hodisasiga, elektrodlarda, ajralib chiqish	
vodorod, elektroliz, bilan, qilish, suvni, olish, usuli	
suyuqliklarda, deyiladi, elektr tokini, ionlarga, elektrolitlar, ajraladigan, va, o'tkazadigan, shu bois, eritmalarga	

2-mashq. Quyida keltirilgan fizik kattaliklarning o'lchov birliklari tartibsiz holatda joylashtirilgan. Berilgan kattaliklarning asosiy birliklarini to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.

1	Elektrokimyoviy ekvivalent	kg	
2	Tok kuchi	C	
3	Elektr zaryadi	kg/C	
4	Ajralib chiqgan modda massasi	A	

3-mashq. Quyidagi kimyoviy reaksiyalarning qay birida vodorod ajralib chiqadi:

1. $Zn + 2HCl =$
2. $CH_4 + H_2O =$
3. $CO + H_2O =$

Fizika darslarida muammoli savollar qo'yish, muammolarni hal qilish yo'llarini izlash, o'z fikrlarini isbotlash, muhokama qilish, darsning imkoniyatlari va ko'lamini nafaqat kengaytiradi balki ma'lum hajmdagi bilimlarni egallashga olib keladi. Maktab o'quvchilari yangi avlod energiyasining sermahsul turi bo'lishi kutilayotgan vodorod energetikasi haqidagi muhim fizik hodisalar haqida umumlashtirilgan bilimlarni, dunyoning yagona, yaxlit tabiiy-ilmiy manzarasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. - 14-son, 230-modda.

2. Habibullayev P., Boydedayev A., Bahromov A., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik / -Toshkent, 2019. "O'qituvchi". - 174 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Raupova Sojida Abduvaitovna
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini aniq va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirish, TIMSS xalqaro baholash dasturining 2019-yilgi sinovlarida yuqori natijalarni qayd etgan ilg'or xorijiy davlatlat Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarning boshlang'ich sinflardagi aniq va tabiiy fanlar ta'lim tizimi tahlili o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *Tarbiyaviy elementlar, baholash dasturi, xalqaro tadqiqot, STEAM yondashuv, grafik ma'lumotlar.*

ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В НАУЧНО-ЕСТЕСТВЕННЫХ ПРЕДМАТАХ

Раупова Сожида Абдуваитовна
Преподаватель Термезского государственного педагогического института

Аннотация. *Статья посвящена повышению грамотности учащихся младших классов в сфере естественных наук на основании передовых зарубежных стран, таких как Сингапур, Южная Корея, Япония, которые зафиксировали высокие результаты в 2019 году по тестам международной оценочной программы TIMSS, а также по науке и технике в начальной школе. В данных школах проведен анализ системы естественнонаучного образования.*

Ключевые слова: *Образовательные элементы, программа оценки, международные исследования, подход STEAM, графические данные.*

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN FORMING PRIMARY CLASS STUDENTS' LITERACY IN EXACT AND NATURAL SCIENCES

Raupova Sojida Abduvaitovna
Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

Annotation. *In the article, improving the Literacy of Elementary School Students in Science and Natural Sciences, advanced foreign countries such as Singapore, South Korea, and Japan, which recorded high results in the 2019 tests of the TIMSS international assessment program, in science and Technology in primary schools the analysis of science education system took place.*

Kewwords: *Educational elements, assesment program, international research, STEAM approach, graphic data.*

Kirish

Bugungi kunda turli davlatlarning ta'lim tizimlari erishayotgan natijalarni xalqaro taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Masalan, TIMSS, PIRLS va PISA turli mamlakatlarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. Ushbu tadqiqotlar o'quv jarayoniga metodik yordam sifatida amalga oshirilishini ta'minlaydi [1].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlil va natijalar

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4-va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, tadqiqot ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (The International Association for the Evaluation of Educational Achievement-IEA) tomonidan tashkil etiladi. Xalqaro tadqiqotning 2019-yilgi matematika bo'yicha 4-sinf o'quvchilarining natijalari bo'yicha Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar yuqori natijalarni qayd etdilar. Quyida ularning boshlang'ich ta'lim tizimi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.


Singapur. Ta'lim uch bosqichda amalga oshiriladi: "Boshlang'ich ta'lim", "O'rta ta'lim", "O'rta ta'limdan keyingi ta'lim". O'quvchilar olti yillik boshlang'ich maktabdan boshlanadi, bu to'rt yillik asosiy ta'lim bosqichi va ikki yillik yo'naltirish bosqichidan iborat. Asosiy bosqichda o'quv dasturi ingliz tili, ona tili va matematika fanlarini rivojlantirishga qaratilgan. Barcha boshlang'ich sinf o'quvchilari matematika fanidan bir xil kursni tamomlaydi. Yo'naltirish bosqichida o'quvchilar qobiliyatiga qarab o'qitiladi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan haftalik tavsiya etilgan o'quv soatlari quyidagicha (1-jadval)[2]:

1-jadval.

1	1-2-sinf	4 soat
2	3-4-sinf	5,5 soat
3	5-6-sinf (matematika)	5 soat
4	5-6-sinf (Fundamental matematika)	6,5 soat

Singapur maktablari boshlang'ich sinf matematika darslarida grafik ma'lumotlarni tahlil qila olish ko'nikmasini hosil qiluvchi masalalardan foydalaniladi. Masalan:

Grafik 7 soat ichida sizib chiqayotgan idishdagi suv miqdorini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm.

1. Idishdagi suv miqdori dastlab necha litr edi?
2. 7 soatdan keyin idishdagi suv miqdori necha litrga teng bo'lib qoldi?
3. Necha soatdan keyin idishdagi suv miqdori boshlang'ich qiymatning yarmiga teng bo'ladi?
4. Idish egasi yo'qotilgan har 8 litr suv uchun 1 dollar jarima to'lagan. 4 soatdan keyin jarima qancha bo'ladi?

Keltirilgan masalada matematik savodxonlik bilan birgalikda tarbiyaviy elementlar ham singdirib boriladi. Bunda ichimlik suvidan tejamkorlik asosida foydalanish bo'yicha tarbiyaviy jihatlar qamrab olingan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Janubiy Koreya. Janubiy Koreyada matematika fani dunyoni tushunish uchun asos hisoblanib, aloqa, avtomatlashtirish va aqlli texnologiyalar sohalari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish orqali, matematika savodxonligi va o'quvchilar bilimining ko'lami, mazmunini bosqichma-bosqich ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan matematik yondashuvga aylantiriladi. Matematika ta'limi STEAM yondashuv orqali o'quvchilarga turli muhitlarda bilimlarni integratsiyalashgan holda o'rganishga yordam berishga qaratilgan[3].

Boshlang'ich maktabda bolalar hayot uchun zarur bo'lgan asosiy ta'limni, o'rta maktabda ular standart asosiy umumiy ta'lim oladi. O'quvchilar yutuqlarini shakllantirish va diagnostik baholash o'qituvchilar, maktab ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi baholashlar o'qituvchiga muayyan o'quvchining yutuq va kamchiliklari to'g'risida tezkor ma'lumot olish, unga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, shuningdek, muayyan sinfda tashkil etayotgan o'quv jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Baholash nafaqat o'quv fanlari bo'yicha standartlarga erishishga, balki XXI-asr iqtisodiyoti va jamiyati bilan bugungi zamonaviy dunyoda fuqaroning hayotiyligini ta'minlaydigan intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ko'nikmalarning rivojlanishi o'quv fanlari kontekstida qo'llash asosida tekshiriladi: matematika, o'qish, yozish, tabiiy fanlar, ijtimoiy tadqiqotlar va boshqalar. Maktablar turli materiallar va usullardan foydalangan holda, o'quv fanlari mazmuniga muvofiq, berilgan sinf darajasida o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini baholaydi[4].

Yaponiya. Tabiiy resurslari cheklangan mamlakatlar uchun ta'lim tizimi olimlar va muhandislar kabi inson resurslarini tayyorlash uchun ham juda muhimdir. Yaponiyaning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi muvaffaqiyatining kalitlaridan biri bu ekologik ta'limning boshlang'ich maktab yoshidan boshlab izchil va dinamik amalga oshirilishidir. Yaponiyadagi boshlang'ich maktablarda ekologik ta'lim to'g'ridan-to'g'ri tajribalar va atrofdagi muhitni bevosita kuzatish orqali o'qitiladi. Yaponiyadagi boshlang'ich maktablarda ekologik ta'lim bir nechta fanlar bilan bog'liq bo'lib, ulardan biri tabiiy fanlar hisoblanadi. Ekologik ta'lim, shuningdek, yozgi ta'tilda birgalikda tozalikni saqlashga intilish orqali integratsiyalashgan o'quv faoliyati orqali o'qitiladi [5].

Xulosa

XXI-asrda jamiyatda ta'lim o'quv dasturiga qo'yiladigan muhim talablarni aniqlash, bugungi kunda talab qilinayotgan maktab ta'limining mazmuni va metodikasi haqida so'z yuritilishiga muhim asos bo'ladi. Xalqaro baholash natijalari asosida olingan asosiy ma'lumotlar birinchi navbatda ta'lim yutuqlarini monitoring qilish, aniq, tabiiy fanlar va o'qish dasturlari bo'yicha ta'lim islohotini amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kay Livingston Corresponding author kay.livingston@strath.ac.uk & Jim McCall (2005) Evaluation: judgemental or developmental ?, European Journal of Teacher Education, 28:2, 165-178, DOI: 10.1080/02619760500093198.
2. Berinderjeet Kaur. Mathematics education in Singapore - an insider's perspective. IndoMS-JME, Volume 5, No. 1, January 2014, pp. 1-16.
3. Kim M. K. et al. Analysis of elementary school teachers' perceptions of mathematics-focused STEAM education in Korea //EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2019. – Т. 15. – №. 9. – С. em1746.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Г. С. Ковалева, К. А. Краснянская. Анализ систем оценки реализации образовательных программ в Сингапуре, Южной Корее и Китае. Наука и Школа. 2016. № 1 – с. 121-131.
5. Budi Mulyadi. ENIS Model of Environmental Education for Elementary School Students in Japan. E3S Web of Conferences 202, 03019 (2020).

TILSHUNOSLIKDA DENOTATSIYA VA KONNOTATSIYA TADQIQOTI TARIXIGA NAZAR

Mirzaabdullayeva Mahliyo Xosiljon qizi
Andijon Davlat Chet tillar Instituti
Erkin tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqola denotatsiya va konnotatsiya tarixi, ularning kelib chiqishi va tilshunoslikdagi o'rninini yoritib beradi. Bundan tashqari, bir nechta tilshunos olim va yozuvchilarning denotatsiya va konnotatsiya haqida keltirib o'tgan mulohazalari yoritilib beriladi. Tilshunoslika muhim ahamiyat kasb etgan denotatsiya va konnotatsiya hodisasi va ularning o'zaro munosabati keng izohlanadi. Shuningdek, maqolada konnotatsiyaning turlari va ularning xususiyatlari, turli diskurslarda qo'llanishi batafsil yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar*: denotatsiya, konnotatsiya, tilshunoslik, til, mikrolingvistika, makrolingvistika, PortRoyal, onsomologiya, nominatsiya.*

ОБЗОР ИСТОРИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ДЕНОТАТАЦИИ И КОННОТАЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Мирзаабдуллаева Махлиё Хосилджон кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков
Внештатный исследователь

Аннотация: *В трех статьях рассматривается история денотативов и коннотаций, происхождение документов и их место в лингвистике. Кроме того, некоторые лингвисты и писатели выделяют денотацию и коннотацию из прошлых соображений. Широко объяснено лингвистически важное явление денотации и коннотации профессии, а также взаимодействие файлов. Отсюда на указанных в статье страницах выделены виды коннотации, используемые в различных дискурсах.*

Ключевые слова:*денотация, коннотация, лингвистика, язык, микролингвистика, макролингвистика, Пор-Рояль, онсомология, номинатция*

A REVIEW OF THE HISTORY OF THE RESEARCH OF DENOTATION AND CONNOTATION IN LINGUISTICS

MirzaabdullayevaMahliyo Khosiljon qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages
Freelance researcher

Abstract: *This article examines the history of denotation and connotation, their origins, and their place in linguistics. In addition, the opinions of several linguists and writers about denotation and connotation are highlighted. The phenomenon of denotation and connotation, which has gained importance*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

in linguistics, and their mutual relationship are widely explained. Also, the article describes in detail the types of connotation and their characteristics, their use in various discourses.

Keywords: *denotation, connotation, linguistics, language, microlinguistics, macrolinguistics, Port Royal, onsomology, nomination.*

Kirish

Vatanimizdagi olib borilayotgan islohotlar o‘zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi obro‘sini ko‘tarish, ham uning mavqeini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va qonunlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi pog’onaga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Ma’lumki, zamonaviy fan sifatida o‘zbek tilshunosligining rivojlanishi hamda taraqqiy etishining birinchi sahifasi sifatida XX asr boshlaridagi tilshunoslik tarixda muhrlangan va uni merosini o‘rganish milliy manfaatlarimizni boyitish, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash hamda ta’minlashishlarida salmoqli o‘rin tutadi. Tilshunoslik tilning kelib chiqishi va tararaqqiy etishi, til va tafakkur munosabatlari, tilning jamiyatdagi mavqei hamda rivojlanishi, infra tuzilishi – tilning tasnifi, uni tahlil hamda tadqiq qilish usullari kabi masalalarni o‘rganadigan fandir. Falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham tilni o‘rganadi. Shuni ta’kidlash joizki, tafakkurga oid masalalar bilan mantiq ilmi shug’ullanadi Shu sababli mantiqchilar fikrning tilda namoyon bo‘lishini tafakkur qonuniyatlari bilan uzviy holda o‘rganib ketadilar. Ma’lumki, til va tafakkur bir-biriga chambarchas bog‘langan hodisadir, biri–ikkinchisini to‘ldiradi, tafakkur tilda mavjuddir va u shu yerda yashaydi, har qaysi nutq negizida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni shu yo‘sinda o‘rganadi va kashf etadi.

Tilning kelib chiqishi hamda taraqqiy etishi jamiyat rivojiga bog‘liq shu tufayli til sotsiologlar tarafidan ham o‘rganiladi. O‘rganilish sohasini ajratib olish nuqtai nazaridan tilshunoslik ikki turga: mikrolingvistika(kichiktilshunoslik) va makrolingvistika (kattatilshunoslik)ga ajratiladi[5,5]. Mikrolingvistika – tilning faqat ichki, ya’ni fonetik, leksik va Grammatik tuzilishini, makrolingvistika esa, tilni boshqa fanlar bilan qo‘shilib o‘rganadi. Makrolingvistika–tilning kelib chiqishi va uning taraqqiyot qonunlari, tilning ijtimoiy mazmunini: uning tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni, tilning tarqalishi - idiolekt (shaxsiysheva), yangi til masalalari kabi muammolarni o‘z ichiga oladi[5,6].

Til insonlar orasida asosiy muloqot vositasi bo‘lib, u nominativ , kommunikativ va ekspressiv vazifalarni bajarish kuchiga ega bo‘lgan murakkab hodisadir. Uning nominativ va ekspressiv vazifaga ega ekanligi, til elementlarida, ayniqsa so‘zda o‘z aksini topadi. Avvalo, so‘zning nominativ funksiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, hozirgi globallashgan zamonda jamiyatning muttasil taraqqiy etishi, insonlarning bilim darajasi oshib hamda kengayib borishi tilda yangi atamalarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda va bu o‘z navbatida yangi atamalarga nomlar berishni taqazo etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, tilning barcha sathlari nominatsiya jarayonida faol ishtirok etadi.

Nomlar, ularning tabiati va mexanizmi, nomlashning vosita va turlari bilan shug’ullanadigan fan **onsomologiya** deb ataladi[16,19].So‘z hosil qilish hodisasi atash ya’ni nominatsiya jarayoni bilan uzviy bog’liq ekanligi mubog’aladan holi emas. Demak, onomasiologik tomondan qaraydigan bo‘lsak, so‘z yasashning hamma vositalari atash (nominatsiya) pirovardida hosil bo‘lgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Olamdagi nimanidir nomlash,ifodalash so‘zning asosiy vazifalaridan biridir. Masalan, gul,ruchka borliqdagi predmetni; oq,yashil,kul rang borliqdagi rangni; ko’p,oz,to‘rt,to‘qqiz borliqdagi miqdorni; bordi,o‘lchadi,uzdi borliqdagi harakatni ifoda etadi. Xulosa qilib aytganda, so‘z hamisha borliq bilan chambarchas bog’liqdir.Biroq, bu aloqadorlik to‘g’ridan-to‘g’ri emas,balki ong orqali sodir bo‘ladi.Shu tufayli ham so‘z ong yordamida borliqni namoyon qiladi.Nom va borliq masalasi qadimgi zamonlardan beri xar hil bahslarga sabab bo’lmoqda.Chunki borliqdagi mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar tilimizda ong orqali o‘z ifodasini topadi. Demak,denotat(ongda aks etgan borliq)-signifikat(borliqdagi narsa hodisalarning ongdagi umumlashgan obrazi)-nom o‘zaro dialektik bog’liqdir[9,24].

“Xar qanday so‘zning lug’aviy ma’nosi nutqiy sharoitdan, konteksdan tashqarida ham konkretlikka eg. Lekin stilistik ma’nolarni hosil qiluvchi omillar nutqiy muhitda vaziyat, yozuvda-kontekst,frazadir”[13,60], -deb fikr bildiradi M.Sodiqova. Shunday qilib,so‘zda ikki xil ma’nolar mavjud: denotativ va konnotativ.Leksik birlikning borliq,predmet bilan bog’liqligi tilshunoslikda denotativ ma’no, referensional ma’no singari atamalar bilan nomlanadi[12,8].

DENOTATSIYA VA KONNOTATSIYA TARIXI

Avvalo denotatsiya va konnotatsiya tadqiqi tarixiga nazar solsak, “konnotatsiya ” so‘zi taxminan 1200-yilda paydo bo’lgan.Ya’ni konnotatsiya so‘zi lotincha“connotare” so’zidan olingan bo‘lib “birgalikda”, “bilmoq” ma’nolarini anglatadi va sxolastik mantiqdan kelib chiqqan,so‘zlarning ma’nosi haqidagi falsafiy va teologik munozaralarda foydalaniladi[6,33]. XIV-asrda til haqidagi falsafada “konnotatsiya atamasi” so‘zlarni tasvir va harakatga ko‘ra ular nima ko‘rsatishini farqlash maqsadida qo‘llanila boshlandi. Xususan, ularaniqvamavhumso‘zlarningfarqihaqidagapirdilar. XIX-asrda konnotatsiya atamasi nutqning pragmatik tomoni bilan bog’liq bo‘lgan ifodalar mazmuniningbarchahissiy rang elementlariniifodalayboshladi. Garchi, bu atama uzoq vaqtdan beri qo‘llanilishiga qaramay,uning ta’rifi hali ham tilshunoslikda noaniq. XVII-asrda “konnotatsiya atamasi” Port-Royal grammatikasi orqali moddalardan farqli o‘laroq xossalarnibelgilashuchunkiribkeldi[6,34].

Denotatsiya va konnotatsiyaning turli xil tehnik foydalanishini ko‘rib chiqishga kirishishdan oldin, uning semantik qadriyatlarini denotatsiya va konnotatsiyaning etimologiya va so’z shakllanishini taklif qilish foydaliroq bo‘ladi.

Deverbal ot “denotatio” postklassik lotin tilida tasdiqlanganbo‘lib de-noto qo‘shma fe’lidan olingan bo‘lib “belgilamoq, ishoraqilmoq, ko‘rsatmoq” ma’nosini bildiradi. Ot “nota” (belgi, eslatma) o‘znavbatida “nosco” fe’lidankelibchiqqan (tanishish, bilish)[12,436]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, denotatsiyaning etimologiyasi odatda predmetni farqlashni belgilar bilan ajratib ko‘rsatish yoki uni tanishtirishning yo‘li orqali g’oya taklif qiladi, sababi bu uning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli tan olishdir.

Connotatio va connoto, denotation va denoto qolipida ishlab chiqilgan bo‘lib, old qo‘shimcha con-yordamida qiymatning yetkazib berilgani ya’ni ikkinchi darajali hamrox yoki nazarda tutilgan xususiyat. Ilohiyat sohasida birinchi bo‘lib o‘rta asr lotin tilida adabiyotda, keyinchalik esa XIV-asrda mantiq va grammatikada tehnik termin sifatida denotatsiya va konnotatsiyaning keng qo‘llanilishini ikkiga ajratish ya’ni falsafiy foydalanish va semantik stilistik foydalanish paydo bo‘ldi[12,437].

Antik dunyo olimlari eramizdan avvalgi YI-Y asrlarida tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi qarashlarni hodisalarining mohiyati negizida asoslab berishga uringanlar. Realistik qarash tarafdorlari bo’lgan Platon, Sokrat, Geraklit, kabi olimlar so‘zlar va predmetlar o‘rtasida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

uzviy bog'liqlik bor, har qaysi nom predmetning xususiyatiga , o'ziga hamda tabiatiga to'g'ri va mosdir,- deb ta'kidlaydilar. Nominalist qarashtarafdorlariDemokrit, Epikur, Lukresiyesa so'zlar-nomlar va predmetlar orasida tabiiy aloqadorlik yo'q, ularga nomlar tabiat tomonidan berilgan emas deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha, obyektiv borliq bilan uning nomi o'rtasida shartli munosabat mavjuddir[15,22].

Nominalist yo'nalish tarafdorlari qarashlariga so'z va denotat o'rtasidagi o'xshashlik va farqliliklar asos bo'ldi. Demokrit o'zining nominalistik nazaryasini tilimizda mavjud bo'lgan omonimiya, sinonimiya, polisemiya hodisalari asosida izohlaydi. Uningcha, bir-biridan farqqiladigan predmetlarning nomlari bir xil shaklda bo'lib qolishini yoki bitta predmetning nomlari bir necha xil bo'lishini realistik-moslik nazaryasi orqali izohlab bo'lmaydi. Masalan, olma so'zi obyektiv reallikdagi ikkita denotatni bildiradi: daraxt-predmet,olmoq-harakat[9,26].

Falsafiyan'analarda, denotatsiya va konnotatsiya juftligi o'xshash dixotomiyaga murojaatqilish uchun ishlatiladi. "Ma'lumot"(refrence)yoki "denotatsiya" (denotation) aksincha "ma'no" ko'proqan'anaviyfalsafiyatamadanya'ni "tushunish" va "kengaytirish"dan foydalaniladi.Ta'kidlash joizki, biz bu foydalanishni Jon Styuart Millning "Mantiq tizimi"asarida topamiz[10,212]. U konnotatsiya hodisasini "Oq" so'zi orqali yoritib berdi , bunga misol tariqasida barcha oq narsalarni, qor, qog'oz, sut, bo'r, dengiz ko'piklarini oladi, shuningdek maktab o'quvchilari tomonidan atalgan qo'shimchalar, oqlik atributlarini nazarda tutadi. Bundan tashqari oqlik aniq predmetlargagina emas, balki mavhumlikni anglatuvchi hodisalarni ham aniqlab keladi.

Muhokama va natijalar

M.Mamadaliyevaning bu ikki atama ustida chuqur izlanishlariga ko'ra,nom va borliq munosabatini motivlanish asoslariga qarab belgilash ma'quldir[9,32]. Shu sababdan borliqdagi barcha predmetlarning turli xil xossalari farqlovchi element sifatida, ana o'sha predmetning nomidan kelib chiqqan holda o'z ifodasini topadi.Shu nuqtai nazardan olib qarasak,so'z-denotat-ma'no munosabati o'zaro bog'langan holda bitta markaziy obraz bilan birlashadi.Masalan: **taroq** so'zini olsak, obraz markazi shu predmetning funksiyasiga to'g'ri keladi. Ya'ni biror narsani tarash uchun ishlatiladigan asbob yoki narsa nomini bildirish uchun asos bo'ladi.Buni – **oq**qo'shimchasiningindividualma'nosiyana ham oydinlashtiradi.

Insonlarga qo'yilgan ba'zi ismlarni oladigan bo'lsak, ularda ham motivlanish asosini denotatdagi belgiga qarab aniqlashimiz mumkin. Masalan, Anora,Xolida,Xoldorboy,Tojiboy,Tojixon,Ortiqali. Bu ismlar bilan nomlangan shaxslarda ma'lum bir belgi bo'ladi. Ya'ni Anora anor o'sha inson tanasida borligini, Xolida, Xoldorboy ismlaridagi shaxslarda xol borligini, Tojiboy, Tojixon-toj ya'ni qizillik, Ortiqali ismli insonlarga esa ortiqlik motivatsiyasi belgi bo'ladi. Biroq, atoqli otlar va ular bildirgan denotatlar orasidagi aloqa nutqiy muhit bilanbog'liqoydinlik talab qiladi. Chunki Anora bilan tushunilgan shaxs yagona emas, ularning dunyoqarashi, fikrlashi, ongi, xarakteri, tashqi ko'rinishi, qobilyati, salohiyati, ichki olami turli xil. Faqat bir o'xshash jihati tanasining qayeridadir anori borligi. Shu tufayli shaxslar atalgan nomlar faqat bir muhitda nutqiy holatda namoyon bo'ladi.

Ba'zi bir so'zlar ularnig denotatlarida bor xususiyatni aynan shunday xususiyat bor bo'lgan va unga o'xshamagan denotatga nisbatan foydalanish orqali ataladi. Misol qilib atirgul so'zini oladigan bo'lsak, bu so'z anglatgan denotat-gul.Bu gul boshqagullardanhushbo'yligi,go'zalligi,tikonlariborligibilanajralibturadi. Xuddi shu xususiyatlari ma'lum bir nutqiy holatda boshqa predmetga yoki shaxslarga ko'chirilishi mumkin

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va albatta bu hodisa tilshunoslikda **konnotatsiya** hodisasi ekanligini yuqorida ta'kidlab o'tdik. Masalan: Siz mening atirgulimsiz!, degan misolni oladigan bo'lsak ushbu jumlada muallif o'sha shaxsni atirguldek go'zal va hushbo'y iforli demoqchi ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Demak, bu o'z navbatida ikkilamchi nominatsiyani paydo bo'lishiga olib keladi.Va albattaki bu nom nutqiy jarayon hamda faoliyat obraz markazi orqali namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nominatsiyaga turli vaziyatlar o'z ta'sirini o'tkazadi va nutqiy jarayonda nomlanayotgan predmet yoki hodisaning xususiyati, xarakteridagi bir belgisi asos bo'ladi.

Hozirgi zamon tilshunosligining asosiy muammolaridan biri bo'lgan nom va borliq munosabati xususiyatlarini tadqiq etish, motivlangan va motivlanmagan munosabatlarni yoritib berish g'oyalari eng dolzarb hisoblanmoqda. Bizning fikrimizcha borliq hamda nomning o'zaro munosabatlari ikki qismdan iborat tuzilmadir, ya'ni tabiiy asosga qurilmagan-shartlangan, hamda motivlanmagan tabiiy asosga qurilgan tarkibiy qismlardan iborat. Bularni yana bir so'z bilan aytganda motivlangan va motivlanmagan tizimlardir.Ma'lumki, ikkixilomilbor:lingvistikvaekstralingvistik,ularbutizimdafaolqatnashadivabirbirigabog'langanta rzdamunosabatko'rsatadi.Atash ya'ni nomlash obyektiv va subyektiv asoslarga bog'liqdir. Ma'lumki, ikki xil omil bor: lingvistik va ekstralingvistik, ular bu tizimda faol qatnashadi va bir biriga bog'langan tarzda munosabat ko'rsatadi. Borliqdagi bor narsalar o'z xarakteriga, asoslariga, funksiyalariga, xususiyatiga, obyektiv belgisiga ko'ra nomlanadi. Yana boshqa jixatdan olib qaraydigan bo'lsak subyektiv jixatdan taqqoslash orqali ataladi. Masalan, **yuzi anor bo'ldi**, **ko'zlari yondi** gaplarida anor, yondi so'zlarining obyektiv xususiyati subyekt tomonidan taqqoslanib ikkinchi predmetga ko'chirilgan. Birinchi misolda rang asos bo'lib xizmat qilyapti va obyektiv munosabat-motivlash bor, ikkinchisida esa jarayon asos bo'lyapti hamda subyektiv munosabat-motivlanmaganlik-shartlilik mavjud. Shu sababdan nom motivatsiyaning bor yoki yo'qligi, denotat belgilariga va u atalgan nomga ko'ra aniqlanadi. Denotatning nutqiy faoliyati,xususiyati hamda xarakteri ikkinchi nominatsiyani paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirilgan birinchi misolda **anor** ikkilamchi nominatsiyani bildirmoqda. Birinchisida motivatsiya- obyektiv, sababi anorning rangi qizil.Yuzi anor bo'ldi misolida ham qizillikka ishora qilinmoqda. Ikkinchi misolda motivatsiya subyektiv, chunki **yondi** bilan ko'z o'rtasida obyektiv moslik yo'q. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, o'xshashlik asosida insoniyat tomonidan nomlangan, xolos. Shu tufayli ham aslida olovning yonishi hamda ko'z yonishi o'rtasida o'xshashlik motivatsiyasi mavjud.Ammo bu obyektiv motivatsiya hisoblanmaydi, sababi shartlilik asosida bog'lanyapti. Bir so'z bilan aytganda nom va borliq masalasi murakkab jarayon hisoblanib, bu jaryonlarning har biri alohida tadqiqot sifatida o'rganilib chiqishni talab qiladi.

Xulosa

Bizning bosh maqsadimiz so'zni nomlash jarayonida yuzaga keladigan konnotativ ma'noni tadqiq etish bo'lgani sababli ikkilamchi nominatsiyaga ya'ni nutqiy nominatsiyaga ko'proq e'tibor qaratdik. Har bir narsa, shaxs, jarayon, voqea, hodisa nutq talabi natijasida boshqa nom bilan nomlanishi ikkinchi nominatsiyani vujudga keltiradi. Ikkilamchi nom bilan atalgan predmetning xususiyati, xarakteri yoki tashqi ko'rinishidagi bitta qirra-belgi oldingi predmet (nom bo'lishga asos bo'layotgan predmet)dagi belgiga mos keladi va ikkilamchi nominatsiyani vujudga keltiradi[9,35]. Ikkilamchi nominatsiya o'zida konnotatsiyani namoyon qilgani tufayli, uni vujudga kelishi uchun asos deb olsak to'g'ri bo'ladi.

Konnotatsiyaning ancha vaqt tadqiqotchilar e'tibori markazidan chetda bo'lganining bir necha sabablari bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, konnotatsiya hamma til birliklari ma'nolari

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

uchun kerak deb aytaolmaymiz. Shu tufayli ham u leksikologlar tomonidan o‘rganilmagan bo‘lishi mumkin. Konnotatsiya ko‘proq pragmatikaga tegishli va matnni pragmatik asosda tekshirish muammosini o‘rganish yaqin yillardan beri tilshunoslikda paydo bo‘la boshladi.

Bu yo‘nalishda o‘zbek tilshunoslaridan professor E.Begmatovning qarashlari mavjud. U polisemantik so‘zlar ma’nolaridagi sof turkiy leksemalar (tong, yurak, qizil, kuch, to‘lqin kabilar) ning konnotativ ma’nolaridagi o‘zgarishlar xususiyatlarini tadqiq etgan[2,41].

Xulosa qilib aytganda, bu ikki atama bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir, biri ikkinchisini to‘ldiradi, denotatsiya-so‘zning o‘z ma’nosi bo‘lsa, konnotatsiya uning ko‘chma ma’nosidir. Bundan tashqari, so‘z ma’nosi bu uning denotative ma’nosidir, u so‘z ma’no tuzilmasining muhim komponenti hisoblanadi, uning ustiga qurilgan qo‘shimcha ma’nolar esa konnotativ ma’nodir. Aniqroq qilib aytganda, so‘zning qo‘shimcha ma’nosi bu so‘zning leksik ma’nosiga qo‘shimcha holda ya’ni xissiy-ekspressiv va uslubiy belgi beruvchi ma’nolarning yuklanishi tushuniladi. Konnotativ ma’no esa ko‘proq nutqda namoyon bo‘ladi.Agar so‘zda denotativ ma’no bo‘lmasa, konotativ ma’no ham bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Allan K (2001). Natural language semantics. Oxford: Blackwell
2. Begmatov.ECобственный пласт лексики современного узбекского литературного языка.АДД.Т.,1998. стр.41-44
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 "On measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language" // www.lex.uz.
4. Фердинанд де Соссюр. Заметки по общей лингвистике-Москва:1990
5. IrisqulovM.T.Tilshunoslikkakirish –Toshkent,2009,B.5-6.
6. КропотоваЛ.В.История развития лексической коннотации //Язык и культура. 2010. № 1. С.33–47.
7. Lyons J (1995). Linguistic semantics. An introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Лурия А.Р. Язык и сознание. МГУ, 1979, стр.31.
9. Mamadaliyeva M. O‘zbektilidanominativbirliklarningkonnotativaspekti:filologiya fan. d-ri...diss –Namangan.1997-B.24-25.
10. Mill. J. A system of logic. 1881. New York. Harper and Brothers’ publishers. P.212.
11. Navoiy A. Asarlar. 14-tom. T.,1967,B.105.
12. Rigotti E and RocciA,University of Lugano. Denotation vs connotation// Lugano, Switzerland- 2006, Elsevier Ltd. 436-444 p..
13. SodiqovaM.Chiqmoq fe’lining semantik-stilistik xususiyatlari.-O‘zbek tili va adabiyoti,1962,2-son,B.60
14. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц.М., наука,1986.стр-8.
15. Usmonov S.Umumiy tilshunoslik.T.,O‘qituvchi,1972,B.14.;Nurmonova A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon ,1992,B.22.
16. Xudoyberdiyeva L. S. O‘zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi:filologiya fan. d-ri...diss-Toshkent.2004.-B.19.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI BAJARISHDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARIDAN FAODALANISH SAMARADORLIGINI OShIRUVChI OMILLAR

Xolmurot Raximov - Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Matemetika va tabiiy fanlar" kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d. dotsent

Anotatsiya: *Ushbu maqolada texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillar haqida fikr va mukohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim resurslari, aralash o'qitish, masofaviy o'qitish, afzalliklari, kamchiliklari, mustaqil ta'lim.*

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Рахимов Холмурот Заведующий кафедрой «Математика и естествознание» Каршинского ирригации и агротехнологий института, доктор философии в педагогических науках.

Аннотация: *В данной статье представлены мнения и соображения о факторах, повышающих эффективность обучения с использованием цифровых образовательных ресурсов при организации самостоятельного обучения студентов технических вузов.*

Ключевые слова: *цифровые образовательные ресурсы, смешанное обучение, дистанционное обучение, преимущества, недостатки, самостоятельное обучение.*

FACTORS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN STUDENT INDEPENDENT LEARNING

Rakhimov Kholmurot Abdullaevich, Karshi Irrigation and Agrotechnologies Institute, PhD in Pedagogical Sciences;

Annotation*: This article presents opinions and considerations about the factors that increase the effectiveness of learning using digital educational resources in the organization of independent learning for students of technical universities.*

Keywords: *digital educational resources, blended learning, distance learning, advantages, disadvantages, independent learning.*

I. Kirish. Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun raqamli ta'lim qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Raqamli ta'limda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq.

Raqamli ta'lim resursi(RTR)-ta'lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir. RTRdan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar yaratadi. RTR - bu o'qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

rivojlantirishda, maktab o'quvchilarining so'rovi va monitoringini tashkil etish va o'tkazishda, shuningdek uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, belgilar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrirlash va talabalarning ijodiy ishlari xatolarni tuzatishda operativ vosita hisoblanadi[1].

Raqamli ta’lim resurslarining maqsadi axborot jamiyatida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim sifatini oshirishdan iborat. RTRdan foydalanishning quyidagi asosiy pedagogik maqsadlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonining barcha darajalarini faollashtirish (o'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish;

- fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish; kerakli ma'lumotlarni qidirish hajmini oshirish va optimallashtirish;

-kognitiv faoliyat faolligini oshirish);

-talaba shaxsini rivojlantirish, shaxsni axborot jamiyatida qulay hayotga tayyorlash (har xil fikrlash turlarini rivojlantirish; kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish; kompyuter grafikasi, multimedia texnologiyasidan foydalanish orqali estetik tarbiya; axborot madaniyatini shakllantirish, axborotni qayta ishlash qobiliyati).

II. Ko’rilgan adabiyotlar. Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha nashrlarni tahlil qilish, ushbu ta’lim turi tadqiqotchilar nazarda tutadigan bir qator kamchiliklarga ega ekanini ta’kidlashga imkon beradi: treningning boshqa ishtirokchilari bilan ijtimoiy aloqaning yo’qligi; talabalar tomonidan nazariy materialni noto’g’ri talqin qilish xavfi; talabalarning o’z-o’zini o’rganishining yuqori darajasiga bo’lgan ehtiyoj. Bu kamchiliklar raqamli ta’lim bilan bartaraf etiladi, bu kontseptsiya talabaning an’anaviy ta’lim va yangi ta’lim texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan barcha imkoniyatlardan maqbul va birgalikda foydalanishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu esa har bir o’quvchining potensial qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish va rivojlantirish uchun cheklangan imkoniyatlar bo’lgan an’anaviy ta’limning asosiy muammosini hal etishga sharoit yaratadi. Raqamli ta’limni amalga oshirish elektron ta’lim elementlaridan (elektron ta’lim resurslari, AKT) foydalangan holda an’anaviy ta’lim jarayonini qurishning umumiy tamoyillarini saqlashni o’z ichiga oladi.

RTR imkoniyatlarini talabaning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, ko'nikma va o'rganish istagini shakllantirishga yordam berishi mumkin. O'quv jarayonida RTRni qo'llash maqsadlari va ularning imkoniyatlariga ko'ra, RTRning quyidagi turlari ajratiladi:

Elektron kutubxona - elektron hujjatlarning turli xil to'plamlarini (ma'lumotnomalar va boshqalarni o'z ichiga olgan elektron nashrlar) ishonchli saqlash va samarali ishlatish imkonini beruvchi taqsimlangan axborot tizimi.

- **elektron ko'rgazmali qurollar kutubxonasi** - ma'lum bir mavzu sohasidagi ob'ektlar, jarayonlar, hodisalarni aks ettiruvchi multimedia komponentlari to'plamidan foydalangan holda mazmuni uzatiladigan qo'llanma.

- elektron ensiklopediya - bilimning ma'lum sohalarini qamrab oluvchi turli yo'nalishlar bo'yicha juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qo'llanma. Nashrlar ko'plab illyustratsiyalar, video va audio fragmentlar, animatsiyalar va uch o'lchovli modellar bilan ta'minlangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- **Repetitorlar, trenajyorlar, praktikumlar-** darslarga, imtihonlarga mustaqil tayyorgarlik ko‘rish, bilimingizni xolisona baholash imkonini beruvchi o‘quv-uslubiy majmualardir.

- **Multimedia darsliklari** - kompyuter yordamida mustaqil yoki o‘qituvchi ishtirokida o‘quv kursini yoki uning katta qismini o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy-uslubiy majmuadir.

- **Virtual laboratoriyalar** - o'quv majmuasi bo'lib, u ob'ektli tajribalarni, jumladan, maktab sharoitida o'tkazish qiyin, qo'shimcha jihozlarni talab qiladigan yoki juda qimmatga tushadigan tajribalarni o'tkazish imkonini beradi.

Аннотация. *В статье рассматриваются такие вопросы, как методологические, образовательные, учебные, учебно-воспитательные принципы андрагогического подхода, служащие важными положениями для разработки модели в связи с содержанием развития инновационного потенциала учителей общеобразовательных школ, а также цели и задачи развития инновационного потенциала, требующие рассмотрения при проектировании ожидаемых результатов.*

Ключевые слова: *подход, андрагогический подход, модель, инновационный потенциал, чтение и обучение, системность, современная педагогика.*

MODEL OF DEVELOPMENT OF INNOVATION COMPETENCE OF GENERAL EDUCATION SCHOOL TEACHERS

Khakimova Dildora Mashrabjonovna-Head of the department "Methods of teaching socio-economic and applied sciences" of the national center for training teachers in new methods of the city of Tashkent, Doctor of Philology. (PhD), associate professor

Annotation. The article discusses such issues as methodological, educational, training, educational principles of the andragogical approach, which serve as important provisions for the development of a model in connection with the content of the development of the innovative potential of teachers in secondary schools, as well as the goals and objectives of the development of innovative potential that require consideration when designing expected results.

Key words: approach, andragogical approach, model, innovative potential, reading and learning, consistency, modern pedagogy.

Kirish

Jahon miqyosida maktab o'qituvchilarining kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida ularning uzluksiz malakasini oshirish, kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimida supervayzerlik, professional treninglar, modulli va kollaborativ texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, innovatsion salohiyatni rivojlantirish maqsadida maktab o'qituvchilarining ijodiy fikrlash layoqatini, o'z ustida mustaqil ishlash, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kadrlarda innovatsion salohiyatni muntazam rivojlantirib borish Niderlandiya, Yaponiya, Lixtenshteyn, AQSh, Belgiya, Germaniya, Kanada kabi davlatlarda kasbiy faoliyatning majburiy komponenti sifatida belgilangan.

Dunyoda maktab o'qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirishning "ana'naviy", "yangi" va "aralash" modellarining uyg'unligini ta'minlash, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, malaka oshirishning muqobil shakllarining samaradorligini baholash, maqsadli malaka oshirishning variativ dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, pedagog kadrlarda innovatsion salohiyatni rivojlantirishning andragogik modelini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uzluksiz malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion faolligini oshirish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ularda prognostik va riskologik kompetentlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo'naltirish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanish layoqatiga ega, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohaga doir ilg'or o'qitish texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglik kasbiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish" pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa, maktab

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, modeli, mexanizmi va texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili

Bizgacha kasbiy rivojlanish jarayoni bilan bog‘liqlikda maktab o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Jumladan, yangi ta’limiy qadriyatlar asosida maktab o‘qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish [10], kasbiy rivojlanish jarayonida maktab o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash [5] kasbiy rivojlanish jarayonida ta’lim sifatini takomillashtirish [7], masofaviy kasbiy rivojlanish tizimini modellashtirish [8], maktab o‘qituvchilari malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimini takomillashtirish [15] kasbiy rivojlanish jarayonini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish [9], rahbar va maktab o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish [12], interfaol ta’lim modeli vositasida maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish, kasbiy rivojlanish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish [4] bilan bog‘liq pedagogik modellarni ishlab chiqishgan.

Biz tadqiqotimizda model tushunchasini biror-bir ob’ekt, jarayon yoki hodisaning “o‘rnini to‘ldiradigan” yoki “namoyon etadigan” fikriy yoki shartli analog sifatida talqin qildik. Bizning tadqiqotda model pedagog kadrning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning nazariy loyihasini o‘zida aks ettiradi. Biz o‘ylaymizki, mazkur loyiha uzluksiz kasbiy rivojlanishning real sharoitida to‘liq amalga oshishi mumkin.

Ma’lumki, turli modellar va tizimlarni ishlab chiqish uchun metodologik yondashuvlar, oddiyroq qilib aytganda ilmiy nazariyalar asos vazifasini bajaradi. Zamonaviy ilm-fan metodologik umumlashma sifatida ko‘plab yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotimiz natijalari maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda tizimli, faoliyatga doir, sinergetik, aksiologik, akmeologik va andragogik yondashuvlarning metodologik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi

Quyida pedagog kadrning innovatsion salohiyatini rivojlantirish muammosini tadqiq etishda ulardan foydalanish natijalarining qisqacha mohiyatini yoritib beramiz.

Tizimlarning umumiy nazariyasiga muvofiq, tizim muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o‘zaro ta’sirlashuv va bog‘liqlikda bo‘lgan ko‘plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir.

Demak, tizimli yondashuvning asosini murakkab ob’ektlarning yaxlitligi, uning chegarasi va undagi ichki va tashqi aloqalarning mavjudligini hisobga olish tashkil etadi. Tizimning umumnazariyasi real olamning barcha tizimli ob’ektlarning asosiy belgilariga nisbatan qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtda olimlar pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuvni qo‘llashning ikki asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishadi: pedagogik hodisa, ob’ekt yoki jarayonlarning morfologik, tuzilmaviy, funksional va genetik [2, 3], tizimning tarkibiy asoslari, uning elementlari, tuzilishi va tizim hosil qiluvchi aloqalarini tadqiq etish [13, 16]. Pedagog kadrning innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va tavsiflash, uni samarali amalga oshirish shartlarini aniqlashtirishda tizimli tahlilning birinchi va ikkinchi yo‘nalishlarining asosiy qoidalaridan foydalanildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini loyihalashning yana bir metodologik asosi faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvdir. So‘nggi yigirma yillikda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv ijtimoiy fanlarda keng tadqiq etilmoqda.

Faoliyat nazariyasi pedagogikada shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘z aksini topgan. Shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv yo‘nalishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, turli xil omillar ta’sirida hamda shaxsning o‘z faoliyati natijalari ta’sirida uning sub’ekt sifatida rivojlanishi amalga oshadi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochish, faoliyatga moslikning ahamiyatini tushunish, innovatsion tafakkurga ega maktab o‘qituvchilari modelini samarali ishlab chiqish imkonini beradi.

Bizning tadqiqotimiz uchun yana bir metodologik asos sifatida sinergetik yondashuv xizmat qiladi. Sinergetik yondashuv tizimlarning o‘z-o‘zini tashkillashtirishiga asoslanadi. Ta’limda o‘z-o‘zini tashkillashtirishning mohiyati barqaror tizimning tarqoq elementlaridan tashkil topadi. Sinergetik yondashuvni metodologik asos sifatidan tanlash pedagog kadrning o‘z-o‘zini takomillashtirishning rolini asoslash va baholash, maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayoniga turli omillarning birgalikdagi ta’sirini aniqlashga yordam beradi.

Sinergizmning asosiy g‘oyalari va qoidalari metailmiy darajaga taalluqlidir. Har bir fan (matematikaning qat’iy formallashgan bo‘limlaridan tashqari) sinergizm g‘oyalariga asoslanadi. Shu bilan birga fanlardan ko‘pchiligi xususiy-ilmiy darajada sinergetik konsepsiyasini ishlab chiqishni aks ettiruvchi nazariyani tashkil etadi.

Pedagogika ilmida sinergizm tamoyilining mohiyatini yoritib beruvchi ishlar ko‘p emas. Sinergizmning asosiy g‘oyalarini aks ettiruvchi ko‘pchilik pedagogik ilmiy asarlarda ta’lim tizimlari alohida murakkab va yuqori tashkillashgan tizimlarga taalluqli ekanligi haqidagi fikrlar aks etgan. Masalan, M.A.Renish sinergetik yondashuv ta’limni “o‘z-o‘zini tashkillaydigan tizimlar” sifatida tahlil etishni talab etishini qayd etib o‘tgan.

Sinergetik yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyati ko‘plab o‘zaro ta’sirga ega omillar sharoitida amalga oshishini bildiradi. Sinergizim innovatsion faoliyat sharoitida maktab o‘qituvchilari shaxsi va uning salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi ta’sirlarni aniq ifoda etadi, natijada uning ichki zahiralarini amalga oshirish va innovatsion salohiyatini rivojlantirishga imkon beradi. Ta’sir ko‘rsatishning “natijaviyligi” voqelikni qabul qiluvchining o‘ziga bog‘liq. Shuning uchun innovatsion salohiyatning rivojlanishning natijaviyligiga erishish mumkinligini oldindan bilish va hisobga olish mumkin emas. Faqat ayrim qonuniyatlari haqida gapirish mumkin. Biroq mazkur qonuniyatlarning individual darajada namoyon bo‘lishini hisobga olish zarur.

Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini loyihalashning navbatdagi metodologik asosi aksiologik yondashuvdir.

Aksiologik yondashuv [14, 10, 16] insonparvarlik pedagogikasining uzviy o‘ziga xosligi bo‘lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi falsafiy nazariyalar) yangi ta'lim falsafasi va zamonaviy pedagogik metodologiyaga uyg'un tarzda qaraladi.

Aksiologik yondashuvning eng muhim jihatlaridan biri pedagog kadrning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga imkon beruvchi pedagogik qadriyatlarni o'zida aks ettirganligidadir.

Pedagogik qadriyatlar – bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq.

Pedagogning ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bo'lajak o'qituvchi shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- pedagogga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlar;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Aynan pedagoglarda kasbga nisabatan qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli ustanovka va qadriyatli yo'nalganlikni qaror toptirish ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning muhim omilidir.

Qadriyatli ong pedagogning o'z kasbiy faoliyati sohasi sub'ektlarini aniqlashga imkon beruvchi ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli sifatida namoyon bo'ladi hamda yangilangan pedagogik fikrlarni anglab yetish, shuningdek, ta'lim sohasidagi yangiliklarning ahamiyatini fahmlay olish orqali yangi ta'limiy qadriyatlar haqidagi tasavvur va bilimlarga ega bo'linadi. Qadriyatli ongning pedagogning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati uning avtoritar ta'limdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish zaruriyatini anglab yetishida yorqin namoyon bo'ladi. Avtoritar ta'limdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish orqali pedagogda o'z xulq-atvori va faoliyatini qadriyatli usullar bilan boshqarish imkoniyati hosil bo'ladi.

Aksiologik yondashuv asosida maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning qadriyatli munosabatga doir tarkibiy qismi shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasini o'zida ifoda etadi. Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning qadriyatli munosabatga doir tarkibiy qismi o'z ichiga quyidagi jihatlarni qamrab olgan: 1) yangilikni o'zlashtirishga intilish; 2) yangilikning natijaviyligini ko'ra olish; 3) ob'ektiv yangiliklarning o'z faoliyati uchun ahamiyatli ekanligini baholay olish; 4) yangilikning samaradorligidan qoniqish hosil qilish; 5) yangilangan me'yorni ichki xulq-atvor faoliyatiga aylantirish.

Qadriyatli ustanovka – shaxsning o'zining ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorlik darajasi. Pedagog faoliyatida qadriyatli ustanovka uning yangilikni o'z faoliyatiga tatbiq etishga tayyorligi; o'z ichki nuqtai nazarini to'liq anglab yetishi; yangilikka doir axborot, bilim (kognitiv) va his-tuyg'u, emotsiya (affekt)ning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Qadriyatga yo'nalganlik qadriyatli ong va qadriyatli munosabat natijasida yuzaga kelib, maktab o'qituvchilari innovatsion salohiyatining mazmunli tomonini, uning innovatsion

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

jarayonlarga munosabatini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birga, qadriyatli yo‘nalganlik sub’ekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liqlikda innovatsion jarayonga uning bahosi sifatida qaraladi.

Yangilikni amaliyotga tatbiq etishga doir shaxsiy tajribani hosil qilish pedagog faoliyatining qadriyatga yo‘nalganligining muhim ko‘rsatkichidir. Chunki innovatsiya va innovatsion texnologiyalardan ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash orqali pedagogda yangilikni amaliyotga qo‘llashga doir tajriba hosil bo‘lishi bilan birga, uning o‘zi ham mavjud yangilikka qo‘shimcha o‘zgartirishlar qo‘shish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Akmeologik yondashuv maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning ilmiy asosi sifatida kasbiy rivojlanish kurslari tinglovchilarining mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub’ektlari tarzida namoyon bo‘lishlariga asoslanadi hamda ularning sub’ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Tadqiqot doirasida akmeologik yondashuv asosida maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish komponentlari aniqlashtirildi: 1) motivatsion-qadriyatli; 2) kognitiv; 3) faoliyatli; 4) kreativ.

Motivatsion tarkibiy qism o‘zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

1) bilishga doir va kasbiy motivatsiyani o‘zaro uyg‘unlashtirishdagi barqaror ichki ehtiyojning mavjudligi;
2) mahsuldor faoliyatga intilish;
3) innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etish ishtiyoqi;
4) o‘z-o‘zini namoyon etish ehtiyoji.

Tahlillar va natijalar

Maktab o‘qituvchilarida innovatsion salohiyatni rivojlantirishning muhim omili – kasbiy qiziqishdir. Kasbiy qiziqish o‘zida faoliyatning aniq belgilangan sohasi mazmuniga qiziqishni ifoda etadi. Mazkur jarayonda bilishga qiziqish faoliyatning mavjud shakl va usullarini egallashni rag‘batlaydi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, u yoki bu ijodiy faoliyatga qiziqish unga nisbatan layoqatning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq.

Innovatsion salohiyatni rivojlantirishning qadriyatli tarkibiy qismi ishga ijobiy ijodiy munosabatni o‘z ichiga qamrab oladi. Qadriyatli tarkibiy qismning tuzilishida pedagogik innovatsiyalarga doimiy va yuzaki bo‘lmagan qiziqishning mavjud bo‘lishi lozim.

Xulosalar

Shunday qilib, biz maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini loyihalashning metodologik asoslarini aniqlashtirdik. Bunday metodologik asoslar sifatida tizimli, faoliyatli, sinergetik, aksiologik, akmeologik va andragogik yondashuvlar belgilandi. Jumladan, tizimli yondashuv modelning tuzilmaviy komponentlarini ajratib ko‘rsatish va to‘liqligini ta’minlash, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va bog‘liqlikni aniqlashga imkon berdi. Faoliyatli yondashuv maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning dastlabki loyihasini belgilash uchun xizmat qildi. Sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayoniga turli ko‘rinishdagi omillarning o‘zaro birgalikdagi ta’sirini hisobga olish amalga oshirildi. Aksiologik yondashuv maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatining pedagogik qadriyatlar interiorizatsiya bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berdi. Akmeologik yondashuv maktab o‘qituvchilarining autopsixologik kompetentligining innovatsion salohiyatni rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlab

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

berdi. Andragogik yondashuvga tayanish kattalar ta'limi sifatida maktab o'qituvchilarining o'ziga xosligini hisobga olish va shu asoslan kelib chiqib pedagogik vositalarni taklif qilish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758-son.
2. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 305 b.
4. Djurayev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2019. – 160 b.
5. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o'qituvchilari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – Toshkent: 2007. – 159 b.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
7. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: doktorlik diss.avtoref....ped.fan.dok. – Toshkent, 2016. – 92 b.
8. Ibraymov A.Y. Effectiveness of Teachers Professional Development through Distance Learning Courses // Eastern European Scientific Journal. – Германия. 2015. №4. – P.118-125.
9. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 56 b.
10. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 232 b.
11. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении / А.М. Матюшкин. – М.: Издательство: Директмедиа Паблишинг, 2008. – 392 с.
12. Mirsoliyeva M.T. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2018. – 102 b.
13. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. …diss. – T., 2007. – 315 b.
14. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. – 364 b.
15. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2017. – 156 b.
16. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017. – 416 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MUHANDIS-QURUVCHILARDA DIZAYN FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI, G‘OYALARI VA TEXNIKALARI

Sanjar Mardov-Toshkent arxitektura-qurilish universiteti,PhD

Annotatsiya- *texnika asrida jadal rivojlanib kelayotgan sohalar orasida ayniqsa arxitektura qurilish sohasi alohida ajralib chiqdi. Zamon talabi bo‘lgan har-tamonlama insonlar uchun qulay va shinam binolarga talab ortib bormoqda. Bunday binolarni sohalarga qarab loyihalashda muhandis-quruvchilardan dizayn fikrlash talab etiladi. Dizayn fiklash orqali har qanday talabga mos yechim topish mumkinligi o‘z isbotini topdi.*

Kalit so‘zlar: *dizayn, me’mor, dizayn fikrlash, grafika, loyiha, grafik ta’lim, estetika, tamoyil, arxitektor-dizayner.*

КОНЦЕПЦИЯ ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ, ИДЕИ И МЕТОДЫ

Санжар Мардов-Ташкентский университет архитектуры и строительства, кандидат технических наук

Аннотация: *Среди бурно развивающихся областей в век технологий особенно выделилась сфера архитектурного строительства. Растет спрос на удобные и комфортные здания для всех людей, являющийся требованием времени. Проектное мышление требуется от инженеров-строителей при проектировании таких зданий в зависимости от отраслей. Доказано, что с помощью дизайнерского мышления можно найти решение, подходящее для любых требований.*

Ключевые слова: *дизайн, архитектор, дизайн-мышление, графика, проект, графическое образование, эстетика, принцип, архитектор-дизайнер.*

THE CONCEPT OF DESIGN THINKING IN BUILDING ENGINEERS AND ITS BASIC PRINCIPLES, IDEAS AND TECHNIQUES

Sanjar Mardov-Tashkent University of Architecture and Construction, PhD

Abstract: *Among the rapidly developing fields in the age of technology, especially the field of architectural construction stood out. The demand for comfortable and comfortable buildings for all people, which is the demand of the times, is increasing. Design thinking is required from engineers-builders when designing such buildings depending on the sectors. It has been proven that it is possible to find a solution suitable for any requirement through design thinking.*

Key words: *design, architect, design thinking, graphics, project, graphic education, aesthetics, principle, architect-designer.*

Dizayn fikrlash (tarjima Design Thinking, DM) interaktiv jarayon bo‘lib, unda biz foydalanuvchilarni tushunishga, boshlang‘ich tushunish darajasida aniq bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan echimlarni ishlab chiqish uchun ularning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarini aniqlashga va natijada foydalanuvchilarning prototipini ishlab chiqishga intilamiz. Talabga mos mahsulotlar iste’molchilar tamonidan oldindan loyihalangan va avtomatlashgan yondashuvni talab etadi. Dizayn fikrlash kontseptsiyasi o‘ziga xos fikrlash va ishlash usullarini, shuningdek, amaliy usullar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

ISSN: 2181-0427

Grafik ta’lim bizga foydalanuvchilar uchun mos bo‘lgan yechimni rivojlantirishga va to‘g‘ri savollar berishga yordam beradigan muammo, taxminlar va ular asosida chiroyli yechim taklif loyihalar ustida ishlash. Shuning uchun jamoalar kontseptsiyadan noaniq burilishli muammolarni hal qilish, ularni insonga yo‘naltirilgan tarzda qayta tuzish va foydalanuvchilar uchun eng muhim narsaga e’tibor berish uchun foydalanadilar. Bu jamoalarga foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirishning yangi usullarini topish uchun grafik tadqiqotlari, loyiha takliflarini yaratish va foydalanish imkoniyatlarini tekshirishni yaxshiroq o‘tkazishga yordam beradi. Shuning uchun dizayn fikrlash kelajak haqida fikr yuritish usulidir.

Inson go‘zal muhitini tashkil qilish muammolariga, shahar muhitida, ko‘chalarda, maydonlarda, dam olish maskanlarida, shaharning turar joylarida, turar-joy muhiti bilan chegaradosh sanoat tuzilmalarida, arxitektura faoliyati doirasida hal etilmagan muammolarga bugungi madaniy qiziqish, aslida mavjud bo‘lgan, ammo yaqin vaqtgacha o‘z sohasi mutaxassislari bo‘lmagan mutaxassislar tomonidan hal etilganligi, soha mutaxassislariga talabni oshirdi.

Gap muhandis-quruvchilar kasbi va ularning dizayn fikrlashlari atrof-muhitni loyihalash san’ati sohasidagi mutaxassis, me’moriy dizayn madaniyatining eng chuqur an’analariga asoslangan, shu bilan birga o‘ziga xos e’tibor va faoliyat jihatini shakllantiradigan kasb haqida bormoqda. arxitektura, dizayn va atrof-muhitni tartibga solish san‘ati kabi badiiy ijod sohalarining kesishishi. Arxitektor-dizayner faoliyatining ekologik yo‘nalishi juda keng bo‘lib, moddiy va badiiy madaniyatning eng xilma-xil sohalariga - sanoat dizayni, amaliy, dizayn san‘ati, ko‘rgazma san‘ati, teatr, kino, ob’yekt-vizualni bevosita shakllantiradi.

Biz bugungi ekologiya rassomini, me’morning an’anaviy konservatizmiga ega bo‘lmagan yangi dizaynerni shakllantirish zarurati haqida gapiramiz; sanoat dizaynerining cheklovlariga ega emas, lekin uning iste’molchilar g‘oyalari dunyosiga, texnologiya va materiallar olamiga kirib borishida kuchli; zamon ruhida ijod qiluvchi har-tamonlama mukammal bo‘lgan muhandis-quruvchilar.

Vizual ahamiyatga ega bo‘lgan turli xil muammolarni hal qiladigan arxitektor-dizaynerni tarbiyalashning o‘zagi rivojlangan kompozitsion fikrlash va fazoviy sezgirlik, ya‘ni shakl, makon, material tuyg‘usi, ob‘yektiv voqelik bilan hayoliy empatiya qilish qobiliyati, qobiliyatdir. plastik materiyani (chiziqli-grafik, ritmik, keyin-n, koloristik) vazifaga muvofiq tekislikda, hajm va fazoda tartibga solish.

Arxitektor-dizayner professional va badiiy madaniyatga ega bo‘lishi, shu jumladan fikrni ifodalashning turli vositalarini egallashi kerak; hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyatni tushunish; zamonaviy badiiy madaniyatning rivojlanish tendentsiyalarini his qilish; ekologiya, texnologiya, iqtisod, arxitektura va dizayn ishlab chiqarishini tashkil etish, materialshunoslik, shaklni tashkil etish tektonikasi masalalarini yo‘naltirish. Bu ko‘p sonli bilim va ko‘nikmalar bir yadro atrofida birlashtirilgan va jamlangan - asosan o‘quv jarayonida shakllanadigan me‘moriy va dizayn tafakkurining bir turi. Fikrlash tabiatini rivojlantirishga e‘tibor qaratish orqali qanchalik ko‘p narsaga erishish mumkinligini uchinchi kurs talabalarining (mutaxassislik bo‘yicha o‘qish boshlanganidan olti oy o‘tgach) 1989 yilda qirq daqiqa davomida "O‘rta maktab" mavzusida yozgan insholari ko‘rsatadi. Me‘mor-dizayner kasbi - bu nima?"

Vaqt yangi va yangi vazifalarni qo‘yadi, ularni bir xil usullar yordamida hal qilib bo‘lmaydi, yangi yo‘llarni izlash kerak. Arxitektura va dizayn sintezi shoshilinch ehtiyojning ifodasidir (O. Kulikov);

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Arxitektor-dizayner - bu nafaqat me‘morchilikni yaratadigan, balki atrof-muhit va makonni “arxitektura vositalari bilan” loyihalashtirgan kishi (L.Samartseva);

...ya‘ni me‘moriy makon va ob‘ektiv dunyoni tartibga soladi (O. Kulikov);

U me‘mor, rassom, sotsiolog, dizayner (E. Koval) faoliyat sohalari chorrahasida ishlaydigan sintetik mutaxassis;

... noan‘anaviy fikrlash qobiliyatiga ega.

Arxitektor-dizayner imkon qadar erkin insondir. Ajoyib rang, shakl, makon hissi va zamonaviylikni his qiladigan shaxs. Cheksiz, turli materiallar bilan ishlashga qodir. Arxitektor-dizayner, rassomdan farqli o‘laroq, “nima uchun”, “nima uchun” (Yu. Kuleva) asoslashi kerak;

Arxitektor-dizayner loyihalarni haqiqiy amalga oshirilishini tasavvur qilmasdan behuda yaratmasligi, balki amalga oshirishning ajralmas imkoniyatini loyihaga kiritishi kerak (E.Koval);

Arxitektor-dizayner biroz psixolog, bir oz shoir va tosh davri odami bo‘lib, olovga birinchi marta qaragan va g‘or devorlariga birinchi chiziq chizgan (M. Albanova);

San‘at bilan shug‘ullanadigan, ob‘ektni yaratishga qodir bo‘lgan shaxs, u “har doim shunday bo‘lgan” degan tuyg‘uni uyg‘otadigan muhit, ya‘ni. tabiat o‘xshashligida ishlaydigan me‘mor-dizayner (M. Sokolova);

Arxitektor-dizayner - zamonamiz rassomi (A.Usachev);

Me‘mor-dizaynerning hayoti izlanishdir, lekin bema‘nilikdan quvvatlangan aqlning mavhum o‘yini emas, balki atrofimizdagi olamning ko‘p qirraliligini, uning tabiiy go‘zalligi va betakrorligini boshqalarga kashf etishdir. Oxir oqibat, bu bizga bu dunyodagi hayotni o‘rgatadi (V. Kuzmin);

Arxitektura va dizayn tafakkuri strukturasining muhim tarkibiy qismi bu dizaynerning o‘zini o‘zi vaqt ichida idrok etishi, uning an‘ana va zamonaviylik bilan aloqasi. Uning ushbu masalalar bo‘yicha paydo bo‘lgan g‘oyalari bilan bir qatorda, zamonaviy professional tafakkurning tabiati uning ishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Kasbiy tafakkurning tuzilishiga jiddiy to‘xtalmasdan shuni ta‘kidlash mumkinki, bugungi kunda unga xos bo‘lgan retrospektiv tabiat tarixiylikni ozod qilgan, turli xil (ko‘pincha bir vaqtning o‘zida) tarixiy materiallar bilan ishlangan, eski uslub, kundalik hayot va isrofgarchilikning poetiklashuviga erishgan. Tabiiyki, buzg‘unchi yoki yuksaltiruvchi sifatida osongina belgilanishi mumkin bo‘lgan amalga oshirishga olib keladi. Retrospektsiya, stilizatsiya, eklektizm belgilari. “Retro ekran” orqasida bugungi dizaynerning tafakkuriga xos bo‘lgan professional tilning plastik xususiyatlari ko‘pincha ko‘rinmaydi, xususiyatlar bu yerda “haqiqiy vizualizm” deb ataladi. Dizayn madaniyati uchun an‘anaviy bo‘lgan tizimli aniqlik, amalga oshirilgan badiiy printsipning to‘liqligi, shakl shakllanishining ravshanligi va aniqligi bugungi kunda nafis yechimlarning o‘z-o‘zidan, oldindan aytib bo‘lmaydiganligi, to‘liq emasligi, ochiqligi va eskizligi bilan to‘ldiriladi.

Bunday plastik tizim professional biryoqlamalik, professional purizm o‘rniga antifunksionalizm tendentsiyalarining natijasidir - bu yashash muhiti, iste‘molchi bilan muloqot qilish, yorqinligi, zichligi va kirish imkoni bo‘lmagan muhitga intilishdir. Qayta ishlash; estetik funksionalizm o‘rniga, funktsiya, dizayn, material bir ma‘noda shaklni aniqlasa, eskizlik, stixiyalilik va tasodifiylik estetikasi mavjud.

Bugungi kunda arxitektura va dizaynda yaratilgan hamma narsani zamonaviy deb atash mumkin emas ya‘ni maxsus bugungi plastik ong belgilarini ochib beradi. Dizayn retrospektivlarining hozirgi mashhurligi ularni avtomatik ravishda zamonaviy qilmaydi. Dekorativizm, neofunksionalizm, neoklassitsizm, neo-barokko, eklektizm, an‘anaviylik yoki

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kontekstual arxitektura hali yetarli emas - u zamonaviy vizual va plastik g‘oyalardan kelib chiqqan holda dizaynerning qo‘llari, fikri va hissiyotlari bilan yaratilganligi muhimdir.

Dizaynerlar plastik va zamonaviy fikrlash zarurligini anglamay, hamma joyda jiddiy, tabiiy ravishda neoklassitsizmga tushib qolishadi, 1930-yillar me‘morchiligining rivojlanish bosqichini qaytadan boshdan kechiradilar, bugungi his-tuyg‘ular va ular jalb qiladigan material o‘rtasida masofani tan olmaydilar va yaratmaydilar. Retro materialni inson o‘zini an‘anaviy shahar muhiti qadriyatlariga ega bo‘lgan zamonaviy ko‘chada his qiladigan tarzda taqdim eta oladigan zamonaviy plastik fikrlash mavjud emas. Ehtimol, bugungi kunda sodir bo‘layotgan narsalarni zamonaviy uslubning rivojlanish bosqichi deb hisoblash mumkin emas. “Zamonaviy uslub” to‘liq kompozitsiya, aniq uyg‘unlik va tektonik tuzilmalar bilan ajralib turadigan shakl shakllanishini klassik tushunishning so‘nggi bosqichidir. Garchi “zamonaviy uslub” bosqichidagi vaziyat juda o‘ziga xos bo‘lsada - yangi materiallarning keskin kengaytirilgan palitrasi (beton, metall, shisha), yangi dizayn texnikasi (konstruktsiyalar, qobiqlar, simli va shishiriladigan konstruktsiyalar), yangi g‘ayrioddiy estetikasi ochilish ritmi, relyef, massa asosida qurilgan - axir, shakllantirish maqsadi an’anaviy bo‘lib qoladi, klassik - aniq yaxlitlikni yaratish. Bugungi kunda soddalik uyg‘unligi o‘rniga murakkablik va ziddiyat mavjud; mantiqiy ravshanlik o‘rniga - nomuvofiqlik va ikkilik; bir ma‘noli talqin o‘rniga ko‘p ma’nolar mavjud. Aniq aytadigan bo‘lsak, o‘rniga emas, balki yonida, birga, “bir yoki boshqa” emas, balki barchasi zamonaviy go‘zal uslublarga aylanmoqda. Bugungi kunda muhim bo‘lgan narsa tanlash va istisno qilish emas, balki qo‘shish va oshirish (L.P.Monaxova so‘zlari bilan), fikr va tuyg‘u, hissiyot va mavhumlik chegarasida ishlash, real va kontseptual, ifodali va ifodalab bo‘lmaydigan, umuman tushunarli va sub’yektiv, juda zamonaviy va tarixiy, an’anaviy. Nazariy jihatdan, bu g‘oyalar R. Venturi tomonidan 1966 yilda shakllantirilgan va ko‘plab me’moriy binolarda, dizayn mahsulotlarida, tasviriy san’at asarlarida, shu jumladan uning “Arxitekturadagi murakkabliklar va qarama-qarshiliklar” kitobi nashr etilishidan ancha oldin amalga oshirilgan. To‘liqlik, aniqlik va mutlaq uyg‘unlik akademizmiga qaytishga umid qilish qiyin, chunki “chegaradagi” ish “chegaraviy amalga oshirish” ni keltirib chiqaradi. Bugungi kun nafaqat ongning o‘sishi bo‘lib, unga yangi qadriyatlar doimiy ravishda kirib boradi, “zamonaviy” me’morning oddiy ongini larzaga soladi va uni doimo murakkablashtiradi. Bu murakkablik aslida soda go‘zallik hisoblanib, unga olib boruvchi yo‘l bu dizayn fikrlashdur.

Muhandis-quruvchilar tafakkurining mazmuni ko‘p jihatdan dizayn ob’yektini ichki tomondan, ma’lum turmush tarzidan, tashkil etilgan makon tuzilishidan yaxlit ko‘rishga intiladigan dizaynerning fikrlash an’analariga asoslanadi. Ta‘lim dizaynida narsalarning bunday ko‘rinishi tashqi tasvirdan, fasaddan loyihalashda duch kelmasligi mumkin bo‘lgan bir qator muammolarni ochib beradi. Misol uchun, bir qavatli turar-joy binosini olaylik. Biz nafaqat geografik va iqlim sharoitlarini, balki qishloq hayotining xususiyatlarini ham hisobga olish kerakligini aniqlaymiz. Bularning barchasi, albatta, uyning tuzilishida aks etishi kerak. Bundan tashqari, uyning tabiati nafaqat oiladagi odamlarning soni (odatda qoniqarli), balki oilaning turi - yangi turmush qurganlar yoki kattaroq oila, maktabgacha yoshdagi bolalari yoki katta yoshli bolalari bo‘lgan oilada ham namoyon bo‘ladi. Keyin dizayn vazifasi nafaqat oila a‘zolari uchun binolarni rejalashtirish, balki dala fermeri yoki mexanizator, boshqaruv yoki madaniyat xodimi oilasining turmush tarzini ham hisobga olishdir: uy ustaxonasida ishlash zarurati, uchastkada yoki stolda; bolalarda jismoniy faoliyatni amalga oshirish zarurati va boshqalar. Hayot tarzining orqasida, shuningdek, iste’molchining badiiy xohish-istaklari bilan bog‘liq bo‘lsada, muallifning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

sub'yektivligini amalga oshirishning tabiiy imkoniyatini inkor etmasa ham, dizaynerga ushbu haqiqatni sezmaslikka imkon bermaydigan ma'lum bir badiiy imtiyozlar tizimi mavjud. Insonga, uning yashash yoki faoliyat ko'rsatish tarziga, o'zining badiiy yo'riqnomalariga, o'sha davr va mintaqaning badiiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga xuddi shunday ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni har bir dizayn mavzusi talab qiladi, bu ichki dizayn uslubida hal qilinadi. Qiziqarli an'analari bilan dizayn juda xilma-xildir. Ammo dizayn fikrlashda dizaynning turli ko'rinishlarini birlashtiradigan umumiy narsa bor - tor tijoratdan badiiy va tanqidiygacha. Bu yuqori darajadagi ratsionallik, mazmunlilik va tizimli ijodkorlikning puxtalik va dizayn muammolarini hal qilish uchun aniq shartlar mazmuniga chuqur kirib borishi bilan uyg'unligi.

Dizayn ijodkorligining ortib borayotgan tahliliyligi muhandis-quruvchilar o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalar bilan bog'liq. Keling, J. Nelsonni dizayn fikrlash haqida aytgan fikrlariga to'xtalsak: dizayn - bu inson foydalanishi mumkin bo'lgan narsalarni madaniy hodisalarga aylantiradigan maxsus san'at turi, lekin shuning uchun u iqtisodiyot, siyosat, fan sohasidagi san'at doirasidan tashqariga chiqadi, nuqtai nazardan fikrlashga harakat qiladi. Vazifalarning keng ko'lamliligi tafakkur intizomini oshirishni, tahlil va taqqoslashning aniqligini, keng qamrovli ma'lumotlar bilan tizimli ishlashni talab qiladi. Dizayner tomonidan hal qilinadigan muammolarning yangiligi o'tmishdagi bilimlarga va taxminiy g'oyalarga tayanishga imkon bermaydi, bu ongni doimiy ravishda qayta yo'naltirishni, harakatlarning doimiy mazmunliligini talab qiladi.

Ko'pincha bu tendentsiya faqat hisob-kitoblarga asoslangan dizayn kontseptsiyalarining paydo bo'lishiga olib keldi, mumkin bo'lgan omillar va dizayn shartlarining butun majmuasini qat'iy hisobga olgan holda, deyarli qattiq nazoratdan tashqarida bo'lgan badiiy xususiyatlargacha. Bu 1950-1960-yillarda T. Maldonado boshchiligidagi Ulm dizayn maktabi (FRG) edi, bu yerda 1972 yilgi Myunxen Olimpiadasining korporativ identifikatori dizayneri Otl Aicher yoki poydevor qo'ygan Diter Rams kabi taniqli dizaynerlar, Brown kompaniyasi tomonidan dizaynni o'rgatgan va o'rgangan, bu 1960-yillarda Evropa dizaynining rivojlanish tendentsiyalariga katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo dizayn bu ekstremalliklar bilan tavsiflanmaydi. Eng yaxshi misollarda loyihaning eng yuqori mazmunliligi nozik badiiy sezgi bilan ko'payadi, ammo jiddiy, ko'p qirrali tahlillar materiali ustida ishlaydigan va puxta tayyorlangan ekspromtni taklif qiladigan sezgi. Birinchidan, dizayner, me'mordan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri iste'molchi talabiga mos keladigan narsalarni noziklik va go'zallik bilan yaratadi. Shuning uchun u kelajakdagi iste'molchining taxminiy farazlar bilan qanoatlanmaydi, afsuski, me'mor ko'pincha yuqorida keltirilgan taxminiy farazlarga suyanadilar, lekin nafaqat ijtimoiy xususiyatlarni, milliy, madaniy, kasbiy, yosh, jins xususiyatlarini, balki aqliy xususiyatlarini ham juda aniq tasavvur qilishi kerak.

Ijodkorlikning texnologik bog'liqligi bilan bog'liq bo'lgan dizayner faoliyati va tafakkurining o'ziga xos xususiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Umuman olganda, dizayn ilg'or texnologiyalar mahsulidir. Dizayngacha bo'lgan davr - bu buyumlarning qo'lda yoki qo'lda ishlab chiqarish davri bo'lib, u individual estetikani tug'dirdi, mahsulotning o'ziga xos qo'lda ishlangan ko'rinishi. Buyumning shakli yoki bezakidagi o'zgarishlar sanoat bo'lmagan texnologiyaning tabiiy natijasi sifatida paydo bo'lgan. 20-asr arxitekturasi noyob tuzilmalarni yaratish istagida bunday qurilish texnologiyasining ko'plab misollarini keltiradi: Le Korbusierning Ron-champ Chapel, J. Utsonning Sidney opera teatri, E. Saarinenning ayerodromlari. Biroq, bu borada o'zining qazish, suvoq va bo'yash ishlari bilan ommaviy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

arxitektura yanada ko‘proq dalolat beradi. Arxitektura dizayni texnologik qonunlarga ongli ravishda amal qiladi va ularni alohida ta’kidlaydi va estetik noziklikni talab qiladi, bu esa, asosan, bizning sanoat uy-joy qurilishida emas: zamonaviy texnologiya – an’anaviy estetika bilan hamnafas ekanligini bildiradi. An’anaviy me’morchilik va me’moriy dizayn o‘rtasidagi chegara texnologiyaga, aniqrog‘i, sanoat estetikasiga, o‘ziga xos badiiy ongga asoslanadi.

Birlashtirish va takrorlash amaliyoti ilmiy-texnikaviy inqilob davridagi shaxsning o‘ziga xos badiiy tafakkurini shakllantiradi. Agar sanoatgacha bo‘lgan rassom irratsional, metrik bo‘lmagan proportsional munosabatlarga asoslangan narsaning nostandart ko‘rinishini qadrlagan bo‘lsa, zamonaviy rassom takrorlashlarning, to‘g‘ri burchaklarning, katta bo‘linmagan tekisliklarning, oddiy geometrik hajmlarning o‘tkir go‘zalligini ko‘radi va qadrlaydi. zamonaviy texnologiya tomonidan yaratilgan o‘rab turgan sirtlarning aniq ritmlarini to‘la his qila oladi. Zamonamizning bir qator buyuk rassomlari o‘zlarining ijodiy kontseptsiyalarini xuddi shunday sanoat estetikasi asosida qurdilar. Gollandiyalik rassom Piet Mondrian tekislikning eng oddiy bo‘linmalari va elementar rang kombinatsiyalaridan foydalanib, plastik asoslarning ahamiyati sirlarini ochib berdi. Vengriyalik Viktor Vasarely takrorlanuvchi geometrik elementlardan (kvadratchalar, romblar, doiralar, uchburchaklar va ularning hosilalari) bir qator kompozitsiyalarni yaratib, kombinatsion estetikaning eng boy plastik imkoniyatlarini ochdi. Amerikalik Aleksandr Kalder payvandlangan va parchinlangan tuzilmalarni ruhlantirib, noan’anaviy mobil haykalni yaratdi. Bular san’atda sanoat-badiiy dunyoqarashni ifodalash uchun til topib, sanoat estetikasini tug‘dirgan, 20-asrning birinchi yarmidagi muhandis-quruvchilar va dizayn avangardini ilhomlantirganlarning bir qator vakillari o‘zlarining ishlarida namoyon etishdi. So‘nggi o‘n yilliklar davomida sanoat estetikasi juda murakkab shakllarga ega bo‘ldi: La Tourette monastiri, Chandigarh binolari Le Korbusier va K. Tange binolarining faol plastika davridan o‘tib, u uslubdagi murakkab esdaliklarga qaytadi. P. Mondrianning, Xuan Grisning kubizmi yoki ilk Le Korbusierning oddiy geometriyalarning g‘ayrioddiy plastikasini ko‘rsatishi o‘zini tugatganga o‘xshaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki muhandis-quruvchilarning dizayn fikrlashlari naqafat grafik ta’limga balki yo‘nalishlarga bog‘liqligi ko‘rinadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan qurilish sohalarida talab asosan qulay va nozik did bilan ishlangan loyihalarga ortib bormoqda. Demak bo‘lajak muhandis-quruvchilarning estetika va rassomlarning hayolat olamiga bog‘lashimiz zarur ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sanjar Khudoykulovich Mardov, & Zilolaxon Xikmat kizi Farxatova. (2022). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DESIGN AND ITS TYPES. Euro-Asia Conferences, 54–57. Retrieved from

2. Mardov, S. X. (2021). The practical importance of graphic programs and their descriptions in the development of student space imagination in teaching the subject of construction drawing. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (104), 680-684.

3. Mardov, Sanjar Xudoykulovich; Current Status of Developing Students' Space Imagination in the Use of Graphic Software in Teaching Architectural Drawings,"International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology",8,10,2021

4. Гузненков В.Н., Журбенко П.А. Учебный процесс с исползованием графических пакетов // Теория и практика общетвенного развития. 2014. –№ С. 173–175; Демидов С.Г. Особенности исползования информатсионных технологий при преподавании

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

графических диссиплин // Информатизатсия инженерного образования: сб. тр. Междунар. науч.-практ. конф. – М., 2016.

UDK: 37.378:4

BO‘LAJAK CHET TIL O‘QITUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TAVSIFI

G’affarova Dilafruz Vaydulla qizi
Tadqiqotchi
Namangan davlat chet tillari instituti
E-mail: gdilafruz@mail.ru

Annotatsiya: *Bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarini nutqiy kompetensiyasi ularning ingliz tilida samarali va erkin tarzda muloqot qilish va o’qitish qobiliyatlariga baho berishda ahamiyatli rol o’ynaydi. Ushbu maqolada ingliz tili o’qituvchilarini nutqiy kompetentligini rivojlantirishga yo’naltirilgan innovatsion usullarning metodologik tavsifi keltirilgan. Maqolada nutqiy kompetensiyaning nazariy asoslari hamda ushubu sohani o’rgangan olimlar va ularning izlanishlari natijalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Kompetensiya, nutqiy kompetensiya, pedagogik ko’nikmalar, amaliy strategiyalar, metodologiya, muloqot ko’nikmalari*

МЕТОДИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Гаффарова Дилафруз Вайдулла кизи
Исследователь,
Наманганский государственный институт иностранных языков
E-mail: gdilafruz@mail.ru

Аннотация: *Речевая компетентность будущих преподавателей английского языка играет решающую роль в их способности эффективно общаться и преподавать на английском языке. В данной статье представлено методологическое описание инновационного подхода, направленного на развитие речевой компетентности преподавателей английского языка. Предложенная методология включает в себя комплексную систему, охватывающую как теоретические, так и практические аспекты, способствуя развитию основных лингвистических, коммуникативных и педагогических навыков. Статья исследует теоретические основы речевой компетентности, изучая ее многомерную природу и выделяя ключевые компоненты, способствующие ее эффективному развитию.*

Ключевые слова: *Компетентность, речевая компетентность, педагогические навыки, практические стратегии, методология, коммуникативные навыки.*

METHODOLOGICAL DESCRIPTION OF ENHANCING THE ORAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Gaffarova Dilafruz Vaydulla qizi
Researcher,
Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: gdilafruz@mail.ru

Abstract: *The oral competence of future English language teachers plays a crucial role in their ability to effectively communicate and instruct in the English language. This article presents a methodological description of an innovative approach aimed at enhancing the oral competence of aspiring English language teachers. The proposed methodology incorporates a comprehensive framework that encompasses both theoretical and practical aspects, facilitating the development of essential linguistic, communicative, and pedagogical skills. The article explores the theoretical foundations of oral competence, examining its multidimensional nature and highlighting the key components that contribute to its effective development.*
Key words: *Competence, oral competence, pedagogical skills, practical strategies, methodology, communicative skills*

Kirish

Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan Amerika, Germaniya, Fransiya, Braziliya, Ispaniya, Finlandiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda til ta'limidagi kompetensiya va kompetentlik nazariyasi, xususan, kompetensiyaviy yondashuvining asosiy komponentlarini rivojlantirish tizimi bo'yicha salmoqli ilmiy ishlar qilingan, bu borada muayyan ilmiy fikr-mulohazalarbildirilgan. Masalan, amerikalik tilshunos N.Chomski birinchi marta XX asrning o'rtalarida o'z asarlarida "kompetensiya" atamasini qo'llagan va uni "insonning" biror faoliyatini amalga oshirish layoqati" deb ta'riflagan. Mazkur nazariyotchi olim tilning mustaqil sathlaridan biri bo'lmish sintaksisga bag'ishlangan ilmiy asarlarida "kompetensiya" (competence) va "qo'llanish" (performance) tushunchalarini qiyosiy tahlil qiladi. Ushbu atamalar mazmunidagi farqlarni "so'zlovchi-tinglovchi"ning bilimlari bilan tilning muloqot va faoliyatida qo'llanishi orasidagi tafovutlar orqali ochib beradi [1,117-b.].

Adabiyotlar tahlili

Germaniyalik olim M.Xollidey nutqiy kompetensiyaning mazmunida bir-biriga ta'sir etuvchi uchta komponentli tuzilishi modelini yaratib, ushbu komponentlar "ijtimoiy konteksda nutqni formal ifodalaydi va kommunikatsiyaning mazmunan o'ziga xosligini ajratishda ob'ektiv asos" bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Nemis tadqiqotchilaridan L.B.Shneyder kompetentlikning asosiy belgilarini tasnif etishda, eng avvalo, ijodiy faoliyat, ilg'or pedagogik tajriba, so'nggi yangiliklarni vaziyat, muhitga moslab amaliyotga tatbiq etishinnovatsion kompetentlikning asosi bo'la olishini isbotlab beradi. Shundan so'ng innovatsion kompetentlikning tipologik xususiyatlarini hisobga olishini tavsiya etadi. Mazkur olim bilish metodi bo'lgan tipologiya asosida ob'ektlar tizimini taqsimlash va ideal modellar yoki tillarning yordamida ularning keyingilari uchun guruhlarga ajratishga, shuningdek, tipologik tasvirlash natijalariga e'tibor qaratishga undagan.

Nemis olimlaridan H.Meyer va A.Klapperlarning ilmiy-tadqiqotlarida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilar kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ayniqsa, tadqiqotchi tomonidan kompetentlik darajasini belgilovchi quyidagi omillarni ko'rsatib berildi: "quruq bilimlar" sohibi bo'lib qolmasdan, yuzaga kelgan vaziyatlarda o'z bilimlaridan etarlicha foydalana olishi, xotirasida teztiklanadigan bilimlar mazmuniga ega bo'lishi; ta'lim beruvchining pedagogik faoliyatida o'ziga ishongan holda, o'zini qiynab yubormasdan, sog'lig'ini asragan holda hamda yaxshi kayfiyat va ko'rinishda dars bera olishi; ta'limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o'z ustida ishlashga tayyor turishi. [2,98-b.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada kompetensiyaga nisbatan funksional yondashuvlar hamda empirik metodologiya asosida yoritib berilgan bo‘lib, unda kasbiy kompetensiyaning yangi modeli va uni baholash usullari taklif qilinadi.

Tahlillar va natijalar

Demak, kompetensiyaviy yondashuv tub ma’noda shaxsga yo‘naltirilgan, mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan, uning atrofdagilar tomonidan tan olinishiga, salohiyatini anglab etgan holda jamiyatda o‘ziningmustahkam o‘rniga ega bo‘lishiga yordam beradigan, bir so‘z bilan aytganda, ta’limda samarali natijani ta’minlaydigan jarayondir.

Evropaning rivojlangan mamlakatlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” atamalarining ko‘plab va xilma-xil talqinlari berilgan[3,380-b.]. Xususan, tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan intervyu orqali testlash usuli pedagogik innovatsiyalardan hisoblanadi.

Mazkur olimlarning yutuqlari shundaki, ta’kidlangan kompetensiyalarning uchala turiga tegishli tadqiqotlarni batafsil muhokama qilgan; samarali auditoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish va tadqiqotlar olib borish uchun tegishli metodik tavsiyalar bergan.

Umumlashgan shaklda kompetensiyani mulk (sifat) deb belgilasak, kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan bu mulkka egalik, deb qarash mumkin. Muayyan universitetni yoki institutni tamomlagan bitiruvchi(mutaxassis) muayyan kompetensiyalar – kasbiy-relevant sifatlar asosidakasbiy faoliyatni amalga oshirishda faollashtiriladigan va uning kompetentliligini ko‘rsatadigan salohiyatga ega bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, "kompetensiya" atamasi mutaxassisni kasbiy faoliyatida o‘zini tavsiflash uchun ishlatilishi va "kompetensiya" – mutaxassisni "potensial" kompetentli qiladigan asosiy xususiyat sifatida ifodalashi mantiqiydir. SHuning uchun ba’zi tadqiqotlarda bo‘lgani kabi kompetensiyani o‘zlashtirishhaqida gapirish mutlaqo to‘g‘ri emas. Chunki, muayyan bir kasbga tegishli kompetensiyalarni egallasagina, ularni ma’lum bir kasbiy faoliyat tajribasida qo‘llash orqali vakolatli bo‘lishi mumkin, xolos.

Xulosalar

Xullas, kompetentlik – deganda, insonning kompetensiya va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatlaridan iborat mos kompetensiyaga egaligi ham tushuniladi. Bizning nazarimizda, tadqiqotimizga daxldor kompetensiya tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi va keng ma’noda ifodalanishga xizmat qiladi: a) pedagogika oliy o‘quv yurtlarining ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchisining tayyorgarligi, “mutaxassislashtirilgan”ligi, faoliyat usullari va vositalariga haqiqiy egaligi, pedagogik va lingvistik kompetensiya bilan bog‘liq muammolari o‘z vaqtida bajara olishligi bilan ifodalanuvchi ta’lim natijasi; b) atrof-muhitini shakllantirish muayyan maqsadni qo‘yish va unga erishish imkonini beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarning mosligi.

“Kompetentlik” atamasidagi *“-lik”* qo‘shimchasi aslida ta’lim sifatiga egalik darajasini bildirganligini olimlar yaxshi bilishadi. SHuning uchun ham mazkur atama milliy tilimizda va pedagogik amaliyotda ta’limsifatlari va ularga egalik darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Kompetentlik – deganda, shaxsning muayyan faoliyat yuritishga umumiy qobiliyatlar va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgansifatlari tushuniladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Demakki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan biroz kengroq, chunki ular shaxsning muayyan sohaga yo‘naltirilganligi, qo‘yilgan muammo va vazifalarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi pedagogik sifatlarni o‘z ichiga oladi. Milliy tilimizda har ikkala atama sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaniladi. Bu tushunchalar milliy pedagogikamizda nisbatan yangi hisoblanganligi uchun ham tegishli adabiyotlarda ularning turli xil talqinlari mavjudligini ko‘ramiz. Lekin ularning ixchamlashgan, mazmunli va me’yorlashgan ifodasi oliy ta’limning Davlat ta’lim standartidagi ta’riflarda berilgan.

Milliy ta’lim tizimida oliy o‘quv yurtlari muassasalari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar nuqtai nazardan kompetentlik tushunchasida bo‘lajak mutaxassisning muayyanvaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat metodlari majmuasini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, May 1965, 261 r. 265; Chomsky, N. SyntacticStructures. Mouton, 1957, 117 p.
2. Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren // Auf den Anfang kommt es an: Kompetenzen entwickeln –Kompetenzen stärken. Wiesbaden, 2006, P.98.
3. Cheetham G. The Acquisition of Professional Competence (1999): Thesis submitted for the Degree of Doctor of Philosophy, University of Sheffield, Division of Adult Continuing Education, England, 380 p.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UDK 378:378.2

ANALOG VA RAQAMLI SXEMATEXNIKA FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI

E.D. Imamnazarov
Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan 160103, O‘zbekiston
e-mail: erkinied@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ma’lumotlarni diskret ma’lumotlar (raqamlar) sifatida ifodalanashi va o‘quvchilarning mavzuni muvaffaqiyatli o‘rganishi uchun muhim bo‘lgan natijalarni olish uchun raqamlar orqali o‘zaro ta’sir qilish usullari taqdim etilgan. Shuningdek, yarim o‘tkazgichlarning asosiy xususiyatlari, yarim o‘kazgichli qurilmalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari va ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida samarali o‘qitish metodikasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Analog sxematexnika, raqamli sxematexnika, elektronika, sxema, texnika, energiya, diskret element, raqamli qurilmalar, mikrokontroller.*

АНАЛОГОВОЙ И ЦИФРОВОЙ СХЕМОТЕХНИКИ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.

Э.Д. Имамназаров
Наманганский инженерно-строительный институт, Наманган 160103, Узбекистан
Электронная почта: erkinied@mail.ru

Аннотация. *В этой статье представлены методы представления данных в виде дискретных данных (числ) и взаимодействия с числами для получения результатов, важных для успешного обучения учащихся. Также освещены основные характеристики полупроводников, структура и принципы работы полупроводниковых приборов, а также методика эффективного обучения на основе цифровых технологий в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *Аналоговая схематехника, цифровая схематехника, электроника, схема, техника, энергетика, дискретный элемент, цифровые устройства, микроконтроллер.*

THE SCIENCE OF ANALOG AND DIGITAL SCHEMOTECHNICS TEACHING METHODOLOGY USING DIGITAL TECHNOLOGIES

E.D. Imamnazarov
Namangan Engineering and Construction Institute, Namangan 160103, Uzbekistan
e-mail: erkinied@mail.ru

Annotation. *This article presents techniques for representing data as discrete data (numbers) and interacting with numbers to produce results that are important to student success. The main characteristics of semiconductors, the structure and operating principles of semiconductor devices, as well as methods of effective teaching based on digital technologies in the educational process are also covered.*

Keywords: *Analog circuit engineering, digital circuit engineering, electronics, circuit, technique, energy, discrete element, digital devices, microcontroller.*

Kirish

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga navbatdagi murojaatida iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqish, shu asosda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etish masalasi qo‘yildi. Murojaatnomani tinglar ekanmiz, mazkur dastur bir qarashda iqtisodiyot sohasiga taalluqli ekanligi kunday ravshan bo‘lib tursa ham, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan biz – o‘qituvchilar zimmasiga ham ulkan vazifalar yuklanayotganligini his qilmoqdamiz. Chunki mamlakatning iqtisodiy hayoti, barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni taqbiq qilish bo‘yicha islohotlar va ilg‘or texnologiyalar, tabiiyki, ta’lim sohasini chetlab o‘tishi mumkin emas. Aksincha raqamli iqtisodiyot asosini kadrlar va ta’lim tashkil qiladi [1].

Bugungi kunda elektronika har bir fanning ichigacha kirib bormoqda, masalan: Oliy talim muassasalarida elektronika va sxematexnika, analog va raqamli sxematexnika fanlari o‘tiladi. Elektronikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri analog va raqamli sxematexnika hisoblanadi. Bu soha elektronik qurilmalar, elektr energiyasini boshqa energiya turlariga aylantirish va elektronik tizimlarni yaratishda amalga oshiriladi. Sxematexnika, qurilmalar va tizimlar uchun turli xil shakllarda ishlatiladi. Analog va sxematexnikasi elektr energiyasini apparatlar, masalan, radio va televizorlar uchun ishlatiladi. Raqamli sxematexnika esa, elektr energiyasini raqamlar shaklida ishlatadi va kompyuterlar, mobil qurilma va boshqa elektronik tizimlar uchun kerak bo‘ladi. Bu sohaga kirmoq uchun elektronika, elektrik va elektronikning asosiy konsepsiyalarini tushunish zarur. Shuningdek, analog va raqamli sxematexnika, elektronik qurilmalar va tizimlar yaratishni o‘rganishga yordam beradi. Analog va raqamli sxematexnika, elektronik va kommunikatsiya sohasida qo‘llaniladigan ikkala asosiy texnologiya turidir. Raqamli texnologiya, ma’lumotlarni raqamlar yordamida ifodalash, saqlash, o‘zgartirish va o‘zaro almashinuv qilish asosida ishlaydigan texnologiyalar to‘plamini ifodalaydi. Bunda, ma’lumotlar diskret (raqamlar) sifatida ifodalangan va o‘zaro aloqalar raqamlar orqali amalga oshiriladi [2].

Adabiyotlar tahlili

Elektronikaning bugungi kundagi yutuqlari analog va raqamli sxematexnika, radiotexnika taraqqiyoti, tranzistorlar, uzatuvchi televizion trubkalar yaratilishi bilan uzviy bog‘liqligini olimlar J.K.Maksvem, O.U.Richardson, Xorovis P., Xill U., G‘.V.Rentgen, J.Tomson, X.K.Lorentsyatlsh ishlari XX-asr boshida o‘rganilgan. Rus olimlari A.G.Stoletov, A.K.Cherepanov, N.G.Basov, A.M.Proxorov, A. L. Larin., S.V.Vavilov, A.A.Chernishev va boshqalar, amerika olimlari Ch.Tauns, L.De Forest, Z.Varvan, R.Varman, R.Kompfner va boshqalar bu fan taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shib sxemalashtirilgan zanjirlarni raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini ilgari suradilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Analog sxematexnika ma’lumotlarni o‘zgaruvchan oqimlar, elektrik tugunlar, voltaj va intensivlikga asoslangan analog signallar orqali ifodalaydi. Analog sxematexnika, ma’lumotlarni kontinual (davomiy) sifatida ifodalaydi va o‘zaro aloqalar analog signal orqali amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyada ma’lumotlar bitlar (0 va 1) yoki raqamlar yordamida ifodalangan bo‘lib, ma’lumotlar raqamlar to‘plami sifatida saqlanadi va o‘zaro aloqalar raqamlar yordamida o‘zgaradi. Raqamli texnologiyada ma’lumotlar diskret bo‘lib, kompyuterlar, mikrokontrollerlar,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mikroprotsessorlar va boshqa raqamli qurilmalar ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, almashinuv qilish va tarqatish uchun ishlatiladi [12].

Bundan tashqari, raqamli sxematexnika o'zgaruvchanli signalni raqamlar sifatida ifodalaydi va boshqa texnologiyalar, masalan, raqamli sxematexnika bilan bog'liq bo'lgan kompyuterli boshqa qurilmalar bilan ham integratsiya qilinadi. Raqamli sxematexnika, ovoz, rasm, ma'lumotlarni kompressiya qilish, saqlash, tarqatish va qayta ishlash jarayonlarida ham keng qo'llaniladi.

Umumiy qilib aytganda, analog sxematexnika kontinual sifatida ma'lumotlarni o'zgartiradi va o'zaro aloqalanishda ovoz, rasm va boshqa fizikaviy xususiyatlarga asoslangan signal shaklida ishlatiladi. Raqamli sxematexnika esa ma'lumotlarni diskret sifatida ifodalaydi va o'zaro aloqalar raqamlar yordamida o'zgaradi. Raqamli texnologiya, ma'lumotlarni raqamlar yordamida ifodalaydi va raqamlar orqali o'zaro almashinuv va amalga oshirishni o'rganadi.

Tahlillar va natijalar

Hozirgi paytda elektron ta'limning takomillashgan shakli bo'lib hisoblangan raqamli ta'lim jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtay nazardan biz analog va raqamli sxematexnika fani misolida *yarimo'tkazgichli diodlarni tadqiq qilish* mavsusini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning EWB Multisim dasturi orqali tushuntirishga harakat qildik. [11].

Unda tajriba mashg'ulotlarida talabalarning o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun ahamiyatli bo'lgan natijalarni olishga yo'naltirilgan tajribalar amalga oshiriladi.


Yarimo'tkazgichli diodlar to'g'risida tushuncha. Yarimo'tkazgichli diod elektr tokini bir tomonga o'tkazuvchi ikki elektrodli elektron asbobdir. To'g'ri yo'nalishda diodning qarshiligi kichik (ideal holda nol) teskari yonalishda esa katta (ideal holda cheksiz) bo'ladi. Ko'p hollarda diodni "to'g'rilagich" ham deb atashadi. Yarimo'tkazgichli diodlar birinchi yarimo'tkazgichli asboblardir.

1.1-rasm. Diodning belgilanishi va markirovkalanishi


Diodning musbat elektrodi – anodi A harfi bilan, manfiy elektrodi – katodi esa K harfi bilan belgilanadi. Odatda diodlarning anod va katodini aniqlab olish uchun, ularning katod qismiga ingichka chiziq chizilgan bo'ladi.

Diodning tuzilishi. Agar p-tip va n-tip material bir-biriga birlashtirilsa, 1.2-rasmdagidek birikma hosil bo'ladi.

p-tipdagi materialda elektr tashuvchi sifatida teshiklar, n-tipdagida esa elektronlar ishtirok etadi. Qarama-qarshi zaryadlarning tortishishi hisobiga p-tipdan teshiklarning bir qismi n-tomonga, n-tipdan esa elektronlarning bir qismi p-tomonga o'tadi.




www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1.2-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning hosil qilinishi

Ikkalasi ham birikish joyi tomon siljiganligi sababli teshiklar va elektronlar neytrallashish uchun qo‘shiladi va ionlarni hosil qiladi. Natijada, bu materiallarning birikish joyida *p-n* o‘tish yoki o‘tish baryeri sig‘imi deb nomlanuvchi manfiy va musbat ionlar hosil bo‘ladi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning tuzilishi


p tomonda manfiy ionlar va n tomonda musbat ionlar hosil bo‘lishi natijasida p-n birikmasining har ikki tomonida tor zaryadlangan soha hosil bo‘ladi. Bu sohada endi harakatlanuvchi zaryad tashuvchilar qolmaydi. Bu sohadagi ionlar harakatsiz bo‘lib, ular o‘rtasida hech qanday zaryad tashuvchisiz qolmaydi.

Ushbu soha p va n tip materiallar orasida to‘siq vazifasini bajargani uchun Baryer birikmasi deb ham ataladi. Yana boshqa nomi kambag‘allashgan soha bo‘lib, bunda ikkala sohada ham zaryad tashuvchilar kamayadi. Birikish joyida ionlar hosil bo‘lganligi sababli, shu joyda potensial to‘siq deb nomlanuvchi potensiallar farqi hosil bo‘ladi. Potensial to‘siq teshiklar va elektronlarning ushbu sohani kesib o‘tishiga to‘sqinlik qiladi.


Barcha yarimo‘tkazgich diodlarni ikki guruhga ajratish mumkin: to‘g‘rilovchi va maxsus vazifalarni bajaruvchi. To‘g‘rilovchi diodlar – o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka o‘zgartirishda foydalaniladi. To‘g‘rilanuvchi tok shakli va chastotasiga bog‘liq holda ular past chastotali, yuqori chastotali va impulsi diodlarga ajratiladi. Maxsus vazifalarni bajaruvchi diodlarda *p-n* o‘tishlarning turli elektrofizik xususiyatlaridan, masalan, teshilish hodisalaridan, fotoelektrik hodisalardan, manfiy qarshilikka ega sohalari mavjudligidan va boshqalardan foydalaniladi. Maxsus vazifalarni bajaruvchi diodlar, xususan, o‘zgarmas kuchlanishni barqarorlash, optik nurlanishni qayd etish, elektr sxemalarda signallarni shakllantirish va boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladi.

Agar yarimo‘tkazgichning p – sohasiga musbat, n – sohasiga manfiy tashqi kuchlanish manbai ulansa, kuchlanishning kichik qiymatida ham undan nisbatan katta toklar o‘tishi mumkin. Shuning uchun yarimo‘tkazgichning bunday yo‘nalishi to‘g‘ri yoki o‘tkazuvchi yo‘nalish deyiladi. Yarimo‘tkazgichli diodga teskari ulangan kuchlanish qancha katta bo‘lsa ham


www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427




undan o‘tadigan tokning qiymati juda kichik bo‘ladi va bu yo‘nalish teskari



yo‘nalish deyiladi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning ulanishi



1.5-rasm. Yarimo‘tkazgich diodning volt-amper xarakteristikasi

Diodning static volt-amper xarakteristikasi 1.5-rasmda keltirilgan bo‘lib, yarimo‘tkazgichli diodning to‘g‘ri va teskari yo‘nalishlaridagi qarshiliklari bir-biridan keskin farq qiladi: to‘g‘ri yo‘nalishda ulangan diodning qarshiligi kichik, teskari ulangan diodniki esa katta bo‘ladi. Shu sababdan diod bir tomonga elektr tokini yaxshi o‘tkazadi, ikkinchi tomonga esa yomon o‘tkazadi.

Ushbu ishini Multisim dasturiy vositasida amalga oshiramiz.

1. Yarim o‘tkazgichli diodni to‘gri yo‘nalishda ulangandagi VAXini tekshirish. Diodning VAXini 1N3880 diodi misolida ko‘rib chiqamiz (1.6, a-rasm).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

a) **b)**

1.6-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning to‘g‘ri (a) va teskari (b) ulangandagi volt-amper xarakteristikasini tekshirish sxemasi.

Elementlar kutubxonasidan 1N3880 modeldagi yarimo‘tkazgichli diod, elektr qarshiligi 1 kOm bo‘lgan o‘zgaruvchan va 100 Omga teng bo‘lgan o‘zgarmas qarshilik, o‘zgarmas tok manbai, elektr o‘lchash asboblari: mikroampermetr, milliampermetr, voltmetr hamda millivoltmetrni olamiz. Sxema ishlashi uchun natija olish(starting) tugmasini bosish kerak. O‘zgaruvchan qarshilikni 0 va 1 k oralig‘ida o‘zgartirib, diod toki ning dioddagi kuchlanish ga bog‘liqlik grafigini tuziladi va uni 1.1-jadvalga kiritib boriladi.

1.1-jadval

R	**5**	**15**	**25**	**35**	**45**	**55**
U_0	25.025	75.075	86.345	228.39	359.08	502.94
I_0	25	75	100.17	100.20	100.21	100.22

1.1-jadvalni davomi

R	**65**	**75**	**80**	**85**	**90**	**95**	**100**
U_0	686.29	955.65	1.153	1.427	1.841	2.54	3.997
I_0	100.23	100.25	100.25	100.26	100.27	100.29	100.32

Yarim o‘tkazgichli diodning to‘g‘ri ulanish volt-amper xarakteristikasi.

2. Yarimo‘tkazgichli diodni teskari yo‘nalishda ulangandagi VAXini tekshirish. Diodning VAXini 1N3880 diodi misolida ko’rib chiqamiz (uning teshilish kuchlanishi 12 V ga teng) (1.6, b-rasm).

Huddi shunday tartib bilan diod toki ning dioddagi kuchlanish ga bog‘liqlik grafigini tuziladi va uni 1.2-jadvalga kiritib boriladi.

1.2-jadval

R	**5**	**15**	**25**	**35**	**45**	**55**
U_0	119.31	4.087	7.355	10.096	12.949	16.385
I_0	599.98	870.22	664.53	893.69	900.17	906.30


www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1.2-jadvalni davomi


R	65	75	80	85	90	95	100
U_0	21.029	28.103	33.366	40.746	51.912	70.881	110.43
I_0	912.82	920.41	924.92	930.19	936.61	944.92	956.91

Yarim o‘tkazgichli diodning teskari ulanish volt-amper xarakteristikasi.

Olingan ma’lumotlar asosida (1.1-1.2-jadvallar) 1N3880diodning VAXsi grafigini chizing.



1.7-rasm.



1.8- rasm.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari juda katta. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta‘limda «Analog va raqamli sxematexnika»ga oid amaliy mashg‘ulotlarni takomillashtirish vositalari, talabalarni texnik eksperiment o‘tkazishga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish, virtual ishlanmalardan fanni o‘qitishda foydalanish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va dars taxlillari asosidaquyidagi xulosalarga kelindi:

1. “Analog va raqamli sxematexnika” ga oid laboratoriya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalar va sxematik ishlanmalarning dasturiy vositalari va tasvirlaridan foydalanib ilmiy eksperiment o‘tkazishga yo‘naltirildi.
2. Tajriba eksperimentlarining virtual ishlanmalarni kuzatib, aniq natijalar olingandan so‘ng bajarish an‘anaviy o‘qitishga qaraganda samaradorligi oshishi va talabalarning ilmiy fikrlashiga ijobiy ta‘sir qilishi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.
2. R.T. Gazieva, E.O. Bozorov Raqamli texnikaga kirish. Oliy o‘quv yurtlari uchun oquv qo‘llanma. Toshkent -2019. - 92 b.
3. Муслимов Н.А.Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов на основе применения информационных и педагогических технологий. Россия Федерацияси Чита шахри, Молодой ученый. 2012.-№1.0,36б.т.
4. Муслимов Н.А., Абдуллаева., Куйсинов О.А., Н.С.Гаипова. Монография. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси.—Т.:≪Fan va texnologiya≫,2013,128бет.
5. Имамназаров, Э., & Дехканов, А. (2021). Исползование и рол информatsionных технологий в нашей жизни. Экономика и социум, (6-1), 633-635.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6. Imamnazarov, E. D., & Parpiyev, O. T. (2021). Teaching educational technologies in pedagogical activities. Экономика и социум, (6-1), 94-96.
7. Жураева, М.Т., Имамназаров, Э.Д., & Адуллаева, Н.Х. (2018). Будущие учителя профессиональной подготовки по проблемам формирования компетентности в области информационных технологий. Экономика и социум, (5), 1686-1688.
8. Imamnazarov, E. (2020). The use of educational and practical games in the formation of the independent work in the personnel skills. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(4), 123-126.
9. Imamnazarov, E. D., and U. Orifjonov. "Farewell to educational institutions and educational practices." Экономика и социум 6 (61) (2019): 36-38.
10. Imamnazarov, Erkinjon. "Methods of improving the professional training of future engineers in the field of information technologies." Science and innovation 2.B5 (2023): 57-62.
11. Imamnazarov, E., Ikromov, I., & Hasanov, X. (2022). Code vision avr dasturida mikrokontroller. Евразийский журнал академических исследований, 2 (5), 591-597.
12. Imamnazarov, E. "Digital technologies development factor in professional training of future engineers." Science and innovation 2.B4 (2023): 388-391.
13. Кодиров З.З., Имамназаров Э.Д. Применение интерактивного метода обучения для повышения познавательных способностей учащихся// Молодой ученый. –2017.–№.15.–С.583-585.
14. Парпиев О.Т., Имамназаров Э.Д. Педагогические игры и их возможности в профессиональном обучении //Проблемы и перспективы развития образования.–2012.–С.149-150.
15. E.D.Imamnazarov. "Elektronika va sxematexnika" fanidan darslik. Toshkent: "Lesson Press" nashriyoti, 2023. –182 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MUSULMON DINIY FALSAFASIDA TASAVVUFIY G‘OYALARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mirzayev Axrorjon Azamovich
Farg‘ona politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom falsafasi tasavvufiy g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari, o‘rganilayotgan masalani tadqiqotchilar tomonidan bosqichlarga bo‘linishi tahlili va ahamiyati xaqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tariqat, xonaqoh, valiylik, karomatlar, darveshlik va asketik hayot, so‘fiylik.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МИСТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В МУСУЛЬМАНСКОЙ РЕЛИГИОЗНОЙ ФИЛОСОФИИ

Мирзаев Ахроржон Азамович
Ферганский политехнический институт «Общественные науки и спорт» старший преподаватель

***Аннотация**: В данной статье говорится об этапах развития мистических представлений в исламской философии, анализе и важности разделения исследователями изучаемого вопроса на этапы.*

***Ключевые слова:** мистицизм, тарикат, ханака, опека, каромат, дервишство и аскетическая жизнь, суфизм.*

STAGES OF DEVELOPMENT OF MYSTICAL IDEAS IN MUSLIM RELIGIOUS PHILOSOPHY

Akhrorjon Azamovich Mirzaev
Ferghana Polytechnic Institute "Social Sciences and Sports" Senior Lecturer

***Annotation:** This article talks about the stages of development of mystical ideas in Islamic philosophy, the analysis and the importance of dividing the issue by researchers into stages.*

***Key words**: mysticism, tarikat, khanqah, guardianship, karomat, dervishism and ascetic life, Sufism.*

I. Kirish

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham “islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish”[1] dolzarb vazifalardan biri sifatida baholanmoqda. Bu jarayonda o‘rta Sharqda vujudga kelgan tasavvuf ta’limotining O‘zbekiston, Yevropa, Osiyo, Afrika mamlakatlariga kenga yoyilishi, bu o‘lkalardagi sharqshunoslik, islomshunoslik, tasavvufshunoslik bilan shug‘ullangan olimlarning tasavvufga doir qarashlari, falsafiy merosini o‘rganish hamda targ‘ib qilish zurarati ortib bormoqda. Zero, "muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlarimizni, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash"[2], "tarixiy – madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm – fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

targ‘ib etish"[3] hamda ularning nomini unutilib ketishidan asrash, ilmiy merosini zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya.

Ma’lumki, Sharq falsafasining yetakchi yo‘nalishi inson qalbini, ruhini poklashga, unda komil insonlik sifatlarini vujudga keltirishga, shu negizda ijtimoiy munosabatlarni insoniylashtirishga qaratilgan. O‘tkinchi mol-dunyo, mansab-martabalar emas, balki ma’naviy boylik, axloqiy poklik, halollik, insof-diyonatlilik odamni insonga aylanishining muhim sharti, degan fikrlar Sharqda tasavvufning shakllanishiga, keng yoyilishiga sabab bo‘ldi. Turk tasavvufshunos olimi Selchuk Eraydin o‘zining "Tasavvuf va tariqatlar" asarida tasavvufning birinchi navbatda ijtimoiy hodisa ekanligini va shuning uchun ham uning shakliy va mazmunniy hususiyatlari bo‘lishini ilgari suradi. Ya’ni tasavvuf bir tomondan, inson aqliy va ruhiy quvvatining uyg‘unlashuvi bo‘lishi bilan birga, boshqa tomondan jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji, muammolari va dardining namoyon bo‘lishidir[4].

Tasavvufiy-irfoniy ta’limotlar rivojining madaniy asoslarida xalqlarning ma’naviy merosi va muqaddas qadriyatlarining katta qismini islom ma’naviyati va milliy an’analar-udumlar tashkil etadi. Diniy qadriyatlarning manbalari esa Qur’oni Karim, hadisi sharif, tafsirlar, shariat ahkomlarida o‘z ifodasini topgan. Islomiy merosimizning muhim qismini irfoniy meros bo‘lmish tasavvuf ta’limoti va qadriyatlari, tashkil etadi.

Tasavvuf tarixiy rivojlanish yo‘lida bir necha davrlarni bosib o‘tdi. Bu davrlashtirishni tadqiqotchilar turlicha tasniflarini ko‘rsatishgan bo‘lsada, xaligacha davrlashtirishning eng aniq varianti to‘g‘risida ohirgi to‘xtamga kelinmagan. U. Turar, K. Yilmaz kabi turk tasavvufshunoslari uni quyidagicha:

1.Zuhd davri (VII-VIII),
2. Tasavvuf davri (IX-X),
3. Tariqatlar davri (XI asrdan keyin)ga bo‘lishadi.

Akimushkin esa buni quyidagicha davrlashtiradi:

1. IX-X asrlar. Tariqatning xol va maqom bilan bog‘liq davri,
2. X-XII asrlar. Murshid va murid maktabi an’analari shakllangan davr.
3. XII asr oxiri.

Ingliz olimi Trimingem esa quyidagicha davrlashtirgan:

1. Xonaqox davri (X-XII asrlar),
2. Tariqa davri (XIII-XIV asrlar),
3. Toifa davri (XV asr).

Eronlik olim R.Birinjkor esa tarixiy rivojlanish tasnifini quyidagicha keltiradi:

1. Zuhd davri (VII-VIII asrlar),
2. Xonaqohlar davri (VIII asr o‘rtalari-IX asr boshlari),
3. Irfonning shakllanish davri (IX-XIII asrlar),
4. Nazariy Irfon davri (XIII-XIV asrlar), So‘ngi davr (XV asrdan so‘ng)[5].

Vaqt tushunchasi turli makonlarda tashqi va ichki omillar ta’sirida rivojlanishidagi tafovutlar e’tiboridan nisbiy tushuncha hisoblanadi. Ya’ni, ba’zi hududlarda tasavvuf rivojlanishining ikkinchi bosqichiga o‘tilganda, ba’zi hududlarda xali birinchi bosqich davom etayotgan bo‘ladi.

Kelib chiqish ildizlari VII asrlarga borib taqalsada, VIII asr o‘rtalariga kelib tasavvuf dastlab zohidlik harakati sifatida shakllana boshladi. Dastlab zohidlar taqvoni mahkam ushlagan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

insonlar bo‘lsa ham, ishq va irfondan behabar bo‘lishgan. Ularda falsafiy mushohadakorlik, ma’naviy ahloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomatlar ko‘rsatish kabi hislatlarga ega emasdilar[6]. Bu davrda zohidlarda ko‘zga tashlanadigan asosiy xususiyat Alloh roziligini topish bo‘lgan, ya’ni, ularning toat-ibodatlarida, tarki dunyolarida va butunlay yashash tarzlarida asosiy g‘oya Allohning rozi qilish, shu orqali jahannam azoblaridan xalos bo‘lib, jannatga erishish bo‘lgan. Tasavvufga hali Allohga nisbatan mistik muhabbat va borlikning birligi (Vahdat ul-vujud) ta’limoti kirib kelmagan edi[7].

Xasan Komil Yilmaz bu davrdagi zohidlik maktablarini g‘oyaviy jihatdan umumiyliklarini hisobga olib, o‘zlari tegishli bo‘lgan joyga nisbat bergan holda quyidagi tasnifni keltirgan:

1. Madina zohidlik maktabi. Asosiy g‘oyalari – sunna, hadis.
2. Basra zohidlik maktabi. Asosiy g‘oyalari – xavf, huzn, muhabbat.
3. Kufa zohidlik maktabi. Asosiy g‘oyasi – so‘fiylik.
4. Xuroson zohidlik maktabi. Asosiy g‘oyasi – tavakkul.

IX asr o‘rtalaridan so‘fiylik mezonlarida murid-murshidlik an’analariga asoslangan tizim shakllanib borib, so‘fiylar atrofida zikr xalqalari yig‘ila bordi. Bu esa keyinchalik so‘fiy tashkilotlarning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Bu so‘fiylik maktablarining har birida o‘ziga xos tasavvuf ta’limotlari tizimlashib, asta-sekin alohida yo‘nalishlarning shakllanishiga olib keldi.

Ingliz tasavvufshunos olimi Reynold Nikolson tadqiqotlariga ko‘ra, so‘fiylik harakati islomdan oldingi davrda ham mavjud bo‘lgan. Iqtisodiy og‘ir hayot va nosog‘lom turmush tarzi - darveshlik va asketik hayot tarzini shakllantiradi. Keyinchalik islom dinining shakllanishi va keng mintaqaga tarqalishi natijasida bunday harakat tizimlashtirilgan, nazariy jihatdan sayqallangan va tartibga solingan [8]. Tasavvuf ta’limotining dastlabki shakllanishi davri ilk islom davriga to‘g‘ri kelsada, to‘liq shakllanish davri yaxlit ta’limot sifatida XIII asrgacha mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, diniy-irfoniy g‘oya va ta’limotlar zamirida shakllandi hamda qaror topdi. Bu davrda otashparastlik, buddaviylik, qadimgi yunon falsafasi va xristianlikdagi diniy g‘oyalar ta’sirida shakllangan tasavvuf yaxlit ta’limot sifatida rivojlanishi islom ta’limoti va g‘oyalari bilan uyg‘unlashishi zaruriyatga aylandi. Ya’ni, islom ta’limoti asosida tasavvuf o‘z aqidalarini shakllantirib, tartibga solib, IX-X asrlarda yaxlit tizim ta’limotiga aylandi[9].

Markaziy Osiyo o‘zining islom ta’limotlaridan tashqari bu hududda turli dinlar, mazhablar va oqimlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Tarixchi Maqdisiyning keltirishicha, Shosh, Iloq, Taroz, Buxoro, Tus, Nimo, Abivard, Isfaroyin, Marv, Hirot va Seyiston hududlarida shofe’iylik mazhabi, shuningdek, Seyiston va Hirotda xorijiylik, Nishopurda mo‘taziliylik, shialik, karromiylik, Xurosonning ayrim joylarida qadariylik, Termizda jahmiylik kabi yo‘nalishlar, mazhablar va oqimlarga ergashgan guruhlar mavjudligini ham ta’kidlagan. Maqdisiy Xuttalon, Marv, Samarqand va Farg‘onada karromiylarning honaqohlariga ega bo‘lganligini eslatib o‘tiladi. Shuningdek, “Ahsan at-taqosim” asarida Movarounnahr va Huroson hududlarida yaxudiylar, xristian va zardushtiylar jamoalari bo‘lganligi aytilsa, “Hudud al-Olam” asarida bu hududlarda buddaviylik, moniylik dinlariga e’tiqod qiluvchilar yashaganligi keltiriladi. Movarounnahr va Xurosonda yahudiylar, xristianlar va zardo‘shtiylar jamoalari mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumot bersa, “Hudud al-Olam” asarida Xurosonning sharqiy hududlarida buddaviylik, So‘g‘dda esa moniylik dinlariga e’tiqod qiluvchilar yashaganligini eslatib o‘tgan. Tasavvufiy-falsafiy ta’limotlar rivojiga bu din va aqidalarning ta’sirini ikki jihatda ko‘rishimiz mumkin. Birinchi jihati zohidlik harakati o‘z din va aqidalarini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

himoya qilish uchun ularning falsafa va g‘oyalariga qarshi turish pirovardida rivojlangan. O‘zlarini islom asoslaridan deb da’vo qiluvchi oqimlar, masalan, mu’taziliylar ta’sirida islomda vujudi mumkin va vujudi vojib oqimlari shakllanadi. Vujudi mumkin ta’limoti vakillariga Al-Kindiy, Ibn Rushd, Al-Maarriy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyomlarni kiritish mukin. Vujudi mumkin sabab-oqibat aloqalariga ega bo‘lib, uning mavjudligi boshqa narsadan emas, balki o‘z mohiyatidan kelib chiqadi. Bunday qarash esa tabiat hodisalarini mustaqil ichki sabablari asosida tushuntirishga imkon berib, ilm-fan ravnaqiga keng yo‘l ochadi. Mu’taziliylar bilan mutakallimlar o‘rtasidagi g‘oyaviy kurashlar oqibatida Abu Homid Al-G‘azzoliy kalomi shakllanib islom falsafasi yuzaga keldi. Abu Homid G‘azzoliy avval so‘fiylik qarashlariga moyil bo‘lsa-da, keyinroq ular ta’limotini tanqid qilish asosida o‘z kalomini yaratdi. Biroq u o‘zi istamagan holda tasavvufni nazariy jihatdan asoslab beradi. Shu bois, tasavvuf ilmiga qo‘shgan beqiyos ulushi sabab uning butun islom olami juda kuchli qadrlaydi.

Ikkinchidan, ulardagi ba’zi tasavvufiy qarashlaridan ta’sirlangan bo‘lishi mumkinligi haqidagi qarashlar mavjud. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, tasavvuf mavjudlik va borliq munosabatlari to‘g‘risidagi diniy-falsafiy g‘oyalar hamda Aristotel falsafasi ta’sirida shakllangan Sharq falsafasining maxsus ko‘rinishi sifatida vujudga keldi. Tasavvuf ta’limotiga o‘xshash boshqa din va madaniyatlarda ham ta’limotlar mavjud. Bularga Hind diyorida shakllangan brahmanlik, Misrda Germes so‘zlari, antik dunyo Yunon madaniyatida Pifagor, Suqrot va Aflotun qarashlari, yaxudiylikda Kabbalizm va xrisitianlikda Mistisizm g‘oyalarini kiritish mumkin. Ularda ham inson ruhiy quvvatini uyg‘unlashtirish, g‘ayrishuuriy bog‘lanishni amalga oshirish masalalari va insonni ruhiy kamolotga eltish yo‘llari ko‘rsatib berilgan[10]. Shu ma’noda tasavvuf ta’limoti bilan ushbu g‘oyalarning hamohangligi ko‘rinib turadi. Bundan tashqari so‘fiylikda boshqa din va aqidalarning zohiriy unsurlarini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Knыsh ma’lumotiga ko‘ra, Xotim Asammga ustozlik qilgan Shaqiq Balxiyning buddaviylik rohibi bilan uchrashgandan keyin zuhd yo‘liga kirgan[11]. Shimmel esa, bu hududlarda tarqalgan islomiy va buddaviy qissalardagi o‘xshashliklarga e’tibor qaratgan. Shuningdek, so‘fiylar buddaviy zohidlik tajribasi bilan yuzma-yuz kelganliklari va ayrim so‘fiylarning moniylik diniga ko‘rsatgan mayllari tufayli tanqidga uchraganliklarini eslatib o‘tadi[12]. Bundan tashqari so‘fiylarning g‘oziylardan bo‘lgan qatlami (masalan, Shaqiq Balxiy, Hotim Asamm, Abu Turob Naxshabiylar) g‘ayrimusulmon xalqlariga qarshi kurashda qatnashganliklari o‘z-o‘zidan boshqa din va e’tiqodlar tajribalari bilan to‘qnash kelganliklarini keltirib chiqaradi.

Tasavvufiy ta’limotlar rivojining tarixiy-madaniy asoslari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tasavvuf falsafasi va tasavvuf ta’limotining shakllanishi va takomilga yetishuvida bu yerda shakllangan tariqatlar va ularning an’analari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan[13]. Turk tasavvufshunosi Altintash Hayranining tadqiqotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi tasavvufiy g‘oyalar islom falsafasining yuksak marralarga olib chiqqan. Bu yerdagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarning shakllanishiga mintaqadagi xalqlarning diniy dunyoqarashining yuksak saviyada bo‘lganligi va madaniy hayotning yuqoriligi ham asos bo‘lgan[14].

Tasavvufni izchil islom ta’limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta’limot sifatida tan olinishida G‘azzoliy, Abdulqodir Giloniy (Jiloniy) larning xizmati katta bo‘lgan. Ular tasavvufning olamni anglash, har bir narsa, voqea-hodisa va jarayonda Yaratganning qudratini ko‘rish, anglash, his qilish va shu orqali muqaddas ilmni egallash mumkinligini haqidagi g‘oyalarni ilgari surishgan. Shunga o‘xshash fikrlarni turk tasavvufshunosi Komil Yilmaz ham bayon qiladi:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

–tasavvuf amalda o‘rganiladigan ilm bo‘lgani uchun murshid yoki shayx deyiladigan ustoz huzurida o‘rganiladi;

–tasavvuf tajriba orqali his qilinib, yashab, anglashiladigan hol ilmidir;

–tasavvuf ilmining mavzusi ma’rifatullohdir;

–tasavvuf kitobiy ilm emas. (Kitobdan o‘qib o‘rganadigan ilm emas ma’nosida);

–u aqldan ustun ilmdir;

–tasavvuf ko‘z bilan ko‘rinadigan olamdan tashqari, g‘ayb olamidan ham bahs yuritadi;

–tasavvufga tariqat deb ataladigan yo‘l orqali kiriladi[15].

Olimning yuqoridagi keltirgan ta’riflari tasavvufnig ko‘lami va darajasi katta ekanligini ko‘rsatish bilan birga ba’zi savollarni ham tug‘diradi. Aslida tasavvufiy-falsafiy ta’limotlar deyilganda nimalar nazarda tutiladi? Tasavvufiy-falsafiy ta’limotlarga qanday ta’limotlarni kiritish va ularni qay usulda tasniflash mumkin degan savollarga ham javob topish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tasavvufiy-falsafiy tushunchasi shunchaki bir yo‘nalishdagi umumiy xususiyatni anglatuvchi ibora emas. Bu ibora olam va odam, tabiat va jamiyatdagi ma’lum bir masalalarning falsafa va tasavvuf doirasida tadqiq qilib borilishini nazarda tutib, uning ichiga yana muammo tahlili va metodologiyasini qamrab oladi. Tasavvufiy-falsafiy tushunchasi ikki o‘rtadagi aniq chegaralarning yo‘qolishi va sekin asta uyg‘unlashib ketish xolatiga aytiladi. Misol uchun, islom falsafasidagi mu’taziliya va mutakkallimlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki vujudi mumkin va vujudi vojib borasidagi tortishuvlar, ular asosida yuzaga kelgan ta’limotlar tasavvufiy-falsafiy ta’limotlar deyiladi. Ushbu ta’limotlar doirasida baxs yuritgan, tadqiqotlar olib borgan mutafakkirlarni ham tasavvufiy-falsafiy yo‘nalishdagi allomalar deya sifatlantirish mumkin.

Zohidlarning (ahl az-zuhd) ontologik va gnoseologik qarashlari at-tanzih qoidasiga asoslangan bo‘lgan. At-tanzihga (arab. – “poklanish”) ko‘ra, xudoga hech qanday tavsif va ta’rif berish mumkin emas, chunki u yaratgan narsalar ichida uning o‘ziga teng keladigani yo‘q. Bu qoidadan so‘fiylar xudoning moddiy olamga nisbatan transsendent ekanligi, shuning uchun uni aql vositasida (rasional) bilish mumkin emas, degan xulosaga keladilar. Demak, xudo rasional bilish chegarasi, aql doirasidan tashqarida va hech qanday aqliy, intellektual urinishlar oqibatida bu chegarani o‘tib bo‘lmaydi, buning uchun, ilohga yaqinlashishni osonlashtiruvchi, ruhiy tajriba, tarki dunyo (zuhd) qilish zarur. Agarda zohid moddiy dunyoni butunlay, ham ma’naviy, ham jismoniy ravishda tark etsa, xudoga yetishishi muqarrar edi, lekin buning iloji yo‘q. Bunday mantiq tasavvufiy tafakkurni ontologik jihatdan boshi berk yo‘lga olib boradi. Bu muammoni hal etish uchun so‘fiylar xudoning bu dunyoga nisbatan transsendentligi bilan birga uning moddiy olamga nisbatan immanentligini ham e’tirof etadilar. Tasavvuf doirasida vujudga kelgan bu yangi yo‘nalish moddiy olam va mutlaq borliqning (Xudoning) birligi, yagonaligi haqidagi xulosaga va ular o‘rtasidagi aloqalarni (munosabatlarni) tushuntirish zaruratini vujudga keltiradi. Tasavvufning rivojlanish jarayonida bu yo‘nalish xudo va olam birligi ontologik muammosini, shuningdek cheksiz va abadiy Mutlaqlik (xudoning) borlig‘i va cheklangan moddiy olam borlig‘ining “to‘qnashgan joyi”, borliq “ilohiy sirlarining” ravshan bo‘ladigan joyi sifatidagi inson muammosini Sahl at-Tustariy, al-Junayd va Ibn Arabiy kabi so‘fiy mutafakkirlar tomonidan qayta anglanishiga olib keladi. Bu muammoni hal etishda so‘fiylar quyidagi ontologik asosga tayandilar: borliqning turli darajalari (ilohiy dunyo va narsalar olami) bir-biriga nisbatan qat’iy iyerarxik bo‘ysunish munosabatda bo‘lmaydi, ya’ni moddiy olam narsa va hodisalarida ilohiy mohiyat namoyon bo‘lmaydi, balki ilohiy olam va narsalar olami yonma-yon joylashgan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va xuddi bir narsaning tomonlari singari bir-birini taqozo etadi, biri boshqasining tarqibiga kiradi, ular bir-biriga o‘tib turadi[16]. Ilk so‘fiylarning qarashlarida “ilohiy olam – inson – narsalar dunyosi” ko‘rinishdagi ontologik manzara hosil bo‘ladi.

So‘fiylarning hayot tarzi (nafsni tiyish, ochlikka bardosh berish, sabr-toqatli bo‘lish va h.k.) har qanday ham dindorga to‘g‘ri kelmaganligi sababli tasavvuf ezoterik (“yopiq”) xarakterga ega bo‘ladi. Ushbu jihati tasavvufni ismoiliya oqimiga yaqinlashtiradi. Tasavvufda ham ismoiliya oqimiga xos bo‘lgan ta’vil an’anasi, Qur’onning simvolik-allegorik talqini, uning botiniy, “yashirin” ma’nolarini izlash amalga oshirilardi. Keyinchalik bu urinishlar so‘fiylar amaliyoti va hayot tarzini falsafiy asoslashda xizmat ko‘rsatadi.

Tasavvufning yana bir muhim elementi bu – ma’naviy ustozlar (shayh, pir, murshidlar) rahbarligida tasavvufning nazariya va amaliyotini o‘zlashtirish bo‘lib, bunday rahbarliksiz shogird (murid) o‘z aqli va sog‘ligiga zarar yetkazishi mumkin edi. So‘fiylikda yirik shayhlar vafotidan so‘ng ularni avliyolar darajasiga ko‘tarish rasm bo‘lgan, mozorlari ziyoratgohlarga aylantirilgandi. “Avliyolar” tushunchasi ham keyinchalik “falsafiy”, doktrinal tasavvufning shakllanishida o‘z o‘rnini egallaydi.

X-XI asrlarga kelib musulmonlar o‘rtasida so‘fiyona hayot tarzi va dunyoqarash keng tarqaladi, tasavvuf tarafdorlari soni ko‘payadi. Ayni paytda tasavvuf ilmi (ilm at-tasavvuf) shakllanadi va as-Sarroj at-Tusiyning “Kitab al-luma”, al-Kalabaziyning “Kitab at-ta’arruf”, as-Sulamiyning “Risalat al-malamatiya”, “Adab as-suxba” kabi so‘fiylik “qo‘llanmalari” yozildi. Ushbu mualliflar faoliyati natijasida tasavvufiy bilimlar tizimi yaratiladi hamda Allohga yetishish yo‘lining bosqichlari, zohidning ruhiy holatlari va hissiyotlari, so‘fiylik amaliyotiga doir tasavvufiy atamalar (“makon”, “hol”, “tariqat”, “fano”, “baqo” va h.k.) ishlab chiqiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, aynan zohidlar, ahl-az-zuhd keyinchalik shakllangan tasavvuf doirasida shakllangan monistik falsafaga (Ibn Arabiyning borliqning birligi va yagonaligi haqida, ya’ni vahdat al-vujud ta’limotiga) asos soldilar. Lekin shu bilan birga ilk so‘fiylar Xudoning moddiy dunyoga nisbatan bir vaqtning o‘zida ham transsendentligi, ham immanentligi haqidagi fikrni asoslab berisholmagan. Buning oqibatida Qur’ondagi “U (Xudo) – aniq haqiqat (al-haq al-mubin)” (Qur’on, 24:25) oyatni so‘fiylar o‘z mistikaviy dunyoqarashlarida asoslab berishga uringanlar.

Xulosa

Xulosa qilganda, ilk so‘fiylarning ma’naviy-amaliy faoliyatining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unga amaliy vazifalarni (tarki dunyo, zuhdni amalga oshirishga yo‘naltirilgan axloqiy kamolotga yetishish va taqvodorlikni) amalga oshirish bilan bir qatorda nazariy muammolarni hal etish (inson o‘zining jismoniy mavjudot sifatidagi ontologik mavqeini tark etmay turib iloh bilan birlashish) vazifalari ham kiradi. Ushbu vazifalarga, shuningdek Allohga yetishish, uni bilish, ya’ni ma’rifat haqidagi ta’limotni yaratish epistemologik strategiyasi ham kirib ketadi. Bu strategiya asosini, yuqorida qayd qilganimizdek, ilohiy olam va narsalar dunyosining bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi emas, aksincha, ular bir-birini taqozo etishi haqidagi ontologik tasavvur yotadi. Alloh bir vaqtning o‘zida ham g‘oyib ham zohirdir, moddiy dunyo narsalarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun zohidlar faoliyati muayyan ma’naviy-psixologik kayfiyatda, ifoda etib bo‘lmaydigan sezgilar orqali ilohiy haqiqatga yetishish mumkin degan gnoseologik tasavvurlar hosil bo‘ladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B.35.
2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. // Hidoyat, – Toshkent, 2017, № 6. – B. 7.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"giPQ-2995-son qarori.
4. Eraydın Selçük. Tyesyevvuf ve tarıkatlar. – Istanbul, Marmara üniversitesi Ilahıyat fakültesi vakfı yayınları. 1994. –S. 25.
5. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent, "Akademnashr", 2020. – B. 24.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, Movarounnahr, O'zbekiston, 2009. – B. 9-10, 14.
7. Nuritdinov M. O'rta asrlar sharq falsafiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Brok Class Servis, 2015. – B. 160.
8. Reynold A. Nıcholson. İslam süfileri(The mystıcs of ıslam). –Ankara, Kültür bakanlığı, 1978. –S. 58-60
9. Bartels Ye.S. Sufizm i sufiyskaya literatura. – Moskva, Nauka, 1965. – S. 39.
10. Eraydın Selçük. Tyesyevvuf ve tarıkatlar. – Istanbul, Marmara üniversitesi Ilahıyat fakültesi vakfı yayınları. 1994. – –S. 45.
11. Knыsh A.D. Musulmanskiy mistisizm. Kratkaya istoriya / Per. s angl. M.G.Romanov. – SPb.: Dilya, 2004. – S. 39.
12. Shimmel A. Mir islamskogo mistisizma / Per. s angl. N.I. Prigarinoy, A.S.Rapport, 2-ye izd., ispr. i dop. – M.: OOO «Sadra», 2012. – S. 18.
13. Ebu'I-Ala Afifi. Tasavvuf, İslam'da manevi devrim (TercümeİbrahimKaçar, Murat Sülün). – Istanbul, Basın yayın LTD, 1996. – S. 36.
14. Altıntaş Hayranı. Tasavvuf tarıhı. – Ankara, Ankara üniversitesi ilahiyat fakültesi yayınları,1986. –S. 69.
15. Xasan Kamil Yılmaz. Tasavvuf i tarikatы. – Moskva, «Izdatelskaya gruppa «SAD», 2007. – S. 22
16. Nasыrov I. R. Ontologicheskiye i gnoseologicheskiye osnovaniya islamskogo mistisizma (genezis i evolyusiya).- Avtoref. diss. …d.f.n.- M.,2007.-B. 9.
17. Ivanovna, Mixeeva Aleksandra, Toshtemirov Otabek Abidovich Abidovich, and Saidova Aziza Yakubovna. "Strengthening the Health and Spiritual Maturity of Young People through Physical Education and Sports." Central asian journal of medical and natural sciences 2.6 (2021): 64-67.
18. Эгамбердиева, Т. А., and О. А. Тоштемиров. "талабаларнинг жисмоний маданиятини ривожлантиришда инновацион ёндашувнинг зарурияти." Fan-Sportga 2 (2021): 57-59.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY -TARBIYA O'QITUVCHILARIDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ibragimov Muslim Artikmashrabovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining integrativ yondashuv asosida vatanparvarlikni rivojlantirishning nazariy-metadologik asoslarining dolzarbligi va uni amaliyotga tatbiq etish haqidagi fikrlar xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, axloqiy-irodaviy fazilatlar, harbiy xizmat, kommunikativ sifatlar, bilim, ko'nikma, malaka.*

Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi dolzarb va muhim ahamiyat kasb Etmoqda. Vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar madaniyati shaxsining ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Vatanparvarlik mamlakatimiz milliy g'oyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning o'z Vataniga muhabbat, sadoqat, vataniga xizmat qilishga tayyorlik, tiliga, madaniyatiga, o'z xalqining eng yaxshi an'analariga sadoqatlik darajasi bilan belgilanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi umuminsoniy qadriyatlar(insonning hayoti, sog'lig'i, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, shaxsning huquqlari va erkinliklari), huquqiy, demokratik fuqarolik jamiyatida ijtimoiylashishga qodir shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga qaratilgan.

So'nggi yillarda talaba yoshlarning katta qismi armiyada xizmat qilishni istamaydi va chaqiruvdan qochadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shahar va qishloq umumta'lim maktablari bitiruvchilarining 80% dan ortig'i armiyada xizmat qilishni istamaydi, ota-onalarning 70% dan ortig'i o'g'illarining armiyada xizmat qilishini istamaydi. Pedagogik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, so'nggi paytlarda ta'lim muassasalarida yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik ishlari sezilarli darajada zaiflashgan. O'rta maktab bitiruvchilari va harbiy yoshdagi o'quvchilar harbiy xizmatga qiziqishni yo'qotdilar. Harbiy xizmat obro'sining pasayishi Vatanni himoya qilish ishiga tahdid solmoqda. Bu salbiy hodisalarning barchasi o'quvchilarni axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi hamda ta'lim muassasalarida to'g'ri tarbiyaviy ishlar bo'yicha puxta o'ylangan, ijtimoiy yo'naltirilgan va maqsadli dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, aksariyat umumta'lim ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlar yetarli tashkil etilmagan hamda jismoniy tarbiya, sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini axloqiy-irodaviy fazilatlarni rivojlantirishga integratsiya qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda talabalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va sog'lig'i ko'rsatkichlari pasayib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, yoshlarning 30% jismoniy tayyorgarligi past va ular nazorat standartlarini bajara olmaydilar, 30% surunkali kasalliklardan aziyat chekmoqda.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, jismoniy va axloqiy-irodaviy fazilatlarni integratsiya qilish va rivojlantirish, armiyada xizmat qilish uchun zarur bo'lgan harbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'la oladi. Jismoniy tarbiya va sportda vatanparvarlik tarbiyasi hamda talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. SHuni ta'kidlash joizki, jismoniy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tayyorgarlikka, sport mahoratiga ega bo'lgan talabalarda favquloddagi vaziyatlarga tezroq moslashadi va qisqa vaqt ichida yangi qonun-qoidalarga o'rganadi. Harbiy xizmat, qoida tariqasida, juda ko'p jismoniy va asabiy-hissiy stresslar jismoniy kuch talab qiladi. Insonning ushbu sharoitlarga tayyorligi va jismoniy, ruhiy stresslarga dosh berish qobiliyati harbiy harakatlar muvaffaqiyatining hal qiluvchi shartlaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport kelajakdagi harbiy xizmatchilarning yuqori darajaga ega bo'lishini integratsiya qilinishi kerak.

K.Usmonov fikricha, vatanparvar bo'lish – bu faqat Vatanni sevish bilangina kifoyalanmaydi. Qolaversa, sevgi mohiyatan chin insoniy tuyg'u hisoblansa-da, insonni sevish bilan Vatanni sevish o'rtasida farq bor. Bizning fikrimizga ko'ra, vatanparvarlikni tarbiyalash va axloqiy va irodaviy fazilatlarni (halollik, adolat, mas'uliyat, mehnasevarlik, intizom, xayrixohlik, qat'iyatlilik, maqsadlilik, jasorat, iroda) shakllantiradigan sport faoliyati harbiy yoshdagi yigitlarda Vatanga muhabbat va ularning sport mashg'ulotlari uchun yuqori mas'uliyat hissini rivojlantiradi.


Umuman olganda empatiya bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o‘z ichiga empatiyaning ham ob`ekti ham sub`ektiga namoyon bo‘ladigan individning ijtimoiy psixologik qobiliyatlari yig’indisidir. Bunday qobiliyatlarga: boshqa birovning kechinmalariga emosional reaksiya bera olish qobiliyatini. Birovning emosional holatlarini anglash qobiliyati va birovning hatti-haraktlari, o‘ylari hissiyotlariga xayolan o‘zini ko‘chira olish, boshqa odamning dardlarini yengillatish va o‘zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatlari kiradi.

Empatiya shakllarini farqlashni turli mezonlari mavjud:

1. Empatiya tuzilmasidagi yetakchi komponent modalligi. Ushbu mezonga ko‘ra emosional, kognitiv va xulqiy empatiyalar farqlanadi;
2. Empatiya genezisi. Ushbu mezonga ko‘ra global, egosentrik va prososial empatiya farqlanadi.
3. Empatiya dispozisionalligi mezoni. Bunga shaxsga doir va situativ empatiyalar kiradi.
4. Empatiyaning rivojlanganlik darajasi mezoni. Bunga elementar reflektor va shaxsga doir empatiyalar kiradi.

A.P.Sopikov empatiyaning uch ko‘rinishini farqlaydi:

1. Emosional, agar empatiya ob`ektini modellashtirish jarayonida sub`ektda emosionallik ustuvorlik qilsa;
2. Bilishga doir (kognitiv), agar empatiya ob`ektini modellashtirish jarayonida sub`ektda informativlik ustuvorlik qilsa.
3. Xulqiy, agar empatiya ob`ektini modellashtirish jarayonida sub`ektda irodaviy jihatlar ustivorlik qilsa bu hol empatiya ob`ektini nimagadir majburlashda va o‘z navbatida uning javoban qiladigan empatiyasini kutishda ifodalanadi.

V.V.Boyko eampatiyaning yetakchi komponenti modal bo‘lgan mezon bo‘yicha quyidagi empatiya shakllarini farqlaydi:

1. Rasional empatiya.
2. Emosional empatiya.
3. Intuitiv empatiya.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Empatiya shakllarini aniqlashni yana bir mezoni mavjud – empatik kechinmalar yo‘nalganligi. Empatiyaning mazkur ko‘rsatkichi shaxsning umumiy yo‘nalganligi va uning qadriyatlar tizimi bilan bog’liq. Ushbu mezonga ko‘ra empatiya hamdardlik va qayg’uga sherik bo‘lish shakllariga bo‘linadi. Ular o‘rtasidagi farq namoyon bo‘layotgan emosional holatlar refleksiyasi va empatiya ob`ekti bilan identifikasiyalanish darajalaridadir.

Zamonaviy psixologiyada empatiya shaxsning o‘ziga ham boshqa birovga yo‘nalgan bo‘lishi aniqlangan. O‘ziga yo‘naltirilgan empatiya shakli ichki disstress yoki diskomfort hissi sifatida belgilanadi. U idrok etilayotgan ob`ekt holati empatiya sub`ektining xususiy shaxslararo extiyojlarini taranglashuvi vaziyatida vujudga keladi. Bunda individ empatiya ob`ektinikiga monand kechinmalarini his qiladi. Faqat ular o‘ziga qaratilgan bo‘ladi.

O‘ziga yo‘nalganlik uning mazmunida aks etadi. Individ o‘zining boshidan o‘tganini yoki kelajakda sodir bo‘lishi mumkinligini his qiladi. O‘ziga yo‘naltirilgan kechinmalar shaxsga doir distressni pasayishiga yordam beradi va individning psixologik barqarorligini tiklaydi. Ular himoyaviy vazifani bajaradi.

Boshqalarga yo‘naltirilgan empatiya shaklini hamdardlik yoki empatik g’amxo‘rlik sifatida belgilashadi. Hamdardlikda individ birovning dardini o‘zinikiga bog’lamagan holda his qiladi. U ob`ekt holati empatiya sub`ektida axloqiy motivlarni dolzarblashtirgan vaziyatda vujudga keladi.

Empatiya shakli shaxsning qadriyatlar tizimi munosabatlar va dunyoqarash xususiyatlari bilan belgilanadi. Egosentrik motivasiya, qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan individ boshqa birovning dardini ko‘rganda ichki distressni boshdan kechiradi. Prososial motivasiyaga ega individlar boshqa birovlar bilan sodir bo‘lgan nohushliklarga guvoh bo‘lganda hamdardlik hissini boshdan kechiradi.

Shunday qilib, **empatiya** - bu murakkab, ko‘pqirrali fenomen bo‘lib, strukturasiga emosional, kognitiv va xulqiy ko‘nikma, malaka, qobiliyatlar kiradi. Empatiya strukturasiga kiruvchi emosional, kognitiv, xulqiy komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta`sir (garmonik-disgarmonik) kishining odamlar bilan bo‘lgan ijtimoiy-psixologik munosabatlari va muloqot tajribasi bilan belgilanadi. Konkret shaxs empatiyani o‘zgalar harakatlariga javob reaksiyalarida yoki empatiya ob`ekti xolati bilan ro‘y bergan refleksiya qilingan kechinmalarda, yoki o‘zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi malaka va ko‘nikmalarda namoyon qiladi.

Natijalar

Buning uchun o‘spirinlik davrida empatiyani diagnostika qilishni lozim topdik. Biz buning uchun o‘spirinlar empatiyasini o‘rganishda I.M.Yusupov tomonidan “Empatiyaga ekspressiv diagnostika” so‘rovnomasidan foydalandik. Biz tadqiqotdan olingan natijalarni o‘spirinlardagi empatiyaga qobiliyatlilik orasidagi ichki qonuniyatlarni aniqlash maqsadida korrelyasion tahlilga tayanishni lozim topdik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirildi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval

Ota-onalar va farzandlardagi empatiyaning darajasini baholash

	Farzandlarning empatiyaga moyillik natijalari						
		Ota-onaga empatiya	Hayvonlarga empatiya	Keksalarga empatiya	Bolalarga empatiya	Badiiy asar qahramonlariga empatiya	Notanish va kam tanish kishilarga empatiya kishilarga
	Ota-onaga empatiya	0.451**	0.277*	0.378*	0.461**	0245*	0323*
	Hayvonlarga empatiya	0.228	0.199	0.211	0.164	0.162	0.162
	Keksalarga empatiya	0.613**	0.208	0.456*	0.361	0.227	0.245*
	Bolalarga empatiya	0.425**	0.327*	0.406**	0.541**	0.268*	0.271*
	Badiiy asar qahramonlariga empatiya	0.177	0.242*	0.301*	0.158	0.147	0.207
	Notanish va kam tanish kishilarga empatiya	0.266*	0.174	0.278*	0.243	0.219	0.283*

O‘spirinlar orasidagi munosabat ularning atrof olamga, voqea-hodisalarga, jonzotlarga munosabatida qanday bog‘lanish hosil qila olgan. Chunki, ijtimoiy-persepsiyaning tavsifiga ko‘ra hamda tadqiqot metodikasining mazmuniga ko‘ra ham shaxsning emosional holati, uning tuyg‘u va kechinmalari atrof olamni idrok etish, u bilan birga o‘zini his eta olishi, atrofdagi kishilarning tuyg‘ularini o‘zida kechirishi, ularning ruhiyatidagini o‘zida aks ettira olishi va bular orqali ularga murojaat etish shubhasiz empatiyaning mazmunida aks etadi. Empatiya shaxsning o‘zga kishilarni chuqurroq tushunishiga, olamni kengroq idrok qilishiga imkon beradi. Empatiya shaxsning o‘zga insonlardagi hissiy kechinmalarini anglash, ularni o‘zida his qilishi, ularning dardlariga sherik va hamdard bo‘la olish tuyg‘ulari bilan izohlanadi.

Biz tadqiqotimizda ushbu jihatni inobatga olgan holda o‘spirinlarning o‘zaro munosabatlari atrofdagilarga, voqea-hodisalarga, narsalarga va jonivorlarga hissiy munosabatlaridagi uyg‘unlikni aniqlash maqsadida “Empatiyaning ekspressiv diagnostika metodikasi” dan foydalandik.

Taxlillar

Metodikada empatiyaning oltita yo‘nalishi: “Ota-onaga empatiya”, “Hayvonlarga empatiya”, “Keksa kishilarga empatiya”, “Bolalarga empatiya”, “Badiiy asar qahramonlariga empatiya”, “Notanish va kam tanish kishilarga empatiya” bo‘yicha ekspressiv diagnostika o‘tkazish ko‘zda tutilgan. O‘spirinlar o‘rtasidagi empatiya orasidagi ichki munosabatlar ularning qaysidir o‘rinda munosabatlari, oiladagi tarbiya muhitida bu narsaga e`tibor qaratilayotganligi, bolalar dunyoqarashi shakllanishidagi ta`sir darajasi nimaga ko‘proq qaratilayotganligi va qaysi jihatlar esa muloqot jarayonida e`tibordan chetda qolayotganligini izohlash mumkin.

Tadqiqotimizda o‘spirinlar o‘rtasidagi munosabatlari o‘rtasida yigirmaga yaqin ishonchlilik korrelyasion bog‘lanishlar mavjudligi kuzatildi. Ota-onalarning empatiyaga moyillik ko‘rsatkichlari “ota-onaga empatiya” shkalasi farzandlarning barcha shkalalari bilan ijobiy bog‘lanish hosil qila olgan ($r=0.451$, $p<0.01$; $r=0.271$, $p<0.05$; $r=0.378$, $p<0.05$; $r=0.461$, $p<0.01$; $r=0.245$, $p<0.05$). Bundan ko‘rinadiki, ota-onalar farzandlari bilan munosabatlari sharoitida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ularning atrofdagi kishilarga, voqea-hodisalarga, narsalarga befarq bo‘lmasligini talab etar ekan va shunga o‘rgatishni istasharkan.

Ammo farzandlarning bunga munosabatlarida ota-onalari ular bilan munosabatlarida ijobiy korrelyasion bog‘lanish bilan bir qatorda e`tibordan chetda qoldirilgan holatlar mavjudligini qayd etganlar, ya`ni ota-onalar farzandlarida hayvonlarga va badiiy qahramonlarga empatiyani yaqqolroq namoyon qilmaganliklari (r=0.228, p-ahamiyatsiz; r=0.177, p-ahamiyatsiz) va aksincha keksa kishilarga (r=0.271, p<0.01), bolalarga (r=0.271, p<0.01) kuzatildi. Qolgan shkalalar bo‘yicha ota-onalar bilan farzandlar munosabatida etakchi o‘rin bu insonlarga empatiyaning yaqqolroq namoyon bo‘lishi (keksalarga empatiya - r=0.456, p<0.01, r=0.406, p<0.01 bolalarga empatiya- r=0.361, p<0.01, r=0.541, p<0.01, notanish kishilarga empatiya - r=0.266, p<0.05, r=0.245, p<0.05, r=0.271, p<0.05, r=0.283, p<0.05) ko‘zga tashlanadi.

Bundan ko‘rinadiki, ota-onalar farzandlariga pand-o‘git berayotganlarida birinchi o‘rinda diqqat-e`tiborlarini inson qadr-qimmati, atrofdagilarga hurmat tuyg‘usi, insonlar boshiga muammolar tushganda yordam berish, ularni yaxshi tushunish va dardlariga sherik bo‘lishni e`tirof etar ekanlar. Chunki milliy va madaniy an`analarimizda ham inson qadr- qimmatini e`zozlash, “Kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko‘zi bilan qarash kerak”-degan naql doimo uqtirib kelinadi.

Ammo bolalar o‘z empatiyalarida badiiy asar qahramonlari bilan hayvonlarga empatiyada (r=0.242, p<0.05), badiiy asar qahramonlari bilan bolalarga empatiya (r=0.268, p<0.05) da bog‘lanish hosil qila olganlar. Ota-onalarning dastlabki tajribamizdagi singari farzandlari bilan munosabatida hayvonlarga, badiiy asar qahramonlariga nisbatan empatiyalarni namoyon qilish bir me`yorda emasligini inobatga olishimizga to‘g‘ri keladi. Bu bilan ota-onalar farzandlarining ijtimoiylashuvida tabiatdagi narsa va hodisalarga, ijtimoiy munosabatlarni real jarayonlaridan tashqari bo‘lgan badiiy timsollar orqali ifodalanishini ham tarbiya muhiti uchun foydalanishlari lozim degan mulohazaga olib keladi. Ular oldingi tajribamizdagi tasviriy san`at asarlari orqali farzandlari bilan o‘zaro hamsuhbat bo‘lishlari xususidagi tahlilimizda ham to‘kis yondashmasliklarining guvohi bo‘lgan edi. Chunki, o‘zbek oilasida kattaga hurmat va kichikka izzat tuyg‘usini shakllantirish an`anasi avloddan- avlodga o‘tib, shakllanib kelayotgan ijtimoiy psixologik tajriba deb bilish mumkin. Bu esa farzandni har ikki toifa insonlarni hayotiy masalalarda yordamga muhtojligi tufayli yordam berish lozim degan an`anaviy nuqtai nazarga tayanishni talab etadi.

Ota-onalar o‘zlarining hissiy munosabatlari sharoitida albatta farzandlarining qanday badiiy asarlar, kinofil`mlarga qiziqishlari bilan ham qiziqib turishlari, imkon topganda ular bilan bu yuzasidan suhbatlar tashkil etishlari muhim ekan. Ota-ona va farzand munosabatini tashkil etishdagi bunday yondashuv ikki tomon o‘rtasidagi ayrim tushunmovchiliklarni bartaraf etishga olib keladi. Ammo, empatiyani o‘rganish natijalari ota-ona munosabatlarini farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta`siri uchun amaliy harakatlar muhimligini taqozo etdi.

Demak bugungi kunda farzand nazorati ota-onalar tomonidan ancha kuchli yo‘lga qo‘yilishi lozim hamda bolalarining qiziqishlariga ham e`tibor berishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi e`tirof etiladi.

Shaxslararo munosabatlar va shaxs sifatlarini shakllanishi doir metodikalar majmuasi sinaluvchilar guruhida o‘tkazilib natijalar tahlil qilindi. Shunga muvofiq quyidagi xulosalar keltirib o‘tildi:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

-o‘spirinlik davrida shaxs xususiyatlarini shakllanishida o‘zini o‘zi qabul qilish emosional komfort tashqi va ichki nazorat asosiy komponent bo‘lishi mumkin;

-shaxslararo munosabatlar shaxs kamolotida muhim mezon ekanligi asoslab berildi;

-shaxsda kechadigan turli psixik holatlar jarayonlar jamoaga va undagi psixologik muhitga, shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rniga, mavqeiga bog’liq bo‘ladi;

-o‘spirinlar jamoasining ruhiy muhiti avvalo uning a`zolari kayfiyatida namoyon bo‘ladi va ularning ishonchliligi, ruhiy va jismoniy holatini belgilaydi;

-o‘spirin shaxsining jamoadagi shaxslararo munosabatlaridan qoniqmasligi shaxs xususiyatlarini shakllanishida qiyinchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘spirinlik davrida empatik xususiyatlarni shakllanishi muhim hisoblanib u quyidagilarga ta`sir ko‘rsatishi tasdig’ni topdi.

1. Shaxslararo munosabatlar empatiyaning shakllanishiga o‘ziga xos tarzda ta`sir ko‘rsatadi,
2. Empatiya murakkab affektiv-kognitiv-xulqiy tabiatga ega shaxs xususiyati yoki qobiliyatidir,
3. U birovning kechinmalariga javoban bavositalashgan emosional reaksiyani bera olishda namoyon bo‘ladi va o‘z ichiga empatiya sub`ektining ichki holatlari, fikrlari va hissiyotlari refleksiyasini qamrab oladi.
4. Empatiya bu birovning emosional tajribasini o‘tkazuvchi signallarga emosional reaksiya bera olish qobiliyatidir.
5. Umuman olganda empatiya bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o‘z ichiga empatiyaning ham ob`ekti ham sub`ektiga namoyon bo‘ladigan individning ijtimoiy psixologik qobiliyatlarini oladi.
6. Bunday qobiliyatlarga: boshqa birovning kechinmalariga emosional reaksiya bera olish qobiliyati, birovning emosional holatlarini anglash qobiliyati va birovning hatti-haraktlari, o‘ylari hissiyotlariga xayolan o‘zini ko‘chira olish, boshqa odamning dardlarini engillatish va o‘zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatlari kiradi.

O‘spirinlar bilan bo‘lgan munosabatda quyidagilarni e`tiborga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Empatiyaning rasional kanali ya`ni e`tiborini, tafakkurini, o‘zga kishining holatini, muammolari va hulqini tushunishga qanchalar moyilligni ko‘rsatadigan kanal;
2. Empatiyaning emosional kanali ya`ni shaxsning atrofidagilarni hissiy qabul qilishi, ularning kechinma va tuyg’ularini his etishi va dardiga sherik bo‘lishi. qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini aks ettiradigan kanal;
3. Empatiyaning intuitiv kanali ya`ni insonning o‘z sherigini xulq-atvori va xatti-harakatlarini prognozlash qobiliyatini ifodalaydigan kanal.
4. Empatiyani qo‘zg’atuvchi yoki susaytiruvchi sharoitlari (shakllantiruvchi)ni: agar inson boshqalardan o‘zini olib qochsa, odamlar bilan suhbatlashishdan o‘zini chetga olsa va ularga bee`tibor bo‘lsa, boshqalarning muammolariga befarq qarasa, empatiyaning samaradorligi kamayadi.
5. Empatiyaga kirishish qobiliyati inson uchun muhim bo‘lib, uning kommunikativ xususiyatlari odamlarda erkinlik, ishonuvchanlik va mehr hissini shakllantiradi.
6. Identifikasiyalash - empatiyaning muhim sharti hisoblanib, u insonni o‘zga kishilarning dardini o‘zida kechirish va ularga hamdard bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bogdalova G.A. Emosional`naya ustoychivost` i ee formirovanie u uchashixsya rannego podrostkovogo vozrasta. Avtoreferat kand.psixol.nauk v nasional`nom universiteta Uzbekistana im Mirzo Ulugbeka. Tashkent – 2000, 18s.
2. Bodrov V.A. “Psixologiya professional`noy prigodnosti” M.: PERSE 2006 – 511s.
3. G’oziyev E. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini boshqarish. Toshkent. “O‘qituvchi” 1988, 104-b.
4. Leont`ev D.A. Lichnostniy potensial kak potensial samoregulyasii // uch.zapiski kaf.obsh. psixol. MGU im M.V.Lomonosova. Vip 2/ pod red. B.S.Bratusya, E.E.Sopolovoy. M.: Smisl, 2006. s 85-105. d)
5. Nemov R.S. Psixologiya; Uchebnik, M.: Visshee obrazovanie, 2008, 639s. 31.Sukeron G.A. , Masterov B.M. Psixologiya samorazvitiya. M.: Inter praks, 1995, 107-115-b.
6. Shadrikov V.D. «Problemi sitemogineza professional`noy deyatel`nosti» M.: Nauka 1982g.
7. Shmelev A.G. Psixodiagnostika lichnostnix chert SP. b «Rech`» 2002.
8. Salieva, D. A. "Psychological peculiarities of the influence of motivation on the learning independence of the student of young school." *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues* 8.3 (2020): 87-90.
9. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characterstics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal ofPositive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
10. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and Karas Orzhanovich Kaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.
11. Салиева, Д. А. "К вопросу о психологических возможностях развития учебной самостоятельности в младшем школьном возрасте." *Актуальные проблемы современной науки* 5 (2013): 117-119.
12. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451
13. Saliyeva, Dilorom Abdullayevna. "PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING TOLERANCE IN FUTURE EDUCATORS." Open Access Repository 8.12 (2022): 117-121.
14. Saliyeva, Dilorom Abdullayevna, and Mukhammadrizo Juraboyev. "AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN-PSYCHOCORRECTION WORKS USED IN ELIMINATING THE BEHAVIOR." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1838-1842.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘SMIR SHAXSIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo‘qon davlat pedagogika instituti“ Amaliy psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent, psixologiya fanlari nomzodi
Saliyeva Dilorom Abdullayevna Gmail: solievad78@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada agressivlik muammosi Sharq va G‘arb olimlar tomonidan yoritilishi hamda o‘smir yoshidagi bolalarda agressivlikni o‘ziga xosligi masalasi dolzarbligini aks ettirmoqda. Shu bilan birga hozirgi kunda o‘smirlarda agressivlikni kelib chiqish sabablari psixolog olimlar tomonidan o‘rganilganligi va ularning eksperimental taxlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *agressiya, agressiv zo‘riqish, xavotirlanish, hamdardlik, emotsional xolat, agressiv holat, qo‘rquv*

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКА

Коканский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой «Прикладная психология», доцент, кандидат психологических наук
Салиева Дилором Абдуллаевна Gmail: solievad78@gmail.com

Аннотация: *В статье отражена актуальность проблемы агрессивности восточных и западных ученых и вопрос своеобразия агрессивности у детей подросткового возраста. В то же время учёные-психологи изучили причины агрессии у подростков и даётся их экспериментальный анализ*

Ключевые слова: *агрессия, агрессивный стресс, тревога, эмпатия, эмоtsиональное состояние, агрессивное состояние, страх*

CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN A TEENAGE PERSON

Kokan State Pedagogical Institute, head of the "Applied Psychology" department, associate professor, candidate of psychology
Saliyeva Dilorom Abdullayevna Gmail: solievad78@gmail.com

Abstract: *The article reflects the relevance of the problem of aggressiveness by Eastern and Western scientists and the issue of the uniqueness of aggressiveness in children of adolescent age. At the same time, psychological scientists have studied the causes of aggression in adolescents and their experimental analysis is presented.*

Key words: *aggression, aggressive stress, anxiety, empathy, emotional state, aggressive state, fear*

Kirish

Shaxs kamolga etib borar ekan unga atrofdagi tashqi muhit, shaxslararo munosabatlar, ta`lim olayotgan muassasasi hamda oilaviy muhit tizimli ravishda ta`sir ko‘rsatadi. Shu bois shaxs hayotida ijobiy tomonlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham farqlanadi. Bu esa o‘z o‘zidan shaxsda emotsional holatlarda zo‘riqish, xavotirlanishni yuzaga kelishiga olib keladi va shaxsning kamolga etishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bilan birga buning natijasida agressiv xulq-

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

atvor tarkib topadi. Ma`lumki, insonning tajovuzkorlikka, ya`ni agressiv muomalaga moyilligi asosan uning individual rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Metodologiya

Abu Rayxon Beruniy hali shaxsning ahloqiy kamolotiga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta`rif beradi. Ahloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning hulq - atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo‘llaniladi.

U yaxshi xislatlarga to‘g‘rilik odillik o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik lutf sobitqadamlilik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, raxbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa hasadgo‘ylik baxillik nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash manparastik va hokazolarni kiritadi.

Beruniy faxrlanishini yaxshi xulq ma`nosida ishlatib “Yodgorliklar” da shunday deydi; “Faxrlanishi haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe`llarda oldin ketish ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa hukm uning zarariga bo‘ladi”.

Abu Rayxon Beruniyning inson turmushiga xos xulq odob qoidalari haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishish mumkin deydi. U ozodlik va orastalikni oliyjanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur deydi. “Mineralogiya” asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi. “Inson o‘z ehtiroslariga hukmron ularni o‘zgartirishga qodir o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga ham asta sekin ahloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan ishlatishlarni bartaraf etishga qodirdir”.

Alisher Navoiy insoning ahloqiy xislatlari yaxshi fe`l-atvorlar xususida to‘xtab o‘tar ekan avvalo har bir insoniy fazilatning ta`rifini beradi. U yaxshi fe`llarga qanoat sabr tavozu` va odob ishq va vafo saxovat himmat karam muruvvat yumshoq ko‘ngillilik kabi xislatlarni kiritib har birining ta`rifidan so‘ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o‘z fikrini to‘ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o‘tilgan xislatlarga ta`rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo‘lgan yomon illatlar to‘g‘risida so‘z yuritadi va ulardan qutilish yo‘llarini ham bayon qiladi.

Demak yaxshi hulq asosi odob u Navoiy nazdida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog‘liq ravishda ta`rif beriladi. Zero haqiqiy insonga xos xislatlar qanoat sabr tavozu` ishq vafo saxovat himmat karam muruvvat xilm yumshoq ko‘ngillilik xuddi shu odobli kishida tarkib topadi. Masalan qanoat buloqdir suvi olingani bilan qurimaydir. Xazinadir naqdinasi sochgan bilan kamaymaydir. Ekinzordir urug‘i izzat va shafqat mevasi beradi. Daraxtdir - shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi” deb ifodalaydi. Demak qanoat insoniylik belgisi. U insonni yomon kunlardan asraydi. Chunki qanoat qanchalik og‘ir va mashaqqatli bo‘lmasini insonni nafs balosidan do‘st-dushmandan ta`magirlikdan xalos etadi. Shuning uchun alloma hech qachon ta`maga berilmaslik halol mehnat bilan hayot kechirish qay darajada ulug‘ligini ta`kidlab ta`ma va ochko‘zlik xassislik insoniylik zavoli deb ta`riflaydi.

“Sabr achchiqdir ammo foyda beruvchi qattiqdir-ammo zararni daf` etuvchi sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir”. Demak Alisher Navoiy o‘zining badiy asarlari bilan bir qatorda ta`limiy –ahloqiy asarlarida o‘zi orzu etgan komil insonga xos ahloqiy fazilatlar deb qanoat adolat saxovat himmat muruvvat vafo to‘g‘rilik hilm rostgo‘ylik tavozu` adab va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

boshqalarni tushungan ana shu xislatlar tarkib topgan insonda yomonlik rozilik bo‘lmasligi bunday insonlar yashagan jamiyat ham ravnaq topishi barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin deb hisoblagan. Alisher Navoiy tarbiyada insoning o‘z-o‘zini tarbiyalashga xato va kamchiliklarini anglab tuzatishga e`tibor beradi, yanglish va xato kishilik shartidir. Xato va yanglishishni anglab ogohlangan baxtli kishidir. Kimki e`tirof tomon qaytar ekan xatosi yo‘qoladi. Kimki dalil keltirib aljiray bersa xatosini bir karra oshiradi. Mubolg‘asi qancha ko‘proq esa yanglishishi shuncha ko‘rimliroq bo‘lur va o‘zini katta ko‘rsatib tortishuvi qancha esa ortiqroq o‘zi xalq o‘rtasida shuncha rasvoroq ko‘rinur.

Adabiyotlar taxlili

Amerikalik olimlar Robert Beron va Debora Richardsonlarning 2000 yilda Sankt-Piterburgda rus tilida nashr etilgan “Agressiya” nomli kitoblarida ham agressiv xulqqa nisbatan yangicha yondashuv bayon etilgan. Xususan, kitobda agressiv xulqqa taalluqli bo‘lgan asosiy nazariyalardagi (psixoanaliz, kognitiv nazariya, evolyutsion, frustratsion yondashuv va boshqalar) fikrlar keltirilganki, mualliflar ularni xulosalab, bunday xulqning aynan biologikdan ham ko‘ra, ijtimoiy tabiati borligini ta`kidlaganlar. Freydning instinktlar to‘g‘risidagi nazariyasida ta`kidlangan agressiyaning tug‘ma, biologik tabiatga egaligi to‘g‘risidagi fikridan farqli o‘laroq, oxirgi yillarda o‘tkazilayotgan tadqiqotlar uning aynan bir insonning boshqa insonga munosabatidan, uning o‘ziga nisbatan qarashlarining ongida aks ettirishi va o‘zini turli xavf-xatardan asrashning vositasi ekanligi fikrinBili isbotlamoqda. Aynan ijtimoiy ko‘nikmalar paydo bo‘lish jarayoni doirasida qaralgan agressiyani boshqarish imkoniyati borligi amerikalik olimlar xulosalari asosida yotadi.

Shu narsa alohida diqqatga molikki, agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi va namoyon bo‘lishida oila va oilaviy o‘zaro munosabatlar, tenqurlar guruhi hamda ommaviy axborot vositarining roli katta ekanligi, ayniqsa, birinchi omil ta`sirchan ekanligi fikri yangi tadqiqotlarda alohida o‘rin tutadi. Odatda bolalar oilada ko‘rgan-kechirganlari, ota-onasining o‘rinli-noo‘rin tanbehlari, ba`zan ularning agressiv munosabatlarining “qurbonlari” sifatida vajohatli bo‘lib borishadi. Ya`ni, oilaviy hamjihatlik, to‘g‘ri tashkil etilgan o‘zaro muomala, tarbiya uslublari va boshqaruv usullari agressiv harakatlarning oldini oluvchi, bartaraf etuvchi muhim shartlardir. O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma`lum bo‘ldiki, ota-ona o‘rtasida tez-tez nizolar, kelishmovchiliklar chiqib turadigan, oiladagi bolalar o‘rtasidagi (aka-uka, opa-singil va hokazo) nizolar odatiy bo‘lgan oilada tarbiyalangan bolada agressiyaga moyillik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki ayniqsa kichik yoshli bola o‘zgalar o‘rtasida sodir bo‘layotgan nizolar va janjallarga o‘ta sezgir va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun ham oiladagi muomala madaniyati, bola ongiga ilk yoshlikdan singdiriladigan muloqatga oid qadriyatlar uning kelajakda o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ijobiylashtiradi.

Agressiv xulqning paydo bo‘lishida ko‘p omillar, jumladan yosh individual xislatlar, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar ishtirok etadi. Lekin shaxsda agressiv xulq shakllanishida, ushbu masala bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning fikricha, bevosita ijtimoiy muhit muhim o‘rin tutadi.

Psixologiyada “agressiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba`zi tadqiqotchilar agressiyaga salbiy baho bersalar, ba`zilari ijobiy baholaydilar. Agressiya - bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga ko‘rsatilgan jismoniy harakat yoki taxdid bo‘lib, u ikkinchi kishining erkinligiga tahdid soladi.

Agressiv holatning sabablari 2 turga bo‘linadi:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1) jarohat olishda havsirash, hafa qilish, hujum qilish, lat eyish. Agressiv holat qanchalik kuchli bo‘lsa, qo‘rquv shunchalik kuchlidir.

2) boshdan o‘tkazilgan tushkinlik, yoki ichki jarohat yoki xujumga o‘tish. Ko‘p hollarda qo‘rquv holati bola bilan uni o‘rab turgan kattalar orasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Jismoniy agressiya asosan bir-biri bilan mushtlashganda, hamda narsalarni buzish, atrofdagi narsalarga salbiy munosabatda bo‘lish kabilarda namoyon bo‘ladi. Bolalar kitoblarni yirtadilar, o‘yinchoqlarni turli tarafga uloqtiradilar, kerakli narsalarni sindirib, yoqib tashlaydilar. Gohida agressiv holat va buzib tashlash bir-biri bilan to‘qnash keladi, natijada bola o‘yinchoqlarni boshqa bolalarga va kattalarga uloqtiradilar. Ulardagi bunday xulq-atvor bolaning atrofdagi insonlarni o‘ziga e`tiborini o‘ziga jalb etishi bilan belgilanadi.

Natijalar

Agressiv holatlar faqat jismoniy xarakatlarda ro‘yobga chiqmaydi. Ba`zi bir bolalarda agressiv holatlar (urishish, jig‘iga tegish, mayna qilish) bu holat bola o‘zini kuchli his qilishini qoniqarsizligidan yoki o‘zini hafa qilganliklarini alamini olish yo‘li deb biladilar. Ba`zi hollarda bolalar o‘zi bilmagan holda urishadilar, xattoki bu urishlarda so‘zlagan so‘zlar ma`nosini tushunmaydilar. Boshqa bir hollarda bola atay yomon so‘zlarni ishlatib, kattalar dilini xira qiladi. Hattoki ayrim vaziyatlarda yoqimsiz holatlardan chiqish jarayonida, bola yiqilib tushganda, boshi yorilganda, kimdir uni haqoratlaganda yoki tegilib ketganda shunday holatlar kuzatiladi. Bunday holatda bolaga xazilomus so‘zlarni ishlatishni natijasida o‘zgartirish lozimdir.

Tajovuzkorlik destruktiv xulq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, sub`ektning-sub`ektga bo‘lgan munosabati tushuniladi. A.Bandura, R.Uolterslarning ta`kidlashicha, agressiya motivlangan harakatdir, unda me`yor va qoidalar buziladi, u og‘riq va azob chekish olib keladi. Bu erda qasddan qilingan va instrumental agressiya farqlanadi. Instrumental agressiyada inson o‘z oldiga agressiv tarzda harakat qilishni maqsad qilib qo‘ymaydi, lekin “shunday bo‘lib qoladi” yoki “boshqa iloji bo‘lmaydi”. Bunday harakatda motiv bor, lekin to‘la tushunilmagan. Qasddan qilingan agressiv harakatda esa zarar keltirish motivlangan holda amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodikasi sifatida A.Bass-A.Darkining “Agressivlikni o‘rganish” metodikasidan foydanildi. Tanlab olingan o‘smirlar guruhi ikkiga ya`ni agressiv xulq-atvorga moyil bo‘lganlar hamda agressiv xulq-atvorga ega bo‘lmaganlarga ajratib olindi. Tanlama guruhning har ikkalasida ham tadqiqot metodikasi o‘tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

A.Bass-A.Darkining “Agressivlikni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha olingan natijalar

Shkalalar	Agressiv xulqga moyil bo‘lmagan	Agressiv xulqga moyil
Jismoniy agressiya	23%	26%
Bilvosita agressiya	18%	16%
Jahldorlik	12%	12%
Salbiy munosabatlar	13%	8%
Alamzadalik	5%	12%
Badgumonlik	8%	8%
Verbal agressiya	12%	12%
Aybdorlik hissi	10%	5%

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqotda o‘smirlik davrida shaxs agressivligini namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishimizning natijalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin. Ta`kidlash joizki, sinaluvchilar guruhida agressiv xulq-atvorni namoyon bo‘lishida o‘ziga xos ko‘rishni qayd etilganligini aytish mumkin.

Taxlillar

Jadval natijalariga ko‘ra jismoniy agressiya agressiyaga moyil o‘smirlar guruhida yuqori ko‘rsatkichni ya`ni 26% va agressiyaga moyil bo‘lmaganlarida 23% ni tashkil qilganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, sinaluvchilarning natijalariga nazar tashlash barobarida ularda ichki kuch ishlatishdan ko‘ra tashqi vositalar asosida agressiyasini ko‘rsatishga moyil bo‘lganlarida uchrashi tabiiy holat ekanligini aytib o‘tish lozim.

Bilvosita agressiya sinaluvchilar guruhida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lganligini ya`ni agressiyaga moyil bo‘lmagan o‘smirlarda ko‘rsatkichlar yuqori, agressiyaga moyil bo‘lganlarida esa past ko‘rsatkichni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki agressiyaga moyil bo‘lganlarida past bo‘lganligini sababi ularda aylanma yo‘l orqali ta`sir ko‘rsatish malakalari sustligi bilan ajralib turadi. Sinaluvchilar guruhida jahldorlik shkalasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Unga ko‘ra, har ikkala guruh sinaluvchilarida ham ahamiyatli ekanligi ma`lum bo‘ldi.

Salbiy munosabatlar sinaluvchilar guruhida ahamiyatli farqlarni mavjudligi bilan ajralib turadi. Aytish mumkinki, agressiyaga moiyl bo‘lmaganlarda past, moyil bo‘lganlarida esa past ko‘rsatkichni tashkil qilganligi bilan xarakterlanadi. SHuning bilan birga agressiyaga moyil bo‘lganlar doimo uch olishga, ichlaridagi alamlarini yuzaga chiqarishga moyil bo‘lganlar sanaladi. Alamzadalik bo‘yicha ko‘rsatkichlarda ham quyidagi jihatlar ko‘rsatiladi. Jumladan, agressiyaga moyillarda yuqori va agressiyaga moyil bo‘lmaganlarda esa past darajani tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sinaluvchilar guruhida badgumonlik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar anchagina farqli ekanligi qayd qilinadi. Shuning bilan birga ularda turli narsalardan atrofdagi insonlardan hadiksirash, qo‘rquv holatlari kuzatilishi ehtimol.

Verbal agressiya buyicha ko‘rsatkichlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, agressiyaga moyil o‘smirlar guruhida yuqori ekanligi bilan belgilanadi. Bu ularning ham jismoniy ham og‘zaki so‘z zahiralaridan foydalanilgan holda ta`sir ko‘rsatish malakalarining ustunligi bilan izohlanadi. Sinaluvchilar guruhida aybdorlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Agressiyaga moyil o‘smirlar o‘zlarida birmuncha aybdorlikni his qilishlari, lekin mohiyatan qilgan ishlaridan uyalmasliklari uchraydi.

Ijtimoiy psixologiyada to‘plangan ma`lumotlarga ko‘ra agressiyani oldini olish yoki sodir bo‘lganini yumshatishda bir qancha yo‘llari mavjud:

1. Tang holatlarda janjalkashlardan kimdir albatta o‘zini tutishi, o‘zini qo‘lga olib, agressiv xulq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikka hozirligi isbot qila olish, namoyish eta olishi.

2. Agressiv harakatlarning oldini olishda tabiiy verbal reaktsiyalarning, fikr-mulohazalardagi o‘rinli so‘zlashlarning ham ijobiy o‘rni bor. Masalan, yana oila misolida olinsa, tomonlardan birining baland ovozga past bilan, yomon gapga, yaxshi bilan javob berishi qarshi tomonning hissiyotlari yo‘nalishini o‘zgartiradi.

3. Agressiyani pastlashining yana bir yo‘li psixologik ibora bilan aytganda “kutilmagan,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

nomuvofiq ta`sirning induktsiyasi" bo'lib, unga ko'ra, tomonlardan birining yoki guvohning kutilmagan tarzda ish tutishi vaziyatni o'zgartiradi. Masalan, yana o'sha oilaviy nizo, yoki bolalar o'rtasidagi agressiv janjalni oladigan bo'lsak, bunda shundlay qilinadiki, urushning tashabbuskori bo'lgan bolaga onasi kutilmaganda, ko'ngliga tugib yurgan biror sovg'asini, yoki boshqa biror "syurpriz" berishi, yoki janjallashishayotgan aka-ukalar ustidan chiqib qolgan onadan ular qattiq ogohlantirish yoki jazoni kutganlarga samimiy hazillar ham kutilmaganda ikkala tomonni ham fikrlashga, o'zini bosib olishiga olib kelishi mumkin.

4.Nizoli va agressiv vaziyatlardan qutulish yoki ularni oldindan bartaraf etishning ishonchli yo'li sifatida psixologlar odamlarda muomala madaniyati va muloqot malakalarining bo'lishini e`tirof etishadi. Demak, ilk yoshlikdan bolani sog'lom muloqotga o'rgatish, sharoqona odob, iltifot, odamgarchilik, andisha va samimiyat, bag'rikenglik tamoyillariga bo'ysunib, o'zgalar bilan yashashga o'rgatish undagi agressivlikni pastlatadi, konfliktli va agressiv vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishga moslashtiradi. Buning uchun ijtimoiy psixologiyaning maxsus uslublari va vositalari mavjudki, ular hattoki "urushqoq shasxlarni" ham turli vaziyatlarda o'zini tuta olishga o'rgatadi. Masalan, ijtimoiy-psixologik treningning muloqotga bevosita o'rgatuvchi texnikasi aynan ana shunday uslublardan hisoblanadi.

5. Nihoyat, har bir insonning o'zini o'zi hurmat qilishi, unda voqea-hodisalarga nisbatan mustaqil qarashlarning, mustaqil fikrning bo'lishi ham ma`lum ma`noda agressiv xaraktalar darajasini va miqdorini kamaytiruvchi muhim omildir. Ming afsuski, shunday holatlar bizda tez-tez uchraydiki, yoshlarimiz faqat taqlid qilish, aytganimizdan chiqmaslikka o'rgatib qolganligi tufayli haddan ziyod yuvvosh, ishonchsiz, e`tiqodsiz va irodasiz, qo'rqoq bo'lib qolishadiki, har qanday tanglik vaziyatlari ular ruhiyatini normal maromdan chiqaradi. Chunki bunday yoshlarda mustaqil fikrning yo'qligi tufayli, ular nochorligi hamda irodasizligi uchun jazolanaverishadi. Natijada, ular ishonchsiz, e`tiqodsiz, bora-bora asabiylashadigan, janjalkash bo'lib qolishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma`sul muharrir: A.Jalolov. – T: «Yozuvchi», 2001. – 64b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

3. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. Shapovalenko I.V. – M.: Gordariki, 2007. – 344s.

4. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi.-(metodik qo'llanma) T.: «Fan va texnologiyalar», 2010. – 162b.

5. Volkov B.S. Vozrastnaya psixologiya. V 2-x ch. Ucheb. posobie dlya VUZov, spets. OPD.F.01-Psixologiya / Pod red. B.S.Volkova. – M.: VLADOS, 2005. Ch.2. – 343 s.

6. Salieva, D. A. "Psychological peculiarities of the influence of motivation on the learning independence of the student of young school." *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues* 8.3 (2020): 87-90.

7. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characterstics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal ofPositive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.

ISSN: 2181-0427

8. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and Karas Orzhanovich Kaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.

9. Салиева, Д. А. "К вопросу о психологических возможностях развития учебной самостоятельности в младшем школьном возрасте." *Актуальные проблемы современной науки* 5 (2013): 117-119.

10. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451

11. Saliyeva, Dilorom Abdullayevna. "PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING TOLERANCE IN FUTURE EDUCATORS." Open Access Repository 8.12 (2022): 117-121.

12. Saliyeva, Dilorom Abdullayevna, and Mukhammadrizo Juraboyev. "AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN-PSYCHOCORRECTION WORKS USED IN ELIMINATING THE BEHAVIOR." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1838-1842.

VIRTUAL MADANIYATNING MILLIY MADANIYATGA TA'SIRI VA TAHDIDI.

Ahmedova Zebixon Siddiqovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Gmail: zebohonahmedova7@gmail.com

Annotatsiya: *Bugun axborot har qanday jamiyat, millat taqdiri va kelajagini o'zgartirib yuborishga qodir bo'lgan kuchli vositaga aylanib bormoqda. Turli mintaqalarda ro'y berayotgan voqea-hodisalarda tomonlar o'zining haq ekanini isbotlash maqsadida turli vosita va usullardan foydalangan holda axborot tarqatishga, jamoatchilik, xalqaro tashkilotlarni o'z manfaatlari sari og'dirishga urinmoqda. Shu bois, yurtimiz yoshlarini sog'ligi va ma'naviy olamini buzishga qaratilgan turli ko'rinishdagi zararli axborotlardan himoyalashning milliy va xuquqiy mezonlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *Virtual madaniyat, axborot, axborot xavfsizligi, axborot erkinligi, internet hamda uning salbiy va ijibiy oqibatlari.*

ВЛИЯНИЕ И УГРОЗА ВИРТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ КУЛЬТУРУ.

Ахмедова Зебихон Сиддиковна – преподаватель кокандского государственного педагогического института
Gmail: **zebohonahmedova7@gmail.com**

Аннотация: *Сегодня информация становится мощным инструментом, способным изменить судьбу и будущее любого общества, нации. В событиях, происходящих в разных регионах, стороны пытаются распространить информацию, используя различные средства и методы, отвлечь общественность и международные организации на свои интересы, чтобы доказать свою правоту. Поэтому разработка национальных и правовых критериев защиты молодежи нашей страны от различных форм вредной информации, направленной на разрушение ее здоровья и духовного мира, остается актуальной проблемой.*

Ключевые слова: *Виртуальная культура, информация, информационная безопасность, свобода информации, Интернет и его отрицательные и положительные последствия.*

INFLUENCE AND THREAT OF VIRTUAL CULTURE ON NATIONAL CULTURE.

Akhmedova Zebikhan Siddigovna - lecturer at the
Kokand state pedagogical institute
Gmail: **zebohonahmedova7@gmail.com**

Annotation: *Today, information is becoming a powerful tool capable of changing the fate and future of any society, nation. In the events taking place in different regions, the parties are trying to spread information using various means and methods, to divert the public and international organizations to their interests in order to prove that they are right. Therefore, the development of national and legal criteria for protecting the youth of our country from various forms of harmful information aimed at destroying their health and spiritual world remains an urgent issue.*

Key words: *Virtual culture, information, information security, freedom of information, Internet and its negative and positive consequences.*

Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy hamda jismoniy barkamolligi masalasidagi va yoshlarga oid islohotlar samaradorligini yanada oshirishdagi «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ushbu qonun hujjatlarida yoshlarning haq-huquqlari va ularning qadr-qimmatlarini poymol qiluvchi har qanday holatlardan qonuniy jihatdan himoyalanishi ko‘rsatilgan. Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlaboq shakllantirishimiz kerakligi ta’kidlangan.

Adabiyotlar tahlili

Uzluksiz ta’lim tizimida fanlarga oid zamonaviy elektron ta’lim resurslar, elektron darsliklar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar uchun metodik qo’llanmalar yaratishga qo’yiladigan tamoyillar, talablar va ulardan foydalanish va metodikasiga, virtual madaniyatning milliy madaniyatga ta’siri haqida yurtimizda: A.A.Abduqodirov, M.X.Allambergenova, A.D.Asqarov, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djuraev ,M.H.Lutfillaev, N.A.Muslimov, H.B.Nikadambaeva, N.I.Taylaqov, S.Q.Tursunovlar kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada virtual madaniyatning milliy madaniyatga ta’siri haqida, tahdidi haqida yoshlarga ta’siri haqida hamda yoshlarni kamolotga yetishida, kasb-hunar tanlashida, ularning yangi texnik-texnologik ma’lumotlarni va mehnat jarayonlarini urganishga, bilimlarni, mehnat kunikmalari va malakalarini mustaxkamlashga, o‘quv faoliyatida mustaqil fikrlab harakat qilishlariga texnologiya fani mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishining zarurligi borasidagi fikrlar tahlil qilingan.

Virtual madaniyat tushunchasi qanday ma’no kasb etadi va mohiyati nima?

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Virtual madaniyat - bu obroʻ-eʼtibor oʻzaro ta'siriga asoslangan va idealizatsiya qilingan dunyoga intilish bilan belgilanadigan shartli voqelik stsenariylarini yaratishda havaskor sub'ektning madaniy faoliyati.

Virtual madaniyatning shu ma'nosida biz uning oʻziga xosligini aniq koʻrsatib, quyidagi muhim xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin:

- virtual madaniyat shartsiz voqelikka nisbatan parallel ravishda mavjud (shartsiz haqiqat uning tarkibiy asosi sifatida paydo boʻladi) va uni oʻyin madaniyatining bir qismi sifatida talqin qilish mumkin (oʻyin madaniyati va virtual haqiqat chorrahasida paydo boʻladi);

- virtual madaniyat - bu yuqori darajadagi madaniyat va erkinlik va ijodkorlik, ishtirokehilarning oʻzaro bogʻliqlik, taklif qilinayotgan sharoitga ishongan holda oʻzgaruvehan fikrlash qobiliyati orqali aniqlanadi; ijtimoiy-madaniy makonning xilma- xilligi va murakkabligiga hissa qoʻshadi;

- virtual madaniyatda utilitarian-pragmatik boshlanish niyati yoʻq va bundan tashqari, voqelikni oʻzgartirishning "tayyor mahsuloti" ga e'tibor qaratilmaydi - "moliyaviy boʻlmagan mafkura" sifatida tubsiz toʻliqlik;

- virtual madaniyatda subyektiv tashabbuskor printsip aniq ifodalangan (sub'ektlar oʻzlarining harakat qoidalari bilan yangi oʻyin dunyosini quradilar);

- virtual madaniyat rasmiy muassasalardan tashqarida mavjud, ammo bu hodisaning rivojlanishi bilan almashtirishlar paydo boʻladi (virtual madaniyat mavjudligining subkultural turi);

Axborot xavfsizligi va axborot tahdidi oʻzi nima? Axborot xavfsizligi deganda, jamiyatni insonlar, tashkilotlar va davlat manfaatlari asosiy shakllanishi va rivojlanishini taʼminlovchi axborot makonining himoyalaganlik darajasi tushuniladi. Axborot tahdidi esa, jamiyat axborot makonini ishlashiga xavf tugʻdiruvchi omil yoki omillar birligidir. Oʻzbekiston Respublikasida axborot olish, undan foydalanish, tarqatishni tartibga solish sohasida bir qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan boʻlib, bular "Axborot olish kafolatlari va erkinligi toʻgʻrisida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida"gi, "Axborotlashtirish toʻgʻrisida"gi qonunlardir.

"Axborotlashtirish toʻgʻrisida"gi qonunga binoan axborotlashtirish — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda, sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidan iborat. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida"gi qonunga koʻra, axborot deganda manbalari va taqdim etilish shaklidan qatʼi nazar shaxslar, narsalar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tushuniladi.

Axborot olish faqat qonunga asosan hamda inson huquq va erkinliklari, konstitusiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning maʼnaviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini taʼminlash maqsadida cheklanishi mumkin. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida"gi qonunda axborot erkinligining prinsiplari sifatida ochiqlik va oshkoralik, hamma erkin foydalanishi mumkinligi va haqqoniylik koʻrsatilgan.

Albatta, ommaviy axborot barcha fuqarolar uchun ochiq va undan foydalanishga hech qanday toʻsiq yoʻq. Lekin masala ushbu axborotdan qanday maqsadda va qay yoʻsinda foydalanishga bogʻliq. Masalan, tadqiqotchi olim turli axborotlarni oʻrganib, oʻz bilimi va malakasini oshirishi, turli sohalarga yangiliklar kiritishi, muammolarni hal etishi mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ammo uning mana shu faoliyati shaxs, jamiyat, davlat manfaatlariga tahdid qilmasligi, ziyon keltirmasligi lozim.

Ushbu qonunda yana jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga erishishning quyidagi yo‘llari ham ko‘rsatib o‘tilgan:

- demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta’minlash;

- qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko‘rsatishga, uni chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik;

- jamiyatning ma’naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

- milliy o‘zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an’analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish.

Tahlillar va natijalar

Axborotlashtirish jarayonining tezkorligi sharoitida fuqarolarning axborot- psixologik xavfsizligini ta’minlash, psixologik tahdidlarning oldini olish, ta’sirini kamaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Avvalo, shaxs o‘zining psixologik xavfsizligini ta’minlashi lozim. Buning uchun esa u o‘z individual xususiyatlarini yaxshi bilishi, dunyoqarashi keng shakllangan bo‘lishi, atrofda sodir bo‘layotgan turli voqea-hodisalarga munosabat bildira oladigan darajaga etishishi lozim.

Yuqoridagi holatni ta’minlash uchun esa ta’lim va tarbiya jarayoniga katta e’tibor bergan holda, yoshlarga mana shunday axborot xurujlariga qarshi tura oladigan, tahdidlarga o‘z munosabatini bildirish kuchiga ega qilib ta’lim berilishi va yoshlar shu ruhda tarbiyalanishi, umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida axborot- psixologik xavfsizlik bo‘yicha bilimlar berilishi kerak. Zero, endigina hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni “axborot xaos”i ta’siriga tushib qolishdan saqlash orqali “yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun” xizmat qilgan bo‘lamiz. Bugungi kunga kelib, OAV juda katta kuchga aylandi. Uning axborot uzatish, qabul qilish imkoniyatlari XX asrning oxirlariga nisbatan ancha kengaydi. OAVlar orqali mamlakatimizga, aholiga ham ijobiy, ham salbiy axborotlar etib kelishi mumkin.

Yuqoridagi ikki holatni mustahkamlash, yurtimizga bo‘ladigan turli axborot xurujlarini kamaytirish, uning oldini olish uchun esa avvalo o‘z milliy OAVmizni yanada rivojlantirishimiz lozim.

Bugun axborot har qanday jamiyat, millat taqdiri va kelajagini o‘zgartirib yuborishga qodir bo‘lgan kuchli vositaga aylanib bormoqda. Turli mintaqalarda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarda tomonlar o‘zining haq ekanini isbotlash maqsadida turli vosita va usullardan foydalangan holda axborot tarqatishga, jamoatchilik, xalqaro tashkilotlarni o‘z manfaatlari sari og‘dirishga urinmoqda. Ushbu soha mutaxassislari, garchi insoniyatga tahdid bo‘lsada, o‘z cho‘ntaklarini qappaytirish maqsadida yangidan- yangi loyiha, dasturlar ishlab chiqmoqda. Dastlab faqatgina aloqa vositasi sifatida paydo bo‘lgan mobil telefonlar - bugun ba’zilarning “ko‘ngilxushlik” matohiga aylandi. Shu bois, yurtimiz yoshlarini bu kabi aloqa vositalaridan to‘g‘ri foydalanishini tartibga soluvchi milliy va xuquqiy mezonlarni ishlab chiqish dolzarb

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

masala bo‘lib qolmoqda. Aytish lozimki, bu sohada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda noana’naviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o‘zgartirmoqda va informatsion-psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug‘dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo uning ma’naviy-ahloqiy asoslariga ta’sir o‘tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, a’naviy qadriyat va an’analarimizga mutlaqo zid bo‘lgan buzg‘unchi g‘oya va tushunchalarni yoshlarimiz ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.



Axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy “qurol”ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga e’tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati “Xavfsizlik”ka bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Xulosalar

Bugungi kunda, insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o‘z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig‘ish bosqichlari o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya’ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga dahldor bo‘lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida T.: “O‘zbekiston”, 1997.
2. Oripov.E.Sh. “Virtual madaniyat asoslari” majmua: 2023
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – T.: O‘zbekiston”, 1998.
4.Akhmedova Z., and Sodiqjon Muminjonovich Turdaliyev. "ORGANIZATION OF COMPUTER SCIENCE BASED ON MODULE TECHNOLOGY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 671-675
5. Akhmedova, Z., and S. Turdaliyev. "THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE CREATION OF ELECTRONIC INTERACTIVE EDUCATIONAL AND PROGRAMMING IN THE TOPIC" COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY"." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1047-1050.
6. Siddikovna, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. "Innovations and Advanced Foreign Experiences in Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations." *JournalNX* (2021): 371-374.

“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANI TA’LIMIDA UZVIYLIK HAMDA UZLUKSIZLIKNI TA’MINLASHNING TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Marasulova Zulayho Abdullayevna,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti v.b.dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yisha falsafa doktori (RhD)
E-mail: zmarasulova78mail.ru

Annotatsiya*: Mazkur maqolada resrublikamiz ta’lim tizimida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani ta’limida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashning texnologik xususiyatlari haqida yoritilgan. Shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli adabiyotlar va ilg‘or pedagogik, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilan ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish vazifasi qo‘yilgan.*

Kalit so‘zlar: *Informatika, umumiy o‘rta ta’lim, uzviylik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuting, zamonaviy ta’lim, axborot savodxonligi, raqamli kontent yaratish, raqamli savodxonlik.*

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ И НЕПРЕРЫВНОСТИ НАУЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО «ИНФОРМАЦИИ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ».

Марасулова Зулайхо Абдуллаевна,
Доцент Кокандского государственного педагогического института,
Доктор философии педагогических наук (PhD)
Электронная почта: zmarasulova78mail.ru.

Аннотация: *В данной статье описаны технологические особенности обеспечения последовательности и преемственности образования по специальности «Информатика и информационные технологии» в системе образования нашей республики. Также стоит задача обеспечить образовательный процесс качественной литературой и передовыми педагогическими,*

ISSN: 2181-0427

в том числе информационными технологиями, осуществить информатизацию системы непрерывного образования.

Ключевые слова: *информатика, общее среднее образование, интеграция, информационно-коммуникационные технологии, информатика, современное образование, информационная грамотность, создание цифрового контента, цифровая грамотность.*

TECHNOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROVIDING INTEGRATION AND CONTINUITY IN THE SCIENCE EDUCATION OF "INFORMATION AND INFORMATION TECHNOLOGIES".

Marasulova Zulayxo Abdullayevna,
Associate Professor of Kokand State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (RhD)
E-mail: zmarasulova78mail.ru

Abstract: *This article describes the technological features of ensuring coherence and continuity in the education of "Informatics and information technologies" in the educational system of our republic. Also, the task is to provide the educational process with high-quality literature and advanced pedagogical, including information technologies, to implement the informatization of the continuous education system.*

Key words: *Informatics, general secondary education, integration, information and communication technologies, computing, modern education, information literacy, digital content creation, digital literacy.*

Kirish

XX asrning 50-yillaridan boshlab o‘qitilib kelayotgan “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bugungi jamiyatimizda keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan davrda o‘z navbatida uni o‘qitish uslubiyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi yangi zamonaviy texnologiyalar asrida Informatika va axborot texnologiyalari faniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni vaqtda amaliyotshi-o‘qituvshilar, olimlar, mutaxassislar hamda metodistlar jalb qilinib, informatika fani bo‘yisha DTS takomillashtirildi va unga muvofiq umumta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun informatikaning o‘quv dasturi va rejasi DTS asosida egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar ishlab chiqildi. Shu ma’noda informatika ta’limida sinflar bo‘yisha uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Har bir bosqichda o‘quv dasturi tarkibi uzviylik va uzluksizlik saralangan holda oddiydan murakkabga qarab tizimlasha borib, yuqori darajadagi ta’lim sari intilib boradi [1].

Avtomatlashtirilgan axborot jamiyatini shakllantirishning global jarayoni inson taraqqiyoti va ko‘rlab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bunday imkoniyatdan faqatgina ushbu axborot maydonida kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan jamiyat ahzolarigina foydalana oladilar. Shuning uchun, o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri yosh avlodga axborot madaniyatini va uning mafkuraviy darajasini har tomonlama yaxshilash imkonini berishdir. Ushbu muammoni hal qilishda maktabning informatika fani yo‘nalishi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, kompyuter fanlari kursining ustuvor muammolarini va uning kelajakdagi istiqbollarini o‘rganish va tahlil qilish muhimdir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Fanni o‘qitish uslubiyotining takomillashishi, uning barcha sohalarini, jumladan, 5–9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash dolzarb masaladir.

Adabiyotlar tahlili

Uzviylik uzluksiz ta’limning bu bosqichlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishni ta’minlaydi. Pedagogikada ta’limda uzviylikni aniqlashga doir turli yondashuvlar mavjud [2,42-b.]. Qator olimlar (A.N.Andriyanshik, S.M.Godnik, Yu.A.Kustov, A.A.Kiveryal, A.G.Moroz, V.A.Cherkasov va boshqalar) uzviylikni umumpedagogik tamoyil deb, boshqalari (N.N.Oleynik, D.SH.Siddiqova) umumpedagogik qonuniyat deb, ushinshilari esa (A.A.Kiveryalg, V.N.Revtovish, Ya.E.Umborglar) metodologik tamoyil deb hisoblashadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Uzluksiz ta’limning har bir turi, bosqichi uchun boshqa ta’lim shakllari bilan uzviylik va uzluksizlik tamoyili bilan bog‘lanish zarur bo‘lib, oldingisidan oxirgisiga o‘tishda ta’lim jarayoni samarali bo‘lishi o‘qituvchi va o‘quvchidan alohida tayyorga’liklarni talab etadi. Ayni shu muammolar umumiy o‘rta ta’lim maktablari sinflar o‘rtasidagi ta’lim jarayoni, uning mazmunini tashkil etishdagi uzviylik va uzluksizlik masalasini hal etishda ko‘zga tashlanadi [3;78-79-b.].

Shaxsning rivojlanishida uzluksiz ta’lim muhim ahamiyatga ega, o‘quvchilarni kasbiy mehnat faoliyati, ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, shuningdek, keyingi bosqichda ta’limni samarali davom ettirish uchun shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning puxta o‘zlashtirilishini osonlashtiradi va kafolatlaydi [4;54-55-b.].

Tahlillar va natijalar

Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning umumta’lim fanlari asoslarini o‘zlashtirishi nazarda tutiladi. Bilimlarni puxta o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur, mantiqiy xotira va ijodiy tasavvurni muntazam rivojlantirib borish zarur. “Informatika va axborottexnologiyalari” fani bunda katta imkoniyatlarga ega. Shu ma’noda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini izchil, bosqichma-bosqich va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fani asoslari turli bosqichlarda faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalarining ta’lim mazmuniga mos ravishda o‘quvchilarning psixologik va pedagogik xususiyatlariga muvofiq muayyan kurslar doirasida o‘rgatiladi. Ta’lim turlari orasida o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlik va izchillikni o‘rnatish fanlar, boblar, mavzular, o‘quv materiallari orasida uzviylikni ta’minlash asosida amalga oshiriladi [3;12-b.]. Binobarin, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani asoslarini yorituvshi kurslar o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, o‘quv materiallarini turli bosqich ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos holda tanlash, ularning muayyan mantiqiy ketma-ketlik, fanlararo uzviylik hamda izchillik asosida joylashtirish, o‘quv jarayonida uzviylik tamoyilining etakshi o‘rin tutishiga erishish va bu holatni pedagogik jihatdan asoslash muammosini yuzaga keltiradi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan amaldagi tayanch o‘quv dasturlari va o‘quv qo‘llanmalarida:

1) o‘quv materiallarining o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi;

2) mavzular ketma-ketligi, yahni ular o‘rtasidagi uzviylikning ta’minlanmaganligi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

3) nazariy va amaliy axboriy bilimlar bilan umumta'lim fanlar asoslari o'rtasidagi uzviylikning mavjud emasligi;

4) ta'lim yo'nalishlari bo'yisha invariant dasturlarning yaratilmaganligi;

5) mavzularning majmuaviy va tizimli ravishda o'rganilmasligi, amaliy mashg'ulotlar uchun etarli vaqt ajratilmaganligi va boshqa shu kabi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Ushbu kamchiliklarni inobatga olish, respublika va rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimlarida umumiy o'rta ta'lim jarayonida informatika fanlarini samarali o'qitish bo'yisha zamonaviy va innovatsion tajribalarni tahlil qilish orqali maktablarda o'qitiladigan «Informatika va axborot texnologiyalari» fanida mavzular, boblar, fanlar o'rtasida, amaliyot va nazariyot bog'liqligini ta'minlash modellarini va o'qitish uslubiyotini doimiy yangilab borish, ularni pedagogik jihatdan to'g'ri va aniq asoslanish nazoratini yo'lga qo'yish kerak [4;44-45-b.].

Informatika fanining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash masalasi ilmiy-metodik qo'llanmalar, metodik dasturiy vositalarning yaratilishini, shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, amaliy pedagogik-psixologik tadqiqotlarini keng ko'lamda olib borishni talab etadi. Umumiy o'rta ta'limni kompyuterlashtirish, ilmiy-texnik va iqtisodiy rivojlanishning asosiy muhim omili hisoblanadi. Bunda fanni o'qitishning yangi pedtexnologiyalarni ta'limga olib kirish va amaliyotga tadbiq qilish bilim olishning yangi turlarini: fanlararo kompyuter kurslarini, yangi o'quv fanlarini, bilim, ko'nikmaning shakllanish jarayonini, o'qitish va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy yo'nalishlarini, bilim olish sifatini baholashning yangi usullarini yuzaga chiqaradi. Printsipial va dolzarbligi jihatdan yangi o'quv texnologiyalardan foydalanish va o'quvchini rivojlanishiga asoslangan o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish muammosi ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot yo'lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va uning zaminida ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu siyosatning asosiy tamoyillari ta'limning uzluksizligi va uzviyligidir. Uzluksiz ta'lim raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, kadrlar tayyorlash tizimi, Davlat ta'lim standartlarini va uning faoliyat ko'rsatish muhitini qamrab olishi bilan dolzarbdir.

Ta'lim va tarbiyada uzviylik muammolarini tadqiq qilish jarayonida bir necha yo'nalishlar mavjud bo'lib, biz quyida ularning tahliliga to'xtalamiz.

Birinshi yo'nalish A.Ya.Blaus, Sh.I.Ganelin, S.M.Godnik, B.S.Gershunskiy, V.G.Sengrkolarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan va pedagogik jarayonda uzviylikning roli (mohiyati, ahamiyati)ni o'rganish bilan bog'liqdir.

Ikkinshi yo'nalish uzluksiz ta'limning boshlang'ish ta'lim bilan maktabgasha tarbiya muassasasi o'rtasidagi uzviylikni o'rganishga bag'ishlangan.

Uchinshi yo'nalish uzluksiz ta'limning turli bo'g'inlari o'rtasidagi fanlararo uzviylikni o'rganish bilan bog'liqdir.

To'rtinshi yo'nalish o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi uzviylik muammolariga bag'ishlangan.

S.M.Godnikning tahkidlashicha, oliy va umumiy o'rta ta'lim uzviyligi jarayoni o'quv muassasasi xususiyati bilan bog'liq. Yu.A.Kustov uzviylik tamoyilini qo'llash qoidalarini ishlab chiqdi va ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni belgiladi: shaxsni shakllantirish, uning sifatlari va faoliyati turlarining asosiy bosqichlarini aniqlash; shakllanayotgan sifat va faoliyat turlarining

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

boshlang‘ish va yuqori darajalarini belgilash; ma’lum fanni o‘rganish jarayonida shaxsni rivojlantirishning avvalgi va hozirgi holatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettirish; o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan kurs, bo‘lim va mavzuning asosiy elementlarini ajratish; o‘quvchilar ongidagi mavjud bazaviy tushunchalarni faollashtirish; optimal metod birikmasini o‘qitish vositasini, formalarini tanlab olish, shular asosida o‘quvchilarni yuqori tabaqaga o‘tkazish, olgan bilim, ko‘nikma, malaka orasida va hozirgi oladigan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘rtasida bog‘liqlik hosil qilish; yangi tuzilgan tushunchalarni o‘rganish va shu tushunchalar asosida ko‘proq amaliy masalalar echish.

Informatika o‘qitish jarayonida asosiy muammolardan biri E.A.Rakitina fikricha uzviylik – maktabdan oliy ta’limga o‘tishida namoyon bo‘ladi. U maktabdan oliy ta’limga o‘tishda tegishli kursning faqat fan asoslarini o‘rganish ob’ektigina o‘zgarib qolmay, balki, ushbu kurs uchun tayansh fanning umumiy sohasidagi vazifasi va rolini tushunish ham o‘zgaradi. Bu esa o‘rta ta’lim bosqichidan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limiga, undan esa oliy ta’limga o‘tishda informatika fanlarini o‘qitish borasida chuqur muammolar borligini tasdiqlaydi. Uni bartaraf etish uchun ta’limning metodik tizimini yangidan tahrir qilish, xususan, yangi usul, shakl va vositalarni ishlab chiqish hamda undan to‘laqonli foydalanish lozimligini belgilaydi. Demak, umumiy tahlil va qoidalarni hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitishda ta’lim bosqichlari o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlashning metodik tizimini taklif etamiz [5;22-23-b.].

Avvalo, shuni tahkidlash lozimki, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot olib borishda ularning boshqa umumta’lim fanlaridan egallagan bilim va ko‘nikmalariga tayanishi lozim. Bunda o‘quvchilarning fundamental bilim va ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ish bilimni olmagan o‘quvchida yangi bilimni o‘zlashtirish qiyin kechadi. O‘quvchilarning dastlabki bilimlarini tashxis qilish o‘quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejashtirishning zaruriy shartidir. Bunday tashxislar o‘quvchining bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlab beradi va maktab materialini o‘zlashtirish darajasi haqidagi xulosaga ravshanlik kiritadi. Informatika fanidan o‘quvchilarning asosiy bilim, ko‘nikma, malakalari tashxisi birinchi darsdayoq quyidagi metodlar yordamida o‘tkaziladi:

1. Anketa (so‘rov orqali).
2. Test olish orqali.

Anketa olishning asosiy maqsadi quyidagi faktorlarni aniqlashdan iborat: informatika faniga qiziqish; shaxsiy kompyuterdan foydalanish darajasi va hokazolar.

Test olish o‘quvchilarda informatika sohasiga kirish tayyorgarlik darajasi hajmini qandayligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tashxisdan ko‘pshilik o‘quvchilarning informatika fani bo‘yicha talab darajasidagi bilimga ega emasligi va axborot jarayonini tezroq va a’lo darajada qabul qila olmasligi ma’lum bo‘ldi. Yangi metodik tizimni amaliyotga tatbiq etishda test natijalari tahlili bizga yo‘dam berdi va shu tizim asosida yangi bilimlar rivojlantirilib, uzviylik ta’minlanishini ko‘rsatdi. Bu metodik tizim tashxis asosida ishlab chiqildi.

Umumiy o‘rta ta’limda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda ikki ishchi guruhni tashkil etishni taqozo etadi. Bu guruhlarni tashkil etishdan maqsad tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etishdir. Bu guruhlarda mashg‘ulotlar moslashtirilgan o‘quv dasturlari orqali olib boriladi. Unda har bir o‘quvchining xususiyati va informatika fanining har bir bobi bo‘yisha boshlang‘ich bilimlari hisobga olinadi. Bundan tashqari, kompyuter bilan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ishlash har bir guruhda individual amalga oshiriladi. Bu masalalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlariga va uni amalda qo‘llay olishiga qaratilgan. Har bir guruhning o‘zlashtirish qobiliyatiga qarab baholar mezon asosida qo‘yiladi. O‘quvchining o‘qishga intilishini kuchaytirish va past o‘zlashtiruvshi o‘quvchilarning bilimini ko‘tarilishi uchun ularga sharoit yaratib berish, talabni kuchaytirish zarur.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, “Informatika va axborot texnologiyalari”dan laboratoriya darslarida har bir o‘quvchiga individual yondashib materialni soddadan murakkabga tomon olib bo‘ib o‘qitish zarur. O‘qitishga bunday yondashuv o‘quvchining bilimlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga va amalda uzviylikni ta’minlashga, o‘quvchiga qo‘yilgan tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirishga imkon beradi.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash o‘quv dasturlarini gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda boyitib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov A.A., Imomov E.Z. va boshqalar. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi. -T.: Sharq. 2002. -15b.
2. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: O‘zbekiston milliy entsiklorediyasi, 2005. – B. 160.
3. Prosvirkin V.N. Rreemstvennost v sisteme nerrerivnogo obrazovaniya // Pedagogika. – Moskva, 2005. – № 2. – S. 41-46.
4. Kamaltdinova D.T., Sayfurov D.M. Informatika va axborot texnologiyalari // Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: «Tasvir», 2020. – 112 b.
5. Kayumova N.A. Pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika o‘qituvshisini tayyorlashning metodik tizimi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 148 b.
6. Marasulova Z.A. Incessansy and Continuity Training Informatics and Information Technlogies at school // Eastern Eurorean Scientifis Journal, Germaniya Ausgabe. 2019 №1-B.401-405 ISSN:2199-7977 www.auris-verlag.de
7. Marasulova Z.A. Neprerivnost i preemstvennost v obuchenii informatike v obsheobrazovatelnix shkolax // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system./-Praga, February 20-21, 2019. – B. 22-25 http://siosfera.som,e-mail:sosiosfera@seznam.sz
8. Marasulova Z.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash parametrlari // Fizika, matematika, informatika. Toshkent, 2019. №2 –B.41-46.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MAKTABGACHA YOSHDAGILARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY RIVOJLANISHINI O‘ZIGA XOSLIGI

Maxkamov Akmaljon Yuldashevich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Qo‘qon Universiteti Ta’lim fakulteti Ta'lim kafedrasi
E-mail: maxkamov164@mail.ru Tel:+998903447979

Annotattsiya: *Ushbu maqolada inson jismining rivojlanishi uning umri davomida turlicha tabiiy rivojlanish hamda jismoniy daniyat(tarbiya) qonuniyatlar asosida kechishi va bolani tug‘ulgan kunidan uch yoshga to‘lgunigacha nerv, mushak apparatini qo‘zg‘aluvchanligi va uning stabilligi ahamiyatli darajada ortadi, lekin mushaklarining kuchi hali yo‘q hisoblanishi va mushaklari va ularni suyaklarga bog‘lovchilari unchalik yaxshi rivoj lanmaganligiga sabali bo‘g‘inlarining harakatchanligi o‘ta yuqori bo‘lishi xususidagi maьlumotlar berilgan.*

Kalit suzlar: *Maktabgacha yoshdagilar,sog‘lom typmysh tapzi,mushaklar va suyaklarni shikillanisha va usishi,oyok kafti, nerv jarayoni, shpagat, shartli - refleksli aloqalari, tanasining proportsiyasi.*

ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ.

Махкамов Акмалжон Юлдашевич
доктор философских наук (PhD), доцент педагогических наук
Департамент образования, педагогический факультет,Университет Коканд
Электронная почта: maxkamov164@mail.ru Tel:+998903447979

Аннотация: *В данной статье развитие организма человека основано на различных законах естественного развития и физической культуры (воспитания) на протяжении всей его жизни, а со дня рождения и до трехлетнего возраста - возбудимости и устойчивости нервной и мышечной аппарат значительно увеличивается, но сообщается, что их мышцы еще недостаточно сильны, а суставы очень подвижны из-за того, что их мышцы и их соединения с костями развиты недостаточно.*

Ключевые слова: *Дошкольники, здоровый тыпмыш, формирование и рост мышц и костей, подошвы стоп, нервный отросток, расщепление, условно-рефлекторные связи, пропорции тела.*

PECULIARITIES OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS.

Makhkamov Akmaljon Yuldashevich
Doctor of Philosophy (PhD) Associate Professor in Pedagogical Sciences
Department of Education, Faculty of Education, Kokand University
E-mail: maxkamov164@mail.ru Tel: +998903447979

Annotation: *In this article, the development of the human body is based on different laws of natural development and physical culture (education) throughout its life, and from the day of birth to the age of three, the excitability and stability of the nervous and muscular apparatus increases significantly, but the strength of the muscles is not yet considered, and the muscles and their attachment to the bones It is reported that the mobility of the joints is very high due to the fact that the ligaments are not very well developed.*

Key words: *Preschoolers, healthy typmysh tapzi, shaping and growth of muscles and* bones, foot *soles, nerve process, split, conditional - reflex connections, body proportions.*

Kirish

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan isloxotlar yurtimiz kelajagi bulgan yosh avlodni sog'lom typmush tapziga o'rgatish bilan birgalikda shaxsning salomatlik madaniyatini shakllantirishning asosini tashkil etuvchi tamoyillarga mos holda amalga oshirilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagilarning jismoniy rivojlanishida sog'lomlashtirish tadbirlariga birinchi navbatda e'tibor berish, yni tashkil qilish va o'tkazish hozirgi kunning dolzarb macala ekanligini nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti, balki xalq ommasiga singdirishimiz zarur. Chunki sog'lomlashtirish tadbirlarisiz yoshlarda "Sog'lom turmush tapzi"ni shakllantipish kasb etidi.

Adabiyotlar taxlili

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagilarning jismoniy rivojlanishini o'ziga xosligi tarbiyalanuvchilar salomatligini mustahkamlash hamda jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirish borasida qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, olimlardan A.A.Abdullaev, Sh.X. Xankeldiev, T.Usmanxodjaev, B.Saidova, J.Ishtaev, Z.Abdullaeva, X.Botirov, F.Kerimov, A.Ruziev, T.Koshbaxtiev, T.I.Iskandarov, V.I.Isxakov, N.O'rinboev, R.U.Arziqulov,A.Xasanov, S.Uraimovlarning tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagilar sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyati ilmiy-tadqiqot ishlarida izlanishlar olib borilganligi taxlil natijasi asosida kurish mumkin. Lekin maktabgacha yoshdagilarning jismoniy rivojlanishini o'ziga xosligi zaruratini aniqlashni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot metodologiyasi

Maktabgacha yoshdagilarning jismoniy rivojlanishini o'ziga xosligi asosida sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish uta muxim ekanligini va zaruriy harakat faoliyatlari tarbiyalanuvchilarni mushak va suyak bo'ginlarini harakatchanligi yuqori bo'lishi, suyak tizimi va mushaklarini - bog'lovchi apparatini fiziologik pishshiqligini yuqori emasligini e'tiborga olish va jismoniy yuklamani o'ta qat'iy me'yorlashga e'tibor qaratish muhimligini nazarda mustaqil taxlil qilish, individual yutuqlarni namoyon etish, rag'batlantirish, turli tuman o'yinlarni, milliy o'yinlarni o'tkazish va tashkil etish orqali samaradorlikni aniqlash o'rganildi.

Taxlillar va natijalar.

Bolani tug'ulgan kunidan uch yoshga to'lgunigacha nerv, mushak apparatini qo'zg'aluvchanligi va uning labilligi ahamiyatli darajada ortadi, lekin mushaklarining kuchi hali yo'q hisobida.

Mushaklari va ularni suyaklarga bog'lovchilari unchalik yaxshi rivojlanmaganligi sababli bo'g'inlarining harakatchanligi o'ta yuqori bo'ladi. Shuning uchun go'daklar oyog'i barmoqlarini bemalol og'ziga olib kela oladi, lozim bo'lsa so'radi, oyog'i kaftini boshi orqasigacha o'tkaza olishi, "shpagat"ga hech qanday tayyorgarliksiz o'tirg'izish mumkinligini misol qilishimiz mumkin.

Qayd qilinganlardan kelib chiqib ilk bolalik davrining dastlabki oylarida suyak tizimi va mushaklarini - bog'lovchi apparatini fiziologik pishshiqligini yuqori emasligini e'tiborga olish va jismoniy yuklamani o'ta qat'iy me'yorlashga e'tibor qaratish muhimligini nazarda tutishga to'g'ri keladi.

Bu yoshdagilarning nerv jarayoni hali kuchli va harakatchan emasligi tabiiy, lekin shartli - refleksli aloqalari o'ta pishiqligi bilan ajra lib turadi va ularni qayta shakllantirish esa o'ta qiyin kechadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Shuning uchun jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarida bolalarni mashqlarni to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish lozim, chunki shakllangan malaka puhta va o‘zoq muddat davomida mustahkam saqlanadi.

Eng sodda harakatlarni hato o‘zlashtirish keyinchalik nisbatan qiyinroq harakatlarni o‘zlashtirishdan yuzaga keladigan harakat malakalarini hosil bo‘lishida qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi bilan bolaning harakat qobiliyatiga oid iqtidorini to‘la ochilishiga ziyon yetkazishi tadqiqotlar orqali aniqlangan.Bolaning rivojlanishida uning jismoniy faolligi muhim ahamiyatga ega. Aniqlanishicha ikki yoshli bolalarning o‘yg‘oqligi vaqtidagi faol harakatlanishi kun davomidagi vaqtning 70%, uch yasharlarniki esa 60% ni tashkil qilar ekan[50].

Ilk bolalikning 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrida uning **tanasini o‘lchami** nisbatan bir tekis kattalashadi. **Bo‘yining** yillik **o‘sishi** 5-6 sm, **tanasining massasi** yiliga 2kg ga ortadi. Bu davrning oxiriga kelib bo‘yining o‘sishi tezlashadi: bir yilda bola 8-10 smgacha qo‘shadi.

Bunday keskin o‘sish organizmda sodir bo‘layotgan endokrin siljishlar bilan bog‘liq(ikkinchi keskin o‘sish davri 13-14 yoshli bolalarda jinsiy balog‘at davrida sodir bo‘ladi).

Maktabgacha yoshdagilar **tanasining proportsiyasi** e’tiborli darajada o‘zgaradi: tanasiga nisbatan qo‘li, oyoqlari tez cho‘ziladi,tanasiga nisbatan tez o‘sadi. Agar 6-7 yoshga to‘lganda tanasining uzunligi 2 martaga katta lashsa, qo‘li 2,5 martaga, oyog‘i uzunligi 3 martaga kattalashadi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda mashgulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagilar jismoniy rivojlanishlarini uziga xosligi bolalarda oyog‘i barmoqlarini bemalol harakatlana olishi, lozim bo‘lsa yuqoriga va turli xolatlarda harakatlantira olishlari, “shpagat”ga hech qanday tayyorgarliksiz o‘tirg‘izish mumkinligini misol qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar r o‘yxati

I.Normativ-huquqiy hyjjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-con Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-con, 29.04.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantipish chopa-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetaci, 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773)-con.

II.Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

1.Abdullaev A.A., Sh.X.Xonkeldiev Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati –Toshkent, 2006. 231-b.

2. Arziqulov P.U. Sog‘lom tupmush tarzi asoslari 1-2 jild, Toshkent, 2005 yil.

3. Mahkamjonov K.M., Nasriddinov F.N. “O‘zing bajarishga o‘rgan”. T.: Aby Ali ibn Cino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 1996.

4.Maxkamov A.Yu. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi. Darslik.Toshkent,2022 y 18-19-b.

5. Shaping of the healthy lifestyle culture in physical education for our future teachers.ma Yuldashevich - European Journal of Research and Reflection in …, 2020

[1] Холодов Ж.К., Кузнецов В.С., Теория и методика физической культуры и спорта: учебник для студентов учереждений высш. проф. образования/ 12-е изд., исправ.- М.: Издательский центр”Академия”, 2014,-480

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BOLA TARBIYASI BILAN BOG‘LIQ SOTSIOLOGIK TAHLILLAR

Eshchanova Gulnara Narimanovna.
Qo‘qon universiteti
“Ta’lim” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Annatatsiya: *Ushbu maqolada bola tarbiyasi bilan bog‘liq sotsiolistik tahlillar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oila tarbiyasi va MTT hamkorligi masalalariga bog‘liqligi atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *bola tarbiyasi, ota-ona, rivojlanish, ijtimoiylashuv, kitobxonlik, mustaqil fikr, qaror qabul qilish.*

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ

Эшчанова Гульнара Нариманович.
Кокандский университет, Доцент кафедры «Образование», кандидат педагогических наук.

Аннотация: *В данной статье проводится социологический анализ, связанный с детским образованием. Социализация дошкольников зависит от вопросов семейного воспитания и сотрудничества МТТ.*

Ключевые слова: *воспитание ребенка, родители, развитие, социализация, чтение, самостоятельное мышление, принятие решений.*

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF CHILD EDUCATION

Eshchanova Gulnara Narimanovna.
Kokand University
Associate professor of "Education" department, candidate of pedagogical sciences.

Annotation: *This article provides a sociological analysis related to children’s education. The socialization of preschool children depends on the issues of family education and MTT cooperation.*

Keywords: *child upbringing, parents, development, socialization, reading, independent thinking, decision making.*

Kirish

Zamon taraqqiyoti va oilalardagi qulayliklar bola tarbiyasida ota-onalar uchun imkoniyatlar taqdim etish barobarida bir qator muammolarni ham yaratayotgani hech kimga sir emas. Bugungi kunda ko‘pchilik ota - onalar farzandlari tarbiyasida gadjetlar va televideniega bog‘lanib qolishmoqda. Natijada bolalar mehrdangina yiroqlashib qolmay, ijtimoiylashuvdan ham yiroqlashmoqda. Bolalarda muloqotga kirishish qobiliyati sust rivojlanmoqda, o‘z fikrlarini mustaqil bayon etish ko‘nikmalari oqsamoqda. Ko‘pchilk ota-onalarning o‘zlari ham bevosita gadjetlarga bog‘lanib qolayotganligi, kitob o‘qimayotganligi kuzatilmoqda. Bunday ota-onalar bolalarining ta’lim-tarbiyasini mutlaqo MTT va umumta’lim maktablari zimmasidagi ish sifatida qarashadi. Ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ham sustkashk qilishadi. Bunday holatlar pedagoglar uchun qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili

“Bola uchun oila juda muhimdir. Shaxsning kamoloti, hayotga tayyorlanishi va jamiyatning qadriyat mezonlariga mos inson bo‘lib yetishishi, avvalo, oilaga bog‘liq”,[1] - deb yozadi Mine Izgi.

To‘g‘ri, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatlari bolaning tarbiyasiga, ruhiyatiga va rivojlanish kompetensiyalariga ta’sir ko‘rsatadi. Mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va ahllik mavjud bo‘lgan oilada tarbiya topgan bolada o‘ziga ishonch va maqsad sari intiluvchanlik yuqori bo‘ladi, ular hayotda tez muvaffaqiyatga erishadilar. Bunday muhitdan bebahra tarzda kata bo‘lgan bolalar esa tajovvuzkor,asabiy, odamovi bo‘lishadi.

Tadqiqotlar metologiyasi

Ta’lim- tarbiyada ota-ona va oila a’zolarining hamkorligi bolalarda mavjud bo‘lgan muammolarni yengib o ttishlaiga va o‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bolani o‘zini namoyon qilishiga imkon beruvchi omil hisoblanadi. Chunki bolada tevarak-atrofni tanish va bilimlarini boyitish bevosita kattalarga taqlid asosida rivojlanadi.

Oilada bola tarbiyasiga sabr-toqat bilan yondashish,bolada boshqalarning, do‘stining muvaffaqiyatidan ham quvonish, hasad qilmaslik, quvonchni birga baham ko‘rish tuyg‘ularini, muvaffaqiyatdan quvonib, mag‘lubiyatda chidamli bo‘lishni o‘rgatish zarur. Kitoblardan zavq olishni, kitobxonlikni kamol toptirish, buning uchun esa, albatta oat-oanalarning o‘zlari bolalari juda kichkinaligidan ularga kitoblar o‘qib berishlari va kitoblar sovg‘a qilishlari talab etiladi. Shuningdek bolalarni gadjetlarga bog‘lanib qolmasliklarini ta’min etish maqsadida turli xil konstrurktorlik o‘yinchoqlarini yasashga o‘rgatish, legolardan turli narsalar yasashga o‘rgatish lozim.[4] Bolalarga o‘yinchoqlar tanlaganda ham bu o‘yinchoqlarni bola rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshqalarni faqatgina o‘yinchoqlar magaziniga emas, balki, kitob magazinlariga ham olib borish, o‘zlari uchun kitob tanlashga o‘rgatish va yordamlashish lozim.

Tahlillar va natijalar

Ota-onalarning bolalriga kitob o‘qib berishi, kitobdagi so‘zlar ma’nosini erinmasdan tushuntirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga ovoz tembrini o‘zgartirib turli ohanglarda o‘qish talab etiladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda bu davrda zehniyat kuchayishi bilan birga ularda beqarorlik, diqqatning tarqoqligi ham kuzatiladi. Shularni inobatga olgan holda bolalarga kitob o‘qib berayotgan paytda iloji boricha harakatlar va mimikalardan foydalanib, turli obrazlarni turli ovozlarda o‘qish bolaning diqqatini tortish bilan birga unga zavq beradi. Bola kitob qahramonlari bilan birga quvonadi va qayg‘uradi. Bu esa bolada o‘zgalarning quvonch va tashvishlarini anglash va ularga hamdard bo‘lish ko‘nikmalarini kamol toptiradi. Brdi-yu, bolaga kitob o‘qib berilayotganda u tinglamayotgan bo‘lsa, bola bilan kitobdagi rasmlar yuzasidan suhbatlashgan yaxshi. Shuni ham unutmaslik kerak-ki bolalar uchun kitob tanlaganda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish lozim. Umuman, maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘qib berish uchun tanlangan kitoblarning qog‘ozlari yuqori sifatga ega bo‘lishi, rasmlari va harflari katta bo‘lgani, ma’qul va ranglar yorqinligiga ham e’tibor qaratish zarur.

Ota-ona bolalariga kitob o‘qib berar ekan, bola asar voqealarini qay darajada idrok etishiga ham alohida e’tibor qaratishi talab etiladi. Bola kitobdagi voqealarni idrok etar ekan, unda tasavvur va tafakkur rivojlanib, kitobga mehr ortadi va shu tariqa kitob o‘qish uning hayotiy ehtiyojiga aylanadi, o‘zida ham kitob o‘qishga qiziqiz tuyg‘ulari orta boradi, bolaning so‘z boyligi oshadi. Har gal bolaga kitob o‘qib berganda unga notanish bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini bolaga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

erinmasdan tushuntirib boorish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalarga she’rlar o‘qi b berilganda ayrim so‘zlarga ohangdosh so‘zlar toptirish ham bola lug‘atini boyishiga xizmat qiladi. Bolalarga kitob o‘qib berish jarayonida ularning asar qahramonlari haqidagi fikr-mulohazalariga ham diqqat qilish, ularni tinglash, asar yuzasian bildirgan ustaqil qarashlarini hurmat qilish lozim.

Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz ko‘pchilik hayotda mustaqil qaror qabul qilishda ikkilanishadi, qiynalishadi, oqibatda bunday insonlar uchun boshqalar qaror qabul qilishadi. Shuning uchun bolalrga kichikligidan qaror qabul qilishni o‘rgatish zarur. Bu bolani boshqalar bilan hisoblashmay ish ko‘rishi mumkin degan xulosadan yiroq tarzda, uning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ish bo‘lib, bolaning qarorida xatolik bo‘lsa uni bosiqlik bilan “Seni qaroringni hurmat qilaman, ammo mana bunday qarorga kelsang yanada yaxshi bo‘lardi”,- deyish orqali bolaga xatosini to‘g‘ri ko‘rsatish bilan birga o‘z fikriga ega bo‘lish hurmatga loyiq ish ekanligini anglatish mumkin.[2] Bolada mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanishi bevosita bilimlarining chuqurligi bilan bog‘liqligini anglatish uchun har qanday qarashlarni ilmiy asoslar bilan tushuntirish, bilimning katta kuchga egaligini anglatish ham bola tarbiyasida juda muhimdir.

Keyingi paytlarda matbuotda va internet tarmoqlarida ko‘plab tanqid qilinayotgan insoniy qusurlardan biri “xo‘p bo‘ladichilik”dir. Bunday insonlarni nima uchun tanqid qilishadi, chunki ularning o‘z fikri va qarashlari yo‘q, yoki ularga berilgan topshiriq xatoligini anglashsa ham “buni bajarmayman, chunki, bu xato”, deyishga jur’ati yo‘q. Bunday insonlar jamiyat uchun ham atrofdagilar uchun han manfaat keltirmaydi. Kerak bo‘lsa o‘zlarining haqligini ham isbotlasha olmaydi. Shuning uchun farzand tarbiyasida jur’atlilikka alohida e’tibor qaratish, o‘zi haq bo‘lgan vaziyatlarda uni isbotlay olish ko‘nikmalarini kamol toptirish lozim. Bu bilan bolada o‘zini anglash va hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib, o‘ziga ishonchni tarbiyalanadi.

Umuman olganda maktabgacha yoshdagi bolalarga ota-ona tomonidan kitoblar o‘qib berilishi, avvalo, bolaning ma’naviyatini boyitib, o‘zligini anglashiga yo‘naltiradi. Ikkinchidan, keyinchalik bola maktabga borib o‘qish va yozishni o‘rganganidan keyin uning o‘zida kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni ortib borishiga zamin b‘ladi.

Bolaga kattalardek munosabatda bo‘lsak-da ulardan kattalardek harakatlarni kutmasligimiz zarur, chunki unda hali tajriba yo‘q. Bolalarni hurmat qulish, ularning borligi ota-ona uchun cheksiz quvonch berishini his qildira bilish zarur. Ba’zi ota-onalar bolasi biror ishni uddalay olmasa uni masxara qilishadi va kamsitishadi, bu juda noto‘g‘ri ish bo‘lib, ertaga bu ota-onaning o‘ziga qaytadi va bolaning ota-onaga bo‘lgan hurmatiga putr yetkazadi.[5] Bolaning har bir savollariga ota-ona sabr-toqat bilan atroflicha javob berishi, bola o‘z fikrlarini bildirayotganda uni oxirigacha tinglashga odatlanishi lozim. Bolaga baqir-chaqir qilmaslik, oiladagi muammolarning alamini undan olmaslik kerak.

Yana bitta masalani ko‘zdan qochirmaslik zarurki, ayrim oilalarda ota-onalar o‘zaro mojaralarini bolalar oldida oshkor qilishadi, kichkina muammo uchun ham bir-birlari bilan tortishib janjallashishadi. Bunday sharoitda katta bo‘layotgan bolada ruhiy siniqlik va rivojlanishda tengdoshlaridan ortda qolish kuzatiladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlari olida imkon boricha bir-birlariga baqir-chaqir qilmasliklari, har qanday sharoitda o‘zlarini tutib olishga intilishhlari lozim. Chunki ular o‘zlarining janjal va mojorolari oqibatida dilbandlarining rivojlanishiga katta zarar yetkazadilar. Bilamizki, kichik yoshdagi bolalar o‘ta taqlidchi bo‘ladi. Ota-onalari o‘rtasidagi janjal va bema’ni bahslarning guvohi bo‘lgan bola berahm, tajavvuzkor bo‘lib o‘sadi, yoki ota-onaning tez-tez bo’lib turadigan janjal va nizolari natijasida qo‘rqoq bo‘lib,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

atrofdagilarga ishonch hissini yo'qotadi. Oqibatda bunday bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvi ancha qiyin kichadi. Bu haqda psixolog X.A.Maslou kattalarni sotsializatsiyasi bolalarning sotsializatsiyasining davomi sifatida emas, balki bolalik davridagi psixologik belgilar yo'q qilinadigan jarayon sifatida qaraladigan nazariyani taklif qildi: bolalik miflarining rad etilishi (masalan, hokimiyatning qudrati yoki bizning talablarimiz kerak degan fikr). [3]

Ma'lumki, har qanday oiladagi ota-onalar farzand tarbiyasida albatta yaxshilikni niyat qilishadi, ammo ularda pedagogik va psixologik bilim yetishmasligi tufayyli ular tanlagan uslub va usullarda xatolik bo'ladi. Shuning uchun ham har bir ota-ona bola tarbiyasida albatta ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik asosida ish yuritishsa muvaffaqiyatlarga erishadilar.Ota-ona bolasi bilan ochiq yuzlilik bilan bolasining ko'zlariga mehr bilan tikilgancha muloqotga kirishmog'i lozim. Bunday muloqot bolada tevarak-atrofdagi kishilarga mehr-muhabbatni va o'ziga ishonchni kamol toptiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ota-ona bolasining aqliy, jismoniy, axloqiyjihatdan yetuk bo'lishini xohlar ekan, avvalo bunday tarbiyani o'zlarida kamol toptirishlari kerak. Ota-onalar o'zaro muloqotda so'zlarni to'liq va to'g'ri talaffuziga e'tibor berishlari, oilada har bir ishni o'rinli tashkil qilishlari, xususan bo'sh vaqtdan samarali foydalanish,dam olishni to'g'ri tashkil etishda farzandini ham bo'sh vaqtlarini samarali o'tishi uchun kichkinaligidanko'maklashib, ko'nikma va malaka hosil qilib borishi, ijodiy rejalarini ro'yobga chiqarish, oilaning iqtisodiy muammolarini hal etish, badiiy adabiyot bilan oshno bo'lishga o'rgatishlari va bolalarda sog'lom to'g'ri tashkil qilingan turmush tarzini shakllantishga zamin yaratadi.[6] Natijada bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloiga yoki maktabga borganlarida yangi hayotga tez moslashadilar, yangi ma'lumotlarni idrok etish motivatsiyasi boshqa tengdoshlaridan farq qiladi.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'pgina hollarda boladagi hal qiluvchi intellektual salohiyat kurtaklarini rivojlanishida ota-onalar ham muhim rol o'ynaydi. To'g'ri bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgach turli xil tashqi ta'sirlarga uchraydi, bu ta'sirlarni muvaffaqiyatli yengib o'tishida un ga ota-onasi bilan birga pedagog-tarbiyachining ham yaqindan ko'magi zarur, chunki yangi muhitdagi hissiy ta'sirchanlik tufayli yuzaga kelgan ruhiy muhit bola intellektining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashuvida MTT pedagog-xodimlari bilan birga ota-onalar hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalar bilan tez-tez tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirib turish, bunday paytlarda ularga o'simliklar va hayvonot olami haqiga ma'lumotlar berish,tabiat hodisalari va tilsimlarini anglashlariga yordam berish, tabiat go'zalliklaridan zavqanish bilan birga uni asrash borasida bilimlarini boyitish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mine Izgi "O'g'limni tarbiyalayapman". Toshkent, "Turon zamin ziyo" 2014yil.
2.Sheniz Yujel. "Go'daklikdan yigitlikka qadar". Toshkent "Yangi asr avlodi" 2021yil
3. X.A.Маслоу "Психология бытия"."Академический проект" 2022 год.
4.G.N.Eshchanova (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik innovatsiyarning o'rni. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 82-85.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. G. Eshchanova (2023). Sociology of preschool education: distinctive characteristics. Science and innovation, 2 (B3), 333-337. doi: 10.5281/zenodo.7764475
6. G. Eshchanova (2023). Socialization of preschool education. Science and innovation, 2 (B1), 173-176. doi: 10.5281/zenodo.7542060
7. Makhkamov, Akmal Yuldashevich. "Improving the quality of education through the use of the concept of "blended learning" in the organization and physical aktivity in higher education institutions." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.12 (2019): 284-288.

QORADARYO VODIYSI O'SIMLIKLARI.

[1]Muminova Ra'noxon.Nabijonovna, [2]Mahkamov G'ulomjon Ma'murovich'
[1]Qo'qon davlat pedagogika instuti k.b.n,dosent
[2]Qo'qon davlat pedagogika instuti o'qituvchi
[1]ranokhxon29gmail.com [2]mahkamovg0@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Qoradaryo vodiysini o'rta va quyi qismining hozirgi ekologik xolati, unga antropogen ta'sirning salbiy va ijobiy jihatlari, o'ziga xos o'simlik qoplamining tahlili, hayotiy shakllari hamda ho'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, Andijon viloyati, Qoradaryo, taksonomik, antropogen, ekologik, tog', adir, tuproq, to'qay, o'simlik, hayotiy shakl.*

РАСТЕНИЯ ДОЛИНЫ КАРАДАРЬЯ

[1]Муминова Ранохон.Набижоновна, [2]Махкамов, Гуломжон.Маъмурович.
[1]Кокандского государственного педагогического института к.б.н.доцент
[2]Кокандского государственного педагогического института учитель
[1]ranokhxon29gmail.com
[2]mahkamovg0@gma

Аннотация: *В статье освещяется о текущем экологическом состоянии средней и нижней части речной долины Карадарьи, отрицательных и положительных аспектах антропогенного воздействия на нее, таксономических особенностях, жизненные формы и важность растительного покрова, адаптированного к условиям.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, Карадарья, таксономический, антропогенный, экологический, гора, почва, растение, жизненная форма.*

PLANTS OF THE KARADARYA VALLEY

[1]Muminova Ranokhon. Nabijonovna, [2]MakhkamovGulomjon Mamurovich.
[1]c.b.s.docent Kokand State Pedagogical Institut,
[2]teacher Kokand State Pedagogical Institut
[1]ranokhxon29gmail.com,
[2]mahkamovg0@gmail.com

Annotation: *The article highlights the current ecological state of the mi ddle and lower parts of the Karadarya river valley, negative and positive aspects of anthropogenic impact on it, taxonomic features, life forms and the importance of vegetation adapted to the conditions.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Keywords: *Fergana Valley, Karadarya, taxonomic, anthropogenic, ecological, mountain, soil, weaving, plant, life form.*

Kirish

Andijon viloyati Respublikamizning boshqa viloyatlariga nisbatan chuchuk suv resurslariga boy. Viloyat daryolari asosan yog‘in-sochindan, ko‘p yillik qor muzliklaridan suv oladi. Eng katta daryosi Qoradaryo.

Qoradaryo (qirg‘. Qora-Daryo, O‘zb. Qoradaryo, Qoradaryo) - Qirg‘izistonning osh viloyatidagi, O‘zbekistonning Andijon va Namangan viloyatlaridagi Daryo, Sirdaryo daryosining chap tomoni. Sirdaryoga quyiladigan yeng yirik daryolardan biri.

Qoradaryoning uzunligi 180 km. Havzasi maydoni 30,100 km2. Qoradaryo qor va muzliklar suvlari bilan oziqlanadi. O‘rtacha yillik suv iste’moli 136 m3/ s, bu nuqtada kuzatilgan yeng yuqori oqim 265 m3/s, bu nuqtada yeng past oqim 68,4 m3/s. Yillik oqimning 55% martdan iyulgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi Daryo iyun oyida yeng ko‘p, qishda yeng kam oqadi. [1].

Tadqiqot metodlari

O‘simliklar qoplamining antropogen transformatsiyasini baholash V.L.Kotelnikov metodiga asosan amalga oshirildi. Olib borilgan geobotanik tadqiqotlarda o‘simlik qoplamining degradatsiyasi va transformatsiya darajasini belgilashda quyidagi belgilar hisobga olindi:

a) chorva mollarini o‘tlatilgan maydonlardagi o‘simliklarning umumiy holati, ya’ni qo‘y-echkilar tomonidan o‘simliklarni payhon bo‘lishi, tuyoqli podalarning doimiy xarakatidan hosil bo‘lgan so‘qmoq yo‘llarni mavjudligi va hokazo:

b) o‘simlik populyatsiyalarining tarkibi va tuzilishiga, ya’ni yem-xashak bo‘ladigan turlarning kamayishi va ularning holati, efemer va kserofitlarning ko‘payib ketishi, chorva mollari yemaydigan turlarni, zaxarli, adventiv o‘simliklarning ko‘payishi:

v) daraxt, chala buta va buta hayotiy shaklga ega o‘simliklarning holati, ularning soni, o‘sish va rivojlanishi ko‘payishi:

g) tuproqlarning tabiiy va antropogen erroziyasi va ularning xarakteri;

d) endem va kamyob o‘simlik turlarini mavjudligi, ularning vegetativ holati.

Tahlil va natijalar

Qoradaryo – Farg‘ona va Oloy tizmalaridan boshlanuvchi Tor va Qorag‘o‘lcha daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Shundan so‘ng unga faqat ikkita yirik irmoq, o‘ngdan Yassi va chapdan Qurshob daryolari o‘z suvini quyadi. Qoradayoning bundan keyingi irmoqlari bo‘lgan o‘ngdan Ko‘gart, Qorautur, Maylisoy va chapdan Oqbo‘ra ham Aravon daryolarining suvi sug‘orishga ishlatilganligi sababli Qoradaryoga ko‘p vaqt yetib kelmaydi. Faqat sug‘orishdan ortgan suvlar Qoradaryoga quyiladi[2].

Ma’lumki Andijon viloyatiga nam havo oqimlari asosan g‘arb tomondan keladi. Qoradaryoning suv yig‘ish havzasi bo‘lgan Farg‘ona tog‘i bu oqimlarga ko‘ndalang joylashganligi sababli 500-700 mm ni tashkil etadi. Ba’zi yillari bundan ham ko‘p. SHuning uchun ham Qoradaryoning suv yig‘adigan havzasining har 1 km^2 maydonidan sekundiga 10 metrdan ko‘proq suv to‘g‘ri keladi.[3]

Qora daryo suvining kanallar yordamida sug‘orishga olinishi natijasida, Kuyganyor shaharchasidan o‘tgandan so‘ng, ekinlar eng ko‘p sug‘oriladigan davrda, suvi ozayib ketadi. Lekin shunga qaramasdan Norin daryosi bilan qo‘shilish joyida anchagina suv oqadi va bu suvlar

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yer ostidan daryoga keladigan hamda tashlama suvlardan iborat. Qoradaryo suvi harorati qish oylarida -1 -7 ^{0}S, yozda +15 +20 ^{0}S bo‘ladi. Suvi eng issiq bo‘ladigan oy iyulь-avgustь oylaridir.

Qoradaryo suvining o‘rtacha ko‘p yillik loyqaligi 1,7 kg/m^3 ni, ba’zi yillari esa 4,2 kg/m^3 ni tashkil etadi. Loyqalar eng ko‘p aprelь, avgust oylarida oqib o‘tadi.

Qoradaryo tabiat unsurlari hususiyatlari uning hamma qismida bir xil bo‘lmasligi, relьefning murakkabligi, litologik tuzilishi va gidrologik sharoitining hilma-xilligi, iqlim va o‘simliklarning mavjudligi har xil tuproq turlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Qoradaryoning tog‘li qismida tuproq turlari uchta mintaqasini hosil qilgan: bo‘z tuproqli adir mintaqasi, qo‘ng‘ir tog‘ o‘rmon mintaqasi va och tusli qo‘ng‘ir o‘tloq baland tog‘ mintaqasi. Qoradaryoning tog‘ oldi tekislik qismida, daryoning baland qayirlarida past tog‘lar etaklarida och tusli bo‘z tuproq keng tarkalgan. Bu joylarda tuproq hosil qiluvchi jins lyoss va keltirma konuslarning allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari hisoblanadi. Och bo‘z tuproq tiniq bo‘z tuproqdan chimli ustki qatlami och bo‘z tusligi, chirindi miqdorining kamligi, korbonatli qatlam yuzasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Daryoning adir qismida bo‘z tuproq mintaqasi joylashgan. Bu yerda ham yog‘in miqdori ancha yuqori bo‘lganligi sababli o‘simliklar turi ko‘payib, qalin o‘sadi. Bular o‘z navbatida tuproq paydo bo‘lish jarayoniga, binobarin, tuproqdagi chirindi miqdoriga ta’sir etadi. Bo‘z tuproqli adir mintaqasida yana o‘tloq-bo‘z, batqoq-o‘tloq, bo‘z, botqoq-bo‘z kabi gidromorf tuproq turlari ham uchraydi. Bunday bo‘z tuproq turlari Qoradaryoning eski yuqori qayirlarida, delьtalarida, tog‘ etaklaridagi tekisliklarning quyi qismlarida joylashgan. Qoradaryoning quyi qayirlarida o‘tloq tuproqlar ham uchrab tarkibida chirindi miqdori 2% gacha boradi. Xozirda bu tuproq turi ko‘p joylarda sug‘oriladigan o‘tloq tuproqqa aylantirilgan.

Daryo vodiysida ko‘plab to‘qayzorlar shakllangan bo‘lib, ularning xozirda juda kam qismi qolgan. Shunday bo‘lsada onda – sonda qolgan o‘simliklar to‘qayzorlarni yana qayta tiklanishiga bo‘lgan umidni uyg‘otadi.

To‘qay va to‘qayzor o‘simliklari deyilganda mahalliy xalq daryo bo‘ylariga yaqin bo‘lgan joylarni va u yerlarda o‘suvchi o‘simliklarni tushinishadi. To‘qayzorlar ko‘p joylarda daraxt, buta, chala buta, va o‘tlarning birgalikda o‘sishidan tashkil topgan. Ba’zan chirmashib o‘suvchi (liana) o‘simliklar ham uchraydi. To‘qayzorlar O‘rta Osiyoning, jumladan O‘zbekistonning cho‘l mintaqasigacha bo‘lgan daryo bo‘ylarida uchraydi. Lekin uning asosiy maydoni daryolarning o‘rta va quyi oqimi bilan bog‘liqdir.

Tog‘ mintaqasida bunday maydonlar ingichka o‘zantarmoq hosil qilib yotadi. Tog‘ oraliqlari va soylardan oqib o‘tadigan daryo bo‘ylarida turli o‘simliklar daraxt, buta va chala butalar ko‘p o‘sadi. Ulardan tol, terak, qayin, tog‘olcha, do‘lana, kamxastak, onda-sonda yong‘oq, olma, jiyda kabilar o‘sadi. Bulardan tashqari, itburun, zirk kabi butalar ham ko‘p uchraydi. Bu joylarda bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklardan agrostis, tomirdori, g‘ovpechak, kendir, qiyoq, yalpiz va boshqalar daryo yoqalarida chim hosil qiladi.

Xulosa

Adir mintaqasidagi to‘qaylar ancha katta-katta maydonlarni tashkil etadi. Chunki ba’zan suv kelib daryolar toshganda ular kengayib, qirg‘oqlargacha suv chiqadi. Bu mintaqadagi to‘qaylarda daraxtlarga nisbatan buta va chala butalar (jangak, turang‘il, tol, chakanda, yulg‘un) ko‘p yillik o‘simliklardan jiyda, oq nilufar, kovar kabilar ko‘p o‘sadi. Bulardan tashqari yantoq, qizilmiya, turli astragallar hamda bug‘doydoshlar oilasidan ham ko‘pgina o‘simliklar o‘sadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

To‘qaylarning bo‘z va qo‘ng‘ir tuproqdan iborat yuqori mintaqalarda toshloq maydonlar ham uchraydi. Unumdor tuproqlardan qishloq ho‘jaligida dexqonchilik uchun, chorva mollarini boqishda ma’lum darajada yaylov sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi — Toshkent, 2000—2005.
2.P. Baratov. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” T.: 1996. – 440 b.
3. R.V. Kamelin. Flora Sырdarьinskogo Karatau. – L.: Nauka, 1990. – 146

OROL DENGIZI FOJEASINING GLOBALLASHUVI

Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Tarix” kafedra dotsenti, Tarix fanlari doktori (DSc)
Raximova Gulchexra Sobirjonovna
rakhimova.80@bk.ru

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistondagi sanoat korxonalarining kimyo, qurilish, neft, gaz sanoat turlari kengayishi natijasida qishloq xo‘jaligi sanoati majmuasi shakllantirilishi, tabiiy ыazilmalarining qazib olinishi natijasida atrof-muhitning iqlim o‘zgarishlariga olib kelish sabablari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanoat, korxona, neft, metallga ishlov berish, ko‘mir, gaz, qurilish, atrof-muhit, salomatlik, iqlim o‘zgarishi.*

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ ТРАГЕДИИ АРАЛЬСКОГО МОРЯ

Кокандский государственный педагогический институт
Доцент кафедры истории, доктор исторических наук (DSc)
Рахимова Гульчехра Собиржоновна
rakhimova.80@bk.ru

Аннотация: *В статье рассмотрены причины изменения климата в окружающей среде в результате годы Второй мировой войны, промышленных предприятий в Узбекистан, расширение химической, строительной, нефтяной, газовой промышленности, формирование агропромышленного комплекса. сложные, а добыча природных ресурсов объясняется на основе исторических источников.*

Ключевые слова: *промышленность, предприятие, нефть, металлообработка, уголь, газ, строительство, окружающая среда, здоровье, изменение климата.*

GLOBALIZATION OF THE ARAL SEA TRAGEDY

Kokand State Pedagogical Institute
Associate Professor of History Department, Doctor of History (DSc)
Rakhimova Gulchekhra Sobirjonovna
rakhimova.80@bk.ru

Abstract: *The article discusses the causes of climate change in the environment as a result of the years of the Second World War, the relocation of industrial enterprises to Uzbekistan, the expansion of the*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

chemical, construction, oil, gas industries, the formation of the agro-industrial complex. complex, and the extraction of natural resources is explained on the basis of historical sources.

Key words: *industry, enterprise, oil, metalworking, coal, gas, construction, environment, health, climate change.*

Kirish

Dunyoda oziq-ovqat muammosini hal etish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, shu maqsadda ko‘plab yer maydonlarning o‘zlashtirilishi, ularni sug‘orish me’yorlarining haddan oshib ketishi, bu ishlardagi mas’uliyatsizlik kabi holatlardan kelib chiqqan oqibatlar bugungi kunga kelib bir qator davlatlar, xususan sovet davlati hukmronligi yillaridan qolgan myeros bo‘ldi. Ittifoq respublikalardan biri bo‘lgan O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muammolarning asosiy sababchilardan biriga aylandi. XX asrning 50-yillaridan keyingi davrda katta maydonlarning o‘zlashtirilishi, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining keng miqyosda rivojlanishi bilan bog‘liq atrof-muhitga salbiy ta’sirini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmasdi[1]. Orol dengizi mahalliy muammolar doirasidan chiqib, butun dunyo muammosiga aylandi. Hozirgi kunda jahonning ko‘plab mamlakatlari O‘zbekistonning Orol dengizi buzilgan ekotizimlarni sog‘lomlashtirish va uning atrof-muhiti ijtimoiy, ekologik muammolarini oldini olish bo‘yicha YUNESKO, Gyermaniya, Fransiya bilan hamkorlik qilinmoqda, Turkiya bilan muzokaralar olib borilmokda.

Metodologiya

XX asrning 60 yillarida Sirdaryo va Amudaryo havzasi suv resurslarini noto‘g‘ri boshqarish, ya’ni Orol dengizi muvozanati uchun unga qo‘yiladigan o‘rtacha yillik 56 kilometr kub suv hajmining (barqarorlik imkoniyatidan katta miqdorda) yo‘l-yo‘lakay boshqa maqsadlarga olib qolinishi, aholi soni, urbanizasiya masshtablari va yerlarni intensiv o‘zlashtirish, ekologik oqibatlarni hisobga olmasdan yirik gidrotexnik va irrigasiya inshootlarni qurilishi Orol dengizining qurushiga olib keldi. Oqibatda Orolbo‘yi mintaqasi o‘lik cho‘lga aylanib, ekologik degradasiya jarayoni davom etdi.

Adabiyotlar taxlili

Orolbo‘yidagi ekologik vaziyatning keskinlashuvidagi paxta yakkaxokimligi, bo‘z yerlarni o‘zlashtirilshi, bilan bog‘liq masalalarni tarixchi tadqiqotchilar tadqiq etganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida Orolbo‘yi hududlarida atrof-muhiti, aholining ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jiddiy muammolarning sabab va oqibatlari yoritib o‘tildi[2]. Ularda Orol dengizining ekologik muammolarini qo‘shni davlatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida yuzaga keltirgan inqirozlari, fojealari borasidagi masalalarni tadqiq etildi. Orolbo‘yidagi vaziyatni yaxshilash, muammolarga yechim topishda ommaviy harakatni vujudga keltirish, davlatlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, Orol dengiziga suvni etib kelishini ta’minlash kabi masalarni yoritib o‘tildi. Lekin, tadqiqotlarda Orol dengizi hududlarida joylashgan sanoat korxonalarining ekologik vaziyatga ta’sirlari borasidagi muammolarni yechimiga esa e’tibor berilmadi.

Mavzuna o‘rganishda turli adabiyot va ilmiy nashrlar mavjud bo‘lib, ularda Orol dengizining fojeali qurib borishi bo‘yicha tadqiqotchilar o‘z fikrlarini ilmiy asoslar bilan yoritib o‘tganlar. Jumladan, A.Berdimuradov o‘z tadqiqotlarida Orol dengizining qurishida qishloq xo‘jaligidagi paxta yakkaxokimligini avjlanishida Amudaryo va Sirdaryo o‘zanlaridan olingan behisob suv zahiralarining olinishi sabab bo‘lganligini yoritib beradi[3]. Tarixchi B. Bekimbetov ishlarida Orol dengizining qurishida Amudaryoning suv havzalari asosiy ahamiyatga ekanligini ta’kidlab o‘tadi[4].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Natijalar

Orol dengizidan dehqonchilik, xo‘jalik iste’mol suv ta’minoti, sanoat ishlab chiqarish, energetik iste’moli uchun foydalanishda iste’molchilar o‘rtasida bir kelishuvga yerishish, ekologiya, yer usti va yer osti manbalarida yaxshi sifatli suv ehtiyojlari uchun, mavjud aholi o‘sishi sur’atlarini hisobga olib, bo‘lajak avlodlar uchun qulay sharoitlar barcha omillarini saqlab qolgan holda, suv resurslarini samarali taqsimlash mexanizmlari va tadbirlarini ishlab chiqish muammosi mamlakatning umumiy dasturlangan rejalariga kiritilmadi. 1950-yillarda Orol dengizidan yiliga o‘rtacha 25-27 mingtonna qimmatli baliq turlari ovlangan, 2 mln. donagacha ondatra muynasi tayyorlangan, baliq konservalarini ishlab chikarish o‘rtacha 18-20 mln. shartlibankani tashkil etgan.[5] Sanoatning o‘sishi 1960-yili 1940-yilga nisbatan sobiq SSSRda 524 foizni, O‘zbekistonda 421 foizni, Qoraqalpog‘istonda 272 foizni tashkil etdi[6]. Sanoat korxonalarni quvvat manbai Sirdaryo va Amudaryo suvlari hisobiga olib borildi. Jumladan, 1963-yili Taxiatash GRESi sekundiga 48 ming kvattlik elektro-stansiya barcha Shimoliy tumanlarga, Turkmanistonning sanoat zonalariga elektr energiyasi bilan ta’minladi. 1965 va 1969-yillari 100 ming kvattlik, 1974-yili 110 ming kvatt, 1975-yili 1910,7 mln. kvatt sanoatga yetkazildi. Qoraqalpog‘istonda 1975-yili 1910,7 mln. kvatt, Andijonda 115 mln. kvatt, Xorazmda 19 mln kvatt Samarqandda 204 mln. kvatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi[7]. Bu jarayonlar 1961-yildan boshlab Orol dengizi tarkibiga faol antropogen ta’sir kilish davri boshladi[8]. Sirdaryo havzasiga Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, So’x, Isfara, Oqbo‘ri, Isfayramsoy, Shahimardon, G’ovasoy, va Kosonsoy kirsa, Amudaryo havzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, To‘palondaryo, Shyerobod daryolari kiradi. Amudaryo ham Sirdaryoning ham asosiy o‘zani o‘zining o‘rta va quyi oqimlari doirasidagina respublika hududidan oqib o‘tadi.

Taxlillar

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda eng muhim qadam bu sanoatni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu bosqich Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin kuchayib bora boshladi. Paxtachilik va qishloq ho’jaligining boshqa tarmoqlarida kompleks mexanizasiyalashni keng joriy qilish, irrigasiya qurilishini yaxshilash, shuningdek xo‘jalikni kompleks rivojlantirishni ta’minlash maqsadida energetika va yoqilg‘i sanoatini, mashinasozlikni (ayniqsa qishloq xo‘jalik va yo‘l-irrigasiya mashinasozligini), rivojlantirish binokorlik materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoatni va boshqa tarmoqlarni yanada yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Sanoat korxonalarining faoliyatida elektr quvvati muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkent, Navoiy, Taxiyatosh GRESlari qurildi. O‘lkadagi suv resurslaridan katta hajmda foydalanish boshlandi. Kimyo, rangli metallurgiya sanoatlari rivojlanishi ham ishlab chiqarish jarayonlarida suvdan foydalanilishi, suvni isrof bo‘lishini orttirib yubordi. Sanoat korxonalarida suvlarni me’yoridan ortiq ishlatilishi, chiqindi tashlamalarni daryolarga tashlab kelinishi yildan-yilga Orol dengizi suvini qisqarishi va ifloslanishiga olib keldi. Irrigasiya kanallari va suv omborlari, yangi yerlarni o‘zlashtirishlar natijasida XX asrning 60-yillarida Andijon viloyati Sirdaryo havzasi suv omborlari hajmi 1,75 kub metrda, Farg‘ona viloyati suv omborlari hajmi 0,25 kub metrda, Namangan viloyatida 0,23 kub metrda suv sarfladi[9]. 1980-yilga kelib, O‘zbekistonda 40 dan ortiq suv omborlari bunyod etildi. Eng yirik suv omborlari Sirdaryo oqimidagi Andijon viloyati hududlariga joylashtirildi. Sirdaryo suvlarining ko‘plab suv omborlari tomonidan tarqatilishi Orol dengiziga borib tashlanuvchi suvlar hajmining kamayishiga sabab bo‘ldi. Suvlarning g‘oyat keskin darajada ko‘p taqsimlanishi, ekologik fojea: Orol dengizining qurib borishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1940-yilda paxta dalalari 1 mln. ga 1960-yil 1.4 mln.ga, 1987-yil 2.1 mln.ga.gacha kengaydi. sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvati ham shu kabi ortib borishi Orol dengizidagi suv hajmini yanada pasayishiga sabab bo‘ldi. 1990-yillarga kelib, Orol dengizi o‘z hajmining 90 foizini yo‘qotdi. Umuman, soylarning suvi ifloslanish darajasi 1986-yillarda Toshkent viloyati Ohangaron, Angren va Olmaliq shaharlarining sanoat korxonalarining chiqindilaridan ortib bordi[10]. Sanoatda suvni tozalash, undan foydalanishda tejamkorlik masalalari past bo‘lib, ishlatiladigan suvning 40-50 foizi chiqindi suvlar tarzida yaqin ariq va soylarga tashlab kelindi. Yirik sanoat markazlaridagi hududlarning quduq, yer osti suvining ifloslanishi natijasida suv iste’molga yaroqsiz bo‘ldi. Suvni muhofaza qilish borasida respublikada alohida qonunlarning mavjud bo‘lmaganligi ichimlik suvining nazoratsizligi, ularning haddan ortiq ifloslanishini yuzaga keltirdi. Binobarin, sanoat korxonalari chiqindi suvini tozalash yangi zamonaviy texnik jihatdan ta’minlanmagani Amudaryo va Sirdaryo suv havzalaridagi suvlarning minerallanish ko‘rsatkichlarini yildan-yilga ortib borishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston hududidagi suv sifatini yaxshilash, ekologik vaziyatni yumshatish va aholi barqaror yashash sharoitlarini ta’minlashning imkoni bo‘lmadi. Mintaqa hududidagi atrof-muhit va iqtisodiy, ijtimoiy hayotiga Orol dengizining xalokati juda katta ta’sir ko‘rsatdi.

Bu haqda amyerikalik olim Tomas Konrad Skott, - sovet davlati Orol dengizida yuzaga kelgan muammolarni ichki muammo deb hisobladi, natijada masalani ichki tartibda echishga harakat qilindi, bu ham natija bermadi. Orolbo‘yidagi ekologik vaziyat og‘irlashib borgan sayin sovet Ittifoqi muammoni atrofdagi davlatlarning o‘zlariga tashlab qo‘ydi[11], deb yozadi. Sobiq Ittifoq paxta yetishtirish bo‘yicha barcha imkoniyatlardan foydalanishda o‘lkaning tabiiy resurslarini ayamasdan ishlatib keldi. Lekin, tabiiy resurslarning yemirilish bilan bog‘liq muammolarning kelib chiqishiga befarq va loqaydlik bilan qarashi Orolbo‘yi hududlarda olib borilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida olib borilmasligi xususdda ekologik vaziyatning yanada keskinlashuvini ortishiga olib keldi.

XULOSA. Hozirda halokatli davrni o‘z boshidan kechirmoqda. 1960-yillarda qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish va sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun suv manbalarining rejasizlarcha ishlatilishi, Markaziy Osiyoning asosiy suv zahiralardan biri, yiliga 78 kub metr suv keltiradigan Amudaryo va 36 metr kub suv keltiradigan Sirdaryo suvlarining oqimlariga turli ko‘plab suv omborlari va irmoqlarning joylashuvi suvning Orol dengiziga etib borishiga to‘sqinlik qildi. 1951-1960-yillarda Sirdaryo va Amudaryolarning 58 kubokilometr, 1971-1980-yillarda 17 kubokilometr suvlari Orol dengiziga kelib quyilgan. Yangi yerlarning ochilishi, sanoat korxonalarining daryolar suvidan katta maqsadlarda foydalanishi Orol dengizi sathiga katta ta’sir etdi. Yildan-yilga suv hajmining pasayib borishi, Orolbo‘yi hududlari ekologik xatarga duchor bo‘lishiga olib keldi. Orol dengizining ekologik muammolari transchegaraviy hududlarga ham xavf sola boshladi va muammolarni global miqyosdagi ijtimoiy muammoga aylanishiga sabab bo‘ldi. Orol dengizi atrofidagi chegaradosh Turkmaniston Respublikasi iqtisodiy rivojiga salbiy ta’sir etdi. Dengiz sathida ochilib qolgan tuzli barxanlar, Turkmanistonning mevazor bog‘lariga ta’sir etdi va ulardagi daraxtlarning qurushi, nobud bo‘lishiga olib keldi. Markaziy Osiyoning barcha respublikalari ana shu daryolardan foydalanib kelgan. Demak, suvning ekologik qismati nafaqat O‘zbekistonga, balki, qo‘shni davlatlarning ham iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ta’sir etgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Бирлашган Миллиатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича. Илмий-оммабоп рисола. –Тошкент: Маънавият, 2017. –Б. 92.
2. Бердимурадова А. Философско-методологические проблемы современной экологической ситуатsiи (на материалах Приаралбя) Дисс ...док. филос. наук. – Ташкент:1999. – 263 с.; Аимбетов Н.К. Мураккаб экологик вазият шароитида иқтисодий ва ижтимоий жараёнларни моделлаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида) Дисс ...тарих. фан. докт. –Тошкент: 2000. 280.б.: Икрамова Н. Минтақа экологиясини тартибга солиш муаммолари. –Тошкент: 2006. 100.б.; Бекимбетов Б. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990 гг.). Дисс ...канд. ист. наук. –Нукус: 2007. – 159 с.; Давлетов С. Ўзбекистонда экологик хавфсизликнинг миллий омиллари// Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 2016. № 2. –Б. 68.; Усманов Б. Сотрудничество республик Центральной Азии в вопросе решения с Аральского кризиса// Ўзбекистн тарихи. 2009. №4. –Б. 83.; Sobirjonovna, R. G., & Usmonjonovna, O. V. (2023). Physical And Environmental Factors In The Complex Treatment Of Allergic Diseases In Children. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2251-2256.
3. Бердимурадова А. Философско-методологические проблемы современной экологической ситуатsiи (на материалах Приаралбя) Дисс ...док. филос. наук. – Ташкент:1999. – 263 с
4. Бекимбетов Б. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990 гг.). Дисс ...канд. ист. наук. –Нукус: 2007. – 159 с
5. Ўзбекистонда Республикасида атрф-мухит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий маъруза- 2008. –Тошкент: 2010.–Б. 65.
6. Қорақалпоғистон РМДА. 177-фонд, 1-рўйҳат, 194-йиғма жилд, 12-варақ.
7. Камалов С. Расцвет Советской Каракалпаки в братской семье народов СССР. – Ташкент: Ўзбекистон, 1985. – 26 с.
8. Sobirjonovna R. G., Usmonjonovna O. V. Physical And Environmental Factors In The Complex Treatment Of Allergic Diseases In Children //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – С. 2251-2256..
9. Самойлов С ва бошқалар. Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида миллий маъруза -2008. (1988-2007 йиллар бўйича ретроспектив таҳлил) –Тошкент: Чинор ЭНК, 2008. –Б. 40.
10. Sobirjonovna, Rakhimova Gulchehra, and Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna. "Physical And Environmental Factors In The Complex Treatment Of Allergic Diseases In Children." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2023): 2251-2256.
11. Thomas Conrad Scott. Environmental Freshwater Resources and Conflict: Case Studies from the Former Soviet Union. Lehigh University. 2015. –P. 27.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

KORXONA BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti
Yusupov Nurillo Ikromjon o'g'li
nurillo-yusupov96@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshqaruv tizimi samaradorligini baholashning zamonaviy usullari korxonalarning strategik boshqaruvi samaradorligi, unga taьsir kiluvchi omillar, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari hamda boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *strategik boshqaruv, KPI, korxona faoliyati, raqobatbardoshlik, trend, boshqaruv samaradorligi, ichki va tashqi omillar, innovatsiya, integral ko'rsatkich, strategiya, baholash, korxona barqarorligi.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ

Юсупов Нурилло Икромжонович
nurillo-yusupov96@mail.ru

Аннотация: *В этой статье рассмотрены эффективность стратегического управления предприятиями, факторы влияющие на нее, методы повышения конкурентоспособности предприятий и вопросы совершенствования организационно- экономического механизма управления.*

Ключевые слова: *стратегическое управление, деятельность предприятия, конкурентоспособность, тренд, эффективность управления, внутренние и внешние факторы, инновация, интегральные показатели, стратегия, оценка, устойчивость предприятия.*

MODERN METHODS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF ENTERPRISE MANAGEMENT SYSTEM

Kimyo international university in Tashkent
Yusupov Nurillo
nurillo-yusupov96@mail.ru

Abstract: *This article examines the effectiveness of strategic management of enterprises, the factors affecting it, methods for increasing the competitiveness of enterprises and the issuyes of Improving the organizational and economic management mechanism.*

Key words: *strategic management, enterprise activity, innovation, integration indicators, strategy, estimation, sustainability of enterprise.*

Kirish

Bugungi kunga kelib butun dunyoda korxonalar amaliyotida strategik boshqarishning ahamiyati ortib bormokda. Bu ularning vakolatini kengayishi hamda o'zlarining iqtisodiy axvoli uchun javobgarliklari darajasining oshganligi bilan bog'likdir. Zamonaviy boshqarishning sifati

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

korxonalar samaradorligini belgilab beradi. Shu bois korxonalarga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Hozirgi vaqtda korxonalarning ko‘pchiligi o‘z taraqqiyotining konsepsiyasini strategiyasini hamda dasturini ishlab chiqishi zarur.

Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog‘liq bo‘ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo‘lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo‘lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o‘rin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko‘pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o‘zgaruvchan shart-sharoitlariga moslasha olmayapti. Bu hali hanuzgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o‘z yechimini topmaganligini ko‘rsatadiki, bunday hol, birinchi navbatda, korxona rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan boglik 2].

" Strategik boshqaruv tizimida korxonaning kelajak faoliyatining retrospektiv ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ekstropilyasiya usulini qo‘llash asosida belgilanishi nazarda tutiladi. Ekstrapolyasiya bu o‘tgan zamonda o‘rnatilgan tendensiyalarni kelgusi davr uchun ham joriy etilishidir. Boshqacha aytganda, prognoz ishlab chiqishda, kelgusida korxona faoliyatining shart-sharoitlari yomonlashmaydi, demak, o‘tgan davrlarga nisbatan korxona faoliyatining yakuni yaxshi bo‘lishligidan kelib chikiladi. Korxona taraqqiyotini oshiruvchi tendensiya (trend)ning namoyon bo‘lishi

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan[1]. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi ishlab chiqarish korxonalari innovasion faoliyatini zamonaviy boshkaruv mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishni takazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xorijlik olimlardan R.S.Kaplan, D.P.Norton asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan[2]. Bu olimlarning qarashlarida asosiy eьtibor, strategik boshqaruv tizimini korxona va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorligini baholashga qaratilgan.

I.Ansoffning qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollarini o‘rganish va ularga ta’sir qiluvchi omillarni baholash muhim o‘rin tutadi [3]. Uning e’tiborida korxona doim risk bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun prognozlar tuzish, ekstropilyasiya usulini qo‘llash zarur.

M.Porter qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o‘rni, ularni qo‘llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga fakat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning rakobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta’siri masalalari tadqiq etilgan[4],

R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh. Oripov qarashlarida korxona alohida ob’yekt sifatida qaralib, uning mazmun va mohiyati, unga qo‘yiladigan talablar, ko‘rsatkichlar tizimi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruvi masalalari atroflicha yeritib berilgan[5]. Korxonalar boshqaruvi va ularga qo‘yiladigan talablar, tamoyillar, boshqaruv shakllari baholab berilgan.

Raqobat rivojlanib borayotgan hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyotida inson resurslaridan samarali foydalanish ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu borada tashkilot (idora, muassasa va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

korxona) va xizmatchilar faoliyati samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu borada xalqaro tajribada davlat xizmatining samaradorlik ko'rsatkichlari KPI - Key Performancye Indicator – Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari orqali baholanib kelinadi.

Bunda samaradorlik tashkilot tomonidan qo'lga kiritilgan natijaning ma'lum bir vaqt mobaynida maqsadga erishish uchun sarflangan xarajatiga nisbatan aniqlanadi.

KPI – bu tashkilot (idora, muassasa va korxona)lar va xizmatchilar faoliyatini belgilangan talab darajasida olib borilishini yoki belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi, baholovchi samaradorlik yoki natijadorlik ko'rsatkichi deb ham yuritiladi. Qisqacha aytganda, KPI - belgilangan maqsad bo'yicha "o'lchov moslamasi". Binobarin, maqsad bilan bog'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar orqali KPIni aniqlash mumkin emas.

Ingliz tilida mazkur tushunchalar "samaradorlik ko'rsatkichlari" ("performancye indicators"), "eng muhim natijadorlik ko'rsatkichlari" ("key results indicators - KRI") va "muvaffaqiyatlarning muhim faktorlari" ("critical succyess factors") kabi terminlar orqali ifodalanadi.

Devid Parmentrerning "Key Performancye Indicators: Developing, Implementing and Using" nomli kitobida mazkur terminlarga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Samaradorlik ko'rsatkichlari" ("Performancye indicators") – samaradorlikni oshirishda kundalik ishlarda nimalar qilish kerakligini ifodalaydi;

"Eng muhim natijadorlik ko'rsatkichlari" ("Key results indicators - KRI") – samaradorlikni oshirishda kelajakda nimalar qilish kerakligini ifodalaydi;

"Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" ("Key performancye indicators – KPI") - samaradorlikni keskin oshirishda nimalar qilish kerakligini ifodalaydi.

KPI haqidagi ilk tushunchalar XX asrning 50-yillarida Piter Drukerning "Maqsadga sari boshqarish" g'oyasi orqali shakllana boshlagan.

Uning fikricha, natijadorlikka erishish uchun samaradorlik ko'rsatkichlari bilan alohida shug'ullanish kerak. Va rahbarlarni kundalik ishlar bilan band qilmasdan, belgilangan ustuvor vazifalar hamda asosiy maqsad sari faoliyat olib borishi uchun samara beradigan ko'rsatkichlar bilan shug'ullanish kerakligini ta'kidlagan.

KPIga qarab rahbar va xodimlarni moddiy rag'batlantirish orqali ish samaradorligini yanada oshirish tizimi Yevropada dastlab 1970 yillarda ro'y bergan iqtisodiy inqiroz davrida vujudga kelgan. Sababi, Fransiya, Germaniya, Portugaliya kabi Yevropa davlatlarida davlat xizmatchilarining ish haqlari xususiy sektordagilarga nisbatan ancha past bo'lgan. Ish haqini oshirish uchun esa soliqlarni yanada oshirish talab qilingan.

Sir emas, iqtisodiy inqiroz davrida soliqlarni oshirish emas, aksincha xususiy sektorga imtiyozlar berish orqali iqtisodiyotni ko'tarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday murakkab vaziyatda, malakali kadrlarni davlat tizimida saqlab qolish va davlat boshqaruvi tizimida ish samaradorlikni yanada oshirish uchun yangicha boshqaruv tizimiga o'tish davr talabiga aylangan.

Dastlabki vaqtlarda, ya'ni 1980 yillarda G'arbiy Yevropa davlatlarining aksariyati davlat xizmatchilarining erishgan yuqori natijadorligi uchun ularni moddiy rag'batlantirishdan ko'ra, yuqori lavozimlarga tayinlash usullaridan ko'proq foydalangan. Moddiy rag'batlantirish faqat yuqori bo'g'in rahbarlariga nisbatan qo'llanilgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Nihoyat, 1990 yillarga kelib Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada va AQSH kabi davlatlarda yuqori va o‘rta bo‘g‘in davlat xizmatchilarini ham moddiy rag‘batlantirish boshlangan. 2004 yildan esa Yevropa Ittifoqining barcha davlatlari mazkur tizimga o‘tgan.

Har bir tashkilot (idora, korxona va muassasa)larda ham KPI tizimini amaliyotga tadbiq etish uchun quyidagi algoritmga amal qilish kerak bo‘ladi:

KPI tizimini tadbiq etish bo‘yicha puxta reja ishlab chiqish (mas’ullarni belgilash, tashkilotni aniqlash, amaliyotga tadbiq etish muddatlarini belgilash va boshqalar);

KPI tizimini tadbiq etish bo‘yicha huquqiy asosni yaratish (mos modelni tanlash, huquqiy bazani takomillashtirish, strukturani optimallashtirish, KPI bo‘yicha hisobot shakllarini ishlab chiqish va boshqalar);

KPI tizimi bo‘yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish (tanlangan KPI modeli bo‘yicha dastur ishlab chiqish, dastur bo‘yicha mas’ullarni o‘qitish va boshqalar);

KPI tizimini amaliyotga tadbiq etish (tanlov asosida tashkilot va hududlarni ajratish, qolganarda ham bosqichma bosqich joriy etish, tizimning ishlashi, maqsadi bo‘yicha xodimlar malakasini oshirish va boshqalar);

KPI tizimi samaradorligini monitoring qilish (tizimning ishlashi va natijadorligi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, ko‘rchatkichlar to‘g‘ri yoki xato tanlanganligini o‘rganish, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va boshqalar).

Ushbu tizim faqatgina ma’lum bir vaqt mobaynida, ya’ni davr ichida yuqori samara berishini hisobga olish kerak. Shu sababli, tizimni doimiy monitoring qilib, kerak bo‘lsa eng muhim ko‘rsatkichlarni yangilab borish talab etiladi.

Shuningdek, KPI yuqori samara berishi qo‘lga kiritilgan natija bilan ketgan resursga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Faqat natijani orqasidan quvib, sarflanayotgan resurslarga e’tibor qaratilmasa, natijani beradigan resurslarsiz qolib ketish mumkin. Aksincha, faqat resurslarni tejash bilan ham yuqori natijani qo‘lga kiritish mumkin emas.

Ya’ni, yuqori samaradorlik kutilgan natija va minimal sarflangan resurslarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli natijadorlikni ham, samaradorlikni ham hisobga olish kerak, ular o‘rtasida doimo balansni ushlab turish kerak.

KPI tizimi bo‘yicha yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

KPI ko‘rsatkichlari sonini aniq belgilash. Kaplan va Nortonlarning fikricha 20 tadan, Xoup va Freyzerlarlarning fikricha 10 tadan oshmasligi kerak deyilgan. Boshqalar esa “10/80/10” qoidasi, ya’ni, 10 ta muhim natijadorlik ko‘rsatkichlari, 80 ta ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va 10 ta muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘lishi kerak deb tavsiya etgan. Davlat boshqaruv organlarining yuqori bo‘g‘in rahbarlarga 25 ta, o‘rta bo‘g‘in rahbarlariga 10 ta va qolgan xodimlarga 5 ta ko‘rsatkichlarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa

Xodimlarga sharoit yaratish. Rahbarlarga boshqarish va nazoratni to‘liq amalga oshirish uchun yetarlicha sharoit, vakolat va imkoniyatlar yaratib berish kerak. Shuningdek, moddiy texnika bazasini ham takomillashtirib berish kerak. Umumiylik. Tashkilotning bosh maqsad ko‘rsatkichlari bilan uning tarkibiy bo‘limlari o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar doimo korrelisiya qilinib borilishi kerak. Shaffof tizim. Xodimlarda ish samaradorlikni yanada oshirish uchun KPI bo‘yicha maxsus o‘quv-seminarlar o‘tkazish kerak. KPI ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri tanlash.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tashkilotning asosiy maqsadidan, qonunchilikda belgilangan funsional vazifasidan kelib chiqib koʻrsatkichlarni toʻgʻri tanlash kerak. Ragʻbatlantirish. KPI boʻyicha erishilgan natijalarga qarab ragʻbatlantirish mexanizmini ishlab chiqish va xodimlar bundan toʻliq xabardor etilishi kerak (motivatsiya uchun). Doimiy monitoring oʻtkazish. Oʻz vaqtida koʻrsatkichlarga ta'sir etuvchi tashqi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, vaziyatga qarab koʻrsatkichlarni oʻzgartirib turish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. OʻzR Qonunchilik hujjatlari toʻplami. 2017 yil. 6-son, 70-modda.
2. 2. Каплан Р.С., Нортон Д.П. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новойбизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей/пер.сангл.М.: ЗАО Олимп-Бизнес. 2004-416 с.
3. АнсоффИ. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989. – 358 с.
4. Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ./ Под.ред. В.Д. Щетинина. – М. Международные отношения, 1993. – 64 с;
5. MuratovR.S., DjalolovaI.A.,.OripovS.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Darslik– Toshkent, 2014- 35-b.
6. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent-2013, 24-b.
7. Xonkeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Toshkent, 2018-71 b.
8. Abduraupov R.R. Oʻzbekistonda xorijiy investisiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.Toshkent, 2017 y.-70 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA MUAMMOLAR TAHLILI VA SAMARALI STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Subhonova Anora Akmal qizi
PhD doctorate student of Uzbek state world languages university
E-mail: subkhanovaanosha@gmail.com

Annotatsiya. *Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish dinamik va rivojlanayotgan soha bo‘lib, u tilni o‘zlashtirish, rivojlanish bosqichlari va samarali o‘qitish strategiyalarini puxta tushunishni talab qiladi. Ushbu maqola bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning asosiy jihatlari, ya’ni muammolar va ularga yechimlar haqida yoritib beradi. Maqolada yoshga mos ta’lim usullarining ahamiyati ta’kidlangan, hamda bolalarni qiziqtirish, o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish uchun turli mashg‘ulotlardan foydalanish lozimligiga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar. *O‘qitish strategiyalari, o‘yinga asoslangan ta’lim, og‘zaki tilni rivojlantirish, madaniy sezgirlik, o‘qituvchi va bolaning o‘zaro ta’siri, jamoatchilik ishtiroki.*

USING PROBLEM ANALYSIS AND EFFECTIVE STRATEGIC APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN

Subhonova is the daughter of Anora Akmal
PhD student of Uzbek state world languages university
E-mail: subkhanovaanosha@gmail.com

Annotation. *Teaching English to children is a dynamic and evolving field that requires a thoughtful understanding of language acquisition, developmental stages, and effective instructional strategies. This abstract provides a concise overview of the key aspects involved in teaching English to young learners. The article highlights the significance of age-appropriate instructional methods, emphasizing the use of play-based activities, songs, games, and storytelling to engage children and make the learning process enjoyable and interactive.*

Keywords. *Teaching strategies, play-based learning, oral language development, cultural sensitivity, teacher-child interaction, community involvement.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО АНАЛИЗА И ЭФФЕКТИВНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

Субхонова Анора Акмал кизи
Докторант Узбекского государственного
университета мировых языков
Электронная почта: subkhanovaanosha@gmail.com

Аннотация. *Преподавание английского языка детям — это динамичная и развивающаяся область, которая требует вдумчивого понимания процесса освоения языка, этапов развития и эффективных стратегий обучения. В этом аннотации представлен краткий обзор ключевых аспектов преподавания английского языка юным ученикам. В статье подчеркивается важность соответствующих возрасту методов обучения, особое внимание уделяется использованию*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

игровых занятий, песен, игр и рассказываний историй, чтобы заинтересовать детей и сделать процесс обучения приятным и интерактивным.

Ключевые слова. *Стратегии преподавания, обучение в игровой форме, развитие устной речи, культурная чувствительность, взаимодействие учителя и ребенка, участие сообщества.*

Kirish

Bolalarga ta’lim berish murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish, samarali muloqot va bolaning rivojlanishini chuqur tushunishni talab qiladi. O‘qituvchilar har doim esda tutishlari kerakki, bolalarga o‘rgatish moslashuvchanlik, harakatchanlik va ularning o‘sishi va rivojlanishi uchun chinakam ishtiyoqni talab qiladi. O‘qituvchilar bolalarning ehtiyojlariga mos keluvchi, tarbiyalovchi va rag‘batlantiruvchi muhitni ta’minlashi va o‘z ta’lim amaliyotlarining ustida doimiy ravishda ish olib borishlari va takomillashtirishlari kerak.

Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘qituvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan ba’zi umumiy muammolar:

Bolalar ingliz tilini umuman bilmasliklari yoki cheklangan darajada bilishlari mumkin. Bu ularga chet tilini tushunish va samarali muloqot qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

Til to‘siqlari bolalarning ingliz tilida o‘z fikrlarini tushuntirish va ifoda etish qobiliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bolalarning lug‘at, grammatika va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirish uchun vaqt kerak bo‘ladi va bu ularning o‘rganishning dastlabki bosqichlarida rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bolalarning motivatsiyasi va faolligini saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin. Yangi tilni o‘rganish mashaqqatli va katta kuch talab qiladi. O‘qituvchilar bolalarni qiziqtirish va ularni rag‘batlantirish uchun turli xil strategiyalarni qo‘llashlari kerak, masalan, interaktiv faoliyat, multimedia resurslari va mazmunli real hayot diologik matnlari.

Har bir bolaning o‘ziga xos o‘rganish qobiliyati va ehtiyojlari bor. Turli guruhlarda ba’zi bolalar ingliz tilini tezda tushunishlari mumkin, boshqalari esa qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabaqalashtirilgan ta’lim kuchli bo‘lishi mumkin, ayniqsa maktabga tayyorlov guruhlarida.

Ingliz tilini talaffuz qilish fonetik tizimlardagi farqlar tufayli bolalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Bolalar o‘ziga xos tovushlar, stress va intonatsiya bilan muammolarga duch kelishlari mumkin. Ushbu talaffuz qiyinchiliklarini hal qilish uchun yo‘naltirilgan ko‘rsatma va amaliyot talab etiladi.

Ingliz tili grammatikasi juda ko‘p qoidalar va istisnolar bilan murakkabligi bilan ajralib turadi. Bolalar ushbu qoidalarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llashda qiyinchiliklarga uchraydilar. O‘qituvchilar tarbiyalanuvchilarning grammatik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun aniq tushuntirishlar, keng mashq qilish imkoniyatlari va fikr-mulohazalarini taqdim etishlari kerak.

Ingliz tilida so‘zlashmaydigan muhitda ingliz tilini o‘rganayotgan bolalar uchun guruhdan tashqarida ingliz tilini mashq qilish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin. Uyda oila a’zolari bilan ingliz tilida so‘zlashuvchilar, materiallar va immersiv til tajribasi tilni o‘zlashtirishni kuchaytirishi mumkin, lekin ushbu imkoniyat har doim ham mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Ota-onalarning yordami va bolaning ingliz tilini o‘rganish jarayonida ishtirok etish darajasi turlicha bo‘ladi. Ba’zi ota-onalar uyda o‘rganishda faol ishtirok etishlari va bolaning bilimini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mustahkamlashga hissa qo‘shishi mumkin, boshqalari esa kerakli manbalarga yoki til bilimiga ega bo‘lmasligi ham sir emas. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish tarbiyalanuvchining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarning ingliz tilini bilish darajasini baholash murakkab vazifadir. An’anaviy baholash usullari ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri aks ettirmasligi mumkin, chunki tilni o‘zlashtirish bosqichma-bosqich jarayondir. Bolalarning muvaffaqiyatini to‘g‘ri baholash uchun o‘qituvchilar turli baholash vositalari va usullaridan foydalanishlari kerak.

Adabiyotlar tahlili

Uslubiy adabiyotlar bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish amaliyotini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘plab ma’lumotlar, strategiyalar va amaliy g‘oyalarni taklif etadi. O‘qituvchi o‘qitish dasturiga, bolalarning yoshiga, o‘qituvchi sifatidagi aniq maqsadlar va imtiyozlarga mos keladigan resurslarni tanlashni unutmasligi kerak. Quyida bolalarga ingliz tilini o‘rgatishga qaratilgan ba’zi uslubiy adabiyotlarni keltirib o‘tamiz:

Devid Nunan tomonidan “Yosh bolalarga ingliz tilini o‘rgatish”: Bu kitob yosh bolalarga ingliz tilini o‘rgatish tamoyillari, nazariyalari va amaliy usullari haqida umumiy ma’lumot berilgan. U o‘quv faoliyatini rejalashtirish, guruhdagi faoliyatni boshqarish, baholash va mashg‘ulot davomida texnologiyadan foydalanish kabi mavzularni qamrab oladi.

Wendy A. Scott va Lisbet H. Ytreberg tomonidan “Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish”: keng qamrovli qo‘llanma bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy strategiyalar va tadbirlarni taklif etadi. U til o‘rgatishning turli jihatlarini, jumladan, so‘z boyligini rivojlantirish, grammatikani o‘rgatish va kommunikativ yondashuvda ko‘nikmalarni birlashtirishni qamrab oladi.

Marianne Selce-Murcia va Donna M. Brintonning “Ingliz tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o‘rgatish” kitobi aynan bolalarga til o‘rgatish uchun xos bo‘lmasa-da, bu kitob til o‘rgatish metodologiyasida mustahkam asos yaratadi. U o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘quv dasturlarini loyihalash, sinfni boshqarish va bilimni baholash kabi bir qator mavzularni o‘z ichiga oladi.

Sara Fillipsning “Yosh o‘rganuvchilar” asarida 7-12 yoshli bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy g‘oyalar va tadbirlar taqdim etiladi. U ijobiy ta’lim muhitini yaratish, yosh bolalarni jalb qilish, o‘yinlar, qo‘shiqlar va hikoyalarni darslarga qo‘shish bo‘yicha maslahatlar beradi.

Joan Kang Shin va JoAnn Crandall tomonidan yozilgan “Kichik bolalar bilan til o‘rganish” kitobi yosh bolalarga ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatish strategiyalariga qaratilgan. U til rivojlanishini rag‘batlantirish, madaniy xabardorlikni oshirish va til darslariga kontent sohalarini integratsiyalash usullarini o‘rganadi.

Devid Polning “Osiyodagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish” kitobi Osiyo kontekstida bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha muammolar va strategiyalarni ko‘rib chiqadi. Unda talaffuz, so‘z boyligini o‘rgatish, mahalliy madaniyatni til darslariga kiritish kabi mavzular yoritilgan.

Skott Tornberining “Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish” kitobi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beradi, asosiy e’tibor kommunikativ tilni o‘rgatishdir. U o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, materiallar tanlash va yosh o‘rganuvchilar uchun mazmunli til o‘rganish tajribasini yaratish bo‘yicha tushunchalarni taqdim etadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot usullari tadqiqot savollariga javob berish va hodisalarni tekshirish uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalaniladigan tizimli yondashuvlar va usullarni anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda keng tarqalgan tadqiqot usullari:

1. So'rovnoma, anketalar yoki suhbatlar orqali ishtirokchilarning namunasidan ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi. So'rovnomalar maktabgacha yoshdagi bolalarning munosabatlari, fikrlari, xatti-harakatlari va xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin. Tadqiqotimiz davomida biz kesma so'rovlar (bir vaqtning o'zida ma'lumotlarni to'plash) yoki uzunlama so'rovlar (uzoq vaqt davomida ma'lumotlarni to'plash) kabi turli xil tadqiqot dizaynlaridan foydalandik.

2. Kuzatuv tadqiqoti bolalarning tabiiy sharoitlarida xatti-harakatlar, hodisalar yoki hodisalarni muntazam ravishda kuzatish va qayd etishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar ishtirokchilar (ishtirok etish kuzatuvi) bo'lishi mumkin yoki ko'zga tashlanmaydigan kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin (ishtirok etishsiz kuzatuv), ammo tadqiqotimizda biz faqat maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatdik. Ushbu usul orqali biz muammolarni tahlil qilishimiz va bolalarning ijtimoiy o'zaro munosabatlari, xatti-harakatlari va o'rganish kontekstlari uchun yechimlarni topishga harakat qildik.

Ingliz tilini o'rgatish kontekstida bolalarning tajribasi, munosabati va til o'rganish ehtiyojlari haqida ma'lumot to'plash uchun so'rov tadqiqoti qimmatli usul bo'lishi mumkin. Quyida bolalarga ingliz tilini o'rgatish sohasida so'rov tadqiqotidan qanday foydalanish mumkinligiga misol:

Bolalarning til o'rganishga bo'lgan o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazildi. Misol uchun, so'rovda bolalardan ingliz tilini o'rganishdagi talaffuz, so'z boyligini o'zlashtirish yoki grammatika kabi qiyinchiliklar haqida so'raldi. Ushbu ehtiyojlarni tushunib, o'qituvchilar ta'limni moslashtirishi va aniqlangan takomillashtirish sohalarini hal qilish uchun maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishdi.

Bundan tashqari, ular bolalarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi va munosabatini baholash uchun ishlatildi. Ularning motivatsiya darajasini, ingliz tilining ahamiyatini va tilni o'rganishga bo'lgan munosabatini tushunish o'qituvchilarga qiziqarli, dolzarb bo'lgan va ijobiy o'quv muhitini ta'minlovchi darslarni ishlab chiqishda yordam berdi.

So'rovnomalar bolalarning turli xil o'qitish yondashuvlari yoki faoliyatiga bo'lgan afzalliklari haqida fikr-mulohazalarini to'plash uchun ham ishlatilishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotimiz davomida bolalardan til o'rganishda o'yinlar, qo'shiqlar yoki interaktiv raqamli resurslardan foydalanishni afzal ko'rishlari haqida so'raldi. Ushbu fikr-mulohazalar o'qituvchilarga bolalarning qiziqishlari va ta'lim uslublariga mos keladigan samarali o'qitish strategiyalarini tanlash va amalga oshirishda yordam berdi.

Bundan tashqari, ular bolalar uchun ingliz tilini o'rganish dasturlarining samaradorligini baholash uchun ishlatildi. O'quv dasturi mazmuni, o'qitish usullari, materiallar va resurslar kabi dasturning turli jihatlari bo'yicha fikr-mulohazalarni to'plash orqali tadqiqotchilar dasturning bolalarning tilni bilish darajasi, faolligi va umumiy qoniqishiga ta'sirini baholashlari mumkin. Topilmalar dasturga o'zgartirishlar va yaxshilanishlar haqida ma'lumot berdi.

Biz ham ota-onalardan so'rovnoma olishga harakat qildik. Chunki, u bolalarning ingliz tilini o'rganishida ota-onalarning ishtiroki haqidagi savollarni o'z ichiga olgan. O'qituvchilar ota-onalarning farzandlarining til o'rganishlarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq nuqtai nazarlari,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

afzalliklari va muammolarini tushunib, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun strategiyalarni ishlab chiqdilar. Ushbu hamkorlik uyda ham, sinfda ham qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

Yuqoridagi tadqiqot usullari so‘rovnoma tadqiqoti bolalarning til o‘rganish tajribasi haqida qimmatli tushunchalar berishi va ingliz tilini o‘rganish dasturlarini yaxshilashga qanday yordam berishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bolalarning nuqtai nazari va afzalliklarini o‘z ichiga olgan holda, o‘qituvchilar bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda yanada samarali va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni yaratishlari mumkin.

Tahlil va natijalar

Ingliz tili xorijiy til hisoblanuvchi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan ba’zi fikrlar:

Tilni o‘zlashtirish uchun mustahkam lug‘at bazasini yaratish juda muhimdir. Biroq, bolalar yangi lug‘at so‘zlarini yodlash va saqlab qolish bilan kurashadilar. O‘qituvchilar so‘z boyligini rivojlantirish uchun ko‘rgazmali qurollar, hayotiy misollar, kontekstga asoslangan o‘rganish va lug‘at o‘yinlari kabi turli strategiyalardan foydalanishlari mumkin.

O‘qishni tushunish, ayniqsa, murakkab matnlarga duch kelganda, bolalar uchun muhim to‘siq bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilarga matnlarni samarali tushunishlari va ular bilan shug‘ullanishlariga yordam berish uchun oldindan o‘qish faoliyati, lug‘atni qo‘llab-quvvatlash va tushunish savollari kabi iskala usullarini taqdim etishlari kerak.

Ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin. Ular o‘z fikrlarini tartibga solish, tegishli grammatika va lug‘atdan foydalanish va o‘z fikrlarini izchil ifoda etishda qiynalishi mumkin. O‘qituvchilar yozish strategiyalarini o‘rgatish, modellar va misollar taqdim etish va o‘quvchilarning vaqt o‘tishi bilan yozish ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan konstruktiv fikr-mulohazalarni taklif qilishga e’tibor qaratishlari kerak.

Tilni o‘rganish grammatika va lug‘atdan ko‘proq narsani o‘z ichiga oladi; shuningdek, til ortidagi madaniy nuanslar va kontekstni tushunishni o‘z ichiga oladi. Bolalarga ingliz tili va u bilan bog‘liq madaniyatlarni chuqurroq tushunish va tushunishga yordam berish uchun o‘qituvchilar o‘z darslariga madaniy elementlarni kiritishlari mumkin.

Ingliz tilini o‘rgatishda texnologiyani integratsiyalash ishtirok etishni kuchaytirishi va bolalar uchun qo‘shimcha resurslarni taqdim etishi mumkin. Til o‘rganish uchun interfaol dasturiy ta’minot, ta’lim dasturlari, onlayn resurslar va multimedia materiallari sinfdagi o‘quv mashg‘ulotlarini to‘ldirish hamda mustaqil amaliyot va izlanishlar uchun imkoniyatlar yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Bolalarga ingliz tilini o‘rgatish o‘qituvchilardan doimiy kasbiy rivojlanishni talab qiladi. O‘qitishning eng so‘nggi metodologiyalari, tadqiqotlari va resurslari bilan yangilanib turish samarali ta’lim berish uchun juda muhimdir. Seminarlarda, konferensiyalarda va onlayn kurslarda qatnashish o‘qituvchilarga o‘z malakalarini oshirishga va til o‘rgatishdagi ilg‘or tajribalardan xabardor bo‘lishga yordam beradi.

Ingliz tilini o‘rganuvchilarning muvaffaqiyatida qo‘llab-quvvatlovchi maktab muhiti muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, resurslar va materiallardan foydalanish, maktab ma’muriyatining yordami va ota-onalar bilan hamkorlik - bularning barchasi ingliz tilini o‘rganishda bolalar uchun keng qamrovli yordam tizimini yaratishga yordam beradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Yuqoriagi fikrlarni tushunish va hal qilish orqali o‘qituvchilar bolalar uchun yanada samarali va interfaol ta’lim tajribasini yaratishi mumkin, bu ularning ingliz tilini o‘zlashtirishini va umumiy akademik muvaffaqiyatini osonlashtiradi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, bolalarga ingliz tilini o‘rgatish ham juda foydalidir. Samarali o‘qitish strategiyalarini qo‘llash, qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini ta’minlash va til o‘rganishga ijobiy munosabatni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar o‘z tarbiyalanuvchilariga ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishga va til o‘zlashtirish jarayonlarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lightbown, P. and Spada, N. (2006) How Languages are Learned (Oxford, Oxford University Press).

2. “Teaching English as a Second or Foreign Language” by Marianne Celce-Murcia and Donna M. Brinton. Boston : National Geographic Learning, Edition Fourth edition, 2014, 706 pages.

3. Harmer, J. (2001) Practice of English Language Teaching (Harlow: Pearson Longman).

4. Coyle, D, Hood, P. and Marsh, D. (2010) CLIL Content and Language Integrated Learning (Cambridge, Cambridge University Press).

5. David Nunan, “Teaching English to Young Learners” Anaheim University Press. Anaheim University, 2010 M08 30 - 244 pages

6. Davis, P. and Rinvolucri, M. (1988) Dictation: New Methods, New Possibilities (Cambridge: Cambridge University Press).

7. Subxanovich, A. A. (2023). Communication Features of a Qualified Doctor with Different Patients. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *17*, 52-56.

8. Subxanovich, A. A. (2023). THE IMPORTANCE OF THE SPEECH CULTURE AND ITS ROLE IN THE MEDICAL PROFESSION. *Open Access Repository*, *9*(2), 138-142.

ISSN: 2181-0427

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIK TA’LIMDA ELEMENTAR GEOMETRIK YASASHLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

[1]Madraximov Shuxratjon Shukurovich, [2]Madraximova Maxfuza Axmedovna
[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti assistent-o‘qituvchisi
[2]Qo‘qon davlat pedagogika instituti assistent-o‘qituvchisi
[1]E-mail: shuxratjon3233749@gmail.com, +998-91-323-37-49
[2]E-mail: madraximova2606@gmail.com, +998-91-201-38-20

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologik ta’limda fanlararo aloqadorlik masalalari yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Texnologik ta’lim, fanlararo aloqadorlik, geometrik bilimlar, amaliy mashg‘ulot, geometrik yasash ko‘nikmalari, samarali natijalar.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБУЧЕНИИ В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

[1]Мадрахимов Шухратжон Шукурович, [2]Мадрахимова Махфуза Ахмедовна
[1]Ассистент-преподаватель Кокандского государственного педагогического института
[2]Ассистент-преподаватель Кокандского государственного педагогического института
[1]E-mail: shuxratjon3233749@gmail.com, +998-91-323-37-49
[2]E-mail: madraximova2606@gmail.com, +998-91-201-38-20

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы междисциплинарности в технологическом образовании.*
Ключевые слова: *Технологическое образование, междисциплинарная коммуникация, геометрические знания, практические занятия, навыки геометрического проектирования, эффективные результаты.*

METHODOLOGY OF USING ELEMENTARY GEOMETRIC CONSTRUCTIONS IN IN EDUCATION OF TECHNOLOGY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

[1]Madrakhimov Shukhratjon Shukurovich, [2]Madrakhimova Makhfuza Akhmedovna
[1]Assistant-teacher of the Kokand State Pedagogical Institute
[2]Assistant-teacher of the Kokand State Pedagogical Institute
[1]E-mail: shuxratjon3233749@gmail.com, +998-91-323-37-49
[2]E-mail: madraximova2606@gmail.com, +998-91-201-38-20

Annotation: *In this article, the issues of interdisciplinarity in technological education are covered.*
Keywords: *Technology education, interdisciplinary communication, geometric knowledge, practical training, geometric design skills, effective results.*

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda ularning ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan meyoruy hujjatlarga asoslangan holda tizimli tashkil etilgan. Ta’lim-tarbiyaning maqsadlaridan biri muayyan ma’noda yoshlarni amaliy faoliyatga tayyorlashdir. O‘quvchi-yoshlarni amaliy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

faoliyatga tayyorlashda, ayniqsa ularda mehnat va kasb-hunar ta'limiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Texnologik ta'lim mashg'ulotlarini fanlararo aloqadorlikda o'qitish esa ularning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada takomillashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Xususan, geometriya fanining texnologik ta'limni tashkil etish jarayoniga tatbiq qilinishi uning amaliy xarakterini ochib beradi [1]. Darhaqiqat, har qanday bilim o'zining nechog'lik tatbiq qilinishi bilan ahamiyatlidir. Texnologik ta'lim va geometriya fanining o'zaro aloqadorligi bevosita o'quvchilarning o'z geometrik bilimlarini texnologik ta'lim mashg'ulotlarida, xususan amaliy mashg'ulotlar davomida qo'llash jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Ta'limda fanlararo aloqadorlik jarayonining pedagogik asoslarini, shuningdek, mavzulardagi integrativ yondoshuvni ko'p olimlar o'z tadqiqotlarida asoslashgan.

A.Bugayev, A.Belyayeva, V.Razumovskiy, A.Usova, G.Fedorets V.Fedorova kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Fanlarni aloqadorlikda o'qitish muammolari yuzasidan: A.Xodjaboyev, M.Mamadiyorov, N.G'ofurov, A.Musurmonov, M.Rayemov, E.Turdiqulov, N.Dadanov kabi o'zbek olimlarining olib borgan ishlari ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, S.Ro'ziboyev, U.Musayev, T.Dayanayeva, A.Salomov, O.Abduxalilov va boshqa olimlar o'quv fanlarini aloqadorligining turli qirralari, o'quv-biluv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar.

Pedagogika fanlari tizimida fanlararo bog'liqlik va aloqadorlikning didaktik ta'limdagi ahamiyati va fanlarni o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda tashkil etishning umumiy jihatlari ancha keng va ilmiy asosli yoritilgan bo'lsada, aynan texnologik ta'lim darslarini o'zining tabiiy tizimli xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlar bilan aloqadorlikda tashkil etish amaliyoti va tajribasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga ko'ra biz o'zimizning pedagogik amaliyotimizda texnologik ta'lim darslarini boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda tashkil etishning ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga harakat qildik.


Tadqiqot metodologiyasi

O'quvchilarda o'lchash va geometrik yasash ko'nikmalari yuqori darajalarda bo'lgan holda texnologik ta'lim va geometriya fanlari orasidagi aloqadorlik samarali natijalar beradi.

Texnologik ta'lim elementar geometrik yasashlarga tayanadi. Turli texnologik jarayonlar, gazlamalarga ishlov berish turlicha geometrik yasashlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflarida III chorakda "Yubka chizmasini chizish. Yubka eskizini chizish va modellashtirish" mavzusini o'qitishda o'quvchilar yubka chizmasini tayyorlash uchun dastlab to'g'ri to'rtburchak qurishdan foydalanadilar (HOH_1O_1; 1-rasm) [3].

So'ngra O nuqtadan $OT=OT_1$ kesmalar belgilab olinadi, T va T_1 nuqtalar orqali $TH=T_1H_1$ bir-biriga teng bo'lgan kesmalar, ya'ni kesma uzunligini belgilanadi (1-jadval).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



1-rasm. Yubka chizmasi.

N	Chizmadagi kesmalar	Hisoblash formulasi	Standart o‘lchov	Mening o‘lchovim
1	OT	0.64 x BelA	22.4	
2	TH	KU	55	
3	TT_1, HH_1	Radiusli yoylar chiziladi		
Yubkaning to‘g‘ri yopishib turishi hamda qiya qismidagi uzunligini to‘g‘rilash uchun bel chizig‘i 1.75 smga ko‘tariladi, etak chizig‘i 3.5 smga kamaytiriladi.				


1-jadval.

Tahlillar va natijalar

Ushbu mavzuni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar elementar geometrik yasashlarni puxta egallagan bo‘lsalargina yubka chizmasini chiza olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Konussimon yubkalar butun aylana va aylananing qismlaridan iborat bo‘lib, ularning bir necha xillari mavjud. Ularning chizmalarini tayyorlashda va keyinroq 7-sinflarda “Ko‘ylak old asos to‘r chizmasini chizish”, “Ko‘ylak orqa asos to‘r chizmasini chizish” kabi mavzularni [2] o‘qitishda ko‘ylak old asos to‘r chizmasi va ko‘ylak orqa asos chizmasini tayyorlashda hamda turli kiyimlar va detallarni modellashtirish jarayonlarida o‘quvchilar turli geometrik yasashlardan, xususan, kesmalarni qo‘yish, o‘tkir va o‘tmas burchaklarni yasash, burchak bissektrisasini o‘tkazish, nur o‘tkazish, turli radiusli aylanalar, aylana yoylarini yasashlar va hokazolardan foydalanadilar (2-rasm).

O‘quvchilarning ushbu geometrik yasashlarni aniq va to‘g‘ri bajarishlari kiyim chizmasining hamda andozasining to‘g‘ri tayyorlanishiga olib keladi [3].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427



2-rasm. Yubka va ko‘ylak chizmasi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosalar

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, fanlararo aloqadorlik o’quv bilimlarining integratsiyasida ifodalanadi, bir o’quv fanidan olingan bilimlardan boshqa fanni o’zlashtirishda foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini eng yaxshi tashkil qilinishini ta’minlaydi.

Fanlararo aloqadorlikni faqat turli predmetlardan o‘rganiladigan bilimlarning o‘zaro bog‘lanishi deb tushunmay, balki o‘qitish texnologiyalari, metodlari, shakllarining ham integratsiyasi sifatida tushunish lozim. Ularni to‘g ‘ri amalga oshirish ta‘lim samaradorligini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov A.A. Matematikaning fanlararo aloqadorlik funksiyasi asosida yuqori sinf o’quvchilarining ko’nikma va malakalarini rivojlantirish: Dis. … ped.fan.nom. – Toshkent, 1998. – 182
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. 2021 yil.
3. Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Toxirov O‘.O. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’limning 6-sinflari uchun darslik. 2021 yil.
4. Умматова, Махбуба и др. "INNOVATIVE TOOLS FOR EVALUATING STUDENTS'KNOWLEDGE AND SKILLS IN MATHEMATICS LESSONS." Евразийский журнал академических исследований 3.4 Part 4 (2023): 129-132.
5. Ugli, Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon, et al. "WHO WAS THE KING IN MATHEMATICS? STORIES ABOUT GAUSS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 230-233.
6. Ugli, Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon, et al. "ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING THE ELECTRONIC LEARNING ENVIRONMENT OF THE HIGHER EDUCATION INSTITUTION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 203-208.
7. Akhmedovna, Madrakhimova Makhfuza, et al. "WAYS TO DEVELOP STUDENTS'RESEARCH COMPETENCIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 190-193.
8. Shukurovich, Madrakhimov Shukhratjon, et al. "THE INTEGRATION OF COMMUNICATION TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SUBJECT OF" METHODS OF TEACHING INFORMATICS"." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 354-359.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA MANQURTLIK ILLATI TAHLILI VA UNING MA'RIFIY AHAMIYATINING IFODALANISHI

Akbarov Odiljon Ergashevich
Namangan davlat universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tel:+99894-156-10-82 e.*mail:* shahinabonu16@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Chingiz Aytmatov asarlarida in'ikos topgan manqurtlikning yuzaga kelish omillari, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega bo'lgan bu illatning namoyon bo'lish shakllari haqida so'z yuritiladi. Yozuvchi asarlari misolida inson hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan manqurtlik ildizlari ikki asosga borib taqalishi tahlil qilingan. Ushbu ma'naviy tanazzul chizgilari adibning dastlabki ijod namunalaridan bo'y ko'rsatib, asardan asarga tadrijiy rivojlanib borgani kuzatiladi, tahlillarga tayanib ikkiyuzlamachilik, xudbinlik, qo'rqoqlik, manfaatparastlik va manqurtlik kabi darajalari tayin etiladi. Milliy qiyofani yo'qotish butun xalq uchun, uning istiqboli uchun ne qadar fojealarga sabab bo'lishi yozuvchi tomonidan mohirona poetik talqin qilingani hamda uning ma'rifiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar*: ma'naviy tubanlik, milliy mahdudlik, manqurtlik omillari, milliy o'zlikni anglash, manqurtlik darajalari, ijtimoiy omil, sog'lom tarbiya.*

ДЕФЕКТ НЕУДАЧИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА АНАЛИЗ И ВЫРАЖЕНИЕ ЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ

Акбаров Одилжон Эргашевич
Наманганский государственный университет
Доктор философии педагогических наук (PhD)
Tel:+99894-156-10-82 e.*mail:* shahinabonu16@gmail.com

Аннотация: *В статье говорится о факторах возникновения манкурта, отраженных в творчестве Чингиза Айтматова, и формах проявления этого порока, имеющего духовную, социально-политическую сущность. На примере произведений писателя проанализировано, что корни несчастий, с которыми может столкнуться человек в жизни, уходят в две основы. Замечено, что линии этого духовного упадка проявляются уже с первых образцов творчества писателя и постепенно развиваются от одного произведения к другому. Писатель умело поэтически интерпретирует, как утрата национального образа становится трагедией для всей нации и ее перспектив, подчеркивается ее воспитательное значение.*

Ключевые слова: духовная основа, национальная ограниченность, факторы бедности, осознание национальной идентичности, уровень бедности, социальный фактор, здоровое воспитание.

THE DEFECT OF FAILURE IN THE WORK OF CHINGIZ AYTMATOV ANALYSIS AND EXPRESSION OF ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

Akbarov Odiljon Ergashevich
Namangan State University
Doctor of Philosophy in Education (PhD)
Tel:+99894-156-10-82 e.*mail:* shahinabonu16@gmail.com

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Annotation: *The article talks about the factors of the emergence of manqurt, reflected in the works of Chingiz Aitmatov, and the forms of manifestation of this vice, which has a spiritual, socio-political essence. Using the example of the writer's works, it is analyzed that the roots of the misfortunes that a person may encounter in life go back to two foundations. It has been noticed that the lines of this spiritual decline appear already from the first examples of the writer's work and gradually develop from one work to another. The writer skillfully poetically interprets how the loss of the national image becomes a tragedy for the entire nation and its prospects, emphasizing its educational significance.*

Key words: spiritual basis, national limitations, poverty factors, awareness of national identity, poverty level, social factor, healthy upbringing.

Kirish

Shoirni shoir, yozuvchini yozuvchi, dramaturgni dramaturg qilgan narsa uning dunyoga, odamlarga aytar o‘z so‘zi borligidadir.

Dunyo miqyosidagi aksariyat adiblarning ana shunday aytar so‘zi buyuk ibrat, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilib, o‘zidan keyingi avlodlarga ma’naviy xazina bo‘lib qoladi. Odamlar u yoki bu muammo bilan to‘qnashganda, qaysidir murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolganlarida muayyan bir adibning asarini, so‘zlarini yodga oladilar, shu muammo, shu vaziyat yechimiga ulardan yo‘l axtaradilar, o‘zlariga saboq oladilar.

Turkiylar faxri bo‘lmish Chingiz Aytmatovning dunyoda aytar so‘zi, bergan ibrat va saboqlari, pand-nasihatlari talaygina. Lekin ular ichida “manqurt” tushunchasi alohida e’tiborga molikdir. Qayerdaki ma’naviy tubanlik, milliy mahdudlik, o‘zlikni yo‘qotish yuz berar ekan, manqurt obrazi eslanadi. Chunki manqurtlik ma’lum bir millat, xalq yoki guruhgagina tegishli emas. U dunyoning istalgan burchida bo‘y ko‘rsatishi mumkin. Bu obraz va tushuncha orqali yozuvchi insoniyatga juda katta tarbiyaviy o‘git bermoqda.

Asosiy qism

Manqurtlikni yuzaga keltiruvchi omillar Adib manqurtlikning oiladan, jamiyatdagi tarbiyaga bog‘liq uzvlardan boshlanishi haqida ogohlantiradi. Yozuvchi manqurtni shunday ta’riflaydi: “Manqurt o‘zining kimligini, qaysi urug‘-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlarini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo‘lib, o‘zining odamligini ham unutib yuboradi. O‘zining insoniy qadr-qimmatini idrok etolmagan manqurt xo‘jalik ishlari nuqtayi nazaridan bir qancha afzalliklarga ega edi. U notavon zabonsiz bir maxluq bo‘lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Qochaman, qolaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Quldor uchun eng dahshatli narsa-qullarning isyoni. Har bir qul siymosida isyonkorlik ruhi yashiringan. Yolg‘iz manqurtgina bundan mustasno, isyon ko‘tarish, bo‘yin tovlash unga butunlay yot. Bunday tushunchalar unga begona! Unga soqchi qo‘yishga, ayniqsa, buzuq niyatli kishi sifatida undan gumonsirashga hojat yo‘q. Manqurt xuddi u kabi faqat o‘z egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo‘q. Uning fikri-zikri qorin to‘yg‘azishda, shundan boshqa tashvishi yo‘q. O‘ziga topshirilgan ishni o‘ylamay-netmay, o‘lar-tirilariga qaramay muqarrar bajo keltiradi.

Manqurtlar, odatda, eng past, eng og‘ir ishlarni bajarishga majbur etiladi yoki bo‘lmasa ularga eng zerikarli, eng mashaqqatli xossalarga sabr-toqat talab etiladigan mashg‘ulotlar topshirilar edi. Kimsasiz Sario‘zak yaylovlardagi tuyalar podasidan bir qadam ham nariga bilmasdan azob-uqubatlarga chiday olishi mumkin edi! Birgina manqurtning o‘zi bunday olish joylarida bir qancha tuyachilarning o‘rnini bosa olar edi. Bor-yo‘g‘i niyati-qorni to‘ysa. Shunda u qishin-yozin demay, yolg‘izlik azobiga ham, boshqa har qanday mahrumliklarga ham parvo

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

qilmay, tinimsiz ishlayveradi. Xo‘jayinning amri manqurt uchun ham farz, ham qarz. Uning o‘ziga esa xo‘rag-u dashti biyobonda muzlab qotib qolmaslik uchun kifoya qiladigan ust-bosh bo‘lsa bas. Bo‘lak hech narsani talab qilmaydi” [Aytmatov 1989, 108–109].

Bunday holga inson o‘zidan o‘zi tushib qolmaydi. Risoladagidek odam atayin manqurtga aylantirilgan. “Asrga tatigulik kun” romanida bu jarayon batafsil tasvirlangan. Albatta, romanda keltirilgan afsona ramziy bir parda xolos. Uning orqasida ma’naviy ijtimoiy-siyosiy voqealik yashiringan. Yozuvchi asarlarini o‘qir ekanmiz, hayotdagi duch keladigan manqurtlik ildizlari ikki asosga borib taqalishini anglash mumkin:

1. Oilaviy muhit ta’siri-bunda nasliy omil, ota-onaning tuban ma’naviy qiyofasi oila a’zolari o‘rtasidagi munosabat halollikka asoslanmagan hayot tarzi.

2. Ijtimoiy muhit, ya’ni jamiyatda adolat ijtimoiy noting mafkuraning ustuvorligi, ta’lim-tarbiya tizimining noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi va boshqalar.

Mazkur tuban ikki asos taqdir taqozosi bilan tutashib qolganda tom ma’nodagi ma’naviy jihatdan inqirozga yuz tutgan manqurtlar paydo bo‘la boshlaydi. Aksar hollarda ular bir-biriga bog‘liq boladi. To‘g‘rirog‘i, ijtimoiy omil ko‘pincha oilaviy nosog‘lom muhitning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Yaqin o‘tmishimizga nazar solaylik.

Sho‘rolar hokimiyati davrida mustabid tuzumni barqaror ushlab qolish, asoratdagi millat va xalqlarni mutelikda saqlash, so‘zsiz itoat etishlarini ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan edi. Xalq tarixini yo‘qotish, milliy qadriyatlarni cheklash, xalqlar e’tiqod qilgan dinni taqiqlash, urf-odatlarga mensimaslik bilan qarashni shakllantirish, milliy tillar qo‘llanish doirasini, hatto o‘z hududida toraytirish mazkur choralar sirasiga kirar edi.

Ularning bu mudhish harakatlari o‘zlari uchun samara bera boshladi. Asta-sekin milliy qiyofasini yo‘qotgan, o‘z ajdodlarini eslamaydigan, milliy qadriyatlardan uzoq, urf-odatlarni bilmaydigan, ona tilida eplab gapira olmaydigan, dinsiz, milliy g‘ururdan yiroq, ma’naviy tuban avlod shakllandi. Bu avlod muayyan moddiy manfaat uchun har qanday milliy kamsitishlarga sabr qiladi, ijtimoiy adolatsizliklarga loqayd. Biron-bir manfaati uchun arzimagan narsani va’da qilib u yoki bu ishga qo‘yilsa, xo‘jayin (yuqori)ning roziligi uchun o‘z millatdoshlari, yaqinlarini qurbon qilishga tayyor turadi ular. O‘z tarixidan, tilidan, millatidan, dunyo ahlidan ajralib qolganlari bilan ishlari yo‘q. Bu haqida o‘ylamaydilar ham. Shu tariqa jamiyatda manqurtlar tabaqasi shakllandi.

Manqurt obrazi genezisi. Ch.Aytmatov ijodida manqurtlik darajalari

O‘rni kelganda aytib o‘tish kerakki, “manqurt” ijtimoiy-ma’naviy atama sifatida Ch.Aytmatovdan oldin ham badiiy adabiyotda qo‘llangan. Bu tushunchani ilk bor qozog‘istonlik jamoat va siyosat arbobi, xalq yozuvchisi Abish Kekilboyev yozma adabiyotga “Ko‘y” nomli qissasida o‘zi yaratgan obraz orqali kiritadi. Lekin qozoq adibi ham turkiylarning xalq og‘zaki adabiyotidan oziqlangani, shubhasiz. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ushbu mungli qissaning parchalari ilk bor 1967-yilning 24-, 26-, 28- noyabr kunlari “Kommunistik yonbek” gazetasida Mangistau viloyat partiya gaze-tasining sahifalarida chop etildi. “Juldiz” mashhur adabiy-badiiy jurnalida qissa 1967-yildagi 12-sonda chop etildi. Moskvada 1969-yilda “Unutilgan yillar balladalari” nomi ostida nashr etilgan. Nemis tilida hikoya 70-80-yillarda bir necha marta chop etildi. Ballada xuddi Ch.Aytmatov romanida bo‘lgani kabi asir yigitlarni manqurtga aylantirish jarayoni lavhasi tasvirlangan [https://tengrinews.kz/opinion/mankurtizm-kak-metafora-epohi-75/(2022.10.03)]. Chingiz Aytmatov qissadagi ana shu lavhani romaniga olib

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kirib, janr imkoniyatlaridan foydalangan holda uni katta miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tushuncha darajasida ko‘tardi.

Chingiz Aytmatov mutafakkir adib, umuminsoniy qadriyatlar miqyosida fikrlaydigan katta shaxs, millatini sevguchi vatanparvar sifatida o‘z atrofida yuz berayotgan sho‘ro siyosatining ma’naviy jallodliklariga munosabat bildirmay turolmasligi tabiiy edi. Abish Kekilboyevning qissasidagi lavha buyuk yozuvchiga o‘z munosabati, aytish mumkinki, isyoni uchun turtki bergan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. O‘rni kelganda eslatib o‘tish lozimki, Markaziy Osiyo yozuvchilari ijodida manqurtlik mavzusida alohida kuzatishlar qilingan[Акматалиев 2008, 73].

Adib asarlarini o‘qib, o‘rganar ekanmiz, manqurtlik turlicha shakl va mazmunda voqelanishini kuzatamiz. Manqurtlik tom ma’nodagi insoniy, milliy, ma’naviy qadriyatlardan mosuvo bo‘lish, u yoki bu shaklda insoniy o‘zligini yo‘qotishdir. Albatta, har bir inson muayyan kamchilik va qusurlardan xoli emas-xarakter va shaxsi- yatdagi kemtikliklar bani odamning hamrohi. Asosiysi-bu ularning (ya’ni qusurlar) domiga qulamaslik, faqat illatlardan iborat, ma’navi- yatdan uzoqlashgan kimsaga aylanib qolmaslik. Yo‘qsa, manqurtlik deya atalmish tuban yorliq kishining peshonasiga bosiladi. Adibning barcha asarlarida manqurtlik ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega bo‘lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Bir kichik imkoniyat tug‘ilganda o‘z maishati, nafsining istaklarini qondirish payiga tushadigan kimsalar. Ular odamlar orasida yurib, xalq ichida birdaniga ko‘zga tashlanmaydilar, hatto yaxshilik, ma’naviyat, or-nomus borasida lof uradilar. Xalq tili bilan aytganda “ichi boshqa, tashi boshqa”, o‘zining aslidagidek ko‘rinmaydigan, tog‘rirog‘i, o‘zining ichki yuzini-“men”ini ko‘rsatmaydigan munofiqlardir.

2. O‘z halovati, tinchligi oila a’zolarining sha’ni, nomusidan ustun qo‘yadigan, Vatan ozodligi, ravnaqidan ko‘ra o‘z jonini saqlashni afzal biladigan, o‘z manfaatini ko‘zlaydigan kimsalar.

3. Boshqalarning orzulari, istak, quvonchlari, dard-u qayg‘ulariga befarq, hatto o‘z yaqinlari, oila a’zolariga zulm qilishdan tiyilishni bilmaydigan, o‘z istak va dardlari yo‘lida ularni qurbon qilishdan qaytmaydigan toshyurak, hissiz nafs bandalari.

4. Yuqorida ta’riflanganidek, o‘z xalqi an’analariga zid ravishda tarbiya topgan, millat qadriyatlariga begona, o‘z ona tilisi qolib ajnabiy tilida so‘zlashni faxr biladigan va ota-bobolari diniga bepisand (yoki dushman), o‘zgalarning soxta mafkurasiga yetov, boshqalarning urf-odatlariga ko‘r-ko‘rona ergashuvchi tarixiy xotira, milliy shuur hamda diniy tuyg‘udan mosuvo ma’naviy tanazzul timsollari suratlarigina tirik jism egalari.

Mazkur to‘rt guruhning birida yoki barida namoyon bo‘ladigan kimsalar hayotda o‘zlarining holatiga ko‘ra manqurtlikning muyyan darajalarini aks ettiradilar. Hayot haqiqatlarini realistik bo‘yoqlarda tasvirlagan Chingiz Aytmatov asarlarida manqurtlikning ushbu darajalari turli obrazlarda in’ikos topganini ko‘rish mumkin.

Shunday nigoh bilan qaraganda Manqurt obrazini Chingiz Aytmatov o‘z ijodiga “Asrga tatigulik kun” romanida birdan kiritgan desak, yanglishamiz. Manqurt timsoli ildizlari uning ilk qissalaridan mavjud edi deyishga asosimiz bor. Masalan, adibning 1958-yili yozilgan, uni butun dunyoga mashhur qilgan “Jamila” qissasidagi bir-ikki epizoddagina ko‘rsatilgan bo‘lsada, yurt boshiga tushgan kulfat, ya’ni urush paytida ham o‘z maishatini o‘ylaydigan Usmonda manqurtlik chizgilari bor edi. O‘zi Jamilaning eri frontdagaligidan foydalanib, uni yo‘ldan urmoqchi bo‘lgan Usmon juvonning Doniyor bilan qochib ketganidan go‘yo o‘zini

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

oriyat talashganday ko‘rsatib: “Afsuski, o‘shanda qo‘limga tushmadi-da, unisini ichak-chavog‘ini ag‘darib, bunisini sochlaridanotga bog‘lab sudratardim!” [https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/chingiz-aytmatov-jamila-qissa.html(2022.10.03)] deydi. Bu obrazda yuqorida keltirganimiz manqurtlikning birinchi ko‘rinishi bo‘lgan munofiqlik, ya’ni ikkiyuzlamachilik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday ma’naviy illat zamonamiz kishilari, o‘tmishda har qanday millat vakillari orasida u yoki bu hayotiyvaziyatlarda tez-tez uchraydi.

Ikkiyuzlamachilik omillari sifatida psixologik manbalarda quyidagilar bo‘lishi mumkinligi keltiriladi:

1. Konformizm. Odamlar tabiatan juda shafqatsiz va bu dunyoning zaiflari omon qolish uchun moslashishga majburlar deb oqlash. Ko‘pincha bunday xatti-harakatlar ikkiyuzlamachining o‘zi uchun ham jirkanchdir, lekin u bu haqda hech narsa qila olmaydi.

2. O‘z-o‘zini aldash. O‘zini bor holidan ko‘ra boshqalarga afzal-roq ko‘rsatish istagi. Bu mayda xudbin manfaatlar uchun qilinadi.

3. Shaxsiyatdagi kemtiklik, maydalik. Bunday odamning dunyoqarashi notugal, shaxsiyatida ma’naviy sifatlar shakllanmagan va u qanchalik yomon ish qilayotganini o‘ylab ham ko‘rmasligi, ba’zan xatti-harakatini to‘liq anglamasligi mumkin [https://znay. co/152-chto-takoe-licemerie.html (2022.10.03)].

Tili boshqa, dili boshqa bo‘lishlik manqurtlikning boshqa ko‘rinishlari uchun eshik ochadi, shuning uchun bu illatning yosh avlod xarakteriga o‘tirib qolmasligi uchun ularning kichikligidan ham ota-ona, ham pedagoglar tadbir olishlari muhimdir.

“Yuzma-yuz” qissasida Ismoil yigitlik sha’ni, bir insonga xos bo‘lgan oriyatni yig‘ishtirib Vatan himoyasidan ko‘ra o‘z jonini qutqarishni afzal biladi. Tasnifimizning ikkinchi guruhiga kiruvchi bunday kimsalar o‘zining ertasini, oilasining sha’ni, yaqinlari, farzandlarining el orasida qanday bosh ko‘tarib yurishini ham o‘ylamaydigan qo‘rqoq odamlardir. Asar haqida yozuvchining o‘zi yozadi:“Fikrimcha, o‘sha zamon kishilari fojiasining but-butun teranligini ko‘rsatishga endi erishdim, gap shundaki, urush biz uchun nafaqat zafarli tarixiy voqelik, balki u alohida olingan har bir inson uchun ham og‘ir sinov bo‘ldi. Hozir biz kuyib-pishayotganimiz haqiqatlar, urush o‘z holicha mudhish halokat manbayi, har qanday holda ham,hatto g‘olib tomonga ham ulkan falokat va son-sanoqsiz qurbonlar keltiruvchi ofat ekanligi o‘sha yillardayoq anglangan edi. O‘shandayoq alohida shaxs, yakka inson bilan jamoaviy burch, xususan, harbiy burch o‘rtasida ziddiyat yuz ko‘rsatgan edi” [http://uzsmart. ru/kutubxona/asarlar/4697-chingizxonning-oq-buluti-qissa- chingiz-aytmatov.html 2022.10.03]. Demak, yozuvchi aytganidek,yakka inson bilan jamoaviy burch shaxslarning asli kimligini ko‘rsatib qo‘yadi: yo botinida o‘zi ham bilmaydigan ichki qat’iyat, ma’naviykuchni, sabotni yuzaga chiqaradi yoki ichki olamida yashirinib yotganqo‘rqoqlik, subutsizlik, orsizlikni namoyon etadi. Bunday obrazlar sirasiga yana “Asrga tatigulik kun” romanidagi singlisining kuyovi ustidan tegishli organlarga ariza yozgan Zarifaning akasini ham kiritish mumkin. O‘z jigarining turmush o‘rtog‘i-kuyovi haqida ungato‘nkalayotganig‘vo, yolg‘on, bo‘htonlarni tasdiqlab, (hali birov undan so‘ramasdan turib) ko‘rsatmalar berish (ariza yozish) bilan jonini qutqarishga kirishadi. Jonni qutqarish u uchun bir ziyoli insonni azob, qiynoqlarga mahkum qilish, singlisi va jiyanlarini baxtsizlik komiga otish evaziga sotib olingan xiyonat edi. Qo‘rquv uni ana shunday jonzotlarga xos bo‘lgan nima qilib bo‘lsa ham jon qutqarish talvasasigasolib qo‘ygan edi.

Psixologiyada qo‘rquvning kelib chiqishi bilan bog‘liq uch omil ko‘rsatiladi:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1. Qo‘rquv paydo bo‘lishiga ta’sir qiladigan muhim tarkibiy qismlardan biri insonning xayolparastligidir. Aslida, bu qo‘rquvlar bolaligida tug‘iladi.

2. Ko‘pincha bolalikdan qo‘rqish takliflar bilan bog‘liq, psixologiya bu yoshi kattalar tomonidan ongli ravishda qo‘rqitilishigasabab bo‘lgan. Bu ba’zan o‘qituvchilar, ota-onalar biron bir sababga ko‘ra biror narsaga erishish uchun bolalarga tushuntirishda dangasabo‘lishlari bilan bog‘liq.

3. Ba’zan qo‘rquvga tanadagi fiziologik o‘zgarishlar, kasalliklar, psixologik muammolar sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, ruhiy tushkunlikka duchor bo‘lganlar ehtimol qo‘rquvga tushishadi” [https://kh davron.uz/ kutubxona/jahon/turk/chingiz-aytmatov-jamila-qis-sa.html (2022.10.03)].

Ko‘rinadiki, ushbu uch omillardan ikkitasi bevosita bolalik bilan aloqador, uchinchisi ham bolalik yoki o‘smirlikda yuz berishi mumkin. Bu esa hali bola kichik yoshda ekan, unga qo‘rquv hissini yengishni o‘rgatish, qo‘rqoqlikning oqibatlarini anglab yetishiga erishish, ayniqsa, buning ruhiy zaiflik ekanini tushuntirib, undan orqilish tuyg‘usini shakllantitirish kerakki, ziddi bo‘lgan jur’at, matonat, jasorat shaxsiyatining sifatiga aylansin.

Biz bergan manqurtlikning uchinchi guruhiga mansub obrazlar qatorida avvalo “Oq kema”dagi O‘rozqul turadi. Qissa avvalida kitobxon uni bola portfel sotib olib, hammaga quvonchini bildirib yugurib borayotgan paytda uchratadi. “Lohas bo‘lgan karaxtO‘razqul xrom etigining uchini uzangiga ehtiyotsiz tirab, egar- da mudrab borardi. Bola qo‘lidagi portfelini silkitib ro‘parasidan chopqillab chiqib qolganda, bu tasodifdan uning otdan uchib ketishi-ga sal qoldi.

- O‘razqul amaki, portfelimni ko‘ring! Men maktabga boraman. Mana mening portfelim!

- Obbo palakat-e! – O‘razqul seskanib jilovni tortarkan, koyiy boshladi.

- U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf ko‘zlarini tiqdi:

- Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?

- Uyga ketyapman. Portfelimga qarang, uni Seydahmadga ko‘rsatib kelyapman, - dedi bola ming‘irlab.

- Mayli, o‘ynayver, -to‘ng‘illadi O‘razqul va egarda omonatgina tebranib yo‘lida davom etdi. U o‘z taqdiridan ranjib yurgan, xudo uni farzand dog‘ida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh- o‘ntalab bola berib qo‘ygan bir paytda, bu ahmoqona portfel-u, ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo‘lmish bu bola bilan qanchalikishi bor...” [https://saviya.uz/ijod/nasr/oq-kema/ (2022.10.03)].

Murg‘ak bir bolaning quvonchini his etishga qodir bo‘lmagan,iliq gap aytishni o‘ziga ep bilmagani ustiga “Obbo palakat-e!” deya koyib ketgan bu hissiz gavda xotinini tug‘maslikda ayblab davomli do‘pposlaydi: “O‘razqul amaki Bekey xolani urganda boboga rahming keladi. Boboning o‘zini ursa yengil bo‘lardi. Bekey xola qichqirgandau biram qiynaladiki. Qo‘lidan nima ham kelardi?” Toshyuraklik bu odamning doimiy sifatiga aylangan. U uchun boshqalarni tushunish,kimgadir mehr berish begona, yuksak ideallar, ma’naviy qadriyatlar,milliy an’analar bunday kishilar uchun ahmoqlarning o‘ylab topgan cho‘pchagi. Insoniy yashashdan ko‘ra nafs istaklarini qondirish orqali kun o‘tkazishdek instinkt bilan vaqt o‘tkazish bundaylarning ha- yot tarziga aylangan. Chingiz Aytmatov manqurtlikning bu uchinchi darajasini (yuqoridagi tasnifimizga ko‘ra) “Bo‘tako‘z”dagi Abubakr obrazi orqali ham ta’riflaganini, tasvirlaganini ko‘rishimiz mum- kin. Anorxoy dashtida birga yotib turadigan, ishlaydigan Sadabek,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Kamollarga noinsoniy munosabatlari, shuningdek, unga ishongan, o‘zini bag‘ishlagan, butun illatlarini ko‘ra turib qabul qila olgan va kelajak orzularini bog‘lagan Qalipani tashlab ketishi uning manqurtlik psixologiyasiga dalolat qiladi. Faylasuf Konfutsiy “Barcha jinoyatlar ichida eng og‘iri-bu toshko‘ngillikdir” [Айтматов 1989] degan ekan. Yana bir manbada aytiladi: “Shafqatsizlik boshqalarga nisbatanqo‘pol va g‘ayriinsoniy munosabatdir. Shafqatsiz kishi rahm-shafqat qila olmaydi, u boshqa odamlarga ularning his-tuyg‘ulari haqida o‘ylamasdan zarar etkazish istagi bilan to‘lgan bo‘ladi” [https://www.kritika24.ru/page.php?id=86892 (2022.10.03)].

Yozuvchi bu kabi obrazlar orqali manqurtlikning chizgilarini u yoki bu darajada berib borar ekan, go‘yo o‘z o‘quvchilarini “Asrga tatigulik kun” romanidagi butun bir jamiyatning, butun bir millatning fojiasiga sabab bo‘ladigan manqurtlik ijtimoiy illatini qabul qilishga, ya’ni mohiyatini anglashga tayyorlab boradi. Biz so‘z yuritayotgan illatning to‘rtinchi-eng yuqori darajasi keng ijtimoiy mohiyat kasb etadigan, jamiyatning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘ladigan ko‘rinishi ikkiyuzlamachilik, milliy mahdudlik, o‘z millati tarixidan mosuvolik, diniy qadriyatlariga begonalik, mislsiz xudbinlik va manfaatparastlik, shafqatsizlik va qo‘rqoqlikning mujassamidir. Oldingi uch darajadagi manqurtlik ko‘rinishlari nobop oilaviy sharoit, tarbiyadagi og‘ishlar, nosog‘lom muhit tufayli ayrim ota-onalar, pedagoglar yoki guruhlarning aybi, e’tiborsizligi bilan yuzaga kelsa, bu to‘rtinchi daraja mavjud ijtimoiy tuzum, oldindan rejalashtirilgan,ongli ravishda tashkillashtirilgan maqsadlarni amalga oshirishnatijasida ataylab voqelantiriladi.

Manqurtlik – maqsadli amalga oshirilgan geosiyosat mahsuli ekanligi va uning yozuvchi ijodidagi badiiy in’ikosi

Sho‘rolar davrida yosh avlodni manqurtlashtirishning mukammal tizimi ishlab chiqilgan edi. Eng avvalo, milliy respublikalarda yerli xalqning tilini qadrsizlantirish, o‘z hududida amal qilish doirasini toraytirish siyosati olib borildi. Rus tilini barchahududlarda mavqeyini oshirish maqsadida bu tilni bilganlarga har tomonlama ba’zan ochiq, ba’zan yashirin imtiyozlar berila boshladi. Boshqa millatlatga “katta og‘a”lik da’vosida bo‘lganlar o‘z tillarini bilganlarga har qanday lavozim, mansab eshiklari ochiqligini ta’minladilar. Odamlar orasida farzandlarining boshqalardan ajralib turishi, ustunroq mavqe egallashi payida bo‘lganlar hukmron doiralarning ruslashtirish siyosati qarmog‘iga ilindilar. Ular farzandlarini maxsus maktab-internatlarga, rus sinflari yoki maktablarga bera boshladilar. Ayrim hollarda oddiy xalq vakillari farzandlari kelajagi uchun shunday yo‘l tutishga majbur bo‘lardilar yoki siyosatdonlar ko‘zlagan g‘ayriinsoniy maqsadlarni xayollariga ham keltirmay o‘z qo‘llari bilan bolalarini ularning qo‘liga tutdilar. Shu o‘rinda “Asrga tatigulik kun” romanidagi Kazangapning o‘g‘li Sobitjonni uydan uzoqda yotib o‘qiydigan internatda o‘qitishini eslash o‘rinli. Sobitjonning manqurtlashishini, avvalo, u o‘qigan in- ternat muhitidan izlash kerak bo‘ladi.

Ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni imkon qadar xalqning kundalik turmush tarzidan chiqarib tashlash payida bo‘lindi: ularga eskilik sarqiti, qoloqlik belgisi sifatida qaraldi. Odamlar asta-sekin bu ma’naviy tazyiqqa ko‘nib yashay boshladilar, keyingi avlod esa buni odatiy holat deb qaray boshladi. Bu esa, avvalo, milliy asosdagi oilalarning barham topa borishida, ota va onalarning farzandlar taqdiri oldidagi mas’uliyatsizligida namoyon bo‘la boshladi. Faqat o‘ziga qulaylikni o‘ylagan ayrim ota-onalar hayotiy qiyinchiliklar, o‘zaro tushunishlikdagi ziddiyatlarning dastlabki ko‘rinishlaridayoq bir-birlaridan voz kechib, zurriyotlarini taqdirning hukmiga tashlab ketishni odat qila boshladilar. O‘rta Osiyo xalqlarida oila muqaddas sanalgani, muqaddas nikohni umrining so‘nggigacha

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

saqlab qolish burchi G‘arb qarashlari ta’sirida unutila boshladi. Ch.Aytmatov bu tanazzulni yosh avlod qismati, ta’lim-tarbiyasiga taalluqli fojia sifatida “Oq kema” qissasida ta’sirli tasvirlaydi. “Aytmatov asarlarida, - deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla as-Salom, har gal “kosaning tagida nim kosasi” bo‘ladi. “Oq kema”da ham hamhar bir tekst ostida qandaydir muddao, “ost tekst” bor. Shu tufayli ushbu qissani obdon o‘ylab mutolaa qilinmasa, yoxud aksincha, uni o‘qib chiqqandan so‘ng “bo‘lib o‘tgan” voqealar xususida jiddiy o‘ylab ko‘rilmasa, ya’ni muallifning muddaosi “aql ko‘zi”bilan ilg‘ab olinmasa, kitobni umuman o‘qib o‘tirishning ham hojati qolmaydi. Chunonchi, qissada ro‘y-rost aytilmagan, ammo “nazarda tutilgan” muddao-har bir oilaning buzilishidan dastavval farzandlar jabr ko‘radilar (bu o‘rinda esa bola halok bo‘ladi)-degan tezis asosida hajman ushbu qissadan bir necha barobar katta ilmiy tadqiqot ham yaratish mumkin edi. “Oq kema” esa o‘zining ana shunday qisqaligi, ya’ni unda hamma narsaning “aytilmaganligi” bilan ma’nodor va qimmatlidir” [https://hozir.org/asrga-tatigulik-kun.html?page=2 (2022.10.03)].

Uchinchi tomondan ajdodlar e’zozlab kelgan, xalq ma’naviy olamining asosi bo‘lgan diniy qadriyatlar jamiyatda butunlay inkor etildi, zararli mafkura sifatida e’lon qilinib, yosh avlodni bu mislsiz ma’rifat bulog‘idan mosuvo qilindi. Ch.Aytmatov “Chingizxonning oq buluti” qissasida (“Asrga tatigulik kun” romaniga ilova-qissa) Yaratgandan yuz o‘girgan jamiyatda manqurtlashgan kimsalaro‘zlarining manfur mafkurasiga moslab odam-xudo yaratib olishini ko‘rsatadi. Buni Tansiqboyev tipidagi safdoshining bir ziyofatda aytgan qadah so‘zi vositasida ko‘rsatiladi: “Xudoning yo‘q ekanliginihamma biladi, har bir sovet o‘quvchisi biladi. Lekin men boshqa nar- sa haqida gapirmoqchiman, men dunyoda xudo bor demoqchiman. Bir daqiqa sabr, kulmanglar, azizlarim…. Bizning xudomiz hoki- miyatimiz boshlig‘i, gazetalarda yozayotganlaridek, uning irodasi bilan sayyoramizda butun bir zamon boshlandi, va biz g‘alabadan g‘alabaga, butun dunyoda kommunizmning tantanasi sari qadam tashlayotirmiz: bu zamon jilovini qo‘lida tutib turgan bizning dono dohiymiz, tushunib turibsiz, karvon boshimiz bizning qimmatli Iosif Vissarionovichdir!” [http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/4697-chingizxonning-oqbuluti-qissa-chingiz-aytmatov.html(2022.10.03)].

Dinsizlik jamiyatida Aytmatovning “Qiyomat” romanida bo‘lganiday Avdiy kabi pokdomon kishilar mahv bo‘ladi, Bo‘ston singari mehnatkash, samimiy insonlar cheksiz g‘am-anduh domiga g‘arq bo‘ladilar, yana ko‘plab o‘z nonini halollab topayotgan kishilaryanglig‘ hayvonot dunyosi vakillariga ham najot yo‘li bekiladi, tabiiy hayot tarzi nasib etmaydi (sayg‘oqlar qirg‘ini, Akbar ava Toshchaynar qismati misolida). Dinsizlik jamiyati kecha ma’sum bo‘lgan go‘daklardan “Qiyomat”dagi Bozorboy, Kepa, Mishash, Gamlet Galkin, Kandalov, Uzuqboy, og‘ufurushlar Petruxa, Lyonka, Grishanlarni; “Asrga tatigulik kun” romanidagi tergovchi va leytenant Tansiqboyevlar, Sobitjon kabilarni; “Oq kema”dagi O‘razqullarning jamiyatda urchishiga zamin hozirlagan. Yuqorida keltirganimiz G‘aybulla as-Salom ta’biri bilan aytganda, asarlarning matn osti ma’nolarida adib millatning ertasi bo‘lmish yosh avlodni e’tiqodsiz, yuksak ideallarsiz yashaydigan to‘daga aylantirmaslik chaqirig‘i bilan chiqadi. “Qiyomat” romanidan olingan quyidagi fikrlar qur’oniy ta’limotga eshligi bilan diqqatni tortadi: “…odam nega tug‘iladi-yu, nega o‘ladi va nega o‘lim doim sen bilan birga, sendan nari jilmaydi va o‘lgandan so‘ng o‘lim yo‘q, lekin hayot o‘limdan yuqori, dunyoda hayotdan ko‘ra yuqori o‘lchov yo‘q-shuning uchun tirik jonni mahv etma, lekin elingga yov bostirib kelsa, dar- hol himoyaga otlan, sevganingning nomusini asra, xuddi ona Yerni yotlardan asraganday; ayriliqni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

hech totib ko‘rganmisan, bilasanmi, ayriliqning dushvorligini, xuddi yelkangga cho‘ng tog‘larning yuklari ortilgan”[Айтматов 1989].

To‘rtinchidan, xalq tarixida o‘tgan qahramonlar, millat faxri bo‘lgan insonlar tuhmat ostiga olindilar. Millatning ong-u shuuridan tarixiy xotirani o‘chirish, xalq uchun, ayniqsa, yosh avlod uchun ma’naviy taqlid manbayi bo‘lgan buyuk shaxslar sha’niga turli bo‘htonlar, tuhmatlar uyushtirish tadbirlari maqsadli va tizimli yo‘lga qo‘yildi. Bizning yaqin tariximizda Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi dinimizning buyuk namoyandalari, Amir Temur, Amir Umarxon kabi hukmdorlar, Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Xaziniy kabi mumtoz adabiyot vakillari yosh avloddan uzoqlashtirildi, tarix oldidagi ularning xizmatlari qadrsizlantirildi, nomlari qora bo‘yoq bilan yozildi. Bundan tashqari o‘z zamonidagi millatning eng oldi ziyoli qatlami bo‘lgan, xalqning ong-u tafakkurini uyg‘otishga qodir zotlar yo badarg‘a qilindilar yoki qatag‘onga uchradilar. Bu o‘z navbatida, yangi avlodni haqqoniy tarixiy xotirani shakllantirish, milliy faxr, diniy ma’rifatga tayangan ma’naviyat kabi qadriyatlar asosida tarbiyalashni cheklab qo‘ydi. Xalq xotirasi- ga tegishli afsonalarni, o‘zi boshidan kechirgan voqelarni yozgan Abutolib Quttiboyevning ayanchli qismati bunga dalil bo‘ladi. Aynan millatning vijdoni, kelajak uchun o‘zini doimo mas’ul deb bilgan, fikri ochiq o‘qituvchining (aynan pedagogning) bu qadar azob, qiynoqlarga solinishi, ajal komiga uloqtirilishi aslida sho‘ro tuzumining millatertasi bo‘lmish yosh avlodni manqurtlashtirish, milliy tarbiyani barbod qilish yo‘lidagi tadbirlaridan biri edi.

Beshinchidan, davlat tashviqot tizimi bularning barchasiga xizmat qildi. Televideniye, radio, gazeta va jurnallar tinimsiz rus tilining xalqlar orasida muloqot tili ekanini, “Buyuk Leninning tili” ekani haqida jar solar ekan, milliy til ahamiyati, ona tilining muqaddasligi haqida so‘z ochmasdi; milliy urf-odat, qadriyat va an’analarga nigilist munosabat, ularga istehzo bilan qarash kundalik matbuot mavzusi edi; ateizm alohida fan sifatida shakllantirilgan, ateistlarning matbuotda chiqishini tizimli yo‘lga qo‘yish tashkil etilgandi va bu rag‘batlantirilardi; shuningdek, xalqning uzoq va yaqin tarixida o‘tgan yoki zamondosh bo‘lgan millat fidoyilari salbiy obrazini omma ongida shakllantirish uchun kundalik axborot vositalari safarbar etilgandi. Harbiy unvoni oshirilganligi munosabati bilan berilgan ziyofatda Stalinni xudo deb bilishini e’lon qilgan Tansiqboyev hamkasbining nutqi bejiz publitsistik uslubda berilmagan: “Bizdan boshqacha o‘ylaydigan biron kishi yoki kallasida biznikidan boshqa g‘oyalarni ko‘tarib yurgan hech bir kimsa temir Dzerjinskiy bizga vasiyat qilib ketgan jazokor chekist qilichidan qutulib keta olmaydi. Tushunib turibsiz, Biz dushmanlarga oxirigacha urush e’lon qilganmiz. Ularning nasl-nasabi, oilalari va ularga xayrixoh unsurlar proletar ishi yo‘lida, kuzda xazonrezgini bir joyga to‘plab yoqqanday qirib tashlanadi. Chunki mafkura faqat bitta bo‘lmog‘i kerak, tushunib turibsiz, boshqa mafkura bo‘lishi mumkin emas. Mana biz siz bilan yerni mafkuraviy dushmanlardan, burjua va boshqalardan tozalayapmiz, dushman qayerga yashirinmasin, qan-chalik ayyorlik qilmasin, unga shafqat yo‘q. O‘rtoq Stalin bizga ta’lim berganidek, tushunib turibsiz, sinfiy dushmanni hamma joyda fosh qilish, dushman agenturasini ochib tashlash, dushmanni yer bilan yakson qilish, xalq ommasining ruhini mustahkamlash-bizning shiorimiz ana shu; men taqdirlangan, menga muddatidan oldin unvon berilgan kunda bundan buyon ham Stalin ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay boraveraman, dushman jinoiy niyatlarini fosh qilaveraman deb qasam ichaman, ana shunday kirdikorlari uchun dushman, albatta, qattiq jazo olajak”. Manqurtlarning bu kabi notiqligiga o‘sha davr matbuoti murabbiylik qilgandi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosa

Chingiz Aytmatov o‘tgan asrning 50-yillari boshidagi bu hayot manzaralarini tasvirlar ekan, sho‘ro davrida yetishtirilgan bu manqurtlar -20-30-yillarda tug‘ilgan, hali yozilmagan sahifa bo‘lganmurg‘ak go‘daklar nobop, zolim tuzum ta’sirida emas, ajdodlari tili, dini, urf-odatlari asosida tarbiyalanganlarida edi, o‘z millatdosh-lari qotili emas, balki yelkadoshi, suyanchig‘i bo‘lar edilar. Demak, hamma narsa tarbiyaga, sog‘lom tarbiya uchun sog‘lom mafku- raga, milliy ma’naviyatga yo‘g‘rilgan ta’lim tizimiga bog‘liq ekan. Chingiz Aytmatovning dunyo ahliga baland ovozda bildirgan aytar so‘zi, hech ahamiyatini yo‘qotmaydigan da’vati, doimo jaranglab turadigan murojaati ana shundan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акматалиев, А. 2008. *Тема манкуртизма в произведениях писателей Центральной Азии* (Ч.Айтматов, А.Кекильбаев, Т.Джумагельдиев) / 38 ICANAS: Международный конгресс по изучению Азии и Северной Африки: сборник статей. Ankara.
2. *Манкуртизм как матафора эпохи.* Elektron manba: https://tengrinews. kz/opinion/mankurtizm-kak-metafora-epohi-975/ (2022.10.03).
Как известно, Ньютон считал возможным существование, абсолютно покоящегося пространства. Естественно, возник вопрос об определении скорости движения систем отсчета, в частности Земли, в этом пространстве, т. е. об абсолютной скорости движения. Однако всякое кинематическое измерение скорости предполагает наличие системы отсчета, связанной с некоторыми телами. Последние же сами могут перемещаться в пространстве. Таким образом, кинематики, всегда измеряется относительная скорость. Например, путем астрономических наблюдений определяется скорость движения Земли относительно Солнца и звезд, принятых за неподвижные. Определить абсолютную скорость движения системы можно было бы при условии, что физические явления в системе зависят от абсолютной скорости ее движения. Но принцип относительности Галилея, устанавливающий равноправие всех инерциальных систем по отношению к механическим явлениям, делает невозможным определение абсолютной скорости с помощью механических явлений.

С развитием электромагнитной теории Максвелла – Лоренца в конце XIX века с абсолютно покоящимся пространством связывали электромагнитные явления, в частности распространение света. Предполагалось, что свет распространяется в абсолютном пространстве с постоянной скоростью. В таком случае, по формуле сложения скоростей Галилея $u = u' + \upsilon$
можно ожидать влияние годового движения Земли по орбите на скорость распространения света по различным направлениям на поверхности Земли. Для экспериментального обнаружения данного эффекта американским физиком Майкельсоном был в 1881 г. поставлен опыт, неоднократно затем повторенный в различных вариантах. Опыт относится к числу тонких и сложных опытов, так как скорость движения Земли мала по сравнению со скоростью света. Для регистрации различия скоростей в продольном и поперечном направлениях к движению Земли использовалось явление интерференции света. Однако опыт не дал ожидаемых изменений скорости света. То есть свет распространялся на Земле во всех направлениях с одной и той же скоростью. Движение Земли не повлияло на протекание электромагнитного процесса — распространение электромагнитных волн.

В течение всей своей жизни американский физик Альберт Абрахам Майкельсон (19.12.1852-09.05.1931) совершенствовал методику измерения скорости света. Создавая все более сложные установки, он пытался получить результаты с минимальной погрешностью. В 1924 - 1927 годах Майкельсон разработал схему опыта, в котором луч света посылался с вершины горы Вильсон на вершину Сан – Антонио (расстояние порядка35 км). В качестве вращающегося затвора было использован вращающееся зеркало, изготовленное с чрезвычайной точностью и приводимое в движение специально разработанным высокоскоростным ротором, делающим до 528 оборотов в секунду (рис.1).

Изменяя частоту вращения ротора, наблюдатель добивался возникновения в окуляре устойчиво изображения источника света. Знание расстояния между установками и частоты вращения зеркала позволяли вычислить скорость света.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427




Рис.1. Опыт Майкельсона.

Начиная с 1924 года и до начала 1927 года было проведено пять независимых серий наблюдений, повышалась точность измерения и частоты вращения ротора.

Результаты же всех измерений Майкельсона можно записать как $c = (299796 \pm 4)$ км/с.

Результат опыта Майкельсона находится в резком противоречии с законом сложения скоростей Галилея. Он показал, что скорость света равна в любой системе отсчета, а не только в какой-то одной, привилегированной. Опыт Майкельсона может послужить исходным для изложения в школе кинематики теории относительности. Примерная последовательность рассмотрения вопроса такова.

Напоминается принцип относительности Галилея и выясняется невозможность обнаружения абсолютного движения с помощью механических процессов. Излагается основная идея опыта Майкельсона и его отрицательный результат. Подчеркивается противоречие результата опыта с предположением о существовании привилегированной абсолютно неподвижной системы отсчета. Сообщается новая точка зрения на отрицательный результат опыта Майкельсона и подобных опытов, высказанная А. Эйнштейном в 1905 г. Сообщаются принципы, лежащие в основе частной теории относительности. Специальный принцип относительности Эйнштейна утверждает полное равноправие всех инерциальных систем по отношению ко всем физическим явлениям. Принцип независимости скорости света от скорости излучающего свет источника дополняет принцип относительности. Поскольку предельный характер скорости света связан со вторым принципом, здесь может быть указано на него со ссылкой на экспериментальные факты [4].

Принципы, или постулаты, Эйнштейна приводят к существенным изменениям и уточнениям наших представлений о пространстве и времени.

Постулаты Эйнштейна. Первый постулат – принцип относительности: во всех инерциальных системах отсчета все физические явления протекают одинаково, т.е. по одним и тем же законам. Иными словами, принцип относительности Галилея распространяется на любые физические явления, а не только на механические процессы. Ни один физический процесс не зависит от абсолютной скорости системы отсчета в пространстве [6].

Второй постулат – постоянство скорости света: скорость света не зависит от относительного движения источника света и приемника. Прежде всего, оказывается излишним предположение об абсолютно неподвижном пространстве с какими-то

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

свойствами. Подлежит уточнению и закон сложения скоростей, противоречащий постоянству скорости света в вакууме по всем направлениям во всех инерциальных системах.

3. Анализ полученных результатов

Для получения из принципов Эйнштейна конкретных выводов по первому методику рассмотрим преобразования координат Лоренца.

Первый метод. *Преобразование Лоренца*. Упоминавшийся выше закон сложения скоростей, очевидно, несовместим с принципами Эйнштейна. Причиной этого являются преобразования координат Галилея при переходе от одной инерциальной системы к другой, которые не точно отражают реальные свойства пространства и времени.

Пусть имеются две инерциальные системы отсчета. Свяжем с каждой из них прямоугольную декартову систему координат. Для простоты рассуждения выберем их так, чтобы в начальный момент времени оси совпадали и чтобы относительная скорость движения систем, была направлена по оси OX (рис. 2). Из чертежа следует, что для каждой точки

$$x' = x - \upsilon t, \quad y' = y, \quad z' = z$$

принимается как само собой разумеющееся, что

$$t' = t$$




Рис.2. К выводу преобразований Лоренца.

Эти преобразования носят название преобразований координат Галилея. Пусть материальная точка, находящаяся в момент времени $t = 0$ в начале координат, равномерно движется по оси OX. Тогда

$$\frac{x'}{t'} = \frac{x}{t} - \frac{\upsilon t}{t},$$

Одинаковая величина промежутков времени и пространственных расстояний, инвариантность их по отношению к преобразованиям Галилея

$$\sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2} = \sqrt{(x_2' - x_1')^2 + (y_2' - y_1')^2 + (z_2' - z_1')^2},$$

$$t_2 - t_1 = t_2' - t_1'$$

согласуется с нашими интуитивными представлениями о пространстве и времени, но находится в противоречии с принципами Эйнштейна. Пусть из точки O в момент времени

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$t = t' = 0$ вдоль оси OX испущен световой сигнал. Для скорости света в обеих системах получим соответственно следующие выражения: $c = \frac{x}{t}$, $c' = \frac{x'}{t'}$

Из этих формул видно, что если $t = t'$, то $c \neq c'$ (или если $c = c'$, то $t \neq t'$).

Но заключение об инвариантности расстояний и промежутков времени в действительности никогда ранее не подвергалось опытной проверке, и нет никаких оснований принимать его как очевидное.

Итак, необходимы преобразования координат, не противоречащие, а вытекающие из принципов Эйнштейна. Во вводной части перед анализом преобразований Лоренца желательно показать несовместимость преобразований Галилея и инвариантности промежутков времени и расстояний с принципами Эйнштейна [5].

Таким удивительным образом собрала теория относительности, разрозненные до сих пор понятия пространства, времени и материи в одну необычайной простоты и законченности физическую картину мира: материя и электромагнитная энергия слились в одно единое целое, которое и определяет повсюду и в любой момент времени [7].

Далее следует поставить вопрос о новых преобразованиях координат. Но прежде надо разъяснить, в чем заключается смысл уточнения, вносимого Эйнштейном в измерения времени и длины. Равноправие систем позволяет выбрать физически одинаковые эталоны длины. В каждой из систем отсчета измерение длины покоящегося тела сводится к наложению эталона на измеряемое тело. Если же речь идет об измерении длины одного тела с точки зрения разных систем, то по крайней мере в одной системе отсчета тело движется. Пусть тело покоится в штрихованной системе отсчета. Длина его, измеренная там наложением эталона, равна l'. В не штрихованной системе отсчета для измерения длины того же тела нужно в один и тот же момент времени засечь положения концов движущегося тела и измерить расстояние между засечками наложением эталона. Полученная длина l и будет длиной тела в этой системе отсчета.

Второй метод. Вносимые Эйнштейном уточнения основных измерительных операций более точно отражают свойства реального физического пространства и времени, нежели интуитивно принимавшиеся ранее.

Пусть в момент времени $t = 0$ из совпадающих начал O и O' двух систем отсчета послан вдоль оси OX световой сигнал. За промежуток времени t этот сигнал достигнет некоторой точки A. Скорость света в рассматриваемых двух системах отсчета выразится так:

$$c = \frac{x}{t}, \quad c' = \frac{x'}{t'}$$

Но $c = c'$. Поэтому

$$x = ct, \quad x' = ct'.$$

Преобразования координат должны быть линейными, чтобы сохранилось равноправие всех точек пространства и моментов времени. Значит,

$$x = x' + \beta t',$$

где α и β - коэффициенты, не зависящие от x и t. Эта формула должна также удовлетворять следующему требованию: в любой момент времени t' начало координат не штрихованной системы отсчета имеет в штрихованной системе отсчета координату $x' = -\upsilon t'$. Подставляя в преобразование для x значение, равное нулю, имеем:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

$\alpha x' + \beta t' = 0$, или $x' = -\frac{\beta}{\alpha}t'$. Отсюда $\frac{\beta}{\alpha} = \upsilon$ и $x = \alpha(x' + \upsilon t')$.

Формула обратного преобразования получается простым изменением знака при скорости: $x' = \alpha(x - \upsilon t)$.

Используем теперь условие постоянства скорости света с. Подставляя вместо x и x' соответственно ct и ct', получим: $ct = \alpha(c + \upsilon)t'$, $ct' = \alpha(c - \upsilon)t$.

Перемножим эти равенства полено:

$$c^2 tt' = \alpha^2(c^2 - \upsilon^2)tt'. \text{ Отсюда } \alpha = \frac{1}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}$$

Поэтому закон преобразования для координаты представляется в следующем виде:

$$x = \frac{x' + \upsilon t'}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}, \quad x' = \frac{x - \upsilon t}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}.$$

Из этих равенств находим для t следующее выражение: $t = \frac{t' + \frac{\upsilon}{c^2}x'}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}$.

Таким образом, окончательно прямые и обратные преобразования координат, удовлетворяющие принципу постоянства скорости света, имеют вид:

$$x = \frac{x' + \upsilon t'}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}, \qquad x' = \frac{x - \upsilon t}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}, \; t = \frac{t' + \frac{\upsilon}{c^2}x'}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}}, \qquad t' = \frac{t - \frac{\upsilon}{c^2}x}{\sqrt{1 - \frac{\upsilon^2}{c^2}}},$$

$$y = y', \quad z = z'.$$

К этим преобразованиям пришел Г. А. Лоренц до создания теории относительности из иных соображений. Они носят название преобразований Лоренца. Нетрудно видеть, что преобразования Галилея являются предельным случаем преобразований Лоренца. В самом деле, при $\upsilon << c$ величиной $\frac{\upsilon^2}{c^2}$ можно пренебречь. Преобразования Галилея являются приближенными, достаточно точно описывающими закономерности природы при невысоких скоростях движения систем.

Выводы

Все основные выводы кинематики теории относительности связаны с преобразованиями Лоренца.

При их изучении в средней школе следует сначала обратить особое внимание на выяснение существа самой связи между штрихованными и не штрихованными величинами еще до написания формул, в чем могут помочь более простые преобразования Галилея.

Литература

1. Mirzaxmedov B., G‘ofurov N. va boshqalar. Fizika o‘qitish nazariyasi va metodikasi Toshkent-2010

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

2. Бугаев А.И. Методика преподавания физики в средней школе: Теоретические основы. – М.: «Просвещение», 1981. ст. 39.

3. Нагирнер Д.И. Основы теории относительности и классическая теория излучения. Ноу Интуит 2013.

4. Н.Ш. Турдиев, К.А. Турсунметов, А.Г. Ганиев , К.Т. Суяров, Ж.Э. Усаров, А.К. Авлиякулов. Физика–1. Ташкент– "Niso Poligraf" – 2018. ст. 127.

5. Б.С. Дмитриев, Е.Н. Бегинин. Основы специальной теории относительности Факультет нелинейных процессов Физика открытых нелинейных систем Саратов – 2008. 5 ст.

6. П.С. Кудрявцев. История физики. Государственное учебно – педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР Москва – 1956. ст. 345.

7. М.Г. Сатторов. Закон и принцип физики. Ташкент Ўқитувчи 1985. ст. 153.

8. Методика преподавания физики в средних специальнқх учебнқх заведениях. Под редакцией А.А. Пинского, П.И. Самойленко. Москва "Высшая школа" 1986. ст. 156.

9. Р.Б. Бекжонов, Ш.Қ. Ёқубова, Б.Ч. Чориев. Модда тузилиши. Тошкент 1998. ст. 194.

10. Ш. Якубова, О. Деҳқонова. Methods of studying astronomical coordinate systems in secondary schools. Молодой ученый. Международный научный журнал. № 42 (437) / 2022.

11.Физическая энциклопедия, т. 2 — М.: Большая Российская Энциклопедия стр. 608 Архивная копия от 2 марта 2012 на Wayback Machine и стр. 609 Архивная копия от 14 апреля 2004 на Wayback Machine.

12. Dehqonova, O. Role of math knowledge in the process of laboratory works in physics.

13. Dehqonova, O. Q. (2020). Connectivity evaluation of physics and mathematics in secondary schools. Scientific reports of Bukhara State University, 4(3), 307-311.

ISSN: 2181-0427

UDK: 001.891.32

ALGORITMIK TAFAKKUR VA UNI KICHIK YOSHDAN SHAKLLANTIRISHNING AXAMIYATI (ADABIYOTLAR TAXLILI ASOSIDA)

Ikromova Musharrafxon Nematillayevna, PhD
Namangan muhandislik instituti
e-mail: imn@yandex.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqola algoritm sozining ma'nosi, uning ta'rifi va u asosida fikrlashning xozirgi davrdagi axamiyatiga bag'ishlangan. Shu bilan birga algoritm va algoritmik tafakkurga mualliflik ta'riflari hamda uni kichik yoshdan shakllantirish axamiyati keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Algoritm, algoritmik ko'nikma, algoritmik tafakkur, mantiqiy tafakkur, maktabgacha yosh, maktabgacha ta'lim.*

АЛГОРИТМИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ С РАННЕГО ВОЗРАСТА (НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ЛИТЕРАТУРЫ)

Икромова Мушаррафхон Нематиллаевна, PhD
Наманганский инженерно-технологический институт

Аннотация: *Эта статья посвящена значению слова алгоритм, его определению и актуальности мышления, основанного на нем. Также приводятся авторские определения алгоритма и алгоритмического мышления, в том числе значение формирования его с детского возраста.*

Ключевые слова: *Алгоритм, алгоритмическое умение, алгоритмическое мышление, логическое мышление, дошкольный возраст, дошкольное образование.*

ALGORITHMIC THINKING AND ITS IMPORTANCE IN FORMATION FROM AN EARLY AGE (BASED ON LITERATURE ANALYSIS).

Ikromova Musharrafxon Nematillaevna, PhD
Namangan Institute of Engineering and Technology

Abstract: *This article is devoted to the meaning of the word algorithm, its definition and the relevance of thinking based on it. The author's definitions of the algorithm and algorithmic thinking are also given, including the importance of its formation from childhood.*

Keywords: *Algorithm, algorithmic skill, algorithmic thinking, logical thinking, preschool age, preschool education.*

Kirish

Axborot texnologiyalarining ahamiyati oshgan bir davrda algoritmlar bilan ishlash va ularni tuzish zamonaviy inson faoliyatining muxim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Algoritmik tafakkur – bu fikrlash ko'nikmasining murakkab shakli. Insonda algoritmik fikrlash ko'nikma shakllanishi uchun avvalo algoritmik ko'nikma shakllangan bo'lishi kerak [1, 28 b.]. Algoritmik ko'nikma esa algoritm asosida ishlash jarayonida shakllanadi.

Algoritm so'zi IX asrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan vatandoshimiz, buyuk matematik Abu-Ja'far Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq. U o'z asarlarida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko‘p qiymatli sonlar ustida to‘rt xil arifmetik amallarni bajarish tartibini bayon etganligi algoritm so‘zi bilan bog‘lanadi. Hozirda “algoritm” tushunchasining mazmun-mohiyati va qo‘llash miqyosi ancha kengaygan.

Adabiyotlar tahlili.“Algoritm” so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida “ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur)” deb izohlanadi.

“Algoritm” tushunchasi turli fanlar sohalarida hamda kundalik hayotimizda keng qo‘llaniladi, lekin bu tushuncha qat’iy ta’rifga ega emas. Turli fan sohalari vakillari va olimlar tomonidan algoritm tushunchasi turlicha talqin qilinadi.

M.Aripov va A.Haydarovlar tomonidan nashr etilgan “Informatika asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmada “Algoritm – biror maqsadga erishishga yoki qandaydir masalani yechishga qaratilgan buyruqlarning aniq, tushunarli, chekli hamda to‘liq tizimi, aniq natijaga olib keladigan amallarning cheklangan ketma-ketligi” deb ta’riflanadi [2, 23 b.].

A.Abduqodirov tomonidan yaratilgan “Hisoblash matematikasi va dasturlash” nomli o‘quv qo‘llanmada “Algoritm (yoki algorifm) – ma’lum bir turga oid hamma masalalarni yechish da ishlatiladigan amallar tizimining muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoidadir” deb keltirilgan [3, 53 b.].

Akademik litsey va kollejlarda matematika fanlarini o‘rganishda algoritmik madaniyat va algoritmik fikrlash algoritm tushunchasi bilan bog‘liq maxsus tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishga xos bo‘lgan matematik madaniyat va fikrlashning bir qismi sifatida T.U.Utapov, Sh.T.Usmonovalarning “Matematika fanlarini o‘rganishda algoritmik madaniyat va fikrlashni shakllantirish” nomli maqolasida o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili algoritmik tafakkurni turli yoshdagi ta’lim oluvchilarda shakllantirish bo‘yicha tizimli, ilmiy natijaga ega bo‘lgan tadqiqot ishlari yurtimizda olib borilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

N.D.Ugrinovich tahriri ostida chop etilgan “Informatika va axborot texnologiyalari” nomli qo‘llanmada algoritmga quyidagicha ta’rif berilgan: “Algoritm – bu bajaruvchiga tushunarli buyruqlar bilan diskret qadamlarning chekli soni asosida yakuniy natijaga ega bo‘lishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligidir” [4, 107 b.].

Algoritmlar bilan ishlash jarayonida algoritmik ko‘nikma shakllanadi. A.A.Stolyarning fikricha, “Murakkab amallarni sodda bo‘laklarga bo‘lish va bu bo‘laklarni yig‘indi ko‘rinishida tasvirlash, o‘z harakatlarini rejalash va shu reja bo‘yicha faoliyatni tashkil etish, til vositalari yordamida o‘z harakatlarini tasvirlay olish ko‘nikmalari algoritmik ko‘nikmani tashkil etadi” [5, 102 b.]. Uningcha, maktabgacha yoshdagi bolalarning algoritik ko‘nikmasini shakllantirish nafaqat mumkin, balki zarur hamdir.

Algoritm bilan ishlashda topshiriqni bajarish davomiyligida maqsadni ushlay olish, undan so‘ng natijani olganda uning to‘g‘riligini baholay olish va o‘z faoliyatini tuzatish ko‘nikmalari rivojlanadi [6, 57 b.]. Bundan tashqari, algoritmik ko‘nikma shakllanishi jarayonida bola aniq maqsadlarga erishishi uchun faoliyatini alohida qadamlarga bo‘lgan holda o‘z harakatlarini rejalashtirishga o‘rganadi.

E.A.Utyumovaning fikricha, “Algoritmik ko‘nikma nafaqat algoritmni tushunish va bajarish ko‘nikmasi bo‘libgina qolmay, o‘z harakatlarini rejalashtirish muhimligini tushunish, mustaqil tarzda algoritm tuzish, o‘z harakatlarini tahlil qilish, to‘g‘rilash va uni boshqalarga tushinarli tillar, vositalar bilan tasvirlay olish ko‘nikmalaridir” [7, 97 b.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Shunday qilib, ko‘nikma va algoritm so‘zlarining ma’nolaridan kelib chiqib, algoritmik ko‘nikmani – murakkab masalani yechishda uni mayda bo‘laklarga bo‘lib, yechimga olib keluvchi eng maqbul yo‘lni aniqlab, ketma-ket harakatlarni boshqalar tushunadigan tillar, vositalar yordamida tasvirlay olish layoqati, deb ta’riflash maqsadga muvofiqdir.

Albatta masalani yechish jarayonida fikrlash jarayoni amalga oshiriladi, shuning oqibatida algoritmik ko‘nikma Algoritmik tafakkurni shakllantiradi. Inson hayoti davomida kundalik ishlarni bajarishda ketma-ketlik, qoidalariga tayanib ish ko‘radi, buning natijasida insonda Algoritmik tafakkur shakllanadi, lekin aksariyat hollarda uni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmaganligi uchun u sust darajada shakllanib qolib ketadi. Shuning uchun XX asrgacha algoritmik tafakkurga alohida fikrlash ko‘nikmasi sifatida qaralmagan. Raqamli texnikaning rivoji ushbu fikrlash ko‘nikmsining ahamiyatini oshirdi.

Algoritmik tafakkurni ko‘pchilik olimlar matematik fikrlash ko‘nikmasining shakllanishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, Algoritmik tafakkur matematika fanini o‘rganish jarayonida shakllanadi. XX asrning 70-yillaridayoq mashhur sovet matematigi N.Y.Vilenkin “aqlli mashinalar” asrida bolalarning yoshligidan algoritmik tafakkurni shakllantirish kerak, deya ta’kidlagan [8, 34 b.] va o‘z darsliklarida Algoritmik tafakkurni shakllantirish bo‘yicha tushunchalar ko‘rib chiqilgan.

A.A.Stolyarning fikricha, “Algoritmik tafakkurning shakllanganlik belgisi turli algoritmlarni qo‘llay bilish va uni qo‘llashda turli natijalarni oldindan ko‘ra bilish va asoslay olishidadir”.

S.D.Yazvinskaya “Algoritmik tafakkur – fikrlash, rejalash jarayonining turli holatlarini avvaldan ko‘ra bilish va unga mos ravishda harakat qilish san’ati va qobiliyati, shuningdek, turli masalalarni yechishni ko‘zda tutuvchi harakatlar rejasini tuza bilish ko‘nikmasi” deb ta’riflaydi [9, 187 b.]. Uning fikricha, Algoritmik tafakkurni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Algoritmik tafakkur yangi algoritmlarni tuzish jarayonida namoyon bo‘luvchi ijodiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi va quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- berilgan masalalarning tahlil qilish;
- muammolarni aniqlash;
- qo‘yilgan masalalarni yechishda asosiy amallarni aniqlash;
- asosiy amallarni qo‘llagan holda berilgan masalani yechish uchun to‘g‘ri algoritmlarni qurish;
- qo‘yilgan masalaning mavjud xususiy va normal hollarini ko‘rib chiqish;
- algoritmlarni baholash (to‘g‘riligi, unumdorligi va yakunlanganligi);
- algoritmlarning unumdorligini oshirish.

Endilikda esa Algoritmik tafakkur dasturlash uchun asosiy malaka sifatida qaralmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarning fikricha, dasturlash algoritmik tafakkurni shakllantiradi va rivojlantiradi [64,107, 132, 154]. Demak, yaxshi rivojlangan algoritmik tafakkur dastur tuzish uchun talab etilishi bilan birga dasturlash bilan shug‘ullanish Algoritmik tafakkurni shakllantirar va rivojlantirar ekan.

Ayrim olimlar A.P.Yershov, M.P.Lapchik, I.G.Semakin, Yu.A.Pervin, C.Hu, Z.Katai algoritmik tafakkurga quyidagicha ta’rif beradilar: “Algoritmik tafakkur – chekli qadamlar bilan masalani yechish texnologiyasiga asoslangan alohida fikrlash usulidir”.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘rganilgan ta’riflar, ma’lumotlar asosida Algoritmik tafakkur tushunchasiga quyidagicha ta’rif beramiz: Algoritmik tafakkur – muammoni aniqlash, uning yechimlari orasidan eng maqbulini tanlash, ketma-ket qadamlar asosida natijaga erishish jarayonida shakllanadigan fikrlash ko‘nikmasi.

Algoritm tuzish davomida mavjud yechimlar orasidan eng maqbulini tanlash, algoritmning natijasini avvaldan ko‘ra bilish uchun bola taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilishni bilishi kerak [1, 24 b.]. Bular esa mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi elementlari hisoblanadi. Demak, algoritmik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida mantiqiy fikrlash ko‘nikmasining ahamiyati katta. Algoritmik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasining o‘zaro qanday aloqadorligi bor, qaysi biri avval shakllanadi, degan masalalar ko‘plab izlanuvchilarning diqqat markazida bo‘lgan. Algoritmik va mantiqiy tafakkurning ma’lum darajadagi aloqasini izlanuvchilar I.L.Nikolskaya, A.D.Semushin, A.A.Stolyar, I.L.Timofeyeva, A.I.Fetisov, O.G.Soroka, A.V.Beloshistaya, V.V.Levites, E.Milkova, A.Hulkova va boshqalar algoritmik tafakkur bilan mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi o‘rtasida genetik aloqa mavjudligini va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi Algoritmik tafakkurni shakllantirishini ta’kidlaydilar.

Ayrim izlanuvchilar tomonidan algoritmik-mantiqiy tafakkur turlari o‘rganilgan. Xususan, A.V.Beloshistaya, V.V.Levitesning fikricha, boshlang‘ich sinflar uchun informatika fanidan qo‘llanma mualliflari A.V.Goryachev, M.A.Lukashenko, L.A.Kamburova, A.L.Semenov va boshqalar ushbu atamalardan sinonim sifatida foydalanadilar. Aslida bu ikki fikrlash ko‘nikmasi shakli bir biri bilan chambarchars bog‘liqki, bir birini to‘ldirib, bir birini rivojlantiradi.

Algoritmik va mantiqiy tafakkurning oddiy elementlari tabiiy holda, o‘z o‘zidan ma’lum darajada shakllanishi mumkindir, lekin uning murakkab ko‘rinishlari maxsus maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli olib boriladigan mashg‘ulotlar asosida rivojlanadi [51, 92, 162]. Mantiqiy fikrlashni yetarli darajada shakllanganligi, raqamli hamda algoritmik tafakkurlarni yaxshi shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, algoritmik fikrlash mantiqiy fikrlash bilan bir-birini to‘ldirib, bir-biriga tayanib shakllantiradi. Ular tabiy ravishda ma’lum darajada shakllanadi, ularni yetarli darajada shakllantirish va rivojlantirish uchun ularni ilk shakllari shakllanadigan davrdan e’tibor qaratib, tizimli va uzviy ravishda shakllantirish maqsadga muvofiq.

Tahlillar va natijalar. Ko‘plab olimlar algoritmik tafakkurni maktabgacha ta’lim yoshidan rivojlantirishni boshlash mumkinligini va zarurligini ta’kidlamoqdalar.

A.P.Yershov, A.Yu.Pervin, E.A.Zvenigorodskiylar Algoritmik tafakkurni dasturchilarga zarur fikrlash ko‘nikmalaridan biri deb bilib, uni miqdoriy va fazoviy tasavvurlarning rivojlanishi, abstraktlash, sxemalash va boshqa shu kabi matematik elementlarning rivojlanishi bilan bir qatorda ko‘radilar, shuning uchun bolalarda ilk matematik tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘lish davridan boshlab algoritmik va mantiqiy fikrlash kabi fundamental malakalarni shakllantirish zarur, deb ta’kidlaydilar [148, 15 b.].

X.Y.Najmiddinova “Maktabgacha yoshdagi bolalarni elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” nomli tadqiqot ishida bolalarda matematik tushuncha va tasavvurlarni uch yoshdan boshlab shakllanishini aytib o‘tgan [11, 82 b.].

Xulosa. Maktabgacha ta’limda algoritmik tafakkur qoidalar yoki modellar asosida o‘qish va faoliyat olib borishni nazarda tutadi, bu esa bolalar oddiy algoritmlarni tushunish, undan foydalanish, qo‘llash va tuzish qobiliyatiga egaligini bildiradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida algoritmik fikrlashni quyidagi ko'nikmalarini shakllantirish mumkin:

- yirik masalalarni kichik bo'laklarga bo'lib olish;
- jarayonlarni ketma-ketlik asosida aniqlashtirib olish;
- eng maqbul yechimni aniqlab olish;
- mantiqiy fikrlash;
- qonuniyatlarni aniqlab olish;
- ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, algoritmik tafakkurni maktabgacha yoshdan shakllantirish mumkin, muhim va axamiyatli degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Утюмова Е.А. Формирование алгоритмических умений у детей дошкольного возраста в процессе обучения математике / дис. кан. наук, – Екатеринбург, 2018 – 192 с.
2. Арипов М. ва Ҳайдаровлар А., Информатика асослари – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 432 б.
3. Абдуқодиров А.А., Фозилов Ф.Н., Умрзоқов Т.Н.. Ҳисоблаш математикаси ва дастурлаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 255 b.
4. Угринович Н.Д. Информатика и ИКТ: учебник для 9 класса. – Москва: Бином, 2012. – 292 с.
5. Березина Р.Л., Михайлова З.А., Непомнящая Р.Л. и др. Формирование элементарных математических представлений у дошкольников: Учеб. пособие / под ред. А.А. Столяра – М. : Просвещение. 1988. – 303 с.
6. Ветлугина Е.Г. Игра как средство развития алгоритмических умений дошкольников // Вопросы педагогики, 2020, № 4. – С. 56-61.
7. Утюмова Е.А. Условия формирования алгоритмических умений у детей дошкольного возраста. // Педагогическое образование в России, 2016, № 3. – С. 94-100.
8. Виленкин Н.Я., Дробышев Ю.А. Воспитание алгоритмического мышления на уроках математики // Начальная школа, 1988. № 12. – С.34-37.
9. Язвинская С.Д. Проблема развития алгоритмических способностей детей старшего дошкольного особностей детей старшего дошкольного исследованиях // Вестник Ставропольского государственного университета, 2007. т. 48. – С. 185-193.
10. Ершов А.П., Звенигородский Г.А., Первин Ю.А., Школьная информатика (концепции, состояния, перспективы) // Информатика и образование, 1995. № 1. – С. 3-20.
11. Нажмиддинова Х.Ё. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик тасаввурларини шакллантиришда мультимедиа технологияларидан фойдаланиш методикаси. П.ф.д.(DSc) дисс. – Наманган, 2021. – 250 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING AXBOROTLAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mirkasimova Madina Baxtiyarovna - Ph.D.,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Gmail: mirkasimova_madina@gmail.com

Annotatsiya: *Berilgan maqolada raqamlashtirish sharoitida ingiz tili fanini bo’lajak ingliz tili o’qituvchilariga o’rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari didaktik jarayon samaradorligining kuchli omili bo‘lishi hamda ushbu jarayonning maqsad-mazmun dasturiga mos kelishi va pedagogik boshqaruvning asosiy funksiyalarini amalga oshirish metodologiyasi haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *metod, yondashuv, bilim, ko’nikma, malaka, axborot-kommunikatsiya.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.

Миркасимова Мадина Бахтияровна.
Ташкентский государственный педагогический университет, базовый докторант.
Gmail: mirkasimova_madina@gmail.com

Аннотация: *В данной статье информационно-коммуникационные технологии являются мощным фактором эффективности дидактического процесса при обучении предмета ингезского языка будущим учителям английского языка в условиях цифровизации, а также ставится вопрос о методике реализации основных функций педагогическое управление и соответствие этого процесса целесодержательной программе.*

Ключевые слова: *метод, подход, знания, навыки, компетентность, информационно-коммуникация.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING INFORMATION COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN THE CONDITIONS OF DIGITIZATION

Mirkasimova Madina Bakhtiyarovna - Ph.D.,
Tashkent State Pedagogical University
Gmail: mirkasimova_madina@gmail.com

Annotation: *In this article, information and communication technologies are a powerful factor in the effectiveness of the didactic process when teaching the subject of the English language to future English language teachers in the context of digitalization, and also raises the question of the methodology for implementing the main functions of pedagogical management and the correspondence of this process to the purposeful program.*

Key words: *method, approach, knowledge, skills, competence, information-communication.*

KIRISH:

Hozirgi kunda respublikamizda mavjud chet tillarga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari yangi Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda ingilz tili (mutaxassislik)

fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Shu munosabat bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘rgatish orqali talabalarning ta’limdagi ahamiyati, ularning umuman mehnat bozoridagi kasbiy funksiyalari oshib ketishi va bu o‘z navbatida rivojlantirishga bo‘lgan moyillikning oshishiga va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keldi. Har bir oliy ta’lim muassasalarining ta’lim siyosati, sifati va kasbiy faoliyat imkoniyatlari bilan ijtimoiy himoyalangan, doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashgan va kasbiy kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorgarligini hal etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.


Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim jarayonida qo‘llash borasidagi g‘oyalar ijobiy va tanqidiy qayta o‘rganib chiqildi, ta’lim jarayonida qo‘llashning uslubiy asoslar yaratildi. Dars jarayonida o‘qituvchining darsga aralashmasdan faqat axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘liq ta’limni tashkil etish mumkinligi to‘g‘risidagi takliflar rad etildi. Shunday bo‘lsada, axborot kommunikatsiya texnologiyalar nafaqat o‘qituvchilarni odatiy, an’anaviy vazifalardan ozod qildi, lekin dasturlash, o‘quv materiallari va texnik muvofiqlashtirish bilan bog‘liq vazifalarni yukladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari didaktik jarayon samaradorligining kuchli omili bo‘lishi uchun ular ushbu jarayonning maqsad-mazmun dasturiga mos kelishi va pedagogik boshqaruvning asosiy funksiyalarini amalga oshirishga yordam berishi kerak.

Shunday ekan, ta’lim jarayonida Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun o‘qituvchi texnologiya vositalari, o‘qitish usullari va yondashuvlari o‘rtasida to‘g‘ri muvozanatni bilishi kerak. Eng ahamiyatlisi o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi, tadqiqot ko‘nikmalarini, mustaqillik, ijodiy fikrlash, kognitiv faollik, mulohaza yuritish, esselar tuzish va tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1-jadval.



Adabiyotlar tahlili

Raqamlashtirish sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda mutaxassislik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mumkin bo'lgan sohalardagi tadqiqotlarning jadal rivojlanishi bilan ajralib turdi. Keyinchalik bir qancha o'zbek olimlari biri R.X.Djurayev[1] o'qituvchi darsda maslahatchi, hamkor vazifalarini bajarish va ta'lim maqsadlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yaxshiroq ekanligini taklif qildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Shunday qilib, Raqamlashtirish sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda mutaxassislik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tilni o'rgatish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash dasturlari, o'qitish va test dasturlarini ishlab chiqish, masofaviy o'qitish, auditoriyalarda internetdan foydalanish samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlillar va natijalar

Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Internetdan foydalanish real vaqtda onlayn darslarni o‘tkazish imkonini beradi. Xorijiy tilni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘rganish talabalarning kompyuter tarmoqlarida jonli muloqoti va faolligini tashkil etgan holda ularning kasbiy kommunikativ kommunikatsiyasini rivojlantirishdan iboratdir.

Raqamlashtirish sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarda mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, uni axborotlashuviga olib keladi. Axborotlashtirish asosida shaxsiy kompyuter, butun kutubxonalar mazmunini kompakt ko‘rinishda saqlashga imkon beruvchi o‘nlab va yuzlab gigabayt hajmdagi optik disklar, aloqaning optiktolali kanallari, aloqaning videomatnli tizimlari, ma’lumotlar va bilimlarni taqdim etishning metodlari, elektron pochta tizimlari va h.k. kabi fundamental kashfiyotlar yotadi. Barcha texnika yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitini yaratishni ta’minlaydi va u nazariy jihatdan ixtiyoriy bilimga ixtiyoriy vaqtda, ixtiyoriy joyda kiritish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, o‘qitish insonlarda ularga hayot kechirishning yangi axborot muhitida, jumladan o‘qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitlarida ta’lim olish uchun hamda yangi yaxlit olamni tushunish va axborot dunyoqarashi uchun zarur bo‘ladigan yangi kompetentliklarni shakllantirishni ta’minlashi kerak.

Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish interaktiv, sinxron va asinxron multimedia vositalari orqali takomillashtirilgan.

N.Maleskaya [2] va N.V.Kuzmina [3] bo‘lajak o‘qituvchi axborot kompetentligini shakllantirishda loyiha metodidan foydalanishni taklif etadilar. O.G.Smolyaninova axborot kompetentlikni shakllantirish uchun multimedia-texnologiyalarini tabiiy muhit deb hisoblaydi, ularni shakllantirishning eng to‘g‘ri metodikasi deb – boshqariladigan kashfiyot, keys-metod, loyihalar metodi va portfel metodi kabi faol o‘qitish metodlarini ta’kidlaydi.

Xulosalar

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan:

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada talabalarga sharoitlar yaratish;

-ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, onlayn vebinar, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish va shu kabi vazifalar ustuvor deb belgilangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования. Автореф. дисс...док. пед. наук. – Ташкент, 1995. – 43 с.
2. Малецкая Н.С. Дидактические условия выбора словесных, наглядных и практических методов обучения и их сочетания в структуре уроков разных типов: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук / Н. С. Малецкая; Омск. гос. пед. ун-т. – Омск, 2000. – 19 с.
3. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования: Монография. – Москва: РГБ, 2004. – 144 с.
4. Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Ульяновск., 2010. – 46 с.

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHISINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI

[1]Ochilov Azizjon Shuxrat o‘g‘li, Xo‘razov Nuriddin Oltinbek o‘g‘li, [2]Xusanova Muqaddas
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari
[2]Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi
[1]Gmail: azizjon98@gmail.com
[2]Gmail; xusanovamuqaddas@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashning hozirgi holati, biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o’ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *innovatsiya, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, muammoli texnologiyalari, interfaol metodlar.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

[1]Ачилов сын Азижона Шухрата, сын Хоразова Нуриддин Олтинбек, [2]Хусанова Мукаддас
[1]Преподаватели Джизакского государственного педагогического университета,
[2]Студентка 2 курса Джизакского государственного педагогического университета
[1]Gmail: azizjon98@gmail.com
[2]Gmail; xusanovamuqaddas@gmail.com

Абстрактный. *В данной статье описано современное состояние подготовки будущего учителя биологии к инновационной деятельности, педагогические основы процесса, особенности профессионально-методической подготовки учителей биологии.*

Ключевые слова. *инновационные, методические, профессиональные, педагогические технологии, проблемные технологии, интерактивные методы.*

CURRENT STATE OF PREPARING THE FUTURE BIOLOGY TEACHER FOR INNOVATIVE ACTIVITY

[1]Achilov son of Azizjon Shukhrat, son of Khorazov Nuriddin Oltinbek, Khusanova Muqaddas

[1]Teachers of Jizzakh State Pedagogical University,
[2]Second-year student of Jizzakh State Pedagogical University
[1]Gmail: azizjon98@gmail.com
[2]Gmail; xusanovamuqaddas@gmail.com

Abstract. This article describes the current state of preparation of the future biology teacher for innovative activities, the pedagogical foundations of the process of special features of the professional methodical training of biology teachers.

Keywords. innovation, methodical, professional, pedagogical technologies, problem technologies, interactive methods.

Kirish

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlarning malakasi, kasbiy-metodik kompetensiyalarini zamon talablariga mos hamda uzluksiz ravishda takomillashtirib borish hozirgi davrning asosiy masalalaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4805-son qarorlarida zamonaviy talablar asosida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining malakalarini oshirish, o'quv mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy-metodik kompetentliligini rivojlantirib borish asosiy maqsad ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tarkibiy qismi, umumiy o'rta ta'lim tizimini o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, bugungi kun talabiga javob beradigan, boy tajriba va mahoratga ega bo'lgan, kadrlar bilan ta'minlashdek muhim vazifa sanaladi. Pedagogika ta'limini modernizatsiyalash vazifalarini aniqlashtirish zaruriyati, uni rivojlantirishning ichki qonuniyatlari bevosita, davlat, jamiyat, shaxsni rivojlantirish ehtiyojining istiqboli bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Pedagogika ta'limi tizimi uchun mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash ayni vaqtda an'anaviy ta'lim va jahon tajribasi, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishning yangilangan tizimi talablari asosida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriliyotgan fan-texnika taraqqiyoti va jamiyatdagi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim tizimining yuqori darajada yangilanish bosqichida bo'lg'usi biologiya o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga o'ziga xos bir qator talablar qo'ymoqda.


Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash-ning yangilangan talablari mohiyati: innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va doimiy ravishda uzluksiz yangilanadigan bilimlar zaruriyati bilan bog'liq [1; 14-16-b.].

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqochilar (A.I.Prigojin, B.V Sazanov, V.S.Tolstoy, Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov) va innovatsion jarayonlar tarkibiy qisimlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar(1-rasm):



1-rasm.

Innovatsion jarayonlar tarkibiy qisimlari (A.I.Prigojin, B.V Sazanov, V.S.Tolstoy va boshq.)

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. V.A. Slastinin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy tomonidan tadqiq etilgan. V.A.Slastenin o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi. Akmeologiya (akme) –yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk eng yaxshi davr degan ma’noni bildiradi. Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

N.B.Kuzmina kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan inson hayotining eng ijodiy davrlari yetuklik bosqichlari to‘g‘risida fikr yuritadilar[2; 44 b.].

Tadqiqot metodologiyasi

“Innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalari ilmiy atamalarga nisbatan yaqinda kiritilgan. Ilk marta – “innovatsiya” tushunchasi XIX asrda madaniyatshunoslarning tadqiqot ishlarida paydo bo‘lgan va bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqasiga kiritishni anglatgan.

Yangiliklarni tasniflashda agar ta’lim-tarbiya jarayonining murakkabligi, majmualigi va dinamikligi inobatga olinsa, yanada ko‘proq murakkablashadi. Har bir pedagogning talabalar, ularning ota-onalari, ehtiyojlari, manfaatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya konsepsiyasiga o‘z nuqtai nazarini ishlab chiqish va himoyalashga yo‘l qo‘yiladi. Maxsus adabiyotda yangiliklarning tasnifi turli belgilar bo‘yicha amalga oshiriladi. Biz


www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ye.I.Kazakovaning nuqtai nazariga qo‘shilamiz, u yangiliklarni qo‘llash tasnifi sifatida maqsadli foydalanish yangiligi, ta’lim missiyasi sohasida yangilik, integratsiyalangan pedagogik g‘oyalar sohasida yangilik, ta’lim mazmunidagi yangilik, ta’lim tizimini tashkil etish va qurish sohasidagi yangilik, texnologiya va alohida usullarni ishlab chiqish sohasidagi yangilik, sifatni baholash sohasidagi yangilik kabi mezonlarni tanlaydi[4; 44 b.].

YUNESKOning davriy sharhlariga asoslanib, Ye.I.Kazakova dunyo miqyosidagi yangiliklarga ijtimoiy maqomda (davlat ta’lim paradigmasida aks ettirish), ta’lim tizimi tuzilishida, ta’lim tizimidagi uzluksiz aloqalar majmuasida, ta’lim mazmunida, ta’lim muassasalarining tipologik tuzilishida, ta’lim tuzilishini tashkil etish va texnologiyasida, ta’lim sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarda, xususiy metodikalarda, o‘quv jihozlarida, ta’lim uchun binolar va inshootlarni qurish va jihozlashda kabi yangiliklarni kiritish mumkinligini ta’kidlaydi[5; 84 b.].

Tahlil va natijalar

XX asrning boshlarida yangi bilim sohasi innovatika – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo‘ldi, unda moddiy ishlab chiqarish sohasidagi texnik yangiliklarning qonuniyatlari o‘rganiladi. Innovatikada asosiy tushuncha - innovatsion jarayon hisoblanadi. Ta’limda innovatsion jarayonlar uch asosiy jihatdan qarab chiqiladi(2-rasm):



2-rasm. Ta’limda innovatsion jarayonlar uch asosiy jihatlari.

Ushbu jihatlar innovatsion jarayonlar o‘tadigan umumiy iqlim va sharoitlarga bog‘liqligi sababli mavjud sharoitlar innovatsion jarayonga hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin.

A.V.Xutorskiy innovatsion jarayonning yaratish, rivojlantirish va qo‘llash kabi uch tarkibiy qismi birligini ta’kidlaydi. Aynan shu uch tarkibli innovatsion jarayon pedagogik innovatikani o‘rganish ob’ekti sanaladi va didaktikadan farqli ilmiy-tadqiqot ob’ekti sifatida ta’lim jarayoni e’tiborga olinadi [3].

Xulosalar

Innovatsion pedagogik jarayonlar G‘arbda taxminan XX asrning 50-yillari oxirlarida, mamlakatimizda esa so‘nggi o‘n yilliklarda maxsus o‘rganish predmetiga aylandi. Ularga jahon pedagogik jamoatchiligida qiziqish alohida innovatsion xizmatlar, nashrlar, jurnallar, axborot nashrlarini yaratishda namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, YUNESKO qoshida Osiyo ta’limni

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

rivojlantirish uchun pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo‘lib, u dunyo mamlakatlarining pedagogik yangiliklarini umumlashtiradi va Ta’lim masalalari bo‘yicha Xalqaro byuro bilan hamkorlikda pedagogik jamoatchilikni maxsus nashr sahifalarida xabardor etadi. Innovatsion jarayon innovatsiyalarni, yangiliklarni va tizimni yangi sifatli holatga o‘tkazish muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi sharoitlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlarning o‘rni va ahamiyati // Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - Б. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189).

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115)

5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565).

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATGA KASBIY TAYYORGARLIKNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Esonqulova Dilbarxon - Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Gmail: dilbarxon79@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikning pedagogik yondashuvlari, biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o’ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *innovatsiya, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, muammoli texnologiyalari, interfaol metodlar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Эсанкулова Дилбархан – преподаватель Джизакского государственного педагогического университета.
Gmail: dilbarxon79@gmail.com

Абстрактный. *В статье освещены педагогические подходы к профессиональной подготовке будущего учителя биологии к инновационной деятельности, педагогические основы процесса, особенности профессионально-методической подготовки учителей биологии.*

Ключевые слова. *инновационные, методические, профессиональные, педагогические технологии, проблемные технологии, интерактивные методы.*

PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE BIOLOGY TEACHER FOR INNOVATIVE ACTIVITY

Esankulova Dilbarkhan is a teacher of Jizzakh State Pedagogical University
Gmail: dilbarxon79@gmail.com

Abstract. *Pedagogical approaches to the professional training of the future biology teacher for innovative activities, the pedagogical bases of the process of special features of the professional methodical training of biology teachers are covered in this article.*

Keywords. *innovation, methodical, professional, pedagogical technologies, problem technologies, interactive methods.*

Kirish

Biologiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning zamonaviy tadqiqot ishlar kasbiy faoliyatning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsion sohalarning aloqadorligini inobatga oluvchi shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida olib boriladi. V.A.Slastenin pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlikni ko‘rib chiqishda funksional ravishda quyidagilarni ajratadi:

1) psixologik tayyorlik, ya’ni pedagogik faoliyatga shakllangan (turli darajada) yo‘nalganlik, maktabda ishlash;

2) ilmiy-nazariy tayyorgarlik, ya’ni kompetent pedagogik faoliyat uchun talab etiladigan ijtimoiy-siyosiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy bilimlarning zaruriy hajmi mavjudligi;

3) amaliy tayyorgarlik, ya’ni talab etilgan darajada shakllangan kasbiy ko‘nikma va malakalar mavjudligi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4) psixologik-fiziologik tayyorgarlik, ya'ni pedagogik faoliyat va ma'lum mutaxassislikni egallash uchun mos shart-sharoitlar mavjudligi, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarning shakllanganligi;

5) jismoniy tayyorgarlik, ya'ni salomatlik holati va jismoniy rivojlanishning pedagogik faoliyat va kasbiy ishlash qobiliyati talablariga mosligi [1].

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi – bu mustaqil, maqsadga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich ravishda ehtiyojli-motivatsion soha asosida o'zining pedagogik vaziyatini o'zgartirishning barqarorligi va zarurligiga ko'ra turli usullar bilan loyihali obrazga erishish bo'yicha pedagogik shaxsiy faoliyat va unga tuzatishlar kiritishni amalga oshirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Biologiya o'qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligi asosiy ko'rsatkichlaridan biri pedagogning quyidagi jihatlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari shakllanganligi hisoblanadi:

1) pedagogik faoliyat ijobiy natijalarining barqarorligi (A.K.Markova);
2) yangi ish shakllari va metodlaridan tizimli foydalanish (O.A.Izosimova);
3) talabalar bilan hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasi (V.Lyaudis);
4) kasbiy malakani tizimli oshirish (A.K.Markova);
5) pedagogik tadqiqotchilik faoliyatini metodlarini egallaganlik (V.Maksimova);
6) stressga bardoshlilik, o'z-o'zini boshqarish (G.S.Suxobskaya);
7) kasbiy komponentni integrativ baholash va boshqalar[2; 32-64 b.].

Tadqiqot metodologiyasi

Shu tariqa, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarligining barcha sanab o'tilgan kasbiy-shaxsiy sifatlari tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional kabi 3 ta komponentiga tizimlashtirilgan. Bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini o'rganishning nazariy va metodologik asoslarini innovatsion xususiyatga ega bo'lgan innovatsion faoliyat tuzilishi bilan bog'liq. Innovatsion faoliyat tuzilishi o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning komponenti sifatida shakllantirish quyidagi shart-sharoitlarga bog'liq:

- ✓ pedagogik niyatning yuzaga kelish vaqti (ma'lumki, pedagogda yuzaga keladigan har qanday niyat ham emas, balki biron-bir pedagogning muayyan rivojlanish darajasi, pedagogik muammoni to'g'ri idrok etish qobiliyatining darajasidagi pedagogik vaziyati bilan bog'liq bo'lgan);
- ✓ niyatni uning butun turli-tumanligida ishlab chiqish, o'qituvchining kreativ fikrlashni namoyon etish qobiliyati va mavjud variantlar o'rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni qisqa muddatlarda optimal hal etishning usullari, ehtimoliy yo'llarini taklif etishga bog'liq bo'lgan muayyan pedagogik muammo yechimining mumkin bo'lgan variantlarini taklif etish;
- ✓ pedagog niyatining amaliy ro'yobga chiqarish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan, niyatni faoliyatda amalga oshirish jarayonida pedagogning barqarorligi (ya'ni niyat va uni amalga oshirish o'rtasidagi, o'qituvchi faoliyatining mazmunli yoki natijali tomonlaridagi o'zgarishlar sababli yuzaga kelgan, muqarrar ziddiyatga qarshilik ko'rsatish qobiliyati to'g'risida gap bormoqda);
- ✓ dastlabki niyat (niyatning boshlanishi nuqtasi) va uni faoliyatda amalga oshirish (natijada, ifodalangan niyatning yakunlanish nuqtasi) o'rtasidagi aloqaning saqlanganligi, bunda natija

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

niyatni amalga oshirishning yakunlanishi sifatida uning boshi bilan bog‘liq bo‘lishi, niyat va natijaning mos tushishi yoki mos tushmasligi aloqaning saylanganligi darajasini ko‘rsatadi va bir vaqtda ularning dinamik rivojlanishidagi farqlarni ko‘rsatadi, bu esa niyatning faoliyatda sifat ko‘rinishida amalga oshirish darajasi ko‘rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lib, usiz barqaror hodisa sifatida tushuniladigan innovatsion faoliyat ifodalanishi va belgilanishi mumkin emas;

- ✓ o‘qituvchi niyatining saqlanganligi va barqarorligiga bog‘liq ravishda niyatni amalga oshirish natijasi ifodalanganligi va talaba niyatining saqlanganligi (uning talaba tomonidan qabul qilinishi) va barqarorligi (uning faoliyatga aylanishi) bilan bog‘liqligi imkoniyati – bunda o‘qituvchi faoliyati talaba faoliyati bilan aloqadorligining adekvatligi to‘g‘risida gap boradi;
- ✓ mazkur holatda biz innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligining ifodalanganligi va belgilanganligi yana bir barqaror ko‘rsatkichi – o‘qituvchining innovatsion jarayoni va talaba ijodiy jarayonining aloqadorligi to‘g‘risida aytish mumkin.

Tahlil va natijalar

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida biologiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorgarligining asosiy ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin:

1. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi *bitiruvchisi – o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining ijtimoiy-psixologik tavsiflari*. Biologiya o‘qituvchisi sifatlarining bunday tavsiflari uning axloqiy-siyosiy, umummadaniy va psixologik-pedagogik tayyorgarligi bilan belgilanadi. Mazkur umumiylik asosida – o‘qituvchining ijtimoiy hayotga, madaniyatga, o‘zining kasbiga va o‘z-o‘ziga fuqarolik munosabati yotadi.

O‘qituvchining shaxsi kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik, pedagogik faoliyatga ehtiyoj bilan tavsiflanadi. O‘qituvchiga quyidagi shakllantirilishi mumkin bo‘lgan kasbiy sifatlar zarur:

talabaga shaxs sifatidagi qiziqish, uning qiziqishlari va xususiyatlarini o‘rganish va tushunish ko‘nikmasi, pedagogik kuzatuvchanlik;

muloqotchanlik (kommunikabellik), tasavvur, pedagogik axloq;

tashkiliy ko‘nikmalar;

keng ma’naviy qiziqishlar, bilishga oid ehtiyojlar, ijtimoiy muammolarni tushunish;

ta’limning umumiy ishiga, maktab pedagogik jamoasining ma’naviy-psixologik farovon muhitiga qiziqish.

O‘tiladigan fanlarining yuqori murakkablik darajasi, ularni mukammal bilish, fikrlash va nutq madaniyati o‘qituvchi uchun nafaqat bolalar bilan o‘quv-tarbiya ishlarini o‘tkazish uchun, balki talabalarning hurmatlarini, izlash keng doirasini, bashoratlash ko‘nikmasini, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning shaxsiy, o‘ziga xos metodini izlashni ta’minlovchi shaxsiy sifatlar tariqasida ham zarurdir.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchi izlanuvchan, andozalar bilan qoniqmaydigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Barcha holatlar uchun majburiy bo‘lgan ta’lim va tarbiyaning yagona metodikasi mavjud emas: har bir o‘qituvchi novator bo‘lishi, uning shaxsiy sifatlariga javob beradigan o‘z yondashuvlarini topishi mumkin. Kasbiy mahoratni egallash faqatgina inson to‘g‘risidagi, talaba to‘g‘risidagi bilimlar boyligini chuqur, har tomonlama egallash asosida hosil bo‘lishi mumkin – psixologiya, falsafa, pedagogika turli o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi. Yuqori pedagogik madaniyat o‘qituvchiga ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari, metodlari, vositalarini kompetentli tanlash imkonini beradi va bu o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish asosida yotadi[4; 82- b.].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Biologiya o‘qituvchisi o‘z kasbi uchun apatiya, talabalarni o‘qitish va tarbiyalashdagi rasmiyatchilik, ularga va ularning taqdirlariga befarqlik, jizzakilik, yengiltaklik, qarorlarni qabul qilishda, xulq-atvordagi shoshqaloqlik va o‘ylanmaslik kabi mumkin bo‘lmagan shaxsiy sifatlarni yengadi.

Xulosalar

Demak, biologiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni amaliy ishda inobatga olish bir tomondan majburiy hisoblanadi va boshqa tomondan – ularni bilish o‘qituvchiga innovatsion yo‘nalishlar va texnologiyalar ko‘rinishlarini tushunishiga, o‘zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlash uchun va aniq ijodiy pedagogik faoliyat maydonini aniqlash imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Kuychiyeva M.A. Biologiya fanini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlarning o‘rni va ahamiyati // Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. - Toshkent, 2019. - №5 (78). - Б. 34-37. (13.00.00; №10)

2. Kuychiyeva M.A. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining kompetentligi va kasbiy layoqatini rivojlantirish masalalari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2021. - №1-son. - B. 53-57. (13.00.00; №32).

3. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189).

4. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115)

5. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565).

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshpo’latova Shaxlo, Ibragimova Zarina, Zokirova Shaxnoza -
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistrantlari
Gmail:mujizaxonkuychiyeva88@gmail.com
E-mail: kuychiyevamujizaxon@mail.ru

Annotatsiya: *Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog‘lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo‘ymoqda. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya – uzluksiz ta’lim tizimida biologiya fanlarini o‘qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo‘lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan ijtimoiy talablardan ham o‘zib ketishidir. Tadqiqot natijasida bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kompetentligi shaxsiy va kasbiy zaruriy sifatlar asosida biologik ta’limni tashkil etishga doir vazifalarni hal etishda faoliyat sohasiga doir bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini o‘zida aks ettiradi.*

Kalit so‘zlar: *Kompetensiya, kognitiv va motivatsion komponent, tayanch kompitentlik, fanlararo kompitentlik,umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompitentlik.*

ЗНАЧЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

ТОШПОЛАТОВА Ш., ИБРАГИМОВА З., ЗОКИРОВА Ш
Студенты 2 ступени магистратуры Джизакского государственного педагогического университета
Gmail: mujizaxonkuychiyeva88@gmail.com
E-mail: kuychiyevamujizaxon@mail.ru

Аннотация: *Современное общество требует от системы образования воспитания высококвалифицированных, амбициозных, конкурентоспособных, предприимчивых, духовно и физически здоровых людей. Компетентность с точки зрения подготовки будущих учителей биологии должна превосходить социальные требования к четко определенной профессиональной подготовке, необходимой для эффективной организации процесса преподавания биологических наук в системе непрерывного образования. В результате исследования компетентность будущего учителя биологии отражает способность и готовность использовать знания, умения и навыки сферы деятельности при решении задач, связанных с организацией биологического образования, на основе личностных и профессионально необходимых качеств.*

Ключевые слова:*Компетенция, когнитивно-мотивационный компонент, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная, компетентность в области биологии.*

THE IMPORTANCE OF TEACHER COMPETENCE IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Toshpo’latova Shaxlo, Ibragimova Zarina, Zokirova Shaxnoza
2nd stage graduate students of Jizzakh State Pedagogical University
Gmail:mujizaxonkuychiyeva88@gmail.com

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

E-mail: kuychiyevamujizaxon@mail.ru

Annotation: *Modern society requires the education system to educate highly qualified, aspiring, competitive, enterprising, spiritually and physically healthy individuals. Competence from the point of view of training of future biology teachers is necessary for the effective organization of the teaching process of biological sciences in the continuing education system and surpasses the social requirements for clearly defined professional training. As a result of the research, the competence of the future biology teacher reflects the ability and readiness to use the knowledge, skills and qualifications of the field of activity in solving tasks related to the organization of biological education based on personal and professional necessary qualities.*

Key words: *Competence, cognitive and motivational component, basic competence, interdisciplinary competence, general professional, competence in the field of biology.*

Kirish

O‘zbekistonda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g’oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo’lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o’tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko’tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o’qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo’lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo’ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo’lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo’lishi uchun o’qituvchi o’z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo’lishi, o’quv materialini o’quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o’quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg’otishi, o’quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Uzluksiz ta'lim tizimida o‘quvchilarning kompetentligini takomillashtirishning ma'naviy-axloqiy, ekologik, valeologik asoslari, tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi B.Adizov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro‘zieva, R.Safarova, B.Xodjaev, F.Yuzlikaev, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, D.Sharipova, N.Egamberdieva, M.Quronovlar tomonidan tadqiq etilgan.Ta'lim oluvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillash-tirishning psixologik va akmeologik xususiyatlari E.Goziev, M.Davletshin, A.Derkach, A.Leontev, D.Muxamedova, S.Safaevlar tomonidan o‘rganilgan.

Badiiy-estetik ta'limning ijtimoiy, falsafiy jihatlari B.Ziyomuhammedov, S.Mamashokirov, Yu.Sh.Shodimetovlar; ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari N.Isakulova, Yu.Maxmudov, Sh.Otaboev, A.S.To‘xtaevlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Bo‘lajak o‘qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirish yuzasidan xorijlik olimlardan L.Botcheva, J.Shih, L.Huffman, Mijung Kim, C.Diong, M.Unland, B.Kleinerlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik konsilium, modellashtirish, so‘rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Kompetensiyaning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, J.Tolipovaning ta’kidlashicha, kompetensiya – biologiya fani bo‘yicha talabalarning egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo‘lay olishidir [4].

N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – etarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlik;

asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari [3].

O.Hayitov va N.Umarovalar klaster yondashuvi asosida kompetensiyalarni quyidagicha guruhlashni taklif etishadi:

axborotlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: axborotlarni to‘plash va tahlil etish, qarorlar qabul qilish; axborotlarni qayta o‘zgartirish;

muvaffaqiyatga erishishga doir kompetensiyalar: rejalashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tahlillash;

insonlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: munosabatlarni boshqarish, komandada ishlash, atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish;

o‘z-o‘zini takomillashtirishga doir kompetensiyalar: o‘z-o‘zini tekshirish, kasbiy o‘sish, innovatsion mobillik [4].

E.S.Zair-Bek metodik kompetensiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan:

maqsadli kompetensiya. Maqsadning aniqlanishi va maqsadning qo‘yilishi muammosi butun pedagogik faoliyatning tizimni hosil qiluvchi tarkibiy qism bo‘lib hisoblanadi, maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish qobiliyati pedagog mehnati natijalari bog‘liq;

mazmunli kompetensiya: umumta’lim tayyorgarlikning har bir bosqichida ko‘zda tutilgan hajmda texnologik ta’limning mazmuni; ko‘rsatilgan mazmun hajmi doirasida o‘quvchilarning minimal zaruriy tayyorgarligiga bo‘lgan talablar; o‘qitish yillari bo‘yicha o‘quv yuklamaning belgilash mumkin bo‘lgan maksimal hajmi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

monitoringli kompetensiya. Ta'lim sifatini baholash ta'lim jarayoni natijalarining aniqlanishini ko'zda tutadi. Shu bilan bir vaqtda sifat – bu nafaqat ta'lim samaradorligi mos kelishi kerak bo'lgan me'yoriy daraja, balki natijani ta'minlovchi mazmun, shart-sharoit va jarayondir [3].

M.B.Urazova loyihaviy faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

refleksiv kompetensiya: o'z-o'ziga baho berish, o'z shaxsi va faoliyatining yutuqlari va kamchiliklariga bo'lgan o'ziga xos talabchanlik, o'z ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sababini tushuna olish;

kognitiv kompetensiya: mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, mustaqil rivojlanish g'oyalarini qo'llash;

axboriy kompetensiya: kerakli axborotning olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishiga doir maxsus qobiliyatlarning egallanishi;

kommunikativ kompetensiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullar;

ijtimoiy kompetensiya: voqelikning ijtimoiy ahamiyatini anglash, javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlarning jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liqligining namoyon bo'lishi [4].

B.X.Xodjaev tomonidan esa, "umumta'limiy kompetensiya" tushunchasi iste'molga kiritilgan bo'lib, olim umumta'lim fanlarini o'qitishga doir sakkizta tayanch kompetensiyani aniqlashtirgan: motivatsion-kognitiv; informatsion; kommunikativ; g'oyaviy-mafkuraviy; fuqarolikka doir; ma'naviy-axloqiy, aksiologik, akmeologik, estetik [4].

Mazkur umumta'limiy kompetensiyalar biologiya ta'limi uchun ham xos bo'lib, sakkizinchi tayanch kompetensiyani badiiy-estetik kompetensiya sifatida tadqiq etish g'oyat muhim degan xulosaga kelindi.

Kompetensiyalarni tasnif etishga doir bunday xilma-xillik kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan masalaning mohiyatini chuqurroq tadqiq etishni taqozo etdi. Aynan kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan J.Tolipova, A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan ilgari surilgan kompetensiyalarni tasnif etishda ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni hisobga olish lozim, degan fikrga tayanish lozim deganda xulosaga kelindi: ob'ektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda kompetensiyalarni bo'lajak biologiya o'qituvchisining ta'limga oid qonunchilik normalarida ifodalangan huquq va burchlari, mas'uliyati sifatida; sub'ektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda dunyoga, o'z-o'ziga, boshqa kishilarga nisbatan ma'suliyati, kasbiy motivlari, kasbiy sifatlari, psixofiziologik o'ziga xosliklari tarzida tushunish maqsadga muvofiq [5].

Biroq A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan kompetenlik va kompetensiyalarni aniq bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga kiritib bo'lmaydi [2], degan fikriga qo'shilish mushkul. CHunki bilim, ko'nikma va malakalar taktik; kompetentlik, kompetensiyalar va metakasbiy sifatlar strategik kasbiy ta'lim birliklarini o'zida aks ettiradi.

Kompetent yondashuv ta'lim oluvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash esa, ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi [3].

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Olimning fikridan kelib chiqqan holda va tadqiqot natijalari asosida kompetensiyalar nafaqat o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq zaruriy vaziyatlar, qadriyatli-motivatsion komponentlar, qobiliyatlarni ham qaram oladi, degan xulosaga kelindi.

Xulosalar

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida kompetentlikni rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatni tahlil etish asosida bo‘lajak biologiya o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimini yaratish shart-sharoitlarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuv va maxsus tamoyillarga tayanish; mazkur tizim ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadni o‘zida aks ettirishi; bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida muhim kasbiy sifat – innovatsion fikrlash va badiiy-estetik kompetentlikni tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratish zarur, degan xulosaga kelindi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo`janazarov O`., Tog`ayeva G. “Biologiya fanini o`qitish metodikasi” moduli bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta`lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.
2. Mutalipova M., Imomov M. Ta`limda ilg`or xorijiy tajribalar moduli bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To`rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015
4.Alyaminov X. O‘quvchilarga badiiy-estetik ta’lim berishda o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish: Ped.fan.nom.diss....avtoref. –Toshkeni: TDPU, 2007. -23 b.
5.Mardonov SH.Q., Rabbimova F.T. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarga tabiatni idrok qilishga o‘rgatishga tayyorlash. O‘zMU xabarlari, № 3/2. –Toshkent, 2015, 83-86 b.
b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

PROBLEMS AND DIFFICULTIES OF STUDENTS IN LEARNING VOCABULARY.

Jamilova Shahlo Fazliddin kizi
English teacher of Karshi legal technical college.
shahlo.jamilova.92@mail.ru

Annotation: *In this article, various difficulties and problems encountered in learning English in our rapidly developing country and ways to solve them are presented. This article highlights vocabulary memorization methods that are useful for students. Through the research conducted in the article, ways of adapting interactive methods to various difficulties are also taught.*

Key words: *delexical verbs, implementic characteristics, delexicalization, idiomacity, clusters.*

O‘QUVCHILARNING SO‘Z O‘RGANISHDAGI MUAMMOLARI VA QIYINCHILIKLARI.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda ingliz tilini o’rganishda uchragan turli qiyinchilik va muammolar va ularni hal qilish yo’llari keltirilgan. Ushbu maqola talabalar uchun foydali bo’lgan lug’atni yodlash usullarini ta’kidlaydi. Maqolada olib borilgan tadqiqotlar orqali interfaol usullarni turli qiyinchiliklarga moslashtirish yo’llari ham o’rgatiladi.*

Kalit so’zlar: *deleksik fe’llar, amalga oshiruvchi xususiyatlar, deleksikalizatsiya, idiomalik, klasterlar.*

ПРОБЛЕМЫ И ТРУДНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ОСВОЕНИИ СЛОВ.

Аннотация: *В данной статье представлены различные трудности и проблемы, возникающие при изучении английского языка в нашей быстро развивающейся стране, и пути их решения. В данной статье освещены методы запоминания словарного запаса, которые будут полезны учащимся. Благодаря исследованиям, проведенным в статье, также преподаются способы адаптации интерактивных методов к различным трудностям.*

Ключевые слова*: делексические глаголы, имплементационные характеристики, делексикализация, идиоматность, кластеры.*

1.Importance of vocabulary

In developing Uzbekistan, in the period when attention to education is becoming stronger, improving teaching language is a process set as a goal for all teachers. For this purpose, many reforms are being implemented in the language teaching system. Technology and methods are being strengthened in the field of language learning of students. One of them is new methods used to increase vocabulary in learning a foreign language.

Vocabulary is the most vital thing to speak fluently or to learn one specific language in an effective way. No matter what your aim is when learning a new language you need to be fluent to achieve it.

Vocabulary knowledge is often viewed as a critical tool for second language learners because a limited vocabulary in a second language impedes successful communication. Underscoring the importance of vocabulary acquisition, Schmitt (2000) emphasizes that “lexical knowledge is central to communicative competence and to the acquisition of a second language” p. 55)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

The importance of vocabulary is demonstrated daily in and out the school. In classroom, the achieving students possess the most sufficient vocabulary. Researchers such as Laufer and Nation (1999), Maximo (2000), Read (2000), Gu (2003) and Nation (2011) and others have realised that the acquisition of vocabulary is essential for successful second language use and plays an important role in the formation of complete spoken and written texts. In English as a second language (ESL) and English as a foreign language (EFL) learning vocabulary items plays a vital role in all language skills (i.e. listening, speaking, reading, and writing (Nation,2001). Rivers and Nunan (1991), furthermore, argue that the acquisition of an adequate vocabulary is essential for successful second language use because without an extensive vocabulary, we will be unable to use the structures and functions we may have learned for comprehensible communication.

According to researches of Nation (2001) we can see what kind of vocabulary and how many vocabulary do we need to use another language.

Studies of native speakers' vocabulary seem to suggest that second language learners need to know very large numbers of words. While this maybe useful in the long term, it is not an essential short-term goal. This is because of native speakers' vocabulary growth see all words as being of equal value to the learner. Frequency based studies show very strikingly that this is not so, and that some words are much more useful than others.

2.Definitions of Vocabulary Learning Strategies.

This section discusses the definition of vocabulary learning strategies proposed by some experts. In the foreign language research Schmitt (1997) states VLS is the process for students to find the meaning of foreign language words, to memorize the foreign language words, and to use the foreign language words in context. Vocabulary learning strategies used by students as techniques on the ongoing process to master English vocabulary (Mehring, 2005). For instance, Hosenfeld's (1984, as cited in Takač, 2008) proposes list strategies of successful to learn new words, such as "guessing a word's meaning from the context, identifying the grammatical category of a word, looking up words or recognizing cognates" (p. 52). In addition according to Nation (2001), vocabulary learning strategies are defined by the following important features: "they involve choice; they are complex, i.e. consisting of several steps; they require knowledge and benefit from training, and they increase the efficiency of vocabulary learning and use"(p.217). Thus, many strategies have their own features, it is necessary for students not only to recognize but also to utilize the strategies. The role of VLS in language learning process could be significant in the acquisition of English vocabulary if the learners can manage and control their vocabulary learning. 5 Types of Vocabulary Learning Strategies There are some researchers who design a taxonomy of vocabulary learning strategies. A taxonomy is very beneficial for the researcher to find out learners' strategies in acquiring vocabulary (Nation, 2001). He divides three categories of vocabulary learning strategies, such us planning, sources, and processes. First, planning is related to choose what to focus on and when to focus on it. Second, sources are finding information about words. Third, processes involve ways of remembering and establishing vocabulary in order to make it available for use. Every general class of strategies entails several types of strategies. First, planning vocabulary learning involves strategies in choosing words, choosing the aspects of word knowledge, choosing strategies, and planning repetition. Second, sources consist strategies in analyzing the word, using context, consulting a reference source in L1 or L2, and using parallels in L1 and L2. Third, processes consist of noticing, retrieving and generating new words (Nation, 2001). Furthermore, Schmitt (1997) divides VLS into five

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

categories namely, determination strategies, social strategies, memory strategies, cognitive strategies, and metacognitive strategies. First, determination strategies are used to discover the meaning of new words through direct translation into L1. In determination strategies learners discover the meaning by guessing from their structural knowledge of the language or from context, guessing from their mother tongue (L1), using reference materials including monolingual and bilingual dictionary, asking someone else, and 6 also using word list which is including the use of flash cards. Indeed Schmitt (1997) proposed that determination strategies "facilitate gaining knowledge of a new word" (p.10). Second, social strategies are strategies utilized by learners which involve interaction with other people to improve vocabulary acquisition (Schmitt, 1997). For instance, the use of social strategies are asking teachers and classmates to attain the meaning of new words. Also, students may discover the new words' meaning through discussion in a group work activity. Third, memory strategies or traditionally known as mnemonics strategies "involve relating the word to be retained with some previously learned knowledge, using some form of imagery, or grouping" (Schmitt, 1997, p.13). Nation (2001) states that mnemonic strategies are similar with keywords techniques. He defines that mnemonic strategies are strategies to discover new words through making a strong link between the similar sounding of keywords. Also, memory strategies involves learners to think of a visual image of new words then recall them and their meaning. Schmitt (1997) finds out that the method to recall the words and the meaning are: picturing or using imagery; linking word into the target language with another word which learners already know; using unrelated word; grouping the words based on part of speech; and focusing on the target word's orthographical or phonological form to remember the meaning. 7 Fourth, cognitive strategies are parallel with memory strategies but do not really focus on the manipulative mental process. It means that the strategies involve the learners to manipulate and transform the words of the target language and do not involve mental manipulation. Cognitive strategies facilitate the learners to find the word's meaning. In implementing this strategy, the learners are required to do a rehearsal, interference, summarizing, paraphrasing, imagery, and amplification of the words. Thus, the cognitive strategies involve verbal repetition, write down vocabulary in a notebook, employ vocabulary unit in a textbook, use word lists and flash cards (Schmitt, 1997). Fifth, metacognitive strategies are "used by students to control and evaluate their own learning, by having an overview of the learning process in general" (Schmitt, 1997). The aims of using metacognitive strategies are to make the learning of new words successful and efficient. For instance, learners can use English language media (songs, movies, magazines, radio, newspaper and newscast in TV), involve in a vocabulary test, skip unfamiliar and difficult words, review vocabulary lists in their notepad, and keep on studying new words over time. Thus metacognitive strategies involve the learners to learn new words consciously and construct decisions about planning, monitoring, or evaluating the best ways to study target language vocabulary (Schmitt, 1997).

3. Difficulties in learning vocabulary.

According to my work experience, I made a research on my students' vocabulary knowledge. The objectives of the research entitled "Problems and difficulties of students' in learning vocabulary" were to find out kinds and factors of students' difficulties in learning vocabulary. The subject of this study was the students of the first grade in Karshi legal technical college, who took English class. This study employed a qualitative research design, implementing characteristics of a case study. For gaining the data, the researcher used interview and

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

questionnaire. All the data were analyzed descriptively. The findings showed that the students still faced the problems or difficulties in vocabulary learning. Kinds of difficulties faced by students in vocabulary learning were various.

First, the students faced difficulties in **pronouncing** the words because of the differences between spoken and written in English. For instance, when the students pronounce the word *know, write, answer* and *island*. The incorrect pronunciation is often caused by the lack of sound similarity between English and the students' native language. This is in line with what Varasarin (2007) described that in this situation, the students they could speak English fluently but most of them think that English is too challenging for them to master. Regarding this, some expert view incorrect pronunciation

Has been caused by instruction goal and the teacher himself and the teaching and learning in this area which is inappropriate (Varasarin, 2007)

Second, the problem in **writing** the words or **sounds-spelling** mismatches. The written form is different from the spoken form in English. When the students want to write a word "*know*", they just write the word which they heard "*nou*".

Third, choosing the appropriate meaning of the word was challenging for students. For example, sometimes they usually confused when using *do, have, make and get*. This kind of verbs are called delexical verbs. Therefore, as the examples above suggest, the semantic participation of have, or other delexical verbs, is a matter of degree: to what extent have retains the meaning or becomes a delexicalised verb. Sinclair (1991) observes this process using the term delexicalization as a tendency for frequent words. He explains that "with the very frequent words, we are reduced to talking about uses rather than meanings. The tendency can be seen as a progressive delexicalization" (p.113). Biber et al. (1990) claim that delexical verbs form a cline of idiomacity; one extreme is idiomacity (have a look), another is the core meaning (have a sandwich). In between there are relatively idiomatic expressions where the meaning can be predicted, but as a unit they are more idiomatic (have a bath).

Research shows that words that are difficult to pronounce are more difficult to learn. Potentially difficult words will typically be those that contain sounds that are unfamiliar to some groups of learners. Many learners find that words with clusters of consonants, such as strength or crisps or breakfast, are also problematic

References

1. https://www.english-for-students.com/Difficulties-in-Vocabulary-Learning.html
2. https://www.neliti.com/publications/178083/a-study-on-students-difficulties-in-learning-vocabulary
3. Sinclair, J. (1991). Corpus Concordance Collocation. Oxford: Oxford University Press.
4. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S. and Finegan, E. (1999). Longman Grammar of Spoken and Written English. Harlow: Longman.
5. Varasarin, Patchara. 2007. An Action Research Study of Pronunciation Training, Language Learning Strategies and Speaking Confidence. School of Education Faculty of Arts, Education and Human Development Victoria University. Retrieved on January 1, 2015 at eprint.vu.edu.au/1437/1/Vasarin.pd
6. Schmitt, N. (2000). Vocabulary in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

7. Schmitt, N. (1997). Vocabulary learning strategies. Vocabulary: Description, acquisition and pedagogy, 199-227. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Gu, Y. (2003a). Vocabulary learning in second language: person, task, context and strategies. Electronic Journal. TESL-EJ, 7, 2, 1-26.
9. Laufer, B. & P. Nation. (1999). A vocabulary size test of controlled productive ability. Language Testing 16, 33- 51.
10. Maximo, R. (2000). Effects if rote, context, keyword, and context/ keyword method on retention of vocabulary in EFL classroom, Language Learning, 50, 2, 385-412.
11. Read, J. (2000). Assessing vocabulary. United Kingdom: Cambridge University Press.
12. Nation, I. S. P. (2001).Learning vocabulary in another language. Cambridge: Cambridge University Press.
13. Mehring, J. G. (2005). Developing vocabulary in second language acquisition: from theories to the classroom. Retrieved April 27, 2017, from https://hpu.edu/CHSS/English/TESOL/ProfessionalDevelopment/200680TWPfall06/03Mehring.pdf
14. Takač, V. P. (2008). Vocabulary learning strategies and foreign language acquisition (Vol 27). Clevedon: Multilingual matters.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA TALABALARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida imloviy-uslubiy savodxonlikni o‘stirish, til ta’limining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan talabalarning yozma nutqini rivojlantirishning interfaol metodlari va shu asosda og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta’minlash haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *til ta’limi, yozma nutq, muloqot, adabiy til, savodxonlik, o‘zbek tili, insho, bayon, metod, matn ustida ishlash.*

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Усманова Ойистахан Юлдашалиевна
доцент Ташкентского государственного технического университета,
кандидат педагогических наук

Аннотация. *В данной статье исследуется о развитии орфографической и стилистической грамотности на уроках узбекского языка, интерактивных методах развития письменной речи учащихся, что является одной из основных задач языкового образования, и на этой основе обеспечения устной и письменной речевой компетентности.*

Ключевые слова: *языковое обучение, письменная речь, общение, литературный язык, грамотность, узбекский язык, эссе, изложение, метод, работа над текстом.*

INTERFACE METHODS OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH OF STUDENTS IN UZBEK LANGUAGE LESSONS

Usmanova Oyistakhan Yuldashaliyevna
Associate Professor of Tashkent State Technical University,
candidate of pedagogical sciences

Abstract. *This article talks about the development of orthographic and stylistic literacy in Uzbek language classes, interactive methods of developing students' written speech, which is one of the main tasks of language education, and on this basis, ensuring speech competence in oral and written forms.*

Key words: *language education, written speech, communication, literary language, literacy, Uzbek language, essay, statement, method, work on the tex*

Kirish

Jahonda tilni o‘qitish lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish va talabalar o‘rtasida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, talabaning shaxsini rivojlantirish va uning umumiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda oliy ta’limda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berib, ular ta’lim jarayonining deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini qo‘llab davlat tilini o‘qitish, shu tilda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratish, talabalarni ilmiy-nazariy ma’lumot va amaliy ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish jarayonida, ularda o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqish, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalarni ham takomillashtirishni amalga oshirish muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sanaladi.

Adabiyotlar tahlili

Talabalar nutqini shakllantirish til ta’limining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u tilning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’no tovlanishlari va badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Og‘zaki nutq adabiy tilning orfoepik; yozma shakli esa orfografiya va uslub kabi me’yorlariga mos holda shakllantirishni taqozo etadi. Nutq madaniyatini tarkib toptirishda adabiy til me’yorlariga amal qilinishi, xususan, muayyan tildagi so‘zlar, ularning qurilishi, yasalishi va o‘zgartirish modellari, so‘z birikmalari hamda gapni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish tushuniladi. Bu borada metodist olim A.Hamroyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi – gapiruvchi va qabul qiluvchi – tinglovchi ishtirok etadi” [2;148]. Haqiqatan ham, so‘z, so‘z birikmasi va gap subyektlar nutqiy jarayonining muhim qurolidir. Talaffuz xususiyati so‘zlovchining, eshitilishi tinglovchining muayyan maqsadiga, ya’ni fikrini uzatishga xizmat qiladi. Verballik jonli nutq ifodasi bo‘lsa, vizuallik yozma nutqqa xos muhim xususiyatdir.

O‘zbek tili darslarida grammatik mashqlarning muntazam ravishda tashkil etilishi talabalarda so‘z tanlash, ularning ma’nolarini anglash va farqlash orqali yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning nutqiy faoliyati ularning so‘zlarni nutq maqsadiga muvofiq tez va to‘g‘ri tanlay olishi orqali faollashib boradi. Grammatik tushunchalarning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

muntazam va izchillikda singdirilishi talabalar nutqiy faolligini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda nutqiy qobiliyat shaxsning til qonuniyatilarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga kuchli ta’sir etadigan hissiy-irodaviy jabhalaridan biri sifatida til ta’limidagi ahamiyat qaratilishi zarur bo‘lgan dolzarb masaladir.

A.G‘ulomovning qayd etishicha, “So‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi” [1;3].

Yozma nutq – bu matn bilan muloqot o‘rnatishning bir shakli bo‘lib, og‘zaki nutqdan grammatik va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yozma nutqni rivojlantirishning bir qancha shakllari mavjud bo‘lib, shulardan bayon talabalarning, asosan, o‘rganilgan matn (asar, parcha)dagi syujet rivojini o‘z tafakkuri doirasida qayta yaratish, ong prizmasidan o‘tkazish orqali ijodiy to‘ldirish va buni ma’lum ifodalar bilan tasvirlashga qaratilgan ijodiy ishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida imloviy-uslubiy savodxonlikni o‘stirish, til ta’limining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan talabalarning yozma nutqini rivojlantirishning interfaol metodlari va shu asosda og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta’minlash haqida so‘z boradi. Mazkur maqolada muammoga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

O‘zbek tili darslarida matn yozishga o‘rgatish orqali ijodiy fikrlash ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish talabalar nutqini, so‘z boyligini va o‘zbek tilining sintaktik tuzilishiga doir bilimlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu borada ona tilini o‘qitish metodikasida ham, o‘quv dasturlarida ham qat’iy fikr o‘rnatilgan. Masalan, bayon matn doirasida talabaning tasavvurlarini bilimlariga tayanib jamlash, matnga mos reja tuzish, fikrini izchillikda savodli hamda chiroyli xat bilan ifodalashdir. Bularning barchasi, o‘z navbatida, talabalarning yozma savodxonligini oshirish omili sanaladi. Shuning uchun ham o‘zbek tili ta’limida ilmiy-metodik jihatdan asoslangan amaliy mashqlar tizimini ishlab chiqish talabalarining nutq madaniyatini rivojlantirish omilidir.

O‘zbek tilini o‘qitish usullarini dars jarayonida qo‘llashda asosiy e’tiborni o‘zbek tilida so‘zlashga va yozishga o‘rgatish, shuningdek, shu tilda o‘ylashga o‘rgatishga yo‘naltirilishi lozim. Bu ancha qiyin, ammo amalga oshirish mumkin bo‘lgan jarayon bo‘lib, buning uchun o‘zbek tili o‘qituvchisi dars berish metodini standart yondashuvdan tashqari turli xil o‘yinlar, o‘rtoqlari bilan muloqot, xatolarni topish bo‘yicha mashqlar, matnlarning qiyosiy tahlili kabilar bilan boyitishi lozim. Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini yanada oshiradi. Ayniqsa, til o‘zlashtirish jarayonida ularni qo‘llashga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha (an’anaviy) ta’limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsalar, zamonaviy texnologiyalar ular egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlari, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Quyida tavsiya etilayotgan innovatsion metod aynan o‘zbek tilini o‘qitishda talabalarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan:

“YOZMA ISH” metodi

“Yozma ish” metodi talabalarlarda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir talabani mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. O‘zbek tili darslarida insho, hikoya yoki maqola yozdirishdan oldin matndagi notanish so‘zlar ma’nosini izohlash yozuvda xatolarning oldini olishga yordam beradi. Agar talabalar ayrim so‘zlar ma’nosini tushunmasa, ularni nutqda qo‘llashda qiyinchilik sezsa, quyidagilarga amal qilishni o‘rgatish orqali xato-kamchiliklarning oldini olish va imloviy savodxonlikni ta’minlashga zamin yaratiladi:

– kontekstga qarab, izohli lug‘atlardan foydalangan holda, shu so‘zlarning sinonimlarini qo‘llash;

– tanish bo‘lmagan so‘zlar bilan ifodalangan tushunchalarni tanish bo‘lgan so‘zlar vositasida ifodalangan tushunchalarga taqqoslash;

– o‘zga so‘zlar yordamida izohlash;

– mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ma’nosini misollar orqali tushuntirish usullaridan foydalanish hamda imlosi nisbatan murakkab so‘z va iboralarga, so‘z qo‘llashda sheva elementlariga izoh berilishi.

Ta’limda ushbu metodni qo‘llashda talabalarga quyidagi ketma-ketlik asosida ish ko‘rish taklif qilinadi.

Kim yoki nima haqida yozmoqchi ekanligizni aniq belgilab oling!

1. Insho (maqola) uchun mos sarlavha toping!
2. Insho (maqola) ning qoralamasi (xomaki nusxasi)ni tayyorlang!
3. Insho (maqola) ning xomaki nusxasini qayta o‘qib chiqib, xatolari bo‘lsa tuzatish kiriting!
4. Insho (maqola) matnini oqqa ko‘chiring!
5. Insho (maqola) ni jamoatdoshlaringizga o‘qib bering!

Ushbu metod asosida ishlash uchun talabalarga 9-10 daqiqa vaqt beriladi.

Metodni qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Har bir talabaga o‘rganilgan mavzuga oid bir nechta tayanch tushuncha yoki mavzular yozilgan kartochkalar tarqatiladi.
2. Talabalar kartochkada ko‘rsatilgan tushuncha yoki mavzulardan birini tanlab, u asosida kichik hikoya, tezis yoki maqola tayyorlaydi.
3. Agar talabalarga bir necha tayanch tushuncha (so‘z)lar taqdim etilsa, yaratilgan insho, tezis yoki maqolada ushbu tayanch tushunchalar ishtirok etishi zarur.
4. Har bir talaba inshoning avval qoralamasini yozadi.
5. Har bir talaba o‘zi tomondan tayyorlangan insho, tezis yoki maqolani tekshirib chiqib, oqqa ko‘chiradi.
6. Insho, tezis yoki maqola tayyorlash uchun har bir talabaga avval o‘zi bilgan, tanigan, eshitgan, o‘qiganlarni yodga olish va ular haqida yozish tavsiya etiladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo‘llash mumkin. Bunda talabalarni guruhlarga biriktirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esee yoki maqolalarni tayyorlash mumkin. Hikoya, esee yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a’zolarining birgalikda, o‘zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O‘qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e’tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Talabalarning yozma nutqini shakllantirishda an’anaviy fikrlashdan farqli o‘laroq ularning ijodiy potensialini namoyon etishga doir kreativlikni talab etadigan yuqoridagi kabi metodlar alohida o‘rin tutadi. Bunday mazmundagi usullar bir qolipda fikrlashdan holi, masalaga ayricha va noan’anaviy yondashuvlarni talab etadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyasi har bir o‘qituvchi tomonidan barcha talabalar o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari, individual xususiyatlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi, talabalarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Xulosalar

Shunday qilib:

1. Ta’lim ravnaqini ilg‘or metod va usullar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanishi natijasida o‘qituvchining mutlaq “hukmron” shaxs roli bilan xayrlashishi va uning o‘rnini hamkorlikka asoslangan, talabani faollashtiruvchi, mantiqiy fikrlashga undovchi usul va vositalar bilan almashtirishi til o‘rgatish samaradorligini oshiradi.

2. Ta’lim jarayoni o‘qituvchining mavqei masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Til o‘rganish samaradorligi o‘qituvchi shaxsiga ham bog‘liq. Bilimli, pedagogik mahoratga ega, ma’naviy jihatdan etuk ustozlargina barkamol shaxslarni kamol topdira oladi.

3. Talabaning ma’naviy qiyofasi, tafakkur miqyosi ta’lim sifatini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, dastur talablaridan kelib chiqqan holda, til ta’limi vositasida bilimlar berish orqali yoshlarning ma’naviy qiyofasi ham shakllantiriladi.

4. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi-talaba munosabatlarini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etish mustaqil fikrli, o‘z nuqtai nazariga ega, mulohaza-mushohada yurita oluvchi shaxs tarbiyalash imkonini beradi.

5. Darsni ilg‘or texnologiyalar asosida, metodikaning yangi nazariy g‘oyalari, ilmiy xulosalari, tavsiyalari yordamida ilmiy-metodik jihatdan izchil tashkil etish samaradorlikni oshirish imkoniyatini tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarova M. va boshq. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida nutq o‘stirish. – Toshkent: TDPU, 2000. – 58 b.
2. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Ped. fan. dokt. (DCs) diss. – Toshkent: 2020. - 248 bet
3. Usmonova O. Y. O‘zbek tili darslarida talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish. – “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. ADU, 2023-y, 15-may. 276-279-b.
4. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - 143 bet.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

PEDAGOGIK ATAMALAR SHAKLLANISHNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTDA QO'LLANILISH HOLATI

Odilova Maloxat Rasuljon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
malohatodilova@mail.ru

Annotatsiya: *So'nggi yillar davomida pedagogika fanida keng qo'llanilayotgan 2000 ga yaqin ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalar, yangi atamalar lug'ati qisqacha sharhlargan. Mazkur pedagogik atamalarning ma'nolarini ochishda izchillik, ketma-ketlilik tamoyillariga asoslangan. Sharhlangan atamalar ilmiy, ijtimoiy, pedagogik vazifalarni bajarish bilan bir qatorda pedagogika ilmining rivojlanishi, ommalashishi va fanda barqarorlashgan atamalarning shakllanishida muhim rolni bajargan. Mazkur maqolada pedagogik atamalar shakllanishning tarixiy taraqqiyoti va amaliyotda qo'llanilish holati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, atama, pedagogik atamalar, shakllanish tarixi*

HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE FORMATION OF PEDAGOGICAL TERMS AND THE USE IN PRACTICE

Odilova Malohat Rasuljon kizi,
PhD Student of Namangan State University
malohatodilova@mail.ru

Abstract: *About 2,000 educational concepts, new terms, which have been widely used in the field of pedagogy in recent years, have been briefly reviewed. The meaning of these pedagogical terms is based on the principles of consistency and sequence. In addition to performing scientific, social, pedagogical tasks, the interpreted terms played an important role in the development and popularization of pedagogic science and the formation of stabilized terms in science. This article analyzes the historical development of pedagogical terms and their use in practice.*

Key words: *pedagogy, term, pedagogical terms, history of formation*

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НА ПРАКТИКЕ

Одилова Малохат Расулжон кизи,
Докторант Наманганского государственного университета
malohatodilova@mail.ru

Аннотация: *Кратко рассмотрено около 2000 образовательных понятий, новых терминов, получивших широкое распространение в области педагогики в последние годы. Значение этих педагогических терминов основано на принципах последовательности и последовательности. Помимо выполнения научных, социальных, педагогических задач, толкуемые термины сыграли важную роль в развитии и популяризации педагогической науки и формировании устойчивых терминов в науке. В данной статье анализируется историческое развитие педагогических терминов и их использование на практике.*

Ключевые слова: *педагогика, термин, педагогические термины, история становления.*

Kirish

Tadqiqot tahlillariga ko'ra, O'zbekistonda 1925 yildan bugungi kunga qadar 50 dan ortiq soha bo'yicha 140 ga yaqin atamalarga oid nashrlar mavjud. Ular orasida pedagogik atamalar lug'ati sanoqli bo'lib, tarixiy yondashuvlar asosida pedagogik atamalarning shakillanish tarixi va amaliyotda qo'llanilishiga oid tadqiqot ishlari olib borilman. Bugungi davrda pedagogika fani ilm, ta'lim va tarbiyaning tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida pedagogik atamalarni amaliyotda qo'llash doirasini kengaytirish va uning shakillanish tarixini o'rganish zaruriyatini ilgari suradi.

Ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan islohotlar ko'proq tilning lug'at boyligida o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, pedagogikaga oid fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari kabi sohalarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik atamalarni qo'llash doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar chop etish, zarur atama, iboralar, tushuncha hamda kategoriyalarni ishlab chiqish, milliy ta'limni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Axborot texnologiyalari asrida ijtimoiy-siyosiy faol hayot, ilmiy kashfiyot va tadqiqotlar tufayli yangi-yangi atamalarning vujudga kelishi hech kimga sir emas. Bu hodisa yangilik bo'lmay, asrlar mobaynida yangi tushuncha, hodisa va buyumlarni ifoda etish uchun kerak bo'lgan. Shu tariqa, u yoki bu sabab tufayli tilning zaxirasi doimo yangi so'zlar bilan boyib borgan. Bunga nafaqat tarixiy, siyosiy, balki madaniy va ilmiy-texnik hodisalar ham turtki bo'lgan. Yangi terminlarning paydo bo'lishi va keng yoyilishi, noma'lum terminni tarjima qilish yangi terminlarni paydo qilishga asos bo'ladi. Shubhasiz, eng ommabop usul o'zlashtirish hisoblanadi. Shu bois, baynalmilal so'zlar katta ko'lamga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda o'zlashgan atamalarning boyishida internet asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yangi terminlar tilning ichki resurslari asosida ham paydo bo'ladi. Odatda, mavjud umumiste'mol so'z yoki atama ma'nosining kengayishi yangisining paydo bo'lishiga olib keladi. Ko'p atamalar bir paytning o'zida umumiy leksikada ham mavjudligi va biror fanning bo'limida boshqa o'ziga xos ma'nosi borligi ularning kengayishiga sabab bo'ladi. Bu haqda X.Sh.Narxodjaeva terminlarni tizimli o'rganib, "..tilning ijtimoiyligi va uning taraqqiyotidagi tejamkorlik tamoyili hamroh mohiyatli terminlarning mavjudligini ta'minlaydi" [2:154] – deydi. Shuningdek, olim sof o'zbek tiliga xos bo'lgan va faqat terminologik ma'nogagina ega bo'lgan terminning mavjud emasligini ta'kidlaydi.

Pedagogikaga oid atamalarni tahlil qilish jarayonida "termin" yoki "atama" so'zlari orasida farq borligi va ayrim tilshunos olimlarning xulosalariga tayanib, ta'kidlash mumkinki, bu masalada yana ko'p izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Tadqiqot natijariga asoslanib, mazkur "termin" va "atama" so'zlarini bitta leksik ma'noga ega, turli tushuncha bo'lib, bir sinonimik qatorda turadi deb hisoblaymiz. Termin so'zi lotincha terminus – "chegara" demakdir. Termin deganda fan, texnika sohalaridagi muayyan tushunchani anglatuvchi so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi. Umumiy leksikadagi ko'pincha ko'p ma'noli va hissiy bo'yoqli so'zlardan farqli o'laroq, terminlar ekspressiyadan mahrum. Bir ma'noli va aniq bir sohada qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Atama - umuman, nom. Bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Termin va atama ham bir hil vazifani bajarar ekan, nutqda ikkisidan ham unumli foydalanish xato bo'lmaydi deb hisoblaymiz. Demak, ularni lug'aviy jihatdan quyidagicha izohlashimiz mumkin: Atama, termin (lot. terminus – had, chegara). Atama keng ma'noda, maxsus, asosan ilmiy-texnikaviy sohada qo'llanadigan so'z yoki birikmalar, bular fan, texnika, san'atga oid tushunchalarni ifodalaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427


Tahlil va natijalar

Pedagogika fan sifatida rivojlanar ekan boshka fanlardan o'zining asosiy tushuncha va atamalariga egaligi bilan farq qiladi. Shu o'rinda tushuncha so'zining lug'aviy ma'nosi ham izohlanishi zarur. Ma'lumki, pedagogika faniga oid ko'plab adabiyotlarda atama so'ziga nisbatan tushuncha so'zi ham qo'llanilib kelgan.

Tushuncha – idrok etilayotgan hodisaning chuqur, mohiyatli tomonlarini aks ettirishga qobil tafakkur birligi. Uning yordamida turli narsalar, xossalar, munosabatlar ularning muhim belgilari orqali inson ongida aks etadi, ya'ni tushuncha ob'ektni aks egtirish natijasidir. Tushunchaning mohiyati, bu – ongda aks ettirilayotgan ob'ekg muhim belgilarining yig'indisi, bular ongda shunday farqlanishi va qayd etilishi kerak, toki mazkur ob'ekt ushbu belgilar asosida qolgan barchasidan imkoni boricha oson farqlansin. Tushuncha so'z va so'z birikmalarida mustahkamlanib, insoniyat to'plagan bilimlarni jamlaydi va saqlaydi, ularni ko'plab avlodlarning mulkiga aylantiradi. Psixologiyada tushunchaning ikki turi farqlanadi: hayotiy va ilmiy. Hayotiy tushuncha (uy, daraxt, kitob va h.k.)ni bolalar amaliy tajribasida ortiradi; ilmiy tushunchaga esa taьlim jarayonida erishiladi. Tushunchaga ega bo'lish ongli, idroklangan tarzda bo'lishi uchun pedagog materialning mohiyati, mazmundorligi va ko'rgazmaliligi haqida qayg'urishi lozim. Tushunchaning so'zdagi ifodasini o'zlashtirib, o'quvchi olgan bilimlarini o'qish va hayotiy topshiriqlarni turli sharoitlarda yechishda qo'llashni mashq qilish imkoniga ega bo'lishi lozim.

Rivojlanish (arab. انتشار – tarqalish, yoyilish, kengayish, ommalashish). Bu ob'ektiv jarayon bo'lib, tashqi va ichki boshkariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatdan fizik va ma'naviy shakllanish jarayoni hisoblanadi. Rivojlanish shaxsning fazilatlari, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chukurlashishi, kengayishi, osondan kiyinga, oddiydan murakkabga, mavxumdan bilishga o'tish jarayonidir. Shaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xisatlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Rivojlanish o'zida shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlarining takomilini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi. Pedagogika fani o'z sohasiga oid atamalarning amaliyotda qo'llanilish holatida dast avval rivojlanishni belgilaydi, bu atamalar fiziologiya va psixologiya fanlaridan tanish bo'lsada biz ularni o'zaro bog'likligiga to'xtalamiz (1-rasm)

.



www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tarbiya (arab. تطوير – rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish). Insonlar rivojlanishida asosiy rolь o'ynaydigan jarayon bo'lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirishlarini va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyat sanaladi. Tarbiya – inson tarbiyalanganligining me'zoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq xolda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashki muxitni ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U fakat ajdodlar tajribasiga oid me'rosni davom ettiruvchisi sifatida ijtimoiy hayotga qo'shilib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi. «Tarbiya» atamasi negizidan ko'pgina pedagogik atamalar kelib chikkan va amaliyotda qo'llanilishi davom etayapti. Jumladan: tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalangan, tarbiyalanganlik, tarbiyaviy va shu kabilar. Mazkur barcha terminlarning manbasi va ma'nosi bitta. Tarbiyachi – inson, avlodlar tajribasini egallashlari uchun majburiy yoki zaruriy ta'minotchi. Tarbiyalanuvchi – tajribalarni egallaydigan va o'rganadigan shaxs. Tarbiyalangan (tarbiya ko'rgan) – tajribalarni yaxshi egallagan va unumli foydalanuvchi. Tarbiyalanganlik – shaxsning sifat ko'rsatgichi, tajribalarni yaxshi o'zlashtirganligi, tarbiyaviy rivojlantirish maksadida yo'naltirilganlik. Xususan, tarbiyaviy aloqalar, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy tizim, tarbiyaviyishlar va tadbirlar.

Ma'lumot (arab. معلومة - axborot, xabarlar, bilim). Ma'lum maksadga yo'naltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi xisoblanadi. Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim – bu ta'lim va tarbiya muassasalari, o'quv-material baza, moliya (finans), kadrlar, ilmiy-metodik ta'minot. Ularda ma'lum maksadlarga ko'ra tajribalar o'rgatish va o'rganish maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axlokiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim (arab. لتعليم - o'rgatish, o'qitish, ilm berish, ma'lumot). Tajribalar almashinish jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o'qituvchi-o'quvchi-o'qituvchi» muloqoti, uning natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi.

Ma'lumot olish tizimida ta'lim asosiy rolь o'ynaydi. Maqsadiga ko'ra u ikkita asosiy qismdan iborat: 1. Tajribalarni o'rgatish (o'qitish) va uni o'rganish (o'qish). 2. O'qitish – milliy kadriyatlarimizni, xayotiy tajribalarni, fan va texnika soxalaridagi yutuklarimizni yosh avlodlarga o'rgatishni ta'minlaydi. O'qish – milliy qadriyatlarni, fan-texnika sohasidagi yutuklarni, tajribalarni o'rganishga, tushunishga, tafakkurni rivojlanishiga, Mustaqil fikrlashga va ulardan xayotda foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. O'qitish – pedagogik foliyat (o'qituvchi, ishlab chikarish ta'limi ustasi, tarbiyachi faoliyati), o'qish – o'quvchi (o'rganuvchi, tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi) faoliyati.

Pedagik atamalarning amaliyotda qo'llanilish holatiga asoslanib, qayd etish mumkinki, qator pedagogik atama va tushunchalar yordamida inson shaxsini rivojlanish jarayoniga ta'rif beriladi. Xususan, «Shakllanish», bu inson rivojlanishida ta'lim va tarbiyani o'zida mujassamlashtirishini, ma'lumotini ortirib borishini, tafakkurini, Mustaqil fikrlashda rajasini belgilaydi. Ijtimoiy jamiyatda inson biron bir texnikadan kompьyuter yoki stanoklardan foydalanib tabiiy maxsulotni tayorlab (yaratib) bo'lmaganidek, rivojlangan barkamol insonni ham texnika yordamida bir zumda tayyorlab bo'lmaydi. Tabiiy maxsulot yetilishida mutaxassis mehnatidan tashqari jarayonda boshqa omillarning ta'siri muhim sanaladi. Demak, inson

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

shaxsini rivojlanishida ham pedagog faoliyatidan tashqari o'zini-o'zi shakllantirshda shaxsning ichki tuyg'ulari katta rolь o'ynaydi. Ichki tuyg'u insonni rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Inson shaxsida o'z-o'zini tarbiyalashni, mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olishni tashkil etadi.

O'zini-o'zi tarbiyalash – bu ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, fan va texnika yutuklarini, tajribalarni o'rganish, Mustaqil rivojlanish jarayonidir. Tarbiya, majburiy bo'lmasa, o'zini-o'zi tarbiyalashni amalga oshirib bo'lmaydi. O'z-o'zini tarbiyalash fakat yosh o'smirlarga tegishli bo'lib qolmay, balki barcha yoshdagi shaxslar uchun ham ta'luqli bo'lib, o'z-o'zini tarbiyalash yaxshi shakllantirilsa tarbiya jarayonida pedagog faoliyati ham shunchalik osonlashadi. Pedagog faoliyatidagi maksad, ma'lumot tarkibining aniqliligi insonni mustaqil ma'lumot olishiga ta'sirini amalga oshirishdir.

Mustaqil ma'lumot (arab. مجانا - erkin, ozod, tobe bo'lmagan, alohida+ma'lumot). Bu insonning avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuklarini o'rganish maksadida, o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil tashkil etgan, shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

Mustaqil ma'lumot inson shaxsini rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, Mustaqil ta'lim esa (o'qishning) ta'lim olishni asosi hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim – bu insonni o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan texnika yutuklarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy xarakatlar jarayoni. Bunda insonni ichki dunyosi, xis-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rolni o'ynaydi. Pedagogika «O'zini-o'zi tarbiyalash», «mustaqil ma'lumot», «mustaqil ta'lim» tushunchalari orkali insonning tug'ma talanti, qobiliyati, xis-tuyg'ulari, ichki dunyosini shaxsiy rivojlanishidagi axamiyatini yoritib beradi. Insonlarning ichki dunyosidagi shunday xarakatlantiruvchi kuchlar mavjudki, bular shaxsni rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi. Hozirgi kunda bu tushunchani hech kaysi faylasuf, pedagog yoki ruxshunos inkor etmaydi.

Tadqiqot tahlillariga ko'ra fikrlar mohiyatini fakat talabalar yoki tarbiyalanuvchilarga emas, umumiy mazmuni insonlarga qaratildi, inson butun umri davomida ta'lim oladi, tarbiyalanadi, o'sishda va rivojlanishda davom etadi. Tarbiya – o'z-o'zini tarbiya, ma'lumot – Mustaqil ma'lumot, ta'lim – Mustaqil ta'lim o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni «Tarbiyaviy munosabatlar» tushunchasi orkali tushunib olishimiz mumkin.

Tarbiyaviy munosabatlar (tarbiyaviy+arab. ميزة – munosiblik, muvofiqlik, joizlik, qarindoshlik, aloqadorlik). Ta'lim, tarbiya, ma'lumotni amalga oshirishda, jamiyatda insonlar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar. Bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, estetik va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb atash qabul kilingan. Tarbiyaviy munosabatlar turli shakllarga ega bo'lgan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'lib, ular inson shaxsini rivojlanishida ta'lim, tarbiya va ma'lumot orqali amalga oshiriladi.

Xulosa

Fikrimizcha, tarbiyaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (alokalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga ya'ni Mustaqil ma'lumot, Mustaqil ta'lim olishni va o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat kiladi. Tarbiyaviy munosabatlar – bu insonlarni o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi bo'lib, bunga texnika, san'at va tabiat bilan bo'lgan munosabatlar ham kiradi. Bularga asosan tarbiyaiy munosabatlarning asosiy shakllariga – «inson-inson», «inson-kitob-inson», «inson-texnika-inson», «inson-san'at-inson», «inson-tabiat-inson» kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Борисова Л.И. Лексико-стилистические трансформации в англо русских научно-тех ни ческих переводах (Метод. пособие). – М.: ВЦП, 1981. – 168 с.
2. Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ғ. Педагогик атамалар луғати. – Т: ЎзПФИТИ, 2008. – 136
3. Дорохова Т.С. Богуславский М.В. Эволюция отношения российского общества к инвалидности в XX–XXI вв. понятийно-терминологический аспект / Понятийный аппарат педагогики и образования: сборник научных трудов. – Екатеринбург: УГПУ, 2020. – 80-89 с.
4. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd)... дисс. – Т., 2017. – 154 б.
5. Кошкина Е.А. Понятийно-терминологический аппарат педагогики как предмет историко-педагогического исследования. // Образование и наука. 2012 № 5 (94) С. 83-95.
6. Профессионально-педагогические понятия: Слов. / Сост. Г.М.Романцев, В.А.Федоров, И.В.Осипова, О.В. Тарасюк; Под ред. Г.М. Романцева. – Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2005. – 456 с.
7. Педагогик атамалар луғати. Тузувчи: Р.Сафарова ва б. –Тошкент, 2016. -328 б.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI SHAKLLANISHIDA KASBIY KOMPETENISIYALRNING AHAMIYATI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
Hamrayeva Umida Shonazarovana
Gmail: umida_hamrayeva19@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunda har sohada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash oliy ta'lim muaasasalari oldiga o'lkan vazifalarni quymoqda. Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarinig qay darajada o'z sohasining malakali mutaxasisi bulib yeytishishlari haqidagi ayrim fikrlar yuritilgan. Shuningdek bo'lajak musiqa o'qituvchilari qanday kasbiy kompetenisiyalarga ega bo'lishliklari haqidagi mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mumtoz musiqa, folklor musiqasi, innavatsion faoliyat, kompetensiya, metod, Inklyuziv ta'lim.*

ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ.

Узбекско-Финляндский педагогический институт
Преподаватель кафедры музыкального образования
Хамраева Умида Шоназарована
Gmail: umida_hamrayeva19@gmail.com

Аннотация: *Сегодня подготовка конкурентоспособных кадров во всех сферах ставит перед высшими учебными заведениями огромные задачи. В данной статье содержатся некоторые мысли о том, насколько будущие учителя музыки могут стать компетентными*

ISSN: 2181-0427

специалистами в своей области. Также освещены соображения о том, какими профессиональными компетенциями должны обладать будущие учителя музыки.

***Ключевые слова**: классическая музыка, народная музыка, инновационная деятельность, компетентность, метод, инклюзивное образование*

THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE FORMATION OF FUTURE MUSIC TEACHERS.

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Music Education
Hamrayeva Umida Shonazarovana
Gmail: umida_hamrayeva19@gmail.com

***Annotation:** Today, training competitive personnel in all areas poses enormous challenges for higher education institutions. This article provides some thoughts on how future music teachers can become competent professionals in their field. Considerations about what professional competencies future music teachers should have are also highlighted.*

***Keywords:** classical music, folk music, innovative activity, competence, method, inclusive education*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909 "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarni o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti. Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart sharoitlari keltirib o'tilgan.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi-yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. [6; 8-9.b]

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak pedagog xodimlarni kasbiy kompetentliligini takomillashtirish muammolari mamlakatimizda B.Adizov, G.Boymurodova, R.Djurayev, A.Ibragimov, X.Ibragimov, A.Radjiyev, N.Shodiyev, M.Yuldashev, B.Xodjayev va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. G.Aripova, O.Jamoliddinova, U.Inoyatov, R.Safarova, D.Ro'ziyeva, B.Umarov,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ch.Shakirova, Sh.Shodmonova, E.Yuzlikayeva, N.M.Egamberdiyeva larning tadqiqot ishlarida o‘quvchilarda yangicha tafakkur tarzini shakllantirish, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, ijodiy, badiiy, innovatsion, tarixiy tafakkur, tolerantlik tafakkuri, ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasining o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Lekin aynan bo’lajak musiqa o’qituvchilarini shakllanishida kasbiy kompetenisiyalrning ahamiyati mavzusida kam tadqiqotlar olib borilgan

Tadqiqot metodologiyasi

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Har bir insonni ma’naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi. [1; 6-b]

Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Stendalning aytishiga ko‘ra musiqa – san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.[3; 9-10.b]

Pedagogik faoliyat – insonlar mehnatining eng murakkab, ma’suliyatli sohalaridan biridir. O‘qituvchi yuqori malakali, g‘oyaviy, ma’naviy, ma’rifiy jihatdan yetuk, axloqan sof bo‘lishi jamiyat talabidir. Sharq allomalaridan Rizoutdin ibn Faxriddin o‘zining «Odobi ta’lim» kitobida shunday deb aytadi:

«Gar usuli tarbiyat olgan muallim bersa dars,
Etgusi shogirdlarin olim va dono – tarbiyat».

Zamonaviy pedagogika ta’lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo‘lgan musiqa o‘qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat, chunki umumiy o‘rta ta’lim maktabi rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo‘ymoqda. Har qanday pedagoglik kasbi murakkab va serqirra jarayondir, shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo‘lmasin, musiqiy rahbar oldiga ko‘pgina talablarni qo‘yadi. Jumladan, maktabglardagi “musiqa” o’qituvchisining ham maxsus bilimlar, ko‘nikma-malakalar, pedagogik qobiliyat hamda pedagogik mahoratga ega bo‘lmoqlarini lozimligini kursatadi. [3; 48-b]

Ayniqsa, musiqa ta’limining o‘ziga xos san’at darsi ekanligi bundan tashqari musiqa ta’limiga axborot innavatsion va kommunikatsion texnologiyalarning jadal kirib kelayotganligi ta’lim metodikalarini takomillishtirishni yangi interaktiv faoliyat uslublarini ishlab chiqishini taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan omillarning barchasi bo’lajak musiqa o‘qituvchisining tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishini naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Metodologik asosdagi innavatsion faoliyat metodlari rang-barang bo‘lib, o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan pedagogik maqsadidan kelib chiqadi.

Bular fundamental amaliy yoki innavatsion tadqiqot ishlar bo‘lib, ma’lum bir musiqiy faoliyat bo‘yicha musiqiy-nazariy materiallarga asoslanuvchi; cholg‘u asboblari tuzilishi ijrosi

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yoki tarixi bo‘yicha; kopbozitor va bastakorlar biografiyasi va amalga oshirgan ma’lum yo‘nalishdagi faoliyati bo‘yicha; mamlakatimizda musiqa san’atining bugungi kundagi taraqqiyotiga shart-sharoit yaratgan omillar; ko‘rik – tanlovlar, festevallar doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy-uslubiy konferensiyalar ahamiyatini tahliliy o‘rgani bo‘yicha bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishdagi izlanishlar o‘qituvchining kasbiy o‘sishida muhim rol o‘ynaydi.

Tahlil va natijalar

O‘qituvchining ilmiy izlanuvchanligi asosan quyidagi yo‘nalishlarda nomoyon bo‘ladi:

1. Mavjud amaldagi o‘qitish metodikalarini takomillashtirib ijtimoiy taraqqiyot davrida musiqa ta’limining dolzarbligi oshib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda o‘quvchilarga singdiriladigan bilimlarning hajmi va sifatini yanada takomillashtirish, ularga badiiy-estetik tafakkur imkoniyatlaini kengaytirish, qiziqishlarini oshirish orqali musiqiy bilimlarga ega bo‘lish ehtiyojini rivojlantirishga yo‘naltirilgan noan’anaviy metodikalarini ishlab chiqish.

2. Ta’lim mazmunini boyitish va milliylashtirish. Milliy musiqiy tariximizga oid (mumtoz va folklor musiqa asarlarining yaratilish va ijro tarixi, mashhur sozanda va xonandalar, musiqa nazariyotchilari bastakorlar ko‘plab she’rlari qo‘shiqqa aylangan shoirlar milliy musiqa san’atimizning rivojlanishida muhim o‘rin egallagan hududlar, geografik joylar, raqs san’ati tarixi bilan bog‘liq siymolar, sanalar va hokazo.) materiallar tadqiqi va shu orqali musiqa ta’limi rivojiga hissa qo‘shgan.

3. Talabalarning qobiliyatlari va bilim darajalarini diagnostika qilish.

Musiqa o‘quv mashg‘ulotlarining yakuniy maqsadi bu – bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali shakllanishidan iborat ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, egallanadigan bilimlar hajmi talabalarda musiqiy qobiliyatlar mavjudligi va izlanuvchanligi darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Musiqiy qobiliyatlar hajmini diagnostika qilib, talabalarga individual musiqiy imkoniyatlar hajmini aniqlash va shu orqali individuallashgan va tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. [2; 3-b]

O‘qituvchi–musiqachining ilmiy-uslubiy faoliyatiga o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar notalar xrestomatiyasi, ko‘rgazmali qurollar, slaydlar elektron darsliklar, testlar uslubiy tavsiyanomalarni ishlab chiqish kiradi va pirovard natijada ta’lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. [7; 61-b]

O‘qituvchi - musiqachining kasbiy o‘sishini ta’minlaydigan individual, ijodiy faoliyat va shartlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Musiqa pedagogikasi, psixologiyasi va sotsiologiyasi borasida bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam, rejali tarzda egallab, borish va o‘z ustida muntazam ishlashi;

2. Musiqiy ijroni talab darajasida amalga oshirishni ta’minlash maqsadida cholg‘u sozida (yoki xonandalik bo‘yicha) muntazam har kuni reja asosida mashq qilish, bunda rivojlantiruvchi gamma va etyudlar, murakkab cholg‘u asarlaridan fragmentlar ijro eitb borish, xor yoki ashulachilar ansambli bilan ishlash malakalarini oshirish maqsadida vokal xor mashqlari, vakalizlar, turli asarlar ijro repertuaridan asarlar parchalarni yoki to‘liq holda solfedjio kuylash:

3. Musiqa pedagogikasi va metodikasi, tarixi, yangi tendensiyalar haqida tezkor ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida vaqtli matbuot radio telvideniyadan tegishli materiallar, eshittirish va ko‘rsatuvlarni muntazam ko‘rib borish, mulohazali masalalar bo‘yicha e’lon qilingan gazeta maqolalariga televideniya va radio orqali ko‘rsatilgan chiqishlarga munosabat bildirishi;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

4. Hududdagi tizim soha mutaxassislari (oliy, o‘rta maxsus, musiqa ta’limi, musiqa vasan’at maktabi hamda umumta’lim maktabi musiqa o‘qituvchilari) bilan muntazam uchrashib, musiqa pedagogikasining muhim muammolari, masalalari borasida suhbatlar uyushtirish, ayrim muammoli masalalarning vaqtli matbuotga olib chiqish o‘qituvchining zamon talabiga javob beradigan mutaxxassis sifatida nomoyon bo‘lishga imkon yaratadi.

Faqatgina o‘quv yurtidan o‘rgatilgan bilimning o‘zi bilan kifoyalanish talabalarning rivojlanishini ta’minlamaydi. Mustaqil ta’lim olish – oliy ta’limda o‘rgatilgan musiqa sohasidagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlash, ularni yangi bilimlar bilan to‘ldirishni nazarda tutadi. SHu munosabat bilan o‘qituvchi tomonidan har bir darsda talabalarga beriladigan uy vazifasi o‘rganilgan mavzuga doir bilimlarni yanada to‘ldirishga xizmat qiladi. [7; 62-b]

Keyingi darsda uy vazifasi muhokamasida o‘qituvchi talabalarning mustaqil o‘zlashtirgan o‘quv materialini tinglab, uni to‘ldirishi, unga o‘z fikrini bildirishi darkor. Mustaqil ishlar ijodiy trazda tashkil etilsa, o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli bo‘ladi. [7; 63-b]

Xulosalar

Bo’lajak mujsiqa o’qituvchilari quyidagi umummadaniy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Shaxsiy o‘sishga intilishni shakllantirish va ob’yektiv baholash, shuningdek, ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

Ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

Ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;

Muloqotga kirishish va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalana olish;

Axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko‘nikmalariga egalik.

Ijtimoiy o‘zaro harakatga kirishishda ta’lim ishtirokchilarining etnomadaniy o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

Axloqiy me’yorlar va ma’naviy madaniyatni o‘zlashtirish.

Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

Gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik. [5; 9.b]

O‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

Turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o‘ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o‘ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydlanish qobiliyatiga egalik; ota-onalar (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatga kirisha olish;

O‘qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta’limning turli bosqichlarida o‘qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati;

Bolalarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

Ta’lim jarayoni sub’ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko‘pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

Kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatlilik;

Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro va milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati;

Tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;

Inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo‘lishi;

Ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatlilik. [5; 9-10.b]**.**

Bo’lajak musiqa o’qituvchilari qoyidagi fanga doir kompetinsiyalarga ega bo’lishliligi ha tavsiya etiladi.

- musiqa ta’limining o‘ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni o‘qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik;

-musiqaning nazariyasi va amaliyotiga doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik;

- musiqaga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish qobiliyati;

- musiqa madaniyati fanidan sohaning nazariy asoslarini puxta egallagan bo‘lishi va undan turdosh tarmoqlarda samarali foydalana olishi, musiqiy nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, amaliy faoliyatlarni bajarish ko‘nikmasiga va malakasiga ega bo‘lishi;

- Musiqa nazariyasi fanining kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish, muhim musiqa elementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg‘usini tarbiyalash hamda o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashni egallaganlik;

-Musiqaning boshqa fanlar bilan aloqasi, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, tajribalarni o‘tkaza bilishi va ulardan foydalana bilish;

-Cholg‘u ijrochiligida amaliy ma’lumotlarni bilish, ijrodagi usullar (cholg‘u zarblari, shtrixlari), doyra usullari, bezaklarda foydalana olish; fanda ijro etish metodlaridan foydalangan holda amalda qo‘llay olishi;

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki musiqa o’qituvchi, bolani dunyoga keltirgan ota-onasi qatori kichikligidan boshlab oson bulmasa-da, go’zal kasb-xunarga o’rgatadi. U o’quvchilariga musiqa olamiga yo’l ochadi, o’z jonu dilining parchasini baxsh etib, ularning ustozi va do’stiga aylanadi. Musiqa o’qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalar – o’quvchining uziga xos xususiyataarini ochib berish, uning fe’l-atvori va imkoniyatlarini aniqlash, uni qiziqtirish, uning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning eng oqilona yo’llarini topishdan iborat.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipova G.M, Asamova D.F, Xodjayeva Z.L. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari"- Toshkent.; 2014 y.
2. Qodirov R.Musiqa pedagogikasi. "- Toshkent.; 2015y.
3. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent.; 2009 y.
4. Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent.; 2008 y.
5. 60111300-Musiqa ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari Toshkent.; 2022 y.
6. http://tkti.uz/uploads/602497d228_1585811390.pdf
7. Qudratov.I Musiqa san'ati fanlarini o'qitish metodikasi - Samarqand. 2015y.

MUSIQA DARSLARI MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISHNING VOSITASI SIFATIDA.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Boltayev Baxtiyor Rustamovich
Gmail: boltayev_baxtiyor72@gmail.com

Annotatsiya: *Barcha zamonlarda millatlararo ziddiyatlar juda ko'plam katta muammolarni keltirib chiqargan. Bugungi kunda bu ziddiyatlar dunyodagi juda ko'plab yurtlarda millatlar o'rtasida nizolarni kelib chiqarmoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda global muammolardan biri bulgan millatlararo totuvlik goyalari haqidagi ma'lumotlar keltirirlgan. Shuningdek ushbu go'yani qanday qilib maktab davrida bolalar ongigiga singdirish, bu borada musiqa darslari ahamiyati qay darajada mazmun-mohiyatga ega ekanligi. Musiqa darslarida qardosh xalqlar qo'shiqlari orqali millatlararo totuvlik g'oyalarini singdirishning ayrim usullari haqidagi fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *g'oya, millat, qadriyat, millatlararo totuvlik, xalq, elat*

УРОКИ МУЗЫКИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О МЕЖНАЦИОНАЛЬНОМ СОГЛАСИИ.

Узбекско-Финляндский педагогический институт
Доцент кафедры музыкального образования,
Доктор философии педагогических наук
Болтаев Бахтиёр Рустамович
Gmail: boltayev_baxtiyor72@gmail.com

Аннотация*. Во все времена межэтническая напряженность вызывала множество серьезных проблем. Сегодня эти конфликты порождают конфликты между народами во многих странах мира. В этой статье представлена информация о идеях межрасовой гармонии, которая сегодня является одной из глобальных проблем. А также Как привить эту мысль в сознание детей в школьный период, насколько значимы уроки музыки в этом отношении. На уроках музыки высказывались мнения о некоторых способах внушения идей межнациональной гармонии через песни братских народов.*

Ключевые слова: *идея, нация, ценность, межнациональная гармония, народ, народ*

MUSIC LESSONS AS A MEANS OF FORMING IDEAS OF INTER-ETHNIC HARMONY.

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Music Education,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences
Boltayev Bakhtiyor Rustamovich
Gmail: boltayev_baxtiyor72@gmail.com

Annotation. *At all times, interethnic tension has caused many serious problems. Today, these conflicts give rise to conflicts between peoples in many countries of the world. This article presents information about the idea of interracial harmony, which today is one of the global problems. And also how to instill this thought in the consciousness of children in the school period, how significant the music lessons are in this regard. In music lessons, opinions were expressed about some ways to suggest the ideas of interethnic harmony through the songs of the fraternal peoples.*

Key words*: idea, nation, value, interethnic harmony, people, people*

Kirish

O'zbekistonda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar rivoji uchun teng sharoit yaratish davlat milliy siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir"[1].

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Bag'rikenglik fuqarolar orasida totuvlikni ta'minlaydi, jamiyatda tabiiy ravishda uchraydigan ijtimoiy farqlarning keskinlashuviga, ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Bugun nafaqat yurtimizda, balki butun Yer yuzida diniy bag'rikenglik, diniy konfessiyalararo o'zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda. [7; 27-b]

Zamonaviy davlatning maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Zero, mamlakatimizning taraqqiy etishi avvalambor, undagi barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitining saqlanishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofid xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. [5; 8-b]

G'oyaviy tarbiya masalasi har bir davr va jamiyatga xos bo'lib, bunda davlat

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va jamiyat oldida mas'uliyatni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadi ham yotadi. Har qaysi xalq yoki millatni uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlari va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar sifatida xizmat qiladi. . [9;70-71.b]

G'oyaviy tarbiyada xalq musiqa ijodi muhim o'rin tutib, u millatimizning o'zligini namoyon etadigan, uni avlodlardan avlodlarga o'tkazib, tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqarib, o'zligini doimo saqlab kelayotgan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'zida ifoda etadi. Shu o'rinda g'oyaviy tarbiya mezonlaridan biri bo'lgan muqaddas dinimizning ahamiyati beqiyosdir. Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. [5;70-71.b]

Adabiyotlar tahlili:

Millatlararo totuvlik va hamjihatlik, tolerantlik, islomiy bag'rikenglik borasida dunyo miqyosida: A.Giddens, M.Sardo, A.King, B. Schneider va hk.; MDH davlatlarida: S.Xantington, B.Vulfov, mamlakatimizda: O'.Mavlonov, Z.Isaqova, N.Umarova, I.Mirziyotov, N. Mamadieva, E.Ibragimov, X.Xudoyberdiev, Sh.Davlatova, D.Samatov va boshqa bir qator olimlar izlanishlar olib borishgan.

Shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy kamolotida musiqaning o'rni va rolini yoritib berishda, musiqa ta'limi metodikasi borasida sohaga u yoki bu darajada daxldor bo'lgan bir qator mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Chet ellik tadqiqotchilardan: S.Hoffer, M.Schatt, J.Austin, J. Renwick, G.McPhersonlar; MDH mutaxassislaridan: O.Akulich, A.Alyaxnovich, L.Austrauskene, L.Bezborodova, Yu.Aliev, M.Gorbunova, O. Grigoreva, Ye.Gulyaeva, A.Kushaev, T.Koroleva, M.Osenneva, L.Bezborodova, Ye.Polyakova, N.Tolkachev va boshqalar; O'zbekistonda musiqa ta'limi, badiiy to'garaklar va ularning faoliyati borasida izlanishlar olib borgan mutaxassislar: O'.Toshmatov, A.Hasanov, H.Nurmatov, F.Jo'raev, D. Kamolova, O.Vasilchenko, B.Azimov, Sh.Janaydarov, M.Quronov, F. Halilov, D.Jamolova, B.Karamatova, Sh.Mustafaev, N.Kiyamov va boshqalar. [3; 6, 7-b]

Aynan maktablardagi musiqa darslari jarayonida ijro etiladigat kuy va qo'shiqlar ko'magida millatlararo totuvlik hissini shakllantirish va rivojlantirish borasida alohida ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma'lumki, har qanday qo'shiqning zamirida ma'lim bir ma'no, g'oya yotadi. Qo'shiq, musiqa insonni har jihatdan tarbiyalaydi, uni ezgulikka, yaxshilikka undaydi. Qo'shiq, musiqa, ko'pincha, insonda yashirinib yotgan qobiliyat va sifatlarni yuzaga chiqarishga, kishi xarakteridagi salbiy sifatlardan qutulishga yordam beradi. Qo'shiqchilik san'ati orqali milliylik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikka erishish ham mumkin. Qo'shiq-musiqa kishida sog'lom turmush, ijodiy kayfiyat yehtiyojini uyg'otadi. Musiqa yordamida inson iste'molga qaramlik kayfiyatidan ham xalos bo'ladi. Shu bilan birga, odamlarga ijodkorlik, iste'dodni namoyon etish kabi ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratadi. [6;70-71.b]

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning har xil millatga mansubligi bu jarayonning o‘ziga xos bo‘lgan, har qanday sharoitda inobatga olinishi shart bo‘lgan alohida xususiyati hisoblanadi. Ular orasida milliy totuvlik va bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish uchun rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq va turkman tillarida ijro etiladigan qo‘shiq-kuylarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Har xil millatga mansub bo‘lgan o’quvchilarning o‘rganishlari nazarda tutilgan har bir qo‘shiq, albatta u yoki bu bola uchun ruhan yaqin va uning ona tilida ijro etiladi. Bu qo‘shiqlarni hamma birdan tushunishi yoki birgalikda ijro eta olishlari uchun hamma birgalikda qo‘shiq mohiyatigi kirish taqozo etiladi.[8; 265-b]

Musiqa darslarida birgalikda ijro etiladigan kuy va qo‘shiqlarni tanlash o‘ziga xos murakkab jarayondir. Maktabdagi oq’uvchilarning turfa xil ijtimoiy muhitda o’sganligi ma’lum bir ma’noda hayotiy haqiqatlarga tayanib shakllangan bolalaring birgalikda, bir maqsad yo‘lida faoliyat yuritishi uchun tanlangan asarlar bolalar yoshi, ovozi va ijrochilik imkoniyatlariga ham monand bo‘lishi, ayni zamonda, repertuarlar rang-barangligiga ham e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Dunyo miqyosida taniqli bo‘lgan bastakorlarning bolalarga atab yozgan kuy va qo’shiqlari hamda raqslarga mo’ljallab yaratilgan asarlari bilan birga xalqona kuy, qo‘shiq va raqslar har bir ijrochi repertuarining asosini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada musiqa o’qituvchisi tomonidan tanlangan har bir asar mazmuni va xarakter xususiyati bilan ijrochiga ham, tinglovchiga ham manzur bo’lishini, har ikkalasiga ham zavq bag‘ishlashi, zamon talablariga monand bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqa o’qituvchisi bu jarayonda quyidagilarga tayanishi o‘z faoliyatida samaradorlikka erishish garovidir:

1. G‘oyaviy jihatidan millatlararo totuvlik hissini shakllantiradigan, badiiy va estetik yo’nalishi bilan har xil dunyoqarashga ega bo‘lgan o’quvchilarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, mazmunan ijrochi va tinglovchilarga estetik zavq beradigan, go’zallikni his qilishga undaydigan, har ikkisining badiiy didi va musiqiy qobiliyatlarini o’stira oladigan asarlarni tanlash.

2. O’quvchilar tomonidan ijro etiladigan kuy, qo‘shiq va raqslar texnik hamda badiiy jihatidan, ijro mahorati bilan tomoshabinlarga yoqishi, ayni zamonda, ularga zavq bag‘ishlashini ham nazarda tutish.

3. Musiqa o’qituvchisi tomonidan tanlangan har qanday asar ham ijrochilar, ham tinglovchilar didiga mos tushishiga e’tibor qaratish. . [4; 17-b]

Umumlashtirib aytganda, musiqa o’qituvchisi birga ijro etishlari uchun asar tanlashida o’quvchilarning g‘oyaviy-ijtimoiy va badiiy-estetik didi hamda dunyoqarashini takomillashtirishni, musiqiy tushunchasini rivojlantirib borishni ham nazarda tutishi maqsadga muvofiqdir. Shu ma’noda, tanlangan kuy, qo‘shiq va raqslar o’z xarakteri hamda mazmuniga binoan quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir:

o’quvchilarning ijrochilik borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalari hamda badiiy didini takomillashtira borishi;

tanlangan kuy, qo‘shiqlar o’z mazmun-mohiyati, xarakter xususiyatlari bilan o’quvchilarning ma’naviy saviyasiga mos tushishi, ularda millatlararo totuvlik hissini shakllantirishga xizmat qilishi;

o’quvchilar tomonidan ijro etilishi nazarda tutilgan har qanday asar g‘oyaviy, badiiy va estetik jihatidan rang-barang bo’lishi, sinfda boshqa millat vakillari bo’lsa ularning kuy, qo‘shiq va raqsga oid musiqiy tushunchasi, bilimi va ko‘nikmasini, ayni zamonda, go’zallikni his qilish tuy g‘usini rivojlantirishga xizmat qilishi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Tahlillar va natijalar

O'quvchilar ongidda milliy totuvlik va bag'rikenglik g'oylarini shakllantirishda , musiqaning, xususan, cholg'uchilik, qo'shiq kuylash va raqs ijro etishning o'rni beqiyos. Har xil millat va turfa turmush tarzi sharoitida shakllangan o'quvchilarning birgalikda ijro etgan musiqa asari: kuy, qo'shiq va raqslari, avvalo, ularning badiiy didini shakllantiradi va rivojlantiradi, estetik tarbiyasini takomillashtiradi, o'zaro totuvligi va hamjihatligini ta'minlashga xizmat qiladi, ijro zavqini beradi. Ayni zamonda, ularda musiqaga, so'zga qiziqishi va ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Musiqa darslarining ijodiy yo'nalishini belgilab beruvchi, uni boshqaruvchi va sinfdagi o'quvchilarning ruhiyatiga mayinlik hissini olib kirvchi yetakchi shaxs musiqa o'qituvchisi hisoblanadi. O'qituvchuining kompetentligi bilimdonligi, oqilligi, tashkilotchiligi a'zolarning inoqligi, ma'naviyatining sog'lomligi hamda faoliyat samaradorligining garovidir.

Musiqa o'qituvchisi soha mutaxasisi bo'lishi, o'z o'quvchilaring har birini tushunishi va his qilishi, o'quvchilarda qiziqish va havas uyg'ota olishi, ijodkor va tashabbuskor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina musiqa o'qituvchisi darsni to'g'ri tashkil eta olishi, o'quvchilar kunglida musiqaga, kuy, qo'shiq va raqsga muhabbat hissini shakllantirib, uni yanada rivojlantirib perofessional darajaga ko'tara biladi.

Xulosalar

O'zbekistonning barcha fuqarolari o'z milliy madaniyati, xususan, musiqa va xonandalik san'atiga ega. Qo'shiq, kuy insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarga yaxshilik qilishga undaydi. Ruhiy kamolotga yetaklaydi. Qo'shiq va musiqa orqali insonda yashirinib yotgan qobiliyat va iqtidor yuzaga chiqishi ham mumkin. Kuy, qo'shiq va honandalik san'ati odamdagi salbiy sifatlarni bartaraf etishga ham yordam beradi. Har qanday milliy madaniy-musiqiy merosni o'rganish va o'zlashtirish orqali o'sha millatga mansublik hissi bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. Musiqa san'ati kishilarni jamiyatdagi mavjud kamchilik va muammolarni hal yetishga safarbar yetadi. Musiqa san'ati orqali ham milliy birlikka yerishish mumkin. Millatni uyg'otish, mavjud muammolarni aniq ko'ra bilish, ularni qo'shiq, musiqa yordamida hal yetishga harakat qilish insonparvar jamiyat qurishning muhim yo'llaridan biridir.

Musiqa darslarini mazmunli tashkil etishda, jamoaning ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritishida musiqa o'qituvchisi mas'uldir. Uning darslarga tayyorgarligi, avvalo, o'quvchilar ijro etishlari uchun mo'ljallangan millatlararo totuvlik g'oylari singdirilgan musiqiy asarlarni har tomonlama puxta o'ylagan holda tanlashi, har tomonlama tahlil qilishi, uning yaratilish tarixini yaxshi tushuntirishi musiqa darsi faoliyati samaradorligi asosidir. Har bir dars jarayonida bajaradigan vazifalari ko'lami ham aynan shu bosqichda ayon bo'ladi. Keyingi bosqichda esa uning butun diqqat-e'tibori musiqa asarining ham texnik, ham badiiy jihatdan puxta o'zlashtirilishi va muvaffaqiyatli ijrosini ta'minlashga qaratiladi.

Umuman, musiqa o'qituvchisi har bir darsga musiqa asarlarining badiiy-tarbiyaviy xususiyatini mukammal o'rgangan, kuy ohangi, qo'shiq ijrosi, so'z va musiqa hamohangligini, yaxshi o'zlashtirgan holda kelishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, har bir musiqiy asar o'z mazmun-mohiyati bilan insonni axloqiy tarbiyalash vositasidir. Bilamizki, har bir kuy, qo'shiq va raqs o'z g'oyasiga ega. Qo'shiq so'zini o'rganishda tarbiyalanuvchilar ana shu g'oyani anglab yetadilar. Musiqiy ta'lim o'quvchilarda ijrochilik ko'nikmalarini shakllantiradi, nazariy bilimlarini rivojlantiradi. Buning uchun musiqa ta'limi o'qituvchisi nafaqat dars jarayoniga balki o'quv-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor berib, turli xil

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

mavzularda kechalar, suhbatlar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, musiqa asarlarni tinglash uchun suhbatli konsertlar o'tkazib turishi, hamda teatr va muzeylarga jamoa bo'lib borishi kerakligini e'tibordan chetga qoldirmasligi ayniqsa o'quvchilar ongida millatlararo totuvlik g'oyalarini singdirishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, san'at ustalari, xalq artistlari, atoqli davlat arboblari, zamonamiz qahramonlari hamda badiiy havaskorlik jamoalari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazib turish ham o'quvchilarning saviyasini oshiradi, ularni ijodiy barkamollik sari yetaklaydi. Shuningdek, o'quvchilarda musiqa ilmi va amaliyoti bilan bog'liq atamalarga oid tushunchalarni, o'zbek va boshqa xalqlar musiqasi tarixiga doir bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoq ham uyg'otadi. Har bir o'qituvchidan dars mashg'ulotlarini qiziqarli va mazmunli tashkil etishga alohida mas'uliyat bilan yondashish taqozo etiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda yuqori malakaga ega bo'lgan musiqa o'qituvchisi olib borish ham maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, maktablardagi musiqa darslari jarayonida har xil millat kuy-qo'shiqlarining o'rganish o'quvchilarning o'z milliy qadriyatlarini bilishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga va ayni zamonda, atrofidagi bolalarning milliy madaniyati, urf-odatlari, milliy qadriyatlari va tarixini bilishga bo'lgan qiziqishini qoniqtirishga ham asos bo'ladi. O'zining milliy qadriyatlarini yaxshi bilgan va qadrlagan bola o'zgalarning ham milliy xususiyatlarini qadrlaydi, hurmat qiladi.

Musiqa darslari o'quvchilarning badiiy didi, ijro malakalari shakllanishiga, shuningdek, badiiy go'zallikdan bahramand bo'lib zavqlanishga, aynan shular asnosida atrofidagilar bilan tenglik, totuvlik va bag'rikenglikda birga yashab, birga o'qishlariga ijobiy muhit yaratadi.

Musiqa darslarida har xil millat kuy-qo'shiqlarinini o'rganishi , har biri o'z milliy madaniyati va urf-odatlarini yaxshi bilishi, ularni qadrlashi, shuningdek ular ongida millatlararo totuvlik g'oylarini shakllanishiga vosita bo'ladi.

Yuqorida bayon qilingan xulosalar asosida quyidagilar tavsiya etiladi:

- Musiqa darlsri faoliyati ko'magida o'quvchilar o'rtasida milliy totuvlik g'oyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik adabiyotlar yaratish.

- Oliy o'quv yurtlari talabalarini kuy va qo'shiqlar orqali yosh avlodda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik hissini shakllantirishga oid zarur bilimlar bilan qurollantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Mamlakat rivojidagi istiqbolli vazifalar (Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga 2018 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnoma). /Elektron manba: https://kun.uz/99444746
2. Азимов Б. Г. Нравственное воспитание молодёжи средствами народной музыки (на материале музыкальной самодеятельности ПТУ Республики Узбекистан). Дисс. … канд. пед. наук. – Т., 1991.
3. Boltayev B.R. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'smirlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash yo'llari(mehribonlik uylaridagi badiiy to'garaklar misolida). Автореферат. T: 2001.
4. Камолова Д. И. Идейно-нравственное воспитание подростков средствами музыкального искусства. Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – Т., 1990.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Matibaev T. O‘zbekiston – umumiy uyimiz: “O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari”respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi.– Toshkent: 2020.
6. Ramatov J., Ro’zmetova D. O‘zbekiston – umumiy uyimiz: “O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari”respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi.– Toshkent: 2020
7. Вульфов Б. Воспитание толерантности: сущность и средства. //Внешкольник. – 2006. – № 6.
8. Murtazaeva R. H. Ўzbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. Oliй ўquv yurtlarining magistrlari uchun ўquv qўllanma. – T.: Universitet, 2007.
9. Xudoyberdiev X. O‘zbekiston mustaqilligi davrida millatlararo totuvlik //Ilm-fan chashmasi –T 2011

TALABALARNI CHOLG’U IJROCHILGI ORQALI ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta’limi kafedrasi o’qituvchisi
Samatova Dilnoza Salaidinovna
Gmail: samadovadilnoza78@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolda oliy ta’lim muassasalari musiqa ta’limi yo’nalishi talabalarining cholg’u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, cholg’u ijrochiligi kompetensiyalarini pedagogik faoliyat jarayonida qo’llashi, cholg’u ijrochiligi orqali talabalarning estetek tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar tahlili keng yoritib o’tilgan. Shu bilan birga estetik tafakkur tushunchalari va uning musiqa o’qituvchisida aks etganligini belgilovchi pedagogik xususiyatlar ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Musiqa yo’nalishi talabasi, cholg’u ijrochiligi, estetik tafakkur, pedagogik faoliyat, musiqa madaniyati darslari, o’qituvchi, o’quvchi, PQ-112, rubob cholg’usi, musiqiy faoliyat turlari.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТА.

Узбекско-Финляндский педагогический институт
Преподаватель кафедры музыкального образования
Саматова Дилноза Салайдиновна
Gmail: samadovadilnoza78@gmail.com

Аннотация. *Подробно освещены педагогические процессы, направленные на совершенное овладение музыкальным образованием студентов высших учебных заведений и их подготовку к профессиональной деятельности, применение музыкальных компетенций в педагогическом процессе, развитие эстетического мышления студентов посредством музыкального исполнительства. При этом раскрываются понятия эстетического мышления и педагогические особенности, определяющие его отражение в учителе музыки.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ключевые слова: *Студент-музыкант, исполнительство на инструменте, эстетическое мышление, педагогическая деятельность, уроки музыкальной культуры, учитель, ученик, PQ-112, инструмент-рубоб, виды музыкальной деятельности.*

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING THE AESTHETIC THINKING OF STUDENTS THROUGH THE PERFORMANCE OF AN INSTRUMENT.

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Teacher of the Department of Music Education
Samatova Dilnoza Salaidinovna
Gmail: samadovadilnoza78@gmail.com

Annotation. *Pedagogical processes aimed at the perfect mastery of music education students of higher educational institutions and their preparation for professional activities, the application of musical competences in the pedagogical process, the development of aesthetic thinking of students through musical performance. analysis is covered in detail. At the same time, the concepts of aesthetic thinking and the pedagogical features that determine its reflection in the music teacher are revealed.*

Key words: *Music student, instrument performance, aesthetic thinking, pedagogical activity, music culture lessons, teacher, student, PQ-112, rubob instrument, types of musical activities*

Kirish

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning cholg'u ijrochiligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va bu orqali ularning estetik dunyoqarashini oshirish, estetik tafakkurini rivojlantirish ishlari dolzarblik kasb etmoqda. Bunga sabab oliy pedagogik musiqa ta'limi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatida o'zining estetik tafakkuridan kelib chiqib jamiyatimizga kerakli bo'lgan barkamol, yosh-avlodni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladilar. Bu esa ularning oldida "yoshlar ongini tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"[58]. Shuning uchun ham maktab musiqa darslarini o'qitishda o'zining estetik tafakkuri asosida dars sifat va samaradorligiga javob beradigan, dasr mashg'ulotlariga ijodiy yondasha oladigan malakali bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash muhim. Maktab musiqa ta'limi darsalarini ijodiy tashkil etish esa o'qituvchining cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallaganligi bilan belgilanadi. Cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashda oliy pedagogik musiqa ta'limida tayyorlanayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'qitish tizimini yanada rivojlantirish hamda ularning cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va bunday mexanizmlar orqali ularning estetik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Darhaqiqat, kuy va qo'shiq odamning ma'naviy hamrohi bo'lib, u kishi qalbini ruhlanishi, dilini poklanishi va komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviy go'zallik insonning eng qimmatli fazilatlaridan biridir.

Samarqandlik mashhur bastakor va sozanda A.Amonovning "Istiqlolimni kuylayman" nomli uslubiy qo'llanmasida bunga alohida to'xtalib o'tilgan. "Komil inson tarbiyasida estetik

[58] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –464 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tarbiya nihoyatda muhim o'rin tutadi. Zero, yaxshiliklarni qalbi sof va go'zal insonlarda kuzatamiz. Shuning uchun ham, yoshlarimizni juda kichikligidanoq estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lgan, onaning suti bilan qalblarimizga joylashadigan musiqiy tarbiya bilan shug'ullantirish zamonamiz talabiga mos vazifalardandir"[4]. Bunday vazifalarni bajarish esa bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining maqsadiga aylanmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112 Qaroriga ko'ra 2022/2023 o'quv yilidan boshlab "ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi"[59] belgilab qo'yildi. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qiyotgan o'quvchilar mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasini ijrochilik ko'nikmasini egallashlari keltirilib o'tilgan. Bunday ko'nikmalarni egallashlari uchun esa musiqa darslariga qo'shimcha ravishda cholg'u ijrochiligi amaliy to'garak va fakultativ darslari o'takazilishi aytib o'tilgan. Ushbu qaror ijrosini amalga oshirishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining zimmasida katta mas'uliyat turibdi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ham mazkur qarorga asosan 1-ilovada keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchta milliy cholg'uda kuylarni mahorat bilan ijro eta oladigan darajada ko'nikma va malakalarni egallashlari majburiy etib belgilab qo'yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Buyuk Ibn Sino insonning tovush, ohang va nutqni o'z xohishiga bo'ysundira olishi uning kamolotga erishganligidan, uning madaniylashganligidan dalolat berishini ta'kidlaydi. Alloma o'zining «Ash-shifo», «An-Najot», «Donishnoma» asarlarida musiqani insonni ma'naviylashtirish quroli ekanligini uqtiradi. Bunday fikrlar Ibn Sinoning «Tib qonunlari»da ham uchraydi. Alloma bu asarida musiqasiz inson kamolotga erisha olmasligi, uning axloqiy madaniylashuvida musiqa hal qiluvchi rol o'ynashini yozadi: "...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llash kerak", deb yozadi buyuk olim. "Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi".

Tahlillar va natijalar

Estetik tafakkur tarixiga nazar tashlasak "Estetika" XVIII asr oxirlaridan boshlab fanda go'zallik falsafasi, san'at falsafasi sifatida qo'llanilib kelingan. Pifagor estetikani falsafaning bir qismi deb ta'riflagan. Aristotel estetika tabiat va san'atning umumfalsafiy muammolarini o'rganadi degan bo'lsa, Platonning aytishicha estetikaning diqqat markazida san'atning davlat tomonidan boshqarish vazifasi turishi lozim. Iitalyan olimi Foma Akvinskiy estetikani dinshunoslikning bo'limlaridan biri deya ta'kidlagan. Italyan olimlaridan yana biri Leonardo da Vinchining fikriga ko'ra estetika tabiat va san'at nisbatini, san'atda voqeylikni hissiy bilish muammolarini o'rganuvchi sohadir. Nemis faylasufi Gegel estetikani san'atdagi go'zallikni o'rganadi deb ta'kidlagan.

Talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirishda san'atning cholg'u ijrochiligi yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Cholg'u ijrochiligi oliy ta'limning pedagogika yo'nalishlarida

59 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

musiqa ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashning eng yetakchi omili hisoblanadi. Oliy pedagogik musiqa ta’limi yo’nalishlarida ta’lim olayotgan talaba o’quv rejaga muvofiq “cholg’u ijrochiligi”, “qo’shimcha cholg’u”, “orkestr sinfi”, “cholg’u mutaxassisligi”, “ansambl sinfi” kabi fanlarni o’zlashtirish orqali cholg’u ijrochiligining muhim sirlarini, ijrochilik texnikalarini o’rganib, mahoratli ijrochiga aylanadilar.

Estetik tafakkur o’quvchi-yoshlarning ongini go’zallik bilan boyituvchi nafosat olamini yaratishga xizmat qiladi. Ya’ni, estetik tafakkur insonning aqliy faoliyatini yuksak darajaga olib chiqishda go’zallik olamiga undovchi, voqelikni his etish orqali erishishiga turtki bo’luvchi vositadir. Bunda san’atning oliy darajadagi mahsuli hisoblanadigan ijrochilik mahoratlari alohida ahamiyatga ega. Ijrochilikda mukammallikga erishgan mohir sozanda, pedagog - kadrlargina kasbiy faoliyatida eng mukammal dars jarayonini tashkil eta oladi va pedagogik jihatdan bir maqsad yo’lida o’quvchilarni birlashtira oladi. Ana shunday mukammal estetik tafakkurli pedagog kadrlarni tarbiyalash oliy pedagogik musiqa ta’limi yo’nalishi professor-o’qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bugungi zamonaviy jamiyat musiqa o’qituvchisini har jihatdan yetuk qilib tayyorlashga yuqori talabni qo’ymoqda. O’zbekistonda ta’lim tizimining yuksalishi, ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy sohalardagi o’zgarishlar zamonaviy musiqa o’qituvchisining estetik tafakkurini baholashimizda tubdan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bu esa jamiyatda yuqori darajadagi mutaxassis o’qituvchilarga bo’lgan ehtiyojni umumta’lim maktablarida musiqa fanini o’qitishning ilg’or imkoniyatlarini ochishni, musiqa fani o’qituvchilarini estetik tafakkurini samarali rivojlantirish uchun oliy pedagogik ta’limda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni amalda qo’llash darajasini kengaytirishni taqozo etadi. Bu borada musiqa o’qituvchisining cholg’u ijrochiligi malakalari alohida omil bo’lib xizmat qiladi.

Rubob ijrochiligi malakalarini puxta egallagan talabada musiqa elementlarini, musiqiy rivojlanish qobiliyati darajasini ko’rsatib beradi. Bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirish uchun cholg’u ijrochiligi darslari pedagogik jarayonni faollashtiruvchi vosita bo’lib xizmat qiladi. Talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirishda oliy pedagogik ta’lim musiqa ta’limi yo’nalishi professor-o’qituvchilaridan yetarlicha pedagogik mahoratni talab qiladi. Ular tayyorlayotgan bo’lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilari “…barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo’lib, shu bilan birga, pedagogik mahoratni ham namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o’zining munosib hissasini qo’shishi zarur” [3]. Musiqa ta’limi yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyati davomida umumta’lim maktablarida musiqa darslarini tashkil qilishda va olib borishda nafaqat pedagogik mahoratga ega bo’lgan, balki estetik tafakkur jihatidan musiqiy bilmni, xususan, cholg’u ijrochiligi malakalarini ham yetarlicha egallagan bo’lishi lozim. Bu esa musiqa o’qituvchisining kasbiy faoliyatidagi mashaqqatlarini, pedagogik muammolarini osongina hal eta olishlarini ifodalaydi. “O’z davrida Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa’di Sheroziy, Abu RAyhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalar o’z asarlarida o’qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o’qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo’ldan sifatlari to’g’risida qimmatli ma’lumotlarni o’z asarlarida bayon qilishgan. Binobarin pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan o’qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ham ega bo’lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo’lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to’g’ri baholashi, yuzaga

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi pedagogik, faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim".

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirish uning ongini, estetik dunyoqarashini boyitish, kasbiy intelektual bilimlarini kengaytirish, talabalarga dars berayotgan professor-o'qituvchilarning asosiy maqsadiga aylanishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya berishni rivojlantirishning yangi bosqichida bu masalaga kompleks yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda shu ma'noda integrallashgan fanlar tizimi orqali estetik tafakkurni rovojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning estetik tafakkurini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Estetik tafakkurni rivojlantirishda integrallashgan musiqa mashg'ulotlarini o'zida aks ettirgan cholg'u ijrochiligi, qo'shimcha cholg'u, cholg'u mutaxassisligi, ansambl sinfi va orkestr sinfi darslarining pedagogik jarayoni eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, puxta ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik mexanizm turli ijrochilik qobiliyatiga ega bo'lgan talabalarni qulay muhitda, optimal o'qitishga ega bo'lish imkoniga ega bo'lishi lozim.

Rus pedagogi va musiqachisi M.G.Aranovskiyning fikricha boshlang'ich musiqa ta'limi o'qituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirishda turli xil musiqiy faoliyatni amalga oshirish orqali bajarilgan funksiyalar asosida olib borilishi mumkin. Bular 3 turdan iborat bo'lib: musiqa yaratish, idrok etish va ijro etishdir. Ushbu 3 ta faoliyat turining birligi sifatida musiqiy tafakkur va uning umumiy qismi bo'lgan estetik tafakkur rivojlanadi.

Umumta'lim maktablarining musiqa darslarida musiqiy faoliyat turlari yetakchi o'rinda turadi. Bular boshlang'ich sinflarda 5 ta faoliyat turi va yuqori sinflarda 3 ta musiqiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Yuqori sinflarda esa musiqa darslari quyidagi musiqiy faoliyat turlari asosida olib boriladi. Jamoa bo'lib kuylash; Musiqa savodi; Musiqa tinglash; Maktab boshlang'ich sinf musiqa darslarida cholg'u ijrochiligi faoliyati yetakchi faoliyat hisoblanib musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorat darajasini belgilab beradi. Shuning uchun ham musiqa o'qituvchisi kasbiy faoliyatga tayyorlanishi, ya'ni, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bunga alohida e'tibor qaratish, cholg'u ijrochilik malakalarining pedagogik xususiyatlarini mukammal egallashi, shu bilan birga cholg'u ijrochiligi orqali estetik tafakkurini rivojlantirib borishi lozim.

Biz bilamizki musiqa o'qituvchisi mutaxassisligidan tashqari barcha o'qituvchilarga xos bo'lgan pedagogik xususiyatlarni mujassamlashtirishi lozim. Mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari uning musiqiy qobiliyat darajasini belgilaydi. Har ikkala xususiyat birlashib musiqa o'qituvchisining kasbiy va musiqiy kompetensiyalarini tashkil etadi.

San'atning mahsuli sifatida ifodalangan estetik tafakkur o'quvchi dunyoqarashini, ongini boyitish, maftun etish, uning e'tiborini yangi va yorqin taassurotlarga qaratish, estetik tuyg'usini uyg'otish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Pedagogik ta'limda estetik tafakkur deganda shaxsning qadriyatlarni estetik his etuvchi ongini rivojlantirish va unga mos keladigan san'at faoliyati va estetik voqeylikni idrok etish tushuniladi. Shaxsga estetik ta'sir etuvchi va uning estetik tafakkurini rivojlantiruvchi vosita san'at bo'lib, bunda san'atning musiqa ijrochiligi turi estetik munosabatlarni jamlaydi va

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

moddiylashtiradi. Shuning uchun ham musiqa ijrochiligiga estetik tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi inson kamolotiga ta'sir etuvchi eng boy va samarali vasita hisoblanib, u insonning musiqiy va estetk tafakkurini uyg'un holda rivojlantiradi. Estetik tafakkur inson ongini boyituvchi barcha tafakkur turlari bilan bog'liq bo'lib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni baholash, fikr bildirish, idrok etish bilan bog'liq jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

Cholg'u ijrochiligi asosida bo'lajak musiqa ta'lim o'qituvcilarining estetik tafakkurini rivovlantirish muammosining nazariy tamoili asoslari shundaki, ularning tashkiliy pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilariga maqsadli, tizimli yondashish lozim, ya'ni, oliy ta'lim muhitida san'at go'zalligini idrok eta oladigan va uni yarata oladigan, kasbiy tayyorgarligining asosini tashkil etuvchi pedagogik faoliyatni o'rganish va olib borishni amalga oshrish uchun yetarlicha shart – sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Buni 1 – bosqichdan amalga oshirish maqsadga muvofiq. Oliy pedagogik musiqa ta'limiga qabul qilingan talabalarda estetik tafakkur o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi, uni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun tashkiliy – pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish OTMning eng oliy maqsadlaridan bo'lishi lozim. Bu esa quyidagi vazifalarni amalga oshirishini belgilaydi.

1. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining musiqiy idrokini rivojlantirish;
2. Ularning estetik his tuyg'ulari va g'oyalarini rivojlantirish;
3. Ularning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib borish.

Estetik tafakkurning rivojlanishi jarayonida talabalar musiqiy ijod mahsulotlariga ongsiz munosabatdan ongli munosabatga, ya'ni, go'zallikni ongli his etishga o'tishadi.

Xulosalar.

Oliy pedagogik musiqa ta'limining maqsadi va vazifasi bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining zarur estetik tafakkurini rivojlantirish, ularni katta san'at olami bilan tanishtirish va o'rgatishning pedagogik xususiyatlarini ochib berish, san'atni idrok etish va baholash kabi bir qator masalalarni qamrab oladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim vositalaridan biri cholg'u ijrochiligi bilan bog'liq barcha o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish, idrok etish, baholash va tahlil etish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq.

Insonning estetik xususiyatlari tug'ma bo'lmaydi, ular ijtimoiy muhitda va faol pedagoglarning rahbarligida juda yoshlikdan shakllanib boradi. Estetik jihatdan rivojlantirish jarayonida bolalar tomonidan estetik madaniyatning asta – sekin o'zlashtirishida estetik tafakkur va estetik didning shakllanishi musiqa o'qituvchisining roli katta. Bu esa biz tayyorlayotgan kadrlarning ham pedagogik jihatdan ham, estetik tafakkur jihatdan ham jiddiy yondashishini, o'z ustida muntazam ishlashini, kelajakda pedagogik faoliyatga yetuk kadr bo'lib borishini va jamiyat rivojiga barkamol insonni tarbiyalab berishdek muhim vazifani his qilib ta'lim olishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. - 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli Qarori
3. Xoliqov A Pedagogik mahurat. O'quv qo'llanma 2010y 7 bet
4. A.Amonov. "Istiqlolimni kuylayman", uslubiy qo'llanma, 2001 yil, 2-3 betlar.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

5. Karimova D, Xonazarova R. O'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda «musiqa madaniyati» fani oldida turgan dolzarb masalalar. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2018. № 7. –b. 32
6. www.wikipedia.com

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA VOKAL IJROCHILIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti
Murodov Mirshoxid Burxanovich
Gmail: murodov_m701@gmail.com

Annotatsiya: *Ushu maqolada talabalarda vokal ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, pedagogik omillari keng yoritilgan. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida vokal ijrochiligini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadigan pedagogik usullari xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlari: *Vokal, ovoz, diksiya, iste'dod, tovush, tembr, ovoz kuchi, ovoz apparati, talaffuz, nafas, talaba, pedagogik omillar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОКАЛЬНО-ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Узбекско-Финляндский педагогический институт
Доцент кафедры музыкального образования
Мурадов Миршохид Бурханович
Gmail: murodov_m701@gmail.com

Аннотация: *В данной статье широко освещены педагогические особенности и педагогические факторы формирования вокального исполнительского мастерства у студентов. Обсуждаются педагогические методы, имеющие особое значение в формировании вокального исполнительства у будущих учителей музыкального образования.*

Ключевые слова: *Вокал, голос, дикция, талант, звук, тембр, сила голоса, голосовой аппарат, произношение, дыхание, ученик, педагогические факторы.*

PEDAGOGICAL FACTORS OF FORMING VOCAL PERFORMANCE SKILLS IN FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS.

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Music Education
Muradov Mirshokhid Burkhanovich
Gmail: murodov_m701@gmail.com

Annotation: *Pedagogical features and pedagogical factors of formation of vocal performance skills in students are widely covered in this article. Pedagogical methods that are of particular importance in the formation of vocal performance in future music education teachers are discussed.*

Key words: *Vocal, voice, diction, talent, sound, timbre, voice power, voice apparatus, pronunciation, breath, student, pedagogical factors*

Kirish

Musiqa inson qalbiga chuqur yo`l topadi, uni ko`rkam qiladi. U kishi ruhining aqliy va axloqiy tomonlariga kuchli ta`sir ko`rsatib, tuyg`uli (emotsional), estetik hissiyotini faollashtiradi. Shuning uchun ta`limda o`quvchilarning musiqa madaniyatini tarbiyalash va shakllantirish musiqa ta`limi va tarbiyasining bosh maqsadi qilib belgilangan.

Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishlarida vokal asoslari darslarining olib borilishiga alahida ahamiyat berish maqasadga muvofiq. Sababi ushbu darslar talabalarni, ya'ni bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini vokal ijrochiligi faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy faoliyati davomida musiqa darslarida musiqiy faoliyat turlariga alohida vaqt ajratishi muhim sanaladi, shu ma'noda vokal ijrochiligi malakalarini mukammal egallagan talaba musiqa darslarini samarali tashkil eta oladi.

Adabiyotlar tahlili

Vokal san'ati musiqiy ijroning bir turi sifatida xonandaga o'z fikrlari va his tuyg'ularini ovoz, she'riy adabiy til, ifodali ohang orqali ifoda etish, hissiyotlarni jonli ravishda yetkazish imkonini beradi, ularning maqsadi tinglovchilarga ta'sir qiladigan musiqiy va badiiy yoshni yaratish, ularda estetik tuyg'ular va estetik hissiyot uyg'otish vazifasini bajaradi. Vokal asarini ijro etish qiyin jarayon bo'lib, xonandadan yuqori darajadagi iste'dod yoki muntazam tizimli mashg'ulotlarni talab qiladi.

Tahlillar va natijalar

Ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish - bu ovoz aparati barcha elementlarining uyg'un o'zaro bir-biri bilan hamohang tasiri ham ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tanlangan o'qitish strategiyasi bo'lsa, talaba ovozini yo'qotishi mumkin va noto'g'ri o'qitish taktikasining natijasi talabaning tomoq kasalligiga olib kelish imumkin. Shuning uchun vokalni samarali o'rganish uchun talabalarning vokal malakasining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Vokal asarlarini kuylashda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta -sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Xonanda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta-sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog'liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi[1]. Bunday tovush to'liq va chiroyli eshitiladi.

Barcha taniqli o'qituvchilar nafas olish masalasini asosiy o'ringa qo'yishlari bejiz emas. Shunday qilib, M.Garsiya shunday deb yozgan edi: "agar siz nafasingizni boshqarish san'atini o'zlashtirmasangiz, mohir qo'shiqchi bo'la olmaysiz".

N.D.Andguladzening fikriga ko'ra esa: "Kuylash san'ati nafas olish san'atidir" degan fikrni bildirgan. Bundan ko`rinadiki ijroning asosiy tayanch elementlaridan biri bu nafas olish hisoblanadi.

O'qituvchi-vokalist F.Lampertining "Ovozni tarbiyalashning dastlabki bosqichida ijrochi ovoz bilan emas, balki aql bilan ko'proq o'rganishi kerak, chunki uni charchatib, siz yana yaxshi holatga keltira olmaysiz" deb ta'kidlagan so'zlarini doimo yodda tutishingiz kerak. Yaxshi bosh muvaffaqiyatli ishlashning kalitidir, u yaxshi ovoz kabi muhimdir. Qo'shiq aytishning asosi, asosi nafas olishdir. Yaxshi qo'shiq aytish "nafas chiqarish mahorati" deb ishoniladi, ammo "mohirlik bilan nafas olish" uchun "nafas olishni" o'rganish kerak.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Talabalarning vokal malakasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun o'qituvchi birinchi navbatda ularga nafas olish mexanizmini o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Qo'shiq aytayotgan talaba nafas olish apparati ishida yangi mahoratni rivojlantiradi. Darhaqiqat, nutq tovushini qo'shiq (vokal) tovushiga aylantirganda, dominant omil qo'shiqchida "qo'llab-quvvatlovchi" nafas olishning paydo bo'lishi hisoblanadi. Ijroda nafas qo'shiqchi tomonidan boshqariladi. Nafas olish organlari: burun, og'iz, tomoq, halqum, traxeya, bronxlar, o'pka, ko'krak qafasi, diafragma (ko'krak va qorin bo'shlig'i mushaklari septum), pastki qovurg'alar, interkostal va qorin mushaklari. Nafas olish xonandalarning kundalik va hayotiy ehtiyojidir.

Yana bir muhim xususiyat-bu talaba ovozining balandligi, uzunligi, unli tovushlarning ravshanligi, tovushning kuchi va tembri bilan ajralib turadigan qo'shiq ovozining mavjudligi kuylash jarayonining mohiyati hisoblanadi.

F.Lampertining aytishicha, inson ovozi boshqa musiqa asboblariga qaraganda "hissiy hayajonning eng chuqur nyuansini ifoda eta oladi".

Ijroda ijrochi badiiy obrazni yaratish jarayonida tinglovchiga musiqaning matnli mazmunini yetkazishi kerak, bu yerda diksiya muhim rol o'ynaydi.

Vokal asarini mukammal ijro qilishda badiiy ekspressivlikning asosiy prinsipi musiqiy intonatsiya va she'riy so'zning birligidir. Shu munosabat bilan Kui shunday deb yozgan edi: "Vokal musiqasida she'riyat va tovush teng huquqli kuchlardir, ular bir - biriga yordam berishadi, so'z aniq tuyg'uga aniqlik beradi, musiqa uning ekspressivligini oshiradi, ikkalasi ham birlashadi va qasos bilan tinglovchiga ta'sir qiladi".

Vokal o'qitish usuli talabalarga ta'sir qilishning murakkab vositasi bo'lib, u xilma-xillik va ko'p qirralilik bilan ajralib turadi. Vokal o'qitishning asosiy printsipi "oddiydan murakkabgacha" - Vokal san'atini uzoq muddatli o'rganish qo'shiq aytishni o'rgatishning turli usullariga asoslangan. Ular orasida eng samaralisi bu vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishning yumshoq usuli, bu talabalarga vokal mahoratining asoslarini o'zlashtirish, bosqichma-bosqich murakkab mashqlarga o'tish va ijro texnikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Musiqa ta'limida o'qituvchilik muhitida talabalarni tez-tez maqtash, ularni rag'batlantirish, o'zlarini topishga yordam berish va o'quv jarayonini jazo choralariga kamaytirmaslik kerak degan fikr haqli ravishda keng tarqalgan. Vokal darslari uyg'un munosabatlarga, o'qituvchi va talabalarning o'zaro hurmatiga asoslangan bo'lishi kerak.

Ushbu uyg'un muhitda talabalar to'g'ri qo'shiq aytish tamoyillarini tushunish va o'zlarining ijodiy ijro uslublarini topish uchun ko'proq imkoniyatga ega. Talim jarayonidagi qattiqqo'llik talabalar orasida g'ayratni keltirib chiqarmaydi va ularning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ijobiy muhitda har bir talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxsiy ahamiyati namoyon bo'ladi, ular odamni qiyinchiliklarni yengishga va hayotdan zavq olishga qodir qiladi, kognitiv jarayonlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Talaba o'z harakatlarini va boshqalarning harakatlarini yanada aniqroq baholash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ko'p bosqichlarda vokal o'rganish bir xil turdagi mashqlarni takrorlashda namoyon bo'ladi, shuning uchun ko'plab talabalar buni zerikarli, qiziq emas deb bilishadi. Turli xil o'quv rejimlarini, talabalarning qo'shiq aytishga bo'lgan qiziqishini oshirish usullarini topish, talabalarga o'z ovozlariga g'amxo'rlik qilishni unutmasliklari, kerakli mashqlarni bajarishlari va charchoqdan saqlanishlari kerakligini eslatish kerak. O'qituvchining

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

vazifasi nafaqat ta’lim-tarbiyani ma’lum miqdordagi nazariy bilimlarni yetkazish, balki unga vokal san’atining asoslarini tushunishda psixologik yordam berishdir.

Xulosa

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi tezligi talabalarimizga juda jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli, o’qituvchi uchun talabaga o’z vaqtida asabiy vaziyatni yengishga yordam berish, talabaning tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan psixologik stress vaziyatini o’tkazib yubormaslik juda muhimdir. Hozirgi kunda ta`lim sohasida yuz berayotgan o`zgarishlar, uni mazmuni milliy asoslarda takomillashtirish, uning barcha sohalarida bo`lgani singari musiqa ta`limida ham birinchi navbatda milliy o`zlikni anglash, shu ma`noda milliy qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, amaliy faoliyatda tatbiq etish ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi jamiyat taraqqiyotining o`zi ham ta`lim tizimini yangicha asoslarda yangilash, yanada rivojlantirish, hamda zamonaviy, ilg`or xorijiy tajriba, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yo`lga qo`yilishini taqazo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.
2. Андгуладзе Н.Д.О творческой природе певческого дыхания / Н. Д. Андгуладзе // Первый международный междисциплинарный конгресс «ГОЛОС»: сб. трудов. – Москва, 2007. – С. 5-6
3. Пекерская Е.М. Вокальный букварь / Е. М. Пекерская. – Москва: Музыка, 1996. – 11 с
4. Ламперти Ф. Начальное теоретико-практическое руководство к изу1чению пения. Искусство пения по классическим преданиям. Технические пра1вила и советы ученикам и артистам. Ежедневные упражнения в пении: учебное пособие / Ф. Ламперти; пер. Н. А. Александровой. – Санкт-Петербург: Изда1тельство «Лань»; Издательство «ПЛАНЕТА МУЗЫКИ», 2014. – 21 с.
5. Смелкова Т.Д. Основы обучения вокальному искусству: учебное пособие / Т.Д.Смелкова, Ю.В.Савельева. – Санкт-Петербург: Издательство «Лань»; Издательство «Планета музыки», 2014. – 16 с.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“MUSIQA O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR” FANINI TAKOMILLASHTIRISH TALABALAR KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.

Davronova Go’zal Mardonovna
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta’limi kafedrasi v/b dotsenti. p.f.f.d. (Phd)
Gmail: davronovago’zal77@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarini muttaxassis sifatida kompetensiyasini rivojlantirishda, “Musiqa o’qitishda innovatsion texnologiyalar” fanining takomillashtirishning muhim jihatlari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar berilgan. Taklif qilingan mavzular mazmuni “Idrok xaritasi” texnologiyasi vositasida tizimli tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *ta’lim tizimi, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, zamonaviy dars, kompetensiya, musiqa ta’limi, idrok xarita, tizimli tahlil.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ “ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ” КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ.

Давронова Гўзал Мардоновна
Узбекско-Финляндский педагогический институт
Доцент кафедры музыкального образования. п.п.ф.д. (Кандидат наук)
Gmail: davronovago’zal77@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируются важные аспекты совершенствования науки “Инновационные технологии в музыкальном образовании” в развитии компетентности будущих учителей музыкального образования как специалистов, даются предложения и рекомендации. Содержание предложенных тем систематически анализировалось с использованием технологии “когнитивная карта”.*

Ключевые слова: *образовательная система, инновационная технология, педагогическая технология, современный урок, компетентность, музыкальное образование, когнитивная карта, системный анализ.*

IMPROVING THE DISCIPLINE “INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION” AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS.

Davronova Gozal Mardonovna
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Music Education. p.f.f.d. (PhD)
Gmail: davronovago’zal77@gmail.com

Annotation: *This article analyzes important aspects of improving the science of “Innovative technologies in music education” in developing the competence of future music education teachers as specialists, and provides suggestions and recommendations. The content of the proposed topics was systematically analyzed using the “cognitive map” technology.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Key words: *educational system, innovative technology, pedagogical technology, modern lesson, competence, music education, cognitive map, system analysis.*

Kirish

Bugungi kunda taraqqiyot yo'lidan borayotgan Yangi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor berilmoqda. Barcha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarini zamonaviy ta'lim texnoligiyalari vositasida tashkil etish va unga oid o'quv adabiyotlarni zamon talabi asosida tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish, har bir oliy ta'lim professor- o'qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir.

Oliy ta'limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Shuningdek "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" qayta ko'rib chiqilib, ta'lim – tarbiya tizimi, sifat va samaradorligiga oid talablar bilan mazmunan boyitildi. Bu kabi Farmon va Qarorlarni ijrosini ta'minlash maqsadida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini ahamiyatini oshirish, qayta ko'rib chiqish, musiqa o'qitishda ta'lim tirizmiga qo'yilayotgan talablar asosida tayyorlashda innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda.

"Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini, musiqa o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars va mashg'ulotlar jarayonida optimal foydalanish orqali ta'lim sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan mavzular asosida nazariy, amaliy materiallar va topshiriqlar bilan boyitish, fanga, mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni tanlash va maqsadli foydalanishga o'rgatish, ta'labalarni mustaqil ishlash va tayyorgarlikga yo'naltirish kabi jihatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning pedagogik mahoratini oshirishda, kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda shu kabi fanlarning takomillashuvi dolzarb masalalardandir. Zero, kuchli mutaxassis o'zida bor musiqiy qobiliyat, ko'nikma va makalarni yosh avlodga mahorat bilan yetkazib bera olishi bilan uning pedagogik faoliyatiga baho beriladi.

Zamonaviy o'qitish tizimida fanlararo integrastiyaning keskin jadallashuvi tufayli musiqa amaliyotining pedagogik-psixologik jihatlarini har tomonlama o'rganishga katta ehtiyoj mavjud va bu keyingi yillarda uzluksiz musiqa ta'limi tizimining qator bo'g'inlarida o'z ta'sirini namoyon etmoqda.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim tizimi va o'quv jarayonida o'zgarishlar ro'y bermoqda, ta'lim mazmuni yanada murakkablashmoqda. Ta'lim oluvchilarni ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda an'anaviy usullar o'rnini sifatli ta'lim va tarbiyaning faol usullari, vositalari va zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan almashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu o'zgaruvchan sharoitda musiqa o'qituvchisi zamonaviy texnologiyalarning keng doirasi bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini, musiqa o'qitish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

jarayonini texnologiyalashtirish, zamonaviy darslarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiya yutuqlaridan dars jarayonida optimal foydalanish orqali ta'lim sifat-samaradorligini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan mavzu va topshiriqlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan 60111300-Musiqa ta'limi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, musiqa darslarini bugungi talablar asosida tashkil etishning optimal yo'l va usullari borasida bilimlar berishda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasni yaratishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashda muhim masalalrdan biri innovatsion texnika texnologiyalarini, maqbul pedagogik texnologiyalarni musiqa ta'lim tarbiyasida, musiqa mashg'ulotlarida izchil qo'llay olish malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, musiqachi-pedagoglarni tayyorlashda nafaqat ularning mutaxassislik kompitensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalardan musiqa ta'lim-tarbiyasida samarali foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'lishi ham dolzarb masalalardandir.

Adabiyotlar tahlili bo'yicha shunday xulosaga kelindiki, bugungi kunda mamlakatimizda Oliy ta'lim pedagogika institutlari musiqa ta'limi yo'nalishida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanining kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqalmasada, fanniang rivojlanishiga ko'plab olimlarimiz, metodistlarimiz o'z xissasini qo'shib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini innovatsion pedagogik mahoratini oshirishga oid mavzular va topshiriqlar asosida fanning ahamiyatini, masalaning dolzarbligini oshirishga hissa qo'shib kelmoqdalar. Bundan tashqari ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarda, maqola va tezislarda ushbu masala zarurat sifatida o'rganilib amaliyotga joriy qilinmoqda. Ammo zamon shiddat bilan o'zgarib, hamma sohada innovatsin texnologiyalarga ehtiyoj, zarurati ortib bormoqda. Bu kabi o'zgarishlar pedagog - o'qituvchini ham o'z ustida tinimsiz izlanish ishlash kerakligini taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

O'qituvchilik kasbining boshqa kasb egalaridan farqli jihati shundaki, muntazam talablari ortib, tafakkuri yangilanib, rivojlanib, takomillashib boruvchi shaxslar bilan faoliyat olib boradi. Bu o'z navbatida mutaxassis o'qituvchilarning kompetensiyasiga qo'yilgan talablarni oshishiga va pedagogik faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Bu kabi o'zgarishlar o'qitilayotgan adabiyotlarni ham mazmunan boyishiga, zamonaviylashuviga bo'lgan talabni oshiradi.

Musiqa o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida fanni nazariy jihatdan tushunish amaliy faoliyatni sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari - pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat[60].

[60] G M.Davronova "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish" mavzusida Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiya ishi. 2023yil. 75b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Musiqa ta’limi musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni pedagogik texnologiyalar vositasida egallash jarayoni samarali natijasi sifatida, amaliy ijrochilik yoki nazariy jihatdan musiqiy savodxonlikni o‘zlashtirishning ma’lum darajasini belgilaydi. Demak, musiqa ta’limi jamiyatda oldin to‘plangan musiqiy tajriba namunalarini rivojlantirish hamda kelajak avlodga yetkazish vazifasini bajaradi.

Hozirda oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashda muhim masalalrdan biri innovatsion texnika texnologiyalarini, maqbul pedagogik texnologiyalarni musiqa ta’lim tarbiyasida, mashg‘ulotlarida izchil qo‘llay olish malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, musiqachi-pedagoglarni tayyorlashda nafaqat ularning mutaxassislik kompitensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalardan musiqa ta’lim-tarbiyasida samarali foydalana olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi ham dolzarb masalalardandir.

Musiqa o’qituvchilari uchun ta’lim muassasalaridagi (maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlar, musiqa va san’at, hamda, umumta’lim maktablari) darslar va olib boriladigan mashg‘ulotlar, musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik faoliyatning bosh asosi hisoblanadi.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: “O‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish” rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[61].

Milliy dasturiga binoan, pedagog - kadrlar, bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik faoliyatiga va tayyorgarlik jarayoniga zaruriy talablarni belgilaydi.

Bugungi kunda zamonaviy talimni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.

“Innovatsion texnologiyalar” - bu inson faoliyatining turli sohalarini rivojlanish va takomillashtirishda, ayniqsa ta’lim tizimida sifat – samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega ekani o’z isbotini topdi.

Pedagogik jarayonda “innovatsiya” atamasi yangilikning muhim elementlariga ega bo'lgan tamoyillar, usullar va pedagogik texnologiyalarni o'rganishda qo'llaniladi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish musiqiy-pedagogik amaliyot, o'qituvchi-tadqiqotchining ta'lim jarayonida optimal natijalarga erishish uchun maqsadli harakatlarining umumiyligini tahlil qilish sifatida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodoligiyasi

Musiqa ta’limi - pedagogika fanlari tarmog‘iga kiradi va o‘quvchilarga musiqaning amaliy va nazariy jihatlari borasida ma’lumotlar berish, musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishning samarali yo‘llari, vositalari, shakllari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, musiqa san’atining turli sohalari bo‘yicha amaliy malaka, tajriba va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi.


[61] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanini takomillashtirishdan maqsad – talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion pedagogic texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonida ahamiyatini bilish, musiqa ta'limida qo'llash va undan foydalanishning nazariy va amaliy ko'nikma va makalarini shakllantirish orqali zamonaviy musiqa darslarni tashkil etishga o'rgatishdir.

Zamonaviy musiqa darsi – innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompyuter, electron musiqa asboblari va boshqa zamonaviy texnika texnologiyalar vositasida tashkil etilishi bilan izohlanadi[62].

Talabalarda kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini takomillashtirishda misol tariqasida 1- bobda beriladigan mavzular tahminiy rejasi "Idrok xaritasi" texnologiyasi asosida tahlil qilindi. (1-rasm).



[62] G.M.Davronova Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. O'quv qo'llanma 162 bet. Toshkent 2019y. 46b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

(1-rasm)

Bu fanni o'zlashtirishda talabalardan quydagi bilim, ko'nikmalarga va malakaga ega bo'lish talab etiladi:

1- Ta'lim tizimi, hamda, musiqa san'atiga oid Farmon va Qarorlarni muntazam kuzatib borish, tahlil qilish; (maqsad: ular ijrosini ta'minlashga o'z hissasini qo'shish).

2- Pedagogika – psixologiya fanlarida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;

3- Mutaxssislik fanlarini chuqur o'zlashtrish: (cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijyorlik konikma, malakalari… Amaliy mashg'ulotlarda "Musiqa o'qituvchisining pedagogik qiyofasi"ni yaratishda mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida tashkil etiladi.)

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan kompyuter dasturlaridan foydalana olish: (Word, power point, sibeliyus va boshqalar).

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda musiqa ta'limida o'qituvchining mutaxassis sifatida shakllantiriladigan kompetentligini yanada rivojlantish muhim masalalardandir.

Musiqa o'qituvchisining kompetensiyasi: musiqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylay olishi; rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga hamda musiqiy didga ega bo'lishi; musiqiy-nazariy bilimlar, ko'nikama va malakalarga ega bo'lish; musiqiy asarlar mazmunini badiiy – pedagogik tahlil qila olishi; dirijyorlik ko'nikma va malakalarini ko'rsata olishi kabi vazifalar bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, talabalarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishda "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini takomillashtirishdan maqsad, musiqa ta'limi yo'nalishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, musiqa ta'lim-tarbiyasi sifatlarini oshirishda, musiqachi-pedagog sifatida kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa o'qitishda innovatsin texnologiyalar fanini takomillashtirishda, fanda mavjud mavzular qatori, "Musiqa o'qituvchisining pedagogik takt va texnikasi" hamda "Musiqa o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlari" mavzusida ham material va topshiriqlar berilishi, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa pedagogikasiga kirib kelishga tayyor bo'layotgan yosh mutaxassislar, bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda universal, ijodkor, zamonaviy shaxs bo'lishlari zarur. Zero, jamiyatimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti shuni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son. 46-modda. /Elektron manba: – https://lex.uz/docs/5013007.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

3. 2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.

4. G. M. Davronova Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. O'quv qo'llanma 162 bet. Toshkent 2019y.

ISSN: 2181-0427

5. G.M.Davronova “Bo’lajak musiqa o’qituvchilarida hamkorlikda o’qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish” mavzusida Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiya ishi. 2023yil
6. D Karimova D. Musiqa o’qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.

BO’LAJAK MUSIQA TA’LIMI O’QITUVCHILARINI MAKTAB FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI.

Djalilov Ergash Kenjayevich
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti
Gmail: ergashkenjayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushu maqolada bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarini zamon talablari asosida maktab musiqa darslari faoliyatiga tayyorlashning zaruriy mezonlari yoritilgan. Maktab musiqa darslarida o’quvchilarga qo’shiq o’rgatishning pedagogik xususiyatlari, shart-sharoitlari nazariy jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so’zlari: *musiqa madaniyati darsi, pedagogik faoliyat, musiqa o’qituvchisi, o’quvchi, maktab repertuari.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ К ШКОЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

Джалилов Эргаш Кенжаевич
Узбекско-Финляндский педагогический институт
Доцент кафедры музыкального образования
Gmail: ergashkenjayev@gmail.com

Аннотация: *В данной статье описаны необходимые критерии подготовки будущих учителей музыкального образования к деятельности школьных музыкальных классов исходя из требований времени. Ярко раскрываются педагогические особенности и условия обучения пению учащихся на уроках музыки в школе.*

Ключевые слова*: урок музыкальной культуры, педагогическая деятельность, учитель музыки, ученик, школьный репертуар.*

THEORETICAL BASIS OF PREPARING FUTURE MUSIC TEACHERS FOR SCHOOL ACTIVITY.

Djalilov Ergash Kenjaevich
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Music Education
Gmail: ergashkenjayev@gmail.com

Annotation: *This article describes the necessary criteria for the production of future music educationteachers for the activities of school music classes based on the requirements of the times. Pedagogical features and conditions of teaching singing to students in school music lessons are clearly revealed.*

Key words*: music culture lesson, pedagogical activity, music teacher, student, school repertoire.*

Kirish

Uzluksiz ta'lim tizimining bugungi kundagi vazifasi ta'lim oluvchilarni kun-sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Aytish lozimki, ta'lim sohasi jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bir bo'lagi hisoblanadi.

Shu sababli, san'at yo'nalishidagi ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish darkor.

Ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga yangicha munosabat, yurtboshimizning asarlarida, ko'rsatmalarida, hukumatimizning qarorlarida, tegishli me'yoriy hujjatlarida xalq ta'limi tizimidagi olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda. Binobarin, yurtboshimiz ta'kidlaganidek "Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasida o'qitiladigan "Maktab repertuari" fani ham aynan ana shunday maqsadlarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizda ta'lim tizimini erkinlashtirish, o'quvchi-yoshlarni bilim olishlari uchun ta'lim tizimining barcha shakllarini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining bir qator qaror va farmonlar e'lon qilindiki, bular ayna paytda O'zbekistonni ta'lim sohasidagi xalqaro reytingini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini doimiy isloh qilib bopilishi O'zbekiston Pespublikasi **Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning** 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, **2017 yil 5 may "2017/2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi PQ-2955-sonli va** 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli **Qarorlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.**

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda ta'lim, ilm-fan, madaniyat, sport va albatta san'at sohalarini rivojlantirishga qaratilgan yoshlarga oid davlat dasturini rivojlantirish, bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda. Aytish joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning qaroriga binoan "O'zbek miliy maqom san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori (2017 yil 17 noyabr) qabul qilindi. Mazkur qaror O'zbekiston musiqa san'atida maqom san'atini davlat e'tiborida bo'lgan ulkan musiqiy qadriyat ekanligini yana bir bor ko'rsatdi[63].[1] Oxirgi uch yillarda musiqa o'qitishning zamonaviy innovatsion metodlarini qo'llash va uni uzluksiz ta'lim tizimida keng joriy etishga bo'lgan talab ancha kuchaydi. Bu ayniqsa, musiqa o'qituvchilari malakasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, yetakchi musiqa o'qituvchilarining darslapi mazmunida o'z ifodasini ko'rsatmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

[63]"O'zbek miliy maqom san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qaror Toshkent 2017 yil 17noyabr

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Ammo bu jarayon hali musiqa ta'limiga mas'ul bo'lgan barcha muassasalarida o'z aksini topgan deb aytish biroz qiyin. Shunday bo'lsada, bugungi kunda aynan ana shu uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi asosiy hujjat sifatida o'zining asosiy printsiplari[64] asosida quyidagi jihatlarni o'zida to'la to'kis namoyon etib kelmoqda. Xususan, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olish. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan o'quvchi-yoshlarni ijodkorligini shakllantirish, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, musiqa san'at turlari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta tashabbusning "1-Tashabbus. Yoshlapni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta'minlash choralapi"ni ko'rish kabi qator vazifalar belgilab berildi.

Tahlillar va natijalar

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi universitetlar va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik doirasida keng ko'lamda ishtirok etgan holda o'quv dasturlari tubdan qayta ishlab chiqilishini nihoyasiga yetkazishni ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimida fanlarni o'qitishning eskirgan, umrini o'tab bo'lgan yondashuv va uslublaridan batamom voz kechishni, jahon fanlarining ilg'or pedagogik texnologiyalarini zamonaviy yutuqlariga asoslangan yangi tizimini amalda joriy etish kabi keng ko'lamlali vazifalarni belgilab berdi[3].

Bugungi kundagi asosiy vazifalar qatorida yana bir va muhim masala ya'ni, ta'lim tizimining poydevorini tashkil qiluvchi yangi, milliy mafkura va qarashlarni mujassam etgan darslik va adabiyotlarni joriy etish galdagi vazifa sifatida belgilandi. Yangidan-yangi, zamonaviy darsliklar yaratildi va bu jarayon xorijiy OTMlarning yetkachi professor-o'qituvchilari, ilg'or xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari asosida har yili takomillashtirilib borilmoqda. qolaversa, O'zbekiston yosh, rivojlanayotgan mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib ta'lim tizimini isloh qilishga kirishdi va Respublikamizda umumiy o'rta ta'limi milliy dasturi ishlab chiqildi.

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimi hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumta'lim va kasb-hunar kollejlari pedagog xodimlarni kasbiy darajasini oshirish, yangi talablar asosida ularning xuquqiy savodhonligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish borasida ham bir qator ijobiy natijalarga erishilindi. Buning natijasi o'laroq, iqtisodiy tarmoq sohalarda xorijiy tajribalar keng o'rganilib, shular asosida yetuk mutaxassislar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali tarmoqlardagi o'sish natijalarining yaxshilanishiga erishilmoqda.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimi jamiyatning eng asosiy tayanch bo'g'ini qatorida ma'naviy va intellektual salohiyatni kuchaytirishga xizmat qilibgina qolmay, balki, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi natijasida, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir o'quvchi-yoshlarni o'z kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladigan mexanizm yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

[64]"Umumiy o'rta ta'limning musiqa fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi" 3-bob

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tomonidan ko‘tarilgan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta tashabbusi dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, birinchi tashabbus yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqiqirish masalalari, ikkinchi tashabbus “Yoshlani jismoniy chiniqtirish, ularning splort sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Uchinchi tashabbus “Aholi va yoshlar o‘rtasida kompg‘yuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. To‘rtinchi tashabbus “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi. Ushbu 5 ta tashabbus uzluksiz ta’lim tizimini bir-biriga yaqinlashtirishda yanada muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talablar talaba (o‘quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishni kuchaytirish, kasbiy bilimlarini faolligini oshirishdan iboratdir[5]. Musiqa ta’limi ta’lim yo‘nalishidagi ta’limda pedagogika tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talaba (o‘quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishda imkoniyati cheksiz ekanligi tasdiqlanmoqda.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchi-yoshlarni kun–sayin oshib, borayotgan axborot–ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga, bugungi globallashuv jarayonida o‘quvchi yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat ekanini butun dunyo ta’limi tizimi tajribalari ko‘rsatmoqda. Bu o‘qitish jarayonida uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Aytish lozimki, ta’lim – jamiyat hayotining iqtisodiy tarmoqlar sohasida o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadigan muhim bo‘g‘in va qolaversa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bir bo‘lagi sifatida uni harakatga keltiruvchi vositadir. Shu sababli, san’at yo‘nalishidagi ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo‘ygan holda, dars mashg‘ulotlarining usul va vositalarini to‘g‘ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish darkor.

Ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga yangicha munosabat, O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid siyosatida, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limini rivojlantirish kontseptsiyasida, O‘zbekiston Respubliksasi umumiy o‘rta ta’lim tizimini yanada rivojlantirish kontseptsiyasida, yurtboshimizning chiqishlvari, ma’ruzalari va selektor yig‘ilishlarida bergan topshiriqlarida, ko‘rsatmalarida, hukumatimizning qarorlarida, tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarida xalq ta’limi tizimini tubdan rivojlantirish metod va usullar to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topmoqda.

Mamlakatimiz yoshlarining zimmasiga nihoyatda faxrli va mas’uliyatli vazifalar yuklanmoqda. Har qanday davr va sharoitda ham barkamol avlod tarbiyasiga katta e’tibor berish lozimligini yana bir bor ko‘rsatmoqda. Binobarin, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi... Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”.

Xulosalar

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasi asosida “Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda, shuningdek, ushbu

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

yo‘nalish o‘quv rejasida “Musiqa o‘qitish metodikasi. Maktab repertuari” fani o‘qitilib kelinmoqda. Aytish joizki, nafaqat dunyo ta’lim tizimida, balki, O‘zbekiston Respublikasining musiqa ta’limi yo‘nalishida ham davr va zamon o‘z ta’sirini ko‘rsatish barobarida, ta’limdagi islohotlar tobora quloch yoymoqda. Globallashuv jarayonlari esa, tayyorlanayotgan kadrlarni har jihatdan puxta, bilimli va davr talabiga mos ravishda o‘qitilishni taqazo etadi. Shunday ekan, yaratilayotgan adabiyotlarni ana shu talab doirasida takomillashtirib borishni taqazo etadi. Bu jarayon o‘z-o‘zidan katta pedagogik muammo sifatida gavdalanadi. hozirgi vaqtda xuddi ana shunday yangi o‘quv adabiyotlarni yaratish va qadamba-qadam yetkazib torishni taqazo etadi. Ushbu muammo va masalalarni chuqur his etgan holda 2020 yilda boshlab kredit-modul tizimida tayyorlanayotgan musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarini hozirgi zamon talablariga javob beradigan, yangi pedagogik texnologiyalar asosida fan dasturiga muvofiq darsliklar tayyorlanmoqda. Zero, so‘nggi yillarda nutqimizda innovatsiya, multimedia, interaktiv, virtual, texnologiya kabi yangidan yangi so‘zlar paydo bo‘ldi. Bugungi tezkor va shiddatli kechayotgan axborotlar oqimida inson ongi avvalgi ajdodlaridan bir necha barobar ko‘proq ma’lumot qabul qilmoqda. Olimlarning aniqlashlaricha inson asosiy ma’lumotlarni vizual tarzda ya’ni ko‘rish orqali qabul qilar ekan. Shunday ekan, ta’lim tizimida ham mazkur vizual multimedia vositalarini yanada kengroq joriy qilish fursati yetdi va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Bu davr taqazosi. Ta’lim muassasalarini qurishda avvalambor moslashtirish, zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlash. O‘quv xonalarida imkon qadar kompyuter, videoproektor, smart doska, elektron nota doska, DVD kabi zaruriy ashyolar bo‘lishi darkor. Zero ushbu jihozlar mazkur dargohlarda malakali pedagoglar tomonidan olib boriladigan darslarning yanada mazmunli va tushunarli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “O‘zbek miliy maqom san’atini yanada rivojlantirish to’g’risida”gi qaror Toshkent 2017 yil 17-noyabr
2. Yuldasheva S.T. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogik asoslari. T. 2007 y.
3. Saipova D.YU. Musiqiy, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi shaxsini shakllantirish. (Boshlang‘ich sinflar misolida) T. 2007 y.
4. Ruziyeva D.N. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy pyedogogik asoslari. T. 2007 y.
5. Romanova S.Y. Qoraqalpoq milliy musiqiy an’analari asosida bo`lajak musiqa o‘qituvchilarni ma’naviy tarbiyalashning pyedagogik asoslari. T. 2005.
6. Ismoilova M.E. Xalq qo’shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma’anviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. T. 2006 y.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ABUL HASAN MOVARDIYNING ADOLAT VA SOFDILLIK BORASIDAGI AHLOQIY G‘OYALARI

Egamberganova Dilnoza Davronbekovna
UrDU tadqiqotchisi
Gmail: dilnozadavronbekovna@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada al-Movardiyning jamiyatimiz uchun muhim fazilatlar haqida fikr yuritiladi, Jumladan, adolat, odob kabilar. Shuningdek, Movardiyning shaxs sifatidagi sifatlari va faoiyati, uning kasbdagi adolatli siyosati haqida ko’plab tarixiy faktlar mavjud.*

Kalit so’zlar: *Al-Movardiy, odob, tarbiya, didaktika, Aflotun, Qur’on, hukdorlik, musulmon kishilar.*

ЭТИЧЕСКИЕ ИДЕИ АБУЛ ХАСАНА МОВАРДИ О СПРАВЕДЛИВОСТИ И ЧЕСТНОСТИ

Эгамберганова Дилноза Давронбековна
научный сотрудник УрГУ
Gmail: dilnozadavronbekovna@gmail.com

Аннотация: *в данной статье рассматриваются важные черты аль-Моварди для нашего общества, в том числе справедливость, манеры и т.д. Также имеется множество исторических фактов о качествах и достижениях Моварди как личности, его справедливой политике в профессии.*

Ключевые слова: *Аль-Моварди, нравы, образование, дидактика, Платон, Коран, суверенитет, мусульманский народ.*

ABUL HASAN MOVARDI’S ETHICAL IDEAS ON JUSTICE AND INTEGRITY

Egamberganova Dilnoza Davronbekovna
UrDU researcher
Gmail: dilnozadavronbekovna@gmail.com

Abstract: *this article reflects on the important features of al-Movardi for our society, including justice, manners, etc. Also, there are many historical facts about Movardi’s qualities and achievements as a person, his fair policy in the profession.*

Key words: *Al-Movardi, manners, education, didactics, Plato, Qur’an, sovereignty, Muslim people.*

Kirish

Al-Movardiyning xizmatlari va islom bo‘yicha nufuzli mutaxassis sifatida e’tirof yetilishiga qaramay, uning ijodiy izlanishlari diniy mavzularda asarlar yozish bilan cheklanib qolmadi. Shunday qilib, ilohiyot olimining filologiya fanlariga ochiq qiziqishi ilmiy izlanishlarda tasdiqlandi. Bundan kamida ikkita asar ma’lum – “al -Amsal va-l-hikam” risolasi va arab tiliga oid Kitob fi-n-nahv asaridir. Biroq, bu ko‘zga ko‘ringan arab olimi va yozuvchisi ijodini tadqiq qiluvchilar bugun, avvalgidek, al-Movardiyning ijtimoiy-siyosiy risolalariga ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Bizga ma’lumki, al-Movardiyning kasbiy faoliyati nafaqat ilohiyot va fiqh ilmlarini o‘rganish, balki siyosiy sohada mohir diplomat bilimi va iste’dodini amalda qo‘llashdan iborat bo‘lgan [1]. Abbosiylar hukmdorlarining uzoq yillar maslahatchisi bo‘lgan al-Movardiy davlat

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

va huquq nazariyasi bo‘yicha asarlar yaratgan bo‘lib, undan asosiy maqsad xalifalikdagi hokimiyat tizimi haqida yaxlit nuqtai nazarni shakllantirishdan iborat edi. Aytish mumkinki, al-Movardiy siyosat amaliyotchisi bo‘lib qolavergan holda, unga shariat asoslarini berishga harakat qilgan, nazariyotchi olim sifatida siyosiy-huquqiy tafakkurni ko‘p hollarda etishmaydigan pragmatik realizm bilan boyitishga hissa qo‘shgan.

Al-Movardi insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni mustahkamlash borasidagi qarashlari o‘ziga xos ma’noga ega. Nafaqat mazmun, balki janr jihatidan ham rang-barang bo‘lgan bu asarlar ko‘p jihatdan o‘sha davr ma’naviy-axloqiy muhitining mazmun-mohiyatining ko‘zgusiga aylandi. Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlashicha, al-Movardiy ijodining dastlabki davri fors (sosoniylar) siyosiy an’analarining kuchli ta’siri bilan tavsiflanadi, bu esa Eron shia Buyidlar sulolasi tomonidan Bag‘dodda hokimiyatni tortib olishi bilan bog‘liq (945 -) .1055) va Abbosiy xalifalari vakolatlarining sezilarli darajada cheklanishi ham bunga sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, uning axloqiy ta’limoti islom liberalizmi bilan bog‘liq jihatlarni o‘z ichiga qamrab olganligi ham e’tiborga molik.

Fors adabiy merosining al-Movardiy ijodiga ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Bu didaktik an’analarida, to‘g‘rirog‘i, odatda “hukumdorlarga o‘gitlar” yoki “xukumdorlik ko‘zgulari” deb ataladigan janrda yozilgan bir qancha asarlarda to‘liq seziladi. Al-Movardiy asarining tadqiqotchilari unga “Nasixat al-muluk” risolasining muallifligini, shuningdek, aftidan keyinroq, lekin mazmuni va taqdimot shakliga ko‘ra o‘xshash yana bir asari – “Tashil an-nazar va-ta” muallifi ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishadi.

“Nasixat al-muluk”, aftidan, allomaning eng asosiy asari bo‘lib, unda davlat boshqaruvining turli masalalari bo‘yicha hukmdorlarga ma’naviy-axloqiy mazmundagi ko‘rsatmalar mavjud. Shu bilan birga, al-Movardiy jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirar ekan, nafaqat forslarning ilmiy-madaniy merosiga tayanadi, balki qadimgi yunon falsafasi elementlari aniq namoyon bo‘lgan turli metaforik misollarga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning nuqtai nazaridan, hukmdor va jamiyat yagona inson organizmi sifatida harakat qiladi, bu yerda “podshoh boshdir... va odamlar boshqa tana a’zolaridir” va ular bir-birisiz yashay olmaydilar. Shunga o‘xshash qarashlar Yevropa siyosiy va falsafiy an’analarida Aflotun davridan boshlab ilgari surilib kelinmoqda. Davlatning bu organik konsepsiyasi kamida ikki jihatdan alohida ajralib turadi. Birinchidan, al-Movardiy ilohiyotchi va huquqning diniy talqini nazariyotchisi bo‘lganligi sababli, o‘z qarashlarida barcha uchun ma’lum bo‘lgan sodda dalillarga asoslangan. Ikkinchidan, bu ma’naviy-axloqiy mazmundagi qarashlar allomaning davlat, jamiyat va inson munosabatlari doirasidagi fikr-mulohazalarida o‘z ifodasini topgan. Binobarin, jamiyat, al-Movardiy fikricha, hukmdorga to‘liq ishonishi va unga itoat qilishi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi va hurmat qilishi kerak, lekin unga qarshilik ko‘rsatishga yoki unga qarshi chiqishga haqqi yo‘q. Alloma davlatni katta oila bilan qiyoslagan va unda yashash zarurligini aql-idrokli insonlarning tabiatidan kelib chiqadigan zarur intilishi sifatida qaragan. Ko‘rinib turibdiki, al-Movardiy haqiqatan ham davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratadi, davlatda qonun va tartibni saqlash faqat mumkinmalik (podshoh, xo‘jayin, suveren), “adolatli xalifalar” davrida ishlab chiqilgan boshqaruv tajribasi va qoidalariga, shuningdek, qadimgi fors siyosiy an’analariga asoslangan holda o‘z qarashlarini ilgari surgan.

Abu Ali Hasan b. Ali al-Jebeli, Muhammad b. Ulamolardan, jumladan, Adi al-Minkoriy va Abu’l-Qosim Ibnu’l-Maristoniydan hadislarni tinglagan. Hanafiy faqihi Kuduriy

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ko‘rsatmalaridan ham foydalangan. Nishopur yaqinidagi ba’zi joylarda qozilik qilgandan keyin Bag‘dodga qaytib kelgan. Fiqh, usul-i fiqh, tafsir va axloqdan dars bergan, hadislar rivoyat qilgan. Alloma kasbi orqali topgan daromadi, sudyalik maoshi evaziga yaxshi yashagan. U elchilik davrida hukmdorlarni o‘zi bilgan haqiqat bo‘yicha tanqid qilishdan qo‘rqmagan. Darhaqiqat, u 1032 yilda Abu Kaliyyorning “sulton-i a’zam” va “maliku’l-umem” unvonlarini olish haqidagi iltimosiga unga noloyiq bo‘lganligi sababli qarshilik qilgan.

Ibn as-Saloh ash-Shahrezuriy al-Movardiyni tafsiridagi ba’zi qarashlari Basra ahlining mayllariga ko‘ra mo‘tazila qarashlari bilan bir-biriga to‘g‘ri keladi, deb uni yashirin e’tizolda ayblagan edi. Movardiyning mo‘tazilalarni qo‘llab-quvvatlagan degan fikr noto‘g‘ri. Chunki, mo‘taziliylar hadislarga tayangan holda, sunnatga zid mo‘jizalarni va jannatning allaqachon yaratilganligini qabul qilib, Allohning zoti yagona va sifatlari abadiydir, degan qarashni qabul qilib, Qur’on ahlini rad etganlar. Qur’onni sunnat bilan bekor qilib bo‘lmaydi, chunki musulmon kishi bu hatti-harakati tufayli dindan chiqib ketishi mumkin.

Shofe’iy mazhabi xotirasi hisoblangan “As’hobul-vujuh”lardan bo‘lgan al-Movardiyning fikricha, ijtihod farzi kifoyadir. Agar ijtihod qilishga bilimi yetarli bo‘lmaganlarga bu masala yuklansa, tartibsizlik va fitna sodir bo‘ladi, shariat to‘xtab, ilm ahli undan uzoqlashadi. Oldingilarning fikriga amal qilish, taqlid qilishdan ko‘ra ijtihodni afzal ko‘rishi haqidagi ogohlantirishga javob berganligi haqidagi rivoyat mutafakkirning bu boradagi masalaga o‘ziga xos qarashini aks ettiradi. Mujtahid qozi uchun turli mazhablardan tanlash joiz bo‘lishi uning mutaassiblikda qolmaganligini ko‘rsatadi. Hadis ilmiga nozik yondashishi tushunilgan al-Movardiy ijozat va mukataba orqali rivoyatni hadis safariga to‘sqinlik qiladi, deb rad etadi.

Aql axloq va diniy farzning asosi bo‘lgani uchun dindan avvalroq turishini ta’kidlagan Movardiy, ehtimol, hokimiyatdagilarning qandaydir noto‘g‘rilikni qonuniylashtirishga urinishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun axloq “inson qalbida yashirin va turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi” degan edi. Xulq-atvor va nohaq amallarni, ayniqsa, ba’zi Ummaviy hukmdorlari qilganidek, buni “zohiriy shaxs (ahlohu’z-zat) bilan irodali xatti-harakatlar” deb ta’riflaydi. Shaxsning ham ikki jihati bor: tabiatdan kelib chiqqan xususiyatlar (g‘ariy) va orttirilgan (orttirilgan) xususiyatlar. Uning fikricha, mutlaq fazilatli yoki yomon odam yo‘q. Fazilatli kishining fazilati, fosiqlik esa uning sharmanda bo‘lishidir.

Haqiqiy savobli fazilatlar bu o‘z mehnati bilan erishilgan fazilatlardir. Ham diniy, ham dunyoviy manfaatlarni qamrab olish nuqtai nazaridan insoniy darajalarning eng sharaflisi bo‘lgan payg‘ambarlik mansabiga eng komil axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan insonlar, eng sharafli avlodlar hisoblanadi. Undan keyin kelgan imom va amirlarning payg‘ambarlik xususiyatlari bilan shakllantirilishi, bu lavozimlarga o‘ng qo‘l xalifalar kabi fazilatli shaxslar keltirilishi farzdir. Bu yondashuv siyosatning eng muhim kasb sifatida ko‘rsatilishi sababini ham ochib beradi. Movardiyning o‘z ajdodlarining oliyjanobligi va homiyligining buyukligi nuqtai nazaridan hukmdorlarning tug‘ma fazilatlari oddiy xalqdan ko‘ra ko‘proq yaqqol namoyon bo‘ladi, degan edi. Qolaversa, xalifa bo‘ladigan kishilarda nasl-nasab holatini izlash ham tug‘ma fazilatlar hukmronligining, ham davlatning barpo etilishi va saqlanib qolishida bunday hatti-harakat zarurligining yashirin belgisi bo‘lishi mumkin. Movardiy hukumatga itoat qilish orqali adabiy majburiyatlar ohangini ta’minlovchi shariat va mamlakat farovonligini ta’minlovchi siyosiy adabiyotni ikkiga bo‘lib, ikkalasi ham adolatga moyil ekanligini, adolatning vazifasi siyosiy tinchlik va farzlarni tark etgan kishi o‘zini, yurtni vayron qilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Xulosalar

Al-Movardiy fikricha, inson tabiati murosaga kelmaydi. Shuning uchun Alloh taolo insonlarni bir-birini to'ldirish, birlashish va murosaga kelishlarini ta'minlash uchun turli tabaqalarga bo'lib, ularni turli mavqelarda yaratgan. Agar odamlar bir xil vaziyatda bo'lsalar, ular bir-biridan foyda ko'ra olmadilar; ular o'z ehtiyojlari va o'zlarining nochorligi tufayli halok bo'lar edilar. Chunki inson barcha tirik mavjudotlar ichida eng muhtojidir. Hayvonlardan farqli o'laroq, u o'z turiga bog'liq va hamkorlik motivi uning tabiatining ajralmas xususiyatidir. Ehtiyoj va nomutanosiblik o'zini boylik g'azabidan va hokimiyatning buzilishidan himoya qiladi. Alloh taolo insonning o'z nochorligini bartaraf etish uchun uning ehtiyojlari va kasblarini qondirish uchun sabablar yaratgan.

Adabiyotlar

1. Туманян Т. Г. Абу-л-Хасан ал-Маварди: теоретик права и политический мыслитель. Вопросы философии, № 8, 2016. С.194-203.
2. Abul-Fazl Ezzati, The Spread of Islam: The Contributing Factors, ICAS Press (2002), p. 384
2.
3. Abulhasan Movardi. Morality of the world and religion. T.: <>, 2021.-435p. 3.
4. Olloyorov, Q., & Davlatnazarov, D. (2023). XORAZM DOSTONLARI TILIDA UCHRAYDIGAN REAL VA NOREAL SHAXS NOMLARI. SCHOLAR, 1(2), 104-110.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

KASBGA UZLUKSIZ YO‘NALTIRISHNI TASHKIL ETISH USULLARI

Sh.T. Ergashev – t.f.n., prof., Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
e-mail: nammqi_info@edu.uz

Annotatsiya. *Maqola bugungi kunda mamlakatimizdagi umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarining kasbga yo’naltirish ishlari va ularni tashkil etish masalasiga bag’ishlangan. Maqolada uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish metodikasi, kasbiy o‘zligini anglash va shaxsga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan kasbga yo‘naltirishlar to’g’risida tahliliy-tavsiyaviy materiallar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *uzuliksiz ta’lim tizimi, kasbga yo’naltirish tizimi, kasb-hunarga yo’naltirish metodikasi, kasbiy o’zligini anglash, shaxsga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan kasbga yo‘naltirish*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИЯ НЕПРЕРЫВНОЙ ПРОФОРИЕНТАЦИИ

Sh.T. Ergashev – t.f.n., prof., Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
e-mail: nammqi_info@edu.uz

Аннотация. *Статья посвящена вопросу профессиональной ориентации и их организации учащихся общеобразовательных школ в нашей стране в современных условиях. В статье представлены аналитические и рекомендательные материалы по методике непрерывной профессиональной ориентации, осознанию профессиональной идентичности и личностно-ориентированной специализированной профессиональной ориентации.*

Ключевые слова*: система непрерывного образования, система профессиональной ориентации, методика профессиональной ориентации, осознание профессиональной идентичности, личностно-ориентированная специализированная профессиональная ориентация*

ORGANIZATION OF CONTINUOUS CAREER GUIDANCE FOR STUDENTS

Sh.T. Ergashev – t.f.n., prof., Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
e-mail: nammqi_info@edu.uz

Annotation. *The article is devoted to the issue of vocational guidance and their organization of students of secondary schools in our country in modern conditions. The article presents analytical and recommendatory materials on the methodology of continuous professional guidance, awareness of professional identity and personality-oriented specialized professional guidance.*

Keywords: *continuous education system, vocational guidance system, vocational guidance methodology, awareness of professional identity, personality-oriented specialized vocational guidance*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko‘nikmalarini ham shakllantirib borish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o‘quvchi yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

chirog‘i patronini o‘rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to‘g‘risida, shuningdek, oddiy yog‘ochga ishlov berish, uy ro‘zg‘orda kichik ta’mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko‘nikmalarni to‘liq yetkazib berolmayotganligimiz hech kimga sir emas.

Adabiyotlar tahlili

Hozirda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o‘rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun “Kasbga yo‘naltirish tizimi” joriy etilmoqda, 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazilib, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishi aniqlanib, ularning ma’lumotlar bazasi yaratilmoqda.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida o‘qitilayotgan “Texnologiya” fanining dasturi mazmuni o‘quvchilarga dastlabki hayotiy kasbiy ko‘nikmalarni egallashlari uchun talabga javob beradimi?

Ushbu dolzarb yo‘nalishda xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan? degan xaqli savol tug‘iladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida (10-11-sinflar) o‘qitilayotgan “Texnologiya” fanining o‘qitilishi bo‘yicha bir qator xorijiy mamlakatlarning, jumladan, Rossiya, Belarus, Germaniya, Bolgariya, Qozog‘iston kabi davlatlarning tajribalari qiyosiy tahlil qilindi.

O‘rganilgan 16 ta mamlakatlarning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Texnologiya” fani majburiy fan sifatida o‘qitilib, yillik rejadagi fanning ulushidan 7 foizdan 12 foizgacha soatlar hajmi belgilangan. Jumladan, Germaniyada 11 foiz, Italiyada 7 foiz, Bolgariyada 9 foizni tashkil etsa, ushbu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 5-9-sinflarda 5 foizni tashkil etadi, xolos.

Shu bilan birgalikda o‘quvchi yoshlarga kasb ko‘nikmalarini shakllantirib borishda ayrim rivojlangan mamlakatlarda jumladan, Finlyandiya, Avstriya, Latviya, Norvegiya, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarda qo‘shimcha ravishda “Amaliy va kasbiy ko‘nikmalar” nomli fan o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga 6 soatlik “Kasb tanlashga yo‘llash” mavzulari bilan chegaralanib qolingan.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlardan Janubiy Koreyada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv rejasida “Texnologiya” fani 5-6-7-sinfdan bir o‘quv yiliga 68 soatdan, 8-9-10-sinflarda 102 soatdan ajratilgan.

Rossiyada esa “Texnologiya” fani 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan yiliga 36 soat, shuningdek, 10-sinfda 36 soat, 11-sinfda 34 soat dars o‘tilsa, 10-11-sinflar uchun o‘quv rejada “Kasbiy istiqbolga erishish texnologiyasi. Mehnat bozorida samaraga erishish” fani ham mavjud bo‘lib, 10-sinfda 36 soat, 11-sinfda 34 soat o‘qitiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, 10-11-sinflarda “Texnologiya” va “Kasbiy istiqbolga erishish texnologiyasi. Mehnat bozorida samaraga erishish” fanlari yiliga 70 soatdan 140 soat jami 2 yilda 280 soat kasbiy ta’limga yo‘naltirishga ajratilgan [1].

Belarusiyada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Mehnat ta’limi” 8-9-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 10-11-sinflarda esa haftasiga 6 soatdan umumta’lim fanlar hamda qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘quvchilar uchun maxsus madaniyat va san’atga chuqurlashtirilib o‘qitiladigan maktablarning maxsus fanlaridan fakultativ soatlar asosida ham o‘qitiladi. 8-9 sinf o‘quvchilari uchun kasbga yo‘naltirish, 10-11-sinf o‘quvchilari uchun kasb-hunarga tayyorlash bosqichlari asosida amalga oshiriladi.

Bunda 8-sinf o‘quvchilari haftasiga 2 soatdan, 9-sinf o‘quvchilari haftasiga 4 soatdan, 10-11-sinf o‘quvchilari uchun haftasiga 6 soatdan (2 soat nazariy, 4 soat amaliy) kasbga yo‘naltirish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

fakultativ soatlari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘quvchi yoshlarga mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borish maqsadida Rossiyada “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga “Konstruksion buyumlardan materiallar yasash” (22 soat), “Chizmachilik va grafika” (10 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbiy ko‘nikmalari shakllantirilsa, Belarus maktablarida esa ”Veb-saytlarni yaratish va konstruksiyalash” (6 soat), “Tadbirkorlik asoslari” (10 soat) kabi mavzular, Qozog‘istonda “Yog‘ochga qo‘lda ishlov berish” (7 soat), “Metallarga qo‘lda ishlov berish” (8 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda [2].

Tahlillar va natijalar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish metodikasida quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Jumaladan:

– o‘quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlari, kasbiy mo‘ljallari, kasb tanlash bilan bog‘liq qadriyat yo‘nalishlari va motivlari hamda professional ta’limi muassasalaridan ma’lum biridan xabardorligi sifatida shaxsni kasbga yo‘naltirilganligini shakllantirish va rivojlantirish;

– kasbga qiziqishni kasbiy faoliyatning muayyan sohasiga nisbatan shakllantirish va rivojlantirish; kasb-hunarga, akademik lisey yoki kollejlardagi muayyan mutaxassislikka va ta’lim yo‘nalishiga xos bo‘lgan xususiyatlarni hisobga olgan holda ma’lum bir kasbiy faoliyat yo‘nalishini ongli ravishda tanlash;

– o‘quv, mehnat, muloqot va ijodiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash va yanada rivojlantirish (muayyan kasb yoki mutaxassisligi uchun tegishli sifatida);

– mazkur bosqichda kasbga yo‘naltirishga xos va korreksion-rivojlan-tiruvchi ishlar bilan bog‘liq holda o‘quvchilarni individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxis qilish;

– noverbal, verbal, mantiqiy va mavhum fikr yuritish, fazoviy tasav- vur qilishning oddiy va murakkab jarayonlarini; (kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq holda) qisqa va uzoq muddatga eslab qolish va takrorlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– ijodiy yoki maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash; ota-onalar uchun yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqish (keyinchalik akademik lisey ixtisosligiga, professional ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishiga o‘tib o‘qishini hisobga olgan holda iqtidorli bolani maktabda va oilada o‘qitish hamda tarbiyalash);

– kasblar bilan bog‘liq faoliyatning har xil sohalarini, jamiyatning ijtimoiy institutlarini bilishga, kasb tanlash, muayyan kasblar, muayyan mutaxassislik bo‘yicha ma’lumotlarni bilishga qiziqishni rivojlantirish va rag‘batlantirish;

– (ushbu bosqichga xos kasbga yo‘naltirish va korreksion-rivojlantirish vazifalari bilan bog‘liq holda) o‘quvchilarni individual psixologik va ularning shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxis qilish;

– o‘quvchilarda kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy o‘zlikni aniqlash, qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish;

– o‘qish, mehnat, muloqot, ijodkorlik faoliyatlarini yuritishda zarur hisoblanuvchi ko‘nikma va malakalarni (muayyan kasblarni egallashda muhim sanaluvchi o‘quv fanlariga oid bilimlarni) shakllantirish;

– verbal va mantiqiy fikr yuritish, fazoviy tasavvur qilishning oddiy va murakkab jarayonlarini (kasbga yo‘naltirishga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq holda) eslab qolish va takror aytib berish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

– ijodiy yoki maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash; ota-onalar uchun yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqish (keyinchalik ixtisoslashgan lisey, maktab, internatga qabul qilinishi mumkinligini hisobga olgan holda iqtidorli bolani maktabda va oilada o‘qitish hamda tarbiyalash) [3].

Kasbiy o‘zligini anglash – ma’naviy va jismoniy imkoniyatlarni safarbar etish, yetarlicha kasbiy reja va niyatlarni shakllantirish, kasbiy tanlovda o‘zini o‘zi chinakam ifodalay olish va o‘zini ishning eng mohir ustasi sifatida ko‘ra bilish kabi kasbiy va mehnat muhitiga asosiy munosabatlar tizimini shakllantiradigan shaxsga xos murakkab dialektik jarayondir.

Kasbiy o‘zlikni anglash butun umr bo‘yi hayotda o‘zligini anglashning tarkibiy bo’lib, u shaxsning ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimiga “payvandlashuvi” ni, o‘sishi va o‘zidagi ijtimoiy moyilliklar ta’sirida ulg‘ayib, o‘zini o‘zi ko‘rsata olishida asosiy jihat bo‘lib xizmat qiladi. Kasbiy o‘zlikni anglash kompleks jarayon sifatida shaxsiy ehtiyojlar va ijtimoiy manfaatlarga bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning shiddatli ijtimoiy taraqqiyotning bugungi kundagi rivoji tomonidan taqdim etilayotgan murakkab va serqirra masalalarni hal etish uchun ularning o‘zaro muvofiqlashuvini nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan kasbga yo‘naltirishni amalga oshirish jarayonidagi asosiy g‘oyalardan biri – kasbiy o‘zlikni anglashni shaxs rivojlanishining ichki va ijtimoiy-kasbiy asoslarini murakkab va uzoq muddat davom etuvchi ruhiy jarayon sifatida kasb tanlashning yagona qolipiga tushirib bo‘lmaydi va tanlangan mutaxassislik bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikning yakunlangani kasb-hunarga yo‘naltirishning o‘z yakuniga yetganini ham anglatmaydi. U shaxs hayotining barcha sohalari (ta’lim, oilaviy munosabatlar, bo‘sh vaqt faoliyati va boshqalar) dagi asosiy munosabatlarni o‘ziga qo‘shib olgani holda shaxsning butun hayoti va kasbiy-mehnat yo‘li barobarida davom etib boraveradi [4].

Shunday qilib kasbiy o‘zligini anglash, uni yuzaga chiqaradigan turli jihatlar orasidagi o‘zaro munosabatlarning asosi sifatida qaralishi lozim: kasbiy kamolotga erishishni shakllantirish, shaxsiy imkoniyatlarga imkoniyatlar qo‘shish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘zlikni amalda namoyish etish maydoni, shuningdek, amaliy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy foydali kasbiy-ishlab chiqarish omillar tizimiga samarali munosabat bildirish va o‘zini o‘zi rivojlantirish.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishi kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maktab o‘qituvchilari yoxud kollejlarning kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatlar beruvchi o‘qituvchilari tomonidan bajariladi. Ular o‘quvchilar orasida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazadilar, bunda ular shaxsning pedagogik tashxissi metodlari (suhbat, anketa so‘rovi, test) dan, kasbga yo‘naltirish metodikalari (tashkiliy-ta’limiy o‘yinlar, vaziyatli-rolli o‘yinlar, viktorinalar, kasbiy mahorat musobaqalari, ekskursiyalar va boshqalar) dan foydalanadilar [5].

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash shu narsada o‘z ifodasini topadiki, bunda har bir o‘qituvchi o‘zi o‘qitadigan fan (masalan: matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, chet tili va boshqalar) ning mohiyati va mazmunini muayyan kasbiy faoliyat bilan yoki muayyan kasb bilan bog‘lagan holda bayon etadi. O‘quvchilarga o‘zi o‘qitayotgan fanni a’lo darajada o‘rganishning muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislikni egallash, kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki oliy ta’lim muassasasiga o‘tib o‘qish, nufuzi yuksak tashkilotlar, muassasalarda va korxonalarda ishlash uchun ahamiyatli va zarurligini tushuntiradi.

O‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish tadbirlari va ular bilan kasblar haqida o‘tkaziladigan maslahatlashuvlar professional ta’lim ta’lim muassasalarida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kasblar ichida shaxsning o‘zligini anglashi, kasbni va ta’lim yo‘nalishini ongli ravishda tanlashida yordam beradi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilar bilan psixodiagnostik va korreksion faoliyat jarayonida mutaxassis psixolog tomonidan amalga oshiriladi, bunda psixologik testlar, shaxsiy va maxsus so‘rovnomalardan, psixokorrektiv metodlar (mashqlar, jamoaviy treninglar, rolli o‘yinlar va boshqalar) dan foydalaniladi. Psixologik tashxis va psixokorreksiya ishlarining natijalari shaxsni kasb-hunarga yo‘naltirish muammolarini hal qilishga yordam beradi; refleksiya, xotira, tasavvur, tafakkur va nutqni rivojlantiradi; o‘quvchilar tomonidan o‘zlarining qobiliyatlarini, shaxsiy psixologik xususiyatlarini anglashlarini ta’minlaydi; shuningdek shaxsiy kamchiliklaridan qutilish va ularni bartaraf etish imkoniyatini yaratadi. Psixologning psixologik qo‘llab-quvvatlashi uning o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida “vositachi – fasilitator” ekanligi bilan ifodalanadi [6].

Kasbga yo‘naltirishda funksional, xatti-harakat va shaxs bilan bog‘liq jihatlari o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshirib, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha muloqot istagini faollashtiribgina qo‘ymay, balki ularda kasbiy qiziqish, o‘zini o‘zi baholash sifatlarini paydo qiladi, o‘z imkoniyatlari, xislatlari, jamiyatda tutgan o‘rinlari haqida mulohazalar yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu munosabat bilan yoshlarni kasbga yo‘naltirishda kasbga yo‘naltirish darslari, kasbiy ta’lim, kasbiy maslahatlar, tashxis va korreksiya ishlari, treninglar, ekskursiyalar ko‘zda tutilgan.

O‘quvchilarni kasbga uzluksiz yo‘naltirishni tashkil etish va tartibi.

Kasbga uzluksiz yo‘naltirishni barcha kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi. Uslubiy idoralar ushbu tavsiyalar asosida asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar (aksiyalar, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari, kasbiy mahorat tanlovlari va boshqalar.) [7-8].

Bunda kasbiy ta’lim tashkilotining barcha xodimlari ishtirok etishi mumkin va tavsiya etiladi:

- kasbga yo‘naltirish va ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyatning ommaviy, guruh va individual shakllarini birlashtirish;

- ta’lim va tarbiyaning faol, interfaol va reflektor shakllaridan foydalanib faoliyat olib borish;

- hayot sinovidan o‘tgan va yangi an’analarni yaratish;

- innovatsion, shu jumladan masofaviy shakllar va o‘tkazish formatlaridan foydalaning;

- faoliyatni amalga oshirish bosqichida ijtimoiy sheriklarni birgalikda rejalashtirish yoki o‘z ichiga olish: korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan notijorat tashkilotlar, ota-onalar, biznes vakillari va ommaviy axborot vositalari, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari, bolalar uchun qo‘shimcha muassasalari, bandlik markazi.

Xulosalar

Shaxs va boshqaruv sub’ektlarining ijtimoiy tuzilmalari (maktabdan tashqari muassasalar, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professional va oliy ta’lim muassasalari, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha xizmatlar, mehnat resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi organlar, shuningdek, korxona va muassasalar, oila va jamoatchilik) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va uzoq vaqt davom etuvchi kasbda o‘zini o‘zi anglash jarayonida shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari haqida qabul qilingan mazkur g‘oya (konsepsiya) jamiyat oldida turgan va kelajakda murojaat qilish kerak bo‘ladigan ko‘plab vakolatlarni ta’minlaydi.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan kasbga ixtisoslashtirilgan yo‘naltirish bu – shaxsning

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ichki psixologik imkoniyatlarini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, natijada uning kasb-hunarga jalb qilinishi orqali inson kasb-hunarda o'zini to'la namoyon eta oladi.

Adabiyotlar

1. Матяш Н.В., Павлова Т.А. Методы активного социально-психологического обучения. М.: «Академия», 2016. – 96 с.
2. Маслов А. Мотивация и личность. Спб., 1996. – С.61-62.
3. Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблеми и перспективи. – Т.: Фан, 1990. – 88 с.
4. Эргашев Ш., Калонтаров А., Нематова Г. Инновационная программа профориентации: этапы, цели, задачи реализацаии // Журнал «Профессио-нальное образование» № 2 (40), Минск, 2020, С.: 18 – 26.
5. Белокрылова О.С. Активные формы профориентационной работы в школе. Методическое пособие. – УДПО: Жигулевск, 2019. – 25 с.
6. Эргашев Ш.Т., Каххаров А.А., Абдуллаева Н.Х., Неусыпин К.А. Селезнева М.С. Система опережающей подготовки специалистов для промышленного комплекса Узбекистана / Монография. Издательство "Аржуманд медиа". Наманган, 2023, с. 204.
7. Эргашев Ш.Т., А.А.Каххаров, К.А.Неусыпин, М.С.Селезнева. Концепция комплексного непрерывного инженерного образования с использованием инновационных технологий // «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Илимий-методикалық журнал, 2022 - №1 Б.100-104.
8. Ergashev Sh.T., Nuritdinov Q.Y., Alimxodjaeva S.N., Turdieva K., Xaydarov F.I., Sanaqulov H.R. Kasblar alifbosi. 1-4 sinflar uchun o'quv qo'llanma / Yurist media markazi". – T.: 2008. – 108 b. Adadi 20000 nusxa.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

К НЕКОТОРЫМ ВОПРОСАМ ИЗУЧЕНИЯ УРОВНЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА.

Мамарасулова Манзура Умирзаковна
Ташкентский технологический университет
Кафедры иностранных языков и технология образования
Преподователь
Gmail: Mamarasulova69@inbox.ru

Ключевые слова: *Научно-технический прогресс конкретоспособность,телекомуникация, адекватность, нацеленность, формировать, гарантия, процедура, технология, оптимизация.*

ИЛМИЙ-ТЕХНИК РИВОЖЛАНИШНИ УРГАНИШНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР

Мамарасулова Манзура Умирзаковна
Тошкент технологиялар университети
Хорижий тиллар ва таълим технологияси кафедраси
Ўкитувчи
Gmail: Mamarasulova69@inbox.ru

Абстракт: *Жамият тараккиётининг хозирги боскичи илмий-техникавий тараккиётнинг юкори даражаси,фан ва техника ютуклари,компьютер ва телекомуникация техникаси,электрон такомиллашуви билан тавсифланади,улар самарали таълим- техник воситалар булиб хизмат килади.*

Калит сузлар: *Илмий техник ривожланиш, телекомуникация, адеквантлик, технология, оптимизация.*

Статья содержит характеристику основных видов самостоятельной работы и методические указания к их выполнению, а также небольшой словарь-справочник и библиографический список, который поможет, при необходимости, более подробно ознакомиться с заинтересовавшей проблемой.

Сегодняшный этап развития общества характеризуется высоким уровнем научно-технического прогресса, достижениями науки, техники, совершенствованием электронно вычислительных машин и телекомунакационных систем, которые стали выполнять функции эффективных обучающих технических средств, обеспечивающих огромный непрерывный лавинообразный поток информации, с которой специалисту необходимо ознакомиться, многое усвоить что обусловило очевидную необходимость адекватной организации, вернее реорганизации, системы образования, нацелнность на объективно диагностируемый конечный результат

а) развития навыков индивидуальной и самостоятельной работы,творческой работы с научно-технической информацией

б) развитие способности оригинального и нестандартного решения проблем,работоспособности.

в) индивидуализация обучения, обусловленная, в первую очередь, разной степенью способности к обучению,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

г) формирование мобильности знаний, критичности мышления ,творческий гибкости в работе,способности адаптироваться к изменеиям условий работы.

Обучение-одна из составляющих сложного процесса направленного развития и формирования человеческой личности, что акцентирует важность его системного, обдуманного и последовательного воплощения на практике, обеспечение достаточной эффективности образовательного процесса

с гарантией достижения запланированных результатов.Основной документ, регламентирующий сферу высшего образования- государственный образовательный стандарт, определяющий требования к качеству подготовки кадров,содержание образования, необходимый и достаточный уровень подготовленности обучающеюся и квалификационные требования к выпускникам образовательных учреждений, максимальный объём учебной нагрузки , процедуры и механизмы оценки деятельности образовательных учреждений и качества подготовки кадров.Подготовка специалистов, отвечающих уровню требований государственных образовательных стандартов, обеспечивает педагогическая технология, направленная на создания оптимального учебного процесса, оптимизацию уровня знаний и навыков, систематичность, последовательность и прочность усвоения знаний, использование личностно-ориентированных технологий, оптимальное использование учётного времени, системные планирование самостоятельной работы, обеспечивающей активацию обучающихся, развитие личностных качеств.

Немаловажное значение в организации учебного процесса имеет соотношение аудиторных часов и часов отводимых на самостоятельную работу. Соотношения = 67% (аудиторных) -33% (самостоятельных) обычно рекомендуется для 1-2 курсов т.к. студенты еще не приобрели навыков самостоятельной работы когда увеличивается учебная нагрузка отводимая для самостоятельного выполнения (курсовые работы подготовка к лабораторным и практическим занятиям подготовка докладов и сообщений на спецсеминарах выполнение выпускной квалификационной работы и т.д.вся необходимая в процессе обучения поисково-творческая работа которую по этапно целенаправляет систематизирует контралирует педагог. Эта работа может приобрести при умелом руководстве серьёзный исследовательский характер и способствует формированию творческой личности.После определения целепологания постановки проблемы и задач краткого устного или письменного пояснения студенты самостоятельно составляют библиографию изучают источники ведут наблюдения анализируют художественные тексты выполняют действия поискового характера (работа со справочной литературой словарями работа с архивными материалами музейными экспонатами и т.д.)Методы учебной работы могут перерастать в методы научного исследования когда появляется мотивация к самостоятельному творческому поиску и инициативе освоению нового опыта и способов действия. Взаимодействия поисковых моделей обучения с содержанием обучения связано с установкой на формирование активной творческой личности исследовательских навыков.

В свете современных требований к образованию и воспитанию сформулированных в законе «Об образовании» и «Национальной программе по подготовке кадров»,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

формирование навыков самостоятельной работы с научной , художественной и справочной литературой приобретает особую актуальность.

Прогресс и совершенствование являются основной тенденцией развития системы образования и главным условием обучения. Наблюдения в процессе практической работы показали, что учащиеся во время обучения легче овладевают готовым фактологическим материалом но испытывают трудности, не готовы самостоятельно добывать знания, применять их, интегрировать. Этот факт обусловливает необходимость изменения акцентов в учебной деятельности , нацеленной на интеллектуалное развитие учащихся за счет уменьшения доли репродуктивной деятельности. В учебных планах последних лет значительно увеличилось количество часов, отведенных на самостаятельную работу студентов, а в практической учебной деятельности возрос удельный вес заданий, рассчитанных на различные виды самостоятельное творческое применение знаний, заданий,требующих привлечения различных дополнительных источников и самостоятельной работы с ними.

Главная задача современного вузовского образования, как уже отмечалось, воспитать конкурентноспособных грамотных специалистов, готовых постоянно совершенствоваться самостоятельно, т.е. знающих как учиться, способных достигать цели, умеющих работать с книгой и другими источниками, усваивать знания, получаемые от преподавателя, способных искать и находить необходимую информацию, использовать ее для решения возникающих проблем.

Такая готовность в будущем вооружит специалиста умением повышать свой профессиональный уровень, при необходимости переквалифицироваться, приобретать необходимые дополнительные знания, сделает его востребованным и конкурентноспособным.

Роль преподавателя в вузе меняется, он становится не столько источником и контролером знаний , сколько огранизатором самостоятельной познавательной деятельности студента, консультантом и помощником помогающим устранить трудности в познании и применении знаний. Важное значение приобретает личностно-орентированный подход, учитывающий уровень интелектуального развития, способностей учащегося.

Одной из актуальных задач вузовского образования является включение каждого студента и системную и систематическую самостоятельную работу.

Содержание и структура предлогаемого учебно-методического пособия обусловлены актуальными задачами современого учебно- воспитательного процесса. Здесь обобщен практический опыт преподования дисциплин филологического цикла как в традицион ном русле так и с использованием элементов новых педагогических технологий.

При планировании самостоятельной работы необходимо строго учитывать бюджет времени студентов, степень их загруженности,сохраняя разумный баланс заданий по различным изучаемым дисциплинам с учетом направления образования ;

- развитие умений к навыков самостоятельной работы ;
- активизацию самостоятельной познательной и творческой деятельности ;
- воспитание творческого мышления ;
- обучение методам научного познания ;
- формирование умения рационально использовать свое время ;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

- отработка навыков работы с художественными текстами, научной литературой критическими статьями и т.д. ;

- приобщение к литературно-критической, литературоведческой практике и художественному творчеству.

Если на начальной стадии рекомендуется прочтение и пересказ (устный, письменный) изложение художественных текстов, конспектирование литературоведческих и литературно - критических материалов, реферирование, тезирование, аннотирование, составление планов и вопросников по тексту , самостоятельный литературоведческий анализ текста с учетом жанровый и родовой специфики, написание докладов, сочинений, рецензий, курсовых и квалификационных работ , статей, очерков, эссе и др.

Библиография

1. Национальная программа по подготовке кадров. – Ташкент; Шарк 1997
2. Бар Л.Б., Ильин Н.Д. и др. Анализ художественного произведения. –Ташкент: Укитувчи,1995.
3. Браже Т.Г. Целостное изучение эпического текста. -М.: Просвещение, 1964
4. Вахрин П.И. Методика подготовка и процедура защиты дипломных работ по финансовым и экономическом специальностям. Учебное пособие. - М.:2000.
5. Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. Учебное пособие. - М.: Дрюфа,1998.
6. Каганович С.Л. Обучение анализу поэтического текста. Методическое пособие для учителей-словесников. - М.: Русское слово, 2006.
7. Крундышев А.А. Сочинение как вид самостоятельной работы.-М.,1987.
8. Кузин Ф.А. Магистерская диссертация. Практическое пособие для студентов-магистрантов.-М.:Ось,1989.
9. Кутузов А.Г., Киселев А.К., Романичева Е.С. Как войти в мир литературы.-М.:Дрофа, 2001.
10. Ладыженская Т.А. и Зепалова Т.С. Методические указания к факультативному курсу «Теория и практика сочинений разных жанров». Пособие для учителя.-М.:Просвещение,1989.
11. Лотман Ю.М. О поэте и поэзии. Анализ поэтического текста. – СПБ., 1996.
12. Михайлов А.В. Поэт и лирический герой. – Архангельск: Архангельское книжное издательство, 1963.
13. Тимофеев Л.И., Тодоров Л.В. Особенности изучения лирических произведений. Вопросы методики преподавания литературы. – М.: Изд. АПН РСФСР, 1961.
14. Тынянов Ю. Проблема стихворного языка. – М.: Сов. Писатель, 1965.
15. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Просвещение, 2004.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA TAFAKKUR QILISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ME’ZONLARI

Xabibullayev Ubaydullo
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *bo‘lajak kadrlarning tafakkuri keng bo‘lsa, ularning xulosalari ob’yektiv voqelikka yaqinlashadi va real hayotga mos tushadi. Bu esa ularning intellektual salohiyatini ham belgilab beradi. Bugungi pedagogika talabada mantiqiy fikrlashni o‘stirishi, tezkor va aniq xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishi zarur. Talimda talabalarga mantiq fanining o‘qitishlishining ahamiyati muhim ekanligini tushunish zarur.*

Kalit so‘zlar: *tafakkur, ijodiy kompetentlik, shubxa, Zamonaviy pedagogika, informasion aloqa, moslashuvchanlik, Umummadaniy kompetensiyalar*

CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF THINKING COMPETENCE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Habibullaev Ubaydulla
Independent student of Fergana State University

Abstract*: if the thinking of future personnel is broad, their conclusions will be closer to objective reality and correspond to real life. This also determines their intellectual potential. Today’s pedagogy should develop logical thinking in the student, form the ability to draw quick and accurate conclusions. In education, it is important to understand the importance of teaching logic to students.*

Key words: *thinking, creative competence, doubt, Modern pedagogy, informational communication, adaptability, Universal competences*

Kirish

Shu bois, bo‘lajak kadrlarda intellektual kompetentlikni rivojlantirishda tafakkur qilish va shubxa qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ham juda muhimdir. Tafakkur voqelikni ongda umumiy tarzda aks ettirish jarayoni bo‘lib, u ham ma’lum bir ijodiy faollikdir. Tafakkur orqali talaba aniq vaziyatlarda o‘zi uchun muhim, qulay va foydali qarorlar qabul qila oladi. Shunday ekan, fikrlash, ta’lim tarbiya jarayonida talabaga bilish imkoniyatini beradi va aqliy layoqatini oshiradi. Zamonaviy pedagogikada talabalarga bilim berish bilan birga ularni tafakkur qilishga undash va yondashuv berish amaliyoti shakllanmoqda. An’anaviy ma’ruzalar va mashg‘ulotlardan ko‘ra mustaqil ta’limni, erkin izlanish, qoliplardan chiqqan holda o‘qituvchi bilan faqat ma’lum mavzu yuzasidan fikr almashish yoki bahslashish foydali ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Bu esa nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda bo‘lajak kadrlarning intellektual-ijodiy kompetentligini yuksaltirishda zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Yangi shakllanayotgan informasion aloqa muhitida intellektual kapital uchun yangicha imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Interaktiv axborot makonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, talabalar o‘z aqliy qobiliyatlarini o‘stirishda elektron vositalar orqali e’lon qilinayotgan kitob, gazeta va jurnallar, o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlardan faol foydalanish imkoniyati har yerda mavjud. Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan Axborot resurs markazlari faoliyati ham

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bo‘lajak kadrlar intellektual saviyasini o‘stirish, mustaqil izlanishlar olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak mutaxassisning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ham ilmiy-nazariy, ham amaliy darajadagi muammo bo‘lib, bu ishlab chiqarish va inson faoliyatining boshqa sohalarida puxta bilimli salohiyatli xodimlarga ehtiyoji balandligi bilan bog‘liq. Zamonaviy jamiyat nostandart vaziyatlarda mustaqil va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan holda qaror qabul qilishga qodir, o‘z malakasini doimiy o‘stirishga ehtiyoj sezuvchi (faol va tashabbuskor fuqarolar), o‘zini rivojlantirib borishhamda o‘rtacha imkoniyatlar chegaralarini doimiy bartaraf qilishga tayyor, yuksak ijodiy potensialga ega bo‘lgan bilimdon odamlarga muhtoj. Bu intellektni sifatiy rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat olib borishni talab qiladi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, pedagog va talabalar orasidagi bog‘lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir. Bizning tadqiqotimizda pedagogikada innovasion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining didaktik ijodkorlik va tashkilotchilik ijodkorligi turlariga tayanish mumkinligini ta’kidlab o‘tish zarur.

Materiallar va metodlar

Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta’lim berish va ta’lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Ingliz olimi Xeyes o‘rtachadan yuqoriroq intellekt sohibi va ba’zi bir ma’lum ko‘nikmalarni egallagan har bir inson hatto buyuk asarni ham yaratishi mumkin degan fikr tarafdori edi. U: “Ijodiy va ijodiy bo‘lmagan odamlarni ajratuvchi qandaydir kognitiv qobiliyatlar yo‘q,” – deb ta’kidlar edi[1]. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bizning ko‘pchiligimiz ijod uchun zarur barcha narsalarga ega ekanligimizni, ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurning ancha sodda jarayonlardan iboratligini,barchamiz “shoh asar”lar yarata olishimiz, faqat buning uchun boy tasavvurga ega bo‘lishimiz lozimligini anglab yetamiz. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy faollik, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur qilish eng muhimi, chunki bu haqiqatning yangi, muhim xususiyatlarini kashf qilish imkonini beradi.

Ijodkorlik tushunchasi yangilikning vujudga kelishi, tasavvur yaratgan tasvirlarning o‘ziga xosligidir. A.V.Petrovskiy ijodiy tasavvurni quyidagicha tasvirlaydi: «Yaratuvchi tasavvur, yangi o‘ylaydigan tasavvurdan farqli o‘laroq, asl va qimmatbaho mahsulotlarda yaratilgan yangi tasvirlarni mustaqil ravishda yaratishni nazarda tutadi»[2]. Yana bir olim N.Muslimov o‘zining tadqiqotlarida: “Rivojlantirish hamda tarbiya individga nisbatan yagona maqsad – uning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan holda ta’sir qiladi, biroq rivojlantirish bu vaqtda induvid ega bo‘lgan sifatga qaratiladi, tarbiya esa u ega bo‘lmagan, lekin jamiyatda qaror topgan axloqiy me’yorlarda ko‘zda tutilgan sifatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Qayd etilgan omillarga zarur darajada ta’sir ko‘rsatib, ham shaxsni rivojlantirish, ham uni tarbiyalash masalalarini hal qilishi mumkin” deb o‘z mulohazasini bildirgan[3].

Natija va muhokama

Moslashuv: yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; tez o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlik; qiyinchiliklarni mardonovor yengib o‘tish; yangi qarorlar qabul qilish[4]. Rossiya gumanitar ilmiy fondi homiyligida amalga oshirilgan «Universal

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kompetensiyalar – shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida» nomli loyiha doirasida esa oliy ta’lim talabalari uchun quyidagi kompetensiyalar ishlab chiqilgan:

Qadriyatga yo‘naltirilgan ma’no-mazmunga ega kompetensiyalar. Mazkur kompetensiyalar qadriyatli yo‘nalganlik bilan bog‘liq bo‘lib, talabaning atrof-muhitni anglash va tushunish, mo‘ljalni olish, o‘zining o‘rni va ahamiyatini anglash, o‘z xatti-harakatlari uchun maqsadga yo‘naltirilgan va ma’no-mazmunga ega ustanovkalarni tanlay olish qobiliyatlarini tarkib toptirishni talab etadi;

Umummadaniy kompetensiyalar. Milliy va umuminsoniy madaniyat; insoniyat va inson hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari; oila, ijtimoiy hodisa va an’analarning madaniyatshunoslikka doir asoslari; inson hayotida fan va dinning rolini anglash va faoliyat tajribasini egallash;

O‘quv-bilishga doir kompetensiyalar: mantiqiy, metodologik, umumo‘quv faoliyati elementlarini o‘zida aks ettiruvchi mustaqil bilish sohasiga doir o‘quvchi kompetensiyalari yig‘indisi. Bu yerdan maqsadni belgilash, rejalashtirish, tahlil etish, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash kelib chiqadi;

Axborotga doir kompetensiyalar: o‘quv fanlari, ta’limiy sohaga doir va atrof-olamdagi axborotlarga munosabatiga doir faoliyat ko‘nikmalari. Zamonaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda zaruriy axborotlarni izlash, tahlil etish va tanlash hamda ularni qayta ishlash, saqlash va uzatish malakalarini egallash;

Kommunikativ kompetensiyalar: tillarni bilish, yaqin-atrof va uzoqdagi voqeliklar va odamlar bilan o‘zaro harakatda bo‘lish usullari; jamoada va guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, turli ijtimoiy rollarni egallash;

Ijtimoiy-mehnatga doir kompetensiyalar: fuqarolik, kuzatuvchi, saylovchi, rais, iste’molchi, sotuvchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi, oila a’zosi rollarini bajarish. Iqtisodiyot va huquqqa doir masalalar hamda o‘z kasbiy yo‘nalishini aniqlashga oid huquq va majburiyatlar;

Shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga doir kompetensiyalar jismoniy, ma’naviy va intellektual o‘z-o‘zini rivojlantirish, emosional o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zining ruhini ko‘tarish usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan[5].

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Respublika ta’lim markazi tomonidan 2015 yilda loyiha sifatida ishlab chiqilgan uzluksiz majburiy ta’lim tizimi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan bo‘lib, unda talabalarning quyidagi universal kompetensiyalarga ega bo‘lishlari belgilab berilgan:

*Kommunikativ kompetensiya: j*amiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish; o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozisiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshqalar);

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalar) foydalana olish;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanish; ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiya: shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; kasbiy mavqeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish; hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish; mavjud bilimlarini bir bosqichdan ikinchi bosqichga o‘tkaza olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya**si: j**amiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish); o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan muammo va kelishmovchiliklarni hal etish, zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish; mafkuraviy immunitentga ega bo‘lish.

Umummadaniy kompetensiya: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish; badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish; insoniyat tomonidan e’tirof etilgan madiniy ko‘nikmalarga ega bo‘lish (tibbiy madaniyat, ekologik madaniyat, huquqiy madaniyat, nutq madaniyati, muomala madaniyati, musiqa madaniyati, kiyinish madaniyati, iqtisodiy madaniyat, mediya madaniyati, va hokazo); umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish kompetensiyasi: axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalana olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob bilan ish yuritish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish[6].

Kompetensiyalar ta’lim amaliyotida qo‘llanilish darajasiga ko‘ra farqlanishi lozim. Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan loyihada universal va xususiy kompetensiyalar aniqlashtirilgan, biroq umumiy (fanlarga doir) kompetensiyalar e’tibordan chetda qoldirilgan. Ana shu sababli kompetensiyalarni loyihalashda tadrijiylik buzilgan.Demak, oliy ta’lim tizimiga kompetent yondashuvni tatbiq etish talabalarni birinchidan, bilim, ko‘nikma va malaka hamda amaliy faoliyat usullarini shaxsiy tajribaga aylantirish imkoniyatini beradi, ikkinchidan, ular o‘rtasidagi integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi, uchinchidan, talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, mustaqilligi, ijodiy faolligini oshirishini kafolatlaydi, to‘rtinchidan, o‘z navbatida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish yaxlit majmuaviy kompetensiyalarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, bo‘lajak kadrlarda intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish zamon talablar asosida, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichi maqsadlariga uyg‘unlikda shakllantirish talab etiladi. Agar jamiyatni rivojlantirishda ijodkorlikni va innovatsiyalarni intellektuallik bilan integratsiya qila olish kuchli samaradorlikni namoyon qiladi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Adabiyotlar

1. Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, R.Ronning, C.Reynolds, Handbook of creativity, - New York: Plenum, 1989.
2. Petrovskiy A.V. sost. Mironenko V.V. Xrestomatiya po psixologii: uchebnoye posobiye / – Moskva: Prosveщyeniye, 2007. – -B.345.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Ped. fan. dokt. diss. 13.00.08. – T.: 2007. –B.61.
4. Sovet Yevropы: Simpozium po teme «Klyuchevыye kompetensii dlya Yevropы»: Dok. DECS / SC / Sec (96) 43. – Bern, 1996.
5. Strategiya modernizasii soderjaniya obщyego obrazovaniya: Materialы dlya razrabotki dokumentov po obnovleniyu obщyego obrazovaniya. – M.: OOO «Mir knigi», 2001. –S.95.
6. Uzluksiz majburiy ta'lim tizimini bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. – T.: RTM, 2015. –B. 208.
7. Эгамбердиева, Т. А., and О. А. Тоштемиров. "Талаба-ёшларнинг жисмоний фаоллиги ва маданиятини юксалтиришнинг инновацион-педагогик хусусиятлари." Fan-Sportga 5 (2020): 56-59.
8. Abidovich, T. O., and A. A. Adxamjanovich. "Modern socio-pedagogical necessity of increasing communicative competence of future physical education teachers." Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 10.5 (2020): 52-57.
9. Тоштемиров, Отабек Абидович, and Алишер Адхамжанович Аминжонов. "Integration of physical and spiritual education social-pedagogical factors." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.9 (2019): 244-249.
10. Abidovoch, Toshtemirov Otabek. "Modern pedagogical mechanisms of the growth of physical culture among the students trained in the higher education system of uzbekistan." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.7 (2020).
11. Ivanovna, Mixeeva Aleksandra, Toshtemirov Otabek Abidovich Abidovich, and Saidova Aziza Yakubovna. "Strengthening the Health and Spiritual Maturity of Young People through Physical Education and Sports." Central asian journal of medical and natural sciences 2.6 (2021): 64-67.
12. Эгамбердиева, Т. А., and О. А. Тоштемиров. "талабаларнинг жисмоний маданиятини ривожлантиришда инновацион ёндашувнинг зарурияти." Fan-Sportga 2 (2021): 57-59.
13. Абидович Т. О. Научно-педагогическая необходимость повышения компетентности учителей физического воспитания и спорта // Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук «Периодика». – 2023. – Т. 14. – С. 129-132.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI TARKIB TOPTIRISH

Eshnazarova Gulzoda Jurakulovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirishda badiiy adabiyot namunalari, xususan, bolalar folkloridan foydalanish yo‘llari, bu borada ularning ehtiyoj va qiziqishlari, yosh va psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish masalalarini yoritishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha yoshdagi ta’lim muassasalari, kichik kitobxon, kitobxonlik, qiziqish, ehtiyoj, ko‘nikma, badiiy asar, topishmoq, maqol, tez aytish, er*tak.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БИБЛИОТЕЧНЫХ НАВЫКОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ ГРУПП ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Эшназарова Гульзода Жуакуловна
Преподаватель Узбекско-Финляндского педагогического института

Аннотация: *Статья посвящена освещению вопросов использования примеров художественной литературы, в частности детского фольклора, с учетом их потребностей и интересов, возраста и психологических особенностей в развитии навыков чтения детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *Дошкольные образовательные учреждения, маленький читатель, чтение, интерес, потребность, умение, художественное произведение, загадка, пословица, скороговорка, сказка.*

IMPROVEMENT OF LIBRARY SKILLS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS TRAINING GROUP EDUCATORS

Eshnazarova Gulzoda Jurakulovna
Teacher of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Annotation: *The article is dedicated to highlighting the issues of using examples of fictional literature, in particular, children’s folklore, taking into account their needs and interests, age and psychological characteristics in developing the reading skills of preschool children.*

Keywords: *Preschool educational institutions, small reader, reading, interest, need, skill, work of art, riddle, proverb, quick telling, fairy tale.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan “Bolajon” tayanch dasturi, mazkur dastur asosida maxsus adabiyotlarning yaratilishi yoki “Maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar adabiyotidan samarali foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma”lar ishlab chiqilganligini mazkur sa’y-harakatlarning amaliy namunasi sifatida baholash mumkin.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Aqliy va jismoniy kamolot tarbiyasi bevosita kitobxonlikka bog‘liqligi M.Nigmatovaning maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari yoritilgan dissertatsiyasida o‘z aksini topgan. I.To‘ychievaning tadqiqot ishida kitobxonlik muammosi maktabgacha ta’lim muassasalari tayyorlov guruhida bolalarning fikrlash faolligini rivojlantirish masalasi bilan bog‘liqlikda o‘rganilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari S.Raximova, Z.Qodirovalarning ilmiy izlanishlarida tahlilga tortilgan bo‘lib, soha mutaxassislarining kasbiy mahorati, tajribasi va kompetentliligi bevosita yosh bolalar kitobxonlik ko‘nikmalari rivojida muhim o‘rin tutishiga bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Bola maktabga borgunga qadar kitobxon emas, balki ko‘proq tinglovchi, tomoshabin bo‘lsa-da, kitob unga dunyoning jamiki ajoyibotlarini bilishga ko‘makchi vazifasini bajaradi. SHuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligiga rahbarlik qilish, ularda kitobxonlik ko‘nikmalarini ijtimoiy tarixiy tajribalar hamda zamonaviy usullar vositasida tarkib toptirish dolzarb masalaga aylandi.

Ma’lumki, 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati va shaxs sifatidagi individual xususiyatlari shakllana boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi tarbiya shu qadar mazmundor va faol davrki, bu uning hayotida, albatta, o‘zining yorqin izini qoldiradi. Bu davrda bolaning yashash tarzi, fe’l-atvorida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. Birinchidan, uning mustaqilligi ortadi, o‘yinlari, xatti-harakatlari ham o‘zgacha mazmun kasb etadi. Ikkinchidan, bolaning nutqi tiniqlashadi, so‘z zaxirasi ortib boradi. Uchinchidan, maxsus pedagoglar tomonidan muayyan dasturlar asosida tarbiyalanadi. Bunday o‘zgarishlar jismoniy va psixik jihatdan kamol topayotgan bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida bola faoliyati mazmunini boyitib borish, yangi bilimlarni egallashning qiziqarli yo‘llarini joriy qilish davr talabidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining uch asosiy turi mavjud bo‘lib, ular tarkibiga o‘yin, ta’lim va mehnat faoliyati kiradi. O‘yin faoliyatining mohiyati muayyan bilimlar, harakatlar va amallarni o‘zlashtirishga qaratilgan. “O‘yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid qilish va rol orqali ijro etishga harakat qiladi, shu yo‘sin atrof-muhitga doir, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o‘zlashtira boradi”. [1,61].

Maktabgacha yoshdagi bolalar harflarni tanishi, tovushlarni farqlashi, eshitganlarini hech bir qiyinchiliklarsiz qayta hikoyalashi, yodlab berishi mumkin, lekin bu hali ularda kitobxonlik ko‘nikmasi tarkib toptirildi degani emas.6–7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning nutqi, o‘qish va savodga tayyorgarlik darajasi, aqliy faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik vazifalarning hal qilinishi bu yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga mosasarlarni tanlash bilan chambarchas bog‘liq. Maqol, topishmoq, she’r, ertak, hikoya kabi janrdagi namunalarni e’tibor bilan tinglashga o‘rgatish,eshitganlarini qayta so‘zlashi, ulardagifikrni aniqlashi va tushunishiga doir muayyan vazifalarning belgilanishi va izchil ravishda amalga oshirilishi orqali bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarining ilk elementlari tarkib topa boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning san’at va adabiyotga oshno bo‘lishi, badiiy faoliyatni egallashi borasidagi imkoniyatlari keng. Ular san’atni oddiy, obrazli va hissiy qabul qiladilar. Badiiy obrazlarni qiyoslash asosida muayyan xulosalar paydo bo‘ladi. To‘rt yoshli bola badiiy matni emotsional va yaxlit qabul qilishi, tushunganini nutqida (qayta hikoyalash, yoddan aytish, savollarga javob qaytarish) hamda o‘yinli vaziyatlarda ham ifodalay olishi mumkin.Bir necha

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

personajlarni ajrata olishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashi asosida asar syujetini gavdalantirishga urinadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda adabiy matn mazmuni amaliy va o‘yin faoliyatiga yaqin bo‘lgan xatti-harakatlar orqali qabul qilinadi. Ya’ni asar bilan to‘laqonli muloqotga kirishishi uchun bola uni tinglashi, suratlarini tomosha qilishi, kitobni ushlab ko‘rishi, matnning ba’zi o‘rinlarini deklamatsiya qilishi yoki baland ovozda aytib yurishi, ularni ayrim hayotiy vaziyatlarda qo‘llashini aniqlash zarur bo‘ladi. Mazkur yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralash mumkin emas.

Bola hayotining beshinchi yilidan badiiy matnning mazmun-mohiyatini tushunishga yo‘naltirish ishlari boshlanadi. Pedagoglar muloqotlar chog‘ida bola harakatlari va fikrlarining asarga qay darajada to‘g‘ri kelishi xususida to‘xtamlarga keladi. Aksariyat bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda ifodalashda qiyinchilik sezadilar. Biroq uning mazmunini suratlar, o‘yinli vaziyatlar, kattalar va tengdoshlari o‘rtasidagi dialoglar orqali tushunishlarini ko‘rsata biladilar.Besh yoshda badiiy matnni hissiy-yaxlit qabul qilishi namoyon bo‘ladi. Bular syujetning ayrim elementlarini ajratish, qahramonlar bilan birga “o‘ynash” hollarida kuzatiladi. Ayni vaqtda bolalar asar syujetini o‘z tasavvuridagi uydirmalar bilan to‘ldiradilar. Ba’zi o‘rinlarni shaxsiy qarashlari, ideallari asosidagi obrazlar bilan boyitadilar, o‘z ijodini o‘yin syujetlari asosida shakllantirishga urinadilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asta-sekinlik bilan tez aytish, topishmoq, maqol, ertak kabi adabiy janrlarni ajrata biladilar hamda ularda qo‘llanilgan o‘xshatish, jonalantirish, sifatlash kabi ifoda vositalarini tushuna boshlaydilar. Asardagi kayfiyat (quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, hayrat, g‘azab kabi)ni turli intonotsiyalar orqali bayon qilish imkoniyati orta boradi.

Uch-to‘rt yoshli bolalar adabiy qahramonlarni taniydilar, ularni yaxshi ko‘radilar. Ko‘p hollarda kattalardan o‘zlari yoqtirgan asarlarni o‘qib berishni yoki hikoyalashni so‘raydilar. Adabiy qahramonlarga taqlid qilib, ularning nutqidagi ayrim jumlalarni takrorlab yuradilar, xatti-harakatlarini ijro etib beradilar. Besh yoshda esa ayrim lavhalar va personajlarni afzal ko‘rishi ko‘zga tashlanadiki, bu hol bolaning adabiy tajribasi ancha boyigani va umumlashganidan darak beradi.

Yosh va individual xususiyatlari doirasida bolalar adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantiruvchi vazifalarni olib borish maqsadga muvofiq:

- she’r, ertak, hikoya kabi turli janrdagi asarlarni tinglash, mazmuniga munosabat bildirish, syujet rivojini kuzatib borish ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- ayrim asarlar yoki qahramonlarning o‘xshash jihatlari bilan tanishtirish, ularni qiyoslash;
- tanish asarlarmazmunini qayta hikoyalatish, rollarda jonlantirish hamda ulardagi ayrim epizodlarni sahnalashtirish;
- she’riy namunalaring o‘yinli variantlarini yaratish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning so‘z boyligi va fikrlash jarayonining tezligi kitobxonlik ko‘nikmalari tarkib topishi bilan uyg‘un holda kechadi. O‘z nutqini to‘g‘ri tuza bilish bolalarbop badiiy adabiyotlar mazmunining qanchalik o‘zlashtirilganligiga bog‘liq. Kitob o‘qiganda bolaning lug‘at boyligi ortadi, obrazli fikrlashi tiniqlashadi, nutqi ravonlashadi. SHu bois kichik tarbiyalanuvchilarini kitobxonlikka o‘rgatishda xalq og‘zaki ijodi namunalari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etadi. Bu yoshda, ayniqsa, ularda chorlashma, cheklashma, aytishma o‘yinlar, yarashtirgich, topishmoq,tez aytish, maqol va ertaklarga bo‘lgan qiziqish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

kuchli bo‘ladi. Jumladan,chorlashma, cheklashma, aytishma, yarashtirgich va sanamalarning harakatli o‘yinlar bilan uyg‘unlikdagi ijrosi bola aqliy va jismoniy kamolotiga ijobiy ta’sir qiladi.

Bola bilish jarayonlari rivojida topishmoq janrining o‘rni beqiyos. U bolaning borliq, predmet, narsa va hodisalarning muhim belgilari va xususiyatlarini idrok qilishi va anglashida alohida o‘rin tutadi. SHunday ekan, tarbiyachi pedagoglar mashg‘ulotlarda bolalarni topishmoq janrini o‘rganishga yo‘naltirishning optimal usullarini tanlashlari va qo‘llashlari zarur.Natijada bolada aqliy faoliyatini charxlaydigan faol ish turlariga nisbatan motivatsiya yuzaga keladi, boshqalar oldida o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishga ehtiyoj uyg‘ona boshlaydi. Xususan, “Qator-qator tosh terdim, Jayron otni bo‘sh qo‘ydim” (tish va til), “Guli to‘rtta yarim oy, Boshginamdan olar joy” (do‘ppi), “Tunda ko‘rib cho‘g‘ deysan, Tongda ko‘rib yo‘q deysan” (yulduz) [2,79] kabi topishmoqlar javobini topish, javoblarga ikkilanganda *“shahar berish”*, shuningdek,jarayonda ma’lum bir vazifani bajarish shartini ado etish, ya’ni *aytuvchi bilan topuvchi o‘rtasidagi dialoglar* o‘ta maroqlidir. Muhimi bolada bu janr namunalari bilan ishlashorqali sinchkovlik, hushyorlik va topqirlik xususiyatlari rivojlanadi. Topishmoq aytish va javobini izlash jarayoni keyinchalik bolaning o‘zida ham topishmoq to‘qish, topishmoqlarga doir yangi kitoblarini topib o‘qish, rasmlarini tomosha qilish, chizish, ba’zan turli ashyolardan o‘sha predmetlarni yasab ko‘rishga rag‘bat uyg‘otadi.

Topishmoqlarning bolalarga aqliy hordiq berishi qatorida chamalash, taxmin qilish, xulosalash, matematik fikrlash, shuningdek, fakt va bilimlarni *uqtirish yo‘li* bilan etkazish xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, “Qat-qat qatlama, aqling bo‘lsa tashlama” topishmog‘ida yashirin predmet (kitob)ning aziz va mo‘‘tabarligiga ishora seziladi. Topishmoqlar barqaror diqqatni, o‘ylash qobiliyatini rivojlantirishi nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir.

Ertaklarning *sahnalashtirilishi* maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligini tarkib toptirishda kutilgan natijalarni beradi. Ertak syujetidagi ayrim qiziqarli epizodlarning sahnalashtirilishi ba’zan boshqa tarbiyalanuvchilardan sir tutilsa, mashg‘ulotning mo‘‘jizaviyligi va favqulodda yangilik sanalishi kuzatishlardan yaxshi ma’lum. Chunki bunda tasavvurlar jonlanadi, badiiylik hayot bilan uyg‘unlashadi. Sahna qismidan so‘ng o‘quvchilarning ertak mazmuni, qahramonlarning xatti-harakatlari haqidagi fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashish yoki “Men ... ertagi qahramoni o‘rnida bo‘lib qolsam...”, “Men ertaklar olamiga tushib qolsam” kabi mavzularda *suhbatlar tashkil etish* nutq o‘stirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Masalan, maktabgacha ta’lim muassasalari katta yoshli tarbiyalanuvchilariga mo‘ljallangan Shukur Sa’dullaning “Chol bilan bo‘ri” ertagini sahnalashtirishda dastlab pedagogning o‘zi matn bilan yaqindan tanishishi, so‘ngra ishtirok etuvchi (chol, tulki, bo‘ri, ovchilar obrazini gavdalantiruvchi bolalar)larni tanlashi, sahna dekoratsiyasi (chakalakzor), qahramonlarning nutqi va liboslari ustidaishlashi zarur bo‘ladi.

Sahnalashtirish jarayoni syujet chizig‘idagi: qopqonga tushgan Tulki, qo‘lida qop va arqon ko‘targan Chol, uning tulkini chuqurdan tortib olishi; ovchilardan qochgan Bo‘rini chol qopga yashirishi; mergan va chol suhbati, nodon bo‘rining cholga hamlasi; Tulkining cholni Bo‘ridan qo‘tqarishi kabi lavhalardan iborat bo‘ladi. Bunda CHolning soddaligi, Tulkining ayyorligi, Bo‘rining yovuzligi kabi tushunchalar bolalarning ma’naviy dunyosiga, hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi, albatta. Ertak qahramonlari xatti-harakatlari misolida bolalar yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash namunasiga guvoh bo‘ladilar va tegishli xulosalarga keladilar. Demak, ertaklarni o‘rganish bolalarda ongli o‘qish, o‘qiganlarini qayta hikoyalay bilish,harakatlar bilan uyg‘unlikda jonlantirish kabi nutqiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar kitobxonligiga rahbarlik qilishda quyidagilarsamaradorlikni ta'minlaydi:

• pedagog bolalarning eng qiziqarli fikrlarini, ular tomonidan o'ylab topilgan ertak va hikoyalarini to'plashi (ular asosida bolalarning o'zlari tomonidan jurnal yoki kitoblar yaratish ishlarini tashkil qilishi, ularni rasmlar bilan bezatish ishlariga ko'maklashishi);

• tarbiyalanuvchilarga o'zlariga yoqqan asarlar bilan bog'liq vazifalar yuklatishi **(**bunda ularga qaysi asarlar yoqishi; asar nima haqida ekanligi; asarda kimlar yoki nimalar haqida so'z borishi; asarda yana qaysi personajlar ishtirok etishi; asar qanday yakunlanishi haqidagi savollarga javob topiladi);

• asarga ishlangan rasmlarni syujet rivojiga qarab tartib bilan joylashtirish topshirig'iniberish (bunda rasmlar orasidan ortiqcha personajning rasmi chiqsa, olib qo'yilishi, pedagog taklifi bilan ushbu qahramon ham asarda ishtirok etsa, voqealar rivojida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi);

• bolalar e'tiboriniyoqtirgan janrdagi asarlaridagi harakatli, ma'naviy yoki so'z o'yinlari ishtirok lavhalarni aniqlashga qaratish (ertaklardagi qo'shiqlar, ayrim leytmotivlar).

• bolalarga kichik nasriy matnlar va she'rlar mazmunini ifodali etkazish hamda ularni yoddan aytib berishni o'rgatish;

• badiiy asarlarning, xususan, ertaklarning o'ziga xos tuzilmasi, personajlari va syujeti yuzasidan tasavvurlarni tarkib toptirish;

•kitob do'konlari yoki kutubxonalarga sayohatlar uyushtirish (bunda bolalarga rastalar yoki o'quv zalidagi kitoblarni varaqlash, kitoblarni tanlash va o'zi bilan olib ketish imkoniyatini berish kabilar).

Xulosa qilish mumkinki, kichik maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilar kitobxonlik ko'nikmalarini tarkib toptirish ularning yosh va individual xususiyatlari, nutqiy rivojlanishi, badiiy asarlarni qabul qila olish imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, ushbu bosqichda bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini yaratish, bo'lajak o'quvchi sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziyev E. Psixologiya. –T.: O'qituvchi, 2008. – 352 b.
2. Badiiy terma kitob. Bog'chalarning katta guruhlari uchun. Tuzuvchi-mualliflar: S.G'ozieva, D.Ochilova, L.Dolimova. –T.: O'qituvchi, 1993. – 192 b.
3. Raximova S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish. Ped. fan. diss. (PhD). –T.: 2020.
4. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Faylasuflar, 2017. – 496 b.
5. Badiiy terma kitob. Bog'chalarning katta guruhlari uchun. Tuzuvchi-mualliflar: S.G'ozieva, D.Ochilova, L.Dolimova. –T.: O'qituvchi, 1993. – 192 b.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

UNSURUL-MAOLIY KAYKOVUSNING QOBUSNOMA ASARIDA KASB HUNARGA OID FIKRLARNING IFODALANISHI

Shoira Rahimova Adilbekovna-
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Unsurul-Maoliy Kaykavusning "Qobusnoma" asaridagi kasb-hunarning inson hayotidagi o'rni haqida fikr yuritilgan bo'lib turli masalalar yuzasidan keng mulohaza yuritilgan, kasb-hunarga bo'lgan o'zning ilmiy qarashlari asosida sifatlar mushohadasi asosida tahlil qilib berilgan. Unsurul-maoliy Kaykovusning "Qobusnoma" asarida jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligi ta'kidlab o'tilgan.*

Kalit so'z: *kasb-hunar, bilim, qiziqish, aql, mehnatkash, qobiliyat, tarbiya.*

ВЫРАЖЕНИЕ МНЕНИЙ ОТНОСИТЕЛЬНО ПРОФЕССИЙ В КАЙКОВУСА

Шайра Рахимова Адильбековна-
Независимый студент Ургенчского государственного университета

Аннотация: *В данной статье в произведении Унсурул-Маолий Кайкавуса «Кобуснома» рассматривается роль профессии в жизни человека, обсуждаются различные вопросы, а также анализируются его научные взгляды на профессию, основанные на наблюдении за качествами. Унсурул-Маолий Кайковус в своем произведении «Кобуснома» также подчеркивал необходимость профессии наряду с наукой в развитии общества.*

Ключевые слова: *профессия, знания, интерес, интеллект, трудолюбие, способности, образование.*

EXPRESSING OPINIONS REGARDING PROFESSIONS IN KAIKOVUSA

Shaira Rakhimova Adilbekovna-
Independent student of Urgench State University

Annotation: *In this article, Unsurul-Maoliy Kaykavus's work "Nightmare" discusses the role of profession in human life, discusses various issues, and analyzes his scientific views on profession based on the observation of qualities. given Unsurul-maoli Kaikovus in his work "Nightmare" also emphasized the necessity of profession along with science in the development of society.*

Key words: *profession, knowledge, interest, intelligence, hardworking, ability, education*

Mehnatsevarlik inson faoliyatining asosiy amalga oshiradigan jarayondir. Xalol mehnat inson hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Halol mehnat bilan tirikchilik qilish va yashash inson hayotining bezagidir.

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi [1] – deb ta'kidlagan Sh.M.Mirziyoyev. Demak, kelajak avlodning kasbiy yetukligi, to'g'ri kasb tanlashi va mohirona olib borishiga e'tibor qaratilishi hozirgi kunnig dolzarb mavzularidandir. Shu bois donolar "Mehnat kishilik jamiyatining eng zarur shartidir" deb bejiz aytmaganlar. Buyuk alloma Baxouddin Naqshbandiyning "Dil ba yoru-dast ba kor" nomli mashhur hikmati bugungi kunda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hunarsiz odam o'qishga qabul qilinmagan. Buning sababini Naqshband shunday izohlagan: "Agar kishining hunari bo'lsa, u bilimini haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bilimni kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unitadi", deydi.

Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'llarini jiddiy suratda belgilab boorish jiddiy masala. Buning uchun maktablardagi togaraklar muhim o'rin tutadi, fan to'garaklarida bolalar texnik saviya va bilimlarini kengaytiradi, asb tanlasgga tayyorlanadi. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun "ishlab chiqarish asoslari, kasb tanlash" kursi o'qitiladi. Kasbga yo'naltirish umumiy o'quv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ota-onaning ham roli kattadir. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'limni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib boorish orqali turli yoshdagi maktab o'quvchilarida mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirish, kasb-hunarga nisbatan qiziqishini o'stirish mumkin [2,122].

Unsurul-maoliy Kaykovus ham "Qobusnoma"asarida jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari bo'lmasa, undan battarroqdur. Jahd qilg'il, agar gavharing har nechakim asl bo'lsa, unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila ziynatlangan bo'lnasa, u hech narsaga arzimag'usidir. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'urra bo'lmag'il ... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il»·[3].Kaykovus tomonidan asarda turli kasb egalari ulug'langan bo'lib kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya qilgan. Fanni amaliyot bilan birga uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanalgan.

Asarda Kaykovus bir qancha kasb egalarining faoliyati haqida ham alohida ta'kidlab o'tgan va o'zning ilmiy qarashlari asosida munajjimlik, yer o'lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyatini ham yoritadi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega kishi bo'lganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o'ta muhimligi bilan diqqatga sazovordir. Masalan, «Dabirlik va kotiblik zikrida» 39-bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va ko'proq mashq qilishlikni maslahat beradi, toki yaxshiroq natijaga erishguncha. U xat yozishda saj'ga rioya etishlik, har bir so'zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Xattotlikning ulug' hunar ekanligi, ammo bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada asarda bir qancha ibratli hikoyatlarni keltirib o'tadi.

Insonning kasb-hunarga oid «Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida» 43-bobida ham diqqatga sazovor.

Tadqiqotchilar shu vaqtgacha Kaykovusni faqat yuqori tabaqa vakillari manfaatini ko'zlagan tarbiyashunos sifatida biryoqlama talqin etdilar. Aslini olganda Kaykovus yuqori tabaqa vakillarini ham ilm, hunar egallashga, mehnat qilishga undagan. Ayniqsa, «Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida» bobida ham u, avvalo, dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda yerni tarbiya qilish, tezkor va g'ayratli bo'lishni ta'kidlaydi. Boshqa hunarlarni egallashda ham rostgo'y bo'lish, xiyonat qilmaslik, muhtojlarga yordam qilish kabi xislatlarga ega bo'lishga undaydi. Shuningdek, uning bozor bilan bog'liq kasb-hunar kishilariga bergan o'gitlari qiziqarli.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Masalan, u: «Bozor xalqi bila bozori bo'lg'il. Tosh va tarozini rost qilg'il. O'z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo'lmag'il. Sheriklaringga hiyonat qilmag'il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag'il va hamisha hamma ishingni birdek qilg'il. Agar moldor bo'lsang, muhtojga qarz bermoqni g'animat bilg'il»,[3]. deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu pand-nasihatlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga nisbatan bab-baravar zarur bo'lib hisoblanadi. Bu bilan Kaykovus yoshlarda kasb-hunarga bo'lgan mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shug'ullanish lozimligini aytib o'tadi.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Qadimdan ota-onalarimiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan bolani mehnatga o'rgatishda, kasb-hunarga qiziqtirishda alohida e'tibor berganlar. Farzandlarini layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. Shu o'rinda har bir ota-ona farzandning qaysi kasb egasi bo'lishini oldindan jiddiy e'tibor berib ularni ilm-fanga bo'lgan bilimlarini kasb-hunar egallasjliklariga qarab yo'naltirishgan. "Inson kasb-kori uning husni" deyishadi. Dehqonchilik, bog'dorchilik, tikuvchilik, naqqashlik, ganch-o'ymakorlik, duradgorlik, zardo'zlik kabi kasblar bir necha asrlardan buyon xalqimiz mehnat faoliyatidan keng o'rin olgan. "Kasb muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turidir. Unga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi.

Kaykovus yoshlarni turli kasb egasi bo'lishini va turli turdagi hunar egallashliklarini tavsiya qiladi, ya'ni u xalqqa hunar va kasbni harbiy kishiga harbiy ilmlarni so'vga bo'lishini, ot minishni, chavgon urishni, kamon tanlashni o'rganishni tavsiya qiladi. "Hunarni o'z vaqtida o'rgansak, agar bir soatni bekor o'tkazmasang, agar dono kishi hozir bo'lmasa, hunarni nodondin o'rgangil, har vaqtda ko'ngil ko'zi va aql nazari bilan nodonga boqsang, uning nopisandidan ishlarin ko'rib undan parxez qilursan". Kaykovus o'zining yaxshi fazilatlar va hunar sababli bolang qadr va martabasi borligini bilib, yanada avvalgi kishini haqiqiy hunarmand deb biladi.

U jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: "Agar kishi har qancha oily nasab va asl bo'lsayu ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat - hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim bo'ladur, nasl bilan emas: otni senga ota-onang qo'ymishlar sen unga garra bo'lmagil, ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lgil " deydi u.

Shuning uchun asarda Kaykovus tomonidan turli kasb egalari ulug'lanadi. Kaykovus kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya qiladi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanaladi. Asarda munajjimlik, yer o'lchash, musiqa tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek tibbiyot ilmiga oid qarashlari bo'lganligidan dalolat beradi. Uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tadbiq etishga o'ta muhimligi bilan diqqatga sazovardir. Masalan: "dabirlik va kotiblik zikrida" nomli 39- bobda. "Ey farzand, agar dabir) ish yurituvchi) va kotib bo'lsang, yozma nutqni yaxshi egallagin, xatni yaxshi bilgil va ko'p yozmoqni odat qilgil, toki yaxshiroq moxir bo'lgaysan" [3] deydi. U ham yozishda (nasriy kofiya) rioya etish har bir so'zni yoqimli, tushunarli qisqa yozish,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

zukko va sezgir bo'lishni takidlaydi. Xatni istioralar, ibratli fikrlar bilan boyitgil deb maslahat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Kaykovus asarining inson hayotidagi kasb-hunarga bo'lgan fikrlari pedagogik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak fazilatlar o'z aksini topgan.

Shuningdek Kaykovusning "Qobusnoma" asarini tahlil qilar ekanmiz inson hayotidagi kasb-hunarning asosiy o'rni unig mehnati, ilmi, bilimi va olgan tarbiyasiga ham bog'liq.

Mehnat tarbiyasining asosiy qismi kasbga yo'naltirish hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish-bu o'quvchiga mehnat bozoriga imkoniyat va ehtiyojlariga mos keluvchi kasbni tanlashlariga yordam berish jarayoni hisoblanadi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat hamda o'quvchilar ishlab chiqarish mehnatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga ko'ra o'quvchilar muayyan kasb yoki hunar borasidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi. [4,120].

Unsurul-Maoliy Kaykovus asarda ilmni uchga bo'lib: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm; ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat kabi muhim ilmini ta'kidlab bular orqali tarkib topgan bilimlariga bugungi kun bolasiga ham tegishli bo'lgan katta hazina hadya eta oldi desak adashmaymiz.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiyamaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan to'laqonli ta'minlash zarurati kabi omillarni e'tiborda tutish joizdir [5,220].

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u bugunki kun yoshlarini hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama yetub shaxs bo'lib voyaga yetishishida kamol topishida bu asarning ualrga yetkazishdagi nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» 2017. -136 б.
2. X.Ibragimov, Sh. Abdullayev. Pedagogika nazariyasi.-T., "Fan va texnologiya" , 2008, 174-b.
3. Kaykovus, "Qobusnoma".-T., "O'qituvchi", 2009, 49-bet.
4. M.S.Salayeva, "Umumiy pedagogika" -T, "Nodirabegim" 2021, 233-bet.
5. Nishanova Z.T., Alimboeva Sh.T., Sulaymonova M.V. Psixologik xizmat. -T.: 2014. -407 б.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA "AXBOROT TEXNOLOGIYA"LAR FANINI O'QITISH METODIKASI

Ergashev Jasurbek Abduraubovich
Namangan davlat universiteti
erkin tadqiqotchisi, uquv_86@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada, mamlakatimizdagi o'rta maxsus ta'lim tizimi islohoti, ta'lim mazmunini hozirgi ilmiy bilim darajasiga muvofiqlashtirishga, barcha o'quv ishlar samaradorligini oshirishga va boshlang'ich sinflarda raqamlashtirish jamiyatiga o'tish sharoiti, ta'lim mazmunini hozirgi ilmiy bilim darajasiga muvofiqlashtirishga, barcha o'quv ishlar samaradorligini oshirishga va boshlang'ich sinflarda raqamlashtirish jamiyati. Boshlang'ich sinflarda "axborot texnologiya"lar fanini o'zgacha yondashuv orqali o'qitish to'g'risida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, informatika, raqamlashtirish, ta'lim muhiti, axborot-kommunikatsiya.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА "ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

Эргашев Джасурбек Абдурабович
Свободный соискатель Наманганского государственного университета
uquv_86@mail.ru

Аннотация: *В статье рассмотрены реформа системы среднего специального образования в нашей стране, условия перехода на современный уровень научных знаний, повышение эффективности всей образовательной деятельности и цифровизация общества в начальных классах, совершенствование эффективности всей образовательной деятельности и цифровизации общества в начальных классах. Описан особый подход к преподаванию науки «информационные технологии» в начальных классах.*

Ключевые слова: *Информационные технологии, информатика, цифровизация, образовательная среда, информация и связь.*

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy yetish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirishni davlatimiz rahbari o'z farmonlarida ya'ni «Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasi aytib o'tdilar [1].

Bugungi kun talablardan kelib chiqib, mamlakatimizdagi o'rta maxsus ta'lim tizimi islohoti, ta'lim mazmunini hozirgi ilmiy bilim darajasiga muvofiqlashtirishga, barcha o'quv ishlar samaradorligini oshirishga va boshlang'ich sinflarda raqamlashtirish jamiyatiga o'tish sharoitida faoliyatga tayyorlashga qaratilgani bejizga emas. Chunki, raqamlashtirilgan sharoitda

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

axborot texnologiyalarni ta’lim mazmunining ajralmas qismiga, o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish, eng maqbul variantlarni tanlash vositasiga aylanmoqda, qolaversa, ta’limni rivojlantirishning ko‘plab tamoyillarini amalga oshirishga hissasini qo‘shmoqda.

Raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalarni o‘qitishning asosiy maqsadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qisqa vaqt ichida juda katta hajmdagi axborotni o‘zlashtirishga, anglashga, tushunishga va ulardan foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. An’anaviy o‘qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalarining, shu jumladan raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinflarda “axborot texnologiya”lar fanini o‘zgacha yondashuv orqali o‘qitish o‘qituvchiga ushbu qiyin vazifani hal qilishda yordam berishi mumkin. Sinfda kompyuterdan foydalanish dars jarayonini qiziqarli va individual yondashishga imkon beradi.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini dars mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. O‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida boshlangich sinflarning dars mashg‘uloti paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ulug‘ donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», deb ta’rif berishgan.

Ma’lumki, raqamlashtirish ta’lim muhitida ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Fanni o‘qitish usullari va texnologiyasiga zamonaviy ta’limning asosiy vazifalari qatorida raqamlashtirish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hayotga moslashtirish, kelajakda mehnat bozorida o‘ziga munosib o‘rin topish, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini singdirish, olingan bilimlardan ijodiy foydalanish kiradi. Raqamlashtirilgan sharoitda axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodikasida pedagogik texnologiyalar va ta’lim texnologiyalari tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limni axborotlashtirish jarayoni axborot texnologiyalariga asoslangan pedagogik nazariya va amaliyotni rivojlantirish orqali ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishishning yo‘naltirilganligidir [2]. O’quv jarayonida bunday kontentdan foydalanish o‘quv jarayonining tuzilishi, mazmuni va tashkil etilishidagi o‘zgarishlar tufayli talabalarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini to‘liq hisobga olish, shuningdek, ta’limning barcha darajalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish imkonini beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’lim resurslarini yaratish ko‘pincha fan o‘qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi va ularning ijodkorligi natijasida o‘quv materialining alohida mavzulari bo‘yicha turli mazmunga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, olingan materiallarning didaktik talablar va elektron ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi har doim ham kuzatilmaydi.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

“O‘zbekistonning ta’limni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati to‘g‘risida” masala Xalqaro kongressida ko‘rib chiqilgandi [3]. Uning doirasida axborot texnologiya fanini o‘qitishning ustuvor muammolari ko‘rsatilgandi:

- informatika bo‘yicha asosiy tayyorgarlik;
- o‘qitishning zamonaviy axborot muhitini yaratish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish;



1-rasm. Axborot texnologiya fanini o‘qitishning ustuvor muammolari

-ta’limni boshqarishning yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalari;

- masofaviy o‘qitish va boshqalar (1-rasm).

Sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o‘tishga xos bo‘lgan ushbu muammolardan har biri turli nuqtai nazarlardan o‘rganilishi mumkin, lekin

bir-biridan ajratilgan holda alohida fanda: falsafada, kibernetikada, informatikada, psixologiyada va pedagogikada hal etilishi mumkin emas.

Tizimli yondoshuv asosida invariant kurs o‘quv dasturlarining mazmundorligini aniqlaymiz hamda maktab va OTMdagi “Informatika” va “Axborot texnologiyalari” o‘quv fanlarining negizini tashkil etuvchi o‘rganiladigan beshta asosiy mazmun tarmoqlarini ajratamiz (2-rasm):

1. Axborot. Axborot jarayonlari.
2. Kompyuter. Hisoblash texnikasi.
3. Modellashtirish. Algoritmlash. Dasturlash.
4. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar.
5. Ijtimoiy informatika.


O’quv dasturlarining invariant qismini o‘rganish umumta’lim maktabida informatikani o‘qitish jarayonida “spiral bo‘ylab” tashkil etilishi lozim.

Dastlab – barcha o‘rganiladigan mazmun tarmoqlarining tushunchalari bilan tanishish, so‘ngra, navbatdagi o‘qitish pog‘onasida, – o‘sha modullarning masalalarini o‘rganish, lekin endi sifat jihatidan yangi asosda, chuqurroq, ushbu tarmoqqa tegishli bo‘lgan ayrim yangi tushunchalarni qo‘shgan holda. Informatika uchun ajratilgan o‘quv soatlari soniga bog‘liq

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

ravishda bunday “o‘ramlar” ikkita yoki uchta bo‘lishi mumkin, oliy ta’lim muassasalarida esa modullarni chuqurlashtirilgan va ixtisosga qaratilgan o‘rganish bilan yangi “o‘ram” ketadi. O‘qitishda bunday yondoshuv "maktab-OTM" tizimida informatika va axborot texnologiyalari kursining izchilligini ta’minlaydi, maktabda olingan informatika sohasidagi bilimlarni tartibga soladi va bo‘lajak kasbni hisobga olgan holda OTMda chuqurlashtiradi, axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlashning zarur ko‘nikmalarini, malakasini shakllantiradi, boshqa fanlarni o‘rganishda ularning amaliy qo‘llanishini kengaytiradi.

Informatika va ATdan maktabda va OTMda dars berishga oid me’yoriy hujjatlarni hisobga olgan holda, har bir tarmoq mazmunining tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqamiz [4,5].



2-rasm.“Informatika” va “Axborot texnologiyalari” o‘quv fanlarining negizini tashkil etuvchilari.

1. Axborot. Axborot jarayonlari.

Informatikani o‘rganishning maktab darajasida ushbu mazmuniy tarmoqqa quyidagi mavzularni kiritish kerak: “axborot” tushunchasining ta’rifiga nisbatan asosiy yondoshuvlar; axborot turlari va xususiyatlari; axborot miqdori va o‘lchov birliklari; axborot jarayonlarining tasnifi; axborotni kodlash; kodlash tillari; axborot qidirish va tanlash; qidirish uslublari; tanlash mezonlari; axborotni saqlash; axborotni himoyalash. OTM darajasida kiritilgan tushunchalarni chuqurlashtirish va kengaytirish kerak bo‘ladi: “modda-quvvat-axborot” uchligi; axborot jarayonlari va axborot texnologiyalari; axborot yondoshuvi ilmiy bilishning asosiy uslubi sifatida; axborot dunyoqarashi.

2. Kompyuter. Hisoblash texnikasi.

Ushbu mazmuniy tarmoqning tarkibi quyidagi material bilan to‘ldiriladi: xavfsizlik texnikasi qoidalari; kompyuterning asosiy qurilmalari; hisoblash tizimlari; dasturiy ta’minot turlari; EHM rivojlanish tarixi; EHM avlodlari; kompyuter asosiy qurilmalari ishlashining umumiy tamoyillari. OTMda quyidagi mavzularni qo‘shish kerak: EHM mantiqiy asoslari; kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarining batafsil tavsifi.

3. Modellashtirish. Algoritmlash. Dasturlash.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Maktabda informatikani o‘qitish quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi: model real ob’ektning soddalashtirilgan nusxasi sifatida; modellarning turlari; modellashtirish bosqichlari; statistik va dinamik modellar; algoritmlar modellashtirish shakllari sifatida; hisoblash eksperimentlarida modellashtirish; algoritmlarning xususiyatlari va turlari; asosiy algoritmik tuzilmalarni yozish usullari (chiziqli, tarmoqli, sikllar, ostdasturlar, rekursiyalar (qaytalanish, takrorlanish)); kompyuterda masalalar yechish bosqichlari; dasturlash asoslarini o‘rganish; o‘rganilgan tegishli tuzilmalarga dasturlar tuzish. OTMda informatika modellashtirish bo‘yicha ushbu tarmoq mavzularini chuqurlashtiradi, dasturlashni o‘rganish esa DTS shu fakultetda dasturlashni o‘z ichiga olgan bo‘lsagina olib boriladi.

4. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari.

Maktab darajasida informatika quyidagi mazmunda o‘rganiladi: texnologiya tushunchasi bilan tanishish; matn, grafika, musiqa redaktorlarini o‘rganish; hisoblash jadvallari bilan tanishish va ularda hisob-kitoblar bajarish; axborot-qidiruv tizimlari bilan ishlash; telekommunikatsiya texnologiyalari bilan tanishish; Internet tarmog‘i; elektron pochta; interaktiv muloqot. OTMda informatika olingan bilimlarni, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash tajribasini chuqurlashtiradi; o‘qitish kasbiy yo‘nalishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi, quyidagi kabi mavzular kiritiladi: ma’lumotlar bazasining tuzilishi, ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimi; ekspert tizimlari; multimedia va masofaviy ta’lim texnologiyalari; ma’lumotlarni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari.

5. Ijtimoiy informatika.

Xususan, informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda izchillik maktab va OTM dasturlarining ketma-ketligi va uzluksizligi, muvofiqlashgani sifatida namoyon bo‘ladi. Nazoratning barcha vositalarini navbatlash o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga muntazam tayyorgarligini ta’minlaydi, bilimlarni o‘z vaqtida nazorat qilish va tuzatish kiritishni amalga oshiradi. Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda foydalaniladigan uslublar shaxsan o‘qituvchilarning bilimdonligiga, ta’lim oluvchilarning axborot-kommunikativ bilimdonligi darajasiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 *Sh.M.Mirziyoyev. «Raqamli O‘zbekiston–2030» strategiyasi https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/raqamli_uzbekiston-2030_strategiyasi_qabul_qilindi*

2 *Zakirova F., U.Muxamedxanov, Sh.Sharipov, R.G.Isyanov, F.Esonboboyev, S.Dottoyev. Elektron o‘quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: OO‘MTV, 2010. – 57 b.*

3 *Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподователей информатики в педагогичеких вузах: Автореф. дисс. … док. пед. наук. – Ташкент, 2008. – 42 с.;*

4 *Матжанов Н.С. Физика сабақларында жойбарлаў усылынан пайдаланыў // Муғаллим ҳәм узлуксиз билимлендириў, -Нукус 2020, -№5/1, -Б. 89-92.*

5 *Громов С.В. Физика: Молекуляр. физика. Квантовая физика: учеб, для 11 кл. общеобразоват. учреждений / С.В. Громов. - М.: Просвещение, 1999. - 239 с.*

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHE'RIY ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASIGA INNOVATSION YONDASHUV

Ollaberganova Sanobar Xamidovna
UrDU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Gmail: sanobarollaberganova1965@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada *boshlang'ich ta'limda she'riy asarlar ustida ishlash metodikasiga innovatsion yondashuv va uning nazariy asoslari* masalasi yoritib berilgan. ***U**nda boshlang'ich sinf o'quvchilarini she'riy asarlar ustida ishlashga o'rgatishni rivojlantirish omili sifatida tavsiflangan hamda boshlang'ich sinf ona tili va o'qish ta'limida o'qish malakalarini tashkil qilishning metodik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *She'r, ohang, ritmik nutq, she'riy nutq, qofiya , misra, she'riy hikoya, she'riy ertaklar, syujet, voqea.*

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К МЕТОДОЛОГИИ РАБОТЫ НАД ПОЭЗИЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Оллаберганова Санобар Хамидовна
УрГУ, доцент кафедры «Методики начального образования»
Gmail: sanobarollaberganova1965@gmail.com

Аннотация. *В данной статье освещен вопрос об инновационном подходе к методике работы над поэтическими произведениями в начальном образовании и ее теоретические основы. В нем охарактеризовано обучения учащихся начальных классов работе над поэтическими произведениями как фактор развития, а также рассмотрены методические возможности организации навыков чтения в начальном образовании по родному языку и чтению.*

Ключевые слова: *стихотворение, мелодия, ритмическая речь, поэтическая речь, рифма, строфа, поэтический рассказ, поэтические сказки, сюжет, событие.*

INNOVATIVE APPROACH TO THE METHODOLOGY OF WORKING ON POETRY IN PRIMARY EDUCATION

Ollaberganova Sanobar Khamidovna
UrSU, Associate Professor, Department of Primary Education Methods
Gmail: sanobarollaberganova1965@gmail.com

Annotation. *This article describes the innovative approach to the methodology of working on poetic works in primary education and its theoretical foundations. It is described as a development factor of teaching elementary school students to work on poetic works, and the methodical possibilities of organizing reading skills in elementary school mother tongue and reading education are discussed.*

Key words: ***Poem, melody, rhythmic speech, poetic speech, rhyme, verse, poetic story, poetic tales, plot, event.***

Kirish

Milliy o'quv dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

takomillashadi. O‘qish malakalarining sifatlariga she’riy asar matnini to‘g‘ri, tez,ongli va ifodali o‘qish kiradi. Ona tili va o‘qish savodxonligi, o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qishmalakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O‘qish malakasining sifatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning asosi ongli o‘qish hisoblanadi. She’riy asar o‘qish faoliyatining asosiy turi bo‘lib, o‘quvchilarni g‘oyaviy- siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o‘qish malakalarini o‘stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

She’r ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She’riy nutqni ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solish vositali ritm (bir-biriga monand kichik bo’laklarning izchil va bir meyorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi. She’rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. [5] Boshlang‘ich sinflarda she’r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, lirik va epik she’rlar o‘qitiladi. She’riy hikoya, she’riy ertaklarda syujet, ya’ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. lirik she’r “biror hayotiy voqea-hodisa ta’sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she’rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta’sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”. Lirik she’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she’r ma’nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar she’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni o‘qish mehnat talab ishdir. Busiz adabiy ta’limning maqsadi ham amalga oshmaydi. She’riy ohangni his qilmaslik, matn so‘zlarini to‘la tushunib yetmaslik she’r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi. Ma’nosi anglamagan matnni yodlash oson kechmaydi. 4-sinfda Q.Hikmatning “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’rini o‘rganishda, albatta, tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She’rni o‘qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o‘tkaziladi yoki she’r mazmunini tushunish uchun o‘quvchilar bilishi lozim bo‘lgan voqealarni o‘qituvchi qisqa qilib aytib beradi. Ma’lumki, qish fasli go‘zal ko‘rinishi bilan odamda yoqimli tuyg‘ular uyg‘otadi. Qishda bolalar chana uchinish, qorbobo yasash, qorbo‘ron o‘ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog‘lar kishida ajib bir fayfiyat uyg‘otadi. “Qish to‘zg‘itar momiq par” (Qudrat Hikmat) she’rini o‘rganish jarayonida agar qor yog‘magan bo‘lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, akbatta, “kumush” sifati qo‘shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo‘lib tovlanishiga, ko‘zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she’rni o‘rganish darsi dastlab o‘quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o‘ziga xos belgilari, qishda o‘ynaladigan o‘yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. O‘quvchilarning qish faslida sovuq bo‘lishi tufayli ayrim qushlarning o‘lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to‘ldiriladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi she’rni ifodali o‘qiydi. Quyida she’riy asarni o‘rganish bosqichlarini bir she’r misolida yoritishga harakat qilamiz.

She’riy asarni o‘rganishni quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

1. She’r matni tahlilidan oldin o‘quvchilarni she’rni o‘qish va tushunishga tayyorlovchi, ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Bunda she’r mavzusiga bilan aloqador topishmoqlardan, afsonalardan foydalanish bir usul sifatida qo‘llanishi mumkin:

Oppoqqina dasturxon
Yer yuzini qoplagan. (Qor)
Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq. (Yoz, qish)

Yoki qor haqidagi afsonalardan hikoyalab berish mumkin: Qadimda osmondan un yog‘ilar ekan. Odamlar o‘z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko‘z boy unlarning o‘ziga keragidan ham ortig‘ini qoplab o‘z uyiga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko‘z boy unlarning o‘ziga keragidan ham ortig‘ini qoplab o‘z uyiga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O‘z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. Shunda osmon-u quyosh va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo‘yishibdi. Savol: Bugungi darsimizda qaysi mavzudagi asarni o‘rganar ekansiz?

2. O‘quvchilarning qish fasli haqidagi dastlabki tushunchalarni aniqlash. Buning uchun qish fasliga xos xususiyatlarni klaster metodidan foydalaniladi. O‘quvchilar tarmoqlash usulida qish fasliga xos xususiyatlarni yozadilar:

Xattaxtaga mavzu – “Qish to‘zg‘itar momiq par” (Qudrat Hikmat) yoziladi. O‘quvchilardan she’r muallifining yana qaysi she’rlarini o‘qib o‘rganganliklari va ularning qaysi mavzuda ekani haqida suhbat o‘tkaziladi hamda shoir haqida qisqa ma’lumot beriladi: Qudrat Hikmat – iste’dodli bolalar shiori. U qisqa umr ko‘rgan. Shoir o‘z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag‘ishlangan. Qudrat hikmat 1925-yilda Toshkent shahrida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi. Birinchi she’rlari 1945-yilda bolalar gazetalarida bosildi. 1960-yildan boshlab bolalar nashriyotida ishladi. Uning “Mening Vatanim” (1950), “Baxtli bolalar” (1952), “Obodlik” (1953), “Do‘stlik” (1954), “Rodnoy Uzbekistan” (1955) kabi qator she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Keyinchalik “Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak” (1963), “Soatjonning soati” (1964), “Toshbaqalar hujumi” (1965), “daydi bola”, “O‘g‘lim bilan suhbat” kabi kitoblari bosilgan. (Kitoblari ko‘rsatiladi. ular o‘qishga tavsiya etiladi.)

2. She’r bilan tanishtiriladi va o‘quvchilarning she’rdan dastlabki tushunchalari aniqlanadi.
3. She’r matni ustida ishlash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish bilan bog‘lab olib boriladi.

Birinchi to‘rtlikni o‘qing. Unda qaysi so‘z va iboralar o‘z ma’nosida qo‘llanmagan? Ularning qaysi ma’noda qo‘llanganini izohlashga harakat qiling.

Quyidagi to‘rtlikning qaysi misralarida jonlantirish qo‘llangan? Jonlantirish deganda nimani tushuntirasiz?

Mahalla-ko‘y ko‘chada
Chuvurlashib qor kurar,
Esib sovuq izg‘irin:
- Tezroq yur! – deb buyurar.

2-topshiriq: She’rdan qorga berilgan buyruqni topib o‘qing.

Yetar shuncha yoqqaning
Uzoq dala, qirga bor! (buyruq)
Vodiylarga fayz berib

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Gullat bog‘-u rog‘ini. (buyruq)
O‘rar kumush choyshabga,
O‘lkamning har yog‘ini.

3-topshiriq: Jonsiz narsalar she’rda jonli qilib ifoda etilgan misralarni topib o‘qing.

Ular seni kutmoqda
Har zarangga bo‘lib zor.
Savab bulut to‘shagin
Qish to‘zg‘itar momiq par.

Ijodiy ish uchun topshiriq: She’r mamuniga mos rasm chizish. She’rdan olgan taassurotingizgdan foydalanib, qish, qor, sovuq haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she’r matnidagi quyidagi so‘z va iboralardan foydalaning: momiq par, oq choyshab, qahraton qish, osmon elak, qor zarralari, izg‘irin, fayz beradi, oq kiyimda.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, she’rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. She’riy hikoya, she’riy ertaklarda syujet, ya’ni voqealar tizimi va uning rivoji xaraktelidir. Lirik she’r “Biron hayotiy voqea-hodisa ta’sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she’rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta’sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”. Lirik she’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she’r ma’nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar she’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni o‘qish mehnat talab ishdir.

Adabiyotlar

1. Hasanova N. She’rlar vositasida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish // Boshlang‘ich ta’lim. – T.: 1995. – №1-2. – B. 10-11.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milli kutubxonasi nashriyoti, 2009.- 366 b.
3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi.- Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.- 252 b.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: TDPU, 2004.- 35 b.
5. Jumaniyozova M., Tojiddinova S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining she’riy tushunchalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari// Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences// Great Britain international scientific-online conference.- London, 2022, p.239-244.
6. Jo‘rayeva G. O‘quvchilar she’riyatida satira va yumor // O‘zbek tili va adabiyoti. – T.: 2010. – № 6. – B. 70-73.
7. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida she’riy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: «Istiqlol» nashriyoti, 2010.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy matnlarni shakllantirish tizimi//Nizomiy nomidagi TDPU «Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammolari va yechimlari» Resp. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: – 2010. –B. 96-98

POSSIBILITIES OF VIRTUAL REALITY TECHNOLOGY IN PRIMARY EDUCATION

Mamadjanova Nozima Adkhamovna
Namangan State University
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD in English)
Phone: +998913601484
e-mail: mamadjanovanozima@gmail.com

Abstract: *This article is about the role and possibilities of virtual reality technology in educational processes in primary education, the importance and benefits of virtual reality technology in education are highlighted. Virtual technologies in education are entering the main stages. Students should use virtual technology to acquire relevant skills so that the practical aspect needed in the workplace can be achieved.*

Keywords: *VR, virtual reality, virtual reality, augmented reality IT services, quality of education, virtual technology, smart board, internet.*

ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мамаджанова Нозима Адхамовна
Наманганский государственный университет
Доктор философии педагогических наук (PhD на английском языке)
Телефон: +998913601484
e-mail: mamadjanovanozima@gmail.com

Аннотация: *В данной статье речь идет о роли и возможностях технологии виртуальной реальности в образовательных процессах начального образования, подчеркивается важность и преимущества технологии виртуальной реальности в образовании. Виртуальные технологии в образовании выходят на основные этапы. Студенты должны использовать виртуальные технологии для приобретения соответствующих навыков, чтобы можно было достичь практического аспекта, необходимого на рабочем месте.*

Ключевые слова: *VR, виртуальная реальность, виртуальная реальность, ИТ-услуги дополненной реальности, качество образования, виртуальные технологии, смарт-доска, интернет.*

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYASI IMKONIYATLARI

Mamadjanova Nozima Adkhamovna
Namangan State University
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD in English)
Phone: +998913601484

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

e-mail: mamadjanovanozima@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada virtual reallik texnologiyasining boshlang'ich ta'limning o'quv jarayonlaridagi o'rni va imkoniyatlari ko'rib chiqilib, virtual reallik texnologiyasining ta'limdagi ahamiyati va afzalliklari ta'kidlangan. Ta'limda virtual texnologiyalar asosiy bosqichlarga yetib bormoqda. Talabalar ish joyida talab qilinadigan amaliy jihatga erishish uchun tegishli ko'nikmalarga ega bo'lish uchun virtual texnologiyadan foydalanishlari kerak.*

Kalit so'zlar: *VR, virtual haqiqat, virtual reallik, kengaytirilgan haqiqat IT xizmatlari, ta'lim sifati, virtual texnologiyalar, aqlli doska, internet.*

Virtual reality is a world created with the help of technical means, which is transmitted to a person through his feelings. Virtual reality simulates both impact and reaction. Performs computer synthesis of virtual reality and real-time reactions for a robust suite of reality experiences.

Virtual reality should not be confused with real reality. The main difference between them is that virtual reality builds a new artificial world, while augmented reality only adds certain artificial objects to the perception of the real world.

Virtual reality (VR) consists of human intervention in the environment using computer technology. Through virtual reality glasses, the user can interact with objects and scenes.

In addition to glasses, there are also virtual reality helmets, usually accompanied by other peripheral units, the best known of which are gloves or suits. Thanks to gloves and suits, a person interacts with the created environment as if living in that virtual world.

In the late 1960s, the concept of Artificial Reality was first introduced by Myron Krueger. Today, virtual reality technologies are widely used in various fields of human activity: mechanical engineering and design, mining, military equipment, construction, simulators and trainers, marketing and advertising, entertainment industry, and others. Virtual reality technologies are becoming popular in all fields and are spreading widely as a human factor. Virtual reality (VR) is the name given to any system that aims to make the user feel as though he or she is experiencing a particular experience by using special sensory manipulation tools. In other words, VR is a virtual reality that exists in a software-based world.

The purpose of virtual reality is to share the experience and create something called a "sense of presence". This requires the use of any means that can simulate sight, sound, touch or other sensations.

The main hardware used to simulate the virtual environment is the screen. The user or virtual gloves can also be used to create haptic reports connected to VR software, so that the user can feel the real sensation when receiving something in the virtual reality world.

During the educational process, especially in the elementary grades, students face various difficulties in conducting lessons, laboratory exercises, and practical exercises. Based on what I observed in educational institutions, no matter which educational institution we choose, from the time we start studying until we graduate, the same displays, desks, chairs, and rooms all remain the same. The solution is to transform the walls of the classroom into full screens and animations, giving a new world to each lesson and subject. For each lesson, the walls of the classroom can be changed in accordance with the theme, and through this, the student's attention can be focused on the classroom. But even this solution cannot be the optimal way, it is difficult to make the

ISSN: 2181-0427

students feel like they are immersed in this environment and world through the images on the classroom walls, and it does not only require a lot of money, but the students have to use laboratory training and practical training again in the traditional way are forced to learn. Thanks to the sense of presence created by modern VR technologies, elementary classes can live in the learning environment and carry out experiments and practical activities safely and effectively without waste. VR is a world created with the help of technical means, which is transmitted to a person through his senses: sight, hearing, touch, etc. Virtual reality simulates both exposure and responses to exposure. Real-time computer synthesis of virtual reality features and reactions is performed to create a reliable complex of real sensations.

With the help of today's modern technologies, young people who are growing up under the influence of social networks such as Instagram, Telegram, TikTok, YouTube, etc., can naturally acquire knowledge when they are taught through the traditional uniform classrooms, writings and pictures in books. In addition to the decrease in their interests, creativity and creativity are difficult to develop in children who are constantly taught in the same framework or may not develop at all. Currently, the following problems are more common in education:

- decreasing interest of young people in learning and studying in existing state educational institutions;
- lack of real-time communication between the teacher and the recipient in Moodle systems of distance education;
- difficulties in acquiring knowledge about the abstract world, which is impossible to see through the eyes;
- that the possibility of maximum mastering through the traditional education system and methods is only 60-70%;
- high cost of practical laboratory due to the high cost of laboratory tools and equipment;
- rapid expiry of the laboratory subjects of chemistry, physics, biology and other sciences and they easily become unusable;
- the existence of problems related to the quality storage of laboratory objects, that is, various substances, proteins and other materials, and this requires a large amount of money and special attention;
- problems related to time and space in learning subjects such as history, geography, zoology;
- overcoming fear of heights, phobias, psychological problems related to post-traumatic stress disorder;
- large costs of military experience and operations in the military field, tactical operations in different missions and environments that cannot be repeated;
- the presence of a clear view of certain objects in language learning processes and a language learning environment through conversations, dialogues, shows.

The use of VR technology in educational processes has many useful features;

✓ interest students in learning by immersing them in the virtual world;

✓ availability of real-time answers to the proposals and questions of educators in the study of the topic and science by applying the virtual reality intelligence system to textbooks and platforms;

✓ the possibility to control how much students pay attention to the lesson and direct their full attention to the subject by using virtual reality;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

✓ fully reveal the abstract world using virtual reality;

✓ teaching subjects and topics that are hard to understand and learned through imagination to students with a result of 90% and higher;

✓ reducing expenses for laboratory equipment and materials;

✓ elimination of problems related to time and space in education;

✓ by creating a virtual model of laboratory equipment and objects, it is possible to get rid of waste that has a very negative impact on the environment through the possibility of completely abandoning substances and objects that may become unusable;

✓ by creating a virtual model, getting rid of excessive costs for a special environment and necessary technical equipment for the storage of laboratory materials and objects;

✓ the opportunity to travel to any era and time by creating a virtual world and modules, and learn about the events of that time, standing side by side with the characters;

✓ helping and treating people with psychological problems using VR treatments and experiences;

✓ Learning skills such as military navigation, survival, and teamwork in difficult and hostile situations can be achieved with incredible realism.

In the real education system, it is not possible to deal with every learner in the group at the same time. Learners, if left out of focus, can lead to self-distraction and negatively affect the quality of education. In 2020, the entire industry, social sector, and education sector came to a standstill when the Pandemic was declared all over the world. People were forced to distance themselves.

Virtual technologies in education are entering the main stages. Students should use virtual technology to acquire relevant skills so that the practical aspect needed in the workplace can be achieved. Memorization techniques bore students; therefore, there is a need for virtual technology to help students gain experience. Virtual technologies improve self-development of elementary school students. For this, the teacher needs information technology, IT services, quality of education, virtual technology, smart board, internet. The scale of initiatives to improve the quality of education in primary classes is increasing significantly. One of the main tools used to improve the quality of teaching is modern technology. Education is changing dramatically and teaching and learning techniques, tools and methods are moving from traditional to modern. Nowadays, education is moving from textbooks and blackboards to programs based on reading and learning, to smart boards and smartphones, where programs are based on listening and seeing. Virtual labs focus on illuminating laboratory activities in education and help students learn in a deeper and more interesting way. It provides experiential learning by providing a simulation program that allows students to feel a part of the work they are doing in their field, these programs provide students with a realistic process environment that provides students with skills and increases skills. Through virtual technology, learning labs allow elementary students to see processes as they actually are and create long-lasting memories in their minds, allowing them to continue to remember what they have learned by experiencing it allows. The main goals of using virtual technology in the educational processes of the primary school: In the virtualized primary school, opportunities are created for more interesting and collective performance in order to cover the topic, which helps to increase the activity of primary school students. The more interactive and collaborative the virtual rooms are, the more interested the participants will be in learning. Traditional methods of reading and learning theory may not

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

appeal to all students, but a virtual reality installation is comprehensive and fun, where students can easily and simply by watching and interacting with things. way they can learn, they can see 3D images and other technologies like internet of things in education can make it technologically advanced and interesting. Virtual technologies have a significant impact on health care. A variety of treatment methods can be tried to help the system reduce chronic pain. VR has even been used as a pain reliever for burns. Healthcare professionals can use VR to better prepare themselves to be in the operating room—as a junior doctor explaining diagnoses and treatment plans, or as a surgeon performing surgery. Many companies allow surgeons to interact with medical devices in VR and perform surgery on virtual bodies, which helps them become familiar with new devices and improve their implantation skills. Figure 1: Virtual surgery environment Virtual technology is gradually changing the way architects design and experience their work. Virtualization allows you to see not only how a building or space looks, but also how it feels. For example, if someone wants to add an extension to their property, they can physically see the space and how it will look before construction, and then make changes in real time. This saves both the client and the architect time and money, as well as increased satisfaction at the completion of the project. There are educational programs and resources that can be accessed from anywhere using a computer or phone. By using these methods, they are creating virtual libraries where students can log in and access their ongoing studies. Such applications connect students and allow them to interact, and they do not need to be physically present in the institution to be part of the educational curriculum. It would not be wrong to say that the virtual laboratory has opened a number of ways in the field of education for students and teachers. Because the technological availability is so wide and versatile, the benefits are undeniable, virtual reality deepens the educational impact and the root of learning than traditional methods, it is also affordable and makes education interactive and practical enriched with the potential to do. Training and live demonstrations are in some cases safer for students than live training, helping to keep it injury-free and waste-free, with virtual training and repetitive practice no device or resources are wasted. It just works with a smartphone and an internet connection.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фреге Готтлоб. Аналитическая философия – Москва, 2006. – 21 с.
2. Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларининг мустақил фикрлашини шакллантиришнинг дидактик асослари (5-7-синф тарих дарслари мисолида) пед. фан.номзоди. дис. – Т., 2009. – 110 б.
3. Рубинштейн, С.Л. Избранные философско-психологические труды: основы онтологии, логики и психологии / Ин-т психологии РАН.
4. Richard J. Hauer Jr. Psychology of Intelligence analysis. Jr, published by Center for the Study of Intelegence, 1999. ISBN 1 929 667-00-0.
5. Rust J. Searle's Institutional Atomism // Rust J. John Searle and The Construction of Social Reality. – London, 2006. – P. 9-36.
7.URL:http://khorezmscience.uz/web/archive/1621255365.pdf
8. Jalilovich A. J. Masofaviy ta'limda mobil ilovalardan foydalanish // "Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari" xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021. – B. 637-639.
9. Atamuradov J. The main didactic principles of teaching informatics:
10. ЖЖ Атамурадов. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). 2020;1(1).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

DONISHMANDLARNING SALOMATLIK VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI TO‘G‘RISIDAGI FIKRLARI

Ismoilov Turabjon p.f.n., professor v.b. NamDU
Ismoilov G‘anisher, O‘zDJTSU tayanch doktoranti
Hudoyberdiyeva Sevara o‘qituvchi, University of business and science
Tuxtaboyeva Burobiyaxon, magistr NamDU

Annotatsiya: *ushbu maqolada insonlarni sog`lom qilib tarbiyalashda donishmandlarning salomatlik va sog`lom turmush tarzi to`grisidagi fikrlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya vositalari, sport, salomatlik, jismoniy mashqlar, sog`lom turmush tarzi, qilichbozlik, nayzabozlik, kurash, suzish, o‘q otish, otda chopish, nayza sanchish.*

МНЕНИЯ МУДРЕЦОВ О ЗДОРОВЬЕ И ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ

Исмоилов Турабжон, к.п.н., и.о. профессора НамГУ
Исмоилов Ганишер, главный докторант УзГУФКС
Худойбердиева Севара преподаватель, Университета бизнеса и науки
Тухтабоева Буробия, магистр НамГУ

Аннотация: *в данной статье изложены мнения мудрецов о здоровье и здоровом образе жизни в воспитании человека здоровым.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, физическая подготовка, инструменты физического воспитания, виды спорта, здоровье, физические упражнения, здоровый образ жизни, фехтование, копье, борьба, плавание, стрельба, езда на лошади, вонзить копье.*

WISEMEN' OPINIONS ON HEALTH AND A HEALTHY LIFESTYLE

Ismoilov Turabjon c.p.s, acting professor of NamSU
Ismoilov Ganisher, doctor of philosophy student UzSUPES
Hudoyberdiyeva Sevara teacher, University of business and science
Tuxtaboyeva Burabiyaxon, master of NamSU

Annotation: *In this article, the opinions of the sages about health and a healthy lifestyle in raising people to be healthy are highlighted.*

Key words: *physical education, physical training, physical education tools, sports, health, physical exercises, healthy lifestyle, fencing, javelin, wrestling, swimming, shooting, horse riding, javelin*

Mamlakatimizda mustaqillikga erishilgandan keyin barcha soxalar qatori jismoniy tarbiya va sportga, jumladan xalqimizning salomatligiga, sog`lom turmush tarziga va aholini sog`lomlashtirish masalalariga ham alohida e`tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya va sportga oid bo`lgan bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi [1;2].

Tarixdan ma`lumki, o`tgan barcha asrlarda ham aholi salomatligini asrash va avaylash eng asosiy masalaladan biri bo`lib kelgan. Insonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va ularni Vatan mudofasiga tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Donishmandlarning aytishicha, har bir afsonaning tagida bir haqiqat yotadi. Ajdodlarimiz madaniyatida pahlavonlarning kurashishi o`sha davr va qadimgi zamonlarning oriyat, adolat yo`lidagi o`ta muhim tarbiyaviy voqelikdan darak beradi.

Qadimdan tarkib topib hozirgacha og'izdan - og'izga o`tib kelayotgan maqollar, matallar, qo`shiqlar, ertaklar va rivoyatlarda, shuningdek turli xil tarixiy manba'lar, asarlar, xalq og'zaki durdonalari hamda ilmiy - nazariy meroslarida inson salomatligining mohiyatlari, uning dardi, ijtimoiy - turmush sharoitlardagi o`rni haqida juda ko`p va ma'naviy - ma'rifiy jihatdan boy o`gitlar saqlanib kelmoqda.

Eng muhimi shundaki, ularda bolalarni yoshlikdan sog'lom va baquvvat qilib o`stirish, ularni mehnat va hunarga o`rgatishda jismoniy mashqlar, turli o`yinlardan foydalanish yo`llari o`z ifodasini topgan. Ularning ba'zi bir yo`nalishlari va namunalaridan misol keltirish mumkin bo`ladi.

Musulmon olamining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz alayhissalom hadislarida sog'lom turmush tarzining asosiy tomonlaridan hisoblangan tozalikka rioya qilish, toza va pokiza yurish, xushxulq va mehnatsevar bo`lish, badan a'zolarini doimo harakat qildirib turish, mo'tadil ovqatlanish kabilar bilan bir qatorda yoshlarni mehnat qilish, kasb-hunarga o`rgatish, jismonan chiniqtirishga ham alohida e'tiborni qaratgan[4].

Bu yo`lda quyidagi nasihatlarni eslashning o`zi kifoya qiladi, ya'ni: "Bolalaringizga suzish va o`q otishni o`rgatinglar, kuchli mo`min kuchsiz mo`minga qaraganda mahbubroq va Allohga yaqinroqdir, ot poyga qilish joizdir. O`q otish yaxshi o`yindir, o`q otishni o`rganinglar, chunki u mashg'ulotlarning yaxshilaridan biridir. Kimki yoshligida o`q otish san'atini yaxshi egallab, so`ng uni tark etib yuborgan bo`lsa, demak u ulug' ne'matlardan birini qo`ldan beribdi. Safar qilinglar sog'lom bo`lasizlar va rizqlanasizlar" va hokazo.

Bundan ko`rinib turibdiki, islom dini ham kishilarning salomatligini, unumli mehnat qilishi, kasb - hunar egasi bo`lishi uchun doimo sog'lom bo`lib yurishi, kerak paytlarda jangovorlik faoliyatini ham ishlata bilish zarurligini e'tirof etadi.

Musulmon sharqida har sohada donishmandlar ko`p o`tgan. Ular orasida Farobiyning falsafasi, tibbiyot va insoniyat faoliyatida zarur bo`lgan muhim tarbiyaviy jarayonlar haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Buyuk olim sifatida Farobiy (780-850) "Qalb holatini mo'tadil saqlash uchun sog'lom vujud zarur "- degan iborasining mazmunida inson tanasining sog'lomligi, uning vazifalari mujassamligini anglash mumkin bo`ladi. Shuningdek uning fikricha jismoniy tarbiya shaxsning har tomonlama kamol toptirishda muhim omillardan biri deb hisoblaydi, tarbiyachi ham, tarbiyalanuvchi ham mustahkam tanaga ega bo`lishini ko`zda tutadi.

Yana shuni e'tirof etish kerakki, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriyning "Hadis"larida " Hayit kuni qilichbozlik, nayzabozlik o`yinlarining joizligi, Ka'baga piyoda borishni ahd qilgan kishi haqida kabi boblarida yoshlarning o`z mahoratlarining xalqqa namoyish qilish hamda uzoq masofalarga piyoda yurib, o`z sog'liklarini mustaxkamlash, qiyinchiliklarga bardosh berish, bu bilan esa asl maqsadlariga erishishlarini tasvir etgan. Bu o`z navbatida barcha musulmonlarni ham shu yo`l bilan ularni chidamli, xayri - ehson, o`z kuch - qudratini oshirishga da'vat etganligi sir emas. Bunday g'oyalar barcha kishilarni, ayniqsa yoshlarni sog'lom, bardam, chaqqon,

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

tozalikka rioya qilish, piyoda yurishlarga o`rgatish kabi tarbiyaviy jarayonlar bilan doimiy ravishda band bo`lishni tavsiya etadi. Shu sababdan sharqning buyuk allomalari Imom Ismoil Al- Buxoriy, At -Termiziy, Ahmad Yassaviylarning ijodiy faoliyati, hadis va boshqa asarlarida oilada bola tarbiyasi, ularni har qanday mehnat va sharoitlarga chidamli qilib tarbiyalash zaruriyatlari oliy maqsad qilib qo`yilganligini bilish mumkin bo`ladi.

Jahon tibbiyoti olamida mashhur bo`lgan olim, faylasuf, shoir, shifokor Abu Ali ibn Sino (980-1037) tibbiyot, jismoniy tarbiya ta'limi nazariyasi va uslubiyati jarayoniga ulkan hissa qo`shish bilan bir qatorda sog'lom turmush, ma'naviyat va jismoniy kamolotning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdi va ilmiy meros sifatida qoldirdi.

Ibn Sinoning "Tib Qonunlari" asaridagi uchinchi qismning 17 fasldan iborat butun ikkinchi bo`limini kishilar salomatligi uchun kurashda jismoniy mashqlardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Bu bo`limning dastlabki satrlaridayoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va undan keyin ovqatlanish tartibi haqida hamda uyqu tartibi salomatlikni saqlashda va har tomonlama kamolotga yetishishda muhim shart ekanligi qayd etilgan.

Olimning jismoniy mashqlarni o`ziga xos tarzda turlarga bo`linishining ham katta ahamiyati mavjud. Jismoniy mashqlar hilma - xil bo`lishini alohida izohlagan. Bular kichik va katta, juda kuchli va sust, sekin yoxud ildam, bir necha keskin va tez harakatlardan iborat bo`lishi, eng tez bilan sust mashqlar o`rtasidagi mo'tadil mashqlar bo`lishi mumkinligini ham bildirgan.

Tez bajariladigan mashqlar turkumiga quyidagilarni ko`rsatadi, ya'ni: tortishuv, mushtlashish, o`q- yoy otish, tez yurish, nayza uloqtirish, balanddagi biron buyumga sakrab osilib olish, bir oyoqda sakrash, qilich va nayza bilan qilichbozlik qilish, chavandozlik, ikkala qo`lni silkitish va xakozo.

Ravon va yengil mashqlar jumlasiga esa: arg'imchoq va belanchakda tik turib, yotib silkinib, qayiq va kemalarda sayr qilish kabilarni eslatadi. Ot va tuya minib yurish, taxtirovon va aravalarda yurish kuchli mashqlar jumlasidir, deydi Ibn Sino.

Shuningdek o`z soyasi bilan olishish, shapaloq urish, sakrash, nayza uchi bilan sanchish, katta va kichik to`p bilan chog'von o`ynash, to`p o`ynash, kurash tushish, tosh ko`tarish, ot choptirish va chopib kelayotgan otni to`htatib qo`yish kabilar kuchli mashqlar hisoblanishini ta'kidlagan[3].

Umuman olganda Ibn Sinoning jismoniy tarbiya haqidagi o`lmas ilmiy meroslari hozirgi davr mutaxassislari tomonidan yanada ko`proq o`rganishini va ularni hayotga singdirish yo`llarini targ'ibot qilish lozim bo`ladi.

Buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, Sohibqiron Amir Temur (1336 – 1405) o`z askarlarini janglarda yengilmaslik uchun otda chopish, nayza sanchish, otdan ag'darish, erda kurashish, qilichlashish kabi murakkab jismoniy mashqlarni bevosita o`zi o`rgatgan, ularni chiniqtirgan.

Hozirgi yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash, ularning jismoniy kamolotini me'yoriga etkazishda xalq milliy o`yinlari Amir Temur qo`llagan jang san'ati mashqlarining zaruriyati bor.

Bunday hayotiy va ilmiy-ma'rifiy fikrlarni hozirgi o`quvchi yoshlarga anatomiya, gigiyena va boshqa fanlardan ta'lim berish jarayonlarida eslatish, ularning mohiyatlarini o`sha davr kishilari qanday tushungan va izohlaganliklarini singdirish lozimdir.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Salomatlik va uning omili sifatida jismoniy tarbiyaga e'tibor masalalari haqida aytilgan ilg'or pedagogik qarashlar taraqqiyot ilmining asoschisi Mirzo Ulug'bek (1393 – 1449) va O`zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri, buyuk davlat arbobi, jahon adabiyotining mislsiz siymolaridan biri, she'riyat sultoni hazrat Alisher Navoiyning (1441–1501) buyuk asarida ham yuqori ko`tarinkilik ruhida o`z ifodasini topgan.

Ulug'bek kishi sog'lom va kuchli bo`lishi kerak, buning uchun esa yoshlikdan jismoniy mashqlar: dor ustida yurish, kurash tushish, qilichbozlik va hakozolar bilan shug'ullanish zarurligi haqida ta'lim bergan. "Shunday kishigina-deydi Ulug'bek g'am-tashvishga kamroq moyil bo`ladi va Vatanni dushmandan himoya qila oladi".

Alisher Navoiy shaxsni shakllantirishga uning sog'ligi, jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush kechirishga katta e'tibor bergan. Uning sevimli adabiy qahramonlari jismoniy sog'lom jasur va mard bo`lib har doim g'animlar ustidan muvaffaqqiyat qozonishganligini ko`ramiz.

Alisher Navoiy yaxshi insonlarnigina o`zgalarga yaxshi saboq va ta'lim bera oladi, ular har doim kishilarni xayrli ishlarga yo`llaydi va unga rahbarlik qiladi deb baho beradi.

Mashxur sarkarda, podsho va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1553) o`zining harbiy yurishlaridan birini bayon etar ekan, manzilgoxda polvonlar kurashga tushgani, qayiqchi pahlavon Lohuriy Do`st Yosin Xayr degan polvon bilan olishganligini, ikkalasi uzoq vaqt kurashgani, Do`st Yosin raqibini juda qiyinchilik bilan yiqitganligini alohida ta'kidlagan.

"Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o`ng ila terisi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo`yib astarini yuvib ovora bo`lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga kiradi. Fikr tarbiyasi uchun maxkam va sog'lom bir vujud kerakdur".

Abdulla Avloniyning bunday chuqur fikrlari va o`g'itlarida juda katta ma'no yotadi va ular hozirgi insonlarni, eng avvalo o`quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat, milliy g'urur va iftixor xis to`yg'ularini to`la anglashga chorlash bilan birgalikda doimiy ravishda sog'lom bo`lish, o`qish va mehnat jarayonlarida o`z qobiliyatlarini ishga solish, eng muhimi jismoniy tarbiya, sport, sayoxat va xalq milliy o`yinlari bilan muntazam shug'ullanib turishga chorlaydi. Bu esa o`z navbatida sog'lom avlod davlat dasturi, " Alpomish " va ,,Barchinoy" maxsus testlari talabalarini izchil bajarib borishga odatlantirishda muhim darajada xizmat qilishi lozimdir. Shu sababdan o`qish va mehnat jarayonlarida faoliyat ko`rsatuvchi jismoniy tarbiya hodimlari ajdodlarimiz meroslarini chuqur o`rganishlari, ularni sog'lom fikr yo`li bilan tahlil qilishlari, hamda barcha o`gitlarni amalda bajarishga harakat yo`lida sog'lom qilib tarbiyalash, buyuk kelajak avlodlarning barkamol bo`lib yurishlarini ta'minlashga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1.Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябрь.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июнь). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент, 2017. 12 июнь.

ISSN: 2181-0427

3.Абу Али ибн Сино. Саломатлик сирлари (Тиббий рисолалар) –Тошкент: А.Қодирий, 2000. – 208 б.

4.Зунунов А., Хайруллаев М., Хатамов Н., Шодиев Д. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 159-187.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XALQARO HUQUQIY ASOSLAR VA BMTNING KORRUPSIYAGA QARSHI KONVENSIYASINING MAZMUN VA MOHIYATI

Bannayev Nurmuhammad Toshmamatovich

Annotatsiya: *Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor. Bunda esa korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash pirovard maqsadlarimizdan biri sifatida ko'riladi.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro huquq, xalqaro huquqiy asos, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, BMT konvensiyasi, BMT Xalqaro kodeksi*

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ В СФЕРЕ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ, СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ КОНВЕНЦИИ ООН ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

Баннаев Нурмухаммад Тошмаматович

Аннотация: *Подводя итог проделанной нами работе за прошедший период нашего независимого развития, наряду с их честной оценкой и внося определенные изменения в программу реформ, прежде всего, исходя из требований завтрашнего дня, мы будем последовательно продвигаться к реформируя и модернизируя нашу страну, нам необходимо усилить наши усилия, поднять их на новый, более высокий уровень. В этом случае предотвращение коррупции и борьба с ней рассматриваются как одна из наших конечных целей.*

Ключевые слова и фразы: *Международное право, международно-правовая база, борьба с транснациональной организованной преступностью, Конвенция ООН, Международный кодекс ООН.*

INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORKS IN THE FIELD OF COMBATING CORRUPTION AND THE CONTENT AND ESSENCE OF THE UN CONVENTION AGAINST CORRUPTION

Bannayev Nurmuhammad Toshmamatovich

Abstract: *While summarizing the work we have done in the past period of our independent development, along with their honest assessment and making certain changes to the reform program, first of all, based on the requirements of tomorrow, we will make a consistent progress towards reforming and modernizing our country. we need to strengthen our efforts, raise them to a new, higher level. In this case, preventing and fighting corruption is seen as one of our ultimate goals.*

ISSN: 2181-0427

Key words: *International law, international legal framework, fight against transnational organized crime, UN Convention, UN International Code*

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslarning tavsifi (BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi, BMTning “Davlat mansabdor shaxslarning xarakatlarining Xalqaro Kodeksi”, OYESR tavsiyalari va boshq.). 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdorshaxslarning xulq-atvor kodeksida: “Korrupsiya tushunchasi milliy huquqda belgilanishilozim”, deb qayd etilgan, lekin mazkur hodisaning namunaviy ta’rifi keltirilgan:“...mansabdor shaxs o‘z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkurhaqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo‘riqnomasi qoidalarini buzgan holda yokibuzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi”.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Ma’lumotida shunday deyilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o‘xshash ta’rifga Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag‘ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin: korrupsiya – bu “shaxsiy naf ko‘rish yo‘lida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish”.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1. “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);

2. Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);

3. Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);

4. BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

5. Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma’ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to‘g‘risidagi Vena deklaratsiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan)

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan).

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Evropa Kengashi va Evropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1) Evropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar);

2) Evropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentyabr);

3) Evropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr);

4) Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr);

5) Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may);

6) Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Evropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel);

7) Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi EII Direktivasi (1991 yil 10 iyun);

8) Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (Evropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining YAkuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral).

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar :

1)Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga ishtirokchi-davlatlarning hamkorligi to‘g‘risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998 yil 25 noyabr);

2)“Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XXII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 2003 yil 15 noyabr);

3)“Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1999 yil 3 aprel);

4)“G‘ayriqonuniy yo‘ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1998 yil 8 dekabr);

5)“Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi tav¬siyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996 yil 2 noyabr).

1. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Evrosiyo guruhi to‘g‘risidagi Bitim (Moskva, 2011 yil 16 iyun)

FATF tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

- FATFning qirqta tavsiyasi (2003 yil 20 iyun tahriri);
- FATFning qirqta tavsiyasiga tushuntirish (2003 yil);
- FATFning pulni tozalashga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlikka to‘siq bo‘layotgan yigirma beshta asosiy mezoni (2003 yil);
- Terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq operatsiyalarni aniqlash bo‘yicha moliyaviy tashkilotlar uchun FATF tavsiyalari (2002 yil)
- Ommaviy qirg‘in qurollarni tarqalishini moliyalashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, pullarni legallashtirishga oid xalqaro standartlar (2012)

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

1. Ish yuzasidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997 yil 21 noyabr);

2. Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Amerikaaro konvensiyasi (Karakas, 1996 yil29 mart);

3. Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va ularning vijdonli va pok bo‘lishini ta’minlash choralari bo‘yicha umumiy tavsiyalar (Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha Global forum, Vashington, 1999 yil 24-26 fevral).

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi mazmuni, tuzilishi, korrupsiyaning oldini olish choralari, amalga oshirish mexanizmlari, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari.Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda (1-4) umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralari, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59) aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma’lumot almashinuvi, 7-bobda (63-64) amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71) yakuniy qoidalar aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘shilgan. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi – davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan.

Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo‘lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to‘la javob beradi.

Qonunning 2-bandiga ko‘ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo‘yicha 15-19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishligi bayon etilgan.

Konvensiyaning 15-moddasi “Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”; 16-moddasi “Xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarni va ommaviy xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslarini pora evaziga og‘dirish”; 17-moddasi “Ommaviy mansabdor shaxs tomonidan mol-mulk talon-toroj qilinishi, noqonuniy o‘zlashtirilishi yoki ko‘zda tutilmagan maqsadlarda ishlatilishi”; 18-moddasi “G‘arazli maqsadlarda mavqeidan

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

foydalanish”; 19-moddasi “Xizmat mavqeining suiiste’mol qilinishi”; 21-modda “Xususiy sektorda pora evaziga og‘dirish”; 22-moddasi “Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi”; 23-moddasi 1-bandi “Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish”; 24-moddasi “YAshirish”; 25-moddasi “Odil sudlovning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish”; 27-moddasi “Ishtirok va suiqasd” deb nomlangan.

Ushbu xatti-harakatlar O‘zbekiston jinoyat qonunchiligi bo‘yicha ham jinoiy qilmish sifatida baholanadi va amaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qonun mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat deb baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutuvchi 26-moddasiga qo‘shilmagan.

Qonunning 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining “a” kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa Ishtirokchi-davlatlari bilan o‘zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Qonunning 4-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning 46-moddasi 13-bandi bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimoslarni olish va bajarish yoki bunday iltimoslarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlariga yuborishga javobgar bo‘lgan markaziy organ ekanligini, 14-bandi bo‘yicha “O‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi iltimoslarni yuborishda o‘zbek, rus va ingliz tillari maqbul tillar sifatida belgilanishligi bildirilgan.

Konvensiyaning 66-moddasi 2-bandi qoidalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘zbekistonning bu pozitsiyasi tegishli asosga ega ekanligiga amin bo‘lamiz. YA’ni, bu bandda ikki yoki undan ortiq ishtirokchi davlatlarning Konvensiyani sharhlash yoki qo‘llash bilan bog‘liq har qanday kelishmovchiligi munozaralar olib borish yo‘li bilan, yoki arbitraj yo‘li bilan hal etilishi, kelishmovchiliklar bu yo‘sinda o‘z echimini topmagan taqdirda davlatlardan birining Xalqaro Sudga murojaat etishi orqali bir qarorga kelishi mumkinligi belgilangan.

Fikrimizcha, bir necha xalqaro hujjatlar zamirida yuzaga kelgan va uning standartlariga javob bera oladigan Konvensiyaning moddalari yuzasidan bunday kelishmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoldan uzoq va har bir mamlakat Konvensiya talablarini unga qo‘shilishi oldidan ko‘p martalab o‘rganib chiqqan va mazmun hamda talablaridan to‘la xabardor bo‘lgan bo‘ladi.

O‘zbekiston o‘zini ushbu qoida bilan bog‘liq emas deb hi¬soblashining ham huquqiy asosi mavjud. Sababi, Konvensiyaning aynan shu moddasi 3-bandida har qanday ishtirokchi davlat uning 2-bandini o‘ziga taalluqli yoki aksinchaligi haqida bildirishni bayon etish huquqiga ega ekanligi huquqiy mustahkamlangan. Mansab mavqeini suiiste’mol qilish shakllari juda rang-barang bo‘lgani bois, turli mezonlarga ko‘ra korrupsiyaning har xil turlari farqlanadi.

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. sub’ektlarning maqomiga ko‘ra:

a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;

b) xususiy sektordagi korrupsiya;

v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

[1] darajasiga ko‘ra:

a) quyi darajadagi korrupsiya;

b) yuqori darajadagi korrupsiya;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

v) vertikal korrupsiya;

[1] ijtimoiy xavflilik darajasiga koʻra:

a) korrupsiya-qilmish;

b) korrupsiya-jinoyat.

Korrupsiyaning koʻrsatilgan turlarini mufassalroq koʻrib chiqamiz. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan Oʻzbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni oʻzlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim boʻlgan kishilar sodir etadilar. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxoʻrlik, mansab mavqeini suiiste'mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar koʻrishga va, aksincha, amaldorlarning uncha xavfli boʻlmagan va koʻproq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslikka (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovgʻa olish jinoyat hisoblanmaydi) majbur qilayotir.

Nodavlat tashkilotlaridagi yoki xususiy sektordagi korrupsiya hozirgi vaqtda ancha keng tarqalgan. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari uning ustavda belgilangan vazifalariga qat'iy rioya etishi lozim, lekin u, davlat amaldori kabi, oʻziga qarashli boʻlmagan resurslarni oʻz shaxsiy manfaatlarida yoki ikkinchi tomon foydasiga tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid boʻlgan harakatlarni sodir etishi mumkin. Bunga kundalik hayotdan misollar: tijorat banklarida maqsadi pul olish va gʻoyib boʻlishdan iborat boʻlgan loyihalarga pora evaziga kreditlar berilishi; turli mulk shakliga mansub boʻlgan korxonalarda davlat va korxona zarariga moddiy boyliklar (vino-aroq yoki neft-kimyo mahsulotlari va sh.k.)ni pora evaziga arzon narxlarda olish va h.k.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani korrupsiya jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratadilar.

Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1. siyosiy. Mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urugʻchilik munosabatlari tufayliqonunga zid harkat qiladi;

2. jinoyat faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga gʻayoriqonuniy xizmatlar koʻrsatadi;

3) taraflardan biri oʻziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi.Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bogʻlangan boʻlib,mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning ayniqsa koʻp uchraydigan shakllari pora olish va pora berish hisoblanadi. Keyingi oʻrinda saylov huquqini amalga oshirish chogʻida siyosat sub'ektlarini pora evaziga ogʻdirish turadi.

Faoliyat koʻrsatish darajalariga koʻra quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal korrupsiya farqlanadi. Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining oʻrta va quyi darajalarida ayniqsa keng tarqalgan boʻlib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam oʻzaro aloqasi bilan bogʻliq (roʻyxatdan oʻtkazish, jarimalar, litsenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega boʻlgan qarorlar qabul qilish

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

bilan bog‘liq (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga u pora beruvchining korrupsion harakatlariga homiylik qilishi yoki qo‘shimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiiste’mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin: mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi; davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish; o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqeidan foydalanish; mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyasiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish; tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQSHda korrupsiyaning “kikbeking” degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin pora beriladi. Pora olishning mazkur shakli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham qo‘llanilmoqda.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hatto pora so‘rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buning uchun milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan ob’ektiv va sub’ektiv asoslar mavjud. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida sodir etiladi. Korrupsiya o‘ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o‘zgaradi va takomillashib boradi. SHu bois bu hodisa haqida to‘liq, mukammal yoki hech bo‘lmasa reprezentativ ma’lumotlar mavjud emas.

BMT Rivojlanish Dasturining (“UN Development Program”) nazariy tahliliga ko’ra korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o’ynaydi: vakolat yoki xokimiyatga, shaxsiy manfaat va o’zboshimchalik, hisobdorsizlik va oshkorasizlik.

Jahon miqyosida quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni alohida ta’kidlab o’tish lozimdir:

a) BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”;

b) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgorlik to’g’risidagi Konvensiyasi;

v) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to’g’risida”gi Konvensiyasi;

g) Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to’g’risida”gi model qonuni;

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

d) “Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korrupsiyaga qarshi harakat dasturi”;

Umuman olganda, korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o’tish davridagi qiyinchilik;
- ijro etish tizimining yomonlashuvi;
- huquqiy nigilizm;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati
- iqtisodiy aspektlar.

Dunyodagi mamlakatlarda korrupsiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta’sirini xalqaro nodavlat-notijorat “Transparency International” - “Transperensi interneshnl” tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi.

Shuningdek, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 31 oktyabr kungi Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi (2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan bo’lib, mazkur hujjat muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat)ga O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risida”gi 2008 yil 07 iyul kungi O’RQ-158-sonli Qonuni qabul qilindi.

Qonunchilik tahlili korrupsiya bilan bog’liq qilmishlarga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari ko’proq O’zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida o’z ifodasini topgan. Buni quyidagilarda ko’rishimiz mumkin:

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Korrupsiya bilan bog’liq jinoyatlar”ni nazarda tutuvchi quyidagi moddalar:

1. O’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan talon-toroj qilish (167-modda);
2. Soxta tadbirkorlik (179-modda);
3. Soxta bankrotlik (180-modda)%;
4. Bojxona to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzish (182-modda);
5. Soliqlar yoki boshqa majburiy to’lovlarni to’lashdan bo’yin tovlash (184-modda);
6. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (205-modda);
7. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda);
8. Mansab soxtakorligi (209-modda);
9. Pora olish (210-modda);
10. Pora berish (211-modda);
11. Pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda);
12. Tovlamachilik yo’li bilan haq - berishni talab qilish (214-modda);
13. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (243-modda);
14. Kontrabanda (246-modda) mavjud bo’lsada, xalqaro huquqda va amaldagi qonunchiligimizda “Korrupsiya” tushunchasining o’ziga ta’rif berilmagan. Ushbu moddalar korrupsiyaning mohiyatini nafaqat to’laligicha ochib bera olmaydi, balki korrupsion harakatlarga yetarli darajada baho berishga imkon yaratmaydi.

Afsuski amaldagi jinoyat qonunchiligida ko’pgina bugun mavjud bo’lgan korrupsion qilmishlar uchun javobgarlik belgilanmagan. Masalan, ma’lum bir siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun yashirin mablag’lar yig’ish, biror bir yuqori lavozimga ishga o’tish uchun mablag’ yoki boshqa haq to’lashni amalga oshirish, tashkilotlarning aksiyalarini taqsimlashda yoki auksionlar o’tkazishda “tanish-bilishchilik” qilish, ma’lum haq evaziga soliq yoki bojxona

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

to'lovlarida imtiyozlar yaratib berish, manfaatdor mansabdor shaxslar tomonidan o'z ta'sir doirasidagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarni himoyasi ostiga olish shular jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar esa erkin fuqarolik jamiyatini yaratish va inson huquqlarini to'la ta'minlash uchun keng ko'lamli huquqiy islohotlarni talab qiladi. Oxirgi yillarda esa mamlakatimiz rahbari PF-4947-sonli va PF-60sonli farmoni orqali buni yanada mustahkamladi. "Harakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi"larining ikkinchi ustuvor maqsadlarida ham o'z ifodasini topganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu farmonlar ham qonunchilikda zamon talabiga mos qonun loyihalarini qabul qilishga, islohotlarni jadal ravishda amalga oshirishda asos bo'lib hizmat qiladi. Bular esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etishda muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Korrupsiyaga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008 yil, 3-4-son, 19-20-modda.
2. BMTning Xalqaro savdo operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklaratsiyasi. Сборник международных договоров и законодательства Республики Узбекистан в сфере борьбы с коррупцией. –Т.: Центр повышения квалификации юристов, 2013. С.139.
3. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 221-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil, 20-son, 222-modda.

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

MUNDARIJA

01.00.00 FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1 **P-tipli yarimo`tkazgichning sirt holatlar zichligiga harorat va magnit maydonini ta'siri**
Erkaboyev U.I.,Dadamirzayev M.G'…… 3

2 **Радиационная технология полупроводниковых структур на основе полупроводников a_4b_6**
Онаркулов К.Э.,Махмудов Ш.А.,Омонов Б.У…… 11

3 **GaAs/AlgaAs kvant o'rali geterostrukturalarda ikki o'lchovli kombinatsiyalangan holatlar zichligini foton energiyasiga bog'liqligi**
Erkaboev U.I.,Sayidov N.A.,G'ayratov S.I…… 18

4 ***Pvlighthouse* da turli teksturalarning kremniy aossli quyosh elementining optik xususiyatlarig ta'sirini modellashtirish**
Mirzaalimov A.A.,Mirzaalimov N.A…… 24

5 **Skalyar tenzor gravitatsiya nazariyasi yechimlarini statik sferik-simmetrik reissner-nordström metrikasida qo'llash**
Bronnikov K.A.,Badalov Q.A.,Ibadov R.M.,Nishonov I.E.,Rahmatov B.M.,
Saydullayev U.J.…… 31

6 **Inson tana harorati sensorlaridan olingan signallarga raqamli ishlov berish natijalarini vizuallashtirish**
Turakulov A.A.,Mullajanova F.T…… 39

7 **Температурная зависимость осцилляции поперечного магнитосопротивления в объемных узкозонных полупроводниках**
Рахимов Р.Г…… 47

8 **$por-Si/c-Si$ geterostruktura asosidagi quyosh elementlaridagi rekombinatsion tokka geteroo'tish chegarasidagi elektrofizik parametrlar ta'siri**
Babaxodjayev U.S.,Usmanov M.A.,Voxobjonov I.Sh…… 56

9 **Fazo juftligini tau leptonli sistemalarda saqlanmaslik effektlari**
Melibaev M.…… 62

10 **Kondensirlangan muhitlarda yorug'likni suyuqliklarda sochilish intensivligini aniqlash**
Axmedov E.R.,Norqulov S.K…… 67

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

02.00.00 KIMYO FANLARI
ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES

1 **O-fenilendiaminning naftalin 1,5-disulfokislotasi bilan hosil qilgan molekulyar kompleksi sintezi va tadqiqoti**
Ahatov A.A.,To'rayev X.X.,Ashurov J.M.,Tillayev X.R.,Jalilov A.T……………………………… 71

2 **Polimer uchun stabilizator natriy ftalosianin pigmentining sintezi va fizik kimyoviy tahlili.**
Mirzayeva F.Dj.,To'rayev X.X.,Umbarov I.A.,Djalilov A.T.,Fayziev J.B………………….... 78

3 **Оптимиизация методики инструментального нейтронно-активационного анализа (инаа) природных объектов**
Хошимхужаев М.М.,Мамажонов С.Б……………………………………………………. 84

4 **Разработка технологии концентрированных сухих смесей на основе растительного сырья**
Разаков С.С…………………………………………………………………………. 90

5 **Mevalar tarkibida mavjud bo'lgan namlik va nitrat ioni miqdorini aniqlash**
Egamberdiyev A.A.,Ergashev O.K……………………………………………………. 94

6 **Yo'l qurilishda polimer chiqindilaridan foydalanish**
Xo`jaqulov A.F.,Abdunazarov A.A…………………………………………………. 99

7 **Alkilimidazolin asosli sinergetik samarali korroziya ingibitorlari sintezi va xossalari**
Usmanova Y.Sh.,Ro'ziev Sh.F.,Turaev T.B.,Kadirov X.I…………………………………….. 106

03.00.00 BIOLOGIYA FANLARI
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

1 **Yumshoq bug'doyni zararlovchi *fusarium graminearum* schwabe zamonaviy taksonomiyadagi o'rni**
Sherimbetov A.G……………………………………………………………………... 113

2 **Pomidorning turli navlarini tomat mozaikasi virusiga chidamliligini ikkiyoqlama immunodiffuziya usulida aniqlash**
Axmadaliyev B.J.,Abduvaliyev B.A.,Nugmanova K.I.,Qodirova Z.N…………………….… 120

3 **Mirzacho'l sharoitida yetishtirilgan *geranium sanguineum (l)* ni mavsumiy rivojlanish maromi**
G'ofurova O'.Sh.,Maxkamov T.X………………………………………………….. 127

4 **Chinnigul o'simligi tarkibida biologik faol moddalarni ekstraksiya usulida ajaratib olish**
Nishonov O'.R.,Ataxanov Sh.N.,Mamadjonov L.,To'rayeva Z.R……………………………… 132

5 **Эколого-биологическое описание семейства *asteraceae dumort* в условиях кызылкума**
Турсинбаева Г.С.,Ким В.В.,Эгамбердиева Л.Н………………………………………. 137

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

6 **Aftoz stomatitda samarador qizil miya ildizi tarkibiga kiruvchi glitsirrizin kislotaning subhujayraviy ta'siri**
Ergashev N.A.,Komilov E.J.,Yo'ldoshev B.G'.,Kuchkarova L.S.,Kamilov X.P.,
Matchanov A.D.,Asrarov M.I.…… 145
7 ***Chesneya tribuloides* nevskining ko'hitang botanik-geografik rayonida tarqalishi va muhofazasi haqida**
Tajetdinova D.M.,Ibragimov A.J.,Karimov B.Q…… 153
8 **Adrenalinning in vitro sharoitida autooksidlanish metodi bilan preparatlarning antioksidantlik faolligini aniqlash antioksidantlar va ularning organizmga ta'siri**
Ikromov S.A.,Mustafakulov M.A.,Saatov T.S.,Raximov R.N…….. 160
9 **Qarshi vohasi sharoitida *thymus vulgaris* l. (lamiaceae) ning urug' mahsuldorligi**
Nasriddinova M.R…… 167
10 **Изменения кларков концентрации Fe, Al, Si в трудномелиорируемих луговых сазовых почвах**
Юлдашев Г.,Мамажонов И.,Рахимов А.А…… 173
11 **Semizo't konservasini sterilizatsiya tartibi va shartli sterilizatsiya ko'rsatkichlari**
Mo'minov U.O.,Ataxanov Sh.N.,Akramboyev R.A.,Raximov G.L…… 179
12 **Sug'orish ta'sirida sur tusli qo'ng'ir tuproqlar morfologik va agrokimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi**
Isag'aliyev M.T.,Isomiddinov Z.J.,Djurayeva D.E…… 185

09.00.00 FALSAFA FANLARI / ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ / PHILOSOPHICAL SCIENCES

1 **Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion forsaytning o'rni**
Sunnatov N.B…… 192
2 **Некоторые проблемы функционального воздействия политических технологий на социально-экономическое развитие республики узбекистан**
Мадаминов А.А…… 196
3 **Ibn Miskavyh va Beruniy falsafiy qarashlarida evolyutsion g'oyalar**
Sulaymonova Sh.N…… 202
4 **К вопросу о преемственности поколений в философии Алишера Навои**
Меликова М.Н…….. 208
5 **Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligini oldini olishda axloqiy ma'rifatning o'rni**
Abduxolikova N.A…… 213
6 **Insonda komillik fazilatlarini shakllantirishda qadriyatlarning o'rni**
Azimov U…… 217
7 **Futbolning jamiyatdagi fenomenologik xususiyatlari**
Turaqulov A…….. 221

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

8 **O‘smir xulq-atvoridagi salbiy ko‘rinishlarni bartaraf etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari asosidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni**
Sattorov F.F…… 227

9 **Jadidchilik harakatining ijtimoiy muhitga ta’siri va uning falsafiy-tarixiy tahlili**
Abdivohidov S.A…….... 232

10 **Xojamnazar Huvaydo badiiyatidagi tasavvufiy fikrlar tarannumi**
Ankabaeva M.M…… 238

11 **Ijtimoiy davlatning jamiyat muhitidagi falsafiy-axloqiy omillari.**
Qahhorova M.M…… 243

12 **Oilada yoshlar muomala madaniyatini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy imperativlarning o’rni**
Egamberdiyeva N.M…… 249

13 **Yoshlarda altruizmni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili**
Egamberdiyeva A.M……. 255

14 **O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni**
Teshaboev M.M……. 260

15 **Jadidchilik g‘oyalarining davr mafkurasiga ijtimoiy-falsafiy ta’siri.**
Patiyev X.I……..... 266

16 **Buyuk mutafakkirlar F.Nisshe va Rumiyning ruhiy borliq xaqidagi qarashlarining qiyosiy tahlili**
Kabulniyazova G.T……..... 271

17 **Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning ma’naviy –ma’rifiy ahamiyati**
Abdilxamedov A.A…….. 276

18 **Определение и содержание культуры в области экономики**
Набиев М.А……... 281

19 **Философский анализ правового нигилизма у молодежи в современном узбекистане**
Турсунов Л.Э.,Kodirova G…….. 288

20 **Взаимосвязь правовой культуры и правовой активности**
Уринбоев Д.Т…… 295

21 **Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikni oldini olishning ijtimoiy-ma’rifiy va tashkiliy-huquqiy asoslari**
Meliboyev A.N……... 302

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

10.00.00 FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

1 **Gerbert Uelsning utopik asarlarida inson konsepsiyasi**
Atamurodova F.T..... 308

2 **История преподавания иностранных языков в общеобразовательных школах южных регионов Узбекистана**
Кенжабоев Ш.А..... 312

3 **Televideniening janr va til xususiyatlari**
Sobirov A.,Zufarov I..... 316

4 **Sehrli ertaklarda *oltin* sifatlanishining mo''jizaviylikni ifodalashdagi o'rni**
Abdullaeva X.N..... 321

5 **Zamonaviy tilshunoslikda konsept terminini tadqiq etish masalalari**
Maxmudjonova X.A..... 327

6 **Til millat ma'naviyatini va madaniyatining toshoynasi**
Qurbonova F.I..... 332

7 **Ingliz tilida bog'lovchilarning o'rganilishi**
Ataboyeva N.N..... 337

8 **Ingliz va o'zbek tillarida lisoniy gradasiyaning fonologik sathda ishlatilishi**
Mahmudova N.R..... 343

9 **O'zbek tilidagi xitoycha o'zlashmalarning ma'no guruhlari xususida**
Komilova M..... 348

10 **An'anaviy va zamonaviy ocherkning mushtarakligi va o'ziga xosligi**
Nasimova I..... 356

11 **Dunyoni konseptuallashtirishning lingvistik formati**
Karimova Z.O..... 362

12 **Gapning mazmuniy tuzilishi va transformatsiya**
Jumayeva F.U 368

13 **Tilshunoslikda aksiologik bahoning tadqiq etilishi**
Boymatova D.B..... 373

14 **Опыт применения опорных схем и таблиц при обучении русскому языку как иностранному в узбекистане**
Джалалова С.М..... 379

15 **O'zbek tilida derivatsion morfemalar ziddiyatining mo'tadillashuvi**
Nurmanova D.A..... 387

16 ***Лингвистические особенности идиостиля эссе корейского писателя и о рёна***
Ким Т.С.,Азимова Н.А..... 393

17 **OTM talabalarining kasbiy kompetentsiyasini kredit-modul tizimi orqali takomillashtirish konsepsiyasi**
Atayeva N.S..... 399

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

18 **Analysis of nominative sentences and their types in modern paradigms of the linguistic sphere**
Makhmudov M.M..... 403
19 **Retardatsiya badiiy xronotopning ifoda usullaridan biri sifatida**
To‘rayeva B.B..... 408
20 **Improvement of types of speech activities on the basis of a competency-based approach**
Yuldoshova U.B..... 415
21 **Homonyms in artificial intelligence system.**
Abdurakhmanova M.T..... 419
22 **O‘zbek adabiyotshunosligida adabiy avlod masalasining qiyosiy tahlili**
Sabirova Z.Z..... 424
23 **Xilvatiy Namangoniy adabiy manbalari tadqiqi**
Boltaboyeva O.Y..... 429
24 **The depiction of past versus future in the novel by j.k.oates “hazards of time travel”**
Elmanova M.T..... 436
25 **“Xrizantemalar” (“The Chrysanthemums”) hikoyasi poetikasi**
Ganiyeva O.X..... 441
26 **Koreys va o‘zbek tillarida murojaat birliklarining vokativ funksiyasi**
Ashirbayeva D.R..... 449
27 **Ingliz tilidagi turkiy o‘zlashmalarning mavzuiy guruhlarga ko‘ra tasnifi**
Vositov V.A..... 452
28 **Ingliz pyesalarida qo’llanilgan parentez birliklarning struktur-semantik turlari**
Ibragimova G.M..... 458
29 **Изучение языка на коммуникативном уровне (на материале изучения корейского языка в Узбекистане)**
Ким Н..... 463
30 **Nemis va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning tarjima qilinish imkoniyatlari**
Nurullayev X.T..... 468
31 **Ориентальная традиция в произведениях А.Волоса**
Юлдашева О..... 474

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

13.00.00 PEDAGOGIKA FANLARI ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PEDAGOGICAL SCIENCES

1 **Jismoniy madaniyat fakultetlari talabalarida voleybol vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarini shakllantirish**
Umarov O.T..... 477

2 **Bo‘lajak o‘qituvchilarda muzey pedagogikasini rivojlantirish orqali talabalarni turistik faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlari**
Boymirzayev X.K..... 483

3 **Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanish darajasini baholash**
Ochilov R.Q..... 490

4 **Ingliz tili darslarida steam ta’lim texnologiyasidan foydalanish tarixining retrospektiv sharhi**
Ahmadjonova O.A..... 496

5 **Oila mustaxkamligida etnopsixologik munosabatlarning psixologik xususiyatlari**
Jo‘rayev A.Q..... 503

6 **Ba’zi murakkab sonlarning bo‘linish belgilari va mavjud bo‘linish belgilariga yangicha yondashuv**
Erdonov B.X..... 509

7 **Ta’limda IT texnologiyalardan samarali foydalanish aspektlari**
Muradova F.R.,Muradova Z.R..... 513

8 **Basic theories in the development of intercultural communication competence**
Jakbarova N..... 518

9 **Maktab o‘quvchilarini favqulodda vaziyatlarda to’g’ri harakat qilishga tayyorlashning o’ziga xos tomonlari**
Xoldarov A.R..... 523

10 **Yumor va yumorli dialogik nutq tushunchalarining lisoniy xususiyatlari**
Xamraqulova F.M..... 527

11 **Цифровые образовательные технологии в обучении иностранного языка как инновационное направление.**
Алимов Ф.Ш..... 532

12 **Boshlang`ich sinf o`quvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari**
Ergasheva X.M..... 538

13 **Sun’iy intellekt ta’limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning innovatsion vositasi sifatida**
Siddiqov I.M.,Egamnazarova S.X..... 545

14 **Применение AR-технологий в образовании**
Мамаджанова С.В..... 552

15 **Методика преподавания робототехники с использованием платформы tinkercad**
Арипов М.М..... 557

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

16 **Интеграция мобильных приложений в современную систему образования**
Урынбаева А.Б…….. 562
17 **Словообразование: основные проблемы и новые подходы**
Убайдуллаева М.Б……... 567
18 **Физическое воспитание учащихся в средних профессиональных учебных заведениях и популяризация спорта в студенчестве**
Хужомов Б.Х…….. 572
19 **Oliy ta’limni boshqarishning iqtisodiy tashkiliy asoslari**
Nizamova Sh.I…… 576
20 **Lat – tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida**
Djurayeva L.R…… 580
21 **Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiyani rivojlantirishga doir yondashuvlar**
Isroilova X.A……... 590
22 **Роль национальных и религиозных ценностей в процессе формирования идеологического иммунитета молодёжи**
Каримова Н.Я……... 597
23 **“Umumiy topologiya” bo‘limini o‘qitishdagi innovatsiyalar**
Atamuradova D.R…….. 602
24 **Neyropedagogik yondashuv asosida o’quvchilar intellektini rivojlantirishning nazariy metodologik aspektlari**
Ataxanova D.A…….. 608
25 **Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning mavjud holati**
G‘ulomova M.R…….. 613
26 **Umumta’lim maktablari fizika darslarida vodorod energetikasiga oid bilimlarni shakllantirish**
Xaliyarov J.X…….. 618
27 **Boshlang’ich sinf o’quvchilarining aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini shakllantirishda ilg’or xorijiy tajribalar**
Raupova S.A……... 624
28 **Tilshunoslikda denotatsiya va konnotatsiya tadqiqoti tarixiga nazar**
Mirzaabdullayeva M.X…… 627
29 **Talabalar mustaqil ta'limini bajarishda raqamli ta'lim resurslaridan faodalanish samaradorligini oshiruvchi omillar**
Raximov X…… 633
30 **SWOT- анализ управления качеством среднего образования**
Ахмедов М.У…… 640
31 **Современные методы менеджмента и маркетинга в образовании: динамика и перспективы.**
Маманазарова Н.К…….. 646
32 **Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modeli**
Xakimova D.M……... 653

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

33 **Muhandis-quruvchilarda dizayn fikrlash tushunchasi va uning asosiy tamoyillari, g‘oyalari va texnikalari**
Mardov S..... 660
34 **Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik tavsifi**
G‘affarova D.V..... 666
35 **Analog va raqamli sxematexnika fanini raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitish metodikasi**
Imamnazarov E.D..... 670
36 **Musulmon diniy falsafasida tasavvufiy g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari**
Mirzayev A.A..... 678
37 **Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy -tarbiya o‘qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**
Ibragimov M.A..... 685
38 **Harbiy madaniyat kompetentsiyalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari**
Qaxxarov S.X..... 692
39 **Организационно-педагогические принципы профессиональной подготовки будущих специалистов физической культуры**
Болтабоев Х.Х..... 697
40 **Речевая компетенция в контексте личностно-профессиональных компетенций учащихся**
Жураева М.А..... 705
41 **Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish tendensiyalari**
Qodirova X.N..... 709
42 **Shaxsda empatiyani shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ta`siri**
Ibragimova Sh.G..... 717
43 **O‘smir shaxsida agressiv xulq-atvorni shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari**
Saliyeva D.A..... 725
44 **Virtual madaniyatning milliy madaniyatga ta’siri va tahdidi.**
Ahmedova Z.S..... 731
45 **“Informatika va axborot texnologiyalari” fani ta’limida uzviylik hamda uzluksizlikni ta’minlashning texnologik xususiyatlari.**
Marasulova Z.A..... 736
46 **Maktabgacha yoshdagilarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda jismoniy rivojlanishini o‘ziga xosligi**
Maxkamov A.Y..... 742
47 **Bola tarbiyasi bilan bog‘liq sotsiologik tahlillar**
Eshchanova G.N..... 745
48 **Qoradaryo vodiysi o‘simliklari.**
Muminova R.N.,Mahkamov G’.M..... 749

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

49 **Orol dengizi fojeasining globallashuvi**
Raximova G.S..... 752

50 **Korxona boshqaruv tizimi samaradorligini baholashning zamonaviy usullari**
Yusupov N.I..... 757

51 **Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda muammolar tahlili va samarali strategik yondashuvlardan foydalanish**
Subhonova A.A..... 762

52 **Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologik ta’limda elementar geometrik yasashlardan foydalanish metodikasi**
Madraximov Sh.Sh.,Madraximova M.A..... 768

53 **Chingiz aytmatov ijodida manqurtlik illati tahlili va uning ma’rifiy ahamiyatining ifodalanishi**
Akbarov O.E..... 773

54 **O‘zlashtirishi past bo‘lgan o’quvchilar bilan ishlashning innovatsion texnologiyasi. (5-6 sinflar misolida)**
Islomov R.T..... 783

55 **Tasviriy san’at ta’limida pedagogik texnologiya**
Ibrohimova I.T.,Doliyev O.B..... 787

56 **Oliy ta’lim talabalari orasida volontyorlikning mikro darajadagi omillariga e’tibor qaratish**
Xushnazarova M.N..... 792

57 **Изучение основы специальной теории относительности в учебном процессе в общеобразовательных школах**
Якубова Ш.К.,Дехконова О.К..... 796

58 **Algoritmik tafakkur va uni kichik yoshdan shakllantirishning axamiyati (adabiyotlar taxlili asosida)**
Ikromova M.N..... 804

59 **Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining axborotlar kompetentligini rivojlantirish metodikasi**
Mirkasimova M.B..... 809

60 **Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashning hozirgi holati**
Ochilov A.Sh.,Xo’razov N.O.,Xusanova M..... 813

61 **Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikning pedagogik yondashuvlari**
Esonqulova D..... 818

62 **Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi kompetensiyasining o‘ziga xos xususiyatlari**
Toshpo’latova Sh.,Ibragimova Z.,Zokirova Sh..... 822

63 **Problems and difficulties of students in learning vocabulary.**
Jamilova Sh.F..... 827

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

64 **O‘zbek tili darslarida talabalarning yozma nutqini rivojlantirishning interfaol metodlari**
Usmanova O.Y..... 831
65 **Pedagogik atamalar shakllanishning tarixiy taraqqiyoti va amaliyotda qo’llanilish holati**
Odilova M.R..... 836
66 **Bo’lajak musiqa o’qituvchilarini shakllanishida kasbiy kompetenisiyalrning ahamiyati**
Hamrayeva U.Sh..... 841
67 **Musiqa darslari millatlararo totuvlik g’oyalarini shakllantirishning vositasi sifatida.**
Boltayev B.R..... 847
68 **Talabalarni cholg’u ijrochilgi orqali estetik tafakkurini rivojlantirish pedagogik xususiyatlari.**
Samatova D.S..... 853
69 **Bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarida vokal ijrochiligi ko’nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari.**
Murodov M.B..... 859
70 **“Musiqa o’qitishda innovatsion texnologiyalar” fanini takomillashtirish talabalar kasbiy kompitentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.**
Davronova G.M..... 863
71 **Bo’lajak musiqa ta’limi o’qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlashning nazariy asoslari**
Djalilov E.K..... 869
72 **Abul Hasan Movardiyning adolat va sofdillik borasidagi ahloqiy g‘oyalari**
Egamberganova D.D..... 874
73 **Kasbga uzluksiz yo‘naltirishni tashkil etish usullari**
Sh.T. Ergashev 878
74 **К некоторым вопросам изучения уровня научно-технического прогресса.**
Мамарасулова М.У..... 884
75 **Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida tafakkur qilish kompetentligini rivojlantirish me’zonlari**
Xabibullayev U..... 888
76 **Maktabgacha ta’lim muassasalari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini tarkib toptirish**
Eshnazarova G.J..... 893
77 **Unsurul-Maoliy Kaykovusning Qobusnoma asarida kasb hunarga oid fikrlarning ifodalanishi**
Rahimova Sh.A..... 898
78 **Raqamlashtirish sharoitida boshlang’ich sinflarda“axborot texnologiya”lar fanini o’qitish metodikasi**
Ergashev J.A..... 902
79 **Boshlang‘ich ta’limda she’riy asarlar ustida ishlash metodikasiga innovatsion yondashuv**
Ollaberganova S.X..... 907

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427

80 **Possibilities of virtual reality technology in primary education**
Mamadjanova N.A…… 911
81 **Donishmandlarning salomatlik va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi fikrlari**
Ismoilov T.,Ismoilov G‘.,Hudoyberdiyeva S.,Tuxtaboyeva B…….... 916
82 **Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy asoslar va BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasining mazmun va mohiyati**
Bannayev N.T .. …… 920

www.journal.namdu.uz
ISSN: 2181-0427